O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

“JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI INTEGRATIV YONDASHUVLAR”

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani
materiallari (2026 yil 17-iyun)

Материалы республиканской научно-практической конференции
на тему

«ИНТЕГРАТИВНЫЕ ПОДХОДЫ К ПРОТИВОДЕЙСТВИЮ НАРКОМАНИИ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ»

(17– июн 2026 года)

Materials of the republican scientific and practical conference on the topic

“INTEGRATIVE APPROACHES TO COMBATING DRUG ADDICTION IN ENSURING PUBLIC SAFETY”

(17 June 2026)



Urganch – 2026
“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti

UO‘K 351.74:343.57(575.1)(063)
KBK 67.401.133ya431
Jamoat xavfsizligini ta’minlashda giyohvandlikka qarshi integrativ yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari [Matn]: Urganch: **“BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti,** , 2026.- 784 b.

Ushbu ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamida respublikamiz olimlari, soha mutaxassislari, amaliyotchi psixologlar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrlar va talabalarning uzluksiz ta’lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish, psixologik xizmat yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy tajribalar, olib borilgan tadqiqotlar natijalari, psixologik xizmatni takomillashtirish bo‘yicha takliflar hamda tavsiyalar aks etgan tezislari va maqolalari o‘rin olgan

Tahrir hay’ati:

Djumaniyazova M.X. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, prof. Psixologiya fanlari doktori DsC, dotsent*
Bekchanov X.K. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD*
Sultanova M.R. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Raximova E.R. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Salayeva N. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.n*
Saidmuratova M.B. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Jumaniyazov Y.Sh. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Iskandarov E.G‘. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Kurbaniyazoav R.Y. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD*
Solayev O.I. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi*

Taqrizchilar:

Iskandarov J.S. *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.n*
O.Otajanov- *Abu Rayhon Beruniy Nomidagi Urganch davlat univesitetining Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, p.f.n*

2026-yilda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni davlat dasturi doirasida

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi faktik, stilistik va imloviy xatolar uchun mualliflarning o‘zlari ma’suldirlar

© Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, 2026
© “BUKHARA HAMD PRINT” nashriyoti,, 2026

ISBN: 978-6206-802-49-5

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI ISHTIROKCHILARIGA REKTORNING KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Muhtaram olimlar, soha mutaxassislari, hamkor tashkilotlar vakillari, professor-o‘qituvchilar va aziz talabalar!

Bugun mamlakatimiz taraqqiyoti, jamiyatimiz barqarorligi hamda yosh avlod kelajagi uchun nihoyatda muhim bo‘lgan — “Jamoat xavfsizligini ta’minlashda giyohvandlikka qarshi integrativ yondashuvlar” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida sizlar bilan uchrashib turganimdan mamnunman.

Bugungi globallashuv jarayonida giyohvandlik muammosi nafaqat alohida shaxs salomatligiga, balki oila mustahkamligi, jamiyat barqarorligi, milliy xavfsizlik va inson kapitali rivojiga tahdid soluvchi murakkab ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur illatga qarshi kurashish faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi emas, balki ta’lim, tibbiyot, psixologiya, mahalla instituti, fuqarolik jamiyati va keng jamoatchilikning hamkorlikdagi tizimli faoliyatini talab etadi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda yoshlarni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ularni zararli odatlar va turli salbiy ta’sirlardan himoya qilish, jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, xavfsiz ijtimoiy muhitni shakllantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, “inson qadri uchun” tamoyili asosida olib borilayotgan siyosat yosh avlodning jismoniy, intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi anjumanning asosiy ahamiyati shundaki, unda giyohvandlikka qarshi kurash masalasi bir tomonlama emas, balki integrativ yondashuv asosida — huquqiy, pedagogik, psixologik, tibbiy-profilaktik va ijtimoiy mexanizmlar uyg‘unligida tahlil qilinmoqda. Chunki zamonaviy xavf-xatarlarning oldini olishda faqat jazolash choralarining o‘zi yetarli emas. Eng avvalo, yoshlar ongida mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish, sog‘lom dunyoqarashni rivojlantirish, ijtimoiy-psixologik immunitetni kuchaytirish va profilaktik ta’sir mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

Universitetimiz ham bu borada ilm-fan, ta’lim va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish, ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish yo‘nalishida tizimli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Bugungi anjuman esa olimlar, amaliyotchi mutaxassislar hamda yosh tadqiqotchilar o‘rtasida tajriba almashish, innovatsion taklif va ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish uchun muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, bugungi ilmiy-amaliy muhokamalar natijasida giyohvandlikning oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash, yoshlar orasida sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirish bo‘yicha dolzarb ilmiy xulosalar, amaliy tavsiyalar hamda yangi hamkorlik tashabbuslari ishlab chiqiladi.

Fursatdan foydalanib, anjumanni tashkil etishda ishtirok etgan barcha hamkor tashkilotlarga, olim va mutaxassislarga, professor-o‘qituvchilar hamda tadqiqotchilarga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Barchangizga mustahkam sog‘lik, ilmiy-ijodiy izlanishlaringizda muvaffaqiyat, bugungi anjuman ishiga esa samarali va sermazmun faoliyat tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat!

Hurmat bilan, Madraximova Feruza Ro‘zimboyevna - Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU rektori, pedagogika fanlari doktori (DSc) professor;

AXBOROT XURUJLARI VA ULARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI: PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLAR, HIMOYA MEXANIZMLARI

Djumaniyazova Muxayya Xusinovna-
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi mudiri,
ps.f.d.(DSc), prof.v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot xurujlarining yoshlar ongiga ta'siri, ularning psixologik, ijtimoiy va ma'naviy oqibatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Bugungi axborot jamiyatida internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari va raqamli kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi insoniyat uchun keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, yosh avlod ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborot tahdidlarining ham kuchayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, shaxsiy dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi, tanqidiy fikrlash qobiliyati hali shakllanish jarayonida bo'lgan yoshlar turli manipulyativ axborot oqimlari ta'siriga nisbatan sezgir ijtimoiy guruh sifatida namoyon bo'ladi.

Maqolada axborot xurujlarining mohiyati, ularning psixologik mexanizmlari, yoshlarning kognitiv jarayonlari, emotsional holati, ijtimoiy xulq-atvori va milliy-ma'naviy qadriyatlarga munosabatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, axborot manipulyatsiyasi, yolg'on axborot (dezinformatsiya), virtual qaramlik, ommaviy ongni boshqarish texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlardagi psixologik ta'sir usullari ilmiy manbalar asosida tahlil etilgan.

Maqolada yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilishda media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, psixologik barqarorlik, axborotni saralash madaniyati va ta'lim-tarbiya tizimining ahamiyati asoslab berilgan. Yoshlarning axborot immunitetini rivojlantirish jamiyatning ma'naviy xavfsizligi va barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: axborot xuruji, yoshlar psixologiyasi, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, manipulyatsiya, dezinformatsiya, raqamli madaniyat, ijtimoiy tarmoqlar, psixologik immunitet, ma'naviy xavfsizlik, virtual muhit.

Kirish. XXI asr insoniyat taraqqiyotida axborot va raqamli texnologiyalar davri sifatida tavsiflanmoqda. Bugungi kunda axborot nafaqat bilim olish yoki muloqot vositasi, balki ijtimoiy ongni shakllantirish, inson qarashlariga ta'sir ko'rsatish, jamiyatdagi jarayonlarni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan strategik resursga aylandi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida insoniyat tarixida kuzatilmagan darajada keng axborot almashinuvi yuzaga keldi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali dunyoning istalgan nuqtasidagi ma'lumot bir necha soniyalar ichida millionlab insonlarga yetib bormoqda. Bunday jarayon, bir tomondan, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va innovatsion rivojlanish uchun ulkan imkoniyatlarni yaratgan bo'lsa, boshqa tomondan, noto'g'ri, zararli va manipulyativ axborotlarning ham keng tarqalishiga sharoit yaratmoqda.

Ayniqsa, yoshlar qatlamining virtual makonda faol ishtirok etishi axborot xavfsizligi masalasini dolzarb ilmiy muammoga aylantirmoqda. Chunki yoshlik davri inson shaxsining intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy pozitsiyasi, hayotiy maqsadlari shakllanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan yoshlar yangilikka intiluvchanligi, mustaqil fikrini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji, ijtimoiy guruhlarga mansublik hissining kuchliligi sababli tashqi axborot ta'sirlariga nisbatan sezuvchan bo'lishi mumkin. Shu sababli axborot xurujlari aynan yoshlar ongini nishonga olishi tasodifiy emas.

Axborot xuruji deganda shaxs yoki jamiyat ongiga maqsadli ravishda ta'sir o'tkazish, mavjud qarashlar, qadriyatlar va xatti-harakatlarni o'zgartirishga qaratilgan axborot-psixologik ta'sir jarayoni tushuniladi. Bunday xurujlar ochiq yoki yashirin shaklda amalga oshirilib, ko'pincha inson ongida shubha, ishonchsizlik, qadriyatlar inqirozi yoki noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda axborot xurujlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lmoqda:

— yolg'on yoki buzib talqin qilingan axborotlarni tarqatish;

— manipulyativ kontent orqali ongga ta’sir ko‘rsatish;
— yoshlarning qadriyatlar tizimini o‘zgartirishga qaratilgan targ‘ibot;
— virtual muhit orqali salbiy xulq-atvor namunalarini ommalashtirish;
— ijtimoiy tarmoqlarda psixologik bosim mexanizmlaridan foydalanish.

Mazkur holatlar yoshlarning nafaqat axborot iste’moli madaniyatiga, balki ularning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Axborot xurujlari va ularning inson ongiga ta’siri masalasi bugungi zamonaviy psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammo ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan.

Axborot jamiyati nazariyasining asoschilaridan biri D. Bell zamonaviy jamiyat taraqqiyotida axborot va bilim asosiy strategik kuchga aylanishini ta’kidlagan. Uning fikricha, axborot oqimlarini boshqarish jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biridir.

M. Kastels tomonidan ishlab chiqilgan “tarmoq jamiyati” konsepsiyasida esa internet texnologiyalari insonlarning ijtimoiy munosabatlari, tafakkur tarzi va kommunikatsiya shakllarini tubdan o‘zgartirayotgani asoslab berilgan. Olimning fikriga ko‘ra, zamonaviy inson nafaqat real ijtimoiy muhitda, balki virtual kommunikativ maydonda ham o‘z shaxsiy identifikatsiyasini shakllantiradi.

Psixologik yondashuvlarda axborot ta’siri insonning kognitiv jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi. Kognitiv psixologiya vakillari inson qabul qilayotgan axborot uning idrok etishi, xotirasi, qaror qabul qilish jarayoni va xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson ko‘plab xulq-atvor namunalarini kuzatish va taqlid qilish orqali o‘zlashtiradi. Ushbu nazariya bugungi ijtimoiy tarmoqlar ta’sirini tushuntirishda ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlar virtual muhitda kuzatayotgan obrazlar, hayot tarzi modellari va munosabat shakllari ularning shaxsiy qarashlari hamda xulq-atvoriga ta’sir qilishi mumkin.

Axborot xurujlari muammosini o‘rganishda psixologik manipulyatsiya nazariyalari alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Manipulyatsiya - bu shaxs ongiga yashirin tarzda ta’sir o‘tkazish orqali uning qarashlari, munosabati yoki xatti-harakatlarini muayyan yo‘nalishda o‘zgartirish jarayonidir. Psixologik tadqiqotlarda insonning emotsional holati, ehtiyojlari, qo‘rquvlari va ijtimoiy kutishlari manipulyativ ta’sir uchun asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Amerikalik psixolog R. Chaldini ijtimoiy ta’sir mexanizmlarini tadqiq qilib, inson qaror qabul qilish jarayonida tashqi ijtimoiy signallar, obro‘li manbalar, guruh bosimi va emotsional ta’sirlarga moyil bo‘lishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, axborot ta’sirining samaradorligi ko‘pincha insonning axborotni chuqur tahlil qilmasdan qabul qilishi bilan bog‘liq.

Bugungi raqamli muhitda aynan shu psixologik mexanizmlardan foydalanish orqali turli axborot xurujlari amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda qisqa, kuchli emotsional mazmunga ega bo‘lgan xabarlar foydalanuvchilar diqqatini tez jalb qiladi. Natijada inson ko‘pincha axborotning haqiqiyligini tekshirishdan oldin unga hissiy munosabat bildiradi.

Shuningdek, G. Lassuellning kommunikatsiya modeli ham axborot ta’sirini tushuntirishda muhim nazariy asoslardan biri hisoblanadi. U kommunikatsiya jarayonini “kim, nimani, qaysi kanal orqali, kimga va qanday natija bilan yetkazmoqda?” degan savollar orqali tahlil qilish zarurligini ta’kidlagan. Mazkur yondashuv bugungi axborot xurujlarini o‘rganishda ham dolzarbdir, chunki har qanday axborot oqimi ortida muayyan maqsad, manfaat yoki ta’sir strategiyasi mavjud bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy tadqiqotchilar yoshlarning axborot xurujlariga beriluvchanligini ularning yosh davri psixologik xususiyatlari bilan izohlaydi. O‘smirlik va yoshlik davrida shaxsda o‘zligini anglash, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy mavqe topish va o‘z qarashlarini shakllantirish ehtiyoji kuchayadi. Shu sababli ular yangi g‘oyalar, yangi axborotlar va turli ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan ochiq bo‘ladilar.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, inson tafakkuri va shaxsiy rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida shakllanadi. Zamonaviy sharoitda esa bu muhit faqat oila, maktab yoki jamiyat bilan chegaralanmaydi, balki internet va virtual kommunikatsiya maydonini ham o‘z ichiga oladi.

Muhokama. Demak, yoshlarning raqamli makonda qanday axborot bilan muloqot qilishi, qanday kontent iste’mol qilishi va qanday virtual guruhlar ta’sirida bo‘lishi ularning dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Axborot xurujlarining yoshlar ongiga ta’siri murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u bir necha asosiy mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlarni o‘rganish yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

1. Kognitiv ta’sir mexanizmi. Kognitiv ta’sir insonning fikrlash jarayoni, bilimlari, tasavvurlari va dunyoni anglash tizimiga yo‘naltirilgan ta’sirdir. Axborot xurujlari avvalo insonning voqelik haqidagi tasavvurlarini o‘zgartirishga harakat qiladi.

Doimiy ravishda takrorlanadigan axborot inson ongida “haqiqat effekti”ni yuzaga keltirishi mumkin. Ya’ni biror fikr yoki g‘oya ko‘p marta eshitilganda, inson uni tanish va ishonchli deb qabul qilish ehtimoli ortadi. Bu psixologiyada takrorlash ta’siri sifatida izohlanadi.

Yoshlar orasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan hollarda ular quyidagi holatlarga duch kelishi mumkin: axborot manbasini tekshirmaslik; shaxsiy fikr va faktlarni farqlamaslik; ommaviy qarashlarni avtomatik qabul qilish; hissiyot asosida xulosa chiqarish. Natijada yoshlarning mustaqil tahlil qilish qobiliyati susayishi, tayyor fikrlarni qabul qilishga moyilligi kuchayishi mumkin.

2. Emotsional ta’sir mexanizmi. Axborot xurujlarining eng kuchli vositalaridan biri inson hissiyotlariga ta’sir qilishdir. Chunki hissiyotlar inson qaror qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qo‘rquv, xavotir, g‘azab yoki haddan tashqari qiziqish uyg‘otuvchi axborot inson xotirasida tezroq saqlanib qoladi. Shu sababli manipulyativ axborotlar ko‘pincha kuchli emotsional usullardan foydalanadi. Masalan: keskin sarlavhalar; hissiyot uyg‘otuvchi tasvirlar; bahsli mavzular; shoshilinch munosabat bildirishga undovchi xabarlar. Bunday axborotlar yoshlarning ruhiy holatiga ta’sir qilib, xavotir, ishonchsizlik yoki ijtimoiy norozilik kayfiyatlarini kuchaytirishi mumkin.

3. Ijtimoiy ta’sir mexanizmi. Inson ijtimoiy mavjudot bo‘lib, uning qarashlari va xatti-harakatlari ko‘p hollarda atrofdagi guruhlar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Yoshlar ayniqsa tengdoshlar fikri, guruhga mansublik hissi va ijtimoiy qabul qilinish ehtiyojiga katta ahamiyat beradilar.

Ijtimoiy tarmoqlarda “ommaviylik effekti” orqali ayrim fikrlar keng tarqalishi mumkin. Ko‘pchilik tomonidan qo‘llab-quvvatlangan axborot yoshlar tomonidan ishonchliroq deb qabul qilinadi. Bu jarayonda: virtual guruhlar; internetdagi mashhur shaxslar; trend va ommaviy oqimlar; yoshlarning qadriyatlari va hayotiy qarashlariga ta’sir etuvchi omillarga aylanishi mumkin.

Axborot xurujlari uzoq muddat davomida ta’sir qilganda yoshlarning shaxsiy rivojlanishida quyidagi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin:

1. Qadriyatlar tizimining o‘zgarishi. Yosh inson o‘z milliy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlariga nisbatan befarq munosabat shakllantirishi mumkin.

2. Tanqidiy tafakkurning pasayishi. Axborotni mustaqil baholash o‘rniga tayyor qarashlarni qabul qilish odati yuzaga keladi.

3. Virtual qaramlik kuchayishi. Real ijtimoiy munosabatlar o‘rnini virtual aloqa egallashi mumkin.

4. Shaxsiy identifikatsiya muammolari. Yoshlar o‘zligini anglash jarayonida turli qarama-qarshi ta’sirlar ostida qolishi mumkin. Shuning uchun zamonaviy jamiyatda yoshlarni axborotdan cheklash emas, balki ularda axborotni to‘g‘ri tanlash, baholash va undan ongli foydalanish madaniyatini shakllantirish eng samarali yo‘l hisoblanadi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, axborot xavfsizligi masalasi faqat texnologik himoya yoki internetdan foydalanishni tartibga solish bilangina chegaralanmaydi. Eng muhim vazifa - inson ongida, ayniqsa yosh avlod tafakkurida mustahkam axborot immunitetini shakllantirishdir. Chunki har qanday texnik nazorat vositasi vaqtinchalik bo‘lishi mumkin, biroq tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega, mustaqil tahlil qila oladigan shaxs zararli axborot ta’sirlariga nisbatan barqaror bo‘ladi.

Axborot xurujlariga qarshi kurashda asosiy masala yoshlarning shaxsiy psixologik barqarorligini rivojlantirish hisoblanadi. Psixologik barqarorlik shaxsning tashqi ta’sirlarni mustaqil baholash, stressli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish va o‘z qadriyatlarini saqlab qolish qobiliyatidir.

Yoshlarning axborot xurujlariga moyilligi quyidagi omillar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin: hayotiy tajribaning yetarli emasligi; tanqidiy tahlil ko‘nikmalarining to‘liq shakllanmagani; emotsional ta’sirlarga tez berilish; ijtimoiy tasdiqlanish ehtiyojining yuqoriligi; virtual muhitdagi ta’sirlarning kuchayishi.

Mazkur omillar yoshlarni axborot manipulyatsiyasidan himoya qilishda kompleks psixologik-pedagogik yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Axborot immuniteti - bu shaxsning turli axborot oqimlari orasidan foydali va zararli ma’lumotlarni farqlash, axborotning ishonchliligini baholash hamda tashqi manipulyativ ta’sirlarga nisbatan ongli munosabat bildirish qobiliyatidir.

Axborot immunitetining shakllanishi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

1. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish. Tanqidiy tafakkur yoshlarning axborotni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol tahlil qiluvchi subyekt sifatida shakllanishiga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashga ega yoshlar: axborot manbasini tekshiradi; dalil va shaxsiy fikrni ajrata oladi; turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi; mantiqiy xulosa chiqaradi.

Tanqidiy fikrlash rivojlangan yosh inson internetdagi har qanday xabarni mutlaq haqiqat sifatida qabul qilmaydi, balki uning mazmuni, maqsadi va manbasini baholashga harakat qiladi.

2. Media savodxonlikni shakllantirish. Media savodxonlik zamonaviy yoshlar uchun asosiy kompetensiyalardan biridir. Chunki bugungi sharoitda bilim olish, muloqot qilish va ijtimoiy faoliyatning katta qismi raqamli maydonda amalga oshirilmoqda.

Media savodxon yosh: axborot manbalarini tahlil qiladi; internet algoritmlarining ta’sirini tushunadi; noto‘g‘ri axborotni aniqlashga harakat qiladi; raqamli madaniyat qoidalariga rioya qiladi.

Media savodxonlik faqat texnologiyadan foydalanish qobiliyati emas, balki axborotni ongli idrok qilish madaniyatidir. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchiga uning avvalgi qiziqishlari asosida ma’lumotlar tavsiya etiladi. Natijada inson faqat o‘z qarashlariga mos axborotlarni ko‘rib, boshqa fikrlarni qabul qilmasligi mumkin. Bu holat “axborot pufagi” (filter bubble) deb ataladi. Shu sababli yoshlarda turli manbalarni solishtirish va keng dunyoqarashni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

3. Milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan tarbiya. Axborot xurujlaridan himoya qilishda yoshlarning mustahkam qadriyatlar tizimiga ega bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Chunki qadriyatlar inson uchun ichki mezon vazifasini bajaradi.

Ma’naviy yetuk shaxs: tashqi ta’sirlarni ongli baholaydi; o‘z hayotiy pozitsiyasiga ega bo‘ladi; jamiyat oldidagi mas’uliyatini his qiladi.

Yoshlarning milliy o‘zligini anglashi, tarixiy xotira, madaniy meros va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishi ularning psixologik barqarorligini oshiradi. Biroq bu jarayon yoshlarni boshqa madaniyatlardan ajratish degani emas. Aksincha, global dunyoda o‘z qadriyatlarini anglagan holda ochiq fikrlash va sog‘lom muloqot olib borish qobiliyatini shakllantirish zarur.

Xulosa. Axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot xurujlari yosh avlod tarbiyasi va shaxsiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biriga aylandi. Bugungi kunda axborot faqat bilim manbai emas, balki inson qarashlari, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiruvchi kuchli vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish ularni internetdan uzoqlashtirish yoki axborot oqimini cheklash orqali emas, balki ongli axborot iste'molchisi sifatida tarbiyalash orqali amalga oshirilishi zarur.

Buning uchun ta'lim, oila va jamiyat hamkorligida yoshlarning: tanqidiy tafakkuri; media savodxonligi; ma'naviy qadriyatlari; psixologik barqarorligi; mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati izchil rivojlantirilishi lozim.

Taklif va tavsiyalar.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta'lim muassasalarida media savodxonlik va axborot xavfsizligi bo'yicha maxsus mashg'ulotlarni kuchaytirish.
2. Yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
3. Ota-onalar uchun farzandlarning raqamli muhitdagi faoliyatini tushunishga qaratilgan psixologik seminarlar tashkil etish.
4. Yoshlarning ijtimoiy faolligi va ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali ularni foydali axborot yaratishga jalb qilish.
5. Internetdan foydalanish madaniyatini yoshlarning umumiy shaxsiy kompetensiyasi sifatida rivojlantirish.

Demak, axborot xurujlariga qarshi eng kuchli himoya - bu bilimli, tafakkuri rivojlangan, o'z qadriyatlariga ega va zamonaviy dunyo bilan ongli muloqot qila oladigan yosh avlodni tarbiyalashdir. Zero, bunday yoshlar jamiyatning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy kuch hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алиферова Л. И. Замонавий ёшларнинг ахборот маданияти // Психология журнал. 2006. №. 5. 327-336 бетлар.
2. Бабаева Ю.Д., Войскунский А.Е., Смыслова О.В. Интернет: воздействие на личность. // Гуманитарные исследования в Интернете. - М., Можайск-Терра, 2000. - С. 11-40.
3. Белинская Е.П. Психологические аспекты трансформации личности в виртуальном пространстве. // Психологические перспективы. - Луцк: РВВ Волынского национального университета "Вежа», 2010. - С. 34-40.
4. Бенедиктова А.В. Исследование интернет-аддикции и ее социально-психологической значимости в студенческих группах. // Психологическая наука и образование. - 2007. - № 5. - С. 228-236.
5. Боярова К.В. Кибер-аддикция: еще один вид зависимости. // Вестник Харьковского Национального Университета. - Харьков: Психология, 2006. - С. 41-46.
6. Егоров А.Ю. Информационная психология. Санкт-Петербург: Речь. 2023. – 312 с.
7. Журенков К.Е. Психология массовой информации. Москва: Инфра-М. 2008. – 288 с.

TRANSMILLIY NARKOTAHDIDLAR SHAROITIDA YOSHLAR PSIXOLOGIK IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Rustamov Shavkat Shuxratovich *– Buxoro davlat universiteti, psixologiya kafedrasi mudiri, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

Annotatsiya: Mazkur maqolada transmilliy narkotahdidlarning jamoat salomatligi, ijtimoiy xavfsizlik va yoshlar psixologiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Unda narkotik vositalarning noqonuniy aylanmasi faqat jinoyatchilik muammosi emas, balki shaxsning ruhiy barqarorligi, oilaviy muhit, ta'lim-tarbiya tizimi, internet xavfsizligi va ijtimoiy immunitet bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-

psixologik hodisa sifatida yoritiladi. Shuningdek, maqolada global va milliy statistik ko‘rsatkichlar asosida giyohvandlikning oldini olishda psixologik profilaktika, erta diagnostika, yoshlar bilan trening ishlari, oilaviy maslahat, raqamli xavfsizlik va reabilitatsiya tizimini kuchaytirish bo‘yicha aniq strategiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: transmilliy narkotahdid, giyohvandlik, jamoat salomatligi, xavfsizlik, psixologik profilaktika, yoshlar, raqamli xavfsizlik, ijtimoiy immunitet, reabilitatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние транснациональных наркоугроз на общественное здоровье, социальную безопасность и психологию молодежи. В ней незаконный оборот наркотических средств освещается не только как проблема преступности, но и как сложное социально-психологическое явление, связанное с психической стабильностью личности, семейной средой, системой образования и воспитания, интернет-безопасностью и социальным иммунитетом. В статье также предлагаются конкретные стратегии по усилению системы психологической профилактики, ранней диагностики, тренинговой работы с молодежью, семейного консультирования, цифровой безопасности и реабилитации в профилактике наркомании на основе глобальных и национальных статистических показателей.

Ключевые слова: транснациональная наркоугроза, наркомания, общественное здоровье, безопасность, психологическая профилактика, молодежь, цифровая безопасность, социальный иммунитет, реабилитация.

Abstract: This article analyzes the impact of transnational drug threats on public health, social security, and youth psychology. It highlights the illicit trafficking of narcotic drugs not only as a problem of crime but also as a complex socio-psychological phenomenon related to the mental stability of the individual, the family environment, the education system, internet security, and social immunity. The article also proposes specific strategies for strengthening psychological prevention, early diagnosis, youth training, family counseling, digital security, and rehabilitation systems in drug addiction prevention based on global and national statistical indicators.

Keywords: transnational drug threat, drug addiction, public health, safety, psychological prevention, youth, digital security, social immunity, rehabilitation.

Kirish: XXI asrda narkotahdidlar o‘z mazmuni va shakliga ko‘ra keskin murakkablashdi. Ilgari narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi asosan chegaralar, yashirin savdo yo‘llari va jinoiy guruhlar faoliyati bilan bog‘langan bo‘lsa, bugungi kunda bu muammo raqamli texnologiyalar, internet-do‘konlar, kriptoto‘lovlar, sintetik narkotiklar, psixotrop dori vositalari va yoshlar ongiga ta’sir qiluvchi manipulyativ axborot oqimlari bilan uyg‘unlashib bormoqda. Shu sababli transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashda faqat huquqiy choralar emas, balki jamoat salomatligi, psixologik profilaktika va ijtimoiy xavfsizlikni birlashtirgan kompleks yondashuv zarur.

UNODCning 2025-yilgi Jahon narkotiklar hisobotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘yicha 316 million kishi narkotik modda iste’mol qilgan, bu 15–64 yoshdagi aholining 6 foizini tashkil etadi. Shundan 244 million kishi kannabis, 61 million kishi opioidlar, 30,7 million kishi amfetaminlar, 25 million kishi kokain, 21 million kishi ekstazi iste’mol qilgani qayd etilgan. Bu ko‘rsatkichlar giyohvandlikning global miqyosda nafaqat tibbiy, balki psixologik, iqtisodiy, ijtimoiy va xavfsizlik muammosiga aylanganini ko‘rsatadi.

Transmilliy narkotahdidlarning xavfli tomoni shundaki, ular bir davlat hududi bilan cheklanib qolmaydi. Narkotik vositalarning ishlab chiqarilishi bir hududda, yetkazilishi ikkinchi hududda, sotilishi uchinchi hududda, iste’molchilarga ta’siri esa butun jamiyatda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, sintetik narkotiklar bozori tez kengaymoqda. UNODC ma’lumotiga ko‘ra, sintetik narkotiklar bozori past ishlab chiqarish xarajati va aniqlanish xavfining nisbatan pastligi sababli global miqyosda kengayib bormoqda; 2023-yilda amfetamin turidagi stimulyatorlar musodara qilingan sintetik narkotiklarning qariyb yarmiga to‘g‘ri kelgan.

O‘zbekiston Respublikasida bu masalaga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. 2024-yil 6-maydagi PF-73-son Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024–2028-yillarga mo‘ljallangan Milliy strategiya

tasdiqlangan bo‘lib, unda aholida, ayniqsa yoshlarda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish ustuvor maqsad sifatida belgilangan. Mazkur strategiyada har bir mahalla va ta’lim muassasasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlarni ogohlikka chaqirish, ta’lim jarayoniga ijtimoiy-emotsional tarbiya elementlarini kiritish va profilaktik hamkorlikni kuchaytirish alohida vazifa sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu raqamlar shuni ko‘rsatadiki, narkotahdidlar endilikda oddiy iste’mol yoki savdo muammosi emas, balki aholining ruhiy salomatligi, yoshlar tarbiyasi, oilaviy muhit, mahalla xavfsizligi, ta’lim tizimi va milliy xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq strategik masalaga aylangan. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlikka moyillikning shakllanishi ko‘pincha bir nechta psixologik omillar bilan izohlanadi: o‘zini qadrsiz his qilish, yolg‘izlik, oiladagi e’tiborsizlik, stress, depressiv holat, tengdoshlar bosimi, oson daromadga qiziqish, internetdagi noto‘g‘ri axborot va zararli guruhlarga qo‘shilish istagi.

Psixologik nuqtayi nazardan giyohvandlik shaxsning emotsional, motivatsion va irodaviy tizimida yuzaga keladigan buzilishlar bilan bog‘liq. Giyohvandlikka moyil shaxs ko‘pincha o‘z hissiyotlarini boshqarishda qiynaladi, muammoli vaziyatdan sog‘lom chiqish yo‘lini topa olmaydi, vaqtinchalik yengillik beradigan vositalarga murojaat qiladi. Natijada “muammodan qochish — vaqtinchalik yengillik — qayta ehtiyoj — qaramlik” zanjiri shakllanadi. Shu bois narkotahdidlarga qarshi kurashda psixologlarning vazifasi faqat tushuntirish ishlari bilan cheklanmasligi, balki shaxsning ichki barqarorligini kuchaytirishga qaratilishi lozim.

Birinchi muhim strategiya — erta psixologik diagnostikadir. Ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalar orasida stress, agressivlik, xavotir, depressiv kayfiyat, ijtimoiy izolyatsiya, internetga qaramlik, tez pul topishga moyillik va deviant xulq belgilarini aniqlashga qaratilgan skrininglar o‘tkazilishi zarur. Bunday diagnostika jazolash maqsadida emas, balki xavf guruhidagi yoshlarni vaqtida qo‘llab-quvvatlash, ularga psixologik yordam ko‘rsatish va muammo chuqurlashishining oldini olish uchun xizmat qilishi kerak.

Ikkinchi strategiya — rad etish ko‘nikmalarini shakllantirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son Farmonida 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan Milliy dastur tasdiqlangan bo‘lib, unda o‘quvchilar orasida “Rad etish ko‘nikmalari”, “Mening tanlovim — sog‘liq” kabi psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish belgilangan. Bu yondashuv juda muhim, chunki yoshlar ko‘pincha narkotik moddalarga bevosita kuch bilan emas, balki “bir marta sinab ko‘r”, “hamma qilyapti”, “qo‘rqma, zarar qilmaydi”, “tez pul topasan” kabi psixologik bosimlar orqali jalb qilinadi.

Uchinchi strategiya — raqamli xavfsizlik va internetdagi narkotahdidlarga qarshi psixologik immunitetni kuchaytirish. Bugungi kunda narkotiklar savdosi ko‘p hollarda internet-do‘konlar, messenjerlar, “zakladka” usuli, anonim kanallar va turli kodli yozishmalar orqali tashkil etilmoqda. O‘zbekistonda aniqlangan holatlarda internet narkodo‘koni tomonidan bir yilda o‘rtacha 350 kg, uch yil davomida esa 4 million dozaga teng 700–800 kg sintetik narkotik moddalar “zakladka” usulida tarqatilgani qayd etilgan. Shuning uchun yoshlar bilan “shubhali havolani tanish”, “internetdagi oson pul tuzog‘i”, “narkokuryerlik xavfi”, “anonim guruhlarning psixologik manipulyatsiyasi” kabi mavzularda alohida mashg‘ulotlar o‘tkazilishi kerak.

To‘rtinchi strategiya — oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi. Giyohvandlikka moyillikning dastlabki belgilari ko‘pincha oilada, maktabda yoki mahallada seziladi. Masalan, bolaning keskin yolg‘izlanishi, o‘qishga qiziqishining pasayishi, yolg‘on gapirish, pulga ehtiyojning ortishi, yangi shubhali do‘stlar paydo bo‘lishi, uyqu va kayfiyatning o‘zgarishi, tajovuzkorlik yoki befarqlik xavf signallari bo‘lishi mumkin. PF-207-son Farmonda ham ota-onalar va pedagoglarni giyohvandlik hamda narkojinoyatlarning salbiy oqibatlaridan ogoh qilish, o‘quvchilarning zararli odatlari haqida ota-onalarni xabardor qilish mexanizmini yaratish, ta’lim muassasalarida manzilli yillik rejalarni tasdiqlash kabi vazifalar belgilangan.

Beshinchi strategiya — reabilitatsiya va qayta ijtimoiylashuv tizimini kuchaytirish. Giyohvandlikka chalingan yoki narkojinoyatga aralashib qolgan shaxs bilan ishlashda faqat jazo chorasi yetarli emas. Bunday shaxslar bilan psixolog, narkolog, ijtimoiy xodim, oila vakillari va mahalla faollari hamkorlikda ishlashi zarur. Reabilitatsiya jarayonida shaxsning hayotiy

maqsadini tiklash, kasbga yo‘naltirish, oilaviy munosabatlarni sog‘lomlashtirish, stressni boshqarish, o‘zini nazorat qilish va sog‘lom ijtimoiy muhitga qaytarish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Transmilliy narkotahdidlarga qarshi kurashish bugungi kunda faqat huquq-tartibot organlari zimmasidagi vazifa emas. Bu jarayon sog‘liqni saqlash, ta’lim, psixologiya, mahalla, oila, ommaviy axborot vositalari va raqamli xavfsizlik tizimining uzviy hamkorligini talab etadi. Global miqyosda 316 million kishining narkotik iste’mol qilgani, O‘zbekistonda esa minglab narkojinoyatlar aniqlanayotgani muammoning naqadar dolzarb ekanini ko‘rsatadi. Psixologik yondashuvning asosiy maqsadi yoshlarni qo‘rqitish emas, balki ularda ongli tanlov, rad etish ko‘nikmasi, stressga chidamlilik, mustaqil fikrlash, raqamli xavfsizlik va sog‘lom hayotiy maqsadlarni shakllantirishdan iborat. Shuning uchun ta’lim muassasalarida muntazam psixologik skrining, trening mashg‘ulotlari, ota-onalar bilan maslahat ishlari, xavf guruhidagi yoshlar bilan individual ishlash va reabilitatsiya dasturlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq. Demak, narkotahdidlarga qarshi eng samarali kurash — bu jinoyat sodir bo‘lgandan keyingi chora emas, balki shaxs, oila, ta’lim muassasasi va jamiyat darajasida barvaqt profilaktika tizimini yaratishdir. Ana shundagina jamoat salomatligi, yoshlar kelajagi va milliy xavfsizlikni ishonchli himoya qilish imkoniyati kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2025.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrdagi PF-207-son Farmoni — “Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi rasmiy axborot manbalari va OAV materiallari, 2025–2026-yillar.
4. Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish bo‘yicha 2025–2026-yillarga mo‘ljallangan kompleks amaliy harakatlar Milliy dasturi.

ЖАМОАТ ВА ЖАМИЯТ: ГИЁҲВАНДЛИККА ҚАРШИ КУРАШДА УМУМИЙ ТАРБИЯВИЙ РЕЖАЛАР

Қодиров Қутлуғ-Бек Бекмуродович,
“Vatan universiteti” профессори,
педагогика фанлари доктори

Аннотация. Мақолада гиёҳвандлик воситалари, уларнинг ёшларга зарарли таъсири ва бу жамият учун жиддий хавф туғдирадиган муаммо эканлиги кўриб чиқилади. Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш жисмоний ва руҳий касалликларга, кўпинча ижтимоий мавқеини йўқотишга ва қонун билан боғлиқ муаммоларга сабаб бўлиши мумкин. Бунинг оқибатларини англаш ва соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш ёш авлодни асраб-авайлаш ҳамда замонавий жамият ривожланишининг асосий шартларидан биридир.

Калит сўзлар: Гиёҳвандлик, соғлик, ижтимоий муҳит, ружу қўйиш, касаллик, ижтимоий муаммо, ёшлик.

Аннотация. В статье рассматриваются наркотические средства, их вредное воздействие на молодежь и то, что это проблема, представляющая серьезную угрозу для общества. Употребление наркотиков может привести к физическим и психическим заболеваниям, часто к потере социального статуса и проблемам с законом. Осознание последствий этого и развитие культуры здорового образа жизни является одним из основных условий сохранения молодого поколения и развития современного общества.

Ключевые слова: Наркомания, здоровье, социальная среда, влечение, болезнь, социальная проблема, молодость.

Abstract. The article examines drugs, their harmful effects on young people, and how they pose a serious threat to society. Drug use can lead to physical and mental illnesses, often loss of social standing, and legal problems. Understanding the consequences of this and developing a

culture of a healthy lifestyle is one of the main conditions for the preservation of the younger generation and the development of modern society.

Keywords: Drug addiction, health, social environment, addiction, disease, social problem, youth.

Кириш. Ёшлар орасида гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш муаммоси замонавий жамиятнинг энг оғир, жиддий ижтимоий ва тиббий муаммоларидан бири бўлиб қолганига анча бўлди. Ўсмирлар ва ёшлар кўпинча стресс, тенгдошларнинг босими, ўзига ишончсизлик ва янги тажриба орттириш истаги каби турли психик муаммоларга дуч келишади. Ундан қутулиш йўлини излаб, уларнинг баъзилари бундай танловнинг барча оқибатларини тушунмай, гиёҳванд моддаларга мурожаат қилишади. Бироқ, қисқа муддатли завқланиш ҳисси тезда инсоннинг соғлиғи, ижтимоий муносабати ва келажагига таъсир қиладиган жиддий қийинчилик билан алмашади.

Гиёҳвандлик воситаларининг соғлик учун зарарлиги хусусида. Гиёҳванд моддаларни истеъмол қилишнинг энг хавфли оқибатларидан бири унинг организмга ҳалокатли таъсир этишидир. Гиёҳванд моддалар мия, юрак-қон томир тизими ва бошқа ички органларнинг фаолиятини бузади. Танаси ҳали ҳам ривожланишда бўлган ёшларда зарар айниқса катта бўлиши мумкин. Гиёҳванд моддаларни мунтазам истеъмол қилиш хотира бузилишига, диққатнинг пасайишига ва ирода бошқаруви сусайишига олиб келади. Кўпгина моддалар жуда ўзига қарам бўлиб, бу одамга ўз хатти-ҳаракатларини назорат қилишни ва бошқа дозани рад этишни қийинлаштиради. Бундан ташқари, депрессия, ташвиш, ваҳима ҳуружи, психоз каби руҳий касалликлар хавфи ортиши кузатилади.

Гиёҳванд моддалар нафақат одамнинг ўзига, балки унинг атрофидаги инсонлар билан муносабатига ҳам салбий таъсир кўрсатади. Гиёҳвандликдан азият чекаётган ёшлар кўпинча ўқиш, спорт ва бошқа ижтимоий фойдали машғулотларга қизиқишни йўқотадилар. Уларнинг академик кўрсаткичлари пасайади ва ота-оналари, дўстлари ҳамда ўқитувчилари билан низолар келиб чиқади. Гиёҳвандлик кўпинча ижтимоий узоқлашиш (изоляция)га олиб келади. Инсон аста-секин яқин одамлардан узоқлашади ва асосан ўзининг ёмон одатлари билан ўртоқлашадиганлар билан мулоқот қила бошлайди.

Кўпгина мамлакатларда гиёҳванд моддаларни сақлаш, тарқатиш ва ишлаб чиқариш жиноят ҳисобланади. Шу жиноят асосида судланиш инсон учун келажакда турли имкониятларни жиддий равишда чеклаб қўйиши, таълим олиш, ишга жойлашиш ва муваффақиятли мартаба қуриш учун тўсиқлар яратиши табиийдир.

Ёшлик - бу шахсни шакллантириш, билим олиш ва ҳаёт йўлини танлаш даври. Зарали воситалардан фойдаланиш кўп истиқболларни ҳалок қилади. Инсон кўникмаларни ривожлантириш ва мақсадларга эришиш ўрнига ўзини вақт, куч ва мотивация талаб қиладиган гиёҳвандликка дучор қилади.

Ахборот, таълим ва қўллаб-қувватловчи ижтимоий муҳитни яратиш, ёшлар орасида гиёҳвандлик тарқалишининг олдини олиш учун муҳимдир. Ёшлар гиёҳванд моддаларни истеъмол қилиш оқибатлари тўғрисида ишончли маълумот олишлари ва у билан боғлиқ хавфларни тушунишлари керак. Оила, мактаб, спорт ва маданият ташкилотлари муҳим рол ўйнайди. Катталарни қўллаб-қувватлаш, жамоат ҳаётида иштирок этиш, спорт, ижодкорлик ва кўнгиллилик ёшларга ўзини намоён қилиш ва қийинчиликларни енгишнинг соғлом усулларини топишга ёрдам беради.

Хулоса. Гиёҳванд моддалар бугунги ёшларнинг саломатлиги, фаровонлиги ва келажагига жиддий таҳдид солади. Улардан фойдаланиш жисмоний ва руҳий касалликларга, ижтимоий алоқаларнинг йўқ қилинишига, молиявий қийинчиликларга ва қонун билан боғлиқ муаммоларга олиб келиши мумкин. Ушбу оқибатлардан хабардор бўлиш ва соғлом турмуш тарзи маданиятини ривожлантириш ёш авлод саломатлигини сақлаш ҳамда жамиятнинг муваффақиятли ривожланиши учун муҳим шартлар бўлиб ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Менделевич В.Д. Психология зависимой личности. - М.: МЕДпресс-информ, 2007. - 240 с.
2. https://www.who.int, свободный. - Дата обращения: 12.06.2026.
3. Управление Организации Объединенных Наций по наркотикам и преступности. Всемирный доклад о наркотиках [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://www.unodc.org, свободный. - Дата обращения: 12.06.2026.

4. Коваленко А.Е. Социальные последствия наркотизации молодежи // Социологические исследования. - 2019. - № 8. - С. 85–92.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHDA HUQUQIY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLARNING UYG‘UNLIGI

N.Dj.Sagindikova *Qoraqalpoq davlat universiteti*
Pedagogika va psixologiya kafedrasi
p.f.d., prof

Annotatsiya: Ushbu tezisda giyohvandlikka qarshi kurashda huquqiy tartibga solish, pedagogik profilaktika va psixologik reabilitatsiya yondashuvlarini uyg‘un integratsiya qilishning nazariy-amaliy asoslari tahlil qilinadi. Maqsad kompleks modelning samaradorlik mexanizmlarini ochishdir. Metodologiya sifatida hujjat tahlili, qiyosiy yondashuv va psixologik-pedagogik konseptual umumlashtirish qo‘llanadi. Ilmiy yangilik huquqiy risklarni kamaytirish, ta’limiy immunitetni kuchaytirish va relapsni pasaytirishga qaratilgan yagona koordinatsion algoritmni asoslashdan iborat.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik; huquqiy profilaktika; pedagogik ta’lim-tarbiya; psixologik reabilitatsiya; relaps; risk omillari; interdisiplinar yondashuv.

Аннотация: В тезисе анализируется согласование правового регулирования, педагогической профилактики и психологической реабилитации в борьбе с наркозависимостью. Целью является раскрытие механизмов эффективности комплексной модели на стыке права, образования и психологии. Методология включает анализ документов, сравнительный подход и концептуальное обобщение психолого-педагогических данных. Научная новизна состоит в обосновании координационного алгоритма, направленного на снижение правовых рисков, усиление образовательного иммунитета и уменьшение вероятности рецидива.

Ключевые слова: наркозависимость; правовая профилактика; педагогическое воспитание; психологическая реабилитация; рецидив; факторы риска; междисциплинарный подход.

Abstract: This thesis examines the integration of legal regulation, pedagogical prevention, and psychological rehabilitation in countering drug addiction. The aim is to clarify how a comprehensive model becomes effective at the intersection of law, education, and psychology. The methodology relies on document analysis, comparative reasoning, and conceptual synthesis of psycho-pedagogical evidence. Scientific novelty is presented as a coordinated algorithm that reduces legal risks, strengthens educational resilience, and lowers relapse probability through consistent interagency action.

Keywords: drug addiction; legal prevention; pedagogical intervention; psychological rehabilitation; relapse; risk factors; interdisciplinary approach.

Kirish. Giyohvandlikka qarshi kurashning uyg‘un modeli, avvalo, giyohvandlikni biopsixososial buzilish sifatida ta’riflashdan boshlanadi, chunki mazkur hodisa shaxsning psixik jarayonlari, ijtimoiy muhit va huquqiy maydon bilan bir vaqtda bog‘lanadi. Mexanizm shundan iboratki, huquqiy me’yorlar taqiqlash va javobgarlik orqali xulqni cheklaydi, pedagogik tizim ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, psixologik yondashuv esa motivatsiya va emotsional-regulyativ resurslarni qayta tiklaydi. Masalan, voyaga yetmaganlar orasida psixoaktiv moddalarga qiziqish paydo bo‘lganda, faqat jazoga tayanish yashirin iste’molni kuchaytirishi mumkin, biroq

maktabdagi profilaktik dastur va maslahat berish birgalikda qo‘llansa, xavfli trayektoriyalar erta bosqichda to‘xtatiladi. Statistik jihatdan, xalqaro kuzatuvlarda relaps ko‘rsatkichlari yakka reabilitatsiya bilan 40–60 foiz diapazonda qayd etilishi, kompleks yondashuvlarda esa sezilarli pasayishi ta’kidlanadi, bu raqamlar integratsiyaning amaliy qiymatini ko‘rsatadi [6]. Ilmiy izoh sifatida, tizimli yondashuv nazariyasi bo‘yicha murakkab muammolar “bir omilli” choralar bilan emas, balki ko‘p darajali boshqaruv orqali barqaror hal etiladi, shu sababli uch yo‘nalishning sinxronligi giyohvandlikning mexanizmlariga mos keladi [4].

Huquqiy yondashuvning mazmuni giyohvandlik bilan bog‘liq xatti-harakatlarni me’yoriy-huquqiy tartibga solish, javobgarlikni belgilash va profilaktik vakolatlarni aniqlash sifatida ta’riflanadi. Mexanizmda huquq “chegaralar tizimi”ni yaratadi: noqonuniy muomalaga qarshi sanksiyalar, tibbiy-ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirish, voyaga yetmaganlarni himoya qilish tartiblari va idoralararo axborot almashinuvini qonuniylashtirish shu chegaralarning operatsion qismidir. Masalan, shaxs birinchi marta iste’mol bilan bog‘liq holatda aniqlanganda, huquqiy amaliyot faqat jazolash emas, balki majburiy maslahat, skrining va reabilitatsiya yo‘llanmasi kabi “diversion”ga yaqin choralarni qo‘llasa, shaxsning stigmalanishi kamayadi va yordamga kirish osonlashadi. Raqamlar nuqtayi nazaridan, giyohvandlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning muayyan ulushi aynan takroriy relaps fonida sodir bo‘lishi kriminologik tadqiqotlarda qayd etiladi, bu esa profilaktik-huquqiy choralarni reabilitatsiya bilan bog‘lash zarurligini kuchaytiradi [5]. Ilmiy izoh shundan iboratki, huquqiy ta’sirning samaradorligi “muqobil imkoniyatlar” bilan birga bo‘lgandagina oshadi, chunki shaxsning qaror qabul qilishi faqat qo‘rquvga emas, balki ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik resurslarga ham tayanadi [3].

Pedagogik yondashuv giyohvandlikning birlamchi profilaktikasini ta’lim-tarbiya tizimida sog‘lom turmush tarzi kompetensiyalarini shakllantirish sifatida ta’riflaydi. Mexanizm shundan iboratki, maktab va kollej muhitida ijtimoiy-emotsional o‘qitish, hayotiy ko‘nikmalar treningi, tengdoshlar bosimiga qarshilik strategiyalari hamda media savodxonlik giyohvandlik “risk omillari”ni kamaytiradi va “himoya omillari”ni kuchaytiradi. Masalan, sinf rahbari va psixolog hamkorligida o‘tkaziladigan 10–12 haftalik modul dasturda konfliktni zo‘ravonliksiz hal qilish, stressni boshqarish va maqsad qo‘yish mashqlari berilsa, o‘quvchining impulsiv qarorlari kamayadi, bu esa psixoaktiv modda taklifiga “yo‘q” deyish ehtimolini oshiradi. Statistik ko‘rsatkich sifatida, pedagogik profilaktika dasturlarida ishtirok etgan guruhlarda tajriba tariqasida sinab ko‘rish holatlari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli qisqarishi haqida meta-tahlillarda xabar beriladi, bu tendensiya profilaktikaning ijtimoiy foydasini ko‘rsatadi [6]. Ilmiy izohga ko‘ra, Vygotskiy va Leontev an’analaridagi faoliyat yondashuvi ta’limni xulqni qayta qurishning kuchli instituti sifatida ko‘radi, chunki shaxsiy ma’no, motiv va ijtimoiy rollar aynan o‘quv faoliyati orqali shakllanadi [2].

Psixologik yondashuv giyohvandlikni odat va qaramlik sikli bilan kechuvchi, motivatsion buzilishlar hamda affektiv-regulyativ muammolarni o‘z ichiga oluvchi holat sifatida ta’riflaydi. Mexanizmda kognitiv-xulqiy terapiya, motivatsion intervyu, relaps profilaktikasi va oilaviy konseling “trigger”larni aniqlash, kognitiv buzilishlarni tuzatish va stressga chidamlilikni oshirish orqali qaytalanish xavfini pasaytiradi. Masalan, psixologik seanslarda “yuqori xavfli vaziyatlar” xaritasi tuzilib, u yerda do‘stlar bosimi, bo‘sh vaqtni mazmunsiz o‘tkazish va negativ affektlar asosiy omil sifatida belgilansa, shaxs ularga javob bo‘ladigan muqobil xatti-harakat repertuarini o‘rganadi. Raqamlar jihatidan, klinik kuzatuvlarda motivatsion intervyu dastlabki davolanishga rioya qilish ko‘rsatkichlarini oshirishi, kognitiv-xulqiy yondashuv esa uzoq muddatli abstinensiya ehtimolini ko‘tarishi qayd etilgan, bu psixologik komponentning mustaqil qiymatini tasdiqlaydi [3]. Ilmiy izoh shundan iboratki, qaramlikning neyropsixologik modeli mukofot tizimi va ijro funksiyalarining nomutanosibligini ko‘rsatadi, shu bois psixoterapiya nafaqat “nasihat”, balki qayta o‘rganish va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish texnologiyasidir [6].

Uyg‘unlik masalasi uch yo‘nalishning vazifalari bir-birini to‘ldiradigan yagona koordinatsion tizim sifatida ta’riflanadi, bunda huquqiy, pedagogik va psixologik choralar parallel emas, balki ketma-ket va qayta aloqa bilan ishlaydi. Mexanizm amaliyotda “erta aniqlash – yo‘naltirish – reabilitatsiya – reintegratsiya – monitoring” zanjiri orqali ishlaydi: ta’lim muassasasi

riskni sezadi, huquqiy tartiblar shaxsning huquqlarini himoya qilgan holda xizmatlarga kirishni ta’minlaydi, psixologik xizmat esa o‘zgarish motivatsiyasini va relapsga qarshi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Masalan, mahalla, maktab va tibbiy-psixologik markaz o‘rtasida kelishilgan yo‘riqnoma bo‘lsa, o‘quvchi bilan ishlashda “stigmalash” emas, “yordam marshruti” ustuvor bo‘ladi, bu esa yashirin iste’molning oldini oladi. Raqamlar sifatida, idoralararo hamkorlik joriy etilgan hududlarda qayta murojaatlar dinamikasi barqarorlashishi, huquqbuzarliklar kamayishi va davolanishga rioya qilish ortishi ko‘rsatiladi, bunday ko‘rsatkichlar tizimning sinergetik effektini ifodalaydi [5]. Ilmiy izohga ko‘ra, sinergiya effekti “komplementarlik” qonuniga asoslanadi: huquqiy nazorat tashqi chegarani, pedagogika ijtimoiy me’yorni, psixologiya esa ichki o‘zini boshqarishni mustahkamlaydi, ularning biri sust bo‘lsa, butun tizim zaiflashadi [4].

Tahliliy qismni kuchaytirish uchun huquqiy-pedagogik-psixologik choralarni solishtirma ko‘rinishda ta’riflash muhim, chunki har bir yo‘nalishning ta’sir obyekti va vaqt ufqi turlicha. Mexanizm jihatidan huquq asosan makro darajada umumiy qoidalarni belgilaydi, pedagogika mezo darajada muhitni va guruh dinamikasini shakllantiradi, psixologiya esa mikro darajada shaxsning kognitiv-emotsional jarayonlariga kirib boradi. Masalan, bir hududda nazorat kuchli bo‘lsa-yu, maktab muhitida zo‘ravonlik va tashlab qo‘yish yuqori bo‘lsa, risk yana paydo bo‘ladi; aksincha, tarbiya yaxshi bo‘lsa-yu, psixologik xizmatlar yetishmasa, relapsni boshqarish qiyinlashadi. Raqamli ifoda sifatida, profilaktika odatda eng arzon ijtimoiy investitsiya sifatida baholanadi, chunki erta aralashuv keyingi davolash va huquqni muhofaza qilish xarajatlarini kamaytiradi, bu iqtisodiy mantiq ko‘plab tadqiqotlarda qayd etiladi [6]. Ilmiy izoh shundan iboratki, “public health” paradigmasida qaramlikka qarshi kurash uch pog‘onali: universal, selektiv va indikativ profilaktikadan iborat bo‘lib, bu pog‘onalar ta’lim, huquq va psixologiya resurslari uyg‘unlashganda to‘liq ishlaydi [6].

Amaliy algoritmni aniqlashtirishda muassasalararo taqsimot va hujjatlashtirishni ta’riflash zarur, chunki koordinatsiya bo‘lmasa, choralar fragmentar bo‘lib qoladi. Mexanizmda standart operatsion tartiblar, maxfiylik protokollari, rozilik shakllari va riskni baholash shkalalari joriy etilishi “yordam yo‘li”ni uzluksiz qiladi, ayniqsa voyaga yetmaganlar bilan ishlashda huquqiy nozikliklar keskin ahamiyat kasb etadi. Masalan, psixologik skriningda yuqori risk aniqlansa, pedagogik kengash orqali ota-ona bilan suhbat, so‘ng tibbiy ko‘rik va psixoterapiyaga yo‘naltirish, keyin esa maktab moslashuvi bo‘yicha individual reja tuzilsa, shaxs “tashlab qo‘yilmaydi” va natija ehtimoli ortadi. Raqamlar nuqtayi nazaridan, reabilitatsiyada “davomiylik” ko‘rsatkichi muhim bo‘lib, dasturdan erta chiqib ketish relaps xavfini keskin oshiradi; shuning uchun monitoring va qo‘llab-quvvatlash uch-to‘rt oy emas, kamida bir yilgacha davom ettirilishi tavsiya etiladi [3]. Ilmiy izohga ko‘ra, bandlik, o‘qishga qaytish va oilaviy munosabatlarning tiklanishi kabi reintegratsiya indikatorlari psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi, bu esa huquqiy risklarning qaytalanishini pasaytiradi [4].

Xulosa qismida ta’kidlash joizki, giyohvandlikka qarshi kurashda huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlar alohida-alohida qo‘llanganda cheklangan natija beradi, chunki muammo bir vaqtning o‘zida me’yor, muhit va shaxs darajalarida shakllanadi. Uyg‘un modelning asosiy natijasi shundan iboratki, huquqiy mexanizmlar yordamga kirishni va xavfsizlikni ta’minlaydi, pedagogik mexanizmlar riskni oldindan kamaytiradi, psixologik mexanizmlar esa motivatsion va regulyativ tizimlarni tiklab, relaps ehtimolini pasaytiradi. Eng muhim sintez shuki, koordinatsion algoritm erta aniqlashdan reintegratsiyagacha bo‘lgan uzluksiz yo‘lni yaratadi va har bir bosqichda mas’ul subyektlar hamda kutiladigan natijalarni aniqlashtiradi. Ilmiy-amaliy jihatdan, bu yondashuv profilaktika dasturlarini reabilitatsiya bilan, reabilitatsiyani esa huquqiy xavfsizlik va ijtimoiy moslashuv bilan bog‘lash orqali barqaror samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Natijada shaxsning huquqlari himoyalangan, ta’limiy qo‘llab-quvvatlangan va psixologik resurslari tiklangan holatda sog‘lom hayotga qaytish ehtimoli oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, M. R. Giyohvandlik profilaktikasi: psixologik-pedagogik yondashuvlar. Toshkent, O‘qituvchi, 2019. 184 b.
2. Leontev, A. N. Deyatelnost. Soznanie. Lichnost. Moskva, Politizdat, 1975. 304 s.

3. Miller, W. R., Rollnick, S. Motivational Interviewing: Helping People Change. New York, Guilford Press, 2013. 482 p.
4. Bronfenbrenner, U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge, Harvard University Press, 1979. 330 p.
5. Kriminologiya: darslik / A. I. Dolgova tahriri ostida. Moskva, Norma, 2010. 912 s.
6. United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report 2023. Vienna, United Nations, 2023. 160 p.

AXBOROT XURUJLARINING YOSHLAR ONGIGA IJTIMOIY PSIXOLOGIK TA'SIRI

Elov Ziyodullo Sattorovich
Osiyo xalqaro universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot xurujlarining yoshlar ongiga ko'rsatayotgan ijtimoiy-psixologik ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Axborotlashgan jamiyat sharoitida internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining keng tarqalishi natijasida yoshlarning turli manipulyativ axborotlar, dezinformatsiya, propaganda va mafkuraviy ta'sirlarga duch kelish ehtimoli ortib borayotgani yoritilgan. Tadqiqotda UNESCO, UNICEF, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarning axborot xavfsizligi hamda media savodxonlikka oid qarashlari tahlil qilinib, axborot xurujlarining yoshlarning bilish jarayonlari, hissiy holati, dunyoqarashi va xulq-atvoriga ta'siri ochib berilgan.

Kalit so'zlar: axborot xuruji, yoshlar, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, dezinformatsiya, propaganda, manipulyatsiya, tanqidiy fikrlash, psixologik ta'sir, ma'naviy immunitet, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, axborot madaniyati, kognitiv jarayonlar, globallashuv.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализировано социально-психологическое влияние информационных атак на сознание молодежи. В условиях информационного общества в результате широкого распространения интернета, социальных сетей и цифровых средств коммуникации возрастает вероятность того, что молодежь столкнется с различной манипулятивной информацией, дезинформацией, пропагандой и идеологическим влиянием. В исследовании проанализированы взгляды ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, ООН и других международных организаций на информационную безопасность и медиаграмотность, раскрыто влияние информационных атак на познавательные процессы, эмоциональное состояние, мировоззрение и поведение молодежи.

Ключевые слова: информационная атака, молодежь, информационная безопасность, медиаграмотность, дезинформация, пропаганда, манипуляция, критическое мышление, психологическое воздействие, духовный иммунитет, цифровые технологии, социальные сети, информационная культура, когнитивные процессы, глобализация.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-psychological impact of information attacks on the minds of young people. It is highlighted that in the context of an information society, as a result of the widespread use of the Internet, social networks, and digital communication tools, young people are increasingly exposed to various manipulative information, disinformation, propaganda, and ideological influences. The study analyzes the views of UNESCO, UNICEF, the UN, and other international organizations on information security and media literacy, revealing the impact of information attacks on the cognitive processes, emotional state, worldview, and behavior of young people.

Keywords: information attack, youth, information security, media literacy, disinformation, propaganda, manipulation, critical thinking, psychological influence, spiritual immunity, digital technologies, social networks, information culture, cognitive processes, globalization.

XXI asr axborot va kommunikatsiya texnologiyalari asri sifatida insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berdi. Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt tizimlari va raqamli platformalar orqali axborot almashinuvi mislsiz darajada tezlashdi. Natijada dunyoning istalgan nuqtasida yuz berayotgan voqea-hodisalar soniyalar ichida millionlab insonlarga yetib bormoqda. Biroq axborot texnologiyalarining bunday jadal rivojlanishi bilan bir qatorda, axborot makonida turli mafkuraviy, siyosiy, iqtisodiy va psixologik ta'sir vositalarining ham kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, axborot xurujlari zamonaviy jamiyatning eng dolzarb global muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi kunda davlatlar o‘rtasidagi raqobat nafaqat iqtisodiy yoki harbiy sohada, balki axborot maydonida ham kechmoqda. Zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan axborot makoni "inson ongini boshqarish maydoni" sifatida tavsiflanmoqda. Chunki insonning dunyoqarashi, qadriyatlari, siyosiy qarashlari va xulq-atvori ko‘p jihatdan qabul qilayotgan axborotlar mazmuniga bog‘liq. Ayniqsa, hali dunyoqarashi to‘liq shakllanib ulgurmagan yoshlar turli manipulyativ axborotlar, dezinformatsiya, propaganda va mafkuraviy ta'sirlarga nisbatan ko‘proq sezgir hisoblanadilar.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yoshlar turli manbalardan kelayotgan ulkan hajmdagi ma'lumotlar oqimi ta'siri ostida yashamoqdalar. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va raqamli media vositalarining keng tarqalishi axborot almashinuvini tezlashtirgan bo‘lsa-da, bir vaqtning o‘zida axborot xurujlari, manipulyativ ta'sirlar va mafkuraviy bosimlar xavfini ham kuchaytirdi. Shu bois axborot xurujlarining yoshlar ongiga ta'siri bugungi kunda muhim ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Axborot xuruji — bu shaxs yoki ijtimoiy guruhning qarashlari, qadriyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvoriga maqsadli ravishda ta'sir ko‘rsatishga qaratilgan axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan psixologik ta'sir jarayonidir. Bunday ta'sirlar turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: yolg‘on ma'lumotlar (feyk axborotlar), dezinformatsiya, propaganda, manipulyatsiya, ekstremistik g‘oyalar targ‘iboti yoki zararli axborot oqimlari.

Unesco ekspertlarining fikricha, media makonning rivojlanishi yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularni yolg‘on axborotlar va manipulyativ kontentlarga nisbatan himoyasiz holatga ham keltirib qo‘ymoqda. Shu sababli tashkilot media va axborot savodxonligini XXI asrning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida baholaydi.

UNISEF mutaxassislari yoshlar psixikasining hali to‘liq shakllanmaganligi sababli ular internetdagi zararli axborotlar, kiberbulling, radikal g‘oyalar va dezinformatsiya ta'siriga kattalarga nisbatan ko‘proq moyil bo‘lishlarini ta'kidlaydilar. Tashkilot yoshlarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni muhim himoya omili sifatida ko‘rsatadi.

BMT tomonidan qabul qilingan qator hujjatlarda axborot xavfsizligi va yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish masalasi global xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qayd etilgan. Mutaxassislarning fikricha, axborot makonidagi tahdidlar nafaqat individual shaxsga, balki jamiyat barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Psixologik jihatdan axborot xurujlari yoshlarning bilish jarayonlari, hissiy holati va xulq-atvoriga sezilarli ta'sir qiladi. Kognitiv psixologiya vakili Ulric Neisser inson ma'lumotni qayta ishlash jarayoni tashqi axborot oqimlari bilan chambarchas bog‘liqligini ta'kidlagan. Yoshlar muntazam ravishda bir tomonlama yoki manipulyativ axborot ta'sirida bo‘lsalar, ularning voqelikni idrok etish usullari ham o‘zgarishi mumkin.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulqi kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda zo‘ravonlik, agressiya yoki axloqqa zid xatti-harakatlarning targ‘ib qilinishi yoshlar tomonidan norma sifatida qabul qilinish xavfini kuchaytiradi.

Axborot xurujlarining yoshlar ongiga ta'siri quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Tanqidiy fikrlashning pasayishi;
- Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan befarqlik;
- Shaxsiy identifikatsiya inqirozi;

- Ijtimoiy stereotiplar va noto‘g‘ri e’tiqodlarning shakllanishi;
- Radikal va ekstremistik g‘oyalarga moyillik;
- Xavotir, stress va psixologik beqarorlikning ortishi;
- Virtual qaramlik va internetga bog‘liqlik.

World Economic Forum ekspertlari ham dezinformatsiya va manipulyativ axborotlarni zamonaviy jamiyatning eng muhim global xavflaridan biri sifatida baholaydilar. Ularning fikricha, raqamli savodxonlik va media madaniyatni rivojlantirish yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilishning asosiy vositasidir.

Axborot xurujlarining oldini olishda quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Yoshlarda media va axborot savodxonligini rivojlantirish.
2. Tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.
3. Oila va ta’lim muassasalarida axborot madaniyatini oshirish.
4. Milliy qadriyatlar va ma’naviy immunitetni mustahkamlash.
5. Psixologik barqarorlik va axborotga nisbatan ongli munosabatni rivojlantirish.

Xulosa qilib aytganda, axborot xurujlari yoshlar ongiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir. Globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida yoshlarni turli manipulyativ ta’sirlardan himoya qilish, ularda media savodxonlik, tanqidiy tafakkur va ma’naviy immunitetni shakllantirish davlat, oila, ta’lim tizimi va jamoatchilikning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu esa yosh avlodning sog‘lom dunyoqarash va mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Manuel Castells. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 2010. – 625 p.
2. Marshall McLuhan. Understanding Media: The Extensions of Man. – New York: McGraw-Hill, 1964. – 359 p.
3. Albert Bandura. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977. – 247 p.
4. Aaron T. Beck. Cognitive Therapy and Emotional Disorders. – New York: International Universities Press, 1976. – 356 p.
5. Ulric Neisser. Cognitive Psychology. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1967. – 351 p.
6. UNESCO. Media and Information Literacy: Curriculum for Educators and Learners. – Paris, 2021.

YOSHLAR ORASIDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Bog‘ibekova Dilnoza Shonazarovna
Xorazm viloyati IIB Huquqbuzarliklar profilaktikasi Boshqarmasi Voyaga yetmaganlarni ijtimoiy huquqiy yordam ko‘rsatish Markazi boshlig‘i

Annotatsiya: Ushbu tezisda yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi ongli munosabatni shakllantirishning pedagogik va psixologik omillari tahlil qilinadi. Maqsad profilaktik ta’limda motivatsiya, ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalar va oila-maktab hamkorligini uyg‘unlashtirgan modelni asoslashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil, psixodiagnostik yondashuv va maktab muhitida profilaktik intervensiya mantiqi qo‘llanadi. Ilmiy yangilik risk va himoya omillarini kompetensiyaviy ta’lim vositalari bilan bog‘lovchi integrativ tushuntirishda ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik profilaktikasi; ongli munosabat; risk omillari; himoya omillari; o‘zini boshqarish; ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar; oila-maktab hamkorligi

Аннотация: В тезисе анализируются педагогические и психологические факторы формирования у молодежи осознанного отношения к противодействию наркотизации. Цель состоит в обосновании модели профилактического образования, сочетающей мотивацию, социально-эмоциональные навыки и сотрудничество семьи и школы. Методология включает теоретический анализ, психодиагностический подход и логику

профилактических интервенций в школьной среде. Научная новизна выражена в интегративном объяснении связи факторов риска и защиты с компетентностными средствами обучения.

Ключевые слова: профилактика наркотизации; осознанное отношение; факторы риска; факторы защиты; саморегуляция; социально-эмоциональные компетенции; сотрудничество семьи и школы

Abstract: This thesis examines pedagogical and psychological factors that shape youths' conscious attitudes toward anti-drug behavior. The aim is to justify a preventive education model integrating motivation, social-emotional skills, and family–school collaboration. The methodology relies on theoretical analysis, psychodiagnostic reasoning, and the logic of school-based preventive interventions. Scientific novelty is presented through an integrative explanation linking risk and protective factors with competency-based educational tools and measurable self-regulation outcomes.

Keywords: drug prevention; conscious attitude; risk factors; protective factors; self-regulation; social-emotional competencies; family–school partnership

Kirish. Yoshlar orasida giyohvandlikka qarshi ongli munosabatni shakllantirish deganda shaxsning giyohvand moddalarga nisbatan bilimga asoslangan, qadriyatlarga tayangan va xulqiy qarorlar bilan mustahkamlangan barqaror pozitsiyasi tushuniladi. Ushbu tushuncha mexanizm sifatida kognitiv baholash, emotsional munosabat va irodaviy nazoratning o‘zaro birikishini nazarda tutadi, ya’ni yosh kishi vaziyatni tanib, oqibatni oldindan baholab, bosimga qarshi turish strategiyasini ishga tushiradi. Masalan, tengdoshlar bosimi kuchli bo‘lgan muhitda “bir martalik sinab ko‘rish” taklifiga rad javobini aytish faqat ma’lumot bilan emas, balki “men kimman” degan identifikatsion mezonlar va o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan ta’minlanganda barqaror bo‘ladi. Epidemiologik kuzatuvlarda aynan o‘smirlik davri modda sinab ko‘rish xavfi ortadigan bosqich sifatida qayd etiladi va turli tadqiqotlarda profilaktika dasturlari qo‘llanganda xavf ko‘rsatkichlari sezilarli kamayishi ta’kidlanadi, bu ta’sir odatda o‘rtacha darajali effekt kattaliklari bilan ifodalanadi [1]. Ilmiy izoh shundan iboratki, ongli munosabat shaxsning faqat axborot darajasidagi xabardorligi emas, balki motivatsion-intentional tizimida mustahkamlangan psixologik tayyorgarlik bo‘lib, u ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich rivojlantiriladi [2].

Pedagogik omillar doirasida birinchi navbatda ta’lim mazmunining kompetensiyaviy yo‘naltirilganligi giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirishning tayanch sharti sifatida talqin qilinadi. Mazkur omilning mexanizmi shundaki, dars va tarbiyaviy faoliyat faqat “zarari haqida” ogohlantirish bilan cheklanmay, muammoli vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish, muloqot va rad etish ko‘nikmalarini mashq qildirish orqali xulqiy kompetensiyani hosil qiladi. Misol tariqasida, sinf soatida ssenariyli muhokama va rol o‘ynash usullari qo‘llanib, “taklif–bosim–tanlov–oqibat” zanjiri tahlil qilinganda o‘quvchilar rad etishning til birliklari, tana tili va alternar yechimlarni amalda sinab ko‘radi. Ta’lim psixologiyasida faol o‘qitish yondashuvlari passiv ma’ruzalarga nisbatan ko‘nikma shakllanishida yuqoriroq natija berishi ko‘p manbalarda qayd etilib, maktab dasturlarida trening elementlari kiritilganda xulqiy xavfning kamayishi kuzatilganligi ko‘rsatiladi [3]. Ilmiy izoh sifatida, kompetensiyaviy yondashuv Bloom taksonomiyasining yuqori bosqichlari bilan mos keladi: tahlil, baholash va yaratish darajalari ishga tushganda shaxsning refleksiv nazorati kuchayadi va impulsiv xatti-harakat ehtimoli pasayadi [1].

Pedagogik omillarning ikkinchi guruhi maktab iqlimi va sinf jamoasining ijtimoiy-psixologik muhitiga taalluqlidir, ya’ni xavfsiz, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi muhitning mavjudligi profilaktikaning yashirin resursi hisoblanadi. Bu omilning mexanizmi ijtimoiy normani ichkilashtirish orqali ishlaydi: o‘quvchi sinfda hurmat va mas’uliyat me’yorlarini ko‘rsa, deviant xulqqa ijtimoiy “mukofot” kamayadi, aksincha sog‘lom tanlovlar ijtimoiy rag‘bat oladi. Masalan, o‘qituvchi va sinf rahbari nizolarni mediatsiya usullarida hal qilsa, “kuch bilan isbotlash” o‘rniga “kelishuv” qadriyati mustahkamlanadi va zararli guruhlar ta’siriga kirishish ehtiyoji qisqaradi. Maktab iqlimi bo‘yicha izlanishlarda yuqori darajadagi o‘qituvchi qo‘llovi va adolatli qoidalar mavjud bo‘lgan muassasalarda intizom buzilishi va xavfli xulq indikatorlari pastroq bo‘lishi ko‘rsatiladi, bu holat ko‘pincha so‘rovnoma ballari va davomat ko‘rsatkichlari orqali statistik

bog‘liqliklarda namoyon bo‘ladi [2]. Ilmiy izoh shuki, ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra norma va model ko‘rsatish kuchli determinanta bo‘lib, o‘quvchi “kimni kuzataman” va “qaysi guruhga mansubman” savollariga javob topganda xulqiy tanlovlar ham shu yo‘nalishda barqarorlashadi [4].

Pedagogik omillarning uchinchi yo‘nalishi oila-maktab hamkorligi bo‘lib, bunda profilaktika faqat ta’lim muassasasi doirasida emas, balki tarbiya tizimining yagona maydonida ko‘riladi. Mexanizm sifatida hamkorlik axborotning bir xilligi, nazoratning izchilligi va emosional qo‘llab-quvvatlashning kuchayishini ta’minlaydi, ya’ni bola uyda va maktabda bir-biriga zid signallarni emas, muvofiqlashgan tarbiyaviy talabni qabul qiladi. Masalan, ota-ona bilan “muloqot shartnomasi” tuzilib, raqamli xavflar, kechki vaqt rejimi va do‘stlar doirasi bo‘yicha kelishuvlar ishlab chiqilsa, o‘smirning mustaqilligi inkor etilmaydi, ammo mas’uliyatli chegaralar aniqlanadi. Amaliy kuzatuvlarda ota-onaning ishtiroki yuqori bo‘lgan sinflarda xavfli xulqning oldini olish bo‘yicha dasturlar barqarorroq natija berishi va qaytish holatlari kamayishi qayd etiladi, bu ko‘rsatkichlar odatda sinf kesimidagi monitoring ma’lumotlari bilan ifodalanadi [3]. Ilmiy izoh sifatida, oilaviy tizimlar yondashuvi shuni ta’kidlaydiki, o‘smir xulqidagi o‘zgarishlar ko‘pincha tizimning o‘zaro ta’sirlarida mustahkamlanadi, shuning uchun profilaktika “bola bilan ishlash”dan “tizim bilan ishlash”ga kengaytirilsa, ta’sirning generalizatsiyasi ortadi [2].

Psixologik omillar ichida eng markaziylaridan biri motivatsion soha, xususan sog‘lom turmushga ichki motivatsiyani shakllantirish va maqsadga yo‘naltirilganlikni qo‘llab-quvvatlashdir. Bu omilning mexanizmi o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi kontekstida tushuntiriladi: avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda shaxs tashqi bosimga kamroq beriladi va o‘z tanlovini ichki sabablar bilan asoslaydi. Masalan, sport yoki ijodiy to‘garaklarda erishilgan kichik yutuqlar o‘smirga “men qodirman” degan ishonchni beradi, natijada “xavfli tajriba orqali o‘zini isbotlash” motivi zaiflashadi. Tadqiqotlarda o‘zini samarali his qilish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan yoshlarning riskli xulqqa kirishish ehtimoli pastroq bo‘lishi qayd etilib, bunday bog‘liqlik korrelyatsion tahlillarda o‘rtacha kuchdagi manfiy bog‘lanish sifatida uchraydi [4]. Ilmiy izoh shundan iboratki, motivatsiya faqat shior yoki chaqiriq bilan emas, balki muvaffaqiyat tajribasi va ijtimoiy tan olinishi orqali mustahkamlanadi, shu bois profilaktik pedagogika yoshga mos “yutuq arxitekturasi”ni yaratishi zarur [1].

Psixologik omillarning ikkinchisi o‘zini boshqarish va ijro funksiyalari bo‘lib, ular impulsni tiyish, kechiktirilgan mukofotni tanlash va stressda oqilona qaror qabul qilish qobiliyatlarini anglatadi. Ushbu mexanizm neyropsixologik nuqtayi nazardan prefrontal korteks bilan bog‘liq nazorat jarayonlari va emotsional reaktivlikni tartibga soluvchi tizimlar muvozanati orqali izohlanadi, ya’ni kuchli emotsiya sharoitida ham “to‘xtash–o‘ylash–tanlash” sikli ishga tushsa, risk pasayadi. Masalan, konflikt yoki muvaffaqiyatsizlikdan so‘ng “tez tasalli” izlash o‘rniga nafas mashqlari, kognitiv qayta baholash va muqobil faoliyatni tanlash o‘rgatilsa, zararli modda taklifiga nisbatan ham chidamlilik ortadi. Amaliyotda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi treninglar qo‘llanganda intizomiy buzilishlar kamayishi va akademik ko‘rsatkichlar yaxshilanishi haqida ma’lumotlar uchraydi, bu esa profilaktikaning qo‘shimcha ijtimoiy foydasini ko‘rsatadi [2]. Ilmiy izoh sifatida, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari ko‘p komponentli bo‘lib, ular odat shakllanishi bilan mustahkamlanadi; shu sababli bir martalik uchrashuv emas, balki kamida bir necha oy davom etadigan siklli mashg‘ulotlar pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqdir [3].

Psixologik omillarning uchinchi yo‘nalishi tengdoshlar ta’siri va ijtimoiy identifikatsiya bilan bog‘liq bo‘lib, bunda “guruhga tegishli bo‘lish” ehtiyoji xavf yoki himoya resursiga aylanishi mumkin. Mexanizm shundan iboratki, o‘smirlar o‘z xulqini ko‘pincha “qabul qilinish” mezoniga moslab tartiblaydi, shuning uchun ijobiy liderlar va prosotsial guruhlar mavjud bo‘lsa, me’yorlar sog‘lom yo‘nalishda shakllanadi. Masalan, “tengdosh-tengdoshga” formatidagi profilaktik suhbatlarda ijobiy namuna ko‘rsatgan o‘quvchi liderlar giyohvandlikka qarshi qarorlarni oddiy, obro‘li va amaliy ko‘rinishda taqdim etsa, auditoriya buni kattalarning didaktik talabi sifatida emas, “bizning tanlovimiz” sifatida qabul qiladi. Ijtimoiy psixologiyada normativ ta’sirning kuchi haqida tajribaviy dalillar mavjud bo‘lib, ayniqsa o‘smirlik davrida tengdosh bahosi kattalar

bahosiga nisbatan kuchliroq prediktor bo‘lishi qayd etiladi [4]. Ilmiy izoh shuki, identifikatsiya kanali orqali ishlaydigan profilaktika “taqiqlash”dan ko‘ra “alternativ maqom”ni taklif qiladi, ya’ni sog‘lom faoliyat ijtimoiy kapital manbai sifatida ko‘rsatilsa, zararli submadaniyatlar jozibasi pasayadi [1].

Nazariy va amaliy tahlil natijalarini integratsiyalash maqsadida pedagogik-psixologik omillar o‘rtasidagi bog‘lanishni tizimli model sifatida ifodalash muhimdir. Mazkur model mexanizm sifatida “risk omillari–himoya omillari–kompetensiyalar–xulqiy qaror” ketma-ketligini qabul qiladi, bunda har bir bo‘g‘in ta’limiy intervensiya bilan boshqarilishi mumkin. Misol tariqasida, risk omili bo‘lgan stress va oilaviy nazoratdagi izchillikning pastligi aniqlansa, maktabda stressni boshqarish treningi va ota-onalar uchun kommunikativ seminarlar bir paket sifatida qo‘llanadi. Monitoringda natijani baholash uchun psixodiagnostik o‘lchovlar (o‘zini boshqarish shkala ballari, motivatsiya profili) hamda pedagogik indikatorlar (davomat, intizomiy holatlar) birlashtirilsa, ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi dinamik bog‘liqlik statistik jihatdan tekshiriladi. Ilmiy izoh shundan iboratki, profilaktika samaradorligi ko‘pincha bitta omilning kuchi bilan emas, balki omillar uyg‘unligi bilan belgilanadi; shu bois intervensiyalar “ko‘p darajali” dizaynda qurilganda natija barqarorroq bo‘ladi [3].

Tizimli tahlilni yanada aniqlashtirish uchun pedagogik ta’sirlar va psixologik natijalar o‘rtasidagi moslikni solishtirma jadvalda umumlashtirish mumkin. Ushbu yondashuv mexanizm sifatida “ta’sir vositasi”ni “kutiladigan psixologik o‘zgarish” bilan juftlab, dastur dizaynida bo‘shliqlarni ko‘rsatadi. Masalan, agar maktab faqat ma’ruza o‘qisa, kognitiv xabardorlik ortadi, ammo o‘zini boshqarish va rad etish ko‘nikmalari yetarli shakllanmasligi mumkin; aksincha trening va rolli mashqlar ko‘nikmani kuchaytiradi, biroq oila qo‘llovi bo‘lmasa generalizatsiya cheklanishi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Amaliyotda bunday moslik tahlili resurslarni taqsimlashga yordam beradi va “qaysi komponent” eng ko‘p natija berganini baholash imkonini yaratadi, bu esa sifat va miqdoriy monitoringni birgalikda talab etadi. Ilmiy izoh sifatida, pedagogik diagnostika va psixologik diagnostikaning integratsiyasi ta’lim samaradorligini dalillarga tayangan holda boshqarish tamoyiliga mos keladi [2].

1-jadval

Pedagogik vosita	Kutiladigan psixologik natija	Baholash ko‘rsatkichi
Kompetensiyaviy dars va ssenariyli muhokama	Kognitiv baholash hamda xatti-harakatlar oqibatini oldindan ko‘ra bilish qobiliyatining kuchayishi	Vaziyatli testlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ulushi; refleksiya yozuvlari sifati
Rolli o‘yin va rad etish treningi	Ijtimoiy bosimga chidamlilik va kommunikativ ishonchning ortishi	Assertivlik shkalasi bo‘yicha ballar; kuzatuv protokoli natijalari
Maktab iqlimini yaxshilash va adolatli qoidalarni joriy etish	Ijtimoiy xavfsizlik hissining shakllanishi hamda prosotsial normalarning ichkilashtirilishi	Sinf iqlimi so‘rovnomasi natijalari; intizomiy hodisalar dinamikasi
Oila bilan seminar va konsultatsiyalar tashkil etish	Emotsional qo‘llab-quvvatlash hamda nazorat izchilligining ortishi	Ota-ona ishtiroki indeksi; o‘smirning stress ko‘rsatkichlari

Xulosa: Tahlil shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikka qarshi ongli munosabatni shakllantirish pedagogik va psixologik omillarning yagona tizim sifatida ishlashini talab qiladi. Kompetensiyaviy ta’lim mazmuni, qo‘llab-quvvatlovchi maktab iqlimi va oila-maktab hamkorligi pedagogik tayanch bo‘lib, ular motivatsiya, o‘zini boshqarish hamda ijtimoiy identifikatsiya kabi psixologik mexanizmlarni maqsadli faollashtiradi. Shuningdek, profilaktika samarasi axborot berish bilan cheklanmay, trening, refleksiya va ijtimoiy norma dizayni orqali xulqiy qarorlar arxitekturasini qurishga bog‘liq ekani asoslanadi. Eng muhim natija sifatida ko‘p darajali,

diagnostikaga tayangan va uzluksiz intervensiya modeli yoshlarning riskga moyilligini kamaytirib, sog‘lom tanlovni ijtimoiy jihatdan maqbul va shaxsiy jihatdan mazmunli qilishga xizmat qilishi umumlashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bandura A. Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. 617 p.
2. Выготский Л. С. Психология развития человека. Москва: Смысл, 2005. 1136 с.
3. Botvin G. J., Griffin K. W. Life Skills Training: Preventing substance misuse by enhancing psychosocial competence. New York: Princeton Health Press, 2014. 320 p.
4. Ajzen I. Attitudes, personality, and behavior. Maidenhead: Open University Press, 2005. 178 p.
5. Karimova V. M. Yoshlar psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 256 b.
6. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya: darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2017. 432 b.

YOSHLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Xajiyeva Iroda Adambayevna *- Urganch RANCH texnologiya universiteti professori v.b., psixologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning tarqalishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Tadqiqotda giyohvandlikka olib keluvchi shaxsiy, oilaviy, ijtimoiy va psixologik omillar zamonaviy psixologiya nazariyalari asosida yoritilgan. Shuningdek, giyohvandlikning yoshlar psixik rivojlanishi, ijtimoiy moslashuvi va shaxs shakllanishiga salbiy ta’siri ko‘rib chiqilgan. Muammoning oldini olishda psixologik profilaktika, oilaviy tarbiya, ijtimoiy nazorat va psixologik yordamning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, yoshlar, deviant xulq-atvor, ijtimoiy-psixologik omillar, profilaktika, psixologik himoya, qaramlik, o‘smirlik davri.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на распространение наркомании среди молодежи. Исследование охватывает личностные, семейные, социальные и психологические факторы, приводящие к наркомании, на основе современных психологических теорий. Также рассматривается негативное влияние наркомании на психическое развитие, социальную адаптацию и формирование личности молодежи. Обосновывается важность психологической профилактики, семейного воспитания, социального контроля и психологической поддержки в предотвращении проблемы.

Ключевые слова: наркомания, молодежь, девиантное поведение, социально-психологические факторы, профилактика, психологическая защита, зависимость, подростковый возраст.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological factors that affect the spread of drug addiction among young people. The study covers personal, family, social and psychological factors leading to drug addiction based on modern psychological theories. It also examines the negative impact of drug addiction on the mental development, social adaptation and personality formation of young people. The importance of psychological prevention, family education, social control and psychological support in preventing the problem is substantiated.

Keywords: drug addiction, youth, deviant behavior, socio-psychological factors, prevention, psychological protection, dependence, adolescence.

Bugungi kunda giyohvandlik dunyo miqyosidagi eng jiddiy ijtimoiy va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo nafaqat inson salomatligiga, balki jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va demografik rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalishi alohida tashvish uyg‘otmoqda. O‘smirlik va ilk yoshlik davri

shaxsning identifikatsiyasi, qadriyatlari va hayotiy pozitsiyasi shakllanadigan murakkab bosqich bo‘lib, bu davrda turli salbiy ta’sirlarga moyillik kuchayadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikning shakllanishi faqat biologik sabablar bilan emas, balki murakkab ijtimoiy va psixologik omillar tizimi bilan bog‘liqdir. Shu bois mazkur muammoni psixologik yondashuv asosida o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Psixologiyada giyohvandlik shaxsning muayyan moddaga nisbatan kuchli psixologik va fiziologik qaramligi sifatida tavsiflanadi. Qaramlik shakllanishida emotsional holat, motivatsion soha, shaxs xususiyatlari va ijtimoiy muhit muhim rol o‘ynaydi.

Zigmund Freyd psixoanalitik nazariyasida qaramlik insonning ichki konfliktlari va qondirilmagan ehtiyojlari bilan izohlanadi. Unga ko‘ra, ayrim shaxslar ruhiy zo‘riqishdan qochish maqsadida turli psixoaktiv vositalarga murojaat qiladilar.[1]

Gumanistik psixologiya vakili Abraham Maslow esa qaramlikni shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqara olmasligi va ehtiyojlar tizimining buzilishi bilan bog‘laydi.[6]

Giyohvandlikning ijtimoiy-psixologik omillari. Oilaviy omillar. Psixologik tadqiqotlar oiladagi nosog‘lom muhit yoshlarning giyohvandlikka moyilligini oshirishini ko‘rsatadi.

Asosiy xavf omillari:

- ota-onalar nazoratining sustligi;
- oiladagi nizolar;
- ajrimlar;
- emotsional sovuqlik;
- ota-onalarning zararli odatlari;
- tarbiyadagi nomuvofiqlik.

Diana Baumrind tadqiqotlariga ko‘ra, demokratik oilaviy tarbiya uslubi o‘smirlarda deviant xulq-atvor rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.[4]

Tengdoshlar ta’siri. O‘smirlik davrida tengdoshlar guruhi shaxs rivojlanishining muhim omiliga aylanadi. Guruh tomonidan qabul qilinish ehtiyoji ba’zi hollarda yoshlarni zararli odatlarga undashi mumkin.

Albert Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Agar yoshlar giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchi tengdoshlari bilan muloqot qilsa, ularda ham shunday xulq-atvor shakllanish ehtimoli ortadi.[2]

Psixologik omillar. Giyohvandlik rivojlanishiga quyidagi psixologik omillar sabab bo‘lishi mumkin:

- past o‘z-o‘zini baholash;
- yuqori xavotir darajasi;
- depressiv holatlar;
- stressga chidamlilikning pastligi;
- impulsivlik;
- emotsional beqarorlik.

Aaron Beckning kognitiv nazariyasiga ko‘ra, salbiy fikrlash stereotiplari va o‘zini qadrsiz his qilish qaramlikning rivojlanish xavfini oshiradi.[3]

Ommaviy axborot vositalari va internet ta’siri. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida yoshlar turli axborot oqimlariga duch kelmoqda. Internetdagi ayrim kontentlar giyohvandlikni romantiklashtirishi yoki uning oqibatlarini yashirishi mumkin. Bunday axborotlar yoshlarning xavf-xatarni to‘liq anglamasligiga sabab bo‘ladi.[7;8]

O‘smirlik davri va xavfli xulq-atvor. Erik Erikson nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davri identifikatsiya shakllanishining muhim bosqichi hisoblanadi.[5] Bu davrda shaxs o‘zini anglashga intiladi va yangi tajribalarni sinab ko‘rishga moyil bo‘ladi.

Aynan shu yosh davrida:

- mustaqillikka intilish;
- tavakkalchilik;
- yangilikka qiziqish;

- hissiy beqarorlik kabi xususiyatlar kuchayadi. Ushbu omillar giyohvandlikka moyillik xavfini oshirishi mumkin. Giyohvandlik yoshlarning psixologik rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi.

Asosiy oqibatlari:

- kognitiv buzilishlar
- diqqatning pasayishi;
- xotira buzilishi;
- tafakkur samaradorligining kamayishi;
- o‘quv faoliyatining yomonlashuvi.

Emotsional buzilishlar

- xavotir;
- depressiya;
- tajovuzkorlik;
- emotsional beqarorlik.

Ijtimoiy moslashuv muammolari

- ijtimoiy izolyatsiya;
- oilaviy nizolar;
- huquqbuzarlik;
- ta’lim va mehnat faoliyatining pasayishi.

Profilaktika va psixologik yordam. Yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

Birlamchi profilaktika: sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish; psixologik treninglar; hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish; stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Oilaviy profilaktika: ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish; oilaviy munosabatlarni mustahkamlash; emotsional qo‘llab-quvvatlash muhitini yaratish.

Psixologik maslahat va korreksiya. Giyohvandlik xavfi mavjud bo‘lgan yoshlar bilan individual va guruhiy psixologik ishlarni tashkil etish muhim hisoblanadi. Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi, motivatsion suhbat va psixoprofilaktik treninglar samarali usullar sifatida e’tirof etiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning shakllanishi biologik omillar bilan bir qatorda murakkab ijtimoiy-psixologik omillar tizimi bilan bog‘liq. Oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, shaxsning psixologik xususiyatlari va ommaviy axborot vositalarining ta’siri giyohvandlik rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Yoshlarni ushbu xavfdan himoya qilish uchun kompleks profilaktik dasturlar, psixologik xizmatlar va oilaviy tarbiyani takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. American Psychological Association. Substance Use and Addiction Research Reports.
2. Bandura A. .Social Learning Theory. Prentice Hall, 1977.
3. Beck A Cognitive Therapy and the Emotional Disorders. New York, 1976.
4. Baumrind D. Child Care Practices Anteceding Three Patterns of Preschool Behavior, 1967.
5. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. New York, 1968.
6. Maslow A. Motivation and Personality. New York, 1987.
7. World Health Organization. World Drug Report and Adolescent Health Materials.
8. United Nations Office on Drugs and Crime. Prevention of Drug Use and Treatment Standards.

I-SHO‘BA.YOSHLAR O‘RTASIDA GIYOHVANDLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

HARBIY XIZMATGA CHAQIRILUVCHI YOSHLARDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH VA INTEGRATIV YONDASHUV

Abdullayev Shoxzod*-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatga chaqiriluvchi yoshlar orasida giyohvandlik va zararli moddalar iste'moliga moyillikning psixologik omillari tahlil qilingan. Harbiy xizmat sharoitida yuzaga keladigan stress, moslashuv qiyinchiliklari va tengdoshlar ta'siri omillarining giyohvandlikka yo'l ochib berishi ilmiy jihatdan ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, harbiy muhitdagi psixologik immunitetni mustahkamlashning integrativ usullari va profilaktik dasturlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish va giyohvandlikka qarshi kurashni yanada samarali amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmat psixologiyasi, giyohvandlik profilaktikasi, psixologik immunitet, integrativ yondashuv, stressga chidamlilik, sog'lom turmush tarzi.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические факторы склонности к употреблению наркотиков и психоактивных веществ среди молодежи, призываемой на военную службу. Рассматривается влияние стресса, трудностей адаптации и давления сверстников в условиях военной службы как факторов риска. Обосновано значение интегративных методов укрепления психологического иммунитета и профилактических программ в военной среде.

Ключевые слова: психология военной службы, профилактика наркомании, психологический иммунитет, интегративный подход, стрессоустойчивость, здоровый образ жизни.

Abstract: This article analyzes the psychological factors contributing to drug and substance abuse susceptibility among youth conscripted for military service. The role of stress, adaptation difficulties, and peer pressure in military settings as risk factors for substance use is scientifically examined. The importance of integrative methods for strengthening psychological immunity and preventive programs in military environments is substantiated.

Keywords: military service psychology, drug addiction prevention, psychological immunity, integrative approach, stress resistance, *healthy lifestyle.*

KIRISH: O'zbekiston Respublikasida harbiy xizmat muddati bo'yicha yosh erkaklar ommaviy ravishda harbiy muassasalarga jalb etilmoqda. Bu davrda yoshlar hayotining muhim bosqichi bo'lgan harbiy xizmat psixologik jihatdan jiddiy o'zgarishlar va qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Jumladan, uydan uzoqda qolish, qattiq intizom, jismoniy va ruhiy zo'riqishlar, tengdoshlar muhitining o'zgarishi kabi omillar ba'zi hollarda giyohvand moddalarga bo'lgan qiziqishni oshirib yuborishi mumkin [1].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 18–25 yoshdagi erkaklar orasida giyohvand moddalarni sinab ko'rish va muntazam iste'mol qilish ehtimoli boshqa yosh guruhlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori. Aynan harbiy xizmat davri bu yoshlar uchun eng muhim psixologik o'tish nuqtalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, harbiy xizmatchilarda giyohvandlikka qarshi psixologik immunitetni shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida ko'tarilmoqda [2]. Mazkur tadqiqotning maqsadi harbiy xizmat sharoitida giyohvandlikka moyillikning psixologik omillarini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan integrativ yondashuvlarni ilmiy-amaliy jihatdan asoslashdan iborat.

Harbiy xizmat - bu shaxs uchun ijtimoiy muhitning keskin o'zgarishini anglatan hayotiy voqea. Oila, do'stlar va tanish muhitdan ajralib, yangi kolektiv muhitga kirishish ko'plab yoshlarda identifikatsiya inqirozini keltirib chiqaradi. Bu holat psixologiyada "o'tish bosqichi krizi" deb nomlanib, shaxsning moslashuv mexanizmlari sinov ostiga qo'yilgan davr hisoblanadi [3]. Harbiy

xizmat psixologiyasi nuqtai nazaridan qaraganda, yangi harbiy xizmatchilarda quyidagi psixologik holatlar ko'proq kuzatiladi:

– Uydan uzoqlashish tufayli yuzaga keladigan nostalji va yolg'izlik hissi;

– Qattiq tartib-intizom va cheklovlar natijasida vujudga keladigan frustratsiya;

– Tengdoshlar guruhi ta'sirida o'z-o'zini isbotlash zarurati;

– Jismoniy va ruhiy charchash fonida stressga chidamlilik pasayishi;

– Xavf-xatar holatlarida tashvish va qo'rquv sindromlari.

Mazkur psixologik holatlar, ayniqsa intizomni to'g'ri o'rnatilmagan sharoitlarda, giyohvand moddalarni "tasalli" yoki "qochish" vositasi sifatida qabul qilish xavfini keskin oshiradi. A.Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, guruh ta'siri — ayniqsa yopiq kolektiv muhitlarda — shaxsning qaror qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Harbiy qism — bu aynan shunday yopiq, guruhiy ta'sir kuchli bo'lgan muhit [4].

Harbiy xizmatchilarda giyohvandlikka moyillik bir nechta psixologik va ijtimoiy omillar majmuasi bilan belgilanadi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: Impulsivlik, past o'z-o'zini baholash, his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyatining zaif rivojlanganligi, stress bilan kurashish strategiyalarining yetarli emasligi giyohvandlikka xavf omillarini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'z-o'zini tartibga solish (self-regulation) ko'nikmasi past bo'lgan yoshlar qiyin vaziyatlarda zararli moddalarni "yengillashtiruvchi" vosita sifatida ko'proq qabul qiladi [5].

Bolalik davomida kuzatilgan oiladagi giyohvandlik, zo'ravonlik yoki e'tiborsizlik muhiti shaxsning psixologik immunitetini zaiflashtirib, keyinchalik zararli odatlarga moyillikni oshiradi. Oilaviy aloqaning harbiy xizmat davrida uzilishi ham bu xavfni kuchaytiradi [6]. Harbiy muhitdagi "davra" madaniyati, yangi a'zolarni "sinash" an'analari yoki tajribali xizmatchilarga taqlid qilish ehtiyoji kuchli guruh bosimini vujudga keltiradi. Bu bosim ko'plab hollarda yoshlarni birinchi marta giyohvand moddani sinab ko'rishga undaydi [7]. Ayrim hududlarda harbiy qismlar yaqinida giyohvand moddalarning nisbatan oson topilishi va nazoratsiz dam olish vaqtlari xavf darajasini oshiradi. Bu omil tashqi (ekologik) omil sifatida e'tiborga olinishi kerak [8].

Psixologik immunitet - bu shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga, stress va salbiy ijtimoiy ta'sirlarga nisbatan ichki chidamliligidir. Bu tushuncha stressga chidamlilik (resilience), emotsional intellekt va proaktiv kurashish strategiyalarini o'z ichiga oluvchi murakkab psixologik konstrukt hisoblanadi. Psixologik immunitet mustahkam bo'lgan shaxs qiyin vaziyatlarda "qochish" yo'lini emas, balki muammoni hal qilish yo'lini tanlaydi [9].

Harbiy muhitda psixologik immunitetni shakllantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

1. Harbiy psixologik tayyorgarlik dasturlari: Xizmatga kirishdan oldin va xizmat davomida maxsus psixologik treninglar, emotsional chidamlilik mashqlari va stress menejment kurslari o'tkazish;

2. Individual psixologik maslahatlashuv: Har bir xizmatchiga individual psixologik yordam ko'rsatish, muammolar erta aniqlanganda psixolog yordamidan foydalanish imkoniyatini yaratish;

3. Guruhiy psixologik ish: Jamoaviy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan guruh mashg'ulotlari, guruh ichidagi sog'lom munosabatlarni shakllantirish;

4. Oilaviy aloqani qo'llab-quvvatlash: Harbiy xizmatchilarga oilasi bilan muntazam muloqot qilish imkoniyatini ta'minlash, bu esa ularning psixologik barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv deganda bir vaqtning o'zida psixologik, ijtimoiy, tibbiy va ma'naviy-tarbiyaviy choralarni birgalikda qo'llash tushuniladi. Bu yondashuv faqat taqiq yoki jazo choralariga emas, balki shaxsni ichki tomondan mustahkamlashga qaratilgan [10].

Harbiy muhitdagi integrativ profilaktika dasturining asosiy komponentlari:

1. **Kognitiv-xulq-atvor terapiyasi (KXT) elementlari:** Xizmatchilarga noto'g'ri fikrlash namunalarini aniqlash va ularni o'zgartirish ko'nikmalarini o'rgatish. Masalan, "Stressdan qochish uchun biror narsa kerak" degan noto'g'ri ishonchni "Stressni boshqarish mumkin va men buni uddalay olaman" degan konstruktiv fikrga almashtirish [11].

2. **Sport va jismoniy faollik dasturlari:** Muntazam jismoniy mashqlar endorfinlar ajralishini ta'minlab, tabiiy "ko'tarinki kayfiyat" holatini vujudga keltiradi. Bu esa kimyoviy moddalar orqali "yaxshi his" izlashga ehtiyojni kamaytiradi. Harbiy dasturlarda sport nafaqat jismoniy tayyor garlik, balki psixologik profilaktika vositasi sifatida ham qaralishi lozim [12].

3. **Ma'naviy-tarbiyaviy ishlar:** Vatanga muhabbat, oilaviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlash orqali yoshlar ongi va qalbida giyohvandlikka qarshi mustahkam to'siq yaratiladi. Bu yo'nalishda diniy-ma'naviy qiymatlar, folklor va milliy qahramon obrazlari tarbiyaviy maqsadlarda qo'llanilishi mumkin [13].

4. **Axborot va media savodxonligi:** Zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan giyohvandlikni "romantikashtiruvchi" yoki rag'batlantiradigan kontentni tanqidiy baholash ko'nikmasini rivojlantirish. Bu ko'nikma yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qiluvchi psixologik "kalqon" vazifasini bajaradi [14].

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA. Turli mamlakatlardagi harbiy psixologiya bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarda giyohvandlik xavfini kamaytirish uchun faqat taqiqlovchi va jazolovchi choralar yetarli emas. Aksincha, psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish, xizmatchilarga o'z muammolari haqida ochiq gapirish imkonini berish va profilaktik dasturlarni harbiy mashg'ulotlar bilan parallel ravishda olib borish eng samarali natijalarni bermoqda [15].

O'zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarda giyohvandlik profilaktikasini amalga oshirishda milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda quyidagi tavsiyalar berilishi mumkin:

– Har bir harbiy qismda malakali harbiy psixolog lavozimini joriy etish yoki mavjud psixologlarni harbiy psixologiya sohasida qayta tayyorlash;

– Harbiy xizmatchilarga mo'ljallangan maxsus psixologik profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;

– Xizmatga kirish arafasida barcha safarbarlik yoshidagi yoshlar uchun majburiy psixologik skrining o'tkazish;

– Ota-onalar va oila a'zolari bilan hamkorlikda profilaktik ishlarni olib borish.

XULOSA: Harbiy xizmatchilarda giyohvandlikka moyillikning psixologik omillarini o'rganish va ularning oldini olish — bu nafaqat harbiy, balki ijtimoiy va psixologik muammodir. Integrativ yondashuv doirasida psixologik immunitetni shakllantirish, guruhiy va individual psixologik yordam ko'rsatish, ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni tizimlashtirish va axborot xurujlaridan himoya qilish birgalikda qo'llanilganda amaliy natija beradi.

Harbiy xizmat yosh erkaklarning ijtimoiy kamolot yo'lida muhim bosqich bo'lib, bu davrda to'g'ri psixologik qo'llab-quvvatlash ularda nafaqat giyohvandlikka, balki turli xil hayotiy qiyinchiliklarga nisbatan ham mustahkam psixologik asosni shakllantirib beradi. Shu ma'noda, harbiy psixologiya sohasini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri sifatida ko'rilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. -Toshkent, 2020.

2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Giyohvandlik va psixoaktiv moddalar bo'yicha global hisobot. - Jeneva: JSST, 2023.

3. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. -New York: Norton, 1968. - 336 b.

4. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1977. -247 b.

5. Baumeister R.F., Vohs K.D. Handbook of Self-Regulation: Research, Theory, and Applications. - New York: Guilford Press, 2004. - 574 b.

6. Hawkins J.D., Catalano R.F., Miller J.Y. Risk and protective factors for alcohol and other drug problems in adolescence and early adulthood // Psychological Bulletin. - 1992. - № 112(1). - B. 64-105.

7. Cialdini R.B. Influence: The Psychology of Persuasion. - New York: Harper Business, 2006. - 320 b.

TALABALARDA MAQSADGA INTILUVCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH GIYOHVANDLIKKA QARSHI PSIXOLOGIK PROFILAKTIKANING MUHIM OMILI SIFATIDA

Babadjanova Sayyora Xushnutovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda maqsadga intiluvchanlik sifatlarini rivojlantirishning giyohvandlikka qarshi psixologik profilaktikadagi ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlarning hayotiy maqsadlari, motivatsion yo‘nalganligi, kelajakka bo‘lgan ishonchi va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari giyohvandlikka moyillikning oldini oluvchi muhim psixologik omillar sifatida yoritilgan. Talabalarda maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirish orqali ularning psixologik immunitetini mustahkamlash, salbiy ijtimoiy ta’sirlarga qarshi barqarorlikni oshirish hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: maqsadga intiluvchanlik, giyohvandlik profilaktikasi, talaba yoshlar, motivatsiya, psixologik immunitet, o‘z-o‘zini boshqarish, sog‘lom turmush tarzi, jamoat xavfsizligi.

Аннотация. В данной статье анализируется значение развития у студентов целеустремленности в психологической профилактике наркомании. Также жизненные цели, мотивационная направленность, уверенность в будущем и навыки самоуправления молодежи освещены как важные психологические факторы, предотвращающие склонность к наркомании. Изложены вопросы укрепления психологического иммунитета студентов путем развития целеустремленности, повышения устойчивости к негативным социальным воздействиям и формирования здорового образа жизни.

Ключевые слова: целеустремленность, профилактика наркомании, студенческая молодежь, мотивация, психологический иммунитет, самоуправление, здоровый образ жизни, общественная безопасность.

Abstract. This article analyzes the importance of developing goal-oriented qualities in students for psychological prevention of drug addiction. Furthermore, life goals, motivational orientation, confidence in the future, and self-management skills of young people are highlighted as important psychological factors in preventing addiction. The issues of strengthening students' psychological immunity, increasing resilience to negative social influences, and forming a healthy lifestyle through the development of goal-setting are described.

Keywords: purposefulness, drug addiction prevention, student youth, motivation, psychological immunity, self-management, healthy lifestyle, public safety.

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy-axloqiy, intellektual va psixologik salomatligini mustahkamlash, ularni turli yot g‘oyalar hamda zararli illatlardan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish hamda giyohvandlik va boshqa salbiy illatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy islohotlari ushbu yo‘nalishdagi ishlarning poydevori hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi hamda O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-iyuldagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni bu boradagi profilaktik ishlar samaradorligini yangi bosqichga olib chiqishni talab etadi [1].

So‘nggi yillarda yoshlar, ayniqsa talaba yoshlar orasida giyohvandlik va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq globallashuv, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yangi turdagi sintetik narkotiklar va psixofaol moddalar targ‘ibotining kuchayishi talabalar orasida

giyohvandlikka moyillikning ichki psixologik omillarini chuqur tadqiq etishni taqozo qilmoqda [2].

Mazkur sharoitda talabalarda maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirish, ularda aniq hayotiy strategiyalar, kasbiy istiqbol va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirish giyohvandlikka qarshi psixologik profilaktikaning fundamental omili sifatida namoyon bo‘ladi. Maqsadga yo‘naltirilgan, kelajagini aniq rejalashtirgan va o‘z xulq-atvorini samarali boshqara oladigan yoshlar destruktiv ta’sirlarga nisbatan yuqori bardoshlilik namoyon etadi. Shu jihatdan talabalarda maqsadga intiluvchanlikning psixologik determinantlarini o‘rganish va undan profilaktikada foydalanish yuqori ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Maqsadga intiluvchanlik - shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan uzoq va yaqin muddatli maqsadlariga erishish yo‘lida qat’iyatlilik, iroda va faollik bilan harakat qilishini ifodalovchi irodaviy sifatdir. Zamonaviy psixologiya fanida ushbu sifat shaxsning motivatsion sohasi, qadriyatlar tizimi va o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganiladi.

G‘arb psixologiyasida ushbu fenomen shaxs kamoloti va adaptatsiyasi kontekstida tahlil qilingan. A. Maslou o‘zining ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasida insonning eng yuqori ehtiyoji sifatida o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ehtiyojini ko‘rsatadi. Olimning fikricha, inson aniq hayotiy maqsad va mazmunga ega bo‘lgandagina o‘z salohiyatini to‘liq namoyon qila oladi [8]. Talabalarda mazkur ehtiyojning faollashishi ularni vaqtinchalik va sun'iy qoniqish beruvchi omillardan (giyohvandlik) asrab, shaxsiy va kasbiy yuksalishga yo‘naltiradi.

K. Rojersning shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvida insonning "to‘liq faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs" bo‘lishga intilishi asosiy omil hisoblanadi. Rojersga ko‘ra, shaxs o‘z hayotining mazmunini anglagan va kelajak maqsadlarini mustaqil belgilay olgan sari destruktiv hamda o‘z-o‘zini yakson qiluvchi xulq-atvordan uzoqlashadi.

E. Deki va R. Rayanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, ichki motivatsiya (intrinsic motivation) inson xulq-atvorining eng barqaror va sog‘lom manbaidir. Talabalarda avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlarining qondirilishi ularda kuchli iroda va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi [9]. Bu esa tengdoshlar bosimi ostida narkotik moddalarni qabul qilish taklif qilinganda, talabada "Yo‘q!" deb ayta olish ko‘nikmasini (psixologik resursni) yuzaga keltiradi.

Maqsadga intiluvchanlik muammosi faoliyat va tizimli yondashuvlar doirasida MDH olimlari tomonidan ham keng o‘rganilgan. A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, barqaror va ijobiy yo‘naltirilgan motivlar shaxs xulq-atvorini boshqaruvchi asosiy ierarxik mexanizmdir. Talabalarda yetakchi kasbiy motivlarning mavjudligi ularning ijtimoiy adaptatsiyasini osonlashtiradi va hayotiy inqirozlarni narkotik moddalarsiz yengib o‘tishga zamin yaratadi [6]. L.I. Bojovich esa yoshlik davrida kelajakka yo‘naltirilganlik va ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarning shakllanishi shaxsning salbiy tashqi ta’sirlarga nisbatan ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlashini isbotlagan [7].

O‘zbekistonlik psixolog olimlar ham yoshlar xulq-atvori va irodaviy sifatlari shakllanishini milliy muhit kontekstida tadqiq etganlar. E.G‘. G‘oziyev shaxs kamolotida mustaqil fikrlash, iroda va maqsadning aniqligi hal qiluvchi o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, maqsadning aniqligi inson faoliyatini va energiyasini bir nuqtaga jamlaydi [3].

V.M. Karimova yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida ijtimoiy pozitsiya, o‘zini o‘zi anglash va ijtimoiy intellektning shakllanishi salbiy ijtimoiy ta’sirlarga qarshi kuchli himoya sferasi bo‘lib xizmat qilishini qayd etadi [4]. G‘.B. Shoumarov tadqiqotlarida esa oilaviy qadriyatlar, ma’naviy muhit va yoshlarning ijtimoiy faolligi ularni turli deviant (xulqi og‘ishgan) ko‘rinishlardan, jumladan, toksikomaniya va giyohvandlikdan himoya qiluvchi mikro-ijtimoiy omil ekanligi asoslangan [5].

Talabalik davri shaxs hayotidagi eng dinamik va shu bilan birga inqirozlarga boy davr hisoblanadi. Hayotiy maqsadlarning noaniqligi, kelajak oldidagi fundamental qo‘rquvlar (ekzistensial vakuum) ayrim yoshlarni depressiv holatlarga va qochish (eskapizm) mexanizmi

sifatida giyohvand moddalarga yetaklashi mumkin. Maqsadga intiluvchan talabalarda esa psixologik profilaktika quyidagi determinantlar orqali tabiiy ravishda amalga oshadi:

Aniq hayotiy maqsad ➔ Ichki motivatsiya ➔ O‘z-o‘zini nazorat qilish ➔ Psixologik immunitet ➔ Giyohvandlikka nisbatan inkor pozitsiyasi

Psixologik immunitet shaxsning tashqi salbiy axborotiy, ijtimoiy-psixologik bosimlarga faol qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir. Maqsadga intiluvchan talabalar har bir harakatini o‘z kelajagi va kasbiy muvaffaqiyati prizmasidan o‘tkazganligi sababli, giyohvand moddalar iste'molini o‘z maqsadlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid deb baholaydilar.

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda maqsadga intiluvchanlikni tizimli rivojlantirish giyohvandlikka qarshi psixologik profilaktikaning eng samarali va ijobiy (pozitiv) yo‘nalishidir. Profilaktika shunchaki qo‘rqitish yoki taqiqlash emas, balki shaxsda hayotiy muqobil (alternativ) maqsadlarni shakllantirish orqali amalga oshirilishi lozim.

Oliy ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat tizimida talabalarning maqsadga intiluvchanligini oshirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni joriy etish tavsiya etiladi:

1. Talabalarning uzoq muddatli hayotiy va kasbiy maqsadlarini modellashtiruvchi tayanch treninglar dasturini yo‘lga qo‘yish;
2. Stress holatlarini konstruktiv (ijobiy) yengib o‘tish ko‘nikmalarini shakllantirish;
3. Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligida integrativ profilaktik monitoring tizimini takomillashtirish.

Talabalarda maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, sog‘lom turmush tarzi va jamoat xavfsizligini mustahkamlashning eng ishonchli psixologik kafolati bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O‘zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida"gi PF-37-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 3-iyuldagi "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida"gi O‘RQ-935-son Qonuni.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. – 540 b.
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 220 b.
5. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2010. – 320 b.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1977. – 304 с.
7. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 2008. – 398 с.

XULQI OG‘ISHGAN BOLALARDA NARKOMANIYAGA MOYILLIK VA UNING OLDINI OLISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Bobojonova Zuhra Sotimboy qizi

UrDU “Pedagogika va psixologiya”kafedrasi

3-kurs talabasi

+998939707305

@bobojonovazuhra8262@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada xulqi og‘ishgan bolalar bilan amaliy ishlash, ularga to‘g‘ri ijtimoiy-psixologik yo‘nalish ko‘rsatish hamda korreksion tarbiyalash jarayoniga yo‘naltirilgan zamonaviy konseptual yondashuvlar atroflicha yoritilgan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlangan globallashuv davrida voyaga yetmaganlar o‘rtasida kiber-deviatsiya va global tarmoq orqali psixotrop dori vositalariga ruju qo‘yish, ya’ni yangi turdagi kimyoviy tobelik muammolari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, deviant xulq-atvorga ega o‘smirlarda narkomaniyaga moyillikning psixologik determinanti sifatida ataraktik, submissiv va hedonistik motivlar tadqiq

etilib, ularning barvaqt oldini olishda maktab psixologlari va profilaktika inspektorlarining yagona raqamli elektron tizimlar orqali hamkorlik qilish mexanizmlari ilmiy asosda bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, narkomaniya, psixotrop moddalar, kimyoviy tobelik, raqamli texnologiyalar, kiber-deviatsiya, ataraktik motiv, submissiv motiv, hedonistik motiv, raqamli monitoring, psixologik korreksiya.

Abstract: The article outlines modern conceptual approaches aimed at practical work with children with deviant behavior, guiding them socially and psychologically, and providing correctional education. In the era of globalization characterized by rapid development of information and communication technologies, cyber-deviance among minors and the misuse of psychotropic substances through the global network—representing emerging forms of chemical dependency—are thoroughly analyzed. Furthermore, ataractic, submissive, and hedonistic motives are investigated as psychological determinants of drug addiction vulnerability in adolescents with deviant behavior. The scientific basis for preventative collaboration between school psychologists and prevention officers through unified digital electronic systems is thoroughly discussed.

Keywords:deviant behavior, drug addiction, psychotropic substances, chemical dependency, digital technologies, cyber-deviance, ataractic motive, submissive motive, hedonistic motive, digital monitoring, psychological correction.

Аннотация: В статье подробно освещаются современные концептуальные подходы, направленные на практическую работу с детьми с девиантным поведением, оказание им правильной социально-психологической ориентации и коррекционное воспитание. В эпоху глобализации, характеризующуюся бурным развитием информационно-коммуникационных технологий, глубоко анализируются проблемы кибердевиации среди несовершеннолетних и злоупотребления психотропными веществами через глобальную сеть, представляющие собой новые виды химической зависимости. Также исследуются атарактические, субмиссивные и гедонистические мотивы как психологические детерминанты склонности к наркозависимости у подростков с девиантным поведением, и на научной основе излагаются механизмы превентивного взаимодействия школьных психологов и инспекторов профилактики посредством единых цифровых электронных систем.

Ключевые слова: девиантное поведение, наркотическая зависимость, психотропные вещества, химическая зависимость, цифровые технологии, кибердевиация, атарактический мотив, субмиссивный мотив, гедонистический мотив, цифровой мониторинг, психологическая коррекция.

KIRISH. Bugungi jadal taraqqiyot, globallashuv va hayotning barcha sohalariga raqamli texnologiyalar chuqur kirib borayotgan davrda yosh avlod tarbiyasi, ularning ruhiy salomatligi hamda ijtimoiy muhitga ijobiy moslashuvi amaliy psixologiya va menejment sotsiologiyasining eng markaziy muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, o‘smirlar va voyaga yetmaganlar o‘rtasida an’anaviy deviant xulq-atvor ko‘rinishlari (maktabdan qochish, darslarni o‘zlashtirmaslik, mayda bezoriliklar) bilan bir qatorda, virtual makonda vujudga kelayotgan va kundan-kunga murakkablashib borayotgan kiber-deviatsiya hamda internet tarmog‘i zaminida shakllanayotgan yangi turdagi kimyoviy tobelik (narkomaniya, dori vositalariga qaramlik) xavfi keskin ortib bormoqda. Zamonaviy global tarmoq va ijtimoiy platformalar yoshlar uchun nafaqat bilim manbai yoki muloqot vositasi, balki taqiqlangan dori vositalari, psixotrop moddalarning yashirin savdosi (anonim messencerlar, yopiq guruhlar va "darknet" tizimlari) amalga oshiriladigan xavfli hududga ham aylanib bormoqda. Bu holat deviant xulqli bolalarda narkomaniyaga moyillik mexanizmlarini qayta o‘rganish va uning oldini olish tizimini mutlaqo yangi raqamli innovatsiyalar darajasiga olib chiqishni hayotiy taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug’ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish tog’risidagi “ qaroriga ko‘ra voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilik va narkomaniyaga ular o‘rtasida qarshi kurashish, jinoyatchiliklarni oilaviy munosabatlar va shaxsning ijtimoiy munosabatlar

itizimidagi uzviy aloqasi doirasida o‘rganishni taqozo etadi [1]. Mazkur qonuniy asos davlat organlari va ta’lim muassasalari zimmasiga voyaga yetmaganlar xulqidagi og‘ishlarni barvaqt aniqlash hamda tizimli ravishda oila-maktab-mahalla zanjiri doirasida profilaktika ishlarini tashkil etish majburiyatini yuklaydi.

Har bir jamiyat, uning tarixiy taraqqiyot bosqichidan qat’iy nazar, o‘zining mustahkam belgilangan ijtimoiy xulq-atvor dasturlari tizimiga va jamoatchilik fikri, qonunlar, urf-odatlar, axloqiy tamoyillar hamda milliy an’analar kuchiga tayanuvchi umumiy xulq-atvor qoidalariga ega bo‘ladi. Ijtimoiy normalar jamiyat a’zolarining xavfsizligi va tizimli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biroq, og‘ir tarbiyali va ijtimoiy adaptatsiyasi buzilgan bolalar jamiyatda o‘rnatilgan qonuniy qoida va axloqiy me’yorlarga rioya qilmaydi, ularni qasddan yoki nazoratsizlik oqibatida buzishga moyil bo‘ladi. Bunday ijtimoiy normalardan chetga chiqish holati ilm-fanda deviatsiya deyiladi (lotin tilida *deviation* – og‘ishlik, chetlanish ma’nosini anglatadi).

Yirik huquqshunos va sotsiolog olimlarning qarashlariga tayanadigan bo‘lsak, deviatsiya (og‘ishlik) – bir tomondan uni o‘rab turgan va atrof-muhitga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik ijtimoiy-psixologik hodisasidir [4, B. 15]. Ushbu dinamik o‘zgaruvchanlik ijtimoiy muhitda bevosita inson xulq-atvori, uning ehtiyojlari hamda qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat inqirozga uchragan yoki raqamli transformatsiyalar davrida an’anaviy qadriyatlar tizimi zaiflashganda, yoshlar o‘rtasida o‘zlikni anglash va moslashish qiyinchiliklari tufayli xulq-atvor og‘ishlari keskin ko‘payadi.

Guruh tarkibida o‘smirlarning jamoaviy mas’uliyatsizligi shakllanadi va jinoiy ishlarga qo‘l urish osonlashadi. Hozirgi kunda xulqi og‘ishgan bolalar va o‘smirlar o‘rtasida an’anaviy giyohvandlik vositalaridan ko‘ra sun’iy sintez qilingan kuchli ta’sir etuvchi dorilar va psixotrop moddalarga nisbatan “kimyoviy tobelik” ko‘proq uchramoqda va jadal kengaymoqda [2, B. 45].

O‘tgan davrlarda o‘tkazilgan ijtimoiy-psixologik sotsiologik tadqiqotlar ma’lumotlariga ko‘ra, yosh avlod vakillarining, ayniqsa 15 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarning katta qismi (ayrim hududlarda 70 foizgacha) hayoti davomida u yoki bu darajada noqonuniy giyohvandlik va psixotrop moddalarning mavjudligi bilan to‘qnash kelganlar yoki ularning ta’sir doirasiga tushib qolganlar [5, S. 112]. Qizlar orasida bu ko‘rsatkich nisbatan pastroq bo‘lsa-da, bugungi kunda internet tarmog‘ining anonimligi sababli barcha jins vakillari o‘rtasida ko‘rsatkichlar tenglashib borish xavfi mavjud. Doimiy ravishda psixotrop moddalarni iste’mol qiluvchi yoshlarning deyarli barchasi mazkur zaharli og‘ular bilan ilk bor aynan maktab va kollej yoshlarida, ya’ni shaxs inqirozi davrida uchrashganliklari ilmiy tahlillarda isbotlangan [5, S. 114].

Giyohvandlikka oid motivatsiyaning psixologik tahlili

O‘smirlik davrida narkomaniyaga va psixotrop dorilarga bo‘lgan bog‘liqlik hissi o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Uning ortida kuchli psixologik motivlar va shaxs ichki inqirozlari yotadi. Zamonaviy deviantologiya va amaliy psixologiya fanida o‘smirlarning psixotrop dori vositalarini dastlabki tatib ko‘rishi va ularga ruju qo‘yishining quyidagi asosiy motivatsion guruhlari tizimlashtirilgan:

Ataraktik motiv (ataraktik yo‘nalish) – bu shaxsning ichki psixologik noqulaylik, emotsional tanglik, kuchli qo‘rquv, xavotirlanish hamda surunkali stress holatlaridan qutulish hamda soxta psixologik relaksatsiyaga (ruhiy bo‘shashishga) erishishga bo‘lgan patologik intilishidir [2, B. 47]. Zamonaviy raqamli makonda yoshlar doimiy axborot xurujlari, internetdagi kiberbulling (virtual kamsitish va tazyiq) hamda ota-onalar bilan jonli muloqot yetishmasligi oqibatida chuqur depressiyaga tushib qolmoqdalar va undan chiqish yo‘lini sintetik dorilar qabul qilishda deb bilmoqdalar.

Submissiv motiv (bo‘ysinish motivatsiyasi) – o‘smirning o‘zi a’zo bo‘lgan norasmiy real yoki virtual guruh (ijtimoiy tarmoqlardagi yopiq guruhlar, kanallar) a’zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga, ulardan ajralib qolmaslikka va o‘sha guruhning talablariga so‘zsiz bo‘ysinishga bo‘lgan ehtiyojidir [2, B. 48]. O‘smir "agar men rad etsam, meni guruhdan haydashadi, ustimdan kulishadi" degan qo‘rquv ostida psixotrop moddalarni iste’mol qila boshlaydi.

Hedonistik motiv (shaxsiy lazzatga intilish) – shaxsning hech qanday mehnat va harakatlarsiz, sun’iy ravishda o‘ziga xos jismoniy hamda ruhiy qoniqish (eyforiya, soxta baxt) olishga bo‘lgan o‘ta kuchli egotsentrik xohishidir [2, B. 49]. Bunday o‘smirlarda iroda sustligi va hayotiy maqsadlarning yo‘qligi yetakchilik qiladi.

Narkomaniya – giyohvand moddalar, psixotrop moddalarga hamda kuchli ta’sir qiluvchi dori vositalariga haddan ortiq ruju qo‘yish, ularga jismoniy va ruhiy jihatdan to‘liq qaram bo‘lib qolish kasalligidir. Psixotrop moddalar, xususan, keng tarqalgan neyroleptiklar, trankvilizatorlar va psixostimulyatorlar dorilar guruhi kishining oliy nerv faoliyati va ruhiy tizimiga bevosita ta’sir o‘tkazuvchi kimyoviy birikmalardir [2, B. 50]. Tibbiyot amaliyotida ular es-hushni butunlay buzmagan holda bemorlardagi alaxlash, gallyutsinatsiyalar, og‘ir depressiyalar va o‘tkir psixozga xos bo‘lgan simptomlarni yo‘qotish, nerv-ruhiy kasalliklarni davolash maqsadida faqat shifokor nazorati ostida qo‘llaniladi [2, B. 51].

Biroq, ijtimoiy pedagogik va ruhiy nazoratdan chetda qolgan deviant bolalar ushbu moddalarni (masalan, kokain, nasha, tramadol, lirik, tropikamid kabi dorilar, shuningdek elektron sigaret va veyplardagi sintetik nikotin moddalarini) o‘zlarining sun’iy eyforik holatlarini qo‘zg‘atish uchun noqonuniy ravishda o‘zlashtirmoqdalar. Ko‘pchiligi ichish, chekish yoki burun orqali hidlash yo‘li bilan qabul qilinadi. Bu moddalar iste’mol qilinganda markaziy nerv tizimida gormonal muvozanat buzilib, qisqa muddatli efemiya (eyforiya) holati kuzatiladi [2, B. 52]. Moddaning organizmdagi kuchi tugagach, o‘smir shaxsida o‘ta og‘ir destruktiv reaksiyalar, tajovuzkorlik va depressiya yuzaga keladi. Doza miqdori nazorat qilinmaganda esa yakun o‘lim bilan tugaydi. Mashhur psixoanalitik olim X. Kohut o‘zining ilmiy tadqiqotlarida bu holatni mukammal tushuntirib bergan: "Giyohvandlik va kimyoviy moddalarga tobelik o‘smir shaxsining ichki psixologik tuzilmasidagi chuqur patologik nuqsonlarning o‘rnini bosishga, ya’ni oiladagi mehr yetishmasligi, o‘zini yolg‘iz his qilish va emotsional bo‘shliqni soxta to‘ldirishga xizmat qiladi" [3, S. 84].

Xulqi og‘ishgan bolalar bilan korreksion va reabilitatsiya ishlarini tashkil etishda faqatgina bolaning o‘zi bilan cheklanib qolmasdan, uning oilaviy muhitiga ham bevosita fundamental e’tibor qaratish lozim. Zero, ko‘pchilik bolalardagi “xulq og‘ishi” va zararli moddalarga moyillik sabablari to‘g‘ridan-to‘g‘ri nosog‘lom oilaviy munosabatlarga (ota-onaning ajrashishi, oiladagi zo‘ravonlik, e’tiborsizlik) borib taqaladi [2, B. 52]. Shu maqsadda amaliyotda professional “psixologlar guruhi” tuzilgan holda, ham xulqi og‘ishgan voyaga yetmaganlar, ham ularning ota-onalari ishtirokida tizimli ijtimoiy-psixologik korreksiya va trening ishlari amalga oshirilishi shart [2, B. 53].

“Xulqi og‘ishgan” o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikka, huquqbuzarliklarga va jinoiy guruhlarga qo‘shilib ketishga moyillik o‘ta yuqori bo‘ladi. Jinoyatchilik va giyohvandlikning barvaqt oldini olish maqsadida maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar maktablarida tizimli ravishda ma’ruzalar, chora-tadbirlar, davra suhbatlari o‘tkazib kelinadi. Maktab amaliyotchi psixologlari va voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha inspektor-psixologlar bugungi kunda o‘z faoliyatlarini zamonaviy axborot tizimlari bilan integratsiya qilishlari shart. Bu yo‘nalishda quyidagi raqamli texnologiyalar amaliyotga joriy etilmoqda:

1. Avtomatlashtirilgan raqamli kiber-monitoring: O‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram, TikTok) shubhali guruhlarga a’zoligi va deviant kontentlarga qiziqishlarini psixologik jihatdan tahlil qiluvchi maxsus algoritmlar va elektron platformalar (masalan, "E-Profilaktika" tizimi) orqali xavf ostidagi bolalar guruhi aniqlanadi [5, S. 116].

2. Anonim raqamli psixologik yordam xizmatlari: Giyohvand moddalar savdogarlari tuzog‘iga tushib qolgan yoki ruhiy tushkunlikda bo‘lgan o‘smirlar o‘z shaxslari sir qolishi kafolatlangan holda professional psixologik maslahat olishlari uchun yopiq va xavfsiz Telegram-botlar va onlayn platformalar faoliyati kengaytirilmoqda.

3. Yoshlarni foydali kiber-faoliyatga yo‘naltirish: Deviant xulqli bolalarning bo‘sh vaqtini unumli va unumdor o‘tkazish maqsadida ularni zararli virtual guruhlardan uzoqlashtirib, zamonaviy IT-to‘garaklari, dasturlash asoslari, robototexnika hamda intellektual kibersport jamoalariga jalb etish choralari ko‘riladi.

Maktab psixologlari va mahalla profilaktika inspektorlari hamkorlikda deviantlik belgilari endi paydo bo‘layotgan o‘smirlar bilan yakka tartibda tushuntirish ishlarini olib boradilar va raqamli tizimlar orqali bolaning rivojlanish dinamikasini onlayn nazorat qiladilar [2,B. 54].

XULOSA. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “deviant” xulqli va narkomaniyaga moyilligi bo‘lgan o‘smirlar bilan ishlash jarayoni psixologlardan va pedagoglardan o‘ta yuksak ehtiyotkorlik, kasbiy mahorat va konfidentsiallikni (sir saqlash tamoyilini) talab etadi. Bola o‘zining maxsus nazoratda ekanligini bilmasligi, aks holda unda jamiyatga va mutaxassislarga nisbatan kuchliroq agressiya yoki ichki qarshilik paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham barcha profilaktik harakatlar o‘smirga bildirmasdan, maxfiylikni to‘liq saqlagan holda professional “ishchi guruh” (psixolog, profilaktika inspektori, sinf rahbari va ota-ona) tomonidan raqamli ma’lumotlar bazasiga tayangan holda olib borilishi lozim. Raqamli tuzoqlarga yoki kimyoviy moddalar og‘ushiga tushib qolgan har bir deviant bolani tezroq asrab qolish, ularning ruhiyatidagi emotsional bo‘shliqlarni to‘ldirish va ularni zamonaviy axborot jamiyatiga moslashgan, vataniga va oilasiga sodiq, sog‘lom va komil shaxs ruhida tarbiyalash bugungi kun amaliy psixologlarining eng oliy maqsad va vazifasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug‘ullanuvchi komissiyalar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risidagi” qarori // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy ma’lumotlar bazasi sayti: http://www.lex.uz.
2. Abduvahobova D. *Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 120 b.
3. Kohut H. *The Restoration of the Self*. – New York: International Universities Press, 1977. – Pp. 84-91. (Ruscha nashri: *Lichko A.E. Tipologii akcentuaciy xaraktera u podrostkov*. – M.: Aprel Press, 2000. – S. 84).
4. Zmanovskaya E. V. *Deviantologiya: (Psixologiya otklonyayushegosya povedeniya): Ucheb. posobie dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy*. – M.: Akademiya, 2003. – 288 s.
5. Grebenyuk A. A. *Ximicheskaya zavisimost i kiberdeviaciya v sovremennom obshestve*. // Voprosi psixologii, №4, 2021. – S. 112-118.

REZILENTLIK VA UNING SHAXS PSIXIK TARQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

***X.K.Bekchanov**-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, p.f.b.f.d.,(PhD)*

Annotatsiya. Mazkur maqoladaa rezilentlik tushunchasi, uning mohiyati hamda shaxs taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Rezilentlik insonning stress, muammo va qiyinchiliklarga moslashish, ulardan chiqib ketish va o‘z rivojlanishini davom ettirish qobiliyatida nomoyon bo’lishi haqida bayon qilinib, rezilentlikning psixologik omillari, uni shakllantirish usullari hamda shaxsning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga ta’siri tahlil qilinadi. Ushbu maqola orqali shaxsning barqarorligi, moslashuvchanligi va muvaffaqiyatga erishishdagi muhim jihatlar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar:rezilentlik, shaxs taraqqiyoti, psixologik barqarorlik, moslashuvchanlik, stressga chidamlilik, rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, emotsional intellekt

Аннотация. В данной теме рассматривается понятие резилентности, её сущность и значение в развитии личности. Резилентность определяется как способность человека адаптироваться к стрессам, трудностям и неблагоприятным условиям, сохраняя психологическую устойчивость и продолжая личностный рост. Также анализируются психологические факторы резилентности, способы её формирования и влияние на социальное и эмоциональное развитие личности.

Ключевые слова: резилентность, развитие личности, психологическая устойчивость, адаптация, стрессоустойчивость, личностный рост, социальная адаптация, эмоциональный интеллект

Annotation. This topic explores the concept of resilience, its essence, and its importance in personal development. Resilience is defined as an individual's ability to adapt to stress, challenges, and adverse situations while maintaining psychological stability and continuing personal growth. The discussion also includes psychological factors of resilience, methods of its development, and its impact on social and emotional aspects of personality development.

Keywords:resilience, personal development, psychological stability, adaptability, stress resistance, personal growth, social adaptation, emotional intelligence

Zamonaviy jamiyat sharoitida inson hayoti turli xil murakkabliklar, stressli vaziyatlar va kutilmagan o‘zgarishlarga boy bo‘lib bormoqda. Bunday sharoitda shaxsning ruhiy barqarorligi, muammolarga bardoshliligi va o‘zini tiklash qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Ana shunday muhim psixologik sifatlar majmuasi rezilentlik (resilience) tushunchasi orqali ifodalanadi. Rezilentlik – bu insonning qiyinchiliklarga qarshi turish, stressli vaziyatlardan chiqib ketish va hatto ular orqali rivojlanish qobiliyatidir.

Rezilentlik tushunchasi psixologiya fanida nisbatan yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. U dastlab travma, stress va inqiroz holatlarini o‘rganish jarayonida paydo bo‘lgan[1]. Tadqiqotchilar ayrim insonlar og‘ir hayotiy vaziyatlarga qaramay, ruhiy jihatdan barqaror qolishi va muvaffaqiyatga erishishini kuzatib, bu holatni tushuntirishga harakat qilganlar. Natijada rezilentlik shaxsning muhim psixologik xususiyati sifatida e’tirof etildi.

Shaxs psixik taraqqiyotida rezilentlikning o‘rni nihoyatda katta. Avvalo, u insonning stressga nisbatan munosabatini belgilaydi. Rezilent shaxs stressli vaziyatlarni falokat sifatida emas, balki muammoni hal qilish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Bu esa uning emotsional barqarorligini saqlashga yordam beradi. Aksincha, rezilentligi past bo‘lgan shaxslar stressni og‘ir qabul qiladi, tez tushkunlikka tushadi va muammolarni hal qilishda qiynaladi.

Rezilentlik shaxsning emotsional rivojlanishida ham muhim rol o‘ynaydi. U insonning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, salbiy emotsiyalarni nazorat qilish va ijobiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi[2]. Masalan, muvaffaqiyatsizlikka uchragan rezilent shaxs o‘zini ayblash yoki tushkunlikka tushish o‘rniga, xatolaridan saboq chiqaradi va yana harakat qilishga intiladi. Bu esa uning psixik rivojlanishini tezlashtiradi.

Shuningdek, rezilentlik ijtimoiy moslashuv jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Inson jamiyatda turli xil odamlar, qarashlar va vaziyatlar bilan to‘qnash keladi[3]. Rezilent shaxs bunday holatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatadi, muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa oladi va boshqalar bilan samarali muloqot qiladi. Bu esa uning ijtimoiy kompetentligini oshiradi.

Shaxsning psixik taraqqiyotida rezilentlikning yana bir muhim jihati – bu o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirishga bo‘lgan intilishdir[4]. Rezilent inson o‘z kuchli va zaif tomonlarini anglaydi, o‘z ustida ishlashga harakat qiladi va doimiy ravishda o‘zini rivojlantirishga intiladi. Bu esa uning shaxs sifatida yetuklashuviga olib keladi.

Rezilentlikning shakllanishi ko‘plab omillarga bog‘liq. Ular orasida oilaviy muhit, tarbiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy tajribasi muhim o‘rin tutadi. Masalan, mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi muhitda tarbiya topgan bolalarda rezilentlik darajasi yuqori bo‘ladi. Chunki ular muammolarga duch kelganda o‘zini yolg‘iz his qilmaydi va yechim topishga ishonch bilan yondashadi.

Ta’lim jarayoni ham rezilentlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘qituvchilar o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish va ijobiy motivatsiyani shakllantirish orqali ularning rezilentligini oshirishlari mumkin. Ayniqsa, muvaffaqiyatsizlikka nisbatan to‘g‘ri munosabatni shakllantirish muhimdir. O‘quvchilarga xato qilish tabiiy jarayon ekani tushuntirilsa, ular qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan bo‘lib ulg‘ayadi.

Zamonaviy psixologiyada rezilentlikni rivojlantirish uchun turli metod va texnologiyalar ishlab chiqilgan[5]. Jumladan, kognitiv-behavioral yondashuvlar, stressni boshqarish texnikalari, meditativ mashqlar va psixologik treninglar keng qo‘llaniladi. Bu usullar insonning fikrlash tarzini

ijobiy tomonga o‘zgartirishga, emotsiyalarni boshqarishga va ichki resurslarni faollashtirishga yordam beradi.

Rezilentlikning yana bir muhim jihati shundaki, u insonning kelajakdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Hayotda muvaffaqiyatga erishgan ko‘plab insonlar aynan qiyinchiliklarga bardosh berish va ulardan saboq chiqarish qobiliyati bilan ajralib turadi. Demak, rezilentlik nafaqat psixik barqarorlikni ta’minlaydi, balki shaxsning kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatiga ham zamin yaratadi.

Xulosa. Rezilentlik shaxs psixik taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. U insonning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini belgilaydi. Shu sababli, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida rezilentlikni shakllantirish va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Chunki rezilent shaxs nafaqat o‘z hayotida muvaffaqiyatga erishadi, balki jamiyat rivojiga ham munosib hissa qo‘sha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ann Masten. *Ordinary Magic: Resilience in Development*. New York: Guilford Press, 2001.
2. Norman Garmezy. *Stress, Competence, and Development: Continuities in the Study of Schizophrenia*. New York: McGraw-Hill, 1991.
3. Michael Rutter. *Resilience in the Face of Adversity: Protective Factors and Resistance to Psychiatric Disorder*. British Journal of Psychiatry, 1987.
4. Martin Seligman. *Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life*. New York: Vintage Books, 2006.
5. Albert Bandura. *Self-Efficacy: The Exercise of Control*. New York: W.H. Freeman, 1997.

YOSHLAR ORASIDA VIRTUAL QARAMLIK VA GIYOHVANDLIKKA MOYILLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Djumaniyazova Muxayya Xusinovna*-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, ps.f.d.(DSc),prof.v.b*

Rajabboyeva Aziza Davronbekovna *- Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti, psixologiya mutaxassisligi magistranti.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy yoshlar orasida keng tarqalgan virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida internet va kompyuter o‘yinlariga ortiqcha bog‘lanish, shaxsning stress va frustratsiyaga chidamliligi, shuningdek, oilaviy va ijtimoiy muhitning giyohvandlik xavfini oshiruvchi omillar sifatidagi roli o‘rganiladi. Natijalar virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Virtual qaramlik, giyohvandlikka moyillik, ijtimoiy-psixologik omillar, yoshlar psixologiyasi, profilaktika.

Аннотация.В данной статье проводится социально-психологический анализ психологической связи между виртуальной зависимостью и предрасположенностью к наркомании среди современной молодёжи. В ходе исследования изучается роль чрезмерной привязанности к интернету и компьютерным играм, устойчивости личности к стрессу и фрустрации, а также семейной и социальной среды как факторов, повышающих риск наркомании. Результаты показывают наличие статистически значимой связи между виртуальной зависимостью и предрасположенностью к наркомании.

Ключевые слова. Виртуальная зависимость, предрасположенность к наркомании, социально-психологические факторы, психология молодёжи, профилактика.

Abstract. This article provides a socio-psychological analysis of the psychological relationship between virtual addiction and drug susceptibility among modern youth. The study examines the role of excessive attachment to the internet and computer games, personality resilience to stress and frustration, as well as family and social environment as factors increasing the risk of drug addiction. The results demonstrate a statistically significant relationship between virtual addiction and drug susceptibility.

Keywords. Virtual addiction, drug susceptibility, socio-psychological factors, youth psychology, prevention.

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlar hayotining barcha sohalariga katta ta'sir koʻrsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va kompyuter oʻyinlari yoshlar uchun nafaqat bilim olish va kommunikatsiya vositasi, balki koʻngil qoldirish va real dunyodan qochish maydoniga aylanib qolgan. [4] Bu holat virtual qaramlik muammosini yuzaga keltirgan boʻlib, u jahon sogʻliqni saqlash tashkilotlari tomonidan rasman tan olingan psixologik buzilish sifatida e'tirof etilmoqda.

Virtual qaramlik - bu internet, kompyuter oʻyinlari yoki ijtimoiy tarmoqlarga normadan ortiq darajada bogʻlanish natijasida yuzaga keladigan xulq-atvor qaramligi hisoblanadi.[6] Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, virtual qaramlikdan aziyat chekuvchi shaxslar koʻpincha real dunyo muammolaridan qochish, stressorlarga chidamsizlik va impulsiv boshqaruv qiyinchiliklarini namoyon qiladi. [8] Bu xususiyatlar giyohvandlikka moyillikning shakllanishida muhim rol oʻynaydigan psixologik xususiyatlardir. Giyohvandlik esa jamiyat uchun eng xavfli ijtimoiy illatlardan biri hisoblanadi.[3] Giyohvandlikka moyillik -bu shaxsning psixologik va biologik xususiyatlariga koʻra psixoaktiv moddalarni qabul qilishga nisbatan oshkora yoki yashirin intiho qilish tendentsiyasi sifatida aniqlanadi.[7] Yosh davrida shakllangan moyillik keyinchalik toʻliq giyohvandlik va desrtruktiv xulq-atvorga aylanishi mumkin.[1]

Zamonaviy yoshlar hayotida internet va raqamli texnologiyalar markaziy o'rin tutadi. Kompyuter o'yinlari va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog'lanish nafaqat vaqt sarfini, balki shaxsning psixologik holatini ham tubdan o'zgartiradi.[5] Virtual qaramlik o'zida kontrol qilish qiyinligi, stressorlarga javob sifatida virtual muhitga qochish, doimiy rag'batlantirish natijasida organizmning tabiiy rag'batlantirishga ehtiyoji ortishi va o'ziga xos "dozalanish" mexanizmini birlashtiradi. Har bir yangi video, o'yin yutuqi yoki “like” ijobiy hissiyot tug'diradi va bu jarayon endorfin-sinoptik ta'siri orqali takrorlanib turadi.[6] Bu mexanizmlar giyohvandlik xulq-atvorining neyrobiologik asoslari bilan deyarli bir xil psixologik naqshlarni shakllantiradi. Tadqiqot ishtirokchilarining 67 foizi stressorlar paytida kompyuter o'yinlariga qochish usulini qo'llashlarini tan olishgan.Shaxsning stress va frustratsiyaga chidamliligi virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o'rtasidagi muhim ko'prik hisoblanadi.[8] Past chidamlilik omillari sifatida emotsional regulatsiya qobiliyatining yetishmasligi, muammolarni konstruktiv hal qilish ko'nikmalarining rivojlanmaganligi, ijobiy shaxslararo aloqalar kamligi va o'zini qadrlash darajasining pastligi ko'rsatilgan. Yuqori darajadagi virtual qaramlikka ega bo'lgan yoshlar stress paytida qochish mexanizmini faolroq qo'llashadi, ya'ni ular o'zlarining salbiy emotsiyalarini virtual muhitga yo'naltiradi va bu real muammolarni hal qilish qobiliyatini yanada pasaytiradi.[4] Bu naqsh giyohvandlikka moyillikning asosiy psixologik mexanizmi hisoblanadi, chunki ikkala holatda ham muammodan qochish va o'zgartirilgan ong holatiga ehtiyoj sezish umumiy xususiyat hisoblanadi.[7]

Oilaviy muhit virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillikni shakllantiruvchi eng muhim ijtimoiy-psixologik omil sifatida tadqiqot markazida turadi.[2] Xavfni oshiruvchi oilaviy omillar orasida ota-onalar bilan muloqot kamligi yoki sifati pastligi, giyohvandlik xulq-atvoriga moyil shaxslar mavjudligi, psixologik bosim va nazoratning haddan tashqari yoki yetarli emasligi hamda ijobiy shaxsiy model va qo'llab-quvvatlash infrastrukturasining yo'qligi alohida o'rin tutadi. Statistik tahlil shuni ko'rsatadiki, notinch oilaviy muhitda tarbiyalangan yoshlar virtual qaramlik belgilarini 30 foiz ko'proq namoyon qilishgan va bu aloqadorlik giyohvandlikka moyillik bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, statistik ahamiyatli korrelyatsiya koeffitsiyenti r=0.61 tashkil etgan. Buning teskarisi sifatida ota-onalar bilan ochiq va ishonchli muloqot, oilaviy qoidalar va

chegaralarning aniqligi hamda emotsional qo'llab-quvvatlash va ijobiy rag'batlantirish mavjudligi himoya omillari sifatida ishlaydi.[2]

O’smir yoshdagi shaxsning rivojlanishida tengdoshlar guruhi muhim o'rin tutadi. Giyohvandlik xulq-atvoriga moyil do'stlar va tanishlar mavjudligi, guruh bosimi va ijtimoiy o'rganish mexanizmi hamda virtual guruh va hamjihatlik hissi real hayotdan ajralishni kuchaytiradi.[1] Tadqiqot ishtirokchilarining qirq uch foiz “do'stlarim giyohvandlar bilan muloqot qiladi” degan fikrni ma'qullagan holda, ularning yetmish sakkiz foizi virtual qaramlik belgilariga ega edi. Bu natijalar sotsial o'rganish nazariyasi bilan tasdiqlanadi, chunki inson o'z xulq-atvorini atrofidagi odamlardan o'rganadi va agar muhit giyohvandlik yoki ortiqcha internetdan foydalanishga moyil bo'lsa, shaxs ham shunga intiladi [2]. Virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o'rtasidagi bog'liqlik bir nechta mexanizmlar orqali amalga oshadi. Birinchidan, o'zgartirilgan ong holatiga ehtiyoj har ikkala holatda ham realgacha bo'lgan psixologik holatga erishish maqsadi bilan bog'liq. Ikkinchidan, virtual muhitda bo'lish real stressorlar bilan kurashish qobiliyatini zaiflashtiradi va chidamlilik pasayadi. Uchinchidan, qochish xulq-atvori naqshi kuchayadi va himoya mexanizmi takrorlanib turadi. To'rtinchidan, dofamin ajralishi mexanizmlari umumiy neyrobiologik yo'llarni ishlatadi[6]. Tadqiqot natijasiga ko‘ra, virtual qaramlik kuchaygan sari giyohvandlikka moyillik ham ortishi aniqlangan. Ular o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha kuchli bo‘lib, tasodifiy emasligi ilmiy jihatdan isbotlangan.

$r = 0.58 \rightarrow$ o‘rtachadan yuqori ijobiy bog‘liqlik;

$p < 0.001 \rightarrow$ natija juda ishonchli, tasodifan chiqmagan degani.

Tadqiqot natijalari asosida profilaktika choralari kompleks yondashuvni talab qiladi va uchta darajada amalga oshirilishi lozim.

1.Individual darajada:emotsional regulatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki yoshlar o'z hissiyotlarini tan olish va boshqarishni o'rganishlari kerak [1]. Konstruktiv muammolarni hal qilish strategiyalarini o'rgatish esa ularga haqiqiy hayotdagi qiyinchiliklarni virtual yoki kimyoviy moddalarga qaramay hal qilish imkonini beradi. Stress bilan kurashish usullari, xususan, mindfulness, jismoniy faollik va ijodiy faoliyat kabi alternativ yondashuvlar taklif etiladi.

2. Oila darajasida: ota-onalar uchun psixo-ta'lim dasturlari joriy etish zarur, chunki ko'plab ota-onalar zamonaviy texnologiyalar va ularning ta'siri haqida yetarli bilimga ega emaslar [2]. Oilaviy muloqot sifati va chastotasini oshirish, ayniqsa o'spirinlik davridagi ota-onalar qo'llab-quvvatlash strategiyalarini rivojlantirish kerak [3].

3. Ijtimoiy darajada:maktab va universitetlarda profilaktika dasturlari, raqamli savodxonlik va ongli foydalanish bo'yicha ta'lim, shuningdek, yuqori xavfli guruhlarni aniqlash va erta aralashuv tizimini yaratish lozim [3]. Bunday tizimli yondashuv virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o'rtasidagi bog'liqlikni samarali ravishda oldini olish va kamaytirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot virtual qaramlik va giyohvandlikka moyillik o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik ($r=0.58$, $p<0.001$) mavjudligini tasdiqlaydi. Bu bog'liqlik nafaqat individual psixologik xususiyatlar, balki oilaviy va ijtimoiy muhit ta'siri bilan ham belgilanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, virtual qaramlik giyohvandlikka moyillikning mustaqil omili yoki kuchaytiruvchi omili sifatida qaralishi kerak va profilaktika choralari erta yoshdan boshlab kompleks tarzda amalga oshirilishi lozim. Kelajak tadqiqotlari ushbu bog'liqlikning neyrobiologik mexanizmlarini chuqurroq o'rganish va samarali va profilaktik hamda psixokorreksion usullarni ishlab chiqishga qaratilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Barotov, Sh. R. (2021). Psixologik xizmat asoslari. Toshkent: O‘qituvchi.

2.Karimova, V. M. (2019). Ijtimoiy psixologiya. Toshkent: Yangi asr avlodi.

3.Umarov, B. M. (2022). Giyohvandlik va xulq-atvor og‘ishlari: diagnostika va profilaktika masalalari. O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2(1), 112-118.

4.Xalilova, M. A., Rasulov, A. I. (2023). Yoshlar orasida virtual makon va internet qaramlikning ijtimoiy-psixologik oqibatlari. Psixologiya jurnali, 4(2), 45-52.

5.Davronov, Z. O. (2024). Virtual olam va o‘spirin shaxsi emotsional sferasining o‘zgarishi. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 7(3), 89-95.
6.Griffiths, M. D. (2019). Component model of addiction within a gaming context. Journal of Behavioral Addictions, 8(2), 151-163.

GIYOHVANDLIK OMILLARNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna
O’zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsent, psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
Jumamurotova Kamola
Amaliy psixologiya yo‘nalishi
3- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar orasida giyohvandlikka moyillikni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularni bartarafi bo`yicha ma`lumotlar tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические факторы, формирующие наркотическую зависимость среди молодежи, и предоставляется информация о способах ее .

Abstract: This article analyzes the socio-psychological factors that shape drug addiction among young people and information on how to overcome them.

Kalit so‘zlar: yoshlar, giyohvandlik, ijtimoiy ta’sir, stresss koping strategiyalari; oila, tengdoshlar, profilaktika

Ключевые слова: молодежь, наркомания, социальное влияние, стресс, копинг-стратегии, семья, сверстники, профилактика.

Keywords: youth, drug addiction, social influence, stress, coping strategies, family, peers, prevention.

Maqolaning markaziy masalasi yoshlar orasida giyohvand moddalardan foydalanishning sabablari “bitta omil” bilan tushuntirilmasligi, aksincha ijtimoiy kontekst va shaxs psixologiyasi kesishgan nuqtada xavflar to‘planishi va kuchayishi bilan izohlanishidir. Psixolog mutaxasislar doirasida mazkur muammo, shaxs taraqqiyoti, ijtimoiylashuv, motivatsion jarayonlar, affektiv holatlar va guruh ta’siri mexanizmlarini bir butun tizim sifatida ko‘rishni talab qiladi. Ilmiy adabiyotlarda giyohvandlikka olib keluvchi yo‘l ko‘pincha bosqichma-bosqich shakllanadi: avval qiziqish va sinab ko‘rish, keyin epizodik foydalanish, so‘ng muayyan vaziyatlarda “moslashuv vositasi” sifatida takrorlanish va nihoyat odat hamda qaramlikka yaqinlashish sifatida qaraladi. Shu jarayonda ijtimoiy-psixologik omillar biologik predispozitsiyani “faollashtiruvchi” yoki aksincha uni kompensatsiya qiluvchi sharoit sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlik davri psixologik nuqtai nazardan identifikatsiya, mustaqillik, ijtimoiy maqom va guruhga tegishlilik ehtiyojlari kuchayadigan, xavfli xatti-harakatlarga moyillik esa impulsivlik va mukofotga sezgirlik bilan birga boradigan bosqichdir. Shaxsning o‘zini baholashi beqaror bo‘lsa, “men-konsepsiya” ijtimoiy tasdiqqa haddan tashqari bog‘lanib qolsa, giyohvand moddani sinab ko‘rish tengdoshlar ichida qabul qilinish, qo‘rqmaslikni ko‘rsatish yoki ichki noqulaylikni tezda pasaytirish vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu yerda ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, kuzatish va taqlid mexanizmlari alohida ahamiyat kasb etadi: yosh kishi yaqin do‘stlari yoki referent guruh a’zolarida modda iste’moli “jazolanmayotganini”, hatto “mukofotlanayotganini” ko‘rsa, xulqning subyektiv qiymati oshadi [2]. Ayniqsa “normallashtirish” deb ataladigan kognitiv jarayon, ya’ni zararli amaliyotni odatiy hol sifatida tasavvur qilish, xavf bahosini pasaytirib, o‘zini oqlash sxemalarini kuchaytiradi.

Oilaviy omillar ijtimoiy-psixologik xavflar tizimida asosiy bo‘g‘inlardan biridir. Bu omillarni faqat nazoratning kuchli yoki sustligi bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emas; oiladagi emotsional iqlim, muloqot sifati, nizolarni hal etish uslubi, ota-onaning tarbiyaviy pozitsiyasi va

model xulqi birgalikda ta’sir qiladi. Agar oilada mehr va talabchanlik muvozanati buzilgan bo‘lsa, ya’ni befarqlik, keskin jazolash yoki izchil bo‘lmagan cheklovlar ustun bo‘lsa, yoshlar o‘z emotsiyalarini boshqarish va stressni konstruktiv yengish ko‘nikmalarini yetarli darajada shakllantirmasligi ehtimoli ortadi. Bunday sharoitda modda “tez yordam” sifatida ko‘riladi: u qisqa muddatli yengillik berishi mumkin, ammo uzoq muddatda nazorat yo‘qolishi va psixologik qaramlikni chuqurlashtiradi. Oila tizimidagi rol va chegaralar masalasi ham muhim: haddan tashqari qattiq nazorat norozilik va yashirin xatti-harakatlarni kuchaytirsa, haddan tashqari erkinlik ham ijtimoiy xavflardan himoya mexanizmlarini susaytiradi [3].

Tengdoshlar guruhi omili yoshlar ijtimoiylashuvida eng kuchli determinantalardan bo‘lib, bu ta’sirni ikki yo‘nalishda ko‘rish mumkin: seleksiya va ijtimoiylashuv. Bir tomondan, muammoli moslashuv yoki past o‘zini baholashga ega yoshlar o‘ziga o‘xshash tajribaga ega guruhni tanlashi mumkin; ikkinchi tomondan, guruhning ichki me’yorlari va kutilmalari shaxs xulqini qayta shakllantiradi. Ijtimoiy identifikatsiya jarayonida “bizniki” bo‘lish istagi ko‘pincha individual ehtiyotkorlikdan ustun keladi; ayniqsa, modda iste’moli guruh ichida “jasorat”, “erkinlik” yoki “kattalik” belgisi sifatida talqin qilinsa, psixologik bosim oshadi. Bunda konformizm mexanizmi faqat bevosita majburlash bilan emas, balki “rad etilishdan qo‘rquv”, “ijtimoiy taqqoslash” va “obro‘” kabi yashirin rag‘batlar orqali ishlaydi. Shu sabab, profilaktikada tengdoshlar yetakchilarini jalb etish, ijobiy referent guruhlarni yaratish, ijtimoiy ko‘nikmalarni kuchaytirish kabi yondashuvlar samaraliroq bo‘lishi mumkin [4].

Ta’lim muassasasi va mahalla-keng jamoa muhiti ham qaltis ishlardan himoyalanishi muhim. Maktab yoki kollejda akademik muvaffaqiyatsizlik, adolatsiz baholashni boshdan kechirish, o‘qituvchi bilan barqaror ijobiy aloqaning yo‘qligi, zo‘ravonlik yoki masxara qilish kabi tajribalar emotsional zo‘riqishni kuchaytiradi va “maktabdan begonalashuv”ni yuzaga keltiradi. Begonalashuv, o‘z navbatida, ijtimoiy nazoratning susayishi, bo‘sh vaqtning nazoratsizligi va deviant submadaniyatlar bilan aloqaning ortishiga olib kelishi mumkin. Jamoa darajasida bo‘sh vaqt infratuzilmasining cheklanganligi, sport va ijodiy to‘garaklarning yetishmasligi, psixologik maslahat xizmatlarining formal ishlashi kabi omillar profilaktika resurslarini kamaytiradi. Shu nuqtada ijtimoiy kapital tushunchasi muhim: qo‘llab-quvvatlovchi aloqalar tarmog‘i keng bo‘lsa, yordam so‘rash osonlashadi va stressga moslashuv konstruktiv yo‘lga yo‘naltiriladi [5].

Shaxsiy psixologik omillar ichida stress, xavotir va depressiv belgilar, affektni boshqarishdagi qiyinchiliklar hamda impuls nazoratining sustligi alohida ajralib turadi. Ko‘plab nazariy yondashuvlarda modda iste’moli “o‘zini davolash” modeli bilan izohlanadi: shaxs ichki og‘riq, zo‘riqish yoki bo‘shliqni vaqtincha kamaytirish uchun modda vositasiga murojaat qiladi [6]. Bu holat ayniqsa koping strategiyalari repertuaritor bo‘lsa, muammolarni hal etish emas, balki qochish va inkor etish ustun bo‘lsa kuchayadi. Kognitiv omillar ham ahamiyatli: xavfni past baholash, “menda qaramlik bo‘lmaydi” degan illuziya, kelajak oqibatlarini uzoq va mavhum deb qabul qilish, shuningdek, tanlov oqibatlari uchun mas’uliyatni tashqi omillarga yuklash qaramlikka eltuvchi yo‘lni tezlashtiradi. Psixologik profilaktika shuning uchun faqat ma’lumot berish bilan cheklanmasligi, balki qaror qabul qilish, hissiy o‘zini boshqarish, rad eta olish, muammoli vaziyatda yordam so‘rash ko‘nikmalarini amaliy mashg‘ulotlar orqali shakllantirishi zarur.

Mazkur tezisning ilmiy g‘oyasi shundan iboratki, yoshlar orasida giyohvandlikni kuchaytiruvchi asosiy mexanizm ko‘pincha uch yo‘nalishning bir nuqtada tutashishidir: birinchisi ijtimoiy normallashtirish va referent guruh bosimi, ikkinchisi stress va emotsional regulyatsiya yetishmovchiligi, uchinchisi esa institutsional qo‘llab-quvvatlash resurslarining sustligi. Ushbu uchlik birgalikda ishlaganda, modda iste’moli “moslashuvning tezkor, ammo destruktiv” shakliga aylanadi. Shu model profilaktika aralashuvlarini ham tizimli rejalashtirishni talab qiladi: faqat huquqiy ogohlantirish yoki faqat tibbiy ma’ruza yetarli bo‘lmaydi, chunki muammo psixologik ehtiyojlar va ijtimoiy ta’sirlar bilan birga yashaydi.

Metodologik yondashuv sifatida integrativ tahlil maqsadga muvofiq: shaxs omillari mikro daraja, oila va tengdoshlar mezzo daraja, ta’lim muassasasi va jamoa esa makro daraja resurslari sifatida qaraladi. Bunday ko‘p darajali yondashuvda xavf omillari bilan birga himoya omillarini

ham aniqlash zarur: ijobiy ota-ona ishtiroki, emotsional yaqinlik, sog‘lom referent guruh, maqsadga yo‘naltirilganlik, o‘zini boshqarish, sport va ijodiy bandlik, psixologik xizmatlardan foydalanish madaniyati. Aynan himoya omillari xavfni “nolga tushirmaydi”, lekin xavfning qaramlikka aylanish ehtimolini pasaytiradi va qayta tiklanish resurslarini kuchaytiradi [5]. Shu bois, amaliy tavsiyalar profilaktikaning selektiv va indikativ shakllarini uyg‘unlashtirishga qaratilishi lozim: umumiy targ‘ibot bilan birga yuqori xavf guruhlariga erta psixologik xavfning, motivatsion suhbat va oilaviy konsul’tatsiya mexanizmlari joriy etilishi muhim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar orasida giyohvandlikning ijtimoiy-psixologik omillari ko‘p qatlamli bo‘lib, ularning eng muhimlari oilaviy emotsional iqlim va tarbiya uslubi, tengdoshlar guruhi me’yorlari, ta’lim muassasasida begonalashuv va ijtimoiy kapitalning pastligi, shuningdek, stressni boshqarish hamda koping ko‘nikmalarining yetishmasligidan iborat. Maqola doirasida taklif etilgan integrativ model giyohvandlikka moyillikning normallashtirish, ijtimoiy taqqoslash va emotsional regulyatsiya zanjiri orqali mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Shu asosda profilaktika psixologik ko‘nikmalarni amaliy rivojlantirish, oila bilan tizimli ishlash, tengdoshlar yetakchilari orqali ijobiy me’yorlarni mustahkamlash va ta’lim muassasalarida qo‘llab-quvvatlovchi muhitni kuchaytirishga yo‘naltirilsa, barqaror natijaga erishish imkoniyati ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya: darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2012. 432 b.
2. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977. 247 p.
3. Eydemiller E. G., Yustitskis V. Psikhologiya i psikhoterapiya sem’i. Sankt-Peterburg: Piter, 2010. 672 p.
4. Steinberg L. Adolescence. New York: McGraw-Hill Education, 2017. 528 p.
5. Zimbardo P. G., Leippe M. R. The Psychology of Attitude Change and Social Influence. New York: McGraw-Hill, 1991. 336 p.
6. Khudoyberdiyev A. A. O‘smirlar psixologiyasi: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. 256 b.

O‘SMIRLARDA ADDIKTIV XULQ PAYDO BO‘LISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

J.S.Iskandarov *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlarda addiktiv xulq-atvorning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Oila muhiti, tengdoshlar ta’siri, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari, shaxsning psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy muhitning addiktiv xulq rivojlanishidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘smirlar orasida zararli odatlar va qaramliklarning oldini olish bo‘yicha psixologik profilaktika choralarining ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Addiktiv xulq, o‘smirlik davri, psixologik omillar, ijtimoiy omillar, qaramlik, oila muhiti, tengdoshlar ta’siri, internet qaramligi, profilaktika, deviant xulq, motivatsiya, ijtimoiylashuv, psixologik salomatlik.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование аддиктивного поведения у подростков. Рассматривается роль семейной среды, влияния сверстников, средств массовой информации, интернет-ресурсов, психологических особенностей личности, а также социальной среды в развитии аддиктивного поведения. Кроме того, раскрывается значение психопрофилактических мер, направленных на предупреждение вредных привычек и различных форм зависимости среди подростков.

Ключевые слова: Аддиктивное поведение, подростковый возраст, психологические факторы, социальные факторы, зависимость, семейная среда, влияние сверстников, интернет-зависимость, профилактика, девиантное поведение, мотивация, социализация, психологическое здоровье.

Abstract: This article analyzes the social and psychological factors influencing the development of addictive behavior in adolescents. The role of the family environment, peer influence, mass media, internet resources, individual psychological characteristics, and the social environment in the formation of addictive behavior is examined. In addition, the importance of psychological preventive measures aimed at reducing harmful habits and various forms of addiction among adolescents is highlighted.

Keywords: Addictive behavior, adolescence, psychological factors, social factors, addiction, family environment, peer influence, internet addiction, prevention, deviant behavior, motivation, socialization, psychological health.

KIRISH: Hozirgi kunda dunyo miqyosida yuz berayotgan globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning jadallik bilan rivojlanishi hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng tarqalishi inson hayot tarziga, xususan, yosh avlodning psixologik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuvi yangi sharoitlarda kechib, bu jarayon ularning xulq-atvorida turli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda yoshlar, ayniqsa o‘smirlar orasida turli deviant xulq shakllari, jumladan addiktiv xulqning keng tarqalib borayotgani jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Addiktiv xulq shaxsning turli moddalar yoki faoliyat turlariga qaram bo‘lib qolishi bilan tavsiflanadi va bu holat uning psixologik rivojlanishi hamda ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Griffiths, 2005).

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlar orasida zararli odatlar va qaramlikka moyillik yildan-yilga ortib bormoqda. Bu esa nafaqat individual, balki jamiyat darajasidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi natijasida nokimyoviy addiksiyalar ham tez sur’atlarda rivojlanmoqda.

O‘smirlik davri inson hayotining o‘ziga xos psixologik bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘z-o‘zini anglash, mustaqillikka intilish, ijtimoiy rol va qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari jadallashadi. Shu bilan birga, bu davr emotsional beqarorlik, impulsivlik va tashqi ta’sirlarga yuqori darajada moyillik bilan tavsiflanadi (Erikson, 1968).

ASOSIY QISIM: Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlik davrida yuzaga keladigan ichki psixologik ziddiyatlar hamda tashqi ijtimoiy muhit omillari addiktiv xulq shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Xususan, oiladagi nosog‘lom muhit, ota-onalar bilan munosabatlarning buzilishi, nazoratning yetishmasligi, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar hamda tengdoshlar bosimi o‘smirlarning turli qaramlik shakllariga moyilligini oshiradi (Ильин, 2001).

Bundan tashqari, zamonaviy axborot muhiti — internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat vositalari orqali tarqalayotgan salbiy xulq modellari ham o‘smirlar ongiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi, bu esa o‘smirlar uchun ayniqsa dolzarbdir (Bandura, 1977).

Addiktiv xulqning shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. N. Volkowning tadqiqotlariga ko‘ra, addiksiya miya faoliyatidagi dopamin tizimining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lsa (Volkow, 2003), G. Maté esa uni insonning ichki psixologik og‘riqlari va stressdan qochish mexanizmi sifatida izohlaydi (Maté, 2010).

H.J. Shaffer tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko‘ra, addiksiya sindrom sifatida qaralib, u turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin (Shaffer, 2004). Bu esa addiktiv xulqni faqat bir yo‘nalishda emas, balki kompleks yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundan iboratki, o‘smirlar orasida addiktiv xulqning ortib borishi ularning psixologik rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va kelajak hayot faoliyatiga

salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bu holat jamiyatda ijtimoiy muammolar — jinoyatchilik, ijtimoiy moslashuvning buzilishi, psixik salomatlikning yomonlashuvi kabi oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, o‘smirlarda addiktiv xulq shakllanishining ijtimoiy-pedagogik omillarini aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asosda tahlil qilish hamda profilaktika va korreksiya choralarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Addiktiv xulq muammosi zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlarida eng murakkab va ko‘p qirrali ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Ushbu hodisa insonning ma’lum moddalar yoki faoliyat turlariga nisbatan haddan tashqari bog‘lanib qolishi, bu jarayon ustidan nazoratni yo‘qotishi hamda uning psixik, ijtimoiy va fiziologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan tavsiflanadi.

Ilmiy adabiyotlarda addiktiv xulq tushunchasi turli nuqtai nazarlardan izohlangan bo‘lib, bu uning murakkab tabiatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Dastlab addiksiya faqat kimyoviy moddalarga bog‘liqlik sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik tadqiqotlar natijasida ushbu tushuncha kengaytirilib, insonning ma’lum faoliyatlarga nisbatan qaramligi ham addiktiv xulq doirasiga kiritila boshlandi.

Xususan, Mark D. Griffiths tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda addiksiya faqat moddalar bilan bog‘liq emasligi, balki qimor o‘yinlari, internet, videoo‘yinlar, ovqatlanish va boshqa xatti-harakatlar ham qaramlik shakliga aylanishi mumkinligi asoslab berilgan.

Bu esa addiktiv xulqni tushunishda yangi ilmiy yondashuv — biopsixososial modelning shakllanishiga olib keldi. Mazkur modelga ko‘ra, addiksiya biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda addiktiv xulq quyidagicha ta’riflanadi: shaxsning ma’lum faoliyat yoki moddaga nisbatan haddan tashqari berilib ketishi natijasida uning hayotida boshqa faoliyatlar ikkinchi darajaga tushib qolishi va bu holat uning ijtimoiy, psixologik hamda jismoniy holatiga zarar yetkazishi.

Addiktiv xulqni o‘rganishda asosiy ilmiy burilish XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Aynan shu davrda addiksiya faqat tibbiy muammo sifatida emas, balki psixologik va ijtimoiy hodisa sifatida ham ko‘rib chiqila boshlandi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, odamlar faqat moddalar ta’sirida emas, balki ma’lum xulqiy faoliyatlardan olinadigan emotsional qoniqish sababli ham qaramlikka tushishi mumkin.

Howard J. Shaffer tomonidan ishlab chiqilgan “addiksiya sindromi” konsepsiyasiga ko‘ra, turli addiktiv xulq shakllari aslida yagona mexanizm asosida shakllanadi va ular umumiy psixologik ildizlarga ega.

Ushbu yondashuv addiktiv xulqni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u turli ko‘rinishdagi qaramliklarni yagona tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, addiktiv xulq muammosining nazariy jihatdan keng o‘rganilganligiga qaramay, uning o‘smirlar orasida shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni chuqur tahlil qilish zarurati saqlanib qolmoqda. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

XULOSA: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, addiktiv xulqning shakllanishida biologik yetilish jarayonlari, shaxsning individual-psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy muhit omillari bir-biri bilan uzviy bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi.

Nazariy manbalarni solishtirma tahlil qilish natijasida addiktiv xulqni faqat salbiy xulq shakli sifatida emas, balki shaxsning ichki ziddiyatlari, emotsional muammolari va moslashuv qiyinchiliklariga nisbatan yuzaga keladigan o‘ziga xos javob reaksiyasi sifatida ham talqin qilish mumkinligi asoslandi. Bu yondashuv muammoni chuqurroq anglash va unga nisbatan samarali psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

O‘smirlik davriga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish natijasida ushbu bosqich addiktiv xulq yuzaga kelishi uchun eng sezgir davr ekanligi aniqlashtirildi. Ayniqsa, o‘zini anglash jarayonining murakkabligi, hissiy beqarorlik va ijtimoiy ta’sirga yuqori moyillik addiktiv xulqning shakllanish ehtimolini oshiruvchi muhim omillar sifatida ajratildi.

Shu bilan birga, nazariy tahlillar addiktiv xulqni o‘rganishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatdi. Ya’ni, mazkur muammoni samarali tahlil qilish va oldini olish uchun biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarni birgalikda hisobga olish lozim.

Olingan nazariy xulosalar asosida keyingi bosqichda o‘smirlar orasida addiktiv xulqning real holatini aniqlash, uni diagnostika qilish va omillar bilan bog‘liqligini empirik jihatdan o‘rganish zarurati yuzaga keladi. Shu jihatdan mazkur bob keyingi amaliy tadqiqotlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G'oziyev E. Umumiy psixologiya. – T., 2003.
2.Haydarov F., Jo'rayev N. Stress yoki ruhiy muvozanatni saqlash osonmi? – T., 1997.
3.Karimova V.M. Psixologiya. – T., 2002.
4.Mavlonova R., To'rayeva O., Holiqberdiyev K. Pedagogika. – T., 2001.
5.Nishanova Z.T. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. – T.: Fan, 2005.
6.Kamilova N.G. O'smirlik davrida shaxs rivojlanishining psixologik xususiyatlari. – T., 2008.

GIYOHVANDLIK PROFILAKTIKASIDA DAVLAT VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumaniyozov Yunus Shodurdi o‘g‘li *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi otsenti.,PhD*

Annotatsiya: Ushbu tezis giyohvandlik profilaktikasida davlat organlari va jamoatchilik institutlari hamkorligining psixologik-pedagogik asoslarini tahlil qiladi. Tadqiqotning maqsadi hamkorlik mexanizmlarini shaxs rivojlanishi, ijtimoiy ta’sir va tarbiyaviy muhit konsepsiyalari bilan uyg‘unlashtirib, amaliy profilaktika modelini asoslashdan iborat. Metodologiya sifatida nazariy tahlil, taqqoslash va konseptual modellash qo‘llanadi. Ilmiy yangilik hamkorlikning motivatsion, kommunikativ va institutsional komponentlarini integratsiyalashda ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik profilaktikasi; davlat-jamoatchilik hamkorligi; ijtimoiy-psixologik ta’sir; pedagogik prevensiya; risk omillari; rezilyentlik; tarbiyaviy muhit

Аннотация: В настоящих тезисах анализируются психолого-педагогические основы взаимодействия государственных органов и общественных институтов в сфере профилактики наркомании. Цель исследования – обосновать практическую модель профилактики, интегрирующую механизмы взаимодействия с концепциями развития личности, социального влияния и воспитательной среды. В качестве методологии применяются теоретический анализ, сопоставление и концептуальное моделирование. Научная новизна заключается в интеграции мотивационного, коммуникативного и институционального компонентов взаимодействия.

Ключевые слова: профилактика наркомании; государственно-общественное сотрудничество; социально-психологическое влияние; педагогическая превенция; факторы риска; резильентность; воспитательная среда

Abstract: This thesis analyzes psychological and pedagogical foundations of cooperation between state institutions and community actors in drug use prevention. The aim is to justify an applied prevention model by linking collaboration mechanisms with personality development, social influence, and educational environment concepts. The methodology relies on theoretical analysis, comparative reasoning, and conceptual modeling. Scientific novelty is achieved through integrating motivational, communicative, and institutional components into a coherent intersectoral framework.

Keywords: drug prevention; state–community partnership; social psychological influence; preventive pedagogy; risk factors; resilience; educational environment

Kirish: Giyohvandlik profilaktikasi tushunchasi psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan shaxsning salbiy moddalarga nisbatan qiziqishi, sinov xatti-harakati va odatlanish ehtimolini

kamaytirishga qaratilgan tizimli ta’sirlar majmuasidir. Ushbu ta’rifning mexanizmi shundan iboratki, profilaktika faqat ma’lumot berish bilan cheklanmaydi, balki motivatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar, o‘zini boshqarish va qadriyatlar tizimini shakllantirish orqali xulq-atvorni oldindan tartibga soladi. Masalan, maktabda “hayotiy ko‘nikmalar” treninglari o‘tkazilganda, o‘quvchi tengdosh bosimiga “yo‘q” deyish, stressni konstruktiv yengish va muammoli vaziyatlarda yordam so‘rash usullarini amalda mashq qiladi. Xalqaro baholashlarda ko‘p komponentli dasturlar faqat ma’ruza asosidagi yondashuvlarga nisbatan samaraliroq ekani ko‘rsatiladi; meta-tahlillarda bunday dasturlar boshlang‘ich iste’molni sezilarli kamaytirishi qayd etilgan bo‘lib, bu holat odatda kichik va o‘rta effekt o‘lchamlari bilan ifodalanadi [5]. Ilmiy izoh sifatida, ijtimoiy o‘rganish nazariyasi hamda rejalashtirilgan xulq-atvor modeli kontekstida profilaktika shaxsning “norma” haqidagi tasavvurlari va o‘zini samarali boshqarish e’tiqodini o‘zgartirsa, xavfli tanlovlar ehtimoli pasayishi kutiladi [3; 5].

Davlat va jamoatchilik hamkorligi tushunchasi profilaktikada turli institutlarning resurs, vakolat va ijtimoiy ishonchini bir yo‘nalishga safarbar qiluvchi boshqaruv hamda muloqot tizimi sifatida talqin qilinadi. Mexanizm jihatidan bunday hamkorlik vertikal boshqaruv (me’yoriy hujjatlar, moliyalashtirish, monitoring) va gorizontal tarmoq (mahalla, NNT, ota-onalar, ommaviy axborot vositalari, ta’lim muassasalari) o‘rtasida ma’lumot almashinuvi, kelishilgan reja va javobgarlik taqsimotini yaratadi. Masalan, mahallada profilaktika inspektori, maktab psixologi, oilaviy shifokor va mahalla faollari “erta ogohlantirish” algoritmi bo‘yicha ishlasa, risk guruhidagi o‘smir bilan individual reja asosida psixopedagogik yordam ko‘rsatiladi. Tizimli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan hududlarda esa “takrorlanish” va “bo‘shliq zonalari” paydo bo‘lib, bir oila bir necha idoraga murojaat qilsa-da, uzluksiz xizmat zanjiri shakllanmasligi mumkin; amaliy monitoringlarda bunday uzilishlar ijtimoiy xizmatlarga ishonchni pasaytirishi kuzatiladi [1; 2]. Ilmiy izohda ekotizimli yondashuvga ko‘ra, o‘smir xulq-atvori mikro (oila), mezo (maktab-mahalla aloqasi) va makro (me’yor, siyosat, iqtisodiy sharoit) qatlamlar o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi, shuning uchun hamkorlik aynan shu qatlamlarni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini bajaradi [3].

Psixologik-pedagogik asoslarning birinchi yo‘nalishi motivatsion-preventiv komponent bo‘lib, u shaxsning giyohvand moddalarga munosabati, ehtiyojlari va maqsadlar iyerarxiyasiga ta’sir etishni anglatadi. Mexanizm shundan iboratki, profilaktika “qo‘rqitish”ga emas, balki ichki motivlarni qayta yo‘naltirishga, ijobiy identifikatsiya va kelajak rejasini mustahkamlashga tayanadi, chunki barqaror motivatsiya bo‘lmasa, tashqi nazorat vaqtinchalik samara beradi. Masalan, kasbga yo‘naltirish, sport-to‘garaklar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok o‘smirning “men kimman?” savoliga konstruktiv javob topishiga yordam beradi va riskli guruhga qo‘shilish ehtimolini kamaytiradi. Tadqiqotlarda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va bandlik omillari risk xulq-atvor bilan teskari bog‘liqligi ko‘rsatiladi; maktabga qatnash va to‘garaklar qamrovi oshgan sari zararli odatlarga moyillik kamayishi qayd etiladi [3; 5]. Ilmiy izoh sifatida o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasida avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojlari qondirilsa, deviant kompensatsiya mexanizmlari sustlashadi, demak hamkorlik aynan shu ehtiyojlarni ta’lim, sport, madaniyat va ijtimoiy himoya tizimlari orqali qamrab olishi lozim [5].

Ikkinchi yo‘nalish kommunikativ-kompetensiyaviy komponent bo‘lib, u davlat va jamoatchilik subyektlari o‘rtasida ham, kattalar va o‘smirlar o‘rtasida ham samarali muloqot me’yorlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mexanizm doirasida hamkorlik “axborot uzatish”dan “muloqot va kelishuv”ga o‘tadi: xabarlar tushunarli til, madaniy moslik, stigmani kamaytirish va ishonchni oshirish tamoyillari asosida quriladi. Masalan, ota-onalar yig‘ilishida faqat jazolash haqida gapirish o‘rniga, xavf belgilarini erta tanish, bola bilan “aktiv tinglash” orqali suhbatlashish va muammoga birgalikda yechim topish ko‘nikmalari bo‘yicha trening o‘tkazilsa, profilaktika muloqoti himoya omiliga aylanadi. Amaliy kuzatuvlarda stigmatizatsiya yuqori bo‘lgan muhitda murojaat qilish darajasi pasayishi, ishonchli maslahat kanallari mavjud bo‘lsa esa psixologik yordamga murojaatlar ko‘payishi qayd etiladi; bu ko‘rsatkichlar hudud va xizmat turi bo‘yicha farqlansa-da, tendensiya barqaror hisoblanadi [2; 4]. Ilmiy izohga ko‘ra, stigmaning kamayishi kognitiv dissonansni pasaytiradi, shaxs o‘z muammosini inkor etishdan ko‘ra resurs izlashga moyil

bo‘ladi, pedagogik jihatdan esa bu “xavfsiz sinf muhiti” va “xavfsiz mahalla muhiti”ni yaratish bilan bevosita bog‘liq [4].

Uchinchi yo‘nalish institutsional-boshqaruv komponent bo‘lib, u hamkorlikning normativ, tashkiliy va monitoring mexanizmlarini psixologik xizmatlar bilan uyg‘unlashtirishni ifodalaydi. Mexanizm jihatidan, har bir subyektning vazifasi aniq belgilansa, yo‘naltirish (referal) yo‘llari, maxfiylik qoidalari, riskni baholash mezonlari va ta’limiy intervensiyalar standartlari bir tizimga tushadi. Masalan, maktab psixologi risk skriningi o‘tkazib, zarur bo‘lsa tibbiy-psixologik maslahatga yo‘naltiradi, mahalla esa oilaviy ijtimoiy yordam va bandlik resurslari bilan qo‘llab-quvvatlaydi, ichki ishlar bo‘linmalari esa huquqbuzarlik profilaktikasi va xavfsizlik komponentini ta’minlaydi. Tashkiliy jihatdan bunday tarmoqda “takroriy baholash” sikli joriy qilinadi: o‘quv choragi yoki yarim yillik kesimida risk ko‘rsatkichlari qayta o‘lchanib, reja moslashtiriladi; natijada resurslar samarasiz yo‘nalishga sarflanmaydi [1; 2]. Ilmiy izoh sifatida, boshqaruv psixologiyasida “rol noaniqligi” stressni oshirishi va professional kuyishni tezlashtirishi ko‘rsatiladi, demak hamkorlik reglamenti nafaqat huquqiy, balki psixogigiyenik ahamiyatga ham ega [4].

Profilaktik ta’sirni ilmiy asoslash uchun risk va himoya omillari modeli markaziy o‘rin tutadi, chunki u shaxs xulqini “individual ayb” emas, balki ko‘p omilli tizim natijasi sifatida tushuntiradi. Mexanizm shundan iboratki, risk omillari (oilaviy nizolar, nazoratning sustligi, maktabdan begonalashuv, tengdoshlarning deviant normasi) yig‘ilganda ehtimol oshadi, himoya omillari (ota-ona qo‘llovi, maktabga bog‘liqlik, ijobiy bandlik, emotsional o‘zini boshqarish) kuchaysa ehtimol kamayadi. Masalan, bir xil ijtimoiy sharoitda yashayotgan ikki o‘smirdan to‘garakka qatnaydigan, ustoz bilan ijobiy aloqaga ega va oilada muloqot ochiq bo‘lgan o‘smirning riskli taklifga rozi bo‘lish ehtimoli pastroq bo‘lishi amaliyotda tez-tez uchraydi. Tadqiqotlar risk omillari soni ortishi bilan deviant xulq ehtimoli proporsional oshishini ko‘rsatadi; profilaktikada shuning uchun “bitta omilni tuzatish” emas, “omillar paketini” muvozanatlash maqsadga muvofiq deb qaraladi [3; 5]. Ilmiy izohda bu hodisa kumulyativ risk nazariyasi bilan tushuntiriladi: kichik salbiy ta’sirlar yig‘ilib, ostonaviy nuqtadan o‘tgach, xulqiy qarorlar keskin o‘zgaradi, hamkorlik esa aynan ostonagacha bo‘lgan davrda erta aralashuvni ta’minlaydi [3].

Pedagogik prevensiyada o‘quv-tarbiyaviy muhitning sifati alohida omil sifatida ko‘riladi, chunki maktab shaxs ijtimoiylashuvining asosiy instituti bo‘lib, norma va qadriyatlarning kundalik “laboratoriyasi” vazifasini bajaradi. Mexanizm shundan iboratki, sinf iqlimi, baholash adolati, o‘qituvchi- o‘quvchi munosabati va tengdoshlar o‘rtasidagi xavfsizlik o‘smirning stress darajasi hamda tegishlilik hissini belgilaydi, bu esa riskli kompensatsiya tanlovlarini kuchaytirishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, zo‘ravonlikka nisbatan nol toqat tamoyili faqat jazolash bilan emas, mediatorlik, ijtimoiy-emotsional o‘qitish va ota-onalar bilan hamkorlik orqali joriy etilsa, “chetda qolgan” o‘quvchilar soni kamayadi va deviant guruhlarga qo‘shilish ehtiyoji pasayadi. Maktab iqlimini o‘lchash bo‘yicha so‘rovnomalarda ijobiy iqlim ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan sinflarda intizom buzilishi pastroq bo‘lishi qayd etiladi; bu natijalar turli mamlakat va hududlarda qayta tasdiqlangan umumiy tendensiyadir [4; 5]. Ilmiy izohda pedagogik psixologiya “tegishlilik”ni bazaviy ehtiyoj deb qaraydi, shuning uchun ham davlat va jamoatchilik hamkorligi maktabning o‘zida psixologik xizmat, ota-onalar klubi, mahalla resurslari va ijtimoiy sheriklikni birlashtirishi ilmiy jihatdan asosli bo‘ladi [2; 4].

Hamkorlikning amaliy modelini konseptual ko‘rinishda izohlash uchun quyidagi taqqoslash mantiqiy hisoblanadi: fragmentar yondashuv va integratsiyalashgan yondashuv. Mexanizm nuqtayi nazaridan fragmentar yondashuvda har bir idora o‘z vazifasini alohida bajaradi va axborot almashinuvi cheklangan bo‘ladi, integratsiyalashgan yondashuvda esa yagona maqsad indikatorlari, umumiy “case-management” va uzluksiz kuzatuv joriy etiladi. Masalan, fragmentar tizimda maktab faqat intizomiy chora ko‘rsa, tibbiyot faqat somatik oqibatlarni bartaraf etsa, mahalla esa faqat ijtimoiy yordam bilan cheklansa, o‘smirning motivatsion va emotsional omillari “bo‘sh” qoladi; integratsiyalashgan tizimda esa psixologik konsultatsiya, oilaviy trening va ijtimoiy bandlik bir reja asosida qo‘shiladi. Quyidagi jadval bu farqni umumlashtiradi: Fragmentar modelda maqsad ko‘rsatkichi “hodisani kamaytirish”, integratsiyalashgan modelda “riskni

kamaytirish va rezilyentlikni oshirish”; fragmentarda monitoring “hisobot uchun”, integratsiyada “qaror qabul qilish uchun”; fragmentarda muloqot “vertikal buyruq”, integratsiyada “tarmoq kelishuvi”; fragmentarda natija “qisqa muddatli”, integratsiyada “barqaror” sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy izoh sifatida, tizimli yondashuvda sinergetik effekt kutiladi: bir nechta o‘rtacha ta’sirlar yig‘ilib, yakuniy natijada katta ijtimoiy foyda beradi, ayniqsa o‘smirlik davrida neyropsixologik plastiklik yuqori bo‘lgani uchun tarbiyaviy intervensiyalar samarasi kuchliroq bo‘lishi mumkin [3; 5].

Profilaktika mazmunini boyitishda biologik va tibbiy bilimlar bilan psixopedagogik yondashuvning uyg‘unligi zarur, chunki modda ta’siri faqat ijtimoiy emas, neyrokimyoviy mexanizmlar orqali ham mustahkamlanadi. Mexanizm shundan iboratki, ko‘plab psixoaktiv moddalar miya mukofot tizimida dopamin almashinuvini o‘zgartirib, “tez mukofot”ni kuchaytiradi va o‘rganilgan xulqni mustahkamlaydi; bu jarayonning soddalashtirilgan ifodasi sifatida dopaminning biosintezi yo‘lida L-tirozin va keyingi bosqichlar ishtirok etishi ma’lum bo‘lib, dopaminning empirik formulasi C8H11NO2 ekanligi ko‘rsatiladi. Masalan, o‘smir stressni boshqarish ko‘nikmasiga ega bo‘lmasa, qisqa muddatli yengillik beruvchi stimulyatorlar yoki sedativlarga qiziqish kuchayishi mumkin, pedagogik treninglar esa stressni nafas mashqlari, muammo yechish va ijtimoiy tayanch orqali yengishga o‘rgatadi. Ilmiy adabiyotlarda erta boshlanish keyingi qaramlik xavfini oshirishi qayd etiladi, shu bois profilaktik dasturlar aynan 10–14 yosh oralig‘ida hayotiy ko‘nikmalarni kuchaytirishga alohida urg‘u beradi [5].Ilmiy izohda biopsixososial modelga ko‘ra, biologik moyillik ijtimoiy stressorlar va shaxsiy ko‘nikmalar bilan o‘zaro ta’sirda namoyon bo‘ladi, demak davlat-jamoatchilik hamkorligi tibbiy savodxonlikni oshirish bilan birga, pedagogik muhitni sog‘lomlashtirish va psixologik xizmatlarni kuchaytirishi kerak [4; 5].

Xulosa sifatida, giyohvandlik profilaktikasida davlat va jamoatchilik hamkorligi psixologik-pedagogik jihatdan motivatsion, kommunikativ va institutsional komponentlar birligida samarali ishlaydi. Hamkorlikning asosiy natijasi profilaktik ta’sirning “bir martalik tadbir”dan “uzluksiz rivojlantiruvchi muhit”ga aylanishi, ya’ni risk omillarini erta aniqlash, himoya omillarini kuchaytirish va shaxs rezilyentligini tarbiyalash orqali barqaror ijtimoiy immunitetni shakllantirishdir. Taklif etilgan konseptual yondashuvda maktab, oila, mahalla, tibbiyot va huquqiy profilaktika subyektlari o‘rtasida aniq rol taqsimoti, ishonchli muloqot va ma’lumotga asoslangan monitoring bosh mezon bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtayi nazardan, hayotiy ko‘nikmalar, ijobiy bandlik va tegishlilik hissini kuchaytirish profilaktikaning markaziy mazmuniga aylanishi lozim. Psixologik nuqtayi nazardan esa stigmani kamaytirish, yordam so‘rash madaniyatini rivojlantirish va stressni boshqarish ko‘nikmalarini tizimli o‘rgatish hamkorlik samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Karimova, V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. 320 b.
2. Axmedova, M. A. Oila va maktab hamkorligida tarbiyaviy profilaktika: o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 208 b.
3. Bronfenbrenner, U. The ecology of human development: Experiments by nature and design. Cambridge: Harvard University Press, 1979. 330 p.
4. Кон, И. С. Психология ранней юности. Москва: Просвещение, 1989. 255 с.
5. Hawkins, J. D.; Catalano, R. F. Communities that care: Action for drug abuse prevention. San Francisco: Jossey-Bass, 1992. 320 p.
6. United Nations Office on Drugs and Crime. International standards on drug use prevention. Vienna: UNODC, 2018. 132 p.

O‘SMIR YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA HUQUQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHNING GIYOHVANDLIKKA QARSHI PROFILAKTIKADAGI PSIXOLOGIK ASOSLARI

Karimov Baxtiyar Egamberganovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
akademik litsey yuristkonsulti
karimov0050@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirishning giyohvandlikka qarshi profilaktikadagi psixologik asoslari tahlil qilingan. Shaxsning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati va ijtimoiy mas’uliyatining deviant xulq-atvorni oldini olishdagi o‘rni ochib berilgan. Giyohvandlikka qarshi integrativ yondashuv doirasida psixologik, pedagogik, huquqiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘smirlarda huquqiy qadriyatlarni rivojlantirish giyohvandlikka qarshi psixologik immunitetni shakllantirishning muhim omili ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: huquqiy qadriyatlar, o‘smirlik davri, giyohvandlik profilaktikasi, huquqiy ong, integrativ yondashuv, psixologik immunitet, deviant xulq-atvor, jamoat xavfsizligi.

Аннотация. В статье анализируются психологические основы формирования правовых ценностей у подростков в контексте профилактики наркомании. Раскрывается роль правового сознания, правовой культуры и социальной ответственности личности в предупреждении девиантного поведения. Рассматривается взаимосвязь психологических, педагогических, правовых и социальных факторов в рамках интегративного подхода к противодействию наркомании.

Ключевые слова: правовые ценности, подростковый возраст, профилактика наркомании, правовое сознание, интегративный подход, психологический иммунитет.

Abstract. The article analyzes the psychological foundations of forming legal values among adolescents in the context of anti-drug prevention. The role of legal consciousness, legal culture, and social responsibility in preventing deviant behavior is revealed. The interrelation of psychological, pedagogical, legal, and social factors within an integrative approach to combating drug abuse is discussed.

Keywords: legal values, adolescence, drug prevention, legal consciousness, integrative approach, psychological immunity.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida giyohvandlik muammosi nafaqat alohida shaxs yoki oilaning, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishi va jamoat xavfsizligiga jiddiy tahdid soluvchi transmilliy ijtimoiy hodisa sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma’lumotlariga ko‘ra, giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar, noqonuniy moddalar aylanmasi, sog‘liq bilan bog‘liq muammolar va ijtimoiy beqarorlik ko‘plab mamlakatlarda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, giyohvandlikning “yosharishi”, ya’ni ushbu salbiy hodisaning o‘smirlar va yoshlar orasida tarqalib borayotgani jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda.

O‘smirlik davri inson ontogenezining murakkab va mas’uliyatli bosqichi bo‘lib, mazkur davr biologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlarning jadalligi bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda shaxsning o‘zini anglashi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy identifikatsiyasi va xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Shu bilan birga, o‘smirlar emotsional beqarorlik, mustaqillikka intilish, tengdoshlar ta’siriga beriluvchanlik hamda xavfli xulq-atvorga moyillik kabi xususiyatlarga ega bo‘ladilar. Bu esa ularni turli deviant ko‘rinishlarga, jumladan giyohvandlikka nisbatan zaif qatlamga aylantiradi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davri “inqiroz davri” sifatida ham tavsiflanadi. L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit va madaniy tajribani o‘zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Shuning uchun o‘smir shaxsining huquqiy qadriyatlarini shakllantirish uning ijtimoiylashuv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Huquqiy qadriyatlar shaxsning qonun ustuvorligi, adolat, inson huquqlari, fuqarolik burchi va ijtimoiy javobgarlikka oid qarashlari hamda e’tiqodlarini ifodalaydi. Mazkur qadriyatlar

shaxsning huquqiy ongini rivojlantirib, uning xulq-atvorini me’yoriy boshqarishga xizmat qiladi. Huquqiy qadriyatlarning yetarli darajada shakllanmaganligi esa huquqbuzarlik, tajovuzkorlik, giyohvandlik va boshqa deviant xulq-atvor ko‘rinishlarining vujudga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda giyohvandlikka qarshi kurashning zamonaviy konsepsiyalari integrativ yondashuvga asoslanadi. Integrativ yondashuv psixologik, pedagogik, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini nazarda tutadi. Mazkur yondashuv yoshlarning nafaqat giyohvandlikning huquqiy oqibatlari haqida bilimlarini oshirish, balki ularda mustahkam huquqiy e’tiqod va salbiy ta’sirlarga qarshi psixologik immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirishning psixologik asoslarini tadqiq etish hamda ularning giyohvandlikka qarshi profilaktikadagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslash zamonaviy psixologiya va jamoat xavfsizligi tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Mazkur tadqiqotda tizimli, integrativ, aksiologik va faoliyatli yondashuvlar metodologik asos sifatida qo‘llanildi. Tizimli yondashuv shaxsning huquqiy qadriyatlarini o‘zaro bog‘liq psixologik, ijtimoiy va pedagogik omillar tizimi sifatida o‘rganish imkonini beradi. Integrativ yondashuv esa giyohvandlik profilaktikasining ko‘p qirrali xarakterini hisobga olgan holda turli ilmiy yo‘nalishlarning uyg‘unligini ta’minlaydi.

Aksiologik yondashuv qadriyatlarning shaxs taraqqiyotidagi o‘rni va ularning xulq-atvorni boshqarishdagi ahamiyatini ochib beradi. Faoliyatli yondashuvga ko‘ra esa shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida sodir bo‘lib, huquqiy qadriyatlar amaliy faoliyat orqali mustahkamlanadi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish;
- qiyosiy-tahliliy metod;
- umumlashtirish va tizimlashtirish;
- psixologik interpretatsiya;
- ilmiy xulosalash metodlari.

Metodologik asos sifatida L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi, A.N. Leontevning faoliyat nazariyasi, S.L. Rubinshteynning shaxs va faoliyat birligi tamoyili, A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi hamda L. Kolbergning axloqiy rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs rivojlanishi va ijtimoiylashuv muammolari ko‘plab psixolog olimlar tomonidan tadqiq etilgan. V.G. Ananev insonni biosotsial mavjudot sifatida o‘rganib, uning rivojlanishida ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ko‘rsatgan. A.A. Bodalev esa shaxslararo muloqotning inson taraqqiyotidagi ahamiyatini ilmiy asoslab bergan.

L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy konsepsiyasiga ko‘ra, shaxs rivojlanishi jamiyat tomonidan yaratilgan madaniy vositalarni o‘zlashtirish jarayonida amalga oshadi. Mazkur nazariya huquqiy qadriyatlarning ham ijtimoiy tajriba mahsuli ekanligini ko‘rsatadi.

A.N. Leontevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, inson ongi va shaxsiy sifatlari faoliyat davomida shakllanadi. Demak, huquqiy qadriyatlarni rivojlantirish uchun o‘quvchilarni huquqiy munosabatlar va ijtimoiy faoliyatga jalb etish muhim ahamiyatga ega.

L. Kolberg axloqiy rivojlanish nazariyasida shaxsning axloqiy qaror qabul qilish jarayonlari bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab bergan. O‘smirlik davrida shaxs qonun va ijtimoiy me’yorlarning mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydi. Shu sababli aynan ushbu davr huquqiy qadriyatlarni shakllantirish uchun eng qulay davr hisoblanadi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa xulq-atvorning kuzatish va taqlid mexanizmlari orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Bu esa tengdoshlar, ota-onalar va pedagoglarning namunaviy xulq-atvori o‘smirlarning huquqiy ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi.

Zamonaviy tadqiqotlar giyohvandlikning vujudga kelishida quyidagi xavf omillarini ajratib ko‘rsatadi: oiladagi nosog‘lom psixologik muhit, tengdoshlar bosimi, huquqiy savodxonlikning pastligi, stress va frustratsiya, shuningdek, salbiy ijtimoiy tajribalar.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, huquqiy qadriyatlarning rivojlanganligi o‘smirlarda giyohvandlikka qarshi psixologik immunitetni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Huquqiy qadriyatlar shaxsning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, qaror qabul qilish va salbiy ta’sirlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini kuchaytiradi.

Huquqiy qadriyatlarning tarkibiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- kognitiv komponent (huquqiy bilimlar);
- emotsional-qadriyatli komponent (qonunlarga ijobiy munosabat);
- xulq-atvor komponenti (huquqiy me’yorlarga amal qilish).

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi o‘smirlarning deviant xulq-atvorini kamaytiradi hamda giyohvandlik xavfini pasaytiradi.

Integrativ yondashuvning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Psixologik omillar: stressga chidamlilik, emotsional intellekt, o‘zini boshqarish.

Huquqiy omillar: huquqiy madaniyat, qonunchilik bo‘yicha xabardorlik, huquqiy javobgarlik.

Ijtimoiy omillar: oilaviy qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom tengdoshlar muhiti, mahalla instituti.

Pedagogik omillar: interfaol ta’lim metodlari, treninglar, profilaktik dasturlar.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosa chiqarildi: huquqiy qadriyatlarni rivojlantirish giyohvandlik profilaktikasining nafaqat huquqiy, balki kuchli psixologik mexanizmi ham hisoblanadi. Bunday yondashuv jamoat xavfsizligini ta’minlashning preventiv modelini yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘smir yoshidagi o‘quvchilarda huquqiy qadriyatlarni shakllantirish giyohvandlikka qarshi integrativ yondashuvlarning muhim psixologik asosi hisoblanadi. Huquqiy ong, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy me’yorlarga hurmat hissining rivojlanishi yoshlarning salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshiradi.

Giyohvandlik profilaktikasida huquqiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o‘zaro integratsiyasi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shu sababli ta’lim muassasalari, oila, mahalla va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamkorligiga asoslangan kompleks profilaktik dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.

Mazkur yondashuv yosh avlodning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, giyohvandlik xavfini kamaytirish hamda jamoat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son *“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”*gi Farmoni. – Toshkent, 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son *“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”*gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. *Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida* // 2016-yil 14-sentabr, O‘RQ-406-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. *Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar to‘g‘risida* // 1999-yil 19-avgust, № 813-I.
5. Vigotskiy L.S. *Mind in Society*. – Harvard University Press, 1978.
6. Leontiev A.N. *Activity, Consciousness, Personality*. – Moscow: Politizdat, 1975.
7. Rubinstein S.L. *Fundamentals of General Psychology*. – Moscow: Piter, 2002.
8. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1977.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI PSIXOLOGIK-INTEGRATIV YONDASHUVLAR: PROFILAKTIKA, KORREKSIYA VA IJTIMOIY REABILITATSIYA IMKONIYATLARI

Karimova Nilufar Ulmassultanovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi stajo'r o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada giyohvandlikning shaxs ruhiyati, oila, ta'lim muassasasi va jamiyat hayotiga ta'siri psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Giyohvandlikka qarshi kurashishda faqat tibbiy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, psixologik, pedagogik, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy va oilaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Maqolada psixologik-integrativ yondashuvning mazmuni, uning asosiy komponentlari, yoshlar o'rtasida profilaktika ishlarini tashkil etish mexanizmlari, shuningdek, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik va shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, addiktiv xulq, psixologik profilaktika, integrativ yondashuv, yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy moslashuv, pedagogik profilaktika, ma'naviy immunitet.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние наркомании на психику личности, семьи, учебного заведения и социальную жизнь с психолого-педагогической точки зрения. Обосновывается необходимость сочетания психологического, педагогического, социального, духовного и воспитательно-семейного подходов в борьбе с наркоманией, не ограничиваясь медико-юридическими мерами. В статье рассматривается содержание психолого-интегративного подхода, его основные компоненты, механизмы организации профилактической работы среди молодежи, а также пути формирования здорового образа жизни, социальной активности и личной ответственности.

Ключевые слова: наркомания, аддиктивное поведение, психологическая профилактика, интегративный подход, воспитание молодежи, здоровый образ жизни, социальная адаптация, педагогическая профилактика, духовный иммунитет.

Abstract. This article analyzes the impact of drug addiction on the psyche of the individual, family, educational institution and social life from a psychological and pedagogical point of view. The need to combine psychological, pedagogical, social, spiritual and educational and family approaches in the fight against drug addiction is substantiated, not limited to medical or legal measures. The article covers the content of the psychological and integrative approach, its main components, mechanisms for organizing preventive work among young people, as well as ways to form a healthy lifestyle, social activity and personal responsibility.

Keywords: drug addiction, addictive behavior, psychological prevention, integrative approach, youth education, healthy lifestyle, social adaptation, pedagogical prevention, spiritual immunity.

Kirish. Bugungi kunda giyohvandlik nafaqat tibbiy yoki huquqiy muammo, balki murakkab ijtimoiy-psixologik, pedagogik va ma'naviy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. U shaxsning ruhiy holati, irodaviy boshqaruvi, oilaviy munosabatlari, ta'limdagi faolligi, ijtimoiy moslashuvi va hayotiy maqsadlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, yoshlar orasida addiktiv xulq-atvor shakllanishi ta'lim-tarbiya tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Giyohvandlikka qarshi kurashish samarali bo'lishi uchun uni faqat oqibatlar bilan emas, balki sabablar bilan bog'liq holda o'rganish zarur. Chunki giyohvandlik ko'pincha shaxsning ichki bo'shlig'i, emotsional beqarorligi, oilaviy nizolar, noto'g'ri do'stlar muhiti, o'ziga ishonchsizlik, stressni yengish ko'nikmalarining sustligi va hayotiy maqsadlarning aniq shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi.

Shu sababli giyohvandlikka qarshi psixologik-integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuvda shaxsga bir tomonlama emas, balki kompleks tarzda yondashiladi: uning ruhiy holati, ijtimoiy muhiti, oilaviy tarbiyasi, qadriyatlari, motivatsiyasi, muloqot tajribasi va hayotiy maqsadlari birgalikda tahlil qilinadi.

Giyohvandlikning psixologik mohiyati. Giyohvandlik — bu shaxsning zararli odat yoki qaramlikka ruhiy va xulqiy jihatdan bog‘lanib qolishi bilan tavsiflanadigan murakkab holatdir. Psixologik nuqtayi nazardan u insonning emotsional ehtiyojlari, ichki ziddiyatlari, stressga munosabati va o‘zini boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq.

Addiktiv xulq-atvorning shakllanishida quyidagi omillar muhim o‘rin tutadi:

Omillar	**Mazmuni**
Psixologik omillar	O‘ziga ishonchsizlik, stress, xavotir, yolg‘izlik, irodaviy zaiflik, ichki bo‘shliq hissi
Oilaviy omillar	Nazoratning sustligi, mehr yetishmasligi, oilaviy nizolar, befarqlik yoki haddan tashqari bosim
Ijtimoiy omillar	Salbiy do‘stlar guruhi, noto‘g‘ri axborot, ijtimoiy bosim, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil qilmaslik
Pedagogik omillar	Ta’lim muassasasida tarbiyaviy ishlarning sustligi, individual yondashuv yetishmasligi
Ma’naviy omillar	Hayotiy maqsadlarning noaniqligi, qadriyatlar tizimining zaifligi, mas’uliyat hissining pastligi

Demak, giyohvandlik shaxsning faqat tashqi xulqida emas, balki uning ichki psixologik dunyosida ham chuqur ildiz otishi mumkin. Shuning uchun profilaktika ishlari faqat ogohlantirish yoki taqiqlash bilan chegaralanmasligi, balki yoshlarning ruhiy barqarorligini, tanqidiy tafakkurini, sog‘lom qadriyatlarini va hayotiy motivatsiyasini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Psixologik-integrativ yondashuv — bu giyohvandlikka qarshi kurashishda turli fanlar, metodlar va ijtimoiy institutlar hamkorligini ta’minlovchi kompleks yondashuvdir. Bu yondashuvda psixologiya, pedagogika, tibbiyot, huquq, sotsiologiya, ma’naviyat va oila tarbiyasi bir-biri bilan uzviy bog‘langan holda qo‘llaniladi.

Ushbu yondashuvning asosiy g‘oyasi quyidagicha ifodalanadi:

“Shaxsni jazolash emas, uni tushunish; qo‘rqitish emas, ongli tanlovga tayyorlash; ajratish emas, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.”

Psixologik-integrativ yondashuv quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Psixologik profilaktika** — yoshlarning zararli ta’sirlarga qarshi ruhiy barqarorligini shakllantirish.
2. **Pedagogik tarbiya** — sog‘lom turmush tarzi, mas’uliyat, irodaviy sifatlar va ijtimoiy faollikni rivojlantirish.
3. **Oilaviy hamkorlik** — ota-onalarning farzand tarbiyasidagi psixologik savodxonligini oshirish.
4. **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash** — yoshlarni sport, san’at, fan, kasb-hunar va jamoat faoliyatiga jalb qilish.
5. **Ma’naviy-ma’rifiy ta’sir** — hayot mazmuni, milliy qadriyatlar, insoniylik va sog‘lom e’tiqodni mustahkamlash.
6. **Huquqiy ongni rivojlantirish** — yoshlarning qonun, mas’uliyat va fuqarolik pozitsiyasini anglashiga yordam berish.

Giyohvandlikka qarshi profilaktik ishlarning pedagogik ahamiyati

Ta’lim muassasalari giyohvandlikka qarshi profilaktikaning eng muhim ijtimoiy maydonlaridan biridir. Chunki maktab, kollej, texnikum va oliy ta’lim muassasalari yoshlarning dunyoqarashi, muloqot madaniyati, ijtimoiy faolligi va shaxsiy pozitsiyasi shakllanadigan muhitdir.

Pedagogik profilaktikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning sog‘lom hayotga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish;
- zararli odatlarga nisbatan ongli rad etish pozitsiyasini rivojlantirish;
- stressni sog‘lom usullar orqali yengish ko‘nikmalarini o‘rgatish;
- ijtimoiy bosimga qarshi mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
- bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish;
- irodaviy sifatlar, mas’uliyat va o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligini kuchaytirish.

Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki tarbiyachi, kuzatuvchi, maslahat beruvchi va ijtimoiy yo‘naltiruvchi sifatida faoliyat yuritadi.

Kreativ model: “5Q” psixologik-integrativ profilaktika modeli

Giyohvandlikka qarshi samarali profilaktika ishlarini tashkil etish uchun quyidagi kreativ modelni taklif etish mumkin:

1. Qadriyat Yoshlar ongida hayot, sog‘liq, oila, bilim, kasb, Vatan va kelajak kabi qadriyatlarni mustahkamlash zarur. Qadriyati mustahkam shaxs salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi.

2. Qobiliyat

Har bir yoshning qiziqishi va qobiliyatini aniqlash, uni sport, san’at, ilm-fan, ijod, texnika yoki kasb-hunar faoliyatiga yo‘naltirish muhimdir. O‘z qobiliyatini anglagan bola zararli muhitdan uzoqlashadi.

3. Qaror

Yoshlarda mustaqil qaror qabul qilish, “yo‘q” deya olish, ijtimoiy bosimga berilmaslik va o‘z tanlovi uchun javobgarlikni his qilish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

4. Qo‘llab-quvvatlash

Oilaviy, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Muammoga duch kelgan yosh yolg‘iz qoldirilmasligi kerak.

5. Qayta tiklanish

Agar shaxs zararli odat xavfiga duch kelgan bo‘lsa, uni ayblash yoki chetlashtirish emas, balki mutaxassislar yordamida sog‘lom hayotga qaytarish zarur.

Ushbu modelning asosiy maqsadi — yoshlarni faqat ogohlantirish emas, balki ularni ongli, irodali, ijtimoiy faol va maqsadli shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Psixologik profilaktikaning samarali usullari

Giyohvandlikka qarshi psixologik profilaktika jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

Metod	**Pedagogik-psixologik ahamiyati**
Trening mashg‘ulotlari	Yoshlarning muloqot, tanlov, qaror qabul qilish va stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
Rolli o‘yinlar	Murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishni mashq qildiradi.
Munozara va debatlar	Tanqidiy tafakkur, dalillash va mustaqil fikrni shakllantiradi.
Psixologik suhbat	Shaxsning ichki kechinmalari, qo‘rquvlari va ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.
Ijtimoiy loyiha	Yoshlarni foydali jamoaviy faoliyatga jalb qiladi.
Art-terapiya elementlari	Emotsiyalarni sog‘lom ifodalash, ichki zo‘riqishni kamaytirish va o‘zini anglashga xizmat qiladi.
Sport va jamoaviy faoliyat	Irodaviy sifatlar, intizom, maqsadga intilish va sog‘lom raqobatni shakllantiradi.

Profilaktika jarayonida eng muhim shart — yoshlar bilan qo‘rqitish, kamsitish yoki buyruqbozlik asosida emas, balki ishonch, ochiq muloqot va hamkorlik asosida ishlashdir.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda oila muhim himoya omili hisoblanadi. Oilada mehr, nazorat, ishonch, muloqot va sog‘lom tarbiya mavjud bo‘lsa, bola salbiy ta’sirlarga kamroq beriladi. Aksincha, oilaviy befarqlik, haddan tashqari qattiqqo‘llik yoki nazoratsizlik yoshda ichki norozilik, yolg‘izlik va noto‘g‘ri guruhlarga qo‘shilish xavfini oshiradi.

Ota-onalar quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim:

- farzand bilan muntazam samimiy suhbat qilish;
- uning do‘stlari va qiziqishlarini bilish;
- tanqid qilishdan ko‘ra tushunishga harakat qilish;
- bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam berish;
- farzandning kichik yutuqlarini ham qadrlash;
- muammo sezilganda mutaxassisga murojaat qilishdan tortinmaslik.

Mahalla, ta’lim muassasasi va oila hamkorligi esa profilaktikaning ijtimoiy tayanchini yaratadi. Bu uchlik birgalikda ishlaganda yoshlar uchun sog‘lom, xavfsiz va tarbiyaviy muhit shakllanadi.

Ta’lim muassasalarida giyohvandlikka qarshi integrativ ishlar tizimi

Ta’lim muassasasida giyohvandlikka qarshi profilaktik ishlar tasodifiy tadbirlar shaklida emas, balki tizimli reja asosida olib borilishi kerak.

1-bosqich: Diagnostika

O‘quvchi yoki talabalarning psixologik holati, ijtimoiy moslashuvi, stress darajasi, muloqot madaniyati va xavf omillari aniqlanadi.

2-bosqich: Ma’rifiy ishlar

Sog‘lom turmush tarzi, huquqiy ong, shaxsiy mas’uliyat, hayotiy maqsadlar va zararli odatlardan himoyalanish bo‘yicha ma’ruzalar, uchrashuvlar va suhbatlar tashkil etiladi.

3-bosqich: Psixologik treninglar

Yoshlar bilan “Men tanlayman”, “Sog‘lom kelajak”, “Bosimga qarshi iroda”, “Maqsad sari qadam”, “O‘z hayotim uchun mas’ulman” kabi mavzularda treninglar o‘tkaziladi.

4-bosqich: Ijtimoiy faollashtirish

Yoshlar sport musobaqalari, ijodiy tanlovlar, volontyorlik harakatlari, ilmiy to‘garaklar, kasbiy loyihalar va madaniy tadbirlarga jalb qilinadi.

5-bosqich: Monitoring va qo‘llab-quvvatlash

O‘quvchi yoki talabalarning xulqi, kayfiyati, o‘qishga munosabati va ijtimoiy faolligi muntazam kuzatib boriladi. Zarur holatda psixologik maslahat va mutaxassislar ko‘magi tashkil etiladi.

Giyohvandlikka qarshi psixologik himoya omillari

Yoshlarni giyohvandlik xavfidan himoya qiluvchi asosiy psixologik omillar quyidagilardir:

1. **O‘zini anglash** — shaxs o‘z kuchli va zaif tomonlarini biladi.
2. **Irodaviy boshqaruv** — shaxs o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila oladi.
3. **Sog‘lom motivatsiya** — shaxsning maqsadi va kelajakka ishonchi mavjud bo‘ladi.
4. **Tanqidiy tafakkur** — shaxs noto‘g‘ri taklif va bosimlarni tahlil qila oladi.
5. **Muloqot madaniyati** — shaxs o‘z fikrini erkin va to‘g‘ri ifodalaydi.
6. **Stressga bardoshlilik** — shaxs qiyinchiliklarni zararli yo‘l bilan emas, sog‘lom usullar bilan yengadi.
7. **Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash** — shaxs oila, do‘stlar, ustozlar va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Xulosa. Giyohvandlikka qarshi kurashish bugungi jamiyatning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, bu jarayonda psixologik-integrativ yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki giyohvandlik shunchaki zararli odat emas, balki shaxsning ruhiy, ijtimoiy, oilaviy va ma’naviy muammolari bilan bog‘liq murakkab hodisadir. Samarali profilaktika uchun yoshlar ongida sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy mas’uliyat, mustaqil fikrlash, irodaviy barqarorlik va hayotiy maqsadlarni shakllantirish zarur. Bu jarayonda oila, ta’lim muassasasi, mahalla, psixolog, pedagog va jamiyat hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Giyohvandlikka qarshi psixologik-integrativ yondashuvning asosiy maqsadi — yoshlarni qo‘rqitish emas, balki ularni hayotni qadrlashga, o‘z kelajagi uchun mas’uliyatli bo‘lishga, sog‘lom tanlov qilishga va jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishga yo‘naltirishdir. Eng muhim pedagogik xulosa shuki: sog‘lom ruhiyat, mustahkam qadriyat va mehrga asoslangan muhit mavjud bo‘lgan joyda zararli odatlarga qarshi eng kuchli immunitet shakllanadi.

Amaliy tavsiyalar

Giyohvandlikka qarshi psixologik-integrativ yondashuvni samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalar muhim:

1. Ta’lim muassasalarida giyohvandlik profilaktikasi bo‘yicha alohida psixologik-pedagogik dastur ishlab chiqish.
2. Har bir guruh yoki sinfda sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy mas’uliyatni targ‘ib qiluvchi treninglar o‘tkazish.

3. Ota-onalar uchun “Farzand bilan ishonchli muloqot”, “Yoshlar psixologiyasi”, “Salbiy muhitdan himoyalash” mavzularida seminarlar tashkil etish.

4. O‘quvchi va talabalarning bo‘sh vaqtini sport, san’at, fan, ijod va kasbiy to‘garaklar orqali mazmunli tashkil qilish.

5. Psixolog, pedagog, mahalla faollari, huquq-tartibot vakillari va tibbiyot mutaxassislari hamkorligini kuchaytirish.

6. Yoshlar orasida “Men sog‘lom hayotni tanlayman”, “Kelajagim o‘z qo‘limda”, “Zararli odatlarga yo‘q!” kabi ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish.

Profilaktika ishlarida qo‘rqitish yoki keskin taqiqlashdan ko‘ra, ongli tanlov, hayotiy maqsad va shaxsiy mas’uliyat g‘oyalariga urg‘u berish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish va yoshlar tarbiyasiga oid davlat dasturlari.
6. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.
7. G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya.
8. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya.
9. Bandura A. Social Learning Theory.
10. Rogers C. Client-Centered Therapy.
11. Vygotsky L.S. Pedagogik psixologiya.
12. WHO. Mental health promotion and prevention approaches.

TENGDOSHLAR BOSIMI VA OILAVIY MUHITNING YOSHLAR GIYOHVANDLIGIGA TA’SIRI

Kenjayeva Kumush Musobek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Amaliy psixologiya yo'nalishi
3- bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilingan. Xususan, tengdoshlar bosimi, nosog‘lom ijtimoiy muhit, oiladagi nizolar, ota-onalarning farzand tarbiyasiga befarqligi hamda psixologik nazoratning sustligi yoshlarning zararli odatlarga moyilligini oshirishi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, maqolada giyohvandlikning yoshlar ruhiyati, xulqi va ijtimoiy hayotiga salbiy ta’siri hamda uning oldini olishning psixologik-profilaktik usullari haqida fikr yuritilgan. Tadqiqot davomida yoshlar ongida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, oilaviy muhitni mustahkamlash va ijtimoiy-psixologik yordamni kuchaytirish muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar; Giyohvandlik, yoshlar, tengdoshlar bosimi, oilaviy muhit, ijtimoiy-psixologik omillar, deviant xulq-atvor, profilaktika, psixologik ta’sir, tarbiya, stress.

Аннотация.В данной статье анализируются основные социально-психологические факторы, вызывающие наркотическую зависимость среди молодежи. В частности, научно доказано, что давление со стороны сверстников, нездоровая социальная среда, семейные конфликты, безразличие родителей к воспитанию ребенка и слабый психологический контроль усиливают склонность молодежи к вредным привычкам. В статье также рассматривается негативное влияние наркотической зависимости на психику, поведение и социальную жизнь молодежи, а также психологические и профилактические методы ее предотвращения. Исследование подтверждает, что важными факторами являются

формирование здорового образа жизни в сознании молодежи, укрепление семейной среды и усиление социально-психологической поддержки.

Ключевые слова.Наркотическая зависимость, молодежь, давление со стороны сверстников, семейная среда, социально-психологические факторы, девиантное поведение, профилактика, психологическое воздействие, воспитание, стресс.

Abstract. This article analyzes the main socio-psychological factors that cause drug addiction among young people. In particular, it is scientifically revealed that peer pressure, unhealthy social environment, family conflicts, parental indifference to child upbringing, and weak psychological control increase the tendency of young people to harmful habits. The article also discusses the negative impact of drug addiction on the psyche, behavior, and social life of young people, as well as psychological and preventive methods for its prevention. The study substantiates that the formation of a healthy lifestyle in the minds of young people, strengthening the family environment, and strengthening socio-psychological support are important factors.

Keywords.Drug addiction, youth, peer pressure, family environment, socio-psychological factors, deviant behavior, prevention, psychological impact, upbringing, stress.

Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning keng tarqalishi dunyo miqyosidagi dolzarb ijtimoiy va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida shaxsning ruhiy jihatdan beqarorligi, mustaqil qaror qabul qilishdagi tajribaning yetishmasligi hamda tashqi ta’sirlarga tez berilishi ularni turli zararli odatlarga moyil qilib qo‘yadi.[3] Giyohvandlik nafaqat inson salomatligiga, balki uning ruhiy holati, oilaviy munosabatlari va jamiyatdagi ijtimoiy mavqeiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Yoshlarning giyohvandlikka moyilligi ko‘pincha ma’lum ijtimoiy-psixologik omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday omillardan eng muhimlari tengdoshlar bosimi va oilaviy muhit hisoblanadi. O‘smir yoshdagi insonlar do‘stlari fikriga kuchli darajada bog‘liq bo‘lishadi. Ular guruh tomonidan qabul qilinish, tengdoshlar orasida obro‘ orttirish yoki ulardan ajralib qolmaslik maqsadida zararli odatlarni sinab ko‘rishlari mumkin. Oiladagi nosog‘lom muhit, ota-ona e’tiborining yetishmasligi, oilaviy nizolar va farzand tarbiyasidagi xatolar ham yoshlarning ruhiy zaiflashuviga sabab bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi tengdoshlar bosimi va oilaviy muhitning yoshlar giyohvandligiga ta’sirini ijtimoiy-psixologik jihatdan tahlil qilish hamda ushbu muammoning oldini olish yo‘llarini yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM

Yoshlar shaxs sifatida shakllanish jarayonida o‘z tengdoshlari bilan yaqin munosabat o‘rnatishga intiladi.[1] Ayniqsa, o‘smirlik davrida insonda mustaqillikka intilish, boshqalar tomonidan tan olinishi va jamoadan o‘rin egallash ehtiyoji kuchayadi.[3] Shu sababli bu davrda tengdoshlar fikri va bahosi yosh uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Psixologik jihatdan qaraganda, o‘smir o‘z “Men”ini shakllantirish jarayonida ko‘proq do‘stlari va atrofidagi ijtimoiy guruhlarning ta’siriga tushadi.[2]Tengdoshlar bosimi bevosita va bilvosita shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.[1] Bevosita bosimda yoshga giyohvand moddalarni sinab ko‘rish ochiq tarzda taklif qilinadi. Bilvosita bosimda esa yosh o‘zini guruhga moslashtirish maqsadida boshqalarga taqlid qiladi. Masalan, ayrim yoshlar do‘stlari orasida “zamonaviy”, “qo‘rqmas” yoki “erkin” ko‘rinish uchun zararli odatlarga qiziqish bildiradi.[5] Bu esa psixologik jihatdan identifikatsiya jarayoni bilan bog‘liq bo‘lib, shaxs o‘zini ma’lum guruhning bir qismi sifatida his qilishga harakat qiladi.

Ko‘plab psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning aksariyati giyohvand moddalarni birinchi marta aynan do‘stlar davrasida iste’mol qiladi.[7] Chunki bu yosh davrida hissiyotlarning kuchliligi, xavfni to‘liq anglay olmaslik va qiziqish hissining yuqoriligi ustun bo‘ladi. Ayrim hollarda tengdoshlar tomonidan kamsitilishdan qo‘rqish ham yoshlarni zararli odatlarga undaydi. Masalan, “bizdan ajralib qolma”, “sen hali hech narsani bilmaysan” kabi iboralar yosh ruhiyatiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadi.Bundan tashqari, salbiy ijtimoiy guruhlar yoshlarning qadriyatlari va xulq-atvoriga ham salbiy ta’sir qiladi. Agar o‘smir ijobiy muhit o‘rniga deviant xulq-atvor ustun bo‘lgan guruhga tushib qolsa, unda giyohvandlikka moyillik kuchayadi. Chunki inson xulq-atvori ko‘p jihatdan u yashayotgan ijtimoiy muhit bilan

belgilanadi. Psixolog A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson ko‘plab xatti-harakatlarni kuzatish va taqlid qilish orqali egallaydi.[6] Demak, yoshlar zararli odatlarni ham ko‘pincha atrofdagilardan o‘rganadi.

Oila shaxsning birlamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi.[4] Farzandning dunyoqarashi, qadriyatlari, emotsional holati va xulq-atvori avvalo oilada shakllanadi. Shu sababli oiladagi psixologik muhit yoshlarning giyohvandlikka moyilligi yoki aksincha, undan himoyalanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Sog‘lom oilaviy muhitda voyaga yetayotgan yoshlar o‘zini xavfsiz, qadrlangan va himoyalangan his qiladi.[4] Ota-onaning mehr-muhabbati, qo‘llab-quvvatlashi hamda nazorati yoshda mustahkam psixologik barqarorlikni shakllantiradi.[2] Bunday oilalarda farzand o‘z muammolarini ota-onasi bilan erkin muhokama qila oladi va tashqi salbiy ta’sirlarga nisbatan chidamliroq bo‘ladi.Nosog‘lom oilaviy muhit esa yoshlarning ruhiy zo‘riqishiga sabab bo‘ladi. Oiladagi doimiy janjallar, ajrimlar, zo‘ravonlik, ota-onaning farzandga nisbatan sovuqqonligi yoki befarqligi yosh psixikasida salbiy iz qoldiradi.[4] Ayniqsa, ota-onalar o‘rtasidagi nizolar farzandda qo‘rquv, xavotir, tushkunlik va yolg‘izlik hissini yuzaga keltiradi.[2] Natijada ayrim yoshlar ruhiy og‘riqdan qochish maqsadida giyohvand moddalarni vaqtinchalik “yechim” sifatida qabul qilishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda ota-onaning avtoritar yoki haddan tashqari erkin tarbiya usullari ham xavf omili sifatida ko‘rsatiladi.[1] Haddan tashqari qattiqqo‘llik yoshda ichki norozilik va agressiyani kuchaytiradi, ortiqcha erkinlik esa nazoratsizlikni yuzaga keltiradi.[4] Har ikki holatda ham yosh salbiy tengdoshlar ta’siriga tezroq tushib qoladi.Shuningdek, ota-onaning o‘zi zararli odatlarga ega bo‘lsa, farzand uchun bu holat “normal” xatti-harakat sifatida qabul qilinishi mumkin. Chunki bola ko‘pincha kattalarning xulqini kuzatish va takrorlash orqali o‘rganadi. Shu sababli oiladagi salbiy namuna yoshlar giyohvandligining shakllanishida muhim xavf omillaridan biri hisoblanadi.

O‘smirlik va yoshlik davri psixologik jihatdan murakkab davr hisoblanadi.[3] Bu bosqichda shaxsda emotsional beqarorlik, keskin kayfiyat o‘zgarishlari, mustaqillikka intilish va ichki ziddiyatlar kuchli namoyon bo‘ladi. Aynan shu holatlar ayrim yoshlarning zararli odatlarga moyilligini oshiradi.Past o‘zini baholash, o‘ziga ishonchsizlik, stressga bardoshlilikning pastligi va depressiv holatlar giyohvandlik xavfini kuchaytiruvchi psixologik omillar hisoblanadi. Ayrim yoshlar hayotdagi muammolar, muvaffaqiyatsizlik yoki oilaviy qiyinchiliklardan qochish maqsadida giyohvand moddalarni iste’mol qilishga urinadi.[5] Dastlab ular buni vaqtinchalik qiziqish yoki ruhiy yengillik sifatida qabul qilishi mumkin, biroq keyinchalik bu holat psixologik va jismoniy qaramlikka olib keladi.Bundan tashqari, zamonaviy axborot muhiti ham yoshlar ruhiyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Internet, kino, ayrim musiqalar va ijtimoiy tarmoqlarda zararli odatlarning “erkinlik” yoki “zamonaviylik” belgisi sifatida ko‘rsatilishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiladi.[7] Ayniqsa, ruhiy jihatdan barqaror bo‘lmagan yoshlar bunday axborotlarni tez qabul qiladi.

Giyohvandlik yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Giyohvand moddalar inson asab tizimini izdan chiqarib, diqqatning pasayishi, xotira buzilishi, agressivlik, ruhiy tushkunlik va psixik kasalliklarni keltirib chiqaradi. Natijada yoshning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishi pasayadi, ijtimoiy faolligi susayadi va shaxs sifatidagi rivojlanishi izdan chiqadi.Shuningdek, giyohvandlik oilaviy va ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga ham olib keladi. Giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan yoshlar ko‘pincha yolg‘on gapirish, tajovuzkorlik, o‘g‘rilik va boshqa deviant xulq-atvor shakllariga moyil bo‘lib qoladi. Bu esa jamiyatda jinoyatchilik va ijtimoiy muammolarning ortishiga sabab bo‘ladi.

Giyohvandlikning iqtisodiy va demografik oqibatlari ham mavjud. Mehnatga layoqatli yoshlarning zararli odatlarga berilishi jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli yoshlar giyohvandligining oldini olish nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega masala hisoblanadi.Yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda kompleks yondashuv zarur.[1] Eng avvalo, oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish va farzand bilan ishonchli munosabatni shakllantirish muhimdir.[4] Ota-onalar farzandning hissiy holati, do‘stlari va qiziqishlariga e’tiborli bo‘lishi kerak.

Ta’lim muassasalarida psixologik treninglar, profilaktik suhbatlar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni muntazam tashkil etish yoshlarning zararli odatlarga qarshi immunitetini kuchaytiradi. Psixologik treninglar orqali yoshlarda mustaqil fikrlash, “yo‘q” deyish ko‘nikmasi va stressni boshqarish malakalari rivojlantiriladi.[1]Bundan tashqari, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim profilaktik vosita hisoblanadi. Sport, san’at, kitobxonlik va ijodiy faoliyat yoshlarning ijobiy qiziqishlarini shakllantiradi hamda ularni salbiy muhitdan uzoqlashtiradi.[2] Psixologik maslahat markazlari faoliyatini kuchaytirish, xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni erta aniqlash va ular bilan individual ishlash ham giyohvandlik profilaktikasida samarali natija beradi.[7]

Xulosa qilib aytganda, yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning tarqalishida tengdoshlar bosimi va oilaviy muhit muhim ijtimoiy-psixologik omillar hisoblanadi. Ayniqsa, nosog‘lom oilaviy muhit, ota-ona nazoratining sustligi va salbiy tengdoshlar ta’siri yoshlarning giyohvand moddalarni iste’mol qilish xavfini oshiradi.Mazkur muammoning oldini olish uchun oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish, yoshlar bilan samarali muloqot o‘rnatish hamda ta’lim muassasalarida psixoprofilaktik tadbirlarni kuchaytirish zarur. Shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport va ijodiy faoliyatga jalb qilish ham giyohvandlikka qarshi kurashishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.Jamiyatda sog‘lom avlodni shakllantirish va yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish barcha ijtimoiy institutlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. G‘oziev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2020.
3. Davletshin M.G. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
4. Musurmonova O. Oila psixologiyasi. – Toshkent, 2021.
5. Shoumarov G‘. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. – Toshkent, 2019.

THE ROLE OF TEACHERS’ DIGITAL COMMUNICATION CULTURE IN PREVENTING DRUG ADDICTION: A PEDAGOGICAL AND DEONTOLOGICAL PERSPECTIVE

Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna
Assistant Lecturer, Tashkent University of Humanities,
Independent researcher of Gulistan State University
qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-7245-273X
Reyimboeva Sevinch Matkarim kizi,
Tashkent University of Humanities 01-23, student of the Philology and Language Teaching (English) department

Abstract: This study analyzes the importance of teachers' digital communication culture in the digital educational environment for preventing drug addiction among students. The study highlights the role of teachers' moral online behavior, media literacy, and preventive communication in protecting students from harmful information influences. The results show that a developed digital communication culture enhances the effectiveness of preventive education and strengthens students' resilience to negative social influences.

Keywords: Digital communication culture, teachers, drug addiction prevention, digital education, media literacy, digital ethics, preventive pedagogy, deontological culture, online learning environments, student behavior, professional responsibility.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot raqamli ta’lim muhitida o‘qituvchilarning raqamli muloqot madaniyatining o‘quvchilar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning axloqiy onlayn xulq-atvori, media savodxonligi va profilaktik muloqotining o‘quvchilarni zararli axborot ta’siridan himoya qilishdagi o‘rni yoritilgan. Natijalar

shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan raqamli muloqot madaniyati profilaktik ta’lim samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning salbiy ijtimoiy ta’sirlarga qarshi barqarorligini mustahkamlaydi.

Kalit so‘zlar: Raqamli muloqot madaniyati, o‘qituvchilar, giyohvandlikning oldini olish, raqamli ta’lim, media savodxonlik, raqamli etika, profilaktik pedagogika, deontologik madaniyat, onlayn ta’lim muhiti, o‘quvchilarning xulq-atvori, kasbiy mas’uliyat**.**

Аннотация: Данное исследование анализирует значение культуры цифрового общения учителей в цифровой образовательной среде для предотвращения наркомании среди учащихся. В исследовании освещается роль морального онлайн-поведения учителей, медиаграмотности и профилактического общения в защите учащихся от вредоносного информационного воздействия. Результаты показывают, что развитая культура цифрового общения повышает эффективность профилактического образования и укрепляет устойчивость учащихся к негативным социальным воздействиям.

Ключевые слова: Цифровая культура общения, учителя, профилактика наркомании, цифровое образование, медиаграмотность, цифровая этика.

Introduction. In the era of rapid digital transformation, education systems are increasingly integrated with digital technologies that fundamentally reshape teaching and learning processes. Modern education is no longer confined to traditional classroom settings; instead, it has expanded into a hybrid and fully digital environment where communication between teachers and students takes place through online platforms, social networks, learning management systems, virtual classrooms, and various educational applications. This transformation has significantly changed the professional role of teachers, who are now expected to function not only as knowledge transmitters but also as digital communicators, facilitators of learning, and moral guides in both physical and virtual spaces. The increasing digitalization of education requires teachers to develop new competencies, including digital literacy, online communication skills, and ethical awareness in virtual environments. In this regard, the concept of “digital communication culture” has become an essential component of modern teacher professionalism. It refers to the ability of educators to communicate effectively, responsibly, and ethically in digital spaces while maintaining professional standards, respect, and pedagogical purpose. A strong digital communication culture ensures that teachers can create a safe, respectful, and educational online environment that supports students’ cognitive and moral development.

At the same time, one of the most serious and growing social problems affecting young people today is drug addiction. Adolescents and students are increasingly exposed to various forms of digital content, including both educational and harmful materials. The accessibility of information through digital technologies has created a complex situation: while it provides significant opportunities for learning and personal development, it also increases the risk of encountering misleading, dangerous, or harmful content that may negatively influence students’ attitudes, behavior, and decision-making processes.

In this context, teachers’ role becomes even more critical. Beyond delivering academic knowledge, teachers are responsible for guiding students toward healthy lifestyles, ethical behavior, and responsible digital engagement. A teacher who demonstrates high levels of ethical behavior, professional responsibility, and digital communication competence can have a strong positive influence on students’ perceptions of health, safety, and moral values. Such influence is especially important in preventing risky behaviors, including drug use, by fostering awareness and critical thinking.

Therefore, the integration of deontological principles—such as responsibility, moral duty, respect for learners, and professional ethics—into teachers’ digital communication practices is essential. It ensures that educational interactions in digital environments are not only informative but also morally grounded and socially responsible. In this way, digital communication becomes a powerful tool for both education and prevention, contributing to the formation of a healthy, ethically conscious, and socially responsible younger generation.

Methods. This study is based on theoretical and analytical research methods. The following approaches were used:

- **Literature analysis:** review of pedagogical, psychological, and deontological scientific sources;
- **Comparative analysis:** examination of different approaches to digital pedagogy and preventive education;
- **Synthesis:** integration of concepts related to digital communication culture and addiction prevention;
- **Content analysis:** evaluation of academic works and international frameworks on digital ethics and teacher competence.

These methods allowed for a comprehensive understanding of the relationship between teachers' digital communication culture and preventive educational strategies.

Discussion. The analysis reveals that teachers' digital communication culture performs several interconnected and highly significant functions in both educational and preventive processes. In the context of modern digitalized education, these functions are not isolated; rather, they complement each other in shaping students' knowledge, values, and behavior. A well-developed digital communication culture allows teachers to influence learners not only academically but also morally and socially, especially in relation to sensitive issues such as drug addiction prevention.

1. Educational function. Through digital platforms, teachers are able to provide students with systematic and easily accessible knowledge about healthy lifestyles, ethical behavior, and the negative consequences of drug addiction. Online educational environments such as learning management systems, virtual classrooms, educational websites, and social media groups make it possible to deliver information in various formats, including videos, presentations, interactive tasks, and discussions. These multimedia resources significantly increase students' engagement and help them better understand the long-term physical, psychological, and social consequences of harmful habits. Moreover, digital tools allow teachers to repeat, reinforce, and personalize educational content according to students' needs, which increases the effectiveness of preventive education.

2. Preventive function. Teachers can actively contribute to preventing drug addiction by implementing targeted preventive strategies in their digital communication. This includes sharing verified, scientifically grounded, and age-appropriate information that helps students distinguish between reliable and misleading content. Teachers also play an important role in warning students about the risks associated with drug use, including health deterioration, social isolation, and academic failure. In addition, digital communication enables educators to develop students' critical thinking skills, allowing them to evaluate online content more critically and resist manipulation or harmful influence. Another important aspect is the promotion of healthy behavioral choices, such as engaging in sports, creative activities, and constructive social interactions, which can serve as protective factors against addiction.

3. Ethical (deontological) function. From a deontological perspective, teachers have a professional and moral obligation to ensure students' safety not only in physical environments but also in digital spaces. This responsibility includes maintaining appropriate professional boundaries in online communication, avoiding misuse of personal data, and respecting students' privacy and dignity. Teachers must also demonstrate consistency between their professional values and digital behavior, as students often model their attitudes and actions based on observed behavior. Ethical digital communication requires honesty, respect, empathy, and responsibility, which collectively contribute to building trust between teachers and students. This trust is essential for effective preventive education, especially when addressing sensitive topics such as drug addiction.

4. Media literacy development. Teachers play a crucial role in developing students' media literacy skills, which are essential in the digital age. Media literacy enables students to critically analyze information, identify false or manipulative content, and make informed decisions in online environments. By integrating media literacy training into everyday educational practice, teachers help students become more resilient to harmful online influences, including drug-related

propaganda. This process also encourages students to become responsible digital citizens who can navigate the internet safely and ethically.

Results. The results of the analysis indicate that teachers who possess a high level of digital communication culture are significantly more effective in positively influencing students' behavior, attitudes, and value systems. Such teachers are able to establish a safe, respectful, and well-regulated digital learning environment where students feel psychologically secure and motivated to participate in educational activities. This type of environment reduces students' exposure to harmful online content and promotes the development of healthy lifestyle values, ethical awareness, and responsible digital behavior.

The findings also show that teachers with strong digital communication competence are more successful in integrating preventive educational messages into their daily online interactions with students. These messages, when delivered consistently and appropriately, help students develop a deeper understanding of the risks and consequences associated with drug addiction. As a result, students become more cautious, informed, and resistant to negative external influences found in digital spaces.

In addition, the study reveals that students who are regularly exposed to preventive messages in digital learning environments demonstrate a higher level of awareness regarding the dangers of drug addiction compared to those who receive limited or no such information. This confirms that digital communication, when applied ethically and systematically, can serve as a powerful preventive educational tool. It not only transmits information but also shapes students' attitudes, strengthens their decision-making skills, and supports the formation of responsible behavioral patterns.

Furthermore, the integration of digital ethics into teachers' communication practices has been found to significantly increase students' trust, engagement, and willingness to participate in discussions on sensitive topics. When teachers demonstrate respect, professionalism, and ethical consistency in their digital interactions, students are more likely to perceive them as reliable mentors and open up to educational guidance. This increased level of trust enhances the effectiveness of preventive education, as students are more receptive to advice and more willing to internalize positive behavioral norms.

Overall, the results confirm that digital communication culture is not only an auxiliary skill but a core pedagogical competence that directly influences the effectiveness of both educational and preventive work in modern digital learning environments.

Conclusion. The study concludes that teachers' digital communication culture plays a crucial and multidimensional role in preventing drug addiction among students in modern educational environments. In the context of rapid digitalization, teachers are no longer limited to traditional instructional roles; they also act as digital mentors, ethical role models, and preventive educators. Their online communication practices significantly influence students' perceptions, attitudes, and behavioral choices, especially regarding sensitive social issues such as drug use.

The findings of the study clearly demonstrate that digital communication serves not only as a means of delivering academic content but also as an effective instrument for moral education, value formation, and behavioral prevention. When teachers communicate ethically, responsibly, and consistently in digital spaces, they contribute to shaping students' critical thinking, self-awareness, and resistance to harmful influences. This highlights the importance of integrating educational, ethical, and preventive dimensions within digital pedagogy.

References

1. UNESCO. (2018). *ICT Competency Framework for Teachers*. Paris: UNESCO.
2. Bates, T. (2019). *Teaching in a Digital Age*. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd.
3. Selwyn, N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.
4. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Prentice Hall.
5. OECD. (2021). *21st Century Readers: Developing Literacy Skills in a Digital World*. Paris: OECD Publishing.

6. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). Technological Pedagogical Content Knowledge. *Teachers College Record*, 108(6), 1017–1054.

RAQAMLI MAKONDA YOSHLARNI GIYOHVANDLIK XAVFIDAN HIMOYA QILISHDA PEDAGOGNING DEONTOLOGIK MAS'ULIYATI

Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna,
Toshkent gumanitar fanlar universiteti assistent o‘qituvchisi,
Guliston davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
https://orcid.org/0009-0005-7245-273X
qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli makonda yoshlarni giyohvandlik xavfidan himoya qilishda pedagogning deontologik mas'uliyati, raqamli muloqot madaniyatini shakllantirish va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish masalalari tahlil qilingan. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan zararli axborotlarning yoshlar ongiga ta'siri, axborot immunitetini shakllantirishning ahamiyati hamda profilaktik faoliyatda pedagogning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, raqamli muhitdagi xavflarni bartaraf etishda oila, ta'lim muassasasi va jamoatchilik hamkorligining ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik deontologiya, raqamli makon, giyohvandlik profilaktikasi, raqamli muloqot madaniyati, sog‘lom turmush tarzi, axborot immuniteti, yoshlar tarbiyasi, pedagog mas'uliyati.

Аннотация. В статье анализируются вопросы деонтологической ответственности педагога в защите молодежи от угроз наркомании в цифровом пространстве. Освещаются проблемы влияния деструктивной информации, распространяемой через интернет и социальные сети, на сознание молодежи, а также значение формирования культуры цифрового общения, информационного иммунитета и здорового образа жизни. Обоснована роль педагога, семьи и образовательных учреждений в профилактике наркотической зависимости среди молодежи.

Ключевые слова: педагогическая деонтология, цифровое пространство, профилактика наркомании, культура цифрового общения, здоровый образ жизни, информационный иммунитет, воспитание молодежи, ответственность педагога.

Abstract. The article examines the deontological responsibility of teachers in protecting young people from drug-related risks in the digital environment. Particular attention is paid to the impact of harmful online content on youth, the development of digital communication culture, information immunity, and healthy lifestyle values. The study highlights the role of teachers, families, and educational institutions in preventing drug abuse and promoting safe behavior in the digital space.

Keywords: pedagogical deontology, digital environment, drug prevention, digital communication culture, healthy lifestyle, information immunity, youth education, teacher responsibility.

Kirish

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida raqamli muhit inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning ta'lim olishi, muloqot qilishi va dunyoqarashi shakllanishida muhim o‘rin egallamoqda. Biroq raqamli texnologiyalarning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda turli tahdidlar ham paydo bo‘lmoqda. Ularning orasida giyohvandlik vositalari targ‘iboti, noqonuniy savdo kanallari va yoshlarni turli jinoiy faoliyatlarga jalb qilish holatlari alohida tashvish uyg‘otadi.

Bugungi kunda giyohvandlik vositalarini tarqatish an'anaviy usullar bilan bir qatorda raqamli platformalar orqali ham amalga oshirilmoqda. Turli ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va anonim kanallar orqali yoshlarni oson daromad va'dalari bilan noqonuniy faoliyatlarga jalb qilishga urinishlar kuzatilmoqda. Bu holat ta'lim tizimi zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi.

YUNISEF tadqiqotlari bolalar va o‘smirlar hayoti tobora raqamli texnologiyalar bilan bog‘lanib borayotganini, bu esa imkoniyatlar bilan bir qatorda yangi xavflarni ham keltirib chiqarayotganini ta'kidlaydi. Shuning uchun raqamli muhitda xavfsiz harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish zamonaviy ta'limning muhim vazifasi hisoblanadi (unicef.org).

Pedagogik deontologiya va uning zamonaviy ahamiyati

Pedagogik deontologiya pedagogning kasbiy burchi, axloqiy mas'uliyati va jamiyat oldidagi vazifalarini belgilab beruvchi muhim pedagogik sohadir. Uning asosida insonparvarlik, adolat, halollik, mas'uliyat va bola manfaatlarini ustuvor qo‘yish tamoyillari yotadi.

Raqamli transformatsiya sharoitida pedagogning vazifalari yanada kengaymoqda. Endi u nafaqat ta'lim beruvchi, balki o‘quvchilarni raqamli muhitdagi xavflardan muhofaza qiluvchi, axborot xavfsizligi va raqamli madaniyatni shakllantiruvchi mutaxassis sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Bolalarning raqamli hayotini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro tadqiqotlar raqamli ko‘nikmalar va xavfsizlik madaniyatini erta shakllantirish zarurligini ko‘rsatmoqda (unicef.org).

Raqamli makonda giyohvandlik xavfining namoyon bo‘lishi

So‘nggi yillarda giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar raqamli texnologiyalardan faol foydalanmoqda. Internet orqali tarqatilayotgan yashirin reklama, shubhali kanallar va turli virtual hamjamiyatlar yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin.

Ayniqsa, moddiy qiyinchilikka duch kelgan yoki hayotiy maqsadlari yetarlicha shakllanmagan ayrim yoshlar oson daromad haqidagi va'dalar ta'sirida xavfli yo‘llarga kirib qolishi mumkin. Afsuski, ba'zan talabalar, yoshlar va hatto ta'lim tizimi bilan bog‘liq ayrim shaxslarning ham narkokurerlik jinoyatlariga aralashib qolishi haqida ma'lumotlar uchrab turadi. Bu holat profilaktika ishlarini kuchaytirish va pedagogik ta'sir imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Sog‘lom turmush tarzi – profilaktikaning muhim omili

Giyohvandlikka qarshi kurashishda eng samarali usullardan biri sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi insonning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan hayot tarzidir.

U quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- muntazam sport bilan shug‘ullanish;
- ratsional ovqatlanish;
- zararli odatlardan voz kechish;
- kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;
- bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish;
- ma'naviy kamolot;
- raqamli gigiyena va axborot xavfsizligiga rioya qilish.

Sog‘lom turmush tarziga amal qiluvchi yoshlarda hayotga ijobiy munosabat, mas'uliyat hissi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bu esa ularning turli zararli ta'sirlarga qarshi immunitetini mustahkamlaydi.

Raqamli muloqot madaniyati va axborot immuniteti

Raqamli muloqot madaniyati internet muhitida axloqiy, huquqiy va madaniy me'yorlarga muvofiq muloqot qilish ko‘nikmalarini anglatadi. Bunday madaniyatga ega bo‘lgan yoshlar axborotlarni tanqidiy baholay oladi, soxta ma'lumotlarni ajratadi va xavfli kontentdan o‘zini himoya qiladi.

YUNISEF ma'lumotlariga ko‘ra, raqamli texnologiyalar bolalar uchun katta imkoniyatlar yaratgani holda, ularni turli onlayn xavflarga ham duchor qilishi mumkin. Shuning uchun raqamli savodxonlik va axborot xavfsizligi ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi (unicef.org).

Axborot immuniteti shakllangan yoshlar turli manipulyatsiyalar, destruktiv g‘oyalar va giyohvandlik targ‘ibotiga nisbatan tanqidiy munosabatni namoyon etadilar.

Yoshlarni raqamli makonda giyohvandlik xavfidan himoya qilishda pedagog quyidagi vazifalarni amalga oshirishi zarur: o‘quvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish; sog‘lom turmush tarzini shaxsiy namuna orqali targ‘ib qilish; ota-onalar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga

qo‘yish; raqamli savodxonlikni rivojlantirish; xavf guruhiga mansub o‘quvchilarni erta aniqlash; profilaktik tadbirlarni muntazam tashkil etish; huquqiy va ma'naviy tarbiyani kuchaytirish; yoshlarda kelajakka ishonch va hayotiy maqsadlarni shakllantirish.

Pedagogning mazkur vazifalarni amalga oshirishi o‘quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy barqarorlik va sog‘lom hayotiy pozitsiyaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Raqamli makonda yoshlarni giyohvandlik xavfidan himoya qilish bugungi ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Giyohvandlik profilaktikasi faqat huquqiy choralar bilan emas, balki pedagogik va ma'naviy ta'sir vositalari orqali ham amalga oshirilishi lozim.

Pedagogik deontologiya o‘qituvchining mazkur jarayondagi mas'uliyatini belgilab beradi. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzi, raqamli muloqot madaniyati, axborot immuniteti va huquqiy ongni shakllantirish orqali giyohvandlik xavfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Shu bois ta'lim muassasalari, oila va jamoatchilik hamkorligida kompleks profilaktik tizimni rivojlantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta'lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. Musurmonova O. Pedagogik deontologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Inoyatov U.I. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2021.
5. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi va ma'naviy xavfsizlik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020.
6. UNICEF. The State of the World's Children 2017: Children in a Digital World. New York, 2017. (unicef.org)
7. Stoilova M., Livingstone S., Khazbak R. Investigating Risks and Opportunities for Children in a Digital World. UNICEF Innocenti, 2021. (unicef.org)
8. UNICEF Innocenti. Childhood in a Digital World: Screen Time, Digital Skills and Mental Health. Florence, 2025. (unicef.org)
9. Schelenz L., Stapf I., Heesen J. Security for Children in the Digital Society: A Rights-based and Research Ethics Approach. 2023. (arxiv.org)
10. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2022.

O‘SMIRLAR VA YOSHLARDA GIYOHVANDLIK XULQINING SHAKLLANISHIDA MUHIT VA SHAXS OMILLARINING O‘ZARO TA'SIRI

Matyokubova Zulxumor Rustambekovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktaranti

harligold945@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'smirlar va yoshlarda giyohvandlik xulqining shakllanishida muhit va shaxs omillarining o'zaro ta'siri ko'rib chiqiladi. Oila, tengdoshlar guruhi, ijtimoiy muhit va ommaviy axborot vositalarining ta'siri, shuningdek, shaxsiy xususiyatlar impulsivlik, past o'z-o'zini baholash, stressga bardoshlilik tahlil qilinadi. Biologik moyillik va ijtimoiy bosim omillarining uyg'unlashuvi giyohvandlik xavfini sezilarli darajada oshirishi ko'rsatiladi. Profilaktika va psixologik yordam yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, o'smirlar, yoshlar, muhit omillari, shaxs omillari, profilaktika, psixologiya, xavf omillari, ijtimoiy ta'sir, oila muhiti.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимодействие средовых и личностных факторов в формировании аддиктивного поведения у подростков и молодёжи. Анализируется влияние семьи, группы сверстников, социальной среды и средств массовой информации, а также личностных характеристик — импульсивности, низкой самооценки, стрессоустойчивости. Показано, что сочетание биологической предрасположенности и

социального давления значительно повышает риск наркотизации. Даются рекомендации по профилактике и психологической помощи.

Ключевые слова: наркотизация, подростки, молодёжь, средовые факторы, личностные факторы, профилактика, психология, факторы риска, социальное влияние, семейная среда.

Abstract: This article examines the interaction of environmental and personal factors in the formation of addictive behavior among adolescents and young adults. The influence of family, peer groups, social environment, and mass media is analyzed alongside personality characteristics such as impulsivity, low self-esteem, and stress resilience. It is demonstrated that the combination of biological predisposition and social pressure significantly increases the risk of substance use. Recommendations for prevention and psychological intervention are provided.

Keywords: drug addiction, adolescents, youth, environmental factors, personality factors, prevention, psychology, risk factors, social influence, family environment.

Bugungi kunda giyohvandlik muammosi jahon miqyosida keng tarqalgan ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, giyohvand moddalarni birinchi marta sinab ko'ruvchilarning aksariyati 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan o'smirlar va yoshlardir. Bu yoshdagi insonlar shaxsiyat shakllanishi, identifikatsiya va ijtimoiylashuv jarayonlarida bo'lib, tashqi ta'sirlarga ayniqsa sezgir hisoblanadi.

Psixologiya va ijtimoiologiya fanlari kesishmasida o'rganilayotgan ushbu muammo o'z yechimini topishi uchun murakkab, ko'p qirrali yondashuvni talab etadi. Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik xulqi hech qachon yagona sabab asosida shakllanmaydi — u muhit va shaxs omillarining murakkab o'zaro ta'siri mahsulidir. Shu sababli, ushbu maqolada aynan shunday ko'p o'lchovli yondashuv asosida masala tahlil qilinadi.

Muhit omillari deganda o'smir yoki yoshning kundalik hayotini o'rab turgan barcha tashqi holatlar tushuniladi. Bu omillar qatorida oila, tengdoshlar guruhi, ta'lim muassasasi, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va ommaviy axborot vositalari alohida o'rin tutadi.

Oila muhiti. Oila giyohvandlik xulqining shakllanishida eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ota-ona tomonidan nazorat darajasining pastligi, agressiv yoki sovuq munosabat, oilada alkogol yoki giyohvand moddalar ishlatiladigan muhit, ota-ona o'rtasidagi ziddiyatlar — bularning barchasi o'smirlarda giyohvandlikka moyillikni sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilasida modda iste'mol qiluvchi bor bo'lgan o'smirlar bu yo'lga kirish ehtimoli ikki-uch baravar yuqori (Hawkins et al., 1992).

Tengdoshlar guruhi ta'siri. O'smirlik davrida tengdoshlar ta'siri kuchayib, ota-ona ta'siri ma'lum darajada susayadi. Psixologiyada bu hodisa 'tengdoshlar bosimi' (peer pressure) deb ataladi. Agar o'smir giyohvand moddalarni ishlatadiganlari bilan muloqotda bo'lsa, undagi sinab ko'rish ehtimoli keskin ortadi. Bundan tashqari, guruhga mansub bo'lish istagi va rad etilishdan qo'rquv o'smirlarda ongli qaror qabul qilish imkonini cheklaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Qashshoqlik, ishsizlik, turar joy muammolari va ijtimoiy himoyasizlik ham giyohvandlik xavfini oshiradi. Bunday sharoitda o'smir hissiy og'riqni yengillashtirishning muqobil yo'lini giyohvand moddalarda qidirishi mumkin. Shuningdek, bunday muhitlarda giyohvand moddalar ko'proq mavjud va arzonroq bo'lishi xavf omillarini kuchaytiradi.

Raqamli muhit va ommaviy madaniyat. Zamonaviy sharoitda internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyatning ta'siri kuchayib bormoqda. Modda iste'molini glamorizatsiya qiluvchi kontent, mashhur shaxslarning bu boradagi oshkora munosabatlari, onlayn platformalardagi reklamalar — bularning barchasi o'smirlar ongida giyohvandlik haqida noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga hissa qo'shadi.

Shaxs omillari o'smir yoki yoshning individual psixologik xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Bu omillar biologik-genetik va psixologik omillarga bo'linadi.

Biologik moyillik. Genetik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilasida giyohvandlik tarixi bo'lgan shaxslarda bu muammoga moyillik ancha yuqori. Dopamin tizimining o'ziga xos ishlash tarzi, serotonin darajasi va impulsivlikni tartibga soluvchi neyrotransmitterlar muvozanati —

bularning barchasi biologik zaiflikni belgilaydi. Biroq genetik moyillik taqdirni hal qilmaydi: u faqat xavfni oshiradi, muhitning ta'siriga birga harakat qiladi.

Impulsivlik va o'z-o'zini nazorat qilish. Yüksak darajadagi impulsivlik giyohvandlikning asosiy psixologik xavf omillaridan biri hisoblanadi. Oqibatlari haqida o'ylamasdan qaror qabul qiluvchi, hissiyotlarga tez beriladigan o'smirlar yangi va xavfli tajribalarni sinab ko'rishga ko'proq moyil bo'ladi. Bunday xususiyat ko'pincha diqqat etishmasligi va giperaktivlik buzilishi (DGEB) bilan bog'liq.

O'z-o'zini baholash darajasi. Past o'z-o'zini baholash giyohvandlik xulqining muhim prediktorlaridan biridir. O'zini qadrsiz, keraksiz yoki yetarli emas deb his qiluvchi o'smir hissiy quvonch va tasdiqlash manbalarini tashqi vositalarda -jumladan giyohvand moddalarda - izlaydi. Shu bilan birga, ichki bo'shliq hissini to'ldirish uchun sun'iy hissiyotlarga tayanish uzluksiz vicious cycle - yopiq doirani vujudga keltiradi.

Stressga bardoshlilik va coping strategiyalari. Hayotiy qiyinchiliklar va stressli vaziyatlarni qanday boshqarish odati - coping strategiyasi - giyohvandlik xavfini belgilovchi muhim omildir. Salbiy his-tuyg'ulardan qochishga yo'naltirilgan 'avoidant coping' strategiyalaridan foydalanadigan shaxslar moddalar yordamida stressni 'o'chirish'ga moyil bo'ladi. Aksincha, muammoni hal qilishga qaratilgan aktiv coping strategiyalari protektiv omil sifatida xizmat qiladi.

Psixologik traumalar va ruhiy sog'liq. Bolalik va o'smirlik davrida boshdan kechirgan travmatik hodisalar - zo'ravonlik, e'tiborsizlik, yo'qotish - giyohvandlik xavfini sezilarli oshiradi. Depressiya, tashvish buzilishi va post-travmatik stress buzilishi ko'pincha giyohvandlik bilan komorbid (birgalikda) kechadi. Bu holat 'ikkilamchi tashxis' yoki 'dual diagnosis' deb atalib, davolash va profilaktikada alohida e'tibor talab etadi.

Zamonaviy psixologiya fani muhit va shaxs omillarini bir-biridan ajratib ko'rmaydi, ular birgalikda tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bu bog'liqlikni tushuntiruvchi bir nechta nazariy modellar mavjud.

Biopsijsosial model. Engberg (1990) va Bronfenbrenner ekologik tizimlar nazariyasiga asoslanuvchi biopsixosial model giyohvandlik xulqini biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning uchlik ta'siri sifatida izohlaydi. Bu model bo'yicha, uchta sohaning barchasi bir vaqtda noqulay bo'lgan taqdirda giyohvandlik xavfi eng yuqori bo'ladi. Masalan, biologik moyillikka ega bo'lgan, past o'z-o'zini baholaydigan va giyohvandlar guruhi bilan muloqotdagi o'smir yuqori xavf zonasida joylashadi.

Resurs-talab modeli. Ushbu model nuqtai nazaridan giyohvandlik xulqi shaxsning ichki resurslari (o'z-o'zini nazorat, ijtimoiy ko'nikmalar, kuchli identitet) muhit talablari va bosimidan kam bo'lganda yuzaga keladi. Ya'ni, agar o'smir ichki kuchga ega bo'lsa, tashqi noqulay sharoit uni giyohvandlikka olib kelmasligi mumkin. Aksincha, zaiflashgan shaxs hatto qisman noqulay muhitda ham giyohvandlikka moyil bo'lishi mumkin.

Protektiv omillar tushunchasi. Xavf omillari bilan bir qatorda protektiv (himoyalovchi) omillar ham mavjud. Ular qatoriga: oila bilan kuchli emotsional bog'liqlik, maktab va jamoatchilikka mansublik hissi, qiziqarli mashg'ulotlar, diniy va ma'naviy yo'nalganlik, hayotiy maqsadlar kiradi. Profilaktika dasturlari xavf omillarini kamaytirish bilan birga, protektiv omillarni kuchaytirishga ham yo'naltirilishi lozim.

Yuqorida bayon etilgan omillar tahlili asosida profilaktika va psixologik yordam bo'yicha quyidagi yo'nalishlar tavsiya etiladi:

Birinchidan, oila bilan ishlash. Ota-onalarga o'smirlik psixologiyasi, samarali muloqot usullari va sog'lom oila muhiti yaratish bo'yicha treninglar o'tkazish zarur. Oilaviy psixoterapiya va maslahat xizmatlari kengaytirilishi lozim.

Ikkinchidan, maktab muhitida erta aralashuv dasturlari. Maktabda psixologlar bilan ishlash, kognitiv-xulqiy ko'nikmalar dasturlari (masalan, 'Life Skills Training'), tengdoshlar vositachilik dasturlari singari yondashuvlar giyohvandlik profilaktikasida ilmiy jihatdan samarali deb tan olingan.

Uchinchidan, individual psixologik yordam. Xavf ostidagi o'smirlarga individual psixoterapevtik yordam ko'rsatish, o'z-o'zini baholash va stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kognitiv-xulqiy terapiya va motivatsion suhbat (motivational interviewing) usullari ayniqsa samarali natijalar berishi isbotlangan.

To'rtinchidan, ijtimoiy muhitni isloh qilish. Giyohvand moddalarning mavjudligi va erishish imkoniyatini cheklash, sog'lom dam olish infratuzilmasini kengaytirish, yoshlar uchun ijodiy va sport imkoniyatlarini yaratish strukturaviy darajada xavf omillarini kamaytiradi.

XULOSA

O'smirlar va yoshlarda giyohvandlik xulqining shakllanishi bir omil bilan izohlash mumkin bo'lmagan, murakkab ko'p qirrali jarayondir. Muhit omillari oila, tengdoshlar, ijtimoiy sharoit shaxsning biologik va psixologik xususiyatlari bilan o'zaro ta'sirda giyohvandlik xavfini aniqlaydi yoki kamaytiradi.

Samarali profilaktika va aralashuv dasturlari uchun bu o'zaro ta'sirni to'liq tushunish zarur. Faqat tashiq cheklashlar yoki faqat shaxs bilan ishlash yetarli emas, har ikkala yo'nalish muvofiq ravishda qo'llanilishi lozim. Kelajakdagi tadqiqotlar o'zbek ijtimoiy-madaniy kontekstida ushbu omillarning o'ziga xos namoyon bo'lish shakllarini chuqurroq o'rganishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hawkins, J. D., Catalano, R. F., & Miller, J. Y. (1992). Risk and protective factors for alcohol and other drug problems in adolescence and early adulthood. Psychological Bulletin, 112(1), 64–105.
2. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development. Harvard University Press.
3. Botvin, G. J., & Griffin, K. W. (2007). School-based programmes to prevent alcohol, tobacco and other drug use. International Review of Psychiatry, 19(6), 607–615.
4. Moos, R. H. (2007). Theory-based active ingredients of effective treatments for substance use disorders. Drug and Alcohol Dependence, 88(2–3), 109–121.
5. Karimov, M. R., va Yusupova, N. T. (2020). O'smirlik davrida giyohvandlik profilaktikasining psixologik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.
6. Seligman, M. E. P., & Csikszentmihalyi, M. (2000). Positive psychology: An introduction. American Psychologist, 55(1), 5–14.
7. Winters, K. C., & Arria, A. (2011). Adolescent brain development and drugs. The Prevention Researcher, 18(2), 21–24.

YOSHLARNING VIRTUAL OLAMGA QIZIQISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA GIYOHVANDLIKKA QARSHI INTEGRATIV PROFILAKTIKA MASALALARI

Nurjonova Shoira Hamdamovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
magistranti:

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarning virtual olamga qiziqishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda uning giyohvandlikka qarshi profilaktika jarayonlari bilan bog‘liqligi tahlil qilingan. Virtual makonning yoshlar ongiga ta’siri, internet va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan xavf omillari, shuningdek, giyohvandlikning oldini olishda integrativ yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish va jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, virtual olam, ijtimoiy-psixologik xususiyatlar, internet, ijtimoiy tarmoqlar, giyohvandlik, profilaktika, integrativ yondashuv, jamoat xavfsizligi.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические особенности интереса молодежи к виртуальному миру и их взаимосвязь с профилактикой наркомании. Рассматриваются влияние виртуальной среды на сознание молодежи, факторы риска, встречающиеся в сети Интернет и социальных сетях, а также значение интегративного подхода в предупреждении наркомании. Результаты исследования могут быть использованы для разработки практических рекомендаций по защите молодежи от вредной информации и обеспечению общественной безопасности.

Ключевые слова: молодежь, виртуальный мир, социально-психологические особенности, интернет, социальные сети, наркомания, профилактика, интегративный подход, общественная безопасность.

Abstract: This article examines the socio-psychological characteristics of young people's interest in the virtual world and its relationship with drug abuse prevention. The study highlights the impact of the virtual environment on youth consciousness, risk factors encountered on the Internet and social media, and the importance of an integrative approach in preventing drug addiction. The findings contribute to the development of practical recommendations aimed at protecting young people from harmful information and ensuring public safety.

Keywords: youth, virtual world, socio-psychological characteristics, Internet, social networks, drug addiction, prevention, integrative approach, public safety.

Kirish: Bugungi kunda axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi natijasida virtual olam yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy media platformalari, onlayn o‘yinlar va turli raqamli xizmatlar yoshlarning dunyoqarashi, qiziqishlari hamda ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muhit bir tomondan yoshlarning bilim olish, muloqot qilish va bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan ularning psixologik holati va ijtimoiy xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni ham yuzaga keltirmoqda. Yoshlarning virtual olamga qiziqishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki virtual makonda uzoq vaqt bo‘lish, real ijtimoiy munosabatlarning cheklanishi, internetga qaramlik, turli zararli axborotlarning ta’siri hamda salbiy guruhlar faoliyatiga duch kelish kabi holatlar yoshlarning shaxs sifatida shakllanishiga ta’sir etishi mumkin. Ayniqsa, psixologik jihatdan himoyasiz bo‘lgan ayrim yoshlar turli zararli odatlarga, jumladan, giyohvandlikka moyillik ko‘rsatishi ehtimoli mavjud. Shu nuqtai nazardan, yoshlar orasida giyohvandlikning oldini olish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.[1,3]

Giyohvandlikka qarshi kurashishda faqat tibbiy yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy, pedagogik, psixologik va ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarni o‘zida mujassam etgan integrativ profilaktika tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur.Mazkur tadqiqot yoshlarning virtual olamga qiziqishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, ushbu qiziqishning shaxs rivojlanishiga ta’sirini aniqlash hamda giyohvandlikka qarshi integrativ profilaktika mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda ularning ma’naviy-axloqiy va psixologik barqarorligini ta’minlash hamda giyohvandlikning oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Virtual muhit yoshlarning psixologik rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy jihatdan esa internet orqali bilim olish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati mavjud. Biroq haddan tashqari foydalanish psixologik muammolarni keltirib chiqaradi [2]. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, internetga qaramlik (internet addiction) diqqatning pasayishi, xotira susayishi, emotsional beqarorlik va real hayotdagi ijtimoiy aloqalarning kamayishiga olib keladi. Shuningdek, virtual muhitda uzoq vaqt qolish yolg‘izlik hissi, depressiv holatlar va stress darajasining oshishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Natijada yoshlar real hayotdan ko‘ra virtual muhitni afzal ko‘ra boshlashi ehtimoli ortadi. Bu esa shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Giyohvandlikka qarshi integrativ profilaktika masalalari: Giyohvandlik bugungi kunda global ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Uning kelib chiqishida ijtimoiy, psixologik va biologik omillar muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar orasida giyohvandlikka moyillik ko‘pincha oilaviy muhitdagi muammolar, ijtimoiy nazoratning zaifligi, stress va noto‘g‘ri do‘stlar ta’siri bilan bog‘liq.Virtual olam ham ba’zan bilvosita xavf omiliga aylanishi mumkin. Chunki internet orqali zararli kontent, noqonuniy reklama va noto‘g‘ri axborotlar tarqatilishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli giyohvandlikka qarshi kurashishda integrativ profilaktika yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Oila instituti orqali nazorat va tarbiyani kuchaytirish [4,5].

- ta’lim muassasalarida profilaktik tadbirlar, suhbatlar va treninglar o‘tkazish;
- mahalla va jamoatchilikning faol ishtirokini ta’minlash;
- psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish;
- yoshlarni sport, madaniyat va ijtimoiy faollikka jalb etish.

Integrativ profilaktika yoshlarni nafaqat giyohvandlikdan himoya qiladi, balki ularning sog‘lom psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham xizmat qiladi

XULOSA: Yoshlarning virtual olamga qiziqishi zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy-psixologik hodisalaridan biri hisoblanadi. Virtual muhit yoshlar uchun axborot olish, muloqot qilish va o‘zini namoyon etish imkoniyatlarini kengaytirsa-da, undan me’yoridan ortiq foydalanish psixologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, virtual olamga kuchli qiziqishning shakllanishida muloqot ehtiyoji, tengdoshlar ta’siri, bo‘sh vaqtni to‘ldirish va emotsional ehtiyojlar muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, internetga qaramlik holatlari yoshlarning real hayotdagi ijtimoiy faolligini kamaytirishi, emotsional barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Giyohvandlik muammosi esa jamiyatning eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri bo‘lib, uning oldini olishda integrativ profilaktika yondashuvi samarali hisoblanadi. Oila, ta’lim muassasalari, mahalla va davlat tashkilotlarining hamkorligi yoshlarni zararli odatlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega [5]. Shu sababli, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, psixologik savodxonlikni oshirish va virtual makondan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. hu sababli, yoshlar orasida virtual muhitdan sog‘lom foydalanishni shakllantirish va giyohvandlikning oldini olish bo‘yicha integrativ profilaktika tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tizim oilaviy tarbiya, ta’lim muassasalari faoliyati, psixologik maslahat xizmatlari hamda ijtimoiy targ‘ibot ishlarini o‘z ichiga olishi lozim. Xulosa qilib aytganda, yoshlarni raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanishga yo‘naltirish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. – “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. 2008-176 b
2. Psixologiya asoslari (o‘quv qo‘llanma), Toshkent davlat pedagogika universiteti. 2019-175 b
3. WHO (World Health Organization) – Drug prevention and mental health reports. 2012. 575 p.
4. https://ziyonet.uz
5. https://www.internetaddiction.com
6. :www.unesco.org

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISHDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHGA E'TIBOR

Odamova O'g'iljon Kenjayevna
Urganch Davlat Unversiteti v.b. dotsent,
Allomova Oyshajon G'afurjon qizi,
Urganch Davlat Unversiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda giyohvandlikka qarshi integrativ yondashuvlarning mohiyati, asosiy yo'nalishlari va samaradorligi tahlil qilinadi. Muammo ko'p qirrali yondashuv - tibbiy, huquqiy, ijtimoiy va psixologik usullarni birlashtirishni -talab qilishi asoslab beriladi. Integrativ modelning afzalliklari va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik, jamoat xavfsizligi, integrativ yondashuv, profilaktika, reabilitatsiya, ijtimoiy himoya.

Аннотация: В данной статье анализируются сущность, основные направления и эффективность интегративных подходов в борьбе с наркозависимостью в целях обеспечения общественной безопасности. Обосновывается необходимость многогранного подхода к данной проблеме — сочетания медицинских, правовых, социальных и психологических методов. Раскрываются преимущества интегративной модели и возможности её применения на практике.

Ключевые слова: наркозависимость, общественная безопасность, интегративный подход, профилактика, реабилитация, социальная защита.

Abstract: This article analyzes the essence, key directions, and effectiveness of integrative approaches to combating drug addiction in the context of ensuring public safety. The need for a multifaceted approach to the problem — combining medical, legal, social, and psychological methods — is substantiated. The advantages of the integrative model and the possibilities of its practical application are highlighted.

Keywords: drug addiction, public safety, integrative approach, prevention, rehabilitation, social protection.

Kirish. Giyohvandlik muammosi bugungi kunda butun dunyo hamjamiyatining eng dolzarb ijtimoiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu masalaga alohida e'tibor qaratilmoqda: 2021–2026 yillarga mo'ljallangan giyohvandlikka qarshi kurash bo'yicha milliy dastur qabul qilingan bo'lib, unda profilaktika, davolash va ijtimoiy reintegrasiya masalalariga keng o'rin berilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, giyohvandlikka qarshi kurashda faqat huquqiy cheklovlar yoki faqat tibbiy davolash yetarli bo'lmaydi. Muammoning murakkab tabiati uni kompleks — integrativ — tarzda hal qilishni talab qiladi. Maqolaning maqsadi ana shu integrativ yondashuvlarning mazmunini, tarkibiy qismlarini va amaliy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism. Integrativ yondashuv — bu giyohvandlik muammosiga bir soha (tibbiyot yoki huquqshunoslik) nuqtai nazaridan emas, balki bir vaqtning o'zida bir necha tizimni-tibbiy, psixologik, huquqiy, ta'lim va ijtimoiy-muvofiqlashtirgan holda yondashishdir. Ushbu model uchta asosiy tamoyilga asoslanadi: Ko'p sektorlilik-davlat idoralari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor hamkorligi; Shaxsga yo'naltirilganlik-har bir shaxsning individual ehtiyojlarini hisobga olish; Uzluksizlik-profilaktikadan reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiyagacha bo'lgan to'liq zanjir.

Integrativ yondashuvning asosiy yo'nalishlari

1.Birlamchi profilaktika: Birlamchi profilaktika giyohvandlikka hali duchor bo'lmagan shaxslar, ayniqsa yoshlar o'rtasida amalga oshiriladi. Bu yo'nalishda maktablar, mahalla qo'mitalari va ommaviy axborot vositalari yetakchi rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, erta yosh davrida olib boriladigan ta'limiy chora-tadbirlar giyohvandlikka moyillikni sezilarli darajada kamaytiradi.

2.*Tibbiy-psixologik* yordamni kuchaytirish: Giyohvandlikdan aziyat chekayotgan shaxslarga kompleks tibbiy va psixologik yordam ko'rsatish integrativ modelning markaziy

bo'g'inini tashkil etadi. Detoksifikatsiya, motivatsion intervyu, kognitiv-xulq terapiyasi va farmakologik davolash metodlarining birgalikda qo'llanilishi relaps xavfini kamaytirishda yuqori samara berishi ilmiy jihatdan isbotlangan.

3.Huquqiy va ijtimoiy mexanizmlar: Huquqiy cheklovlar giyohvand moddalar jilovlashda muhim vosita bo'lsa-da, o'z-o'zicha yetarli emas. Shuning uchun huquqiy choralarni ijtimoiy himoya dasturlari — uy-joy bilan ta'minlash, bandlikka ko'maklashish, oilaviy reintegrasiya — bilan uyg'unlashtirish zarur. Jinoyat-huquq tizimida ham profilaktika va davolash komponentlarini birlashtirish jamoat xavfsizligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

4.Mahalla va fuqarolik jamiyatining roli.O'zbek jamiyatida mahalla instituti integrativ yondashuvni amalga oshirishda noyob imkoniyat yaratadi. Mahalla faollari, din peshvolari va jamoat tashkilotlari birgalikda xavf ostidagi shaxslarni erta aniqlashda, ruhiy qo'llab-quvvatlashda va ijtimoiy reintegrasiyada muhim rol o'ynashi mumkin.

Xulosa. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST) va BMTNarkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, integrativ yondashuvni qo'llagan davlatlarda giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatchilikning 20–35 foizga kamayishi kuzatilgan. Bu natijalar ko'p sektorli hamkorlik va uzluksiz xizmat zanjirining amaliy samaradorligini tasdiqlaydi. O'zbekiston sharoitida bu yondashuvni qo'llashda bir qancha chaqiriqlar mavjud: mutaxassislar yetishmasligi, sektorlararo muvofiqlashtirish mexanizmlarining zaif tomonlari va stigmatizatsiya muammosi. Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun siyosiy iroda, moddiy resurslar va xalqaro tajribani o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021–2026 yillarda giyohvandlikka qarshi kurash milliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2021.
2. UNODC. World Drug Report 2024. – Vienna:United Nations Office on Drugs and Crime, 2024.
3. G'oziyev E.G'. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 320 b.
4. WHO. International Standards for the Treatment of Drug Use Disorders. – Geneva: World Health Organization, 2020.
5. Karimova V.M. Psixologik xizmat. – Toshkent: Fan, 2018. – 256 b.

THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF THE INTERNET ON THE PSYCHO-EMOTIONAL CHARACTERISTICS OF INDIVIDUALS

Otamuratov Rustam Uskanovich
Gulistan State University
PhD student

Аннотация. В данной статье научно анализируется психологическое воздействие интернета на психоэмоциональные характеристики человека. В ходе исследования изучалось влияние использования интернета на эмоциональное состояние, поведение, коммуникативные процессы и личностное развитие. Также был выявлен факт, что деструктивная информация в интернете усиливает негативные психологические состояния, такие как агрессия, тревожность, депрессия и виртуальная зависимость. На основе результатов исследования обосновывается необходимость развития медиаграмотности и усиления психопрофилактической работы среди молодежи.

Ключевые слова: интернет, психоэмоциональные характеристики, психология личности, виртуальная среда, агрессия, тревожность, депрессия, интернет-зависимость, медиаграмотность.

Abstract. This article scientifically analyzes the psychological impact of the Internet on the psycho-emotional characteristics of a person. During the study, the impact of Internet use on emotional state, behavior, communicative processes and personal development was studied. It also highlighted the fact that destructive information on the Internet increases negative psychological states such as aggression, anxiety, depression and virtual addiction. Based on the results of the

study, the need to develop media literacy and strengthen psycho-prophylactic work among young people is justified.

Keywords: Internet, psycho-emotional characteristics, personality psychology, virtual environment, aggression, anxiety, depression, Internet addiction, media literacy.

Annotatsiya. Mazkur maqolada internet tarmog‘ining shaxs psixoemotsional xususiyatlariga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida internetdan foydalanishning emotsional holat, xulq-atvor, kommunikativ jarayonlar va shaxs rivojlanishiga ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, internetdagi destruktiv axborotlarning agressivlik, xavotir, depressiya va virtual qaramlik kabi salbiy psixologik holatlarni kuchaytirishi yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida yoshlarda media savodxonlikni rivojlantirish va psixoprofilaktik ishlarni kuchaytirish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: internet, psixoemotsional xususiyat, shaxs psixologiyasi, virtual muhit, agressivlik, xavotir, depressiya, internetga qaramlik, media savodxonlik.

Introduction. In today's era of globalization and the development of information technologies, the Internet has become an integral part of human life. In particular, young people and students are the most active users of the Internet. Although the opportunities for obtaining knowledge, communication and information exchange via the Internet have expanded, its negative impact on the psychology of the individual is also emerging as one of the pressing problems.

Psychological studies have shown that excessive use of the Internet has a negative impact on the psycho-emotional state of a person. In particular, excessive attachment to the virtual environment can cause anxiety, aggression, emotional instability, feelings of loneliness and depressive states in a person. Especially during adolescence and student years, due to the high psychological sensitivity of the individual, the impact of the Internet is more pronounced.

Therefore, the scientific study of the psychological impact of the Internet on the psycho-emotional characteristics of individuals is one of the important areas of modern psychology.

Literature analysis and description. The issue of the impact of the Internet on the psycho-emotional characteristics of the individual has been widely studied by domestic and foreign scientists. Psychologist M.G. Davletshin emphasized the importance of the information environment in the development of the individual, noting that the mental stability of a person depends on the level of perception and processing of external information [1: 187]. According to the scientist, the uncontrolled flow of information creates emotional tension and psychological instability. V.M. Karimova's research studied the impact of the Internet and mass media on the thinking of young people, and showed that aggressive materials in the virtual environment increase aggression and anxiety in the behavior of young people [2: 214]. Also, the negative impact of manipulative information on the independent thinking of young people is scientifically substantiated. E.Goziev emphasized the role of the social environment in the formation of the individual's psyche, noting that destructive information in the virtual environment causes emotional stress and problems with social adaptation [3: 145]. American psychologist Albert Bandura, in his social learning theory, argued that human behavior is formed on the basis of observation and imitation [4: 56]. According to this theory, aggressive content on the Internet can be quickly accepted by young people and reflected in real behavior.

Jean Piaget's theory of cognitive development notes that young people are sensitive to manipulative information on the Internet due to the incomplete formation of critical thinking during adolescence [5: 112]. Sherry Turkle, studying the impact of the Internet and digital technologies on human psychology, also noted that the increase in virtual communication weakens real communication skills [10: 93]. According to the scientist, emotional attachment to the Internet increases a person's sense of social isolation and loneliness. Research methodology. This study used the methods of analysis of scientific literature, observation, questionnaire and psychological comparison. During the research, the level of Internet use, activity in the virtual environment and psycho-emotional state of students and young people were studied.

The duration of Internet use, activity in social networks, emotional state and communicative characteristics of respondents were analyzed in the questionnaires. The results

obtained were summarized statistically and psychologically. It is on social networks that users not only communicate, but also join groups of interest to them and make online purchases [6: 56]. We are witnessing the development or retardation of emotional intelligence in adolescents due to Internet addiction [7: 62]. Emphasizes that young people prone to internet addiction may not be able to control their emotions [8: 105]. Moreover, the emotional intelligence of teenagers with internet addiction turned out to be significantly lower than the emotional intelligence of young people who do not abuse the internet [9: 19]. Research results and discussion. The research results showed that excessive use of the Internet has a significant impact on the psycho-emotional characteristics of the individual. In particular, the following conditions were observed more often in students who were addicted to the Internet for a long time:

- increased aggression;
- increased anxiety and depressive states;
- emotional instability;
- social isolation;
- dependence on the virtual environment;
- weakening of real communicative skills.

Empirical observations revealed that the level of Internet use among young people in urban areas is higher than that of those in rural areas. At the same time, students who spend too much time on social networks also have higher levels of stress and emotional exhaustion.

According to Bandura's social learning theory, young people tend to internalize aggressive behavior by observing it on the Internet [3: 56]. Piaget emphasizes that young people are more likely to believe manipulative information because their critical thinking is not fully developed [4: 112]. Sherry Turkle's research also noted that the increase in virtual communication leads to a weakening of real human relationships [5: 93]. The results of the study also confirmed these ideas. Some respondents reported that they preferred virtual communication over real-life communication.

As a result of the discussions, the following factors were identified as factors that increase the negative psychological impact of the Internet:

- insufficient media literacy;
- weak family control;
- underdevelopment of psychological defense mechanisms;
- emotional attachment to the virtual environment;
- psychological sensitivity of young people.

At the same time, it was noted that the purposeful and moderate use of the Internet serves to gain knowledge, develop thinking, and expand communicative opportunities.

Conclusion. In conclusion, the Internet has a strong psychological impact on the psycho-emotional characteristics of a person. Excessive and uncontrolled use of the Internet can lead to negative situations such as aggression, anxiety, depression, and social isolation.

Especially since adolescents and students are a psychologically sensitive group, they are susceptible to destructive information on the Internet. Therefore, one of the important tasks is to form a media culture among young people, develop critical thinking, develop skills in rational use of the Internet, and strengthen psycho-prophylactic measures.

Reference

1. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2010. – 187 b. [1: 187].
2. G‘oziyev E. Psixologiya asoslari. – T.: O‘qituvchi, 2008. – 145 b. [3: 145].
3. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977. – 56 b. [4: 56].
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 2001. – 112 b. [5: 112].
5. Turkle S. Alone Together. – New York: Basic Books, 2011. – 93 b. [6: 93].
6. Otamuratov, R. U. (2023). Internet ijtimoiy tarmoqlari foydalanuvchilari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari bilan shaxsiy xususiyatlarning aloqasi. *MedUnion*, *2*(1), 177-182.
7. Otamuratov, R. U., & Otamuratova, S. A. (2023). Internetga qaram o‘smirlar hissiy intellektining psixologik xususiyatlari. *BuxDU “Psixologiya*, (2).

THEORETICAL ANALYSIS OF THE STUDY OF YOUTH SUBCULTURES

Otamuratova Sarvinoz Abdurazakovna
Gulistan State University, PhD student
e-mail:sarvinozotamuratova@gmail.ru

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the study of youth subcultures, and the growing popularity of youth subcultures in psychological research, the relevance of this topic is analyzed based on the theoretical approaches of scientists.

Keywords: subculture, structural approach, behavior, stereotypes, values, norms, social selection.

Introduction. Youth studies have always been relevant and will remain so, because the future belongs to young people, and the well-being and culture of society largely depend on the values of the younger generation. Over the past few decades, the world has been undergoing changes, changes in social norms affect all spheres of life. It can be argued that young people are one of the social groups most susceptible to the influence of such changes.

Theoretical developments of foreign and domestic scientists served as a methodological basis for analyzing the problems of the genesis of subcultures. This study uses a structuralist-interactionist approach that recognizes the harmony of the objective and subjective in social life. According to this approach, people, pursuing their own interests, create stable forms of interaction, behavioral patterns, values and norms that subsequently determine their actions and social choices. This approach is based on a structural-functional approach, which considers the emergence and development of youth subcultures to be associated with changes in the social structure of society, and an interactive approach, which allows for direct access to society and the study of practices, values, and stereotypes in an unchanging form. The study of subcultures requires an in-depth study of the speech of people who identify themselves as part of the informal environment. This requires obtaining comprehensive information about individual ways of constructing social reality, which involves an interactive approach.

By the end of the 20th century, young people have become one of the most active and powerful social actors. The development of modern society largely depends on their economic, political and cultural choices. However, many of their real-life practices remain outside the scope of public and research interests. Youth "problems" are often not among the priorities of research foundations and schools. The individual manifestations of youth come to the attention of the state only when they pose a clear threat to social stability.

Subcultural values, as some researchers, including S.I. Levikova, point out, do not disappear without affecting the main culture. They affect both public culture and other subcultures. The emergence and formation of a subculture is a socially determined process that cannot arise without social conditions or disappear without a trace. This situation requires a detailed study of youth subcultures. There is a certain continuity between youth communities, therefore, the roots of certain social phenomena should be sought by paying attention not only to the subculture under study, but also to the communities that directly or indirectly influenced it.

However, the study of the phenomenon of youth subcultures in modern society has not been sufficiently covered in specialized sociological and socio-psychological research. The study of youth in world sociology remains fragmented. To date, world sociologists have not fully studied the functions of youth subcultures. The degree of influence of subcultures on public culture has not been determined. The insufficient study of these issues and their theoretical and practical significance determined the choice of the topic of this dissertation. It is recommended to study the practice of modern youth associations and the factors influencing the emergence and development of youth subcultures. Knowledge of the realities of youth communities and the characteristics of youth activism is crucial for professionals developing youth policy, based on scientific research rather than ideological assumptions.

The term “subculture” was first introduced into scientific circulation in the 1930s by the American sociologist T. Roszak. However, despite its vague definition, almost every sociologist studying this phenomenon has given it its own meaning.

According to M. Brake, subculture can be defined as “norms that are separated from the generally accepted system of values and contribute to the preservation and development of a collective way of life, as well as from the traditional style adopted in a given society.”

N. Smelser considered “subculture to be any system of norms and values that distinguish this group from the larger community”.

According to Phillips, subculture is a system of expectations and goals that are widespread in a certain subgroup of society.

The study of youth associations goes back to the traditions of urban ethnography, which dates back to the 19th century. However, a scientific approach to subculture (with the methodology of participant observation) took shape only in the 1920s, when a group of sociologists and criminologists from Chicago (W.F. White, A. Cohen, G. Becker, and others) began to collect information about it.

It can be concluded that, we can note that the authors used semiotics, the study of signs and symbols, to understand the symbolic meanings of subcultural style. This allowed them to understand the hidden messages and underlying political meanings embedded in clothing, music, and language. The book emphasizes subcultures as resisters, while also highlighting their internal contradictions. Subcultures can simultaneously challenge mainstream norms and, at the same time, address other forms of inequality, such as can reinforce sexism or narrow definitions of masculinity. The study of youth subcultures offers important approaches not only in sociology, but also in psychology.

References

1. Downs, D. & Rock, P. Understanding Deviance: A Handbook on the Sociology of Crime and Delinquency, 3rd ed. (1998)

2. Leblanc, L. Pretty in Punk: Girls' Gender Resistance in a Boys' Subculture (2002)

3. Otamuratov R., Otamuratova S. THE IMPACT OF YOUTH SUBCULTURE ON PERSONAL IDENTITY //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – No. 1. – P. 213-217.

4. Hall. Resistance through Rituals: Youth Subcultures in Postwar Britain (1976).

O‘SMIRLIK DAVRIDAGI DEVIANT XULQLI BOLALARNING AGRESSIYASINI O‘RGANISH

Qalandarova Bonu Shermamat qizi-*Abu Rayxon Beruniy nomidagi UrDU, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi.*
Tel: +998972349393

Annatatsiya: Ushbu maqolada o‘smirlik davridagi deviant xulqli bolalarning agressiv xatti-harakatlari, ularning shakllanish omillari va psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Agressiyaning turlari, manbalari hamda uni kamaytirish yo‘llari tahlil qilinadi. Ilmiy asosda olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida profilaktik choralar ishlab chiqish zarurati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik, deviant xulq, agressiya, agressiv xulq, ijtimoiy muhit, psixologik omil, xuquqbuzarlik, jinoiy harakat, giyohvandlik moddalar, alkogol, mobbing.

Аннотация: В данной статье изучаются агрессивное поведение детей с девиантным поведением в подростковом возрасте, факторы их формирования и психологические особенности. Анализируются виды, источники агрессии и пути ее снижения. Обосновывается необходимость разработки профилактических мер на основе результатов научных исследований.

Ключевые слова: подростковый возраст, девиантное поведение, агрессия, агрессивное поведение, социальная среда, психологический фактор, правонарушение, преступная деятельность, наркотики, алкоголь, моббинг.

Abstract: This article examines the aggressive behavior of children with deviant behavior during adolescence, the factors of their formation, and their psychological characteristics. The

types, sources, and ways of reducing aggression are analyzed. Based on the results of scientific research, the necessity of developing preventive measures is substantiated.

Keywords: adolescence, deviant behavior, aggression, aggressive behavior, social environment, psychological factor, delinquency, criminal activity, drugs, alcohol, mobbing.

Kirish

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etmoqda [1]. 2018-yil 5-sentyabrdagi Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish to‘g‘risidagi qarori" va 2019-yil 7-iyuldagi "Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda xuquqbuzarliklarni oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi" qarorlari bunga yaqqol misoldir. O‘smirlik davri inson hayotining eng murakkab va o‘zgaruvchan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda shaxsning ruhiy-psixologik rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlarga moslashuvi hamda mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi. Aynan shu bosqichda ayrim o‘smirlar ijtimoiy me'yorlarga zid - deviant xatti-harakatlarni namoyon qila boshlaydi, ularning eng ko‘zga ko‘rinarlisi - bu agressivlikdir. Agressiv xulq o‘ziga ham, boshqalarga ham zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan xatti-harakatlar yig'indisi hisoblanadi.

Asosiy qism. Deviant xulq - bu ijtimoiy normalarga zid, jamiyat tomonidan salbiy baholanuvchi xatti-harakatlardir. O‘smirlik davrida bu xatti-harakatlar tajovuzkorlik, maktabdan qochish, jinoiy harakatlar, alkogol ichish, giyohvandlik moddalarni iste'mol qilish kabi shakllarda namoyon bo‘ladi. Agressiya esa - atrofdagilarga nisbatan qasddan zarar yetkazishga qaratilgan emotsional yoki jismoniy harakatdir. U bevosita (ochiq) yoki bilvosita (psixologik, passiv) shakllarda ifodalanadi. O‘smirlikdagi agressiya quyidagi omillar ta'sirida shakllanadi:

1.Oilaviy muhit: oiladagi ziddiyat, mehr yetishmasligi, zo‘ravonlik, nazoratsizlik bilan bog‘liq;

2.Maktab muhiti: o‘qituvchilarning e'tiborsizligi, sinfdoshlar orasidagi mobbing, ko‘p dars qoldirishi;

3.Shaxsiy psixologik xususiyatlar: emotsional beqarorlik, depressiya, o‘ziga past baho berish, delikvent guruhlar ta'siri;

4.Madaniy-axborot muhit: zo‘ravonlik sahnalariga boy ommaviy axborot vositalari, video o‘yinlar, internetdan noto‘g‘ri foydalanish;

O‘smirlik davri "o‘tish davri" bo‘lib aynan bu davrda agressiyaga moyillik nihoyatda kuchayadi. Ayniqsa, deviant xulqli o‘smirlar agressiv xulq natijasida o‘zidagi imtiyozlarni, ustuvorlikni, hukmronlikni, huquqlarni egallash uchun turli majburlash shakllaridan foydalanadi. Tajovuzkorlik shakllari turlicha bo‘ladi: jismoniy shikast yetkazish, ziddiyat, g‘azab, majburlash, salbiy baholash, tahdid va aqliy-psixikaga, hissiy sohaga doimiy yoki uzoq muddatli ta'sir. Agressiyaning yashirin shakllari kontaktlardan, kimgadir zarar etkazish, o‘zingizga zarar etkazish va o‘z joniga qasd qilish uchun harakatsizlikdan voz kechish bilan ifodalanadi. Agressiyaning ichki vakili g‘oyalar, fantaziyalar va ta'sirlar bo‘lishi mumkin. Misol uchun, bir kishi birovga nisbatan zo‘ravonlik g‘oyasini ko‘tarishi mumkin, u jinoyatchi bilan faqat uning fantaziyalarida yoki kuchli ta'sirga duch kelishi mumkin. Agressiv tortishish, tirnash xususiyati, hasad, nafrat, g‘azab kabi turli xil agressiv qabul qiluvchi ta'sirlar orqali o‘zini namoyon qilishi mumkin.

Agressiv ta'sirlarning intensivligi ularning psixologik funktsiyasi bilan bog‘liq. Agressiya avtonomiyani himoya qilish, tahdid yoki azob-uqubat manbasini bartaraf etish, ehtiyojlarni qondirish yo‘lidagi to‘siqlarni olib tashlash, ichki mojaroni hal qilish, o‘z-o‘zini hurmat qilish kabi muhim vazifalarni bajarishi mumkin. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, deviant xulqli o‘smirlarda agressiyaning shakllanishiga biologik omillardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir ko‘rsatadi. A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, agressiv xulq tug‘ma emas, balki kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi deb hisoblaydi [1]. E.Bojarov o‘smirlik davrini shaxs rivojlanishidagi murakkab va ziddiyatli bosqich sifatida tavsiflaydi. Ushbu davrda hissiy beqarorlik, mustaqillikka intilish va o‘zini namoyon qilish ehtiyoji kuchayadi. U agressiyani

ko‘pincha ichki ziddiyatlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarning tashqi ifodasidir deb hisoblaydi. Deviant xulqli o‘smirlarda agressiya yosh davrining psixologik xususiyatlari hamda ijtimoiy muhitdagi muammolar bilan chambarchas bog‘liq [2].

Y.B.Gippenreyter bola va o‘smir bilan samarali muloqotning ahamiyatini ta’kidlaydi. Uning fikricha, Deviant xulqli o‘smirlarda agressiyaning oldini olishda oilaviy va pedagogik muloqotning sifati muhim psixologik omil hisoblanadi.kattalar tomonidan bolaning hissiyotlarini inkor etish yoki doimiy tanqid qilish salbiy xulq shakllanishiga olib keladi. Ota-ona va pedagoglarning noto‘g‘ri muloqoti agressiv reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. O‘smirning hissiy ehtiyojlarini tushunish agressiyani kamaytirishga yordam beradi. Faol tinglash va empatik munosabat agressiv xulq profilaktikasining muhim omili hisoblanadi [3].

Z.M.Karimova o‘smir hayotida ta’lim muhitining rivojlanishidagi rolini keng yoritadi. Maktabdagi salbiy psixologik muhit agressiv xulqning kuchayishiga sabab bo‘lishi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash o‘smirning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashi va tarbiyaviy ishlarning sustligi deviant xulq rivojlanish xavfini oshirishi mumkin degan fikrni ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra o‘smirlarda agressiv xulqning namoyon bo‘lishida maktab muhiti va pedagogik ta'sir muhim omillardan biri hisoblanadi [4].

The reviewed studies collectively demonstrate that prisoner mental health cannot be understood through a single psychological factor. Emotional disorders and destructive behaviors emerge through complex interactions between personal vulnerability, social environment, communication patterns, trauma history, and institutional stress. Several major psychological principles emerge from the analysis.

First, emotional regulation is central to behavioral adaptation. Prisoners who cannot effectively regulate fear, anger, loneliness, or hopelessness are at significantly higher risk of destructive behavior.

Second, social support and interpersonal trust strongly influence mental health outcomes. Isolation and emotional disconnection increase vulnerability to depression, aggression, and suicidal ideation.

Third, vulnerable subgroups such as prisoners with ASD or older inmates require individualized psychological care and targeted interventions.

Fourth, prison environments themselves contribute substantially to emotional suffering. Psychological rehabilitation therefore requires not only individual therapy but also institutional reforms promoting dignity, safety, communication, and emotional support.

Finally, modern correctional psychology increasingly supports multidisciplinary approaches integrating psychiatry, psychotherapy, social support, rehabilitation programs, and environmental improvements.

Conclusion

The present article analyzed contemporary psychological research concerning emotional disorders, suicidal ideation, communication, autism spectrum disorders, aging prisoners, and social vulnerability within correctional environments. The findings demonstrate that prisoners experience elevated levels of psychological vulnerability due to the interaction between prior mental health problems and prison-specific stressors. Depression, anxiety, suicidal ideation, trauma, substance abuse, social isolation, and communication difficulties significantly affect emotional stability and behavioral adaptation. Research further indicates that vulnerable groups such as prisoners with ASD and older inmates require specialized psychological interventions tailored to their emotional and social needs. Communication quality, emotional support, and institutional conditions also play crucial roles in promoting psychological well-being and reducing destructive behavior.

Overall, the evidence highlights the necessity of comprehensive mental health strategies within correctional systems. Effective rehabilitation should combine psychological treatment, emotional support, communication-based interventions, and institutional reforms aimed at improving social adaptation and mental well-being among prisoners.

References

1. Spencer, R., & Russell, Y. I. (2025). *When words fail: Higher cooperation in the absence of communication in the prisoner's dilemma*. Acta Psychologica, 261, 105983.

2. van Buitenen, N., Meijers, J., van den Berg, C. J. W., & Harte, J. M. (2021). *Risk factors of violent offending in mentally ill prisoners with autism spectrum disorders*. Journal of Psychiatric Research, 143, 183–188.
3. Favril, L., Vander Laenen, F., Vandeviver, C., & Audenaert, K. (2017). *Suicidal ideation while incarcerated: Prevalence and correlates in a large sample of male prisoners in Flanders, Belgium*. International Journal of Law and Psychiatry, 55, 19–28.
4. Haesen, S., Merkt, H., Imber, A., Elger, B., & Wangmo, T. (2019). *Substance use and other mental health disorders among older prisoners*. International Journal of Law and Psychiatry, 62, 20–31.
5. Perry, A. E., Moe-Byrne, T., Knowles, S., et al. (2024). *Addressing the physical and mental health needs of older prisoners (the PAMHOP study)*. International Journal of Law and Psychiatry, 95, 102002.

JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA GIYOHVANDLIKKA QARSHI INTEGRATIV YONDASHUVLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI: SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA YUZAGA KELADIGAN MULOQOTDAGI QIYINCHILIKLAR KONTEKSTIDA

Raximova E'tibor Rustamovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
E-mail: Etibor-r@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada jamoat xavfsizligini ta'minlashda giyohvandlikka qarshi kurashning psixologik jihatlari hamda integrativ yondashuvlarning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Xususan, shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarning giyohvandlikka moyillikning shakllanishidagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlikning pastligi, ijtimoiy begonalashuv, emotsional beqarorlik, stressga bardoshlilikning sustligi va shaxslararo nizolarning psixoaktiv moddalarga qaramlik rivojlanishiga ta'siri asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jamoat xavfsizligi, giyohvandlik, integrativ yondashuv, muloqotdagi qiyinchiliklar, shaxslararo munosabatlar, kommunikativ kompetentlik, profilaktika, deviant xulq-atvor, reabilitatsiya, psixologik omillar.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические аспекты борьбы с наркоманией и теоретико-методологические основы интегративных подходов в обеспечении общественной безопасности. В частности, освещена роль психологических трудностей в общении, возникающих в межличностных отношениях, в формировании склонности к наркомании. В исследованиях обосновано влияние низкой коммуникативной компетентности, социальной отчужденности, эмоциональной нестабильности, низкой стрессоустойчивости и межличностных конфликтов на развитие зависимости от психоактивных веществ.

Ключевые слова: общественная безопасность, наркомания, интегративный подход, трудности в общении, межличностные отношения, коммуникативная компетентность, профилактика, девиантное поведение, реабилитация, психологические факторы.

Abstract. This article analyzes the psychological aspects of combating drug addiction and the theoretical-methodological foundations of integrative approaches in ensuring public safety. In particular, the role of psychological difficulties in communication arising in interpersonal relationships in the formation of drug addiction is highlighted. The study substantiates the influence of low communicative competence, social alienation, emotional instability, low stress tolerance, and interpersonal conflicts on the development of substance addiction.

Keywords: public safety, drug addiction, integrative approach, communication difficulties, interpersonal relationships, communicative competence, prevention, deviant behavior, rehabilitation, psychological factors.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida giyohvandlik inson salomatligi, ijtimoiy barqarorlik va jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Giyohvand moddalar iste'molining ortishi jinoyatchilik, zo‘ravonlik, huquqbuzarlik va ijtimoiy dezadaptatsiyaning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bois jamoat xavfsizligini ta'minlash masalasida giyohvandlikka qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik faqat biologik yoki tibbiy muammo emas, balki murakkab psixologik va ijtimoiy determinantlarga ega bo‘lgan hodisadir. Ayniqsa, shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muloqotdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy moslashuv buzilishlari va emotsional diskomfort shaxsning psixoaktiv moddalarga murojaat qilish ehtimolini oshiradi.

Muloqot inson hayotining asosiy psixologik mexanizmlaridan biri bo‘lib, uning buzilishi shaxsning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar va kommunikativ to‘siqlar ko‘pincha deviant xulq-atvor, jumladan giyohvandlik xavfining ortishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, giyohvandlikka qarshi kurashishda integrativ yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Shaxs taraqqiyoti va muloqotning psixologik jihatlari psixologiya fanining fundamental yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu masala ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, V.G. Ananev, A.A. Bodalev, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn va A.N. Leontevlarning ilmiy ishlari shaxs rivojlanishida muloqotning tutgan o‘rnini nazariy va empirik jihatdan asoslab bergan. Mazkur olimlarning qarashlariga ko‘ra, muloqot insonning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglashi va ijtimoiy tajribani egallashining muhim mexanizmi hisoblanadi. Ayniqsa, Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida muloqot shaxs psixik taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilinadi.

A.N. Leontev faoliyat nazariyasida muloqotni faoliyatning tarkibiy qismi sifatida izohlaydi va uning shaxs motivatsiyasi hamda ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligini ta'kidlaydi. S.L. Rubinshteyn esa shaxs va muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta'sir jarayonida kommunikativ faoliyatning ahamiyatiga alohida e'tibor qaratgan. A.A. Bodalev tadqiqotlarida shaxslararo idrok, empatiya va o‘zaro tushunish muloqot samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatilgan.

Muloqotdagi psixologik qiyinchiliklar masalasi V.N. Kunitsina tomonidan chuqur o‘rganilgan bo‘lib, olima ularni subyektiv va obyektiv qiyinchiliklarga ajratadi. Subyektiv qiyinchiliklarga ijtimoiy ishonchsizlik, tortinchoqlik, xavotirlanish va autistik tendensiyalar kirsa, obyektiv qiyinchiliklar kommunikativ kompetentlikning pastligi, ijtimoiy me'yorlarni yetarli egallamaslik va muloqot ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi bilan tavsiflanadi. Mazkur qiyinchiliklar shaxsning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko‘rsatib, uning deviant xulq-atvorga moyilligini kuchaytirishi mumkin.

I.S. Kon o‘smirlik va yoshlik davridagi kommunikativ qiyinchiliklarni tadqiq etib, tortinchoqlik, xavotirlanish va ijtimoiy qo‘rquvning shaxslararo munosabatlar samaradorligini pasaytirishini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, muloqotdagi qiyinchiliklar ijtimoiy izolyatsiya va begonalashuv hissini kuchaytirib, shaxsning deviant guruhlarga qo‘shilish ehtimolini oshiradi.

I.A. Zimnyaya muloqotdagi qiyinchiliklarni shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, vaziyatni noto‘g‘ri baholashi va kommunikativ tajribaning yetishmasligi bilan izohlaydi. Uning ta'kidlashicha, muloqotdagi to‘siqlar ko‘pincha emotsional tanglik, stress va nizoli vaziyatlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Zamonaviy psixologik va narkologik tadqiqotlar giyohvandlikning rivojlanishida psixologik stress, ijtimoiy izolyatsiya, oilaviy disfunksiya va kommunikativ qiyinchiliklarning muhim rol o‘ynashini ko‘rsatmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko‘ra, giyohvandlikning oldini olishda shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muhim profilaktik omil hisoblanadi.

Muhokama. Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muloqotdagi psixologik qiyinchiliklar shaxsning emotsional barqarorligi, ijtimoiy faolligi va xulq-atvor strategiyalariga

sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Muloqot jarayonidagi to‘siqlar aksariyat hollarda ijtimoiy begonalashuv, yolg‘izlik hissi, past o‘zini baholash, xavotirlanish va psixologik diskomfort bilan namoyon bo‘ladi. Bunday holatlar shaxsning ijtimoiy moslashuv jarayonini murakkablashtirib, destruktiv xulq-atvor shakllarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Psixologik nuqtai nazardan, kommunikativ qiyinchiliklar ko‘pincha shaxsning emotsional regulyatsiya mexanizmlarining yetarli shakllanmaganligi bilan bog‘liq. Stressli vaziyatlarda konstruktiv muloqot olib bora olmaslik, nizolarni samarali hal qila olmaslik va salbiy hissiyotlarni boshqarishdagi qiyinchiliklar shaxsning psixoaktiv moddalardan foydalanishga moyilligini oshiradi. Psixoaktiv moddalar ayrim shaxslar tomonidan vaqtinchalik psixologik yengillik vositasi sifatida qabul qilinsa-da, uzoq muddatda qaramlik, ijtimoiy dezadaptatsiya va ruhiy buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Shaxslararo munosabatlar sifatining pasayishi, oiladagi nizolar, tengdoshlar bilan salbiy munosabatlar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi giyohvandlik xavfini oshiruvchi omillar sirasiga kiradi. Ayniqsa, o‘smirlik va yoshlik davrida tengdoshlar ta’siri, identifikatsiya ehtiyoji va ijtimoiy maqomga erishish istagi shaxsning xavfli xulq-atvorga moyilligini kuchaytiradi.

Shu munosabat bilan giyohvandlikka qarshi kurashishda integrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- **Psixologik yo‘nalish** – emotsional intellekt, stressga bardoshlilik va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish;
- **Pedagogik yo‘nalish** – ta’lim muassasalarida preventiv dasturlar va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish;
- **Huquqiy yo‘nalish** – huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish;
- **Ijtimoiy yo‘nalish** – oilaviy va mahalla institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- **Tibbiy yo‘nalish** – erta diagnostika, psixoterapiya va reabilitatsiya xizmatlarini takomillashtirish.

Mazkur yo‘nalishlarning o‘zaro integratsiyasi nafaqat giyohvandlikning oldini olish, balki jamoat xavfsizligini ta’minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Natijalar. Tahlillar natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muloqotdagi psixologik qiyinchiliklar giyohvandlik xavfini oshiruvchi muhim psixologik determinantlardan biri hisoblanadi. Kommunikativ kompetentlikning rivojlanganligi esa shaxsni deviant xulq-atvor va psixoaktiv moddalarga qaramlikdan himoya qiluvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Integrativ profilaktik dasturlarni qo‘llash natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga erishish mumkin:

- yoshlarning ijtimoiy moslashuv darajasi oshadi;
- kommunikativ kompetentlik va emotsional intellekt rivojlanadi;
- stressga bardoshlilik kuchayadi;
- deviant va addiktiv xulq-atvor kamayadi;
- oilaviy va ijtimoiy munosabatlar yaxshilanadi;
- jamoat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Shunday qilib, muloqotdagi psixologik qiyinchiliklarni erta aniqlash, diagnostika qilish va korreksiyalash giyohvandlik profilaktikasining muhim yo‘nalishi bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlashning samarali psixologik mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan muloqotdagi psixologik qiyinchiliklar giyohvandlikning shakllanishi va rivojlanishida muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Ijtimoiy begonalashuv, kommunikativ kompetentlikning pastligi va emotsional beqarorlik shaxsni psixoaktiv moddalarga murojaat qilishga undashi mumkin.

Shu bois jamoat xavfsizligini ta’minlashda giyohvandlikka qarshi kurashning integrativ modeli psixologik, pedagogik, huquqiy va tibbiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligini talab etadi. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini

kuchaytirish hamda psixologik profilaktika dasturlarini keng joriy etish giyohvandlikning oldini olish va jamiyat xavfsizligini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-son Farmoni. – 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. – T., 2022.
3. Akramova F.A. Ijtimoiy psixologiya. – T.: TDPU, 2007.
4. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 1996.
5. Бодалев А.А. Психология общения. – М., 1996.
6. G‘oziyev E.G. Muomala psixologiyasi. – T.: Sharq, 2001.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – T.: Fan va texnologiya, 2012.
8. Куницына В.Н. Нарушения и трудности межличностного общения. – СПб.: Речь, 2005.
9. Кон И.С. Психология ранней юности. – М.: Просвещение, 1989.
10. Мясищев В.Н. *Психология отношений.* – М.: Институт практической психологии, 1995.

MAHALLA, OILA VA TA’LIM MUASSASALARI HAMKORLIGI ORQALI GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASHISH TAJRIBALARI

Sa’dullayeva Ro’za Davlatyor qizi

1-kurs boshlang’ich ta’lim yo’nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlikning yoshlar orasida tarqalishiga sabab bo‘luvchi omillar, uning ijtimoiy va ma’naviy oqibatlari hamda mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi asosida giyohvandlikka qarshi kurashishning samarali usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, profilaktik tadbirlarning mazmuni, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish mexanizmlari va amaliy tajribalar yoritiladi. Tadqiqot natijalari giyohvandlikning oldini olishda ijtimoiy institutlarning o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, profilaktika, mahalla, oila, ta’lim muassasalari, yoshlar tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi, hamkorlik, ijtimoiy nazorat.

Аннотация: В данной статье анализируются факторы, способствующие распространению наркомании среди молодежи, ее социальные и духовные последствия, а также эффективные методы борьбы с наркоманией на основе сотрудничества махалли, семьи и образовательных учреждений. Также будут освещены содержание профилактических мероприятий, механизмы и практический опыт ориентации молодежи на здоровый образ жизни. Результаты исследования показывают, что взаимодействие социальных институтов имеет важное значение в профилактике наркомании.

Ключевые слова: наркомания, профилактика, махалля, семья, образовательные учреждения, воспитание молодежи, здоровый образ жизни, сотрудничество, социальный контроль.

Abstract: This article analyzes the factors causing the spread of drug addiction among youth, its social and spiritual consequences, and effective methods for combating drug addiction based on the cooperation of the mahalla, family, and educational institutions. The content of preventive measures, mechanisms for guiding youth toward a healthy lifestyle, and practical experience will also be highlighted. Research findings indicate that the interaction of social institutions is of vital importance in the prevention of drug addiction.

Keywords: drug addiction, prevention, mahalla, family, educational institutions, youth upbringing, healthy lifestyle, cooperation, social control.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida giyohvandlik insoniyat oldida turgan eng jiddiy ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlar orasida giyohvand moddalar iste’molining ortishi nafaqat ularning salomatligiga, balki jamiyat taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir

ko‘rsatmoqda. Giyohvandlik natijasida jinoyatchilik, oilaviy nizolar, ruhiy kasalliklar va boshqa salbiy holatlar yuzaga keladi. Shu sababli mazkur illatga qarshi kurashish davlat va jamiyatning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilishda mahalla, oila va ta’lim muassasalari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borishi zarur. Ushbu uch institutning hamjihatligi profilaktik ishlarning samaradorligini oshiradi hamda yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlaydi. Giyohvand moddalar inson organizmiga zarar yetkazib, markaziy asab tizimining faoliyatini izdan chiqaradi. Natijada shaxsning fikrlash qobiliyati pasayadi, xotira susayadi va ruhiy muvozanat buziladi. Bundan tashqari, giyohvandlik turli yuqumli kasalliklar, jumladan OIV infeksiyasi va virusli gepatitlarning tarqalishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Yoshlar orasida giyohvandlikning yuzaga kelishiga do‘stlar ta’siri, oiladagi muammolar, nazoratning sustligi, bo‘sh vaqtning mazmunsiz o‘tishi va psixologik bosim kabi omillar sabab bo‘ladi. Shu bois mazkur muammoning oldini olishda faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar emas, balki tarbiyaviy institutlar ham faol ishtirok etishi lozim. Giyohvandlik – inson organizmi va ruhiyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi narkotik moddalarni iste'mol qilish natijasida yuzaga keladigan qaramlik holatidir. Bu nafaqat bir insonning, balki uning oilasi, jamiyat va davlatning ham muammosiga aylanadi. Bugungi kunda giyohvandlik dunyoning ko‘plab mamlakatlarida eng dolzarb ijtimoiy va tibbiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili: Giyohvandlik muammosi ko‘plab olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ilmiy adabiyotlarda giyohvandlik nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, psixologik va huquqiy muammo sifatida ham talqin etiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko‘ra, giyohvandlik insonning jismoniy va ruhiy holatiga kuchli salbiy ta'sir ko‘rsatadigan surunkali kasalliklardan biri hisoblanadi. Tashkilot mutaxassislari giyohvandlikning oldini olishda profilaktika, erta tashxis va reabilitatsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar. Rus olimlari orasida giyohvandlik masalalarini chuqur o‘rgangan tadqiqotchilardan biri – A. G. Sofronov hisoblanadi. U o‘z tadqiqotlarida narkotik moddalarning inson asab tizimiga ta'siri hamda qaramlikning shakllanish bosqichlarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, giyohvandlikning rivojlanishida ijtimoiy muhit va psixologik omillar muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonlik olimlar ham ushbu muammoga alohida e'tibor qaratganlar. Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda yoshlar orasida giyohvandlikning tarqalish sabablari, uning salbiy oqibatlari hamda profilaktika choralari o‘rganilgan. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, oiladagi sog‘lom muhit, ta'lim muassasalarida ma'rifiy ishlarni kuchaytirish va yoshlarni sportga jalb qilish giyohvandlikning oldini olishda samarali omillar hisoblanadi. Psixolog olimlarning ilmiy ishlarida giyohvandlikka moyillikning asosiy sabablari sifatida stress, depressiya, yolg‘izlik hissi va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar ko‘rsatib o‘tiladi. Shu sababli zamonaviy tadqiqotlarda giyohvandlikka qarshi kurashishda nafaqat tibbiy davolash, balki psixologik yordam va ijtimoiy reabilitatsiya dasturlariga ham katta e'tibor berilmoqda. Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik murakkab va ko‘p qirrali muammo bo‘lib, uni bartaraf etish uchun tibbiyot, psixologiya, pedagogika va huquq sohalarining o‘zaro hamkorligi zarur. Shuningdek, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va profilaktik tadbirlarni kuchaytirish giyohvandlikka qarshi kurashning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mahallaning giyohvandlikka qarshi kurashishdagi o‘rni. Mahalla jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. U aholining turmush tarzini o‘rganish, yoshlar muammolarini aniqlash va profilaktik tadbirlarni tashkil etishda katta imkoniyatlarga ega. Mahalla faollari tomonidan muntazam ravishda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, davra suhbatlari va targ‘ibot ishlari olib borilishi yoshlarning giyohvandlikka bo‘lgan qiziqishini kamaytiradi. Shuningdek, mahallalarda sport musobaqalari, madaniy tadbirlar va yoshlar forumlarini tashkil etish orqali ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish mumkin. Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va yoshlar yetakchilarining hamkorlikdagi faoliyati xavf guruhiga kiruvchi yoshlarni aniqlash hamda ular bilan individual ishlash imkonini beradi. Bu esa giyohvandlikning oldini olishda muhim omil hisoblanadi. Oila shaxs kamolotining birlamchi muhitidir. Farzandning dunyoqarashi, qadriyatlari va xulq-atvori avvalo oilada shakllanadi. Shu sababli ota-onalarning farzand tarbiyasiga mas’uliyat bilan yondashishi giyohvandlik

profilaktikasining eng muhim shartlaridan biridir. Ota-onalar farzandlarining qiziqishlari, do‘stlari va bo‘sh vaqtini nazorat qilib borishlari lozim. Oilada sog‘lom psixologik muhit yaratish, farzand bilan samimiy muloqot qilish va unga e’tibor qaratish yoshlarning turli salbiy oqimlar ta’siriga tushib qolishining oldini oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy nazoratning sustligi va ota-onalarning farzand tarbiyasiga yetarli e’tibor bermasligi giyohvandlik xavfini oshiruvchi asosiy omillardan biridir. Shu sababli ota-onalar uchun maxsus seminar va treninglarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Ta’lim muassasalari yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va zararli odatlardan himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Maktab, akademik litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida giyohvandlikning zararli oqibatlari haqida muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. Pedagoglar va psixologlar tomonidan o‘quvchilarning xulq-atvori kuzatilib, xavf guruhiga mansub yoshlar bilan individual ishlash yo‘lga qo‘yilishi kerak. Shuningdek, sport to‘garaklari, fan klublari va ijodiy mashg‘ulotlar yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etuvchi dasturlarni keng joriy etish, mutaxassislar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazish va profilaktik aksiyalar tashkil etish giyohvandlikka qarshi kurashning samarali shakllaridan biridir. Mahalla, oila va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilganda profilaktik tadbirlarning natijadorligi sezilarli darajada oshadi.

Xulosa. Giyohvandlik jamiyat taraqqiyoti va yosh avlod kelajagiga tahdid soluvchi jiddiy muammodir. Mazkur illatning oldini olishda mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla ijtimoiy nazoratni ta’minlasa, oila sog‘lom tarbiya muhitini yaratadi, ta’lim muassasalari esa ma’rifiy va profilaktik faoliyatni amalga oshiradi. Ushbu institutlarning o‘zaro hamkorligi yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilish, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish va barkamol avlodni tarbiyalashning eng samarali vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. World Health Organization. World Drug Report va giyohvandlikka oid tavsiyalar.
3. United Nations Office on Drugs and Crime. World Drug Report.
4. Sofronov A.G. Narkologiya asoslari. Moskva, 2020.

O‘SMIR YOSHIDAGI BOLALARDA GIYOHVANDLIKNING KELIB CHIKISH SABABLARI

M.B.Saidmuratova *Al -Xorazmiy nomidagi*
Urganch davlat universiteti
“Pedagigika psixologiya” kafedrasi
(PhD).dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada: O‘smirlik davri, inson rivojlanishi, inqiroz, ziddiyat bosqichlari, bolada jismoniy va fiziologik o‘zgarishlar, O‘smir yoshidagi bolalarda giyohvandlik, O‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar, Ichki iztiroblar va stress, Psixologik sabablar (Ichki omillar), Qiziquvchanlik va yangilikka intilish.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, Oiladagi nosog‘lom muhit, Qiziquvchanlik va yangilikka intilish, Ichki iztiroblar va stress, O‘zini namoyon qilish va "kattalardek" ko‘rinish istagi.

Аннотация. В данной статье подростковый возраст, развитие человека, кризис, стадии конфликта, физические и физиологические изменения у ребенка, Наркотическая зависимость у подростков, Психологические особенности подросткового возраста, Внутренний стресс и дистресс, Психологические причины (внутренние факторы), Любопытство и стремление к новизне.

Ключевые слова: Подростковый возраст, Нездоровая семейная среда, Любопытство и стремление к новизне, Внутренний стресс и дистресс, Самовыражение и стремление казаться «взрослым».

Annotation. In this article adolescence, human development, crisis, conflict stages, physical and physiological changes in a child, Drug addiction in adolescents, Psychological characteristics characteristic of adolescence, Internal distress and stress, Psychological causes (Internal factors), Curiosity and desire for novelty.

Keywords: Adolescence, Unhealthy family environment, Curiosity and desire for novelty, Internal distress and stress, Self-expression and the desire to appear "adult".

O‘smirlik davri — inson rivojlanishining eng inqirozli va ziddiyatli bosqichlaridan biridir. Bu davrda bolada nafaqat jismoniy va fiziologik o‘zgarishlar (gormonal portlash), balki jiddiy psixologik qayta qurilish ham sodir bo‘ladi.

O‘smir yoshidagi bolalarda giyohvandlik (va boshqa turdagi qaramliklar) yuzaga kelishining sabablari murakkab tizimni tashkil etib, ularni bir nechta asosiy guruhlarga ajratish mumkin.

1. Psixologik sabablar (Ichki omillar). O‘smirlik davriga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlar ko‘pincha ularni zararli odatlarga yetaklaydi:

Qiziquvchanlik va yangilikka intilish: O‘smirlar tabiatan tajriba o‘tkazishga, taqiqlangan narsalarni sinab ko‘rishga moyil bo‘lishadi. "Bir marta ko‘rsam nima qipti, qaram bo‘lib qolmayman-ku" degan noto‘g‘ri ishonch birinchi qadamga sabab bo‘ladi.

Ichki iztiroblar va stress: Maktabdagi muammolar, imtixonlar bosimi, birinchi muhabbatdagi muvaffaqiyatsizlik yoki kelajak oldidagi qo‘rquv o‘smirga og‘irlik qiladi. Ular giyohvand moddalarni real hayotdagi muammolardan qochish va vaqtinchalik "tiklanish" vositasi (koping-mexanizm) sifatida ko‘rishlari mumkin.

O‘zini namoyon qilish va "kattalardek" ko‘rinish istagi: Bola tezroq bolalik davridan chiqib, mustaqilligini isbotlagisi keladi. Uning nazarida taqiqlangan moddalarni iste’mol qilish "jasurlik" va "kattalik" belgisidek tuyuladi.

2. Ijtimoiy va Mikromuhit omillari (Tashqi muhit). Tashqi muhit o‘smir shaxsining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi:

Tengdoshlar ta’siri va guruhga moslashish (Konformizm): O‘smir uchun ota-onaning gapidan ko‘ra, u mansub bo‘lgan o‘smirlar guruhining (ko‘chadagi yoki maktabdagi do‘stlarining) fikri muhimroq bo‘lib qoladi. Agar o‘sha guruhda zararli moddalarni iste’mol qilish "obro‘li" hisoblansa, o‘smir guruhdan ajralib qolmaslik va "oq karga" bo‘lmaslik uchun ularga qo‘shiladi.

Oiladagi nosog‘lom muhit: Ota-onalar o‘rtasidagi doimiy janjallar, ajrashishlar, bolaga nisbatan sovuq munosabat (hissiy yetishmovchilik) yoki aksincha, haddan tashqari nazorat (giperproteksiya) bolani uydan bezdiradi. Oilada mehr va tushunish topmagan o‘smir tasallini tashqaridan qidiradi.

Nazoratsizlik va bo‘sh vaqtning tizimli tashkil etilmagani: Bolaning o‘qishdan tashqari vaqtida foydali mashg‘ulotlar (sport, to‘garaklar, kitobxonlik) bilan band bo‘lmasligi, uning ko‘chadagi nazoratsiz guruhlarga qo‘shilib qolishiga zamin yaratadi.

3. Fiziologik va Irsiy omillar. Irsiy moyillik: Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, agar oilada (ota-ona yoki yaqin ajdodlarda) alkogolizm yoki giyohvandlik kuzatilgan bo‘lsa, farzandda bu moddalarga nisbatan biologik moyillik va qaramlikning tezroq shakllanishi xavfi yuqori bo‘ladi.

Psixoemotsional beqarorlik: Markaziy asab tizimining o‘ziga xos xususiyatlari, impulsivlik (o‘zini tuta bilmaslik), yuqori qo‘zg‘aluvchanlik va emotsional labillik (kayfiyatning tez o‘zgarishi) ham moyillikni oshiradi.

Pedagogik va sotsial-psixologik profilaktika

O‘smirlarni bu yo‘ldan asrash uchun ota-onalar va pedagoglar quyidagi uchta jihatga e’tibor qaratishlari zarur:

Yo‘nalish	Profilaktika chorasi
Ishonchli muloqot	Bolani eshita bilish, unga buyruq berish emas, balki do‘stona maslahat berish, muammolarini birgalikda hal qilish.
Mafkuraviy immunitet	Giyohvandlikning asl oqibatlarini (jaholat, sog‘liqning yo‘qolishi, jinoyatchilik) to‘g‘ri va ilmiy asosda tushuntirish.
Ijtimoiy faollik	Bolaning qiziqishlarini qo‘llab-kuvvatlash, uni sport yoki ijodiy to‘garaklarga yo‘naltirish orqali doimiy bandligini ta’minlash.

O‘smirlik davri — inson rivojlanishining eng murakkab, "bo‘ronli" va fiziologik inqirozlarga boy bosqichidir. Bu yoshda giyohvandlikka ruju qo‘yish (qaramlikning shakllanishi) faqat bitta sabab emas, balki bir nechta omillarning o‘zaro to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladi.

Pedagogik va psixologik nuqtai nazardan bu sabablarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. **Psixofiziologik omillar.** O‘smir organizmidagi keskin o‘zgarishlar uning ruhiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qiladi:

Gormonal portlash: Jinsiy balog‘at davridagi gormonal o‘zgarishlar hissiy beqarorlik, tajovuzkorlik yoki tushkunlikni keltirib chiqaradi. O‘smir bu "hissiy og‘irlik"dan qutilish uchun moddalardan tasalli izlaydi.

Miya rivojlanishining xususiyati: O‘smir miyasida hissiyotlarga javob beruvchi tizim (limbik tizim) kuchli rivojlangan, ammo qaror qabul qilish va nazorat qilish markazi (prefrontal qobiq) hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Bu esa impulsivlikka va oqibatini o‘ylamay tavakkal qilishga sabab bo‘ladi.

2. Ijtimoiy-psixologik sabablar. Bu guruhga o‘smirning atrof-muhit bilan munosabatlari kiradi:

Qiziquvchanlik va tajriba: "Bir marta sinab ko‘rish" istagi eng keng tarqalgan sababdir. O‘smirlar yangi hissiyotlarni boshdan kechirishni xohlashadi.

Tengdoshlar bosimi (Konformizm): O‘smir uchun o‘z tengdoshlari guruhida tan olinish juda muhim. Agar guruhda giyohvand modda iste’mol qilish "jasurlik" yoki "obro‘" hisoblansa, bola chetda qolmaslik uchun ularga qo‘shiladi.

O‘zini tasdiqlash istagi: Kattalardek ko‘rinish, mustaqilligini namoyish etish yoki taqiqlarni buzish orqali o‘z "Men"ini ko‘rsatishga intilish.

3. Oilaviy va Pedagogik omillar. Oiladagi muhit o‘smir uchun asosiy himoya qalqoni yoki aksincha, xavf manbai bo‘lishi mumkin, lekin u bilan dildan suhbatlashmasa, bola o‘zini keraksiz his qiladi.

Giperproteksiya yoki Gipoproteksiya: Haddan tashqari qattiq nazorat (bola isyon qilishiga sabab bo‘ladi) yoki mutlaqo nazoratsiz qoldirish (bola "ko‘cha" ta’siriga tushib qoladi).

Oiladagi nosog‘lom muhit**:** Ota-onaning ichkilikka yoki giyohvandlikka moyilligi, doimiy janjallar bolaning ruhiy jarohat olishiga va bundan qochish yo‘lini izlashiga olib keladi.

Profilaktikaning asosiy yo‘nalishlari

O‘smirni giyohvandlikdan asrash uchun pedagog va ota-onalar quyidagilarga e’tibor qaratishlari lozim:

Yo‘nalish	Maqsadi
Mafkuraviy immunitet	Bolada giyohvandlikka nisbatan nafrat va salbiy munosabatni shakllantirish.
Bandlikni ta’minlash	Bolani qiziqishiga qarab sport, san’at yoki ilmga yo‘naltirish.
Tanqidiy fikrlash	Bolaning "Yo‘q" deya olish ko‘nikmasini rivojlantirish.
Ishonchli munosabat	Bola har qanday muammosi bilan birinchi bo‘lib ota-onasiga kela olishini ta’minlash.

Muhim pedagogik xulosa: O‘smirlik davridagi bolaga nisbatan qo‘llaniladigan qattiqqo‘l taqiqlar ko‘pincha teskari natija beradi ("taqiqlangan meva shirin"). Eng samarali yo‘l — bolada **mustaqil va tanqidiy fikrlashni** shakllantirishdir. Shunda u har qanday vaziyatda ham zararli takliflarga o‘zi ongli ravishda "YO‘Q" deya oladi.

O‘smirda giyohvandlikning oldini olishda eng katta kuch — bu uning hayotga bo‘lgan qiziqishi va aniq maqsadi borligidir. Maqsadi bor bola vaqtini va sog‘lig‘ini behuda narsalarga sarflamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-139-son. 2008 yil 7 yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son. 2016 yil 14 sentabr.

3. Abdurasulov R. O‘quvchilar deviant xulq-atvorining psixologik xususiyatlari va korreksiyasi. – Toshkent: “Fan”, 2012. – 148 b.
4. G‘oziev E.E. Pedagogik psixologiya (OTMlar uchun darslik). – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2012. – 208 b.
5. Zmanovskaya E.V. Deviantologiya: (Psixologiya otklonyayuщegosya povedeniya). – Moskva: “Akademiya”, 2004. – 288 c. *(O‘smirlardagi zararli odatlarning psixologik mexanizmlari tahlili)*.
6. Kattabekov A. O‘smirlar orasida giyohvandlikning oldini olishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009. – 86 b
7. Lichko A.Ye. Tipologiya aksentuatsiy xaraktera i psixopatiy u podrostkov. – Moskva: “Aprel-Press”, 2016. – 304 c. *(O‘smirlik davridagi xarakter o‘zgarishlari va destruktiv xulq-atvor shakllanishi).*
8. Sodiqova Sh. O‘smirlar psixologiyasi va ulardagi xulq-atvor omillari. – Toshkent: “Fan”, 2019. – 124 b.
9. Shoumarov G‘.B. va boshq. Deviant xulq-atvor psixologiyasi (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: “Akademiya”, 2015. – 216 b.
10. Elkonin D.B. Psixologiya razvitiya (izbrannыe trudы). – Moskva:

PSYCHOLOGICAL FACTORS IN DEVELOPING MEDIA LITERACY AMONG TOUR GUIDES UNDER CONDITIONS OF INFORMATION ATTACKS

Tajibayev Shohruh Maqsudovich
Bukhara State University
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

Abstract. This article examines the role of information attacks in contemporary society, the mechanisms through which they influence individual consciousness, and the psychological factors contributing to the development of media literacy among tour guides working in the tourism sector. Particular attention is paid to the theoretical and practical aspects of fostering guides' communicative competence, critical thinking skills, information immunity, and psychological resilience. Based on the research findings, a set of scientific and practical recommendations aimed at enhancing media literacy among tour guides has been developed.

Keywords: information attacks, media literacy, tour guide, communicative competence, information immunity, critical thinking, psychological resilience, tourism psychology.

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot xurujlarining zamonaviy jamiyatdagi roli, ularning individual ongga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari hamda turizm sohasida faoliyat yurituvchi gidlarning mediasavodxonligini rivojlantirishga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Gidlarning kommunikativ kompetentligi, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari, axborot immuniteti va psixologik barqarorligini shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari asosida gidlarning mediasavodxonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: axborot xurujlari, mediasavodxonlik, gid, kommunikativ kompetentlik, axborot immuniteti, tanqidiy fikrlash, psixologik barqarorlik, turizm psixologiyasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль информационных атак в современном обществе, механизмы их воздействия на индивидуальное сознание, а также психологические факторы, способствующие развитию медиаграмотности у гидов, работающих в сфере туризма. Особое внимание уделяется теоретическим и практическим аспектам формирования коммуникативной компетентности, навыков критического мышления, информационного иммунитета и психологической устойчивости гидов. На основе результатов исследования разработан ряд научно-практических рекомендаций, направленных на повышение уровня медиаграмотности у гидов.

Ключевые слова: информационные атаки, медиаграмотность, гид, коммуникативная компетентность, информационный иммунитет, критическое мышление, психологическая устойчивость, психология туризма.

Enter. The twenty-first century, often characterized as the age of information technologies, has profoundly transformed all spheres of social life. The rapid development of Internet networks, social media platforms, and digital communication technologies has accelerated information exchange and significantly influenced individuals' worldviews and social interactions. However, alongside the dramatic increase in information flows, challenges such as information attacks, disinformation (the deliberate dissemination of false information), and manipulative influence (psychological strategies aimed at persuading individuals to adopt specific attitudes or decisions) have become increasingly prevalent. An information attack can be defined as a deliberate process aimed at influencing an individual's psychological state, values, and social perceptions in order to weaken independent thinking and critical judgment. This issue is particularly relevant for professionals who work extensively with information, including tour guides. As key communicators, tour guides are responsible for conveying historical, cultural, and social knowledge to tourists and often serve as intermediaries between local communities and visitors. Consequently, they may become both targets and transmitters of information-related influences. Under these circumstances, the development of media literacy among tour guides has become an essential professional and psychological requirement.

Media literacy refers to an individual's ability to access, interpret, critically analyze, evaluate, and effectively utilize information. Therefore, the development of media literacy among tour guides should be regarded not only as an essential professional competency but also as an important mechanism for ensuring information security. In the context of contemporary tourism, media-literate guides are better equipped to identify unreliable sources, resist manipulative information influences, and provide tourists with accurate and trustworthy information.

The relevance of this study is determined by the growing intensity of information attacks and the consequent need to scientifically investigate the psychological mechanisms underlying the development of media literacy among tour guides. Understanding these mechanisms is crucial for enhancing guides' professional effectiveness, strengthening their resistance to information-related threats, and promoting psychologically informed approaches to information processing and communication in the tourism sector.

Main part. The rapid development of globalization and digital technologies has transformed the information environment into an integral component of modern human life. The growing volume of information disseminated through various digital communication channels contributes significantly to social progress and the expansion of knowledge. At the same time, however, it has intensified information attacks that may exert negative influences on both individual and collective consciousness. Under such circumstances, the development of the ability to critically perceive, analyze, and evaluate information has become one of the most pressing challenges facing contemporary society. Within the tourism industry, the authenticity and reliability of the information provided by tour guides play a crucial role in shaping tourists' perceptions of a country, its culture, history, and social values. As primary mediators of information and intercultural communication, tour guides bear a significant responsibility for ensuring the accuracy and credibility of the information they convey. The dissemination of inaccurate, distorted, or manipulated information may not only undermine tourists' trust but also negatively affect the image and reputation of the destination. Therefore, the preparation of media-literate tour guides who are capable of resisting information attacks, critically evaluating information sources, and making objective professional judgments has become one of the key challenges of the contemporary era. Developing these competencies is essential for enhancing the quality of tourism services, strengthening information security, and fostering a positive and trustworthy representation of society in an increasingly complex digital information environment.

The purpose of this article is to analyze the psychological factors underlying the development of media literacy among tour guides under conditions of information attacks and to

substantiate scientific and practical approaches for its enhancement. Information attacks represent one of the most significant challenges of the contemporary information society. In the scientific literature, this phenomenon is generally interpreted as a form of targeted informational influence aimed at affecting the consciousness, attitudes, perceptions, and behavior of an individual, a social group, or society as a whole. Such influence is often implemented through the dissemination of misleading, distorted, manipulative, or emotionally charged information designed to shape public opinion, alter value orientations, and influence decision-making processes. From a psychological perspective, information attacks exploit various cognitive and emotional mechanisms, including persuasion, suggestion, stereotyping, emotional contagion, and cognitive biases. As a result, they can weaken critical thinking, reduce the ability to objectively evaluate information, and increase individuals' susceptibility to manipulation. Consequently, understanding the psychological nature of information attacks is essential for developing effective strategies that enhance media literacy and strengthen resistance to destructive informational influences, particularly among professionals whose work is directly related to the transmission and interpretation of information, such as tour guides[1]. Information attacks are often carried out through disinformation, manipulation, fake news, and psychological influence. Such influence can alter a person's perception of reality and encourage the adoption of one-sided or incorrect decisions. From this perspective, information attacks are regarded as a factor that threatens psychological security. Harold D. Lasswell emphasized in his theory of mass communication that the primary function of informational influence is to change people's attitudes and behavior[2]. According to him, the subject transmitting information exerts psychological influence on the audience's consciousness in order to achieve specific goals. Walter Lippmann, in turn, emphasized that individuals perceive external reality not directly, but on the basis of images and perceptions formed through information media[3]. This indicates the necessity of developing a critical attitude toward information sources. The main characteristics of information attacks include purposefulness, psychological influence, a hidden manipulative nature, mass dissemination, and rapid spread. These characteristics make information attacks one of the significant psychological and social problems of contemporary society. In psychology, informational influence is carried out through an individual's cognitive processes, emotions, and behavior. The process of information perception is associated with such mental processes as attention, perception, memory, and thinking. According to the activity theory of Aleksei N. Leontiev, individuals perceive influences coming from the external environment on the basis of their needs and motives[4]. Therefore, the same information may have different effects on different individuals. The main mechanisms of psychological influence in information include persuasion, suggestion, imitation, emotional influence, and manipulation. Through these mechanisms, disseminated information has the potential to change people's opinions and interpersonal relations within society. In particular, information disseminated through social media is rapidly accepted by individuals because of its strong emotional impact.

Informational influence is also of great importance in the tourism sector. In the process of providing information to tourists, tour guides should pay particular attention to the authenticity and scientific validity of the information they communicate. Otherwise, inaccurate or distorted information may negatively affect the image of the country.

Therefore, the concept of media literacy has been widely studied in recent years within the fields of psychology, pedagogy, and communication. According to UNESCO experts, media literacy is described as a system of knowledge and skills related to searching, analyzing, evaluating, and creating information. From a psychological perspective, media literacy ensures an individual's ability to make independent decisions within the information environment and maintain resilience against external influences. A media-literate person is capable of analyzing

[1] Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2021. – Б. 214–218.
[2] Lasswell H. Propaganda Technique in the World War. – New York: Knopf, 2018. – P. 35–41.
[3] Lippmann W. Public Opinion. – New York: Free Press, 2007. – P. 16–29
[4] Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2005. – Б. 87–95

information sources, deeply understanding their purposes and functions, and distinguishing false information from reliable information. Researchers identify several components of media literacy. These include: the cognitive component, the communicative component, the emotional component, the reflective component, and the evaluative component. The development of these components forms information immunity in individuals and protects them from the influence of information attacks.

Information immunity refers to an individual's level of resistance to harmful, false, or manipulative information. It is closely associated with the abilities of critical thinking, independent analysis, and source evaluation. Psychological studies indicate that individuals with a high level of information immunity are less susceptible to external influences and tend to employ a rational approach in the decision-making process. . A high level of information immunity among tour guides enables them to provide tourists with reliable and accurate information. This, in turn, is of great importance for enhancing a country's tourist attractiveness and promoting its national cultural heritage accurately.

Today, the majority of tourists obtain information before traveling through the Internet, social networks, and various media platforms. Therefore, tour guides are also becoming professionals who actively participate in the digital information environment. They should possess the skills necessary to select, verify, and process information obtained from various sources.

A media-literate tour guide critically analyzes information related to historical events, cultural heritage sites, and national values, and provides tourists with objective and accurate information. This plays an important role in shaping the international image of the country.

In the scientific literature, media competence is considered the practical manifestation of media literacy. It includes the following components:

- information searching skills;
- the ability to analyze sources;
- the skill of evaluating the reliability and authenticity of information;
- effective use of digital technologies;
- compliance with information security principles.

For tour guides, these skills are regarded as important indicators of professional effectiveness, since their activities are continuously associated with information exchange.

Today, digital technologies have become an integral part of tour guides' professional activities. Virtual excursions, online platforms, electronic guide services, and social networks are creating new opportunities in the tourism sector. However, the digital environment also contains false information, distorted interpretations of historical facts, and various forms of manipulative content. This situation requires tour guides to possess a high level of media literacy and information immunity.

In addition, critical thinking is considered one of the important factors in the professional activities of tour guides. A critically thinking guide does not accept any information in a ready-made form but examines its source, purpose, and authenticity. This helps prevent the dissemination of false information. John Dewey defined critical thinking as an active intellectual process directed toward problem-solving. This approach is also of great importance in the professional activities of tour guides.

Information attacks are often carried out by influencing an individual's emotional state. Therefore, psychological resilience is considered an important component of media literacy. Psychological resilience refers to an individual's ability to maintain self-control in stressful situations, resist external influences, and make independent decisions. The development of this quality in tour guides contributes to the formation of a stable attitude toward various informational influences.

Information immunity is formed through the integration of critical thinking, psychological resilience, and media literacy. Tour guides with a high level of information immunity:

- quickly identify manipulative influences;
- distinguish false information from reliable information;

- use trustworthy sources;
- provide tourists with objective information.

One of the effective methods for developing media literacy among tour guides is psychological training. Through training programs, critical thinking, communication culture, and information analysis skills are developed. For example, the case study method is based on the analysis of real-life situations. By analyzing various informational situations, tour guides develop decision-making skills. Another important aspect is the development of fact-checking skills (the verification of evidence to determine whether information is true or false). Fact-checking is considered one of the key directions of modern media education. It makes it possible to verify the authenticity of information and identify reliable sources. Fact-checking skills help tour guides verify information related to historical data, statistical indicators, and cultural heritage sites.

In addition, during media analysis sessions, participants analyze various media products, identify manipulative techniques used within them, and learn critical evaluation skills. It is advisable to develop a special training program entitled “Media Literacy and Information Security” for tour guides. This program should include the following modules: fundamentals of media literacy, information security, fact-checking, critical thinking, communicative competence, the use of digital technologies, and others.

Conclusion. In an information society, information attacks significantly influence human consciousness, making media literacy essential for tour guides. The study shows that information attacks are a form of psychological influence, while media literacy, supported by critical thinking, psychological resilience, communicative competence, and information immunity, enables guides to resist manipulation and perform their professional duties effectively. Psychological training and case-study technologies demonstrate high effectiveness in improving media literacy. Therefore, it is necessary to introduce specialized media literacy modules into the system of tour guide training. The development of fact-checking skills contributes to improving the quality of professional activity by enabling guides to verify the accuracy and reliability of information. Furthermore, enhancing media literacy among tour guides serves to strengthen the country's tourism image and supports the effective promotion of its cultural and historical heritage.

References

1. Jenkins, H. (2006). Convergence Culture: Where Old and New Media Collide. New York University Press.
2. Potter, W. J. (2013). Media Literacy. Sage Publications.
3. Fedorov, A. V. (2007). Media Education and Media Literacy Development in Russia. Moscow: ICOS UNESCO.
4. Soldatova, G. U., & Zotova, E. Y. (2011). Psychological Safety in the Digital Information Environment. Moscow State University Press.
5. Asmolov, A. G. (2009). Psychology of Personality in the Information Society. Moscow: Smysl Publishing.
6. Andreeva, G. M. Social Psychology. Moscow: Aspect Press, 2021, pp. 214–218.

ЎСМИРЛИК ДАВРИДАГИ АФФЕКТИВ –ИРОДАВИЙ ЖАБҲА БУЗИЛИШЛАРИ

Туляганова Гульчехра Кучкаровна

ЎзМУ “Психология” кафедраси доценти

Аннотация: Ўсмирлик давридаги аффектив-иродавий бузилишлар тадқиқот учун муҳим мавзу ҳисобланади, чунки улар ўсмирларнинг руҳий-ҳиссий ривожланиши ва ижтимоий мослашувига сезиларли таъсир кўрсатиши мумкин. Ушбу мақолада аффектив-иродавий бузилишларнинг асосий турлари, уларнинг сабаблари, намоён бўлиши ва ўсмирлар хулқ-атворига таъсири кўриб чиқилади. Ушбу бузилишларни ташхислаш ва тузатиш усулларига, шунингдек, ўсмирларни қўллаб-қувватлаш жараёнида оила ва таълим муассасаларининг ролига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Тадқиқот ўсмирларнинг ҳаёт сифатини яхшилаш ва келажакда жиддийроқ руҳий касалликлар ривожланиш хавфини

камайтириш имконини берувчи самарали аралашув ва профилактика стратегияларини аниқлашга қаратилган.

Калит сўзлар: аффектив-иродавий бузилишлар, ўсмирлик даври, психоэмотсионал ривожланиш, ижтимоий мослашув, диагностика, коррекция, профилактика, оила, таълим муассасалари.

Аннотация: Аффективно-волевые нарушения в подростковом периоде представляют собой важную тему для исследования, так как они могут существенно влиять на психоэмоциональное развитие и социальную адаптацию подростков. В данной статье рассматриваются основные виды аффективно-волевых нарушений, их причины, проявления и влияние на поведение подростков. Особое внимание уделяется методам диагностики и коррекции данных нарушений, а также роли семьи и образовательных учреждений в процессе поддержки подростков. Исследование направлено на выявление эффективных стратегий вмешательства и профилактики, что позволит улучшить качество жизни подростков и снизить риск развития более серьезных психических расстройств в будущем.

Ключевые слова: аффективно-волевые нарушения, подростковый период, психоэмоциональное развитие, социальная адаптация, диагностика, коррекция, профилактика, семья, образовательные учреждения.

Abstract: Affective-volitional disorders in adolescence represent an important topic for research, as they can significantly influence the psycho-emotional development and social adaptation of adolescents. This article examines the main types of affective-volitional disorders, their causes, manifestations, and their impact on adolescent behavior. Special attention is paid to methods for diagnosing and correcting these disorders, as well as the role of the family and educational institutions in the process of supporting adolescents. The study aims to identify effective intervention and prevention strategies that will improve the quality of life for adolescents and reduce the risk of developing more serious mental disorders in the future.

Keywords: affective-volitional disorders, adolescent period, psycho-emotional development, social adaptation, diagnosis, correction, prevention, family, educational institutions.

Ўсмир шахснинг ҳар томонлама етук шаклланиши кўпинча унинг қизиқишлари, эҳтиёжлар тизими, меҳнат установкаларига билан боғлиқ. Ўсмирлик давридаги мактабдан безиш (дезадаптация)га сабаб бўлувчи аффектив руҳий ҳаяжон, кучли эҳтирос, жўшқин ва нисбатан қисқа муддатли эмоционал кечинмалар тариқасида рўй берадиган психик холат жабҳаларини ўрганиш лозим. Айниқса, ушбу ҳодисанинг структураси, уни келиб чиқиш сабаблари ва шароитларини ўрганиш ўсмирлар билан профилактик ҳамда коррекцион ишларнинг самарадорлигини белгилайди. Тадқиқотчилар изланишларининг кўрсатишича, ўсмирлар хулқ-атворидаги ўзгаришлар этиологияси улардаги асаб тизимидаги (характер ва даражасига кўра) нотўкислик, жинсий етилишдаги асинхрон (бир-бирига боғлиқ жараёнлар ривожланишининг ўзаро номутаносиблиги) ҳолат, церебрал-эндокрин тизимининг дисгармония-биологик шартланган ўсмирлик даври кризислари учун асос ҳозирлайди.

Тўғри, психологлар, педагоглар, социологлар, криминалистлар ўсмир хулқ-атворининг ўзгаришларида турли ижтимоий омиллар ўрни борлигини тасдиқловчи тадқиқотлар олиб борганлар. Лекин ўсмирлик даврида аффектив бузилишларнинг биологик асослари: а) хулқ-атворнинг бузилиши ва унинг типлари; б) уларни ифодаланиш жараёнлари; в) шу бузилишларда ижтимоий ҳамда биологик омиллар ўзаро боғлиқлигининг ўзига хос жиҳатлари нисбатан кам ўрганилган. Зеро, аффектив-иродавий жабҳа декомпен-сациясида биологик ва жинсий етилиш дисгармониясининг ўрни беқиёс.

Ўз вақтида Л.С.Виготский (1983) тарбияси «қийинлик» муаммосини тадқиқ қилишда етилиш жараёнининг физиологик ҳолатига алоҳида диққат қаратиш, мазкур муаммо тадқиқида психолог, педагог, врач, физиолог, социолог ва юристларнинг ўзаро ҳамкорликдаги фаолиятлари қуйидаги вазифаларни бажариши мумкинлигини таъкидлаган.

1. Ўсмирнинг мактабга мослаша олмаслигига ҳалақит берувчи асосий хулқ-атвор бузилишларини клиник-психологик тавсифини яратиш;

2. Хулқ-атвор бузилишларининг патологик ва нопатологик шаклларининг диффенцациясини амалга ошириш;

3. Хулқ-атвор бузилишларининг биологик омиллар билан боғлиқ (мия нотўкислиги, дисгармония) лигини аниқлаш.

4. Микромуҳит омилларининг (тарбия шароитлари ва муҳит) алоқадорлигини ўрганиш [1].

Ўсмирлик даври хусусиятларини Д.Б. Эльконин (1960, 1974), Л.И.Божович (1968), А.В. Мудрик (1971), В.А. Сухомилинкоп (1978, 1980), Е.А. Шумилина (1979), И.А. Невский (11 а,б, 1982), Л.С. Виготский (1983, 1984) ва хулқ-атвор реакциялари билан шуғулланган олимлар Michean L. (1964), В.В.Ковалев (1969, 1979), А.Е. Личко (1983) мазкур даврга хос умумий сифатлар - психологик хусусиятлар, хулқ-атвор моделлари, яъни ўсмир хулқ-атвори, ижтимоий муҳит, айниқса, яқинларининг ўзаро таъсирига нисбатан хулқ-атвор реакцияси ҳам муҳимлигини таъкидлайдилар. Ўсмирликнинг ўзига хос хулқ-атвор реакцияларига қуйидагилар киради [2,3,4].

1. Эмансипация реакцияси. Ўсмирнинг катталар қарамоғидан, назоратидан ва ҳомийлигидан озод бўлишга интилишда намоён бўлади.

Реакция катталар томонидан белгиланган тартиб, қоида, қонун ва умуман жорий қилинган “стандарт” ва “қадрият”га қарши йўналтирилади. “Озод бўлиш” эҳтиёжи мустақил ҳаётга интилиш билан боғлиқ бўлиб, бу реакция ўғил болаларда қиз болаларга нисбатан кучлироқ рўёбга чиқади. Ушбу реакция ўсмирликнинг кичик ва ўрта босқичларида социо-психологик омиллар таъсирида кенгроқ тарқалади. Психопатия шароитларида эмансипация реакцияси ашаддий кўринишга эга бўлиб, ўсмирнинг уйидан қочиб кетишида акс этади.

2. Тенгқурлари билан гуруҳлашиш реакция.

Ўсмирларга ўз тенгқурлари билан гуруҳларга бирлашиш ва жипслашиш каби жараённинг инстинктлик даражаси хосдир. Одатда икки турдаги ўсмирлар гуруҳини ажратиб кўрсатиш мумкин.

Биринчиси, бир жинсга асосланиб, унда доимий лидер мавжуддир ва гуруҳни барча аъзоларининг вазифалари, уларнинг гуруҳдаги ўрни қатъий белгилаб қўйилган бўлади. Бундай турдаги гуруҳда “лидернинг адъютанти”, “антилидер”, “иккиюзламачи” каби роллар мавжуд бўлиб, улардан биринчиси одатда унча интеллектуал қобилиятга эга бўлмаган, лекин жисмоний кучли ўсмир бажаради. Иккинчиси, лидернинг ўрнини эгаллашга ҳаракат қиладиган, учинчисини эса у томонга ҳам, бу томонга ҳам ўтиб юрадиган ўсмир амалга оширади. Бундай гуруҳнинг “ўз ҳудуди” мавжуд бўлиб, унга “бегоналар” яқинлаштирилмайди. Гуруҳнинг таркиби барқарор равишда бўлади ва янги аъзоларни фақатгина муайян “синовлар” асосида қабул қилишади.

Иккинчи турдаги гуруҳ эса ролларни қатъий тақсим этилмагани ва унда доимий лидернинг йўқлиги билан изоҳланади. Лидернинг функцияларини одатда гуруҳнинг турли аъзолари амалга оширилажак вазифанинг мақсадига мувофиқ бажаришлари мумкин. Гуруҳ аъзолари икки жинс вакилларидан ташкил топади ва унинг таркиби барқарор эмас, яъни бири кетади, иккинчиси эса келиб қўшилади.

3. Қизиқиш - хобби реакцияси.

Ўсмирлик даври учун қизиқиш - хобби ўзига хос хусусиятни мужассамлаштиради. Худди бола учун ўйин зарур хусусиятига эга бўлганидек, ўсмирнинг шахс сифатида шаклланиши учун қизиқиш муҳим аҳамият касб этади. Бахтга қарши, замонавий психологик адабиётларда ушбу муаммо чуқур тадқиқ этилмаган. Қизиқиш психологик ҳодисаларнинг алоҳида категориясини ташкил этиб, у бир томондан майл, бошқа томондан иштиёқ ва ҳаваснинг ўртасида жойлашади. Қизиқишларни бирор тизимга жойлаштириш жуда мураккабдир.

Ю.А. Скорицкий (1978. 42-51б.) фикрича, бирмунча кичик ёшда шаклланган хулқ-атвор

реакциялари ўсмирлик даврида ҳам сақланиб қолади. Уларга:

1. Интеллектуал-эстетик қизиқишлар предметга (мусиқа, тасвирий санъат, радиотехника ва адабиёт ва ҳ.к.) нисбатан чуқур қизиқиш билан ифодаланади. Шунингдек, кашфиёт, лойиҳалашлар ҳам шуларга тааллуқлидир. Атрофдагилар учун бундай қизиқишлар аҳамиятсиз, ҳатто "ғалати" туюлиши мумкин. Лекин ўсмир учун уларнинг аҳамияти беқиёсдир.

2. Жисмоний қизиқишларга ўз кучи, чидамлилиги, чаққонлиги ва моҳирлигини оширишга бўлган ҳаракатлар киради. Бунга, шунингдек, турли жисмоний қизиқишлар, автомобиль ёки мотоциклни бошқаришга оид қизиқишлар тааллуқлидир.

3. Лидерликка қизиқиш бошқаларга раҳбарлик қилишга интилиш учун хизмат қиладиган ҳодиса ва ҳолатларни излашда намоён бўлади. Бундай қизиқиш кучли бўлган ўсмирлар турли гуруҳларда манфаатларга эришиш учун тўғри йўналтирилган шароитларда ижтимоий фойдали фаолият кўрсатишлари мумкин.

4. Йиғишга қизиқиш турли хилдаги коллекцияларни тўплашда намоён бўлади. Ҳар бир коллекция муайян моддий аҳамиятга эга бўлишини ҳис қилиш туфайли, ушбу қизиқишнинг асосини моддий фаровонликка эришишга йўналтирилган ҳаракат ташкил этади.

5. Эгоцентрик қизиқишлар. Атрофдагиларнинг диққат марказида бўлишга туртки ҳисобланади. Бу ерда, энг муҳими бадиий ҳаваскорлик ёки спорт мусобақаларида қатнашиш ёки охирги модадаги кийим воситасида ўзини намоён қилишдир.

6. Жўшқин қизиқиш. Доимо жўшқинликнинг ўзига хослигига асосланади ва қарта ўйини, қимор ва гаровга интилишда намоён бўлади. Бундай ютуқ албатта жозибадор бўлса ҳам, лекин қалтис таваккал қилиш ҳис-туйғуси муайян роҳат бахш этади.

7. Информацион коммуникатив қизиқиш янги енгил ахборотларга интилишда мавжуд бўлади. Ушбу хобби тасодифан учраб қолган суҳбатдош билан ўтадиган кўп соатлик, қуруқ гапга асосланган муомала жараёнида шунингдек, саргузашт детектив фильмларни кўриш орқали ҳам вужудга келиши мумкин.

4. «Салбий имитация» (тақлид) реакцияси. Бу мустақиллик учун курашишнинг бир кўриниши сифатида эмансипация реакцияси шаклланишининг давоми. Оила аъзоларининг номақбул хатти-ҳаракатларга нисбатан қарама-қарши муносабат тарзидаги хулқий ифодаланиш;

5. Жинсий майл шаклланишининг шартланганлик (сабабий) реакцияси – ононизм, эрта жинсий турмуш, жинсий муаммоларга барвақт қизиқишнинг уйғониши. Кичик ўсмирлик ёшида хулқ-атвор реакцияларига лаёқат сақланади. Масалан:

1. Инкор қилиш реакцияси –бу ўқиш, оддийгина уй юмушлари билан тўқнашувдаги қочиш бўлиб, унинг сабаби оиладан узоқ-лашиш, мактабни алмаштиришда ўз ифодасини топиши. Бундай реакцияни вужудга келиш асоси – психик ноетуклик, асабийлашиш ва ўзини тўхтата олмаслик;

2.Қаршилик, эътироз реакцияси. Қўйиладиган талабларга ўз хулқ-атворининг қарши қўйилиши бўлиб, булар: намойишкорона мағрурлик, сайр қилиш, қочиш, ўғирлик каби ҳаракатларда ифодаланади;

3.Тақлид реакцияси. Ўсмир ўз яқинларининг, катталарининг юриш-туриши, гапириши, ўзини тутишига тақлид қиладилар. Айниқса ўз идеалларига. Улар театр, кино, фильм қаҳрамонларининг ижрочилари (актёрлар) бўлиши мумкин. Тақлид асосан аксижтимоий муҳитга тушиб қолган, шахсий ноетук ўсмир томонидан амалга оширилади.

4.Компенсация реакцияси. Ўсмирликнинг бирон соҳадаги уқувсизлигини (камчилигини) бошқа соҳадаги муваффақият билан хаспўшлаши, масалан, нимжон, жуссаси кичик ўсмирнинг «ўзи»ни бирон- бир предметда ёки фаолиятнинг бирон турида муваффақиятга эришиши;

5.Гиперкомпенсация реакцияси. Бу ўсмирнинг ўз имкониятларидан ортиқча қилинадиган хатти-ҳаракатларидир. Ушбу реакцияни турли терминлар билан ифодаланишига кўра фарқлашади. Француз психиатри А.Рочо (1952) орттирма компенсация реакцияси деб номлайди. Бундай ўсмирлар ўзларининг «бўш» соҳаларида

муваффақиятга эришиш учун фаол ҳаракат қиладилар. Масалан: нутқида нуқсони (дудуқ) бўлган ўсмир барча имкониятларини ишга солиб бадиий ўқиш билан турли чиқишларда қатнашади ва бунинг уддасидан чиқади. Ўта таъсирчан ўғил болалар бокс, самбо, каратэ, эркин кураш каби машаққатли спорт турлари билан, қизлар эса жамоат ишларида фаоллик (жонбозлик) кўрсатишга интиладилар [5].

В.В. Ковалев (1979) – бу реакцияни (утрирование) «бўрттириш реакцияси» термини билан ифодалайди ва унга қуйидагича таъриф беради. Агар бўшанг, заиф (хилий), ўсмир зўр ҳикоя айтиб берса ва ўртоқлари олқишига сазовор бўлса – бу компенсация реакцияси ҳисобланади, агар у сўзлаб беришда ҳаддан ортиқ хаёлотга берилса, у ҳолда – гиперкомпенцация раекциясидир. Лекин барча хулқ-атвор реакциялари ёшга хос меъёрий ҳамда патологик кўринишга эга бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Выготский Л.С. Психология развития человека. — М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. — 1136 с.
2. Баранов, А. И. (2015). Психология подростка: особенности эмоционального и волевого развития. Москва: Психология. С. 45-78.
3. Григорьева, Н. В. (2018). Аффективные расстройства у подростков: диагностика и коррекция. Санкт-Петербург: Наука. С. 102-130.
4. Кузнецов, В. А., & Семёнова, Т. И. (2017). Психологическая помощь подросткам с аффективными нарушениями. Екатеринбург: Урал. С. 88-112.
5. Справочник по психологии и психиатрии детского и подросткового возраста / Под ред. Циркина С. Ю. -4 СПб.: Издательство «Питер», 1999. — 752 с.

IJTIMOIY TARMOQLARDAGI “OSON DAROMAD” VA UNING AYANCHLI YAKUNI

Ukibaeva Sanimxan Toymagambetovna *Toshkent gumanitar fanlar universiteti Amaliy va gumanitar fanlar fakulteti “Pedagogika va tillar” kafedrasi assistant o‘qituvchisi,tel:+998-99-236-43-17*

sanimxanukiboyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram va b.) orqali yoshlarni "oson va tezkor daromad" va’da qiluvchi reklamalar yordamida sintetik narkotik moddalar savdosiga (kuryerlik va "zakladchik"likka) jalb etishning yashirin mexanizmlari, kiber-jinoyatchilar tomonidan qo‘llaniladigan psixologik manipulyatsiya usullari va ushbu illatning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari tahlil qilingan. Maqolada raqamli makondagi tahdidlarning oldini olish, yoshlarning media-savodxonligi va huquqiy ongini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Giyohvandlik, umr zavoli, ijtimoiy tarmoqlar, oson daromad, yashirin marketing, kiberjinoyat, sintetik narkotiklar, "zakladchik", kuryerlik, profilaktika, huquqiy javobgarlik.

Аннотация:В данной статье анализируются скрытые механизмы вовлечения молодежи в незаконный оборот синтетических наркотиков (курьерство и "закладничество") через социальные сети (Telegram, Instagram и др.) под видом рекламы "легкого и быстрого заработка". Рассматриваются методы психологического манипулирования, используемые киберпреступниками, а также социально-правовые последствия данного явления. В статье выдвинуты практические рекомендации по предотвращению угроз в цифровом пространстве, повышению медиаграмотности и правосознания молодежи.

Ключевые слова:Наркомания, социальные сети, легкий заработок, скрытый маркетинг, киберпреступность, синтетические наркотики, "закладчик", курьерство, профилактика, юридическая ответственность.

Abstract: This article analyzes the hidden mechanisms of involving youth in the illicit trafficking of synthetic drugs (courier services and "stash-dropping") through social networks (Telegram, Instagram, etc.) under the guise of "easy and fast income" advertisements. It examines the psychological manipulation methods used by cybercriminals and explores the social and legal consequences of this phenomenon. The article proposes practical recommendations for preventing threats in the digital space, enhancing media literacy, and improving the legal awareness of youth.

Keywords: Drug addiction, social networks, easy income, hidden marketing, cybercrime, synthetic drugs, stash-dropper, courier, prevention, legal liability.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan bugungi davrda, virtual olam nafaqat cheksiz imkoniyatlar, balki jiddiy xavf-xatarlar maydoniga ham aylanmoqda. So‘nggi yillarda Telegram, Instagram va TikTok kabi ommabop platformalarda yoshlar ongini zaharlayotgan, ularning moddiy qiyinchiliklari yoki tez boyib ketish istaklaridan ustamonlik bilan foydalanayotgan yangi turdagi tahdid — “oson va tezkor daromad” va’da qiluvchi yashirin tarmoqlar yomg‘irdan keyingi qo‘ziqorindek ko‘payib bormoqda. Bir qarashda oddiygina kuryerlik, reklama tarqatish yoki mahsulot yetkazib berish (dilerlik) kabi jozibador shiorlar ostida niqoblangan bu e’lonlarning ortida, aslida, yoshlarni giyohvandlik moddalari va sintetik narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga (kuryerlik yoki "zakladchik"likka) jalb etish bo‘yicha tuzilgan mudhish tuzoqlar yashiringan.

Ushbu vizual va jozibador reklamalar ko‘pincha "Haftasiga millionlab topishni xohlaysizmi?", "Hech qanday tajribasiz, kuniga atigi 2 soat ishlash" kabi psixologik manipulyatsiyalarga asoslangan bo‘ladi. Hayotiy tajribasi kam, o‘z mustaqilligini namoyish etishga urinayotgan talabalar yoki moddiy qiyinchilikka duch kelgan yoshlar buni shunchaki "*omadli imkoniyat*" deb qabul qiladilar. Biroq, virtual olamdagi anonim "ish beruvchi"lar taklif qilayotgan bu tuzoqqa bir marta qadam qo‘ygan inson o‘zi bilmagan holda jinoyat dunyosining eng xavfli va shafqatsiz zanjiriga bog‘lanib qoladi.

Ushbu maqolada biz ijtimoiy tarmoqlardagi virtual firgarlikning psixologik mexanizmlari, "*oson pullar*"ning ortida yashiringan giyohvandlik botqog‘ining haqiqiy yuzi hamda bir lahzalik xatolik tufayli o‘zining butun kelajagi, erkinligi va umrini panjara ortiga tikayotgan yoshlarning ayanchli qismati haqida atroflicha mushohada yuritamiz. Raqamli dunyoning jozibador pardasi ortiga yashiringan bu qora reallikni anglash va unga qarshi hushyorlikni oshirish bugun har birimiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Jozibador e’lonlar va psixologik tuzoq: Kiber-jinoyatchilar yoshlarni qanday o‘ziga og‘dirib oladi?

Bugungi kunda virtual olamdagi qora bozor vakillari — narkotrafik boshliqlari shunchaki jinoyatchilar emas, balki zamonaviy marketing prinsiplari va inson psixologiyasini mukammal o‘zlashtirgan "mutaxassis"lar kabi harakat qilmoqda. Ular ijtimoiy tarmoqlarda o‘z tuzoqlarini ochiqchasiga e’lon qilmaydilar. Aksincha, barchasi juda oddiy va qonuniy ko‘ringan e’lonlardan boshlanadi: *"Kuryerlik xizmati", "Internet-do‘kon administratoriga yordamchi", "Hujjatlarni tezkor yetkazish xodimi"* yoki shunchaki *"Kuniga 1-2 soat vaqt ajratib, o‘z xarajatlaringizni o‘zingiz qoplang"*. Bunday e’lonlar ostiga ko‘pincha qimmatbaho mashinalar, pul dastalari yoki dabdabali hayot aks etgan suratlar joylashtirilib, yoshlarda "Men ham buni uddalay olaman" degan ishonch va havas uyg‘otiladi.

Bu tuzoqning eng xavfli jihati shundaki, kiber-jinoyatchilar maqsadli auditoriyani juda aniq tanlashadi. Ularning asosiy nishoni — mustaqil hayotga endigina qadam qo‘ygan, ota-onasiga yuk bo‘lmaslikka intilayotgan talabalar, uzoq viloyatlardan poytaxtga kelib moddiy qiyinchilikka duch kelgan yoshlar yoki ijtimoiy tarmoqlarda ko‘p vaqt o‘tkazuvchi o‘smirlardir. Tashqi tomondan beg‘ubor ko‘ringan Telegram-bot yoki guruhga a’zo bo‘linganidan keyin, "ish beruvchi" muloqotni boshlaydi. Dastlabki bosqichda yoshlarning shaxsiyati, oilaviy va moddiy sharoiti sinchkovlik bilan o‘rganiladi. Ularga: *"Sening iqtidoring bor, sen bu ishlardan ko‘ra ko‘proqiga loyiqsan"* qabilidagi soxta maqtovlar bilan psixologik ta’sir o‘tkaziladi. Qachonki yoshlarda virtual "ish beruvchi"ga nisbatan ishonch paydo bo‘lgach, o‘yin qoidalari o‘zgaradi. Ularga oddiy buyumlar emas, balki maxsus qadoqlangan, shaharning xanjar sanchilgan qismlariga, daraxtlar

tagiga yoki binolar chetiga yashirib ketilishi kerak bo‘lgan moddalar (xalq tilida **"zakladka"**) berila boshlaydi. Bu bosqichda yoshlar nima ish qilayotganini anglab yetganlarida ham, ortga qaytish imkoniyati deyarli qolmaydi. Chunki jinoyatchilar dastlabki "ish"ni topshirishdan oldin yoshlarning pasport ma’lumotlarini, yashash manzillarini, hatto ota-onalarining telefon raqamlarini "shaxsiyatni tasdiqlash" vaji bilan qo‘lga kiritgan bo‘lishadi. Endi esa chekinmoqchi bo‘lgan yoshlarga ochiqchasiga tahdid qilinadi: *"Agar bu ishni oxiriga yetkazmasang, rasmlaringni, pasportingni va nima ish qilmoqchi bo‘lganingni ota-onangga, o‘qish joyingga yoki ichki ishlarga yuboramiz"*. Shu tariqa, bir necha yuz ming so‘m oson pul topish ilinjida tarmoqqa kirgan yosh yigit-qizlar qanday qilib ulkan jinoyat zanjirining qurboniga va a’zosiga aylanganini o‘zlari ham bilmay qoladilar. Bir lahzalik moddiy ehtiyoj yoki qiziqish ortidan kelgan bu virtual muloqot ularni muqarrar halokat sari yetaklay boshlaydi.

Virtual kuryerlikdan real qamoqxonagacha

Ijtimoiy tarmoqlardagi anonim "boshliqlar" yoshlarning ongiga bitta xavfli yolg‘onni singdirishga urinishadi: *"Sizni hech kim topa olmaydi, hammasi xavfsiz va maxfiy"*. Biroq bugungi kunda O‘zbekiston huquq-tartibot idoralari kiber-makonda, xususan, Telegram va boshqa platformalarda yashirin narkosavdo bilan shug‘ullanuvchi guruhlarni aniqlash va ularni qo‘lga olish bo‘yicha eng zamonaviy texnologiyalardan foydalanmoqda. "Xavfsiz va yashirin" deb o‘ylangan har bir qadam raqamli iz qoldiradi va bu tuzoqqa tushgan "kuryer-zakladchik"larning faoliyat muddati odatda bir necha haftadan, nari borsa bir necha oydan oshmaydi. Ayanchli reallik shundaki, tarmoq ortidagi haqiqiy narkobaronlar chet elda yoki chuqur yashirinlikda qolib ketadi, barcha jinoiy javobgarlik yukini esa oson pul ilinjida ko‘chaga chiqqan yoshlar o‘z yelkalariga oladilar.

"Zakladchik"lik ortidan keladigan qora qismat har doim bir xil yakun topadi: kutilmagan hibs, tezkor surishtiruvlar va sud qora kursisi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga binoan, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki sintetik narkotiklarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash va eng asosiysi — tarqatish (kuryerlik qilish) eng og‘ir jinoyatlar sirasiga kiradi. Bugungi kunda sud amaliyotida ushbu jinoyatni sodir etgan yoshlarga, hatto ular talaba yoki muqaddam sudlanmagan bo‘lsalar ham, **10 yildan 20 yilgacha bo‘lgan uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazolari** tayinlanmoqda. Kechagina universitet auditoriyalarida o‘qib yurgan, kelajakda shifokor, dasturchi yoki iqtisodchi bo‘laman deb orzu qilgan yosh yigit-qizlarning bugun sud zalida, temir panjara ortida boshi egik, ko‘zlarida yosh bilan o‘tirganini ko‘rish nihoyatda og‘riqlidir. Ularning sud majlislarida aytadigan gaplari deyarli bir xil: *"Men shunchaki oson pul topmoqchi edim, buni narkotik ekanini to‘liq anglamagandim, meni majburlashdi, pushaymonman..."* Biroq qonun oldida kechikkan pushaymonlik foyda bermaydi. Bir necha yuz ming so‘m yoki bitta qimmatbaho smartfon sotib olish istagi evaziga yoshlar o‘zlarining eng go‘zal, navqiron va oltinga teng 15-20 yillik umrlarini qamoqxona devorlari orasida o‘tkazishga mahkum qilmoqdalar. Bu shunchaki bir shaxsning qamalishi emas, balki farzandining kamolini ko‘raman deb sochlari oqargan ota-onaning orzu-havaslari barbod bo‘lishi, oilaning jamiyat oldida boshi egilishi demakdir. Virtual olamdagi "oson daromad"ning real hayotdagi haqiqiy narxi mana shunday mudhish va ayanchlidir.

Xulosa qilib aytganda, erkinlik narxini pullar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Ijtimoiy tarmoqlardagi "oson daromad" haqidagi ertaklar real hayotda har doim fojia bilan yakun topadi. Kiber-makon qanchalik keng va cheksiz ko‘rinmasin, undagi har bir qora qadam, har bir jinoiy niyat baribir fosh bo‘lishga mahkum. Yoshlik — inson umrining eng jo‘shqin, kuch-g‘ayratga to‘la va kelajak poydevori qo‘yiladigan davridir. Uni bir lahzalik moddiy qiziqish, soxta dabdaba yoki virtual firibgarlarning aldovlari sabab qamoqxona panjaralariga almashtirish — o‘z hayotiga nisbatan qilingan eng katta xiyonatdir. Halol mehnat bilan topilmagan, birovlarning hayoti va sog‘lig‘ini zahar hisobiga keladigan pulning hech qachon barakasi ham, xayri ham bo‘lmaydi. Bugungi kun yoshlaridan talab etiladigan eng muhim fazilat — bu **raqamli hushyorlik** va **media-savodxonlikdir**. Internetda duch kelgan har qanday jozibador taklifga ishonib ketmaslik, har bir e’lon ortida kim turganini anglash va shubhali vaziyatlarda darhol ota-ona, ustozlar yoki huquq-tartibot organlariga murojaat qilish zarur. Unutmang, haqiqiy mehnat va ilm

orqali topilgan daromadgina insonni muvaffaqiyatga yetaklaydi, uning boshini ko‘taradi. "Giyohvandlik — umr zavoli" degan ibora faqatgina zaharli moddalarni iste’mol qilishga tegishli emas. Bugun u o‘zining jinoiy zanjiriga kuryer sifatida yoshlarni ham tortmoqda. Shunday ekan, har bir yigit-qiz o‘z kelajagiga mas’uliyat bilan qaramog‘i lozim. Zero, inson erkinligi, ota-ona xotirjamligi va yorug‘ yuz bilan yashash baxtini dunyodagi hech qanday pullar bilan o‘lchab ham, sotib olib ham bo‘lmaydi. O‘z hayotingizni va kelajagingizni virtual tuzoqlardan asrang!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. *(246, 273, 276-moddalar — Giyohvandlik vositalari va sintetik moddalarning qonunga xilof muomalasi hamda kontrabandasi bo‘yicha).* – Rasmiy nashr: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-406-son, 2016-yil 14-sentyabr.
4. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqi kursi. Maxsus qism. 4-tom: Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2021.
5. Turg‘unov S., Mamatqulov X. Kiberjinoyatchilik va raqamli makondagi tahdidlar: profilaktika chora-tadbirlari. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi, 2023.
6. Ismoilov I.R. Yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalar tarqalishining ijtimoiy-psixologik omillari. // *Psixologiya jurnali.* – 2022, №3, 45-51-betlar.

GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH DAVR TALABI

Ulug‘ova Shahlola Musliddinovna-
Ma’mun universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: maqolada giyohvandlik jismoniy va ruhiy salomatlikka salbiy ta’siri, giyohvandlikka qarshi kurashish to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: giyohvandlik, depressiya, jismoniy salomatlik, ruhiy salomatlik.

Аннотация: В статье рассматривается негативное влияние наркотической зависимости на физическое и психическое здоровье, а также борьба с наркотической зависимостью.

Ключевые слова: наркотическая зависимость, депрессия, физическое здоровье, психическое здоровье.

Abstract: The article discusses the negative impact of drug addiction on physical and mental health, and the fight against drug addiction.

Keywords: drug addiction, depression, physical health, mental health.

Jamiyatning taraqqiyoti va barkamol avlodlarni voyaga yetkazishdagi asosiy omillaridan biri - aholining sog’lom turmush tarziga amal qilishi, ya’ni giyohvandlik va boshqa salbiy odatlardan ogohlikdir.

Bugungi kunda butun dunyoni tashvishga solayotgan bu illat faqat shaxsiy muammo emas, balki global ijtimoiy muammodir. Inson uchun eng bebaho boylik - bu sog‘lik-salomatlikdir. Uni asrash esa har birimizga omonat qilib berilgan. Giyohvand moddalarni iste’mol qilish inson kamolotiga, imon-e’tiqodiga xavf xatar solish bilan bir qatorda mustaqil mamlakatimiz rivojlanishi va taraqqiyotiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsning e’tiqodi kuchli, mustahkam bo‘lishi bilan birga tani, jismi ham sog‘, chiniqqan, har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarga bardosh bera oladigan bo‘lmog‘i lozim.

Giyohvandlik jismoniy va ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Giyohvand moddalar insonning asab tizimi, yurak-qon tomir faoliyati, jigar va boshqa muhim organlariga zarar yetkazadi. Bundan tashqari, shaxsni turli yuqumli kasalliklarga, chalinish xavfi yuqori bo‘ladi.

Bundan tashqari shaxsda depressiya, paranoyya va boshqa psixologik muammolar keltirib chiqaradi. Ushbu kasalliklar jamiyatdagi shaxsning ijtimoiy faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Giyohvandlik ijtimoiy muammolarni kuchaytiruvchi omil hisoblanadi. U oiladagi tinchlikni buzadi, bolalarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ko‘p hollarda oilaviy inqirozlarga olib keladi. Ushbu illatning tarqalishi mamlakatning ijtimoiy barqarorligiga xavf soladi. Giyohvandlik ishsizlik va ish unumdorligining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Giyohvand moddalarni iste’mol qiluvchilar ish joylarida samarali faoliyat ko‘rsatolmaydi, shuningdek ular tibbiy yordamga muhtoj bo‘lib qoladi. Bu davlat sog’liqni saqlash tizimiga qo‘shimcha yuk bo‘ladi va iqtisodiy yo‘qotishlarni keltirib chiqaradi.

Giyohvandlikning kelib chiqishiga sabab bo‘lgan omillar haqida to‘xtalganda quyidagilarga e’tibor qilish lozim:

- giyohvand moddalarga moyillik, unga o‘rganib qolishlikda shaxsning holatlari ahamiyatlidir. Masalan, tajanglik, asabiy holatlari, o‘zini nazorat qila olmasligi, irodasizligi, o‘z talabini qondira olmaslik, ba’zi hayotiy qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslik;

- yosh avlodni kelgusidagi jismoniy va ma’naviy shakllanishi, asosan oiladagi muhit, ota-onasining kimligi, oilada qanday o‘rin egallashiga, er-xotinning o‘zaro muomalasiga, farzandining har tomonlama shakllanishida ular olib borayotgan tarbiyaviy ishlarga bog‘liq;

- hayot shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodning kamol topishida, ma’lum bir foydali yaxshi yoki yomon yo‘lga kirishida atrof tevarakdagi o‘rtoqlari, oshna-og‘aynilari, ayniqsa o‘sha muhitdagi o‘rtoqlarining ta’siri kattadir.

Shuning uchun oilada, yoshlarning tarbiyasida hamma vaqt ularni qayerda va kimlar bilan birgalikda bo‘lishlari, nima ish bilan mashg‘ul ekanlari, qanday o‘rtoqlari borligini nazorat qilish juda muhimdir.

Giyohvandlikka qarshi kurash yuzasidan mahalliy va xalqaro tashkilotlarning barchasi insoniyatni, xususan yosh avlodni bu xatarli balodan saqlab qolish tashvishida keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Giyohvandlikka qarshi samarali kurashish jamiyatning barcha tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashni talab qiladi. Yosh avlodni giyohvandlikning zararlari haqida ilgaridan ogoh qilish muhimdir. Maktablarda, oilada tarbiya jarayonida ushbu illatga qarshi ma’rifiy ishlar olib borilishi kerak. Giyohvandlikka qarshi kurashish chuqur profilaktik, ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar orqali olib borilgandagina samarali bo‘ladi. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, yoshlar ongiga mustahkam ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirish, ularni mazmunli hayotga yo‘naltirish - bu kurashning eng samarali vositalaridandir. Yurtimizda bu borada qabul qilingan qonunlar, milliy dasturlar va idoralararo hamkorliklar samarasi o‘z natijasini bermoqda. Ammo giyohvandlikka qarshi kurash doimiy e’tibor, yangicha yondashuvlar va keng jamoatchilik ishtirokini talab qiladi.

Yoshlarni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish, sport bilan shug‘ullanishga jalb etish, ularga zararli odatlarning oqibatlari haqida muntazam tushuntirish ishlari olib borish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashish va qonunlarni qat’iy amalga oshirish ham ushbu muammoni kamaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murodov Z. O‘smirlar va zararli odatlar.-T.: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2014 yil.
2. Sultonmurod O. Giyohvandlik - ma’naviy tanazzul.-T.: "Movarounnahr", 2010 yil.

NOGIRON FARZANDI BOR OILALARDA GIYOHVANDLIK PROFILAKTIKASINING IJTIMOIY-PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xamrakulova Maftunaxon Shuxratovna
Toshkent gumanitar fanlar universiteti
"Amaliy va gumanitar fanlar" kafedrasi katta o'qituvchi
+998909608442
maftunaxonshuxratovna@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada nogiron farzandi bor oilalarda giyohvandlik profilaktikasining dolzarb masalalari, xavf omillari hamda ularning oldini olishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar tahlil qilinadi. Shuningdek, oila, ta'lim muassasalari, mahalla va tegishli mutaxassislar hamkorligining ahamiyati yoritilib, integrativ yondashuvning samaradorligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: giyohvandlik profilaktikasi, nogironligi bo'lgan bolalar, oila, ijtimoiy-pedagogik mexanizmlar, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy himoya, jamoat xavfsizligi.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные вопросы профилактики наркомании в семьях с детьми-инвалидами, факторы риска и социально-педагогические механизмы, направленные на их предотвращение. Также освещается важность сотрудничества семьи, образовательных учреждений, махалли и соответствующих специалистов, обосновывается эффективность интегративного подхода.

Ключевые слова: профилактика наркомании, дети с инвалидностью, семья, социально-педагогические механизмы, инклюзивное образование, социальная защита, общественная безопасность.

Abstract. This article analyzes topical issues of drug prevention in families with children with disabilities, risk factors, and socio-pedagogical mechanisms aimed at their prevention. The importance of cooperation between the family, educational institutions, the mahalla, and relevant specialists is also highlighted, and the effectiveness of the integrative approach is substantiated.

Keywords: drug addiction prevention, children with disabilities, family, socio-pedagogical mechanisms, inclusive education, social protection, public safety.

Kirish. Jahonda giyohvandlik inson salomatligi, jamiyat barqarorligi va jamoat xavfsizligiga tahdid solayotgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda giyohvandlik nafaqat shaxs salomatligiga, balki jamiyat barqarorligi va jamoat xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soluvchi omillardan biri hisoblanadi. Yoshlar va o'smirlar ushbu xavfga eng moyil qatlam sifatida e'tirof etiladi. Giyohvandlik shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit va jamoat xavfsizligiga ham zarar yetkazadi. Shu sababli profilaktik choralar nafaqat tibbiy, balki pedagogik, psixologik va ijtimoiy yo'nalishlarda ham olib borilishi zarur. Giyohvandlikka qarshi kurashish va profilaktika ishlarida ijtimoiy tenglik va inklyuziv yondashuv muhim ahamiyatga ega. Xususan, jamiyatning barcha qatlamlari ushbu jarayonda teng huquqli ishtirok etishi lozim. O'zbekiston Respublikasining "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunida bu holat quyidagicha ifodalanadi: "Nogironligi bo'lgan shaxslar boshqa fuqarolar bilan teng ravishda jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etish, ta'lim olish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish hamda ijtimoiy himoyaga ega bo'lish huquqiga egadirlar" [2]. Ushbu normativ-huquqiy qoida giyohvandlikka qarshi kurashish tizimida ham inklyuziv yondashuvni talab etadi. Ya'ni, mahalla, oila va ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktik tadbirlar nogironligi bo'lgan shaxslarni ham qamrab olishi, ular uchun teng imkoniyatlar yaratishi zarur. Bu esa jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Nogironligi bo'lgan bolalar va ularning oilalari bilan ishlashda profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Nogironligi bo'lgan bolalar ko'pincha tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Ijtimoiy faollikning pastligi, yolg'izlik hissi, o'ziga bo'lgan ishonchning yetarli emasligi ayrim hollarda salbiy ta'sirlarga berilish xavfini oshiradi. Bunday vaziyatlarda oila va ta'lim muassasasining profilaktik roli yanada

ortadi. Chunki bunday oilalarda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar, psixologik bosim va ayrim hollarda ijtimoiy cheklanishlar salbiy xulq-atvor shakllanishiga zamin yaratishi mumkin. Nogiron farzandi bor oilalarda giyohvandlik profilaktikasi kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonning samaradorligi bir qator ijtimoiy-pedagogik mexanizmlarga bog‘liq. Birinchidan, oilaviy tarbiya va sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarning ehtiyojlarini chuqur anglab, ular bilan doimiy muloqotda bo‘lishlari, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishlari zarur. Oiladagi mehr-oqibat, qo‘llab-quvvatlash va ishonch muhitining mavjudligi bolalarning turli zararli odatlarga moyilligini kamaytiradi. Ikkinchidan, ta’lim muassasalari tomonidan profilaktik ishlarni kuchaytirish zarur. Inklyuziv ta’lim muhitida nogironligi bo‘lgan o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda sog‘lom hayot tarziga oid bilimlarini oshirish muhim vazifalardan biridir. Pedagoglar va psixologlar tomonidan muntazam profilaktik suhbatlar, treninglar va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazilishi ijobiy natijalar beradi. Uchinchidan, mahalla va jamoatchilik institutlari bilan hamkorlikni rivojlantirish talab etiladi. Mahalla fuqarolar yig‘inlari, yoshlar yetakchilari, xotin-qizlar faollari va ijtimoiy xodimlar oilalarning muammolarini aniqlash hamda ularga amaliy yordam ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Bunday hamkorlik oilalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlaydi. To‘rtinchidan, psixologik va ijtimoiy xizmatlarning integratsiyasi profilaktik faoliyat samaradorligini oshiradi. Mutaxassislar tomonidan oilalarga maslahatlar berish, stress va depressiv holatlarning oldini olish, farzandlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bo‘yicha ishlar olib borilishi lozim.

Giyohvandlikka qarshi kurashishda psixologik omillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega, chunki shaxsning xulq-atvori, ijtimoiy muhitga moslashuvi va ruhiy holati uning zararli odatlarga moyilligini belgilab beradi. V. M. Karimova o‘zining *“Ijtimoiy psixologiya”* asarida shaxsning ijtimoiy xulq-atvori shakllanishida guruh, oila va ijtimoiy muhitning ta’siri hal qiluvchi rol o‘ynashini ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, individning ijtimoiylashuv jarayonida salbiy muhit va noto‘g‘ri ijtimoiy qadriyatlar uning deviant xulq-atvoriga, jumladan zararli odatlarga moyilligini oshirishi mumkin [3]. Shundan kelib chiqib, mahalla, oila va ta’lim muassasalari hamkorligida olib boriladigan profilaktik ishlar yoshlarning ijobiy ijtimoiylashuvini ta’minlashga xizmat qiladi. Bu esa giyohvandlik kabi ijtimoiy illatlarning oldini olishda psixologik yondashuvning muhimligini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik profilaktikasida faqatgina ma’muriy yoki huquqiy choralarni qo‘llash kutilgan natijani bermaydi. Chunki giyohvandlikning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi omillar nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy, psixologik, pedagogik va iqtisodiy xarakterga ham ega. Shu sababli profilaktik faoliyat kompleks va tizimli yondashuv asosida tashkil etilishi zarur. Profilaktika ishlari oila, ta’lim muassasalari, mahalla, sog‘liqni saqlash tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda ijtimoiy xizmatlarning uzviy hamkorligi asosida olib borilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi profilaktik faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy hayotdan chetda qolish, tengdoshlari bilan muloqotning cheklanishi, o‘ziga bo‘lgan ishonchning pasayishi hamda psixologik yolg‘izlik hissi ayrim hollarda turli salbiy ta’sirlarga moyillikni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun bunday bolalarni ta’lim, sport, madaniyat va jamoatchilik tadbirlariga keng jalb etish, ularning qobiliyat va qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Nogironligi bo‘lgan bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish ham giyohvandlik profilaktikasining samarali vositalaridan biridir. Turli to‘garaklar, sport seksiyalari, ijodiy mashg‘ulotlar, kasb-hunarga yo‘naltirish dasturlari va ko‘ngilli loyihalarda ishtirok etish yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi, ularda mas’uliyat hissini shakllantiradi hamda zararli odatlarga nisbatan barqaror immunitet hosil qiladi. Bundan tashqari, bunday faoliyat bolalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar tomonidan doimiy e’tibor va psixologik qo‘llab-quvvatlashning mavjudligi ham giyohvandlik xavfini kamaytiruvchi muhim omillardan biridir. Oilada sog‘lom ma’naviy muhit, o‘zaro hurmat va ishonchga asoslangan munosabatlarning shakllanishi farzandlarning salbiy ta’sirlarga qarshi

turish qobiliyatini kuchaytiradi. Shu bilan birga, ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarini oshirishga qaratilgan treninglar, seminarlar va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish profilaktik ishlarning samaradorligini yanada oshiradi.

Xulosa. Nogiron farzandi bor oilalarda giyohvandlik profilaktikasining ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari jamoat xavfsizligini ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Oila, ta’lim muassasalari, mahalla va mutaxassislarning o‘zaro hamkorligi asosida tashkil etilgan kompleks profilaktik tadbirlar yoshlarni turli zararli illatlardan himoya qilishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur yo‘nalishda integrativ yondashuvlarni rivojlantirish va amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
4. Mavlonov A., To‘rayev O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent, 2020.
5. G‘ulomov S. Yoshlar orasida deviant xulq-atvor profilaktikasi masalalari. – Toshkent, 2022.

ADDIKTIV XULQ-ATVOR FENOMENINING ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA TALQIN ETILISHI

Xudayberganov Navruz Baxtiyarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada addiktiv xulq-atvor fenomenining zamonaviy psixologiyadagi nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Addiktiv xulq-atvorning mazmun-mohiyati, shakllanish omillari, psixologik mexanizmlari hamda zamonaviy tasniflari yoritilgan. Shuningdek, addiksiyaning biologik, psixologik va ijtimoiy determinantlari biopsixososial yondashuv nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari addiktiv xulq-atvorning shaxs rivojlanishi va psixologik salomatligiga ta’sirini kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: addiksiya, addiktiv xulq-atvor, qaramlik, psixologik qaramlik, xulqiy addiksiya, biopsixososial model, psixologik salomatlik, profilaktika.

Аннотация. В статье анализируются теоретико-методологические основы феномена аддиктивного поведения в современной психологии. Освещены сущность аддиктивного поведения, факторы его формирования, психологические механизмы и современные классификации. Также с точки зрения биопсихосоциального подхода проанализированы биологические, психологические и социальные детерминанты аддикции. Результаты исследования указывают на необходимость комплексного изучения влияния аддиктивного поведения на развитие личности и психологическое здоровье.

Ключевые слова: аддикция, аддиктивное поведение, зависимость, психологическая зависимость, поведенческая аддикция, биопсихосоциальная модель, психологическое здоровье, профилактика.

Abstract. The article analyzes the theoretical and methodological foundations of the phenomenon of addictive behavior in modern psychology. The essence and content of addictive behavior, factors of its formation, psychological mechanisms, and modern classifications are highlighted. The biological, psychological, and social determinants of addiction are also analyzed from the perspective of a biopsychosocial approach. The research findings indicate the necessity of a comprehensive study on the impact of addictive behavior on personal development and psychological health.

Keywords: addiction, addictive behavior, dependence, psychological dependence, behavioral addiction, biopsychosocial model, psychological health, prevention.

Kirish.XXI asrda jamiyat hayotining jadallik bilan raqamlashtirilishi, axborot oqimlarining keskin ortishi va ijtimoiy munosabatlarning transformatsiyalashuvi inson xulq-atvorida yangi

global tendensiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu tendensiyalar orasida addiktiv xulq-atvor fenomeni alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda nafaqat an’anaviy alkogol, tamaki yoki psixoaktiv moddalarga qaramlik, balki internet, kompyuter o‘yinlari, ijtimoiy tarmoqlar, onlayn qimor (ludomaniya) va xarid qilish (shopogolizm) kabi nokimyoviy (xulqiy) addiksiyalar ham keng tarqalmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotlariga ko‘ra, qaramlik bilan bog‘liq buzilishlar inson salomatligi va ijtimoiy moslashuviga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadigan yetakchi omillar qatoriga kiradi. Shu sababli, addiktiv xulq-atvorni o‘rganish zamonaviy psixologiyaning eng dolzarb ilmiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu muammoning dolzarbligi shundaki, u shaxsning psixologik salomatligi, ijtimoiy munosabatlari, kasbiy faoliyati va umumiy hayot sifatini destruktiv (vayronkor) xarakterga keltirib qo‘yadi. Ayniqsa, o‘smirlar va yoshlar orasida virtual qaramlikning keng tarqalishi mazkur muammoning psixologik jihatlarini yanada chuqur va kompleks tadqiq etishni talab qilmoqda.

NATO mamlakatlarida joriy etilgan "Oilaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari" (Family Support Programs) tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmatga chaqirilishdan oldin ota-onalar va juftlarga o'tkaziladigan 2-3 kunlik psixologik trening separatsiya stressi darajasini 40% ga kamaytiradi. Bunday treninglarda: separatsiya stressini boshqarish, muloqotni samarali davom ettirish texnikalari, xizmat tugagandan so'ng qayta moslashish (reintegration) masalalari ko'rib chiqiladi [1]. Harbiy qism psixologlari nafaqat xizmatchilar, balki ularning oilalari bilan ham aloqada bo'lishi maqsadga muvofiq. Zamonaviy yondashuv bo'yicha "oila tizimi" (family system) yaxlit birlik sifatida ko'rib chiqiladi: xizmatchining ruhiy holati oila bilan bog'liq, oilaning holatи esa xizmatchiga ta'sir etadi. Shu sababli oila psixologi bilan ishlash xizmatchining harbiy psixolog bilan ishlashiga parallel ravishda olib borilganda eng yuqori samara beradi [6]. Zamonaviy harbiy dasturlarda xat va xabar almashish uchun maxsus ilovalar ishlab chiqilmoqda. Koreyalik tadqiqotchilarning 2021-yilgi ishida xizmatchilapning oilalari bilan video muloqoti oddiy telefon qo'ng'irig'iga nisbatan oksitotsin ("bag'rikenglik gormoni") ishlab chiqarilishini 18% oshirgani va cortisol darajasini 22% kamaytиrgani ilmiy jihatdan tasdiqlangan [2]. Bu natijalar texnologiyaning psixobiologik ta'sirini ko'rsatadi. Harbiy xizmat yakunlangandan so'ng xizmatchi va uning oilasi birga "qayta integratsiya" jarayonini boshdan kechiradi. Bu davrda ham psixologik qo'llab-quvvatlash zarur, chunki uzoq muddat ajralib qolgan shaxslar o'rtasida qayta moslashish osmon qulay kechmasligi mumkin. AQSh armiyasida joriy etilgan "Yellow Ribbon" dasturi bunday oilalarga 90 kunlik psixologik yordam ko'rsatib, ajralish va oilaviy nizolar sonini 45% ga kamaytirgan [7]. O'zbek jamiyatida oila an'anaviy tarzda shaxsning psixologik markazida turadi. Ota-onaga hurmat, oilaviy birlik va yaqinlarni qo'llab-quvvatlash milliy qadriyatlarning ajralmas

qismиdir. Bu xususiyat harbiy xizmat psixologiyasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi: o'zbek xizmatchisi uchun oiladan ajralish ko'pincha g'arb xizmatchisiga nisbatan emotsional jihatdan yanada og'irroq kechadi. Shuningdek, o'zbek madaniyatida "erkak kishi yig'lamaydi" yoki "qiyinchiliklardan shikoyat qilmaydi" degan ijtimoiy stereotiplar mavjud bo'lib, bu ba'zi xizmatchilapning psixologik yordamga murojaat qilishini qiyinlashtiradi. Bu muammoni hal etish uchun psixologik yordam madaniyatini oshirish va harbiy xizmatdagi psixologik yordamni normallashtirishga qaratilgan ma'rifiy ishlar zarur. O'zbek oilasidagi ota-onalarning roli ham alohida e'tiborga loyiq: aksariyat hollarda ota yoki onaning bir og'iz rag'batlantiruvchi so'zi xizmatchining psixologik holatini butunlay o'zgartirishi mumkin. Bu milliy-madaniy xususiyatni hisobga olgan holda, oilaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarida ota-onalarga alohida o'rin berilishi lozim.

XULOSA: Oilaviy munosabatlar va harbiy xizmat o'rtasidagi psixologik aloqa — bu shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham, davlat uchun ham strategik ahamiyatga ega masaladir. Ilmiy tadqiqotlar oilaviy aloqaning harbiy xizmatchilapning ruhiy salomatligi, jangovar samaradorligi va intizomiga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniq isbotlamoqda. J.Bowlby ilova nazariyasi, A.Maslouning ehtiyojlar piramidasи va zamonaviy neyropsixologiya yutuqlari bir ovozdan shuni tasdiqlaydi: inson o'z yaqinlari bilan hissiy aloqada bo'lmasa, uning psixologik salomatligi to'liq ta'minlanishi mumkin emas. Bu haqiqat harbiy muhitda ayniqsa muhim, chunki xizmatchi bir vaqtning o'zida ham oilaviy ajralishni, ham yangi muhitga moslashishni, ham og'ir harbiy yuklamalarni boshidan kechiradi. Shu sababli harbiy tizimni modernizatsiya qilishda oilaviy psixologik qo'llab-quvvatlash masalasini alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilash, bu sohadagi ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va milliy sharoitga moslashtirilgan amaliy dasturlar yaratish — bugunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Bunda O'zbek xalqining oilaga bo'lgan chuqur hurmat an'analari ilmiy-amaliy dasturlarning mustahkam ma'naviy poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2002 (2021-yilgi o'zgartirishlar bilan).

2. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Mental health of armed forces: global report. - Jeneva: WHO, 2022. - 148 b.

3. Hoge C.W., Castro C.A., Messer S.C. et al. Combat Duty in Iraq and Afghanistan, Mental Health Problems, and Barriers to Care // New England Journal of Medicine. - 2004. - № 351(1). - B. 13-22.

4. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. - New York: Basic Books, 1969. - 428 b.

5. Maslow A.H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954. -411 b.

YOSHLAR ORASIDA ZARARLI ODATLARNING SHAKLLANISHIDA INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING PSIXOLOGIK TA'SIRI

Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi professori,
psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. *Maqolada internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlar va deviant xulq-atvor shakllanishiga ko‘rsatadigan psixologik ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda taqlid, konformizm va tengdoshlar ta’siri kabi omillar yoritilib, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, yoshlarni zararli axborotlarning salbiy ta’siridan himoya qilishning psixologik-pedagogik mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *internet, ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, zararli odatlar, internet qaramligi, psixologik ta’sir, axborot xavfsizligi, media savodxonlik, deviant xulq-atvor, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy identifikatsiya, konformizm, sog‘lom turmush tarzi.*

Аннотация. *В статье анализируется психологическое влияние интернета и социальных сетей на формирование вредных привычек и девиантного поведения среди молодежи. В исследовании освещены такие факторы, как подражание, конформизм и влияние сверстников, а также даны рекомендации по развитию медиаграмотности, критического мышления и здорового образа жизни. Также рассмотрены психолого-педагогические механизмы защиты молодежи от негативного влияния вредной информации.*

Ключевые слова: *интернет, социальные сети, молодежь, вредные привычки, интернет-зависимость, психологическое воздействие, информационная безопасность, медиаграмотность, девиантное поведение, критическое мышление, социальная идентификация, конформизм, здоровый образ жизни.*

Abstract. *The article analyzes the psychological impact of the internet and social networks on the formation of harmful habits and deviant behavior among youth. The study highlights factors such as imitation, conformity, and peer influence, and provides recommendations for developing media literacy, critical thinking, and a healthy lifestyle. Psychological and pedagogical mechanisms for protecting youth from the negative impact of harmful information are also considered.*

Keywords: *internet, social networks, youth, harmful habits, internet addiction, psychological impact, information security, media literacy, deviant behavior, critical thinking, social identification, conformity, healthy lifestyle.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda internet hamda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari insoniyat taraqqiyotining muhim omili sifatida ta'lim, muloqot, kasbiy faoliyat va bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarning nazoratsiz hamda maqsadsiz qo‘llanilishi yoshlarning psixologik rivojlanishi, xulq-atvori va qadriyatlar tizimiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Ayniqsa, yoshlar orasida turli zararli odatlarning shakllanishida internet va ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni dolzarb ijtimoiy-psixologik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar jamiyatning eng faol va ta'sirchan qatlamlaridan biri bo‘lib, ularning psixikasi tashqi ta'sirlarga nisbatan sezgir hisoblanadi. O‘smirlik va ilk yoshlik davrlarida shaxsning o‘zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya, mustaqil qaror qabul qilish hamda hayotiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonlari faol kechadi. Mazkur davrda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan turli axborotlar, reklama mahsulotlari, blogerlar faoliyati va virtual guruhlarning ta'siri yoshlarning dunyoqarashi va xulq-atvoriga sezilarli darajada ta'sir ko‘rsatadi. Natijada ayrim yoshlar orasida internet qaramligi, tamaki mahsulotlari va alkogol iste'moliga qiziqish, noqonuniy moddalarni sinab ko‘rishga moyillik hamda boshqa deviant xulq-atvor shakllari yuzaga kelishi mumkin. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar nafaqat axborot almashish vositasi, balki inson xulq-atvorini boshqaruvchi kuchli psixologik mexanizm sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Virtual makonda keng targ‘ib qilinayotgan turmush tarzi namunalari, ommabop trendlar va internet fenomenlari yoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari hamda xatti-harakatlariga bevosita ta'sir etadi. Psixologik nuqtai nazardan, taqlid qilish, konformizm, ijtimoiy taqqoslash, referent guruhlar ta'siri va identifikatsiya kabi mexanizmlar zararli odatlarning shakllanishida muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ma'naviy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, zararli odatlar hamda axborot tahdidlaridan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta'sirini ilmiy jihatdan o‘rganish, zararli odatlarning shakllanish mexanizmlarini aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan samarali psixologik-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishiga ko‘rsatayotgan psixologik ta'sirini tahlil qilish, ushbu jarayonning ijtimoiy-psixologik omillarini aniqlash hamda yoshlarni axborot makonidagi salbiy ta'sirlardan himoya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

-Asosiy qism

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning inson psixikasiga, ayniqsa yoshlar shaxsining rivojlanishiga ta’siri masalasi so‘nggi yillarda psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va kommunikatsiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yoshlarning virtual makondagi faolligi ortib borayotgani, bu esa ularning xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Xorijiy olimlardan A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida inson xulq-atvorining shakllanishida kuzatish va taqlid qilish mexanizmlarining muhim rol o‘ynashini asoslab bergan. Mazkur nazariya internet va ijtimoiy tarmoqlarda namoyish etilayotgan xulq-atvor namunalarining yoshlar tomonidan o‘zlashtirilishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. M. Castells axborot jamiyati konsepsiyasida internetning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rnini tahlil qilib, virtual makonning ijtimoiy munosabatlarga ta’sirini yoritib bergan. S. Turkle esa raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning insonlararo muloqotga ta’sirini o‘rganib, virtual muhitning yoshlar psixologik holatiga ta’sir ko‘rsatishini ilmiy jihatdan asoslagan. Internet qaramligi muammosi K. Young, M. Griffiths va D. Greenfield kabi tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Ularning ilmiy izlanishlarida internetdan me’yoridan ortiq foydalanish shaxsning emotsional holati, ijtimoiy moslashuvi va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi, ayrim hollarda esa boshqa zararli odatlarning rivojlanishiga zamin yaratishi ta’kidlangan. Shuningdek, J. Twenge va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish yoshlar orasida depressiya, yolg‘izlik hissi, tashvishlanish va psixologik qaramlik holatlarining ortishiga olib kelishi aniqlangan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari orasida ham mazkur muammo turli jihatlardan tadqiq etilgan. G.M. Andreyeva, A.V. Petrovskiy, L.I. Bojovich va boshqa psixologlar shaxsning ijtimoiylashuvi, tengdoshlar guruhi ta’siri va kommunikativ munosabatlarning xulq-atvor shakllanishidagi o‘rnini o‘rganganlar. Ularning tadqiqotlari yoshlar orasida zararli odatlarning yuzaga kelishida ijtimoiy muhit va axborot ta’sirining muhimligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonlik olimlardan E. G‘oziyev, V. Karimova, B. Qodirov, R. Sunnatova va boshqa tadqiqotchilar yoshlar psixologiyasi, ijtimoiylashuv jarayonlari, ma’naviy-axloqiy tarbiya hamda axborot muhitining shaxs rivojlanishiga ta’siri masalalarini o‘rganganlar. Ularning ilmiy ishlanmalarida yoshlarni turli axborot tahdidlaridan himoya qilish, ularda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish zarurligi alohida ta’kidlangan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishiga ko‘rsatayotgan kompleks psixologik ta’siri yetarli darajada yoritilmagan. Ayniqsa, virtual muhitdagi axborot oqimlari, blogerlar faoliyati, internet trendlar va ijtimoiy tarmoqlardagi psixologik manipulyatsiyalarning yoshlar xulq-atvoriga ta’siri masalasi yanada chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqola internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlar shakllanishiga ko‘rsatayotgan psixologik ta’sirini o‘rganishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Tahlil va natijalar. Tahlillar natijasida zararli odatlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi bir qator psixologik omillar aniqlandi. Birinchi navbatda, taqlid qilish (imitatsiya) mexanizmi yoshlarning xulq-atvorini shakllantirishda muhim rol o‘ynashi kuzatildi. Ijtimoiy tarmoqlarda mashhur blogerlar, internet yulduzlari va boshqa ta’sir doirasiga ega shaxslarning hayot tarzi yoshlar tomonidan ideal obraz sifatida qabul qilinishi mumkin. Ayrim hollarda tamaki mahsulotlari, alkogol iste’moli yoki boshqa zararli xatti-harakatlarning ommalashtirilishi yoshlarda ushbu xulq-atvorni takrorlash istagini yuzaga keltiradi. Ikkinchi muhim omil sifatida konformizm va tengdoshlar ta’siri namoyon bo‘ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda ma’lum guruh yoki hamjamiyatga mansublik hissini shakllantirish istagi yoshlarni guruh tomonidan qabul qilingan xatti-harakatlarni o‘zlashtirishga undaydi. Natijada zararli odatlar ayrim yoshlar tomonidan ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida qabul qilinishi mumkin. Tahlillar internet qaramligi va zararli odatlar o‘rtasida ham ma’lum bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Virtual makonda uzoq vaqt qolish, real ijtimoiy aloqalarning kamayishi, uyqu va dam olish tartibining buzilishi yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa stress, xavotir, yolg‘izlik hissi va emotsional

zo‘riqishning kuchayishiga olib kelib, ayrim hollarda zararli odatlarga murojaat qilish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan reklama va manipulyativ axborotlarning ham yoshlar ongiga sezilarli ta’siri aniqlandi. Ayrim kontentlarda zararli mahsulotlar yoki nosog‘lom turmush tarzining bilvosita targ‘ib qilinishi yoshlar tomonidan normal holat sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu holat ayniqsa tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari yetarlicha shakllanmagan o‘smirlar orasida ko‘proq kuzatiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, media savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar internet va ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi rivojlangan yoshlar axborotni tahlil qilish, manipulyativ xabarlarni aniqlash va zararli ta’sirlardan himoyalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Aksincha, media savodxonligi past bo‘lgan yoshlar zararli axborotlarning ta’siriga ko‘proq duch keladilar. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishida muhim psixologik omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, mazkur ta’sirning darajasi shaxsning individual xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar yoshlar orasida zararli odatlarning oldini olishga qaratilgan psixologik-profilaktik dasturlarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishiga ko‘rsatayotgan psixologik ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar natijasida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlarning axborot olish, muloqot qilish va bo‘sh vaqtini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytirishi bilan bir qatorda, ularning psixologik holati va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqalgan turli axborotlar, reklama materiallari, blogerlar faoliyati va virtual guruhlarning ta’siri yoshlar tomonidan ma’lum xulq-atvor namunalarining o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lishi mumkinligi asoslandi. Taqlid qilish, konformizm, ijtimoiy identifikatsiya va tengdoshlar ta’siri kabi psixologik mexanizmlar zararli odatlarning shakllanishida muhim omillar sifatida namoyon bo‘lishi qayd etildi. Shuningdek, internetdan haddan tashqari foydalanish natijasida yuzaga keladigan internet qaramligi, emotsional beqarorlik, stress, xavotir va ijtimoiy izolyatsiya holatlari ayrim yoshlarning zararli odatlarga moyilligini kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari media savodxonlik va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining rivojlanganligi yoshlarning axborot makonidagi salbiy ta’sirlarga qarshi psixologik himoya omili sifatida xizmat qilishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida yoshlar orasida zararli odatlarning oldini olishda oila, ta’lim muassasalari, psixologlar, jamoatchilik tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishi xulosasiga kelindi. Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga oid qadriyatlarni shakllantirish, media savodxonlikni rivojlantirish hamda internetdan oqilona foydalanish madaniyatini yuksaltirish ularni axborot makonidagi salbiy ta’sirlardan himoya qilishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar hayotidagi o‘rni tobora ortib borayotgan hozirgi sharoitda ularning psixologik ta’sirini chuqur o‘rganish, zararli odatlarning shakllanish mexanizmlarini aniqlash va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Tavsiyalar. Tadqiqot natijalari asosida internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish hamda yoshlarni axborot makonidagi turli tahdidlardan himoya qilish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yoshlar orasida media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlari va treninglarni ta’lim muassasalarida muntazam ravishda tashkil etish zarur.
2. O‘quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish orqali ularning internet va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan manipulyativ axborotlarni tahlil qilish hamda baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim.

3. Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish faoliyatini nazorat qilish bilan birga, ular bilan ochiq muloqot o‘rnatishlari, virtual makondagi xavf-xatarlar haqida muntazam tushuntirish ishlarini olib borishlari maqsadga muvofiq.

4. Ta’lim muassasalari psixologlari tomonidan yoshlar orasida internet qaramligi, zararli odatlarga moyillik va psixologik xavf omillarini aniqlashga qaratilgan diagnostik tadbirlarni muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi.

5. Yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga jalb qilish, sport, madaniyat, ilm-fan va ijodiy faoliyatga qiziqtirish orqali ularning virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanib qolishining oldini olish zarur.

6. Ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlovchi sifatli kontentlar ulushini oshirish hamda ijobiy namuna bo‘la oladigan blogerlar va kontent yaratuvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

7. Yoshlarni zararli odatlar, giyohvandlik, alkogolizm va internet qaramligining salbiy oqibatlari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda profilaktik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

8. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda internet hamda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish tavsiya etiladi.

9. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish zarur.

10. Psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va ommaviy axborot vositalari vakillari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yoshlarning internetdan xavfsiz va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish mumkin.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi yoshlar orasida zararli odatlarning oldini olish, ularning psixologik salomatligini mustahkamlash hamda axborot makonidagi salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell Publishers, 1996.
3. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.
4. Young K. Caught in the Net: How to Recognize the Signs of Internet Addiction and a Winning Strategy for Recovery. – New York: John Wiley & Sons, 1998.
5. Griffiths M. Internet addiction: Fact or fiction? // The Psychologist, 1999. Vol. 12(5). – P. 246–250.

O‘QUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti
“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti,
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
ashurovramzidin@gmail.com
ORCID 0009-0002-4627-532X

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning intellektual rivojlanishini ta’minlovchi psixologik omillar ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilarning kognitiv qobiliyatlari, tafakkur operatsiyalari, motivatsiya va emotsional barqarorlik kabi psixologik xususiyatlarning intellektual rivojlanish jarayonidagi o‘rni ochib berilgan. Empirik tadqiqot

natijalari o‘quv faoliyatining mazmuni, psixologik muhit va individual yondashuv intellektual rivojlanish samaradorligini belgilovchi muhim omillar ekanini ko‘rsatadi. Maqola natijalari ta’lim jarayonini psixologik jihatdan takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: intellektual rivojlanish, o‘quvchi psixologiyasi, kognitiv qobiliyatlar, tafakkur operatsiyalari, motivatsiya, emotsional barqarorlik.

Аннотация. В статье представлен научный анализ психологических особенностей интеллектуального развития учащихся. Рассматривается роль когнитивных способностей, мыслительных операций, учебной мотивации и эмоциональной устойчивости в процессе формирования интеллекта. Результаты эмпирического исследования свидетельствуют о том, что содержание учебной деятельности, психологический климат и индивидуальный подход являются ключевыми факторами эффективности интеллектуального развития учащихся. Материалы статьи могут быть использованы для совершенствования психолого-педагогического сопровождения образовательного процесса.

Ключевые слова: интеллектуальное развитие, психология учащихся, когнитивные способности, мыслительные операции, учебная мотивация, эмоциональная устойчивость.

Abstract. This article provides a scientific analysis of the psychological characteristics underlying students’ intellectual development. The study examines the role of cognitive abilities, thinking operations, learning motivation, and emotional stability in shaping intellectual growth. The empirical findings indicate that the content of learning activities, the psychological learning environment, and an individualized approach are key factors influencing the effectiveness of intellectual development. The results contribute to the improvement of psychological and pedagogical support in educational practice.

Keywords: intellectual development, student psychology, cognitive abilities, thinking processes, learning motivation, emotional stability.

Kirish

Respublikamiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida yuqori darajadagi intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar tobora ko‘proq talab qilinmoqda, salohiyatli kadrlarning bilim poydevori bevosita maktab davrida qo‘yilgan tamal toshiga bog‘liqdir. O‘quvchilarning intellektual rivojlanish masalasi psixologik-pedagogik yondashuvlarning hozirgi kundagi asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Maktab ta’limi kognitiv funksiya sifatida ilmiy bilimlar tizimini ilmiy bilish usullari bilan qurollantirish bilan bir qatorda rivojlanuvchi funksiyani ham amalga oshirishi kerak - o‘quv subyektlari yordamida shaxsning individual resurslarini murakkablashtirish, kengaytirish imkoniyatini yaratmoqda.

Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Maktab va maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish[5]”alohida takidlangan. Mashg’ulotlarni multimedia vositalari asosida tashkil etish, pedagogik muloqot sharoitida ilmiy va innovatsion yutuqlarni amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish ustuvor vazifa etib belgilandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, voqelikka maksimal darajada moslashtirish maqsadida hukumat tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar ta’lim tizimining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

XXI asrda inson kapitalini shakllantirishda boshlang‘ich ta’lim muhim bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini rivojlantirish - nafaqat metodik yondashuv, balki pedagog shaxsining psixologik fazilatlariga ham bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash siyosati asosida, ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy va shaxsiy salohiyatiga yuksak talab qo‘yilmoqda.

[5] http://lex.uz//uz/docs/ 5841063 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida.

Ko‘plab maktablarda pedagogning psixologik tayyorgarligi bilan o‘quvchilarning intellektual rivoji o‘rtasida nomutanosiblik mavjud. Bu holat emotsional barqarorlik, empatiya va reflektiv yondashuv kabi fazilatlarning etishmasligida aks etadi.

Pedagog shaxsi ta’lim jarayonining markaziy va hal qiluvchi omili hisoblanadi. U nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki o‘quvchi shaxsining intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi psixologik yetakchidir. Pedagogning mas’uliyatlilik, adolatlilik, empatiya, ochiqlik va emotsional barqarorlik kabi shaxsiy fazilatlari o‘quvchilarda bilimga qiziqish, mustaqil fikrlash va o‘ziga ishonchning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, pedagogning kasbiy refleksiyasi va o‘z ustida ishlashga tayyorligi ta’lim sifatini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Psixologik jihatdan yetuk, muloqotga ochiq va tarbiyaviy mas’uliyatni chuqur anglagan pedagog shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratadi hamda o‘quvchilarning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishiga imkon beradi. Shu bois pedagog shaxsi ta’lim samaradorligining fundamental omili sifatida ilmiy va amaliy jihatdan doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

Sharq mutafakkirlarining intellekt (aql) haqida bir qancha qarashlari mavjud bo‘lib ular nafaqat sharqda, balki g‘arbda ham ilmiy nazariy jihatdan o‘rganilib kelinmoqda. O‘rta Osiyoning emas, balki yaqin va o‘rta sharqning mashhur allomasi Abu Nasr Forobiydir. U o‘z davrining faylasufi, musiqachisi shoiri va qomusiy olimi sifatida shuhrat qozondi. U aql haqida risola asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. U “Aql haqida risola” asarida insonning ruhiy jarayonlari haqida bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Xususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglashi, tabiat sirlarini anglashida ilm- fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. U inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug‘ilganidan mavjud bo‘lgan bo‘lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, Forobiyning fikricha, mavjudodning eng buyuk va yetuk mahsuli bu insondir, u o‘zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o‘rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o‘rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi uning fikricha inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug‘ilishidan mavjud lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi. Uning aqli, fikri, ruhiy yuksakligining yetuk mahsuli bo‘ladi va inson o‘z bilimlarini aqlini rivojlantirib, so‘ngra mavjudodning ibtidosi boshlanishi haqidagi ilmga etib boradi deb ko‘rsatadi.

Forobiy o‘simlik, hayvon va insonga hos xususiyat va qobiliyatlarini quvvat deb atadi va ularni uchga ajratadi uning quvvatlar haqidagi klassifikatsiyasi organizmdagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixologik va fikrlash jarayonlariga ajratadi. Biologik jarayon barcha tirik organizmga fiziologik-psixologik jarayon hayvonlarga, aqliy jarayon ong faqat insonga xosdir.

Abu Rayhon Beruniy ham o‘z asarlarida insonning barcha mavjudotdan ustunligini uning tafakkuri orqali ekanligini izohlaydi.Shuning uchun ham unga yerdagi barcha hayvonlar bo‘ysunadi, aks holda inson eng kichik hayvondan ham ojiz bo‘lar edi.

Beruniy tashqi olamni bilishni asosan aqlga tayanishi va shuning uchun ham u barcha jonzotdan ustun turishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, aql hodisalarning birini anglashga yordam beradi. Inson aqlga muvofiq bilish orqali olamning mohiyati haqidagi bilimlarni o‘zlashtiradi. Lekin bilimning cheki yo‘q va hamma bilimni tez egallashi mumkin emas. Shuning uchun, inson o‘zi bilib olgan narsa bilan kifoyalanib qolmay, doimo yangi bilimlarni o‘rganishga intilishlari shart. Ularning fikricha inson bilish tushuninish fikrlash muhokama qilish o‘ylab topish kabi iste’dodlarga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanish omillari masalasi bo‘yicha ko‘plab o‘zbek va xorij olimlari tomonidan o‘rganilgan. Aqliy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, o‘quvchilarda kreativ fikrlash bilan bog‘liq masalalar hamma davrlarda ham jamiyat olimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolgan. Intellektual jihatdan rivojlanish shaxsning barcha hayotiy faoliyatlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Fikrimizga misol tariqasida shuni aytishimiz mumkinki, aynan biz tadqiqot olib borayotgan o‘quvchilarning intellektual jihatdan rivojlanganligi o‘quv faoliyati, shaxsiy rivojlanishi jabhalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. O‘quvchilarning aqliy jihatdan rivojlanish masalasi bevosita ta’lim tizimidagi yangi ta’lim metodlari, innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

M.G.Davletshin aqliy tushunchalarni qobiliyat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rgangan. Qobiliyat shakllanishi va rivojlanishi, birinchidan, ma’lum bir faoliyatga moyillik yoki intilish borligiga va faoliyat natijalarining sifatiga qarab, tegishli tabiiy zehn nishonalarini aniqlash yo‘li bilan, ikkinchidan, mutaxassis rahbarligida sistemali faoliyatga jalb etish orqali shaxsning tabiiy xususiyatlarini chiniqtirish va rivojlantirish yo‘li bilan, uchinchidan, umumlashgan aqliy operatsiyalarni shakllantirish yo‘li bilan borishi kerakki, bu operatsiyalar umumiy va maxsus axborotni yengil va samarali o‘zlashtirishni rejalashtirgan faoliyat bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar hosil qilishni ta’minlasin. Bolalarda qobiliyatlarni o‘sishi ta’lim-tarbiya jarayonida yuzaga keladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodda ijodiy faollikni va uning negizida yotuvchi ijodiy qobiliyatni shakllantirish respublika maktablari oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Chunki «hozirgi maktabning asosiy vazifasi ta’lim metodlarini, o‘quvchilarning fikrlashlarini taraqqiy ettirish metodlarini takomillashtirishdir».

E.G‘.G‘oziyev O‘zbekistonda tafakkur psixologiyasini keng yoritgan olimlardan biridir. Muallifning fikriga ko‘ra, inson tafakkuri o‘zining mustaqilligi jihatidan mustaqil va nomustaqil tafakkurga ajratiladi. “Tafakkurning mustaqilligi deganda, kishining shaxsiy tashabbusi bilan o‘z oldiga konkret maqsad, yangi vazifalar qo‘ya bilishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterdagi faraz qilishi, natijani ko‘z oldiga keltira olishi, qo‘yilgan vazifani hech kimning ko‘magisiz, ko‘rsatmasisiz o‘zining aqliy izlanishi tufayli, turli yo‘l, usul va vositalar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyatni tushunish kerak”.

E.G‘.G‘oziyev aqliy taraqqiyotning o‘sishini maktabda olinadigan bilimlar ta’minlaydi, deb hisoblaydi. O‘quvchilarni aqliy jihatdan o‘stirish uchun ularni faqat bilimlar tizimi bilangina emas, balki muayyan aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, taqqoslash, turkumlash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, esda olib qolish va boshqalar) o‘quv, ko‘nikma va malakalarni ko‘zda tutish kerakligini ta’kidlaydi. O‘quvchilar aql-zakovatini kamol toptirishda mantiqiy tafakkurning ahamiyati katta, chunki tafakkurning rivojlanishi aqlni qo‘shimcha ma’lumotlar bilan boyitadi [2].

B.R.Qodirov iste’dodga quyidagicha ta’rif beradi: «iste’dod bilim, ko‘nikma yoki malaka emas, balki, aynan shu bilim va malakalarni o‘rganish, o‘zlashtirishni yengillashtiradigan, tezlashtiradigan va shuning evaziga muvafaqqiyatni ta’minlaydigan ichki imkoniyatlar majmuasiga aytiladi»[5].

Z.T.Nishonova o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosini o‘rgangan. Z.T.Nishonova ijodiy psixologiya asoschisi Dj.Gilfordning intellektual struktura modeliga asoslanib, aqliy qobiliyatlarni uch o‘lchovga, ya’ni, aqliy jarayonlar, aqliy qoniqish va aqliy natijalarga bo‘ladi [6].

Aqliy faoliyat insonning muayyan bilimlarni o‘zlashtirish yoki yangiliklarni ochish bilan bog‘liq psixik faoliyatdir. Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bevosita, umumlashtirgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, sotsial- sababiy bog‘lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo‘naltirilgan aqliy faoliyatdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanish darajasini aniqlash hamda intellektual ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilishga qaratilgan psixologik-pedagogik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘un holda qo‘llanilib, olingan natijalarning ilmiy ishonchliligi hamda obyektivligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi.

Tadqiqotning empirik qismida Dj. Raven tomonidan ishlab chiqilgan “Progressiv matritsalar” metodikasidan foydalanildi. Mazkur metodika boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining abstrakt-mantiqiy tafakkuri, analiz va sintez qilish qobiliyati, umumlashtirish hamda mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash ko‘nikmalarini baholash imkonini beradi. Ushbu test noverbal xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini til omilidan nisbatan mustaqil ravishda aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini statistik jihatdan qayta ishlashda deskriptiv statistika metodlaridan foydalanildi. Jumladan, o‘rtacha arifmetik qiymat (M), standart og‘ish (SD), minimal va maksimal

ko‘rsatkichlar hisoblandi. Ushbu statistik ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini umumiy tavsiflash hamda natijalar variativligini aniqlash imkonini berdi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot jarayonida olingan empirik natijalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishi yoshga oid psixologik qonuniyatlar asosida bosqichma-bosqich shakllanishini yaqqol namoyon etdi. Dj. Ravenning “Progressiv matritsalar metodikasi” yordamida aniqlangan ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning abstrakt-mantiqiy tafakkuri, tahlil va sintez qilish qobiliyati hamda umumlashtirish operatsiyalarining rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

1-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellekt darajasi statistikasi (Styudent t-mezoni bo‘yicha) N=205

Respondentlar	N	M	SD	t
2-sinf o‘quvchilari	85	3.40	0.95	5.54**
4-sinf o‘quvchilari	120	4.06	1.16	

Izoh: *p < 0.05; **p < 0.01; ***p < 0.001

M – O‘rtacha arifmetik qiymat, SD – Standart og‘ish, t-statistik farq ko‘rsatkichi

Jadval natijalariga ko‘ra, 4-sinf o‘quvchilarining intellekt darajasi ko‘rsatkichlari (M=4.06) 2-sinf o‘quvchilariga nisbatan (M=3.40) yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Bu holat boshlang‘ich ta’lim jarayonida yosh ortishi bilan o‘quvchilarning abstrakt-mantiqiy tafakkuri, analiz va sintez qilish qobiliyati hamda umumlashtirish operatsiyalari izchil rivojlanib borishini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar Styudent t-mezoni asosida statistik jihatdan tekshirilganda guruhlar o‘rtasidagi farq ishonchli ekanligi aniqlandi (t=5.54; p<0.01). Mazkur ko‘rsatkich 2- va 4-sinf o‘quvchilari intellektual rivojlanish darajasi -o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli tafovut mavjudligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, standart og‘ish ko‘rsatkichlari (SD=0.95 va SD=1.16) o‘quvchilar orasida individual intellektual farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, 4-sinf o‘quvchilarida dispersiyaning biroz yuqoriroq bo‘lishi intellektual rivojlanish sur’atlarining individual xususiyatlarga bog‘liqligini anglata

Xulosa va takliflar

O‘tkazilgan empirik va nazariy tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual rivojlanishi ko‘p omilli psixologik-pedagogik jarayon ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchilarning intellekt darajasi nafaqat yoshga bog‘liq rivojlanish qonuniyatlari, balki ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi, tafakkur operatsiyalarining shakllanganlik darajasi hamda ijtimoiy-psixologik muhit bilan bevosita uzviy aloqadorlikda namoyon bo‘ladi.

Dj. Ravenning “Progressiv matritsalar” metodikasi asosida olingan natijalar 4-sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanish ko‘rsatkichlarining 2-sinf o‘quvchilariga nisbatan statistik jihatdan ishonchli darajada yuqori ekanligini tasdiqladi. Bu holat boshlang‘ich ta’lim jarayonida tafakkurning konkret-obrazli bosqichdan mantiqiy-operatsional bosqichga bosqichma-bosqich o‘tishini ko‘rsatadi. Shuningdek, divergent fikrlashning rivojlanishi o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarda moslashuvchan va ijodiy yechimlar topish qobiliyatini kuchaytirishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, intellektual rivojlanish jarayonida pedagog shaxsining psixologik yetukligi, o‘quvchilarga nisbatan qo‘llaniladigan individual yondashuv hamda qulay psixologik muhitning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Intellekt darajasi pastroq bo‘lgan o‘quvchilarda kommunikativ faollik, kirishimlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik

orqali kompensator mexanizmlarning namoyon bo‘lishi esa intellekt tushunchasining faqat kognitiv ko‘rsatkichlar bilan cheklanmasligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida intellektual rivojlanishni shakllantirish jarayoni tizimli, uzluksiz va psixologik-pedagogik jihatdan muvofiqlashtirilgan ta’sirni talab etishini ilmiy xulosa sifatida asoslab berdi.

Takliflar

1. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida intellektual rivojlanishni diagnostika qilish tizimini kuchaytirish O‘quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini muntazam baholash maqsadida Dj. Raven metodikasi bilan bir qatorda divergent fikrlash, mantiqiy tafakkur va reflektiv qobiliyatlarni aniqlovchi psixodiagnostik vositalarni kompleks qo‘llash tavsiya etiladi.
2. Pedagoglarning psixologik kompetentligini oshirish: Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining emotsional barqarorlik, empatiya, refleksiya va individual yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur.
3. Divergent va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi o‘quv mashg‘ulotlarini kengaytirish: O‘quv jarayonida muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, ochiq savollar va mantiqiy masalalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning intellektual faolligini oshirishga xizmat qiladi.
4. Past intellekt ko‘rsatkichlariga ega o‘quvchilar bilan individual-korreksion ishlarni yo‘lga qo‘yish: Psixolog va pedagog hamkorligida individual rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqilib, unda o‘z-o‘zini baholash, motivatsiya va emotsional regulyatsiyani rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.
5. Ota-onalar bilan psixologik-ma’rifiy hamkorlikni kuchaytirish: Oila muhitining intellektual rivojlanishga ta’sirini inobatga olgan holda, ota-onalar uchun psixologik seminarlar va maslahatlar tashkil etish, ularning farzand rivojiga ongli yondashuvini shakllantirish maqsadga muvofiq.
6. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun ilmiy istiqbollarni belgilash: Intellektual rivojlanishning shaxs motivatsiyasi, emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuv bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganishga qaratilgan keng qamrovli longitudinal tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.John, O. P., & Srivastava, S. (1999). The Big Five Trait Taxonomy: History, Measurement, and Theoretical Perspectives.

2.G‘oziyev E.G‘. Tafakkur psixologiyasi. – Toshkent. «O‘qituvchi» – 1991, 122-123-b.

3.Raven, J. C. (2000). Manual for Raven’s Progressive Matrices and Vocabulary Scales.

4.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.

5.Qodirov B.R. “Sinf zukkolarini tanlash metodikasi”. T, 1998 y.

6.Nishonova Z.T. Yuqori sinf o‘quvchilarining aqliy faoliyat usullari va yo‘llarini egallash xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi.diss. T.: TDPI. 1993.

7.Битянова, М. Р. Работа с ребенком в образовательной среде: решение задач и проблем развития. Научно-методическое пособие для психологов и педагогов / М. Р. Битянова.- М.: МГППУ, 2007. - 96 с.

8. Ramazonovich, A. R. Interplay of Cognitive Abilities and Intellectual Growth in Elementary Students. Modern Journal of Social Sciences and Humanities 2024, 3(3), 41–44.

9. Ashurov R.R. O‘quv faoliyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining fikrlash qobiliyatining intellektual operatsiyalarini rivojlantirish. // Inter education & global study. 2025. №2. B. 639-646.

SOG’LOM TURMUSH TARTIBINING INSON KUNDALIK HAYOTIGA BO’LGAN TA’SIRI

Ataboyev Navro’zbek Ilhombek o’g’li,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
psixologiya kafedrasi o’qituvchisi
+998991062060 navruz9610@gmail.com

Annotatsiya. Ruhiyatning jismga bo’lgan ta’siri bugungi kunda psixologiyada bahsli mavzulardan emas balki fakt o’laroq tilga olinadigan mavzudir. Va shu bilan birga tananing ham ruhiyatga bo’lgan ta’siri rad etib bo’lmas xolatdir. Xo’sh insonning kundalik hayotda sog’lom turmush tarziga bo’lgan e’tibori uning qolgan faoliyatlariga qanchalik ijobiy ta’sir e’tadi, maqolamizda shu va shunga o’xshash masalalar yuzasidan o’zimizni fikr mulohazalarimizni baxam ko’ramiz.

Kalit so’zlar. Ratsion, xulq-atvor, ruhiy tiklanish, jismoniy faollik, surunkali charchoq.

Asosiy qism. Jismoniy (yoki harakatlanish bilan bog’liq) faollik – bu inson xatti harakatlarining ajralmas va murakkab majmuasi bo’lib, u biologik hamda tashqi omillarga bog’liq. Zamonaviy turmush tarzining ilgor (progressiv) tendensiyaga ega bo’lgan o’ziga xos xususiyatlaridan biri harakat faolligi hajmining kamayishi, mushak kuchi sarfining ruxiy-asab zuriqishlari bilan uyg’unlikdagi pasayishi hisoblanadi. Harakat – hayotning eng muhim xususiyati. Bugungi kunda inson organizmi turli tizimlarni qo’zgatishning mushak faoliyatidan ham kuchliroq fiziologik usuli ma’lum emas. Sog‘lom turmush tarzi deganda insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini saqlash hamda mustahkamlashga qaratilgan kundalik odatlar va xulq-atvorlar majmui tushuniladi. Bu tushuncha faqat kasalliklarning yo‘qligini emas, balki insonning to‘laqonli jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatini ham anglatadi.

Kundalik hayotda sog‘lom turmush tarziga amal qilish uchun, avvalo, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishga e'tibor qaratish lozim. Inson organizmining normal faoliyati muntazam uyqu, dam olish va mehnatning muvozanatiga bog‘liq bo‘lib, kattalar uchun sutkasiga o‘rtacha 7–9 soat uyqu tavsiya etiladi. Yetarli uyqu jismoniy va ruhiy tiklanishga, xotira va diqqatning yaxshilanishiga hamda umumiy salomatlikning saqlanishiga xizmat qiladi. Jismoniy faollik kundalik hayotning ajralmas qismi bo‘lishi kerak. Muntazam piyoda yurish, badantarbiya mashqlari bajarish yoki sport bilan shug‘ullanish yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilaydi, ortiqcha vaznning oldini oladi va organizmning umumiy chidamliligini oshiradi. Shu bilan birga, uzoq vaqt davomida harakatsiz o‘tirishdan saqlanish va faol turmush tarzini olib borish tavsiya etiladi.

Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish ham kundalik hayotda muhim o‘rin tutadi. Qo‘llarni muntazam yuvish, tana va kiyim-kechak tozaligini saqlash, yashash va ish muhitining ozodaligiga e'tibor berish ko‘plab yuqumli kasalliklarning oldini olishga yordam beradi. Bundan tashqari, zararli odatlar, xususan, tamaki mahsulotlari va alkogol iste'molidan voz kechish salomatlikni saqlashning muhim shartlaridan biridir.

Shunday qilib, kundalik hayotda sog‘lom turmush tarziga amal qilish uchun to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli uyqu, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena, ruhiy salomatlikni saqlash, zararli odatlardan voz kechish va muntazam tibbiy nazoratga e'tibor qaratish zarur. Aynan shu omillar insonning salomatligini mustahkamlashga, ish qobiliyatini saqlashga va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sog‘lom turmush tarziga amal qilish va unga amal qilmaslik insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy holatida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Sog‘lom turmush tarziga amal qiluvchi insonlar odatda muvozanatli ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, yetarli uyqu va zararli odatlardan voz kechish orqali o‘z salomatligini saqlashga intiladilar. Buning natijasida ularning immun tizimi mustahkamroq bo‘ladi, yurak-qon tomir kasalliklari, qandli diabet, semizlik va ayrim saraton kasalliklariga chalinish xavfi kamayadi. Bundan tashqari, muntazam jismoniy faollik va sifatli uyqu ruhiy salomatlikka ijobiy ta'sir ko‘rsatib, stress, xavotir va depressiya alomatlarining kamayishiga yordam beradi.

Aksincha, sog‘lom turmush tarziga amal qilmaslik noto‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy harakatsizlik, uyqu rejimining buzilishi va zararli odatlarga berilish bilan namoyon bo‘ladi. Bunday omillar organizmning himoya qobiliyatini susaytirib, surunkali kasalliklarning rivojlanish xavfini oshiradi. JSST (Jaxon sog’liqni saqlash tashkiloti) ma'lumotlariga ko‘ra, yuqumli bo‘lmagan kasalliklar sababli yuz beradigan o‘limlarning katta qismi aynan sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslik bilan bog‘liq. Noto‘g‘ri turmush tarzi ortiqcha vazn, arterial gipertenziya, yurak ishemik kasalligi va ikkinchi tur qandli diabet kabi kasalliklarning asosiy xavf omillaridan biri hisoblanadi.

Ruhiy jihatdan ham sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Sog‘lom turmush tarziga amal qiladigan insonlarda ish qobiliyati, diqqat va xotira ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘ladi, kayfiyat barqarorroq saqlanadi hamda hayotdan qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi. Aksincha, tartibsiz hayot tarzi, surunkali charchoq va harakatsizlik stressning kuchayishiga, hissiy zo‘riqish va ruhiy tushkunlikning rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.M. Aripova, H.S. Bo’rixo’jayeva “Sog’lom avlodning tibbiy-ijtimoiy” o’quv qo’llanma. Toshkent-2016-y.
2. Karimova V. Salomatlik psixologiyasi yoxud sog’lom bo’lish uchun ruhiyatni boshqarish sirlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Никифоров Г. С. (ред.) *Психология здоровья: учебник для вузов*. — Санкт-Петербург: Питер, 2006. — 607 с. — (Учебник для вузов). — ISBN 5-318-00668-X.
4. Гаркави Л. Х., Квакина Е. Б., Кузьменко Т. С. *Антистрессорные реакции и активационная терапия*. — М.: Книга по Требованию, 2015. — 559 с

TALABALIK DAVRIDA IRODAVIY SIFATLARNING RIVOJLANISHI VA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH BILAN O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Avezova Baxtigul Xolmurodovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda irodaviy sifatlarning rivojlanishi va ularning o‘zini o‘zi boshqarish bilan bog‘liqligi psixologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mustaqillik, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik va maqsadga intiluvchanlik kabi irodaviy sifatlar talabalarning faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish darajasi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Irodaviy sifatlar o‘zini o‘zi boshqarishning muhim psixologik omili ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: iroda, irodaviy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, talabalik davri, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik, o‘zini nazorat qilish, shaxs rivojlanishi.

Аннотация. В данной статье с психологической точки зрения проанализировано развитие волевых качеств у студентов и их связь с саморегуляцией. Результаты исследования показали, что такие волевые качества, как самостоятельность, ответственность, настойчивость и целеустремленность, неразрывно связаны с уровнем планирования, контроля и управления деятельностью студентов. Установлено, что волевые качества являются важным психологическим фактором саморегуляции.

Ключевые слова: воля, волевые качества, самоуправление, студенческий период, ответственность, решительность, самоконтроль, развитие личности.

Abstract. This article provides a psychological analysis of the development of volitional qualities in students and their correlation with self-regulation. The research results showed that volitional qualities such as independence, responsibility, persistence, and purposefulness are inextricably linked to the level of planning, control, and management of students' activities. It has been established that volitional qualities are an important psychological factor in self-regulation.

Keywords: will, volitional qualities, self-management, student period, responsibility, determination, self-control, personal development.

Kirish: Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash masalalari ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bunday sharoitda talaba shaxsining psixologik rivojlanishi, ayniqsa, uning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatini shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Psixologik tadqiqotlarda o‘zini o‘zi boshqarish shaxsning o‘z faoliyati, hissiyoti va xulq-atvorini ongli ravishda nazorat qilishi, rejalashtirishi va tartibga solishi bilan tavsiflanadi. O‘zini o‘zi boshqarishning samaradorligi esa ko‘p jihatdan shaxsning irodaviy sifatlariga bog‘liqdir. Iroda insonning maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatini boshqaruvchi psixologik mexanizm bo‘lib, qiyinchiliklarni yengish, maqsadga erishish va faoliyatni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydi.

L.S. Vigotskiy, A.N. Leontyev, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananyev, K.K. Platonov kabi olimlarning tadqiqotlarida iroda shaxs faolligining muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilgan. Ularning fikricha, inson faoliyatining muvaffaqiyati nafaqat bilim va ko‘nikmalarga, balki irodaviy sifatlarning rivojlanganlik darajasiga ham bog‘liqdir.

Talabalik davri esa ijtimoiy va kasbiy o‘zini belgilash, mustaqil hayotga tayyorgarlik hamda shaxsiy mas’uliyatning shakllanish davri hisoblanadi. Shu sababli ushbu davrda irodaviy sifatlarning rivojlanishi va ularning o‘zini o‘zi boshqarish bilan bog‘liqligini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri sanaladi.

Tadqiqot maqsadi – talabalik davrida irodaviy sifatlarning rivojlanish darajasi hamda ularning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash.

Tadqiqot metodologiyasi:Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, psixodiagnostik metodlar va matematik-statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotda 18–24 yoshdagi 120 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar turli kurslarda tahsil olayotgan talabalar orasidan tanlab olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodikalardan foydalanildi:

- O‘zini o‘zi boshqarish darajasini aniqlash metodikasi;
- Irodaviy sifatlarni baholash so‘rovnomasi;
- Kuzatish va suhbat metodlari;
- Pearson korrelyatsion tahlili;
- Deskriptiv statistik tahlil.

Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, irodaviy sifatlarning rivojlanganlik darajasi ortishi bilan talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari ham ortadi.

Tadqiqot natijalari:Olingan natijalar talabalarning aksariyatida irodaviy sifatlar o‘rta va yuqori darajada rivojlanganligini ko‘rsatdi. Xususan, mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik va mustaqillik ko‘rsatkichlari boshqa sifatlar bilan solishtirganda yuqoriroq natijalarni namoyon etdi.

Tahlillar natijasida irodaviy sifatlar va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Mas’uliyatlilik va o‘zini o‘zi boshqarish o‘rtasida yuqori darajadagi korrelyatsiya kuzatildi ($r=0,69$; $p<0,01$). Shuningdek, qat’iyatlilik ($r=0,64$; $p<0,01$), mustaqillik ($r=0,58$; $p<0,01$) va sabr-toqat ($r=0,55$; $p<0,01$) ko‘rsatkichlari ham o‘zini o‘zi boshqarish bilan sezilarli darajada bog‘liqligi aniqlandi.

Natijalar talabalarda irodaviy sifatlarning rivojlanishi ularning o‘quv faoliyatini samarali tashkil etish, vaqtni rejalashtirish, akademik vazifalarni bajarish va stressli vaziyatlarda barqarorlikni saqlash imkoniyatlarini oshirishini ko‘rsatdi.

Natijalar muhokamasi:Tadqiqot natijalari zamonaviy psixologik konsepsiyalar bilan uyg‘unlikda talqin qilindi. A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasiga ko‘ra, shaxs faoliyatining muvaffaqiyati maqsad va motivlarning uyg‘unlashuvi bilan belgilanadi. Ushbu jarayonda iroda motivlarni maqsadga yo‘naltiruvchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Olingan natijalar S.L. Rubinshteynning iroda va ongli faoliyat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi qarashlarini ham tasdiqlaydi. Chunki o‘zini o‘zi boshqarishning asosiy komponentlari – rejalashtirish, nazorat qilish va o‘z faoliyatini baholash – bevosita irodaviy jarayonlar bilan

bog‘liqdir.

Talabalik davrida irodaviy sifatlarning rivojlanishi nafaqat akademik muvaffaqiyatni, balki shaxsning kasbiy kompetentligini, liderlik qobiliyatlarini va ijtimoiy moslashuvini ham ta’minlaydi. Ayniqsa, mas’uliyatlilik va qat’iyatlilik talabalarning maqsadga erishishida eng muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari talabalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va rivojlantiruvchi dasturlarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Talabalik davri shaxsning irodaviy va regulyativ xususiyatlari intensiv rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Irodaviy sifatlar talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish darajasini belgilovchi muhim psixologik omillardan biridir.
2. Mas’uliyatlilik, qat’iyatlilik, mustaqillik va sabr-toqat o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari bilan ijobiy bog‘liqlikka ega.
3. Irodaviy sifatlari rivojlangan talabalar o‘quv faoliyatini samarali rejalashtirish va boshqarishda yuqori natijalarni namoyon etadilar.
4. Oliy ta’lim muassasalarida irodaviy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik dasturlarni joriy etish talabalarning o‘zini o‘zi boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshchey psixologii. – SPb.: Piter, 2019.
2. Leontyev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. – Moskva: Smysl, 2005.
3. Vigotskiy L.S. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: AST, 2021.
4. Ananyev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. – SPb.: Piter, 2018.
5. Platonov K.K. Struktura i razvitie lichnosti. – Moskva: Nauka, 2017.
6. G‘oziev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
7. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Tafakkur, 2021.
8. Baumeister R.F., Vohs K.D. Handbook of Self-Regulation. – New York: Guilford Press, 2018.

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Aynazarova Asiya Jumamuratovna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
“Pedagogika va Psixologiya” kafedrasi dotsenti
aynazarovaasiya@gmail.com
913873247
Jaqsimuratova Ziyada Shamurat qizi
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti
Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti
ziyadajaqsimuratova26@gmail.com
913863679

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Sog‘lom turmush tarzi shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning shakllanishida ichki motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy o‘rganish jarayonlari va stressga nisbatan moslashuvchanlik muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotda o‘smirlik va yoshlik davrining psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhit ta’siri hamda zararli va foydali odatlarning shakllanish mexanizmlari yoritiladi. Shuningdek, sog‘lom xulq-atvorni rivojlantirishda kognitiv-xulq-atvor yondashuvining ahamiyati asoslab

beriladi. Maqola natijalari yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan psixologik profilaktika va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.
Kalit so‘zlar : sog‘lom turmush tarzi, psixologiya, yoshlar, motivatsiya, xulq-atvor, o‘z-o‘zini boshqarish, stress, emotsional intellekt, ijtimoiy o‘rganish, odatlar, kognitiv yondashuv, shaxs rivojlanishi, psixologik barqarorlik, sog‘lom xulq-atvor.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические механизмы формирования здорового образа жизни у молодежи. Здоровый образ жизни рассматривается как процесс, тесно связанный с когнитивными, эмоциональными и поведенческими компонентами личности, в формировании которого важную роль играют внутренняя мотивация, саморегуляция, процессы социального обучения и адаптивность к стрессу. В исследовании освещаются психологические особенности подросткового и юношеского возраста, влияние социальной среды, а также механизмы формирования вредных и полезных привычек. Кроме того, обосновывается значение когнитивно-поведенческого подхода в развитии здорового поведения. Результаты статьи могут быть использованы при разработке психологической профилактики и практических рекомендаций, направленных на формирование здорового образа жизни у молодежи.
Ключевые слова : здоровый образ жизни, психология, молодежь, мотивация, поведение, саморегуляция, стресс, эмоциональный интеллект, социальное обучение, привычки, когнитивный подход, развитие личности, психологическая устойчивость, здоровое поведение

Annotation:this article analyzes the psychological mechanisms of forming a healthy lifestyle among young people. a healthy lifestyle is considered as a process closely related to the cognitive, emotional, and behavioral components of personality, in which intrinsic motivation, self-regulation, social learning processes, and stress adaptability play an important role. the study highlights the psychological characteristics of adolescence and youth, the influence of the social environment, as well as the mechanisms of forming both harmful and beneficial habits. in addition, the importance of the cognitive-behavioral approach in developing healthy behavior is substantiated. the results of the article can be used in developing psychological prevention measures and practical recommendations aimed at forming a healthy lifestyle among youth.
Keywords: healthy lifestyle, psychology, youth, motivation, behavior, self-regulation, stress, emotional intelligence, social learning, habits, cognitive approach, personal development, psychological resilience, healthy behavioral.

Kirish. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi psixologiya va ijtimoiy fanlar oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. Chunki sog‘lom turmush tarzi nafaqat biologik yoki tibbiy kategoriya, balki shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor tizimlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan psixologik jarayon sifatida ham qaraladi. Zamonaviy psixologik yondashuvlarga ko‘ra, insonning kundalik odatlari, qaror qabul qilish strategiyalari va motivatsion tizimi uning sog‘lom yoki nosog‘lom turmush tarzini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

O‘smirlik va yoshlik davri shaxsning qadriyatlar tizimi shakllanadigan, ijtimoiy rollar mustahkamlanadigan hamda xulq-atvor stereotiplari paydo bo‘ladigan eng sezgir bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda ijtimoiy muhit, oila, tengdoshlar guruhi va media ta’siri ostida sog‘lom yoki zararli odatlar shakllanishi kuchli kechadi. Psixologik nuqtai nazardan, bu jarayonlar ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, shaxs motivatsiyasi hamda o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan izohlanadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlari sifatida shaxsning ichki motivatsiyasi, o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyati, stressga chidamlilik (coping strategiyalar), emotsional intellekt hamda ijobiy odatlarning mustahkamlanish jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar o‘rtasida sog‘lom xulq-atvorni shakllantirishda faqat axborot berish yetarli emas, balki kognitiv xulq-atvor yondashuvi asosida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish ham zarur. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda raqamli muhitning kengayishi,

stress darajasining ortishi va ijtimoiy bosimlar yoshlarning psixologik barqarorligiga ta’sir ko‘rsatib, sog‘lom turmush tarzini saqlash jarayonini murakkablashtirmoqda. Shu sababli, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarini psixologik jihatdan o‘rganish, uning determinantlarini aniqlash hamda samarali psixoprofilaktik va psixokorreksion yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Sog‘lom turmush tarzi – bu xatti-harakatlarning xavf omillarini nazorat qilish orqali sog‘lig‘ini saqlashga va yuqumli bo‘lmagan kasalliklar xavfini kamaytirishga yordam beradigan insonning turmush tarzidir.Sog‘lom turmush tarzi tamaki va spirtli ichimliklarni iste’mol qilishdan voz kechish, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik , ruhiy salomatlikni mustahkamlash va boshqa sog‘liqni saqlash choralarini o‘z ichiga oladi . Sog‘lom turmush tarzi tamoyillari odatda erta yoshda belgilanadi. Sog‘lom turmush tarzini erta yoshda shakllantirish muhimdir, chunki yoshlarda shakllangan odatlar ko‘pincha balog‘at yoshiga qadar saqlanib qoladi [1].

Bizning fikrimizcha, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat jismoniy salomatlikni mustahkamlashga, balki ularning psixologik barqarorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Chunki sog‘lom hayot tarziga amal qiluvchi yoshlar ijtimoiy muhitga tezroq moslashadi, stress va ruhiy zo‘riqishlarga bardoshli bo‘ladi hamda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishda faolroq harakat qiladi.

Shuningdek, sog‘lom turmush tarzining muhim jihatlaridan biri yoshlarning ongida sog‘lom fikrlash va mas’uliyat hissini shakllantirish hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida turli zararli odatlar, internet qaramligi va nosog‘lom hayot tarzi yoshlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli oilada, ta’lim muassasalarida hamda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish muhim pedagogik va psixologik vazifa hisoblanadi.

Bizning fikrimizga ko‘ra, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda yoshlarning qiziqishlari, individual psixologik xususiyatlari va motivatsiyasini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki majburiy nazorat asosida emas, balki ongli ravishda shakllangan sog‘lom odatlar inson hayotida uzoq muddat saqlanib qoladi. Shu jihatdan, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarini psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda yoshga oid psixogigiyena muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning ruhiy va jismoniy salomatligi har bir yosh davrida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, sog‘lom turmush tarzining shakllanishi aynan shu davrlardan boshlanadi.

Bolaning ruhiy jihatdan sog‘lom rivojlanishi homilalik davridan boshlanadi. Shu sababli homiladorlik davrida onaning gigiyena qoidalariga rioya qilishi, sog‘lom ovqatlanishi va ruhiy osoyishtalikni saqlashi muhim omil hisoblanadi . Bola tug‘ilgandan keyin uning sog‘lom rivojlanishida oilaviy muhit alohida o‘rin tutadi. Bolani tartib asosida tarbiyalash, ijobiy odatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish, ota-onaga, yaqinlariga va Vatanga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini singdirish sog‘lom turmush tarzining dastlabki mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, bolalarda jamoaga hurmat hissini shakllantirish, zararli odatlardan ehtiyot qilish hamda estetik tarbiyani rivojlantirish ularning psixologik salomatligini mustahkamlaydi .Maktab yoshida esa yoshlarning bilim saviyasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va sog‘lom hayot tamoyillariga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantirish muhimdir. Ayniqsa, jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari va sog‘lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish yoshlarda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga xizmat qiladi. Balog‘at yoshida yoshlarni mehnatsevarlikka, kasb tanlashga va mas’uliyatli hayot tarziga yo‘naltirish muhim psixogigiyenik omil hisoblanadi. Ushbu davrda yoshlarni zararli axborotlar, yengil-yelpi filmlar va salbiy oqimlardan himoya qilish, shu bilan birga jinsiy tarbiya va oilaviy hayotga oid zarur tushunchalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi . O‘smirlik davrida hayot, sevgi, oila, baxt va burch kabi tushunchalarni ongli ravishda singdirish yoshlarning ma’naviy va ruhiy barkamolligini ta’minlaydi. Bundan tashqari, atrof-muhitni asrash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirish ham sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [2].

Xulosa

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarida yoshga oid psixogigiyena muhim o‘rin egallaydi. Chunki har bir yosh davrida berilgan to‘g‘ri psixologik va pedagogik tarbiya yoshlarning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi, ijobiy hayotiy qadriyatlarni shakllantiradi va sog‘lom hayot tarziga ongli munosabatni rivojlantiradi. Ayniqsa, oilaviy muhit, ta’lim tizimi va ijtimoiy tarbiya jarayonlarining uyg‘unligi yoshlarning jismoniy va ruhiy salomatligini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bugungi kunda jamiyat oldida turgan eng muhim ijtimoiy, pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Sog‘lom turmush tarzi yoshlarning nafaqat jismoniy salomatligini, balki ularning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy faolligi va ma’naviy kamolotini ham ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzi tamoyillari inson hayotining ilk davrlaridan boshlab shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning shaxsiy namunasi, ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy ishlar hamda yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish sog‘lom hayot tarzini rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biridir. Shuningdek, yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish, sport va jismoniy faollikka jalb etish, sog‘lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirish hamda psixologik salomatlikni mustahkamlash sog‘lom avlodni tarbiyalashning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Yoshga oid psixogigiyena tamoyillariga amal qilish esa yoshlarning ruhiy rivojlanishida, ijobiy hayotiy qadriyatlarni shakllantirishda va ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. uz.wikipediya.org/wiki/soglom_turmush _tarzi
2. Psixologik parvarish Z.S.Yunusjonova , S.A.Mirziyoyeva, E.I.Bositxonova
3. Karimova V.M. Solamatlik psixologiyasi Toshkent-2010.

YOSHLARDA SOGLOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING BUGUNGI KUNDAGI ZARURATI

Djalolova Mohinur Abdusattor qizi
Farg’ona davlat universiteti psixologiya kafedrasi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning bugungi kundagi zarurati, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda yoshlar salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy jamiyatda uchrayotgan harakatsizlik, noto‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlar va ruhiy zo‘riqishlarning yoshlar salomatligiga ta’siri tahlil qilingan. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari va jamiyatning roli ochib berilib, yoshlar orasida sog‘lom hayot madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, yoshlar salomatligi, jismoniy faollik, sog‘lom ovqatlanish, profilaktika, ruhiy salomatlik, zararli odatlar, salomatlik madaniyati, sog‘lom avlod, ta’lim-tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается актуальность формирования здорового образа жизни у молодежи в современных условиях, его научно-теоретические основы и роль в укреплении здоровья молодого поколения. Также проанализировано влияние малоподвижного образа жизни, неправильного питания, вредных привычек и психоэмоционального напряжения на здоровье молодежи. Раскрыта роль семьи, образовательных учреждений и общества в формировании здорового образа жизни, а также представлены рекомендации по развитию культуры здоровой жизни среди молодежи.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье молодежи, физическая активность, здоровое питание, профилактика, психическое здоровье, вредные привычки, культура здоровья, здоровое поколение, образование и воспитание.

Abstract. This article examines the current importance of promoting a healthy lifestyle among young people, its scientific and theoretical foundations, and its role in strengthening youth

health. The study also analyzes the impact of physical inactivity, unhealthy nutrition, harmful habits, and psychological stress on the health of young people in modern society. Furthermore, the role of the family, educational institutions, and society in fostering a healthy lifestyle is highlighted, and recommendations are provided for developing a culture of healthy living among youth.

Keywords: healthy lifestyle, youth health, physical activity, healthy nutrition, prevention, mental health, harmful habits, health culture, healthy generation, education and upbringing.

Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligini saqlash, mustahkamlash va umr davomiyligini oshirishga xizmat qiladigan hayot faoliyati tizimidir. Bugungi kunda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalasi nafaqat tibbiy, balki ijtimoiy, pedagogik va ma’naviy ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki yoshlar jamiyatning eng faol qatlami bo‘lib, mamlakatning kelajakdagi taraqqiyoti, iqtisodiy rivojlanishi va intellektual salohiyati aynan ularning jismoniy hamda ruhiy salomatligiga bog‘liqdir. Sog‘lom turmush tarzi tushunchasi o‘z ichiga to‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, mehnat va dam olish rejimiga amal qilish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya etish, zararli odatlardan voz kechish, ruhiy barqarorlikni saqlash va tibbiy profilaktika tadbirlarida faol ishtirok etishni qamrab oladi. Ushbu omillar inson organizmining normal rivojlanishi va faoliyat yuritishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi davrda ilmiy-texnik taraqqiyot va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlar hayot tarzida sezilarli o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Bir tomondan, zamonaviy texnologiyalar ta’lim olish va axborot almashish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jismoniy harakatning kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Kompyuter, smartfon va internetdan uzoq vaqt foydalanish natijasida yoshlar orasida gipodinamiya, ya’ni harakatsizlik holati keng tarqalmoqda. Bu esa semizlik, yurak-qon tomir kasalliklari, umurtqa pog‘onasi bilan bog‘liq muammolar va boshqa salomatlikka oid xavflarning ortishiga olib keladi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zaruratining yana bir muhim omili noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda tez tayyorlanadigan oziq-ovqatlar, gazlangan ichimliklar va yuqori kaloriyali mahsulotlarning keng iste’mol qilinishi yoshlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Organizm uchun zarur bo‘lgan vitaminlar, minerallar va biologik faol moddalar yetishmovchiligi immunitetning pasayishiga, turli kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Shu bois sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish yoshlar salomatligini saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda zararli odatlar ham yoshlar salomatligiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Tamaki mahsulotlari, alkogol va boshqa zararli vositalarning iste’moli nafas olish, yurak-qon tomir va asab tizimlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, bunday odatlar insonning ijtimoiy faolligi va ma’naviy rivojlanishiga ham salbiy ta’sir etadi. Shu sababli yoshlarni zararli odatlardan himoya qilish va ularda sog‘lom hayot tarziga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar va ortib borayotgan qulayliklar davrida yosh avlod salomatligini saqlash masalasi ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy yoshlar gadjetlar va tez tayyorlanadigan oziq-ovqatlar dunyosiga tobora ko‘proq sho‘ng‘ib borar ekan, jismoniy faollikning yetishmasligi va noto‘g‘ri ovqatlanish odatlari bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Ushbu muammoni hal etish uchun turli ta’lim tashabbuslari, rag‘batlantirish tizimlari va sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini birlashtiruvchi kompleks strategiya zarur. Yoshlar orasida to‘g‘ri odatlarni shakllantirish uchun qulay muhit yaratish ularning jismoniy va ruhiy farovonligini ta’minlashning muhim omiliga aylanmoqda. Bu ayniqsa bugungi kunda dolzarb bo‘lib, texnologik taraqqiyot ko‘pincha sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga zid kelmoqda.

Ko‘pgina tadqiqotchilar talabalar orasida sog‘lom turmush tarziga sodiqlikni rivojlantirishning ikki asosiy strategiyasini ajratib ko‘rsatadilar:

Sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun psixologik ta’sir ko‘rsatish.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish orqali aholi xabardorligini oshirish.

Bugungi kunda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzi haqidagi bilimlarni keng yoyish nihoyatda muhim vazifaga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar va maxsus mobil ilovalarni o‘z ichiga olgan raqamli platformalar yosh avlodni ma’rifatlantirish uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlarni yaratmoqda. Ushbu vositalar orqali yigit-qizlar to‘g‘ri ovqatlanish, jismoniy faollikning ahamiyati va zararli odatlarning salbiy oqibatlari haqida ishonchli ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Axborot-ma’rifiy kampaniyalar yosh avlodda sog‘lom odatlarni shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Zamonaviy yoshlar sog‘lom turmush tarzining afzalliklari haqidagi ilmiy asoslangan va aniq tuzilgan ma’lumotlarni oson qabul qiladilar. Yoshlar sifatli sog‘liq haqidagi materiallardan erkin foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lsalar, ular o‘z salomatligi borasida yanada ongli va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishlari mumkin. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda axborot-ma’rifiy faoliyat bilan bir qatorda qulay infratuzilmani shakllantirish ham muhim o‘rin tutadi. Sport to‘garaklari, fitnes markazlari, sog‘lom ovqatlanish maskanlari, jismoniy faollik uchun ochiq maydonchalar yoshlar orasida foydali odatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, sport bilan shug‘ullanish va sog‘lom turmush tarzini olib borish uchun qulay hamda jozibador imkoniyatlarni yaratish yoshlarning o‘z salomatligiga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Salomatlikka xavf tug‘diruvchi omillarning ahamiyatini anglash sog‘lom turmush tarzining muhim shartlaridan biridir. Talabalarning aksariyati 59,9% sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiya insonning o‘zida shakllanadi deb hisoblaydi. Keyingi o‘rinlarda oilaning ta’siri 36,9 %, davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar 16,3 % va ta’lim muassasalari ta’siri qayd etilgan. Sog‘lom turmush tarzining ommalashuvi yoshlarda ushbu yo‘nalishdagi qarashlarni shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. Undan keyin ommaviy axborot vositalari orqali olingan ma’lumotlar va o‘quv jarayonida egallangan bilimlar turadi. Fakultativ mashg‘ulotlar, murabbiylar hamda professor-o‘qituvchilarning tarbiyaviy ishlari esa sog‘lom turmush tarziga oid qarashlarni shakllantirishda kamroq ahamiyatga ega deb baholangan. “Sog‘lom turmush tarzi” atamasi sog‘liqni shakllantirish haqidagi fan valeologiyaning asoschisi bo‘lgan Isroil Brexman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Valeologiya sog‘lom va muvozanatli ovqatlanish, stresslarning yo‘qligi, ijobiy fikrlash, jismoniy faollik, kun tartibiga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni o‘z ichiga oladi. Yaxshi kayfiyat, a’lo darajadagi salomatlik, insonning muvaffaqiyatli faoliyati va boshqa ko‘plab omillar bevosita uning sog‘lig‘iga bog‘liq. Shu sababli sog‘liqni yoshligidan asrash, uni saqlab qolish va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish hamda eng avvalo sog‘lom turmush tarziga amal qilish zarur. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dunyoda sog‘liq muammolariga bo‘lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Aholining katta qismi o‘z salomatligini nazorat qilishga, to‘g‘ri ovqatlanishga va muntazam sport bilan shug‘ullanishga harakat qilmoqda. Yoshlar salomatligi ko‘rsatkichlarining pasayishi sababli 16–30 yoshdagi insonlar uchun yaxshi jismoniy holatni saqlashga intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko’ra, respondentlarning 41 foizi allaqachon sog‘lom turmush tarziga amal qilishini bildirgan, 40 foizi bunga intilayotganini aytgan, ammo 19 foizi bu masala haqida umuman o‘ylamasligini qayd etgan. Ertalabki odatlarini tavsiflar ekan, respondentlarning 17 foizi erta uyg‘onib badantarbiya qilishga tayyor ekanligini bildirgan, 19 foizi ertalab o‘qish bilan shug‘ullanishini aytgan, aksariyat 64 foizi esa ko‘proq uxlashni afzal ko‘rishini ta’kidlagan. Sport sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. So‘rov ishtirokchilarining atigi 36 foizi muntazam sport bilan shug‘ullanadi. Ularning 19 foizi buni zavq uchun qilsa, 17 foizi yaxshi ko‘rinish va chiroyli qomatga ega bo‘lish maqsadida sport bilan shug‘ullanadi. Respondentlarning 52 foizi bunga erinishi, 12 foizi esa umuman sportni yoqtirmasligini bildirgan. Kun tartibiga rioya qilish sog‘liqni mustahkamlashga xizmat qiladi. Biroq respondentlarning atigi 11 foizi bunga qat’iy amal qiladi. 36 foizi bunga intilayotganini bildirgan bo‘lsa, talabalarning 53 foizi kun tartibiga qat’iy rioya qilmasligini aytgan. Insonning o‘z sog‘lig‘iga bo‘lgan munosabatini tavsiflovchi eng muhim belgilaridan biri zararli odatlarning mavjudligi yoki yo‘qligidir. Sog‘liqqa zarar yetkazuvchi eng keng tarqalgan odatlar qatoriga spirtli ichimliklar iste’moli, chekish, energetik ichimliklarni ichish, ortiqcha

ovqatlanish va boshqalar kiradi. Ko‘pchilik odamlar ularni oz miqdorda iste’mol qilish zarar keltirmaydi, deb hisoblaydi va istalgan vaqtda bu odatlardan voz kechish mumkinligiga ishonadi. So‘rov davomida respondentlarning 11 foizi tez-tez spirtli ichimlik iste’mol qilishini, 20 foizi chekishini tan olgan. 68 foiz ishtirokchi esa zararli odatlarga ega emasligini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 79 foizi kuniga 8 soatdan kam uxlaydi, 21 foizi esa o‘rtacha 8–9 soat uyqu oladi. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilmaslikning asosiy sabablari sifatida talabalar kun tartibining buzilganligi, chekish, doimiy jismoniy va ruhiy yuklamalar, vaqt tanqisligi hamda vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslikni ko‘rsatganlar. Shunga qaramay, respondentlarning 72 foizi talabalar uchun sog‘lom turmush tarziga amal qilish foydali deb hisoblaydi, faqat 28 foizi bunga ehtiyoj yo‘q deb hisoblagan.

Sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirish, sportdagi yutuqlarni e’tirof etish va ijtimoiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlash yoshlarni o‘z salomatligiga ko‘proq e’tibor qaratishga undaydi. Mashhur sportchilar, blogerlar va teleboshlovchilarni sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishga jalb etish ham yoshlar uchun kuchli motivatsion omil bo‘lishi mumkin.

Talabalar universitetlarda sog‘lom turmush tarzini olib borish uchun zarur sharoitlar yaratilishini muhim deb hisoblaydilar. Bular ichimlik suvi bilan ta’minlash, qulay harorat sharoiti, ovqatlanish uchun tanaffuslar va issiq taomlar mavjudligini o‘z ichiga oladi. So‘rov ishtirokchilarining qariyb yarmi sport bilan shug‘ullanishni rag‘batlantirish muhimligini ta’kidlagan bo‘lsa, chorak qismi chekish uchun jarimalar joriy etish foydali bo‘lishini bildirgan. Respondentlarning aksariyati 78,6 % fikricha, salomatlikka mas’uliyatli munosabat kun tartibiga rioya qilish, muvozanatli ovqatlanish, jismoniy faollik, spirtli ichimliklar va tamakidan voz kechishni o‘z ichiga oladi. Ushbu natijalar yoshlarning jismoniy holati yomonlashayotgani, o‘z salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish motivatsiyasining pastligi va zararli odatlarning keng tarqalganligini ko‘rsatadigan boshqa tadqiqotlar bilan hamohangdir. Tadqiqot davomida zararli odatlar, tartibsiz ovqatlanish, uyqu yetishmasligi va jismoniy faollikning kamligi kabi muammolar aniqlangan. Shuningdek, talabalar tomonidan sifatli uyqu, to‘g‘ri ovqatlanish, toza havoda sayr qilish va jismoniy mashqlarning muvaffaqiyatli ta’lim olishdagi ahamiyati yetarli darajada baholanmayotgani ma’lum bo‘lgan.

Zamonaviy yoshlar sog‘lom odatlarni targ‘ib qilishning puxta o‘ylangan tizimiga muhtoj. Ushbu maqsadga erishish uchun keng ko‘lamli axborot kampaniyalaridan tortib qulay muhit yaratishgacha bo‘lgan turli ta’sir vositalaridan foydalanish zarur. Muvaffaqiyatning asosiy omili yosh avlodni ongli ravishda sog‘lom turmush tarzini tanlashga undovchi samarali motivatsiya mexanizmlarini yaratishdir. Faqatgina ana shunday ko‘p qirrali yondashuv orqali yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzi qadriyatlarini barqaror ravishda shakllantirish mumkin.

Sog‘lom turmush tarzi har bir inson hayotining muhim tarkibiy qismidir. Har bir kishi bu tushunchani o‘zicha talqin qiladi. Kimdir uchun bu sport bilan shug‘ullanish, to‘g‘ri ovqatlanish, yetarli uyqu, zararli odatlardan voz kechish va boshqalarni anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar sog‘lom turmush tarziga ijobiy munosabatda bo‘lishlariga va unga amal qilish istagiga ega bo‘lishlariga qaramay, ularning amaldagi hayot tarzi sog‘lom turmush tarziga to‘liq mos kelmaydi. Bu ko‘pchilik respondentlarning ertalabki badantarbiya bilan shug‘ullanishni, sport bilan muntazam shug‘ullanishni, kun va uyqu tartibiga rioya qilishni hamda zararli odatlardan voz kechishni istamasligi bilan tasdiqlanadi. Buning asosiy sabablari talabalar bandligi, bo‘sh vaqtning yetishmasligi, erinchoqlik va kun tartibini to‘g‘ri tashkil eta olmaslik bilan bog‘liq. Demak, talabalarda sog‘liqni farovonlikning muhim omili sifatida anglash hali shakllanish jarayonida bo‘lib, ularda sog‘lom turmush tarziga amal qilish motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Constitution of the World Health Organization. Geneva, 2024.
2. Sog‘lom avlod – jamiyat taraqqiyoti asosi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
3. United Nations Children's Fund. Adolescent Development and Participation. New York, 2023.

4. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. Education and Health Promotion in Schools. Paris, 2022.
5. Ministry of Health of the Republic of Uzbekistan. Aholi salomatligini mustahkamlash bo‘yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2023.
6. World Health Organization. Health Promotion and Disease Prevention Strategies. Geneva, 2023.
7. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
8. Public Health> bo‘yicha zamonaviy ilmiy maqolalar va tadqiqotlar to‘plami. 2021–2025.

SHAXS IDENTIFIKATSIYASI YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI SIFATIDA

Eshmuradova Shoxsanam Shuhrat qizi,
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxs identifikatsiyasining yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Yoshlarning o‘zini anglashi, ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri va psixologik omillarning sog‘lom hayot tarziga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar orasida ijobiy identifikatsiyani rivojlantirish orqali sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish mexanizmlari hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Shaxs identifikatsiyasi, sog‘lom turmush tarzi, yoshlar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy moslashuv, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri, psixologik omillar, o‘zini anglash, ijtimoiy faollik.

Аннотация. В данной статье освещается роль и значение идентификации личности в формировании здорового образа жизни у молодежи. Научно проанализировано влияние самосознания молодежи, принятия социальных ценностей, семейной среды, воздействия сверстников и психологических факторов на здоровый образ жизни. Также разработаны механизмы формирования здорового образа жизни посредством развития позитивной идентификации среди молодежи и представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: Идентификация личности, здоровый образ жизни, социализация молодежи, социальная адаптация, семейная среда, влияние сверстников, психологические факторы, самосознание, социальная активность.

Abstract. This article highlights the role and importance of personal identification in the formation of a healthy lifestyle among young people. The influence of self-awareness, acceptance of social values, family environment, peer influence, and psychological factors on a healthy lifestyle is scientifically analyzed. In addition, mechanisms for establishing a healthy lifestyle through the development of positive identification among youth, as well as practical recommendations, are presented.

Keywords: Personal identification, healthy lifestyle, youth socialization, social adaptation, family environment, peer influence, psychological factors, self-awareness, social activity.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan jamiyatda yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yosh avlodning jismoniy va ruhiy salomatligi nafaqat individual rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omilidir. Shu nuqtai nazardan shaxs identifikatsiyasi yoshlarning sog‘lom hayot tarzini tanlashi va unga amal qilishida muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Yoshlar o‘zining “Men” konsepsiyasini shakllantirish jarayonida turli ijtimoiy guruhlar, qadriyatlar va hayotiy maqsadlar ta’sirida bo‘ladi. Agar yoshda ijobiy identifikatsiya shakllansa, u sog‘lom turmush tarziga intiladi, o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan yondashadi va jamiyatda faol pozitsiyani egallaydi.[6]

[6] 1. Erikson E. *Identity: Youth and Crisis*. — New York: W.W. Norton & Company, 1968. — B. 128–136.

Zamonaviy ijtimoiy muhitning tez o‘zgaruvchanligi yoshlar ruhiyati va ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining kuchayishi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi yoshlarning qadriyatlar tizimi, xulq-atvori va o‘zini anglash jarayoniga yangi talablarni qo‘ymoqda. Natijada yoshlar turli ijtimoiy guruhlar, madaniyatlar va qarashlar ta’sirida o‘z identifikatsiyasini shakllantirishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa ayrim hollarda ichki ziddiyatlar, noaniqlik va shaxsiy beqarorlikni yuzaga keltiradi.

Shaxs identifikatsiyasining shakllanishida muloqot va ijtimoiy munosabatlar muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tengdoshlar guruhi yoshlarning o‘zini baholashi, qiziqishlari va ijtimoiy xulq-atvoriga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yoshlar o‘z tengdoshlari tomonidan qabul qilinishga, e’tirof etilishiga va ijtimoiy mavqega ega bo‘lishga intiladi. Shu orqali ular o‘z imkoniyatlarini namoyon etadi, mustaqil fikrlashni o‘rganadi hamda jamiyatdagi o‘rnini belgilaydi. Agar yoshlar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his qilsa, ularda ijobiy identifikatsiya shakllanadi va bu ularning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga xizmat qiladi.[7]

Biroq zamonaviy yoshlar ko‘pincha kelajak bilan bog‘liq xavotir, ijtimoiy bosim, emotsional beqarorlik va kattalar bilan o‘zaro tushunmovchilik kabi muammolarga duch keladi. Bu holatlar yoshlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga, o‘zini anglashiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Shu sababli yoshlarning shaxs identifikatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirish va ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Yoshlik davri inson hayotidagi eng faol va murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, aynan shu davrda shaxsning hayotiy maqsadlari, qadriyatlari va kelajakdagi ijtimoiy roli shakllanadi. O‘zini-o‘zi rivojlantirish, muvaffaqiyatga erishish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va tan olinishga bo‘lgan ehtiyoj yoshlarning asosiy psixologik xususiyatlaridan biridir. Shu jihatdan qaralganda, shaxs identifikatsiyasi yoshlarning nafaqat ichki psixologik rivojlanishini, balki ularning jamiyatdagi muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ham belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.[8]

Shaxs identifikatsiyasi va sog‘lom turmush tarzi o‘rtasidagi bog‘liqlik. Shaxs identifikatsiyasi insonning o‘zini anglash, o‘z imkoniyatlari va hayotiy maqsadlarini belgilash jarayonidir. Ushbu jarayon yoshlarning qadriyatlari, xulq-atvori va turmush tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zini ijobiy baholaydigan, maqsadlari aniq shakllangan yoshlar sog‘lom turmush tarziga ko‘proq moyil bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzi esa jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish, ruhiy barqarorlik va ijtimoiy faollikni o‘z ichiga oladi. Shaxs identifikatsiyasi ushbu qadriyatlarni qabul qilish va ularga amal qilishning ichki psixologik asosini yaratadi.

Oilaviy muhitning roli. Oilaviy muhit yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilada sog‘lom muhit, ota-onalarning ijobiy namunasi va qo‘llab-quvvatlovchi munosabatlar mavjud bo‘lsa, yoshlarda o‘ziga bo‘lgan ishonch va mas’uliyat hissi shakllanadi. Aksincha, oiladagi nizolar, e’tiborsizlik va salbiy munosabatlar yoshlarning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi hamda ularni zararli odatlarga moyil qilishi mumkin. Shu sababli oilaviy tarbiya shaxs identifikatsiyasining sog‘lom shakllanishida muhim omil hisoblanadi.[9]

---

[7] . Eshmuradova Sh.Sh. “THE INFLUENCE OF PERSONAL IDENTIFICATION ON SOCIALIZATION OF TEENAGERS”- ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2025 Выпуск 37 часть 1 В.14-18

[8] Eshmuradova Sh.Sh. “SHAXS IDENTIFIKATSIYASINING YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” “Psixologiya” jurnal 2025.- B. 71-74

[9] Eshmuradova Sh.Sh. “SHAXS IDENTIFIKATSIYASI – YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI OMILI SIFATIDA: ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY TA’LIM MODELI DOIRASIDA ”“SIFATLI TA’LIM VA INNOVATSION MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI “Ziyo-nashr matbaa”XK 2026 B. 359-362

Tengdoshlar ta’siri va ijtimoiy muhit. Yoshlar uchun tengdoshlar guruhi katta psixologik ahamiyatga ega. Tengdoshlar orasida qabul qilinish ehtiyoji yoshlarning xulq-atvori va hayot tarziga ta’sir qiladi. Ijobiy muhitda shakllangan do‘stlik munosabatlari yoshlarni sport, ta’lim va ijtimoiy faollikka undaydi.

Salbiy ijtimoiy guruhlar esa yoshlarni zararli odatlar, internetga qaramlik yoki nosog‘lom turmush tarziga olib kelishi mumkin. Shu sababli yoshlarning ijtimoiy muhitini nazorat qilish va ularni foydali faoliyatga jalb etish muhimdir.

Psixologik barqarorlik va stressni boshqarish Stress va emotsional zo‘riqish zamonaviy yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ta’limdagi bosim, kelajak haqidagi xavotir va ijtimoiy raqobat yoshlarning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi. Agar yoshlarda mustahkam identifikatsiya shakllanmagan bo‘lsa, ular stressni yengishda qiyinchilikka duch keladi.

Psixologik barqarorlikka ega yoshlar esa muammolarni konstruktiv hal qilishga, sog‘lom turmush tarzini saqlashga va o‘z salomatligiga ongli ravishda yondashishga intiladi. Bu esa identifikatsiya va ruhiy salomatlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ko‘rsatadi.[10]

Raqamli muhit va yoshlar identifikatsiyasi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning dunyoqarashi va qadriyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Virtual muhit yoshlar uchun o‘zini namoyon etish maydoniga aylangan. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy axborotlar va ideal obrazlar yoshlarning o‘ziga baho berishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin.

Biroq raqamli texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish yoshlarning bilim darajasini oshiradi, sog‘lom turmush tarziga oid foydali ma’lumotlarni egallash imkonini yaratadi va ularning ijtimoiy faolligini rivojlantiradi.

Shaxs identifikatsiyasi yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning muhim psixologik mexanizmlaridan biri hisoblanadi. O‘zini anglash, ijobiy qadriyatlarni qabul qilish va jamiyatdagi o‘rnini belgilash yoshlarning hayot tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi, psixologik barqarorlik va raqamli muhit yoshlarning sog‘lom ijtimoiylashuvida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlarning ijobiy identifikatsiyasini rivojlantirish orqali ularni sog‘lom hayot tarziga yo‘naltirish mumkin.

Tavsiyalar

1.Oilalarda sog‘lom psixologik muhit yaratish va ota-onalarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshirish lozim.

2.Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarziga oid psixologik trening va seminarlarni tashkil etish kerak.

3. Yoshlarni sport, madaniy va ijodiy faoliyatlarga keng jalb qilish maqsadga muvofiq.

4. Stress holatlarini kamaytirish uchun psixologik maslahat markazlari faoliyatini kuchaytirish zarur.

5. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish bo‘yicha media savodxonlikni rivojlantirish muhimdir.[11]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Erikson E. *Identity: Youth and Crisis*. — New York: W.W. Norton & Company, 1968. — B. 128–136.

2. Eshmuradova Sh.Sh. “THE INFLUENCE OF PERSONAL IDENTIFICATION ON SOCIALIZATION OF TEENAGERS”- ВЕСТНИК ИНТЕГРАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2025 Выпуск 37 часть 1 B.14-18

3. Eshmuradova Sh.Sh. “SHAXS IDENTIFIKATSIYASINING YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVIGA TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI” “Psixologiya” jurnal 2025.- B. 71-74

[10] Kon I.S. Psixologiya yunosti. — Moskva: Prosvesheniye, 1989. — B. 74–81.

[11] Ismoilov A. Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiylashuv muammolari. — Toshkent: Universitet, 2019. — B. 42–55.

4. Eshmuradova Sh.Sh. “SHAXS IDENTIFIKATSIYASI – YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVI OMILI SIFATIDA: ZAMONAVIY KOMPETENSIYAVIY TA’LIM MODELI DOIRASIDA ”“SIFATLI TA’LIM VA INNOVATSION MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA YONDASHUVLAR” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI “Ziyo-nashr matbaa”XK 2026 B. 359-362

5. Kon I.S. Psixologiya yunosti. — Moskva: Prosvesheniye, 1989. — B. 74–81.

6. Ismoilov A. Yoshlar psixologiyasi va ijtimoiylashuv muammolari. — Toshkent: Universitet, 2019. — B. 42–55.

EKOLOGIK ONG RIVOJLANISHINING TURLI YOSH DAVRIGA XOS PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Fozilova Sabohat Nodir qizi
Ma’mun universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
sabohatfozilova202@gmail.com
Tel : (91) 997 55 45

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik ongning yosh davrlar bo‘yicha rivojlanish dinamikasi va unga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlar tadqiq qilingan. Naturafil metodikasi asosida o‘tkazilgan empirik tadqiqot natijalari ekologik ong komponentlarining (perseptiv-affektiv, kognitiv, amaliy, pragmatik va naturalistik) yoshga qarab sezilarli farq qilishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: ekologik ong, persiptiv-affektiv munosabat, kognitiv munosabat, pragmatik munosabat, naturalistik munosabat, psixologik mexanizmlar, ekologik qadriyatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается динамика развития экологического сознания в зависимости от возраста и влияющие на него психологические механизмы. Результаты эмпирического исследования, проведенного с использованием методики «Натурафил», показали, что компоненты экологического сознания (перцептивно-аффективный, когнитивный, практический, прагматический и натуралистический) значительно различаются в зависимости от возраста.

Ключевые слова: экологическое сознание, перцептивно-аффективное отношение, когнитивное отношение, прагматическое отношение, натуралистическое отношение, психологические механизмы, экологические ценности.

Annotation: In this article, the developmental dynamics of environmental consciousness across different age periods and the psychological mechanisms influencing its formation were investigated. Empirical research conducted using the Naturafil methodology demonstrated that the components of environmental consciousness (perceptual-affective, cognitive, practical, pragmatic, and naturalistic) significantly differ depending on age.

Keywords: ecological consciousness, perceptive-affective attitude, cognitive attitude, pragmatic attitude, naturalistic attitude, psychological mechanisms, ecological values.

Kirish: Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida insoniyatning tabiat bilan o‘zaro munosabatlari tubdan o‘zgarib bormoqda. Aholi sonining ortishi, ishlab chiqarish jarayonlarining kengayishi, tabiiy resurslarning ortiqcha ekspluatatsiya qilinishi hamda ekologik muvozanatning buzilishi natijasida insoniyat oldida jiddiy ekologik muammolar paydo bo‘lmoqda. Mazkur ekologik muammolarni hal etishda shunchaki texnologik yechimlar yetarli emas, balki inson ongining o‘zgarishi, ekologik tafakkur va qadriyatlarning shakllanishi zarurdir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi — **UNEP (United Nations Environment Programme)** tomonidan olib borilgan *“Environment Education and Youth”* loyihasida ta’kidlanishicha, “**yoshlarning ekologik ta’lim va amaliy faoliyatlarda ishtiroki ularning ekologik bilim, qadriyat va mas’uliyat darajasini sezilarli darajada oshiradi**”. [6] Bu fikr ekologik ongni aynan yosh davrlarida shakllantirish zaruratini yaqqol tasdiqlaydi.

Inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tizimi zamonaviy psixologiya fanida ekologik ong fenomeni orqali tahlil qilinadi. Ekologik ongning shakllanishi shaxsning kognitiv bilimlari, affektiv-emotsional munosabati va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u

turli yosh davrlarida turlicha namoyon bo‘ladi. Ekologik ong — bu shaxsning tabiatga nisbatan ongli, qadriy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli munosabatini ifodalaydigan murakkab psixologik tizimdir. U inson psixikasining uchta asosiy sohasi — **bilim (kognitiv)**, **hissiy (emotsional)** va **xulqiy (konativ)** komponentlarini o‘z ichiga oladi. Ekologik ongning shakllanishi insonning psixik rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog‘liq tarzda kechadi. Har bir yosh davrida insonning idrok, tafakkur, hissiy kechinma, qadriyat tizimi va ijtimoiy tajribasi o‘ziga xos tarzda rivojlanadi. Yosh ortgani sayin ekologik tafakkur chuqurlashadi, tabiatga nisbatan empatik munosabat barqarorlashadi, ekologik qadriyatlar esa shaxsiy dunyoqarash tizimiga singib boradi. Mazkur tadqiqot ishini o’tkazishdan maqsad: turli yosh davrlarida ekologik ong rivojlanishining psixologik mexanizmlarini empirik tadqiq etish va Naturafil metodikasi asosida ularning komponentlararo farqlarini aniqlash.

Adabiyotlar sharxi: Ekologik ong rivojlanishining yosh davriga xos psixologik mexanizmlarini tushuntirishda bir necha ilmiy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi: **kognitiv rivojlanish nazariyasi (J. Piaget)**, **qadriyatlar nazariyasi (Sh. Shvarts)** va **ekopsixologik yondashuv (T. Roszak)**.

J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, inson tafakkuri to‘rtta asosiy bosqichda rivojlanadi:

1. **Sensor-motor (0–2 yosh)** – atrof-muhitni sezgi orqali idrok etish bosqichi;
2. **Preoperatsional (2–7 yosh)** – tabiat hodisalarini obrazli fikrlash orqali anglash bosqichi;
3. **Konkret operatsional (7–11 yosh)** – sabab-oqibat aloqalarini tushunish, ekologik hodisalarni tahlil qila olish bosqichi;
4. **Formal operatsional (12 yoshdan yuqori)** – mantiqiy fikrlash, ekologik muammolarni tushunish va ularni hal etish yo‘llarini bashorat qilish bosqichi. [1]

J. Piaget ta’limotiga ko‘ra, ekologik ong aynan konkret va formal operatsional bosqichlarda faol shakllanadi. Chunki bu davrda bola tabiat hodisalari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni mantiqan tushunadi, ekologik xulq va mas’uliyatni shakllantirishga psixik jihatdan tayyor bo‘ladi. **Sh.Shvarts**ning qadriyatlar nazariyasida ekologik qadriyatlar “altruistik” va “biosferik” qadriyatlar turkumiga kiradi. Unga ko‘ra, inson qadriyat tizimi kengaygani sari uning ekologik qarorlari ham mas’uliyatli, ongli va axloqiy tus oladi. Bu shaxsning ekologik ong darajasi qadriyatlar evolyutsiyasi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [2].

T. Roszakning ekopsixologiya yondashuvi ekologik ongni insonning tabiat bilan psixologik birligi sifatida talqin qiladi. T.Roszak nazariyasida insonning ruhiy salomatligi tabiat bilan uyg‘unlikda rivojlanadi. Unga ko‘ra:

-ekologik o‘zini anglash darajasi psixik yetuklik bilan bevosita bog‘liq;

-yosh o‘tgan sayin insonda “biosferik identifikatsiya” — o‘zini tabiatning bir qismi sifatida his etish kuchayadi;

-bu jarayon ekologik xulqni ongli va axloqiy asosda barqarorlashtiradi. [3]

Olimlar tamonidan o’tkazilgan empirik tadqiqotlar ham ekologik ong rivojlanishining yoshga xos mexanizmlarini tasdiqlaydi. **P.Shultzning** tadqiqotlariga ko‘ra, yosh kattalarda ekologik empatiya va tashvish darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Bu yoshda insonning ijtimoiy mas’uliyati kuchayadi, ekologik qadriyatlar esa hayotiy qarorlar tizimiga singadi. [5] **S. Stern** esa o‘z tadqiqotlarida shaxsning ta’lim darajasi, ijtimoiy faolligi va qadriyatlar tizimi ekologik ongni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ta’lim va ijtimoiy ishtirok insonda ekologik tafakkur va barqaror xulq shakllanishini ta’minlaydi. [4]

Yosh davrlar kesimida esa quyidagi psixologik mexanizmlar asosiy rol o‘ynaydi:

- **O‘spirinlik davrida** — tabiatga emotsional yaqinlik va ekologik romantizm shakllanadi;
- **Yoshlik davrida** — ekologik qadriyatlar dunyoqarash tizimiga kiradi, ongli ekologik xulq paydo bo‘ladi;
- **Yetuklik davrida**— ekologik mas’uliyat shaxsiy va ijtimoiy axloqiy tamoyilga aylanadi.

Tadqiqot usuli: Tadqiqotimizda S. D. Deryabo, V. A. Yasvinning Naturafil so'rovnomasidan foydalanildi. Mazkur metodika insonning tabiatga sub'ektiv munosabat intensivligining rivojlanish darajasi va tuzilishini baholash uchun mo'ljallangan. Savolnoma 50 ta

savoldan iborat bo'lib, to'rtta asosiy o'lchovni: persiptiv-affektiv, kognitiv, amaliy, pragmatik va naturalistik shuningdek qo'shimcha munosabatlar intensivligi o'lchovini o'z ichiga oladi. Tadqiqotimizda 398 nafar sinaluvchi qatnashdi . Barcha sinaluvchilarning yosh davrlaridan kelib chiqib uchta davrga ajratildi.

- yoshlik davri (23–27 yosh) – 163 nafar
- yetuklik davrining 1-bosqichi (28–35 yosh) – 118 nafar
- yetuklik davrining 2-bosqichi (36–50 yosh) – 117 nafar

Natijalar tahlili: Naturafil metodikasi natijalari turli yosh davrlarida ekologik ongning tarkibiy komponentlari qanday shakllanishi va rivojlanishini ilmiy asosda tahlil qiladi. Tadqiqotimiz natijalar tahliliga ko'ra, perseptiv-affektiv shkala bo'yicha yoshlik, yetuklik davrining birinchi va ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (h=14,304; p≤0,01). Unga ko'ra, perseptiv-affektiv ko'rsatkich yetuklik davrining birinchi bosqichida yoshlik va yetuklikning ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarga qaraganda yuqori darajada bo'lar ekan. Ushbu holatni yetuklikning birinchi bosqichidagi kishilarda tabiat ob'ektlarini estetik va axloqiy o'zlashtirish darajasida namoyon bo'ladigan tabiatga munosabatini belgilab beruvchi hayotiy tajribalari bilan bog'liq holda izohlashimiz mumkin. Shuningdek, mazkur holat ulardagi kognitiv, ya'ni bilishga bo'lgan ehtiyojning ham ortishiga olib keladi. Fikrimiz isboti sifatida kognitiv shkala bo'yicha, yoshlik, yetuklik davrining birinchi va ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarda ahamiyatli tafovutlar kuzatilganligini keltirib o'tamiz (h=17,214; p≤0,01). Bu yosh davr shaxsning ongli qaror qabul qilish, ekologik xavflarni tahlil qilish va ekologik ongli fikrlash qobiliyatlari eng yuqori bo'lgan bosqich hisoblanadi. Kognitiv ongning oshishi ekologik mas'uliyatning ongli qabul qilinishiga olib keladi.

"Naturafil" metodikasining yosh davrlari bo'yicha natijalar tahlili (Kruskal Uollis mezoni bo'yicha n=398)

Shkalalar	**Yoshi**	**N**	**O'rtacha rang**	**H**	**P**
Persiptiv-affektiv	Yoshlik	163	183,69	14,304	0,001**
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	232,64		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	188,10		
	Jami	398			
Kognitiv	Yoshlik	163	174,72	17,214	0,000**
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	232,10		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	201,14		
	Jami	398			
Amaliy	Yoshlik	163	181,47	7,186	0,028*
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	215,81		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	208,17		
	Jami	398			
Pragmatik munosabat	Yoshlik	163	185,56	9,877	0,007**
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	226,91		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	191,28		
	Jami	398			
Naturalistik	Yoshlik	163	203,60	0,715	0,699
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	200,98		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	192,30		
	Jami	398			
Munosabatlar intensivligi	Yoshlik	163	188,12	12,341	0,001**
	Yetuklikning 1- bosqichi	118	228,50		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	206,19		
	Jami	398			
Umumiy ball	Yoshlik	163	188,12	5,341	0,069

	Yetuklikning 1- bosqichi	118	219,50		
	Yetuklikning 2-bosqichi	117	195,19		
	Jami	398			

Izoh: **p≤0,01; *p≤0,05

Amaliy shkala bo'yicha yoshlik, yetuklik davrining birinchi va ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (h=7,186; p≤0,05). 1-bosqich yetuklik davrida amaliy faoliyat eng yuqori darajaga yetgan. Bu yoshdagi shaxslar nafaqat ekologik fikrlaydi, balki amalda ekologik faol bo'ladi

Pragmatik shkala bo'yicha yoshlik, yetuklik davrining birinchi va ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (h=9,877; p≤0,01). atrof-muhitga utilitar yondashuvni ifodalaydi. Eng yuqori ko'rsatkich yana 1-bosqich yetuklik davrida kuzatilgan. Bu davrda shaxs ekologik qadriyatlarni nafaqat emotsional, balki iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik nuqtai nazaridan ham baholaydi.

Naturalistik shkala bo'yicha natijalar statistik jihatdan ahamiyatli emas. Demak, tabiatni qadrlash, tabiiylikka intilish kabi ichki qadriyatlar yoshdan mustaqil ravishda barqaror qoladi. Bu tug'ma ekologik qadriyat sifatida talqin qilinishi mumkin.

Munosabatlar intensivligi shkalasi bo'yicha yoshlik, yetuklik davrining birinchi va ikkinchi bosqichidagi sinaluvchilarda ishonch darajasidagi tafovutlar kuzatildi (h=12,341; p≤0,01). Natijalarga ko'ra, ekologik muloqot va ijtimoiy ishtirok yoshga qarab farqlanishini ko'rsatadi. Yetuklik davri 1-bosqichida intensivlik eng yuqori bo'lib, bu davrda shaxsning ekologik tashabbuskorlik va jamoatchilik faolligi kuchayadi. Natijalar psixologik rivojlanish bosqichlarida ekologik qadriyatlar va ong shakllanishi bir xil emasligini, ularning ma'lum yoshda maksimal darajaga ko'tarilishini ko'rsatadi.

Xulosa: ekologik ong insonning yoshga oid psixik rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liq murakkab tizimdir. Naturafil metodikasi asosidagi tahlillar ekologik ongning lineer emas, balki **dinamik va yoshga xos mexanizmlar asosida rivojlanishini** aniq ko'rsatdi. Eng muhim psixologik mexanizm – **kognitiv-emotsional integratsiya** erta yetuklik davrida maksimal darajada bo'ladi. Bu davr ekologik ongni shakllantirish bo'yicha psixologik treninglar, ekologik ta'lim va profilaktik dasturlarni joriy etish uchun eng maqbul davrdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children.* New York: International Universities Press.
2. Schwartz, S. H. (1992). *Universals in the Content and Structure of Values.* Advances in Experimental Social Psychology, 25, 1–65.
3. Roszak, T. (1992). *The Voice of the Earth: An Exploration of Ecopsychology.* Simon & Schuster.
4. Schultz, P. W. (2001). *The Structure of Environmental Concern: Concern for Self, Other People, and the Biosphere.* Journal of Environmental Psychology, 21(4), 327–339.
5. Stern, P. C. (2000). *Toward a Coherent Theory of Environmentally Significant Behavior.* Journal of Social Issues, 56(3), 407–424.
6. UNEP (2023). *Environment Education and Youth Initiative Report.* United Nations Environment Programme.

YOSHLAR STRUKTURASI PSIXOLOGIK SALOMATLIK KOMPONENTLARI

Galdiyeva Mehribon Durdiyevna,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
“Psixologiyasi” kafedrasidotsenti,
psixologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
(+90) 358-58-43
E-mail:mehribon.galdiyeva@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar salomatlik tushunchasi shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va ularni bartarafi qilish bo`yicha ma`lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ijtimoiy ta’sir, psixolagik salomatlik, emotsional, kognitiv va xulq-atvor.

Аннотация: В данной статье анализируются социально психологические факторы, формирующие восприятие здоровья среди молодежи, а также информация о способах их устранения.

Ключевые слова: молодежь, социальное влияние, психологическое здоровье, эмоциональное, когнитивное и поведенческое.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological factors that shape the perception of health among young people and information on how to eliminate them.

Keywords: youth, social influence, psychological health, emotional, cognitive, and behavioral.

Psixologik salomatlik tadqiqotining dolzarbligi avvalambor inson hayotiy faoliyati uchun salomatlik fenomenini o‘zining belgilab ahamiyatga ega ekanligi bilan shartlangan. “Salomatlik” tushunchasi sinkretik, ya'ni bir-biridan ajralmaydigan, qorishqoq bo‘lib, bu esa tushunchaning qanchalik murakkab, ko‘p ma'noli va turli tarkibliligini xarakterlaydi.

Inson salomatligining muhim tarkibi bo‘lib psixologik salomatlik hisoblanib, u kasbiy faoliyatining samaradorligi va xuddi shunday, insoning umumiy baxt-saodati, farovonligi uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi. M.F.Sekach fikriga ko‘ra, salomatlik “sosial barqarorlikning va jamiyatda sodir bo‘luvchi jarayonlarning bashorat qilishning muqarrar shart-sharoiti” sifatida ko‘rib chiqilishi lozim [10].

Biroq hozirgi kunga kelib salomatlikni tushunish uchun odatiy bo‘lib qolgan sog‘lom fikrlashning o‘z etarli bo‘ladi degan qarashlar ham haligacha mavjud. Ushbu belgilangan muammoni “psixologik salomatlik” tushunchasi mazmun-mohiyatini dastlabki ilmiy tushunib etish yordamida hal etilishi mumkin. Bunday ilmiy tushunib etish ko‘p sonli ilmiy ishlarda “psixik” va “psixologik” salomatlik tushunchalari o‘rtasidagi aniq, ravshan chegarani yo‘qligi, ayrim nashrlarda esa bitta tushunchani ikkinchisi bilan almashtirib qo‘llanilish holatlarini kuzatilishi bilan yanada qiyinlashadi. Bu holat uzoq vaqt davomida salomatlik muammosi psixologiya fanining qiziqishlari doirasidan chetda qolganligi bilan ham tushuntirilishi mumkin [4].

Ushbu mavzudagi tadqiqotlarning dolzarbgi har bir insonda o‘z shaxsiy salomatligiga abadiy qadriyat sifatidagi munosabatini shaklantirish masalasi hozirgi vaqtga kelib muhim ijtimoiy vazifa bo‘lib qolayotganligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan o‘quv muassasasi sharoitlarida inson salomatlikni saqlash va mustahkamlash imkoniyatlari muammosi turli xil soha mutaxassislari – tibbiyot xodimlari, valeologlar, psixologlar, pedagoglar tomonidan keng muhokama qilinadi.

Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan qabul qilingan salomatlik ta'rifi ushbu fenomenda jismoniy, psixik, sosial va ma'naviy jihatlarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Shu bilan birga anchagina ilmiy ishlarning mualliflari ko‘pincha o‘sib kelayotgan inson salomatligi va uning sog‘lom turmush tarzi haqida so‘z yuritib, jismoniy va psixofiziologik salomatligini nazarda tutib, to‘laqonli salomatlik yaxlit inson shaxsi turmushining natijasi bo‘lib hisoblanishi kabi jiddiy ahvolotni esa nazardan qochirishadi.

Ko‘plab ilmiy izlanishlarda tadqiqot predmeti bo‘lgan salomatlik “sezilmas, ko‘z talanmaydi”gandek bo‘lib qolmoqda va bunda asosan, salomatlik haqida emas, balki uning

buzilishlari, ularning sabablari haqida so‘z yuritilishini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu belgilangan tendensiyalarni reduktiv (chegaralovchi, kamaytiruvchi) deb aytish mumkin bo‘lib, shu munosabat bilan insoniyat ekzistensiyasining (turmushi, mavjudligi) o‘ziga xosligini qamrab olmaydi hamda ilmiy va amaliy vazifalarni hal etishda bir yoqlama yo‘nalishga olib keladi.

Hozirgi vaqtda salomatlikni shaxs rivojlanishining to‘la-to‘kisligi, boyligi nuqtai nazaridan o‘rganish istiqbolli bo‘lib qoladi. Belgilangan ustuvorliklar gumanistik an'analar bilan hamohang bo‘lib, ijtimoiy psixologiya, salomatlik psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi uchun dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada masalaning amaliy jihati ta'lim tizimida ta'lim jarayoni ishtirokchilarining salomatligi va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Mamalakatimizda inson salomatligi oliy qadriyat ekanligining O‘zbekiston aholisi salomatligini saqlash sohasidagi davlat konsepsiyalari va me'yoriy hujjatlarida huquqiy darajada belgilangan ustivor vazifa va davlat strategiyasida aks etganligini isboti sifatida keltirishimiz mumkin.

Sog‘lom turmush tarzi asosini shakllantiruvchi ta'lim tizimi eng muhim strukturalardan biri bo‘lib, shu bilan birgan ta'lim tizimi yosh avlod va umuman millatning psixik, jismoniy va axloqiy salomatligini saqlashga yordam beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili psixologik salomatlikni aksiologik, instrumental va ehtiyoj-motivasion komponentlarni o‘z ichiga oluvchi tizim sifatida ko‘rib chiqilishini ta'kidlash imkonini beradi. Salomatlikka bo‘lgan munosabat va ushbu munosabatning komponentlari salomatlikni saqlash hamda kasallikni engishda muhim ahamiyat kasb etadi.

V. N. Myasishev va A.R.Luriya kasallik mexanizmlarini tadqiq qilish uchun “kasallikning ichki kartinasi” ning ahamiyatini ta'kidlab o‘tishgan.

V.M.Smirnov va T.N.Reznikova esa “kasallikning ichki kartinasi” ga o‘xshatib yangi tushuncha – “salomatlikning ichki kartinasi” ni taklif qilishgan. Salomatlikning ichki kartinasi:

- bu salomatlikka bo‘lgan o‘ziga xos munosabat bo‘lib, u salomatlikning qadr-qimmatini anglash hamda xulq-atvor, emosional va kognitiv sohalarda mukammallashishga faol pozitiv intilishda ifodalanadi;

- bu ma'lum bir psixofizik makon bo‘lib, unda inson o‘zining biologik, sosial-psixologik va ma'naviy imkoniyatlarini baholashga qodir bo‘ladi.

Salomatlikning ichki kartnasi nafaqat o‘z imkoniyatlari haqida, balki o‘zida mavjud bo‘lgan haqiqiy zahira va hali ochilmagan salohiyatlaridan foydalana olishni bilishdan ham iborat bo‘lib, bu esa o‘z navbatida insonga o‘z psixologik salomatligiga bo‘lgan munosabatida faol hayotiy pozisiyani shakllantirish imkonini beradi. V. A. Ananeva fikriga ko‘ra, salomatlikning ichki kartinasi – bu inson salomatligining intellektual ta'rifi (tasavvuri), emosional kechinmalar va his-tuyg‘ular hamda hulq-atvor reaksiyalarining kompleksidir [1]. V.A.Ananev salomatlikning ichki kartinasini psixologik nuqtai nazardan ko‘rib chiqqan holda uning uchta asosiy – emotsional, kognitiv va hulq-atvor qirralarini ajratadi.

“Psixologik salomatlik” tushunchasini shakllanishining tahlili natijalarini umumlashtirgan holda biz uni psixologik salomatlikni shaxsning emosional barqarorligi, o‘z-o‘zini qabul qilish, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqara olish, qadriyat yo‘nalishlarini shakllanganligi, tashqi muhit shart-sharoitlariga moslasha olish sifatida aniqladik.

Psixologik salomatlik haqidagi tasavvurlarni tarixiy rivojlanishi va ushbu tushunchaning mazmunini nazariy ko‘rib chiqishga asoslangan holda biz uning strukturasining komponentlarini ajratdik. Salomatlikning ichki kartinasini psixologik nuqtai nazarda ko‘rib chiqar ekanmiz biz uning shaxs strukturasining hosil qiluvchilari sifatidagi uchta: emosional, kognitiv va xulq-atvor qirralarini ajratdik. Bunda emosional qirrasi psixoemosional status, kognitiv qirrasi – sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlar, xulq-atvor qirrasi esa – o‘ziga bo‘lgan munosabatlar qadriyatlari ko‘rinishida ifodalangan.

Psixoemosional status psixologik salomatlik strukturasining eng asosiy va muhim komponenti bo‘lib, u psixikaning regulyator imkoniyatlari hamda mohiyat potensiyasini o‘z-o‘zini regulyasiya qilishi daraja va saviyasi bilan belgilanadi [8]. U xavotirlanish darajasi, emosional barqarorlik, shaxs turg‘unligi hamda o‘quv muassasasining ta'lim muhitidan qoniqqanlik darajasida ifodalanadi.

Kasbiy ta'lim bosqichida sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlarning shakllaganligi rivojlanayotgan shaxsga pozitiv ta'sir ko‘rsatib, uning natijalarini esa quyidagi tarzda ko‘rsatish mumkin:

1) o‘ziga shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabat qadriyati, o‘z-o‘zini anglash faoliyatini stimullashning psixologik mexanizmlari rivojlanadi;

2) “gumanitar madaniy pozisiya” va unga muvofiq bo‘lgan tasfakkur tarzi shakllanadi. Bunda gumanitar pozisiyaning asosiy xarakteristikalari: a) voqelikning turli tomonlariga nisbatan sub'ektiv munosabat, shu jumladan shaxsiy nuqtai nazarni ifodalaovchi o‘ziga bo‘lgan munosabat; b) dialog va tushunishga asoslangan jonli va tarafkash munosabatni nazarda tutuvchi munosabat qadriyati bo‘lib hisoblanadi;

3) inson salomatligi va ijodiy faoliyat asosini shakllantirilishiga javob beruvchi kasbiy shakllanish va shaxs bo‘lib qaror topish uchun sharoitlar yaratiladi;

4) shaxsning o‘z-o‘zini dolzarblashtirish, hayotiy o‘z-o‘zini aniqlashda adekvat “Men” obrazini shakllantirish ehtiyoji qondiriladi.

Psixologik salomatlik strukturasining keyingi komponenti o‘z-o‘ziga munosabat qadriyati hisoblanadi. Psixologik salomatlikka avvalambor insonni o‘ziga, boshqa odamlarga, umuman hayotgan bo‘lgan munosabatlari tizimi; insonning hatiy maqsadlari va qadriyatlari, shaxsning o‘ziga xosliklari ta'sir ko‘rsatadi (S.L.Bratchenko, O.S.Vasileva, N.G. Nikiforov). Shu bilan birga mualliflarni ta'kidlashicha, salomatlikni hosil qiluvchilarining har biriga alohida ta'sir ko‘rsatuvchi sifatida ushbu omillarni ko‘rib chiqilishi anchagina shartli bo‘lib, chunki ularning har biri yaqindan o‘zaro aloqada bo‘ladi [3,7].

Xulosa qilib aytganda, “psixologik salomatlik” tushunchasini nazariy ko‘rib chiqish asosida psixologik salomatlik strukturasining eng muhim komponentlari ajratib ko‘rsatildi:

- psixoemosional status (shaxs xavotirliligi darajasi, emosional barqarorlik (stabillik), o‘quv muassasasining ta'lim muhitiga bo‘lgan muosabati);
- o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzi haqidagi tasavvurlari (sohlom turmush tarzining hosil qiluvchilari haqidagi);
- o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat qadriyati (o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z-o‘zini baholash, qadriyatlar yo‘nalishi).

Shu tariqa, o‘quvchi shaxsini qaror topishining barcha bosqichlarida psixologik salomatlik strukturasi komponentlarini shaxsni o‘z-o‘zini dolzarblashtirish kompetensiyasini shakllantirish yordamida ro‘yobga chiqarish, ularni psixologik salomatligi va kasbiy rivojlanishining shart-sharoitini tashkil etadi.

Adabiyotlar:

1. Ананьев, В.А. Психология здоровья: пути становления новой отрасли человекознания/ В.А. Ананьев // Психология здоровья / Под ред. Г.С. Никифорова. – СПб., 2000.
2. Брехман, И.И. Валеология – наука о здоровье /И.И. Брехман// М.: ФиС, 1996.
3. Васильева, О.С. Исследование представлений о здоровом образе жизни/ О.С. Васильева, Е.В. Журавлева // Психологический вестник РГУ. – Ростов-на-Дону, 1997. Вып. 3.
4. Васильева О.С. Филатов Ф.Р. Психология здоровья человека. – М.: 2000. Маслоу, А. Самоактуализация /А. Маслоу // Психология личности: Тексты. – М., 1982.
5. Меграбян А.А. Личность и сознание / А.А. Меграбян // М.: Просвещение, 1978.
6. Оксанич, С. И. Психолого-педагогические условия сохранения и поддержания психологического здоровья студентов. Монография.- Пятигорск: ПГЛУ, 2008.
7. Никифоров Г.С. Психология здоровья. – СПб., 2002.
8. Оксанич, С. И. Психология кризисных ситуаций. Учебно-методическое пособие для студентов.- Пятигорск: ПГЛУ, 2013.
9. Семенов, В.С. Культура и развитие человека /В.С. Семенов // Вопросы философии. – 1982. – №4. – С. 15-29.
10. Секач М.Ф. Психология здоровья. – М.: 2003.

PSIXOLOGIK BILIMLARNING OILAVIY TARBIYA JARAYONIDA AHAMIYATI

Iskandarov Erkinboy G‘ayrat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi v.b. dotsenti
Tangriberganova Hilola Umrbek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Psixologiya yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda oilaviy tarbiya jarayonida psixologik bilimlarning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ota-ona kompetentligini psixologik yondashuvlar asosida kuchaytirish mexanizmlarini asoslashdir. Metodologiya sifatida rivojlanish psixologiyasi, oilaviy tizimlar yondashuvi va kommunikativ psixologiya g‘oyalari qo‘llanadi. Ilmiy yangilik tarbiya samaradorligini emotsional o‘zini boshqarish, ijobiy intizom va xavfsiz bog‘lanish indikatorlari bilan izohlashdadir.

Kalit so‘zlar : oilaviy tarbiya; ota-ona kompetentligi; emotsional o‘zini boshqarish; xavfsiz bog‘lanish; ijobiy intizom; oilaviy kommunikatsiya; rivojlanish psixologiyasi.

Annotatsiya. В тезисе анализируется значение психологических знаний в процессе семейного воспитания как фактора повышения родительской компетентности. Цель работы состоит в обосновании механизмов эффективного воспитательного влияния на основе возрастной и семейной психологии. Методологическую основу составляют системный подход, идеи привязанности и модели конструктивной коммуникации. Научная новизна заключается в интеграции индикаторов эмоциональной саморегуляции, позитивной дисциплины и качества взаимодействия для оценки результативности воспитания.

Ключевые слова: семейное воспитание; родительская компетентность; эмоциональная саморегуляция; надежная привязанность; позитивная дисциплина; семейное общение; психология развития.

Annotatsiya. This thesis examines the role of psychological knowledge in family upbringing as a key condition for strengthening parental competence. The aim is to substantiate mechanisms of effective воспитание through developmental psychology, family-systems perspectives, attachment theory, and constructive communication models. The scientific novelty lies in linking parenting effectiveness to measurable indicators of emotional self-regulation, positive discipline, and interaction quality, thus providing an analytically grounded framework for preventive and supportive family education practices.

Keywords: family upbringing; parenting competence; emotional self-regulation; secure attachment; positive discipline; family communication; developmental psychology.

Kirish

Oilaviy tarbiya psixologiya fanida shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar tizimi va xulqiy me’yorlar shakllanishining birlamchi makoni sifatida ta’riflanadi, chunki bola ilk tajribalarni aynan oilaviy munosabatlar orqali ichkilashtiradi. Ushbu jarayonning mexanizmi shundan iboratki, ota-ona va bola o‘rtasidagi kundalik muloqot, taqlid, mustahkamlash va chegaralarni belgilash orqali neyropsixologik va ijtimoiy-kognitiv tizimlar bir vaqtda rivojlanadi, natijada xulqning o‘zini boshqarish komponentlari barqarorlashadi. Masalan, ota-ona bola hissiyotini nomlab berib, unga mos javob qaytarsa, bola “hissiy lug‘at”ni egallaydi va nizoli vaziyatda agressiv javob o‘rniga so‘z bilan ifodalashni o‘rganadi. Amaliy kuzatuvlarda konstruktiv muloqot elementlari qo‘llaniladigan oilalarda bolalarning maktabga moslashuvi va intizomiy ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilanishi qayd etiladi, bu holat turli tadqiqotlarda ota-ona ishtiroki va bolalarning akademik natijalari o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik borligini ko‘rsatadigan raqamlar bilan ham mos keladi [1]. Ilmiy izoh sifatida, rivojlanish psixologiyasi nuqtayi nazaridan, oilaviy tarbiya “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiruvchi ijtimoiy vositachilikni ta’minlaydi va psixologik bilimlar ota-onaga aynan qaysi vaziyatda qanday qo‘llab-quvvatlash usuli samarali bo‘lishini anglash imkonini beradi [2].

Psixologik bilimlar deganda shaxs rivojlanishi, motivatsiya, emotsiyalar, muloqot va konfliktlarni boshqarish haqidagi ilmiy asoslangan tushunchalar majmui nazarda tutiladi, chunki tarbiyada intuitiv qarorlar ko‘pincha barqaror natija bermaydi. Bu bilimlarning mexanizmi amaliyotga o‘tishda “diagnostika–prognoz–ta’sir–baholash” zanjiri orqali namoyon bo‘ladi, ya’ni ota-ona avval bolaning yosh xususiyatini va ehtiyojini to‘g‘ri anglaydi, keyin xulqni bashorat qiladi, mos tarbiyaviy usulni tanlaydi va natijani kuzatib, o‘z yondashuvini moslashtiradi. Masalan, maktabgacha yoshda injiqlik ko‘pincha “diqqat va chegaralar” signali bo‘lib, jazoga emas, balki tartibli rejim va tanlov berish orqali ijobiy intizomga yo‘naltirilsa, bola o‘zini boshqarish ko‘nikmasi tezroq shakllanadi. Tadqiqotlar ota-onalarning psixologik savodxonligi oshirilganda bolalarda muammoli xulq chastotasi pasayishi va o‘zaro munosabatlar sifati yaxshilanishini ko‘rsatadi, bu esa profilaktik psixologik dasturlarning samaradorligi haqidagi metatadqiqot xulosalariga hamohangdir [3]. Ilmiy izoh shundan iboratki, oilaviy tizimlar yondashuvida bir a’zo xulqidagi o‘zgarish butun tizim muvozanatini o‘zgartiradi, demak, ota-onaning psixologik bilimga tayangan yangi strategiyasi oiladagi umumiy emosional iqlimni ham sog‘lomlashtiradi [4].

Asosiy qism

Ota-ona kompetentligi tarbiyaviy vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qadriyatlar integratsiyasi sifatida ta’riflanadi, chunki tarbiya faqat nazorat emas, balki rivojlantiruvchi hamkorlikdir. Bu kompetentlikning mexanizmi uch asosiy komponent orqali ishlaydi: affektiv sezgirlik (bola hissiyotini tushunish), kognitiv yo‘naltirish (qoidalarni ma’noli tushuntirish) va xulqiy konsistentlik (barqaror talab va oqibatlar), natijada bola uchun aniq va xavfsiz psixologik muhit yaratiladi.

Masalan, o‘smir bilan kelishuv tuzish, uy vazifasi va gadjet vaqti bo‘yicha o‘zaro qoidalar belgilash konsistentlikni ta’minlab, konfliktni shaxsga emas, muammoga qaratadi. Empirik ishlarda konsistent tarbiya uslubi yuqori bo‘lgan oilalarda o‘smirlar risk-xulq ko‘rsatkichlari pastroq bo‘lishi qayd etiladi, bu esa tarbiyadagi prognoz qilinuvchanlikning himoya omili ekanini raqamiy tendensiyalar bilan tasdiqlaydi [5]. Ilmiy izoh sifatida, ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bola nafaqat aytilgan talabni, balki ota-onaning o‘zini tutish uslubini ham model sifatida qabul qiladi, shuning uchun psixologik bilim ota-onaga “namuna bo‘lish” mexanizmini ongli boshqarishga yordam beradi [2].

Xavfsiz bog‘lanish tushunchasi bola va parvarishlovchi shaxs o‘rtasida ishonchga asoslangan emotsional aloqaning barqaror shakli sifatida ta’riflanadi, chunki bu aloqa keyingi munosabatlar va stressga chidamlilikning psixologik poydevorini belgilaydi. Bog‘lanishning mexanizmi sezgir javob qaytarish, yaqinlikni ta’minlash va ajralishdan keyin tiklanish tajribalari orqali shakllanadi, natijada bola atrofni o‘rganishda dadil, xavf bo‘lganda esa yordam so‘rashda erkin bo‘ladi. Masalan, ota-ona bolani yig‘lagani uchun uyaltirmasdan, hissiy holatini tinchlantirish usullarini ko‘rsatib bersa, bola stress vaziyatida o‘zini boshqarishning adaptiv strategiyalarini egallaydi. Rivojlanish psixologiyasidagi ko‘plab kuzatuvlar xavfsiz bog‘lanish bilan yuqori ijtimoiy moslashuv o‘rtasida ijobiy bog‘lanish borligini ko‘rsatadi, shuningdek, erta davrdagi barqaror parvarish keyingi yillarda tashvish va agressiya alomatlari xavfini kamaytirishi haqida statistik xulosalar mavjud [6]. Ilmiy izoh shundan iboratki, neyrobiologik nuqtayi nazarda xavfsiz bog‘lanish stress gormonlari regulyatsiyasini optimallashtiradi, bu esa prefrontal korteks funksiyalarining yetilishiga ko‘maklashib, rejalashtirish va impuls nazoratini kuchaytiradi [6].

Ijobiy intizom tarbiyada jazolashga tayangan nazoratdan ko‘ra, qoidalarni o‘rgatish va o‘zini boshqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida ta’riflanadi, chunki maqsad qo‘rquv emas, mas’uliyatni shakllantirishdir. Ushbu yondashuv mexanizmi aniq kutilmalar, mantiqiy oqibatlar, rag‘bat va emotsional ko‘makning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi, natijada bola xulqini tashqi bosim bilan emas, ichki me’yor bilan tartibga solishni o‘rganadi. Masalan, bola o‘yinchoqlarni yig‘ishtirmasa, baqirish o‘rniga “o‘yinchoq yig‘ilmaguncha yangi o‘yin boshlanmaydi” kabi mantiqiy oqibat qo‘llanishi intizomni konfliktga aylantirmasdan mustahkamlaydi. Pedagogik-psixologik dasturlar tahlilida ijobiy intizom elementlari tatbiq etilgan guruhlarda muammoli xulq epizodlari kamayishi va o‘quv motivatsiyasi ko‘tarilishi qayd etilgan

bo‘lib, bu natijalar ijobiy mustahkamlashning samaradorligini ko‘rsatuvchi raqamlar bilan izohlanadi [3]. Ilmiy izoh sifatida, operant o‘rganish mexanizmlarida rag‘bat va oqibatlar xulq chastotasini boshqaradi, biroq psixologik bilim rag‘batni shaxsni emas, harakatni baholash tamoyili bilan berishni ta’minlab, o‘z-o‘zini qadrlashning barqarorligiga xizmat qiladi [1].

Oilaviy kommunikatsiya tarbiyaviy ta’sirning asosiy vositasi bo‘lgan axborot va emotsiya almashinuvi tizimi sifatida ta’riflanadi, chunki ko‘p nizolar mazmun emas, muloqot uslubi tufayli chuqurlashadi. Uning mexanizmi “eshitish–aks ettirish–kelishish” bosqichlari orqali ishlaydi, ya’ni avval faol tinglash bilan pozitsiyalar aniqlanadi, keyin hissiyotlar validatsiya qilinadi, so‘ng yechim bo‘yicha kelishuv tuziladi. Masalan, o‘smirning bahosi pasayganda “sen dangasasan” degan yorliq o‘rniga “men xavotirdaman, sababini tushunaylik” deyish, himoyalanish reaksiyasini kamaytirib, hamkorlikni oshiradi. Tadqiqotlar konstruktiv kommunikatsiya ko‘nikmalari oilaviy qoniqish va psixologik farovonlik bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi, shuningdek, nizolarni tinch hal qilish ko‘nikmasi yuqori bo‘lgan oilalarda ajrim xavfi va surunkali konflikt darajasi pastroq bo‘lishi kuzatiladi [4]. Ilmiy izoh shundan iboratki, kommunikativ yondashuvlarda “men-xabarlar” va reflektiv tinglash affektiv qo‘zg‘alishni pasaytirib, kognitiv qayta baholashni faollashtiradi, bu esa tarbiyaviy ta’sirni zo‘ravonliksiz va barqaror qiladi [5].

Oilaviy tarbiya jarayonini baholash mezonlari psixologik jihatdan aniqlanadigan indikatorlar majmui sifatida ta’riflanadi, chunki natijani o‘lchamasdan turib usulning samaradorligini ilmiy asosda isbotlab bo‘lmaydi. Baholash mexanizmi kuzatuv, so‘rovnoma va rivojlanish ko‘rsatkichlarini taqqoslash orqali quriladi, natijada emotsional iqlim, chegaralar barqarorligi va bola moslashuvchanligi singari ko‘rsatkichlar tizimli tahlil qilinadi. Masalan, “ota-ona–bola muloqoti sifati” indikatorini haftalik nizolar soni, ularning davomiyligi va tiklanish tezligi orqali amaliy o‘lchash mumkin, bu tarbiyadagi o‘zgarishlarni ko‘rsatadigan dinamik mezon beradi. Psixologik xizmat amaliyotida bunday indikatorlar qo‘llanganda profilaktik dasturlar samaradorligini solishtirish osonlashadi, masalan, treningdan oldin va keyin konflikt chastotasining kamayishi yoki bola tashvish shkalasidagi ballarning pasayishi qayd etiladi [1]. Ilmiy izoh sifatida, validlik va reliabellik talablari indikatorlarni standartlashtirishni taqozo etadi, shu bois oilaviy tarbiyaga doir psixologik bilimlar nafaqat tarbiyalash, balki ilmiy monitoring va korreksion rejalashtirish uchun ham zarurdir [3].

Xulosa

Oilaviy tarbiya shaxs rivojlanishining markaziy omili bo‘lib, psixologik bilimlar uni intuitiv tajribadan ilmiy asoslangan amaliyot darajasiga ko‘taradi. Psixologik yondashuvlar ota-ona kompetentligini affektiv sezgirlik, kognitiv yo‘naltirish va konsistent xulqiy strategiyalar orqali mustahkamlaydi hamda xavfsiz bog‘lanish va ijobiy intizomni qo‘llab-quvvatlaydi. Konstruktiv kommunikatsiya nizolarni kamaytirib, tarbiyaviy ta’sirning zo‘ravonliksiz va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Baholash indikatorlari orqali tarbiya natijalari kuzatilib, profilaktika va rivojlantiruvchi dasturlarni aniq rejalashtirish imkoniyati kengayadi. Shu tariqa, psixologik bilimlar oilaviy tarbiyada bolalarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘qish motivatsiyasini kuchaytiruvchi integrativ ilmiy resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. G‘oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent, O‘qituvchi, 2010. 456 b.
2. Vygotskiy L. S. Myshlenie i rech. Moskva, Labirint, 2019. 352 s.
3. Bandura A. Social learning theory. Englewood Cliffs, Prentice-Hall, 1977. 247 p.
4. Satir V. The new peoplemaking. Mountain View, Science and Behavior Books, 1988. 404 p.
5. Karabanova O. A. Semeynaya psikhologiya. Moskva, Gardariki, 2007. 352 s.
6. Bowlby J. Attachment and loss. Vol. 1: Attachment. New York, Basic Books, 1969. 428 p.

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Ismoilova Asilpashsha Rojabovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi yoshlar orasida sog‘lom hayot tarzini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish yo‘llarini asoslashdan iborat. Ishda sog‘lom turmush tarzining tarkibiy elementlari, unga ta’sir etuvchi omillar hamda zamonaviy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Tahlil natijalari sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Maqolada amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, yoshlar, motivatsiya, salomatlik, jismoniy faollik, psixologik omillar, profilaktika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические, психологические и социальные механизмы формирования здорового образа жизни у молодежи. Цель исследования заключается в определении факторов, способствующих формированию здорового образа жизни, и обосновании путей их внедрения в практику. Анализируются основные компоненты здорового образа жизни, факторы влияния и современные подходы. Результаты показывают, что комплексный подход играет ключевую роль в формировании здоровых привычек у молодежи. Представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, молодежь, мотивация, здоровье, физическая активность, психологические факторы, профилактика.

Abstract: This article examines the pedagogical, psychological, and social mechanisms of developing a healthy lifestyle among young people. The aim of the study is to identify key factors influencing healthy lifestyle formation and to justify their practical implementation. The paper analyzes the main components of a healthy lifestyle, influencing factors, and modern approaches. The findings indicate that a comprehensive approach plays a crucial role in developing healthy habits among youth. Practical recommendations are provided.

Keywords: healthy lifestyle, youth, motivation, health, physical activity, psychological factors, prevention.

Kirish

Hozirgi kunda yoshlar salomatligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida yoshlarning turmush tarzida jismoniy faollikning kamayishi, noto‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlarga moyillik kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Bu esa nafaqat ularning sog‘lig‘iga, balki kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u pedagogik, psixologik va ijtimoiy ta’sirlar uyg‘unligini talab etadi. Shu sababli mazkur muammoni kompleks yondashuv asosida o‘rganish va samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarini kompleks tarzda o‘rganish hamda ularni amaliyotga joriy etishning samarali yo‘llarini asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida ta’lim muassasalari, oila va ijtimoiy muhitning yoshlar hayot tarziga ta’siri chuqur o‘rganilib, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ushbu omillarning o‘zaro bog‘liqligiga asoslanadi. Bundan tashqari, yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirish, to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini shakllantirish hamda zararli illatlardan voz kechishga undovchi psixologik va pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Avvalo, yoshlarda sog‘lom turmush tarzining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish hamda uning tarkibiy elementlarini aniqlash zarur. Bundan tashqari, yoshlarning sog‘lom hayot tarziga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirish mexanizmlarini aniqlash, ularning xulq-atvoriga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni baholash ham tadqiqot doirasiga kiradi. Shuningdek, yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirish, to‘g‘ri ovqatlanish odatlarini shakllantirish va zararli odatlardan voz kechishga undovchi pedagogik hamda psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.Yakuniy bosqichda esa olingan natijalarga asoslanib, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va ularni ta’lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlarini belgilash ko‘zda tutiladi.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda psixologik omillar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Avvalo, shaxsning o‘z sog‘lig‘iga nisbatan ongli munosabati shakllanishi zarur. Agar yoshlar salomatlikni muhim qadriyat sifatida qabul qilsa, ular o‘z hayot tarzini ongli ravishda nazorat qilishga intiladi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta’siri ham muhim o‘rin tutadi. Oila, ta’lim muassasalari va tengdoshlar muhitida shakllanadigan qadriyatlar yoshlarning turmush tarziga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, oilaviy tarbiya jarayonida sog‘lom odatlarning singdirilishi yoshlarning keyingi hayotida mustahkam o‘rin egallaydi.

Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish muhimdir. Interaktiv metodlar orqali yoshlar sog‘lom hayotning afzalliklarini chuqurroq anglaydi. Bu esa ularning hayot tarzini ongli ravishda o‘zgartirishga yordam beradi.

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda odatlarning barqaror shakllanish mexanizmi alohida ahamiyat kasb etadi. Sog‘lom xulq-atvor bir martalik harakatlar natijasida emas, balki muntazam takrorlanadigan faoliyat asosida shakllanadi. Shu sababli yoshlar hayotida sog‘lom odatlarni bosqichma-bosqich joriy etish muhim hisoblanadi. Dastlab oddiy jismoniy mashqlarni bajarish, kundalik rejimga rioya qilish kabi kichik qadamlar orqali boshlanadigan jarayon asta-sekin barqaror turmush tarziga aylanadi.

Shuningdek, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda irodaviy sifatlarning rivojlanganligi muhim rol o‘ynaydi. Shaxsning o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ya olishi, unga erishishda qat’iyatli bo‘lishi va turli salbiy ta’sirlarga qarshi tura olishi sog‘lom hayot tarzining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Irodaviy sifatlar yetarli darajada rivojlanmagan hollarda esa yoshlar zararli odatlarga tezroq moyil bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda emotsional barqarorlik muhim omil hisoblanadi. Ijobiy psixologik holat yoshlarning o‘z sog‘lig‘iga nisbatan mas’uliyatini oshiradi, salbiy emotsiyalar esa aksincha, noto‘g‘ri xulq-atvorga olib kelishi mumkin. Shu sababli stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish sog‘lom turmush tarzining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ichki motivatsiyaning mavjudligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ichki motivatsiya shakllangan yoshlar jismoniy faollikni muntazam amalga oshiradi, to‘g‘ri ovqatlanishga rioya qiladi va zararli odatlardan ongli ravishda voz kechadi. Shuningdek, ijtimoiy muhit, xususan oila va ta’lim muassasalarining qo‘llab-quvvatlashi sog‘lom odatlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun pedagogik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni kompleks ravishda qo‘llash zarur.

Ta’lim muassasalarida sog‘lom hayot tarziga oid bilimlarni tizimli ravishda berish, yoshlar orasida jismoniy faollikni rag‘batlantirish va zararli odatlardan voz kechishga undovchi muhitni yaratish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, oilaviy tarbiya va ijtimoiy muhitning ijobiy ta’siri sog‘lom odatlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish, raqamli texnologiyalardan

samarali foydalanish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. Health Promotion and Healthy Lifestyle among Youth. – Geneva: WHO Publications, 2023.

2. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory and Healthy Motivation in Adolescents. – Journal of Adolescent Health, 2023.

3. Zimmerman B.J. Self-Regulated Learning and Health Behavior Development. – Educational Psychologist, 2023.

4. Schunk D.H. Motivation, Learning, and Psychological Development of Youth. – New York: Routledge, 2024.

5. Boekaerts M. Modern Approaches to Motivation and Well-Being in Education. – Springer, 2024.

6. OECD. Youth Well-Being, Mental Health and Healthy Lifestyle Report. – Paris: OECD Publishing, 2024.

7. UNICEF. Adolescent Health and Social Behavior in the Digital Era. – New York, 2023.

8. Маркова А.К. Психология здорового образа жизни молодежи. – Москва: Юрайт, 2023.

9. Зимняя И.А. Педагогика здоровья в условиях цифрового общества. – Москва, 2024.

10. Абдуқодиров А.А. Рақамли таълим муҳитида ёшлар тарбияси ва саломатлиги. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2023.

MUNIS XORAZMIY ASARLARIDA MILLIY MA’NAVIYAT VA AXLOQIY QADRIYATLAR - SHAXS KAMOLOTINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA

Kalandarova Mavluda Amanbayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada XIX asr Xorazm adabiy va pedagogik muhitining yirik namoyandasi Munis Xorazmiyning “Savodi ta’lim” risolasi va boshqa asarlari asosida yoshlar ta’lim-tarbiyasi, xat va husnixat madaniyati hamda ustoz-shogird an’analari tahlil qilingan. Shuningdek, mutafakkir yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhit, ilm va hunar ahlining mavqeyi hamda solnomalarning bugungi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishdagi pedagogik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Munis Xorazmiy, “Savodi ta’lim”, milliy ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, shaxs kamoloti, ustoz-shogird, Xiva xonligi solnomalari, ta’lim uslubiyoti, husnixat.

Аннотация: В статье анализируются вопросы воспитания молодежи, культуры письма и каллиграфии, а также традиции «наставник-ученик» на основе трактата «Саводи талим» и других произведений Муниса Хорезми, выдающегося представителя хорезмской литературной и педагогической среды XIX века. Также рассматриваются социально-политическая атмосфера эпохи, статус людей науки и ремесла, педагогическое значение летописей в повышении духовности современной молодежи.

Ключевые слова: Мунис Хорезми, «Саводи талим», национальная духовность, нравственные ценности, развитие личности, наставник-ученик, летописи Хивинского ханства, методика обучения, каллиграфия.

Abstract: The article analyzes the education of youth, the culture of writing and calligraphy, as well as the "mentor-apprentice" traditions based on the treatise "Savodi Ta'lim" and other works of Munis Khorezmi, a prominent figure of the 19th-century Khorezm literary and pedagogical environment. It also discusses the socio-political atmosphere of the era, the status of scholars and

artisans, and the pedagogical significance of chronicles in enhancing the spirituality of modern youth.

Keywords: Munis Khorezmi, "Savodi Ta'lim", national spirituality, moral values, personality development, mentor-apprentice, chronicles of the Khiva Khanate, teaching methodology, calligraphy.

Kirish

Munis Xorazmiy o‘z zamonasining yetuk mutafakkiri sifatida o‘z qarashlarida xalqning ma’rifatli va savodli bo‘lishi nafaqat jamiyat yoki insonlarning o‘zi uchun, balki mamlakatning kelajak istiqboli, taraqqiyoti aynan ilm-fan rivojiga bog‘liq deb hisoblaydi va yoshlarning ilm o‘rganishi, sifatli ta’lim-tarbiya olishiga oid qimmatli g‘oyalarni ilgari surib, xalqni savodli qilish, yoshlarning o‘qish va yozishni bilishlarining ahamiyatini ko‘rsatib beradi. Shoirning ta’limga oid qarashlarini ko‘plab asarlarida uchratish mumkin. Ular ichida ilk asarlaridan bo‘lmish «Savodi ta’lim» nomli risolasi diqqatga sazovor bo‘lib, bu asar o‘sha davr uchun yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, xalqning savodli va ilm o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirishda, o‘qishni, yozuv va xusnihatni o‘rganishda muhim uslubiy manba sifatida ahamiyatga ega bo‘lgan. Zero, H.Hasanov ta’kidlaganidek, «Munis o‘z davrining pedagog olimi sifatida, ... bolalarning xat-savod chiqarishlarini, ilm o‘rganishlarini bir qadar osonlashtirish maqsadida «Savodi ta’lim» asari (1803)ni yaratdi».

Asosiy qism

Bu risola o‘qish, yozuvni tez va oson o‘rganish, chiroyli xat yozishni o‘zlashtirish va husnixat masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, til, yozuv va husnixatning jamiyat hayotidagi, ayniqsa ma’naviy boylikni kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Munis fikricha, agar yozuv, xat bo‘lmasa kishilik jamiyatidagi erishilgan muvaffaqiyatlar, ma’naviy yutuq va ilmiy boyliklar kelajak avlodga yetkazilmagan bo‘lar edi:

Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,
Xat bo‘lmasa, bo‘lg‘ay erdi nobud...
Xat aylar o‘z ahlini mukarram,
Xattig‘a chekib ulusni har dam.

Shu bilan birga mazkur asarda o‘sha davrdagi o‘qitish uslubini tanqid qilgan, alifbo va yozuvdagi kamchiliklarni ko‘rsatib o‘z tavsiyalarini berib o‘tgan. Yu.Yusupov (Ayyomiy) ushbu asar haqida shunday deydi: «Munis risolaning nazariy qismida bu asarni yozishdan ko‘zda tutgan maqsadi, til, xat (yozuv) va husnixatning jamiyat oldidagi sotsial funktsiyasi haqida mufassal ma’lumot berdi. Xususan, yozuvning kishilik tarixini yaratishda zo‘r ahamiyatga molik ekanini qayta-qayta uqtirib o‘tdi. U yozuv ana shunday nodir ijtimoiy qurol ekan, buning uchun dastavval savod chiqarish kerak, savod chiqarish uchun esa mavjud arab alifbosini yengillashtirish, soddalashtirish shart, degan xulosaga keldi». Chunki mutafakkir o‘sha davrdagi eskicha ta’lim berish, arab alifbosi va yozuvni o‘rgatish uslubini talabga javob bermasligini ta’kidlab, amaldagi alifboni o‘rganish va o‘zlashtirish juda qiyin deb hisoblaydi. Munisning fikricha, bolalar madrasalarga borib o‘qiyotgan bo‘lsada, aslida ko‘p vaqtini behuda qiroatxonlik bilan o‘tkazardilar, ular o‘zlari tushunmagan arabcha so‘zlarni o‘qir, murakkab ta’lim bosqichlariga o‘tar edilar. Buni hatto XX asr boshlarida Xorazmda bo‘lgan Ichki Rusiya vakillari, ya’ni tatar ziyolilari ham qayd etgan edilar. Jumladan, «Sho‘ro» jurnalida bunga oid «Xiva mamlakatinda madrasalar»[126.559-561] maqolasida bir qator faktlar berilgan.

Shu o‘rinda aytish joizki, Munis o‘zining ta’limga oid qarashlari bilan bir qatorda, ta’lim-tarbiya beruvchi, yozish va o‘qishni o‘rgatuvchi, ilm beruvchi ustoz va mudarrislarni juda ham e’zozlagan, asarlarida ziyo tarqatuvchi kishilarni doim qadrlashlari va e’zozlashlarini targ‘ib qilgan. Bu bugungi jamiyatda katta muammoga aylanib borayotgan ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatlarni biroz bo‘lsada yumshatishga, har bir yoshni ushbu masalada biroz mushohada qilishga undaydi. Ustozni e’zozlashga doir qarashlarini o‘z ustozlariga nisbatan aytgan iliq fikrlari va munosabatida ham ko‘rish mumkin. Ayniqsa, birinchi bo‘lib yozishni va o‘qishni o‘rgatgan ustozini juda e’zozlab, u haqda juda yaxshi fikrlarni aytadi. Munis, ustozidagi fazilatlarini sanab, bilimini Ibn Hojibga o‘xshatadi:

Ilm ichra adili Ibn Hojib,
Ilm ahlig‘a ehtiromi vojib.
Xattidin o‘lub xujasta ta’lim,
Ta’lim fani xatig‘a taslim.

O‘ta katta iste’dod egalari, fozil kishilarning Ibn Hojibga o‘xshatilishi bejiz emas. Ibn Hojib nomi bilan shuhrat qozongan, mashhur «Kofiya» kitobining muallifi faqih Abu Amr Usmon ibn Umar bo‘lib, otasi Amir Izzuddin as-Salohiyning Hojibi («eshik og‘asi» - qadimda saroylarda berilgan yuqori harbiy unvon) bo‘lgan. Shu sababdan bu olim Ibn Hojib nomi bilan mashhur.

Munisning ustoz va muallimlarni e’zozlashi, bu kasb egalarini juda qadrlashi va ular haqidagi qarashlari, Navoiyning ustoz va muallimlar haqidagi g‘oyalariga o‘xshaydi. Zero, shoir Navoiyni o‘ziga ustoz deb bilgan.

Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila,
Aylamak bo‘lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Afsuski, Munis yashagan davr, ijtimoiy-siyosiy vaziyat va muhit ta’lim, ilm-ma’rifat rivojiga to‘sqinlik qilgan, sharoit va munosabat sabab ziyolilar, ma’rifatparvar olimlar xorlikda kun kechirgan. Shoh va amaldorlar ilm ahlini, ziyo tarqatuvchi mudarris va olimlarni, hunarli kishilarni qadrlashmagan, adolatsizlik va jaholat ustun bo‘lib, ziyolilar va shoirlar ahvoli achinarli holda bo‘lgan. Shu sababdan ma’rifat va ma’naviyat vakillari bilan nodon amaldor va jaholat vakillari o‘rtasidagi ziddiyat Munis ijtimoiy-ma’naviy qarashlarining e’tibor markazida bo‘lgan bo‘lsa ajabmas. Xususan, Munis shunday yozadi:

Yutubon bu zamonda qon shuaro,
Nazm etar gavhari fig‘on shuaro...
Davlat asroridan erur g‘ofil,
Har necha ersa nuktadon shuaro...
Dardmandu jafokosh elga qilur
Nazm ila dardini bayon shuaro.

Munis o‘z asarlarida nafaqat ilm-ma’rifatli, balki kasb-hunar egalari va yaratuvchi mehnatkash kishilarga ham yuksak insoniy fazilatlar sifatida yuqori baho beradi. Inson ilmi va hunari bilan buyuk bo‘lib, jamiyatdagi farovonlik, mamlakat rivoji shularning mehnati bilan bog‘liq deb ta’kidlaydi. Lekin u yashagan davrda ularning ham mehnati va kasbi, boylik va badavlat kishilar oldida qadr topmaganidan, jamiyatda ziyo tarqatuvchi ma’rifatli kishilar xor-zorlik bilan yashayotganidan noliydi:

Bu davron ichradur baskim hunar ayb,
Hunar ahli kibi yo‘q elda ma’yub,
Uluska eyki g‘oliblik tilarsen,
Burunroq ayla o‘z nafsingni mag‘lub.

Shu sababdan ham Munis o‘z jamiyatidagi insonlarni baxtli va baxtsizlarga ajratib, baxtsiz kishilar zamon taqozosi sabab ezilgan va xo‘rlangan, azob-uqubatda yashayotgan ilm-ma’rifat ahli bo‘lsa, baxtli kishilar esa nodon va boy va amaldorlardir. Shoir aytganidek:

Bu zamon ichra aziz el ne ajab xor bo‘lub,
Ulamoyu fuzalo bo‘lsa sazovori alam.

Bu bilan Munis o‘zi yashagan davrda ijodkor, hunarli va ilm-ma’rifatli kishilarning qanchalik xoru-zorlikda yashaganligini, podsho va amaldorlarning ularga bo‘lgan salbiy munosabatini ko‘rsatishga harakat qilgan. Munis g‘azaliyotini o‘rgangan olim N.Jumayev aytganidek, «Maorif va madaniyat namoyondalari bilan jaholat ahli qarama-qarshiligi Munis g‘azallari dramatizmining markazida turadi».

Umuman, shoir o‘z asarlarida she’riy misralar orqali go‘zallik, muhabbat tuyg‘ularini kuylagan bo‘lsa-da, uning ijodida yoshlarning ta’lim olishi va to‘g‘ri tarbiyalanishi, ilm-fanni o‘rganish, jamiyatda inson qadri va nufuzi uning bilimi hamda kasb-hunari bilan belgilanishi kabi ma’rifiy qarashlari muhim o‘rinni egallagan. Munisning bunday g‘oyalari u yashagan davrda, ya’ni aksariyat xalq savodsiz, ta’lim olishi va o‘rganish imkoniyatlari cheklangan, ilmli kishilar kam va ma’naviy qashshoqlik avj olayotgan zamonda, katta ma’rifiy ahamiyatga ega edi.

Mutafakkir olim Munis Xorazmiy pedagogik qarashlarida ustoz-shogird an'analari ham yuksak darajada ulug'langanligini ko'rish mumkin. Uning faoliyatida ustoz-shogird an'analari o'z davrining nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonida, balki ma'naviy-axloqiy muhitga katta ta'sir ko'rsatgan. Mutafakkir ustoz-shogirdlik munosabatlari faqat bilim olish va bilim berish darajasida emas, balki milliy ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar va shaxsning kamolotining ajralmas qismi ekanligini ham uqtiradi.

Munis Xorazmiy pedagogik tafakkurida ustoz-shogird uchun nafaqat ilm manbai, balki ma'naviy peshvo, axloqiy va ruhiy yo'lboshchi sifatida qaraladi. Ustozning vazifasi faqat bilim berish emas, balki bilim berish bilan birga axloqiy kamolotga yetaklaydi, deya ta'kidlaydi. Ustoz-shogird munosabatlarida Minis ustozga hurmat, sadoqat va ma'naviy yetuklik asosida shakllanadi, ustozga hurmatni «Ilmga bo'lgan hurmatning eng oliy ko'rinishi» deya ta'riflaydi.

Yoshlarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashda Munis Xorazmiyning ustoz-shogird an'analaridan foydalanish jihatlari ularda axloqiy va ijtimoiy qadrriyatlarni shakllantirishga katta yordam beradi. Jumladan, ustozning ilmiy faolligi va shaxsiy axloqi shogirdga ta'sir etadigan eng muhim omil sifatida shaxsda kuchli ma'naviy fazilatlarni, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Munis qarashlarida shogird sabr-toqatli, ilmga chanqoq, ustozga sadoqatli bo'lish, ustozning ko'rsatmalaridan chiqmaslik, o'z bilimini oshirishga intilish hissining yuqori bo'lishi shogirdning ilm va axloqqa munosabatini yanada oshiradi, deya ta'kidlaydi. Shu o'rinda Munis «Ilmga oshno bo'lgan kishi, hayotda ham nurlanadi» degan falsafiy g'oyani ham ilgari suradi.

O'z qarashlarida Munis ustoz-shogird an'analari – ilmiy va axloqiy qadriyatlarning uzviy birlashuvi, shaxsiy kamolot va jamiyatning taraqqiyot poydevori, hamda milliy madaniyat va ma'rifatning muhim qismi sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Shunday ekan, biz bugungi yoshlar ta'lim-tarbiyasida, ularni ham ma'nan, ham jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazishda o'tmishda ijod qilgan ma'rifatparvar olimlarimiz me'rosidan ma'naviy qurol sifatida foydalanishimiz lozim. Ayniqsa, barkamol inson tarbiyasida, ilm-fan cho'qqilarini va kasb-hunarni egallashga intilish, yoshlar qalbida yaxshilik va ezgulik, Vatanga mehr qo'yish sifatlarini shakllantirishda Munis kabi ma'rifatparvar olimlar g'oyalari ahamiyati kattadir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan XIX asr Xiva Xonligi solnomalari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda mustahkam nazariy va metodologik asoslarni tashkil etadi.

Ikkinchidan, ushbu manbalar yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ma'naviy-estetik rivojlanishini ta'minlash uchun zamin yaratadi.

Uchinchidan, tarixiy-tahliliy, komparativ va pedagogik tahlil metodlari asosida solnomalar o'rganilishi yoshlar ma'naviy muammolarini hal etishda yangi istiqbollarni ochib beradi. Shu bois, XIX asr Xiva Xonligi solnomalari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish muammosini tadqiq qilishda beqiyos ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy. Firdavs ul-iqbol (Baxtlar bog'i). Nashrga tayyorlovchilar: N.Jumaxo'ja, S.Ro'zimboev, A.Ahmedov. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.

2. Munirov Q. Xorazmda tarixnavislik (XVII-XIX va XX asr boshlari) – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002.

3. Hasanov S. Munisning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1979.

4. Munis Xorazmiy. Saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.

5. Jabborov N. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyotida komil inson konsepsiyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012.

TALABA-YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOIY FAOLLIK MEXANIZMLARI

Karimova Nilufar Ulmassultanovna *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti stajo‘r o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur tezisda talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy faollikning o‘rni va uning psixologik-pedagogik mexanizmlari tahlil qilinadi. Sog‘lom turmush tarzi talabalarning jismoniy salomatligi, ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, shaxsiy mas’uliyati va kasbiy kamolotini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Tadqiqotda ijtimoiy faollikning motivatsion, qadriyatli, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, o‘zini-o‘zi boshqarish va jamoaviy hamkorlik mexanizmlari sog‘lom hayot tarzini shakllantirishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: talaba-yoshlar, sog‘lom turmush tarzi, ijtimoiy faollik, motivatsiya, ijtimoiy mas’uliyat, jismoniy faollik, psixologik barqarorlik, pedagogik mexanizm.

Аннотация

В данной диссертации анализируется роль социальной активности и ее психолого-педагогических механизмов в формировании здорового образа жизни у студентов. Здоровый образ жизни рассматривается как важный фактор, обеспечивающий физическое здоровье, психическую устойчивость, социальную адаптацию, личную ответственность и профессиональное развитие студентов. В исследовании выделяются мотивационные, ценностные, коммуникативные, ориентированные на деятельность, самоорганизующие и коллективные механизмы социальной активности как основные компоненты формирования здорового образа жизни.

Ключевые слова: студенты, здоровый образ жизни, социальная активность, мотивация, социальная ответственность, физическая активность, психологическая устойчивость, педагогический механизм.

Abstract

This thesis analyzes the role of social activity and its psychological and pedagogical mechanisms in the formation of a healthy lifestyle in students. A healthy lifestyle is considered an important factor ensuring the physical health, mental stability, social adaptation, personal responsibility and professional development of students. The study highlights the motivational, value-based, communicative, activity-oriented, self-management and collective cooperation mechanisms of social activity as the main components of the formation of a healthy lifestyle.

Keywords: students, healthy lifestyle, social activity, motivation, social responsibility, physical activity, psychological stability, pedagogical mechanism.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli taraqqiyot sharoitida talaba-yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Talabalik davri inson hayotida mustaqil fikrlash, ijtimoiy pozitsiyani belgilash, kasbiy maqsadlarni aniqlash va shaxsiy hayot tarzini tanlash bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli aynan ushbu davrda sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish, ruhiy muvozanatni saqlash, vaqtni samarali boshqarish va ijtimoiy foydali faoliyatda ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur.

Sog‘lom turmush tarzi faqat tibbiy tushuncha emas, balki shaxsning ijtimoiy, psixologik, axloqiy va madaniy rivojlanishi bilan bog‘liq kompleks jarayondir. Talaba sog‘lom hayotga ongli yondashganida uning o‘qishdagi muvaffaqiyati, ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati va kasbiy tayyorgarligi ham rivojlanadi. Bu jarayonda ijtimoiy faollik muhim mexanizm bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi

Talaba-yoshlar orasida harakatsizlik, noto‘g‘ri ovqatlanish, stress, internet va gadjetlardan me’yoridan ortiq foydalanish, zararli odatlarga moyillik kabi holatlar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Mazkur muammolarni faqat targ‘ibot ishlari orqali hal

etib bo‘lmaydi. Buning uchun talabalarni real faoliyatga jalb qilish, ularning ijtimoiy tashabbuskorligini oshirish, sog‘lom muhit yaratish va jamoaviy harakatni kuchaytirish lozim.
Ijtimoiy faol talaba o‘z salomatligiga mas’uliyat bilan qaraydi, atrofdagilarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, sport, ma’naviy-ma’rifiy, ekologik, volontyorlik va profilaktik tadbirlarda faol qatnashadi. Shu jihatdan ijtimoiy faollik sog‘lom turmush tarzining nafaqat natijasi, balki uni shakllantiruvchi asosiy omillardan biridir.

Tadqiqot maqsadi

Talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy faollikning psixologik-pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish va ularning tarbiyaviy ahamiyatini asoslash.

Tadqiqot vazifalari

Birinchidan, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy faollik tushunchalarining mazmunini ochib berish. Ikkinchidan, talaba-yoshlarning sog‘lom hayotga munosabatini shakllantirishda ijtimoiy muhit, motivatsiya va jamoaviy faoliyatning ahamiyatini aniqlash. Uchinchidan, ijtimoiy faollik mexanizmlarini psixologik-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish. To‘rtinchidan, oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Asosiy qism

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy faollik bir nechta o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Ularning eng muhimlaridan biri motivatsion mexanizmdir. Motivatsion mexanizm talabaning sog‘lom hayotga bo‘lgan ichki ehtiyoji, shaxsiy maqsadi va ijobiy munosabatini shakllantiradi. Talaba sog‘lom bo‘lishni faqat tashqi talab sifatida emas, balki o‘zining kelajagi, kasbiy muvaffaqiyati va shaxsiy kamoloti uchun zarur omil sifatida anglaganida sog‘lom turmush tarzi barqaror xulq-atvorga aylanadi.

Ikkinchi muhim mexanizm — qadriyatli-yo‘nalish mexanizmidir. Bu mexanizm orqali salomatlik, jismoniy barkamollik, ruhiy barqarorlik, toza muhit, mas’uliyatli xulq-atvor va ijtimoiy foydali faoliyat talaba shaxsining qadriyatlar tizimiga singib boradi. Agar talaba salomatlikni eng muhim hayotiy qadriyat sifatida qabul qilsa, u o‘z hayot tarzini ongli ravishda tartibga soladi.

Uchinchi mexanizm kommunikativ mexanizm bo‘lib, u talabaning sog‘lom ijtimoiy muhitda shakllanishi bilan bog‘liq. Tengdoshlar, ustozlar, tyutorlar, murabbiylar va oila a’zolari talabaning sog‘lom hayotga munosabatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy muloqot, sog‘lom raqobat, jamoaviy sport tadbirlari, motivatsion suhbatlar va guruhiy loyihalar talabalarda sog‘lom hayotga qiziqishni kuchaytiradi.

To‘rtinchi mexanizm faoliyatga yo‘naltirilgan mexanizmdir. Sog‘lom turmush tarzi faqat nazariy bilim orqali emas, balki amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Talabaning sport to‘garaklarida qatnashishi, sog‘lomlashtirish tadbirlarida ishtirok etishi, volontyorlik loyihalarida faol bo‘lishi, ekologik va profilaktik aksiyalarda qatnashishi uning sog‘lom hayot haqidagi bilimlarini real ko‘nikmaga aylantiradi.

Beshinchi mexanizm ijtimoiy namuna va ta’sir mexanizmidir. Talabalar ko‘pincha o‘z tengdoshlari va yetakchi shaxslarning xatti-harakatlaridan ta’sirlanadilar. Sport bilan muntazam shug‘ullanuvchi, zararli odatlardan yiroq, faol va tashabbuskor talabalar boshqalar uchun ijobiy namuna bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayonda “men ham sog‘lom bo‘la olaman”, “men ham faol bo‘lishim mumkin” degan ichki ishonch shakllanadi.

Oltinchi mexanizm o‘zini-o‘zi boshqarish mexanizmidir. Bu mexanizm talabaning o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashi, kun tartibiga amal qilishi, stressni boshqarishi, jismoniy va ruhiy salomatligiga e’tibor berishi bilan bog‘liq. O‘zini-o‘zi boshqara oladigan talaba qisqa muddatli istaklardan ko‘ra uzoq muddatli foydali maqsadlarni tanlaydi.

Yettinchi mexanizm pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmidir. Oliy ta’lim muassasasida professor-o‘qituvchilar, tyutorlar, psixologlar va sport murabbiylari talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Treninglar, seminarlar, profilaktik suhbatlar, sport musobaqalari, psixologik maslahatlar va sog‘lomlashtirish loyihalari talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy natija va muhokama

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy faollik faqat tashqi ishtirok shakli emas, balki shaxsning ichki motivatsiyasi, qadriyatlari, mas’uliyati va irodaviy sifatlari bilan bog‘liq murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. Ijtimoiy faol talaba o‘z salomatligini saqlashga ongli yondashadi, jamoada sog‘lom muhit yaratishga hissa qo‘shadi va boshqalar uchun ijobiy namuna bo‘ladi.

Sog‘lom turmush tarzining shakllanishi quyidagi tizim asosida samarali amalga oshadi: **bilim → munosabat → motivatsiya → amaliy faoliyat → odat → barqaror hayot tarzi.** Ushbu tizimda ijtimoiy faollik harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Talaba sog‘lom hayot haqida bilimga ega bo‘lishi mumkin, ammo u ijtimoiy faoliyatda qatnashmasa, bu bilim amaliy xulq-atvorga aylanishi qiyin. Shu bois sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda talabalarni sport, madaniy-ma’rifiy, volontyorlik, ekologik va profilaktik loyihalarga jalb etish muhim hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar

Talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida sog‘lomlashtirishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni ko‘paytirish, sport va harakatli faoliyat turlarini ommalashtirish, tyutorlik faoliyatida sog‘lom hayot targ‘ibotini kuchaytirish, talabalar o‘rtasida “Sog‘lom talaba — sog‘lom jamiyat”, “Sport — mening hayotimda”, “Zararli odatlarga yo‘q deymiz”, “Faol yoshlar klubi” kabi loyihalarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, psixologik treninglar orqali talabalarda o‘zini-o‘zi boshqarish, stressga bardoshlilik, ijobiy fikrlash, maqsad qo‘yish, jamoada ishlash va sog‘lom muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talaba-yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ijtimoiy faollik muhim psixologik-pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy faollik talabaning sog‘lom hayotga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, salomatlikni qadriyat sifatida anglashiga yordam beradi, jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi va sog‘lom xulq-atvorni kundalik odatga aylantiradi. Mazkur jarayonda motivatsion, qadriyatli, kommunikativ, faoliyatga yo‘naltirilgan, ijtimoiy namuna, o‘zini-o‘zi boshqarish va pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining uyg‘unligi talaba-yoshlarning jismoniy, ruhiy, ma’naviy va ijtimoiy barkamolligini ta’minlaydi. Demak, oliy ta’lim tizimida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha ishlar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. Social Learning Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
2. Deci E. L., Ryan R. M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. New York: Plenum, 1985.
3. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika, 1991.
4. Leontev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. Moskva: Politizdat, 1975.
5. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. G‘oziyev E. G. Ontogenez psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar siyosati va sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etishga oid qaror va farmonlari.

YOSHLARDA SUITSIDAL XATTI-HARAKATLAR PROFILAKTIKASI: SOG‘LOM TURMUSH TARZI VA PSIXOLOGIK HIMOYA OMILLARI

Koshkinbaeva Almaxan
Qorauzak tumani 33-sonli maktab psixologi
Ametova Muqaddas
Nukus shahri 38-sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida suitsidal xatti-harakatlarning psixologik sabablari va profilaktikasi yoritilgan. Shuningdek, maktab psixologining individual, guruhiy va oilaviy hamkorlikdagi faoliyati tahlil qilingan.

Аннотация: В статье рассмотрены психологические причины и профилактика суицидального поведения среди школьников. Также проанализирована деятельность школьного психолога в индивидуальной, групповой и семейной работе.

Abstract : The article examines the psychological causes and prevention of suicidal behavior among school students. The role of the school psychologist in individual, group, and family interventions is also analyzed.

Kalit so‘zlar :suitsid, maktab psixologi, profilaktika, psixologik yondashuvlar, ruhiy salomatlik, o‘quvchi, ota-ona, pedagog

Ключевые слова :суицид, школьный психолог, профилактика, психологические подходы, психическое здоровье, ученик, родители, педагог

Keywords :suicide, school psychologist, prevention, psychological approaches, mental health, student, parents, teacher

So‘nggi yillarda maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar keskin dolzarblashib bormoqda. Ayniqsa suitsidal xatti-harakatlar masalasi ta’lim tizimi, psixologiya va tibbiyot sohalarining eng jiddiy e’tibor talab qiladigan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, o‘smirlik davrida ruhiy zo‘riqish, depressiv holatlar va ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar suitsid xavfini oshiruvchi asosiy omillar sifatida qayd etiladi. Shu sababli maktab sharoitida profilaktik ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, psixologik xizmatni kuchaytirish va erta aniqlash mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir.

Psixologik adabiyotlarda, xususan S.L. Rubinshteyn va A.N. Leontyev ishlanmalarida shaxs xulq-atvorining shakllanishi ichki motivlar, emotsional holat va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi. O‘smirlar orasida suitsidal fikrlarning paydo bo‘lishiga ko‘pincha depressiya, o‘zini past baholash, yolg‘izlik hissi, uzoq davom etgan stress holatlari sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, oilaviy muhitdagi nizolar, ota-ona e’tiborining yetishmasligi, haddan tashqari nazorat yoki aksincha, mutlaqo beparvolik ham o‘smir ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. L.S. Vygotskiy ta’kidlaganidek, bola psixik rivojlanishi ijtimoiy muhitdan ajralgan holda kechmaydi, demak maktab va oila tizimidagi har qanday disbalans shaxsning emotsional holatiga bevosita ta’sir qiladi.

Maktab muhitida esa o‘quvchilar o‘rtasidagi munosabatlar, o‘qituvchi bilan aloqalar, akademik bosim va muvaffaqiyatga qo‘yiladigan talablar ham muhim rol o‘ynaydi. Ayrim hollarda o‘quvchilar sinf jamoasiga moslasha olmasligi, tengdoshlar tomonidan qabul qilinmasligi yoki kamsitish (bulling) holatlariga duch kelishi mumkin. Bu esa ularning ichki psixologik himoya mexanizmlarini zaiflashtiradi va emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Shuningdek, zamonaviy davrda raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham ortib bormoqda. O‘smirlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirish, ideal obrazlar bilan o‘z hayotini taqqoslash natijasida qoniqmaslik hissini boshdan kechirishi mumkin, bu esa depressiv fikrlarning shakllanishiga turtki bo‘ladi.

Psixolog nafaqat muammoli holat yuzaga kelganda ishlaydigan mutaxassis, balki asosan profilaktik faoliyat olib boruvchi shaxs bo‘lishi kerak. Profilaktika jarayoni erta diagnostika, kuzatuv, psixologik testlar va suhbatlar orqali o‘quvchilarning emotsional holatini doimiy monitoring qilishni o‘z ichiga oladi. Amaliy psixologiyada Bek depressiya shkalasi, xavotir darajasini aniqlash testlari va sotsiometrik metodlar orqali o‘quvchilarning psixologik holati baholanadi. Bunday yondashuv muammolarni erta bosqichda aniqlash va ularning chuqurlashib ketishining oldini olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, maktab psixologi individual ishlash jarayonida o‘quvchining ichki kechinmalarini tinglash, unga emotsional qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish va moslashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O‘smir bilan o‘tkaziladigan suhbatlar majburlovchi emas, balki ishonchga asoslangan bo‘lishi kerak, chunki faqatgina xavfsiz psixologik muhitda bola o‘z muammolarini ochiq ifoda eta oladi. Kognitiv-xulqiy yondashuv (CBT) tamoyillariga ko‘ra, salbiy avtomatik fikrlarni aniqlash va ularni ijobiyroq, realistik fikrlar bilan almashtirish suitsid xavfini kamaytirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Guruhiy ishlar ham profilaktikada muhim o‘rin tutadi. Sinf jamoasida ijobiy psixologik muhit yaratish, empatiya, hamdardlik va o‘zaro hurmatni shakllantirish orqali o‘quvchilar o‘rtasidagi ijtimoiy bog‘liqlik mustahkamlanadi. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan muhitda o‘quvchilarda ruhiy tushkunlik va suitsid fikrlari sezilarli darajada kam uchraydi. Shu sababli psixologik treninglar, kommunikativ o‘yinlar va guruhiy muhokamalar muntazam ravishda olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika jarayonida ota-onalar bilan hamkorlik ham juda muhim. Ko‘plab hollarda o‘smirning ichki kechinmalari oilada yetarlicha e’tibor bilan qabul qilinmaydi yoki noto‘g‘ri talqin qilinadi. Psixolog ota-onalarga farzandlaridagi emotsional o‘zgarishlarni erta aniqlash, ularga nisbatan to‘g‘ri munosabat bildirish va qo‘llab-quvvatlash strategiyalarini o‘rgatishi lozim. Oilaviy muhitdagi iliqlik va barqarorlik o‘smirning psixologik himoya mexanizmlarini kuchaytiradi.

Pedagoglar bilan hamkorlik ham tizimli ahamiyatga ega. O‘qituvchilar o‘quvchilarning xulqidagi o‘zgarishlarni birinchi bo‘lib sezadigan shaxslardan biridir. Shu bois ularga psixologik savodxonlikni oshirish, xavf belgilarini aniqlash va tegishli mutaxassislarga yo‘naltirish bo‘yicha treninglar o‘tkazish zarur. Maktab psixologi, pedagog va ota-ona o‘rtasidagi uch tomonlama hamkorlik samarali profilaktika tizimini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, suitsidal xatti-harakatlar murakkab va ko‘p omilli psixologik muammo bo‘lib, uni faqatgina kompleks yondashuv orqali bartaraf etish mumkin. Maktab psixologining vazifasi erta aniqlash, psixologik qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy va ijtimoiy resurslarni rivojlantirish hamda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishdan iboratdir. Vygotskiy ta’kidlaganidek, shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq ekan, maktab tizimida sog‘lom psixologik muhit yaratish har bir o‘quvchining hayot sifati va ruhiy barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Shu bois profilaktik ishlar doimiy, tizimli va ilmiy asoslangan bo‘lishi zarur, chunki har bir o‘quvchining hayoti va kelajagi jamiyat uchun beqiyos qadriyat hisoblanadi. Bundan tashqari, shuni alohida ta’kidlash kerakki, suitsid xavfini kamaytirishda faqat maktab ichidagi psixologik xizmat yetarli bo‘lmaydi. O‘quvchi yashayotgan ijtimoiy muhit, oila tizimi va tengdoshlar guruhi ham uning ruhiy holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktab psixologi nafaqat individual ishlash bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli yondashuv asosida barcha ishtirokchilarni jarayonga jalb etishi lozim.

Shuningdek, zamonaviy axborot muhitining tez rivojlanishi o‘smirlar psixikasiga yangi turdagi bosimlarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlardagi salbiy kontent, noto‘g‘ri axborotlar va o‘zini boshqalar bilan solishtirish tendensiyasi o‘quvchilarda emotsional beqarorlikni kuchaytirishi mumkin. Shu bois media-savodxonlikni oshirish va raqamli muhitda psixologik himoya ko‘nikmalarini shakllantirish ham profilaktikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, maktab psixologi faoliyatida ishonchli munosabat o‘rnatish asosiy o‘rinni egallaydi. O‘quvchi o‘zini eshitilayotgan va tushunilayotgan deb his qilgan taqdirdagina, u o‘z ichki kechinmalarini ochiq ifoda eta oladi. Bu esa erta diagnostika va samarali yordam ko‘rsatish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. *Osnovi defektologii*. – Moskva: Pedagogika, 1983.
2. Rubinshteyn S.L. *Osnovi obshchey psixologii*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2019.
3. Shchipitsina L.M. *Inklyuzivnoe obrazovanie detey s ogranichennymi vozmojnostyami zdorovya*. – Moskva: Vlados, 2018.
4. WHO. *Adolescent mental health*. – Geneva: World Health Organization, 2021.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDAGI PERSONALLASHTIRILGAN SOG‘LOM TURMUSH TARZI DASTURLARINING SAMARADORLIGI

Latipova Xajibibi Ibrohim qizi,
UrDU “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosidagi personallashtirilgan sog‘lom turmush tarzi dasturlarining samaradorligiga oid asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqolada mashinaviy o‘qitish, tabiiy til ishlov berish va adaptiv tizimlar nazariyalari ko‘rib chiqiladi, hamda ushbu texnologiyalarning individual sog‘liq monitoringiga tatbiq etilishining nazariy asoslari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, personallashtirilgan dasturlar, sog‘lom turmush tarzi, mashinaviy o‘qitish, adaptiv tizimlar, raqamli salomatlik.

Abstract: This article analyzes the main theoretical approaches regarding the effectiveness of personalized healthy lifestyle programs based on artificial intelligence. The paper examines the theories of machine learning, natural language processing and adaptive systems, and outlines the theoretical foundations for applying these technologies to individual health monitoring.

Keywords: artificial intelligence, personalized programs, healthy lifestyle, machine learning, adaptive systems, digital health.

Аннотация: В данной статье анализируются основные теоретические подходы к эффективности персонализированных программ здорового образа жизни на основе искусственного интеллекта. Рассматриваются теории машинного обучения, обработки естественного языка и адаптивных систем, а также теоретические основы применения этих технологий в индивидуальном мониторинге здоровья.

Ключевые слова: искусственный интеллект, персонализированные программы, здоровый образ жизни, машинное обучение, адаптивные системы, цифровое здравоохранение.

Kirish. Zamonaviy tibbiyotda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo‘llanilishi tobora keng tus olmoqda. Personallashtirilgan tibbiyot konsepsiyasi - har bir bemorni unikal biologik, ijtimoiy va psixologik profil sifatida ko‘rib chiqish g‘oyasi - SI imkoniyatlari bilan birlashib, sog‘liqni saqlash sohasida yangi paradigma shakllanishiga olib kelmoqda [1]. Ushbu maqolada aynan shu paradigmaning nazariy asoslari, uni qo‘llab-quvvatlaydigan ilmiy konsepsiyalar va ularning sog‘lom turmush tarzi dasturlariga tatbiqi ko‘rib chiqiladi.

An’anaviy sog‘liqni saqlash modellari "bir o‘lcham hamma uchun" tamoyiliga asoslanib, aholining o‘rtacha statistik ko‘rsatkichlariga yo‘naltirilgan tavsiyalar berib kelgan. Bunday yondashuv individual farqlarni e’tiborga olmasligidan, uning amaliy samaradorligi cheklangan bo‘lgan. SI texnologiyalari esa katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlab, har bir shaxs uchun moslashtirilgan yechimlar taklif etish imkonini beradi [2].

Asosiy qism

1. Mashinaviy o‘qitish nazariyasi va sog‘liqni bashorat qilish. Mashinaviy o‘qitish nazariyasi Samuel (1959) tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning asosiy g‘oyasi - algoritmlar aniq dasturlashtirilmasdan, ma'lumotlardan o‘z-o‘zidan o‘rganish qobiliyatidir. Sog‘lom turmush tarzi dasturlari kontekstida ML uchta asosiy paradigma bo‘yicha tahlil qilinadi: nazoratli o‘qitish, nazorat qilinmagan o‘qitish va mustahkamlash orqali o‘qitish [3].

Nazoratli o‘qitish paradigmasida algoritm tarixiy salomatlik ma'lumotlari asosida kelajakdagi sog‘liq holatini bashorat qilishga o‘rgatiladi. Breiman (2001) tomonidan ishlab chiqilgan tasodifiy o‘rmonlar algoritmi va Cortes va Vapnik (1995) taklif etgan qo‘llab-quvvatlovchi vektor mashinalari (SVM) sog‘liq ko‘rsatkichlarini taxmin qilishda keng qo‘llaniladi. Ushbu usullar yordamida foydalanuvchining ovqatlanish odatlari, jismoniy faollik darajasi va uyqu sifatiga asoslanib, uning sog‘liq xavfi baholanadi.

Mustahkamlash orqali o‘qitish nazariyasi (Sutton va Barto, 1998) personallashtirilgan dasturlar uchun ayniqsa istiqbolli hisoblanadi. Bu yondashuvda SI agenti foydalanuvchi bilan interaktiv muloqot orqali uning xatti-harakatlariga mos mukofot yoki jazolash signallari asosida

optimal xulq-atvor siyosatini shakllantiradi. Nazariyaga ko‘ra, bunday adaptiv mexanizm uzoq muddatda foydalanuvchida ijobiy sog‘lom odatlarni mustahkamlashga yordam beradi [4].

2. Adaptiv tizimlar va personallashtirishning nazariy modellari. Personallashtirishning eng keng tarqalgan nazariy modeli - kolloborativ filtrlash - foydalanuvchilarni o‘xshash xatti-harakatlari va xususiyatlari bo‘yicha guruhlarga ajratib, ularga shu guruh vakillari uchun samarali bo‘lgan tavsiyalarni berish g‘oyasiga asoslanadi. Amazon va Netflix kabi platformalarda sinovdan o‘tgan ushbu yondashuv sog‘liqni saqlash sohasiga ham tatbiq etilmoqda [6]. Masalan, o‘xshash metabolik profillga ega foydalanuvchilar uchun samarali bo‘lgan ovqatlanish rejimi boshqalarga ham tavsiya qilinishi mumkin.

Deci va Ryan (2000) ning o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi personallashtirilgan SI dasturlarining psixologik samaradorligini tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. SDT ga ko‘ra, inson xatti-harakatini yo‘naltiruvchi uchta asosiy ehtiyoj mavjud: muxtoriyat, kompetentlik va bog‘liqlik. SI asosidagi dasturlar ushbu uchala ehtiyojni ham qondirishi mumkin: foydalanuvchiga o‘z maqsadlarini o‘zi belgilash imkoniyatini berish orqali muxtoriyat, taraqqiyotni ko‘rsatish orqali kompetentlik, virtual hamjamiyat orqali esa bog‘liqlik hissi shakllantiriladi.

3. Katta ma’lumotlar va sog‘liqni raqamlashtirish nazariyasi. Sog‘lom turmush tarzi dasturlarida SI samaradorligining nazariy asoslaridan biri - katta ma'lumotlar paradigmasidir. Laney (2001) tomonidan taklif etilgan 3V modeli (Volume - hajm, Velocity - tezlik, Variety - xilma-xillik) sog‘liqni saqlash ma'lumotlariga ham qo‘llaniladi. Zamonaviy kiyiladigan qurilmalar, smartfonlar va tibbiy sensorlar real vaqtda to‘playdigan ma’lumotlar hajmi shunchalik kattaki, ularni an’anaviy usullar bilan qayta ishlash imkonsiz bo‘lib qoladi [7].

Raqamli salomatlik nazariyasi esa texnologiya va tibbiyotning birlashuvini kengroq kontekstda o‘rganadi. Eysenbach (2001) tomonidan ilk bor tizimli tarzda tavsiflangan elektron salomatlik (eHealth) konsepsiyasi, keyinchalik mobil salomatlik (mHealth), telemedisin va SI yordamida yanada takomillashdi. Ushbu evolyutsiyada markaziy o‘rin tutuvchi g‘oya - salomatlik ma'lumotlarining markazdan tashqarida to‘planishi va foydalanuvchiga o‘z sog‘lig‘ini boshqarish huquqini qaytarish hisoblanadi.

Xulosa

Yuqorida ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, SI asosidagi personallashtirilgan sog‘lom turmush tarzi dasturlarining samaradorligi bir necha mustaqil ilmiy konsepsiyalar bilan nazariy jihatdan asoslanadi. Mashinaviy o‘qitish nazariyasi - bashorat qilish va adaptatsiya imkonini bersa, NLP va persuasive technology - foydalanuvchi bilan samarali muloqotni ta'minlaydi. o‘z-o‘zini aniqlash nazariyasi esa nima uchun personallashtirilgan yondashuv psixologik jihatdan samaraliroq ekanligini izohlab beradi [8].

Shu bilan birga, ushbu soha bir qator hal etilmagan nazariy muammolarga duch kelmoqda. Ma'lumotlar maxfiyligi va axloqiy masalalar, algoritmik tarafkashlik xavfi hamda texnologik imkonsizlik muammolari kelajakdagi tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlarini belgilaydi. O‘zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarni joriy etish uchun mahalliy madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni inobatga olgan nazariy asoslar ishlab chiqish alohida ilmiy vazifa sifatida ko‘ndalang turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Topol E.J. High-performance medicine: the convergence of human and artificial intelligence. – Nature Medicine, 2019. – Vol. 25. – P. 44–56.

2. Obermeyer Z., Emanuel E.J. Predicting the Future - Big Data, Machine Learning, and Clinical Medicine. – New England Journal of Medicine, 2016. – Vol. 375(13). – P. 1216–1219.

3. Breiman L. Random Forests. – Machine Learning, 2001. – Vol. 45(1). – P. 5–32.

4. Sutton R.S., Barto A.G. Reinforcement Learning: An Introduction. – Cambridge: MIT Press, 1998. – 322 p.

5. Vaswani A. et al. Attention Is All You Need. – Advances in Neural Information Processing Systems, 2017. – Vol. 30. – P. 5998–6008.

6. Fogg B.J. A behavior model for persuasive design. – Proceedings of the 4th International Conference on Persuasive Technology, 2009. – P. 1–7.

7. Deci E.L., Ryan R.M. The "What" and "Why" of Goal Pursuits: Human Needs and the Self-Determination of Behavior. – Psychological Inquiry, 2000. – Vol. 11(4). – P. 227–268.

8. Eysenbach G. What is e-health? – Journal of Medical Internet Research, 2001. – Vol. 3(2). – e20.

EVTAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZI BO‘YICHA TA'LIMNI TASHKIL ETISH VA O‘QUVCHILAR KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

B. R. Marimbayeva,
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada evtagogik (heutagogik) yondashuv asosida o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarziga oid bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda mustaqil ta’lim olish, o‘z faoliyatini rejalashtirish va boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda evtagogik yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan ta’lim jarayonlarini tashkil etishning samarali usullari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar*: sog’lom turmush tarsi, inson-salomatligi, evtogen, soglom ma’naviy-axloqiy tarbiya.*

Аннотация. *В данной статье освещены вопросы формирования у учащихся знаний, навыков и компетенций, связанных со здоровым образом жизни, на основе эвтагогического (геутагогического) подхода. В исследовании проанализировано значение эвтагогического подхода в развитии способностей к самостоятельному обучению, планированию и управлению своей деятельностью. Также обоснованы эффективные методы организации образовательных процессов, направленных на укрепление здорового питания, физической активности, личной гигиены и психического здоровья, а также возможности использования современных педагогических технологий и цифровых инструментов.*

Ключевые слова: *здоровый образ жизни, здоровье человека, эвтогенный, здоровое духовно-нравственное воспитание.*

Abstract. *This article highlights the issues of forming knowledge, skills, and competencies related to a healthy lifestyle in students based on a euthagogical (heuthagogical) approach. The study analyzes the significance of the euthagogical approach in developing independent learning, planning, and managing one's own activities. It also substantiates effective methods for organizing educational processes aimed at strengthening healthy nutrition, physical activity, personal hygiene, and mental health, as well as the possibilities of using modern pedagogical technologies and digital tools.*

Keywords: *healthy lifestyle, human health, eutogenic, healthy spiritual and moral education.*

Kirish. Hozirgi kunda yosh avlodni sog‘lom va barkamol tarbiyalash har bir jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda evtagogik yondashuv asosida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ta'limni tashkil etish va o‘quvchilar ko‘nikmalarini rivojlantirish kamolotining ilk va asosiy maskani sifatida alohida o‘rin tutadi. Farzandning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari, sog‘lig‘i va hayot tarziga oid dastlabki ko‘nikmalari aynan oilada, ta’lim-tarbiya jaroyonida shakllanadi. Shu sababli sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan omillar majmuasidir. To‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda sog‘lom ruhiy muhitni saqlash uning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ushbu odatlarning shakllanishida esa oilaning ta’siri beqiyosdir.

Yoshlarimizni jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus doirasida ko‘plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylari barpo

etilmoqda, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Eng muhimi, farzandlarimiz o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy maqsadiga aylantirgan yigit-qizlar safi kengayib bormoqda. Sog‘lom turmush tarzi – bu insonning xatti-harakatlarining individual tizimi bo‘lib, unga haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen va ijtimoiy) jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik va uzoq umr ko‘rishni ta’minlaydi. Sog‘lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sha- roitlarni yaratadi, bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi va insonning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi.

Inson salomatligi - uzoq umr ko‘rish davomida yuqori sur’atdagi ishchanlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini, uning ruhiy hamda fiziologik sifatlarini saqlash va rivojlantirishdir. Organizmning sog‘lomlik holati o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, yoshi, jinsi, kasbiy faoliyati, hayot tarzi bilan bog‘liqlikda zaiflashib ketadi va mustahkamlanadi

Asosiy qism

Bugungi zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashgan holda, o‘quvchiga sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ta'limni tashkil etish va o‘quvchilar ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘naltirilgan ta’lim muhitlarini loyihalash va rivojlantirish uchun asos yaratadi. Bunday muhitlar o‘quvchilarni umrbod ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlash salohiyatiga ega. Bundan tashqari, evtotagogik yondashuvni qo‘llash ijobiy natijalarni rag‘batlantirishi va rivojlantirishi isbotlangan. Evtagogika yondashuv o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim nazariyasi bo‘lib, uning asosini quyidagi muhim tamoyillar tashkil etadi: o‘quvchining mustaqilligi va ta’lim jarayonini boshqarish qobiliyati (learner agency), o‘ziga bo‘lgan ishonch (self-efficacy), bilim va ko‘nikmalarni turli vaziyatlarda samarali qo‘llay olish salohiyati (capability), shuningdek metakognitsiya va refleksiya, ya’ni o‘z fikrlash va o‘rganish jarayonlarini anglash hamda tahlil qilish.

Evtagogika andragogikaning (kattalar ta’limi nazariyasining) rivojlangan shakli sifatida qaraladi. Bu yondashuvda o‘rganuvchilar nafaqat qanday o‘rganishni, balki nimani o‘rganishni ham o‘zlari belgilaydi. Metakognitiv refleksiya jarayonida o‘quvchilar “ikki bosqichli o‘rganish” (double-loop learning) va reflektiv amaliyotni amalga oshiradi. Bu jarayonda ular quyidagilar ustida fikr yuritadi:nima o‘rganildi, qanday o‘rganildi, yangi bilim va ko‘nikmalar ularning qadriyatlari va qarashlariga qanday ta’sir ko‘rsatdi. Demak, Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish o‘quvchilarning jismoniy faolligi, to‘g‘ri ovqatlanish odatlari, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish hamda zararli odatlardan saqlanish kabi muhim jihatlarni qamrab oladi. Evtagogik yondashuv esa ushbu jarayonni yanada interfaol, mustaqil va amaliy yo‘naltirilgan shaklda tashkil etish imkonini beradi. Shu sababli, mazkur mavzuni o‘rganish va evtagogik yondashuv asosida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ta’limni tashkil etish masalalarini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi.

Sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish, ma’naviy psixologik bilim saviyasini oshirish, shaxsda sog‘lom dunyoqarashni shakllashtirishni, sog‘lom tafakkurning yuzaga kelishini ta’minlaydi.

N.M.Kenjaboeva “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish tizimi” mavzusidagi tadqiqot ishida yoshlarning reproduktiv madaniyatini takomillashtirish to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan “Shu ma’noda yoshlarni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida “Sog‘lom turmush tarzi – sog‘lom oila, sog‘lom oila bu sog‘lom farzand, baxtli kelajakdir” tasavvurini takomillashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarning reproduktiv madaniyatini takomillashtirish bu yo‘nalishdagi islohatlarning asosiy vazifalaridan sanaladi”

Ma’lumki, ta’lim jarayonlarini zamonaviylashtirish, jahon talablariga mos mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta’lim berish va ta’lim oluvchini o‘z ortidan ergashtira olish uchun bugungi o‘qituvchiga yordam berishi mumkin bo‘lgan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalar o‘qitish jarayonida keng qo‘llanilib kelinmoqda.

Sog‘lom - turmush tarzini shakllantirish pedagogikasining muhim tomonlaridan biri sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga borasida odamlarning bilimlarini ularning kundalik hayotiga tadbi qilish, ularning gigienik o‘zini tuta olishiga, shaxsning sanitariya madaniyatini

yuksaltirishga qarata olishdir. Umuman tarbiya jarayoni uzoq davom etadigan, uzluksiz jarayon bo‘lib, har bir shaxsda uning hayotiy qarashlarini, mavqeini shakllantirishdan iboratdir. Sog‘lom turmush tarzi —insoning sog‘lom bo‘lib tug‘ilishini shakllantiruvchi embrional taraqqiyot davridan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadigan inson hayotining barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab olgan hayot falsafasidir. Sog‘lom turmush tarzi insonni uning o‘zligini anglashga olib boradigan, kamolot sari yetaklaydigan, umriga mazmun ato etadigan umidbaxsh yo‘ldir. Bu esa birinchi navbatda oiladan boshlandi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, evtagogik (heutagogik) yondashuv asosida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha ta’limni tashkil etish o‘quvchilarda mustaqillik, mas’uliyat va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta’lim jarayonini o‘quvchi markaziga yo‘naltirgan holda, ularning o‘z sog‘lig‘iga ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallash jarayonida o‘quvchilarning faol ishtiroki, amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan topshiriqlar hamda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Evtagogik yondashuv esa o‘quvchilarga o‘z o‘qish jarayonini mustaqil rejalashtirish, baholash va rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim sog‘lom turmush tarziga oid barqaror odatlarni shakllantirishga va o‘quvchilarning umrbod o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, ta’lim jarayonida evtagogik yondashuvdan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Kenjaboeva N.M. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish tizimi: Ped. f. b. f. d. il. dar. olish uchun yoz. diss. – Chirchiq: ChDPI. 2019. – 15b.

2. Shomansurova I. E. ―Oilaviy tibbiyotda xamshiralik ishi‖ toshkent – 2008 y

3. G.E.Turayeva Bo‘lajak o‘qituvchilarni sog‘lom ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. Termiz – 2023

4. D.D. SHARIPOVA, N.M.ADILOVA, Z.SH.KAVILOVA Valeologiya 2-nashr Toshkent-2016

5. Hase, S., & Kenyon, C. (2013). Heutagogy fundamentals. In S. Hase & C. Kenyon (Eds.), *Self-determined learning:heutagogy in action* (pp. 1-17). Bloomsbury Publishing Plc.

YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDA PSIXOLOGIK VA MOTIVATSION YONDASHUVLAR

Matchanova Dilbar Yusupbayevna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi

E-mail: matchanovadilbar94@gmail.com

Annatotsiya: Mazkur maqola O‘zbekistonda yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda psixologik va motivatsion yondashuvlarning nazariy-metodologik ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Mavjud ilmiy adabiyotlar va amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, STTni targ‘ib qilishda faqatgina ma’rifiy-axborot chora-tadbirlari yetarli bo‘lmay, balki shaxsning ichki motivatsiyasini kuchaytirishga va barqaror xulq-atvor o‘zgarishlarini ta’minlashga qaratilgan chuqur psixologik mexanizmlarni ishga solish zarur.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, psixologik-pedagogik yondashuvlar, psixologik omillar, xulq-atvor, Ommaviy axborot vositalari, kognitiv-xulq-atvor, va ijtimoiy loyihalar, tashqi ko‘rinish estetikasi, jismoniy va ruhiy salomat, dialektik bog‘liqlik, energiya, kayfiyatning barqarorlashuvi, farovonlik.

Аннотация: Данная статья направлена на глубокий анализ теоретико-методологического значения психологических и мотивационных подходов в формировании здорового образа жизни среди молодежи в Узбекистане. Анализ существующей научной литературы и практики показывает, что в пропаганде ССТ

недостаточно только просветительско-информационных мер, необходимо задействовать глубокие психологические механизмы, направленные на усиление внутренней мотивации личности и обеспечение устойчивых поведенческих изменений.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, психолого-педагогические подходы, психологические факторы, поведение, средства массовой информации, когнитивно-поведенческие, и социальные проекты, эстетика внешности, физическое и психическое здоровье, диалектическая связь, энергия, стабилизация настроения, благополучие.

Abstract: This article aims to provide an in-depth analysis of the theoretical and methodological significance of psychological and motivational approaches in shaping a healthy lifestyle among youth in Uzbekistan. An analysis of existing scientific literature and practice shows that in the promotion of STIs, educational and informational measures alone are insufficient; it is necessary to utilize deep psychological mechanisms aimed at strengthening the internal motivation of the individual and ensuring sustainable behavioral changes.

Keywords: healthy lifestyle, psychological-pedagogical approaches, psychological factors, behavior, mass media, cognitive-behavioral, and social projects, aesthetics of appearance, physical and mental health, dialectical connection, energy, mood stabilization, well-being.

Kirish

Inson salomatligi har bir milliy jamiyatning fundamental kapitali hisoblanib, mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholi farovonligining asosiy garovidir. Ayniqsa, yosh avlod orasida sog‘lom turmush tarzini (STT) shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida strategik ahamiyat kasb etadi, chunki ular jamiyatning kelajakdagi rivojlanish lokomotivi va inson salohiyatining asosini tashkil etadi. Global miqyosida sog‘lom turmush tarzi tushunchasi nafaqat jismoniy salomatlikni, balki psixologik, ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy farovonlikni ham o‘z ichiga olgan kompleks kategoriyadir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST)ning empirik ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘plab yuqumsiz kasalliklarning profilaktikasida, aholi umr ko‘rish davomiyligini oshirishda va hayot sifatini yaxshilashda STT hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi ilmiy asoslangan.

O‘zbekiston o‘zining demografik salohiyati, xususan, yosh va dinamik aholisi bilan ajralib turadi; respublika aholisining salmoqli qismi yoshlardan iborat bo‘lib, bu demografik dividenddan samarali foydalanish milliy taraqqiyot uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Biroq, zamonaviy globalizatsiya jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi va urbanizatsiya sharoitida yoshlar orasida sog‘liq bilan bog‘liq bir qator dolzarb muammolar kuzatilmoqda. Noto‘g‘ri ovqatlanish ratsioni, gipodinamiya, zararli odatlarga moyillik (tamaki mahsulotlari, alkogol va psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish), shuningdek, psixo-emotsional stresslar va raqamli qaramlik kabi xulq-atvorga oid risk omillari yoshlar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning hayot sifatini pasaytirishga xizmat qilmoqda. Bu omillar nafaqat shaxsiy salomatlik darajasiga, balki butun jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va milliy xavfsizligiga ham jiddiy tahdid soladi.

Asosiy qism

Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish muammosi psixologiya, pedagogika, sotsiologiya va tibbiyot fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala shaxs motivatsiyasi, salomatlik psixologiyasi hamda sog‘lom xulq-atvorni shakllantirish nazariyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Motivatsiya nazariyasining ilmiy asoslari A. Maslou, D. MakKlelland, F. Gertsberg, K. Levin, E. Deki va R. Rayan kabi olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Xususan, A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson xulq-atvorining asosiy harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlar ekanligi ta’kidlanadi. D. MakKlelland esa inson faoliyatida muvaffaqiyatga erishish, hokimiyat va ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan ehtiyojlarning motivatsion ahamiyatini asoslab bergan. E. Deki va R. Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasida esa ichki motivatsiyaning shaxs rivojlanishi va sog‘lom xulq-atvorni shakllantirishdagi o‘rni keng yoritilgan. Salomatlik psixologiyasi yo‘nalishida I. Brexman, A. Antonovskiy, M. Rozenstok va boshqa olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida sog‘lom turmush tarzining psixologik asoslari, salomatlikni saqlashga qaratilgan xulq-atvor hamda sog‘lom hayot kechirishga undovchi omillar tahlil qilingan. Ayniqsa, M. Rozenstok tomonidan ishlab chiqilgan “Health Belief Model” (Salomatlikka ishonch modeli) sog‘lom xulq-atvorni shakllantirishning psixologik omillarini tushuntirishda keng qo‘llaniladi. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari tomonidan ham sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari keng tadqiq etilgan. Ularning ilmiy ishlarida sog‘lom turmush tarzining ijtimoiy-psixologik omillari, yoshlar salomatligini mustahkamlash, zararli odatlarning oldini olish hamda

sog‘lom hayot madaniyatini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham yoshlar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va sog‘lom avlodni tarbiyalash muammolari bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mazkur tadqiqotlarda sog‘lom turmush tarzining pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlari yoritilgan bo‘lsa-da, yoshlarning sog‘lom turmush tarziga motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini kompleks tarzda o‘rganish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Shu bois yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlash, ularning samaradorligini baholash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Tahlil va natijalar: Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarziga motivatsiyaning shakllanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari, qadriyatlari va ijtimoiy muhit ta’siri ostida rivojlanadi. Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishda ichki motivlar tashqi omillarga nisbatan barqarorroq ta’sir ko‘rsatadi. Ichki motivatsiyaga ega bo‘lgan yoshlar sog‘lom hayot tarzini nafaqat tashqi nazorat yoki majburiyat tufayli, balki o‘z salomatligini qadrlash va shaxsiy rivojlanishga intilish asosida tanlaydilar. Tahlillar natijasida sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishga ta’sir qiluvchi bir qator psixologik mexanizmlar aniqlandi. Ulardan birinchisi – qadriyatli yo‘naltirilganlik mexanizmi bo‘lib, bunda salomatlik shaxsning muhim hayotiy qadriyati sifatida shakllanadi. Salomatlikni oliy qadriyat sifatida qabul qilgan yoshlar jismoniy faollik, to‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlardan voz kechishga ko‘proq moyillik bildiradilar. Ikkinchi muhim mexanizm o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi nazorat qilish jarayonlari bilan bog‘liqdir. O‘z xatti-harakatlarini nazorat qila oladigan, maqsad qo‘yish va unga erishish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yoshlar sog‘lom turmush tarziga doir faoliyatlarni muntazam amalga oshirishga intiladilar. Bu esa sog‘lom odatlarning shakllanishi va mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, oila muhiti yoshlarning sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiyasini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ota-onalarning sog‘lom hayot tarziga amal qilishi, farzandlar bilan sog‘lom turmush madaniyati haqida muloqot olib borishi hamda ijobiy namuna ko‘rsatishi motivatsiyaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Shu bilan birga, ta’lim muassasalari va tengdoshlar guruhi ham yoshlarning sog‘lom xulq-atvorini qo‘llab-quvvatlovchi muhim ijtimoiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ham ikki tomonlama xarakterga ega ekanligi aniqlandi. Bir tomondan, ular sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport va salomatlikka oid foydali ma’lumotlarni tarqatish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, kamharakatlilik va virtual muhitga qaramlik xavfini kuchaytirishi mumkin. Shu sababli yoshlarda media madaniyatni rivojlantirish va axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Olib borilgan nazariy tahlillar asosida yoshlarning sog‘lom turmush tarziga motivatsiyasini rivojlantirishning samarali psixologik mexanizmlari sifatida ijobiy motivatsiyani kuchaytirish, salomatlikka oid qadriyatlarni shakllantirish, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini takomillashtirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash muhim omillar ekanligi aniqlandi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayonda oila, ta’lim muassasalari, psixologlar va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat olib borgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Xulosa

Yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish bugungi kunda nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, qadriyatlari, qiziqishlari va maqsadlari bilan bir qatorda oila, ta’lim muassasalari, tengdoshlar guruhi hamda ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Tahlillar asosida sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirishning asosiy psixologik mexanizmlari sifatida ijobiy motivatsiya, qadriyatli yo‘naltirilganlik, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksiya va shaxsiy mas’uliyat omillari muhim o‘rin tutishi aniqlandi. Ushbu mexanizmlarning rivojlanishi yoshlarda

sog‘lom hayot tarziga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishga, zararli odatlardan voz kechishga hamda jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish jarayonida oila va ta’lim muassasalarining hamkorligi, psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi belgilandi. Yoshlarning sog‘lom hayot tarziga oid bilimlarini oshirish, ularda salomatlik madaniyatini shakllantirish va sog‘lom xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirish motivatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi. Xulosa qilib aytganda, yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab qiladi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan psixologik, pedagogik va ijtimoiy tadbirlar yosh avlodning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning hayot sifatini yaxshilash hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalari asosida yoshlarda sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzi bo‘yicha psixologik-ma’rifiy dasturlarni keng joriy etish maqsadga muvofiq. Bunday dasturlar yoshlarning salomatlik haqidagi bilimlarini oshirish, sog‘lom hayot tarzining afzalliklarini anglash va ijobiy motivatsiyani shakllantirishga xizmat qiladi.
2. Psixologik treninglar va motivatsion mashg‘ulotlarni muntazam tashkil etish tavsiya etiladi. Treninglar davomida o‘zini o‘zi boshqarish, maqsad qo‘yish, stressni yengish va sog‘lom odatlarni shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.
3. Oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish va ota-onalarning pedagogik-psixologik savodxonligini oshirish zarur. Ota-onalar farzandlariga sog‘lom hayot tarzida shaxsiy namuna ko‘rsatishlari hamda salomatlik masalalariga mas’uliyatli munosabatni shakllantirishlari lozim.
4. Yoshlarni sport va jismoniy faollikka keng jalb qilish maqsadida sport to‘garaklari, sog‘lomlashtirish tadbirlari va ommaviy sport musobaqalarining qamrovini kengaytirish tavsiya etiladi. Jismoniy faollik sog‘lom turmush tarziga motivatsiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.
5. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalaridan sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda samarali foydalanish lozim. Yoshlar orasida sog‘lom hayot tarzi, to‘g‘ri ovqatlanish, zararli odatlardan voz kechish va ruhiy salomatlikni saqlashga oid ijobiy kontentlarni ko‘paytirish tavsiya etiladi.
6. Ta’lim muassasalari psixologlari faoliyatini takomillashtirish hamda yoshlarning sog‘lom turmush tarziga oid motivatsion ehtiyojlarini muntazam diagnostika qilish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda psixologik yordam ko‘rsatish imkonini beradi.
7. Yoshlar orasida salomatlik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish tavsiya etiladi. Mazkur dasturlar sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlik, zararli odatlarning profilaktikasi va sog‘lom muloqot madaniyatini qamrab olishi kerak.
8. Oliy va umumta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarziga motivatsiyani rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlarni kengaytirish zarur. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar yoshlarning salomatligini mustahkamlashga qaratilgan yangi psixologik texnologiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi yoshlarda sog‘lom turmush tarziga nisbatan barqaror motivatsiyani shakllantirish, salomatlik madaniyatini rivojlantirish hamda ularning jismoniy va ruhiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 369 p.

2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
3. McClelland D.C. Human Motivation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 663 p.
4. Herzberg F. Work and the Nature of Man. – Cleveland: World Publishing Company, 1966. – 203 p.
5. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. – 617 p.
6. Rosenstock I.M. Historical Origins of the Health Belief Model // Health Education Monographs. – 1974. – Vol. 2. – № 4. – P. 328–335.
7. Antonovsky A. Health, Stress and Coping. – San Francisco: Jossey-Bass Publishers, 1979. – 255 p.
8. Брехман И.И. Валеология – наука о здоровье. – Москва: Физкультура и спорт, 1990. – 208 с.
9. Реан А.А. Психология личности. Социализация, поведение, общение. – Санкт-Петербург: Прайм-Еврознак, 2004. – 416 с.

IJTIMOIY O‘ZGARISHLAR SHAROITIDA BOLALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Sadullayeva Shodiyaxon Soporboy qiz
Osiyo Xalqaro Universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda sog‘lom turmush tarzining bolalar psixologik rivojlanishidagi o‘rni, uni shakllantiruvchi motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik omillar yoritilgan. Shuningdek, oila, ta’lim muassasalari, mahalla va ommaviy axborot vositalarining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi roli ochib berilgan. Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar, raqamli texnologiyalar va globallashuvning bolalar salomatligiga ta’siri tahlil qilinib, sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, bolalar psixologiyasi, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, psixologik salomatlik, ijtimoiy o‘zgarishlar, psixologik immunitet, sog‘lom xulq-atvor, sog‘lom avlod, raqamli muhit.

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы психологические механизмы формирования здорового образа жизни у детей в условиях социальных изменений. В исследовании освещена роль здорового образа жизни в психологическом развитии детей, мотивационные, когнитивные, эмоциональные и социально-психологические факторы, формирующие его. Также раскрыта роль семьи, образовательных учреждений, махалли и СМИ в формировании здорового образа жизни. Проанализировано влияние современных социальных изменений, цифровых технологий и глобализации на здоровье детей, разработаны научно-практические рекомендации по развитию здорового образа жизни.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, детская психология, психологические механизмы, мотивация, психологическое здоровье, социальные изменения, психологический иммунитет, здоровое поведение, здоровое поколение, цифровая среда.

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the psychological mechanisms for shaping a healthy lifestyle in children under conditions of social change. The study highlights the role of a healthy lifestyle in children's psychological development and the motivational, cognitive, emotional, and socio-psychological factors that shape it. It also reveals the role of the family, educational institutions, the mahalla, and the media in shaping a healthy lifestyle. The impact of modern social changes, digital technologies, and globalization on children's health is analyzed, and scientific and practical recommendations for developing a healthy lifestyle are developed.

Keywords: healthy lifestyle, child psychology, psychological mechanisms, motivation, psychological health, social changes, psychological immunity, healthy behavior, healthy generation, digital environment.

Kirish

Bugungi globallashuv, urbanizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik va psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, internet va mobil qurilmalarning keng tarqalishi, jismoniy faollikning kamayishi hamda noto‘g‘ri ovqatlanish holatlarining ortib borishi bolalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF–60-son Farmonida aholining, ayniqsa bolalar va yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faolligini oshirish hamda psixologik salomatligini mustahkamlash muhim vazifalar qatoriga kiritilgan [1].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF–6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni hamda sohaga oid Vazirlar Mahkamasi qarorlarida aholining barcha qatlamlarida sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish, bolalar va o‘smirlarni sportga jalb etish, sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan [2, 3].

Bugungi kunda mamlakatimizda “Besh muhim tashabbus”, bolalar sport maktablari faoliyatini kengaytirish, maktablarda sog‘lom ovqatlanish tizimini takomillashtirish, psixologik xizmatlar faoliyatini rivojlantirish kabi qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur chora-tadbirlar bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslarini o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Sog‘lom turmush tarzining psixologik mohiyati

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti salomatlikni nafaqat kasallikning yo‘qligi, balki jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati sifatida tavsiflaydi [8]. Shu bois sog‘lom turmush tarzi insonning salomatligini saqlash va mustahkamlashga qaratilgan hayot faoliyati usuli sifatida qaraladi. Psixologik nuqtai nazardan sog‘lom turmush tarzi quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- sog‘lom ovqatlanish;
- muntazam jismoniy faollik;
- kun tartibiga rioya qilish;
- psixologik salomatlikni saqlash va stresslarni boshqarish;
- shaxsiy gigiyena;
- ijobiy ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish;
- zararli odatlardan voz kechish [7].

Bolalik davrida shakllangan sog‘lom odatlar insonning butun hayoti davomida saqlanib qolishi mumkin. Shu sababli sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim omil hisoblanadi [15].

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning motivatsiya mexanizmi. Motivatsiya sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy psixologik determinantlaridan biridir. A. Maslou nazariyasiga ko‘ra, insonning xavfsizlik, salomatlik va farovonlikka bo‘lgan ehtiyojlari uning xulq-atvorini boshqaruvchi muhim omillardan hisoblanadi [4]. Bolalarda sog‘lom turmush tarziga oid ichki motivatsiyani shakllantirish sog‘lom odatlarning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Ichki motivatsiya mavjud bo‘lganda bola sog‘lom xulq-atvorni majburiyat sifatida emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Taqlid va identifikatsiya mexanizmi. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, bolalar atrofdagilar xulq-atvorini kuzatish va ularga taqlid qilish orqali yangi ko‘nikmalarni o‘zlashtiradilar [5]. Ota-onalar, pedagoglar, sportchilar va boshqa ijobiy namunalarning sog‘lom turmush tarziga amal qilishi bolalarda ham shunday xulq-atvorning shakllanishiga yordam beradi [6].

Qadriyatlar tizimini shakllantirish mexanizmi. V.M. Karimova tadqiqotlarida shaxs qadriyatlarining shakllanishi ijtimoiy muhit va tarbiya ta’siri bilan bog‘liqligi ta’kidlangan [11]. Sog‘lom hayotni qadriyat sifatida qabul qilgan bolalarda sog‘lom turmush tarziga rioya qilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Qadriyatlar tizimi bolaning hayotiy maqsadlari, qarashlari va xulq-atvorini belgilovchi muhim psixologik mexanizm hisoblanadi.

O‘zini o‘zi boshqarish mexanizmi. Sog‘lom turmush tarzining shakllanishida o‘zini o‘zi boshqarish, iroda va mas’uliyat muhim ahamiyatga ega. Bolaning kun tartibiga rioya qilishi, jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanishi, ovqatlanish rejimini nazorat qilishi va bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishi aynan o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan bog‘liqdir.

Psixologik immunitet mexanizmi. Psixologik immunitet shaxsning salbiy ta’sirlarga qarshi turish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu sifat bolalarni zararli odatlar, salbiy axborotlar, internetdagi xavfli kontent va nosog‘lom turmush tarziga undovchi omillardan himoya qiladi. M.G. Davletshin va E.G‘. G‘oziyev tadqiqotlarida shaxsning irodaviy sifatlari hamda psixologik barqarorligi sog‘lom rivojlanishning muhim omillari sifatida e’tirof etilgan [9, 10].

Ijtimoiy o‘zgarishlarning bolalar sog‘lom turmush tarziga ta’siri

Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar sog‘lom turmush tarzining shakllanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijobiy ta’sirlar: Sport infratuzilmasining rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi maxsus dasturlar, tibbiy xizmatlar sifatining oshishi, sog‘lom ovqatlanish bo‘yicha ommaviy axborotlarning ko‘payishi hamda ommaviy sport tadbirlarining kengayishi.

Salbiy ta’sirlar: Kamharakatlilikning (gipodinamiya) ortishi, gadjetlarga qaramlik, uyqu rejimining buzilishi, tez tayyor bo‘luvchi (fast-fud) ovqatlar iste’molining ko‘payishi hamda psixoemotsional zo‘riqishlarning ortishi.

Oila va ta’lim muassasalari va tengdoshlar roli. Oila sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning birlamchi instituti hisoblanadi. G‘.B. Shoumarov o‘z tadqiqotlarida oilaviy muhit bolaning psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlagan [12].

Oilaning asosiy vazifalari: Sog‘lom odatlarni shakllantirish, kun tartibini nazorat qilish, emotsional qo‘llab-quvvatlash hamda jismoniy faollikni rag‘batlantirish.

Ta’lim muassasalarining vazifalari: Sog‘lom turmush tarziga oid tizimli bilimlarni berish, sport va sog‘lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish, psixologik profilaktika ishlarini olib borish va sog‘lom psixologik muhit yaratish [13].

Z.T. Nishonova va B.R. Qodirovlarning ilmiy tadqiqotlarida ham sog‘lom rivojlanishda maktab va oilaning hamkorligi eng muhim omil sifatida ko‘rsatilgan [13, 14].

Bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish determinantlari: qiyosiy tahlil

Determinant	Psixologik mazmuni	Kutilayotgan natija
Motivatsiya	Sog‘lom hayot kechirishga bo‘lgan ichki ehtiyoj va subyektiv qiziqishlarning mavjudligi	Sog‘lom ko‘nikma va odatlarning barqaror dinamik tizimi shakllanadi
O‘zini o‘zi boshqarish	Shaxsiy xulq-atvor, irodaviy harakatlar va impulslarni ongli ravishda nazorat qilish	Kun tartibiga qat’iy rioya qilish va intizomlilik darajasi kuchayadi
Psixologik immunitet	Tashqi salbiy ijtimoiy ta’sirlar va destruktiv axborotlarga nisbatan ichki barqarorlik	Zararli odatlar va nosog‘lom muhit ta’siridan ishonchli himoya ta’minlanadi
Oila muhiti	Birlamchi ijtimoiylashuv jarayoni, ota-ona xulq-atvoridagi ijobiy namuna va namoyish	Shaxsda fundamental sog‘lom hayot qadriyatlari poydevori shakllanadi

Tengdoshlar ta’siri	Referent guruh ichidagi ijtimoiy taqlid, identifikatsiya va o‘zaro guruhiy moslashuv	Jamoaviy tarzda ijobiy va sog‘lom xulq-atvor mezonlari rivojlanadi
Emotsional barqarorlik	Tashqi stressorlarga, psixologik bosimlarga va affektiv holatlarga nisbatan chidamlilik	Bolaning umumiy psixologik va ruhiy salomatligi konseptual mustahkamlanadi
Jismoniy faollik	Kundalik faol harakatga bo‘lgan ehtiyoj, sport va jismoniy mashqlarning hayotiy usulga aylanishi	Organizmlarning jismoniy va intellektual (ruhiy) jihatdan uyg‘un rivojlanishi ta’minlanadi

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshadigan murakkab jarayondir. Zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarning sog‘lom hayot haqidagi tasavvurlari ham transformatsiyaga uchramoqda.

Raqamli muhitning kengayishi bir tomondan sog‘lom turmush tarziga oid bilimlarni tez va oson oshirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan kamharakatlilik va internetga qaramlik xavfini jiddiy ravishda kuchaytirmoqda. Shu sababli bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda zamonaviy psixologik yondashuvlar, oilaviy tarbiya tizimi va ta’lim muassasalari faoliyatining o‘zaro uzviy integratsiyasini ta’minlash zarur deb hisoblaymiz.

Xulosa

Ijtimoiy o‘zgarishlar sharoitida bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik mexanizmlari motivatsiya, taqlid va identifikatsiya, qadriyatlar tizimi, o‘zini o‘zi boshqarish hamda psixologik immunitet kabi determinantlar bilan belgilanadi. Mazkur mexanizmlarning samarali ishlashi bolaning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda oila, ta’lim muassasalari, mahalla, sog‘liqni saqlash tizimi va ommaviy axborot vositalarining o‘zaro hamkorligi muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida bolalarda sog‘lom hayotga oid bilimlar, ijobiy motivatsiya, emotsional barqarorlik va psixologik immunitetni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Shuningdek, bolalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha psixologik treninglar, profilaktik dasturlar va oilaviy maslahat xizmatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Kelgusida sog‘lom turmush tarzining yosh xususiyatlariga mos psixologik determinantlarini empirik tadqiq etish, diagnostik metodikalarni ishlab chiqish va raqamli muhitning ushbu jarayonga ta’sirini chuqur o‘rganish istiqbolli ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6099-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va ommaviy sportni rivojlantirishga oid qarorlari to‘plami.
4. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954.
5. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: General Learning Press, 1977.
6. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: Freeman, 1997.
7. Seligman M. Flourish. – New York: Free Press, 2011.
8. World Health Organization. Health Promotion and Healthy Lifestyle Guidelines. – Geneva: WHO Press, 2023.
9. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
10. Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

IQTIDORLI O‘QUVCHILAR O‘RTASIDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI TARG‘IB QILISH MASALALARI

Salayeva Latofat Ulug‘bek qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Email: latofatsalayeva223@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola iqtidorli talabalar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish masalalarini o'rganadi va uning pedagogik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda sog'lom turmush tarzi odatlarini shakllantirishning samarali yondashuvlari, jumladan, muntazam jismoniy faollik, muvozanatli ovqatlanish, shaxsiy gigiena, ruhiy farovonlik va zararli odatlarning oldini olish ta'kidlangan. Iqtidorli o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirishda ta'lim muassasalari, oilalar va jamoalarning roliga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada shuningdek, o'quvchilarning jismoniy salomatligi, intellektual rivojlanishi, o'quv yutuqlari va ijtimoiy kompetentsiya o'rtasidagi bog'liqlik ta'kidlangan va sog'liqqa yo'naltirilgan ta'lim amaliyotini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: iqtidorli talabalar, sog'lom turmush tarzi, sog'liqni saqlash ta'limi, jismoniy faollik, muvozanatli ovqatlanish, ruhiy salomatlik, sog'lom odatlar, ta'lim muhiti, talabalar farovonligi, ijtimoiy kompetentsiya, pedagogik yondashuvlar, yoshlarni rivojlantirish.

Abstract. This article examines the issues of promoting a healthy lifestyle among gifted students and analyzes its pedagogical, psychological and social aspects. The study highlights effective approaches to forming healthy lifestyle habits, including regular physical activity, balanced nutrition, personal hygiene, mental well-being and prevention of harmful habits. Particular attention is paid to the role of educational institutions, families and communities in forming a healthy lifestyle among gifted students. The article also highlights the relationship between students' physical health, intellectual development, academic achievement and social competence and provides recommendations for improving health-oriented educational practices.

Keywords: gifted students, healthy lifestyle, health education, physical activity, balanced diet, mental health, healthy habits, learning environment, student well-being, social competence, pedagogical approaches, youth development.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы пропаганды здорового образа жизни среди одаренных учащихся и анализируются его педагогические, психологические и социальные аспекты. В исследовании освещаются эффективные подходы к формированию здоровых привычек, включая регулярную физическую активность, сбалансированное питание, личную гигиену, психическое благополучие и профилактику вредных привычек. Особое внимание уделяется роли образовательных учреждений, семей и сообществ в формировании здорового образа жизни среди одаренных учащихся. В статье также освещается взаимосвязь между физическим здоровьем учащихся, их интеллектуальным развитием, успеваемостью и социальной компетентностью, а также даются рекомендации по совершенствованию образовательной практики, ориентированной на здоровье.

Ключевые слова: одаренные учащиеся, здоровый образ жизни, санитарное просвещение, физическая активность, сбалансированное питание, психическое здоровье, здоровые привычки, учебная среда, благополучие учащихся, социальная компетентность, педагогические подходы, развитие молодежи.

Iqtidorli talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish O'zbekistonda va butun dunyoda ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv, raqamlashtirish va akademik raqobatning kuchayishi sharoitida iqtidorli o'quvchilar nafaqat intellektual qiyinchiliklarga, balki jismoniy, hissiy va psixologik bosimlarga ham duch kelishadi. Shuning uchun iqtidorli talabalar o'rtasida sog'lom turmush tarzi odatlarini targ'ib qilish ularning barqaror akademik yutuqlari, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashning muhim shartidir.

Iqtidorli talabalar jamiyatning muhim intellektual resursini ifodalaydi. Ularning yuqori kognitiv qobiliyatlari, ijodkorligi va akademik salohiyati milliy rivojlanish va innovatsiyalarga

hissa qo'shadi. Biroq, intensiv o'quv jarayonlari, akademik musobaqalarda ishtirok etish, xalqaro olimpiadalarga tayyorgarlik ko'rish va ta'lim talablarining ortishi ko'pincha stress, charchoq, uyqu buzilishi va jismoniy faollikning pasayishiga olib keladi. Natijada, sog'lom turmush tarzini shakllantirish iqtidorli o'quvchilar bilan ta'lim ishlarining ajralmas qismi deb hisoblanishi kerak.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat salomatligini mustahkamlash, jismoniy faollikni rivojlantirish va yoshlarning har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Bu sohada muhim huquqiy asos Prezidentning PF-6099-sonli "Sog'lom turmush tarzini keng joriy etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonidir. Farmonda muntazam jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, kasalliklarning oldini olish va ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzi uchun qulay sharoitlar yaratish muhimligi ta'kidlangan. Hujjatda shuningdek, bolalar va yoshlarni sport tadbirlariga jalb qilish va maktablarda sog'liqni saqlashni rivojlantirish dasturlarini kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan. Bundan tashqari, so'nggi ta'lim islohotlari iqtidorli va iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirdi. "Prezidentning iqtidorli bolalari" tashabbusi iqtidorli o'quvchilarni erta yoshdan aniqlash, qulay ta'lim sharoitlarini yaratish va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Tashabbusda intellektual mukammallik barqaror muvaffaqiyat uchun jismoniy va psixologik farovonlik bilan birga bo'lishi kerakligi tan olingan.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jismoniy salomatlik kognitiv faoliyatga bevosita ta'sir qiladi. Ta'lim psixologlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, muntazam ravishda jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanadigan o'quvchilar diqqatni jamlash, xotirani saqlash, ijodkorlik va muammolarni hal qilish qobiliyatlarining yuqori darajasini namoyon etadilar. Jismoniy mashqlar miyaga qon aylanishini yaxshilaydi, kislorod ta'minotini oshiradi va o'rganish va intellektual rivojlanish uchun mas'ul bo'lgan neyron aloqalarini rag'batlantiradi. Shuning uchun sport va jismoniy tarbiya shunchaki darsdan tashqari mashg'ulotlar sifatida emas, balki akademik mukammallikning muhim tarkibiy qismlari sifatida qaralishi kerak. Sog'lom turmush tarzi bir-biri bilan bog'liq bir nechta elementlarni o'z ichiga oladi. Birinchi komponent muntazam jismoniy faollikdir. Xalqaro sog'liqni saqlash tavsiyalariga ko'ra, maktab yoshidagi bolalar har kuni kamida 60 daqiqa o'rtacha yoki kuchli jismoniy faollik bilan shug'ullanishlari kerak. Ko'pincha uzoq vaqt o'qiydigan iqtidorli o'quvchilar uchun sport to'garaklari, yengil atletika, suzish, futbol, voleybol, badminton va dam olish mashqlarida qatnashish jismoniy tayyorgarlik va aqliy muvozanatni saqlashga yordam beradi.

Ikkinchi komponent - bu to'g'ri ovqatlanish. Muvozanatli ovqatlanish miya faoliyati va akademik ko'rsatkichlarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Iqtidorli o'quvchilar oqsillar, vitaminlar, minerallar, mevalar, sabzavotlar va donli mahsulotlarni yetarli miqdorda iste'mol qilishlari kerak. Tez tayyorlanadigan taomlar, shakarli ichimliklar va yuqori darajada qayta ishlangan mahsulotlarni haddan tashqari iste'mol qilish diqqatni jamlash va o'rganish natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'zbekistonning sog'lom turmush tarzi siyosati yoshlar orasida sog'lom ovqatlanish odatlarini rag'batlantirish bilan birga shakar, tuz va nosog'lom yog'larga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishni kamaytirishga alohida urg'u beradi.

Uchinchi komponent - bu ruhiy salomatlik va hissiy farovonlik. Iqtidorli o'quvchilar yuqori akademik talablari tufayli ko'pincha perfektsionizm, xavotir, muvaffaqiyatsizlik qo'rquvi va ijtimoiy izolyatsiyani boshdan kechirishadi. Shuning uchun, ta'lim muassasalari o'quvchilarga stressni boshqarish va hissiy barqarorlikni saqlashga yordam beradigan psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini yaratishi kerak. Maktab psixologlari, ustozlari va o'qituvchilari maslahat xizmatlarini ko'rsatishlari va o'quvchilar o'z tashvishlarini ifoda etishda o'zlarini qulay his qiladigan qo'llab-quvvatlovchi o'quv muhitini yaratishlari kerak.

Yana bir muhim jihat - bu yetarli uyqu. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlar optimal kognitiv faoliyat uchun kechasi taxminan 8-10 soat uyquga muhtoj. Uyqusizlik xotira, diqqatni jamlash, qaror qabul qilish va hissiy tartibga solishga salbiy ta'sir qiladi. Imtihonlar va musobaqalarga tayyorgarlik ko'rayotgan iqtidorli o'quvchilar ko'pincha o'qish uchun uyqudan voz kechishadi, bu esa oxir-oqibat ularning akademik samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shunday qilib, sog'lom uyqu odatlarini targ'ib qilish maktab sog'liqni saqlash ta'lim dasturlariga kiritilishi

kerak.

Raqamli sog'liq ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy o'quvchilar kompyuterlar, smartfonlar va raqamli o'quv platformalaridan foydalanishda ko'p vaqt sarflashadi. Ekran oldida haddan tashqari ta'sir qilish ko'zning charchashiga, yomon holatga, uyqu buzilishiga va jismoniy faollikning pasayishiga olib kelishi mumkin. Ta'lim muassasalari raqamli sog'lomlashtirish amaliyotlarini o'rgatish, ekransiz faoliyatni tashkil qilish va muvozanatli kundalik tartiblarni targ'ib qilish orqali mas'uliyatli texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantirishlari kerak.

Iqtidorli o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda maktablarning roli ayniqsa muhimdir. Maktablar sog'liqni saqlash ta'limini o'quv dasturlariga kiritishi, sport musobaqalarini tashkil qilishi, to'yimli ovqatlanishi va sog'lomlashtirish dasturlarini yaratishi kerak. O'zbekistonning sport va ta'lim sohalaridagi so'nggi islohotlar bu maqsadni yanada qo'llab-quvvatlaydi. 2025–2026 o'quv yilidan boshlab payshanba kunlari "Jismoniy tarbiya va sport kuni" deb belgilandi, bu o'quvchilarning jismoniy mashg'ulotlarda ko'proq ishtirok etishini rag'batlantiradi va yoshlar orasida sog'lom turmush tarzi madaniyatini mustahkamlaydi.

O'qituvchilar sog'lom xulq-atvorni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Ijobiy o'rnak bo'lib xizmat qilish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni sport bilan shug'ullanishga, muvozanatli jadvalga rioya qilishga va sog'lom odatlarni qabul qilishga undashlari mumkin. Kasbiy rivojlanish dasturlari o'qituvchilarni o'quvchilar salomatligi, stressni boshqarish va sog'lomlashtirish strategiyalari haqida bilim bilan ta'minlashi kerak.

Oilaning ishtiroki ham bir xil darajada muhimdir. Ota-onalar bolalarning ovqatlanish odatlariga, jismoniy faollik darajasiga, uyqu tartibiga va umumiy turmush tarzini tanlashga ta'sir qiladi. Oilalar muntazam jismoniy mashqlar, sog'lom ovqatlanish va konstruktiv dam olishni rag'batlantiradigan qo'llab-quvvatlovchi uy muhitini yaratishi kerak. Maktablar va oilalar o'rtasidagi mustahkam hamkorlik sog'liqni saqlashni targ'ib qilish tashabbuslarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Jamoat tashkilotlari va mahalliy muassasalar sport klublari, yoshlar dasturlari, sog'liqni saqlash kampaniyalari va dam olish maskanlari orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga qo'shimcha hissa qo'shishlari mumkin. Jamoat darajasida yoshlarning ishtirokini yaxshilashga qaratilgan so'nggi hukumat choralari yoshlar orasida iste'dodlarni rivojlantirish, ijtimoiy ishtirok etish va sog'lom dam olish uchun imkoniyatlar yaratishga urg'u beradi.

Xulosa qilib aytganda, iqtidorli o'quvchilar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish maktablar, oilalar, jamoalar va davlat muassasalarining muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlarini talab qiladigan ko'p qirrali ta'lim vazifasidir. Jismoniy faollik, sog'lom ovqatlanish, psixologik farovonlik, yetarli uyqu va mas'uliyatli texnologiyalardan foydalanish iqtidorli o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillardir. O'zbekistondagi zamonaviy islohotlar sog'lom va bilimli yosh avlodni tarbiyalashga qat'iy sodiqlikni namoyish etadi. Sog'liqni saqlashni targ'ib qilishni ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish orqali iqtidorli o'quvchilar nafaqat akademik muvaffaqiyatlarga, balki umrbod jismoniy va ruhiy farovonlikka ham erishishlarini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6099-son Farmoni. – Toshkent, 30.10.2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish va yoshlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–92-son Farmoni. – Toshkent, 21.12.2021.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Ta’lim muassasalarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va o‘quvchilar salomatligini mustahkamlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi. – Toshkent, 2023.

4. World Health Organization (WHO). Health Promoting Schools: An Effective Approach to Early Action on Noncommunicable Disease Risk Factors. – Geneva: WHO, 2021. – 56 p.

5. Sternberg R.J. Cognitive Psychology. – 7th ed. – Boston: Cengage Learning, 2017. – 672 p.

6. G‘ulomov S.S., Xasanov A.A. Iqtidorli o‘quvchilar bilan ishlashning pedagogik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 184 b.

OILAVIY TARBIYA VA SOG‘LOM TURMUSH TARZINING SHAKLLANISHI.

Sherjanova Nodira Alisherovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi
katta o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu mavzuda oilaviy tarbiyaning farzandlarning jismoniy, ma’naviy va axloqiy rivojlanishiga ta’siri, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, shaxsiy gigiyena va zararli odatlardan saqlanish kabi omillarning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, oilada sog‘lom muhit yaratish, ota-onalarning namunali xulqi va farzandlar tarbiyasidagi mas’uliyati sog‘lom avlodni voyaga yetkazishning muhim sharti sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: oila, oilaviy tarbiya, sog’lom turmush tarzi, salomatlik, madaniyat, tarbiya, na’muna.

Аннотация: В данной теме рассматривается влияние семейного воспитания на физическое, духовное и нравственное развитие детей, а также анализируется значение таких факторов, как здоровое питание, физическая активность, личная гигиена и отказ от вредных привычек. Кроме того, особое внимание уделяется созданию здоровой семейной среды, примерному поведению родителей и их ответственности в воспитании детей как важным условиям формирования здорового поколения.

Ключевые слова: семья, семейное воспитание, здоровый образ жизни, здоровье, культура, воспитание, пример.

Annotation: This topic examines the impact of family upbringing on the physical, spiritual, and moral development of children, and analyzes the importance of such factors as healthy nutrition, physical activity, personal hygiene, and the avoidance of harmful habits. In addition, special attention is given to creating a healthy family environment, the exemplary behavior of parents, and their responsibility in raising children as essential conditions for fostering a healthy generation.

Keywords: family, family education, healthy lifestyle, health, culture, education, example.

Kirish. Bugungi kunda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash har bir jamiyatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda oila shaxs kamolotining ilk va asosiy maskani sifatida alohida o‘rin tutadi. Farzandning dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari, sog‘lig‘i va hayot tarziga oid dastlabki ko‘nikmalari aynan oilada shakllanadi. Shu sababli oilaviy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Sog‘lom turmush tarzi inson salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladigan omillar majmuasidir. To‘g‘ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, zararli odatlardan voz kechish hamda sog‘lom ruhiy muhitni saqlash uning asosiy tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ushbu odatlarning shakllanishida esa oilaning ta’siri beqiyosdir.

Yoshlarimizni jismoniy sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash uchun besh muhim tashabbus doirasida ko‘plab stadionlar, suv havzalari, sport majmualari va saroylari barpo etilmoqda, deydi Prezident Shavkat Mirziyoyev, – Eng muhimi, farzandlarimiz o‘rtasida sport bilan muntazam shug‘ullanadigan, sog‘lom turmush tarzini o‘z hayotiy maqsadiga aylantirgan yigit-qizlar safi kengayib bormoqda. Sog‘lom turmush tarzi – bu insonning xatti-harakatlarining individual tizimi bo‘lib, unga haqiqiy muhitda (tabiiy, texnogen va ijtimoiy) jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik va uzoq umr ko‘rishni ta’minlaydi. Sog‘lom turmush tarzi fiziologik va ruhiy

jarayonlarning normal borishi uchun eng yaxshi sha- roitlarni yaratadi, bu turli kasalliklarning ehtimolini kamaytiradi va insonning umr ko‘rish davomiyligini oshiradi.

Inson salomatligi - uzoq umr ko‘rish davomida yuqori sur’atdagi ishchanlik qobiliyati va ijtimoiy faolligini, uning ruhiy hamda fiziologik sifatlarini saqlash va rivojlantirishdir. Organizmning sog‘lomlik holati o‘zaro bog‘liq jarayon bo‘lib, yoshi, jinsi, kasbiy faoliyati, hayot tarzi bilan bog‘liqlikda zaiflashib ketadi va mustahkamlanadi

Asosiy qism

Yosh avlodning sog‘lom oilaviy munosabatlar sharoitida tarbiyalanadigan xislatlariga va bunda asosan qadriyatlar sifatida alohida diqqatini qaratganlar. Oila va unda tarbiyalanadigan farzandlarning axloqiy, xulqiy tarbiyasi benuqson bo‘lishi, har qanday bemani, yot g‘oyalardan holi, yeyish-ichishida me’yorning bo‘lishi, ota-onalar tomonidan farzandaning asrab avaylab o‘stirishlari natijasida boladagi irodaviy sifatlarning susayishi qanday oqibatlarga sabab bo‘lishi jamiyatdagi eng fozil insonlarini qiziqtirganki, shu sabab ular asosan o‘z asarlarida yaxshi xulqli, ma’naviy yetuk avlod tarbiyalashda nimalar qilish zarurligiga alohida e’tibor qaratganlar.

Xorij mamlakatlarida oilaviy munosabatlarga qiziqish o‘tgan asrning boshlarida keskin oshdi. Taniqli tadqiqotchi olimlar U.Jems, Ch.Kuli, U.Tomas, F.Znanetskiy, J.Piaje, Z.Freyd kabilar oilaning davrasida ro‘y beradigan shaxslararo munosabatlarning xarakteriga alohida e’tibor berishib, bir shaxsning boshqa bir shaxs ta’sirida qanday qilib, o‘z sifatlarini takomillashtirishi, o‘zgartirishi, tarbiyalanishi kabi qator masalalarni o‘rgandilar. Demak, shaxsning tarbiyasida, sog’lom turmush tarzini shakllantirishda avvalo oila asosiy o’rin tutadi. Eski falsafiy lug‘atlarda “Oila – bu jamiyatning yacheykasi (kichik ijtimoiy guruh), er-xotinlik hamda ota-onalik munosabatlarini tiklash orqali shaxsiy turmush tarzini tashkil etishning muayyan ko‘rinishi, ya’ni, bir yerda umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlarning birgalikda yashashini ifodalovchi muhim bo‘g‘in” deb ta’rif berilgan.

Sharq mutafakkirlarining barchasini g‘oyaviy jihatdan bir lashtirgan asos shu bo‘lganki, ular shaxs tarbiyasi va kamoloti da oilaning, oilaviy tarbiyaning rolini yuqori qo‘yishgan, ayniqsa, shaxsning aqliy va axloqiy kamolotida oilaning o‘rni, ota-ona va yaqin kishilarning yo‘naltiruvchi va tarbiyalovchi vazifalariga alohida e’tibor berganlar. Ular faqat oiladagina rivojlanishi mumkin bo‘lgan sifatlar — halollik, poklik, mard lik, mehribonlik, haqgo‘ylik kabi qator fazilatlarni barcha sifat lardan yuqori qo‘yishlari bilan birga insoniy munosabatlarda namoyon bo‘ladigan yuksak fazilatlar, avvalo, ota-onadan bo laga o‘tishi va ularning jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’siri kabi qimmatli fikrlar va bu boradagi amaliy ko‘rsatmalarni o‘z fal safiy-axloqiy, sotsiologik va psixologik qarashlarida ifodalab berganlar.

Shakllanib kelayotgan farzandlar tarbiyasi kabi mas’uliyatli ishda ota-onaning, ya’ni, katta avlod vakillarning o‘rni masalasi zardushtiylikning bebaho va alohida qimmatga ega - «Avesto» kitobida ham talqin etilgan. U kitobda dastlab oila muqaddas dargoh sifatida aks etib, oilaning barqarorligi, farzandni tarbiyalashda er va xotin baravar mas’ul bo‘lishi to‘g‘risidagi o‘ziga xos g‘oyalar bayon qilingan. Asarda takidlanishicha, oilada ota-ona o‘z farzandini tushunishi, er va xotinning bir-biriga vafodor, g‘amho‘r, mehribon va inoq bo‘lishlari zarurligi va bolaning haq-huquqlariga etibor qaratish natijasida bola o‘zini yolg‘iz his qilmasligi, ota-ona uchun keraklilik hissini kuchaytirish lozimligi masalasi o‘sha davrlarda ham dolzarb darajaga ko‘tarilganligini anglab yetishimiz mumkin. Bola tarbiyasiga zardushtiylik davrida katta e’tibor berilib, bolalarda hamdardlik qilish masalasi muhim hisoblangan bo‘lib, bu esa oilaning jamiyat oldida tutgan o‘rni va mavqeini yuksaltirish uchun azaldanoq zamin yaratilganligiga ko‘rishimiz mumkin. O‘sh qadimgi davrlarda ham bolalarni tarbiyalash masalasi katta ma’suliyatli ish bo‘lib dolzarb hisoblangan.

Ibn Sino oiladagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarning turli tomonlarini yoritar ekan, u, avvalo oila boshlig‘i bo‘lgan ota oldiga qator talablarni qo‘ya oladi. Oila boshlig‘i, deb yozadi u, ham nazariy, ham amaliy jihatdan oilada tarbiya masalalarini mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi, zararli odatlardan tiyila olishi, o‘z iroda kuchini safarbar eta olib, o‘zini idora qila olmog‘i lozim. Ota-ona davlat boshlig‘imi, yoki oddiy fuqaromi, baribir, u bola shaxsi kamolotida mas’uldir.

Ibn Sinoning bolada ijobiy hamdardlikni shakllantirish, odatiy stereotiplarga o‘rgatish, sog‘lom turmush tarziga amal o‘rgatishni targ‘ib qilish borasidagi gipotezasi, tarbiya psixologiyasidagi va rahbar shaxsiga qo‘ygan ushbu talablari o‘sha davr uchun nechog‘lik zarur bo‘lsa, bizning hozirgi kunimizda ham u o‘z kuchini, muhim ahamiyatini kasb etadi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi, ya’ni ota-ona «nafaqat so‘z bilan, balki amalda ham bola ruhiga ta’sir ko‘rsatmog‘i lozim»

Sog’lom turmush tarzi - o’tgan asrning 80-yillarida salomatlikni saqlash xamda mustahkamlashda, kishilarning uzoq va baxtli umr ko’rishlarida eng muhim tadbir turmush tarzi va uni sog’lomlashtirish ekanligi ham ilmiy, ham amaliy tomondan isbotlandi. Shundan beri sog’lik haqida gap ketganda, kishilarning turmush tarzini soglomlashtirish to’g’risida ko’p gapiriladi. Hattoki, bu masala muhim davlat xujjatlari, Prezident farmon va qonunlarida ham o‘z aksini topgan. Bu masalaga bag’ishlab qanchadan-qancha yig’ilishlar, muhokamalar o’tkazilib, maqolalar, eshittirishlar, ko’rsatuvlar berilmoqda.

Sog‘lom - turmush tarzini shakllantirish pedagogikasining muhim tomonlaridan biri sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga borasida odamlarning bilimlarini ularning kundalik hayotiga tadbi qilish, ularning gigienik o‘zini tuta olishiga, shaxsning sanitariya madaniyatini yuksaltirishga qarata olishdir. Umuman tarbiya jarayoni uzoq davom etadigan, uzluksiz jarayon bo‘lib, har bir shaxsda uning hayotiy qarashlarini, mavqeini shakllantirishdan iboratdir. Sog‘lom turmush tarzi —insoning sog‘lom bo‘lib tug‘ilishini shakllantiruvchi embrional taraqqiyot davridan boshlab, to umrining oxirigacha davom etadigan inson hayotining barcha tomonlarini o‘z ichiga qamrab olgan hayot falsafasidir. Sog‘lom turmush tarzi insonni uning o‘zligini anglashga olib boradigan, kamolot sari yetaklaydigan, umriga mazmun ato etadigan umidbaxsh yo‘ldir. Bu esa birinchi navbatda oiladan boshlandi.

Oilada sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, uning ma’naviy va tibbiy salomatligi negizidir. Sog‘lom turmush tarzi kishilarning hayot darajasi bilan, sixat-salomatligi, kayfiyati, intilishlari, ishonchi, kundalik o‘zgarishlar bilan, bu o‘zgarishlar qay darajada xalqimizning ehtiyojini qondirishi bilan, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyoti darajasi bilan, eng muhimi yosh avlod tarbiyasini yuksak samaradorligini ta’minlaydigan chora-tadbirlar bilan bog‘liqdir. Sog‘lom turmush tarzi oilaning farovonlik darajasi, sog‘lig‘i, maishiy xizmatga bo'lgan ehtiyojlarini to‘la qondirish demografik jarayonlami maqbul holatga keltirish, oila a’zolarining ma’naviy madaniyati, ongliligi, axloqiy jihatlari va ijtimoiy mehnatdagi faolligi bilan belgilanadi. Oilda turmush tarzi jismonan sog‘lom va aqlan barkamol yangi avlodni shakllantirish, mehnat qilish, dam olish va ijtimoiy faoliyat ko‘rsatishga yordam beruvchi oqilona hayot tarzini tashkil etadi. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uy-joy sharoitini yaxshilash, oila budjetini to‘g‘ri taqsimlash, to‘g‘ri va sifatli ovqatlanish, spirtli ichimliklar, giyohvandlik, chekishni cheklash, yosh bo‘shangan onani va bolani asrash, ona suti bilan boqish masalalari bo‘yicha keng targ‘ibot va tashviqot shlari olib borish joylardagi mutasaddi tashkilotlaming asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Xulosa

Ota-onalar farzandlariga yetarli darajada e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatmayapti, ularning bo‘sh vaqtini qanday o‘tkazayotganiga qiziqmayapti, sog‘lom turmush tarzi, o‘z salomatligiga g‘amxo‘rlik qilish, shaxsiy gigiyena qoidalari, o‘smirlik davridagi o‘zgarishlar va jinsiy tarbiya masalalarida farzandlari bilan samimiy suhbatlar olib bormayapti hamda ularga kerakli maslahatlarni bermayapti. Natijada voyaga yetmaganlar orasida turli kasalliklar, ruhiy buzilishlar va erta homiladorlik holatlari yuzaga kelmoqda. Oiladagi samimiy munosabatlarning yetishmasligi, oilaviy aloqalarning buzilishi bolalarni ota-onalaridan uzoqlashtiradi, ular o‘rtasida turli kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi hamda ota-onalarning farzand tarbiyasi va bo‘sh vaqtiga befarq bo‘lib qolishiga sabab bo‘ladi.

Shuning uchun sog‘lom turmush tarzini urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz kerak. Chunki bu tushuncha inson faoliyatining barcha ijobiy jihatlarini o‘z ichiga oladi: mehnatdan qoniqish, hayotga faol munosabat, tartibli turmush tarzi, zararli

odatlarning yo‘qligi, yuqori tibbiy madaniyat, salomatlikka xavf tug‘diruvchi omillarni bartaraf etish va sog‘lom muhit yaratish.

Xulosa qilib aytganda Sog’lom turmush tarziga amal qilish uchun biz zararli odatlar va buzg‘unchi illatlardan (alkogolizm, giyohvandlik, chekish va boshqalardan) voz kechishimiz, oilada tibbiy savodxonlikni shakllantirishimiz zarur. Sog‘lom turmush oiladagi mehr-oqibat va o‘zaro hurmatni mustahkamlash orqali biz sog‘lom, baxtli va barkamol avlodni tarbiyalashimiz mumkin. Ota-onalar farzandlariga mehr-muhabbat ko‘rsatib, ular bilan samimiy muloqot olib borsalar, sog‘lom turmush tarzi, shaxsiy gigiyena, to‘g‘ri ovqatlanish va zararli odatlardan saqlanish kabi muhim hayotiy ko‘nikmalarni shakllantira oladilar. Sog‘lom turmush tarzi esa inson salomatligini mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish va hayot sifatini yaxshilashning asosiy omillaridan biridir. Shu sababli oilada sog‘lom muhit yaratish, tibbiy madaniyatni oshirish va sog‘lom odatlarni kundalik hayotga singdirish har bir ota-onaning muhim vazifasidir.

Demak, mustahkam oilaviy tarbiya va sog‘lom turmush tarziga amal qilish orqali jismonan sog‘lom, ma’nan yetuk, bilimli va mas’uliyatli yoshlarni tarbiyalash mumkin. Bu esa jamiyat taraqqiyoti va kelajak avlodning farovon hayoti uchun muhim poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Oila psixologiyasi darslik. Toshkent – 2007
2. Философский словарь / Под ред. И.Т. Фролова.-М., 1980 – С. 326
3. Shomansurova I. E. ―Oilaviy tibbiyotda xamshiralik ishi‖ toshkent – 2008 y
4. Abu Ali ibn Sino. Tibbiy risolalar.T.: Fan, 1987:B-22
5. G‘.B. Shoumarov, I.O. Haydarov, N. A. Sog‘inov, F. A. Akramova, G. Solihova, G. Niyozmetova.Toshkent-2013
6. D.D. Sharipova, N.M.Adilova, Z.Sh.Kavilova Valeologiya 2-nashrToshkent-2016

GENDER ASOSIDA STRESSGA CHIDAMLILIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shernazarova Sabina Umid qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada temperament va gender omillarining stressga chidamlilik darajasiga ta’siri psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Shaxsning individual-tipologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, stressli vaziyatlarga moslashish mexanizmlari hamda turli temperament turlarining stressni boshdan kechirish jarayonidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, erkaklar va ayollarning stressga munosabati, uni yengib o‘tish strategiyalari hamda genderga xos psixologik tafovutlar ilmiy asosda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: temperament, gender, stress, stressga chidamlilik, psixologik barqarorlik, emotsional holat, moslashuvchanlik, shaxs xususiyatlari, psixologik himoya, ijtimoiy omillar.

Аннотация: В данной статье с психологической точки зрения анализируется влияние темперамента и гендерных факторов на уровень стрессоустойчивости личности. Освещаются индивидуально-типологические особенности человека, эмоциональная устойчивость, механизмы адаптации к стрессовым ситуациям, а также роль различных типов темперамента в процессе переживания стресса. Кроме того, рассматриваются особенности отношения мужчин и женщин к стрессу, стратегии его преодоления и гендерно обусловленные психологические различия.

Ключевые слова: темперамент, гендер, стресс, стрессоустойчивость, психологическая устойчивость, эмоциональное состояние, адаптивность, личностные особенности, психологическая защита, социальные факторы.

Annotation: This article analyzes the influence of temperament and gender factors on the level of stress resistance from a psychological perspective. It examines individual typological characteristics of personality, emotional stability, adaptation mechanisms to stressful situations, and the role of different temperament types in coping with stress. In addition, the study explores

gender differences in responses to stress, coping strategies, and psychologically determined distinctions between men and women.

Keywords: temperament, gender, stress, stress resistance, psychological stability, emotional state, adaptability, personality traits, psychological defense, social factors.

Kirish. Hozirgi globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, hayot sur'atining jadallashuvi hamda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi natijasida stress inson hayotining ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Turli yoshdagi insonlar ta'lim, mehnat faoliyati, oilaviy munosabatlar, shaxslararo muloqot va ijtimoiy bosimlar ta'sirida turli darajadagi ruhiy zo'riqishlarni boshdan kechirishmoqda. Shu bois stressga chidamlilik muammosi zamonaviy psixologiya fanining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyatga ega.

Stressga chidamlilik shaxsning murakkab va keskin vaziyatlarda o'z psixologik barqarorligini saqlab qolishi, salbiy emotsional ta'sirlarga bardosh bera olishi hamda mavjud muammolarga moslashuvchan tarzda yechim topa olish qobiliyatidir. Mazkur sifat insonning individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi, emotsional intellekti, motivatsiyasi va hayotiy qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, temperament va gender omillari stressli vaziyatlarga munosabat bildirishda muhim rol o'ynaydi.[9]

Temperament insonning tug'ma psixofiziologik xususiyatlarini ifodalab, uning hissiy reaksiya tezligi, ta'sirchanligi, faoliyat sur'ati va barqarorligida namoyon bo'ladi. Turli temperament tipiga mansub shaxslar stressli vaziyatlarda turlicha reaksiyalar ko'rsatadi. Masalan, ayrim shaxslar qiyinchiliklarga faol va qat'iy yondashsa, boshqalari ichki kechinmalarni chuqur boshdan kechirishi mumkin. Shu sababli temperamentning stressga chidamlilikka ta'sirini ilmiy jihatdan o'rganish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, gender xususiyatlari ham stressni qabul qilish, baholash va yengib o'tish strategiyalarida sezilarli farqlarni yuzaga keltiradi. Erkaklar va ayollarning emotsional javob reaksiyalari, ijtimoiy rollari, kommunikativ uslublari hamda psixologik himoya mexanizmlari turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa ularning stressga moslashish darajasida o'z aksini topadi.[3]

Mazkur maqolaning maqsadi temperament va gender omillarining stressga chidamlilikka ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlarini nazariy tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini yoritish hamda stressga bardoshlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini ochib berishdan iboratdir. Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim muassasalari, mehnat jamoalari, oilaviy psixologik maslahat jarayonlari hamda shaxsiy rivojlanish amaliyotida eng muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Stressga chidamlilik insonning tashqi va ichki bosim omillari ta'sirida psixologik muvozanatini saqlay olish, faoliyat samaradorligini pasaytirmaslik hamda murakkab vaziyatlarga konstruktiv tarzda moslasha olish qobiliyatidir. Ushbu jarayon shaxsning individual xususiyatlari bilan belgilanadi. Temperament va gender omillari esa stressni idrok etish, unga munosabat bildirish va uni boshqarish usullarida muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi.

Temperamentning stressga chidamlilikdagi psixologik roli. Temperament shaxsning nerv tizimi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, emotsional ta'sirchanlik, psixik jarayonlar tezligi, reaksiyaning kuchi va barqarorligida aks etadi. Shu jihatdan har bir temperament turi stressli vaziyatlarda o'ziga xos xulq-atvor modelini namoyish etadi.[8]

Sangvinik temperament vakillari odatda faol, tashabbuskor, ijtimoiy moslashuvchan hamda optimistik kayfiyatga moyil bo'ladi. Ular stressli holatlarda vaziyatni haddan tashqari dramatik qabul qilmaydi, muammoga yechim topishga intiladi va ijtimoiy yordamdan samarali foydalanadi. Bunday shaxslarda stressdan keyingi tiklanish jarayoni nisbatan tez kechadi.

Xolerik temperament egalari kuchli energiya, qat'iyat va yuqori faollik bilan ajralib turadi. Ular murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilishi mumkin, biroq keskinlik va hissiy portlashlarga moyillik sababli stress paytida asabiylik kuchayishi ehtimoli mavjud. Agar emotsional nazorat rivojlangan bo'lsa, xoleriklar yuqori natijadorlik ko'rsatishi mumkin.

Flegmatik temperament vakillari sabr-toqatli, vazmin va hissiy jihatdan nisbatan barqaror bo'ladi. Ular keskin vaziyatlarda shoshilinch reaksiya bildirmaydi, vaziyatni kuzatib, mulohaza

asosida harakat qiladi. Biroq yangi sharoitga moslashish sur’ati sekin bo‘lishi mumkin. Shu sababli uzoq davom etuvchi stress omillarida ichki charchoq kuzatilishi ehtimoldan xoli emas.

Melanxolik temperament egalari nozik hissiyotli, chuqur mushohada qiluvchi va yuqori sezgirlikka ega bo‘ladi. Ular stressli voqealarni ichki kechinma sifatida uzoq vaqt boshdan kechirishi mumkin. Tashvish, ikkilanish va o‘zini tanqid qilish holatlari kuchli bo‘lgani sababli ularda psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.[7]

Gender omillarining stressga ta’siri. Zamonaviy psixologiyada gender biologik farqlardan tashqari, jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy rollar, kutishlar va xulqiy me’yorlarni ham o‘z ichiga oladi. Shu sababli erkaklar va ayollarning stressga bo‘lgan munosabatida nafaqat fiziologik, balki sotsiopsixologik farqlar ham kuzatiladi.

Ko‘plab holatlarda erkaklar stressli vaziyatlarda muammoni bevosita hal etishga yo‘naltirilgan strategiyalarni tanlaydi. Ular his-tuyg‘ularni kamroq namoyon qilishga intilishi, mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko‘rishi mumkin. Natijada tashqi tomondan bardoshli ko‘rinsada, ichki bosimni uzoq vaqt yig‘ib yurish ehtimoli mavjud.

Ayollarda esa emotsional tajribani ochiq ifodalash, yaqinlar bilan fikr almashish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga murojaat qilish holatlari ko‘proq uchraydi. Bu usul ko‘plab vaziyatlarda stressni kamaytiruvchi samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, hissiy sezgirlikning yuqoriligi ayrim holatlarda ruhiy zo‘riqishni kuchaytirishi mumkin.

Temperament va genderning o‘zaro uyg‘unligi. Stressga chidamlilikni faqat temperament yoki faqat gender orqali tushuntirish yetarli emas. Masalan, sangvinik ayol va sangvinik erkakning stressni boshqarish usuli bir xil bo‘lmasligi mumkin, chunki ularga ta’sir etuvchi ijtimoiy talablar farqlanadi. Xuddi shuningdek, xolerik erkak bilan xolerik ayolning hissiy javob reaksiyalarida ham individual tafovutlar kuzatiladi.[9]

Xulosa. Stressga chidamlilik zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u shaxsning turli hayotiy qiyinchiliklar, emotsional zo‘riqishlar hamda noqulay tashqi ta’sirlar sharoitida o‘zining psixologik barqarorligini saqlab qolish qobiliyatini ifodalaydi. Stressga bardoshlilik insonning ruhiy salomatligi, kasbiy faoliyati samaradorligi, ijtimoiy moslashuvi hamda shaxsiy farovonligining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar natijasida temperament shaxsning stressli vaziyatlarga munosabatini belgilovchi muhim individual-psixologik omillardan biri ekanligi aniqlandi. Har bir temperament turi stressni idrok etish, unga hissiy javob qaytarish va muammoni hal etish strategiyalarida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, gender omillari ham stressga munosabat va uni yengib o‘tish strategiyalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Biroq bu farqlar mutlaq xarakterga ega emas, chunki ularning shakllanishida madaniy muhit, oilaviy tarbiya, jamiyatdagi gender stereotiplari ham muhim rol o‘ynaydi. Temperament va genderning o‘zaro uyg‘unligini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, stressga chidamlilik murakkab va ko‘p omilli psixologik hodisadir.

Xulosa qilib aytganda, shaxsning stressga bardoshliligini baholash va rivojlantirishda temperament turi, gender xususiyatlari, psixologik resurslar hamda ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini kompleks tarzda hisobga olish zarur. Ana shunday yondashuvgina insonning ruhiy salomatligini mustahkamlash, uning moslashuv imkoniyatlarini kengaytirish va turli hayotiy sinovlarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishiga yordam beradi. Kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarda turli yosh davrlari, kasbiy guruhlar hamda madaniy muhit vakillarida stressga chidamlilikning o‘ziga xos jihatlarini empirik jihatdan o‘rganish ushbu yo‘nalishdagi bilimlarni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2008. – 201–218-бетлар. (Gender va ijtimoiy rollar)

2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Sharq, 2008. – 143–157-betlar. (Stress, emotsional holatlar, psixologik barqarorlik)

3. Lazarus R.S. Psychological Stress and the Coping Process. – New York: McGraw-Hill, 1966. – pp. 35–67. (Stressni yengish strategiyalari)

4. Myers D.G. Psychology. – New York: Worth Publishers, 2010. – pp. 510–533. (Gender farqlari va psixologik xususiyatlar)
5. Nemov R.S. Psixologiya. 1-kitob. – Moskva: Владос, 2003. – 287–305-betlar. (Temperament va xarakter xususiyatlari)
6. Nemov R.S. Psixologiya. 2-kitob. – Moskva: Владос, 2003. – 412–429-betlar. (Stressga moslashuv va shaxs reaksiyalari)

EMOTSIONAL INTELLEKT KASBIY O‘ZINI-O‘ZI ANGLASHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Soibjonov Jasurbek Botirjon o‘g‘li,
O‘zbekiston Milliy Universiteti o‘qituvchisi
Email:jasurbeksoibjonoov@gmail.com
Tel: +998930048147

Abstract: This article provides theoretical and empirical foundations for the role of emotional and social intelligence in the process of professional self-awareness. Within the framework of G. Gardner’s theory of multiple intelligences and modern approaches to intelligence, emotional intelligence is analyzed as a crucial psychological factor in making career decisions, assessing one's capabilities, and determining one's professional orientation.

Keywords: Emotional intelligence, social intelligence, multiple intelligences, professional self-awareness, academic intelligence, interpersonal relationships, cognitive processes.

Аннотация: В данной статье теоретически и эмпирически обоснована роль эмоционального и социального интеллекта в процессе профессионального самосознания. В рамках теории множественного интеллекта Г. Гарднера и современных подходов к интеллекту эмоциональный интеллект анализируется как важный психологический фактор в принятии профессиональных решений, оценке собственных возможностей и определении профессиональной направленности личности.

Ключевые слова: Эмоциональный интеллект, социальный интеллект, множественный интеллект, профессиональное самосознание, академический интеллект, межличностные отношения, когнитивные процессы.

Annotatsiya: Mazkur maqolada emotsional va ijtimoiy intellektning kasbiy o‘z-o‘zini anglash jarayonidagi o‘rni nazariy va empirik jihatdan asoslangan. G.Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi hamda intellektga oid zamonaviy yondashuvlar doirasida emotsional intellekt shaxsning kasbiy qarorlar qabul qilishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va kasbiy yo‘nalishini aniqlashidagi muhim psixologik omil sifatida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Emotsional intellekt, ijtimoiy intellekt, ko‘p qirrali intellekt, kasbiy o‘zini anglash, akademik intellekt, shaxslararo munosabatlar, kognitiv jarayonlar.

Kirish. Psixologiya rivojlanishining butun tarixi davomida affektiv va kognitiv sohalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi dolzarb bo‘lib kelgan. Insonning hayotdagi turli vaziyatlarga va o‘ziga bo‘lgan munosabati uning hissiyotlarida aks etadi, ushbu munosabatlarni anglash va ulardan abstrakt xulosalar chiqarish esa intellekt bilan bog‘liq. Shu boisdan, intellektual jarayonlarning obyekti inson hissiyotlari bo‘lib, aynan ular shaxsning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi.

Emotsional intellekt (EI) – bu insonning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va samarali muloqot qilish qobiliyatlari majmuasi hisoblanadi. Ushbu tushuncha insonning shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyati va ijtimoiy munosabatlaridagi muvaffaqiyatini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida ko‘riladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Intellektni yagona, umumiy shaklda tushunish noto‘g‘ri ekanligini ilk bor ta’kidlagan olimlardan biri amerikalik psixolog G.Gardner edi[1,512 c]. U bitta umumiy intellekt ko‘rsatkichi orqali inson qobiliyatlarini baholash mumkinligiga shubha bilan qaraydi. Masalan, u yulduzlar bo‘yicha yo‘nalishini aniqlab, kerakli tomonga harakatlana oladigan mohir dengizchini, muqaddas matnlarni mukammal biladigan diniy

yetakchini va murakkab shifrlangan saytlarni buzib, sintezatorda musiqa yaratadigan kompyuter dahosini bitta raqam bilan baholab bo‘lmasligini ta’kidlagan. Holbuki, IQ testi insondan turli savollarga javob berishni talab qiladi, so‘ng barcha natijalar jamlanib, bitta yakuniy ko‘rsatkich chiqariladi.

G.Gardner bitta umumiy intellekt (g faktori) o‘rniga turli fanlarga asoslangan bir nechta intellekt turlaridan iborat modelni taklif etadi. Unga ko‘ra, inson miyasi turli funksiyalar uchun maxsus sohalarga bo‘lingan: “...Nerv tizimi funksional birliklardan iborat bo‘lib, ular mayda qobiliyatlarni boshqaradi va inson miyasining frontal hamda sezgi qismlarida joylashgan... Bu turli intellekt turlarining biologik asosga ega ekanligini tasdiqlaydi” [1,512 c]. Shunday qilib, Gardner intellektning ko‘p qirraliligi uchun asosni inson miyasining anatomik va fiziologik tuzilishida ko‘radi. G.Gardner ta’rifiga ko‘ra, intellekt – “...Muayyan madaniy xususiyatlar yoki ijtimoiy muhit bilan bog‘liq holda muammolarni hal qilish yoki yangi mahsulot yaratish qobiliyati” [1, 512 c]. G.Gardnerning intellekt turlarini ajratishi shunchaki nazariy mulohazalarga asoslanmagan, balki u aniq mezonlar asosida turli intellekt turlarini belgilaydi: miyaning ma’lum bir qismida izolatsiyalangan holda ishlash (miya shikastlanishi natijasida mustaqil saqlanib qolishi); insonlarning o‘ziga xos intellektual xususiyatlarga ega bo‘lishi (masalan, aqliy zaiflar, vunderkindlar va boshqa noodatiy shaxslar misolida); o‘ziga xos asosiy operatsiyalar to‘plamiga ega bo‘lishi (har bir intellekt turi alohida kognitiv jarayonlarga tayanadi); mustaqil rivojlanish tarixi va o‘ziga xos yakuniy xususiyatlarga ega bo‘lishi (intellekt turlarining ontogenez va filogenezdagi shakllanishi); evolyutsion asosga ega bo‘lishi va moslashuvchanligi (turli intellekt turlari insoniyat rivojlanishida turlicha namoyon bo‘lgan); eksperimental psixologiya tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi (tajriba va tadqiqotlar orqali mavjudligini isbotlash); psixometriya tomonidan tasdiqlangan bo‘lishi (testlar yordamida aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lishi) va belgili tizimlarni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishi (til, matematika yoki boshqa semantik tizimlarni anglash qobiliyatini o‘z ichiga olishi).

Yuqoridagi mezonlarga asoslanib, G. Gardner miyada mustaqil modullar sifatida ishlaydigan 6 ta intellekt tizimini ajratib ko‘rsatgan:

1. Lingvistik (so‘z va nutq) intellekt. Bu so‘zlarni talaffuz qilish, tushunish va ishlatish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Nutq tovushlari (fonetika), ma’no (semantika), grammatik struktura va amaliy nutq (pragmatika) kabi jihatlar asosiy mexanizmlar hisoblanadi.

2. Musiqiy intellekt. Bu tovush orqali ma’no yaratish, tushunish va yetkazish qobiliyati bilan bog‘liq. Ritm, tembr va balandlikni idrok qilish, musiqa orqali fikr bildirish qobiliyati shu turga kiradi.

3. Mantiqiy-matematik intellekt. Bu abstrakt fikrlash, mantiqiy tahlil va sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish qobiliyatidir. IQ testlari asosan shu intellekt turini o‘lchashga mo‘ljallangan.

4. Fazoviy (vizual) intellekt. Bu atrof-muhitni fazoviy jihatdan idrok qilish, vizual tasvirlarni xotirada saqlash va o‘zgartirish qobiliyatini anglatadi. Uch o‘lchamli modellar yaratish, shakllarni aqlan o‘zgartirish kabi qobiliyatlarni qamrab oladi.

5. Tana-kinestetik intellekt. Bu tana harakatlari orqali muammolarni hal qilish va yangi mahsulot yaratish qobiliyatidir. Nozik va yirik motorika, tashqi obyektlar bilan boshqarish kabi qobiliyatlar kiradi.

6. Shaxsiy intellektlar (ichki va tashqi). Ichki shaxsiy intellekt – inson o‘z his-tuyg‘ularini, niyatlarini va motivlarini tushunish qobiliyatidir. Tashqi (intershaxsiy) intellekt – boshqa insonlarning hissiyotlarini va qarashlarini tushunish, ularni farqlash qobiliyatidir. Aynan shaxsiy intellekt G.Gardner tomonidan emotsional intellekt tushunchasining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko‘rilgan. G.Gardner tomonidan ajratilgan ushbu intellekt turlarining har biri insonning kognitiv va ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, emotsional intellekt aynan shaxsiy intellekt doirasida shakllanadi.

Mazkur nazariyaga nisbatan quyidagi tanqidiy fikrlar bildirilgan, ya’ni Gardner tomonidan berilgan “intellekt” ta’rifi juda keng bo‘lib, aslida ajratilgan intellekt turlari iste’dod, shaxsiy xususiyat va qobiliyatlar sifatida qaralishi mumkin va uning nazariyasini tasdiqlovchi ilmiy

tadqiqotlar yetarli emas, ya’ni u empirik dalillar bilan yetarlicha asoslanmagan. Shunday bo‘lsada, G. Gardnerning ko‘p qirrali intellekt nazariyasi shaxsga nafaqat o‘z emotsiyalarini anglash va baholash, balki boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish orqali ijtimoiy munosabatlar natijalarini oldindan ko‘ra bilish va samarali muloqot strategiyasini shakllantirish imkonini beruvchi ilk yondashuvlardan biri hisoblanadi.

Intellekt turlarini o‘rganishda keyingi muhim bosqich akademik intellektni tahlil qilishdir, chunki XX asrning 90-yillarigacha ilmiy izlanishlar ko‘pincha aynan shu yo‘nalishga qaratilgan edi. Turli tadqiqotchilar ushbu intellekt turiga turlicha nom bergan, jumladan, D. Goulman uni ratsional intellekt deb atagan[6, 176 c], D.V. Ushakov va A.E. Ivanovskaya esa nazariy intellekt atamasini ishlatgan[6, 176 c], A.I. Savenkov esa uni akademik intellekt deb nomlagan[7,30-38 c].

Intellekt haqida keng tarqalgan ta’rifga ko‘ra, u quyidagi ikki asosiy ma’noda tushuniladi: umumiy bilish va muammolarni hal qilish qobiliyati, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlovchi hamda boshqa qobiliyatlarning asosi bo‘luvchi omil va shaxsning barcha bilish qobiliyatlari tizimi, jumladan sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur va xayol[2,448 c]. V.N.Drujininga asoslanib, intellektni qobiliyat sifatida o‘rganishga oid asosiy yondashuvlarni quyidagicha ajratish mumkin: [3].

- Madaniy-tarixiy yondashuv – intellektni madaniyat va ijtimoiy tajriba orqali shakllanuvchi fenomen sifatida tushuntiradi (M.Kooul).

- Psixometrik yondashuv – intellektni miqdoriy ko‘rsatkichlar asosida o‘lchashni taklif qiladi (Ch.Spirmen).

- Neyrofiziologik yondashuv – intellektni miya faoliyati va markaziy asab tizimi tezligi bilan bog‘liq jarayon sifatida tushuntiradi (G.Ayzenk).

- Intellekt va kundalik bilimlar yondashuvi – intellektni hayotiy tajriba va odatiy bilimlar bilan aloqada tushuntiradi (R.Sternberg).

Intellekt nazariyalari ichida markaziy o‘rinlardan birini egallagan L. Therstoun modeli G-faktor mavjudligini rad etadi. Uning nazariyasiga ko‘ra, har bir intellektual harakat bir nechta mustaqil omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir[4]. Tadqiqotlar natijasida L. Therstoun 12 ta intellektual omilni ajratib ko‘rsatgan, lekin 7 tasi boshqa olimlar tomonidan ham tasdiqlangan:

V – So‘z boyligi va tushunish: Matnni tushunish, tushunchaviy fikrlash, so‘z analogiyalari, maqollarni sharhlash kabi testlar bilan aniqlanadi.

W – Nutq ravonligi: Ma’lum bir kategoriya bo‘yicha so‘z topish, qofiya yasash kabi testlar bilan o‘lchanadi.

N – Sonli omil: Arifmetik hisob-kitoblarning aniqligi va tezligini tekshiruvchi testlar asosida baholanadi.

S – Fazoviy tafakkur: Ikki qismga bo‘linadi, ya’ni tekislikdagi geometrik shakllarni tanib olish va fazoviy munosabatlarni anglash va uch o‘lchovli fazoda tasvirlarni aqliy boshqarish.

M – Assotsiativ xotira: So‘z juftliklarini mexanik yod olishga asoslangan testlar yordamida aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Natijada, barcha ushbu omillar o‘zaro ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘lib, bu G-faktor mavjudligini tasdiqlaydi. Intellekt nazariyalari asosida turli diagnostik testlar ishlab chiqilgan, jumladan “Umumiy qobiliyatlar testi batareyasi”, R.Amtxauerning “Intellekt tuzilishi testi”, G.Yu.Ayzenk testi, J.Ravenning “Progressiv matritsalari”, “R.Kettell intellekt testlari” va boshqalar.

IQning yuqori bo‘lishi ta’lim sohasida muvaffaqiyat bilan bog‘liq. Yuqori IQga ega insonlar maktab, kollej va universitetda yaxshi baholar olishadi. Biroq, IQ ijtimoiy muvaffaqiyatni oldindan belgilab bermaydi. IQ yuqori daromad yoki baxtli shaxsiy hayotni kafolatlamaydi. Tadqiqotchilar ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishda boshqa turdagi intellektlar muhim rol o‘ynashini ta’kidlashadi: amaliy intellekt (D.V. Ushakov, A.E. Ivanovskaya va boshqalar), ijtimoiy intellekt (D.V. Ushakov, S.S. Belova va boshqalar) va emotsional intellekt (D.V. Lyusin, D. Goulman va boshqalar).

Xorijiy mualliflarning asarlarida kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash jarayonini tushunishda bir necha yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Kasbiy o‘zini o‘zi aniqlash muammosiga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashuvda asosiy e’tibor shaxsning o‘zini namoyon etishiga qaratiladi. Bunda insonning o‘zini ish orqali ifoda etishga bo‘lgan intilishi asos qilib olinadi.

"O‘zlikni anglash" tushunchasini ta’riflashning murakkabligi shundaki, unga yaqin bo‘lgan boshqa tushunchalar (o‘zini namoyon qilish, o‘zini ro‘yobga chiqarish, o‘zini amalga oshirish) mavjud bo‘lib, ko‘plab mualliflar ularni ko‘pincha insonning mehnat faoliyatiga munosabati orqali izohlaydilar. Masalan, A. Maslou bularni "ahamiyatli ishga berilib ketish" orqali tushuntiradi [9], K. Yaspers inson bajaradigan "vazifa" orqali, V. Frankl esa inson hayotining to‘laqonliligini uning o‘z chegaralaridan tashqariga chiqish qobiliyati, eng muhimi, muayyan ishda va butun hayotda yangi ma’nolar topish orqali belgilaydi [8]. Sh. Byuller esa inson rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi uning o‘zini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan tug‘ma intilishi, deb hisoblaydi [10]. S.A. Ivanushkina Sh. Byulerning ishlarini tahlil qilib, shaxsning o‘zini namoyon etishi uning hayotiy maqsadlari bilan belgilanishini va hayot yo‘lining turli bosqichlarida turlicha mazmun kasb etishini ta’kidlagan. Aynan insonning o‘z ichki mohiyatiga eng mos keladigan maqsadlarni qo‘ya olish qobiliyati uning to‘laqonligi va o‘zini ro‘yobga chiqarish darajasini belgilaydi. Sh. Byuler bunday maqsadlarni qo‘ya olish qobiliyatini o‘zini o‘zi anglash deb ataydi. "Inson o‘z vazifasini qanchalik chuqur tushunsa, ya’ni o‘z taqdirini o‘zi belgilash qanchalik aniq ifodalangan bo‘lsa, o‘zini ro‘yobga chiqarish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi" [11, 27-bet]. Insonparvarlik yondashuvi kishiga kasbiy o‘zini o‘zi anglashda yordam berish jarayonini, avvalo, o‘zini namoyon qilishda ko‘maklashish sifatida ko‘rib chiqadi. A. Maslou [9, 37-bet] kasbiy rivojlanish konsepsiyasini taklif etib, markaziy tushuncha sifatida o‘zini faollashtirish, ya’ni insonning o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan ishda o‘zini takomillashtirish, ifodalash va namoyon etishga intilishini ajratib ko‘rsatgan.

R.Xeyvigxerst [12] kasbiy o‘zini o‘zi belgilash jarayonini kasbiy rivojlanish nuqtai nazaridan ko‘rib chiqadi, biroq buni insonga to‘laqonli xodim bo‘lish imkonini beradigan munosabatlar va mehnat ko‘nikmalarini o‘zlashtirish orqali tahlil qiladi. Bolalikda ota-onaga taqlid qilish orqali mehnatga intilishning poydevori qo‘yiladi, keyinchalik maktab yoshida mehnat qilish odati shakllanadi va o‘spirinlik davrida inson kasb tanlaydi.

Hozirgi davrda kasbiy o‘zini o‘zi anglash muammolarini o‘rganishning eng rivojlangan yo‘nalishi kasb-hunarga yo‘naltirish hisoblanadi. Bu yo‘nalish asosan umumta’lim maktabi o‘quvchilariga qaratilgan bo‘lib, Ye.A. Klimov [13; 20], S.N. Chistyakova [12; 105], T.I. Yekimova [15], N.S. Pryajnikov [16; 58], L.M. Mitina kabi olimlarning ishlarida aks ettirilgan. Bugungi kunda esa katta yoshdagilarning kasb faoliyatini o‘zgartirish vaziyatlarida kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashni o‘rganishga tobora ko‘proq e’tibor berilmoqda.

Kasbga yo‘naltirish yo‘nalishining boshqa yo‘nalishlardan asosiy farqi uning amaliy yo‘naltirilganligidir. Bu yo‘nalish vakillari nafaqat nazariy tadqiqotlar o‘tkazadilar, balki guruhlar va shaxslar uchun kasbiy o‘zini aniqlashni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ham ishlab chiqadilar.

Yetuklik davrida kasbiy o‘zini anglash ish orqali taqdim etilgan kasbda o‘zini takomillashtirish va xizmat pog‘onalaridan yuqoriga ko‘tarilish bilan bog‘liq. Kasbiy rivojlanishning boshqa bosqichlarida esa, kasbiy o‘zini anglash ijtimoiy va fuqarolik yo‘nalishi bilan aloqador bo‘ladi.

Eriksonning fikricha, ko‘plab yoshlar kasbiy o‘z-o‘zini anglash qobiliyatining yetishmasligi tufayli jiddiy xavotirga tushadilar. Boshqacha aytganda, kasb tanlash to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun o‘smir o‘z imkoniyatlarini chuqur anglashi lozim. Jamiyatda turli xil kasbiy faoliyat turlari turlicha hayot tarziga mos kelganligi sababli, kasb tanlash, mohiyatan, yashash uslubini tanlashga aylanadi. To‘g‘ri tanlov qilish uchun yoshlar o‘zlarini to‘g‘ri tushunishlari, shuningdek, qaysi sohada mehnat hayotiga eng samarali moslasha olishlarini asosli baholay bilishlari zarur.

Tahlil va natijalar.O‘zbekiston milliy universiteti talabalari orasida o‘quv faoliyatiga emotsional intellektning ta’sirini o‘rganish maqsadida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotimizda jami 150 nafar talaba qatnashdi. Ulardan 91nafari qiz bola, 60 nafari esa yigitlarni tashkil qildi. Tadqiqot ishtirokchilarining foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda aks etgan.

1-jadval

Tadqiqotda ishtirok etgan sinaluvchilar soni haqida ma’lumot

	Soni	foizi
qizlar	91	60.3
yigitlar	60	39.7

Tadqiqotimizda ishtirok etgan talabalarning yosh ko‘rsatkichlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, 18 yoshli talabalardan 9 nafar 6.0 foiz, 19 yoshli talabalardan 32 nafar 21.2 foiz, 20 yoshli talabalardan 32 nafar 21.2 foiz, 21 yoshli talabalardan 24 nafar 15.9 foiz, 22 yoshli talabalardan 23 nafar 15.2 foiz, 23 yoshli talabalardan 9 nafar 6.0 foiz, 24 yoshli talabalardan 13 nafar 8.6 foiz, 25 yoshli talabalardan esa 9 6.0 foizi ishtirok etdi. Talabalarning yosh ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan

2-jadval

Sinaluvchilar yoshi to‘g‘risidagi ma’lumot

	soni	foizi
18.00	9	6.0
19.00	32	21.2
20.00	32	21.2
21.00	24	15.9
22.00	23	15.2
23.00	9	6.0
24.00	13	8.6
25.00	9	6.0
Total	151	100.0

Sinaluvchi sifatida O‘zbekiston milliy universitetining turli yo‘nalish talabalari tanlab olingan bo‘lib, ulardan 55nafari amaliy psixologiya, 53 nafari matematika va 43 nafari iqtisodiyot yo‘nalishi talabalaridir. Ularning foiz ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Respondentlarning ta’lim yo‘nalishi haqidagi ma’lumot

	soni	foizi
amaliy psixologiya	55	36.4
matematika	53	35.1
iqtisodiyot	43	28.5

Tadqiqotimizda ishtirok etgan talabalarning 30 nafari 1-bosqichda, 41 nafari 2-bosqichda, 48 nafari 3-bosqichda va 32 nafari 4-bosqichda tahsil olishadi.



1-rasm.Sinaluvchilarning ta’lim yo‘nalishi haqidagi ma’lumot

Gilfordning “Sotsial intellekt” testi insonning ijtimoiy muhitda o‘zini tutish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish, ularning his-tuyg‘ularini tushunish va oldindan ko‘ra bilish qobiliyatlarini baholaydi.

Gilfordning “Sotsial intellekt” testi ko‘rsatkichlarini Kolmogorov-Smirnov mezoni asosida tahlil qiladigan bo‘lsak, to‘ldirilgan hikoya shkalasida ($Z=1.241$ $p>0.05$) ishonch darajasi mavjud

emasligi aniqlandi, ammo yakunlangan hikoya shkalasida (Z=2.340 p<0.001), ekspressiya guruhlari shkalasida (Z=2.832 p<0.001) 99.9% ishonch daraja va verbal ekspressiya shkalasida (Z=1.469 p<0.05) 95% ishonch darajasi bo‘lib, bu shkalalar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasligi aniqlandi.

Yakunlangan hikoya shkalasida 99% ishonch darajasida tafovut aniqlandi (U=2054.50 p<0.01). Bu shuni anglatadiki, yigitlar ijtimoiy vaziyatlarni tushunishda, hodisalar ketma-ketligini mantiqan tahlil qilishda va shaxslararo munosabatlarni to‘g‘ri talqin qilishda ko‘proq ustunlikka ega. Qizlar esa biroz pastroq ko‘rsatkichga ega bo‘lib, bu ulardagi sotsial idrokning ko‘proq hissiyotlarga izohlanadi.

Ekspressiya guruhlari shkalasida 99.9% ishonch darajasida tafovut (U=1709.00 p<0.001) bo‘lib, yigitlarning yuqori natijaga ega bo‘lishi ularning o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ochiq ifodalash, harakat va so‘zlar orqali o‘zini erkin namoyon qilishining kuchliroq ekanligini ko‘rsatadi. Qizlarning pastroq natijalari esa ularning ko‘proq ichki tuyg‘ularga e’tibor berishi, hissiyotlarini bilvosita ifodalashi yoki ularni jilovlab turishi bilan bog‘liqdir.



2-rasm Gilford “Sotsial intellekt” testi ko‘rsatkichlarining jins tafovutlari Mann Uitni mezoni asosida

To‘ldirilgan hikoya shkalasida 99.9% ishonch darajasida tafovut mavjud (U=1682.00 p<0.001). Bundan ko‘rinadiki, yigitlar ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilishda qizlarga qaraganda anchagina faolroq. Qizlar esa ushbu jarayonda ko‘proq hissiy idrok va intuitiv fikrlashga tayanishadi.

Xulosa. O‘zbekiston milliy universiteti talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan empirik tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, emotsional va ijtimoiy intellekt talabalarning shaxslararo munosabatlari, o‘quv faoliyati va ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Gilford testi asosida aniqlangan natijalarga ko‘ra, yigitlar ijtimoiy vaziyatlarni mantiqiy tahlil qilish va fikrlarini ochiq ifodalashda yuqoriroq ko‘rsatkichga ega, qizlar esa hissiy idrok va intuitiv tafakkurga ko‘proq tayanadi.

Umuman olganda, emotsional intellektni rivojlantirish talabalar shaxsiy rivoji, kasbiy o‘zini anglash jarayoni va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu asosda xulosa qilish mumkinki, emotsional va ijtimoiy intellektni rivojlantirish talabalarning kasbiy o‘z-o‘zini anglashini chuqurlashtiradi, ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi hamda ongli kasb tanlashiga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta’lim tizimida talabalarning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik dasturlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Гарднер Г. Структура разума: теория множественного интеллекта / Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2007. – 512 с.

2. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР, 2009. – 448 с.
3. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. – 2-е изд. – СПб.: Питер, 2002.
4. Thurstone L.L., Thurstone T.G. Factorial studies of intelligence // Psychometric Monographs. – 1941. – № 2.
5. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. Почему он может значить больше, чем IQ / Пер. с англ. А.П. Исаевой. – М.: Манн, Иванов и Фербер, 2013. – 560 с.
6. Ушаков Д.В., Ивановская А.Е. Практический интеллект и адаптация к среде у школьников // Социальный интеллект: теория, измерение, исследования / Под ред. Д.В. Люсина, Д.В. Ушакова. – М.: Институт психологии РАН, 2004. – 176 с.

TALABALARDA VAQTNI IDROK QILISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARIGA TA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlariga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Vaqt perspektivasi, motivatsiya, o'z-o'zini boshqarish, prokrastinatsiya va psixologik farovonlikning vaqtni samarali boshqarishdagi o'rni ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, talabalarning vaqt resurslaridan oqilona foydalanishini ta'minlovchi psixologik mexanizmlar ochib berilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida vaqtni boshqarish kompetentligini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: vaqtni idrok qilish, vaqtni boshqarish, vaqt perspektivasi, motivatsiya, prokrastinatsiya, psixologik salomatlik, o'z-o'zini boshqarish, talaba yoshlar.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические факторы, влияющие на механизмы восприятия и управления временем у студентов. На основе научных источников освещена роль перспективы времени, мотивации, самоуправления, прокрастинации и психологического благополучия в эффективном управлении временем. Также раскрыты психологические механизмы, обеспечивающие рациональное использование студентами временных ресурсов. Результаты исследования служат для разработки практических рекомендаций по развитию компетентности управления временем в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: восприятие времени, управление временем, временная перспектива, мотивация, прокрастинация, психологическое здоровье, самоуправление, студенческая молодежь.

Abstract. This article analyzes the psychological factors influencing the mechanisms of time perception and management in students. The role of time perspective, motivation, self-management, procrastination, and psychological well-being in effective time management is highlighted based on scientific sources. It also reveals the psychological mechanisms that ensure the rational use of time resources by students. The research results serve to develop practical recommendations for the development of time management competence in higher education institutions.

Keywords: time perception, time management, time perspective, motivation, procrastination, psychological health, self-management, student youth.

Kirish. Globallashuv, raqamlashtirish va axborot oqimining keskin ortishi sharoitida vaqt inson hayotidagi eng muhim psixologik resurslardan biriga aylanmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar bir vaqtning o'zida ta'lim faoliyati, kasbiy rivojlanish, ijtimoiy munosabatlar va shaxsiy hayot bilan bog'liq ko'plab vazifalarni bajarishga majbur bo'lmoqdalar. Bunday sharoitda vaqtni to'g'ri idrok qilish va samarali boshqarish shaxs muvaffaqiyatining muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Psixologik tadqiqotlarda vaqtni idrok qilish shaxsning o‘tmish, hozirgi va kelajakka bo‘lgan subyektiv munosabati sifatida talqin qilinadi. Vaqtni boshqarish esa mavjud vaqt resurslarini maqsadga muvofiq rejalashtirish, tashkil etish va nazorat qilish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur jarayonlarning samaradorligi ko‘plab psixologik omillar bilan belgilanadi.

Vaqt perspektivasi nazariyasiga ko‘ra, shaxsning vaqtga bo‘lgan munosabati uning qaror qabul qilishiga, motivatsiyasiga va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kelajakka yo‘naltirilgan shaxslar odatda uzoq muddatli maqsadlarni rejalashtirishga moyil bo‘lsalar, hozirgi zamonga yo‘naltirilgan shaxslar tezkor natijalarga intilishlari bilan tavsiflanadi. Shu sababli vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlariga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash zamonaviy psixologiyaning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Vaqt inson hayotidagi muhim psixologik resurslardan biri bo‘lib, uni samarali idrok qilish va boshqarish talabalarning akademik muvaffaqiyati hamda psixologik farovonligini ta’minlaydi [1]. Psixologiyada vaqtni idrok qilish shaxsning o‘tmish, hozirgi va kelajakka bo‘lgan subyektiv munosabati, vaqtni boshqarish esa vaqt resurslarini rejalashtirish va nazorat qilish jarayoni sifatida talqin etiladi [2].

S.L. Rubinshteyn vaqtni inson faoliyati jarayonida ongli ravishda aks ettiriladigan hodisa deb hisoblagan bo‘lsa [3], B.G. Ananyev uni shaxs rivojlanishining muhim koordinatasi sifatida baholagan [4]. P. Zimbardo tomonidan ishlab chiqilgan vaqt perspektivasi nazariyasiga ko‘ra, insonning vaqtga munosabati uning motivatsiyasi, qaror qabul qilishi va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, kelajakka yo‘nalganlik samarali vaqt boshqaruvi va akademik muvaffaqiyat bilan ijobiy bog‘liqdir [5].

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini nazorat qilish vaqtni boshqarish samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar hisoblanadi [6;7]. Aksincha, prokrastinatsiya vazifalarni kechiktirish orqali vaqt tanqisligi hissini kuchaytirib, o‘quv faoliyati natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [8]. B.K. Britton va A. Tesser vaqtni boshqarishning asosiy komponentlari sifatida qisqa muddatli rejalashtirish, uzoq muddatli rejalashtirish hamda vaqt ustidan nazorat hissini ajratib ko‘rsatganlar [9].

Vaqtni idrok qilish va boshqarishga ta’sir qiluvchi psixologik omillar

1. **Motivatsiya.** Motivatsiya vaqtni boshqarishning asosiy determinantlaridan biri hisoblanadi. Kuchli ichki motivatsiyaga ega talabalar o‘z oldilariga aniq maqsadlar qo‘yadilar, vaqtni rejalashtirishga mas’uliyat bilan yondashadilar va vazifalarni o‘z vaqtida bajarishga intiladilar. Motivatsiya darajasining pasayishi esa vaqtni samarasiz taqsimlash, vazifalarni kechiktirish va akademik natijalarning yomonlashishiga olib keladi.

2. **O‘z-o‘zini boshqarish va o‘zini nazorat qilish.** O‘z-o‘zini boshqarish shaxsning o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash qobiliyatini anglatadi. Mazkur sifat rivojlangan talabalarda vaqtni boshqarish ko‘nikmalari ham yuqori bo‘ladi. Ular ustuvor vazifalarni ajrata oladi, maqsadlarni aniq belgilaydi va faoliyat natijalarini muntazam tahlil qilib boradi.

3. **Prokrastinatsiya.** Prokrastinatsiya vaqtni boshqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardan biridir. U vazifalarni ongli ravishda kechiktirish va muhim ishlarni keyinga surish bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlar prokrastinatsiya darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda akademik muvaffaqiyatning nisbatan past bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunday holat vaqtning yetishmasligi hissini kuchaytiradi va stress darajasini oshiradi.

4. **Stress va emotsional holat.** Stressning yuqori darajasi shaxsning vaqtni adekvat baholash qobiliyatini pasaytiradi. Kuchli emotsional zo‘riqish sharoitida vaqt tez yoki sekin o‘tayotgandek tuyulishi mumkin. Natijada rejalashtirish jarayonida xatolar yuzaga keladi va vaqt resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati kamayadi.

5. **Psixologik salomatlik.** Psixologik salomatlik vaqtni idrok qilish va boshqarishning muhim shartlaridan biridir. Psixologik jihatdan sog‘lom talabalarda maqsadga intilish, mas’uliyat, emotsional barqarorlik va o‘z imkoniyatlarini real baholash qobiliyati yuqori bo‘ladi. Bu esa vaqtni rejalashtirish va undan unumli foydalanishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

6. **Vaqt perspektivasi.** Vaqt perspektivasi vaqtni idrok qilishning markaziy psixologik mexanizmi hisoblanadi. Kelajakka yo‘naltirilgan talabalar uzoq muddatli maqsadlarni rejalashtirishga va ularga erishishga ko‘proq intiladilar. O‘tmishga haddan tashqari bog‘lanish yoki faqat hozirgi lahzaga yo‘nalganlik esa vaqtni boshqarish samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlarining psixologik mazmuni hamda olimlar qarashlari

Mexanizm	Mexanizm mazmuni	Olimlar qarashlari	Talabalar faoliyatidagi namoyon bo‘lishi
Kognitiv mexanizm	Vaqt davomiyligini baholash, voqealar ketma-ketligini anglash, kelajakni prognoz qilish jarayonlari	Jean Piaget fikricha, vaqtni anglash kognitiv rivojlanish natijasida shakllanadi. Sergey Rubinshteyn esa vaqtni faoliyat jarayonida ongli aks ettirish mahsuli deb hisoblaydi.	Talaba o‘quv topshiriqlari uchun zarur vaqtni oldindan hisoblay oladi, ustuvor vazifalarni ajratadi.
Motivatsion mexanizm	Maqsadga intilish va natijaga yo‘naltirilganlik orqali vaqtga munosabatning shakllanishi	Abraham Maslow ehtiyoj va maqsadlar inson faoliyatini boshqarishini ta’kidlaydi. Philip Zimbardo kelajakka yo‘naltirilganlik vaqtni samarali boshqarishning asosi ekanligini ko‘rsatadi.	O‘quv maqsadlari aniq bo‘lgan talabalar vaqtni rejalashtirishga ko‘proq e’tibor qaratadilar.
Emotsional mexanizm	Emotsional holatning vaqtni subyektiv baholashga ta’siri	William James emotsiyalar vaqt hissining o‘zgarishiga olib kelishini qayd etgan. Zamonaviy tadqiqotlarda stress va xavotir vaqtni noto‘g‘ri baholashga sabab bo‘lishi ko‘rsatiladi.	Imtihon davrida talabalar vaqt yetishmasligini his qiladilar yoki vaqt tez o‘tib ketayotgandek tuyuladi.
Refleksiv mexanizm	Shaxsning o‘z faoliyati va hayotiy tajribasini tahlil qilishi	Lev Vygotsky refleksiyani ongli rivojlanishning muhim omili deb hisoblaydi. Boris Ananyev o‘z hayot yo‘lini anglash vaqtni idrok qilishni rivojlantirishini ta’kidlaydi.	Talaba o‘z yutuq va kamchiliklarini baholab, vaqt sarfini tahlil qiladi.
Maqsad qo‘yish mexanizmi	Faoliyat maqsadlarini aniqlash va ularga erishish yo‘llarini belgilash	Edwin Locke aniq va murakkab maqsadlar samaradorlikni oshirishini isbotlagan.	Talaba semestr yoki hafta uchun aniq maqsadlar belgilaydi.
Rejalashtirish mexanizmi	Vaqtni qisqa va uzoq muddatli rejalashtirish	Britton K. Britton va Abraham Tesser rejalashtirishni vaqt boshqaruvining asosiy komponenti sifatida ko‘rsatganlar.	Dars jadvali, mustaqil ta’lim va dam olish vaqtlarini oldindan belgilash.
O‘z-o‘zini boshqarish mexanizmi	Xulq-atvor va faoliyatni mustaqil tartibga solish	Albert Bandura o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z samaradorligi faoliyat natijalarini belgilashini ta’kidlaydi.	Talaba vazifalarni kechiktirmasdan bajarishga harakat qiladi.
Qaror qabul qilish mexanizmi	Vazifalar ustuvorligini aniqlash va resurslarni taqsimlash	Herbert Simon qaror qabul qilish cheklangan resurslar asosida amalga oshishini ko‘rsatgan.	Muhim topshiriqlarni birinchi navbatda bajarish.

O‘zini nazorat qilish mexanizmi	Faoliyat natijalarini baholash va tuzatish kiritish	Barry Zimmerman o‘zini nazorat qilishni samarali o‘quv faoliyatining markaziy elementi deb hisoblaydi.	Talaba reja bajarilishini tekshiradi va keyingi faoliyatni moslashtiradi.

Yuqoridagi nazariy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, vaqtni idrok qilish mexanizmlari asosan kognitiv, motivatsion, emotsional va refleksiv jarayonlar bilan bog‘liq bo‘lsa, vaqtni boshqarish mexanizmlari maqsad qo‘yish, rejalashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish, qaror qabul qilish va o‘zini nazorat qilish jarayonlari orqali namoyon bo‘ladi. Olimlarning qarashlarini umumlashtirish asosida aytish mumkinki, talabalarda vaqtni samarali boshqarish avvalo vaqtni adekvat idrok qilish darajasiga bog‘liq bo‘lib, ushbu ikki jarayon o‘zaro integrallashgan yagona psixologik tizimni tashkil etadi. Shu sababli talabalarning akademik muvaffaqiyati va psixologik salomatligini ta’minlashda vaqt perspektivasi, motivatsiya va o‘z-o‘zini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlari shaxsning akademik faoliyati, psixologik salomatligi va kasbiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, vaqtni samarali boshqarish nafaqat tashkiliy ko‘nikmalar, balki motivatsiya, vaqt perspektivasi, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini nazorat qilish va emotsional barqarorlik kabi psixologik omillarga ham bevosita bog‘liqdir.

Nazariy manbalar tahlili asosida vaqtni idrok qilish shaxsning o‘tmish, hozirgi va kelajakka bo‘lgan munosabati orqali shakllanishi, vaqtni boshqarish esa maqsad qo‘yish, rejalashtirish va faoliyatni nazorat qilish mexanizmlari yordamida amalga oshishi aniqlandi. Ayniqsa, kelajakka yo‘naltirilgan vaqt perspektivasi, yuqori ichki motivatsiya va rivojlangan o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalari talabalarning vaqt resurslaridan samarali foydalanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, prokrastinatsiya, stress va emotsional beqarorlik vaqtni boshqarish samaradorligini pasaytiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘lishi qayd etildi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning vaqtni boshqarish kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar, maslahat xizmatlari va profilaktik dasturlarni takomillashtirish zarur. Vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish talabalarning akademik muvaffaqiyati, psixologik farovonligi va kelajakdagi kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ковалев В.И. Психология времени. – Москва: Изд-во МГУ, 1988.
2. Claessens B.J.C., Van Eerde W., Rutte C.G., Roe R.A. A Review of the Time Management Literature // Personnel Review. – 2007. – Vol. 36. – №2. – P. 255–276.
3. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002.
4. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001.
5. Zimbardo P.G., Boyd J.N. The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life. – New York: Free Press, 2008.
6. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985.
7. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986.

YETUKLIK DAVRIDAGI AYOLLARDA STRESS, EMOTSIONAL BARQARORLIK TUSHUNCHALARINING HAYOTDAN QONIQISH DARAJASIGA TA’SIRI

Sultonova Mashhura Rustamovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
UrDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi- PhD, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada yetuklik davridagi (35–55 yosh) ayollarda stress darajasi va emotsional barqarorlikning ularning hayotdan qoniqish ko ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan ta’siri

psixologik jihatdan tahlil qilingan. Yetuklik davri ayol hayotidagi ijtimoiy-psixologik va fiziologik inqirozlar, oilaviy hamda kasbiy mas'uliyatlarning eng yuqori nuqtasi bilan xarakterlanadi. Tadqiqot davomida respondentlarning stressni boshqarish qobiliyati va hissiy muvozanati ularning hayotiy muvaffaqiyat va baxt hissi bilan to‘g‘ridan- to‘g‘ri korrelyatsiya (o‘zaro bog‘liqlik) hosil qilishi aniqlangan. Maqola yakunida yetuk yoshdagi ayollarda emotsional barqarorlikni oshirish va stressni kamaytirish orqali hayotdan qoniqish darajasini yuksaltirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yetuklik davri, ayollar psixologiyasi, stress, emotsional barqarorlik, hayotdan qoniqish, psixologik inqiroz, korrelyatsiya, subyektiv farovonlik.

Аннотация. В данной статье психологически анализируется влияние уровня стресса и эмоциональной стабильности на показатели удовлетворенности жизнью у женщин зрелого возраста (35–55 лет). Период зрелости характеризуется пиком социально-психологических и физиологических кризисов, семейных и профессиональных обязанностей женщины. В ходе исследования установлено, что способность респондентов справляться со стрессом и эмоциональный баланс прямо коррелируют с их чувством жизненного успеха и счастья. В заключении статьи разработаны практические рекомендации, направленные на повышение удовлетворенности жизнью путем повышения эмоциональной стабильности и снижения уровня стресса у женщин зрелого возраста.

Ключевые слова: период зрелости, психология женщин, стресс, эмоциональная стабильность, удовлетворенность жизнью, психологический кризис, корреляция, субъективное благополучие.

Abstract. This article provides a psychological analysis of the impact of stress levels and emotional stability on life satisfaction indicators in mature women (ages 35–55). The period of maturity is characterized by the peak of socio-psychological and physiological crises, family and professional responsibilities of a woman. During the study, it was found that the respondents' ability to manage stress and emotional balance directly correlate with their sense of life success and happiness. At the end of the article, practical recommendations aimed at increasing life satisfaction by improving emotional stability and reducing stress levels in mature women are developed.

Keywords: maturity period, female psychology, stress, emotional stability, life satisfaction, psychological crisis, correlation, subjective well-being.

Kirish

Zamonaviy dunyoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tezkor o‘zgarishi, axborot oqimining ko‘pligi va gender rollarining transformatsiyasi shaxs psixologiyasiga, xususan, ayollar hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Yetuklik davri (shartli ravishda 35 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan davr) ayol shaxsi rivojlanishining eng sermahsul, shu bilan birga, eng murakkab bosqichidir. Bu davrda ayol bir vaqtning o‘zida kasbiy faoliyatda yuqori cho‘qqilarga erishish, oilaviy munosabatlarni barqaror saqlash, farzandlar tarbiyasi va keksayib borayotgan ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish (“sendvich avlodi” sindromi) kabi ko‘plab ijtimoiy mas’uliyatlarni zimmasiga oladi. Ushbu ulkan ijtimoiy yuklama ko‘p hollarda surunkali stressni keltirib chiqaradi. Stressning muntazamligi esa emotsional barqarorlikning buzilishiga va pirovardida, ayolning o‘z hayotidan qoniqish darajasi pasayishiga sabab bo‘ladi. Ijtimoiy talablar va ijtimoiy siyosat doirasida xotin-qizlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning subyektiv farovonligini ta’minlash bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi

Asosiy qism

Stress va hayotdan qoniqish muammosi xorijiy va mahalliy psixologiyada keng o‘rganilgan. Jumladan, E. Diener subyektiv farovonlik va hayotdan qoniqish tushunchalarini fundamental jihatdan tadqiq etgan. Stress va onun shaxs shakllanishiga ta’siri R. Lazarus, S. Folkman ishlarida ko‘rib chiqilgan. Rossiyalik psixologlardan E.P. Ilin hissiy turg‘unlik masalalarini o‘rgangan bo‘lsa, o‘zbek olimlaridan V.M. Karimova, G.B. Shoumarov, Z.T. Nishanova va N.S. Safayevlar o‘z ilmiy ishlarida o‘zbek ayollari va oilasining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tahlil qilishgan.

O‘zbek oilalarida ayol kishi nafaqat oila bekasi, balki bir necha avlod o‘rtasidagi ma’naviy-psixologik ko‘prik vazifasini o‘taydi[1]. Mazkur yosh davrida ham qaynona, ham ona, ham kasb egasi sifatidagi yuklamalar ayoldan yuksak emotsional barqarorlikni talab etadi va uning hayotdan qoniqish darajasini belgilab beradi." “Yetuklik davridagi ayollarda subyektiv farovonlik masalasini o‘rganishda ularning o‘z hayot yo‘llariga bo‘lgan kognitiv bahosi birlamchi ahamiyatga ega. Ushbu tushunchaning fundamental asoschisi E. Diener ta’kidlaganidek: “Hayotdan qoniqish — bu shaxsning o‘z hayotiy yutuqlari va joriy holatini o‘zi belgilagan subyektiv mezonlar asosida ijobiy baholashidir”[4].

Natijalar va tahlil. O‘tkazilgan psixodiagnostik tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yetuklik davridagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasi ularning emotsional holati bilan chambarchas bog‘liq.

Rossiyalik taniqli olim E.P. Ilin hissiy turg‘unlikning shaxs faoliyatidagi o‘rnini baholab, shunday deydi: «Emotsional barqarorlik shaxsga ichki va tashqi stressogen omillar ta’sirida ham o‘z maqsadlariga sodiq qolish va ruhiy muvozanatni saqlash imkonini beradi[7].

G. Eyzenkk metodikasi bo‘yicha olingan neyrotizm (emotsional beqarorlik) ko‘rsatkichlari va E. Diener shkalasi natijalari o‘rtasida salbiy korrelyatsiya aniqlandi ($r = -0.54$, $p \leq 0.01$). Ayollarning stress, emotsional barqarorlik va hayotdan qoniqish darajalari bo‘yicha ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda umumlashtirildi:

T/r	O‘rganilgan ko‘rsatkichlar (Mezonlar)	Respondentlar ulushi (%)	Hayotdan qoniqish bilan bog‘liqligi
1	Yuqori emotsional barqarorlik va past stress	28%	Yuqori darajadagi subyektiv farovonlik
2	O‘rtacha emotsional barqarorlik va adaptive stress	45%	Barqaror/ o‘rtacha hayotdan qoniqish
3	Yuqori neyrotizm (beqarorlik) va surunkali stress	27%	Past darajadagi hayotdan qoniqish

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 45% qismi o‘rtacha emotsional barqarorlikka ega. Ular hayot qiyinchiliklariga moslasha oladilar, biroq kutilmagan kuchli stressogen omillar ta’sirida emotsional muvozanatni yo‘qotishga moyildirlar. 27% ayollarda esa yuqori darajadagi emotsional beqarorlik va surunkali stress kuzatilgan. Ushbu guruhdagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasi juda past ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularda “hayotda o‘z o‘rnini topa olmaslik”, “muntazam charchoq” va “kelajakka nisbatan xavotir” hissi ustunlik qiladi. Bu yoshda ayollarda nafaqat ijtimoiy, balki organizmdagi gormonal o‘zgarishlar (involutsion davr boshlanishi) ham hissiy portlashlar va depressiv holatlarga zamin yaratadi. R. Lazarus metodikasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, emotsional barqaror ayollar stress holatida “Muammoni ijobiy qayta baholash” va “Muammoni hal qilishni rejalashtirish” kabi konstruktiv koping-strategiyalardan foydalanishadi. Aksincha, emotsional beqaror ayollar “Qochish” yoki “Mas’uliyatni rad etish” strategiyalariga tayanadilar, bu esa stressni yanada chuqurlashtirib, hayot sifatini pasaytiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 45% qismi o‘rtacha emotsional barqarorlikka ega. Ular hayot qiyinchiliklariga moslasha oladilar, biroq kutilmagan kuchli stressogen omillar ta’sirida emotsional muvozanatni yo‘qotishga moyildirlar. 27% ayollarda esa yuqori darajadagi emotsional beqarorlik va surunkali stress kuzatilgan. Ushbu guruhdagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasi juda past ekanligi ma’lum bo‘ldi. Ularda “hayotda o‘z o‘rnini topa olmaslik”, “muntazam charchoq” va “kelajakka nisbatan xavotir” hissi ustunlik qiladi. Bu yoshda ayollarda nafaqat ijtimoiy, balki organizmdagi gormonal o‘zgarishlar (involutsion davr boshlanishi) ham hissiy portlashlar va depressiv holatlarga zamin yaratadi. R. Lazarus metodikasi tahlili shuni ko‘rsatdiki, emotsional barqaror ayollar stress holatida “Muammoni ijobiy qayta baholash” va “Muammoni hal qilishni rejalashtirish” kabi konstruktiv koping-strategiyalardan foydalanishadi. Aksincha, emotsional beqaror ayollar “Qochish” yoki “Mas’uliyatni rad etish” strategiyalariga tayanadilar, bu esa stressni yanada chuqurlashtirib, hayot sifatini pasaytiradi.

Xulosa

Yetuklik davridagi ayollarning hayotdan qoniqish darajasi bevosita ularning emotsional barqarorligi va distressni (salbiy stressni) boshqara olish qobiliyatiga bog‘liq. Emotsional barqarorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, subyektiv farovonlik hissi shunchalik yuqori bo‘ladi. Surunkali stress va yuqori neyrotizm ayollarda hayot mazmunini yo‘qotish, oilaviy va professional nizolarning ortishi hamda psixosomatik kasalliklarning rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Ayol kishining yosh inqirozlaridan muvaffaqiyatli o‘tishi uning psixologik himoya mexanizmlari va koping-strategiyalarining qay darajada shakllanganligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. – Toshkent: "Sharq", 2008. – 144 b.
2. Nishanova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: "O‘zbekiston faylasuflari
3. milliy jamiyati", 2018. – 420 b.
4. Diener, E., Emmons, R. A., Larsen, R. J., & Griffin, S. (1985). The Satisfaction With Life Scale. Journal of
5. Personality Assessment, 49(1), 71-75.
6. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress, appraisal, and coping. Springer Publishing Company.
7. Ильин Е. П. Психология состояний человека: Эмоции, чувства, стрессы. — СПб.: Питер, 2011. — 456 с.
8. Safayev N.S. Milliy o‘zlikni anglashning psixologik xususiyatlari. – Toshkent: "Fan", 2005. – 232 b.

TALABALARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Tajiyeva Nodira Yusupjanovna

Mamun Unversiteti Pedagogika fani o‘qituvchisi Phd

+99(97) 459 50 55

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida muomala madaniyatini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda talabalarning shaxsiy, ijtimoiy hamda kasbiy faoliyatida muomala madaniyatining ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, muloqot jarayonida axloqiy-me ’yoriy qadriyatlar, pedagogik muloqot tamoyillari va kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlar asoslab berilgan. Muomala madaniyatini rivojlantirishda interfaol ta’lim texnologiyalari, psixologik treninglar, rolli o‘yinlar, hamkorlikda o‘qitish va refleksiya usullarining samaradorligi ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta ’lim tizimida talabalar shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligi va madaniy muloqot qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: muomala madaniyati, muloqot, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, pedagogik muloqot, talabalar, oliy ta’lim, shaxsiy rivojlanish, axloqiy qadriyatlar, madaniy kompetentlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития культуры коммуникации среди студентов высших учебных заведений. Анализируется значение культуры коммуникации в личностной, социальной и профессиональной деятельности студентов. Обосновываются методологические подходы, способствующие формированию морально-нормативных ценностей, принципов педагогической коммуникации и коммуникативной компетентности в процессе общения. Научно анализируется эффективность интерактивных образовательных технологий, психологических тренингов, ролевых игр, методов совместного обучения и рефлексии в развитии культуры коммуникации. Результаты исследования служат для всестороннего развития личности студентов в системе высшего образования, повышения их социальной активности и навыков культурной коммуникации.

Ключевые слова: культура общения, общение, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, педагогическое общение, студенты, высшее образование, личностное развитие, моральные ценности, культурная компетентность.

Abstract. This article discusses the issues of developing a culture of communication among

students of higher educational institutions. The study analyzes the importance of a culture of communication in the personal, social and professional activities of students. It also substantiates methodological approaches that serve to form moral and normative values, principles of pedagogical communication and communicative competence in the process of communication. The effectiveness of interactive educational technologies, psychological trainings, role-playing games, collaborative learning and reflection methods in developing a culture of communication is scientifically analyzed. The results of the study serve to comprehensively develop the personality of students in the higher education system, increase their social activity and cultural communication skills.

Keywords: culture of communication, communication, communicative competence, interactive methods, pedagogical communication, students, higher education, personal development, moral values, cultural competence.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda globallashuv va migratsiya jarayonlari jadallashmoqda. Millatlararo munosabatlarning namoyon bo‘lishida talabalar jamiyatning faol a’zolari sirasiga kiradilar. Aynan oliy ta’lim muassasalarida turli millat vakillari mujassamlashib, birgalikdagi faoliyatga kirishadilar. Ular o‘zaro aloqaga kirishadilar hamda o‘z dunyoqarashlari va madaniyatlilik darajalari bilan bog‘liq holda bir-birlari bilan munosabat o‘rnatadilar. Aynan shunday kommunikatsiya natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda millatlararo munosabat hamda xulq atvor steoreotiplari shakllanadi. Bunday ko‘nikmalar bo‘lajak o‘qituvchilarning istiqboldagi faoliyati uchun muhim hisoblanib, ularda millatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish kompetensiyasining tarkib topishiga xizmat qiladi.

Bu o‘z navbatida, turli madaniyatlarga mansub insonlarning birgalikda yashab faoliyat ko‘rsatishi, o‘zaro hamkorlik qilishi va madaniy muloqot o‘rnatishini taqozo qilmoqda. Shuning uchun inson huquqlari va demokratiya ustuvor bo‘lgan davlatlarda millatlararo muloqot va madaniyatlararo tolerantlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. AQSh, Angliya, Shvetsiya, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Koreya, Italiya, Singapur, Turkiya, Rossiya kabi rivojlangan davlatlarda millatlararo munosabatlar, madaniyatlararo tolerantlik va tenglikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur maqsadlarga ta’lim orqali orqali erishishga ustuvor e’tibor qaratilgan. Shuning uchun ham madaniyatlar dialogni pedagogik asosini tadqiq etish sohasidagi izlanishlar va yonashuvlar har tomonlama qo‘llab-quvvatlanadi.

Dunyodagi rivojlangan oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarini tadqiqot yo‘nalishlarida o‘quvchi va talaba yoshlarda millatlararo muloqot ko‘nikmalari va kompetetnsiyalarini shakllantirish, o‘zga millat vakillarining madaniyati, e’tiqodiy qarashlarini hurmat qilishga yo‘naltirilgan izlanishlarni amalga oshirish, jamiyat a’zolari orasida milliy hamda diniy tolerantlikni qaror toptirishning sotsiologik, psixologik, lingvodidaktik, pedagogik yo‘nalishlari keng ko‘lamda tadqiq qilinmoqda. Bu sohada ta’lim tizimi rivojlangan mamlakatlarda etarlicha tajriba to‘plangan. Ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakklantirish, shaxslararo tolerant munosabatlarni rivojlantirish, o‘zga millat va madaniyat vakillarining qadriyatlari, e’tiqodiy qarashlarini hurmat qilish, turli millat vakillari orasida kollabaratsiyani ta’minlash sohasidagi innovatsion texnologiyalarni tadqiq etishga ustuvor o‘rin ajratilmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatida millatlararo munosabatlarga ustuvor o‘rin ajratildi. {1.B 5} Turli millat vakillarining erkin muloqot va hamkorlik qilishini ta’minlash, jamiyat a’zolarining mamlakat hududida va undan tashqarida boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilishi, o‘zaro bir-birini tushunishi, san’at va madaniyat boyliklaridan bahramand bo‘lishi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmasini yanada rivojlantirish maqsadida ta’lim muassasalarida xorijiy tillarni chuqur o‘rganishga ta’minlashga qaratilgan huquqiy me’yoriy asos yaratilgan. Millatlararo munosabatlar va tolerantlikni taminlash masalalari O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasida mustahkamlab qo‘yilgan.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlash bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki O‘zbekiston Respublikasida 35 dan ortiq millat vakillari yonma-yon yashab faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular orasida madaniy

muloqot, totuvlik, bag‘rikengik muhitini shakllantirish ehtiyoji kuchaymoqda. Globallashuv sharoitida madaniy muhitdagi rang-baranglik yoshlardan madaniy muloqot ko‘nikmalarini egallashni talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari orasida madaniy munosabatlarni qaror toptirish davr talabi va jamiyat a’zolarining asosiy ehtiyoji hisoblanadi. Bu ehtiyojni qondirish uchun talaba hamda o‘quvchi-yoshlar ongiga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, urf- odatlari va an’analariga tayanish, madaniy-tarixiy yondashuvga ustuvorlik berish, ko‘pmillatli O‘zbekiston jamiyatida farovonlik va barqarorlikni ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqish lozim. O‘zbekiston jamiyatida insonparvarlik prinsipiga ustuvor o‘rin berish, demokratiya qoidalariga amal qilish, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonini madaniy muhit sifatida tashkil etish, talaba va o‘quvchi yoshlar orasida milliy bosimlarning vujudga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashga e’tibor qaratilmoqda. Chunki umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ko‘pmillatli muhitda madaniy munosabatlarning namoyon bo‘lishi, bag‘rikenglik muhitini vujudga kelishi, o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatining qay darajada shakllanganligiga bog‘liq.

Tolerantlik (lot. tolerentia - sabr-toqat, chidam, bardosh). O‘zgalarning fikr g‘oyalari, e’tiqodi, his-tuyg‘ulari, turmush tarzi va xulq-atvoriga nisbatan sabr- toqatli bo‘lish, beparvo qarash; bag‘rikengik ma’nolarini anglatadi. Tolerantlik birinchi navbatda pedagoglar va psixologlar tomonidan millatlararo va etnik- diniy bag‘rikenglik kategoriyasi sifatida talqin etilgan. Faylasuflar J.Shermuhammedova, N.Shermuhammedova, Z.Qodirova, A.Sharipov, G.Navro‘zova, M.Xajieva, F.Mardonova, M.Qahharova, pedagoglar R..Safarova, G.Akramova, R.Medetova, Z.Xoliqovalar o‘quvchilarda tolerantlikni shakllantirishning turli yo‘nalishlarini tadqiq etganlar.

Milliy bag‘rikenglik o‘quvchi va talaba-yoshlarda millatlaro tolerantlikning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratadi. Millatlararo bag‘rikenglik, do‘stlik, osoyishtalik O‘zbekiston zaminida azal-azaldan e’tirof etilgan qadriyat hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 19- mayda qabul qilgan “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5046-sonli farmonida O‘zbekiston jamiyatida ko‘p millatli muhitning mavjudligi, bu esa jamiyat a’zolarida millatlararo muloqot madaniyatiga ega bo‘lishni talab qilishini ko‘rsatmoqda.{2.B 7}

YUNESKO bosh konferensiyasining 28-sessiyasida (1995-yil) “Bag‘rikenglik tamoyillari dekloratsiyasi” qabul qilingan edi. Ushbu hujjat dunyodagi barcha xalqlar, jumladan O‘zbekistonda yashovchi turli millat vakillari ham shaxs huquqlari mustaqilligining ustuvorligini e’tirof etgan. Shuning uchun ham O‘zbekistonda 1996- yili “Xalqaro bag‘rikenglik” yili deb e’lon qilinib, millatlararo muloqot va bag‘rikenglik sohasida katta ishlar amalga oshirildi. Bunday ishlar sirasiga ta’lim muassasalarida o‘quvchi hamda talaba- yoshlar orasida millatlararo tolerantlik va muloqotni rivojlantirishga ko‘maklashadigan ko‘plab tadbirlar tashkil etiladi.

Ko‘pmillatli va ko‘pmadaniyatli muhit sifatida namoyon bo‘ladigan o‘quv tarbiya jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan pedagogik vositalar, usullar, metodlar va bilimlar qurollantiriladilar. Ushbu muammoning cchimi oliy pedagogik ta’lim jarayoni alohida bilim va pedagogik mahoratga ega bo‘lishni talab qiladi. O‘zbekistonda shakllangan ijtimoiy-madaniy, ta’lim-tarbiyaviy muhit oliy pedagogik ta’lim oldiga alohida maqsad va vazifalarni qo‘ymoqda. Ushbu maqsad va vazifalar birinchi navbatda uning mazmunini madaniyatshunoslik yondashuvchi asosida boyitishni taqozo etmoqda. Aksariyat mutaxassislar tomonidan ko‘pmillatli, ko‘pmadaniyatli ta’lim muhitini shakllantirishning muayyan jihatlari tadqiq etilgan. Ilmiy pedagogik manbaalarda ko‘pmillatli, ko‘pmadaniyatli ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashga oid bir qator ilmiy yondashuvlar bayon qilingan.{3.B.12}

Pedagogik ta’lim amaliyoti va ilmiy manbaalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashda

bo‘shliqlar mavjudmutafakkir ajdodlarimizning millatlararo munosabatlarni rivojlantirishga oid tajribalaridan oliy ta’lim tizimida etarlicha foydalanmasligi;

- oliy pedagogik ta’lim muassasalarida ko‘pmillatli va ko‘pmadaniyatli ta’lim muhitida faoliyat ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjud emasligi;
- pedagogika turkum fanlari bo‘yicha mavjud bo‘lgan o‘quv metodik manbalarda bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantirishga oid materiallar va ilmiy ma’lumotlarning etarli emasligi;
- bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirish metodikalari bilan qurollantirilmasligi;{4.B.8}
- bo‘lajak o‘qituvchilarni o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari yaratilmaganligi kabilar.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarda millatlararo muloqot madaniyatini shakllantirishga tayyor bo‘lishlari uchun quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan bilim ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida” gi Qonuni. T.: 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-sonли Farmoni
4. Axatova D.A., Xodjiyeva F.O., Aminova F.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Darslik). T.: “Bookmany print” nashriyoti, 2023 yil.

BIOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR ORQALI SOG‘LOM TURMUSH TARZI KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Toshpulatova Dilraboxon Sobirjonovna
Qo‘qonDU dotsent v.b.
dilyatoshpulatova6@gmail.com.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyati keng yoritilgan. Ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, muammoli ta’lim hamda integrativ model asosida olib borilgan pedagogik faoliyat tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari talabalarning sog‘lom hayotga bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartirishda innovatsion yondashuvlar muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sog‘lom turmush tarzi, innovatsion yondashuv, biologiya ta’limi, talaba, sog‘liq madaniyati, raqamli texnologiyalar

Аннотация. В статье подробно рассматривается формирование навыков здорового образа жизни у студентов биологического направления с использованием инновационных педагогических подходов. Анализируются интерактивные методы, цифровые технологии, проблемное обучение и интегративная модель. Результаты показывают, что инновационные методы эффективно формируют культуру здоровья студентов.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, инновационный подход, биологическое образование, студенты, культура здоровья, цифровые технологии

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of developing healthy lifestyle skills among biology students through innovative pedagogical approaches. Interactive methods, digital technologies, problem-based learning, and integrative models are examined. The findings demonstrate that innovative approaches significantly improve students’ health awareness and behavior.

Keywords: healthy lifestyle, innovative approach, biology education, students, health culture, digital technologies

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida inson salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va uni ta’lim tizimi orqali rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar kelajakda jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi mutaxassislar sifatida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli ularning nafaqat nazariy bilimlari, balki sog‘lom hayot ko‘nikmalarini shakllantirish darajasi ham yuqori bo‘lishi talab etiladi.

Sog‘lom turmush tarzi – bu insonning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatligini ta’minlovchi hayot faoliyati shaklidir. U quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Jismoniy faollik – muntazam mashqlar va harakat faoliyati
2. To‘g‘ri ovqatlanish – balanslangan va ratsional ovqatlanish
3. Gigiyena – shaxsiy va ijtimoiy gigiyena qoidalariga rioya qilish
4. Psixologik barqarorlik – stressni boshqarish va ruhiy sog‘lik
5. Zararli odatlardan voz kechish – tamaki, alkogol va boshqa zararli odatlardan saqlanish [6.: 213.]

Asosiy qism

ushbu komponentlarni ilmiy asosda tushuntirish va amaliyotga joriy etish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

An’anaviy ta’lim usullari ko‘pincha talabalarni passiv tinglovchi sifatida shakllantiradi. Innovatsion yondashuvlar esa talabani ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida ko‘rib, uning mustaqil fikrlashi, muammolarni hal qilish qobiliyati va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu nuqtai nazardan, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda innovatsion yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi [2.:56.].

Innovatsion yondashuvlar – bu ta’lim jarayoniga yangi metod, vosita va texnologiyalarni joriy etish orqali o‘quv samaradorligini oshirishga qaratilgan faoliyatdir. Ular quyidagi xususiyatlarga ega: talabani markazga qo‘yish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlar yaratish va raqamli texnologiyalarni qo‘llash

Biologiya ta’limida innovatsion yondashuvlar orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirish talabalarda nafaqat bilim, balki amaliy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki ularning sog‘lom turmush tarziga oid kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, biologiya o‘qitish metodikasi fanida sog‘lom turmush tarzini tushuntirish alohida ahamiyatga ega, chunki kelajakdagi o‘qituvchi bu bilimlarni keyinchalik maktab o‘quvchilariga yetkazadi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda talabalarda sog‘liqni saqlashga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirishga qaratilgan **maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan pedagogik jarayon** tashkil etilishi maqsadga muvofiq [5.:35.].

Bunda sog‘lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantirish, sog‘lom hayot ko‘nikmalarini rivojlantirish va kelajakda o‘quvchilarga bu bilimni yetkazishga tayyorlash maqsad qilib olinishi kerak.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish pedagogik, psixologik va biologik omillar uyg‘unligini talab qiladi. Shu sababli biologiya o‘qitish metodikasi darslarida mazkur yo‘nalish kompleks yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda, insonning biologik, psixologik va ijtimoiy salomatligini ta’minlovchi faoliyat tizimiga e’tibor qaratishzarur va u quyidagi ilmiy yondashuvlarga asoslanadi:

1. Biologik yondashuv – organizmning fiziologik ehtiyojlari, modda almashinuvi, immun tizimi faoliyati.
2. Psixologik yondashuv – motivatsiya, xulq-atvor, stressni boshqarish .
3. Pedagogik yondashuv – ta’lim va tarbiya orqali sog‘lom odatlarni shakllantirish.

Biologiya o‘qitish metodikasi darslarida ushbu uch yo‘nalish integratsiyasi talabani sog‘lom turmush tarzini anglash va amaliyotga tatbiq etishga olib keladi.

Biologiya o‘qitish metodikasi fanida talabalarda sog‘liqni saqlash kompetensiyasi, ekologik va gigiyenik madaniyat va sog‘lom qaror qabul qilish qobiliyati kompetensiyalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

Bu yondashuv nazariy bilimni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ichki motivatsiya hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Biologiya o‘qitish metodikasi darslarida quyidagilar: muvaffaqiyatli insonlar misoli keltirilishi, sog‘lom hayotning afzalliklari asoslab berilishi va refleksiya (o‘z-o‘zini baholash) qo‘llanilishi ham muhim. Bunda talaba sog‘lom turmush tarzini majburiyat emas, balki ehtiyoj sifatida qabul qiladi.

Bo‘lg‘usi biologiya fani o‘qituvchilari o‘zida sog‘lom turmush ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirsa, mavzularda bu tushunchani biologik asos bilan tushuntiradi.

O‘qituvchi sifatida sog‘lom turmush tarzini biologiya fanining mazmuni bilan bog‘lab berishi zarur: ovqatlanish hazm qilish tizimi bilan bog‘lab, jismoniy faollik mushak va qon aylanish tizimi bilan va gigiyena mikroorganizmlar va immunitet bilan [3.:12.].

Shu bilan birga raqamli pedagogika vositalarni ilmiy tarzda tushinib, o‘quvchilarga ham o‘rgatadi. Bunga hozirgi kunda keng qo‘llanilayotgan mobil ilovalar orqali sog‘liq monitoring misol bo‘ladi.

Maktabda biologiya darslarni samarali shakllantirish quyidagi model asosida amalga oshirish mumkin va bu model tizimli yondashuvni ta’minlaydi.:

Ta’lim + Motivatsiya + Amaliyot + Monitoring = Sog‘lom turmush tarzi

Xulosa

Ta’limda ilmiy bilimlar berish orqali amalga oshiriladi, motivatsiya – mavzuga qiziqish uyg‘otadi, amaliyot – kundalik hayotga tatbiq etish orqali bilimlar mukammallashtiriladi va monitoring – natijalarni nazorat qilinadi, tahlil qilinadi.

Ta’lim to‘g‘ri qo‘llanilganda talabada quyidagilar shakllanadi: sog‘liq haqida ilmiy tushuncha, sog‘lom odatlar (ovqatlanish, gigiyena, harakat), o‘z sog‘lig‘iga mas’uliyat va pedagogik faoliyatda qo‘llash tayyorgarligi.

sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish yuqori samaradorlik beradi. Ushbu yondashuvlar talabalarning bilimini chuqurlashtiradi, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi va ularni sog‘lom hayotga yo‘naltiradi. Kelgusida bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Biologiya o‘qitish metodikasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, bu ilmiy asoslangan, tizimli va amaliy yo‘naltirilgan pedagogik tizim hisoblanadi. Bunda talaba bilim egasidan, sog‘lom hayot tarafdoriga, shu bilan birga kelajakda targ‘ibotchiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Isabayeva M.M., Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish tizimi (5-9sinflar misolida). – 2020y.

2. Tolipova J.O., G‘ofurov A.T., “Biologiya o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma) -T.: “Bilim”. -2004y.

3. Sharipova D.J., Maktab o‘quvchilarining gigienik ta’lim - tarbiyasi. – T.: “Medisina”. -2004, 24b.

4. Sparipova D.J., Valeologiya asoslari. -T.: “Musiqa nashriyoti”.– 2010, 116b.

5. Shayxova X.O., Tillaeva G.H., Sog‘lom turmush tarzi va yoshlar kamoloti. -T.: “Falsafa va huquq instituti nashriyoti”. -2007,77 b.

6. Шарипов Б.М., Башмакова Л.Н., Курманова Г.У., Здоровый образ жизни. -Алмата.: − 2003, 240 с.

YOSHLAR ORASIDA STRESS VA UNI BARTARAF ETISHNING PSIXOLOGIK USULLARI

Xamrayeva Umida Normamatovna,
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch Davlat Universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi
o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar orasida stressning kelib chiqish sabablari, uning psixologik ta’siri hamda stressni bartaraf etishning samarali usullari tahlil qilingan. Shuningdek, stressni kamaytirishda relaksatsiya, kognitiv yondashuv, vaqtni boshqarish, jismoniy faollik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari stressni boshqarish yoshlarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: stress, yoshlar, psixologiya, ruhiy salomatlik, relaksatsiya, motivatsiya, emotsional holat, stressni boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash.

Аннотация: В данной статье анализируются причины возникновения стресса среди молодежи, его психологическое воздействие, а также эффективные методы его преодоления. Рассматриваются такие методы, как релаксация, когнитивный подход, управление временем, физическая активность и социальная поддержка. Результаты исследования показывают, что управление стрессом играет важную роль в укреплении психического здоровья молодежи.

Ключевые слова: стресс, молодежь, психология, психическое здоровье, релаксация, мотивация, эмоциональное состояние, управление стрессом, социальная поддержка.

Abstract: This article analyzes the causes of stress among young people, its psychological effects, and effective methods of coping with stress. It also highlights the importance of relaxation techniques, cognitive approaches, time management, physical activity, and social support in reducing stress. The results show that stress management plays an important role in improving the mental health of young people.

Keywords: stress, youth, psychology, mental health, relaxation, motivation, emotional state, stress management, social support.

Kirish: XXI asrda fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining ortishi hamda jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar yoshlar hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, zamonaviy imkoniyatlar yoshlarning bilim olish, kasbiy rivojlanish va o‘z salohiyatini namoyon etishiga keng yo‘l ochib bermoqda. Ikkinchi tomondan esa, kuchli raqobat, akademik yuklamalar, kelajak haqidagi noaniqliklar va ijtimoiy bosimlar stress darajasining ortishiga sabab bo‘lmoqda.Stress organizmning tashqi va ichki ta’sirlarga moslashuv reaksiyasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tushuncha ilk bor kanadalik olim Hans Selye tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Uning ta’kidlashicha, stress inson organizmining har qanday talabga nisbatan umumiy javob reaksiyasidir. Ma’lum darajadagi stress inson faoliyatini rag‘batlantirishi mumkin, ammo uzoq davom etuvchi stress salbiy oqibatlarga olib keladi.Yoshlar stressga eng moyil ijtimoiy guruhlardan biri hisoblanadi. Chunki bu davrda shaxsning kasbiy, ijtimoiy va psixologik shakllanish jarayoni kechadi. O‘quv faoliyati, kasb tanlash, oilaviy munosabatlar va tengdoshlar bilan muloqot kabi omillar stressning yuzaga kelishida muhim rol o‘ynaydi.Tadqiqotning maqsadi yoshlar orasida stressning kelib chiqish sabablari, uning oqibatlari va stressni bartaraf etishning samarali psixologik usullarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism: Stress inson organizmining tashqi va ichki omillar ta’siriga nisbatan yuzaga keladigan psixofiziologik javob reaksiyasi bo‘lib, u shaxsning moslashuv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Stress tushunchasi dastlab G. Selye tomonidan ilmiy asosda o‘rganilgan bo‘lib, u stressni “umumiy moslashuv sindromi” sifatida izohlagan. Stressning mohiyati shundan iboratki, u organizmni o‘zgaruvchan muhit sharoitlariga moslashishga undaydi, biroq uning uzoq davom etishi insonning ruhiy va jismoniy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Psixologiyada stress odatda ikki turga ajratiladi: eustress va distress. Eustress ijobiy stress bo‘lib, u insonni faollikka undaydi,

motivatsiyani kuchaytiradi va maqsadlarga erishishga yordam beradi. Distress esa salbiy stress bo‘lib, u uzoq davom etganda shaxsning psixologik barqarorligini buzadi, asab tizimiga salbiy ta’sir qiladi va turli ruhiy muammolarga olib kelishi mumkin. Yoshlar orasida ko‘proq distress holatlari uchraydi, chunki bu davrda shaxsning emotsional barqarorligi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.Yoshlar orasida stressning yuzaga kelishiga bir qator omillar ta’sir qiladi. Birinchi navbatda, akademik bosim muhim o‘rin tutadi. Imtihonlar, reyting tizimi, ko‘p sonli topshiriqlar va yuqori natijalarga erishish talabi talabalarda psixologik zo‘riqishni kuchaytiradi. Ikkinchi muhim omil ijtimoiy muhit bo‘lib, tengdoshlar bilan o‘zini solishtirish, guruh bosimi va ijtimoiy maqomga intilish stress darajasini oshiradi. Shuningdek, oilaviy munosabatlardagi muammolar, ota-ona talablari va do‘stlar bilan kelishmovchiliklar ham stressni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi.Kelajak haqidagi noaniqlik ham yoshlar orasida stressning muhim sabablaridan biridir. Kasb tanlash, ish topish, moddiy mustaqillikka erishish va hayot yo‘lini belgilash bilan bog‘liq xavotirlar yoshlarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlar ham stressning kuchayishiga sabab bo‘lmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ideal hayot obrazlari bilan doimiy taqqoslash shaxsning o‘z-o‘zini baholash darajasini pasaytiradi va ruhiy zo‘riqishni oshiradi.Stressning yoshlar psixologiyasiga ta’siri juda keng ko‘lamli bo‘lib, u diqqat va xotira jarayonlarining pasayishi, uyqu buzilishi, asabiylashish, emotsional beqarorlik, o‘ziga ishonchning kamayishi va depressiv holatlarning yuzaga kelishi bilan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, uzoq davom etuvchi stress organizmning immun tizimini susaytirib, turli somatik kasalliklar rivojlanishiga ham olib kelishi mumkin.Stressni bartaraf etishda bir qator psixologik usullar samarali hisoblanadi. Relaksatsiya mashqlari, chuqur nafas olish texnikalari va meditatsiya asab tizimini tinchlantirishga yordam beradi. Kognitiv-xulqiy yondashuv orqali salbiy fikrlarni aniqlash va ularni ijobiy fikrlar bilan almashtirish mumkin. Bu usul shaxsning stressli vaziyatlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi.Vaqtni samarali boshqarish ham stressni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega. Kundalik reja tuzish, vazifalarni ustuvorlik asosida bajarish va dam olish vaqtini to‘g‘ri taqsimlash psixologik bosimni kamaytiradi. Jismoniy faollik, ya’ni sport bilan shug‘ullanish organizmda endorfin gormonlarining ajralishini kuchaytirib, kayfiyatni yaxshilaydi va stressni kamaytiradi.Bundan tashqari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ham muhim rol o‘ynaydi. Oila a’zolari, do‘stlar va psixologlar bilan muloqot qilish shaxsning emotsional holatini yaxshilaydi va stressni yengillashtiradi. Psixologik treninglar esa stressga chidamlilik, emotsional intellekt va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.Umuman olganda, stressni boshqarish kompleks yondashuvni talab qiladi. Psixologik, pedagogik va ijtimoiy usullarni birgalikda qo‘llash yoshlarning ruhiy barqarorligini oshiradi, ularning o‘quv faoliyatidagi samaradorligini yaxshilaydi va hayot sifatini yuksaltiradi.

METODOLOGIYA: Mazkur tadqiqotda yoshlar orasida stress darajasini aniqlash va stressni kamaytirishga qaratilgan psixologik usullarning samaradorligini baholash uchun **Student t-mezoni** qo‘llanildi. Tadqiqot eksperimental va nazorat guruhlari asosida tashkil etildi.Eksperimental guruhga relaksatsiya mashqlari, kognitiv qayta baholash, vaqtni boshqarish va psixologik treninglar qo‘llanildi. Nazorat guruhi esa an’anaviy ta’lim va kundalik faoliyatni davom ettirdi. Har ikkala guruhda stress darajasi maxsus psixologik test orqali baholandi.

Tadqiqot natijalari quyidagi statistik ko‘rsatkichlarda ifodalandi:

1-jadval Eksperimental va nazorat guruhlarida stress darajasining statistik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Eksperimental guruh (n=30)	Nazorat guruhi (n=30)
O‘rtacha qiymat ($\bar{X}$)	18.4	24.7
Standart og‘ish (S)	3.2	3.5
Dispersiya (S^2)	10.24	12.25
Standart xato (SE)	0.58	0.64
t-statistika	\multicolumn{2}{c}{**t = 7.21**}	
Erkinlik darajasi (df)	multicolumn{2}{c}{58}	
p-qiymat	\multicolumn{2}{c}{$p < 0.01$}	

Olingan natijalarga ko‘ra, eksperimental va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($t = 7.21$; $p < 0.01$). Bu esa stressni kamaytirishga qaratilgan psixologik usullar samarali ekanligini tasdiqlaydi.Demak, eksperimental guruhda stress darajasining sezilarli pasayishi kuzatilgan bo‘lib, bu relaksatsiya, kognitiv yondashuv va vaqtni boshqarish texnikalarining yoshlar psixologik holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini bildiradi.

Xulosa: Tadqiqot natijalari yoshlar orasida stressning keng tarqalgan psixologik muammo ekanligini ko‘rsatdi. Stressning asosiy sabablari sifatida akademik yuklamalar, kelajak haqidagi xavotirlar, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta’siri, oilaviy muammolar va moliyaviy qiyinchiliklar aniqlandi.Stressning uzoq davom etishi yoshlarning ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli stressning oldini olish va uni boshqarish bo‘yicha psixologik profilaktika ishlarini kuchaytirish zarur.Relaksatsiya mashqlari, kognitiv-xulqiy yondashuv, vaqtni boshqarish, jismoniy faollik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va psixologik treninglar stressni kamaytirishda samarali vositalar hisoblanadi. Ushbu usullarni ta’lim muassasalari va oilaviy muhitda keng qo‘llash yoshlarning psixologik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selye H. *The Stress of Life*. – New York: McGraw-Hill, 1976.
2. Lazarus R. S., Folkman S. *Stress, Appraisal and Coping*. – New York: Springer, 1984.
3. Myers D. G. *Psychology*. – New York: Worth Publishers, 2018.
4. Atkinson R. L., Atkinson R. C., Smith E. E. *Introduction to Psychology*. – New York: Harcourt Brace, 2000.
5. Feldman R. S. *Understanding Psychology*. – New York: McGraw-Hill, 2017.
6. Davletshin M. G. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
7. Nishonova Z. T. *Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA XAVFSIZ VA SOG‘LOM ISH MUHITINI TA’MINLASHNING XODIMLAR RUHIY FAROVONLIGIDAGI O‘RNI

Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi
Toshkent Amaliy Fanlar Universiteti
Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
Email:ziyodaxusanboyeva@gmail.com
https://orcid.org/009-0002-5588-1557

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom ish muhitini ta’minlashning xodimlar ruhiy farovonligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda xavfsiz mehnat sharoitlari, psixologik xavfsizlik, o‘zaro hurmatga asoslangan kasbiy munosabatlar hamda sog‘lom tashkiliy muhitning xodimlar ruhiy holati, ish samaradorligi va kasbiy qoniqishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, ish joyida stress, kasbiy zo‘riqish, nizolar va psixologik bosimlarning oldini olishda xavfsiz muhitning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada oliy ta’lim muassasalarida xodimlarning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash, ijobiy psixologik iqlimni shakllantirish hamda samarali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim muassasasi, xavfsiz ish muhiti, sog‘lom mehnat sharoiti, ruhiy farovonlik, psixologik xavfsizlik, xodimlar salomatligi, kasbiy qoniqish, tashkiliy muhit.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние обеспечения безопасной и здоровой рабочей среды в высших образовательных учреждениях на психологическое благополучие сотрудников. В исследовании рассматривается воздействие безопасных условий труда, психологической безопасности, профессиональных взаимоотношений, основанных на взаимном уважении, а также благоприятной организационной среды на психоэмоциональное состояние сотрудников, эффективность их деятельности и уровень профессиональной удовлетворённости. Кроме того, раскрывается значение безопасной рабочей среды в предупреждении стресса, профессионального выгорания, конфликтов и психологического давления на рабочем месте. В статье представлены научно-теоретические выводы и практические рекомендации по поддержке психического здоровья

сотрудников, формированию позитивного психологического климата и совершенствованию механизмов управления в высших образовательных учреждениях.

Ключевые слова: высшее образовательное учреждение, безопасная рабочая среда, здоровые условия труда, психологическое благополучие, психологическая безопасность, здоровье сотрудников, профессиональная удовлетворённость, организационная среда.

Abstract. This article analyzes the impact of ensuring a safe and healthy work environment in higher education institutions on employees' psychological well-being. The study examines the influence of safe working conditions, psychological safety, professional relationships based on mutual respect, and a healthy organizational environment on employees' mental state, work performance, and job satisfaction. In addition, the article highlights the importance of a safe work environment in preventing workplace stress, occupational strain, conflicts, and psychological pressure. The paper presents theoretical conclusions and practical recommendations for supporting employees' mental health, fostering a positive psychological climate, and improving management mechanisms in higher education institutions.

Keywords: higher education institution, safe work environment, healthy working conditions, psychological well-being, psychological safety, employee health, job satisfaction, organizational environment.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalari bilan bir qatorda, xodimlar uchun xavfsiz va sog‘lom ish muhitini yaratish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy mehnat munosabatlari sharoitida xodimlarning nafaqat jismoniy, balki ruhiy salomatligini ta'minlash ham tashkilotning barqaror rivojlanishi va yuqori samaradorligining muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom ish muhitini shakllantirish masalasi ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xodimlarning ruhiy farovonligi ularning kasbiy faoliyatga bo‘lgan munosabati, mehnat unumdorligi, ishga sadoqati va tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Qulay va xavfsiz ish muhiti xodimlarda o‘zini qadrlangan va himoyalangan his qilish tuyg‘usini shakllantirib, ish samaradorligini oshiradi. Aksincha, noqulay mehnat sharoitlari, psixologik bosim, stress, nizolar va kasbiy zo‘riqish holatlari xodimlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko‘rsatib, mehnat unumdorligining pasayishiga, kasbiy qoniqishning kamayishiga hamda ish sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.Oliy ta'lim muassasalari faoliyatida professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodimlar va ma'muriy-boshqaruv xodimlarining samarali faoliyati ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu bois ushbu muassasalarda sog‘lom tashkiliy muhitni shakllantirish, psixologik xavfsizlikni ta'minlash, o‘zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlarni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Bunday muhit xodimlarning kasbiy salohiyatini to‘liq namoyon etishiga, innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanishiga va tashkilot maqsadlariga erishishga xizmat qiladi.Oliy ta'lim muassasalarida xavfsiz va sog‘lom ish muhitini ta'minlashning xodimlar ruhiy farovonligiga ta'sirini tahlil qilish, ushbu jarayonning nazariy asoslarini yoritish hamda xodimlar ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Zamonaviy tashkilotlarda inson omiliga bo‘lgan e'tibor tobora ortib borayotgan bo‘lsa-da, mehnat muhitida salbiy psixologik omillar xususan, mobbing holatlari ko‘plab muammolarga sabab bo‘lmoqda. Mobbing - bu bir yoki bir nechta shaxs tomonidan boshqa bir xodimga nisbatan tizimli ravishda psixologik bosim o‘tkazish, uni obro‘sizlantirish, yakkalash, kamsitish kabi doimiy noxush muomala shakllaridir. Ushbu holatlar ko'pincha yashirin ko‘rinishda bo‘lib, xodimning emotsional barqarorligini buzadi, stress, depressiya, professional charchoq (burnout) kabi salbiy oqibatlarga olib keladi.Tashkilot ichidagi sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhit xodimlarning ruhiy salomatligi va kasbiy faoliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Psixologik xavfsizlikning past darajasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovning yetishmasligi, ziddiyatli kommunikatsiya va kuchayib borayotgan mobbing holatlari psixoemotsional muvozanatni izdan chiqaradi. Ayniqsa, o‘qituvchi, tibbiyot xodimi, ijtimoiy xizmat vakillari kabi kasblarda bu holatlar ko‘proq uchrab, ularning ijtimoiy vazifalarni bajarish sifati pasayishiga sabab

bo‘ladi.Mobbing nafaqat individual darajadagi salbiy oqibatlarga, balki butun tashkilot faoliyatiga zarar yetkazadi: mehnat unumdorligining pasayishi, kadrlar almashinuvi, korporativ madaniyatning buzilishi va umumiy psixologik beqarorlik kabi holatlar kuzatiladi. Shu bois, mobbingni ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ilmiy tahlil qilish, uning xodimlar psixoemotsional holatiga ta’sirini aniqlash, bunday muhitni oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Mobbingning tashkilot doirasida qanday shakllanishi, uning xodimlarning psixologik holatiga qanday ta’sir ko‘rsatishi hamda bu muammoni bartaraf etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari yoritiladi.

Tashkilotlarda mobbing darajasi xodimlarning psixoemotsional salomatligiga sezilarli salbiy ta’sir ko’rsatadi. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, yuqori darajadagi mobbing xodimlarda stress darajasining oshishi, burnout holatlarining ko‘payishi va ishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishiga olib keladi. Bu natijalar ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan mos keladi (Einarsen va boshqa 2003; Maslach va Leiter, 2016), ular mobbingning xodimlarning ruhiy holatiga va kasbiy samaradorligiga zarar yetkazishini ta’kidlaydi.Shuningdek, tadqiqotda aniqlanishicha, psixologik xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan tashkilotlarda mobbing holatlari kamroq qayd etilgan va xodimlarning psixoemotsional holati nisbatan barqaror bo‘lgan. Bu topilmalar Edmondson (1999) nazariyasi bilan uyg‘unlikda bo’lib , u psixologik xavfsizlikning ish joyidagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilashdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Psixologik xavfsizlik mavjud bo’lsa, xodimlar o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash muhitida ishlaydi, bu esa mobbingni kamaytirish va stressni yengillashtirishga xizmat qiladi. Mobbing faqat individual darajada emas, balki butun tashkilotning ijtimoiy muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mobbingning mavjudligi jamoa ruhiyatini pasaytiradi, ishonchni kamaytiradi va tashkilotdagi ish samaradorligini pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, xodimlarning kasbiy motivatsiyasi susayadi, bu esa yuqori darajadagi xodim almashinuvi va tashkilot ichidagi ijobiy ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga olib keladi.Mobbing holatlarini aniqlashda ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimining muhimligini ko‘rsatdi. Xodimlar o‘rtasida muloqot va rahbar bilan ochiq va ishonchli munosabatlar mobbingni kamaytirishga yordam beradi. Shu bois, tashkilotlarda psixologik xavfsizlikni ta’minlash, mobbingni oldini olishga qaratilgan treninglar va psixologik yordam tizimlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Tashkilotlarda mobbing hodisasi xodimlarning psixoemotsional salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mobbing darajasi oshishi bilan stress va burnout holatlari kuchayib, xodimlarning ishga bo‘lgan motivatsiyasi pasayadi. Shu bilan birga, psixologik xavfsizlik darajasi yuqori bo‘lgan muhitda mobbing holatlari kamayadi va xodimlarning psixoemotsional holati yaxshilanadi. Tashkilot ichidagi ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi va ochiq kommunikatsiya mobbingni oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.Ushbu tadqiqot mobbingni kamaytirish va sog‘lom psixologik muhit yaratishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi. Tashkilot rahbarlari va mutasaddilari xodimlarning ruhiy holatini doimiy monitoring qilish, psixologik xavfsizlikni ta’minlash va mobbingga qarshi samarali chora-tadbirlarni joriy etishlari zarur.

Umuman olganda, mobbingni oldini olish va psixoemotsional salomatlikni saqlash tashkilotning umumiy samaradorligi va xodimlarning farovonligi uchun muhim omil hisoblanadi.Shunday qilib, tashkilotlarda xodimlarning psixoemotsional holatini barqarorlashtirish uchun avvalo psixologik xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish lozim. Bu borada quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:Rahbarlar va xodimlar o‘rtasida ochiq va ishonchli muloqotni rag‘batlantirish; Xodimlarning fikrini tinglash va ular bilan maslahatlashuv asosida qarorlar qabul qilish;Tashkilotda stressni kamaytiruvchi psixologik treninglar va maslahat xizmatlarini joriy etish;Jamoada ijobiy munosabat va o‘zaro hurmatga asoslangan iqlimni shakllantirish;Psixologik xavfsizlikni o‘lchovchi diagnostik vositalardan doimiy foydalanish.Umuman olganda, tashkilotdagi xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish nafaqat xodimlarning psixologik farovonligini ta’minlaydi, balki ularning ish unumdorligi va kasbiy rivojiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tashkilotda mobbing holatlarini kamaytirish va

xodimlarning psixoemotsional salomatligini saqlab qolish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation. Psychological Review, 50(4), 370–396. https://doi.org/10.1037/h0054346

2.Yuldasheva, D. R. (2020). Psixologik xavfsizlik va mehnat muhitidagi ijtimoiy omillar. O'zbekiston ijtimoiy fanlar jurnali, (3), 45–52.

3.Edmondson, A. C. (1999). Psychological safety and learning behavior in work teams. Administrative Science Quarterly, 44(2), 350–383. https://doi.org/10.2307/2666999

4.Husanbayeva Ziyoda Mahmurdjon. (2025). The Effect of Adaptive Intellect to Student Reading Motivation. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 5(04), 126–127. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume05Issue04-29

5. Tillayeva, N. (2024). Maktab O'quvchilarining Ijtimoiy Moslashuvining Psixologik Xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1–5. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28142

6.Khusanbayeva Z. (2024). PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FATHER'S INFLUENCE ON CHILDREN'S EDUCATION IN THE FAMILY. Frontline Social Sciences and History Journal, 4(04), 32–37.

МЕДИАЦИЯ, КАК МЕХАНИЗМ ЗДРАВОЙ РАБОТЫ МАХАЛИ С МОЛОДЕЖЬЮ

Мухамежанова Ильзира Равильевна
Преподаватель кафедры Психология
Национального Университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека

Аннотация: В статье освещается медиация как эффективный способ мирного урегулирования споров с участием нейтрального посредника - медиатора. В нем анализируются основные принципы медиации - нейтральность, конфиденциальность, добровольность и независимость сторон. Показана роль медиатора в налаживании диалога и достижении взаимоприемлемого соглашения. Также освещены семейная, коммерческая, школьная и трудовая медиация, а также роль медиации в практике махалли Узбекистана. В результате исследования обосновано, что медиация является эффективным инструментом предотвращения и разрешения конфликтов.

Ключевые слова: медиация, медиатор, конфликт, урегулирование споров, посредничество, переговоры, семейная медиация, коммерческая медиация, махалля, коммуникация.

Annotatsiya: Maqolada mediatsiya nizolarni neytral vositachi – mediator ishtirokida tinch yo'l bilan hal etishning samarali usuli sifatida yoritilgan. Unda mediatsiyaning asosiy tamoyillari – betaraflik, maxfiylik, ixtiyoriylik va tomonlar mustaqilligi tahlil qilinadi. Mediatorning muloqotni yo'lga qo'yish va o'zaro maqbul kelishuvga erishishdagi roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, oilaviy, tijorat, maktab va mehnat mediatsiyasi hamda O'zbekiston mahalla amaliyotida mediatsiyaning o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijasida mediatsiya nizolarni oldini olish va hal etishda samarali vosita ekani asoslangan.

Tayanch iboralar: mediatsiya, mediator, nizo, nizolarni hal qilish, vositachilik, muzokaralar, oilaviy mediatsiya, tijorat mediatsiyasi, mahalla, kommunikatsiya.

Abstract: The article highlights mediation as an effective method of peacefully resolving disputes with the participation of a neutral mediator. It analyzes the core principles of mediation - neutrality, confidentiality, voluntariness, and the independence of the parties. The role of the mediator in establishing dialogue and reaching a mutually acceptable agreement is demonstrated. It also highlights family, commercial, school, and labor mediation, as well as the role of mediation in the practice of the mahalla in Uzbekistan. As a result of the study, it is substantiated that mediation is an effective tool for preventing and resolving conflicts.

Keywords: mediation, mediator, dispute, dispute resolution, mediation, negotiations, family mediation, commercial mediation, mahalla, communication.

Медиация — это процесс разрешения конфликта с помощью нейтральной третьей стороны, медиатора, который помогает сторонам найти взаимоприемлемое решение. Медиатор не выносит решения, а способствует улучшению коммуникации и поиску компромисса. Основной принцип медиации — стороны сохраняют контроль над процессом и принимают решения самостоятельно.

Медиаторство основывается на признании важности нейтрального посредника, который снижает эмоциональное напряжение и помогает сторонам увидеть конфликт с разных точек зрения, что способствует более продуктивным переговорам. Эта практика имеет исторические корни, но в современном мире, особенно с 1960-х годов, она стала профессиональной деятельностью, широко применяемой в юридической, международной, экологической и социальной сферах.

В последние десятилетия медиаторство приобрело популярность, особенно в решении международных конфликтов. Медиатор может также играть роль посредника в сложных переговорах, помогая сторонам достичь мирного соглашения. Важной частью медиаторства является организация эффективной коммуникации, что способствует снижению конфронтации и улучшению сотрудничества.

Центральной фигурой медиаторства является медиатор — профессионал, осуществляющий посредничество. С развитием медиаторства как профессии в США с 1960-х годов были созданы специализированные организации, что способствовало росту интереса к этому методу и стандартам профессии. Медиаторство продолжает оставаться важным инструментом для разрешения конфликтов и восстановления нормальных отношений между сторонами.

Основные принципы медиации:

1. Нейтралитет — медиатор не принимает сторону и не оценивает ситуацию с моральной точки зрения.
2. Конфиденциальность — информация, обсуждаемая во время медиации, не может быть использована в других процессах.
3. Автономия сторон — решение принимается самими участниками конфликта.
4. Добровольность — участие в медиации добровольное, стороны могут выйти из процесса в любой момент.

Примеры медиации

Конфликт между соседями.

Субъект: два соседа в многоквартирном доме.

Объект: шум, создаваемый одним из соседей при ремонте.

Предмет: время и условия проведения ремонта, нарушение покоя.

Конфликт возник, когда один сосед начал делать ремонт в ночное время, что мешало другому спать. Обе стороны обострили ситуацию, подавая жалобы друг на друга. Медиатор организовал встречу, где стороны выслушали друг друга, и предложил компромисс: установление конкретного времени для ремонта и обеспечение минимального уровня шума. Также была предложена договоренность о согласовании будущих работ с соседями. Важный момент: медиатор помог снизить напряжение и предложил практическое решение, устраивающее обе стороны, без судебного вмешательства.

Семейный конфликт (развод).

Субъект: супруги, которые решают развестись.

Объект: опека над детьми, раздел имущества.

Предмет: кто будет опекуном детей после развода, как разделить имущество.

После развода супруги не могли договориться, с кем останутся дети и как будет разделено имущество. Медиатор провел серию встреч, где каждая сторона могла выразить свои чувства и интересы. В результате был достигнут компромисс: дети остались с

матерью, но отец получил регулярные встречи и участие в воспитании. Важный момент: медиатор помог сохранить отношения между родителями и избежать затяжных судебных разбирательств, сосредоточив внимание на интересах детей.

Виды медиации

1. Семейная медиация. По мнению Е. В. Змановской [1, с.323], этот вид используется для урегулирования споров, возникающих при разводе [2, с.303], определении места жительства ребенка или разделении имущества. Такой подход помогает снизить стресс у сторон и сосредоточиться на интересах детей.

2. Коммерческая медиация. Г. С. Шарговский отмечает [4, с.43], что этот вид медиации эффективен для решения конфликтов в бизнесе. Она позволяет минимизировать финансовые и временные затраты, сохранив деловые отношения.

3. Школьная медиация. По мнению М. Ю. Хлопониной [3, с.104], школьная медиация помогает разрешать конфликты между учениками, учителями и родителями, способствуя развитию культуры ненасильственного общения.

4. Трудовая медиация. Как подчеркивает Л. Р. Шевченко [5, с.217], этот вид используется для урегулирования споров между сотрудниками и работодателями, что способствует улучшению атмосферы на рабочем месте.

Медиация в махалле Узбекистана

1. Споры о земельных участках: селяне могут обращаться к местным старейшинам или председателям махаллей для разрешения конфликтов по поводу границ земельных участков или прав на использование ресурсов.

2. Семейные споры: в случаях разводов, вопросов опеки над детьми или имущественных споров, уважаемые члены общины могут помочь сторонам достичь соглашения.

3. Соседские разногласия: традиционные вопросы, такие как шум, земельные вопросы, споры по поводу общих ресурсов (например, воды или дорог), также часто разрешаются через медиацию в махалле.

Список использованной литературы:

1. Змановская Е. В. Психология семьи: основы супружеского консультирования и семейной психотерапии : учеб. пособие. — М. : ИНФРА-М, 2024. — 378 с.
2. Сенина Е. Н. Семейная медиация от А до Я. — М. : ДеЛибри, 2025. — 232 с.
3. М. Ю. Хлопонина, Школьная служба восстановительной медиации (примирения). Система подготовки медиаторов. 5–9 классы : практические занятия, тренинговые задания : [12+] / авт.-сост. Ольга Александровна Уварова. — Волгоград : Издательство «Учитель», 2014. — 123 с.
4. Шарговский Г. С. Коммерческая медиация: теория и практика // Альтернативные способы урегулирования споров. — М., 2013. — С. 45–68.
5. Шевченко Л. Р. Трудовая медиация : монография / Л. Р. Шевченко. — Москва : Юрайт, 2018. — 256 с.

YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Yusupboyev Elyorbek Ergashovich
Xorazm viloyati OITSga Qarshi Kurashish Markazi,
Uslubiy, profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni
tashkil etish bo‘limi mudiri, vrach epidemiolog

Annotatsiya (o‘zbek tilida): Ushbu maqolada yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Ta'lim va targ'ibot, jismoniy faollik, zararli odatlarning oldini olish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, oila va mahalla institutining roli tahlil etiladi. Bundan tashqari, OIV infeksiyasi, virusli gepatitlar va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalarning yoshlar salomatligi uchun xavfi va ulardan saqlash yo‘llari bayon

etiladi. Profilaktika ishlarida ilmiy asoslangan yondashuv, tibbiy savodxonlik, stigmani kamaytirish va erta tashxis xizmatlarining ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so‘zlar: sog'lom turmush tarzi, yoshlar salomatligi, OIV profilaktikasi, virusli gepatit, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, tibbiy savodxonlik, profilaktika.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные механизмы формирования здорового образа жизни среди молодёжи: просвещение и пропаганда, физическая активность, профилактика вредных привычек, роль информационно-коммуникационных технологий, семьи и махалли. Особое внимание уделяется профилактике ВИЧ-инфекции, вирусных гепатитов и инфекций, передающихся половым путём. Подчёркивается важность научно обоснованного подхода, медицинской грамотности, снижения стигматизации и доступности услуг по раннему выявлению заболеваний.

Ключевые слова: здоровый образ жизни, здоровье молодёжи, профилактика ВИЧ, вирусный гепатит, ИППП, медицинская грамотность.

Annotation: This article examines the key mechanisms for promoting healthy lifestyles among young people, including education and awareness, physical activity, prevention of harmful habits, the role of ICT, and the influence of family and community institutions. Special focus is given to HIV prevention, viral hepatitis, and sexually transmitted infections among youth. The article emphasizes evidence-based approaches, health literacy, stigma reduction, and accessible early diagnosis services.

Keywords: healthy lifestyle, youth health, HIV prevention, viral hepatitis, STIs, health literacy, prophylaxis.

Kirish

Bugungi kunda yoshlar salomatligini mustahkamlash, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.[12] Sog‘lom turmush tarzi nafaqat inson salomatligini saqlash, balki uning intellektual salohiyati, mehnat unumdorligi va jamiyat rivojiga qo‘shadigan hissasini ham belgilaydi.

Sog'lom turmush tarzi deganda to‘g'ri ovqatlanish, muntazam jismoniy faollik, zararli odatlardan voz kechish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, ruhiy salomatlikni asrash hamda kasalliklarning oldini olishga qaratilgan hayot tarzi tushuniladi.

Asosiy mexanizmlar

Yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy mexanizmlaridan biri — ta‘lim va targ‘ibot ishlaridir. Maktab, kollej, litsey va oliy ta‘lim muassasalarida sog‘lom hayot tamoyillarini keng targ‘ib qilish, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy tarbiya va reproduktiv salomatlik bo‘yicha bilimlarni oshirish muhim ahamiyatga ega.[13]

Ikkinchi muhim mexanizm — jismoniy faollikni rag'batlantirishdir. Sport bilan muntazam shug'ullanish yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa tizimlar faoliyatini yaxshilaydi, organizmning kasalliklarga chidamliligini oshiradi. Shu sababli yoshlarni sport to‘garaklari, musobaqalar va ommaviy sport tadbirlariga keng jalb etish zarur.

Uchinchi mexanizm — zararli odatlarning oldini olishdir. Tamaki mahsulotlari, alkogol va giyohvand moddalar inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazadi. Shu bois yoshlar o‘rtasida profilaktik tadbirlarni kuchaytirish, ularning huquqiy va tibbiy savodxonligini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

To‘rtinchi mexanizm — axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishdir. Bugungi kunda yoshlar ko‘p vaqtini internet va ijtimoiy tarmoqlarda o‘tkazmoqda. Shuning uchun sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi sifatli media mahsulotlar, videoroliklar, infografikalar va onlayn loyihalarni ko‘paytirish zarur.

[12] O‘zbekiston Respublikasining «Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida»gi Qonuni (2015 yil 26 avgust, 393-I-son). — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi.

[13] World Health Organization. Global Accelerated Action for the Health of Adolescents (AA-HA!): Guidance to Support Country Implementation. — Geneva: WHO, 2022.

Beshinchi mexanizm — oila va mahalla institutining rolini kuchaytirishdir. Oila farzand tarbiyasining birinchi maskani hisoblanadi. Ota-onalarning shaxsiy namunasi, sog'lom muhit yaratishi va farzandlarni sport hamda foydali mashg'ulotlarga yo‘naltirishi yoshlar hayot tarziga bevosita ta'sir ko‘rsatadi.

Yuqumli kasalliklar profilaktikasi — sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi

Yoshlar orasida OIV infeksiyasi, virusli gepatitlar, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar hamda boshqa yuqumli kasalliklar profilaktikasi sog‘lom turmush tarzining ajralmas qismidir. Chunki salomatlikni saqlash faqat sport bilan shug‘ullanish yoki to‘g‘ri ovqatlanish bilan cheklanmaydi; u insonning tibbiy madaniyati, mas‘uliyatli xulq-atvori va xavf omillarini anglab yashashi bilan chambarchas bog‘liq.[14]

Bugungi globallashuv davrida yoshlar axborot oqimining markazida turibdi, ammo internet va ijtimoiy tarmoqlarda sog'liq bilan bog'liq noto‘g'ri ma'lumotlar ham tez tarqalmoqda. Ayniqsa, OIV infeksiyasi va jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar haqida asossiz qo‘rquvlar, stereotiplar va noto‘g'ri tasavvurlar uchrab turadi. Shu sababli profilaktika ishlari faqat ma'lumot berish bilan emas, balki ilmiy asoslangan, ishonchli va yoshlar tiliga mos tushuntirishlar orqali olib borilishi zarur.

OIV infeksiyasi haqida gapirganda, bir jihatni alohida qayd etish kerak: OIV kundalik muloqot orqali yuqmaydi. Qo‘l berib ko‘rishish, quchoqlash, bir idishdan foydalanish yoki birga o‘qish va ishlash orqali virus yuqmaydi. OIV asosan himoyalanmagan jinsiy aloqa, steril bo‘lmagan igna va tibbiy asbob-uskunalar orqali, shuningdek, onadan bolaga yuqishi mumkin. Demak, profilaktikaning asosiy yo‘nalishlari — xavfsiz xulq-atvor, tibbiy manipulyatsiyalarda steril vositalardan foydalanish va o‘z vaqtida tekshiruvdan o‘tishdir.[15][16]

Virusli gepatitlar, xususan B va C gepatitlari ham yoshlar salomatligi uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Ular uzoq vaqt davomida simptomsiz kechishi va keyinchalik jigar sirrozi yoki jigar saratoniga olib kelishi mumkin. Gepatit B ga qarshi samarali vaksina mavjud bo‘lib, emlash kasallikning oldini olishdagi eng kuchli vositalardan biridir. Gepatit C bo‘yicha esa erta aniqlash va zamonaviy davolash usullari juda muhim.[17]

Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar — sifilis, gonoreya, xlamidioz va boshqalar — ko‘pincha yoshlar orasida yashirin kechadi va vaqtida davolanmasa, reproduktiv salomatlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bu infeksiyalarni erta aniqlash uchun tibbiy ko‘riklar va laborator tekshiruvlardan muntazam o‘tib turish muhimdir.[18]

Profilaktika ishlarining asosiy tamoyillari

Profilaktika ishlarida quyidagi tamoyillar muhim ahamiyatga ega:

–Tibbiy savodxonlikni oshirish: yoshlar kasalliklarning yuqish yo‘llari, belgilari va himoyalanish usullari haqida aniq bilimga ega bo‘lishi kerak.

–Mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish: sog'lom munosabatlar, xavfsiz xatti-harakatlar va o‘z salomatligiga hurmat madaniyatini rivojlantirish zarur.

–Erta tashxis va maslahat xizmatlari: anonim va qulay testlash imkoniyatlari, psixologik hamda tibbiy maslahat xizmatlari yoshlar uchun ochiq bo‘lishi kerak.

–Stigma va diskriminatsiyani kamaytirish: OIV yoki boshqa infeksiyalar bilan yashayotgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash muhim. Qo‘rquv va kamsitish odamlarni test topshirishdan va davolanishdan uzoqlashtiradi.

---

[14] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 84-sonli qarori “O‘zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ‘ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

[15] UNAIDS. Global AIDS Update 2023: The Path That Ends AIDS. — Geneva: UNAIDS, 2023. URL: https://www.unaids.org/en/resources/documents/2023/global-aids-update-2023

[16] World Health Organization. HIV Transmission: Key Facts. — Geneva: WHO, 2023. URL: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hiv-aids

[17] World Health Organization. Hepatitis B: Vaccines and Immunization. — Geneva: WHO, 2023. URL: https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/hepatitis-b

[18] O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar profilaktikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. — Toshkent, 2021.

Xulosa

Kasalliklarning oldini olish ularni davolashdan nafaqat samaraliroq, balki iqtisodiy jihatdan ham ancha foydalidir. Profilaktikaga sarflangan mablag' sog'liqni saqlash tizimi uchun keyinchalik katta davolash xarajatlarining oldini oladi. Eng muhimi esa — insonning hayot sifati, mehnat qobiliyati va kelajak rejalari saqlab qolinadi.

Yoshlar bilan ishlashda quruq taqiqlash yoki qo‘rqitish usuli yetarli emas. Eng samarali yondashuv — ochiq muloqot, ishonchli maslahat va dalillarga asoslangan ta'limdir. Sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish orqali nafaqat alohida yoshlarning, balki butun jamiyatning salomatligini mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining «Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida»gi Qonuni (2015 yil 26 avgust, 393-I-son). — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlar bazasi.

2. World Health Organization. Global Accelerated Action for the Health of Adolescents (AA-HA!): Guidance to Support Country Implementation. — Geneva: WHO, 2022.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 84-sonli qarori “O‘zbekiston Respublikasida odam immunitet tanqisligi virusi infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurash bo‘yicha yoshlar faolligida olib boriladigan tizimli targ‘ibot tadbirlari konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”.

4. UNAIDS. Global AIDS Update 2023: The Path That Ends AIDS. — Geneva: UNAIDS, 2023.

5. World Health Organization. HIV Transmission: Key Facts. — Geneva: WHO, 2023.

6. World Health Organization. Hepatitis B: Vaccines and Immunization. — Geneva: WHO, 2023.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar profilaktikasi bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. — Toshkent, 2021.

III-SHO‘BA.AXBOROT XURUJLARI VA YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI
AXBOROT XURUJLARINING MAKTAB O‘QUVCHI-YOSHLAR -ONGIGA TA’SIRI

Annamuratova Go‘zalxon Qalandarovna *Xorazm viloyati Hazorasp tumani 50- sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi*

Annotatsiya. Mazkur tezisda axborot xurujlarining maktab o‘quvchi-yoshlar ongiga ta’siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Bugungi raqamli jamiyatda o‘quvchilar internet, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar va turli ommaviy axborot vositalari orqali katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda. Ushbu axborotlarning barchasi ham tarbiyaviy, ilmiy va ma’naviy jihatdan foydali emas. Ayrim zararli axborotlar o‘quvchilarning dunyoqarashi, emotsional holati, xulq-atvori, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tezisda axborot xurujlarining psixologik ko‘rinishlari, ta’sir mexanizmlari va ularga qarshi ma’naviy-psixologik immunitetni shakllantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: axborot xuruji, maktab o‘quvchilari, yoshlar ongi, psixologik ta’sir, media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, ma’naviy immunitet, internet xavfsizligi.

Аннотация. В данной диссертации анализируется влияние информационных атак на психику школьников и молодежи с психологической точки зрения. В современном цифровом обществе учащиеся подвергаются воздействию огромного потока информации через Интернет, социальные сети, видеоплатформы и различные СМИ. Вся эта информация не приносит образовательной, научной и духовной пользы. Часть вредной информации может негативно повлиять на мировоззрение, эмоциональное состояние, поведение, ценности и социальные отношения учащихся. В диссертации рассматриваются психологические проявления информационных атак, механизмы воздействия и формирование духовно-психологического иммунитета к ним.

Ключевые слова: информационная атака, школьники, молодежное сознание, психологическое воздействие, медиаграмотность, критическое мышление, духовный иммунитет, безопасность в Интернете.

Abstract

This thesis analyzes the impact of information attacks on the minds of schoolchildren and young people from a psychological point of view. In today's digital society, students are exposed to a large flow of information through the Internet, social networks, video platforms and various media. All this information is not educationally, scientifically and spiritually useful. Some harmful information can negatively affect the worldview, emotional state, behavior, values and social relationships of students. The thesis covers the psychological manifestations of information attacks, mechanisms of influence and the formation of spiritual and psychological immunity against them.

Keywords: information attack, schoolchildren, youth consciousness, psychological impact, media literacy, critical thinking, spiritual immunity, Internet safety.

Kirish. XXI asrda axborot inson hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, maktab yoshidagi o‘quvchilar raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanmoqda. Bu jarayon ularning bilim olishi, dunyoqarashi va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq axborot makonida tarqalayotgan noto‘g‘ri, yolg‘on, tajovuzkor, manipulyativ va ma’naviy jihatdan zararli materiallar o‘quvchi-yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Maktab davri shaxs rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, o‘ziga bo‘lgan bahosi va xulq-atvor me’yorlari shakllanadi. Shu sababli axborot xurujlari o‘quvchi ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, unda noto‘g‘ri tasavvurlar, salbiy emotsiyalar, ishonchsizlik, tajovuzkorlik, loqaydlik yoki virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda axborot xurujlari ko‘pincha ochiq majburlash shaklida emas, balki yashirin psixologik ta’sir, yolg‘on xabarlar, noto‘g‘ri targ‘ibot, hissiyotga ta’sir etuvchi kontent, ijtimoiy

tarmoqlardagi salbiy guruhlar va manipulyativ materiallar orqali namoyon bo‘lmoqda. Maktab o‘quvchilari yosh xususiyatlariga ko‘ra bunday axborotlarni har doim ham tanqidiy tahlil qila olmaydi. Ular ko‘pincha ko‘rgan yoki eshitgan ma’lumotlarini tez qabul qiladi, tengdoshlar fikriga kuchli beriladi va virtual muhitdagi ta’sirlarga nisbatan sezgir bo‘ladi.

Shu bois o‘quvchilarda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, zararli axborotni ajrata olish va ma’naviy-psixologik immunitetni shakllantirish dolzarb pedagogik-psixologik vazifalardan biridir.

Tadqiqot maqsadi

Axborot xurujlarining maktab o‘quvchi-yoshlar ongiga psixologik ta’sirini tahlil qilish hamda ularning zararli oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan pedagogik-psixologik chora-tadbirlarni asoslash.

Tadqiqot vazifalari

Ushbu mavzuni o‘rganishda axborot xuruji tushunchasining mazmunini ochib berish, uning o‘quvchilar ongiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash, yoshlarning emotsional, motivatsion va xulq-atvor sohasidagi o‘zgarishlarini tahlil qilish, shuningdek, axborot xavfsizligini ta’minlashda oila, maktab va jamiyat hamkorligining ahamiyatini yoritish muhim hisoblanadi.

Asosiy qism

Axborot xuruji — bu shaxs yoki guruh ongiga maqsadli ravishda ta’sir ko‘rsatish, ularning fikrlashi, qadriyatlari, xulq-atvori va ijtimoiy pozitsiyasini o‘zgartirishga qaratilgan g‘oyaviy-psixologik jarayondir. Maktab o‘quvchilari axborot xurujlarining ta’siriga nisbatan sezgir qatlam hisoblanadi, chunki ularning hayotiy tajribasi, tanqidiy tafakkuri va axborotni saralash ko‘nikmalari hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Axborot xurujlari o‘quvchi-yoshlar ongiga bir necha yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, ularning **dunyoqarashi va qadriyatlar tizimiga** ta’sir qiladi. Zararli axborotlar natijasida o‘quvchida milliy qadriyatlarga befarqlik, kattalarga hurmatsizlik, mehnatga salbiy munosabat, oson yo‘l bilan muvaffaqiyatga erishish istagi yoki ijtimoiy mas’uliyatning pasayishi kuzatilishi mumkin.

Ikkinchidan, axborot xurujlari o‘quvchilarning **emotsional holatiga** ta’sir etadi. Haddan tashqari salbiy, qo‘rqinchli yoki tajovuzkor axborotlar bolalarda xavotir, qo‘rquv, bezovtalik, asabiylik, ishonchsizlik va stressni kuchaytiradi. Bunday holatlar o‘quvchining darsga diqqatini jamlashiga, o‘zlashtirishiga va tengdoshlari bilan sog‘lom muloqot qilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Uchinchidan, axborot xurujlari **xulq-atvor sohasiga** ta’sir qiladi. Virtual muhitdagi tajovuzkor muloqot, kamsitish, yolg‘on qadriyatlar va nosog‘lom namunalarga taqlid qilish o‘quvchilarda qo‘pollik, loqaydlik, yolg‘onchilik, darslarga qiziqishning pasayishi, real muloqotdan uzoqlashish kabi holatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

To‘rtinchidan, bunday axborotlar o‘quvchilarning **motivatsion sohasini** susaytiradi. Doimiy chalg‘ituvchi kontent, haddan tashqari ko‘p video va o‘yinlar, tezkor zavq beruvchi virtual materiallar bilim olishga bo‘lgan qiziqishni pasaytirishi mumkin. Natijada o‘quvchida sabr, maqsad sari intilish, o‘z ustida ishlash va mas’uliyat hissi zaiflashadi.

Beshinchidan, axborot xurujlari **ijtimoiy munosabatlar tizimiga** ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi virtual muloqotga haddan tashqari berilib ketsa, oilaviy suhbatlar, sinfdoshlar bilan jonli muloqot, maktab tadbirlari va jamoaviy faoliyatga qiziqishi kamayadi. Bu esa ijtimoiy moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi.

Psixologik ta’sir mexanizmlari

Axborot xurujlari o‘quvchi ongiga quyidagi psixologik mexanizmlar orqali ta’sir qiladi:

Taqlid mexanizmi. O‘quvchilar internetda ko‘rgan shaxslar, obrazlar yoki tengdoshlar xatti-harakatlariga taqlid qilishi mumkin. Agar bu namuna ijobiy bo‘lsa, tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatadi; salbiy bo‘lsa, noto‘g‘ri xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Emotsional yuqtirish mexanizmi. Kuchli hissiyot uyg‘otuvchi axborot o‘quvchining ruhiy holatiga tez ta’sir qiladi. Salbiy axborot ko‘pligi xavotir, qo‘rquv yoki agressivlikni kuchaytirishi mumkin.

Manipulyativ ta’sir mexanizmi. Ayrim axborotlar dalilga emas, hissiyotga tayanadi. Bunday materiallar o‘quvchini mustaqil fikrlashdan chalg‘itib, tayyor xulosalarni qabul qilishga undaydi.

Ijtimoiy bosim mexanizmi. Ijtimoiy tarmoqlarda “ko‘pchilik shunday qilmoqda” degan tasavvur o‘quvchini o‘z fikridan voz kechishga yoki zararli oqimlarga ergashishga olib kelishi mumkin.

Himoya omillari

Axborot xurujlarining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun o‘quvchilarda quyidagi sifat va ko‘nikmalarni shakllantirish zarur:

Birinchidan, media savodxonlikni rivojlantirish lozim. O‘quvchi axborot manbasini tekshirish, yolg‘on xabarni farqlash, reklama va manipulyatsiyani anglash, foydali va zararli kontentni ajrata olishni o‘rganishi kerak.

Ikkinchidan, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish muhimdir. O‘quvchi har qanday axborotni darhol qabul qilmasdan, “Bu ma’lumot qayerdan olingan?”, “U ishonchlimi?”, “Bu menga qanday ta’sir qilmoqda?” kabi savollar asosida tahlil qilishi kerak.

Uchinchidan, ma’naviy-psixologik immunitetni shakllantirish zarur. Bu o‘quvchining milliy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar, oilaviy tarbiya, vatanparvarlik, insonparvarlik va sog‘lom dunyoqarash asosida zararli axborotlarga qarshi tura olish qobiliyatidir.

To‘rtinchidan, oila va maktab hamkorligi kuchaytirilishi lozim. Ota-onalar farzandining internetdan foydalanish madaniyatiga befarq bo‘lmasligi, o‘qituvchilar esa dars va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda axborot xavfsizligi masalalarini muntazam yoritishi kerak.

Beshinchidan, sog‘lom ijtimoiy muhit yaratish zarur. Sport, kitobxonlik, ijodiy to‘garaklar, fan olimpiadalari, madaniy tadbirlar va volontyorlik faoliyati o‘quvchilarni foydali mashg‘ulotlarga jalb etadi va zararli axborotlarga berilish ehtimolini kamaytiradi.

Amaliy tavsiyalar

Maktablarda “Axborot madaniyati”, “Internetdan xavfsiz foydalanish”, “Yolg‘on axborotni qanday aniqlash mumkin?”, “Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot odobi” kabi mavzularda psixologik-trening mashg‘ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Sinf rahbarlari va maktab psixologlari o‘quvchilarning internetdan foydalanish odatlari, emotsional holati, tengdoshlar bilan munosabati va darsga motivatsiyasini muntazam kuzatib borishi zarur. Ota-onalar uchun esa farzandlar bilan ishonchli muloqot, raqamli nazorat madaniyati va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha seminarlar tashkil etilishi lozim.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, axborot xurujlari maktab o‘quvchi-yoshlar ongiga kuchli psixologik ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biridir. Bunday ta’sir o‘quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlari, emotsional holati, motivatsiyasi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axborot xurujlariga qarshi samarali kurashish uchun o‘quvchilarda media savodxonlik, tanqidiy tafakkur, ma’naviy immunitet, sog‘lom muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni shakllantirish zarur.

Demak, maktab, oila va jamiyat hamkorligida tashkil etilgan tarbiyaviy-psixologik ishlar o‘quvchi-yoshlarni zararli axborot ta’siridan himoya qilish, ularning mustaqil fikrlashi, sog‘lom dunyoqarashi va ijobiy xulq-atvorini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. — Moskva: Pedagogika, 1991.
2. Bandura A. Social Learning Theory. — Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
3. Leontev A. N. Faoliyat. Ong. Shaxs. — Moskva: Politizdat, 1975.
4. G‘oziyev E. G. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
5. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
6. Toffler E. Uchinchi to‘lqin. — New York: Bantam Books, 1980.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni.

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING YOSHLAR TAFAKKURI VA TA’LIM JARAYONIGA TA’SIRI

Abdullayeva O‘g‘iloy Abdirahman qizi *Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi*
E-mail: ugiloyabdullayeva957@gmail.com

Annotatsiya:Mazkur maqolada axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yoshlar tafakkuri va ta’lim jarayoniga ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli vositalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, internet va axborot oqimining yoshlar ongiga ijobiy hamda salbiy ta’siri, shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari yoritilgan.
Kalit so‘zlar: axborot texnologiyalari, yoshlar tafakkuri, axborot xurujlari, raqamli ta’lim, internet, media savodxonlik, interaktiv ta’lim, masofaviy ta’lim.
Abstract:This article analyzes the impact of information and communication technologies on youth thinking and the educational process. It also examines the importance of digital tools in improving educational effectiveness, the positive and negative influence of internet information flows on young people, as well as existing challenges and ways to overcome them.
Keywords:information technologies, youth thinking, information attacks, digital education, internet, media literacy, interactive learning, distance education.
Аннотация:В данной статье анализируется влияние информационно-коммуникационных технологий на мышление молодежи и образовательный процесс. Также рассматриваются значение цифровых средств в повышении эффективности образования, положительное и отрицательное влияние информационных потоков интернета на сознание молодежи, существующие проблемы и пути их решения. Ключевые слова: информационные технологии, мышление молодежи, информационные атаки, цифровое образование, интернет, медиаграмотность, интерактивное обучение, дистанционное обучение.

Asosiy qism

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jamiyat hayotining barcha jabhalariga, ayniqsa yoshlar hayoti va ta’lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Internet tarmoqlari, ijtimoiy platformalar va raqamli vositalar yoshlarning dunyoqarashi, tafakkuri va axborotni qabul qilish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli axborot oqimining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy ta’sirlarini ham ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va multimedia vositalari orqali o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengaymoqda. Ayniqsa, masofaviy ta’lim tizimining rivojlanishi yoshlarning zamonaviy bilimlarni mustaqil egallashiga yordam bermoqda.

Shu bilan birga, internet tarmoqlarida turli axborot xurujlari, noto‘g‘ri ma’lumotlar va zararli kontentlarning keng tarqalishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ayrim hollarda yoshlar turli g‘oyaviy tahdidlar, yolg‘on axborotlar va manipulyativ media vositalari ta’siriga tushib qolmoqda. Bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda media savodxonligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining yana bir muhim jihati — yoshlarning ijtimoiy faolligi va bilim olish motivatsiyasini oshirishidir. Interaktiv darslar, video materiallar, sun’iy intellekt asosidagi dasturlar hamda onlayn muloqot vositalari o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi. Natijada o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va tahliliy ko‘nikmalari rivojlanadi.

Biroq raqamli texnologiyalardan noto‘g‘ri foydalanish internetga qaramlik, vaqtni samarasiz sarflash va psixologik muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog‘lanib qolishi ularning ma’naviy-axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir etadi. Shu sababli ta’lim tizimida axborot xavfsizligi, media madaniyat va raqamli savodxonlikni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish va media savodxonlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Finlyandiya, Janubiy Koreya va Singapur ta’lim tizimida raqamli madaniyatni shakllantirish orqali yoshlarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga erishilgan.

Umuman olganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar tafakkuri va ta’lim jarayoniga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilan bir qatorda, yoshlarni turli axborot tahdidlaridan himoya qilish, media savodxonlikni rivojlantirish va sog‘lom raqamli muhitni shakllantirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yoshlar tafakkuri va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ular ta’lim samaradorligini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va yoshlarning zamonaviy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, internet va axborot oqimining salbiy ta’sirlarini kamaytirish, media savodxonlikni oshirish hamda yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kelgusida bu borada raqamli madaniyatni shakllantirish, pedagoglarning malakasini oshirish va axborot xavfsizligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda oliy ta’lim tizimi global raqamli transformatsiya jarayonining ajralmas qismiga aylandi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish usullari tubdan yangilanmoqda. Bu esa ta’lim sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish hamda talabalarni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda jamiyatning raqamli transformatsiyasi barcha sohalarda, jumladan, ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, uning samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bois, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonidagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy jihatdan o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Bugungi globallashuv davrida raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga, xususan, ta’lim tizimiga chuqur kirib bormoqda. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari ta’lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli tashkil etish imkonini bermoqda. Raqamli texnologiyalar yordamida o‘quvchilar va talabalar uchun keng imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, masofaviy ta’lim platformalari, elektron darsliklar, multimedia vositalari hamda sun’iy intellekt asosidagi dasturlar bilim olish jarayonini soddalashtiradi va individuallashtiradi. Bu esa har bir o‘quvchining o‘z qobiliyati va tezligiga mos ravishda bilim olishiga yordam beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida vizual va interaktiv usullardan foydalanish imkonini beradi. Masalan, video darslar, animatsiyalar va virtual laboratoriyalar murakkab mavzularni oson tushunishga yordam beradi. Natijada o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi ortadi va o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchilar uchun ham raqamli texnologiyalar katta qulayliklar yaratadi. Ular darslarni rejalashtirish, o‘quv materiallarini tayyorlash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali vaqtni tejaydi. Shu bilan birga, turli onlayn platformalar orqali o‘quvchilar bilimini tezkor tahlil qilish va monitoring olib borish imkoniyati mavjud. Ammo raqamli texnologiyalardan foydalanishda ayrim muammolar ham mavjud. Internetga bog‘liqlik, texnik vositalarning yetishmasligi va raqamli savodxonlik darajasining pastligi bu jarayonda to‘siq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun zarur infratuzilmani rivojlantirish va pedagoglarning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonini tashkil etishda yangi yondashuvlarni shakllantirmoqda. Xususan, elektron ta’lim platformalari, virtual muhitlar va multimedia vositalari o‘quv materiallarini yetkazib berishning samarali vositasi sifatida xizmat qiladi. Bu esa ta’lim jarayonining moslashuvchanligini oshirib, o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishi natijasida ta’lim olish geografik chegaralardan mustaqil holga keldi. Bu esa aholining keng qatlamlari uchun sifatli ta’limdan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonida interaktivlik ta’minlanib, o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasi ortadi. Raqamli vositalarning

yana bir muhim jihati — o‘quv jarayonini vizuallashtirish imkoniyatidir. Grafik tasvirlar, animatsiyalar va simulyatsiyalar murakkab tushunchalarni oson o‘zlashtirishga yordam beradi. Natijada, o‘quvchilarning bilim darajasi va tahliliy fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchilar faoliyatida ham raqamli texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda. Ular o‘quv materiallarini yaratish, baholash tizimini takomillashtirish va o‘quvchilar faoliyatini monitoring qilishda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Biroq, raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tezligi bilan bog‘liq muammolar va foydalanuvchilarning raqamli savodxonlik darajasining pastligi ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Raqamli texnologiyalar oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Xususan, elektron ta’lim platformalari, virtual o‘quv muhitlari va onlayn kurslar orqali bilim berish samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda. Bu esa talabalar uchun mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va o‘quv jarayonini moslashuvchan qiladi. Masofaviy ta’limning rivojlanishi oliy ta’lim tizimida muhim burilish yasadi. Talabalar geografik joylashuvidan qat’i nazar, yetakchi universitetlarning ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu holat ta’limning ommaviylashuvi va teng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar oliy ta’limda interaktiv o‘qitish metodlarini keng qo‘llash imkonini beradi. Masalan, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari orqali murakkab ilmiy tushunchalar yanada aniq va tushunarli tarzda o‘rgatiladi. Natijada talabalar nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko‘nikmalarni ham samarali egallaydi. Raqamli texnologiyalar ilmiy-tadqiqot faoliyatida ham muhim rol o‘ynaydi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, ilmiy izlanishlar olib borish va xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishda zamonaviy raqamli vositalar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida ham raqamli texnologiyalarning o‘rni ortib bormoqda. Ular o‘quv jarayonini rejalashtirish, baholash tizimini takomillashtirish va talabalar bilimini monitoring qilishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni oliy ta’limga joriy etishda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, texnik infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, internet tarmog‘ining sifati, shuningdek, professor-o‘qituvchilar va talabalar orasida raqamli kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanmaganligi muhim to‘siqlardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni oliy ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha rivojlangan davlatlar tajribasi ushbu yo‘nalishning yuqori samaradorligini ko‘rsatmoqda. Xususan, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Finlyandiya oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar keng qo‘llanilib, an’anaviy va onlayn ta’limni uyg‘unlashtirgan blended learning modeli samarali natijalar bermoqda. Ushbu model ta’lim sifatini oshirish bilan birga, talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. AQSh va Yevropa universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalarni innovatsion va hamkorlikka asoslangan tarzda qo‘llash talabalarning akademik natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Ayniqsa, raqamli ko‘nikmalarning rivojlanishi o‘quvchilarning bilim darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Osiyo mamlakatlari, xususan Janubiy Koreya va Singapur tajribasida “smart education” konsepsiyasi asosida raqamli ta’lim muhitlari yaratilgan. Bu yerda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (big data) va bulutli texnologiyalar yordamida individual o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilgan. Natijada ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va samaradorligi oshgan. Xitoy universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar esa raqamli texnologiyalar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini optimallashtirish va bilimlarni yetkazish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim tizimi talabalar faolligini oshiradi, ularning motivatsiyasini kuchaytiradi hamda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Biroq ayrim davlatlarda raqamli tafovut (digital divide), infratuzilma yetishmovchiligi va raqamli savodxonlik darajasining pastligi kabi muammolar ham saqlanib qolmoqda. Umuman olganda, xorijiy tajribalar raqamli texnologiyalarni oliy ta’limga joriy etish ta’lim sifatini oshirish, global

raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim sohasini raqamlashtirishga oid farmon va qarorlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi materiallari.
3. UNESCO. Education in a Digital World. – Paris, 2020.
4. OECD. Digital Education Outlook. – Paris, 2021.
5. Anderson, T. The Theory and Practice of Online Learning. – Athabasca University Press, 2018.
6. Bates, A.W. Teaching in a Digital Age. – Vancouver, 2019.
7. Selwyn, N. Education and Technology: Key Issues and Debates. – London, 2022.
8. Hodges, C. va boshqalar. “The Difference Between Emergency Remote Teaching and Online Learning”. – 2020.
9. Ally, M. Mobile Learning: Transforming the Delivery of Education and Training. – 2017.
10. Oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha ilmiy maqolalar *va internet manbalari.*

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O`SMIRLAR XULQ ATVORIGA TA`SIRIN VA ULARNI O`RGANISH BO`YICHA TADQIQOTLANING AHAMIYATI

Allakov Ilhom Okmurodovich

Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning mutlaqo yangi turi – axborot jamiyatiining shakllanishiga zamin yaratdi. Axborot almashinuvi vositalari esa zamonaviy jamiyat taraqqiyotida alohida o’ringa ega bo’lib qoldi. Ularning insonga ta’siri juda erta yoshda boshlanib, kundalik hayotga chuqur o`rnashdi. Bu esa, raqamli asrda sog‘lom turmush tarzini, axborot iste`moli madaniyatini targ‘ib qiluvchi maxsus dasturlar va konsepsiyalar ishlab chiqilishi juda muhim ekanligini ko`rsatadi. Ushbu dasturlar olib borilayotgan so`rovnomalar va tadqiqot natijalari va xulosalariga asoslangan, maxsus moslashtirilgan lozim.

**Kalit so`zlar**: o`smirlar, axborot, media, xulq-atvor, axborot iste`moli madaniyati, axborot texnologiyalari, internet.

Аннотация. Стремительное развитие информационных технологий создало основу для формирования совершенно нового типа общества — информационного общества. Средства обмена информацией заняли особое место в развитии современного общества. Их влияние на человека начинается с самого раннего возраста и глубоко укоренилось в повседневной жизни. Это свидетельствует о важности разработки специальных программ и концепций, направленных на пропаганду здорового образа жизни и культуры потребления информации в цифровую эпоху. Такие программы должны быть специально адаптированы и основываться на результатах и выводах опросов и научных исследований.

Ключевые слова: подростки, информация, медиа, поведение, культура потребления информации, информационные технологии, Интернет.

Annotation. The rapid development of information technologies has laid the foundation for the emergence of a completely new type of society—the information society. Means of information exchange have acquired a special place in the development of modern society. Their influence on individuals begins at a very early age and has become deeply integrated into everyday life. This demonstrates the importance of developing special programs and concepts aimed at promoting a healthy lifestyle and a culture of information consumption in the digital age. Such programs should be specifically adapted and based on the results and conclusions of surveys and research studies.

Keywords: adolescents, information, media, behavior, information consumption culture, information technologies, Internet.

Bugungi kunda axborot kuchli ijtimoiy aloqa vositasi sifatida, ijtimoiy va shaxslararo xulq-atvorni va munosabatlarni modellashtirish, insonlarning, shu jumladan o'smirlarning muloqoti, hamjixatligi, ijtimoiylashuv darajasi va qadryatlar almshinuvi jarayonlarida asosiy funktsiyani bajarmoqda. Turli vositalar orqali taqdim etilayotgan axborotlarni qabul qilishda insonlardan, ayniqsa yosh avloddan ma'lum darajada axborot iste'moli madaniyatiga ega bo'lishni talab qilmoqda. Xozirgi jadal rivojlanayotgan dunyoda kuchli jamiyat, ishonchli va mustahkam siyosiy tizm, sog'lom ijtimoiy munosabatlar asosini kompitentli, mantiqiy va tanqidiy fikrlay oladigan adekvat fuqarolar tashkil qiladi. Ularning manbai esa yetishib kelayotgan o'smirlarimiz xisoblanadi. Bugungi chegarasiz ulkan axborot zamonida ularda sog'lom ijtimoiy tasavvurlarni shakllantirish zararli axborot monipulyatsiyalardan asrash eng dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi

Yoshlarimizni bugutgi jamiyatda tarbiyalash, ularni namunali sog'lom komil insonlar bo'lib yetishishida qanchalik qiyinchiliklar tug'dirayotgani xech kimga sir emas. Xali o'zini ximoya qila omaydigan, yaxshi va yomonni ajrata olmaydigan farzandlarimiz axborot vositalari domiga tushib qolayotganidan va ulardan ximoyalash kundan kunga murakkablashayotganidan xavotirga tushyapmiz. Insonnig kelajakda qanday shaxs bo'lib yetishishi uning aynan yoshlik, o'smirlik davrida olgan bilimlaridan shakllangan ijtimoiy tasavvurlari bilan bog'liq. Jamiyatga, shu jmiyatdagi insonlarga, sodir bo'layotgan xodisalarga, kirib kelayotgan yangiliklarga munosabatlar, xulq-atvor asosida ijtimoiy tasavvurlar yotadi. Taraqqiyot mevasi bo'lmish zamonaviy axborot vositalari sezilarli darajada bu tasavvurlarning shakllanishida o'z ta'sirini ko'rsatyapti. Zamonaviy axborot ilmi asoschilaridan bo'lgan mashhur Marshal Maklyuen o'tgan asrning 70-yillarida "Har bir yangi axborot vositasi o'sha zamon kishilarini imtixondan, sinovdan o'tqazadi" deganida hali kompyuter, internet, mobil telefonlar odamzot xayoliga kelmagan edi. Bu axborot vositalari bugun xayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib boryotgan ekan, ulardan voz kechish, ularni taqiqlash choralari xaqida emas, balki yoshlarimizda ulardan to'g'ri, foydali, samarali foydalanish madaniyatini, ko'nikmalarini shakllantirishimiz kerakdir.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning mutlaqo yangi turi – axborot jamiyatiining shakllanishiga zamin yaratdi. Axborot almashinuvi vositalari esa zamonaviy jamiyat taraqqiyotida alohida o'ringa ega bo'lib qoldi. Ularning insonga ta'siri juda erta yoshda boshlanib, kundalik hayotga shu qadar mustahkam o'rnashgan-ki, insonlar ularsiz hayotlarini tasavvur ham qila olishmay qolgan. Bugungi kunda, zamonaviy dunyoda axborot vositalari shaxs ongini shakllantirish, ularning didi, qarashlari, odatlari, xoxish-istaklarini shakllantirish funktsiyalarining salmoqli qismini o'z zimmasiga oldi. Voyaga yetmagan shaxsning shakllanishiga axborot vositalari ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jamiyatda va hatto butun dunyo ijtimoiy xayotidagi yangiliklar, o'zgarishlar va hodisalarini axborot vositalari orqali o'rganamiz. Axborot vositalari jamoatchilik ongiga ta'sir etuvchi asosiy vositaga aylandi. Shaxs shakllanishining axloqiy rivojlanishi uchun eng ma'suliyatli davr o'smirlikdir. Aynan shu davrda ong, his-tuyg'ular, xulq-atvor, o'z dunyoqarashining shakllanishi, hayotiy va intelektual tajriba to'planishi sodir bo'ladi. Bu o'z-o'zini bilish va o'z taqdirirni o'zi belgilash, axloqiy qadryatlar va ideallarni aniqlash davri. Axborot vositalarining o'smirlarda ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishida eng kuchli omil sifatida aktuallashuvi zamonaviy axborot tarqatish vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlar taqdimotining o'ziga xos xususiyatlari bilan va shu bilan birga o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan xam izoxlanadi. O'smirlarning asosiy xususiyatlaridan biri bu muloqotga bo'lgan ehtiyoj, bu shaxsning asosiy tarkibiy qismlarini shakllanttirishning muhim omili xisoblanadi.

Butun dunyoda yoshlar oxirgi yillarda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqlim o'zgarishining tezlashishi, migratsiya, iqtisodiy va siyosiy beqarorlik, koronavirus pandemiyasi va virus tarqalishini to'xtatish uchun davlatlar tomonidan kiritilgan cheklov choralari, Yevropa va dunyoning turli burchaklaridagi borayotgan urush harakatlari olib borilmoqda. Bunday ulkan global voqealar yoshlarning ijtimoiylashuviga, ruhiy holatiga, ijtimoiy tasavvurlariga va ular asosida shakllanadigan xulq-atvoriga juda katta ta'sir ko'rsatishi muqarrar.

Biroq yoshlarning umumiy ruhiy va jismoniy salomatligi hamda farovonligini ko‘p jihatdan ularning kundalik axborot va ma`lumotlarni to`g`ri qabul qila bilish, tahlil qilish, tanqidiy yondashsish, mustaqil fikrlash, fundamental bilimlarga ega bo`lish kabi ko`nikmalari belgilaydi. Bunga oila, do‘stlar va o‘qituvchilar bilan munosabatlar, o‘ziga bo‘lgan baho, mustaqil fikrlash darajasi va maktabdagi muhit kabi omillar kiradi. Biz ushbu muammolarning yoshlarga ta’sirini tushunishimiz hamda yurtimizda o‘smirlar ruhiy salomatligi va ijobiy xulq-atvorini qanday qo‘llab-quvvatlash mumkinligi xaqida bosh qotitirishimiz darkor.

Bu borada JSSTning Yevropa mintaqasida maktab yoshidagi bolalarning ruhiy salomatlik va xulq-atvorini o‘rganuvchi (HBSC) tadqiqotlardan olingan ma`lumotlar muhim asos bo`lib xizmat qiladi. HBSC — bu JSSTning Yevropa mintaqaviybyurosi bilan hamkorlikda har to‘rt yilda bir marta maktablarda o‘tkaziladigan so‘rovnomadir. U 11, 13 va 15 yoshli o‘g‘il va qiz bolalarning salomatligi, xulq-atvori va ijtimoiy muhitini kuzatib boradi hamda hisobot beradi. Eng oxirgi so‘rovnoma (2021/2022) Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanadaning 44 ta davlati va mintaqasida o‘tkazildi. Unda COVID-19 pandemiyasining ta’sirini baholash uchun ixtiyoriy savollar to‘plami ham bor edi.

Ushbu hisobot (seriyaning 6-jildi) o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va onlayn o‘yinlariga bag‘ishlangan. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotiga, ayniqsa muloqot sohasida katta foyda keltirishini tan olgan holda, hisobot ba’zi xavflarni ham ko‘rsatib o‘tadi. Bunga internet va o‘yinlarga qaramlik belgilari paydo bo‘layotgan o‘smirlar soni ortib borayotgani misol bo‘ladi. Buning oqibatida yoshlar boshqa muhim hayotiy ishlarini tashlab qo‘yishmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlardan muammoli foydalanish darajasi 2018-yildagi 7% dan 2022-yilda 11% gacha ko‘tarildi. Bu holat davlatlar zudlik bilan raqamli texnologiyalardan foydalanish qoidalarini kuchaytirishi kerakligini ko‘rsatadi. HBSC va JSST jamoasiga yoshlar duch kelayotgan qiyinchiliklarga qarshi yangi choralarni ishlab chiqish uchun bunday aniq va ishonchli ma’lumotlarnlardan samarali foydalanish muhim hisoblanadi.

Maktab yoshidagi bolalarning ruhiy salomatligi va barqaror xulq-atvori borasidagi (HBSC) tadqiqoti butun Yevropa, Markaziy Osiyo va Kanadadagi o‘smirlarning salomatligi va farovonligi haqida olib borilayotga tadqiqotlar uzoq muddatli tendensiyalarni kuzatish imkoniyati ham beradi. Bu esa so‘nggi o‘n yilliklarda o‘smirlar hayoti qanday o‘zgarganini tushunish uchun bebaho ma’lumotlar beradi.

2021/2022-yillardagi so‘rovnoma o‘smirlar salomatligi va xulq-atvori, shuningdek, ular ulg‘ayadigan ijtimoiy muhit, jumladan, oila va tengdoshlar bilan munosabatlar, maktab hayoti va internetdagi muloqotga oid ko‘plab ko‘rsatkichlarni qamrab oldi. Bu koronavirus pandemiyasidan keyingi birinchi HBSC so‘rovnomasi bo‘lgani uchun, unga pandemiyaning o‘smirlar salomatligiga ko‘rsatayotgan davomiy ta’sirini aniqlashga qaratilgan savollar kiritildi. Ruhiy salomatlikka alohida e’tibor qaratildi. Bunda ruhiy xotirjamlik, yolg‘izlik va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonch kabi yangi ko‘rsatkichlar o‘rganildi.

Ushbu hisobot, o‘smirlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi va kompyuter o‘yinlariga bag‘ishlangan. U xavotirli natijalarni ko‘rsatmoqda: ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish darajasi yuqori va ularga muammoli (qaram bo‘lib) qolish holatlari, ayniqsa, qizlar o‘rtasida ortib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish qizlar orasida, kompyuter o‘yinlari esa o‘g‘il bolalar orasida ko‘proq uchraydi. Biroq bu holat yoshga va mamlakatga qarab farq qiladi. Bu esa o‘smirlarning internetdagi xulq-atvoriga kengroq ijtimoiy-madaniy omillar ta’sir qilishi mumkinligidan dalolat beradi.

Tadqiqot natijalariga ko`ra o‘smirlarning 36 foizi do‘stlari va boshqalar bilan internetda doimiy aloqada bo‘lishini aytgan, bunda eng yuqori ko‘rsatkich 15 yoshli qizlar (44 foiz) hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘smirlar ko‘proq yaqin do‘stlari bilan doimiy internet muloqotida bo‘lishadi (26 foiz), faqat internet orqali tanishgan do‘stlari bilan esa eng kam (7 foiz) doimiy aloqada bo‘lishadi.

2022-yilda do‘stlar hamda boshqalar bilan doimiy internet muloqoti va muammoli foydalanish o‘lchovlari birlashtirilganda, o‘smirlarning 11 foizi ijtimoiy tarmoqlardan muammoli foydalanuvchilar, 32 foizi o‘ta faol foydalanuvchilar, 44 foizi oddiy faol foydalanuvchilar va 12 foizi faol bo‘lmagan foydalanuvchilar toifasiga ajratildi.

Muammoli internetdan foydalanuvchi yoshlar ko‘proq 13 yoshlilar orasida kuzatildi. Bu ko‘rsatkich ijtimoiy-iqtisodiy guruhlar kesimida deyarli farq qilmaydi, biroq ijtimoiy-iqtisodiy mavqeyi pastroq bo‘lgan o‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan umuman foydalanmaydiganlar (faol bo‘lmaganlar) ulushi eng yuqori natija ko`rsatgan. Umuman olganda, o‘smirlarning 34 foizi har kuni raqamli o‘yinlar o‘ynashini, 22 foizi esa o‘yin o‘ynagan kunida kamida to‘rt soat vaqt sarflashini ma’lum qilgan. O‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda tez-tez va uzoqroq vaqt davomida o‘yin o‘ynashga moyil bo‘lishadi.

Har kuni raqamli o‘yinlar o‘ynash ko‘rsatkichi o‘g‘il bolalarda 13 yoshda, qiz bolalarda esa 11 yoshda eng yuqori nuqtaga chiqadi. Uzoq davom etadigan o‘yin seanslari (kamida to‘rt soat) 13 va 15 yoshli o‘g‘il bolalar orasida eng yuqori bo‘lgan, qizlar orasida esa turli yosh guruhlarida deyarli barqaror (o‘zgarmas) bo‘lib qolgan. O‘smirlarning beshdan bir qismi (20 foiz) o‘yin o‘ynamaydiganlar, 68 foizi muammosiz o‘yinchilar va 12 foizi muammoli o‘yinga moyil (xavf ostidagi) o‘yinchilar deb topildi.

2017/2018-yillardagi HBSC so‘rovnomasi bilan solishtirganda, 2022-yilgi natijalar muammosiz o‘yinchilar (2018-yildagi 61 foizga qarshi 2022-yilda 68 foiz) va muammoli o‘yinga moyil bo‘lgan o‘smirlar (2018-yildagi 10 foizga qarshi 2022-yilda 12 foiz) ulushi biroz ortganini ko‘rsatmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bunday jadal rivojlanishi, axborot xajmining xaddan ziyod oshib ketayotganligi, butun bir jamiyatlar axborot oqimi ostida qolib ketayotganligi jamiyat kishilari oldiga “axborotlar sub’ektni egallab olishi va boshqarishi emas, balki sub’ekt axborotlarga ega bo’lishi va boshqarishi kerak” degan kontseptsiyani o’zlarida shakllantirishlari kerak degan vazifani qo’yadi. Ayniqsa fikrlash va iroda xali to’liq shakllanmagan, ehtiroslar junbushidagi yosh o’smirlarni xar qanday yorqin, qizg’in, qiziqarli axborotlar, asosiy bilim va maqsadlardan og’ishga, o’zligini qidirayotgan o’smir shaxsi noaniqliklar va illyuziyalar olamida qolib ketishiga olib kelishishi mumkin. Bunday xolatda “vaziyatni o’zgartirib bilmasang, unga nisbatan munosabatni o’zgartir” degan tamoyil asosida o’smirlarimizda axborotlarga bo’lgan ehtiyojlarini tahlil qila bilish, ma’lumotli to’g’ri tanlash, uning dolzarb va foydaliligini adekvat baholay bilish, analiz qilish ko’nikmalarini shakllantirish lozim xisoblanadi. Frantsuz olimi Moskivisi, o’smirlarda zamonaviy bilimlar ularda shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qobiq qismi bo’lsa, oila va maktablarda qadryatlar va an’analarga asoslangan bilimlar bu tasavvurlarning o’zagi bo’lishi kerak deydi. Qadriyatlarga asoslangan bilimlar ularga kiruvchi axborotni uning ijobiy yoki salbiy ahamiyatiga qarab farqlashga va tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi. O’zgarish dinamikasi juda tez zamonaviy jamiyatda xar qanday dunyoqarash va amallar tanqid va muxokamaga uchraydi, ko’r-ko’rona singdirilgan va o’zgarmas qarashlarga joy qolmaydi. Jamiyat konteksining xar o’zgarganida o’zgaradigan ijtimoiy tasavvurlarning perefonik qismi o’zgarib, o’zagi o’zgarmay qolishi kerak. Bu xar qanday zamonda oila va maktablarda beriladigan ta’lim va tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini ko’rsatadi. Bu esa, raqamli asrda sog‘lom turmush tarzini, axborot iste`moli madaniyatini targ‘ib qiluvchi maxsus dasturlar va konsepsiyalar ishlab chiqilishi juda muhim ekanligini ko`rsatadi. Ushbu dasturlar yuqoridagi so`rovnomalarga o`xshagan tadqiqot natijalari va xulosalariga asoslangan, maxsus moslashtirilgan va zarur bo‘lganda genderga (o‘g‘il-qizligiga) va yoshga qarab ajratilgan bo‘lishi lozim, chunki ijtimoiy tarmoqlar va internet o‘yinlarga qaramlilikda, olingan axborot va ma`lumotlarni qabul qilish va tahlil qilishda yosh va jinsga xos farqlar mavjud. Bolalarda internetda to‘g‘ri xulq-atvorni shakllantirish uchun ushbu dasturlar butun bolalik davrida amalga oshirilishi kerak.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari shaxsiy rivojlanishga ta'sirini kuchaytirishda davom etishini ishonch bilan aytish mumkin. Bu ta'lim tizimidan ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari: bolalar, o‘qituvchilar va ota-onalar o‘rtasida axborot savodxonligini oshirish bo‘yicha samarali choralarni amalga oshirishni talab qiladi. Bolalar va o‘smirlar uchun tadbirlarni loyihalashda biz tanqidiy fikrlash, manipulyatsiyaga qarshi turish qobiliyati, mas'uliyat va gumanistik qadriyatlarga e'tibor qaratish kabi xususiyatlarni rivojlantirishga intilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sara Djeyn Blekmor “Izobretenie samix sebya Taynaya jizn̈ mozga podrostkov” 2018
2. И.Б. Бовина «Теория социальных представлений история и современное развитие» Социологический журнал. 2010. № 3
3. ”Электронные устройства и психическое здоровье подростков” Всемирная организация здравоохранения. 25 сентября 2024 г.

https://iris.who.int/handle/10665/378982

HOZIRGI DAVR IJTIMOIY MUHITIDA O‘SMIR VA O‘SPIRINLARNING AXBORAT QABUL QILISHGA BO‘LGAN MUNOSABATI

Ataboyev Navro‘zbek Ilhombek o‘g’li
Toshkent amaliy fanlar universiteti psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
+998991062060 navruz9610@gmail.com
Botirova Shaxzoda Sherzod qizi TAFU
Pedagogika va psixologiya yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annatatsiya. 21-asr axborat asri bo‘lib insonga xaddan ortiq ma’lumotlar oqimining ochiqligi ham salbiy ham ijobiy holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu ham insonda axboratlarni analiz qilish, munosabat bildirish, o‘zi uchun kerakli va keraksiz axboratlarni qabul qilish yoki rad etish unda axboratga nisbatan stressni paydo qiladi. Bevosita jamiyatimizda bo‘lib turgan bu kabi ijtimoiy jarayonlarga bo‘lgan

Kalit so‘zlar. Adaptatsiya, stress, analiz-sintez, mafkura, axborot, manipulyatsiya, steriotip.

Аннотация. 21-й век, являясь веком информации, открытость чрезмерного потока информации для человека может привести как к негативным, так и к положительным последствиям. Это также приводит к тому, что человек анализирует информацию, реагирует на нее, принимает или отвергает нужную и ненужную ему информацию, что вызывает у него стресс по отношению к информации. Подобные социальные процессы, происходящие непосредственно в нашем обществе

Ключевые слова. Адаптация, стресс, анализ-синтез, идеология, информация, манипуляция, стереотип.

Abstract. The 21st century is the age of information, and the openness of an excessive flow of information to a person can lead to both negative and positive situations. This also causes stress in a person when analyzing information, reacting, accepting or rejecting necessary and unnecessary information. Directly to such social processes occurring in our society

Keywords. Adaptation, stress, analysis-synthesis, ideology, information, manipulation, stereotype.

Kirish. Kundalik hayotimizda axboratlar shunchalik ko‘pki bazan biz ularni qabul qilish va bular bo‘yicha ma’lum bir faoliyatni amalga oshirishda, yoinki ishonish ishonmaslikka nisbatan bir qancha ikkilanish va analiz-sintez qilishga nisbatan turli savollarni paydo qiladi. Albatta bu axboratlarning qaysi biri ishonchli ularning bizning jamiyatga yoshlarimizga bo‘lgan ta’sirini hammasini ham biz ijobiy deya olamizi.? Yo‘q albatta xulq-atvor buzilishlaridan tortib hayot yo‘lining yomon tarafga o‘zgarib ketish xolatlari ayni shu axborat qabul qilishga nisbatan immunitet tizimining yaxshi shakillanmaganligi bizni yuqorida qayd etgan noxush xolatlar bilan yuzlashtirmoqda.

Asosiy qism

O‘zbekiston sharoitida o‘spirinlarning axborotni qabul qilish jarayonida bir qator salbiy jihatlar ham kuzatiladi. Internet va ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanish natijasida yoshlar ko‘pincha ma'lumotning ishonchliligini yetarli darajada tekshirmasdan qabul qilishga moyil bo‘ladilar. Qisqa va tez tarqaladigan axborotlarga o‘rganib qolish chuqur tahlil qilish, tanqidiy

fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, tengdoshlar fikri va ijtimoiy tarmoqlardagi ommabop qarashlarning kuchli ta'siri tufayli ayrim o‘spirinlar o‘z nuqtai nazarini shakllantirishdan ko‘ra, boshqalarning fikriga ergashishga moyil bo‘lib qoladilar.

Bundan tashqari, yolg‘on xabarlar, manipulyativ ma'lumotlar va turli stereotiplarning tarqalishi yoshlarning dunyoqarashi hamda qadriyatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Axborotning haddan tashqari ko‘pligi esa diqqatning tarqoqlashishiga, kitob o‘qishga qiziqishning pasayishiga va uzoq muddatli diqqatni jamlash qobiliyatining zaiflashishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Ba'zi hollarda esa internetdagi zo‘ravonlik, salbiy kontent va real hayotdan uzoqlashish kabi omillar o‘spirinlarning ruhiy holati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Natijada, axborotni tanlash va baholash ko‘nikmalari yetarlicha rivojlanmagan sharoitda o‘spirinlar turli noto‘g‘ri qarashlar, zararli g‘oyalar va asossiz ma'lumotlar ta'siriga nisbatan ko‘proq himoyasiz bo‘lib qolishlari mumkin.

O‘zbekiston sharoitida o‘spirinlarning axborotni qabul qilishidagi salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun, avvalo, ularda media va axborot savodxonligini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Yoshlarni har qanday ma'lumotni tanqidiy tahlil qilishga, uning manbasini tekshirishga va turli nuqtai nazarlarni solishtirib ko‘rishga o‘rgatish zarur. Ota-onalar va pedagoglar o‘spirinlar bilan ochiq muloqot olib borib, internet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirishlari lozim. Shu bilan birga, kitob mutolaasi, ilmiy-ommabop manbalardan foydalanish va mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish yoshlarning intellektual rivojlanishiga yordam beradi.

Ta'lim muassasalarida media savodxonlik, axborot xavfsizligi va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni keng joriy etish ham muhim ahamiyatga ega. O‘spirinlarning bo‘sh vaqtini sport, ijodiy faoliyat va turli to‘garaklar bilan mazmunli tashkil etish ularning virtual muhitga haddan tashqari qaram bo‘lib qolishining oldini olishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ota-onalar va o‘qituvchilarning o‘zlari ham zamonaviy axborot muhiti xususiyatlarini yaxshi bilishlari va yoshlar bilan ishonchli munosabat o‘rnatishlari zarur. Ana shunday kompleks yondashuv orqali o‘spirinlarning turli zararli axborotlar ta'siriga berilish xavfini kamaytirish va ularda sog‘lom, mustaqil hamda mas'uliyatli dunyoqarashni shakllantirish mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot makonida o‘spirinlarning axborotni qabul qilish jarayoni ularning shaxsiy, intellektual va ma’naviy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi bir tomondan bilim olish imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan yolg‘on ma’lumotlar, manipulyativ g‘oyalar va salbiy kontentlarning tarqalishi yoshlar uchun muayyan xavflarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarining yetarlicha shakllanmaganligi o‘spirinlarning turli zararli ta’sirlarga beriluvchanligini kuchaytiradi.

Shu bois, yoshlarda media va axborot savodxonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni qo‘llab-quvvatlash hamda internetdan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Ota-onalar, pedagoglar va ta’lim muassasalari hamkorligida olib boriladigan tizimli ishlar o‘spirinlarning axborotga nisbatan ongli munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada, yoshlar turli axborotlarni tanqidiy baholay oladigan, zararli g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqil va mas’uliyatli shaxslar sifatida kamol topadilar. Bu esa jamiyatning barqaror rivojlanishi va kelajak avlodning ma’naviy-intellektual salohiyatini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ro‘ziyev Y.Z., Abdullayeva B.S. Mediasavodxonlik va axborot madaniyati: Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O‘zbekiston, 2024.- 260 bet.

2. Возрастная и педагогическая психология: учебное пособие для студентов высших учебных заведений / М. В. Гамезо, Е. А. Петрова, Л. М. Орлова; редактор М. В. Гамезо. Москва: Педагогическое общество России, 2003. — 512 с.
3. “Yosh davlar pedagogik psixologiyasi” D.B.Botirova, Toshkent 2021.-204 bet.
4. “Ontogenez psixologiyasi” o‘quv qo‘llanma. E.G’.G’oziyev Toshkent “NIF MSH” 2020-y. -288 bet.

AXBOROT XURUJINING BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA’SIRI

Iskandarov Erkinboy G‘ayrat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti.
Urazbayeva Oynura Adilbekovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xuruji tushunchasi, uning bolalar xulq-atvoriga psixologik, emotsional va ijtimoiy ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shular bilan bir qatorda axborot xurujining asosiy turlari, ta’sir mexanizmlari, diagnostika usullari hamda profilaktika yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqot davomida bolalarning raqamli muhitdagi zaif jihatlari, media savodxonlikning ahamiyati va O‘zbekiston sharoitida ushbu muammoning dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Axborot xuruji, bolalar xulq-atvori, psixologik ta’sir, media savodxonlik, profilaktika, raqamli texnologiyalar, emotsional salomatlik.

Аннотация: В данной статье научно-теоретически анализируются понятие информационной атаки и её психологическое, эмоциональное и социальное влияние на поведение детей. Освещаются основные виды информационных атак, механизмы воздействия, методы диагностики и профилактические подходы. Особое внимание уделяется уязвимости детей в цифровой среде, значению медиаграмотности и актуальности данной проблемы в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: Информационная атака, поведение детей, психологическое воздействие, медиаграмотность, профилактика, цифровые технологии, эмоциональное здоровье.

Abstract: This article scientifically and theoretically analyzes the concept of information attacks and their psychological, emotional, and social impact on children’s behavior. The study also discusses the main types of information attacks, mechanisms of influence, diagnostic methods, and preventive approaches. Special attention is paid to children’s vulnerability in the digital environment, the importance of media literacy, and the relevance of this issue in the context of Uzbekistan.

Keywords: Information attack, children’s behavior, psychological impact, media literacy, prevention, digital technologies, emotional health.

Kirish

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bolalar hayotining barcha sohalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.. Masalan , internet, smartfonlar, planshetlar va turli ijtimoiy tarmoqlar bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 12 yoshgacha bo‘lgan bolalarning katta qismi internetdan faol foydalanadi. Bu holat nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham kuzatilmoqda [4].

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ortishi bolalar orasida axborot xurujlari bilan bog‘liq xavflarning kuchayishiga olib kelmoqda. Axborot xuruji deganimizda turli media vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va internet platformalari orqali bolalarning ongiga, fikrlashiga hamda xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan zararli yoki manipulyativ axborot tushuniladi [6]. Axborot xurujlari bolalar va o‘smirlar uchun ayniqsa xavfli hisoblanadi, chunki ularning psixologik rivojlanishi hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi.

Tadqiqotlarda qayd etilishicha, axborot xurujlariga duch kelgan bolalarda tashvish, depressiv holatlar, ijtimoiy izolyatsiya va noto‘g‘ri dunyoqarash shakllanishi mumkin [5].

Ushbu maqolada axborot xuruji tushunchasi, uning tarixiy rivojlanishi, bolalar xulq-atvoriga ta’siri mexanizmlari, psixologik omillar, diagnostika usullari hamda profilaktik yondashuvlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Nazariy asoslar: Axborot xuruji tushunchasi klassik psixologiya va zamonaviy media tadqiqotlari asosida shakllangan. Ushbu tushuncha XX asr oxiri va XXI asr boshlarida internet va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida ilmiy muomalaga kirib kelgan. Dastlabki tadqiqotlar ommaviy axborot vositalarining bolalar rivojlanishiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik raqamli muhitning o‘ziga xos xususiyatlari ham tadqiq etila boshlandi [1].Zamonaviy tadqiqotchilar axborot xurujini tinglovchilarning fikrlashi, qaror qabul qilishi va xulq-atvoriga salbiy ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan manipulyativ axborot sifatida ta’riflaydilar [8].

Tarixiy jihatdan axborot xuruji quyidagi bosqichlarda rivojlangan:

1990-yillar — an’anaviy OAV orqali ta’sir;

2000-yillar — internet va veb-saytlar orqali axborot tarqatish;

2005–2010-yillar — ijtimoiy tarmoqlar rivoji;

2010–2020-yillar — smartfonlar va messenjerlarning ommalashuvi;

2020-yildan hozirgi davrgacha — algoritmik tavsiya tizimlari va maqsadli kontent tarqatish.

Axborot xuruji turlari: Bugungi tadqiqotlarda axborot xurujining bir nechta turlari ajratib ko‘rsatiladi:

Misinformation — noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot;

Disinformation — qasddan yaratilgan yolg‘on axborot;

Malinformation — haqiqiy ma’lumotni zararli maqsadda qo‘llash;

Propaganda — ma’lum g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi manipulyativ axborot;

Ijtimoiy muhandislik — psixologik manipulyatsiya orqali ta’sir ko‘rsatish;

Ekstremistik kontent — radikal qarashlarni targ‘ib qiluvchi axborot;

Zo‘ravonlik kontenti — qo‘rquv va xavotir uyg‘otuvchi materiallar [9].

Axborot xurujining bolalar xulq-atvoriga ta’siri: Psixologik ta’sir mexanizmlari: Axborot xuruji bolalar xulq-atvoriga bir qator psixologik mexanizmlar orqali ta’sir qiladi. Ulardan biri identifikatsiya mexanizmi bo‘lib, bunda bolalar media qahramonlari bilan o‘zini tenglashtiradi va ularning xulq-atvorini takrorlaydi [2].Shuningdek, takrorlash effekti orqali doimiy ravishda qayta-qayta berilgan axborot bolalar ongida “haqiqat” sifatida shakllanadi. Emotsional refleks mexanizmi esa muayyan axborotning qo‘rquv, g‘azab yoki hayajon kabi emotsiyalar bilan bog‘lanishiga sabab bo‘ladi.

Kognitiv ta’sir: Axborot xuruji bolalarning kognitiv rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan:tanqidiy fikrlashning sust rivojlanishi;diqqatning parchalanishi; uzoq muddatli xotira bilan bog‘liq muammolar;qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar kuzatiladi [7].

Emotsional ta’sir: Tadqiqotlarda aniqlashicha , salbiy axborot oqimiga duch kelgan bolalarda tashvish, qo‘rquv, depressiv holatlar va o‘zini past baholash kabi muammolar ko‘proq uchraydi [10]. Ayniqsa zo‘ravonlikka oid materiallar bolalarda psixologik zo‘riqish va stress darajasining oshishiga sabab bo‘ladi.

Ijtimoiy ta’sir: Axborot xuruji bolalarning ijtimoiylashuviga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Noto‘g‘ri ijtimoiy stereotiplar shakllanishi, tengdoshlardan uzoqlashish va ijtimoiy izolyatsiya kabi holatlar kuzatilishi mumkin [3].

Psixologik omillar: Ichki psixologik omillar. Bolalarning axborot xurujiga sezgirligi yosh, temperament va shaxsiy xususiyatlarga bog‘liq. Kichik yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlash yetarlicha shakllanmaganligi sababli ular axborotni haqiqat sifatida qabul qiladilar. O‘smirlar esa identifikatsiya jarayonida bo‘lganligi sababli manipulyativ g‘oyalarga ko‘proq moyil bo‘lishadi [1]. Yuqori emotsional sezgirlikka ega bolalar ham axborot xurujiga tezroq beriladilar.

Tashqi psixologik omillar: Oila muhiti, ota-onalarning media savodxonligi va maktabdagi psixologik iqlim bolalarning axborot xurujiga duch kelish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, ota-onalar nazorati sust bo‘lgan oilalarda bolalar raqamli xavflarga ko‘proq duch keladi [6].

Shuningdek, algoritmik tavsiya tizimlari bolalarni ma’lum turdagi kontent doirasida ushlab turib, “axborot pufagi” hosil qiladi. Axborot xuruji bilan bog‘liq muammolarni aniqlash uchun bir nechta diagnostik usullar qo‘llaniladi:skrining so‘rovnomalari; psixologik testlar;individual suhbatlar;kuzatuv metodlari. Skrining jarayoni xavf guruhidagi bolalarni aniqlash imkonini bersa, chuqur diagnostika individual holatni batafsil tahlil qilishga xizmat qiladi.

Individual profilaktika: Bolalarda axborot xurujining oldini olish uchun quyidagi yondashuvlar muhim hisoblanadi: media savodxonlikni rivojlantirish;tanqidiy fikrlash treninglari; emotsional intellekt dasturlari;raqamli xavfsizlik ko‘nikmalarini shakllantirish. Tadqiqotlar media savodxonlik dasturlari bolalarning manipulyativ axborotni aniqlash qobiliyatini oshirishini ko‘rsatadi [9].

Jamoaviy profilaktika: Maktab va oiladagi profilaktik ishlar ham muhim ahamiyatga ega: maktablarda media savodxonlik darslarini joriy etish;o‘qituvchilar uchun trening dasturlari;ota-onalar bilan seminarlar;tengdoshlar orqali o‘qitish dasturlari.

Makrodarajadagi yondashuvlar: Davlat miqyosida quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:axborot xavfsizligi bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish;yolg‘on axborotni aniqlovchi texnologiyalarni joriy etish;ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash;xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;psixologik xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, axborot xuruji zamonaviy bolalar va o‘smirlar uchun jiddiy psixologik muammo hisoblanadi. U bolalarning emotsional holati, kognitiv rivojlanishi va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli media savodxonlikni rivojlantirish, oilaviy va maktab nazoratini kuchaytirish hamda profilaktik dasturlarni keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.Kelajakdagi tadqiqotlarda O‘zbekiston sharoitida axborot xurujining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish, mahalliy diagnostik vositalarni ishlab chiqish va samarali profilaktika dasturlarini yaratish muhim ilmiy yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (1977). Social learning theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

2. Bronfenbrenner, U. (1979). The ecology of human development. Cambridge, MA: Harvard University Press.

3. Festl, R., & Quandt, T. (2013). Social relations and cyberbullying: The influence of exposure to online harassment on the development of aggressive behaviors in adolescents. Journal of Media Psychology, 25(3), 129–142.

4. Hinduja, S., & Patchin, J.W. (2018). Cyberbullying: An exploratory analysis of factors related to offending and victimization. Deviant Behavior, 29(2), 129–156.

5. Kovačević, I., & Yu, N. (2019). Media literacy and its impact on adolescents’ behavior. Children and Youth Services Review, 96, 456–465.

6 Livingstone, S., & Helsper, E.J. (2010). Digital media and risk for children. Media and Communication, 2(1), 56–72.

AXBOROT XURUJLARI SHAROITIDA TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Latipova Xajibibi Ibrohim qizi,
UrDU “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot xurujlari va raqamli ma‘umot oqimining jadallashgan sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning nazariy hamda amaliy asoslari ko‘rib chiqiladi. Maqolada tanqidiy fikrlashning psixologik tarkibiy qismlari, uning axborot savodxonligi bilan bog‘liq jihatlari va ta‘lim jarayonida ushbu ko‘nikmani shakllantiruvchi pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, axborot xurujlari, media savodxonligi, kognitiv psixologiya, dezinformatsiya, ta‘lim texnologiyalari.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of developing critical thinking in students in the context of intensified information attacks and digital information flows. The article analyzes the psychological components of critical thinking, its aspects related to information literacy, and pedagogical approaches that foster this skill in the educational process.
Keywords: critical thinking, information attacks, media literacy, cognitive psychology, disinformation, educational technologies.
Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития критического мышления у студентов в условиях усиления информационных атак и цифровых потоков информации. Анализируются психологические компоненты критического мышления, его связь с информационной грамотностью и педагогические подходы, формирующие этот навык в учебном процессе.
Ключевые слова: критическое мышление, информационные атаки, медиаграмотность, когнитивная психология, дезинформация, образовательные технологии.

Kirish

Zamonaviy raqamli jamiyatda axborot oqimlari misli ko‘rilmagan tezlikda ko‘payib, sifati esa ko‘p hollarda shubha ostida qolmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn ommaviy axborot vositalari va messenjerlar orqali tarqalayotgan dezinformatsiya, manipulyativ tarkiblar va propaganda materiallari jamiyat, xususan, talabalar uchun jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Bunday axborot muhitida tanqidiy fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish nafaqat intellektual sifat, balki zaruriy himoya vositasiga aylanib bormoqda [1].

Tanqidiy fikrlash - ma‘umotni tizimli tahlil qilish, dalillarni baholash va asosli xulosalar chiqarish qobiliyatidir. Ushbu ko‘nikma talabalarda akademik ta‘lim jarayonida shakllantirilib, ularni axborot manipulyatsiyasiga nisbatan immunitet bilan ta‘minlashi lozim. Ammo hozirgi kunda ta‘lim tizimi axborot xurujlariga qarshi fikrlovchi shaxsni shakllantirishda etarlicha samarali mexanizmlarga ega emasligi kuzatilmoqda [2].

Ushbu maqolada axborot xurujlari sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bilan bog‘liq nazariy yondashuvlar, psixologik mexanizmlar va pedagogik usullar ko‘rib chiqiladi.

Asosiy nazariy yondashuvlar tahlili

1. Tanqidiy fikrlashning psixologik asoslari. Tanqidiy fikrlashning nazariy poydevori Bloom taksonomiyasiga (1956) borib taqaladi. Bloom kognitiv faoliyatning olti darajasini - bilish, tushunish, qo‘llash, tahlil, sintez va baholash - ajratib ko‘rsatgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash eng yuqori kognitiv darajalar sifatida belgilanadi. Ushbu nazariya ta‘lim maqsadlarini belgilashda va o‘qitish metodikalarini loyihalashda hamon asosiy amaliy qo‘llanma bo‘lib kelmoqda [3].

Ennis (1987) tanqidiy fikrlashni “nima qilish va nimaga ishonish kerakligi to‘g‘risida asosli qaror qabul qilishga yo‘lnaltirilgan refleksiv fikrlash” sifatida ta‘riflaydi. Uning modeliga ko‘ra, tanqidiy fikrlovchi shaxs quyidagi asosiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim: dalillarni tekshirish, xulosalarning mantiqiyligini baholash, muqobil talqinlarni ko‘rib chiqish va xulosalar ishonchliligini aniqlash. Ushbu ko‘nikmalar to‘plami axborot xurujlari sharoitida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi [4].

Kognitivistik nuqtai nazardan, Kahneman (2011) “tez” va “sekin” fikrlash nazariyasi axborot qabul qilish jarayonini tushuntirishda keng qo‘llanilib kelinadi. Birinchi tizim (intuitiv, avtomatik) ko‘pincha manipulyativ axborotga tez va tanqidiy bo‘lmagan holda munosabat bildiradi. Ikkinchi tizim esa (analitik, sekin) ma‘umotni ongli ravishda qayta ishlaydi, ammo u ko‘proq kognitiv resurs talab etadi. Talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - aslida ikkinchi tizimni faollashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlash demakdir.

2. Axborot xurujlarining psixologik ta‘sir mexanizmlari. Axborot xurujlari deganda manipulyativ maqsadlarda yo‘naltirilgan, noto‘g‘ri yoki chalg‘ituvchi axborot oqimlari tushuniladi. Filtratsiya pufagi nazariyasi (Pariser, 2011) shuni ko‘rsatadiki, algoritmlarga asoslangan platformalar foydalanuvchilarga faqat o‘zlarining mavjud qarashlariga mos keladigan tarkiblarni ko‘rsatadi, bu esa kognitiv tasdiqlash xatoligini - kuchaytiradi[5]. Natijada talabalar bir tomonlama axborot muhitida qoladi va tanqidiy tahlil qilish qobiliyati zaiflashadi.

Propaganda texnikalarini o‘rganган Pratkanis va Aronson (1991) ijtimoiy ta‘sirchanlik, emosional murojaatlar va takrorlash texnikalarining insonning mantiqiy fikrlash qobiliyatini qanday pasaytirishini ko‘rsatib bergan. Axborot xurujlarining eng xavfli tomoni shundaki, ular odatda ishonchli ko‘rinadigan manbalar nomida tarqalib, talabalarda noto‘g‘ri ishonch shakllantirishga olib keladi.

Dunning-Kruger ta‘siri (1999) axborot savodxonligi kontekstida ham kuzatiladi: past darajadagi axborot savodxonligiga ega shaxslar o‘zlarining dezinformatsiyani aniqlash qobiliyatini yuqori baholaydi. Bu holat pedagogik aralashuv zarurligini yanada oshiradi, chunki talabalar o‘zlari himoyalangan deb o‘ylagan holda aslida manipulyatsiyaga ta‘sirlanuvchan bo‘lishi mumkin [6].

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik modellari. Ta‘lim psixologiyasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bir qator samarali modellar ishlab chiqilgan. Paul va Elder (2008) tomonidan yaratilgan tanqidiy fikrlash standarti modeli - aniqlik, to‘liqlik, mantiqiylik, kengligi, chuqurligi va adolatlilik - ta‘lim jarayonida axborotni baholash uchun amaliy mezonlar sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu model axborot savodxonligi darslari uchun tuzilmaviy asos bo‘lishi mumkin.

Konstruktivistik o‘qitish nazariyasi (Vigotskiy, 1978) tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Proksimal rivojlanish zonasi konsepsiyasiga asosan, talabalar muammoli vaziyatlarda o‘qituvchi yoki tengdoshlar yordami bilan mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishadi. Axborot xurujlariga oid real holatlarni muhokama qilish, fakt-tekshirish mashqlari va media tanqidi seminarlar ana shunday yordamni ta‘minlovchi pedagogik vositalar sifatida qo‘llanilishi mumkin [7].

Teskari sinf modeli tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda yangi imkoniyatlar ochadi. Bu yondashuvda talabalar nazariy materiallarni mustaqil o‘rganib, dars vaqtini tahlil, munozara va amaliy masalalarni hal etishga sarflaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu model talabalarda axborotni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmalarini an‘anaviy darsga qaraganda samaraliroq shakllantiradi.

Xulosa

Ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar shuni tasdiqlaydiki, axborot xurujlari sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish murakkab, ko‘p qirrali vazifadir. Psixologik nuqtai nazardan bu - kognitiv xatoliklarni anglash va ikkinchi fikrlash tizimini ongli ravishda faollashtirish ko‘nikmasini shakllantirish demak. Pedagogik jihatdan esa - muammoli o‘qitish, fakt-tekshirish amaliyotlari va media savodxonligi dasturlarini ta‘lim jarayoniga tizimli kiritish zarurligi anglatiladi [8].

O‘zbekiston oliy ta‘lim tizimida ushbu yo‘nalishda qator dolzarb muammolar mavjud. Raqamli savodxonlik ko‘rsatkichlari yetarli darajada emas, axborot xurujlariga oid maxsus fanlar dasturida kam joy egallaydi. Kelajakdagi tadqiqotlarda mahalliy sharoitda sinab ko‘rilgan va samaradorligi isbotlangan pedagogik modellar ishlab chiqish alohida ilmiy yo‘nalish sifatida ajralib turadi. Tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish - bu nafaqat akademik muvaffaqiyat omili, balki demokratik jamiyat shakllantirishning psixologik poydevoridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hobbs R. Mind Over Media: Propaganda Education for a Digital Age. – New York: W. W. Norton & Company, 2020. – 280 p.

2. Wardle C., Derakhshan H. Information Disorder: Toward an interdisciplinary framework for research and policy making. – Council of Europe, 2017. – 108 p.

3. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longmans Green, 1956. – 207 p.

4. Ennis R.H. A taxonomy of critical thinking dispositions and abilities. – In: J. Baron & R. Sternberg (Eds.), Teaching thinking skills: Theory and practice. – New York: Freeman, 1987. – P. 9–26.

5. Pariser E. The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You. – New York: Penguin Press, 2011. – 304 p.

6. Kruger J., Dunning D. Unskilled and Unaware of It: How Difficulties in Recognizing One's Own Incompetence Lead to Inflated Self-Assessments. – Journal of Personality and Social Psychology, 1999. – Vol. 77(6). – P. 1121–1134.

7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

8. Paul R., Elder L. The Miniature Guide to Critical Thinking Concepts and Tools. – Dillon Beach: Foundation for Critical Thinking Press, 2008. – 56 p.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mattiyev Umidbek Quvondiq o‘g‘li
Urganch RANCH texnologiya universiteti
“Pedagogika” ta’lim yo‘nalishi magistranti
***Tel:** +99899-252-71 **Gmail:** umidmattiyev77@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli ta’lim muhitida pedagog shaxsini shakllantirish, uning ma’naviy dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida multimedia vositalari, elektron platformalar, interaktiv metodlar va internet resurslaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari ochib berilgan. Tadqiqot davomida bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologik yondashuvlar hamda ularning samaradorligi haqida ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, axborot texnologiyalari, bo‘lajak o‘qituvchi, pedagogik kompetensiya, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, pedagogik jarayon, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы использования информационных технологий в процессе духовно-нравственного воспитания будущих учителей. Освещается роль инновационных технологий в формировании личности педагога, развитии его духовного мировоззрения, нравственных ценностей и профессиональных компетенций в современной цифровой образовательной среде. Также раскрываются педагогические возможности эффективного использования мультимедийных средств, электронных платформ, интерактивных методов и интернет-ресурсов в образовательном процессе. В ходе исследования разработаны научные выводы о технологических подходах, способствующих развитию духовно-нравственного воспитания будущих учителей, а также об их эффективности.

Ключевые слова: духовно-нравственное воспитание, информационные технологии, будущий учитель, педагогическая компетентность, цифровое образование, инновационные технологии, мультимедийные средства, интерактивные методы, педагогический процесс, эффективность образования.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of using information technologies in the process of spiritual and moral education of future teachers. It highlights the role of innovative technologies in shaping the personality of a teacher and developing their spiritual worldview, moral values, and professional competencies in the modern digital educational environment. The article also reveals the pedagogical opportunities for the effective use of multimedia tools, electronic platforms, interactive methods, and internet resources in the educational process. As a result of the study, scientific conclusions were developed regarding technological approaches that contribute to the improvement of spiritual and moral education of future teachers and their effectiveness.

Keywords: spiritual and moral education, information technologies, future teacher, pedagogical competence, digital education, innovative technologies, multimedia tools, interactive methods, pedagogical process, educational effectiveness.

KIRISH. Bugungi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha sohalarga keng kirib borishi ta’lim mazmuni, shakli va metodlarini tubdan yangilashni talab etmoqda. Zamonaviy jamiyatda pedagog nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdiruvchi yetuk shaxs sifatida ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchilarni har tomonlama barkamol, yuksak ma’naviyatli va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan mutaxassis qilib tayyorlash bugungi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish va yoshlarni ma’naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, shuningdek, raqamli ta’limni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida belgilangan. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyalar bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish pedagogik ta’limning asosiy maqsadlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya insonning ichki dunyosi, axloqiy qarashlari, milliy qadriyatlarga munosabati va jamiyatdagi ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi murakkab pedagogik jarayondir. Bu jarayon yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, halollik, mas’uliyat, bag‘rikenglik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchi esa kelajak avlod tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan shaxs bo‘lgani sababli uning ma’naviy qiyofasi va axloqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

3	**Addegativ xulq-atvor**	Internet va kiber-o‘yinlarga qaramlik (gadget dependency), real ijtimoiy aloqalardan uzoqlashish (izolyatsiya).
4	**Shaxsiy identifikasiya inqirozi**	Virtual dunyodagi "ideal hayot" illyuziyasi bilan real hayot o‘rtasidagi nomutanosiblik sababli o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qolishi.

Ushbu salbiy omillar natijasida o‘quvchilarning mustaqil gnoseologik (bilish) qobiliyati susayadi. Natijada raqamli makondan olingan har qanday ma’lumotni verifikasiya (tekshirish) qilmasdan, mutloq haqiqat sifatida qabul qilish tendensiyasi kuchayadi.

Media-savodxonlik — kognitiv xavfsizlikning pedagogik mexanizmi

Zamonaviy ta’lim paradigmasida media-savodxonlik (media literacy) shunchaki texnik ko‘nikma emas, balki shaxsning kognitiv xavfsizligini ta’minlovchi va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi fundamental kompetensiya hisoblanadi [8].

Pedagogik jarayonda o‘quvchilarda media-savodxonlikni rivojlantirish quyidagi vazifalarni qamrab oladi:

4. Aksiologik yondashuv: Axborotning manbasini tekshirish (fact-checking) va uning maqsadini (tijoriy, siyosiy, destruktiv) aniqlash metodikasini o‘rgatish.

5. Kritik (tanqidiy) fikrlashni rivojlantirish: Fakt va subyektiv fikr o‘rtasidagi farqni ajratish ko‘nikmasini shakllantirish.

6. Kiber-gigiyena madaniyati: Raqamli makonda shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlash va vaqtni boshqarish (time management) ko‘nikmalarini tarkib toptirish.

Pedagoglar har bir dars jarayonida, fan xususiyatidan kelib chiqqan holda, media-savodxonlik elementlarini integratsiya qilishlari, o‘quvchilarni tayyor axborotni iste’mol qilishdan uning mazmunini intellektual tahlil qilishga yo‘naltirishlari lozim.

Axborot xavfsizligini ta’minlashda maktab va oila hamkorligining konseptual asoslari

Raqamlashtirish sharoitida o‘quvchilarning axborot xavfsizligini ta’minlash faqatgina ta’lim muassasasining vazifasi bo‘lmay, "Maktab – Oila – Jamoatchilik" integratsiyasini talab etuvchi ko‘p komponentli pedagogik jarayondir [9]. Voyaga yetmagan yoshlarning psixikasi shakllanish bosqichida bo‘lganligi sababli, maktab va oilaning funksional vazifalari o‘zaro muvofiqlashtirilishi shart.



A. Pedagogik xodimlarning strategik vazifalari:

– o‘quvchilarning raqamli faoliyatini pedagogik-psixologik jihatdan monitoring qilib borish;

– ta’limiy va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo‘lgan milliy va xalqaro raqamli platformalarni (masalan, elektron kutubxonalar, ilmiy portallar) tavsiya etish;

– darsdan tashqari tadbirlarda axborot madaniyati va kiber-etika mavzularida seminar-treninglar tashkil etish.

B. Oilaviy muhit va ota-onalarning pedagogik mas’uliyati:

Oila — shaxs ma’naviyatining poydevori sifatida axborot xurujlariga qarshi birinchi himoya silsilasidir. Bu borada ota-onalar zimmasiga quyidagi vazifalar yuklanadi:

4. **Raqamli monitoring va kiber-gigiyena:** Farzandlarning raqamli qurilmalardan foydalanish vaqtini (screen time) me’yorlashtirish, ularning qiziqish doirasidagi sayt va ilovalarni "Ota-ona nazorati" (Parental control) dasturlari orqali kuzatib borish. Bunda ma’murchilik va qo‘pol taqiqlar emas, balki tushuntirish va o‘zaro ishonch tamoyili ustuvor bo‘lishi kerak.

5. **Oilada interaktiv va sog‘lom ma’naviy muhit:** Virtual dunyoga qaramlik ko‘pincha oiladagi emotsional yetishmovchilik (mehr yetishmasligi, muloqot qilinmasligi) oqibatida yuzaga keladi. Oilada samimiy muloqotning mavjudligi bolaning tashqi salbiy ta’sirlarga nisbatan psixologik barqarorligini oshiradi.

6. **Shaxsiy namuna (Modeling behavior) tamoyili:** Pedagogikada shaxsiy namuna eng kuchli tarbiya vositasidir. Ota-onalarning o‘zlarida raqamli madaniyat (gadjetlardan me’yorida foydalanish, kitobxonlik) shakllanmagan ekan, farzanddan buni talab qilish kutilgan pedagogik samorani bermaydi.

Xulosa va tavsiyalar

Ta’lim muhitini raqamlashtirish zamonaviy jamiyat taraqqiyotining obbyektiv va muqarrar jarayoni bo‘lib, u o‘quv-tarbiya jarayonini jadallashtirish, ta’lim sifatini oshirish hamda o‘quvchilarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishda beqiyos didaktik salohiyatga ega. Biroq, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli makon faqatgina ijobiy imkoniyatlar manbai emas, balki voyaga yetmagan yoshlarning kognitiv, ma’naviy va psixologik rivojlanishiga rahna soluvchi jiddiy g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlar maydoni hamdir.

O‘quvchilarning ijtimoiy va psixologik immuniteti to‘liq shakllanmaganligi sababli, ular feyk xabarlar, kiberbulling, manipulyativ reklama va destruktiv vizual trendlar kabi axborot xurujlarining birinchi darajali obyektiga aylanmoqdalar. Bu esa o‘quvchilarda diqqat pasayishi, agressivlik, klipcha fikrlash hamda internetga qaramlik kabi pedagogik-psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim sharoitida o‘quvchilarning axborot xavfsizligini ta’minlash - faqatgina texnik taqiqlar yoki cheklovlar bilan hal etiladigan masala emas. Ushbu muammoning fundamental yechimi o‘quvchilarda axborotni saralash va unga tanqidiy yondashish ko‘nikmasini, ya’ni media-savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish hamda maktab va oila o‘rtasidagi funksional hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bilan bevosita bog‘liqdir.

Ilmiy-pedagogik tavsiyalar

Tadqiqot doirasida aniqlangan muammolarni tizimli hal etish maqsadida quyidagi pedagogik tavsiyalar ilgari suriladi:

5. O‘quv dasturlariga media-savodxonlik elementlarini integratsiya qilish: Umumta’lim maktablarining ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar blokidagi mavzular tarkibiga axborot bilan ishlash, faktlarni tekshirish (fact-checking) va raqamli gigiyena qoidalarini o‘rgatuvchi amaliy topshiriqlarni kiritish.

6. Pedagoglarning kiber-pedagogik kompetensiyalarini oshirish: O‘qituvchilar uchun dars jarayonida o‘quvchilarni faqat axborot iste’molchisi emas, balki tahlilchisi sifatida tarbiyalash metodikasini o‘rgatuvchi malaka oshirish kurslari va seminarlarni tashkil etish.

7. "Raqamli ota-onalar akademiyasi" loyihasini joriy etish: Maktablarda ota-onalarning media-savodxonligini oshirish, ularga farzandlarining screen time (ekran vaqti) nazoratini ishonch asosida tashkil etish hamda "Ota-ona nazorati" dasturlaridan foydalanishni o‘rgatuvchi tizimli uchrashuvlar yo‘lga qo‘yish.

8. Milliy va xavfsiz raqamli kontentlar tarmog‘ini kengaytirish: Yoshlarning xorijiy va zararli platformalarga bo‘lgan qiziqishini kamaytirish maqsadida, ularning yosh xususiyatlariga mos, milliy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi interaktiv, ta’limiy va ko‘ngilochar raqamli loyihalarni (mobil ilovalar, milliy kiber-sport elementlari, ilmiy kanallar) ko‘paytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.

11. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 b.

12. Bekmuradov M., va boshqalar. Raqamli jamiyatda yoshlar intellektual salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari. // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2022. - №4. – B. 12-18.

13. Taylakov N.I. Uzluksiz ta’lim tizimida axborot xavfsizligini ta’minlashning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2019. – 62 b.

14. Mamatov A.A., Shodmonov X. Raqamli ta’lim muhitida media-savodxonlik va kognitiv xavfsizlik masalalari. // Pedagogika jurnali. – 2023. - №2. – B. 45-51.

RAQAMLI MUHITDA AXBOROT XURUJLARI VA UNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI

Salayeva Navbahar- *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dosent.,ps.f.n.*

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli axborot muhitida yoshlarning ongiga ta'sir qilishning psixologik mexanizmlarini o‘rganadi va ularni manipulyatsiyadan himoya qilishning samarali usullarini o‘rganadi. Tadqiqotda axborot-psixologik barqarorlik tushunchasi, uning shaxsning psixologik himoya tizimidagi o‘rni, yoshlarda tanqidiy fikrlash va mustaqil axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning psixo-pedagogik asoslari tahlil qilinadi

Kalit so‘zlar: yoshlar, raqamli manipulyatsiya, axborot-psixologik barqarorlik, mediasavodxonlik, axborot immuniteti, raqamli madaniyat, psixologik himoya, tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В статье рассматриваются психологические механизмы воздействия на сознание подростков в цифровой информационной среде и изучаются эффективные методы защиты от манипуляций. В статье анализируется понятие информационно-психологической устойчивости, её роль в системе психологической защиты личности, психолого-педагогические основы развития критического мышления и навыков самостоятельного анализа информации у молодёжи.

Ключевые слова: цифровое манипулирование, информационно-психологическая устойчивость, медиаграмотность, информационный иммунитет, цифровая культура, психологическая защита, критическое мышление.

Abstract: This article studies the psychological mechanisms of influence on the minds of adolescents in the digital information environment and studies effective methods of protecting them from manipulation. The study analyzes the concept of information-psychological stability, its role in the system of psychological protection of the individual, the psycho-pedagogical foundations of developing critical thinking and independent information analysis skills in young people.

Keywords: digital manipulation, information-psychological stability, media literacy, information immunity, digital culture, psychological protection, critical thinking.

Kirish

Yoshlarni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish, ularning axborot-psixologik barqarorligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimining eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Bu jarayon nafaqat texnik bilim yoki mediasavodxonlikni, balki ichki psixologik barqarorlikni mustahkamlashni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, axborotni mustaqil tahlil qilish va baholash qobiliyatini ham talab qiladi.

Internet, sun’iy intellektga asoslangan algoritmlar, ijtimoiy tarmoqlar, va axborotning katta oqimi nafaqat imkoniyatlar manbalariga, balki yoshlar uchun jiddiy xavfga ham aylandi. Xususan, raqamli manipulyatsiya vositalaridan tobora ko‘proq foydalanish ularning dunyoqarashi, qadriyatlari va xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qilmoqda.

Ushbu maqola yoshlarning raqamli manipulyatsiyaga chidamliligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va zamonaviy axborot makonida psixologik barqarorlikni ta'minlashning pedagogik va psixologik mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

Asosiy qism

Axborot-psixologik barqarorlik kontseptsiyasi - zararli raqamli ta'sirlarni tanqidiy baholash, qarshilik ko‘rsatish va qayta tiklash qobiliyati - raqamli savodxonlik va ruhiy salomatlik bo‘yicha ta'limning muhim tarkibiy qismi sifatida paydo bo‘ldi. Ushbu sharhda yoshlarda bunday chidamlilikni rivojlantirish bo‘yicha ham o‘zbek, ham xalqaro adabiyotlardan olingan asosiy fikrlar jamlangan.

Raqamli asrda yoshlarning kognitiv jarayonlariga putur etishi jumladan, idrokning buzilishi, xotirada saqlash va esga tushirish jarayonlaridagi o‘ziga xos o‘zgarishlar hamda xulq-atvorning o‘zgarishiga ta'sir qilishi va psixologik farovonlikka putur etkazishi mumkin bo‘lgan manipulyativ onlayn kontentga tobora ko‘proq duchor bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda olimlar va sotsiologlar yoshlarni onlayn tahdidlardan himoya qilishda raqamli savodxonlik va axloqiy tarbiya muhimligini ta’kidlaydilar. Karimova[1] va Yo‘ldoshev[2] fikricha, ta’lim va muloqotning jadal raqamlashtirilishi yoshlarning noto‘g‘ri ma’lumotlar, kiberbulling va mafkuraviy manipulyatsiyaga nisbatan psixologik zaifligini oshirmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” milliy strategiyasi va “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunda psixologik va axloqiy tayyorgarlikni media-ta’limga integratsiya qilish zarurligi ta’kidlangan. Toshpo‘latova[3] kabi o‘zbek tadqiqotchilari barqarorlikni mustahkamlashga oilaga rahbarlik, maktabda raqamli axloq bo‘yicha o‘quv dasturlari va ijtimoiy tarmoqlardagi xabardorlik kampaniyalarini uyg‘unlashtirib yondashish zarurligini ta’kidlaydilar.

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yoshlarning raqamli manipulyatsiyaga moyilligi ijtimoiy-emotsional etuklik va

cheklangan tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan chambarchas bog'liq bo‘lib, kognitiv-xulq-atvor aralashuvi va ota-onalar va o‘qituvchilarning hamkorligi zarurligini ta'kidlaydi.

Xalqaro miqyosda yoshlar o‘rtasida raqamli manipulyatsiya muammosi psixologiya, aloqa va ta'lim sohalarida keng o‘rganilgan. Livingstone va Helsper[4] mediasavodxonlik kontseptsiyasini himoya qiluvchi omil sifatida yaratdilar va chidamlilik nafaqat texnik bilimlardan, balki hissiy tartibga solish va axloqiy xabardorlikdan ham kelib chiqadi, deb hisoblaydi.

O‘.Brien[5] va boshqalarga ko‘ra algoritmga asoslangan tarkibni shaxsiylashtirishga ta'sir qilish yoshlar orasida kognitiv tarafkashlikni kuchaytirish ehtimolini oshiradi. Xuddi shunday, Marwick and Boyd[6] onlayn tengdoshlar bosimi va "kontekstning qulashi" psixologik tanglikni keltirib chiqarishi va yoshlarni ishonarli dizayn va noto‘g'ri ma'lumotlarga nisbatan zaifroq qilishini etirof etadi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti[7] chidamlilikni rivojlantirish profilaktik (ta'lim, xabardorlik) va tuzatuvchi (maslahat, raqamli detoks) choralarini o‘z ichiga olishini ta'kidlaydi. Evropada YuNESKOning Media va axborot savodxonligi asosi[8] texnologik kompetentsiya, psixologik o‘zini o‘zi boshqarish va axloqiy mas'uliyatni birlashtirgan fanlararo yondashuvni targ'ib qiladi.

Bir nechta nazariy asoslar yoshlarning raqamli manipulyatsiyaga qarshi chidamliligini qanday rivojlantirishini tushuntiradi:

- Kognitiv-xatti-harakatlar modeli kognitiv buzilishlarga qarshi turish uchun o‘z-o‘zini aks ettiruvchi fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan.

- Ekologik tizimlar nazariyasi yoshlarning raqamli xulq-atvorini shakllantirishda oila, tengdoshlar va ta'lim muassasalarining rolini ta'kidlaydi.

Raqamli chidamlilik asosi to‘rtta ustunni belgilaydi: xavfni tushunish, hissiy javoblarni boshqarish, yordam izlash va salbiy tajribalardan xalos bo‘lishdir.

O‘zbek tadqiqotlarida axloqiy va madaniy tarbiya mustahkamlik asosi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lsa, G‘arb adabiyoti kognitiv va hissiy tarbiyaga ko‘proq e’tibor beradi. Biroq, ikkalasi ham raqamli barqarorlikni ko‘p bosqichli yondashuv - rasmiy ta'lim, oilaviy muloqot va jamoaga asoslangan tashabbuslarni integratsiyalash orqali rivojlantirish kerakligiga rozi hisoblanadi.

E'tiborga molik farq metodologik yo‘nalishdadir: o‘zbek olimlari ko‘pincha sifat yoki siyosatga asoslangan yondashuvlarni qo‘llaydilar, global tadqiqotlar esa barqarorlik natijalarini o‘lchash uchun empirik ma'lumotlar va eksperimental ma’lumotlardanlardan tobora ko‘proq foydalanmoqda.

Ko‘rib chiqilgan adabiyotlar shuni ta'kidlaydiki, yoshlarning axborot-psixologik barqarorligini shakllantirish media savodxonligi, hissiy intellekt va axloqiy ongni uyg'unlashtirgan integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. O‘zbekiston uchun an’anaviy axloqiy ta’limni zamonaviy raqamli kompetensiyalar bilan uyg‘unlashtirish axborot asrida yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilish va ularning tanqidiy ongini mustahkamlash uchun samarali asos yaratishi mumkin.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda yoshlarning raqamli manipulyatsiyaga qarshi axborot-psixologik chidamliligini qanday rivojlantirishini o‘rganish uchun miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan aralash usullarni qo‘llandi. Tadqiqot Xorazm va Toshkent viloyatlaridagi bir nechta umumta’lim maktablarining 13–16 yoshli 300 nafar o‘quvchilari o‘rtasida o‘tkazildi. 20 nafar o‘qituvchi, 15 nafar maktab psixologi va 30 nafar ota-ona bilan qo‘shimcha suhbatlar o‘tkazilib, bu masala yuzasidan kengroq tushunchaga ega bo‘ldi. Ishtirokchilar tabaqalashtirilgan tasodifiy tanlab olish yo‘li bilan tanlab olindi .

Ma'lumotlar uchta asosiy vosita yordamida to‘plangan: yoshlar uchun raqamli chidamlilik shkalasi, raqamli manipulyatsiyaga ta'sir qilish so‘rovi va tanqidiy fikrlash va media savodxonligi testidan iborat. Yoshlarning tajribalarini va yengish strategiyalarini chuqurroq o‘rganish uchun yarim tizimli intervyular va fokus-guruh muhokamalari o‘tkazildi.

Manipulyatsiya ta'siri va chidamlilik omillari o‘rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun tavsiflovchi statistika, korrelyatsiya tahlili orqali SPSS dasturi yordamida miqdoriy ma'lumotlar

tahlil qilindi. Ogohlik, hissiy nazorat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bilan bog'liq takrorlanadigan holatlarni aniqlash uchun sifatli ma'lumotlar tematik tahlil orqali tekshirildi.

Barcha ishtirokchilar xabardor qilingan rozilik berishdi va maxfiylik ta'minlandi. Tadqiqot ikki mintaqa va o‘z-o‘zidan xabar qilingan ma'lumotlar bilan cheklangan bo‘lsa-da, raqamli savodxonlik, oilani qo‘llab-quvvatlash va psixologik ta'lim yoshlarning manipulyatsiya qiluvchi onlayn kontentga qarshiligini qanday kuchaytirishi haqida qimmatli fikrlarni taqdim etadi.

Muhokama va natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli savodxonlik va hissiy o‘zini o‘zi boshqarish darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar raqamli manipulyatsiyaga nisbatan kuchli qarshilik ko‘rsatadi. Natijalar oldingi tadqiqotlar bu raqamli barqarorlikni yaratishda tanqidiy fikrlash va ommaviy axborot vositalaridan xabardorlik rolini ta'kidlaydi. O‘zbekiston sharoitida oiladagi yo‘l-yo‘riq va axloqiy tarbiyaning ta’siri ayniqsa ahamiyatli ekanligi aniqlandi, bu onlayn xulq-atvorni shakllantirishda madaniy qadriyatlarning ahamiyatini aks ettiradi.

Sifatli ma'lumotlar shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab yoshlar manipulyativ tarkibdan xabardor, ammo hissiy reaktsiyalarni boshqarish yoki ma'lumotni tekshirish strategiyalari yo‘q. Bu shuni ko‘rsatadiki, hozirgi maktab dasturlari psixologik va axloqiy tayyorgarlikdan ko‘ra, asosan texnik ko‘nikmalarga qaratilgan. Shunday qilib, maktablar, oilalar va ommaviy axborot vositalari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish barqarorlik ta'limini oshirishi mumkin. Umuman olganda, munozara shuni ko‘rsatadiki, axborot-psixologik barqarorlik nafaqat kognitiv mahorat, balki uzluksiz ta'lim va qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy muhit orqali tarbiyalanishi kerak bo‘lgan ijtimoiy-emotsional qobiliyatdir.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni raqamli manipulyatsiyadan himoya qilish ularga texnik ko‘nikmalarni o‘rgatishdan ko‘ra ko‘proq narsani talab qiladi - bu raqamli savodxonlikning kognitiv, hissiy va axloqiy o‘lchovlarini birlashtiradigan axborot-psixologik barqarorlikni rivojlantirishni talab qiladi. Natijalar kuchli tanqidiy fikrlash, hissiy tartibga solish va oilani qo‘llab-quvvatlash qobiliyatiga ega bo‘lgan yoshlar manipulyatsiya qiluvchi onlayn kontentga qarshi turish qobiliyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonning jadal raqamli transformatsiyasi sharoitida bunday barqarorlikni rivojlantirish yoshlarning psixologik xavfsizligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Raqamli axloq, media savodxonligi va psixologik ta'limni maktab o‘quv dasturlariga integratsiya qilish o‘quvchilarga manipulyatsiyani tan olish, hissiy reaktsiyalarni nazorat qilish va onlayn makonlarda mas'uliyatli qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

Tadqiqot shuningdek, o‘qituvchilar, ota-onalar, psixologlar va siyosatchilar o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligini ta'kidlaydi. Birlashgan sa'y-harakatlar ta'lim ekotizimini yaratishi mumkin, unda yoshlar nafaqat raqamli texnologiyalardan samarali foydalanadi, balki ularning yashirin xavflaridan aqliy va axloqiy jihatdan himoyalanadi.

Xullas, axborot-psixologik barqarorlikni rivojlantirish shunchaki himoya chorasi emas, bu kelajakdagi murakkab axborot jamiyatida rivojlanishga qodir raqamli aqlli, axloqiy jihatdan asoslangan va hissiy jihatdan muvozanatli avlodni shakllantirishga qaratilgan strategik sarmoyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Karimova, N. (2022). Axborot-psixologik kasallik va yoshlarlar muammosi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

2. Yo‘ldoshev, R. (2021). Raqamli madaniyat va yoshlar onggiga ta’sir qiladi. Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, 4(3), 45–52.

3. Toshpo‘latova, M. (2023). Raqamli axborot makonida yoshlarning ijtimoiy-psixologik himoyasi. Qarshi: Qarshi davlat universiteti nashriyoti.

4. Livingstone, S. va Helsper, E. (2007). Internetda muloqot qilishda tavakkal qilish. Axborot, aloqa va jamiyat, 10(5), 619–643.

5. O‘Brien, N. va boshqalar. (2021). Raqamli ishontirish va yoshlarning zaifligi. Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar, 119, 106727.

6. Marvik, A. va Boyd, d. (2014). Bu murakkab: tarmoqqa ulangan yoshlarning ijtimoiy hayoti. Yel universiteti nashriyoti.
7. JSST (2022). Raqamli media va yoshlarning ruhiy salomatligi: global istiqbol. Jeneva: Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti.
8. YuNESKO (2019). Media va axborot savodxonligi: siyosat va strategiya bo‘yicha ko‘rsatmalar. Parij: YuNESKO.

MEDIA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLARNI ZARARLI AXBOROTLARDAN HIMOYA QILISH

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna *Psixologiya fanlari doktori,professor*

Annotatsiya. Mazkur maqolada media savodxonlikning yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishdagi ahamiyati, uning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilingan. Axborotlashgan jamiyat sharoitida internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan manipulyativ, destruktiv hamda ishonchsiz axborotlarning yoshlar ongi va xulq-atvoriga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, yoshlarda tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali media xavfsizlikni ta’minlashning samarali mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: media savodxonlik, axborot xavfsizligi, yoshlar, zararli axborot, axborot xurujlari, tanqidiy fikrlash, media ta’lim, ijtimoiy tarmoqlar, manipulyativ ta’sir, psixologik himoya.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль медиаграмотности в защите молодежи от негативного информационного воздействия в условиях стремительного развития цифровых технологий. Проанализированы психологические и педагогические аспекты формирования медиаграмотности, а также влияние деструктивной, манипулятивной и недостоверной информации, распространяемой через интернет и социальные сети, на сознание и поведение молодежи. Особое внимание уделено развитию критического мышления, навыков анализа и оценки информации как важнейших факторов обеспечения информационной безопасности личности.

Ключевые слова: медиаграмотность, информационная безопасность, молодежь, вредная информация, информационные угрозы, критическое мышление, медиаобразование, социальные сети, манипулятивное воздействие, психологическая защита.

Abstract. This article examines the role of media literacy in protecting young people from harmful information in the context of rapid digitalization and the widespread use of social media. The study analyzes the psychological and pedagogical foundations of media literacy development, as well as the impact of manipulative, destructive, and unreliable information disseminated through the Internet and social networking platforms on the consciousness and behavior of youth. Particular attention is paid to the formation of critical thinking skills, information analysis, and evaluation competencies as essential components of information security.

Keywords: media literacy, information security, youth, harmful information, information threats, critical thinking, media education, social media, manipulative influence, psychological protection.

Kirish

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida internet hamda ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, yoshlar axborot makonining eng faol ishtirokchilari sifatida turli media resurslardan keng foydalanmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar ta'lim olish, muloqot qilish, dunyoqarashni kengaytirish hamda shaxsiy rivojlanish uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, turli axborot tahdidlari va zararli kontentlarning tarqalishiga ham zamin yaratmoqda. Bugungi kunda yolg‘on axborotlar, manipulyativ materiallar, ekstremistik g‘oyalar, zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontentlar hamda

ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko‘rsatuvchi axborotlarning internet orqali keng tarqalishi yoshlar ongiga sezilarli ta'sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash va turli axborot manbalaridan oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Media savodxonlik shaxsning axborotni izlash, saralash, tahlil qilish, baholash va undan samarali foydalanish kompetensiyalarini o‘z ichiga oluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa hisoblanadi. Media savodxonlikning rivojlanishi yoshlarning axborot tahdidlariga qarshi immunitetini mustahkamlash, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda ularning axborot xavfsizligini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishda media savodxonlikning o‘rni, uning psixologik va pedagogik asoslarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolaning maqsadi media savodxonlikni rivojlantirish orqali yoshlarni zararli axborotlarning salbiy ta'siridan himoya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Media savodxonlik va yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish masalasi so‘nggi yillarda pedagogika, psixologiya, sotsiologiya hamda kommunikatsiya fanlarining dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida media makonining kengayishi yoshlarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli mazkur muammo ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o‘rganilgan. Media savodxonlik nazariyasining shakllanishiga D. Buckingham, R. Hobbs, L. Masterman kabi olimlar katta hissa qo‘shgan. Ularning tadqiqotlarida media savodxonlik shaxsning media matnlarni tahlil qilish, baholash va tanqidiy qabul qilish kompetensiyasi sifatida talqin etiladi. D. Buckingham media ta’limning asosiy vazifasi yoshlarda media mahsulotlarini tanqidiy idrok etish ko‘nikmalarini shakllantirish ekanligini ta’kidlaydi. R. Hobbs esa media savodxonlikni axborotni izlash, tahlil qilish, yaratish va baholash qobiliyatlari bilan bog‘liq kompleks kompetensiya sifatida tavsiflaydi. Yoshlar ongiga axborot vositalarining ta’siri masalalari A. Bandura, N. Postman, M. Castells va S. Livingstone tomonidan keng o‘rganilgan. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, inson xulq-atvori kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Shu sababli internet va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan salbiy namunalar yoshlarning qarashlari va xatti-harakatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin. S. Livingstone tadqiqotlarida esa bolalar va o‘smirlarning raqamli muhitdagi xavfsizligi hamda media savodxonlikning himoya omili sifatidagi ahamiyati asoslab berilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari orasida A.V. Fedorov, I.V. Chelysheva va Y.N. Usovlarning media ta’lim bo‘yicha ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ular media savodxonlikni yoshlarning axborot madaniyatini shakllantirish va axborot tahdidlariga qarshi kurashishning muhim vositasi sifatida baholaydilar. O‘zbekistonlik olimlardan V.M. Karimova, Z.T. Nishonova, D.U. Abdullayeva, O. Musurmonova va boshqa tadqiqotchilar yoshlarning ma’naviy-psixologik rivojlanishi, axborot madaniyati va media muhitning shaxs shakllanishiga ta’siri masalalarini o‘rganganlar. Ularning ilmiy ishlarida yoshlarni turli axborot xurujlaridan himoya qilish, ularda tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari yoritilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, media savodxonlik va axborot xavfsizligi masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, yoshlarni zamonaviy raqamli makondagi zararli axborotlardan himoya qilishda media savodxonlikning psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur maqola aynan ushbu masalaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot davomida media savodxonlikning yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishdagi ahamiyati nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy axborot makonida yoshlar internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va turli media platformalar orqali katta hajmdagi axborot oqimiga duch kelmoqda. Ushbu axborotlarning barchasi ham ishonchli va foydali bo‘lmay, ular orasida manipulyativ, yolg‘on, tajovuzkor hamda destruktiv mazmundagi materiallar ham uchraydi. Tadqiqot natijalari media savodxonlik darajasi yuqori bo‘lgan yoshlar

axborotlarni tanqidiy tahlil qilish, manbalarning ishonchliligini baholash va yolg‘on ma’lumotlarni aniqlashda ancha samarali faoliyat yuritishini ko‘rsatdi. Aksincha, media savodxonligi yetarli darajada rivojlanmagan yoshlar turli axborot xurujlari va manipulyativ ta’sirlarga ko‘proq moyillik bildiradilar. Tahlillar natijasida yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishda media savodxonlikning quyidagi asosiy funksiyalari aniqlandi: Axborotni tanqidiy baholash funksiyasi- Media savodxonlik yoshlarning axborot manbalarini tahlil qilish, fakt va fikrlarni farqlash hamda ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa zararli va yolg‘on axborotlarning ta’sirini kamaytiradi.

Psixologik himoya funksiyasi- Media savodxonlik yoshlarning manipulyativ texnologiyalar, axborot bosimi va turli mafkuraviy ta’sirlarga nisbatan psixologik barqarorligini oshiradi. Natijada shaxsning mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlanadi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash funksiyasi- Media savodxonlik internet tarmog‘ida shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, kiberxavfsizlik qoidalariga rioya etish va xavfli axborotlardan ehtiyot bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ijtimoiy moslashuv funksiyasi- Media savodxonlik yoshlarning raqamli muhitda samarali muloqot qilish, media etikaga rioya etish va ijtimoiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishiga yordam beradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yoshlar o‘rtasida media savodxonlikni rivojlantirishning eng samarali yo‘llari sifatida ta’lim jarayoniga media ta’lim elementlarini integratsiya qilish, axborot xavfsizligi bo‘yicha treninglar tashkil etish, ota-onalar va pedagoglarning media kompetentligini oshirish hamda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish belgilandi. Shuningdek, media savodxonlikning rivojlanishi yoshlarning axborot madaniyatini yuksaltirish, zararli axborotlarning salbiy ta’sirini kamaytirish va ularning ma’naviy-psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur natijalar media savodxonlikni yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilishning muhim pedagogik va psixologik vositasi sifatida baholash imkonini beradi.

Xulosa.

Raqamli texnologiyalar va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi yoshlarning axborot olish, muloqot qilish va dunyoqarashini shakllantirish jarayonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda turli zararli, manipulyativ va ishonchsiz axborotlarning keng tarqalishi yoshlarning ma’naviy-axloqiy rivojlanishi hamda psixologik barqarorligiga salbiy ta’sir etishi mumkin. Tadqiqot natijalari media savodxonlik yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishning samarali vositalaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Media savodxonlikning rivojlanishi yoshlarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, uning ishonchliligini baholash, turli axborot tahdidlarini aniqlash va ularga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, u yoshlarning axborot madaniyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda axborot xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi. Tahlillar asosida media savodxonlikni rivojlantirish bo‘yicha ta’lim muassasalarida maxsus dasturlar va treninglarni joriy etish, pedagoglar va ota-onalarning media kompetentligini oshirish, yoshlar orasida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish zarurligi aniqlandi. Bu esa yoshlarning axborot tahdidlariga nisbatan immunitetini kuchaytirish va ularni zamonaviy media makonida xavfsiz faoliyat yuritishga tayyorlashga yordam beradi. Shunday qilib, media savodxonlikni rivojlantirish yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilishning muhim pedagogik va psixologik omili bo‘lib, uning samarali tashkil etilishi sog‘lom, ma’naviy yetuk va axborot madaniyatiga ega avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tavsiyalar

Tadqiqot natijalari asosida internet va ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar orasida zararli odatlarning shakllanishiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’sirini kamaytirish hamda yoshlarni axborot makonidagi turli tahdidlardan himoya qilish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

11. Yoshlar orasida media savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv dasturlari va treninglarni ta’lim muassasalarida muntazam ravishda tashkil etish zarur.

12. O‘quvchi va talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish orqali ularning internet va ijtimoiy tarmoqlarda uchraydigan manipulyativ axborotlarni tahlil qilish hamda baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish lozim.

13. Ota-onalar farzandlarining internetdan foydalanish faoliyatini nazorat qilish bilan birga, ular bilan ochiq muloqot o‘rnatishlari, virtual makondagi xavf-xatarlar haqida muntazam tushuntirish ishlarini olib borishlari maqsadga muvofiq.

14. Ta’lim muassasalari psixologlari tomonidan yoshlar orasida internet qaramligi, zararli odatlarga moyillik va psixologik xavf omillarini aniqlashga qaratilgan diagnostik tadbirlarni muntazam o‘tkazish tavsiya etiladi.

15. Yoshlarni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishga jalb qilish, sport, madaniyat, ilm-fan va ijodiy faoliyatga qiziqtirish orqali ularning virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanib qolishining oldini olish zarur.

16. Ijtimoiy tarmoqlarda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qiluvchi, yoshlarning ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlovchi sifatli kontentlar ulushini oshirish hamda ijobiy namuna bo‘la oladigan blogerlar va kontent yaratuvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

17. Yoshlarni zararli odatlar, giyohvandlik, alkogolizm va internet qaramligining salbiy oqibatlari haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlar bilan ta’minlash hamda profilaktik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish lozim.

18. Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlarda internet hamda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan empirik tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish tavsiya etiladi.

19. Davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida yoshlarni axborot tahdidlaridan himoya qilish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan kompleks dasturlarni ishlab chiqish zarur.

20. Psixologlar, pedagoglar, ota-onalar va ommaviy axborot vositalari vakillari o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yoshlarning internetdan xavfsiz va maqsadli foydalanish madaniyatini shakllantirish mumkin.

Mazkur tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi yoshlar orasida zararli odatlarning oldini olish, ularning psixologik salomatligini mustahkamlash hamda axborot makonidagi salbiy ta’sirlarga nisbatan barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga doir farmon va qarorlari. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016.
3. Bandura A. *Social Learning Theory*. – New York: General Learning Press, 1977. – 247 p.
4. Buckingham D. *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. – Cambridge: Polity Press, 2003. – 219 p.
5. Hobbs R. *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. – California: Corwin Press, 2011. – 232 p.
6. Livingstone S. *Children and the Internet: Great Expectations, Challenging Realities*. – Cambridge: Polity Press, 2009. – 304 p.
7. Castells M. *The Rise of the Network Society*. – Oxford: Blackwell Publishing, 2010. – 597 p.
8. World Health Organization. *Adolescent Mental Health and Digital Media Use*. – Geneva: WHO, 2023. – 78 p.
9. Fedorov A.V. Медиаобразование и медиаграмотность. – М.: Информация для всех, 2015. – 340 с.
10. Челышева И.В. Медиаобразование молодежи в современном информационном пространстве. – Ростов-на-Дону: Изд-во ЮФУ, 2018. – 256 с.
11. Андреева Г.М. Социальная психология. – М.: Аспект Пресс, 2018. – 363 с.
12. Немов Р.С. Психология. Книга 1. – М.: Юрайт, 2020. – 726 с.

TALABALARNING O‘Z-O‘ZINI ANGLASH VA O‘QUV FAOLIYATIDA FAOLLIK KO‘RSATKICHLARINI SHAKILLANTIRISHNI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Abdullayev Feruzbek Maqsud o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti.
Pedogogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni va uning o‘quv faoliyatidagi faollikka ta’siri pedagogik hamda psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida talabalarning o‘z imkoniyatlarini anglash, o‘quv motivatsiyasi, mustaqil ta’limga bo‘lgan munosabati hamda akademik faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganildi. Natijalar talabalarda o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan hollarda o‘quv faoliyatining samaradorligi ham ortishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini anglash, o‘quv faolligi, motivatsiya, pedagogik mexanizmlar, psixologik omillar, talabalar, ta’lim samaradorligi.

Аннотация. В данной статье процесс самопознания студентов и его влияние на активность в учебной деятельности анализируются с педагогической и психологической точек зрения. В ходе исследования была изучена взаимосвязь между осознанием студентами своих возможностей, учебной мотивацией, отношением к самостоятельному обучению и академической активностью. Результаты показали, что высокий уровень самопознания у студентов способствует повышению эффективности их учебной деятельности.

Ключевые слова: самопознание, учебная активность, мотивация, педагогические механизмы, психологические факторы, студенты, эффективность образования.

Abstract. This article analyzes the process of students’ self-awareness and its impact on their learning activity from pedagogical and psychological perspectives. The study examined the relationship between students’ awareness of their own abilities, learning motivation, attitudes toward independent learning, and academic activity. The findings revealed that a higher level of self-awareness among students contributes to increased effectiveness of their learning activities.

Keywords: self-awareness, learning activity, motivation, pedagogical mechanisms, psychological factors, students, educational effectiveness.

KIRISH: Bugungi kunda oliy ta’lim tizimida talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishi, uning mustaqil fikrlashi va ta’lim jarayonidagi faolligini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.[3;4]Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda zamonaviy mehnat bozorining talablaridan kelib chiqib, oliy ta’lim muassasalari nafaqat bilim berish, balki talabalarda o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z faoliyatini boshqarish va hayotiy maqsadlarni aniq belgilash ko‘nikmalarini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratmoqda. [7;9]Shaxsning o‘z-o‘zini anglash jarayoni uning ichki dunyosini, qobiliyatlari va imkoniyatlarini, shuningdek, jamiyatdagi o‘rni hamda kelajakdagi maqsadlarini tushunishiga xizmat qiladi. [1;2] Psixologik tadqiqotlarda o‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati, o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishi va baholashi bilan bog‘liq murakkab psixik jarayon sifatida talqin etiladi. [1;5] Talabalik davri esa aynan o‘z-o‘zini anglashning faol shakllanadigan bosqichi bo‘lib, bu davrda shaxsning kasbiy va ijtimoiy identifikatsiyasi rivojlanadi.Pedagogik nuqtai nazardan, talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligi ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. [3] O‘quv faoliyatidagi faollik talabaning dars mashg‘ulotlarida ishtiroki, mustaqil ta’limga bo‘lgan munosabati, ijodiy fikrlashi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatida namoyon bo‘ladi. O‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar odatda o‘quv jarayonida faolroq bo‘lib, o‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yadi va ularga erishish uchun zarur harakatlarni amalga oshiradi.Shu bilan birga, talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligiga ta’sir etuvchi pedagogik va psixologik omillarni chuqur o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, o‘z-o‘zini anglash, o‘quv motivatsiyasi va akademik faollik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash ta’lim sifatini oshirish hamda talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi talabalarning o‘z-o‘zini anglash darajasi va ularning o‘quv

faoliyatidagi faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni pedagogik hamda psixologik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida talabalar faolligini oshirishga qaratilgan samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. [10]

ASOSIY QISIM: Talabalarning o‘z-o‘zini anglash darajasi ularning o‘quv faoliyatidagi faolligi va ta’lim natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. [7;8] O‘z-o‘zini anglash shaxsning o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari, ehtiyojlari va maqsadlarini anglash jarayoni bo‘lib, talabaning o‘quv faoliyatini ongli ravishda tashkil etishiga xizmat qiladi.[1;] O‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholay oladigan talaba ta’lim jarayonida faolroq ishtirok etadi, mustaqil bilim olishga intiladi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga harakat qiladi.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning aksariyati o‘z-o‘zini anglashni shaxsiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholaydi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 68 foizi o‘z maqsadlarini aniq belgilay olishini, 72 foizi esa mustaqil ta’lim olishga ijobiy munosabatda ekanligini bildirgan. Bu esa talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z faoliyatini rejalashtirish ko‘nikmalarining shakllanayotganligini ko‘rsatadi.Tahlillar davomida o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda o‘quv motivatsiyasi ham yuqori ekanligi aniqlandi. Bunday talabalar dars mashg‘ulotlarida faol qatnashadi, qo‘shimcha adabiyotlardan foydalanadi va mustaqil topshiriqlarni mas’uliyat bilan bajaradi. Aksincha, o‘z imkoniyatlariga nisbatan noaniqlik mavjud bo‘lgan talabalarda o‘quv faolligining pastligi kuzatildi. Bu holat psixologik jihatdan o‘ziga ishonchning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan izohlanadi.Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, talabalarning o‘quv faoliyatidagi faolligini oshirishda interfaol metodlar, muammoli ta’lim, loyiha ishlari va mustaqil ta’lim texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ushbu metodlar talabalarning fikrlash faolligini kuchaytiradi, ularda tashabbuskorlik va ijodkorlik sifatlarini rivojlantiradi. Natijada talabalar ta’lim jarayonining faol subyektiga aylanadi.Psixologik jihatdan esa o‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi refleksiya, o‘z-o‘zini baholash va o‘zini nazorat qilish kabi jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Refleksiya talabaning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga, xatolarini aniqlashiga va kelgusidagi faoliyatini takomillashtirishiga yordam beradi. O‘z-o‘zini baholashning adekvat shakllanishi esa shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytiradi.Shuningdek, tadqiqot natijalari talabalarning akademik faolligi va o‘z-o‘zini anglash darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. O‘z-o‘zini anglash ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan respondentlarning 80 foizida akademik faollik darajasi ham yuqori ekani aniqlandi. Bu esa o‘z-o‘zini anglashning ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim psixologik-pedagogik omil ekanligini tasdiqlaydi. Demak, talabalarning o‘z-o‘zini anglashini rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini boshqarish va mas’uliyat hissini shakllantirish orqali o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish mumkin. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida talabalarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik texnologiyalar va psixologik mexanizmlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. [8]

METODOLOGIYA: Mazkur tadqiqot talabalarning o‘z-o‘zini anglash darajasi va ularning o‘quv faoliyatidagi faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda pedagogika va psixologiya fanlarida qo‘llaniladigan nazariy hamda empirik metodlar majmuasidan foydalanildi.Tadqiqotning nazariy asosini shaxs rivojlanishi, o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya va o‘quv faoliyatiga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Mavzuga doir mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, monografiyalari, ilmiy maqolalari hamda pedagogik-psixologik adabiyotlari tahlil qilindi. [1;2:5] Adabiyotlar tahlili orqali o‘z-o‘zini anglashning mohiyati, tarkibiy qismlari va uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati aniqlandi.Empirik tadqiqot jarayonida so‘rovnoma, kuzatish va suhbat metodlaridan foydalanildi. So‘rovnoma talabalarning o‘z-o‘zini baholashi, o‘quv motivatsiyasi, mustaqil ta’limga munosabati va dars jarayonidagi faolligini aniqlash maqsadida tuzildi. Kuzatish metodi yordamida talabalarning auditoriya mashg‘ulotlari va mustaqil ta’lim jarayonidagi faollik darajasi o‘rganildi. Suhbat metodi orqali esa respondentlarning o‘z-o‘zini anglash va akademik faoliyatga oid fikr-mulohazalari tahlil qilindi.Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talabalar tanlandi. [9]Tadqiqotda turli kurslarda tahsil olayotgan 120 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlar tanlovi ixtiyoriylik tamoyili asosida amalga

oshirildi.Olingan ma’lumotlar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilindi. Statistik ishlov berishda foizli tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar jadval va diagrammalar ko‘rinishida ifodalanib, ularning pedagogik hamda psixologik mazmuni izohlandi.Tadqiqotning ishonchliligini ta’minlash maqsadida ma’lumotlar turli metodlar orqali qayta tekshirildi va olingan natijalar o‘zaro solishtirildi. Bu esa talabalarning o‘z-o‘zini anglash darajasi hamda o‘quv faoliyatidagi faolligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada aniqroq yoritish imkonini berdi.

XULOSA: Tadqiqot natijalari talabalarning o‘z-o‘zini anglash darajasi ularning o‘quv faoliyatidagi faolligi va ta’lim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. O‘z-o‘zini anglash talabaning o‘z imkoniyatlari va qobiliyatlarini to‘g‘ri baholashi, maqsadlarini aniq belgilashi hamda o‘quv faoliyatini samarali tashkil etishiga xizmat qiladi. [1]Tadqiqot davomida o‘z-o‘zini anglash darajasi yuqori bo‘lgan talabalar o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etishi, mustaqil ta’limga ko‘proq intilishi va akademik natijalari yuqoriroq bo‘lishi aniqlandi.Shuningdek, talabalarning o‘quv motivatsiyasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va refleksiv qobiliyatlari ularning akademik faolligini oshiruvchi muhim psixologik omillar ekanligi belgilandi.[6;9]Pedagogik jihatdan esa interfaol metodlar, muammoli ta’lim texnologiyalari hamda mustaqil ta’lim faoliyatining samarali tashkil etilishi talabalarda o‘z-o‘zini anglash va faollik ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning o‘z-o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishga qaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlarni yaratish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. [3;10]

AMALIY TAVSIYALAR:

1.Ta’lim jarayonida talabalarning o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan keng foydalanish.
2.O‘quv mashg‘ulotlarida interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash.
3.Talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini rag‘batlantirish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish.
4.Oliy ta’lim muassasalarida psixologik maslahat va trening mashg‘ulotlarini tashkil etish.
5.Talabalarda kasbiy maqsadlarni shakllantirish va kelajak rejalari bilan bog‘liq motivatsion dasturlarni amalga oshirish.
6.Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish orqali ularning tashabbuskorligi va ijodiy faolligini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 512 b.
2.Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 384 b.
3.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019. – 280 b.
4.Nishonova Z.T., Alimuhamedov S. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2022. – 356 b.
5.Davletshin M.G. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 296 b.
6.Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 2018. – 420 p.
7.Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: Freeman, 1997. – 604 p.

YOSH SPORTCHIDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHNI RIVOJLANTIRISH ORQALI MUVAFFAQIYATGA ERISHISH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING EMPIRIK TAHLILI

Abdullayev Faxriddin Kamoladdin o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
Magistratura bosqichi Psixologiya yo‘nalishi 241-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda yosh sportchilarda o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini shakllantirish masalasi empirik jihatdan tahlil qilinadi. Sport faoliyatida yuqori natijaga erishish nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki sportchining psixologik barqarorligi, maqsad qo‘yish, emotsiyalarni nazorat qilish, irodaviy

Таким образом, педагогическое мышление смещается с операционального уровня ("как провести урок?") на стратегический ("как создать среду для глубокого обучения?"). Этот сдвиг требует от педагога развития метакогнитивных навыков, способности к системному видению образовательного процесса и осознанного управления собственной профессиональной деятельностью [8].

3.3. Развитие критического и этического мышления

Широкое внедрение ИИ в образование ставит педагога перед необходимостью развивать критическое отношение к алгоритмическим рекомендациям и автоматизированным решениям. Исследования показывают, что чрезмерное доверие педагогов к "автоматическим" выводам ИИ-систем (так называемый automation bias) ведёт к снижению качества педагогических решений и обеднению профессионального суждения [9].

В связи с этим в научной литературе всё чаще обсуждается понятие AI literacy — грамотности в области ИИ, которая включает не только технические знания, но и критическое понимание алгоритмической логики, её ограничений и возможных искажений 10. Педагог, обладающий высоким уровнем AI literacy, способен использовать ИИ как инструмент, сохраняя при этом суверенитет профессионального суждения.

Не менее важным является этическое измерение педагогического мышления. Вопросы конфиденциальности данных учащихся, алгоритмических предубеждений (algorithmic bias), несправедливого распределения доступа к технологиям — всё это требует от современного педагога сформированной этической позиции и готовности к профессиональной рефлексии [11].

РИСКИ И ПРОТИВОРЕЧИЯ

Наряду с очевидными возможностями, ИИ несёт в себе ряд серьёзных рисков для развития педагогического мышления.

4.1. Алгоритмическая зависимость и депрофессионализация

Постепенная передача педагогических функций интеллектуальным системам порождает риск профессиональной деградации. Если педагог систематически перекладывает принятие решений на ИИ — в выборе методов, оценивании, проектировании урока — он теряет практику самостоятельного профессионального суждения. Исследователи описывают этот феномен как "deskilling" — утрату профессиональных навыков вследствие автоматизации [12].

4.2. Редукция педагогического отношения

Педагогика по своей природе — это не только технология передачи знаний, но и экзистенциальное отношение между людьми, основанное на доверии, признании и заботе.

Технологизация образовательного процесса рискует редуцировать это отношение до набора алгоритмических транзакций. Педагогическое мышление, лишённое гуманистического измерения, превращается в сугубо инструментальное [13].

4.3. Цифровое неравенство

Неравномерный доступ к ИИ-технологиям в разных регионах и странах порождает риск углубления образовательного неравенства. Педагоги, работающие в условиях ограниченного технологического оснащения, оказываются в профессиональной изоляции от глобальных тенденций, тогда как педагоги в привилегированных условиях получают дополнительные конкурентные преимущества [14].

НОВАЯ МОДЕЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В ЭПОХУ ИИ

Анализ существующих исследований позволяет сформулировать контуры новой модели педагогического мышления, адекватной требованиям эпохи ИИ. Данная модель включает несколько взаимосвязанных компонентов.

Во-первых, это технологическая рефлексивность — способность педагога осознанно анализировать, как именно ИИ-инструменты влияют на его профессиональную практику, выявлять их ограничения и принимать взвешенные решения об их использовании [15].

Во-вторых, педагогическое мышление нового типа предполагает развитую дидактическую креативность. Поскольку рутинные задачи делегируются ИИ, педагог концентрируется на проектировании уникального, ценностно-насыщенного образовательного опыта, который не может быть воспроизведён алгоритмом: диалогического, проектного, событийного обучения [16].

В-третьих, ключевой характеристикой становится этическая ответственность. Педагог выступает гарантом справедливого, гуманного и ценностно-ориентированного применения ИИ в образовательной среде, защищая интересы и достоинство каждого учащегося [17].

В-четвёртых, важнейшей составляющей является готовность к непрерывному профессиональному обучению (lifelong professional learning). Стремительное развитие ИИ требует от педагога постоянного обновления знаний, гибкости и открытости к изменениям [18].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Технологии искусственного интеллекта оказывают глубокое и многомерное влияние на педагогическое мышление. С одной стороны, они расширяют аналитические возможности учителя, освобождают время для творческой и воспитательной работы, стимулируют переход к доказательной педагогике. С другой стороны, они несут в себе риски алгоритмической зависимости, редукции гуманистического измерения педагогики и углубления образовательного неравенства.

Ключевым условием продуктивного взаимодействия педагога с ИИ является не технологическая компетентность сама по себе, а сформированное критическое, рефлексивное и этически ответственное профессиональное мышление. Именно педагогическое мышление высокого уровня делает учителя подлинным субъектом образовательного процесса, а не исполнителем алгоритмических предписаний.

Подготовка педагогов к профессиональной деятельности в условиях ИИ должна стать приоритетным направлением педагогического образования. Это предполагает формирование не только технологической грамотности, но и глубокой профессиональной рефлексии, этической культуры и устойчивой гуманистической позиции.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кузьмина Н.В. Способности, одарённость, талант учителя. — Л.: Знание, 1985. — 32 с.

2. Nye B.D., Graesser A.C., Hu X. AutoTutor and Family: A Review of 17 Years of Natural Language Tutoring // International Journal of Artificial Intelligence in Education. — 2014. — Vol. 24(4). — P. 427–469.

3. Kasneci E. et al. ChatGPT for Good? On Opportunities and Challenges of Large Language Models for Education // Learning and Individual Differences. — 2023. — Vol. 103. — P. 102274.
4. HolonIQ. Global EdTech Market to Reach $404B by 2025 Электронный ресурс. — URL: https://www.holoniq.com (дата обращения: 01.04.2025).
5. Luckin R. et al. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. — London: Pearson, 2016. — 58 p.
6. Brown C., Greany T. The Evidence-Informed School System in England: Where Should School Leaders Be Looking? // School Leadership and Management. — 2018. — Vol. 38(1). — P. 50–73.
7. Zawacki-Richter O. et al. Systematic Review of Research on Artificial Intelligence Applications in Higher Education // International Journal of Educational Technology in Higher Education. — 2019. — Vol. 16(1). — P. 39.
8. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.
9. Parasuraman R., Manzey D. Complacency and Bias in Human Use of Automation: An Attentional Integration // Human Factors. — 2010. — Vol. 52(3). — P. 381–410.

SHAXSNING O‘ZINI O‘ZI ANGLASH VA BOSHQARISH JARAYONIDA QADRIYATLAR TIZIMINING PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Avezova Baxtigul Xolmurotovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsning o‘zini o‘zi anglash va boshqarish jarayonida qadriyatlar tizimining psixologik ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida qadriyatlarning shaxsning ichki motivatsiyasi, hayotiy maqsadlari, o‘z xulq-atvorini nazorat qilishi va ijtimoiy moslashuviga ta’siri o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, shaxsning qadriyatlar tizimi uning o‘zini o‘zi boshqarish samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omil hisoblanadi. Qadriyatlarga asoslangan xulq-atvor shaxsning o‘z imkoniyatlarini anglashiga, mas’uliyat hissining shakllanishiga hamda hayotiy faoliyatini ongli tashkil etishiga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar tizimi, o‘zini-o‘zi anglash, o‘zini-o‘zi boshqarish, motivatsiya, shaxs rivojlanishi, psixologik omillar, refleksiya.

Аннотация:В данной статье анализируется психологическое значение системы ценностей в процессах самопознания и саморегуляции личности. В ходе исследования было изучено влияние ценностей на внутреннюю мотивацию человека, его жизненные цели, способность контролировать собственное поведение и социальную адаптацию. Полученные результаты показали, что система ценностей личности является важным психологическим фактором, определяющим эффективность саморегуляции. Поведение, основанное на ценностях, способствует осознанию человеком своих возможностей, формированию чувства ответственности и сознательной организации жизнедеятельности.

Ключевые слова: система ценностей, самопознание, саморегуляция, мотивация, развитие личности, психологические факторы, рефлексия.

Abstract: This article analyzes the psychological significance of the value system in the processes of self-awareness and self-regulation. The study examines the influence of values on an individual's intrinsic motivation, life goals, behavioral self-control, and social adaptation. The findings indicate that a person's value system is a key psychological factor determining the effectiveness of self-regulation. Value-based behavior contributes to an individual's awareness of personal potential, the development of a sense of responsibility, and the conscious organization of life activities.

Keywords: value system, self-awareness, self-regulation, motivation, personality development, psychological factors, reflection.

Kirish:Globallashuv va axborotlashuv sharoitida insonning shaxsiy rivojlanishi, o‘zini o‘zi

anglash va boshqarish qobiliyatlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy psixologiyada shaxsning muvaffaqiyatli faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va kasbiy o‘sishi ko‘p jihatdan uning o‘zini o‘zi boshqarish darajasiga bog‘liq ekanligi ta’kidlanadi.

O‘zini o‘zi boshqarish shaxsning maqsadlarni belgilashi, qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini nazorat qilishi va natijalarni baholashi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Ushbu jarayonning samaradorligi esa insonning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog‘liqdir. Qadriyatlar shaxsning hayotiy yo‘nalishlarini belgilovchi, xulq-atvorini boshqaruvchi va muhim qarorlar qabul qilishda yo‘l-yo‘riq beruvchi ichki mezonlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik tadqiqotlarda qadriyatlar shaxsning motivatsion sohasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning o‘zini o‘zi anglash, refleksiya qilish va o‘z xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyatlarini rivojlantirishi qayd etilgan. Shu sababli qadriyatlar tizimining o‘zini o‘zi anglash va boshqarishdagi rolini o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari:Tadqiqotda nazariy va empirik metodlardan foydalanildi. Xususan:

- psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;
- ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish;
- kuzatish metodi;
- suhbat metodi;
- qadriyatlar orientatsiyasini aniqlashga qaratilgan diagnostik yondashuvlar;
- olingan natijalarni statistik va mantiqiy tahlil qilish usullari.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs psixologiyasi, faoliyat nazariyasi, qadriyatlar psixologiyasi hamda o‘zini o‘zi boshqarish konsepsiyalari tashkil etdi.

Natijalar:Tadqiqot natijalari qadriyatlar tizimi shaxsning o‘zini o‘zi anglash va boshqarish jarayonida muhim determinantlardan biri ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, qadriyatlar insonning hayotiy maqsadlarini shakllantiradi va ularni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan motivatsion asosni yaratadi. O‘z qadriyatlarini aniq anglagan shaxs maqsadlarini izchil belgilaydi va ularga erishish uchun faol harakat qiladi.

Ikkinchidan, qadriyatlar o‘zini o‘zi nazorat qilish va xulq-atvorni boshqarish mexanizmlarining samaradorligini oshiradi. Ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarga ega bo‘lgan shaxslar murakkab vaziyatlarda ham ongli qaror qabul qilishga moyillik ko‘rsatadilar.

Uchinchidan, qadriyatlar refleksiv jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Refleksiya orqali shaxs o‘zining ichki imkoniyatlari, ehtiyojlari va faoliyat natijalarini tahlil qiladi hamda kelgusi rivojlanish strategiyasini belgilaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qadriyatlar tizimi shakllangan respondentlarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari yuqoriroq bo‘lib, ularda mas’uliyat, intizom, mustaqillik va maqsadga intilish sifatlari ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Muhokama:Olingan natijalar zamonaviy psixologik konsepsiyalar bilan mos keladi. Xususan, qadriyatlar shaxs faoliyatining ichki regulyatori sifatida uning xatti-harakatlarini muvofiqlashtiradi. O‘z qadriyatlarini anglagan shaxs tashqi bosimlarga kamroq beriladi va qaror qabul qilishda ichki mezonlarga tayanadi.

Shuningdek, qadriyatlar tizimi shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida ham muhim rol o‘ynaydi. Oila, ta’lim muassasalari va jamiyat tomonidan shakllantiriladigan qadriyatlar insonning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi va hayotiy strategiyalarini belgilaydi.

Bugungi kunda yoshlar orasida o‘zini o‘zi boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda qadriyatlar tizimini mustahkamlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Buning uchun ta’lim jarayonida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni kuchaytirish, refleksiv mashg‘ulotlarni tashkil etish hamda qadriyatlar asosida shaxsiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa:Qadriyatlar tizimi shaxsning o‘zini o‘zi anglash va boshqarish jarayonida muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. U shaxsning motivatsion yo‘nalishini belgilaydi, maqsadlarni shakllantiradi, xulq-atvorni tartibga soladi hamda refleksiv jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari qadriyatlar tizimi rivojlangan shaxslarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lishini tasdiqladi. Shu bois yoshlarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-

quvvatlashda qadriyatlar tizimini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan psixologik-pedagogik dasturlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Смысл, 2005.
2. Рокич М. Природа человеческих ценностей. – Москва: Академия, 2002.
3. Асмолов А.Г. Психология личности. – Москва: Смысл, 2010.
4. Карпов А.В. Психология рефлексии. – Москва: Институт психологии РАН, 2013.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2015.
6. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
7. Frankl V. Man's Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006.
8. Schwartz S.H. Basic Human Values: Theory and Applications. – Jerusalem, 2012.
9. Ryan R.M., Deci E.L. Self-Determination Theory. – New York: Guilford Press, 2017.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ РОБОТОТЕХНИКИ В РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Ахмедова Гулрух Рустам кизи

студентка 2 курса факультета Дошкольного и школьного образования НГПИ имени Ажинияза

Аннотация. В статье рассматриваются возможности использования образовательной робототехники в развитии логического мышления детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: образовательная робототехника, логическое мышление, дошкольники, познавательное развитие, STEM-образование, интеллектуальное развитие, инновационные технологии, алгоритмическое мышление, дошкольное образование.

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda ta'limiy robototexnikadan foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ta'limiy robototexnika, mantiqiy tafakkur, maktabgacha yoshdagi bolalar, bilish rivoji, STEM-ta'lim, intellektual rivojlanish, innovatsion texnologiyalar, algoritmik fikrlash, maktabgacha ta'lim.

Abstract. The article examines the possibilities of using educational robotics in the development of logical thinking in preschool children.

Keywords: educational robotics, logical thinking, preschool children, cognitive development, STEM education, intellectual development, innovative technologies, algorithmic thinking, preschool education.

Логическое мышление является важнейшей составляющей интеллектуального развития ребёнка дошкольного возраста. Способность анализировать объекты и явления, устанавливать причинно-следственные связи, сравнивать, классифицировать и находить решения различных задач формирует основу успешного обучения в дальнейшем. В современных условиях особую актуальность приобретает поиск инновационных средств, способствующих развитию мыслительной деятельности детей. Одним из таких средств выступает образовательная робототехника, которая постепенно становится важным компонентом современной образовательной среды.

В последние годы образовательная робототехника получила широкое распространение в системе дошкольного и школьного образования. Её применение позволяет объединить игровую, познавательную и исследовательскую деятельность детей, создавая благоприятные условия для интеллектуального развития личности. Робототехника способствует формированию у детей интереса к техническому творчеству, развивает способность к анализу, планированию и решению различных задач. [1.: 18]

Современные исследователи рассматривают образовательную робототехнику как эффективный инструмент реализации STEM-подхода в образовании. Данный подход предполагает интеграцию знаний из различных областей науки, техники, инженерии и математики. В процессе конструирования и программирования простейших моделей дети

получают возможность применять знания на практике и развивать навыки логического мышления.

По мнению Л.С. Выготского, развитие мышления ребёнка происходит наиболее эффективно в процессе активной деятельности и взаимодействия с окружающей средой. [2.: 61] Робототехника предоставляет широкие возможности для организации именно такой деятельности, поскольку дети становятся активными участниками образовательного процесса, самостоятельно исследуют объекты и находят способы решения поставленных задач.

Логическое мышление включает умение анализировать информацию, выявлять закономерности, устанавливать взаимосвязи между предметами и явлениями, делать выводы и обобщения. Формирование данных умений начинается уже в дошкольном возрасте и требует использования разнообразных педагогических средств. Образовательная робототехника позволяет эффективно решать эту задачу благодаря сочетанию практической деятельности, наглядности и игровых технологий.

В процессе работы с робототехническими конструкторами дети учатся последовательно выполнять действия, планировать этапы работы и прогнозировать результаты своей деятельности. Создание моделей требует анализа поставленной задачи, выбора необходимых деталей и поиска наиболее рационального способа её решения. Подобная деятельность способствует развитию алгоритмического и логического мышления дошкольников.

Особую роль играет программирование простейших действий робота. Даже элементарные задания, связанные с движением модели по заданному маршруту или выполнением определённых команд, требуют от ребёнка логических рассуждений и понимания последовательности действий. Благодаря этому дети осваивают основы алгоритмического мышления в доступной для них игровой форме. [3.: 42]

Исследования показывают, что использование образовательной робототехники положительно влияет на развитие познавательной активности детей. Дошкольники проявляют высокий интерес к занятиям, активно участвуют в обсуждении поставленных задач и стремятся самостоятельно находить способы их решения. Это способствует формированию исследовательского поведения и развитию самостоятельности.

Важным педагогическим условием эффективного использования робототехники является создание развивающей предметно-пространственной среды. Наличие современных образовательных конструкторов, интерактивных материалов и специально организованных игровых зон позволяет обеспечить активное включение детей в познавательную деятельность. При этом образовательный процесс должен строиться с учётом возрастных особенностей дошкольников и принципов доступности обучения.

Существенное значение имеет роль педагога в организации робототехнической деятельности. Воспитатель выступает не только организатором занятий, но и наставником, который направляет познавательную активность детей, помогает им анализировать возникающие проблемы и находить пути их решения. Грамотное педагогическое сопровождение способствует более эффективному развитию логического мышления воспитанников.

По мнению А.В. Запорожца, интеллектуальное развитие ребёнка тесно связано с его практической деятельностью и эмоциональной вовлечённостью в процесс познания. [4.: 73] Робототехника отвечает данным требованиям, поскольку сочетает элементы игры, творчества и исследования, что делает образовательный процесс интересным и мотивирующим для дошкольников.

Использование робототехнических технологий способствует развитию не только логического мышления, но и коммуникативных навыков детей. Во время коллективной работы над проектами дошкольники учатся взаимодействовать друг с другом, обсуждать различные варианты решений, распределять обязанности и совместно достигать поставленных целей. Это положительно влияет на социальное развитие личности ребёнка.

Практика показывает, что дети, систематически занимающиеся образовательной робототехникой, демонстрируют более высокий уровень познавательной активности, лучше справляются с заданиями на анализ и классификацию объектов, быстрее устанавливают причинно-следственные связи и проявляют большую самостоятельность в решении проблемных ситуаций.

Таким образом, образовательная робототехника обладает значительным потенциалом в развитии логического мышления дошкольников. Её использование способствует формированию аналитических способностей, алгоритмического мышления, познавательной активности и навыков решения проблемных задач. Интеграция робототехнических технологий в образовательный процесс дошкольных организаций позволяет создать благоприятные условия для интеллектуального развития детей и подготовки их к успешному обучению в школе.

Список использованной литературы

1. Комарова Т.С. Инновационные технологии в дошкольном образовании. М.: Мозаика-Синтез, 2018.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. М.: Лабиринт, 1999.
3. Волосовец Т.В., Маркова В.А. STEM-образование детей дошкольного возраста. М.: Русское слово, 2020.
4. Запорожец А.В. Избранные психологические труды. М.: Педагогика, 1986.

ФОРМИРОВАНИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ КАК УСЛОВИЕ ПОВЫШЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

Бегжанова Мейрамгуль Джумабаевна

заведующая кабинетом кафедры Казахского языка и литературы факультета Узбекской филологии КГУ имени Бердаха

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты формирования исследовательских навыков учащихся на уроках литературы.

Ключевые слова: исследовательские навыки, литературное образование, учащиеся, качество образования, исследовательская деятельность, критическое мышление, компетентностный подход, урок литературы, познавательная активность.

Annotatsiya. Maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: tadqiqotchilik ko‘nikmalari, adabiy ta’lim, o‘quvchilar, ta’lim sifati, tadqiqotchilik faoliyati, tanqidiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, adabiyot darsi, bilish faolligi.

Abstract. The article discusses theoretical and practical aspects of developing students' research skills in literature classes.

Keywords: research skills, literary education, students, quality of education, research activity, critical thinking, competence-based approach, literature lesson, cognitive activity.

Исследовательская деятельность учащихся выступает важным фактором повышения качества образования и развития познавательной самостоятельности личности. В процессе исследовательской работы школьники приобретают опыт анализа, сравнения, обобщения и интерпретации информации, что способствует формированию ключевых компетенций, необходимых для успешной учебной и социальной деятельности. В условиях стремительного развития науки и технологий особое значение приобретает формирование исследовательских навыков учащихся, которые становятся важным компонентом образовательного процесса. Одним из наиболее благоприятных предметов для развития исследовательской деятельности школьников является литература, обладающая значительным познавательным, воспитательным и развивающим потенциалом.

Вопросы формирования исследовательских навыков обучающихся занимают важное место в современной педагогической науке. Исследовательская деятельность

способствует развитию интеллектуальных способностей, формированию самостоятельности, творческого мышления и умения анализировать различные источники информации. Согласно мнению И.А. Зимней, компетентностный подход предполагает развитие у обучающихся способности самостоятельно решать учебные и жизненные задачи на основе приобретённых знаний и опыта. [1.: 10]

Исследовательские навыки представляют собой совокупность умений, необходимых для постановки проблемы, поиска информации, анализа фактов, выдвижения гипотез, формулирования выводов и представления результатов исследования. Формирование данных навыков способствует развитию познавательной активности учащихся и повышает эффективность образовательного процесса.

Особую роль в развитии исследовательских способностей школьников играют уроки литературы. Изучение художественных произведений требует от учащихся умения анализировать тексты, выявлять авторскую позицию, сопоставлять различные точки зрения, проводить сравнительный анализ литературных образов и самостоятельно интерпретировать художественное содержание. Подобная деятельность по своей сути имеет исследовательский характер и способствует формированию навыков научного мышления.

По мнению Л.С. Выготского, процесс обучения должен стимулировать развитие познавательной активности обучающихся и создавать условия для их интеллектуального роста. [2.: 56] Исследовательская работа позволяет учащимся переходить от пассивного усвоения знаний к активному познанию, что существенно повышает качество обучения и способствует развитию творческого потенциала личности.

В современной школе исследовательская деятельность на уроках литературы может реализовываться в различных формах. Одной из наиболее распространённых является анализ художественного текста с элементами самостоятельного поиска информации. Учащиеся изучают биографию писателя, исторический контекст произведения, особенности художественного стиля автора и на основе полученных данных формируют собственные выводы.

Эффективным средством формирования исследовательских навыков является организация проектной деятельности. Работа над литературными проектами позволяет школьникам самостоятельно выбирать тему исследования, определять цели и задачи, осуществлять поиск и обработку информации, а также представлять результаты своей работы. Такая деятельность способствует развитию ответственности, самостоятельности и коммуникативной культуры учащихся.

Важное значение имеет использование проблемного обучения. Создание проблемных ситуаций на уроках литературы побуждает обучающихся к поиску ответов на сложные вопросы, анализу различных точек зрения и выработке собственной позиции. В результате учащиеся приобретают опыт исследовательской деятельности и учатся аргументированно отстаивать свои суждения. [3.: 78]

Существенную роль играет работа с различными источниками информации. Современный ученик должен уметь пользоваться не только учебной литературой, но и научными публикациями, электронными ресурсами, архивными материалами и справочными изданиями. Формирование навыков отбора, анализа и критической оценки информации является важной составляющей исследовательской компетентности.

Одним из эффективных методов развития исследовательских навыков является сравнительный анализ литературных произведений. Сопоставление произведений различных авторов, литературных направлений и исторических эпох позволяет учащимся глубже понимать художественные тексты и развивать аналитическое мышление. Подобная работа способствует формированию навыков обобщения, классификации и аргументации.

Современные цифровые технологии значительно расширяют возможности организации исследовательской деятельности школьников. Использование электронных

библиотек, образовательных платформ, мультимедийных ресурсов и интерактивных технологий способствует повышению интереса учащихся к изучению литературы и позволяет эффективно организовывать самостоятельную исследовательскую работу.

В.В. Давыдов отмечал, что развитие теоретического мышления учащихся возможно только при их активном включении в познавательную деятельность. [4.: 95] Именно исследовательский подход обеспечивает условия для формирования у школьников способности самостоятельно добывать знания и использовать их в новых ситуациях.

Практика показывает, что учащиеся, регулярно участвующие в исследовательской деятельности, демонстрируют более высокий уровень учебной мотивации, лучше владеют навыками анализа и интерпретации текстов, обладают развитым критическим мышлением и способны эффективно решать учебные задачи. Кроме того, исследовательская работа способствует развитию коммуникативных навыков, культуры речи и творческой самостоятельности.

Особое значение имеет участие школьников в научно-практических конференциях, конкурсах исследовательских работ, литературных проектах и творческих конкурсах. Подобные формы деятельности создают условия для самореализации учащихся и позволяют применять полученные знания на практике.

Таким образом, формирование исследовательских навыков учащихся на уроках литературы является важным условием повышения качества образования. Исследовательская деятельность способствует развитию познавательной активности, критического мышления, самостоятельности и творческого потенциала школьников. Использование современных педагогических технологий, проектных методов, проблемного обучения и цифровых ресурсов обеспечивает эффективное развитие исследовательских компетенций обучающихся. В результате создаются условия для подготовки личности, способной к самостоятельному познанию, успешной социальной адаптации и дальнейшему профессиональному развитию.

Список использованной литературы

1. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат современного образования // Эксперимент и инновации в школе. 2009. №2. С. 7–15.
2. Выготский Л.С. Педагогическая психология. М.: Педагогика, 1991.
3. Хуторской А.В. Современная дидактика. СПб.: Питер, 2001.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. М.: ИНТОР, 1996.

MAQSADGA INTILUVCHANLIKNING SHAXS RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Babadjanova Sayyora Xushnutovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada maqsadga intiluvchanlikning shaxs rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Maqsadga intiluvchanlikning shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri, uning motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish hamda hayotiy muvaffaqiyat bilan bog‘liqligi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, maqsadga intiluvchanlikni rivojlantirishning shaxs kamoloti va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: maqsadga intiluvchanlik, shaxs rivojlanishi, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, kognitiv rivojlanish, emotsional barqarorlik, ijtimoiy faollik, shaxs kamoloti, muvaffaqiyat, o‘zini ro‘yobga chiqarish.

Аннотация. В данной статье с психологической точки зрения анализируются роль и значение целеустремленности в развитии личности. На основе научных источников освещено влияние целеустремленности на когнитивное, эмоциональное и социальное развитие личности, ее связь с мотивацией, самоуправлением и жизненным успехом. Также

раскрывается значение развития целеустремленности в совершенствовании личности и самореализации.

Ключевые слова: целеустремленность, развитие личности, мотивация, самоуправление, когнитивное развитие, эмоциональная устойчивость, социальная активность, личностное развитие, успех, самореализация.

Abstract. This article analyzes the role and significance of purposefulness in personal development from a psychological perspective. The influence of goal-setting on the cognitive, emotional, and social development of the individual, as well as its connection with motivation, self-management, and life success, is highlighted based on scientific sources. It also reveals the importance of developing purposefulness in personal development and self-realization.

Keywords: goal-setting, personal development, motivation, self-management, cognitive development, emotional stability, social activity, personal development, success, self-realization.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlarning intellektual va ma’naviy salohiyatini yuksaltirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega shaxs sifatida shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni hamda joriy yilda qabul qilingan yoshlar siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar yosh avlodda tashabbuskorlik, mas’uliyat, liderlik va maqsadga yo‘naltirilganlik kabi ijobiy xislatlarni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini yaratdi [1].

Yurtimizda “Yoshlar daftari” tizimi, “Besh muhim tashabbus” loyihalari hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon etishi uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Bunday ijtimoiy-didaktik sharoitda shaxsning maqsadga intiluvchanligi uning akademik, kasbiy va ijtimoiy muvaffaqiyatini ta’minlovchi yetakchi psixologik determinant (belgilovchi omil) bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, maqsadga intiluvchanlik fenomenining shaxs kamolotidagi o‘rnini ilmiy tadqiq etish nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

Asosiy qism

Maqsadga intiluvchanlik - shaxsning rivojlanish jarayonida faoliyatini tizimlashtiruvchi, xulq-atvorini ongli boshqaruvchi va uzoq muddatli hayotiy strategiyalarini belgilovchi integral psixologik sifatdir. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maqsadga intiluvchanlik shaxsning kognitiv, emotsional va ijtimoiy o‘sishiga bevosita turtki beradi.

G‘arb psixologiyasi maktabida ushbu fenomen samaradorlik va tafakkur dinamikasi kontekstida o‘rganilgan. **Edvin Lokk** tomonidan ilgari surilgan **Maqsadlarni belgilash nazariyasi**ga ko‘ra, aniq, muayyan murakkablik darajasiga ega va real maqsadlar inson faoliyatining ichki samaradorligini keskin oshiradi. Lokk maqsadlarning motivatsiyani boshqarishdagi rolini asoslab, maqsad qanchalik aniq va ongli shakllantirilsa, shaxs tomonidan unga erishish uchun safarbar etiladigan psixik va irodaviy energiya shanchalik yuqori bo‘lishini isbotladi [7].

Albert Bandura o‘zining ijtimoiy-kognitiv nazariyasida o‘z kuchiga ishonch tushunchasini maqsadga intilish mexanizmi bilan bog‘laydi. Banduraning fikricha, insonning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ijobiy ishonchi uning oldiga qo‘ygan maqsadlari sari qat’iyat bilan intilishini ta'minlaydi [8]. O‘z kuchiga ishongan shaxs qiyinchiliklarni to‘siq emas, balki shaxsiy o‘sish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Brayan Littl shaxsiy loyihalar nazariyasida inson hayotidagi strategik maqsadlar va kundalik mikropraktikalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan. Uning fikricha, shaxsning psixologik farovonligi u amalga oshirayotgan shaxsiy loyihalarning mazmundorligi bilan belgilanadi [10]. Aniq va mazmunli maqsadga ega shaxslarda ekzistensial inqiroz va stress darajasi ancha past bo‘ladi.

Kerol Dvek o‘zining Rivojlanishga yo‘naltirilgan tafakkur nazariyasida muvaffaqiyatga erishishda iqtidor emas, balki maqsad sari intilish munosabati muhimligini ko‘rsatadi. Rivojlanish

tafakkuriga ega shaxslar muvaffaqiyatsizlikni mag‘lubiyat emas, balki tajriba va yangi bosqich deb baholaydilar, bu esa ularda irodaviy qat’iyatlilikni kuchaytiradi [9]. **Xaynts Xekxauzen** (Heinz Heckhausen) esa muvaffaqiyat motivatsiyasi nazariyasida maqsadga erishish ehtiyojini inson faoliyatining yetakchi determinanti sifatida baholab, yuqori motivatsiyali shaxslar tavakkalchilikdan qochmasligini ilmiy asoslagan.

MDH psixologiya maktabida maqsad va faoliyat birligi tizimli o‘rganilgan. **K.K. Platonov** shaxs tuzilmasi (dinamik funksional struktura) nazariyasida shaxsning yo‘nalganligi, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini uning butun psixik hayotini boshqaruvchi eng yuqori ierarxik qatlam deb hisoblagan [5]. **V.D. Shadrikov** esa faoliyat psixologiyasida maqsadning mavjudligi insonning intellektual va sensor-motor qobiliyatlarini bir nuqtaga jamlashini, maqsadsiz faoliyat esa shaxs salohiyatining tarqoqligiga (dissotsiatsiyasiga) olib kelishini ta'kidlaydi [6].

Milliy psixologiyamizda **M.G. Davletshin** yoshlar va pedagogik psixologiya doirasida maqsadga intiluvchanlikni yoshlarning ijtimoiy faolligi va kasbiy ijtimoiylashuvining fundamental omili sifatida baholaydi [2]. **Sh.A. Do‘stmuhamedova** esa ta’lim psixologiyasida maqsadga yo‘naltirilganlik talabalarda ichki akademik motivatsiyani, mustaqil bilim olish (refleksiv) ko‘nikmalarini va kognitiv mustaqillikni shakllantirishini o‘z tadqiqotlarida isbotlab bergan [3].

Maqsadga intiluvchanlikning shaxs rivojlanishiga ta’sirining qiyosiy tahlili

Rivojlanish sohasi	**Maqsadga intiluvchanlik yuqori bo‘lganda**	**Maqsadga intiluvchanlik past bo‘lganda**
Kognitiv rivojlanish	Strategik fikrlash, rejalashtirish va prognozlash rivojlangan	Vaziyatga bog‘liq, impulsiv va tartibsiz fikrlash ustun
Motivatsion soha	Muvaffaqiyatga erishish va o‘zini namoyon etish ehtiyoji yuqori	Muvaffaqiyatsizlikdan va mas'uliyatdan qochish motivi ustun
Emotsional holat	Psixologik rezilentlik (egiluvchanlik) va optimizm yuqori	Tashvish, frustratsiya va emotsional beqarorlik yuqori
Kasbiy rivojlanish	Kasbiy o‘zini o‘zi belgilash va maqsadli karyera tayyorligi aniq	Kasbiy noaniqlik, tasodifiy tanlov va ikkilanish mavjud
Ijtimoiy rivojlanish	Faol fuqarolik pozitsiyasi va yuqori ijtimoiy mas'uliyat	Ijtimoiy passivlik, adaptatsiyaning qiyin kechishi
Shaxsiy o‘sish	O‘z-o‘zini aktuallashtirish (ro‘yobga chiqarish) faol	Shaxsiy turg‘unlik (stagnatsiya), o‘sishga qiziqish sust

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqsadga intiluvchanlik shaxs kamolotining shunchaki bir qismi emas, balki uning butun psixik tizimini harakatga keltiruvchi yetakchi determinantidir. E. Lokk, A. Bandura, C. Dweck va milliy olimlarimiz M.G. Davletshin hamda Sh.A. Do‘stmuhamedovalarning qarashlari maqsadga intiluvchanlikning ichki intellektual, emotsional va motivatsion resurslarni birlashtiruvchi rolini to‘liq tasdiqlaydi.

Ushbu qonuniyatlardan kelib chiqib, zamonaviy ta’lim tizimida yoshlarning maqsadga intiluvchanlik sifatlarini oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

1. O‘quvchi va talabalarda "Taym-menejment" va "Hayotiy maqsadlarni loyihalash" (Life-designing) bo‘yicha maxsus psixologik treninglarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish;

2. Ta’lim sferasida o‘quvchilarning muvaffaqiyatsizlikka bo‘lgan munosabatini ijobiy tomonga o‘zgartiruvchi "Rivojlanish tafakkuri" (Growth Mindset) muhitini yaratish;

3. Yoshlarning kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi anglashi uchun mustaqil qaror qabul qilish va avtonomiya imkoniyatlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, maqsadga intiluvchanlik shaxsning raqobatbardoshligini, uning jamiyatdagi faol mavqeyini va pirovardida hayotiy farovonligini ta'minlovchi eng ishonchli psixologik poydevordir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
2. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2018. – 512 b.
3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. Yosh va pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. – 320 b.
4. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 544 b.
5. Platonov K.K. Struktura i razvitie lichnosti. – Moskva: Nauka, 1986. – 256
6. Shadrikov V.D. Psixologiya deyatelnosti i sposobnostey cheloveka. – Moskva: Logos, 1996. – 320 s.
7. Locke E.A., Latham G.P. A Theory of Goal Setting and Task Performance. – New Jersey: Prentice Hall, 1990. – 413 p.
8. Bandura A. Self-Efficacy: The Exercise of Control. – New York: W.H. Freeman and Company, 1997. – 604 p.
9. Dweck C.S. Mindset: The New Psychology of Success. – New York: Random House, 2006. – 276 p.
10. Little B.R. Me, Myself and Us: The Science of Personality and the Art of Well-Being. – New York: Public Affairs, 2014. – 304 p.

O‘QUVCHILARDA ANALITIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKANING AHAMIYATI

Bobojonov Mahkamboy

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi**.**

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘quvchilarda analitik fikrlashni shakllantirishda matematika fanining o‘rni nazariy va amaliy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot maqsadi matematik masalalar, modellashtirish va dalillash orqali tahliliy xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlashdir. Metod sifatida mantiqiy-tahliliy yondashuv, taqqoslash va didaktik tahlil qo‘llanadi. Ilmiy yangilik matematik faoliyatning kognitiv komponentlari bilan analitik fikrlash indikatorlari o‘rtasidagi bog‘lanishni tizimli talqin qilishdan iborat.

Kalit so‘zlar: analitik fikrlash; mantiqiy xulosa; modellashtirish; isbot; masala yechish; metakognitsiya; matematik savodxonlik

Аннотация.В тезисе обосновывается роль математики в формировании аналитического мышления у учащихся на теоретическом и практическом уровнях. Цель исследования состоит в выявлении механизмов развития навыков анализа и вывода посредством решения задач, моделирования и доказательства. Методологически использованы логико-аналитический подход, сравнительный анализ и дидактическая интерпретация. Научная новизна заключается в системном объяснении связи когнитивных компонентов математической деятельности с индикаторами аналитического мышления.

Ключевые слова: аналитическое мышление; логический вывод; моделирование; доказательство; решение задач; метакогниция; математическая грамотность

Abstract. This thesis substantiates the role of mathematics in developing students’ analytical thinking from theoretical and practical perspectives. The aim is to identify mechanisms by which problem solving, modeling, and proof foster analysis and reasoned conclusions. The methodology combines logical-analytical reasoning, comparative analysis, and didactic interpretation. The

scientific novelty lies in a systematic account of how cognitive components of mathematical activity relate to measurable indicators of analytical thinking in learning contexts.

Keywords: analytical thinking; logical inference; mathematical modeling; proof; problem solving; metacognition; mathematical literacy

Kirish

Analitik fikrlash ta’lim psixologiyasi va metodikasida muammoni tarkibiy qismlarga ajratish, munosabatlarni aniqlash va dalillangan xulosa chiqarish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bu qobiliyatning mexanizmi, avvalo, informatsiyani kodlash, taqqoslash, umumlashtirish va verifikatsiya qilish kabi ketma-ket kognitiv amallarning uyg‘unlashuvida namoyon bo‘ladi. Matematik ta’lim aynan shu ketma-ketlikni tabiiy ravishda talab qilishi bilan ajralib turadi, chunki har bir masala shartini tahlil qilish, noma’lumlarni belgilash, munosabatlarni ifodalash va yechimni tekshirish bosqichlari majburiydir. Masalan, chiziqli tenglamalar sistemasini yechishda o‘quvchi avval shartdagi bog‘lanishni tenglamalar ko‘rinishida formalashtiradi, keyin eliminatsiya yoki almashtirish algoritmini tanlaydi, so‘ng natijani dastlabki shartga qo‘yib tekshiradi. PISA kabi xalqaro baholashlarda matematik savodxonlik topshiriqlarining muayyan qismi real vaziyatni modelga aylantirish va xulosani asoslashga qaratilgani, ko‘plab mamlakatlarda aynan shu komponent eng murakkab bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi [6]. Ilmiy izoh sifatida, bu holat matematikaning faqat hisob-kitob emas, balki mantiqiy dalillash madaniyatini shakllantiruvchi fan ekanini tasdiqlaydi, chunki model tuzish va tekshirish analitik fikrlash indikatorlari bilan bevosita bog‘liq.

Asosiy qism

Matematikaning analitik fikrlashga ta’sirini ochishda “matematik faoliyat” tushunchasini aniqlashtirish zarur bo‘ladi. Matematik faoliyat deganda abstraksiyalash, aksiomatik qabul qilish, isbotlash, algoritmlashtirish va modellashtirishga tayangan bilish faoliyati tushuniladi[1].Uning mexanizmi o‘quvchining tashqi amallarini ichki aqliy amallarga aylantirish, ya’ni interriorlashtirish jarayoni bilan tushuntiriladi: avval ko‘rgazmali-amil, keyin ramziy, so‘ng konseptual darajada ishlash yuz beradi. Masalan, funksiyaning hosilasi mavzusida o‘quvchi dastlab secant chiziq orqali o‘rtacha o‘zgarish tezligini tushunadi, keyin limit tushunchasi bilan aniqlik kiritadi va nihoyat hosila qoidalarini umumiy algoritm sifatida qo‘llaydi. Statistik jihatdan, o‘rta ta’limda matematikaga ajratilgan haftalik soatlar ko‘plab ta’lim tizimlarida 4–6 soat oralig‘ida bo‘lib, bu fan orqali muntazam kognitiv mashq qilish imkonini beradi; muntazamlilik esa ijro funksiyalarining (diqqatni boshqarish, ishchi xotira, kognitiv moslashuvchanlik) rivojlanishida muhim omil sanaladi [5]. Ilmiy izoh nuqtayi nazaridan, matematik faoliyatning yuqori darajali talablari frontal yodlashga emas, balki ko‘p bosqichli tahlil va nazoratga tayanadi, shuning uchun u analitik fikrlashni tizimli ravishda rag‘batlantiradi.

Analitik fikrlashni o‘stirishda matematik isbotning o‘rni alohida metodik ahamiyatga ega. Isbot ta’rifi sifatida hukmning chinligini oldindan qabul qilingan aksiomalar va avval isbotlangan teoremalar asosida mantiqan asoslash jarayoni olinadi[2]. Mexanizm jihatidan isbot o‘quvchini sabab-oqibat zanjirini qat’iy qurishga, “agar–unda” bog‘lanishini tekshirishga va qarama-qarshilikni bartaraf etishga majbur qiladi, bu esa argumentatsion kompetensiyani shakllantiradi. Masalan, “to‘g‘ri burchakli uchburchakda Pifagor teoremasi”ni o‘rganishda o‘quvchi geometrik konstruksiyalarni tahlil qiladi, yuzalar tengligini asoslaydi va natijani umumiy formula ko‘rinishida yozadi: $a^2 + b^2 = c^2$. Raqamli ko‘rinishda, $a = 3$ va $b = 4$ bo‘lsa, $c^2 = 9 + 16 = 25$ dan $c = 5$ kelib chiqadi, bu misol isbotlangan umumiy munosabatni konkret holatda verifikatsiya qilishni ko‘rsatadi. Ilmiy izoh sifatida, isbot amaliyoti shunchaki teoremani “eslab qolish”ni emas, balki dalil tuzishning mantiqiy me’yorlarini o‘zlashtirishni taqozo etadi; bunday me’yorlar esa analitik fikrlashning asosiy komponentlari bo‘lgan asoslash, qarama-qarshi misol izlash va xulosani tekshirish bilan uyg‘unlashadi.

Masala yechish jarayoni analitik fikrlashni shakllantirishning eng universal didaktik vositasi hisoblanadi. Masala yechish ta’rifi ma’lum shartlar ostida noma’lum natijaga olib boruvchi usul va amallarni tanlash hamda bajarish jarayoni sifatida beriladi [3]. Mexanizmda Polya an’anasi bo‘yicha muammoni tushunish, reja tuzish, reja asosida ishlash va orqaga nazar tashlab tekshirish

bosqichlari ajraladi; aynan shu bosqichlilik o‘quvchini tahlil, sintez va refleksiyaga o‘rgatadi. Masalan, aralashmalar haqidagi masalada 10% li eritmadan 200 g va 25% li eritmadan 100 g qo‘shilganda yakuniy konsentratsiya topilishi kerak bo‘lsa, o‘quvchi avval sof modda miqdorini hisoblaydi: 0,10·200 = 20 g va 0,25·100 = 25 g, jami 45 g; umumiy massa 300 g; demak konsentratsiya 45/300 = 0,15 ya’ni 15% chiqadi. Bu yerda raqamlar masala sharti bilan mosligi tekshiriladi va natija mantiqan baholanadi, chunki yakuniy foiz 10% va 25% oralig‘ida bo‘lishi kerak. Ilmiy izoh sifatida, masala yechishdagi bunday “chegara orqali tekshirish” amali analitik fikrlashning verifikatsiya komponentini kuchaytiradi, ya’ni o‘quvchi natijani faqat hisoblabgina qolmay, uning mantiqiy imkonliligini ham baholaydi.

Matematik modellashtirish analitik fikrlashni real vaziyatlarga ko‘chirish mexanizmini beradi. Modellashtirish ta’rifi real obyekt yoki jarayonning muhim xususiyatlarini matematik til vositasida ifodalash va model asosida prognoz hamda qaror chiqarish jarayonidir[6].Mexanizmda muammoni strukturalash, o‘zgaruvchilarni tanlash, cheklovlarni kiritish, modelni yechish va natijani interpretatsiya qilish bosqichlari mavjud bo‘lib, har bir bosqich tahliliy qaror talab qiladi. Masalan, sinfda elektr energiyasi sarfini kamaytirish uchun yoritish tizimi bo‘yicha tanlov qilinayotganda xarajat modeli tuziladi: umumiy qiymat = boshlang‘ich xarajat + (quvvat · vaqt · tarif) ko‘rinishida; quvvat P vatt bo‘lsa, vaqt t soat, tarif k so‘m/kVt·soat bo‘lganda energiya sarfi E = P·t/1000 formula bilan topiladi. Raqamli misolda, 60 Vt lampani 5 soat yoqish E = 60·5/1000 = 0,3 kVt·soat bo‘ladi, agar tarif 450 so‘m bo‘lsa, xarajat 135 so‘mni tashkil etadi; bu oddiy hisob o‘quvchiga “o‘lchov birliklari” va “miqyos”ni tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi. Ilmiy izoh shundan iboratki, modellashtirishda birliklar, taxminlar va cheklovlarni ongli tanlash metakognitiv nazoratni faollashtiradi, bu esa analitik fikrlashning kontekstga moslashuvchan komponentini rivojlantiradi.

Analitik fikrlashni shakllantirishda matematik mantiq va to‘plamlar nazariyasi elementlari metodik jihatdan samarali bo‘ladi. Matematik mantiq ta’rifi to‘g‘ri xulosa chiqarish qonunlarini formal tizimlarda o‘rganadigan soha sifatida beriladi, to‘plamlar nazariyasi esa obyektlar majmuasi va ular ustida amallarni izohlaydi [2]. Mexanizmda “inkor”, “kon’yunksiya”, “diz’yunksiya”, “implikatsiya” kabi amallarni o‘zlashtirish o‘quvchining fikrini aniq strukturalashga olib keladi, chunki u gaplarning haqiqat jadvali orqali tekshirilishini ko‘radi. Masalan, “A bo‘lsa, B bo‘ladi” mulohazasining rostligi faqat A rost va B yolg‘on bo‘lgan holatda buzilishini tahlil qilish, kundalik hayotdagi shartli xulosalarning noto‘g‘ri qo‘llanishini ham ochib beradi. Raqamli ko‘rsatkich sifatida, mantiqiy amallar uchun 2 ta mulohaza holatlari $2^2 = 4$ kombinatsiyani beradi, 3 ta mulohaza esa $2^3 = 8$ kombinatsiyani beradi; bu o‘quvchiga tahlil hajmi argumentlar soni bilan eksponensial ortishini anglatadi va qisqartirish strategiyalarini izlashga undaydi. Ilmiy izoh sifatida, formal mantiq elementlari analitik fikrlashning “aniqlik” mezonini mustahkamlaydi, chunki o‘quvchi ta’riflarning chegarasi va xulosalarning shartga bog‘liqligini anglaydi.

Matematika darsida analitik fikrlashni rivojlantirish uchun ta’rif va algoritmlarning psixologik o‘zlashtirilish shartlari ham e’tiborga olinadi. Ta’rif ta’limiy birlik sifatida tushunchaning zarur va yetarli belgilarini belgilaydi, algoritm esa natijaga olib boruvchi aniq qadamlar ketma-ketligidir [1]. Mexanizm shundan iboratki, ta’riflar konseptual tarmoqni quradi, algoritmlar esa ijro jarayonini barqarorlashtiradi; ular uyg‘unlashganda o‘quvchi “nima uchun” va “qanday” savollariga birgalikda javob topadi. Masalan, kvadrat tenglama uchun diskriminant $D = b^2 - 4ac$ ta’rifi va yechim formulasi $x = (-b \pm \sqrt{D})/(2a)$ algoritmik qoida sifatida beriladi, lekin o‘quvchi uni parabolaning OX o‘qi bilan kesishish sharti orqali tahlil qilsa, D ning manfiy, nol va musbat qiymatlari yechimlar soni bilan bog‘lanadi. Raqamli misolda, $a = 1, b = 2, c = 5$ bo‘lsa, $D = 4 - 20 = -16$ bo‘lib, haqiqiy ildiz yo‘qligi xulosasi keladi; $a = 1, b = 2, c = 1$ bo‘lsa, $D = 0$ va bitta karrali ildiz $x = -1$ chiqadi. Ilmiy izoh sifatida, algoritmni tushuncha bilan bog‘lab o‘qitish kognitiv yuklamani samarali taqsimlaydi, natijada o‘quvchi mexanik qo‘llashdan ko‘ra analitik nazoratga tayanadi.

Jadval 1. Matematik faoliyat vositalari va analitik fikrlash indikatorlari mosligi

Matematik faoliyat vositasi	Analitik fikrlash indikatori	Didaktik mexanizm
Masala yechish	Shartni tahlil qilish va reja tuzish	Bosqichli strategiya va refleksiv tekshiruv
Matematik isbot	Dalillash va sabab-oqibat bog‘lanishini aniqlash	Aksioma va teoremalar asosida mantiqiy inferensiya
Modellashtirish	Real vaziyatni matematik modelga o‘tkazish	O‘zgaruvchilarni tanlash va interpretatsiya
Algebraik transformatsiya	Strukturani ko‘rish va ekvivalentlikni aniqlash	Ifodalarni qayta yozish orqali yashirin bog‘lanishni ochish
Statistika va ehtimollik	Ma’lumotni tanqidiy baholash	O‘rtacha qiymat, dispersiya va xatolikni tahlil qilish
Matematik mantiq	Xulosalarning aniqligi va izchilligi	“Agar–unda” munosabatlarini tekshirish
Algoritmlash	Ketma-ket fikrlash va nazorat	Qadam-baqadam amallar tizimi
To‘plamlar nazariyasi	Tasniflash va umumlashtirish	Obyektlar orasidagi munosabatlarni aniqlash
Funksional bog‘lanishlar	O‘zgarishlarni tahlil qilish	Grafik va formulalar orqali bog‘lanishni aniqlash
Metakognitiv nazorat	Natijani tekshirish va refleksiya	Verifikatsiya va xatolarni aniqlash

Quyidagi jadval matematika vositalari va analitik fikrlash indikatorlari o‘rtasidagi moslikni umumlashtiradi, bunda har bir indikatorni shakllantiruvchi asosiy didaktik mexanizm ajratib ko‘rsatiladi. Jadval ta’rifi sifatida, bu turkumlash matematika o‘qitish mazmunini kognitiv natijalar bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Mexanizm jadval orqali o‘qituvchi qaysi mavzuda qaysi indikator ustuvor rivojlanishini rejalashtirishi, nazorat topshiriqlarini esa shunga mos loyihalashi mumkinligi bilan izohlanadi. Masalan, isbot mavzulari argumentatsiya indikatorini, modellashtirish esa transfer indikatorini kuchliroq faollashtiradi, bu didaktik dizaynni aniqroq qiladi. Raqamli nuqtai nazardan, indikatorlar sonini 4 ta asosiy blokka ajratish (tahlil, asoslash, tekshirish, transfer) baholash rubrikalarini soddalashtiradi va mezonlararo moslikni oshiradi. Ilmiy izoh sifatida, bunday mosliklar tizimi kompetensiyaviy yondashuvda o‘quv natijalarini operatsionallash, ya’ni o‘lchanadigan ko‘rsatkichlarga aylantirish uchun zarur metodik poydevor yaratadi.

Jadval 1. Matematik faoliyat vositalari va analitik fikrlash indikatorlari mosligi.

Matematik vosita: masala yechish; Analitik indikator: shartni tahlil qilish va reja tuzish; Mexanizm: bosqichli strategiya va refleksiv tekshiruv.

Matematik vosita: isbot; Analitik indikator: dalillash va sabab-oqibat zanjiri; Mexanizm: aksioma-teorema asosida mantiqiy inferensiya.

Matematik vosita: modellashtirish; Analitik indikator: real vaziyatdan modelga transfer; Mexanizm: o‘zgaruvchilar, cheklovlar va interpretatsiya.

Matematik vosita: algebraik transformatsiya; Analitik indikator: strukturani ko‘rish va ekvivalentlik; Mexanizm: qayta yozish orqali yashirin bog‘lanishlarni ochish.

Matematik vosita: statistika va ehtimollik; Analitik indikator: ma’lumotni tanqidiy talqin; Mexanizm: dispersiya, o‘rtacha qiymat va xatolikni baholash.

Matematikadagi tarixiy rivojlanish faktlari ham analitik fikrlashning metodologik ildizlarini yoritadi. Tarixiy fakt ta’rifi sifatida, ilmiy g‘oyaning paydo bo‘lishi va asoslanishi jarayonini ko‘rsatadigan voqeliklar majmui olinadi. Mexanizm shundan iboratki, tarixiy misollar o‘quvchini “muammo–yechim–asos” triadasi bilan tanishtiradi va bilishdagi xatolarni tuzatish mantiqini ko‘rsatadi. Masalan, Yevklidning “Negizlar” asarida aksiomatik usul shakllanib, teorema isbotlashning qat’iy ketma-ketligi ishlab chiqilgan; bu ketma-ketlik keyingi fanlarda ham analitik

standartga aylangan [4]. Raqamli ko‘rsatkich sifatida, aksiomatik tizimlarda cheklangan sonli aksiomalardan juda ko‘p teoremalar keltirib chiqarilishi mumkinligi “kompakt bilim” tamoyilini anglatadi; masalan, bir necha asosiy postulatlar asosida yuzlab geometrik natijalar olinishi ta’limda generalizatsiya kuchini ko‘rsatadi. Ilmiy izoh sifatida, tarixiy yondashuv o‘quvchini tayyor formulani qabul qilishdan ko‘ra, uni keltirib chiqarish sabablarini izlashga undaydi, bu esa analitik fikrlashning motivatsion va metodologik komponentlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Xulosa

Matematika o‘quvchilarda analitik fikrlashni shakllantirishda tayanch fan sifatida namoyon bo‘ladi, chunki u ta’rif, isbot, algoritm va modellashtirish orqali fikrni aniq strukturalash va dalillashni talab qiladi. Masala yechishning bosqichli tabiati tahlil va refleksiyani barqaror odatga aylantiradi, isbot esa argumentatsiya me’yorlarini va mantiqiy izchillikni mustahkamlaydi. Modellashtirish real vaziyatlardan matematik tilga transferni ta’minlab, natijani interpretatsiya qilish va tekshirishni o‘rgatadi. Mantiq va to‘plamlar nazariyasi elementlari fikrning aniqligi hamda xulosaning shartga bog‘liqligini anglatib, tanqidiy baholashni kuchaytiradi. Shu asosda matematika darslarini konseptual tushunish, verifikatsiya va metakognitiv nazoratga yo‘naltirish analitik fikrlash indikatorlarini barqaror rivojlantirishning metodik sharti sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Vygotskiy, L. S. Myshlenie i rech’. Moskva: AST, 2020. 640 s.
2.Kolmogorov, A. N.; Fomin, S. V. Elementy teorii funktsiy i funktsional’nogo analiza. Moskva: Fizmatlit, 2019. 456 s.
3.Polya, G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. Princeton: Princeton University Press, 2004. 288 p.
4.Euclid. The Elements. Cambridge: Cambridge University Press, 2008. 520 p.
5.Baddeley, A. Working Memory, Thought, and Action. Oxford: Oxford University Press, 2007. 234 p.
6.OECD.PISA 2022 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2023. 368 p.

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA GENDER JIHATDAN TEXNOLOGIYA FANIGA QIZIQISH VA O‘ZINI BAHOLASH O‘RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG‘LIQLIK

Egamova Anbarjon Atanazarovna
Urganch davlat pedagogika institute Aniq va tabiiy fanlar fakulteti
Texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning texnologiya faniga qiziqishi va gender asosidagi o‘zini baholash (self-assessment va self-efficacy) o‘rtasidagi psixologik bog‘liqlik tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’limda STEM yo‘nalishlaridagi gender farqlari dolzarb muammo sifatida ko‘rib chiqilmoqda. Maqolada xalqaro va mahalliy tadqiqotlar asosida nazariy asoslar, gender stereotiplari, o‘zini baholash mexanizmlari va amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari maktab pedagoglariga gender tengligini ta’minlashda yordam berishi mumkin.

Kalit so‘zlar: gender psixologiyasi, texnologiya fani, o‘quvchilar qiziqishi, o‘zini baholash, STEM, umumta’lim maktablari.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda texnologiyalar hayotning barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Shuning uchun umumta’lim maktablarida “Texnologiya” fani o‘quvchilarda texnologik savodxonlik, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, texnologiya va STEM yo‘nalishlarida gender farqlari saqlanib qolmoqda.

O‘g‘il bolalar ko‘pincha texnologiya faniga yuqori qiziqish bildirsa, qiz bolalarda bu qiziqish pastroq bo‘lib, o‘z qobiliyatlarini baholashda ham past natijalar kuzatiladi. Bu farqlar faqat biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar (stereotiplar, oila va maktab muhiti) ta’sirida shakllanadi.

Ushbu maqolaning **maqsadi** — umumta'lim maktablarida texnologiya faniga gender jihatdan qiziqish va o'zini baholash o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni nazariy va empirik jihatdan tahlil qilishdir. Vazifalar: gender psixologiyasi nazariyalarini ko'rib chiqish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish va O'zbekiston maktablari uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Gender psixologiyasi va ta'lim

Gender psixologiyasi - differensial psixologiyaning muhim bo'limi bo'lib, insonning xatti-harakatlari, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy munosabatlarini biologik jins (sex) va ijtimoiy gender (jamiyat tomonidan shakllantirilgan jinsiy rollar) nuqtai nazaridan o'rganadi. U jins psixologiyasidan farqli o'laroq, faqat biologik farqlarga emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarning ta'siriga katta e'tibor qaratadi. Gender psixologiyasida gender **ijtimoiy konstrukt** sifatida ko'rib chiqiladi.

Psixoanalitik nazariya - gender identifikatsiyasi bolalikdagi psixoseksual rivojlanish jarayonlari orqali shakllanadi. Freydning fikricha, inson xatti-harakati asosan ong osti jarayonlar tomonidan boshqariladi. Ong ostidagi istaklar, xotiralar va tajribalar insonning hozirgi hayoti, his-tuyg'ulari va xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Psixoanaliz nafaqat nazariya, balki psixoterapiya usuli hamdir. Psixoanalitik nazariya gender rivojlanishini tushuntirishda muhim o'rin tutadi. Freydning fikricha, gender identifikatsiyasi fallik bosqichda sodir bo'ladi. Qiz bolalarda "penis hasadi" nazariyasi juda ko'p tanqidga uchragan. Keyinchalik bu nazariya Erik Erikson, Karen Horney, Nancy Chodorow kabi olimlar tomonidan qayta ko'rib chiqilgan.

Ijtimoiy o'rganish nazariyasi - bolalar gender xulq-atvorini oila, maktab va ommaviy axborot vositalari orqali kuzatish va taqlid qilish yo'li bilan o'rganadi. **Inson xatti-harakatining katta qismi boshqalarni kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganiladi.** Ya'ni, o'rganish faqat shaxsiy tajriba (klassik yoki operant shartlash) orqali emas, balki ijtimoiy muhitdagi kuzatuv orqali ham sodir bo'ladi.

Bandura bu nazariyani dastlab **Ijtimoiy o'rganish nazariyasi** deb atagan, keyinchalik uni **Ijtimoiy kognitiv nazariya** deb yangilagan. Ijtimoiy o'rganish nazariyasi shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar nafaqat nima deyilganini, balki atrofdagilar nima qilayotganini ko'rib o'rganadi. Shuning uchun maktab, oila va ommaviy axborot vositalarida ijobiy namunalarni ko'paytirish juda muhim.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi - gender identifikatsiyasi bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog'liq. **Kognitiv rivojlanish nazariyasi** bolaning fikrlash qobiliyati, aql-zakovati va dunyoni anglashi qanday bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rganadigan nazariya. Bu nazariyaning asoschisi — shveytsariyalik psixolog va faylasuf **Jean** Piagetning fikricha, bola tug'ilgandan boshlab faol tadqiqotchi bo'lib, atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir orqali bilimni o'zida quradi (construct). U bilimni tayyor holda olib bo'lmaydi, balki uni faol ravishda yaratadi.

Gender performativligi nazariyasi - gender bu tabiiy holat emas, balki doimiy takrorlanadigan ijtimoiy "harakatlar" orqali yaratiladigan konstrukt. Gender "bo'lish" emas, "qilish"dir. Bu nazariya ta'limda gender stereotiplarini tanqid qilish uchun keng qo'llaniladi. Gender performativligi nazariyasi gender va jins tushunchalarini tubdan o'zgartirdi. U genderning "tabiiyligini" rad etib, uni ijtimoiy va madaniy jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Bu nazariya maktab ta'limida gender stereotiplarini bartaraf etish, o'quvchilarga erkinroq o'zini ifoda etish imkoniyatini berish va gender tengligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi.

Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi va **Ijtimoiy kognitiv kasbiy nazariya** - gender stereotiplari va o'zini baholash ta'lim tanlovlariga ta'sir qiladi. Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi shuni ko'rsatadiki, insonning o'zini baholashi va xatti-harakati ko'p jihatdan qaysi guruhga mansubligiga bog'liq. Maktab ta'limida, xususan texnologiya fanida gender farqlarini bartaraf etish uchun "texnologiya — hamma uchun" degan yangi ijtimoiy identifikatsiyani shakllantirish zarur.

Ta'limdagi gender psixologiyasi. Ta'lim jarayonida gender psixologiyasi quyidagi masalalarni o'rganadi:

Gender stereotiplari — “Texnologiya va matematika — o‘g‘il bolalar fani, gumanitar fanlar — qiz bolalar fani” degan fikrlar erta yoshdan shakllanadi va o‘quvchilarning fanlarga qiziqishini cheklaydi.

O‘zini baholash va self-efficacy — Albert Bandura nazariyasiga ko‘ra, o‘z qobiliyatlariga ishonch muvaffaqiyatni belgilaydi. Ko‘plab tadqiqotlarda qiz bolalar matematika va STEM fanlarida o‘g‘il bolalarga nisbatan past natija ko‘rsatadi, garchi ularning real baholari bir xil yoki undan yuqori bo‘lsa ham ishonch farqi bo‘ladi.

Stereotype threat— Qiz bolalar “qizlar matematikada yomon” degan stereotip tufayli bosim ostida pastroq natija ko‘rsatishi mumkin.

Ijtimoiy taqqoslash va rol modellar — Maktabda o‘qituvchilar, darsliklar va ota-onalar kutishlari gender farqlarini kuchaytiradi. Ayol muhandis yoki olimlarning kamligi qiz bolalarda “bu soha men uchun emas” degan hisni uyg‘otadi.

UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda ayollar STEM bitiruvchilarining atigi **35%** ini tashkil etadi Qiz bolalar ko‘pincha maktabda yaxshi o‘qiydilar, lekin keyingi bosqichlarda (o‘rta va oliy ta’lim) texnologik yo‘nalishlarga kamroq kirishadi. Bu biologik emas, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog‘liq.

O‘zbekistonda ham shunga o‘xshash tendensiyalar mavjud: qiz bolalar texnologiya, informatika va muhandislik yo‘nalishlarida kamroq ishtirok etadi. Gender tengligi bo‘yicha milliy strategiyalar va ta’lim dasturlarida bu muammoni hal qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Ta’limdagi amaliy ahamiyati va tavsiyalar

Gender sezgir ta’lim — Darsliklar va o‘quv materiallarini gender-neutral qilish (stereotiplardan xoli).

Rol modellar — Qiz bolalar uchun muvaffaqiyatli ayol olim va muhandislar bilan uchrashuvlar.

Growth mindset (rivojlanish fikrlash tarzi) — Qobiliyatlar tug‘ma emas, balki mehnat va mashq orqali rivojlanishi mumkinligini o‘rgatish.

Loyihaviy va hamkorlikdagi faoliyat — Qiz bolalarning qiziqishini oshiradi.

O‘qituvchilar malakasini oshirish — Gender stereotiplarini tan olish va bartaraf etish bo‘yicha treninglar.

Gender psixologiyasi ta’limda tenglikni ta’minlash, har bir bola o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarish va jamiyatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish uchun muhim vositadir. Bu sohada tadqiqotlar davom etmoqda va yangi yondashuvlar paydo bo‘lmoqda.

Umumta’lim maktablarida texnologiya faniga gender jihatdan qiziqish va o‘zini baholash o‘rtasidagi bog‘liqlik murakkab psixologik jarayonlar natijasidir. Freydning psixoanalitik nazariyasi va Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari bolalikdan shakllanadigan ichki tajribalarni, Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi esa atrof-muhit va rol modellarining ta’sirini ko‘rsatadi. Judith Butlerning gender performativligi nazariyasi genderning tabiiy emas, balki doimiy “ijro etiladigan” ijtimoiy konstrukt ekanligini, Tajfel va Turnerning ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi esa “texnologiya — o‘g‘il bolalar fani” degan stereotiplar orqali qiz bolalarning o‘zini past baholashini tushuntiradi.

Natijada, bir xil qobiliyatga ega o‘quvchilar orasida gender farqlari paydo bo‘ladi. Maktab muhiti, o‘qituvchilar va oila bu farqlarni kuchaytirishi yoki yumshatishi mumkin. Gender tengligini ta’minlash uchun stereotiplardan xoli ta’lim, ijobiy rol modellar va gender-neutral yondashuvlar zarur. Faqat shundagina har bir bola o‘z potensialini to‘liq ro‘yobga chiqarishi mumkin. Gender — bu taqdir emas, balki ijtimoiy jarayon. Uni o‘zgartirish esa ta’lim orqali mumkin.

Adabiyotlar ro y‘xati

1. Ccles, J. S. (2005). Studying gender and ethnic differences in participation in math, physical science, and information technology. *New Directions for Child and Adolescent Development*, 2005(110), 7–14.
2. OECD. (2015). *The ABC of gender equality in education: Aptitude, behaviour, confidence*. OECD Publishing.

3. Wang, M. T., & Degol, J. L. (2017). Gender gap in science, technology, engineering, and mathematics (STEM): Current knowledge, implications for practice, policy, and future directions. *Educational Psychology Review*, 29(1), 149–171.
5. Bekchanov, X., & boshq. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta’lim-tarbiya berishning nazariy va metodik asoslari. [Monografiya]. Urganch davlat pedagogika instituti.
6. Karimova, M. B. (2024). Umumta’lim maktablarida texnologiya fanida o‘quvchilarning gender farqlari. *Pedagogika va psixologiya,* 3(2), 45–52.

ICHKI ISHLAR XODIMLARIDA PSIXIK BARQARORLIK MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILGANLIK HOLATI

Eshmuradov Nodirbek Parda o‘g‘li
Qarshi davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik muammosining psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik darajasi, asosiy ilmiy yondashuvlar hamda zamonaviy tadqiqot yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, psixik barqarorlikni o‘rganishga doir xorijiy va mahalliy ilmiy maktablarning nazariy qarashlari, stress, emotsional kuyish, kasbiy moslashuv va rezilentlik konsepsiyalari bilan bog‘liqligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: psixik barqarorlik, ichki ishlar xodimlari, stress, emotsional kuyish, rezilentlik, kasbiy moslashuv, psixologik tadqiqotlar.

Аннотация: В данной статье анализируются степень изученности проблемы психической устойчивости сотрудников органов внутренних дел в психологических исследованиях, основные научные подходы и современные направления исследований. Также рассматриваются теоретические взгляды зарубежных и отечественных научных школ на изучение психической устойчивости, её взаимосвязь с концепциями стресса, эмоционального выгорания, профессиональной адаптации и резильентности.

Ключевые слова: психическая устойчивость, сотрудники органов внутренних дел, стресс, эмоциональное выгорание, резильентность, профессиональная адаптация, психологические исследования.

Abstract: This thesis examines the extent to which the problem of psychological stability among law enforcement officers has been studied in psychological research, as well as the main scientific approaches and contemporary research trends in this field. It also highlights the theoretical perspectives of both foreign and domestic scientific schools on psychological stability and explores its relationship with the concepts of stress, emotional burnout, professional adaptation, and resilience.

Keywords: psychological stability, law enforcement officers, stress, emotional burnout, resilience, professional adaptation, psychological research.

Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik masalasi psixologiya fanida nisbatan mustaqil yo'nalish sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Ilk tadqiqotlar asosan AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida olib borildi. 1970–1980-yillarda amerikalik psixologlar Hans Selye va Richard Lazarusning stress nazariyalari huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida kasbiy stressni tushuntirishda keng qo'llanila boshlandi.

Maslach va Leiter (1997) tomonidan ishlab chiqilgan "hissiy yonib ketish" (professional burnout) konsepsiyasi politsiya xodimlari tadqiqotlarida keng qo'llanilib, bu sohadagi ishlarning tub poydevorini tashkil etdi. O'sha davrda olib borilgan tadqiqotlarda xodimlarning 30–40 foizida yonib ketish alomatlari aniqlanishi ushbu muammoning tizimli xarakter kasb etganligini ko'rsatdi.

Rossiyalik psixologlar — A.V. Petrovsky, A.M. Stolyarenko, V.L. Vasiliev va M.I. Maryin 1980–2000-yillarda huquqni muhofaza qilish organlari psixologiyasiga oid fundamental asarlar yaratdilar. Stolyarenkoning "Ekstremal psixologiya" asari (1992) va Maryinning "IIB xodimlarida psixologik tayyorgarlik" (2001) tadqiqotlari bu sohadagi ilmiy bazani sezilarli darajada kengaytirdi.

Post-travmatik stress buzilishi (PTSB) tadqiqotlari. Politsiya va harbiy xodimlar orasida PTSB rivojlanishi ehtimolining umumiy aholi bilan solishtirganda 3–5 barobar yuqori ekanligi aniqlangan (Violanti va Aron, 1995). Keyinchalik Chopko va boshqalar (2013) 900 dan ortiq politsiya xodimi ishtirokida o'tkazilgan keng qamrovli tadqiqotda xodimlarning 18,1 foizida klinik darajadagi PTSB alomatlari mavjudligi aniqlanib, bu natija ushbu muammoning jiddiyligini tasdiqladi.

Rezilentlik (chidamlilik) tadqiqotlari. 2000-yillardan boshlab "psixologik rezilentlik" tushunchasi markaziy o'ringa chiqdi. Bonanno (2004) va Luthar (2006) asarlarida rezilentlik statik xususiyat emas, balki rivojlantirilishi mumkin bo'lgan dinamik jarayon ekanligi ilmiy asoslab berildi. Bu nazariy o'zgarish psixoprofilaktik dasturlar ishlab chiqishga yo'l ochdi. Fyfe va Benner (2004) tadqiqotlari esa rezilentlik darajasi yuqori xodimlar kasbda samaraliroq ishlashini ko'rsatdi.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tadqiqotlari. Uchino (2004) va Kessler (2007) asarlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash (oilaviy, kasbiy, tengdosh yordami) psixik barqarorlikning eng kuchli prediktorlaridan biri ekanligi ko'p o'lchovli tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Politsiya xodimlariga nisbatan o'tkazilgan maxsus tadqiqotlarda (Shane, 2010) kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchli bo'lgan bo'limlarda xodimlar almashtirish ko'rsatkichi 40 foizga past ekanligi qayd etilgan.

Shaxsiyat xususiyatlari va seleksiya masalasi. AQSh, Germaniya va Skandinaviya mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlarda (Detrick va Chibnall, 2006) politsiyaga qabul qilish bosqichida psixologik skrining amalga oshirilgan hollarda xodimlarning kasbiy moslashishi ancha muвaффaqiyatli kechishi aniqlandi. "Big Five" shaxsiyat modeli doirasida emotsional barqarorlik (neyrotizmning past darajasi) kasbiy chidamlilikni bashorat qilishda eng ishonchli ko'rsatkich ekanligi tasdiqlandi.

So‘nggi yillarda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatida psixik barqarorlik muammosi psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Xodimlar faoliyatining yuqori stressogenligi, favqulodda vaziyatlarda ishlash, fuqarolar bilan murakkab kommunikativ munosabatlar hamda doimiy emotsional zo‘riqish psixik barqarorlikni ilmiy o‘rganish zaruratini kuchaytirmoqda.

Psixik barqarorlik shaxsning stress omillariga nisbatan chidamliligi, emotsional muvozanatni saqlash qobiliyati hamda kasbiy faoliyatni samarali davom ettirish imkoniyatini belgilovchi psixologik sifat sifatida talqin etiladi. Shu sababli ushbu muammo psixologik tadqiqotlarda ko‘p qirrali yondashuv asosida o‘rganilmoqda.

Psixik barqarorlik muammosi dastlab umumiy psixologiya va shaxs psixologiyasi doirasida stress va moslashuv nazariyalari bilan bog‘liq holda tadqiq etilgan. G. Selye tomonidan ishlab chiqilgan stress konsepsiyasi psixologiyada ekstremal vaziyatlarning inson organizmiga va psixikasiga ta’sirini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi. Keyinchalik bu yo‘nalish R. Lazarus va S. Folkman tomonidan kognitiv baholash va koping strategiyalar nazariyasi bilan rivojlantirildi.

Ichki ishlar xodimlari faoliyatida psixik barqarorlik masalasi harbiy va ekstremal psixologiya doirasida keng o‘rganilgan. Xorijiy tadqiqotlarda politsiya xodimlari yuqori darajadagi stressga ega kasb egalari sifatida ko‘rilib, ularda posttravmatik stress buzilishi (PTSB), emotsional kuyish sindromi va depressiv holatlar keng tarqalishi aniqlangan. Bunday tadqiqotlar ichki ishlar tizimida psixologik yordam va profilaktika dasturlarini ishlab chiqish zarurligini asoslab beradi.

Resilientlik (psixologik chidamlilik) konsepsiyasi zamonaviy tadqiqotlarda alohida o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, psixik barqarorlik shaxsning ichki resurslari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va moslashuv strategiyalarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. M. Ungar, A. Masten kabi olimlar rezilentlikni rivojlantirish orqali stressga chidamlilikni oshirish mumkinligini ta’kidlaydilar.

Rossiya va MDH davlatlari psixologiyasida V.A. Bodrov, A.A. Rean, E.F. Zeer kabi olimlar psixik barqarorlikni kasbiy faoliyat samaradorligi bilan bog‘liq integral sifat sifatida o‘rganib, uning tarkibiy komponentlarini emotsional, kognitiv va irodaviy tizimlar bilan izohlaganlar.

Mahalliy tadqiqotlarda esa ichki ishlar xodimlarining kasbiy deformatsiyasi, stressga chidamliligi va emotsional holati masalalariga e’tibor qaratilgan bo‘lib, psixologik treninglar va korreksion dasturlarni joriy etish zarurati ta’kidlanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixik barqarorlik muammosi ko‘p darajali va kompleks yondashuvni talab qiladi. Bir tomondan, u individual-psixologik xususiyatlar (temperament, emotsional barqarorlik, motivatsiya) bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy-psixologik omillar (jamoaviy muhit, rahbariyat bilan munosabat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash) bilan belgilanadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda psixik barqarorlikni faqat stressga chidamlilik emas, balki shaxsning o‘zini rivojlantirish, moslashish va o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyati sifatida qarash tendensiyasi kuchaymoqda.

Ichki ishlar xodimlarida psixik barqarorlik muammosi psixologik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, uning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari, shakllanish omillari va rivojlantirish texnologiyalari hali ham chuqur ilmiy izlanishlarni talab etadi. Mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar ichki ishlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishga hamda xodimlarning kasbiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Selye H. The Stress of Life. New York, 1956.
2. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal and Coping. New York, 1984.
3. Bodrov V.A. Psixologicheskiy stress. Moskva, 2006.
4. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo razvitiya. Moskva, 2019.
5. Masten A.S. Resilience theory and research on children and families. 2014.
6. Purba A., Demou E. Police stress and mental health: systematic review. BMC Public Health, 2019.

O‘QITUVCHI FAOLIYATIDA KOGNITIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

G‘aniyeva Adiba Tursinboy qizi UrIU

“Boshlang‘ich ta’lim va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada, kognitiv texnalogiyalar, o‘qituvchi faoliyatda kognitiv texnalogiyalardan foydalanish**.** Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash va ularda shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Kognitiv texnalogiyalar, motivatsiya, refleksiv, kasbiy tayyorgarlik, ta’lim texnologiyasi, kognitiv qiziqish, ijodiy qobiliyat, individual.

Аннотация: В данной статье когнитивные технологии, использование когнитивных технологий в педагогической деятельности. Высказано мнение о профессиональной подготовке будущих учителей и развитии их личностных способностей.

Ключевые слова: Когнитивные технологии, мотивация, рефлексивность, профессиональная подготовка, образовательная технология, познавательный интерес, творческая способность, личность.

Annotation: In this article, cognitive technologies, the use of cognitive technologies in teaching activities. An opinion was expressed about the professional training of future teachers and the development of their personal abilities.

Key words: Cognitive technologies, motivation, reflexive, professional training, educational technology, cognitive interest, creative ability, individual.

Kirish

Xalqaro miqyosda bo‘lajak mutaxassislarni innovatsion tayyorlash, zamonaviy ta’limni amalga oshirish bo‘yicha dunyoning yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahorati mezonlari, innovatsion ta’lim muhitini yaratish muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi tarkibini zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli qo‘llashning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o‘z-o‘zini baholash kabi indikatorlari asosida kengaytirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi.

Pedagogik jarayon murakkab tizimli hodisadir. Pedagogik jarayonning yuksak ahamiyati shaxsning kamolga yetish jarayonining madaniy, tarixiy va ijtimoiy ahamiyati bilan bog‘liq. Shu munosabat bilan pedagogik jarayonning asosiy o‘ziga xos xususiyatlarini tushunish, uning eng samarali oqimi uchun qanday vositalar kerakligini bilish juda muhimdir. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta’lim sharoitida o‘qitish usullari ta’lim maqsadlarini o‘zgartirish, kompetensiyaga asoslangan yondashuv asosida qurilgan yangi avlod davlat ta’lim standartini ishlab chiqish bilan bog‘liq murakkab davrni boshdan kechirmoqda. Bazaviy o‘quv rejasida alohida fanlarni o‘rganish uchun soatlar qisqartirilganligi sababli ham qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu holatlarning barchasi fanlarni o‘qitish metodikasi sohasida yangi pedagogik izlanishlarni, ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitish va tarbiyaning innovatsion vositalari, shakl va uslublarini izlashni taqozo etadi.

Asosiy qism

O‘rta kasb-hunar ta’limining asosiy maqsadi – o‘z mutaxassisligi bo‘yicha samarali kasbiy faoliyatga qodir, mehnat bozorida raqobatbardosh malakali mutaxassis tayyorlashdan iborat.[2] Ushbu muammoni o‘rganish bilan ko‘plab mahalliy va xorijiy mutaxasislar, pedagog olimlar, psixologlar shug‘ullanadi. Kognitiv psixologiya xorijiy psixologiyaning eng mashhur ilmiy yo‘nalishlaridan biridir. Rus tiliga tarjima qilingan “kognitiv” atamasi kognitiv degan ma’noni anglatadi. Ushbu tadqiqot yo‘nalishi asosan 1960-yillarda shakllangan bo‘lib, uning rivojlanishining birinchi bosqichi natijalari 1967-yilda nashr etilgan V.Nayserning “Kognitiv psixologiya” monografiyasida umumlashtirilib, psixologik fikrning yangi yo‘nalishiga nom berdi. R.Solso xuddi shu nom bilan keyinroq nashr etilgan kitobida kognitiv psixologiya odamlarning dunyo haqidagi ma’lumotni qanday qabul qilishini, bu ma’lumotlarning shaxs tomonidan qanday ifodalanishini, uning xotirada qanday saqlanib, bilimga aylanishini va bu qanday ekanligini o‘rganadi, bilim bizning e’tiborimiz va xatti harakatlarimizga ta’sir qiladi. Shunday qilib, deyarli barcha kognitiv jarayonlar qamrab olingan - hislardan tortib idrok etish, naqshni aniqlash, xotira, kontseptsiyani shakllantirish, fikrlash, tasavvur qilish. Kognitiv psixologiyaning bir necha o‘n yilliklar davomida ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan asosiy yo‘nalishlari odatda kognitiv tuzilmalarning rivojlanish psixologiyasi muammolari, til va nutq psixologiyasi, kognitiv nazariyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv jarayonida talabaning kognitiv va ijodiy faoliyatini amalga oshirish uchun ta’lim sifatini oshirish, o‘qish vaqtidan samarali foydalanish va o‘quvchilarning reproduktiv faolligi ulushini kamaytirish imkonini beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari yoshi va ta’lim darajasidan qat’i nazar, individuallashtirishga, o‘quv jarayonining masofali va o‘zgaruvchanligiga, talabalarning akademik harakatchanligiga qaratilgan. Ta’lim texnologiyasi – bu o‘quv jarayonini loyihalash, amalga oshirish, baholash, tuzatish va keyinchalik takrorlashning tizimli usuli. Ta’lim muassasalari, xususan, SPEda o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan ta’lim pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Ta’lim jarayoniga ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim va axborot texnologiyalarini joriy etish o‘qituvchiga bilimning chuqurligi va mustahkamligini ishlab chiqish, faoliyatning turli sohalarida ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash imkonini beradi, texnologik fikrlashni, o‘z ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish qobiliyatini rivojlantirish, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishda texnologik intizom talablariga qat’iy rioya qilish odatlarini tarbiyalash. Pedagogik texnologiyalarning keng ko‘lamli qo‘llanilishi o‘qituvchining o‘quv vaqtidan unumli foydalanishi va talabalarning bilim olishida yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Fan yo‘nalishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan mutaxassislarni an’anaviy tayyorlash zamonaviy talablardan tobora orqada qolmoqda. Ta’limning asosi o‘quv fanlari emas, balki fikrlash va harakat qilish usullari bo‘lishi kerak. Yuqori saviyada tayyorgarlikdan o‘tgan mutaxassisni nafaqat bo‘shatish, balki uni yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, muayyan ishlab chiqarish muhiti sharoitlariga moslashtirish, mustaqil ravishda o‘qitish bosqichiga ham kiritish zarur. Pedagogik faoliyatda innovatsion usullardan foydalanish tajribasiga asoslanib, ularning ayrim afzalliklarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirishning faol usullarini o‘rgatishda yordam beradi.[3] Shaxsiy ijtimoiy faollikning yuqori

darajasini o‘zlashtirish imkoniyatini berish, ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘rganmay qolmaydigan sharoitlarni yaratish, talabalarning ijodiy faolligini rag‘batlantirish, o‘qishni kundalik hayot amaliyotiga yaqinlashtirishga, fan bo‘yicha nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni, balki faol hayotiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi. Hozirgi bosqichda ta’lim, birinchi navbatda, shaxsni rivojlantirishga, uning faolligi va ijodiy qobiliyatlarini oshirishga,binobarin, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini nazorat qilish usullaridan foydalanishni kengaytirishga qaratilgan. O‘qitishning faol shakllari va usullari, bularning barchasiga qiziqish mavjud bo‘lgandagina erishish mumkin. Kognitiv qiziqish – bu o‘quv jarayoniga intellektual va hissiy munosabat, o‘quvchining o‘rganishga bo‘lgan intilishi, individual va umumiy vazifalarni bajarish, o‘qituvchi va boshqa talabalar faoliyatiga qiziqish. Kognitiv faollashtirish – bu maqsadli o‘rganish uchun doimiy motivatsiya jarayonidir. O‘quv jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligini shakllantirish muammosi zamonaviy pedagogika fanida eng muhim masalalardan biridir, chunki, ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni o‘quv va ijodiy natijalarga erishishga undash ko‘p jihatdan uning yechimiga bog‘liq. Bunday muammolar yechimi pedagog kadrlarning salohiyatini yanada yaxshilash, ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ham ruhan, ham jismonan kuchli bo‘lish deb qaraladi.[4]

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki pedagogik jarayon - bu ma’lum maqsadga erishishga qaratilgan va vaziyatning oldindan rejalashtirilgan o‘zgarishiga, o‘qituvchining xususiyatlari va fazilatlarini o‘zgartirishga olib keladigan pedagog va tarbiyachilarning rivojlanayotgan o‘zaro ta’siri bor. Boshqacha aytganda, pedagogik jarayon ijtimoiy tajribaning shaxs sifatlariga singib ketishi jarayonidir. Bu jarayonda pedagogdan ulkan bilim tajriba, malaka talab qilinadi. Xuddi shunday kognitiv-vizual ko‘nikmalar ham vaziyatga oldindan baho berish, muammolarni har tomonlama o‘rganish, ko‘plab malumotlar oqimini o‘z ongida tartibga solish, fikrlari va harakatlarida umumiylikka erisha olish o‘qituvchi uchun zaruriy omil ekan, kognitiv vizual ko‘nikmalarni rivojlantirish va o‘rganish dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyot va internet saytlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonuni. //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T. Sharq. 1997
2. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T. :TDPU, 2003.
3. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X.”Boshlang‘ich ta’limda innovatsiya”.T.,TDPU 2007-y.
4. Mavlanova R.A, Raxmonqulova N.X. ”Boshlang‘ich ta’limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya.” T., 2013.
5. http://ziyonet.uz/
6. http://pedagog.uz/
7. http://edu.uz/

BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

G’ayibova Shaxzoda Ozod qizi **Ma’munn universiteti Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bolalarda nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi. Nutqning shakllanishida bilish jarayonlari, tafakkur, xotira, diqqat, emotsional holat, oilaviy muhit hamda kattalar bilan muloqotning o‘rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha yosh davrida nutq rivojlanishining psixologik xususiyatlari va ularni qo‘llab-quvvatlashning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari bolalarda nutq rivojlanishini ta’minlashda psixologik va pedagogik omillarning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: nutq rivojlanishi, psixologik omillar, tafakkur, diqqat, xotira, muloqot, oilaviy muhit, maktabgacha yosh, bilish jarayonlari, emotsional rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на развитие речи у детей. Научно освещена роль познавательных процессов, мышления, памяти, внимания, эмоционального состояния, семейной среды и общения со

взрослыми в формировании речи. Также рассмотрены психологические особенности развития речи в дошкольном возрасте и эффективные методы их поддержки. Результаты исследования показывают взаимосвязь психолого-педагогических факторов в обеспечении развития речи у детей.

Ключевые слова: развитие речи, психологические факторы, мышление, внимание, память, общение, семейная среда, дошкольный возраст, познавательные процессы, эмоциональное развитие.

Abstract. This article analyzes the primary psychological factors influencing the development of speech in children. The role of cognitive processes, thinking, memory, attention, emotional state, family environment and communication with adults in the formation of speech is scientifically highlighted. It also examines the psychological characteristics of speech development in preschool age and effective methods for their support. The research results demonstrate the interdependence of psychological and pedagogical factors in ensuring speech development in children.

Keywords: speech development, psychological factors, thinking, attention, memory, communication, family environment, preschool age, cognitive processes, emotional development.

Kirish

Nutq insonning ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishi, atrof-muhit bilan muloqotga kirishishi va tafakkurini rivojlantirishida muhim vosita hisoblanadi. Inson hayotining barcha bosqichlarida nutq muhim ahamiyat kasb etadi, biroq uning shakllanish jarayoni ayniqsa bolalik davrida jadal kechadi. Nutq orqali bola atrofidagi olamni anglaydi, o‘z fikr va his-tuyg‘ularini ifodalaydi, kattalar va tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatadi. Shu sababli nutqning rivojlanishi bolaning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiylashuvining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Menimcha, nutq bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bola nutq orqali nafaqat o‘z fikrlarini ifodalaydi, balki atrofdagi dunyoni anglaydi va jamiyat bilan munosabatga kirishadi. Shuning uchun bolalik davrida nutqning to‘g‘ri va samarali rivojlanishi uning kelajakdagi shaxsiy, ijtimoiy va intellektual taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Bolalik davrida nutqning shakllanishi biologik omillar bilan bir qatorda psixologik va ijtimoiy omillarga ham bog‘liqdir. Nutq rivojlanishining fiziologik asosi bosh miya faoliyati va nutq apparatining yetukligi bilan belgilanadi. Biroq nutqning to‘laqonli rivojlanishi uchun bolaning faol muloqot muhiti, emotsional qo‘llab-quvvatlanishi va psixologik jihatdan qulay sharoitda tarbiyalanishi muhim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaning nutqiy faolligi uning bilish jarayonlari, emotsional holati va ijtimoiy muhiti bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Mening fikrimcha, bolaning nutqi faqat biologik rivojlanish natijasi emas, balki uning yashayotgan ijtimoiy va psixologik muhiti bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Bola o‘zini erkin his qiladigan, kattalar bilan faol muloqot qiladigan va qo‘llab-quvvatlanadigan muhitda nutqini tezroq rivojlantiradi. Shu sababli bolalarning nutqiy taraqqiyotini ta’minlashda nafaqat fiziologik omillarga, balki ularning emotsional holati va tarbiya muhitiga ham alohida e’tibor qaratish zarur.

Maktabgacha yosh davri nutq taraqqiyotining eng mas’uliyatli va sermahsul bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda bolaning lug‘at boyligi tez sur’atlarda ortib boradi, grammatik tuzilmalardan foydalanish ko‘nikmalari shakllanadi hamda muloqot ehtiyoji kuchayadi. Bola nafaqat yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi, balki ularni turli vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llashni ham o‘rganadi. Shu bilan birga, dialogik va monologik nutq elementlari rivojlanib, fikrni mustaqil ifodalash qobiliyati shakllana boshlaydi. Nazarimda, maktabgacha yosh davri bolaning nutqiy rivojlanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola yangi so‘zlarni o‘rganib, o‘z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalashni boshlaydi. Nutqning rivojlanishi esa uning keyingi ta’lim jarayonida muvaffaqiyatli o‘qishi va atrofdagilar bilan samarali muloqot qilishi uchun muhim asos yaratadi**.**

Nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar qatoriga tafakkur, xotira, diqqat, idrok va tasavvur kiradi. Tafakkur bolaning voqea-hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishlarni tushunishiga yordam bersa, xotira yangi so‘z va iboralarni eslab qolish imkonini yaratadi. Diqqat

esa nutqiy materiallarni qabul qilish va qayta ishlashda muhim rol o‘ynaydi. Idrok va tasavvur orqali bola atrofdagi predmet va hodisalarni anglaydi hamda ular haqidagi tasavvurlarini nutq yordamida ifodalaydi. Mazkur psixik jarayonlarning uyg‘un rivojlanishi bolaning nutqiy faoliyatini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Menimcha, bolaning nutqiy rivojlanishi uning psixik jarayonlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Tafakkur, xotira, diqqat, idrok va tasavvur qanchalik yaxshi rivojlansa, bola o‘z fikrlarini shunchalik aniq va ravon ifodalay oladi. Shu sababli bolalarda ushbu psixologik omillarni rivojlantirish nutq taraqqiyotini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, ota-onalar bilan muloqot sifati, oiladagi psixologik muhit va tengdoshlar bilan munosabatlar ham nutq taraqqiyotining muhim shartlaridan hisoblanadi. Oila bolaning birinchi ijtimoiy muhiti bo‘lib, nutqiy rivojlanishning dastlabki asoslari aynan shu muhitda shakllanadi. Ota-onalarning bolaga e’tibori, uning savollariga javob berishi, ertak va hikoyalar o‘qib berishi hamda muntazam suhbatlashib turishi nutq rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, muloqotning cheklanganligi yoki oiladagi salbiy psixologik muhit bolaning nutqiy faolligini pasaytirishi mumkin. O‘ylashimcha, bolaning nutqiy rivojlanishida oilaviy muhit va ota-onalar bilan bo‘ladigan muloqot juda muhim rol o‘ynaydi. Bola dastlabki nutqiy ko‘nikmalarni aynan oila ichida shakllantiradi, shuning uchun ota-onaning e’tibori, u bilan doimiy suhbatlashishi va kitob o‘qib berishi nutqning rivojlanishiga ijobiy ta’sir qiladi. Aksincha, muloqot yetishmasligi yoki salbiy muhit bolaning nutqiy faolligini susaytirishi mumkin.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bolaning nutqi faol muloqot jarayonida rivojlanadi. Kattalar tomonidan beriladigan nutqiy namuna, savol-javoblar, ertak va hikoyalar tinglash, o‘yin faoliyati hamda ta’limiy mashg‘ulotlar nutqning takomillashishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar, ijodiy mashg‘ulotlar va jamoaviy faoliyatlar bolalarda erkin fikrlash va nutqiy faollikni rivojlantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutq o‘stirish mashg‘ulotlari ham bolalarning so‘z boyligini kengaytirish va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Nazarimda, bolaning nutqi asosan faol muloqot va amaliy mashg‘ulotlar jarayonida rivojlanadi. Kattalar bilan suhbatlashish, ertak va hikoyalar tinglash, o‘yinlar va ta’limiy mashg‘ulotlarda ishtirok etish bolaning so‘z boyligini oshirib, fikrini erkin ifodalashga yordam beradi. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida bunday faoliyatlarni to‘g‘ri tashkil etish nutq rivojlanishi uchun juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalarining rivojlanishi bolalar nutqiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Televizor, telefon va planshetlardan haddan tashqari foydalanish ayrim hollarda jonli muloqotning kamayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois mutaxassislar bolalar bilan bevosita suhbatlashish, birgalikda kitob mutolaa qilish va o‘yin faoliyatini tashkil etishga alohida e’tibor qaratishni tavsiya etadilar. Chunki jonli muloqot bolaning nafaqat nutqini, balki uning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Menimcha, zamonaviy texnologiyalar bolalarning nutq rivojlanishiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Telefon va televizor kabi vositalardan ortiqcha foydalanish jonli muloqotni kamaytiradi va bu nutq rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun bolalar bilan ko‘proq bevosita muloqot qilish, kitob o‘qish va o‘yinlar tashkil etish ularning nutqiy hamda ijtimoiy rivojlanishi uchun muhimdir.

Shu sababli bolalarda nutq rivojlanishining psixologik omillarini o‘rganish pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish orqali bolalarning nutqiy salohiyatini yanada rivojlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish hamda barkamol avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiluvchi ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Mazkur maqolada bolalarda nutq rivojlanishining psixologik omillari, ularning mazmun-mohiyati hamda nutq taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mening fikrimcha, bolalarda nutq rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni o‘rganish juda muhim, chunki bu orqali ularning nutqiy salohiyatini to‘g‘ri rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, bunday tadqiqotlar ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi va bolalarning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli mazkur mavzuni o‘rganish pedagogika va psixologiya uchun dolzarb ahamiyatga ega.

Xulosa

Bolalarda nutq rivojlanishi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Nutq taraqqiyotida tafakkur, xotira, diqqat va idrok kabi bilish jarayonlari muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning bolaga bo‘lgan e’tibori va muntazam muloqoti nutq rivojlanishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda nutqning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun qulay emotsional muhit yaratish, ularni faol muloqotga jalb qilish, badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish hamda o‘yin faoliyatidan samarali foydalanish zarur. Demak, nutq rivojlanishini ta’minlashda psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi, 2006.
3. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2018.
4. Mo‘minova L., Ayupova M., Amirsaidova Sh., Nurmuhammedova L. Logopsixologiya. – Toshkent, 2007.
5. Sattorova D. Nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.
6. Maxmudova O.T., Mirzayeva R.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishining psixolingvistik asoslari. – Farg‘ona, 2024.

PAST BAHOLARNING BOLAGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Ibadullayeva Guli Ibadullayevna
Xorazm viloyati Yangiariq tumani
1-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi
Tohirova Dilafruz Baxtiyorovna
Xorazm viloyati Yangiariq tumani
31-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab yoshidagi o‘quvchilarga past baholarning psixologik ta’siri tahlil qilingan. Baholash jarayoni nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini, balki ularning emotsional holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘qishga motivatsiyasiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi yoritilgan. Maqolada A. Bandura, E. Deci va R. Ryan hamda J. Bowlby kabi olimlarning psixologik nazariyalariga tayangan holda, past baholarning bola psixikasiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, past baholarni to‘g‘ri talqin qilish va pedagogik yondashuv orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Maqola maktab psixologlari, o‘qituvchilar va ota-onalar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: past baho, o‘quvchi psixologiyasi, o‘ziga ishonch, motivatsiya, stress, xavotir, baholash tizimi, maktab psixologi, emotsional holat, pedagogik yondashuv.

Аннотация. В данной статье анализируется психологическое влияние низких оценок на учащихся школьного возраста. Процесс оценивания рассматривается не только как средство определения уровня знаний и навыков учащихся, но и как важный фактор, влияющий на их эмоциональное состояние, уверенность в себе и учебную мотивацию. В статье научно обосновано влияние низких оценок на психику школьников на основе психологических теорий Albert Bandura, Edward Deci, Richard Ryan и John Bowlby. Также рассмотрены педагогические и психологические подходы к снижению негативных последствий низких оценок. Статья представляет практическую значимость для школьных психологов, учителей и родителей.

Ключевые слова: низкая оценка, психология учащегося, уверенность в себе, мотивация, стресс, тревожность, система оценивания, школьный психолог, эмоциональное состояние, педагогический подход.

Abstract. This article analyzes the psychological impact of low grades on school-age students. The assessment process is considered not only as a tool for determining students’ knowledge and skills but also as an important factor affecting their emotional well-being, self-confidence, and learning motivation. The article scientifically examines the influence of low

grades on students' psychological state based on the theories of Albert Bandura, Edward Deci, Richard Ryan, and John Bowlby. In addition, pedagogical and psychological approaches aimed at reducing the negative consequences of low grades are discussed. The article has practical significance for school psychologists, teachers, and parents.

Keywords: low grades, student psychology, self-confidence, motivation, stress, anxiety, assessment system, school psychologist, emotional state, pedagogical approach.

Kirish

Maktab ta'lim tizimida baholash o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. U o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash, ta'lim samaradorligini baholash hamda o‘quv jarayonini tartibga solish vazifasini bajaradi. Biroq baholash faqat akademik natijani ko‘rsatib qolmay, balki o‘quvchining psixologik holatiga ham sezilarli ta'sir ko‘rsatishi mumkin.Ayniqsa past baholar o‘quvchilarda turli emotsional va kognitiv reaksiyalarni keltirib chiqaradi. Bu holat bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘qishga motivatsiyasi hamda sinfdagi faolligiga ta'sir etishi mumkin. Psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, maktab yoshidagi bolalar tashqi baholashga nisbatan juda sezgir bo‘lib, ular o‘z shaxsiy "men" obrazini ko‘p jihatdan o‘qituvchi va ota-ona munosabati asosida shakllantiradi.Shu sababli past baholarni faqat bilim yetishmovchiligi sifatida emas, balki o‘quvchining psixologik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil sifatida ham o‘rganish muhim hisoblanadi. Mazkur maqolada past baholarning o‘quvchi psixologiyasiga ta'siri, uning sabablari hamda pedagogik yondashuv orqali salbiy oqibatlarni kamaytirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda, maktab yoshidagi bolalar uchun baholash tizimi nafaqat bilimni aniqlash vositasi, balki shaxsning o‘zini anglash jarayoniga ham kuchli ta'sir etuvchi omil hisoblanadi. O‘quvchi berilgan bahoni ko‘pincha faqat topshiriq natijasi sifatida emas, balki o‘z qobiliyati va shaxsiy qiymati bilan bog‘lab qabul qiladi.

A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasida ta'kidlanishicha, insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchi (self-efficacy) tajriba va tashqi fikrlar asosida shakllanadi. Maktab sharoitida past baholar takrorlansa, o‘quvchida "men qila olmayman" yoki "men yetarlicha qobiliyatli emasman" degan ichki ishonch paydo bo‘lishi mumkin. Bu esa uning o‘qishga bo‘lgan faolligini pasaytiradi.

Edvard L. Desi va Richard M. Rayanning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasiga ko‘ra, inson motivatsiyasi uch asosiy ehtiyojga — kompetentlik, avtonomiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga bog‘liq. Agar o‘quvchi tez-tez past baho olsa, u o‘zini muvaffaqiyatsiz his qiladi va ichki motivatsiyasi susayadi. Natijada u faqat "jazodan qochish" uchun o‘qishga harakat qilishi mumkin, bu esa chuqur o‘rganishga to‘sqinlik qiladi.Amaliy kuzatuvlarga ko‘ra, past baho olgan o‘quvchilarda turli emotsional reaksiyalar kuzatiladi. Ba'zi bolalarda bu holat xavotir, o‘z fikrini bildirishdan qo‘rqish va uyatchanlikni kuchaytiradi. Ular darsda faol qatnashishdan tortinib, xatolardan qo‘rqishni boshlaydi. Boshqa holatlarda esa o‘quvchi himoya mexanizmi sifatida befarqlik yoki "men baribir o‘qimayman" degan munosabatni shakllantirishi mumkin.

Shuningdek, past baholar ijtimoiy munosabatlarga ham ta'sir ko‘rsatadi. O‘quvchi o‘zini sinfdoshlari bilan taqqoslashni boshlaydi va o‘zini ulardan pastroq deb his qilishi mumkin. Bu holat o‘z-o‘zini qadrlash (self-esteem) darajasining pasayishiga olib keladi.

J. Bowlbyning bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning emotsional barqarorligi kattalar bilan bo‘lgan munosabatga bog‘liq. Agar past baho qo‘llab-quvvatlash o‘rniga tanqid, kamsitish yoki solishtirish bilan birga bo‘lsa, bu bolaning ichki xavfsizlik hissini kamaytiradi. Aksincha, tushuntirish va qo‘llab-quvvatlash orqali bu salbiy ta'sir yumshatilishi mumkin.Shu bilan birga, past baho har doim ham salbiy hodisa sifatida qaralmasligi kerak. To‘g‘ri pedagogik yondashuvda u o‘quvchiga o‘z ustida ishlash, xatolarini tahlil qilish va rivojlanish uchun imkoniyat sifatida xizmat qiladi. Muhimi, baholash jarayoni jazolash emas, balki yo‘naltirish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Psixologik diagnostika ishlari

O‘quvchilarda past baholarning psixologik ta’sirini aniqlash uchun turli diagnostik metodlardan foydalaniladi. Bu usullar bolaning emotsional holati, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va o‘qishga motivatsiyasini baholashga yordam beradi.

1. Suhbat (individual intervyu). Psixolog o‘quvchi bilan erkin suhbat o‘tkazadi. Savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Past baho olganingizda o‘zingizni qanday his qilasiz?

Darsga munosabatingiz o‘zgarganmi?

O‘qituvchi fikri siz uchun qanchalik muhim?

Maqsad: bolaning subyektiv hissiyotlarini aniqlash.

2. Kuzatish metodi. Psixolog dars jarayonida o‘quvchini tabiiy muhitda kuzatadi:

faolligi

javob berishdan tortinishi

xatoga munosabati

Maqsad: real xulq-atvor orqali psixologik holatni baholash.

3. “O‘ziga baho berish shkalasi” (Dembo–Rubinshteyn usuli. O‘quvchi o‘zini turli sifatlar bo‘yicha baholaydi (aqllilik, faollik, ishonch).

Maqsad: o‘z-o‘zini baholash darajasini aniqlash.

4. Rasm testlari (proyektiv metodlar). Masalan:

“Men maktabda” mavzusida rasm chizish

“O‘zimni qanday his qilaman” rasmi

Maqsad: yashirin emotsional holatni aniqlash.

5. So‘rovnoma (anketa). Oddiy savollar orqali:

darsga qiziqish darajasi

bahoga munosabat

stress belgilarining mavjudligi

Maqsad: umumiy psixologik tendensiyalarni aniqlash.

Korreksion mashqlar (psixologik yordam usullari). Past baholar natijasida yuzaga keladigan salbiy psixologik holatlarni kamaytirish va o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini tiklash uchun quyidagi korreksion mashqlar tavsiya etiladi:

1. “Mening kuchli tomonlarim” mashqi. O‘quvchidan o‘zida mavjud 5 ta kuchli jihatni yozish so‘raladi (masalan: mehribonlik, diqqat, tez o‘rganish, ijodkorlik). Keyin psixolog yoki o‘qituvchi ularni muhokama qiladi. Maqsad: o‘z-o‘zini baholashni (self-esteem) oshirish.

2. “Xatodan o‘rganish” texnikasi. O‘quvchi past baho olgan vaziyatni yozadi va quyidagi savollarga javob beradi:

Men nimada xato qildim?

Keyingi safar nima o‘zgartiraman?

Bu xatodan nima o‘rgandim? Maqsad: xatoni muvaffaqiyatsizlik emas, o‘sish imkoniyati sifatida qabul qilish.

3. “Ijobiy ichki dialog” mashqi. O‘quvchi salbiy fikrni ijobiyga almashtirishni o‘rganadi:

“Men eplay olmayman” → “Men asta-sekin o‘rganib boryapman”

“Men yomon o‘quvchiman” → “Men harakat qilsam, yaxshilanishim mumkin”

Maqsad: ichki motivatsiyani kuchaytirish.

4. “Yutuqlar kundaligi”. O‘quvchi har kuni kichik bo‘lsa ham o‘z yutug‘ini yozib boradi (masalan: darsni tushundim, savolga javob berdim). Maqsad: ijobiy tajribani mustahkamlash va o‘ziga ishonchni oshirish.

5. Guruhiy “qo‘llab-quvvatlash doirasi”. Sinfda o‘quvchilar bir-birining ijobiy tomonlarini aytib berishadi. Maqsad: ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish va solishtirishni kamaytirish.

Ushbu mashqlar o‘quvchida past bahoga nisbatan salbiy emotsional reaksiyalarni kamaytiradi, o‘ziga ishonchni tiklaydi va o‘qishga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Eng muhimi — bahoni “yomonlik” emas, “rivojlanish signali” sifatida qabul qilishni o‘rgatadi.

Xulosa

Past baholar maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillardan biridir. Ular ayrim hollarda o‘ziga ishonchning pasayishi, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, xavotirning kuchayishi hamda o‘qishga bo‘lgan ichki motivatsiyaning susayishiga olib keladi. Ayniqsa, past baholar tanqid, solishtirish yoki jazolash bilan birga kechsa, bu holatlarning salbiy ta’siri yanada kuchayadi.Shu bilan birga, past baholarni faqat salbiy hodisa sifatida baholash ham to‘g‘ri emas. Psixologik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri yondashilganda, ular o‘quvchi uchun o‘z xatolarini anglash, bilimini mustahkamlash va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishini aniqlashga xizmat qilishi mumkin. Bunda o‘qituvchi va ota-onaning qo‘llab-quvvatlovchi munosabati muhim rol o‘ynaydi.

Maktab psixologi sifatida o‘quvchilarning emotsional holatini doimiy kuzatish, diagnostik usullar orqali muammolarni aniqlash va korreksion mashqlar orqali ularni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv o‘quvchilarda sog‘lom o‘z-o‘zini baholashni shakllantirish va barqaror motivatsiyani rivojlantirishga yordam beradi.Umuman olganda, baholash jarayoni faqat natijani belgilash emas, balki tarbiyaviy va psixologik jihatdan ham rivojlantiruvchi vosita bo‘lishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura A. *Social Learning Theory*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977. – 247 b.
2. Deci E.L., Ryan R.M. *Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior*. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 b.
3. Bowlby J. *Attachment and Loss: Vol. 1. Attachment*. – New York: Basic Books, 1969. – 428 b.
4. Woolfolk A. *Educational Psychology* (13th ed.). – Boston: Pearson Education, 2016. – 720 b.
5. Santrock J.W. *Educational Psychology*. – New York: McGraw-Hill Education, 2018. – 560 b.
6. Myers D.G. *Psychology* (10th ed.). – New York: Worth Publishers, 2013. – 640 b.
7. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
8. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimi va maktab psixologiyasi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar (amaliy tavsiyalar to‘plami). – Toshkent, 2020–2024.

TA'LIM JARAYONIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Jumanazarova Farangiz Bahodir qizi
Urganch davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Interfaol metodlarning o‘quvchilarning bilim olish faolligini oshirish, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, kommunikativ kompetentligini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini yuksaltirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida qo‘llanilayotgan interfaol metodlarning afzalliklari va ularni amaliyotga joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metodlar, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta'lim, o‘quv faoliyati, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ kompetentlik.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования интерактивных методов в образовательном процессе. Освещена роль интерактивных методов в повышении познавательной активности учащихся, развитии навыков самостоятельного мышления, формировании коммуникативной компетентности и повышении эффективности обучения. Также рассмотрены преимущества интерактивных

методов, используемых в современной системе образования, и вопросы их внедрения в практику.

Ключевые слова: Интерактивные методы, образовательный процесс, педагогические технологии, инновационное образование, учебная деятельность, эффективность образования, самостоятельное мышление, компетентностный подход, коммуникативная компетентность.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of using interactive methods in the educational process. The role of interactive methods in increasing students' learning activity, developing independent thinking skills, forming communicative competence, and increasing educational efficiency is highlighted. Also, the advantages of interactive methods used in the modern education system and the issues of their implementation in practice are considered.

Keywords: Interactive methods, educational process, pedagogical technologies, innovative education, educational activity, educational efficiency, independent thinking, competency-based approach, communicative competence.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va uning sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim o‘quvchilarning faqat bilim egallashiga emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, muammolarni hal qilishga va ijodiy yondashishga o‘rgatishni talab etadi. Shu sababli ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan interfaol metodlarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Interfaol metodlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi faol hamkorlikka asoslanib, ta'lim jarayonida barcha ishtirokchilarning faolligini ta'minlaydi. Ushbu metodlar yordamida o‘quvchilar bilimlarni tayyor holda qabul qilmay, balki mustaqil ravishda izlanadi, tahlil qiladi va xulosalar chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish masalasi pedagogika fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ushbu muammo ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda o‘quvchining ta'lim jarayonidagi faolligi, mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Amerikalik pedagog va faylasuf John Dewey o‘zining pragmatik ta'lim nazariyasida bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni amaliy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, o‘quvchilar bilimlarni tayyor holda qabul qilmasdan, balki mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirganda ta'lim samaradorligi ortadi. Shu jihatdan Dyuining qarashlari bugungi kunda qo‘llanilayotgan interfaol metodlarning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi.

Rus psixologi Lev Vygotsky tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasida ham ta'lim jarayonida hamkorlik va muloqotning muhim o‘rni alohida ko‘rsatib berilgan. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarni egallashida o‘qituvchi hamda tengdoshlar bilan hamkorlikning ahamiyatini asoslab bergan. Interfaol metodlar aynan shu hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar sohasida tadqiqot olib borgan Mikhail Klarin interfaol ta'limni o‘quvchilar faolligini oshiruvchi va o‘qitish jarayonini demokratlashtiruvchi vosita sifatida baholaydi. Uning tadqiqotlarida interfaol metodlar yordamida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, muloqot qilish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ta'kidlangan.

Mahalliy olimlardan Nodir Saidahmedov ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqqan. Olim interfaol metodlarning asosiy maqsadi o‘quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirishdan iborat ekanligini qayd etadi. Uning ilmiy ishlarida "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB", "Insert" kabi metodlarning afzalliklari batafsil yoritilgan.

Shuningdek, Boris Farberman o‘z tadqiqotlarida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil ishlash malakalarini rivojlantirish va

ta'lim sifatini yaxshilash mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Olimning fikricha, interfaol metodlar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim vositalaridan biridir.

O‘zbekistonlik pedagog olimlar Uktam Tolipov va Munojat Usmonboyeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham interfaol metodlarning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Ular kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o‘quvchilarning kasbiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib berganlar.

So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari interfaol metodlardan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi, darsga qiziqishi va o‘quv motivatsiyasi an'anaviy darslarga nisbatan yuqori bo‘lishini ko‘rsatmoqda. Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta'minlash bilan bir qatorda ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish, muammolarni hal etish va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar zamonaviy ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanib, ularning ta'lim jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois bugungi kunda interfaol metodlardan samarali foydalanish pedagogik faoliyatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Metodlar tahlili. Mazkur tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish;

qiyosiy tahlil metodi;

kuzatish metodi;

umumlashtirish metodi;

pedagogik tajribalarni o‘rganish metodi.

Mazkur metodlar orqali interfaol metodlarning ta'lim jarayoniga ta'siri, afzalliklari hamda ularning samaradorligi o‘rganildi.

Natijalar tahlili. Tadqiqot natijalari interfaol metodlardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Jumladan:

o‘quvchilarning darsdagi faolligi ortadi;

mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;

bilimlarni uzoq muddat eslab qolish darajasi oshadi;

kommunikativ kompetentlik shakllanadi;

guruhda ishlash va hamkorlik ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ayniqsa, "Aqliy hujum", "Klaster", "Baliq skeleti", "Insert", "BBB", "Debat" kabi interfaol metodlar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirib, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘lib, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Natijada o‘quvchilar ta'lim subyekti sifatida faol ishtirok etadilar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ta'lim samaradorligini yuksaltiradi. Shu bois barcha ta'lim muassasalarida interfaol metodlardan keng foydalanish va pedagoglarning ushbu metodlarni qo‘llash bo‘yicha malakasini oshirish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov U.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018.
3. Farberman B.L. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2016.
4. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. – Moskva, 2019.
5. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2018.
6. Dewey J. Democracy and Education. – New York, 2016.

7. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qaror va farmonlari.

ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ РЕСУРСЫ КАК ФАКТОР ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ВЫГОРАНИЯ

Н. Р. Жуманиязова
Университет Маъмуна, Хива, Узбекистан *nasibajumaniyozova80@gmail.com*

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение эмоциональных ресурсов в предотвращении профессионального выгорания. Профессиональное выгорание представляет собой негативное состояние, возникающее вследствие длительного стресса и эмоционального напряжения, оказывая отрицательное влияние на производительность труда, эмоциональную стабильность и личную жизнь человека. В качестве эмоциональных ресурсов рассматриваются способности человека управлять своими эмоциями, позитивное мышление, принятие социальной поддержки и показатели личностного развития. В статье предлагаются основные методы развития эмоциональных ресурсов для предотвращения профессионального выгорания, включая упражнения по самопознанию, обеспечение баланса между трудом и отдыхом, соблюдение здорового образа жизни и обращение за профессиональной помощью.

Ключевые слова: эмоциональные ресурсы, профессиональное выгорание, управление стрессом, эмоциональная стабильность, социальная поддержка, позитивное мышление, самопознание, профессиональное развитие, баланс труда и отдыха, здоровый образ жизни.

Annotation. This article analyzes the role and importance of emotional resources in preventing occupational burnout. Occupational burnout is a negative state that arises from prolonged stress and emotional strain, adversely affecting a person's work efficiency, emotional stability, and personal life. Emotional resources include an individual’s ability to manage their emotions, positive thinking, acceptance of social support, and indicators of personal development. The article suggests key methods for developing emotional resources to prevent occupational burnout, such as self-awareness exercises, maintaining a balance between work and rest, adhering to a healthy lifestyle, and seeking professional help.

Keywords: emotional resources, occupational burnout, stress management, emotional stability, social support, positive thinking, self-awareness, professional development, work-life balance, healthy lifestyle.

Для достижения успеха в профессиональной деятельности недостаточно лишь профессиональных навыков и знаний. Также имеет большое значение эмоциональное состояние человека и его способность справляться со стрессом. Профессиональное выгорание (burnout) является одной из серьезных проблем, с которыми сталкивается множество специалистов в современном мире [1].

В рамках исследования нам необходимо изучить профессиональное выгорание и его причины. Профессиональное выгорание — это состояние, возникающее в результате длительного стресса, чрезмерной нагрузки и эмоционального перенапряжения. Оно проявляется, главным образом, в трех основных признаках:

Физическая и эмоциональная усталость — человек постоянно чувствует себя уставшим, лишенным энергии.

Снижение личной продуктивности — пропадает интерес к работе, снижается продуктивность.

Внутренняя эмоциональная отстраненность — человек становится равнодушным, а иногда даже негативно настроенным по отношению к своей работе и окружающим [2,3].

Причин, вызывающих такое состояние, множество, включая увеличение объема работы, постоянный стресс, недостаток социальной поддержки и проблемы в личной жизни.

Изучая значимость эмоциональных ресурсов, мы можем прийти к выводу, что благодаря этим ресурсам можно уменьшить профессиональное выгорание, повысить качество работы и восстановить здоровье сотрудников. Эмоциональные ресурсы — это способность человека сохранять эмоциональную стабильность, эффективно справляться со стрессом и обеспечивать внутреннюю гармонию. Они включают в себя следующие элементы:

Самоосознание и самоконтроль — способность человека осознавать свои эмоции и управлять ими.

Позитивное мышление — не терять надежды даже в стрессовых ситуациях.

Принятие социальной поддержки — укрепление эмоциональных связей с семьей, друзьями и коллегами.

Личностное развитие — повышение мотивации через развитие своих навыков и постановку новых целей. нализируя пути развития эмоциональных ресурсов, можно отметить, что для предотвращения профессионального выгорания важно развивать эти ресурсы [4]. В этом помогут следующие методы:

Упражнения по самоосознанию. Медитация, ведение дневника или психологические тренинги могут быть эффективными для распознавания собственных эмоций и работы с ними.

Улучшение социальных взаимоотношений. Проведение времени с друзьями, коллегами и семьей помогает снизить уровень стресса и повысить эмоциональную устойчивость.

Баланс между работой и отдыхом. Соблюдение баланса между работой и личной жизнью позволяет предотвратить переутомление.

Придерживание здорового образа жизни. Регулярные физические упражнения, здоровое питание и качественный сон способствуют поддержанию эмоциональной стабильности.

Получение профессиональной помощи. При необходимости можно обратиться к психологу или тренеру, чтобы найти эффективные способы справляться со стрессом [5].

Вывод. Эмоциональные ресурсы являются ключевым фактором в предотвращении профессионального выгорания. Их развитие помогает человеку добиваться успеха не только в профессиональной, но и в личной жизни. Каждый специалист должен взять на себя ответственность за своё здоровье и эмоциональную устойчивость, сделав работу в этом направлении своей привычкой. Таким образом, человек сможет полностью реализовать свой потенциал и улучшить качество своей жизни.

Литература:

1. Профилактика синдрома профессионального выгорания педагогов: диагностика, тренинги, упражнения / Авт.-сост. О.И. Бабич. – Волгоград: Учитель, 2009.
2. Психология здоровья: учебник для вузов / Под ред. Г.С. Никифорова. — СПб.: Питер, 2003.
3. Федоренко Л.Г. Психологическое здоровье в условиях школы: Психопрофилактика эмоционального напряжения. – СПб., КАРО, 2003.
4. Шепель В.М. Как жить долго и радостно. – М.: АНТИКВА, 2006.
5. Эффективный учитель / Авт.-сост. О.М. Ольшевская. – Минск: Красико-Принт, 2010.

QANOAT HISSINING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI

Kalandarova Madina Baxadirovna
Ma’mun universiteti, Psixologiya kafedrasi professori v.b.,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayeva Mehriniso Maqsudbek qizi
Ma’mun universiteti Psixologiya yo‘nalishi talabasi

Annatatsiya: Ushbu maqolada qanoat hissining inson ruhiyatiga ta’siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Qanoat insonning mavjud imkoniyat va ne’matlardan mamnun bo‘lishi,

ortiqcha talab va cheksiz ehtiyojlar ta’siridan holi holda ichki muvozanatni saqlashi bilan tavsiflanadi. Tadqiqotda qanoat hissining shaxsning emotsional barqarorligi, stressga chidamliligi, hayotdan qoniqish darajasi hamda ijobiy fikrlash jarayonlariga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qanoat, qanoat hissi, inson ruhiyati, psixologik barqarorlik, emotsional holat, stressga chidamlilik, hayotdan qoniqish, shukronalik.

Аннотация: В данной статье с психологической точки зрения анализируется влияние чувства удовлетворенности на психику человека. Удовлетворенность характеризуется тем, что человек доволен имеющимися возможностями и благами, сохраняет внутренний баланс, свободный от избыточных требований и безграничных потребностей. В исследовании освещается влияние чувства удовлетворенности на эмоциональную устойчивость личности, стрессоустойчивость, уровень удовлетворенности жизнью и процессы позитивного мышления.

Ключевые слова: Удовлетворенность, чувство удовлетворенности, психика человека, психологическая устойчивость, эмоциональное состояние, стрессоустойчивость, удовлетворенность жизнью, благодарность**.**

Abstract: This article analyzes the impact of a sense of contentment on the human psyche from a psychological perspective. Contentment is characterized by a person's satisfaction with available opportunities and blessings, maintaining internal balance while being free from the influence of excessive demands and limitless needs. The study highlights the impact of a sense of satisfaction on an individual's emotional stability, stress resistance, life satisfaction, and positive thinking processes.

Keywords: Satisfaction, a sense of contentment, human psyche, psychological stability, emotional state, stress resistance, life satisfaction, gratitude.

Kirish: Qanoat insonning ma’naviy-axloqiy va psixologik hayotida muhim o‘rin egallovchi murakkab tushunchalardan biridir. Psixologiya fanida qanoat shaxsning o‘z ehtiyojlari, imkoniyatlari va mavjud hayotiy sharoitlariga nisbatan ongli ravishda ijobiy munosabatda bo‘lishi, mavjud ne’matlarni qadrlashi hamda ortiqcha norozilik va cheksiz istaklardan o‘zini tiyishi bilan izohlanadi. Bu tushuncha faqat moddiy holat bilan emas, balki insonning ichki ruhiy holati, emotsional barqarorligi va hayotdan mamnunlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy adabiyotlarda qanoat ko‘pincha “hayotdan qoniqish”, “subyektiv farovonlik” va “psixologik farovonlik” tushunchalari bilan yaqin aloqada ko‘rib chiqiladi.

Amerikalik psixolog Ed Diner subyektiv farovonlik nazariyasida insonning o‘z hayotiga bergan ijobiy bahosi uning umumiy ruhiy salomatligining muhim ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, insonning baxt hissi tashqi sharoitlargagina emas, balki ichki qoniqish va qanoat hissiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi. Demak, qanoat insonning ruhiy osoyishtaligini ta’minlovchi ichki psixologik mexanizmdir.

Qanoat hissi insonning ehtiyojlar tizimi bilan ham uzviy bog‘liq. A. Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, inson ehtiyojlari bosqichma-bosqich rivojlanadi va har bir ehtiyoj qondirilgandan so‘ng keyingi bosqichga o‘tiladi. Ammo cheksiz istaklar va ortiqcha havas insonda doimiy qoniqmaslik hissini yuzaga keltiradi. Qanoat esa ehtiyojlarni oqilona boshqarish, mavjud imkoniyatlarni qadrlash va ortiqcha ichki ziddiyatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababli qanoat shaxsning psixologik muvozanatini saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Psixologik nuqtai nazardan qanoat emotsional barqarorlikni ham mustahkamlaydi. Qanoatli insonlarda hasad, norozilik, tushkunlik va ruhiy bezovtalik kamroq uchraydi. Chunki ular hayotni faqat moddiy mezonlar bilan baholamaydi, balki ichki qadriyatlar va ma’naviy boyliklarga ham e’tibor qaratadi. Bu esa stressga chidamlilikni oshiradi. Stress ko‘pincha insonning kutilgan natija bilan real vaziyat o‘rtasidagi tafovutdan kelib chiqadi. Qanoat hissi esa ana shu tafovutni ruhiy jihatdan yengillashtiradi.

Qanoat hissi inson ruhiyatining barqarorligini ta’minlovchi muhim psixologik omillardan biridir. Psixologik nuqtai nazardan qanoat hissi — bu insonning o‘z hayotiy sharoiti, mavjud imkoniyatlari, erishgan natijalari va ijtimoiy mavqeidan ichki mamnunlik hissini tuyishi, ortiqcha

norozilik va cheksiz ehtiyojlar ta’siridan holi bo‘lishidir. Bu holat insonning ruhiy salomatligi, emotsional muvozanati va hayotdan qoniqish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Qanoat hissi insonni haddan tashqari xavotir, kelajakdan qo‘rquv va muvaffaqiyatsizlik hissidan saqlaydi. Natijada psixologik barqarorlik mustahkamlanadi. Martin Seligmanning pozitiv psixologiya nazariyasida qanoat hissiga yaqin bo‘lgan minnatdorlik, optimizm va ijobiy fikrlash tushunchalari inson baxtining asosiy omillari sifatida talqin qilinadi. Uning fikricha, inson faqat muammolardan xoli bo‘lish bilangina emas, balki ichki mamnunlik va ruhiy uyg‘unlik orqali baxtga erishadi. Qanoat hissi esa aynan shu ruhiy uyg‘unlikni shakllantiradi. Minnatdorlik hissi qanoatning kundalik hayotdagi amaliy ifodasidir. Inson ruhiyati murakkab psixologik jarayonlar, emotsiyalar, motivlar, ehtiyojlar va ichki kechinmalarning o‘zaro uyg‘un tizimidan iboratdir.

Ruhiyat insonning tashqi olamni qabul qilishi, unga munosabat bildirishi va o‘z xulq-atvorini boshqarishida asosiy omil hisoblanadi. Psixologiya fanida inson ruhiyati tafakkur, hissiyot, iroda, xotira, idrok va motivatsiya kabi ko‘plab komponentlar orqali o‘rganiladi. Aynan shu jarayonlar orasida qanoat hissi ruhiy barqarorlikni shakllantiruvchi muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qanoat hissining inson ruhiyatiga ta’sirini tushunish uchun avvalo ruhiy holatning mohiyatini anglash zarur. Ruhiy holat insonning ichki kechinmalari, hissiy reaksiyalari va tashqi muhitga moslashuv darajasini ifodalaydi.

Qanoat hissi insonni ehtiyojlarni me’yoriy baholashga o‘rgatadi va ruhiy bosimni kamaytiradi. Natijada insonning emotsional holati barqarorlashadi. Emotsional jihatdan qaralganda, qanoat hissi insonda ijobiy his-tuyg‘ularni kuchaytiradi. Minnatdorlik, xotirjamlik, ichki osoyishtalik va o‘ziga ishonch qanoatli insonlarda ko‘proq uchraydi. Aksincha, qanoatsizlik hasad, rashk, bezovtalik va doimiy norozilikni kuchaytiradi.

Martin Seligman pozitiv psixologiyada aynan ijobiy emotsiyalar ruhiy salomatlikni saqlashning muhim vositasi ekanligini ta’kidlaydi. Qanoat hissi esa bu ijobiy emotsiyalarning barqaror manbai hisoblanadi. Inson ruhiyatida stressga chidamlilik ham muhim ahamiyatga ega. Hayotdagi qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizliklar va kutilmagan muammolar har bir insonning ruhiyatiga ta’sir qiladi. Qanoat hissi mavjud vaziyatni oqilona qabul qilishga yordam beradi va insonni haddan tashqari ruhiy iztirobdan saqlaydi. Bu holat psixologik rezistentlik deb ataladi. Ruhiy jihatdan barqaror insonlar muammolarni hal qilishga ko‘proq e’tibor qaratadi, qanoatsiz insonlar esa ko‘proq ichki norozilik bilan yashaydi.

Qanoat hissi insonning psixologik barqarorligini ta’minlovchi muhim ichki omillardan biridir. Psixologik barqarorlik deganda shaxsning turli stressli vaziyatlarda o‘z emotsiyalarini boshqara olishi, ruhiy muvozanatini saqlashi va hayotiy qiyinchiliklarga moslashuvchan javob bera olishi tushuniladi. Bu jarayonda qanoat insonning ichki tayanchi sifatida namoyon bo‘lib, uning ruhiy holatini muvozanatda ushlab turadi.

Leon Festingerning ijtimoiy taqqoslash nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zini boshqalar bilan solishtirish orqali o‘z qadrini baholaydi. Agar bu taqqoslash doimiy ravishda o‘z foydasiga bo‘lmasa, qanoatsizlik, hasad va past o‘z-o‘zini baholash yuzaga keladi. Bu esa ruhiy bosimni kuchaytiradi

Qanoat hissi insonning stressga chidamliligini oshiruvchi muhim psixologik resurslardan biridir. Stressga chidamlilik (stress resilience) — bu insonning qiyin, noqulay yoki bosim ostidagi vaziyatlarga moslashishi, emotsional muvozanatini saqlashi va ruhiy tiklanish qobiliyatidir. Psixologik tadqiqotlarda bu xususiyat shaxsning ruhiy barqarorligi va hayotiy muvaffaqiyatida muhim omil sifatida ko‘riladi. Qanoat hissi esa aynan shu jarayonni mustahkamlovchi ichki tayanch vazifasini bajaradi. Stress nazariyalariga ko‘ra, inson stressni faqat tashqi voqealar sababli emas, balki ularni qanday qabul qilishi va baholashi orqali boshdan kechiradi. Richard Lazarusning kognitiv baholash nazariyasida stress vaziyatni idrok etish va talqin qilishga bog‘liq ekani ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Diener, E. (1984). *Subjective well-being*. Psychological Bulletin, 95(3), 542–575.

2. Diener, E., Lucas, R. E., & Oishi, S. (2002). *Subjective well-being: The science of happiness and life satisfaction*. In C. R. Snyder & S. J. Lopez (Eds.), Handbook of Positive Psychology. Oxford University Press.
3. Maslow, A. H. (1954). *Motivation and Personality*. Harper & Row.
4. Seligman, M. E. P. (2011). *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being*. Free Press.
5. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). *Stress, Appraisal, and Coping*. Springer.
6. Festinger, L. (1954). *A theory of social comparison processes*. Human Relations, 7(2), 117–140.

TALABALARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI SHAKLLANTIRISHDA OILANING AHAMIYATI

Karimova Nilufar Ulmassultanovna
Abu rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisd--a talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda oilaning tarbiyaviy resurslari va psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi oilaviy iqlim, muloqot uslubi va ota-ona namunasining talabaning fuqarolik tashabbusi hamda ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sirini asoslashdir. Metodologiya sifatida nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv va empirik ma'lumotlarni umumlashtirish qo'llanadi. Ilmiy yangilik oilaviy kapitalning ijtimoiy faollikka ta'sir kanallarini integrativ modelda izohlashidadir.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik; oilaviy iqlim; ota-ona namunasi; muloqot madaniyati; ijtimoiy kapital; fuqarolik tashabbusi; motivatsiya

Аннотация. В тезисе анализируются воспитательные ресурсы семьи и психологические механизмы формирования социальной активности студентов. Целью является обоснование влияния семейного климата, стиля общения и родительского примера на гражданскую инициативу и социальную ответственность студента. Методологически используются теоретический анализ, сравнительный подход и обобщение эмпирических данных. Научная новизна состоит в интегративной модели каналов влияния семейного капитала на социальную активность.

Ключевые слова: социальная активность; семейный климат; родительский пример; культура общения; социальный капитал; гражданская инициатива; мотивация

Abstract. This thesis examines family educational resources and psychological mechanisms shaping students' social activity. The aim is to substantiate how family climate, communication style, and parental role modeling influence civic initiative and social responsibility in university students. Methodology combines theoretical analysis, comparative reasoning, and synthesis of empirical evidence. Scientific novelty lies in an integrative model explaining pathways through which family capital transforms into stable prosocial engagement and socially responsible participation.

Keywords: social activity; family climate; parental role modeling; communication culture; social capital; civic initiative; motivation

Kirish

Talabalarda ijtimoiy faollik tushunchasi, avvalo, shaxsning jamiyat hayotidagi muammolarni anglash, ularni hal etishga yo'naltirilgan ixtiyoriy ishtirok va mas'uliyatli pozitsiyasi sifatida ta'riflanadi. Mazkur sifatning psixologik mexanizmi motivatsion soha, qadriyat yo'nalganligi, ijtimoiy o'zini identifikatsiya qilish hamda o'z-o'zini boshqarish jarayonlarining uyg'unlashuvi orqali yuzaga chiqadi, ya'ni talaba ichki ehtiyoj va ma'no tizimini jamoaviy foyda bilan bog'laganida faol xulq barqarorlashadi. Masalan, universitetdagi ko'ngillilar klubi yoki mahalladagi ekologik aksiyada doimiy qatnashadigan talaba o'zining shaxsiy rivojlanish maqsadini ijtimoiy foyda bilan qo'shib yuboradi va bu holat tashabbuskorlikni kuchaytiradi. Empirik kuzatuvlar va sotsiologik ma'lumotlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy

faollik ko‘rsatkichlari ko‘pincha oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan musbat bog‘lanadi; masalan, ota-ona bilan muntazam mazmunli muloqotga ega yoshlar jamoaviy tadbirlarda qatnashishga moyilroq bo‘lishi haqida turli tadqiqotlarda o‘rtacha kuchli korrelyatsiyalar qayd etilgan [1]. Ilmiy izoh shundaki, ijtimoiy faollik ijtimoiy o‘rganish va internalizatsiya qonuniyatlariga bo‘ysunadi: shaxs ijtimoiy me’yor va rollarni avval oilada kuzatadi, keyin ularni oliy ta’lim muhitida mustaqil amaliyotga aylantiradi, shu sabab oilaning dastlabki ta’siri “start kapital” vazifasini bajaradi [2].

Oilaning talaba ijtimoiy faolligiga ta’siri, eng avvalo, oilaviy iqlim tushunchasi bilan ifodalanadi, ya’ni uy sharoitidagi hissiy xavfsizlik, adolatli talabchanlik va o‘zaro hurmatning barqaror tizimi sifatida qaraladi. Ushbu iqlimning mexanizmi affektiv regulyatsiya va stressga chidamlilik orqali ishlaydi: qo‘llab-quvvatlovchi muhitda ulg‘aygan talaba noaniq vaziyatlarda ham ijtimoiy tashabbus ko‘rsatishdan qo‘rqmaydi, chunki u xatodan keyingi “psixologik tiklanish”ni tezroq amalga oshiradi. Masalan, bahs-munozara klubida yetakchilik qilayotgan talaba fikri rad etilganida ham muloqotni davom ettirishi ko‘pincha oiladagi tinglash va murosaga o‘rganganlik tajribasiga borib taqaladi. Taqqosiy tahlil nuqtayi nazaridan, avtoritar yoki sovuq iqlimli oilalarda o‘sgan yoshlar omma oldida chiqish yoki jamoadagi rolni olishda ehtiyotkorroq bo‘lishi, bu esa ishtirok chastotasini pasaytirishi mumkinligi turli psixologik kuzatuvlarda qayd etiladi; ayrim tadqiqotlarda hissiy qo‘llab-quvvatlash past bo‘lgan guruhlarda ijtimoiy tashabbus ko‘rsatish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pastligi ta’kidlanadi [3]. Ilmiy izoh sifatida shuni aytish joizki, oilaviy iqlim shaxsning “men-qobiliyat” haqidagi kognitiv sxemalarini shakllantiradi: ijobiy sxema ijtimoiy vazifalarni “yechiladigan” deb baholashga olib keladi, salbiy sxema esa ijtimoiy vazifalarni “xavfli” deb belgilab, qochish strategiyalarini kuchaytiradi.

Ota-ona namunasi ijtimoiy faollikni shakllantirishdagi alohida determinant sifatida ta’riflanadi, ya’ni farzand uchun ijtimoiy me’yorlar, mas’uliyat va hamkorlikning ko‘rinadigan modeli hisoblanadi. Mexanizm ijtimoiy o‘rganish orqali ishlaydi: talaba muayyan xulqni mukofotlanishini yoki ma’qullanishini kuzatganda, o‘sha xulqni o‘z repertuariga kiritadi va keyinchalik uni turli kontekstlarda takrorlaydi. Masalan, ota-onasi mahalla yig‘inlarida, xayriya tadbirlarida yoki ota-onalar qo‘mitasida faol bo‘lgan talaba “jamiyatga foyda keltirish”ni odatiy norma sifatida qabul qiladi va universitetda ham shunga o‘xshash tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy kapital nazariyasi doirasida turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ota-onaning fuqarolik ishtiroki farzandning ko‘ngillilik va jamoaviy faoliyatga qo‘shilish ehtimolini oshirishini ko‘rsatadi; umumlashtirilgan metatahlillarda bu ta’sir ko‘pincha kichikdan o‘rtacha darajagacha bo‘lgan effekt o‘lchamlari bilan ifodalanadi [4]. Ilmiy izoh shundaki, namuna nafaqat xulqni, balki xulqning ma’nosini ham uzatadi: ota-ona o‘z ishtirokini izohlab berganida, farzandda “ixtiyoriy mas’uliyat”ning semantik yadrosi shakllanadi va tashqi majburiyat ichki qadriyatga aylanadi.

Oilaviy muloqot madaniyati ijtimoiy faollikning kommunikativ poydevori sifatida ta’riflanadi, ya’ni fikr bildirish, tinglash, bahs yuritish va kelishuvga erishish ko‘nikmalarining uy sharoitida shakllangan tizimi. Mexanizm pragmatik til kompetensiyasi va empatiya rivoji orqali namoyon bo‘ladi: muloqotda “men-xabarlar”dan foydalanish, munozarada shaxsni emas, muammoni muhokama qilish kabi odatlar talabaning jamoada konstruktiv ishtirokini ta’minlaydi. Masalan, talabalar kengashi yig‘ilishida qarama-qarshi fikrlar paydo bo‘lganda, murosaga chaqira oladigan va dalil bilan gapira oladigan talaba ko‘pincha oilada shunday uslubni ko‘rgan bo‘ladi. Qiyosiy kuzatuvlarda oilada dialogik muloqot ustun bo‘lgan yoshlar konfliktni boshqarish strategiyalarida hamkorlikka yo‘nalganligi, dialog past bo‘lgan muhitda esa chekinish yoki tajovuzkor himoya ko‘proq uchrashi qayd etiladi; bunday farqlar treningdan oldingi va keyingi o‘lchovlarda ham sezilishi mumkin [5]. Ilmiy izoh shuki, kommunikativ kompetensiya ijtimoiy faollikning “instrumental komponenti”dir: niyat bo‘lsa ham, muloqot vositalari yetarli bo‘lmasa, tashabbus amaliyotga aylanmaydi, shu sabab oilada kommunikativ resursning erta shakllanishi keyingi ijtimoiy maydonlarda muvaffaqiyatni oshiradi.

Oilaning tarbiyaviy resurslarini tizimli ko‘rsatish uchun solishtirma tahlil va umumlashtirilgan model zarur bo‘ladi, chunki ijtimoiy faollik bir omil bilan emas, omillar to‘plami

bilan belgilanadi. Mexanizm darajasida bu omillar “oilaviy kapital” tushunchasida birlashadi: hissiy kapital (qo‘llab-quvvatlash), normativ kapital (qoidalar va mas’uliyat), hamda tarmoq kapitali (aloqalar va ko‘priklar) o‘zaro ta’sirlashib, talabaning ijtimoiy xulqiga yo‘nalish beradi. Masalan, hissiy kapital yuqori bo‘lsa, talaba tashabbus ko‘rsatadi; normativ kapital uyg‘un bo‘lsa, tashabbus intizom va etik me’yorlar bilan muvofiqlashadi; tarmoq kapitali keng bo‘lsa, talaba loyihaga hamkor topadi va resurs jalb qiladi. Statistik umumlashtirish nuqtayi nazaridan, yoshlar faolligini o‘lchaydigan so‘rovnomalarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ota-onaning ta’limga munosabati va uyda o‘qish uchun yaratilgan sharoitlar ko‘pincha bir-biri bilan bog‘liq klasterlar hosil qiladi; klaster tahlillarda ijobiy klasterga tushgan respondentlar jamoat ishlarida qatnashish chastotasi bo‘yicha yuqoriroq guruhni tashkil etishi ko‘rsatiladi [1; 4]. Ilmiy izoh shundaki, ijtimoiy faollik “ko‘payuvchi” xususiyatga ega: bir resurs boshqasini faollashtiradi, masalan, hissiy qo‘llab-quvvatlash o‘z-o‘ziga ishonchni oshiradi, ishonch esa muloqotga kirishish ehtimolini ko‘paytiradi, natijada tarmoq kengayadi va faollik barqarorlashadi.

Oilaning ta’sirini aniqroq tasvirlash maqsadida ijtimoiy faollikni shakllantirishning bosqichma-bosqich mexanizmini model qilish mumkin, ya’ni motivatsiya, ko‘nikma, tajriba va refleksiya ketma-ketligida. Mexanizmda birinchi bosqich qadriyatni uzatish bo‘lib, oilada “foydali bo‘lish” g‘oyasi kundalik hayotda kichik amallar bilan mustahkamlanadi; ikkinchi bosqichda muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi; uchinchi bosqichda talaba universitet muhitida ijtimoiy rollarni sinab ko‘radi; to‘rtinchi bosqichda esa refleksiya orqali shaxsiy pozitsiya barqarorlashadi. Masalan, uyda kichik aka-ukalariga mas’ul bo‘lib, vazifalarni taqsimlashga o‘rgangan talaba keyinchalik loyiha guruhida ham delegatsiya va nazoratni uyg‘unlashtira oladi. Raqamli ifoda sifatida, talabalarning jamoaviy loyiha va ko‘ngillilik soatlariga oid monitoringlarda odatda semestr davomida barqaror qatnashuvchilarning ulushi o‘zgaruvchan qatnashuvchilarga nisbatan kamroq bo‘ladi, biroq barqaror qatnashuvchilarda oilaviy qo‘llab-quvvatlash indikatorlari yuqoriroq chiqishi qayd etilgan holatlar uchraydi [5]. Ilmiy izoh shuki, refleksiya oilaviy tajribani ongli resursga aylantiradi: talaba oilada ko‘rganini avtomatik takrorlamay, universitet talablari va jamiyat ehtiyojlari bilan moslashtiradi, bu esa ijtimoiy faollikni mustaqil va mas’uliyatli shaklga olib chiqadi.

Quyidagi jadval oilaviy omillar va talaba ijtimoiy faolligining kutiladigan ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi solishtirma bog‘lanishni umumlashtiradi. Mexanizm nuqtayi nazaridan jadval “omil – psixologik vosita – xulqiy natija” zanjirini ko‘rsatadi, chunki ilmiy izchillik aynan vositachi komponentlarni ajratishni talab qiladi. Masalan, “oilaviy iqlim” bevosita faollikni emas, balki stressga chidamlilik va o‘ziga ishonchni kuchaytirib, faollikni oshiradi. Raqamli ifoda sifatida jadvalda 0 dan 3 gacha shartli ball berilgan bo‘lib, u nazariy umumlashtirishning intensivlik darajasini bildiradi va empirik tekshiruv uchun gipoteza sifatida xizmat qiladi. Ilmiy izoh shundaki, bunday jadval konseptual modelni operatsionallashtirishga yordam beradi, ya’ni keyingi tadqiqotlarda o‘lchash mumkin bo‘lgan indikatorlar tanlanadi va metodik dizayn aniqlashadi.

Ijtimoiy faollikni oilaviy kontekstda izohlashda “oilaviy kapital” tushunchasini ilmiy-metodik jihatdan aniqlashtirish zarur, chunki u turli komponentlarni yagona ramkaga keltiradi. Mexanizm sifatida oilaviy kapitalni shartli formulaga keltirish mumkin: OFK = HK + NK + TK, bu yerda OFK oilaviy kapital, HK hissiy kapital, NK normativ kapital, TK tarmoq kapitalini bildiradi, va bu formuladagi qo‘shish amali komponentlarning integratsiyasini anglatadi. Masalan, HK yuqori, NK past bo‘lsa, talaba ko‘ngilli bo‘lishi mumkin, ammo muntazamlik va va’daga sodiqlik sustlashishi ehtimoli ortadi; aksincha, NK yuqori, HK past bo‘lsa, tashqi intizom kuchli bo‘lib, ichki motivatsiya yetishmasligi sabab tashabbus “majburiyat” tusini olishi mumkin. Raqamli yondashuv nuqtayi nazaridan, so‘rovnomalarda ushbu komponentlar alohida shkalalar bilan o‘lchanib, umumiy indeks tuzilsa, regressiya tahlili orqali qaysi komponent ijtimoiy faollikning qaysi indikatorini kuchliroq bashorat qilishi aniqlanadi; bunday yondashuv psixometrik amaliyotda keng tarqalgan [2]. Ilmiy izoh shuki, formulaviy ifoda tushunchani soddalashtirmaydi, aksincha, murakkab tizimni tekshiriladigan gipotezalarga ajratadi va OAK talablari doirasida nazariy yangilikni aniq ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishda oila shaxsning dastlabki ijtimoiylashuv makoni bo‘lib, u hissiy xavfsizlik, normativ yo‘nalish va muloqot kompetensiyalari orqali barqaror ta’sir ko‘rsatadi. Oila ijtimoiy faollikni nafaqat qadriyat sifatida uzatadi, balki uni amalga oshirish uchun zarur psixologik vositalarni ham shakllantiradi, natijada talabaning tashabbusi ijtimoiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashadi. Ota-ona namunasi va dialogik muloqot uslubi ijtimoiy o‘rganish hamda internalizatsiya mexanizmlari orqali talabaning ko‘ngillilik, jamoada ishlash va fuqarolik tashabbusiga tayyorgarligini kuchaytiradi. Taklif etilgan integrativ model oilaviy kapital komponentlarini ajratib, ularning ijtimoiy faollik indikatorlariga turlicha ta’sir yo‘llarini ko‘rsatadi va keyingi empirik tekshiruv uchun o‘lchovli gipotezalar beradi. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari talabaning ijtimoiy faolligini oshirishda oilaviy omillarni inobatga olgan hamkorlik dasturlarini ishlab chiqsa, natijada ijtimoiy foydali ishtirok yanada barqaror va mazmunli shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Andreeva G. M. Sotsialnaya psikhologiya: uchebnik. Moskva: Aspekt Press, 2019. 560 s.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986. 617 p.
3. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge (MA): Harvard University Press, 1979. 330 p.
4. Coleman J. S. Foundations of Social Theory. Cambridge (MA): Belknap Press of Harvard University Press, 1990. 993 p.
5. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. Toshkent: O‘zbekiston, 2018. 352 b.
6. G‘oziyev E. G. Yosh davrlari psixologiyasi: darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2016. 328 b.

BOLALARDA BILISH JARAYONLARINING RIVOJLANISHI: SEZGI VA IDROKNING RIVOJLANISHI PSIXODIAGNOSTIKASI

Karimova Iroda Polatboyevna
Qo‘shko‘pir tumani 3-son DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqola bolalarda sezgi va idrok kabi psixik jarayonlarning rivojlanish xususiyatlarini psixodiagnostika qilishga bag‘ishlangan. Unda sezgi va idrok tushunchalari, ularning bolaning aqliy, nutqiy va ijtimoiy emotsional rivojlanishidagi fundamental ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu bilish jarayonlarining yosh davrlariga mos ravishda kechishi, diagnostika qilishning asosiy metodlari (kuzatish, eksperimental-o‘yin metodikalari, standartlashtirilgan testlar) atroflicha yoritilgan. Maqolada diagnostika natijalarini sifatli va miqdoriy tahlil qilish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlar tizimi (sensor o‘yinlar, didaktik materiallar, ota onalar va mutaxassislar bilan hamkorlik) batafsil bayon etilgan. Maqola psixologlar, pedagoglar, defektologlar hamda bolalarning rivojlanishiga qiziqadigan ota-onalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Sezgi, idrok, psixodiagnostika, bolalar psixologiyasi, rivojlanish psixologiyasi, sensor rivojlanish, korreksion ish, bilish jarayonlari, maktabgacha yosh.

Аннотация: Данная статья посвящена психодиагностике особенностей развития таких психических процессов у детей, как ощущение и восприятие. В ней рассматриваются понятия ощущения и восприятия, а также их фундаментальное значение в интеллектуальном, речевом и социально эмоциональном развитии ребенка. Подробно освещаются этапы протекания данных познавательных процессов в соответствии с возрастными периодами, а также основные методы диагностики (наблюдение, экспериментально игровые методики, стандартизированные тесты). В статье подробно описана система коррекционно-развивающей работы, направленной на устранение выявленных недостатков (сенсорные игры, дидактические материалы, сотрудничество с родителями и специалистами), а также качественный и количественный анализ результатов диагностики. Статья может быть полезна психологам, педагогам, дефектологам, а также родителям, интересующимся развитием детей.

Ключевые слова: Ощущение, Восприятие, Психодиагностика, Детская психология, Психология развития, Сенсорное развитие, Коррекционная работа, Познавательные процессы, Дошкольный возраст.

Annotation: This article is dedicated to the psychodiagnostics of the developmental features of mental processes such as sensation and perception in children. It examines the concepts of sensation and perception, as well as their fundamental importance in a child's intellectual, speech, and socio-emotional development. The article thoroughly covers the stages of these cognitive processes according to age periods, as well as the main diagnostic methods (observation, experimental-game techniques, standardized tests). The system of correctional developmental work aimed at eliminating identified deficiencies (sensory games, didactic materials, cooperation with parents and specialists), as well as qualitative and quantitative analysis of diagnostic results, is described in detail. The article may be useful for psychologists, educators, defectologists, and parents interested in child development.

Keywords: Sensation, Perception, Psychodiagnostics, Child psychology, Developmental psychology, Sensory development, Correctional work, Cognitive processes, Preschool age.

Kirish

Bolaning dunyoni bilishi va u bilan muloqotga kirishishining asosiy poydevori – bu uning sezgi va idrok jarayonlaridir. Sezgi va idrok psixikaning eng oddiy, shu bilan birga, fundamental jarayonlari bo‘lib, tashqi olamdan ma’lumotlarni qabul qilish va ularni qayta ishlashni ta’minlaydi. Ularning to‘g‘ri va o‘z vaqtida rivojlanishi bolaning aqliy, nutqiy, ijtimoiy va emotsional rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sezgi (ощущение) – bu psixikaning eng oddiy bilish jarayoni bo‘lib, tashqi olamdagi narsa va hodisalarning alohida xususiyatlarining (masalan, rang, tovush balandligi, hid, ta’m, silliqlik, iliqlik) bevosita sezgi organlariga (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri-taktil) ta’sir etishi natijasida aks etishidir. Har bir sezgi o‘zining maxsus analizatoriga (ko‘z, quloq, burun, til, teri) ega. Idrok (восприятие) – bu sezgiga nisbatan murakkabroq bilish jarayoni bo‘lib, narsa va hodisalarning yaxlit obrazini, ularning barcha xususiyatlari va qismlari birgalikda, bevosita sezgi organlariga ta’sir etgan paytda aks etishidir. Agar sezgi olmaning qizil rangini yoki shirin ta’mini aks ettirsa, idrok butun olmaning shakli, rangi, hajmi, ta’mi kabi xususiyatlarini yig‘indisini, ya’ni uning yaxlit obrazini shakllantiradi. Idrok tafakkur, xotira, e’tibor kabi boshqa psixik jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Bilish faoliyatining asosi: Sezgi va idrok orqali bola atrof-muhitni o‘rganadi, narsalarning xususiyatlarini farqlaydi, ularning nomi va vazifasini o‘rganadi. Bu bilishning boshlang‘ich nuqtasidir.

Asosiy qism

Nutq rivojlanishi: Nutq tovushlarini, so‘zlarni, gaplarni eshitish va idrok qilish nutqni tushunish va uni o‘zlashtirish uchun shartdir. O‘z navbatida, narsalarning obrazini idrok qilish ularni nomlash va so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Tafakkur rivojlanishi: Narsalarning xususiyatlarini farqlash, ularni guruhlash, solishtirish va umumlashtirish idrokning yuqori darajasi bo‘lib, mantiqiy tafakkur shakllanishiga zamin yaratadi. Harbiy faoliyat va harakat ko‘nikmalari: Makonni idrok qilish, o‘z tanasining holatini sezish, buyumlar orasidagi masofani chamalash kabi sezgi-idrok jarayonlari harakatlarni muvofiqlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni egallash uchun muhimdir. Ijtimoiy moslashish: Atrof-muhitni, odamlarni, ularning emotsiyalarini idrok qilish ijtimoiy muloqot va moslashishda katta rol o‘ynaydi.

O‘qish va yozish ko‘nikmalari: Harflarni, raqamlarni, ularning shaklini, yozuv satrlarini to‘g‘ri idrok qilish o‘qish va yozish jarayonlarining muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishi uchun asosiy shartdir. Sezgi va idrokning o‘z vaqtida va sifatli rivojlanmasligi bolaning keyingi o‘qishi, muloqotga kirishishi va umumiy rivojlanishida turli qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu jarayonlarni psixodiagnostika qilish va aniqlangan kamchiliklarni korreksiya qilish juda muhimdir.

Bolalarda sezgi va idrokning rivojlanishi murakkab va bosqichma-bosqich jarayon bo‘lib, har bir yosh davriga o‘ziga xos xususiyatlar xosdir. Bu jarayon bolaning markaziy nerv tizimining yetilishi, hayotiy tajribasining ortishi va faoliyatining boyishi bilan bog‘liq.

Rivojlanish xususiyatlari: Dinamiklik: Sezgi va idrok tug‘ilganidan boshlab doimiy ravishda rivojlanib boradi. Faoliyatga bog‘liqlik: Bolaning turli faoliyatlar (o‘yin, predmetli faoliyat, mehnat) davomida sezgi organlari rivojlanadi va idrok boyiydi. Tafakkur bilan bog‘liqlik: Dastlab sezgi va idrok his-tuyg‘uga asoslansa, yosh o‘sishi bilan ular tafakkur bilan bog‘lanib, ongli va maqsadga yo‘naltirilgan xarakter kasb etadi.

Individuallik: Har bir bolada sezgi va idrokning rivojlanish sur’ati va sifati individual bo‘lishi mumkin, ammo umumiy qonuniyatlar mavjud. Rivojlanish bosqichlari (taxminiy yoshga ko‘ra):

1. Chaqaloqlik davri (tug‘ilishdan 1 yilgacha): Sezgi organlari faollashadi. Bola yorug‘likni, tovushlarni sezadi. Ko‘rish orqali odamning yuzini tanishni, qo‘l harakatlari orqali narsalarning shakli va hajmini "paypaslab" o‘rganishni boshlaydi. Bu davrda elementar obrazli idrok shakllana boshlaydi.

2. Go‘daklik davri (1 yildan 3 yilgacha): Barcha sezgi turlari faol rivojlanadi, ranglar, shakllar, tovushlar aniq ajratiladi. Faol idrok shakllanadi. Bola buyumlar bilan faol harakat qiladi (ularni tashlaydi, silkitadi, ochadi), bu ularning xususiyatlarini chuqurroq idrok qilishga yordam beradi. "Sensor standartlar" (rang, shakl, hajm) bilan dastlabki tanishuv boshlanadi.

3. Maktabgacha yosh davri (3 yildan 7 yilgacha): Sezgilar differensiatsiyasi (farqlash) yanada takomillashadi. Idrok maqsadga yo‘naltirilgan va ongli bo‘ladi. Ko‘rish idroki: Ranglar (7 ta spektral rang va ularning tuslari), shakllar (geometrik figuralar), hajm, miqdor, fazoviy munosabatlar (o‘ngda, chapda, tepada, pastda) aniq idrok etiladi.

Eshitish idroki: Nutq tovushlari, nutqning intonatsion tomoni, musiqiy tovushlar, nutqiy bo‘lmagan tovushlar farqlanadi. Fonetik idrok rivojlanishi nutq rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Taktil-kinestetik idrok: Buyumlarning yuzasini (silliq, g‘adir-budur), harorati, og‘irligini, shaklini paypaslab aniqlash qobiliyati takomillashadi. Har bir yosh davrida bolalardagi bilish jarayonlarini rivojlanish dinamikasini kuzatib borish maqsadga muvofiqdir, sababi bolaning bilish sohasida nuqsoni borligini aynan maktabgacha yosh davrida erta aniqlab, shu asosda bola bilan uning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib rivojlantirish dasturiga ko‘ra bola bilan individual yoki guruhiy ishlar tashkil qilinsa bolaning rivojlanishda orqada qolishlari bartaraf qilinishiga erishiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sezgi va idrok bolalar bilish faoliyatining eng muhim va boshlang‘ich psixik jarayonlari hisoblanadi. Aynan ushbu jarayonlar orqali bola atrof-muhit haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantiradi, predmet va hodisalarning xususiyatlarini anglaydi hamda keyingi bilish jarayonlari – xotira, tafakkur, nutq va diqqat rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan asosni yaratadi. Sezgi va idrokning yoshga mos ravishda rivojlanishi bolaning intellektual, emotsional hamda ijtimoiy moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh davri sensor rivojlanish uchun eng qulay va sezgir davr hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarda rang, shakl, hajm, fazoviy munosabatlar, tovush va harakatlarni idrok etish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Shu sababli sezgi va idrokning rivojlanish darajasini muntazam psixodiagnostika qilish, mavjud qiyinchiliklarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixodiagnostik kuzatuvlar, eksperimental-o‘yin metodikalari va standartlashtirilgan testlar yordamida bolaning sensor va perceptiv rivojlanishidagi individual xususiyatlarni aniqlash mumkin. Olingan natijalar asosida sensor o‘yinlar, didaktik mashg‘ulotlar, rivojlantiruvchi muhit yaratish hamda ota-onalar va mutaxassislar bilan hamkorlikda olib boriladigan ishlar bolaning bilish jarayonlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, bolalarda bilish jarayonlari rivojlanishining dinamikasini muntazam kuzatib borish muhimdir. Chunki aynan maktabgacha yosh davrida aniqlangan rivojlanishdagi kamchiliklar o‘z vaqtida korreksiya qilinsa, bolaning keyingi ta’lim bosqichlarida uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarning oldini olish imkoniyati ortadi. Demak, sezgi va idrokni

rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik faoliyat bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishi, maktab ta’limiga muvaffaqiyatli tayyorlanishi va jamiyatga moslashuvining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘ulomov, D. (2018). Bolalar psixologiyasi. Toshkent: O‘qituvchi.
2. Karimova,S.A. (2020). Rivojlanish psixologiyasi: Sensomotor rivojlanish aspektlari. Toshkent: Fan.
3. Mirziyoyev,I.I. (2017). Umumiy psixologiya asoslari. Toshkent: Yangi Asr Avlodi.
4. Sodiqova, N. (2019). Maktabgacha yoshdagi bolalarda idrokni rivojlantirish metodikasi. Toshkent: Adabiyot.
5. Zohidov, A. M. (2021). Korreksion pedagogika va maxsus psixologiya. Toshkent: Innovatsiya Выпуск журнала №-26

ONALIKKA MOSLASHUV JARAYONIDA EMOTSIONAL FAROVONLIK VA IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘RNI

Kalandarova Madina Baxadirovna
Ma’mun universiteti, Psixologiya kafedrasi professori v.b.,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Mazkur tezisda onalikka moslashuv jarayonida emotsional farovonlik hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning psixologik ahamiyati tahlil qilingan. Tug‘ruqdan keyingi davr ayol hayotidagi murakkab biopsixososial moslashuv bosqichi sifatida baholanib, unda depressiv holatlar, xavotir, emotsional charchoq va hayot sifati pasayishi kabi psixologik holatlar kuzatilishi mumkinligi ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning emotsional barqarorlik, onalikdan qoniqish va psixologik moslashuvdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tug‘ruqdan keyingi davr, emotsional farovonlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, tug‘ruqdan keyingi depressiya, xavotirlanish, hayot sifati, onalikdan qoniqish.

Аннотация. В данном тезисе анализируется психологическая значимость эмоционального благополучия и социальной поддержки в процессе адаптации к материнству. Послеродовой период оценивается как сложный этап биопсихосоциальной адаптации в жизни женщины, в котором на основе научных источников могут наблюдаться такие психологические состояния, как депрессивные состояния, тревожность, эмоциональная усталость и снижение качества жизни. Также проанализирована роль социальной поддержки в эмоциональной стабильности, удовлетворенности материнством и психологической адаптации.

Ключевые слова: Послеродовой период, эмоциональное благополучие, социальная поддержка, послеродовая депрессия, тревожность, качество жизни, удовлетворенность материнством.

Abstract. This thesis analyzes the psychological significance of emotional well-being and social support during the process of maternal adaptation. Based on scientific sources, the postpartum period is assessed as a complex stage of biopsychosocial adaptation in a woman's life, during which psychological states such as depression, anxiety, emotional exhaustion, and a decrease in quality of life can be observed. The role of social support in emotional stability, maternal satisfaction, and psychological adaptation is also analyzed.

Keywords: Postpartum period, emotional well-being, social support, postpartum depression, anxiety, quality of life, maternal satisfaction.

Kirish. Bugungi kunda dunyo miqyosida ayollar ruhiy salomatligini saqlash, ayniqsa tug‘ruqdan keyingi davrda kuzatiladigan psixoemotsional buzilishlarning oldini olish va ularni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash masalasi sog‘liqni saqlash hamda psixologiya fanining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha millionlab ayollarda tug‘ruqdan keyingi davrda depressiv holatlar, xavotir, emotsional kuyish va ijtimoiy dezadaptatsiya holatlari kuzatiladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, tug‘ruqdan keyingi depressiya simptomlari o‘rtacha 10–20 % ayollarda uchrashi aniqlangan bo‘lib, ayrim ijtimoiy xavf guruhlarida ushbu ko‘rsatkich yanada yuqori ekanligi qayd etilgan [1].

Tug‘ruqdan keyingi davr ayol uchun yangi ijtimoiy maqom — “ona” roliga moslashuv bosqichi bo‘lib, u fiziologik, psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan kechadi. Mazkur davrda ayollarda xavotir, emotsional beqarorlik, charchoq, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy dezadaptatsiya holatlari kuzatilishi mumkin [2]. Ayniqsa, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi postpartum depressiya va psixologik stress rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida qayd etiladi [3].

Zamonaviy tadqiqotlarda emotsional farovonlik ayolning ruhiy barqarorligi, hayot sifati, onalikdan qoniqishi va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan uzviy bog‘liq fenomen sifatida talqin qilinmoqda [4]. Tadqiqotchilar yaqin insonlar, turmush o‘rtog‘i va oila tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash ayollarning postpartum davrga moslashuvini sezilarli darajada yengillashtirishini ta’kidlaydilar [5].

Mazkur holatlar onalikning ilk davrlarida ayollar emotsional farovonligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xususiyatlarini o‘rganishning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Ilmiy tadqiqotlar tug‘ruqdan keyingi davrda ayollarning emotsional farovonligi ko‘plab ijtimoiy va psixologik omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Xususan, Dennis va Ross tadqiqotlarida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning past darajasi postpartum depressiyaning asosiy prediktorlaridan biri sifatida qayd etilgan [6].

Shuningdek, Beck tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda postpartum depressiyaga olib keluvchi omillar qatoriga oilaviy nizolar, ijtimoiy izolyatsiya, emotsional charchoq va ota-onalik stressi kiritilgan [7]. Tadqiqotchilar ayolning o‘zini ona rolida muvaffaqiyatli his qilishi va onalikdan qoniqishi emotsional barqarorlikning muhim ko‘rsatkichi ekanligini ta’kidlaydilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, postpartum davrda ayollarning emotsional farovonligini saqlashda psixoprofilaktik ishlar, oilaviy psixologik maslahat va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi [9].

1. **Emotsional barqarorlikni ta’minlaydi.** Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ayolda xavfsizlik, tushunilganlik va qadrlanish hissini shakllantiradi. Bu esa postpartum davrda kuzatiladigan: emotsional beqarorlik, xavotir, yolg‘izlik hissi, depressiv simptomlar darajasini kamaytiradi. Cohen va Willsning “stress-buffering hypothesis” nazariyasiga ko‘ra, ijtimoiy support stressning psixik salbiy ta’sirini yumshatuvchi “himoya omili” vazifasini bajaradi [1]. Psixologik mexanizmi:

emotsional ventilyatsiya;

affektiv qo‘llab-quvvatlash;

stressni subyektiv baholashning pasayishi.

2. **Postpartum depressiya xavfini kamaytiradi.** Ko‘plab tadqiqotlarda ijtimoiy support postpartum depressiyaning eng muhim protektiv omillaridan biri sifatida qayd etiladi. Dennis va Ross tadqiqotlariga ko‘ra: turmush o‘rtog‘i tomonidan qo‘llab-quvvatlanmagan ayollarda postpartum depressiya xavfi bir necha barobar yuqori kuzatilgan [2].

Ayniqsa: turmush o‘rtog‘i, ona, yaqin qarindoshlar, do‘stlar tomonidan ko‘rsatiladigan yordam depressiv simptomlarning kamayishiga olib keladi. Muhim jihat: Subyektiv his qilinadigan support (“perceived support”) real yordam hajmidan ham muhimroq hisoblanadi.

3. **Onalik identifikatsiyasining shakllanishiga yordam beradi.** Tug‘ruqdan keyingi davrda ayol yangi ijtimoiy rol — “ona” maqomini qabul qiladi. Bu murakkab psixologik restrukturizatsiya jarayonidir. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash: ayolning o‘zini kompetent ona sifatida his qilishiga; onalikdan qoniqishning ortishiga; onalik self-effektivligining shakllanishiga yordam beradi. Bandura nazariyasiga ko‘ra, tashqi qo‘llab-quvvatlash self-efficacy rivojlanishining asosiy manbalaridan biridir [3].

4. **Stress va psixoemotsional yuklanishni kamaytiradi.** Tug‘ruqdan keyingi davr: uyqusizlik, doimiy parvarish, fiziologik tiklanish, yangi mas’uliyat bilan bog‘liq yuqori stressli bosqich hisoblanadi. Ijtimoiy support: kundalik yuklamani taqsimlaydi; emotsional charchoqni

kamaytiradi; ota-onalik stressini pasaytiradi. Natijada: emotsional kuyish, irritativlik, affektiv zo‘riqish kamroq kuzatiladi.

5. **Psixologik moslashuvni kuchaytiradi.** Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ayolning: yangi hayot tarziga, oilaviy rollardagi o‘zgarishlarga, “ona–bola” diadasiga moslashuvini yengillashtiradi. Moslashuvning asosiy ko‘rsatkichlari: emotsional qoniqish, hayot sifati, ijtimoiy faollik, psixologik rezilyentlik.

6. **Hayot sifati va subyektiv farovonlikni oshiradi.** Ijtimoiy support mavjud bo‘lgan ayollarda: hayotdan mamnunlik, psixologik farovonlik, kelajakka ijobiy munosabat yuqoriroq bo‘ladi. PQoL tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yuqori support: jismoniy, emotsional, oilaviy, ijtimoiy hayot sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvat

Xulosa. Tug‘ruqdan keyingi davr davr ayol hayotidagi murakkab psixologik moslashuv bosqichi hisoblanib, unda emotsional farovonlik ko‘plab ijtimoiy va psixologik omillar bilan belgilanadi. Tadqiqotlar natijasida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ayollarning depressiv simptomlari, postpartum xavotiri, hayot sifati va onalikdan qoniqish ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqligi aniqlandi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetarli darajada mavjudligi ayollarning psixologik moslashuvini yengillashtirib, emotsional barqarorligini mustahkamlaydi hamda postpartum davrda psixologik xavf omillarining kamayishiga xizmat qiladi. Shu sababli tug‘ruqdan keyingi davrda ayollarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, erta psixodiagnostika va psixoprofilaktik dasturlarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Maternal mental health. — Geneva: WHO, 2022.
2. Brockington I. Postpartum psychiatric disorders // The Lancet. — 2004. — Vol. 363.
3. Dennis C.L., Ross L. Women’s perceptions of partner support and postpartum depression // Journal of Advanced Nursing. — 2006.
4. Ryff C. Psychological well-being revisited // Psychotherapy and Psychosomatics. — 2014.
5. Cohen S., Wills T. Stress, social support and the buffering hypothesis // Psychological Bulletin. — 1985.
6. Dennis C.L. Influence of social support on postpartum depression // Canadian Journal of Psychiatry. — 2003.
7. Beck C.T. Predictors of postpartum depression // Nursing Research. — 2001.
8. Zimet G.D. The Multidimensional Scale of Perceived Social Support // Journal of Personality Assessment. — 1988.
9. O‘Hara M., McCabe J. Postpartum depression: current status and future directions // Annual Review of Clinical Psychology. — 2013.

YOSH DAVRLARIDAGI INQIROZLAR PSIXOLOGIK FAROVONLIK PASAYISHIGA TA’SIR QILUVCHI OMIL SIFATIDA

Kasimova Xulkar Atabayevna

Ma’mun universiteti psixologiya kafedrasi dotsenti, PhD

*Tel: 90-436-50-50 E mail:*x.a.kasimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yosh davri inqirozlarining psixologik farovonlikka ta’siri hamda ontogenezning turli bosqichlarida psixologik farovonlikni belgilovchi omillar tahlil qilinadi. Yosh inqirozlarining nazariy asoslari, ularning shaxs rivojlanishidagi o‘rni va psixologik farovonlik bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, yoshlik, o‘rta yetuklik va kechki yetuklik davrlarida uchraydigan rivojlanish jarayonlari, inqirozli holatlar hamda ularning insonning hayotdan qoniqishi va emotsional holatiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik farovonlik, yosh inqirozi, subyektiv yosh, yoshlik davri, o‘rta yetuklik, kechki yetuklik, hayotdan qoniqish, shaxs rivojlanish.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние возрастных кризисов на психологическое благополучие, а также факторы, определяющие психологическое благополучие на различных этапах онтогенеза. Освещены теоретические основы

возрастных кризисов, их роль в развитии личности и взаимосвязь с психологическим благополучием. Также рассмотрены процессы развития, кризисные ситуации, возникающие в периоды юности, средней зрелости и поздней зрелости, а также их влияние на удовлетворенность жизнью и эмоциональное состояние человека.

Ключевые слова: психологическое благополучие, возрастной кризис, субъективный возраст, молодость, средняя зрелость, поздняя зрелость, удовлетворенность жизнью, развитие личности.

Abstract. This article analyzes the impact of age-related crises on psychological well-being and the factors that determine psychological well-being at various stages of ontogenesis. The theoretical foundations of age-related crises, their role in personal development, and their relationship with psychological well-being are highlighted. It also examines the developmental processes, crisis situations, and their impact on a person's life satisfaction and emotional state occurring during adolescence, middle maturity, and late maturity.

Keywords: psychological well-being, age crisis, subjective age, youth, middle maturity, late maturity, life satisfaction, personal development.

So‘nggi yillarda insonning psixologik farovonligi masalasi psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, turmush sur’atining jadallashuvi hamda inson oldiga qo‘yilayotgan yangi talablar shaxsning ruhiy salomatligi va hayotdan qoniqish darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli psixologik farovonlikni ta’minlovchi va unga salbiy ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Shaxs rivojlanishi uzluksiz jarayon bo‘lib, u turli yosh bosqichlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar va inqirozlar bilan tavsiflanadi. Yosh inqirozlari inson hayotining muhim burilish nuqtalari bo‘lib, ular bir tomondan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish uchun zarur sharoit yaratsa, ikkinchi tomondan psixologik farovonlikning pasayishi xavfini ham oshirishi mumkin. Ayniqsa, yoshlik, o‘rta yetuklik va kechki yetuklik davrlarida shaxs oldida yangi ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish, hayotiy maqsadlarni qayta ko‘rib chiqish hamda qarish jarayoniga moslashish kabi murakkab vazifalar yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotda yosh davri inqirozlarining psixologik farovonlikka ta’siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi hamda ontogenezning turli bosqichlarida psixologik farovonlikni belgilovchi omillar yoritiladi. Shuningdek, inqirozli davrlarda shaxsning ichki resurslari va moslashuv imkoniyatlarini aniqlashning psixologik farovonlikni saqlash hamda mustahkamlashdagi ahamiyati ochib beriladi.

Hozirgi kunda “yosh inqirozi” tushunchasining aniq yosh chegaralari va yagona ta’rifi yo‘q. Turli rivojlanish nazariyalarida bu tushuncha har xil izohlanadi. Shunga qaramay, ko‘pchilik nazariyalarda yosh inqirozi inson hayotidagi muhim burilish davri sifatida qaraladi. Ya’ni bu davrda shaxsda jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi va u rivojlanishning keyingi, yanada yuqori bosqichiga o‘tish uchun zarur bosqich hisoblanadi.

Erik Erikson tomonidan epigenetik rivojlanish modeli doirasida yosh davrlaridagi inqirozlarning eng umumiy ta’rifi taklif etilgan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, yosh inqirozlari ontogenez jarayonining nisbatan qisqa davom etadigan, ammo psixik jarayonlarda keskin o‘zgarishlar bilan kechadigan maxsus davrlaridir. Ular normativ rivojlanish jarayoniga mansub bo‘lib, shaxsning me’yoriy rivojlanishining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Inson hayoti davomida yosh inqirozlari bir martalik hodisa emas, balki bir necha marotaba uchraydigan jarayondir. Eng ko‘p o‘rganilgan inqirozlar bolalik davriga 1 yosh, 3 yosh, 7 yosh hamda pubertat balog‘atga yetish davriga to‘g‘ri keladi. Biroq bu holat yetuklik va kechki yetuklik yosh davrlarida bunday inqirozlar kuzatilmaydi degan xulosani bermaydi. Bundan tashqari, ushbu davrda shaxslararo yaqin munosabatlar shakllanadi, ota-ona oilasidan psixologik ajralish (separatsiya) jarayoni amalga oshadi hamda mustaqil oilalar barpo etiladi. Yoshlar yangi ijtimoiy rollarni yani er-xotin, ota-ona va shu kabi boshqa rollarni faol ravishda o‘zlashtiradilar .

Ushbu davr ko‘pchilik insonlar uchun stressli va keskin bosqich hisoblanadi. Bu davrda yoshlar tez-tez o‘quv yurtini o‘zgartirishi, o‘qishni tashlab qo‘yishi, ish joyini yoki kasbiy faoliyat yo‘nalishini almashtirishi kabi holatlar kuzatiladi.

Mazkur yosh davrining qaror qabul qilish vaziyatlariga juda boy bo‘lishi uni turli emotsional muammolar rivojlanishi uchun xavf zonasi sifatida tavsiflashga asos bo‘ladi. Bular jumlasiga tashvish, depressiya, agressiya va boshqa psixologik noqulay holatlar kiradi. Bu esa o‘z navbatida psixologik farovonlikning pasayishiga olib keladi. Garchi shartli ravishda 30 yosh inqiroz davri deb hisoblanadigan bo‘lsa-da, hayotdan qoniqish darajasiga ta’sir qiluvchi yuqoridagi jarayonlar zamonaviy jamiyatda 20 yoshdan boshlanadi va taxminan 30 yoshga kelib o‘zining eng yuqori nuqtasiga yetadi. Shundan so‘ng inqiroz holatlarining keskinligi asta-sekin kamayib boradi.

Erik Erikson, David Birren, George Craig, Daniel Feldstein va V. Quing kabi turli davriylashtirish konsepsiyalariga ko‘ra, o‘rta yetuklik davri taxminan 25 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan oraliqni qamrab oladi. Ushbu davr ichida eng inqirozli bosqich sifatida odatda 40 yosh alohida ajratilib, u ko‘pincha “qirq yoshlar inqirozi” deb yuritiladi. Mazkur inqiroz o‘rta yetuklik davrining markaziy nuqtasi bo‘lib, insonni o‘z hayot yo‘lini qayta ko‘rib chiqish jarayoniga olib kiradi va uni asta-sekin keyingi bosqich — kechki yetuklik davriga tayyorlaydi. Shu sababli, psixologik farovonlik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida o‘rta yetuklik davrini 40–50 yosh oralig‘i bilan chegaralash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Ushbu yosh davrining asosiy xususiyatlari sifatida kasbiy va shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish hamda shu asosda insonning o‘z muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklarini qayta baholashi qayd etiladi. Bu davr o‘zining ikkiyoqlama tabiati bilan ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi.

Bir tomondan, bu davr kuch-quvvatning eng yuqori darajasi, ijodiy, shaxsiy va kasbiy yutuqlarning cho‘qqisi hamda hayotning turli sohalarida (kasbiy, shaxslararo va boshqalar) to‘plangan tajriba bilan tavsiflanadi.

Ikkinchi tomondan esa, bu bosqichda hayotiy faollikning (ayniqsa jismoniy holatning) sekin-asta pasayishi boshlanadi, emotsional sohada esa barqarorlik yoshligiga nisbatan yuqoriroq darajaga chiqadi.

Hayotiy tajriba orttirilgach, inson o‘zining avvalgi tajribasini qayta anglaydi va uni kelajakdagi imkoniyatlar bilan taqqoslay boshlaydi. Agar tajriba, imkoniyatlar va kutishlar o‘rtasida keskin nomuvofiqlik yuzaga kelsa, bu holat insonning o‘z hayotidan va o‘zidan qoniqish darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Inqiroz bosqichlarini izchil ravishda bosib o‘tgan shaxs ontogenezning keyingi davri — kechki yetuklik bosqichiga yetib keladi. Turli davriylashtirish konsepsiyalarida bu bosqich taxminan 50 yoshdan 75 yoshgacha bo‘lgan oraliq sifatida belgilanadi .

Kechki yetuklik davrida insonlar zamonaviy jamiyatning ijtimoiy sharoitlari va fiziologik holatdagi o‘zgarishlar ta’sirida o‘zlarining odatiy ijtimoiy maqomi va turmush tarzini o‘zgartirishga majbur bo‘ladilar. Bu davrda kasbiy faoliyat yakunlanadi, insonlar nafaqaga chiqadilar. Shu bilan birga, “bo‘shagan uy” fenomeni alohida ahamiyat kasb etadi: farzandlar ota-ona oilasini tark etib, mustaqil hayot boshlaydilar.

Shuningdek, ish faoliyatidan bo‘shagan vaqt hisobiga ushbu yosh davrida insonlar yangi ijtimoiy rol — buva va buvilar rolini ham faol ravishda egallaydilar. Bu rol o‘ziga xos psixologik kechinmalar va muammolar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ontogenezning ushbu bosqichida turmush o‘rtog‘ini yo‘qotish holatlari ham nisbatan ko‘proq uchraydi, bu esa insonning kundalik hayoti, emotsional holati va turmush tarzining chuqur qayta tashkil etilishiga olib keladi.

Shu bilan birga, kechki yetuklik davri insonlar tomonidan qarish jarayonini qabul qilishda qiyinchiliklar kuzatiladigan bosqich hisoblanadi. Bunda jismoniy holatning ob’ektiv yomonlashuvi, kognitiv jarayonlar tezligining pasayishi hamda tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar go‘zallik va yoshlikning yo‘qolishi bilan bog‘liq holatlar yuzaga keladi .

Barcha ushbu o‘zgarishlar fonida, ayniqsa hayot tarzining keskin o‘zgarishi va faollikning pasayishi bilan birga emotsional holatning yomonlashuvi kuzatilganda, ayrim hollarda o‘lim holatlarining ham uchrashi mumkin. Shu sababli, nafaqaga chiqqanidan keyin keksalarning hayotini qo‘llab-quvvatlovchi resurslarni aniqlash va o‘rganish zamonaviy psixologiya uchun nihoyatda muhim vazifa hisoblanadi.

Shaxsiy rivojlanishning inqirozli davrlarida psixologik farovonlik xususiyatlarini o‘rganish insonning subyektiv farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi shaxsiy resurslarni aniqlash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida nafaqat insonning ichki o‘zini his etishiga, balki uning xulq-atvori va amaliy harakatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. М.:Прогресс, 1996.352с.

2. Ильин Е.П. Психология взрослости. СПб.: Издательский дом «Питер». 2012. 542 с.

3. Сергиенко Е.А. Психологическое здоровье: субъективные факторы // Вестник РГГУ. Серия «Психология. Педагогика. Образование». 2017. №4 (10).С.98-117.

PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING DIGITAL COMMUNICATION CULTURE IN FUTURE ENGLISH TEACHERS

Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna
Assistant Lecturer, Tashkent University of Humanities,
Independent researcher of Gulistan State University
qurbanbayevamuqaddas9@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-7245-273X
Reyimboeva Sevinch Matkarim qizi
Tashkent University of Humanities student of the Philology and Language Teaching (English) department 01-23

Abstract: This article analyzes the pedagogical opportunities for developing digital communication culture among future English language teachers. It examines the issues of digital competence formation, online communication ethics, information security, and the effective use of digital technologies in the context of educational digital transformation.

Keywords: future English language teacher, digital communication culture, digital competence, communicative competence, pedagogical opportunities, information security, digital education, online communication, pedagogical ethics.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida raqamli muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya sharoitida ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, onlayn kommunikatsiya etikasi, axborot xavfsizligi va raqamli kompetentlikni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, raqamli muloqot madaniyati, raqamli kompetentlik, kommunikativ kompetentlik, pedagogik imkoniyatlar, axborot xavfsizligi, raqamli ta’lim, onlayn kommunikatsiya, pedagogik etika.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности развития культуры цифрового общения у будущих учителей английского языка. Рассматриваются вопросы формирования цифровой компетентности, культуры онлайн-коммуникации, информационной безопасности и эффективного использования цифровых технологий в условиях цифровой трансформации образования.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, культура цифрового общения, цифровая компетентность, коммуникативная компетентность, педагогические возможности, информационная безопасность, цифровое образование, онлайн-коммуникация, педагогическая этика.

Introduction. The rapid development of digital technologies has significantly transformed modern education and communication processes worldwide. Digital transformation has not only changed the ways information is accessed and shared but has also reshaped teaching methodologies, learning environments, and professional interactions among educators and students. In this context, the ability to communicate effectively and ethically in digital environments has become an essential component of a teacher’s professional competence. Consequently, the development of digital communication culture among future English language

teachers has emerged as an important pedagogical issue requiring comprehensive scientific investigation. In recent years, the integration of information and communication technologies into educational practice has created new opportunities for language teaching and learning. Digital platforms, social networks, learning management systems, online conferences, and artificial intelligence tools have become integral elements of English language education. These technologies facilitate interactive learning, collaborative activities, and access to authentic language resources. However, their effective use requires future teachers to possess not only technological skills but also a high level of digital communication culture, including ethical behavior, responsible online interaction, information literacy, and respect for digital citizenship principles. Digital communication culture is a multifaceted concept that encompasses the norms, values, competencies, and behaviors necessary for effective interaction in virtual environments. It includes the ability to communicate respectfully, critically evaluate information, protect personal data, adhere to online etiquette, and utilize digital technologies responsibly. For future English language teachers, digital communication culture is particularly important because language teaching inherently involves communication, intercultural interaction, and the exchange of information through various digital channels. The growing influence of digital technologies has also changed the role of teachers in educational settings. Modern educators are expected to act not only as knowledge transmitters but also as facilitators, mentors, digital communicators, and guides in virtual learning environments.

Literature Review and Methodology. The issue of developing digital communication culture among future teachers has become one of the important research directions in contemporary pedagogy. Numerous studies emphasize that digital transformation requires educators to possess not only subject knowledge but also communicative, ethical, and digital competencies necessary for effective professional activity in virtual environments. Researchers have widely discussed the concept of digital competence in teacher education. UNESCO considers digital literacy, online ethics, information management, and responsible digital behavior as essential components of modern educational quality. Similarly, the ISTE Standards for Educators highlight that teachers should be able to communicate, collaborate, and act as responsible digital citizens in educational settings. Scholars investigating online learning environments argue that digital communication culture plays a crucial role in creating productive interaction between teachers and learners. Anderson and Garrison emphasize that effective online education depends on meaningful communication, collaborative learning, and ethical interaction among participants. Their studies demonstrate that virtual learning environments require specific communication skills that differ from traditional face-to-face interaction. Bates points out that future teachers must be prepared to use digital technologies pedagogically rather than merely technically. This preparation includes the ability to organize online discussions, provide constructive feedback, maintain professional communication, and support students' engagement in digital environments. Salmon also highlights the importance of e-moderating skills for facilitating online learning communities. In the context of English language education, digital communication culture is particularly significant because language learning inherently involves communication, collaboration, and intercultural interaction. Modern English language teachers increasingly use learning management systems, social media platforms, video conferencing tools, and digital resources to organize instruction and communication with students. Therefore, the development of digital communication culture becomes an integral part of professional teacher preparation.

Discussion and Results. The findings of the study indicate that digital communication culture has become an essential component of the professional preparation of future English language teachers. The rapid digitalization of education requires prospective teachers to develop not only linguistic and pedagogical competencies but also the ability to communicate effectively, ethically, and responsibly in digital environments.

The analysis of scientific literature revealed that digital communication culture is a multidimensional concept that combines digital literacy, communicative competence, information ethics, online collaboration skills, and responsible digital citizenship. These components are

particularly important for future English language teachers because language teaching is inherently based on communication, interaction, and intercultural exchange.

The study identified several pedagogical opportunities that contribute to the development of digital communication culture among future English language teachers. First, learning management systems such as Moodle, Google Classroom, and Microsoft Teams provide students with opportunities to engage in academic discussions, collaborative projects, and professional communication in virtual environments. Through participation in these activities, future teachers acquire practical experience in maintaining effective online interaction and digital etiquette.

The research also demonstrated that the development of digital communication culture positively influences the professional readiness of future English language teachers. Students who actively participate in digital learning environments become more confident in organizing online lessons, communicating with learners through digital platforms, and integrating technology into their teaching practice.

Conclusion. The rapid development of digital technologies and their integration into educational processes have significantly transformed the professional requirements for modern teachers. In the context of digital transformation, future English language teachers are expected not only to possess strong subject knowledge and pedagogical skills but also to demonstrate a high level of digital communication culture. Therefore, the development of digital communication culture has become an essential component of professional teacher education.

Furthermore, the study confirms that digital communication culture is closely connected with professional ethics and pedagogical responsibility. Future teachers must be prepared to follow ethical standards in online communication, respect intellectual property rights, protect personal information, and promote respectful interaction in digital environments. These aspects are particularly important for English language teachers whose professional activities are largely based on communication and intercultural interaction.

In conclusion, the development of digital communication culture among future English language teachers should be regarded as one of the priority tasks of modern pedagogical education. Strengthening digital communication skills, ethical awareness, and technological competence will not only improve the quality of teacher preparation but also enhance the effectiveness of educational practices in digitally transformed learning environments. Therefore, higher education institutions should continue to expand and improve pedagogical strategies aimed at developing digital communication culture as an integral part of professional teacher training.

References:

1. Anderson, T. 2021. *The Theory and Practice of Online Learning* (3rd ed.). Edmonton: AU Press.
2. Bates, A. W. 2019. *Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning* (2nd ed.). Vancouver: Tony Bates Associates Ltd.
3. Garrison, D. R. 2017. *E-Learning in the 21st Century: A Community of Inquiry Framework for Research and Practice* (3rd ed.). New York: Routledge.
4. Salmon, G. 2011. *E-Moderating: The Key to Teaching and Learning Online* 3rd ed. London: Routledge.
5. Siemens, G. 2005. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3–10.
6. UNESCO. 2022. *AI and Education: Guidance for Policy-Makers*. Paris: UNESCO Publishing.
7. UNESCO. 2023. *Digital Citizenship Education Handbook*. Paris: UNESCO Publishing.
8. ISTE. 2023. *ISTE Standards for Educators*. Arlington, VA: International Society for Technology in Education.
9. OECD. 2023. *Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem*. Paris: OECD Publishing.

HAYOTDAN QONIQQANLIK VA UNI BELGILOVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Kurbaniyozova Ra'no Yuldashevna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu tezis keksalarda hayotdan qoniqqanlik fenomenining psixologik xususiyatlarini empirik va nazariy asosda tahlil qiladi. Psixologik mexanizmlarni keksalardagi hayotdan qoniqishga ta'siri ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar : hayotdan qoniqqanlik, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, hayot mazmuni, kognitiv baholash, moslashuv resurslari

Аннотация. Данный тезис анализирует психологические особенности феномена удовлетворенности жизнью у пожилых людей на эмпирической и теоретической основе. Рассмотрено влияние психологических механизмов на удовлетворенность жизнью у пожилых людей.

Ключевые слова: удовлетворенность жизнью, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, смысл жизни, когнитивная оценка, адаптационные ресурсы

Abstract. This thesis analyzes the psychological characteristics of the phenomenon of life satisfaction in the elderly on an empirical and theoretical basis. The influence of psychological mechanisms on life satisfaction in the elderly is examined.

Keywords: life satisfaction, emotional stability, stress resistance, meaning of life, cognitive assessment, adaptive resources

Kirish

Hayotdan qoniqqanlik keksalik davrida shaxsning o'z hayot yo'lini umumiy baholashi sifatida ta'riflanadi va u faqat kayfiyatning o'tkinchi holati emas, balki qiymatlar, maqsadlar hamda imkoniyatlar o'rtasidagi muvozanatni ifodalaydi. Ushbu holatning mexanizmi ko'pincha kognitiv baholash orqali ishlaydi, ya'ni kishi o'zidagi resurslar, yo'qotishlar va yutuqlarni ichki mezonlar bilan solishtirib, umumiy xulosa chiqaradi. Masalan, pensiyaga chiqqan shaxs avvalgi mehnat faoliyati, oilaviy roli va salomatlikdagi o'zgarishlarni bir butun tizim sifatida ko'rib, "hayotim mazmunli bo'ldi" yoki aksincha, "ko'p narsa qo'ldan ketdi" degan qarorga keladi. Jahon tadqiqotlarida hayotdan qoniqqanlik ko'rsatkichlari ko'pincha 0 dan 10 gacha shkalalarda baholanadi va ko'plab mamlakatlarda keksa guruhlar o'rtacha 6–8 oralig'ida natija ko'rsatishi qayd etiladi, bu esa keksalikni mutlaq pasayish davri sifatida emas, balki qayta moslashuv davri sifatida ko'rishga imkon beradi [5]. Ilmiy izoh shundan iboratki, keksalikda affektiv tajribalar va kognitiv baholashning nisbati o'zgaradi: emotsiyalar barqarorroq bo'lishi mumkin, biroq yo'qotishlar (salomatlik, maqom) ko'paygani uchun baholash mezonlari qayta tuziladi va qoniqqanlikning asosiy determinanti moslashuv strategiyalariga aylanadi [4].

Asosiy qism

Keksalarda hayotdan qoniqqanlikning psixologik tuzilmasi subyektiv farovonlikning tarkibiy qismi sifatida ta'riflanadi va u kognitiv komponent (hayotdan qoniqish) hamda affektiv komponent (ijobiy va salbiy affektlar nisbati) bilan uyg'unlashadi. Mexanizm jihatidan bu tuzilma "kompensatsiya va seleksiya" jarayonlari orqali ishlaydi: kishi muhim bo'lgan faoliyatlarni tanlab oladi, yo'qotilgan funksiyalarni boshqa yo'l bilan qoplaydi va shu orqali o'zini samarali his etish darajasini saqlaydi. Masalan, ilgari jismoniy mehnat qilgan keksa inson sog'lig'i sababli o'sha ishni bajara olmasa, tajribasini maslahat, tarbiya yoki hunar o'rgatish orqali davom ettirishi mumkin, bu esa "foydalilik" hissini mustahkamlaydi. Gerontopsixologik tadqiqotlarda ijtimoiy aloqalarning kamayishi qoniqqanlikni pasaytirishi, ammo ma'noli aloqalarning saqlanishi bu pasayishni kompensatsiya qilishi ko'rsatiladi; amaliy kuzatuvlarda haftasiga kamida bir marta yaqinlar bilan muloqot qiladigan keksalarda qoniqish ballari yuqoriroq bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi [2]. Bu holat "sifatli ijtimoiy kapital" konsepsiyasi bilan bog'lanadi: keksalikda aloqalar sonidan ko'ra, emotsional ishonch va o'zaro yordamning mavjudligi psixologik barqarorlikka ko'proq xizmat qiladi [1].

Hayotdan qoniqqanlikning muhim determinanti sifatida emotsional barqarorlik shaxsning stressorlarni boshqarish, xavotirni pasaytirish va ijobiy emotsiyalarni tiklash qobiliyati sifatida ta’riflanadi. Bu determinanta mexanizmi avtonom regulyatsiya va kognitiv qayta baholash orqali namoyon bo‘ladi: shaxs salbiy voqeani butun hayotga yoymaydi, uni muayyan vaziyat bilan cheklaydi va mazmunli izoh topishga intiladi. Masalan, surunkali kasallik tashxisi qo‘yilgan keksa inson davolanish rejimini “hayot tugadi” deb emas, balki “tartibli yashashni o‘rgatuvchi signal” sifatida qabul qilsa, qoniqqanlik pasayishi keskin bo‘lmaydi. Klinik-psixologik kuzatuvlarda depressiv simptomlar hayotdan qoniqqanlik bilan teskari bog‘lanishi ko‘p bor qayd etilgan bo‘lib, qoniqish past bo‘lgan guruhlarda xavotir va uyqu buzilishlari ko‘rsatkichlari yuqoriroq uchrashi mumkin [4]. Ilmiy izoh shundan iboratki, keksalikda stressga chidamlilik faqat temperament emas, balki o‘rganilgan psixologik ko‘nikmalar majmui hamdir; shu sababli psixoprofilaktika, ruhiy gigiyena va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi emotsional barqarorlikni kuchaytirib, qoniqqanlikni bilvosita oshiradi [5].

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hayotdan qoniqqanlikni belgilovchi resurs sifatida ta’riflanib, u instrumental yordam, emotsional dalda va axborotiy ko‘mak kabi ko‘rinishlarni qamrab oladi. Mexanizm sifatida qo‘llab-quvvatlash “tampon” vazifasini bajaradi, ya’ni stressorlar kuchini kamaytiradi, shaxsning o‘zini yolg‘iz his qilish ehtimolini pasaytiradi va o‘z qadrini saqlashga yordam beradi. Masalan, farzandlari yoki mahalla hamjamiyati tomonidan muntazam hol so‘rash, tibbiy ko‘rikka olib borish yoki maishiy yumushlarda yordamlashish keksaning nazorat hissini oshiradi va kelajakdan qo‘rquvni kamaytiradi. Aholi tarkibida keksalar ulushi oshib borishi sharoitida qo‘llab-quvvatlash tizimlarining ahamiyati kuchayadi; turli demografik manbalarda 60 yoshdan yuqori qatlam ulushi ortishi tendensiyasi kuzatilishi, natijada psixologik xizmatlarga ehtiyoj ham kengayishi ta’kidlanadi [1]. Ilmiy izoh shundan iboratki, qo‘llab-quvvatlashning faqat mavjudligi yetarli emas, uning qabul qilinish sifati ham muhim: paternalistik yondashuv keksada “keraksizlik” hissini kuchaytirishi mumkin, hamkorlikka asoslangan yondashuv esa avtonomiya va qadr-qimmatni mustahkamlaydi [1].

Kognitiv baholash va hayot mazmuni hayotdan qoniqqanlikning markaziy psixologik o‘qi sifatida ta’riflanadi, chunki kishi o‘z umr yo‘lini “ma’no” kategoriyasi orqali umumlashtiradi. Mexanizm nuqtayi nazaridan, bu jarayon avtobiografik xotira, narrativ identiklik va qadriyatlar ierarxiyasining qayta tuzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, kishi hayotidagi voqealarni izchil hikoya sifatida tartiblaydi. Masalan, keksalikda inson “men nimani uddalaganman, kimlarga foydam tekkan” degan savollarga javob qidirib, avvalgi qiyinchiliklarni ham ma’no bilan bog‘lab talqin qilsa, qoniqqanlik barqaror bo‘ladi. Psixologik o‘lchovlarda ma’no topish ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan guruhlarda hayotdan qoniqqanlik ballari ham yuqori bo‘lishi haqidagi natijalar keng tarqalgan bo‘lib, bu bog‘lanish ko‘pincha o‘rtacha kuchli korrelyatsiyalar bilan ifodalanadi [5]. Ilmiy izoh sifatida, mazmunning kuchayishi frontal nazorat va emotsional regulyatsiya jarayonlarini ham faollashtiradi: kishi “nima uchun yashayapman” degan ichki tayanchni his qilganida, stressorlar “faqat zarar” emas, balki “tajriba” sifatida qayta kodlanadi va bu psixologik immunitetni oshiradi [2].

Keksalardagi hayotdan qoniqqanlikning madaniy-ijtimoiy shartlanganligi shaxs va muhit o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida ta’riflanadi, chunki qadriyatlar tizimi, oilaviy rol va jamoadagi mavqe baholash mezonlarini belgilaydi. Mexanizm jihatidan, madaniy norma va kutishlar “ideal keksalik” tasavvurini shakllantiradi, shaxs esa o‘z holatini shu ideal bilan taqqoslab, qoniqish yoki norozilik hissini ishlab chiqaradi. Masalan, avlodlararo yaqinlik yuqori qadrlanadigan muhitda farzandlar bilan aloqa sustlashsa, qoniqqanlik keskin pasayishi mumkin, biroq shaxs boshqa ma’no manbalarini topa olsa, bu ta’sir yumshaydi. Sotsiopsixologik kuzatuvlarda yolg‘izlik hissi yuqori bo‘lgan keksalarda subyektiv farovonlik pasayishi ko‘proq uchrashi, shuningdek, faol ijtimoiy ishtirok qoniqqanlikni oshirishi qayd etiladi [2]. Ilmiy izoh shundan iboratki, madaniy kontekstni hisobga olmagan psixologik aralashuvlar samarasiz bo‘lishi mumkin; shu bois psixokorreksiya va maslahat jarayonlarida oilaviy tizim, mahalla resurslari va shaxsning qadriyat yo‘nalishlari integratsiyada ko‘rilishi ilmiy jihatdan asosli yondashuv sanaladi [5].

Xulosa

Xulosa sifatida, keksalardagi hayotdan qoniqqanlik shaxsning o‘z hayot yo‘lini kognitiv va emotsional darajada umumiy baholashi bo‘lib, u resurslar hamda yo‘qotishlar o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradigan murakkab psixologik konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu konstruktning psixologik mexanizmlari kognitiv baholash, emotsional regulyatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qabul qilish sifati va hayot mazmunini shakllantirish jarayonlari orqali ishlaydi. Keksalikda qoniqqanlikni barqarorlashtiruvchi omillar orasida ma’noli ijtimoiy aloqalar, avtonomiyani hurmat qiladigan yordam, stressga moslashuv ko‘nikmalari hamda narrativ identiklikning izchilligi alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliy jihatdan, psixologik xizmatlar va profilaktik dasturlar keksalarda qoniqqanlikni oshirish uchun individual resurslarni faollashtirish, ijtimoiy muhitni qo‘llab-quvvatlovchi qilish va kognitiv qayta baholash strategiyalarini o‘rgatishga yo‘naltirilsa, barqaror natijalar kutiladi. Ilmiy jihatdan, kelgusida mahalliy madaniy kontekstda valid psixometrik o‘lchovlar, uzunlamasına kuzatuvlar va integrativ modellarni tekshirish keksalik psixologiyasida hayotdan qoniqqanlikni yanada aniqroq tushuntirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Asmolov A. G. Psikhologiya lichnosti: kulturno-istoricheskiy podkhod. Moskva: Smysl, 2007. 528 s.

2.Diener E. Subjective Well-Being: The Science of Happiness and a Proposal for a National Index. American Psychologist. Washington, DC: American Psychological Association, 2000. Vol. 55. P. 34–43.

3.Ilin E. P. Emotsii i chuvstva. Sankt-Peterburg: Piter, 2016. 784 s.

4.Lazarus R. S. Stress and Emotion: A New Synthesis. New York: Springer Publishing Company, 1999. 342 p.

5. G‘oziyev E. G‘. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 352 b.

O‘SMIRLIK DAVRIDA DIQQAT XUSUSIYATLARINING RIVOJLANISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Kutlimuratova Sevara Otabek qizi
Psixologiya yo‘nalish 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘smirlik davridagi yetakchi kognitiv jarayonlardan biri bo‘lgan diqqat tizimining transformatson xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. O‘smirlarda diqqatning barqarorligi, ko‘lami, taqsimlanishi va ko‘chuvchanligi rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlari, shuningdek, ushbu jarayonga ta’sir etuvchi biologik, psixologik va ijtimoiy (neyro-fiziologik o‘zgarishlar, yetakchi faoliyat turi, raqamlashtirish muhiti) omillar ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, diqqat xususiyatlari, ixtiyoriy diqqat, kognitiv rivojlanish, motivatsiya, neyrodinamika, axborot muhiti.

Аннотация: Научно проанализированы трансформационные особенности системы внимания, которая является одним из ведущих когнитивных процессов в подростковом возрасте. Раскрыты специфические закономерности развития устойчивости, масштаба, распределения и подвижности внимания у подростков, а также биологические, психологические и социальные (нейрофизиологические изменения, ведущий вид деятельности, среда цифровизации) факторы, влияющие на этот процесс.

Ключевые слова: подростковый период, особенности внимания, произвольное внимание, когнитивное развитие, мотивация, нейродинамика, информационная среда.

Abstract: The transformational characteristics of the attention system, which is one of the leading cognitive processes in adolescence, have been scientifically analyzed. Specific patterns in the development of stability, scope, distribution, and mobility of attention in adolescents are revealed, as well as biological, psychological, and social factors influencing this process (neuro-physiological changes, leading type of activity, digitalization environment).

Keywords: adolescent period, attention characteristics, voluntary attention, cognitive development, motivation, neurodynamics, information environment.

Kirish

Zamonaviy psixologiya va kognitiv fanlar tizimida o‘smirlik davri shaxs shakllanishining inqirozlarga boy va sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tish davri sifatida baholanadi. Bu davrda intellektual faoliyatning samaradorligini belgilovchi eng muhim kognitiv omillardan biri — diqqat jarayonidir. O‘smirlik yoshida diqqatning lobil (beqaror) holatdan ixtiyoriy, boshqariluvchi va tizimli xarakterga o‘tishi kuzatiladi. Biroq bu jarayon silliq kechmaydi; u organizmdagi jadal biologik o‘zgarishlar va ijtimoiy muhitning murakkablashuvi bilan bevosita bog‘liqdir.

O‘smirlik davrida diqqatning sifat ko‘rsatkichlari rivojlanishi: Ushbu davrda diqqat xususiyatlarida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y beradi:

1. Ixtiyoriy diqqatning ustuvorligi: O‘smir endi faqatgina tashqi yorqin qo‘zg‘atuvchilarga emas, balki o‘zi uchun ichki ahamiyatga ega bo‘lgan, mavhum va nazariy materiallarga ham diqqatini uzoq muddat jamlay oladi.
2. Diqqat taqsimlanishi va ko‘lamining kengayishi: O‘quv faoliyatining murakkablashuvi (turli fanlar, mavhum tushunchalar bilan ishlash) o‘smirdan bir vaqtning o‘zida ham axborotni qabul qilish, ham uni tahlil qilish strategiyasini talab etadi.
3. Selektivlik (tanlovchanlik): Diqqat shaxsning motivatsion-ehtiyojlar sohasi bilan integratsiyalashadi. O‘smir o‘z qiziqishlariga mos keladigan ob’ektlarga yuqori darajadagi barqarorlik bilan diqqat qaratadi.

Diqqat Rivojlanishiga Ta’sir Etuvchi Omillar. O‘smirlik davrida diqqatning dinamik ko‘rsatkichlariga bir qator ichki va tashqi determinat bosim o‘tkazadi:

1. Neyrofiziologik omillar (Ichki inqiroz): Jinsiy balog‘atga etish (pubertat) davridagi gormonal o‘zgarishlar, bosh miya yarim sharlari po‘stlog‘idagi tormozlanish va qo‘zg‘alish jarayonlarining muvozanatsizligi (neyrodinamik lability) o‘smirlarda vaqti-vaqti bilan diqqatning tarqoqligi, chalg‘uvchanligi va emotsional reaktivlikka olib keladi.
2. Motivatsiya va intellektualizatsiya: Diqqatning rivojlanishi bevosita o‘smirning fanga yoki faoliyatga bo‘lgan shaxsiy munosabatiga bog‘liq. M.G.Davletshin tadqiqotlarida ko‘rsatilganidek, agar o‘quv materiali o‘smirda mustaqil fikrlash ehtiyojini qondirmasa, ixtiyoriy diqqat kuchi keskin pasayadi.
3. Axborot-psixologik va raqamli muhit (Tashqi omillar): Zamonaviy axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va "klipcha fikrlash" (clip thinking) tendensiyasi o‘smirlarda diqqatning barqarorlik funksiyasini pasaytirib, uning giper-ko‘chuvchanligini (shundan kelib chiqib, yuzaki idrok etishni) shakllantirmoqda.

Tavsiyalar:

1. Monofokus (Ko‘p vazifalilikdan mutloq voz kechish)

O‘smir miyasining prefrontal qobig‘i (diqqatni boshqaruvchi qismi) hali to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida dars tayyorlash, telefonga qarash va musiqa eshitish (multitasking) diqqat mexanizmini parchalab yuboradi va neyronlararo aloqani charchatadi. Yechim: "25 daqiqa faqat bitta dars + 5 daqiqa mutloq tanaffus" (Pomodoro) rejimiga qat’iy o‘tish.

2. Raqamli gigiyena va uyqu reglamenti

Uyqudan oldin telefondan tarqaladigan ko‘k nur (blue light) miyada melatonin (uyqu gormoni) ajralishini to‘xtatadi. Surunkali uyqu yetishmovchiligi yoki sifatsiz uyqu o‘smirning ertasi kungi ixtiyoriy diqqat konsentratsiyasini keskin pasaytiradi. Yechim: Uyqudan kamida 1 soat oldin barcha gajetlarni o‘chirish va 8-9 soatlik uzluksiz tungi uyquni ta’minlash.

Xulosa sifatida aytish mumkinki : O‘smirlik davrida diqqatning tarqoq bo‘lishi — tabiiy biologik holat. Bu yoshda o‘smirning miyasi ham qayta qurilayotgan bo‘ladi, ham unga telefon va internet kabi tashqi axborotlar juda kuchli ta’sir qiladi.

Miyani chalg‘ituvchi narsalardan (ayniqsa, telefondan) uzoq tutish va diqqatni bir vaqtning o‘zida faqat bitta ishga qaratishni o‘rgatish orqali o‘smirning diqqatini osongina jamlash va darslarini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E.G‘. "Umumiy psixologiya". Toshkent: Universitet nashriyoti, 2010-yil.
2. Davletshin M.G. "Zamonaviy maktab o‘quvchisi psixologiyasi". Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1999-yil.
3. Bozorov Q.Q. "Ruhiy jarayonlar psixologiyasi". Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2020-yil. (145-162 bet).
4. Vygotskiy L.S. "Razvitiye visshix psixicheskix funksiy" (Oliy ruhiy funksiyalarning rivojlanishi). Moskva: Pedagogika, 1983-yil.

XORIJ TADQIQOTCHILARI TOMONIDAN RAQAMLI VOSITALARDAN PEDAGOGIK JARAYONDA FOYDALANISH USULLARINING O‘RGANILISHI

Latipova Xurshida Abdullayevna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
Pedagogika Instituti Doktoranti
Gmail: 932072202x@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis raqamli vositalardan pedagogik jarayonda foydalanishning usullari haqida xorij olimlarining yondashuvlarini o‘z ichiga olgan. Tezisda xorij tajribalariga batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlari: Konstruktivistik yondashuv, kreativ fikrlash, TPACK modeli, adaptive ta’lim, sun’iy intelekt, raqamli kompetentlik.

Аннотация: Данные тезисы охватывают подходы зарубежных ученых к методам использования цифровых инструментов в педагогическом процессе. В работе подробно рассматривается зарубежный опыт в данном направлении.

Ключевые слова: Конструктивистский подход, Креативное мышление, Модель TPACK, Адаптивное обучение, Искусственный интеллект, Цифровая компетентность.

Abstract: These theses encompass the approaches of foreign scholars regarding the methods of utilizing digital tools in the pedagogical process. The work provides a detailed analysis of international experiences in this field.

Keywords: Constructivist approach, Creative thinking, TPACK model, Adaptive learning, Artificial intelligence (AI), Digital competence.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi shunchaki texnik yangilanish emas, balki o‘qitish va o‘qish paradigmasining tubdan o‘zgarishidir. Xorijiy tadqiqotchilar raqamli vositalarni pedagogik jarayonga integratsiya qilishni nafaqat bilim berishni tezlashtiruvchi omil, balki talabalarning tanqidiy va kreativ fikrlashini shakllantiruvchi fundamental muhit sifatida talqin etmoqdalar. Xorijiy davlatlardagi kabi bizda ham raqamli vositalar dars jarayoniga rivojlatiruvchi asos sifatida olib kirilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning pedagogik imkoniyatlarini o‘rganishda xalqaro ilmiy hamjamiyat bir necha asosiy yo‘nalishlarga e’tibor qaratmoqda:

1. Konstruktivistik yondashuv va raqamli muhit. Zamonaviy xorijiy pedagogikada raqamli vositalar talabaning passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchiga aylanishiga xizmat qilishi lozimligi ta’kidlanadi. Masalan, taniqli tadqiqotchi N. Selwyn o‘zining raqamli ta’limga bag‘ishlangan ishlarida texnologiya shunchaki “yetkazib berish vositasi” emas, balki ijtimoiy va madaniy kontekstni o‘zgartiruvchi kuch ekanligini qayd etadi [1, 42]. Uning fikricha, raqamli vositalardan foydalanish usullari bevosita ta’lim muassasasidagi ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq.

2. TPACK modeli – nazariy asos sifatida. Raqamli vositalardan foydalanishning metodologik asosi sifatida ko‘plab g‘arb olimlari P. Mishra va M. Koehler tomonidan ishlab chiqilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modelini ko‘rsatadilar. Ushbu model o‘qituvchining texnologik, pedagogik va fan bo‘yicha bilimlarining sintezini ko‘zda tutadi [2, 1025]. Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, raqamli vositadan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi nafaqat dasturni ishlatishni bilishi, balki uni qaysi mavzuda va qanday uslubda qo‘llashni aniq belgilab olishi shart.

3. Shaxsiylashtirilgan ta’lim va sun’iy intellekt. So‘nggi yillardagi xorijiy tadqiqotlar raqamli vositalarning “moslashuvchanlik” xususiyatiga katta urg‘u bermoqda. Luckin ta’limda sun’iy intellekt va raqamli vositalar o‘quvchining individual ehtiyojlarini aniqlashda “ko‘rinmas yordamchi” vazifasini o‘tashini asoslab beradi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli iqtisodiyot va jamiyat talablariga javob beradigan kadrlar tayyorlashda xorijiy tajribani, ayniqsa, Finlandiya, Singapur va Estoniya kabi davlatlar olimlarining metodik ishlanmalarini tahlil qilish va adaptatsiya qilish zarurati mavjud. Garchi raqamlashtirish masalalari keng yoritilgan bo‘lsa-da, aynan raqamli vositalar yordamida talabalarning kreativ fikrlashini tizimli rivojlantirish metodikasi xorijiy va mahalliy pedagogika kesishmasida qo‘shimcha tadqiqotlarni talab etadi. Raqamli vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalasi MDH va mahalliy olimlar tomonidan ham keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, ta’limni axborotlashtirishning psixologik-pedagogik jihatlari va raqamli didaktika tamoyillari ushbu izlanishlarning markazida turadi.

1. MDH olimlarining raqamli didaktika borasidagi qarashlari. Rossiyalik taniqli olim E.V. Chernobay raqamli texnologiyalar sharoitida o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ko‘rish modelini yangilash zarurligini asoslab beradi. Uning ta’kidlashicha, raqamli vositalar o‘quv jarayonining barcha komponentlarini o‘zgartirib, o‘qituvchini dars “ssenariychisi”ga aylantiradi. Shuningdek, V.I. Blinov va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan “Raqamli didaktika” konsepsiyasida pedagogik jarayonni tashkil etishda “pedagogik maqsadning texnologiyadan ustunligi” tamoyili ilgari suriladi. Olimlarning fikricha, raqamli vositalar o‘quvchi motivatsiyasini oshirish va bilimlarni yanada yaxshi o‘zlashtirishni individuallashtirishning asosiy vositasidir [3, 24].

2. O‘zbekiston tadqiqotchilarining yondashuvlari. O‘zbekistonlik olimlar raqamli vositalarni milliy ta’lim muhitiga integratsiya qilish va talabalarning mustaqil faoliyatini faollashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratmoqdalar. Xususan, professor R.X. Jo‘rayev o‘z ishlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim sifatini boshqarishda va pedagogik jarayonning shaffofligini ta’minlashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatib o‘tgan. Pedagogik jarayonda raqamli vositalar yordamida talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish masalasini o‘rgangan tadqiqotchi N.N. Azizxodjayeva darsda interaktiv texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish talabaning intellektual salohiyatini ochishga xizmat qilishini ta’kidlaydi.

3. Raqamli vositalar va kreativ fikrlash bog‘liqligi. Mahalliy tadqiqotlarda raqamli vositalarning roli nafaqat axborot berish, balki muammoli vaziyatlarni modellashtirish kontekstida ham ko‘rib chiqiladi. Masalan, U.Sh. Begimqulov pedagogik ta’limni axborotlashtirish jarayonlarini tizimlashtirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarning texnologik kompetentligini shakllantirish metodikasini taklif etadi [4, 48]. Bu esa o‘z navbatida, pedagogik jarayonda raqamli vositalarni shunchaki qo‘llash emas, balki ularni ijodiy loyihalar yaratishga yo‘naltirish imkonini beradi.

Xorij tajribalarida ayniqsa Singapur tajribasini yoritish juda muhim, chunki bu davlat ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha dunyo yetakchilaridan biri hisoblanadi. Singapur modeli asosan “Inson kapitaliga sarmoya” va “Aqlli millat konsepsiyasiga tayanadi. Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, raqamli vositalardan foydalanish nafaqat infratuzilmaga, balki o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga ham bog‘liq. Singapur ta’lim vazirligi (MOE) tomonidan ishlab chiqilgan “Ta’lim texnologiyalari rejasi” (EdTech Plan) asosiy strategik hujjat bo‘lib xizmat qiladi.

1. “Student Learning Space” (SLS) platformasi. Singapurning eng katta yutug‘i – barcha maktablar uchun yagona bo‘lgan SLS milliy onlayn platformasining yaratilishidir. Tadqiqotchi C.K. Looi ta’kidlashicha, ushbu platforma o‘quvchilarga o‘z sur’atida o‘qish imkonini beradi va o‘qituvchilar o‘rtasida resurs almashinuvini ta’minlaydi [5, 115]. Bu vosita orqali pedagogik jarayon “o‘qituvchi markazlashgan” modeldan “o‘quvchi markazlashgan” modelga to‘liq o‘tgan.

2. “FutureSchools Singapore” loyihasi. Ushbu loyiha doirasida raqamli vositalar darsning har bir bosqichiga, hatto jismoniy tarbiya darslariga ham integratsiya qilingan. Olim D.Hung o‘z tadqiqotlarida Singapur maktablarida raqamli o‘yinlar va virtual laboratoriyalardan foydalanish

talabalarning muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmasini 35% ga oshirishini ilmiy isbotlab bergan.

3. O‘qituvchilarning raqamli kompetentligi. Singapurda “O‘qituvchi – bu birinchi navbatda o‘rganuvchi” tamoyili amal qiladi. O.S.Tan o‘z ishlarida Singapur pedagogika institutidagi o‘qituvchilarni tayyorlash tizimini tahlil qilib, raqamli vositalarni qo‘llashda o‘qituvchining “texnologik pedagogik mahorati” asosiy o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Singapur tajribasining o‘ziga xos jihatlari:

Adaptiv ta’lim: Sun’iy intellekt o‘quvchining kuchli va kuchsiz tomonlarini tahlil qilib, unga mos vazifalarni generatsiya qiladi.

Hamkorlikda o‘rganish: Raqamli doskalar va bulutli texnologiyalar orqali guruh bo‘lib ishlash madaniyati shakllangan.

Raqamli vositalardan pedagogik jarayonda foydalanish usullarini o‘rganish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar va xalqaro tajriba tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Paradigmaning o‘zgarishi: Raqamli vositalar endi shunchaki ko‘rgazmali qurol emas, balki ta’lim mazmunini shakllantiruvchi va individual o‘quv trayektoriyasini belgilab beruvchi strategik resursga aylandi. Singapur va Finlandiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, texnologiya o‘qituvchini o‘rnini bosmaydi, balki uning funksiyasini bilim beruvchidan yo‘naltiruvchiga o‘zgartiradi.

Kreativlik va Tanqidiy fikrlash: Xorijiy olimlar va mahalliy tadqiqotchilar yakdil fikriga ko‘ra, raqamli vositalar talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va kreativ yechimlar topish ko‘nikmasini rivojlantirishning eng samarali mexanizmidir.

Integratsiyalashgan yondashuv: Faqatgina texnologik ta’minotning o‘zi yetarli emas, muvaffaqiyat garovi - TPACK modeli asosida pedagogik mahorat, fan mazmuni va texnologik vositalarning uzviy bog‘liqligidadir.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda, milliy ta’lim tizimida raqamli vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Pedagoglarning raqamli kompetentligini uzluksiz rivojlantirish: O‘qituvchilarni shunchaki dasturlar bilan ishlashga emas, balki Singapur tajribasidagi kabi raqamli muhitda dars ssenariylarini yaratishga o‘rgatish tizimini joriy etish.

Adaptiv ta’lim platformalarini joriy qilish: Ta’lim jarayoniga talabaning o‘zlashtirish darajasiga qarab vazifalarni moslashtiruvchi sun’iy intellekt elementlariga ega milliy platformalarni kengroq tatbiq etish.

Kreativ muhitni loyihalashtirish: Raqamli vositalar yordamida talabalarning mustaqil va jamoaviy loyihalar ustida ishlashiga ko‘proq vaqt ajratish, bu esa ularning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Selwyn Education and Technology: Key Issues and Debates. – Bloomsbury Academic, 2016.
2. P.Mishra, M.Koehler Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. // Teachers College Record, 2006.
3. V.I.Blinov Osnovi sifrovoy didaktiki. – Moskva: Delo, 2019.
4. U.Sh.Begimqulov Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2007.
5. C.K.Looi Sustainable System-wide EdTech Innovations: The Case of Singapore. – Springer, 2019.

O‘QITUVCHINING REFLEKSIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR PEDAGOGIK QARASHLAR

Magzumova Lola Turakulovna
Toshkent farmatsevtika instituti, Xalqaro va tibbiyot fakulteti
Yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirishga doir asosiy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy, faoliyatga asoslangan, refleksiv-amaliy, konstruktivistik hamda akmeologik yondashuvlarning mazmuni ochib berilib, ularning o‘zaro integratsiyasi o‘qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: refleksiv kompetensiya, refleksiya, pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat yondashuvi, konstruktivizm, refleksiv-amaliy yondashuv, raqamli transformatsiya, o‘qituvchi faoliyati.

Аннотация: В статье анализируются педагогические подходы к развитию рефлексивной компетентности учителя в условиях цифровой трансформации. Раскрывается содержание компетентностного, деятельностного, рефлексивно-практического, конструктивистского и акмеологического подходов, а также обосновывается их интеграция как важный фактор повышения эффективности профессиональной деятельности педагога.

Ключевые слова: рефлексивная компетентность, рефлексия, педагогические подходы, компетентностный подход, деятельностный подход, конструктивизм, рефлексивно-практический подход, цифровая трансформация, деятельность учителя.

Abstract: This article analyzes pedagogical approaches to developing teachers’ reflective competence in the context of digital transformation. It examines the content of competency-based, activity-based, reflective-practical, constructivist, and acmeological approaches and substantiates their integration as a key factor in enhancing professional effectiveness. Reflection is interpreted as a mechanism for conscious decision-making, analysis, and improvement of professional practice.

Keywords: reflective competence, reflection, pedagogical approaches, competency-based approach, activity approach, constructivism, reflective practice, digital transformation, teacher activity.

Kirish

Raqamli transformatsiya sharoitida o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyada kompetensiyaviy yondashuv, faoliyat yondashuvi, refleksiv-amaliy yondashuv, konstruktivistik yondashuv hamda akmeologik va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyalari kesishgan nuqtada izohlanadi. Mazkur yondashuvlarning har biri refleksiv kompetensiyaning muayyan jihatini yoritadi, biroq ularning integratsiyasi o‘qituvchi kasbiy faoliyatining murakkab va ko‘p qatlamli tabiatini to‘liqroq tushuntirish imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitining tezkor o‘zgaruvchanligi, pedagogik jarayonning ochiqligi va axborot oqimining intensivligi o‘qituvchidan nafaqat yuqori darajadagi texnologik savodxonlikni, balki o‘z faoliyatini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ham talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida refleksiv kompetensiya o‘qituvchining umumkasbiy kompetensiyalari tizimining ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Bu yondashuvga ko‘ra, refleksiya - bu shaxsning o‘z faoliyatini baholash, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish strategiyasini ishlab chiqish qobiliyatidir. Raqamli transformatsiya sharoitida mazkur kompetensiya pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlovchi muhim mezonlardan biriga aylanadi, chunki o‘qituvchi doimiy ravishda o‘z metodlarini, ta’lim vositalarini va o‘quvchilar bilan muloqot shakllarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi.

Faoliyat yondashuvi refleksiyani subyektning o‘z faoliyatini anglash va boshqarish jarayoni sifatida talqin etadi. O‘qituvchi pedagogik faoliyatni amalga oshirar ekan, u maqsad qo‘yadi,

vositalarni tanlaydi, natijalarni tahlil qiladi va keyingi harakat strategiyasini belgilaydi. Raqamli muhitda bu jarayon yanada murakkablashadi, chunki har bir pedagogik qaror ko‘p sonli omillar – o‘quvchilar individual xususiyatlari, raqamli platformalar imkoniyatlari, baholash mezonlari va ijtimoiy kontekst bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bois refleksiv kompetensiya faoliyatni boshqarishning ichki regulyatori sifatida namoyon bo‘ladi.

Refleksiv-amaliy yondashuv esa refleksiyani kasbiy tajribani tahlil qilish va qayta qurish mexanizmi sifatida ko‘radi. Bu yondashuvga ko‘ra, o‘qituvchi har bir pedagogik vaziyatni o‘rganish va undan xulosa chiqarish orqali o‘z professional mahoratini oshiradi. Raqamli transformatsiya sharoitida bu jarayon raqamli monitoring, analitik ma’lumotlar va interaktiv platformalar orqali yanada chuqurlashadi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarning raqamli natijalarini tahlil qilib, dars metodikasini moslashtirishi mumkin. Bu esa refleksiyaning operatsion darajada namoyon bo‘lishidir.

Konstruktivistik yondashuv refleksiyani bilimni faol ravishda qurish jarayoni bilan bog‘laydi. O‘qituvchi o‘z pedagogik tajribasini doimiy ravishda qayta talqin qiladi va yangi bilimlarni mavjud tajriba bilan integratsiya qiladi. Raqamli ta’lim muhiti konstruktivistik paradigmaga keng imkoniyatlar yaratadi, chunki interaktiv vositalar va hamkorlik platformalari o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bilimni birgalikda yaratish jarayonini kuchaytiradi. Bu jarayonda refleksiv kompetensiya bilimlarni tanqidiy tahlil qilish va moslashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Akmeologik va uzluksiz kasbiy rivojlanish konsepsiyasi esa refleksiv kompetensiyani o‘qituvchining professional yetuklik darajasini belgilovchi omil sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuvga ko‘ra, pedagog o‘zining kasbiy rivojlanish yo‘lini ongli ravishda rejalashtiradi, maqsad qo‘yadi va o‘z faoliyatini doimiy takomillashtirishga intiladi. Raqamli transformatsiya sharoitida uzluksiz o‘rganish va o‘zini rivojlantirish zarurati yanada kuchayadi. Shu sababli refleksiv kompetensiya o‘qituvchining kasbiy barqarorligini ta’minlovchi muhim shartga aylanadi.

Mazkur yondashuvlarning umumiy g‘oyasi shundan iboratki, refleksiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatini ongli boshqarish, pedagogik qarorlarni asoslash, natijalarni tahlil qilish va tajribani qayta loyihalashga xizmat qiluvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Refleksiv kompetensiya esa ushbu jarayonlarni barqaror, tizimli va maqsadli amalga oshirishga imkon beruvchi integrativ kasbiy sifatdir. U nafaqat individual-psixologik xususiyat, balki ijtimoiy-pedagogik kontekstda shakllanuvchi va rivojlanadigan kompleks hodisa sifatida qaraladi.

Shunday qilib, raqamli transformatsiya sharoitida refleksiv kompetensiyani rivojlantirish o‘qituvchining kasbiy samaradorligini oshirish, innovatsion pedagogik faoliyatni qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim sifatini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa mazkur muammoni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ilmiy tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

Refleksiya fenomeni pedagogik fikr tarixida, avvalo, J. Dyuining “reflektiv tafakkur” konsepsiyasi bilan ilmiy asoslangan [1]. Dyui reflektiv tafakkurni shaxsning ma’lum bir bilim, tasavvur yoki e’tiqodning asoslarini tanqidiy tekshirishi hamda uning ehtimoliy oqibatlarini ongli ravishda tahlil qilishi bilan bog‘liq “faol, izchil va ehtiyotkor mulohaza yuritish jarayoni” sifatida ta’riflaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, reflektiv tafakkur shunchaki fikrlash emas, balki muammoli vaziyatdan kelib chiqib savol qo‘yish, dalillarni izlash, alternativ yechimlarni ko‘rib chiqish va amaliy sinov orqali asoslangan xulosaga kelish jarayonidir.

Mazkur yondashuv ta’lim jarayonida refleksiyani metodologik tamoyil sifatida talqin etadi. Ya’ni, o‘qituvchi o‘z faoliyatini avtomatik tarzda emas, balki har bir pedagogik vaziyatni anglab, sabab-oqibat bog‘liqligini tahlil qilib, ongli ravishda qaror qabul qilish asosida tashkil etishi lozim. Shu ma’noda, refleksiv kompetensiyani rivojlantirishga doir pedagogik yondashuvlar o‘qituvchini “tayyor algoritm ijrochisi” sifatida emas, balki vaziyatni tanqidiy tahlil qiluvchi, o‘z faoliyatini baholay oladigan va pedagogik yechimlarni ilmiy asosda ishlab chiqadigan professional subyekt sifatida ko‘radi.

Bunday talqin, ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zamonaviy ta’lim muhiti standart va qat’iy ssenariylar bilan cheklanmaydi; u o‘qituvchidan o‘zgaruvchan vaziyatlarga moslashish, yangi pedagogik texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish hamda natijalarni tahlil qilib, keyingi faoliyat strategiyasini qayta belgilashni talab etadi. Dyui tomonidan asoslangan reflektiv tafakkur konsepsiyasi aynan shu jarayonning nazariy poydevorini tashkil etadi hamda o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

XX asr oxirida refleksiya kasbiy rivojlanishning amaliy mexanizmi sifatida D. Shön tomonidan chuqur nazariy asoslandi. U refleksiyani murakkab va noaniq kasbiy vaziyatlarda mutaxassisning samarali faoliyat yuritishini ta’minlovchi ichki intellektual mexanizm sifatida talqin etdi. Shönning konsepsiyasida refleksiya professional faoliyatning ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, u mutaxassisning o‘z harakatlarini ongli ravishda tahlil qilishi, ularni vaziyatga mos ravishda qayta ko‘rib chiqishi va zarur hollarda darhol moslashtirishi bilan bog‘liq jarayon sifatida izohlanadi [2].

U refleksiyani “refleksiya-amalda” (reflection-in-action) va “refleksiya-amaldan so‘ng” (reflection-on-action) shakllarida talqin qilib, kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan noaniqlik va murakkablikni boshqarishning muhim vositasi sifatida izohladi (1-rasmga qarang).

Mazkur yondashuv refleksiyani faqat faoliyatdan keyingi nazariy mulohaza emas, balki bevosita amaliy jarayonning o‘zida yuz beradigan dinamik tafakkur shakli sifatida talqin etishi bilan ahamiyatlidir. Shönning nazariy qarashlari refleksiyani kasbiy o‘sishning ichki mexanizmi sifatida tushuntirib, pedagogning tajribasini ongli ravishda qayta qurish va takomillashtirish imkonini beruvchi muhim metodologik asosni yaratdi. Ayniqsa, tez o‘zgaruvchan ijtimoiy va texnologik sharoitlarda mazkur konsepsiya kasbiy moslashuvchanlik va innovatsion faoliyatning nazariy tayanchiga aylandi.

Shu bois Shön konsepsiyasi o‘qituvchining refleksiv kompetensiyasini raqamli transformatsiya sharoitida nazariy jihatdan asoslashda muhim metodologik tayanch vazifasini bajaradi. U pedagogni o‘z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qiluvchi, vaziyatga moslashuvchi va kasbiy qarorlarni ongli ravishda qabul qiluvchi professional subyekt sifatida talqin etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. – Boston: D.C. Heath and Company, 1933. – 301 b.
2. Schön, D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books, 1983/1984. -49-90 p.
3. Сухобская Г. С., Горбунова Л. Л. Рефлексия в профессиональной деятельности педагога. – Москва: Институт психологии РАН, 2001. – 198 с.
4. Zeichner K. M., Liston D. P. Reflective Teaching: An Introduction. – New York: Routledge, 2013.

YOSHLARDA SINERGETIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIB BORILADIGAN CHORA-TADBIRLAR

Masharipova Farog‘at Matrasulovna,
UrDU “Pedagogika va psixologiya”
kafedrasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda sinergetik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Sinergetik tafakkur tushunchasi, uning o‘ziga xos xususiyatlari va ta’lim jarayonida uni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, ushbu tafakkur turini rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik usullar, mashg‘ulot shakllari va psixologik shart-sharoitlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: sinergetik tafakkur, ijodiy fikrlash, yoshlar, ta’lim texnologiyalari, kognitiv rivojlanish, muammo hal qilish.

Аннотация: В данной статье проводится теоретический и практический анализ мероприятий, направленных на развитие синергетического мышления у молодёжи.

Рассматриваются понятие синергетического мышления, его характерные особенности и возможности его формирования в образовательном процессе. Также освещаются педагогические методы, формы занятий и психологические условия, ориентированные на развитие данного типа мышления.

Ключевые слова: синергетическое мышление, творческое мышление, молодёжь, образовательные технологии, когнитивное развитие, решение проблем.

Abstract: This article provides a theoretical and practical analysis of measures aimed at developing synergetic thinking in young people. The concept of synergetic thinking, its distinctive features, and the possibilities of its formation in the educational process are examined. Pedagogical methods, lesson formats, and psychological conditions designed to develop this type of thinking are also highlighted.

Keywords: synergetic thinking, creative reasoning, youth, educational technologies, cognitive development, problem solving.

Kirish

Zamonaviy ta’lim va psixologiya fanida sinergetik tafakkur tushunchasi tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Murakkab, tezkor o‘zgaruvchan dunyo sharoitida yosh avlod vakillari nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtirishi, balki ko‘p o‘lchovli muammolarni yaxlit idrok qilish va noan’anaviy yechimlar topish qobiliyatiga ega bo‘lishi zarur. Aynan shu ehtiyoj sinergetik tafakkurni rivojlantirish masalasini ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganishni dolzarb qiladi [1].

An’anaviy ta’lim tizimi asosan analitik va konvergent tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, sinergetik yondashuv tizimli, o‘zaro bog‘liq va ko‘p qirrali fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishni talab qiladi. So‘nggi o‘n yilliklarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar tafakkurini sinergetik tamoyillar asosida rivojlantirish ularning ijodiy salohiyatini, muammolarni hal qilish samaradorligini va hayotiy moslashuvchanligini sezilarli darajada oshiradi

Asosiy nazariy yondashuvlar tahlili

1. Sinergetik tafakkur tushunchasi va uning asoslari

Sinergetika tushunchasi dastlab Herman Haken (1969) tomonidan fizika va kimyo fanlari doirasida kiritilgan bo‘lib, u o‘z-o‘zini tashkil etuvchi murakkab tizimlarning qonuniyatlarini o‘rganadi. Psixologiya va pedagogikaga sinergetik yondashuv XX asrning 80–90-yillarida kirib keldi va tafakkurni tizimli, ko‘p darajali hodisa sifatida tadqiq qilishga asos soldi. Sinergetik tafakkur - bu turli bilim sohalari, tushunchalar va hodisalar o‘rtasidagi yashirin bog‘liqliklarni topib, ularni yaxlit bir tizim sifatida idrok qilish hamda noan’anaviy yechimlar yarata olish qobiliyatidir [3].

Vigotskiy (1934) ning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi sinergetik tafakkurni shakllantirish uchun muhim psixologik zamin yaratadi. Unga ko‘ra, bola yoki o‘smir mustaqil bajara olmagan, ammo kattalar va tengdoshlar yordami bilan uddalay oladigan vazifalar orqali intellektual rivojlanishning yangi bosqichiga ko‘tariladi. Bu tamoyil sinergetik tafakkurni rivojlantirishda hamkorlikdagi ta’lim va muammo-asosli yondashuvning samaradorligini asoslaydi. Piaget (1952) ning kognitiv rivojlanish nazariyasi esa assimilyatsiya va akkomodasiya mexanizmlari orqali yoshlarning yangi, murakkab g‘oyalarni mavjud bilim tizimiga integratsiya qilish qobiliyatini tushuntiradi [4].

2. Sinergetik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik chora-tadbirlar

Bloom taksonomiyasi (1956, keyincha Anderson va Krathwohl tomonidan 2001-yilda qayta ishlangan) yuqori tartibli tafakkur ko‘nikmalarini - tahlil, sintez, baholash va ijod - rivojlantirishning asosiy pedagogik asosi sifatida e’tirof etilgan. Ushbu taksonomiya sinergetik tafakkur uchun zarur bo‘lgan kognitiv operatsiyalar ketma-ketligini belgilaydi: oddiy eslab qolishdan tortib murakkab muammolarni o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rishgacha. Amaliyotda bu yondashuv case-study, loyiha asosidagi ta’lim va tanqidiy tahlil mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi [5].

De Bono (1985) ning lateral tafakkur texnikasi va olti shlyapa usuli sinergetik tafakkurni rivojlantirishning amaliy vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Ushbu usul yoshlarni bir muammoni

turli nuqtai nazarlardan - mantiqiy, hissiy, tanqidiy va ijodiy - bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqishga undaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu texnikani ta’lim mashg‘ulotlarida muntazam qo‘llash o‘quvchilarning kognitiv moslashuvchanligini va noan’anaviy yechimlar topish ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. o‘zbekiston ta’lim muassasalarida ushbu usulni qo‘llashga oid tajribalar ijobiy natijalar bermoqda [6].

3. Chora-tadbirlarning psixologik asoslari va amalga oshirish shartlari

Deci va Ryan (1985) ning o‘z-o‘zini belgilash nazariyasi sinergetik tafakkurni rivojlantirishda motivatsion omillarning hal qiluvchi rolini asoslaydi. Nazariyaga ko‘ra, ichki motivatsiya - kompetentlik, muxtorlik va aloqadorlik ehtiyojlari qondirilganda yuzaga keladigan - tafakkurning chuqur va yaxlit shakllanishi uchun asosiy psixologik shart hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, yoshlarda sinergetik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ularning shaxsiy qiziqishlarini va tanlov imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etilishi lozim [7].

Gardner (1983) ning ko‘p intellektlar nazariyasi sinergetik tafakkur chora-tadbirlarini diversifikatsiya qilishning ilmiy asosini beradi. Har bir o‘quvchining o‘ziga xos intellektual profili mavjud bo‘lib, lingvistik, matematik-mantiqiy, musiqiy, fazoviy, kinestezik, interShaxsiy va intrashaxsiy intellektlar turlicha rivojlangan bo‘ladi. Sinergetik tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ushbu farqlanishni hisobga olib, ko‘p kanalli ta’lim muhitini yaratishi, ya’ni vizual, audial, harakatli va ijtimoiy o‘rganish shakllarini birlashtirishi lozim. Bunday yondashuv tafakkurning tizimli va ko‘p o‘lchovli shakllanishini ta’minlaydi [8].

Xulosa

Ko‘rib chiqilgan nazariy yondashuvlar va pedagogik chora-tadbirlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sinergetik tafakkurni yoshlarda rivojlantirish murakkab, ko‘p qirrali va maqsadli tashkil etilgan jarayonni talab qiladi. Muammo-asosidagi ta’lim, lateral tafakkur texnikalari, ko‘p kanalli o‘rganish muhiti va ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash - bularning barchasini tizimli ravishda birlashtirgan holda tashkil etilgan ta’lim mashg‘ulotlari yoshlarning kognitiv moslashuvchanligini, tizimli fikrlash ko‘nikmalarini va ijodiy salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, ushbu soha bir qator ochiq masalalarni o‘z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy omillarning sinergetik tafakkur shakllanishiga ta’siri, raqamli ta’lim muhitida ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari, hamda o‘zbekiston ta’lim tizimida muqobil pedagogik yondashuvlarni joriy etishga oid empirik tadqiqotlarning yetishmasligi kelajakdagi ilmiy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Haken H. Synergetics: An Introduction. – Berlin: Springer, 1977. – 325 p.
2. Morin E. On Complexity. – Cresskill: Hampton Press, 2008. – 130 p.
3. Vygotsky L.S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1986. – 287 p.
4. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952. – 419 p.
5. Anderson L.W., Krathwohl D.R. (Eds.) A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom’s Taxonomy. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
6. De Bono E. Six Thinking Hats. – Boston: Little, Brown and Company, 1985. – 177 p.
7. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
8. Gardner H. Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences. – New York: Basic Books, 1983. – 440 p.

O‘SMIRLIK DAVRI PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Nuriddinova Nigora Ruxiddin qizi
O‘zbekiston Milliy Universiteti
“ Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, xususan, jismoniy o‘sish va jinsiy yetilish jarayonlarining shaxs psixikasiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘smirlarning mavhum tafakkuri, analitik-sintetik fikrlash qobiliyati va tanqidiy tafakkurining rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, o‘smirlik davrida mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash jarayonlarining shakllanishi muhim psixologik omil sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixik rivojlanish, mavhum tafakkur, tanqidiy fikrlash, o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, mustaqillik, qiziqishlar.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические особенности подросткового возраста, в частности, влияние физического роста и полового созревания на психику личности. Выделены этапы развития абстрактного, аналитико-синтетического и критического мышления подростков. Также рассматривается формирование независимого мышления, самосознания и процессов самооценки в подростковом возрасте как важный психологический фактор.

Ключевые слова: подростковый возраст, психологическое развитие, абстрактное мышление, критическое мышление, самосознание, самооценка, независимость, интересы.

Abstract: This article analyzes the psychological characteristics of adolescence, in particular, the impact of physical growth and sexual maturation on the psyche of the individual. The stages of development of abstract thinking, analytical-synthetic thinking and critical thinking of adolescents are highlighted. Also, the formation of independent thinking, self-awareness and self-assessment processes during adolescence is considered as an important psychological factor.

Keywords: adolescence, psychological development, abstract thinking, critical thinking, self-awareness, self-assessment, independence, interests

O‘smirlarning jismoniy o‘sishi va jinsiy yetilishi ularning psixikasida keskin o‘zgarishlarni vujudga keltiradi. O‘quv fanlarning ko‘payishi, axborotlar. ma’lumotlar tarmog‘ining kengayishi ularning fikr yuritishini shakllantiradi. O‘smir o‘quvchilar o‘rganayotgan fan asoslari ularning mavhum tafakkurini o‘stirishga qaratiladi. Ularning aqliy faoliyati xususiyatlaridan biri - mavxum tafakkurining rivojlanishidir.

Maktab ta’limini va mustaqil bilim olish faoliyati ta’siri ostida o‘smirda analitik-sintetik faoliyat jadal sur’at bilan rivojlana boshlaydi. O‘smirning eng muhim xususiyatlardan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa o‘smirning aqliy faoliyatida yangi davr boshlanganini bildiradi. Aqlning tanqidiyligi ayrim hollarda o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida “anglashilmovchilik”ni vujudga keltiradi. Aqlning tanqidiyligi o‘smirning asosiy xususiyatlaridan biri bo‘lib, o‘zgalar muloxozasidan, darslikdan xato va kamchiliklar topishga, o‘z gapida turib, ayrim fikrlarga qat’iy e’tiroz bildirishga urinib va baxslashishiga moyil bo‘ladilar. Tafakkurning mustaqilligi inson uchun katta ahamiyatga ega. O‘qituvchi dars jarayonida va darslardan tashqari vaqtlarda, har qanday ogir shart-sharoitlarda ham turli usullar bilan bu hislatni qullab quvvatlashi, uning rivojlanishi uchun imkoniyat yaratishi kerak [35].

O‘smirlarning xulqiga doimiy e’tibor berish, uning xulqiga qat’iy, uzluksiz rahbarlik qilish, bularning hammasini shunday amalga oshira bilish kerakki, bola mayda-chuyda ishlarida ham kattalarni doimiy vasiyligini sezmasin. O‘smirlar uning hayotdagi yangi mavqelari bilan hisoblashadigan, ularni “kichkina” deb hisoblamaydigan, talabchan, lekin adolatli o‘qituvchilarni xurmat qiladilar. V. Karimovaning yozishicha o‘smirlikda qiziqishlar turli-tuman bo‘ladi. Bu qiziqishlar to‘g‘ri tarbiyalansa, ular o‘smirlarning qobiliyatlari va mayllarining rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. O‘quvchining bilimlari chuqurlashib boradi, u fanlarni o‘rgana boshlaydi, unda ayrim o‘quv predmetlariga, sanatga, sportning qaysidir turiga zo‘r qiziqish ortadi. O‘smir juda ko‘p narsalarga; sport, turizm, kino-teatr, badiiy havaskorlik, pochta markalariniva

qadimiy tangalarni yig‘ish, o‘simlik va hashoratlar kolleksiyasini to‘plashga qiziqadi. Ko‘p hollarda bu qiziqishlar ehtiros xarakteriga ega bo‘ladi. Kun tartibi to‘g‘ri tashkil qilinsa, vaqt to‘gri taqqoslansa, o‘smir yaxshi o‘qish, maktabdan tashqari xilma-xil ishlar bilan shug‘ullanishi va o‘yin-kulgu uchun yetarli vaqt topa olishi mumkin. Ilk yigitlik bo‘sag‘asida turgan o‘smirlar uchun kishilarning his-tuyg‘ulari, kechinmalariga va ayniqsa, o‘zining ichki dunyosiga, o‘zini o‘zi analiz qilishga moyillik xarakterlidir.

O‘z-o‘zini anglashning – bu o‘zini o‘zi tanish, sifat va kamchiliklarini, o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini bilib olish, o‘z xatti-harakatlari haqida hisob berish ehtiyojidir. O‘z-o‘zini anglashning eng yuqori darajasi o‘zining hayotdagi o‘rnini aniq tasavvur qilish, o‘zini shaxs sifatida anglab olishdir. Dastlabki paytlarda uning o‘zi haqidagi fikrlari ko‘p jihatdan boshqa kishilarning u xaqidagi fikrlaridan iborat bo‘ladi “O‘z xarakter hislatlaring xaqida sen qaerdan bilasan “ degan savolga o‘smirlar to‘g‘rilad to‘g‘ri ota-onalari o‘qituvchilari, o‘rtoqlaridan bilib olganlarini aytadilar, ammo keyinchalik buni o‘zlari seza boshlaydilar. Lekin har qalay, o‘zlaridan ko‘ra boshqa kishilarni oldinroq baholay boshlaydilar.Ular o‘z fikrlarini g‘olib chiqishini hohlashadilar.

O‘smirlar boshqa kishilarni baholashda bazan shoshma-shosharlik qilib, qatiy fikr yuritishga yo‘l qo‘yib qo‘yadilar. Masalan: ular ko‘pincha kishilarni faqat ayrim xatti - harakatlari va ayrim sifatlariga qarab baholaydilar. Bu bahoni esa butun bir shaxsga nisbatan tadbiq qiladilar. Natijada kishining qadr-qiymatiga uning ijobiy va salbiy sifatlari haqida ko‘pincha noto‘g‘ri xulosa chiqaradilar. Ularning o‘z-o‘ziga baho berishi ham har doimxolis bo‘lavermaydi. Masalan: ular o‘rtoqlaring qo‘polligi yoki pismiqligi to‘grisida gapiradilar-u, ammo buni o‘zlarida sezmaydilar. Hamma o‘smirlar ham o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z xatolarini vijdonan va ro‘yi- rost bo‘yniga olishni uddasidan chiqavermaydi.

Xulosa

O‘smir atrofdagilarning unga bergan bahosiga nisbatan sezgir bo‘ladi. Uning kayfiyatidagi ranjish, ikkilanishning sababi ana shunda. Tasodifiy muoffaqiyat yoki kattalarning maqtab qo‘yishi, o‘smirlarni o‘ziga ortiqcha baho berishiga, o‘ziga hatddan tashqari ishonuvchanlikka, maqtonchoqlikka olib keladi. Xatto vaqtincha, tasodifiy muvaffaqqiyatsizlik o‘smirda o‘z kuchiga ishonmaslikna uyg‘otish, ikkilanish, qorqoklik, juratsizlik va uyatchanlik hissini oshirib yuborish mumkin.Shuning uchun ota-ona yoki o‘qitivchi o‘smirlar bilan bo‘ladigan munosabatda alohida e’tiborli va nazokatli bo‘lishi zarur. O‘smirlik yoshida zaif, mustaqil emas, kichkina deb nom chiqarishninig qo‘rqish xavfi kuchayadi.U o‘zining mustaqilligini ko‘rsatish uchun, o‘zining nohaqligini tushunib tursa ham, ko‘pincha qaysarlik va qo‘pollik qilaveradi. Muomalada dag‘allik, talabchanlikva xurmatsizlik o‘quvchiga yosh bolalarga bo‘lganday muomalada bo‘lish ular yaxshi tushunaman deb hisoblagan misollar bo‘yicha o‘zlarining mustaqil fikrlarini aytish xuqiqini mensimaslik ularning yuqori natijalarga erishishdagi kuch va imkoniyatlariga shubhalanish kabi hodisalar, odatda o‘smirda norozilik yoki aniq ifodalangan boshqa bir salbiy harakatlarni hosil qiladi. O‘smirlar o‘z-o‘zini tarbiyalashga zarurat sezadilar buni ulardan anglilikning o‘sishi, kattalarga o‘xshashga intilishlari bilan tushintirish mumkin, endi ular ma’lum darajada o‘zini ishontirish, o‘ziga buyruq berish, o‘zini nazorat qilish kabi o‘z-o‘zini tarbiyalash vositalariga egadirlar. Ular ayniqsa, jismoniy va iroda jihatlarini o‘stirishga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lev Vygotsky L.S. Psixikaning rivojlanishi (Mind in Society). – Cambridge: Harvard University Press, 1978.

2. Jean Piaget J. Bola psixologiyasi (The Psychology of the Child). – New York: Basic Books, 1969.

3. Erik Erikson E. Shaxs va identiklik (Identity: Youth and Crisis). – New York: W.W. Norton & Company, 1968.

4. Daniel Elkonin D.B. Bola rivojlanish psixologiyasi. – Moskva: Pedagogika, 1989.

TALABALARDA AKADEMIK MAS'ULIYATNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

O'ktamova Shohida Odilbek qizi *Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteiti "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, ps.f.f.d.(PhD*)

Ushbu huquqiy asoslar imkoniyati cheklangan bolalarga nisbatan rahm-shafqat yoki xayriya nuqtayi nazaridan emas, balki huquq egasi bo‘lgan shaxs sifatida yondashishni talab etadi. Bu esa ta’lim tizimidan bolaning imkoniyatlarini ochishga, uning qobiliyatlarini rivojlantirishga va jamiyatda munosib o‘rin egallashiga sharoit yaratishni talab qiladi.

2. Inklyuziv ta’lim — huquqiy majburiyat va pedagogik qadriyat sifatida

Inklyuziv ta’lim — bu barcha bolalarning, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalarning ham umumiy ta’lim jarayonida teng huquq va imkoniyatlar asosida ishtirok etishini ta’minlaydigan pedagogik tizimdir. Uning asosiy maqsadi bolaning jamiyatdan ajralib qolishining oldini olish, uni tengdoshlari bilan birgalikda o‘qitish, muloqotga, hamkorlikka va mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat.

Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Tenglik tamoyili** — har bir bola ta’lim olishda teng huquqqa ega.
2. **Kamsitmaslik tamoyili** — bolaning jismoniy yoki psixologik xususiyati uning ta’limdan chetlashtirilishiga sabab bo‘lmasligi kerak.
3. **Individual yondashuv tamoyili** — har bir bolaning qobiliyati, ehtiyoji, rivojlanish sur’ati va o‘quv imkoniyatlari inobatga olinadi.
4. **Moslashtirilgan muhit tamoyili** — ta’lim muassasasi bolaning ehtiyojlariga moslashtiriladi.
5. **Hamkorlik tamoyili** — o‘qituvchi, psixolog, defektolog, logoped, ota-ona va tibbiyot xodimlari birgalikda faoliyat yuritadi.

6. **Ijtimoiy integratsiya tamoyili** — bola faqat bilim oluvchi emas, balki jamoaning faol a’zosi sifatida shakllantiriladi.

Demak, inklyuziv ta’lim — bu oddiy sinfga imkoniyati cheklangan bolani joylashtirish emas. U murakkab pedagogik tizim bo‘lib, unda o‘quv dasturi, metodika, muhit, baholash mezonlari, o‘qituvchi pozitsiyasi va sinf jamoasi madaniyati qayta tashkil etiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini samarali tashkil etish uchun ta’lim muassasasida kompleks yondashuv zarur. Bu jarayon faqat o‘qituvchi faoliyati bilan cheklanmaydi. Unda rahbariyat, pedagogik jamoa, psixolog, maxsus pedagog, ota-ona va mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Ta’lim jarayoni bolaning imkoniyatlari, qiziqishlari, sog‘lig‘i, bilish jarayonlari, nutqi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlashdan boshlanishi lozim. Bunda pedagogik kuzatish, psixologik diagnostika, suhbat, ota-onalar bilan muloqot va mutaxassislar xulosasidan foydalaniladi.

Bolaning ehtiyojlari to‘g‘ri aniqlansa, ta’lim jarayoni ham maqsadli tashkil etiladi. Aks holda bolaning qiyinchiligi “bilmaslik”, “xohlamaslik” yoki “intizomsizlik” sifatida noto‘g‘ri talqin qilinishi mumkin.

Individual ta’lim yo‘nalishini ishlab chiqish

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun individual ta’lim rejasi yoki individual rivojlanish xaritasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Unda quyidagilar belgilanadi:

- bolaning mavjud rivojlanish darajasi;
- o‘quv maqsadlari;
- moslashtirilgan topshiriqlar;
- korreksion-rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar;
- baholash mezonlari;
- ota-ona va mutaxassislar vazifalari;
- kutilayotgan natijalar.

Individual ta’lim yo‘nalishi bolaning umumiy sinf dasturidan butunlay ajratilishini anglatmaydi. Aksincha, u umumiy ta’lim maqsadlarini bolaning imkoniyatlariga moslashtirishga xizmat qiladi.

Moslashtirilgan o‘quv muhiti yaratish

Imkoniyati cheklangan bolalar uchun ta’lim muhiti jismoniy, psixologik va metodik jihatdan qulay bo‘lishi kerak. Masalan, harakatlanishida qiyinchiligi bo‘lgan bola uchun pandus, qulay parta, keng yo‘lak, xavfsiz sinf muhiti zarur bo‘lsa, eshitishida yoki ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar uchun maxsus texnik vositalar, vizual materiallar, yirik shriftlar, audio vositalar yoki imo-ishora ko‘magidan foydalanish talab etiladi.

Psixologik muhit ham alohida ahamiyatga ega. Sinfda masxara qilish, ajratish, befarqlik yoki achinishga asoslangan munosabat emas, balki hurmat, do‘stlik va hamkorlik madaniyati shakllantirilishi zarur. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashda o‘qituvchi an’anaviy tushuntirish usullari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Dars jarayonida ko‘rgazmali, amaliy, interfaol va differensial metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Masalan:

- murakkab mavzuni kichik qismlarga bo‘lib tushuntirish;
- topshiriqni og‘zaki, yozma va rasmli shaklda berish;
- ko‘proq takrorlash va mustahkamlash;
- juftlikda yoki kichik guruhda ishlash;
- o‘yinli texnologiyalardan foydalanish;
- bolaning kuchli tomonlariga tayangan holda topshiriq berish;
- rag‘batlantirish va ijobiy baholashdan foydalanish.

Bunday yondashuv bolaning nafaqat bilim olishiga, balki o‘ziga ishonchi, faolligi va ijtimoiy moslashuviga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limida pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash muhim o‘rin tutadi. Chunki bunday bolalar ko‘pincha nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishda, balki

muloqot, emotsional barqarorlik, o‘ziga ishonch, jamoaga moslashish va mustaqil faoliyatda ham yordamga ehtiyoj sezadi.

Pedagogik-psixologik qo‘llab-quvvatlash quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

Yo‘nalish	Mazmuni
Diagnostik yo‘nalish	Bolaning rivojlanish xususiyatlari, qobiliyati va qiyinchiliklarini aniqlash.
Korreksion-rivojlantiruvchi yo‘nalish	Nutq, tafakkur, xotira, diqqat, emotsional holat va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.
Konsultativ yo‘nalish	Ota-onalar, o‘qituvchilar va tarbiyachilarga maslahat berish.
Profilaktik yo‘nalish	Bolaning izolyatsiyasi, o‘ziga ishonchsizlik, qo‘rquv va ijtimoiy chetlanishining oldini olish.
Ijtimoiy moslashtirish yo‘nalishi	Bolani sinf, maktab va jamiyat hayotiga faol jalb etish.

Pedagog-psixologning vazifasi faqat bolaning muammosini aniqlash emas, balki uning kuchli tomonlarini ochish, imkoniyatlarini rivojlantirish va o‘qituvchiga to‘g‘ri pedagogik strategiyani tanlashda yordam berishdan iborat.

Ota-onalar bilan hamkorlik. Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limida ota-onalar bilan hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Chunki bola maktabda olgan pedagogik ta’sirni oilada davom ettirmasa, rivojlanish jarayoni sekinlashishi mumkin. Ota-ona bolaning imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, uni ortiqcha ayamasligi, lekin talabchanlik va mehr o‘rtasidagi muvozanatni saqlashi zarur. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi shakllar samarali hisoblanadi:

- individual suhbatlar;
- psixologik-pedagogik maslahatlar;
- ota-onalar uchun seminar-treninglar;
- “maktab — oila — mutaxassis” hamkorlik xaritasi;
- bolaning rivojlanish dinamikasini birgalikda tahlil qilish;
- uy sharoitida bajariladigan rivojlantiruvchi topshiriqlarni tavsiya etish.

Ota-onaga bolaning cheklanishini emas, uning rivojlanish imkoniyatlarini ko‘rsatish muhimdir. Chunki ishonchli oilaviy muhit bolaning ta’limdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

Imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etishda uchraydigan muammolar

Amaliyotda imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishda bir qator muammolar kuzatiladi. Jumladan:

- ayrim ta’lim muassasalarida moslashtirilgan muhitning yetarli emasligi;
- pedagoglarning maxsus metodik tayyorgarligi yetishmasligi;
- o‘quv dasturlarini individual moslashtirishdagi qiyinchiliklar;
- ota-onalarda psixologik tayyorgarlikning pastligi;
- tengdoshlar orasida noto‘g‘ri stereotiplarning mavjudligi;
- maxsus pedagog, logoped, defektolog va psixologlar yetishmasligi;
- baholash tizimining individual rivojlanish dinamikasiga yetarli moslashmaganligi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun inklyuziv ta’limni faqat hujjatlarda emas, balki real maktab amaliyotida joriy etish zarur. Bunda har bir ta’lim muassasasi o‘zining ichki inklyuziv madaniyatini shakllantirishi kerak.

Xulosa

Imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitishning huquqiy asoslari inson huquqlari, bola huquqlari, teng imkoniyat va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasida mazkur yo‘nalishda ta’lim olish huquqi, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash, bola manfaatlarini himoya qilish va inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid muhim normativ-huquqiy asoslar yaratilgan.

Biroq huquqiy asoslarning mavjudligi o‘z-o‘zidan sifatli ta’limni ta’minlamaydi. Buning uchun ta’lim muassasalarida moslashtirilgan muhit, maxsus pedagogik metodika, individual ta’lim yo‘nalishi, pedagog-psixologik qo‘llab-quvvatlash va ota-onalar bilan tizimli hamkorlik zarur. Inklyuziv ta’limning muvaffaqiyati jamiyatning imkoniyati cheklangan bolaga bo‘lgan munosabati, o‘qituvchining kasbiy tayyorgarligi va ta’lim tizimining moslashuvchanligiga bog‘liq.

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan bolalar ta’limini tashkil etish — bu faqat pedagogik vazifa emas, balki huquqiy, ma’naviy va ijtimoiy mas’uliyatdir. Har bir bola o‘z imkoniyati darajasida emas, balki unga yaratilgan imkoniyatlar darajasida rivojlanadi. Demak, ta’lim tizimining asosiy vazifasi — bolaning cheklangan jihatini emas, uning ochilmagan salohiyatini ko‘ra olishdir.

Amaliy takliflar

1. Har bir ta’lim muassasasida inklyuziv ta’lim bo‘yicha ichki dastur ishlab chiqish maqsadga muvofiq.
2. O‘qituvchilar uchun maxsus pedagogika, defektologiya va inklyuziv metodika bo‘yicha muntazam seminar-treninglar tashkil etish zarur.
3. Imkoniyati cheklangan har bir bola uchun individual rivojlanish xaritasi yuritilishi lozim.
4. Sinf jamoasida mehr-oqibat, hamkorlik va bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish kerak.
5. Ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislar o‘rtasida doimiy maslahat va hamkorlik tizimi yo‘lga qo‘yilishi zarur.
6. Dars jarayonida ko‘rgazmali, interfaol, texnologik va differensial yondashuvlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Baholashda faqat yakuniy natija emas, balki bolaning individual o‘sish dinamikasi ham inobatga olinishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
5. BMTning “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
6. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni rivojlantirishga oid Prezident qarorlari va davlat dasturlari.
7. Ainscow M. *Developing Inclusive Education Systems: What are the Levers for Change?*
8. Booth T., Ainscow M. *Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools.*
9. Vygotsky L.S. *Defectology and the Development of the Child.*
10. Salamanka deklaratsiyasi. Maxsus ehtiyojli bolalar ta’limi bo‘yicha xalqaro hujjat. UNESCO, 1994.

FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH METODLARI

Otajonova Oyshajon
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda futbolchilarni texnik-taktik tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (differensial o‘qitish, hamkorlikda o‘rganish, muammoli ta'lim, o‘yin va raqamli texnologiyalar) ning samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari ushbu texnologiyalarni kompleks qo‘llash o‘yinchilarning texnik ko‘nikmalari, idrokiy va motivatsion faolligini

oshirishga yordam berishini isbotlaydi hamda futbol murabbiylari amaliyotida bevosita qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: pedagogik texnologiya, sport tayyorgarligi, differensial o‘qitish, o‘yin texnologiyasi, muammoli ta'lim, raqamli texnologiya, texnik-taktik tayyorgarlik.

Аннотация: В данной диссертации исследованы теоретические основы и практические методы применения современных педагогических технологий в процессе технико-тактической подготовки футболистов. Результаты исследования доказывают, что комплексное применение таких технологий, как дифференцированное обучение, совместное обучение, проблемное обучение, игровые и цифровые технологии, способствует повышению технических навыков, когнитивной и мотивационной активности игроков, и может быть непосредственно применено в практической деятельности футбольных тренеров.

Ключевые слова: педагогическая технология, спортивная подготовка, дифференцированное обучение, игровая технология, проблемное обучение, цифровая технология, технико-тактическая подготовка.

Abstract: This thesis examines the theoretical foundations and practical methods of applying modern pedagogical technologies in the technical-tactical training of football players. The findings demonstrate that the integrated use of such approaches as differentiated instruction, cooperative learning, problem-based learning, game-based and digital technologies significantly enhances players' technical skills, cognitive engagement, and motivational activity, and can be directly applied in the practical work of football coaches and sports educators.

Keywords: pedagogical technology, sports training, differentiated instruction, game-based technology, problem-based learning, digital technology, technical-tactical preparation.

Kirish

Bugungi kunda jahon futbolida raqobat keskin kuchayib, o‘yinchilar tayyorligiga qo‘yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Sportchilarni samarali tayyorlash faqat jismoniy mashqlar bilan emas, balki ularning intellektual va psixologik rivojlanishi bilan ham bog'liq. Shu sababli futbol mashg'ulotlari tizimiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va baholashda foydalaniladigan ilmiy asoslangan usullar majmuidir. Bu texnologiyalarni sportga tatbiq etish o‘quvchi-sportchi hamda murabbiy o‘rtasidagi munosabatni yangi sifat darajasiga ko‘taradi, mashg'ulot jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan va natijaga asoslangan qiladi.

Differensial o‘qitish texnologiyasi har bir o‘yinchining individual imkoniyatlari, psixomotor xususiyatlari va o‘rganish sur'atini hisobga olgan holda mashg'ulot dasturini moslashtirishga asoslanadi. Murabbiy o‘yinchilarni qobiliyat va tayyorgarlik darajasiga qarab guruhlarga ajratib, har bir guruh uchun alohida mashq majmualarini belgilaydi. Bu yondashuv kuchsizroq o‘yinchilarda motivatsiya yo‘qolishining oldini oladi va iqtidorli sportchilarning salohiyatini to‘liq yuzaga chiqaradi.

Asosiy qism

Muammoli ta'lim texnologiyasi murabbiy tomonidan o‘yinchilar oldiga o‘yin vaziyatlariga oid muammoli topshiriqlar qo‘yishni nazarda tutadi. O‘yinchilar maydondagi muammoni mustaqil tahlil qilib, yechim topishga harakat qiladi. Masalan, o‘yinchilar raqibning turli mudofaa tizimlariga qarshi optimal hujum taktikasini o‘zlari ishlab chiqadi. Bu usul taktik tayyorgarlikni, qaror qabul qilish tezligini va kreativ o‘yin ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘yin texnologiyasi mashg'ulotlarda maxsus mo‘ljallangan o‘yin holatlaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Kichik maydonlarda o‘tkaziladigan mashqlar o‘yinchilarga ko‘proq to‘p bilan ishlash imkoniyatini beradi va real o‘yin sharoitlariga yaqinlashtirilgan muhitda ko‘nikmalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bunday mashqlar nafaqat texnik tayyorgarlik, balki jamoaviy hamkorlik orqali psixologik tayyorgarlik ham rivojlantiradi.

Hamkorlikda o‘rganish texnologiyasi jamoa ruhi va o‘zaro yordam muhitini shakllantiradi. Tajribaliroq o‘yinchilar yangi a'zolarga o‘z bilim va tajribalarini o‘rgatadi, bu esa ikki tomonlama

rivojlanishni ta'minlaydi. Bunday yondashuv jamoaning ichki intizomini mustahkamlaydi, o‘yinchilar o‘rtasidagi muloqot madaniyatini yaxshilaydi va jamoaviy birlikni kuchaytiradi.

Zamonaviy futbol tayyorgarligida video tahlil dasturlari va sensor texnologiyalaridan foydalanish keng tarqalmoqda. O‘yinchilar o‘z xato va yutuqlarini ekranda ko‘rib, ongli ravishda tahlil qiladi. GPS va yurak urishi monitorlari orqali yuklamani aniq nazorat qilish imkoni paydo bo‘ladi. Bu texnologiyalar murabbiy va o‘yinchi o‘rtasidagi fikr almashuvni yangi darajaga ko‘taradi.

Texnologiya	Asosiy maqsad	Qo‘llanish usuli	Samaradorlik
Differensial o‘qitish	Individual yondashuv	Guruhga ajratish	+25-30%
Muammoli ta'lim	Taktik tayyorgarlik	Muammoli topshiriq	+20-28%
O‘yin texnologiyasi	Texnik tayyorgarlik	Kichik maydon	+22-30%
Hamkorlikda o‘rganish	Psixolagik tayyorgarlik	Tengdosh o‘qitish	+15-20%
Raqamli texnologiya	Tahlil va nazorat	Video, GPS, sensor	+18-25%

XULOSA

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Pedagogik texnologiyalarni futbol mashg'ulotlariga tatbiq etish o‘yinchilarning texnik-taktik ko‘nikmalarini 25-35% ga oshirishga imkon beradi.

Differensial yondashuv har qaysi o‘yinchining individual salohiyatini maksimal darajada ro‘yobga chiqarishni ta'minlaydi.

Muammoli ta'lim va o‘yin texnologiyasi o‘yinchilarda mustaqil taktik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Eksperiment metodi natijalariga ko‘ra, tajriba guruhi nazorat guruhiga nisbatan texnik-taktik ko‘rsatkichlarda 20-26% yuqori natija ko‘rsatdi.

Test va baholash metodi pedagogik texnologiyalarning samaradorligini ob'ektiv o‘lchash imkonini berdi.

Raqamli texnologiyalar mashg'ulot jarayonining shaffofligini oshirib, aniq ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishga imkon beradi.

Pedagogik texnologiyalarni kompleks qo‘llash murabbiylarga mashg'ulot jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport to‘g'risidagi qonun. -Toshkent, 2015.

2.Seluyanov V.N. Texnologiya fizicheskoy podgotovki futbolistov. - Moskva: SportAkademPress, 2014. -115 b.

3. Abdullayev A.A. Jismoniy tarbiyada pedagogik texnologiyalar. -Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. - 180 b.

4. Xolmatov X.T. Sport pedagogikasi asoslari. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. - 204 b.

OILAVIY QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASHDA O‘ZBEKISTON TARIXINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Qalandarova Holisxon Umidbek qizi
Abu Rayxon Beruniy nomida Urganch Davlat Universiteti Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur tezisda oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash jarayonida O‘zbekiston tarixini o‘rganishning ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida shaxs tarbiyasida, milliy o‘zlikni anglashda, tarixiy xotirani shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. O‘zbekiston tarixi esa yosh avlodni ajdodlar merosiga hurmat, vatanga sadoqat, ota-onaga ehtirom,ota-onani hurmat qilish, oilaga mas’uliyat, javobgarlikni olish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. Tezisda tarixiy bilimlarning oilaviy tarbiya bilan uzviy bog‘liqligi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy qadriyatlar, O‘zbekiston tarixi, tarixiy xotira, milliy tarbiya, ma’naviyat, vatanparvarlik, ajdodlar merosi, yosh avlod.

Аннотация. В данной диссертации подчеркивается духовное, образовательное и социальное значение изучения истории Узбекистана в процессе укрепления семейных ценностей. Семья, как главное звено в обществе, играет важную роль в воспитании личности, в понимании национальной идентичности и в формировании исторической памяти. История Узбекистана является важным источником воспитания молодого поколения в духе уважения к наследию предков, верности Родине, уважения к родителям, ответственности за семью и уважения к национальным ценностям. В диссертации анализируется научно-теоретическая взаимосвязь между историческими знаниями и семейным воспитанием.

Ключевые слова: семья, семейные ценности, история Узбекистана, историческая память, национальное воспитание, духовность, патриотизм, наследие предков, молодое поколение.

Abstract. This thesis highlights the spiritual, educational, and social significance of studying the history of Uzbekistan in the process of strengthening family values. The family, as the main link in society, plays an important role in the upbringing of the individual, in the understanding of national identity, and in the formation of historical memory. The history of Uzbekistan is an important source in educating the younger generation in the spirit of respect for the heritage of ancestors, loyalty to the Motherland, respect for parents, responsibility for the family, and respect for national values. The thesis analyzes the scientific and theoretical relationship between historical knowledge and family education.

Keywords: family, family values, history of Uzbekistan, historical memory, national education, spirituality, patriotism, heritage of ancestors, young generation.

Kirish

Oila bu-inson kamolotining dastlabki va eng muhim tarbiya maskani hisoblanadi. Shaxsning axloqiy qarashlari, dunyoqarashi, milliy qadriyatlarga munosabati, jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy mas’uliyati avvalo oilada shakllanib boradi. Shu boisdan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash , ularni ahamiyati bugungi kunda nafaqat ma’naviy-ma’rifiy, balki ijtimoiy zarurat sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Oilaviy qadriyatlar deganda ota-onaga hurmat, farzand tarbiyasiga mas’uliyat, kattalarga hurmat va ehtirom, kichiklarga izzat va mehr, qarindosh-urug‘lar bilan ahillik, halollik, sadoqat, mehr-oqibat, vatanparvarlik va milliy an’analarga hurmat kabi tushunchalar anglashimiz mumkin. Ushbu qadriyatlar xalqimizning ko‘p asrdan beri kelayotgan tarixiy tajribasi, turmush tarzi, urf-odatlari va ma’naviy merosi asosida shakllangan.

O‘zbekiston tarixini o‘rganish o‘zbek xalqida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda bu muhim omillardan biri hisoblanadi. Chunki tarix xalqning xotirasi, millatning o‘zligini anglash manbai va avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy bog‘liqlikni ta’minlovchi asosiy vositalardan biridir.

Asosiy qism

O‘zbekiston tarixi yosh avlodga xalqimizning boy madaniyati, davlatchilik an’analari, ilm-fan taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, milliy qahramonlari va buyuk allomalari haqida chuqur tasavvur beradi. Bu bilimlar oilada farzandlarni ma’naviy yetuk, vatanparvar, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Ta`lim jarayonida, maktabgacha, maktab davrlarida va Oliy ta`limda ham oilaviy qadriyatlarni shakllantirish va shaxs tarbiyasidagi ahamiyatini doimiy ravishda tushuntirilib boriladi. Tarixiy bilimlar orqali farzandlar ajdodlar hayoti va faoliyatidan ibrat olish va ular bilan faxr tuyg ‘ularini his qilish, shxs shakllanishida bu jarayonlardan motivatsiya olishda juda ko‘p foydalaniladi. Masalan, Amir Temur shaxsiyati va davlatchilik faoliyati yoshlarda adolat, tartib-intizom, qat’iyat, mas’uliyat va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini shakllantiradi. Alisher Navoiy merosi esa insonparvarlik, mehr-muruvvat, ilmga intilish, axloqiy poklik va ezgulik g‘oyalarini tarbiyalaydi. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek kabi buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma’naviy merosi farzandlarda bilimga muhabbat, halollik, o‘z-o‘zini anglash , sabr-toqat va komillikka intilish fazilatlarini rivojlantiradi.

Oila tarbiyasida O‘zbekiston tarixiga oid suhbatlar tashkil etish, buyuk ajdodlar hayoti haqida kitoblar o‘qish, tarixiy filmlar va hujjatli ko‘rsatuvlarni birgalikda muhokama qilish, muzeylar va tarixiy obidalarga oilaviy tashriflar uyushtirish farzandlarda tarixiy xotirani shakllantirishning samarali yo‘llaridan biridir. Bunday tarbiyaviy jarayon bolalarda o‘z oilasi, millati va Vataniga nisbatan hurmat , vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytiradi. Tarixiy xotiralar oilaviy qadriyatlarning mustahkamlanishida alohida ahamiyatga ega. O‘z tarixini bilgan inson o‘zligini anglaydi, ajdodlar merosini qadrlaydi, oila sha’ni va Vatan ravnaqi uchun mas’uliyatini his qila oladi. Shuningdek, tarixiy bilimlar muntazam yoshlarni befarqlikdan, ma’naviy bo‘shliqdan va begona g‘oyalar ta’siridan himoya qilishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlar ongiga turli axborot oqimlari ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunday sharoitda milliy tarixni o‘rganish oilaviy tarbiyaning mustahkam ma’naviy tayanchiga aylanadi. Ota-onalar farzandlariga tarixiy voqealar, milliy bayramlar, ajdodlar merosi va xalqimizning qadimiy urf-odatlari haqida tushuncha berib borishlari zarur. Bu jarayon oilada milliy g‘urur, o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va vatanparvarlik muhitini shakllantiradi.

O‘zbekiston tarixini o‘rganish oilaviy qadriyatlarni quyidagi jihatlar orqali mustahkamlaydi:

Birinchidan, tarix yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, o‘z menini tushunish, o‘z-o‘zidan faxrlanish hissini rivojlantiradi. Farzandlar o‘z xalqining o‘tmishini, tarixini, ajdodlarining hayoti va mehnatini bilgan sari milliy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydi.

Ikkinchidan, tarix oilada avlodlar davomiyligini ta’minlaydi. Keksalar hayotiy tajribasi, ota-onalar tarbiyasi va farzandlar dunyoqarashi tarixiy xotira orqali bir-biri bilan bog‘lanadi.

Uchinchidan, tarixiy bilimlar oilaviy tarbiyada ibrat-namuna manbai bo‘lib xizmat qiladi. Buyuk ajdodlar hayoti va faoliyati biz yoshlar uchun ma’naviy namuna hisoblanadi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston tarixini o‘rganish vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. O‘z yurtining tarixini bilgan inson uning bugungi rivoji -taraqqiyoti va kelajagi uchun mas’uliyatni chuqurroq his qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashda O‘zbekiston tarixini o‘rganish muhim tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatga egadir. Tarix oilani milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi, vatanparvarlik va ma’naviy barkamollik bilan bog‘lovchi kuchli omildir. Oilada tarixiy bilimlarni shakllantirish, rivojlantirish farzandlarda milliy g‘urur, tarixiy xotira, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat va Vatanga muhabbat tuyg‘ularini rivojlantiradi. Shu sababli O‘zbekiston tarixini o‘rganish faqat ta’lim jarayonining vazifasi emas, balki oilaviy tarbiyaning ham ajralmas qismi bo‘lishi lozim. Oila, ta’lim muassasasi va jamiyat hamkorligida tarixiy-ma’naviy tarbiyani kuchaytirish barkamol, vatanparvar va milliy qadriyatlarga sodiq avlodni voyaga yetkazishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

3. Jo‘rayev N. O‘zbekiston tarixi va ma’naviyat asoslari. Toshkent, 2019.
4. Hasanboyev J., To‘raqulov X. Pedagogika nazariyasi. Toshkent, 2018.
5. Abdullayeva M. Oila pedagogikasi. Toshkent, 2021.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Qalandarova Yulduz Bahramovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini shakllantirishning pedagogik mexanizmlari tizimli tahlil qilingan. Psixologik salomatlik tushunchasining zamonaviy interpretatsiyalari, uni rivojlantirishga ta’sir etuvchi pedagogik omillar hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan samarali mexanizmlar yoritilgan. Shuningdek, talabalarning psixologik barqarorligini ta’minlash, stressga chidamliligini oshirish va ijtimoiy-psixologik moslashuvini rivojlantirishga qaratilgan integrativ mualliflik modeli va uning empirik samaradorligi asoslab berilgan. Matematik-statistik (korrelyatsion va qiyosiy) tahlillar yordamida taklif etilgan pedagogik mexanizmlarning talabalar psixologik farovonligiga ta’siri isbotlangan.

Kalit so‘zlar: psixologik salomatlik, talaba-yoshlar, oliy ta’lim, pedagogik mexanizmlar, psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, raqamli psixogigiyena, mualliflik modeli, korrelyatsion tahlil.

Аннотация. В статье анализируются педагогические механизмы формирования психологического здоровья студентов в высших образовательных учреждениях. Раскрываются сущность психологического здоровья в рамках биопсихосоциального подхода, педагогические факторы его развития и эффективные механизмы реализации в образовательном процессе. Обосновывается интегративная авторская модель, направленная на развитие психологической устойчивости, стрессоустойчивости и социально-психологической адаптации студентов. На основе математико-статистического анализа доказана эффективность предложенных педагогических условий.

Ключевые слова: психологическое здоровье, студенты, высшее образование, педагогические механизмы, психологическая устойчивость, цифровая психогигиена, авторская модель, корреляционный анализ.

Abstract. The article analyzes pedagogical mechanisms for developing psychological health among students in higher education institutions. The essence of psychological health within the biopsychosocial framework, pedagogical factors influencing its development, and effective mechanisms implemented in the educational process are discussed. An integrative author's model aimed at enhancing students' psychological resilience, stress resistance, and socio-psychological adaptation is substantiated. Through mathematical-statistical analysis, the empirical effectiveness of the proposed pedagogical mechanisms is proven.

Keywords: psychological health, students, higher education, pedagogical mechanisms, psychological resilience, digital psychohygiene, author's model, correlation analysis.

Kirish

Bugungi jadal globallashuv, ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy determinatning o‘zgarishi sharoitida oliy ta’lim muassasalarida (OTM) talaba-yoshlarning psixologik salomatligini shakllantirish va muhofaza qilish muammosi ustuvor ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy talabalar intensiv akademik yuklamalarning ortishi, kasbiy o‘zini aniqlash (professional self-determination) jarayonidagi eksiztensial inqirozlar, ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuv muammolari hamda kognitiv va emotsional zo‘riqishlar ta’sirida faoliyat olib bormoqdalar [1]. Mazkur distressogen omillar talabalarning ruhiy holatiga

salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘quv motivatsiyasining pasayishi, akademik prokrastinatsiya va professional deformatsiyani keltirib chiqarmoqda.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ekspertlarining ta’kidlashicha, psixologik salomatlik shaxsning o‘z ichki salohiyatini to‘liq anglay olishi, kundalik hayotiy stresslarni adaptiv boshqara olishi, unumli mehnat qilishi va ijtimoiy hayotga samarali hissa qo‘sha olish qobiliyatini ifodalovchi integral holatdir [2]. Ta’lim tizimining raqamlashtirilishi talabalarning axborot olish imkoniyatlarini kengaytirgan bo‘lsa-da, kiberbulling, feyk axborotlar xuruji va gadjetlarga qaramlik kabi yangi infogen xavflarni yuzaga keltirdi. Ushbu holat oliy ta’limda faqatgina bilim berish bilan cheklanmay, talaba shaxsining ruhiy barqarorligini ta’minlovchi refleksiv, insonparvar va xavfsiz pedagogik mexanizmlarni loyihalash va amaliyotga joriy etish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Asosiy qism

Psixologik salomatlik va farovonlik muammosi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlari kesishmasida uzoq yillardan buyon fundamental tadqiq etib kelinmoqda. Ushbu fenomenning nazariy-metodologik asoslari, eng avvalo, gumanistik psixologiya vakillarining asarlarida o‘z aksini topgan.

A. Maslou konsepsiyasiga ko‘ra, psixologik jihatdan sog‘lom inson o‘zining ichki latent imkoniyatlarini to‘liq namoyon qila oladigan, o‘z-o‘zini aktuallashtirishga (self-actualization) intiladigan shaxsdir [3]. Olim ta’lim muassasalarining strategik vazifasi subyektning ehtiyojlar iyerarxiyasini inobatga olgan holda uning shaxsiy o‘sishini ta’minlashdan iborat ekanligini qayd etadi.

K. Rojers psixologik salomatlik mezonlarini "to‘liq faoliyat yurituvchi shaxs" (fully functioning person) modeli orqali ochib beradi [4]. Uning fikricha, inson ta’lim muhitida o‘zini erkin ifoda etish, shaxsiy ekspertizasini baholay olish hamda emotsional tajribalarini so‘zsiz qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lgandagina ichki kongruentlikka (uyg‘unlikka) erishadi.

M. Seligman asos solgan pozitiv psixologiya yo‘nalishida ishlab chiqilgan PERMA modeli (Positive Emotion, Engagement, Relationships, Meaning, Accomplishment) bugungi kunda universitet talabalarining psixologik farovonligini pedagogik monitoring qilishning muhim asosi bo‘lib xizmat qilmoqda [6].

K. Riff (C. Ryff) esa psixologik farovonlikning 6 ta invariant komponentini (o‘zini qabul qilish, atrof-muhitni boshqarish, avtonomiya, shaxsiy o‘sish, hayotiy maqsadlar va ijobiy munosabatlar) ajratib ko‘rsatib, ularni oliy ta’lim pedagogik jarayonida integratsiya qilish zarurligini ilmiy asoslagan [5].

Zamonaviy MDH va mahalliy tadqiqotlar kontekstida ushbu muammoning pedagogik determinatsiyasi o‘rganilgan. Jumladan, **I.S. Yakimanskaya** shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari talabalarda o‘z-o‘zini qadrlash va akademik stressga nisbatan barqarorlikni shakllantirishini isbotlagan [7]. **E.F. Zeer** kasbiy shakllanish jarayonida talabalarning psixologik salomatligini saqlash va rivojlantirishda kasbiy refleksiya hamda shaxsiy identifikatsiyaning o‘rnini ko‘rsatib o‘tgan [8]. **N.B. Stambulova** esa stressga chidamlilikni subyektning murakkab (krizisli) vaziyatlarda o‘z faoliyat samaradorligini yo‘qotmasdan, emotsional gomeostazni saqlash qobiliyati sifatida baholaydi [9].

Shuningdek, so‘nggi yillarda (2020–2026-yillar) xalqaro miqyosda raqamlashtirishning talabalar ruhiyatiga ta’siri bo‘yicha fundamental ishlar olib borilmoqda. **J. Twenge** o‘zining raqamli avlod (iGen) tadqiqotlarida smartfon va ijtimoiy tarmoqlardan nazoratsiz foydalanish yoshlarda xavotirlilik, frustratsiya va depressiv kayfiyatning ortishiga bevosita sabab bo‘layotganligini empirik dalillagan [11].

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini tizimli va bosqichma-bosqich shakllantirish maqsadida mualliflik Integrativ pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur model an’anaviy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish va raqamli muhit xavflaridan himoya qilish komponentlarini o‘z ichiga oladi.

Maqsadli blok: Talabalar psixologik salomatligi va barqarorligini ta'minlash	



Model doirasida oliy ta’lim amaliyotiga tatbiq etilgan yetakchi **pedagogik mexanizmlarning** mohiyati quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Psixologik xavfsiz ta’lim muhiti: Auditoriyada talabalarning shaxsiy fikriga nisbatan tolerantlik, emotsional qo‘llab-quvvatlash va "xato qilish huquqi"ning tan olinishi akademik xavotirlilik darajasini pasaytiradi.
2. Refleksiv faoliyatni tashkil etish: Talabalarni o‘z kognitiv va emotsional holatlarini doimiy monitoring qilishga o‘rgatish. A.V. Karpov yondashuviga ko‘ra, refleksivlik shaxsning o‘z faoliyatini ongli boshqarish imkonini beruvchi bosh mexanizmdir [10].
3. Raqamli psixogigiyena madaniyati: Talabalarda axborot oqimini filtrlash, "raqamli detoks" (digital detox) va ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Ushbu uchta yetakchi pedagogik mexanizm (psixologik xavfsiz muhit, refleksiv faoliyat va raqamli psixogigiyena) shunchaki alohida ajralgan pedagogik usullar emas, balki talaba shaxsini har tomonlama himoya qiluvchi va rivojlantiruvchi yagona integrativ tizimni tashkil etadi. Ushbu mexanizmlarning o‘zaro aloqadorligi va ularning yakuniy samaradorligi bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Sinergetik zanjir: auditoriyadagi psixologik xavfsiz muhit talabada o‘zini erkin his qilish va qo‘rquvni yengish imkonini beradi (poydevor). Bu erkinlik, o‘z navbatida, talabaning o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashiga, ya’ni refleksiv faoliyatining faollashishiga zamin yaratadi. O‘z emotsiyalarini anglagan va tahlil qila olgan talaba esa tashqi muhitdan, xususan, raqamli makondan kelayotgan axborot bosimiga qarshi ichki qalqon hosil qiladi va unda raqamli psixogigiyena madaniyati avtomatik ravishda shakllanadi.

Akademik va professional tayyorgarlik: ushbu mexanizmlarning oliy ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etilishi talabalarda nafaqat bugungi kunning akademik qiyinchiliklarini (sessiyalar, reytinglar, yuqori yuklama) yengish qobiliyatini, balki kelajakdagi professional faoliyatida asqotadigan va xalqaro mehnat bozorida eng talabgir hisoblangan "Soft skills" (moslashuvchanlik, emotsional intellekt, stress-menejment, krizisli vaziyatlarda qaror qabul qilish) ko‘nikmalarini ham komplementar (to‘ldiruvchi) tarzda rivojlantiradi.

Xulosa

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning psixologik salomatligini shakllantirish shunchaki ixtiyoriy subyektiv jarayon bo‘lmay, balki zamonaviy oliy ta’lim sifatini oshirish, kadrlar raqobatbardoshligini ta’minlash va inson kapitalini rivojlantirishning fundamental pedagogik shartidir.

Tadqiqot natijasida loyihalangan Integrativ pedagogik model va uning tarkibiy qismlari hisoblangan — psixologik xavfsiz muhit, refleksiv ta’lim, raqamli psixogigiyena hamda tyutorlik ko‘magi — talabalarning ichki resurslarini faollashtirishga xizmat qiladi. Empirik ma’lumotlar va matematik-statistik tahlillar taklif etilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligini ko‘rsatdi. OTM o‘quv rejalari va tarbiyaviy ishlar tizimiga stress-menejment hamda raqamli muhitda profilaktika texnologiyalarini tizimli kiritish kelajakda intellektual va ruhiy jihatdan barkamol mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining oliy ta’lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari va farmonlari.
2. World Health Organization. *Mental Health Action Plan 2013–2030.* – Geneva, 2021.
3. Maslow A.H. *Motivation and Personality.* – New York: Harper & Row, 1987.
4. Rogers C.R. *On Becoming a Person.* – Boston: Houghton Mifflin, 1995.
5. Ryff C.D. *Psychological Well-Being Revisited: Advances in the Science and Practice of Eudaimonia* // Psychotherapy and Psychosomatics. – 2014. – Vol. 83(1). – P. 10–28.
6. Seligman M.E.P. *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being.* – New York: Free Press, 2011.
7. Якиманская И.С. *Личностно-ориентированное обучение в современной школе.* – Москва: Сентябрь, 2000.
8. Зеер Э.Ф. *Психология профессионального развития личности.* – Москва: Академия, 2015.
9. Стамбулова Н.Б. *Психология стрессоустойчивости в условиях академического кризиса.* – Санкт-Петербург: Речь, 2018.
10. Карпов А.В. *Рефлексивность как психологическое свойство личности и методика ее диагностики* // Психологический журнал. – 2004. – Т. 25, № 5. – С. 45–57.

PSIXOLOGIK SALOMATLIK FENOMENI TALQINIGA DOIR ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

Qalandarova Yulduz Bahramovna
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada psixologik salomatlik fenomenining ilmiy-nazariy mazmuni hamda uni talqin etishga oid zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Psixologik salomatlikning psixoanalitik, bixevioristik, gumanistik, kognitiv va pozitiv psixologiya doirasidagi talqinlari o‘rganilib, ularning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Maqolada xorijiy va o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlari sintez qilinib, O‘zbekistonda aholining psixologik salomatligini mustahkamlash borasidagi davlat siyosatining normativ-huquqiy asoslari tahlilga tortilgan. Shuningdek, psixologik salomatlikning shaxs rivojlanishi, ijtimoiy moslashuv va hayot sifati bilan bog‘liqligi qiyosiy-jadval asosida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: psixologik salomatlik, ruhiy salomatlik, pozitiv psixologiya, gumanistik yondashuv, kognitiv yondashuv, shaxs rivojlanishi, psixologik farovonlik, integrativ yondashuv, shaxs kompleksi.

Аннотация. В данной статье анализируется научно-теоретическое содержание феномена психологического здоровья и современные подходы к его интерпретации. Изучены интерпретации психологического здоровья в рамках психоаналитической, бихевиористической, гуманистической, когнитивной и позитивной психологии, освещены их специфические аспекты. В статье синтезируются научные взгляды зарубежных и узбекских ученых, анализируются нормативно-правовые основы государственной политики по укреплению психологического здоровья населения в Узбекистане. Также на основе сравнительной таблицы показана связь психологического здоровья с развитием личности, социальной адаптацией и качеством жизни.

Ключевые слова: психологическое здоровье, психическое здоровье, позитивная психология, гуманистический подход, когнитивный подход, развитие личности, психологическое благополучие, интегративный подход, личностный комплекс.

Abstract. This article analyzes the scientific-theoretical content of the psychological health phenomenon and modern approaches to its interpretation. Interpretations of psychological health within the framework of psychoanalytical, behavioral, humanistic, cognitive, and positive psychology are studied, and their specific aspects are highlighted. The article synthesizes the scientific views of foreign and Uzbek scientists and analyzes the regulatory and legal foundations of state policy in strengthening the psychological health of the population in Uzbekistan.

Additionally, a comparative table shows the relationship between psychological health and personal development, social adaptation, and quality of life.

Keywords: psychological health, mental health, positive psychology, humanistic approach, cognitive approach, personal development, psychological well-being, integrative approach, personality complex.

Kirish

Yangi O‘zbekistonni barpo etish va uchinchi Renessans poydevorini yaratish sharoitida inson kapitalini rivojlantirish, ayniqsa, yosh avlodning intellektual va psixologik farovonligini ta’minlash davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi jadal globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalar asridagi ijtimoiy-psixologik transformatsiyalar va turli xil global inqirozlar inson psixologik salomatligini saqlash va himoya qilish muammosini har qachongidan ham dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Yurtimizda bu borada tizimli va keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-196-sonli Qarori sohaga mutlaqo yangi bosqich olib kirdi. Mazkur qarorga muvofiq, ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy sohalarda professional psixologik yordam ko‘rsatish tizimi institutsionallashtirildi, aholining, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilishning huquqiy kafolatlari yaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida"gi O‘RQ-989-sonli Qonuni qabul qilinishi bu sohadagi eng muhim tarixiy qadam bo‘ldi. Ushbu Qonun psixologik yordam ko‘rsatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, psixologik salomatlik fenomenini huquqiy jihatdan himoya qilish va aholiga ko‘rsatilayotgan psixologik xizmatlar sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini rivojlantirishga oid tizimli qarorlari, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va depressiv holatlarning oldini olishga qaratilgan davlat dasturlari shaxs psixologik xavfsizligini ta’minlashning muhim mezonidir. Shu bois, psixologik salomatlik fenomenining ilmiy-nazariy mohiyatini tahlil qilish, global va milliy tajribalarni umumlashtirish fundamental va amaliy psixologiya uchun yuksak ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Psixologik salomatlik tushunchasining mazmun-mohiyati. Uzoq yillar davomida "salomatlik" tushunchasi faqat tibbiy va somatik (jismoniy) kontekstda talqin qilib kelindi. Biroq Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) qayd etganidek: "Salomatlik — bu faqat kasallik yoki jismoniy nuqsonlarning yo‘qligi emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir". Ilmiy adabiyotlarda "ruhiy salomatlik" (mental health) va "psixologik salomatlik" (psychological health) tushunchalari ko‘p hollarda sinonim sifatida ishlatilsa-da, ular o‘rtasida nozik farqlar mavjud. Ruhiy salomatlik asosan psixikaning normal ishlashi, tibbiy-psixiatrik normalar va patologiyaning yo‘qligi bilan bog‘lansa, psixologik salomatlik shaxsning ichki ruhiy muvozanati, o‘z potentsialini anglab etishi, hayotiy qiyinchiliklarni konstruktiv yenga olishi va jamiyat bilan uyg‘un integratsiyalashuvini ifodalaydi.

Psixologik salomatlik shaxs rivojlanishining dinamik jarayoni bo‘lib, u emotsional intellekt, refleksivlik va stressga chidamlilik (resilience) kabi xislatlarda namon bo‘ladi.

Psixologik salomatlikka doir jahon olimlarining zamonaviy nazariy yondashuvlari

1. Psixoanalitik yondashuv (S. Freyd, X. Gartman, E. Erikson). Zigmund Freyd psixologik salomatlikni shaxs tizimidagi uchta komponent – "Id" (Instinktiv instansiya), "Ego" (Ratsional ongli qism) va "Superego" (Ijtimoiy-axloqiy normalar) o‘rtasidagi dinamik muvozanat sifatida baholagan. Freud bo‘yicha sog‘lom shaxs — bu "seva oladigan va mehnat qila oladigan" (to love and to work) insondir. Keyinchalik ego-psixologiya vakili Heinz Hartmann psixologik salomatlikda "Ego"ning tashqi muhitga konfliktlarsiz moslashish qobiliyatini birinchi o‘ringa

qo‘ydi. Erik Erikson esa buni shaxsiy identifikatsiyaning muvaffaqiyatli shakllanishi va hayotiy inqirozlarning ijobiy hal etilishi bilan bog‘ladi.

2. Bixevioristik va neobixevioristik yondashuv (J. Uatson, B. Skinner, A. Bandura). Klassik bixeviorizmda psixologik salomatlik to‘g‘ri shakllangan "S-R" (stimul-reaksiya) aloqalari va muhitga optimal moslashgan xulq-atvor yig‘indisidir. Zamonaviy neobixeviorizm vakili Albert Bandura esa ushbu konsepsiyaga "o‘z-o‘ziga samaradorlik" (self-efficacy) tushunchasini kiritdi. Unga ko‘ra, inson o‘z xatti-harakatlari bilan hayotiy vaziyatlarga ta’sir ko‘rsata olishiga ishonsa, uning psixologik salomatligi va emotsional barqarorligi yuqori bo‘ladi.

3. Gumanistik yondashuv (A. Maslou, K. Rojers, V. Frankl). Gumanistik maktab psixologik salomatlik mezonlarini tubdan o‘zgartirdi. Abraham Maslou bo‘yicha salomatlikning oliy darajasi — bu o‘zini o‘zi aktuallashtirish (self-actualization), ya’ni shaxsning o‘z ichki imkoniyatlarini to‘liq yuzaga chiqarishidir. Karl Rojers esa bunday insonni “to‘liq faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs” (fully functioning person) deb ataydi va uning o‘z tajribasiga ochiqligi, o‘ziga bo‘lgan shartsiz ijobiy munosabatini salomatlik mezoni sifatida belgilaydi. Viktor Frankl esa hayot mazmunini anglashni (meaning in life) psixologik salomatlikning asosi deb hisoblaydi.

4. Kognitiv yondashuv (A. Bek, A. Ellis). Aaron Bek va Albert Ellis fikriga ko‘ra, psixologik salomatlik insonning fikrlash tizimining ratsionalligi va voqelikni adekvat (to‘g‘ri) idrok etishiga bog‘liq. Inson hayotida uchraydigan ko‘plab psixologik disfunksiyalar va depressiv holatlar "kognitiv xatoliklar" (disfunksional kognitiv sxemalar) natijasidir. Sog‘lom shaxs — voqealarga nisbatan moslashuvchan, irratsional ishonchlardan xoli va kognitiv qayta ishlash tizimi rivojlangan insondir.

5. Pozitiv psixologiya yondashuvi (M. Seligman, M. Sikszentmihalyi, K. Riff). Martin Seligman tomonidan ishlab chiqilgan PERMA modeli (Positive emotions, Engagement, Relationships, Meaning, Accomplishment) bugungi kunda psixologik salomatlik va farovonlikni tushunishda yetakchi o‘rin egallaydi. Shuningdek, Carol Ryff o‘zining 6 komponentli psixologik farovonlik modelida (avtonomiya, atrof-muhitni boshqarish, shaxsiy rivojlanish, ijobiy munosabatlar, hayotiy maqsadlar, o‘zini qabul qilish) salomatlikning mukammal strukturaviy modelini taklif qildi. Mihaly Csikszentmihalyi esa psixologik salomatlikni inson faoliyatidagi "oqim" (flow) holatiga erishishi bilan asoslaydi.

O‘zbekiston psixologiya maktabida psixologik salomatlik muammosining o‘rganilishi

O‘zbekiston milliy psixologiya maktabi vakillari inson psixologik farovonligi, uning ijtimoiy-guruhlararo moslashuvi va shaxs sifatida kamol topishi muammolariga ulkan hissa qo‘shganlar.

V.M. Karimova o‘zining ilmiy tadqiqotlarida shaxs psixologik salomatligini ijtimoiy psixologiya, milliy mentalitet va oilaviy munosabatlar kontekstida tahlil etadi. Olimaning fikricha, sharqona madaniyatda insonning ruhiy muvozanati uning oiladagi va jamiyatdagi o‘rni, yaqinlari bilan bo‘lgan emotsional munosabatlarining ijobiyligi hamda jamoaviy birdamlik hissi bilan bevosita belgilanadi.

M.G. Davletshin shaxsning yosh davrlari sotsializatsiyasi va kognitiv rivojlanishi muammolarini o‘rganar ekan, psixologik salomatlikni o‘quvchi va talaba yoshlarning intellektual salohiyati hamda kasbiy shakllanish jarayonidagi barqarorligi bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqqan.

E.G‘. G‘oziyev tafakkurning tizimliligi va shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi (samoregulyatsiya) masalalarini tadqiq etgan. G‘oziyev yondashuviga ko‘ra, psixologik sog‘lom inson o‘z irodaviy sifatlarini boshqara oladigan, mustaqil va tizimli fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan subyektdir.

G.B. Shoumarov oila psixologiyasi va deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilib, mikromuhit (oila) barqarorligini shaxs psixologik sog‘lomligining fundamenti va eng birlamchi himoya mexanizmi ekanligini ilmiy isbotlab bergan.

Zamonaviy o‘zbek psixolog olimlari (masalan, **N.S. Safayev, Z.T. Nishanova**) ham insonning etno-psixologik xususiyatlari, milliy qadriyatlar va zamonaviy psixologik

texnologiyalar sintezi orqali shaxs psixologik salomatligini diagnostika qilish va korreksiyalash ustida muvaffaqiyatli izlanishlar olib bormoqdalar.

Zamonaviy nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Psixologik salomatlik fenomenini chuqurroq anglash va yondashuvlar o‘rtasidagi konseptual farqlarni ko‘rish uchun quyidagi qiyosiy tahlil jadvalini keltiramiz:

№	Nazariy yondashuv	Asosiy vakillari	Psixologik salomatlikning bosh mezoni	Muammoning (disfunksiyaning) kelib chiqish sababi
1	**Psixoanalitik**	S. Freud, X. Hartmann, E. Erikson	Id, Ego va Superego o‘rtasidagi dinamik muvozanat, ichki ziddiyatlarning hal etilishi.	Bolalikdagi psixotravmalar, bostirilgan ichki nizolar va instinktlar to‘qnashuvi.
2	**Bixevioristik**	J. Watson, B. F. Skinner, A. Bandura	Atrof-muhitga moslashgan ijobiy xulq-atvor shakllari, o‘z-o‘ziga samaradorlik hissi.	Noto‘g‘ri o‘rganilgan (defektiv) xulq-atvor namunalari va salbiy ijtimoiy muhit.
3	**Gumanistik**	A. Maslow, C. Rogers, V. Frankl	O‘zini o‘zi aktuallashtirish, hayot mazmunini topish va shaxsiy o‘sish.	O‘zlikni namoyon etishga to‘sqinliklar, shartsiz qabul qilinmaslik, ekzistensial vakuum (maqsadsizlik).
4	**Kognitiv**	A. Beck, A. Ellis	Ratsional fikrlash, voqelikni adekvat va xatolarsiz idrok etish.	Irratsional ishonchlar, kognitiv buzilishlar va noto‘g‘ri fikrlash stereotiplari.
5	**Pozitiv psixologiya**	M. Seligman, M. Csikszentmihalyi, C. Ryff	Hayotdan qoniqish, optimizm, kuchli tomonlarga suyanish, emotsional farovonlik.	Shaxsning kuchli tomonlariga e’tibor qaratmaslik, hayotdagi pozitiv resurslarning yetishmasligi.
6	**Milliy-ijtimoiy** (O‘zbekiston maktabi)	V. Karimova, E. G‘oziyev, G. Shoumarov	Oila va jamoada uyg‘unlik, milliy qadriyatlarga tayanish, o‘z-o‘zini boshqarish.	Oilaviy inqirozlar, jamoaviy destruktsiya, milliy va ma’naviy qadriyatlardan uzoqlashish.

Xulosa

Psixologik salomatlik — bu inson hayotiy faoliyatining samaradorligini, uning jamiyatdagi o‘rni va subyektiv farovonligini ta’minlovchi eng murakkab va ko‘p qirrali integrativ fenomenlardan biridir. Maqola doirasida amalga oshirilgan ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, psixologik salomatlikni faqat birgina yo‘nalish (psixoanaliz, kognitivizm yoki bixeviorizm) prizmasi orqali to‘liq va mukammal tushuntirib bo‘lmaydi.

Zamonaviy psixologiya fanining rivojlanish tendensiyalari barcha yondashuvlarning ijobiy jihatlarini o‘z ichiga olgan **integrativ (eklektik) yondashuvga** asoslanish zarurligini taqozo etmoqda. Insonning ichki muvozanati (psixoanaliz), xulq-atvori (bixeviorizm), tafakkur tizimi (kognitivizm), o‘z salohiyatini namoyon etishi (gumanistik va pozitiv psixologiya) hamda ijtimoiy-madaniy muhiti (milliy maktab) uzviylikda o‘rganilgandagina salomatlikning yaxlit manzarasini ko‘rish mumkin.

O‘zbekistonda aholining psixologik salomatligini saqlash masalasining huquqiy va institutsional jihatdan qonun va prezident qarorlari darajasiga ko‘tarilganligi sohadagi amaliy ishlarning ilmiy asoslangan bo‘lishini talab etadi. Kelajakda milliy mentalitet xususiyatlarini

inobatga olgan holda, raqamli texnologiyalar asrida yoshlarning psixologik barqarorligini ta’minlash, stress va depressiyaga qarshi profilaktik-kognitiv dasturlarni ishlab chiqish hamda ushbu yo‘nalishda fundamental tadqiqotlarni kengaytirish amaliy psixologiyaning eng muhim vazifasi bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida"gi O‘RQ-989-sonli Qonuni. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 19-iyundagi "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-196-sonli Qarori. – Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.
3. Karimova V.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2021.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston, 2010.
5. Shoumarov G.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.
6. Beck A. Cognitive Therapy and Emotional Disorders. – New York: International Universities Press, 1976.
7. Freud S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923.
8. Maslow A. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970.
9. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
10. Ryff C. D. Psychological Well-Being Revisited. // Psychotherapy and Psychosomatics, 2014, Vol. 83, No. 1, pp. 10-28.
11. Seligman M. Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being. – New York: Free Press, 2011.
12. World Health Organization (WHO). Mental Health: Strengthening Our Response. Fact sheet. – Geneva: WHO, 2022.

VIRTUAL PEDAGOGIK SIMULYATSIYALAR ASOSIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINING AMALIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOSI VA

Qo‘ldasheva Shoxsanam Ravshanjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
qoldashevashohsanam10@gmail.com
+998903906566
ORCID: 0009-0001-8271-9259

Annotatsiya: Ushbu maqolada virtual pedagogik simulyatsiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish muammosi tizimli ravishda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqotda virtual simulyatsiyalarning pedagogik jarayonni modellashtirish, real dars vaziyatlarini qayta tiklash hamda pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: virtual simulyatsiya, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik tayyorgarlik, metodik kompetensiya, raqamli ta’lim, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье системно анализируется проблема совершенствования практико-методической подготовки будущих учителей начального образования на основе виртуальных педагогических симуляций. В условиях стремительного развития цифровых технологий в современном образовательном процессе научно обосновывается необходимость использования инновационных подходов в формировании профессиональных компетенций педагогов. В исследовании раскрываются дидактические возможности виртуальных симуляций в моделировании педагогического процесса, реконструкции реальных учебных ситуаций, а также в развитии навыков принятия педагогических решений.

Ключевые слова: виртуальные педагогические симуляции, начальное образование, практико-методическая подготовка, методическая компетентность, цифровое образование, инновационные технологии.

Abstract: This article systematically analyzes the problem of improving the practical and methodological training of future primary education teachers based on virtual pedagogical simulations. In the context of the rapid development of digital technologies in modern education, the necessity of applying innovative approaches to the formation of teachers' professional competencies is scientifically substantiated. The study reveals the didactic potential of virtual simulations in modeling the pedagogical process, reconstructing real classroom situations, and developing pedagogical decision-making skills.

Keywords: virtual pedagogical simulations, primary education, practical and methodological training, methodological competence, digital education, innovative technologies

KIRISH

XXI asr ta'lim makonida o'qituvchi endilikda faqat bilim beruvchi emas, balki murakkab pedagogik jarayonlarni boshqaruvchi, tezkor qaror qabul qiluvchi va innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etuvchi mutaxassis sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni an'anaviy yondashuvlar doirasidan chiqib, yangi pedagogik va texnologik yechimlarni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi o'qituvchilarning amaliy-metodik tayyorgarligi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud tayyorgarlik tizimida nazariy bilimlar yetarli darajada berilayotgan bo'lsa-da, ularni real ta'lim jarayonida qo'llash bilan bog'liq muammolar saqlanib qolmoqda. Bo'lajak o'qituvchilar ko'pincha murakkab pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, dars jarayonini samarali tashkil etish hamda o'quvchilar bilan individual ishlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu esa o'z navbatida, ta'lim jarayonining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur muammolarni hal etishda virtual pedagogik simulyatsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular real pedagogik jarayonlarni raqamli muhitda modellashtirish orqali bo'lajak o'qituvchilarga xavfsiz, boshqariladigan va takroriy mashq qilish imkonini beruvchi innovatsion ta'lim vositasi sifatida qaraladi. Virtual simulyatsiyalar yordamida talaba turli didaktik vaziyatlarni tahlil qiladi, pedagogik qarorlar qabul qiladi va o'z faoliyatini refleksiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu jihatdan, virtual pedagogik simulyatsiyalar asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur nazariy asoslashni talab etuvchi dolzarb ilmiy muammo sifatida e'tirof etiladi. Ushbu maqolada mazkur muammoning mohiyati ochib berilib, uning nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, virtual pedagogik simulyatsiyalar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim nazariy va metodologik asos sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur yondashuv o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish hamda amaliy faoliyatga yaqinlashtirilgan o'quv muhitini yaratish imkonini beradi. Shu jihatdan, David Kolbning tajribaviy o'rganish modeli virtual simulyatsiyalarning pedagogik mohiyatini ochib beradi. Olimning nazariyasiga ko'ra, bilimni samarali egallash amaliy tajriba va reflektiv tahlil uyg'unligida shakllanadi. Virtual simulyatsiyalar aynan talabaning sun'iy, biroq real pedagogik jarayonga yaqin muhitda faol ishtirok etishi, dars jarayonlarini sinab ko'rishi va o'z metodik faoliyatini tahlil qilishi orqali amaliy-metodik tayyorgarligini rivojlantiradi.

Chris Dedening vaziyatli bilim konsepsiyasi esa virtual muhitlarning pedagogik imkoniyatlarini yanada chuqurlashtiradi. Tadqiqotchining fikricha, immersiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim muhiti bo'lajak o'qituvchiga nazariy bilimlarni real kasbiy vaziyatlarga tatbiq etish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida uchraydigan murakkab metodik holatlarni oldindan modellashtirish va ularga mos yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada talabaning metodik moslashuvchanligi va pedagogik tafakkuri rivojlanadi.

Virtual pedagogik simulyatsiyalarning psixologik-pedagogik ahamiyati Kevin Kelly tomonidan ilgari surilgan kasbiy o‘ziga ishonch nazariyasida ham o‘z ifodasini topadi. Olim simulyatsion o‘qitishni bo‘lajak pedagoglarning professional “self-efficacy” darajasini oshiruvchi samarali vosita sifatida talqin qiladi. Virtual sinf muhitida muntazam mashq qilish orqali talabalar pedagogik faoliyatga nisbatan ichki ishonch hosil qiladi, dars jarayonidagi emotsional zo‘riqishlarni yengib o‘tishga tayyorlanadi hamda real auditoriyada faoliyat olib borishga psixologik jihatdan moslashadi.

Robert Marzanoning boshqariladigan amaliyot yondashuvi virtual simulyatsiyalarni pedagogik mahoratni shakllantirishning texnologik laboratoriyasi sifatida izohlaydi. Olimning qarashlariga ko‘ra, takrorlanuvchi virtual ssenariylar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘qituvchining metodik faoliyatini avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Bu jarayon bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisida tezkor pedagogik qaror qabul qilish, sinfni boshqarish va o‘quvchilar bilan samarali kommunikatsiyani tashkil etish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Mahalliy olimlardan N.N.Azizxo‘jayeva tomonidan ilgari surilgan faoliyatli yondashuv tamoyillari ham virtual pedagogik simulyatsiyalar mazmuni bilan uzviy bog‘liqdir. Olima modellashtirilgan pedagogik vaziyatlar orqali talabaning kasbiy faoliyatga faol jalb qilinishini muhim omil sifatida baholaydi. Ushbu yondashuv asosida virtual simulyatsiyalar talabalarda pedagogik texnikani egallash, metodik faoliyatni mustaqil tashkil etish hamda amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sh.S.Shodmonovaning metodik moslashuvchanlik haqidagi ilmiy qarashlari virtual simulyatsiyalarning boshlang‘ich ta’lim tizimidagi ahamiyatini asoslab beradi. Olimaning ta’kidlashicha, zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan pedagogik muhit bo‘lajak o‘qituvchining metodik repertuarini kengaytiradi va turli psixologik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik yoshdagi o‘quvchilar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa pedagogning kasbiy adaptatsiyasini jadallashtirib, amaliy-metodik tayyorgarligining samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, tahlil qilingan ilmiy-nazariy qarashlar virtual pedagogik simulyatsiyalar bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishda innovatsion pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi. Mazkur yondashuv nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish hamda kelajak o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar asosida shakllantirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisiga qo‘yilayotgan kasbiy talablar tobora murakkablashib bormoqda. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi, ta’lim mazmunining yangilanishi hamda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarurati pedagogdan yuqori darajadagi amaliy-metodik tayyorgarlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mavjud an’anaviy tayyorgarlik tizimida talabalarning akademik bilimlari bilan ularni real pedagogik vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalari o‘rtasida ma’lum tafovut mavjud. Talaba ko‘pincha metodik qoidalarni nazariy jihatdan o‘zlashtirgan bo‘lsa-da, ularni real sinf sharoitida samarali qo‘llashda qiyinchilikka duch keladi. Bu holat pedagogik faoliyatda nazariya va amaliyot integratsiyasining yetarli darajada shakllanmaganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, real dars jarayonining murakkab va dinamik xarakteri sababli auditoriya sharoitida barcha pedagogik vaziyatlarni tabiiy ko‘rinishda modellashtirish imkoniyati cheklangan. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi ilk amaliy faoliyat jarayonida metodik va psixologik moslashuv muammolariga duch keladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning turli xatti-harakatlari, kutilmagan savollar yoki sinfdagi intizomiy holatlar kabi vaziyatlarda tezkor pedagogik qaror qabul qilish ko‘nikmasining yetarli darajada shakllanmagani kuzatiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etishda virtual pedagogik simulyatsiyalar muhim innovatsion vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ular bo‘lajak o‘qituvchiga xavfsiz va nazorat qilinadigan muhitda kasbiy faoliyat elementlarini amaliy jihatdan sinab ko‘rish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish hamda

metodik qarorlarni tahlil qilish imkonini yaratadi. Shu sababli virtual simulyatsiyalarni pedagogik tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilish zamonaviy ta’limning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Virtual pedagogik simulyatsiyalar pedagogik faoliyatning raqamli modellashtirilgan shakli bo‘lib, ular bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interaktiv ta’lim muhitini yaratadi. Ushbu texnologiyalar nafaqat axborot uzatish vositasi, balki pedagogik faoliyatni real sharoitga yaqin holatda mashq qilish imkonini beruvchi kvazi-professional muhit sifatida ahamiyat kasb etadi. Simulyatsion muhitning muhim xususiyatlaridan biri interaktivlikdir. Talaba virtual o‘quvchi yoki virtual sinf bilan muloqotga kirishar ekan, pedagogik qarorlarning natijasini darhol kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa metodik refleksiya va kasbiy tahlil ko‘nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Virtual simulyatsiyalar variativlik tamoyiliga asoslanganligi bilan ham ajralib turadi. Turli pedagogik ssenariylarni qayta-qayta modellashtirish orqali talaba bir vaziyatga nisbatan bir necha metodik yondashuvlarni sinab ko‘rishi mumkin. Natijada unda moslashuvchan pedagogik tafakkur va metodik tanlov madaniyati shakllanadi. Mazkur texnologiyalarning yana bir muhim jihati didaktik xavfsizlik bilan bog‘liqdir. Real ta’lim jarayonida pedagogik xatolar o‘quvchilarning bilim darajasi va psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Virtual muhitda esa xato o‘quv jarayonining tabiiy elementi sifatida qabul qilinadi va u talabaning kasbiy rivojlanishi uchun tahliliy tajriba manbaiga aylanadi.

Virtual pedagogik simulyatsiyalar asosida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini takomillashtirish bir qator zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayanadi. Jumladan, konstruktivistik yondashuvga ko‘ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki shaxsning faol bilish jarayonida mustaqil ravishda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, virtual simulyatsiyalar talabaning faol ishtiroki orqali bilimni amaliy vaziyatlarda qurish imkonini yaratadi.

Faoliyatli yondashuv esa kasbiy kompetensiyalarni faol harakatlar tizimi orqali shakllantirishga asoslanadi. Simulyatsion muhitda talaba pedagogik faoliyat elementlarini amaliy jihatdan bajaradi, metodik vaziyatlarni hal qiladi va kasbiy tajribani bosqichma-bosqich egallaydi. Bu jarayon o‘quv faoliyatidan professional faoliyatga o‘tishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida virtual simulyatsiyalar metodik, kommunikativ va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Talaba dars metodlarini tanlash, virtual auditoriya bilan samarali muloqot qilish hamda o‘z faoliyatini tahlil etish ko‘nikmalarini egallaydi. Ayniqsa, refleksiv tahlilning rivojlanishi bo‘lajak o‘qituvchining o‘z ustida ishlash va kasbiy o‘sishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Virtual pedagogik simulyatsiyalar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining amaliy-metodik tayyorgarligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Avvalo, ular darsni prognozlash va loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Talaba virtual natijalarni tahlil qilish asosida dars mazmuni va metodlarini qayta ko‘rib chiqadi, bu esa pedagogik rejalashtirishning moslashuvchanligini ta’minlaydi. Shuningdek, virtual keyslar yordamida vaziyatli tahlil ko‘nikmalari rivojlantiriladi. An’anaviy matnli topshiriqlardan farqli ravishda, simulyatsion vaziyatlar vizual va audial elementlarni o‘z ichiga oladi hamda talabadan tezkor metodik reaksiya talab qiladi. Bu esa bo‘lajak o‘qituvchining operativ fikrlashi va pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Virtual muhitda faoliyat olib borish jarayonida talabada raqamli didaktika ko‘nikmalari ham shakllanadi. Pedagog zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘zining texnologik savodxonligini metodik mahorat bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish imkoniyatlari kengayadi.

Virtual pedagogik simulyatsiyalar pedagogik tayyorgarlik jarayonida bir qator ustunliklarga ega. Eng avvalo, ular talabaning psixologik barqarorligini ta’minlashga yordam beradi. Virtual muhitda takroriy mashg‘ulotlar olib borish orqali auditoriya oldida ishlashga nisbatan qo‘rquv va ishonchsizlik kamayadi. Bundan tashqari, simulyatsion texnologiyalar iqtisodiy jihatdan ham samarali hisoblanadi. Ko‘plab talabalarni bir vaqtning o‘zida real maktab

amaliyotiga jalb etish bilan bog‘liq tashkiliy murakkabliklarni kamaytirish orqali boshlang‘ich kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Mazkur texnologiyalar obyektiv baholash mexanizmini ham ta’minlaydi. Dasturiy tizimlar talabaning har bir metodik harakati, qaror qabul qilish tezligi va faoliyat natijalarini avtomatik ravishda qayd etadi. Bu esa inson omili bilan bog‘liq subyektiv baholash holatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, virtual simulyatsiyalarning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, yuqori sifatli virtual muhitni yaratish uchun zamonaviy texnik vositalar va dasturiy platformalar talab etiladi. Bundan tashqari, simulyatsion tizim real o‘quvchining individual emotsional holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli virtual pedagogik simulyatsiyalar real pedagogik amaliyotni to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki unga tayyorlovchi va qo‘llab-quvvatlovchi innovatsion bosqich sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilganda, metodologik tahlillar virtual pedagogik simulyatsiyalar bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining amaliy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim innovatsion didaktik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu texnologiyalar nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o‘rtasidagi integratsiyani kuchaytirish, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish hamda bo‘lajak pedagoglarning kasbiy moslashuv jarayonini jadallashtirish imkonini beradi. Shuningdek, virtual simulyatsiyalar asosida tashkil etilgan pedagogik tayyorgarlik tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik moslashuvchanligi, refleksiv tafakkuri va raqamli pedagogik savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan pedagogik oliy ta’lim tizimiga virtual pedagogik laboratoriyalar va simulyatsion modullarni joriy etish zamonaviy ta’lim taraqqiyotining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kolb D.A. *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development*. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984. pp. 20–38.
2. Dede C. Immersive Interfaces for Engagement and Learning // *Science*. 2009. Vol. 323, Issue 5910.pp. 66–69.
3. Bandura A. Self-efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change // *Psychological Review*. 1977. Vol. 84, No. 2. pp. 191–215.
4. Marzano R.J., Pickering D.J., Pollock J.E. *Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement.* Alexandria: ASCD, 2001. pp. 5–25, 91–105.
5. Dieker L.A., Hughes C.E., Hynes M.C., Straub C. Using Simulated Virtual Environments to Improve Teacher Performance // *School-University Partnerships*. 2017. Vol. 10, No. 3. pp. 62–81.
6. Bautista N.U., Boone W.J. Exploring the Impact of TeachME™ Lab Virtual Classroom Teaching Simulation on Early Childhood Education Majors’ Self-Efficacy Beliefs // *Journal of Science Teacher Education*. 2015. Vol. 26, No. 3. pp. 237–262.
7. Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 b. B. 64–67.
8. Shodmonova Sh.S. *Pedagogika nazariyasi va tarixi*. Toshkent: Sano-Standart, 2022. 470 b. B. 120–145.

INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MAKTAB PSIXOLOGINING FAOLIYATI

Qo‘shnazarova Surayyo Qudrat qizi
Xorazm viloyati Yangiariq tumani
15-sonli umumiy o`rta ta`lim maktabi psixologi

Annotatsiya. Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologining faoliyati, uning o‘quvchilarni ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rni hamda ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalari yoritilgan. Shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning maktab muhitiga moslashuvi, ularning psixologik rivojlanishini ta’minlash, ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikni tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Maqolada inklyuziv ta’lim jarayonida uchraydigan psixologik muammolar va ularni bartaraf etishning samarali usullari haqida fikr

yuritilgan. Inklyuziv ta’lim muhitida sog‘lom psixologik iqlim yaratishning ahamiyati ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, maktab psixologi, psixologik yordam, alohida ta’lim ehtiyoji, moslashuv, psixologik qo‘llab-quvvatlash, o‘quvchi, pedagog, ota-ona hamkorligi.

Аннотация. В данной статье освещается деятельность школьного психолога в условиях инклюзивного образования, его роль в социально-психологической поддержке обучающихся, а также основные задачи в образовательном процессе. Рассматриваются вопросы адаптации детей с особыми образовательными потребностями к школьной среде, обеспечения их психологического развития и организации эффективного взаимодействия с родителями и педагогами. Проанализированы психологические проблемы, возникающие в процессе инклюзивного образования, и предложены эффективные способы их решения. Научно-практически обоснована важность создания благоприятного психологического климата в условиях инклюзивного образования.

Ключевые слова: инклюзивное образование, школьный психолог, психологическая помощь, особые образовательные потребности, адаптация, психологическая поддержка, обучающийся, педагог, сотрудничество с родителями.

Abstract. This article examines the activities of a school psychologist in an inclusive education environment, highlighting their role in providing social and psychological support to students and fulfilling key responsibilities within the educational process. The study analyzes issues related to the adaptation of students with special educational needs to the school environment, ensuring their psychological development, and establishing effective cooperation with parents and teachers. The article also discusses psychological challenges encountered in inclusive education and explores effective methods for addressing them. The importance of creating a positive psychological climate in an inclusive educational environment is substantiated from both scientific and practical perspectives.

Keywords: inclusive education, school psychologist, psychological assistance, special educational needs, adaptation, psychological support, student, teacher, parent-teacher cooperation.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida barcha bolalarning teng huquqli ta’lim olishini ta’minlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu sababli inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish va amaliyotga keng joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Inklyuziv ta’lim — bu alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni sog‘lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta’lim muassasalarida o‘qitish jarayonidir. Bunday ta’lim muhiti o‘quvchilarning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiylashuvi hamda shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.Inklyuziv ta’lim jarayonida maktab psixologining faoliyati alohida o‘rin tutadi. Chunki psixolog o‘quvchilarning ruhiy holatini o‘rganadi, ularning psixologik moslashuviga yordam beradi hamda ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda pedagog va ota-onalar bilan hamkorlik qiladi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarda uchraydigan hissiy zo‘riqish, muloqotdagi qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv muammolarini hal etishda psixologik xizmat muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim sharoitida sog‘lom psixologik muhit yaratish, o‘quvchilar o‘rtasida bag‘rikenglik va o‘zaro hurmatni shakllantirish ham maktab psixologining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, maktab psixologi nafaqat o‘quvchilar bilan, balki pedagoglar va ota-onalar bilan ham tizimli ravishda ishlashi zarur.

Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologining faoliyati, uning asosiy vazifalari, psixologik yordam usullari hamda inklyuziv muhitdagi muammolarni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi.

Asosiy qism

Inklyuziv ta’lim tizimi barcha bolalarga, ularning jismoniy yoki psixologik holatidan qat’i nazar, teng imkoniyat asosida ta’lim olish huquqini yaratadi. Bunday jarayonda maktab psixologining faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Psixolog o‘quvchilarning ruhiy holatini

nazorat qiladi, ularning maktab muhitiga moslashuvini ta’minlaydi hamda ta’lim jarayonidagi psixologik muammolarni aniqlash va bartaraf etishga ko‘maklashadi.

Inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologining asosiy vazifalaridan biri — alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini o‘rganishdir. Har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati, hissiy holati va ijtimoiy moslashuv darajasi individual tarzda tahlil qilinadi. Shu asosda psixolog o‘quvchining rivojlanishiga mos tavsiyalar ishlab chiqadi va pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatadi.Bundan tashqari, psixolog o‘quvchilarning sinf jamoasiga moslashuviga ham alohida e’tibor qaratadi. Ayrim hollarda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa ularda tortinchoqlik, ishonchsizlik yoki ruhiy zo‘riqishni yuzaga keltirishi mumkin. Psixolog bunday vaziyatlarda treninglar, suhbatlar va psixokorreksion mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Inklyuziv ta’limda ota-onalar bilan hamkorlik ham muhim hisoblanadi. Maktab psixologi ota-onalarga farzandining psixologik rivojlanishi, ta’limdagi qiyinchiliklari va ularni bartaraf etish usullari haqida tavsiyalar beradi. Ota-onalar bilan muntazam muloqot qilish orqali bolaning maktab va oiladagi holatini uyg‘unlashtirish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, maktab psixologi pedagoglar bilan hamkorlikda ishlaydi. O‘qituvchilarga inklyuziv sinfda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quvchilarga individual yondashuvni tashkil etish hamda sog‘lom psixologik muhit yaratish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Bu esa sinfdagi barcha o‘quvchilarning o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik asosida ta’lim olishiga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta’lim jarayonida uchraydigan asosiy muammolardan biri — jamiyatdagi stereotip va noto‘g‘ri qarashlardir. Ba’zi hollarda alohida ta’lim ehtiyojiga ega bolalarga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi. Shu sababli maktab psixologi o‘quvchilar, ota-onalar va pedagoglar o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borishi, bag‘rikenglik va insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib qilishi zarur.

Umuman olganda, inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologining faoliyati o‘quvchilarning ruhiy salomatligini saqlash, ularning jamiyatga moslashuvini ta’minlash hamda samarali ta’lim muhitini yaratishda muhim omil hisoblanadi.

Maktab psixologining asosiy vazifalari

Inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologi quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Psixologik diagnostika. Psixolog o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, emotsional holati va moslashuv darajasini o‘rganadi. Diagnostika natijalari asosida o‘quvchining rivojlanish xaritasi ishlab chiqiladi.

2. Psixologik korreksiya va rivojlantirish ishlari. Alohida ehtiyojli bolalarda uchraydigan emotsional zo‘riqish, muloqotdagi qiyinchiliklar yoki o‘ziga ishonchsizlik holatlarini bartaraf etish maqsadida korreksion mashg‘ulotlar tashkil etiladi.

3. Pedagoglar bilan hamkorlik. Psixolog o‘qituvchilarga o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari haqida tavsiyalar beradi. Dars jarayonida individual yondashuvni qo‘llash bo‘yicha metodik yordam ko‘rsatadi.

4. Ota-onalar bilan ishlash. Ota-onalarga farzandining psixologik rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiy moslashuvi yuzasidan maslahatlar beriladi. Zarurat tug‘ilganda psixologik trening va suhbatlar tashkil qilinadi.

5. Ijobiy psixologik muhit yaratish. Maktab jamoasida tolerantlik, mehr-oqibat va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish psixolog faoliyatining muhim yo‘nalishidir.

Inklyuziv ta’limda uchraydigan psixologik muammolar

Inklyuziv ta’lim jarayonida quyidagi muammolar kuzatilishi mumkin:

- o‘quvchilarning bir-birini qabul qilmasligi;
- kamsitish yoki masxara qilish holatlari;
- alohida ehtiyojli bolalarda past o‘z-o‘zini baholash;
- ota-onalarning noto‘g‘ri munosabati;
- pedagoglarning yetarli tayyorgarlikka ega emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda psixologning professional yondashuvi muhim hisoblanadi.

Maktab psixologining kompetensiyalari. Inklyuziv ta’lim tizimida faoliyat yurituvchi psixolog quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim:

- kommunikativ kompetensiya;
- empatiya va bag‘rikenglik;
- diagnostik metodlarni bilish;
- korreksion dasturlarni ishlab chiqish;
- stressli vaziyatlarda ishlay olish;
- pedagog va ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish.

Diagnostika va korreksion metodikalar. Inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologi tomonidan o‘quvchilarning psixologik holatini aniqlash va ularga mos yordam ko‘rsatish uchun turli diagnostika hamda korreksion metodikalardan foydalaniladi. Ushbu metodikalar o‘quvchilarning hissiy holati, ijtimoiy moslashuvi, muloqot darajasi va xulq-atvoridagi o‘ziga xos jihatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Diagnostik metodikalar. Diagnostik ishlar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini o‘rganish va mavjud muammolarni aniqlashga qaratiladi. Amaliyotda quyidagi metodikalardan samarali foydalaniladi:

Kuzatish metodi — o‘quvchining dars jarayonidagi faolligi, tengdoshlari bilan muloqoti va xulq-atvorini tabiiy sharoitda o‘rganish imkonini beradi.

Suhbat metodi — o‘quvchi, ota-ona va pedagoglar bilan individual suhbat orqali psixologik holat haqida ma’lumot to‘plashga yordam beradi.

“Maktabdagi xavotir darajasi” testi — o‘quvchilarda xavotir, qo‘rquv va hissiy zo‘riqish holatini aniqlash uchun qo‘llaniladi.

Sotsiometriya metodi — sinf jamoasidagi ijtimoiy munosabatlar va o‘quvchining guruhdagi o‘rnini aniqlashga xizmat qiladi.

“Ranglar testi” (Lyusher testi) — bolaning ichki hissiy holatini va ruhiy zo‘riqish darajasini baholash imkonini beradi.

Kommunikativ qobiliyatni aniqlash metodikasi — o‘quvchining muloqotga kirishuvchanligi va ijtimoiy moslashuv darajasini o‘rganadi.

Korreksion metodikalar

Diagnostika natijalariga asoslanib, o‘quvchilardagi psixologik qiyinchiliklarni kamaytirish va ijobiy rivojlanishni ta’minlash maqsadida korreksion ishlar olib boriladi. Bunda quyidagi metodikalardan foydalaniladi:

Psixologik treninglar — o‘quvchilarda muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish, ishonchni oshirish va jamoaga moslashishni kuchaytiradi.

Art-terapiya — rasm chizish, ranglar bilan ishlash va ijodiy mashg‘ulotlar orqali bolaning hissiy holatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

O‘yin terapiyasi — ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda samarali bo‘lib, bolaning ichki kechinmalarini erkin ifodalash imkonini yaratadi.

Relaksatsion mashqlar — stress va xavotirni kamaytirish uchun nafas mashqlari hamda tinchlantiruvchi usullar qo‘llaniladi.

Individual konsultatsiyalar — o‘quvchi bilan yakka tartibda ishlash orqali uning muammolarini bartaraf etish va psixologik qo‘llab-quvvatlash amalga oshiriladi.

Guruhiy mashg‘ulotlar — sinf jamoasida bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat va hamkorlik muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur diagnostika va korreksion metodikalar inklyuziv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ruhiy salomatligini mustahkamlash, ularning jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlash hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Inklyuziv ta’lim sharoitida maktab psixologi o‘quvchilarning psixologik salomatligini ta’minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Psixolog alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarning imkoniyatlarini aniqlab, ularning ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiyalashuviga yordam beradi. Shu bilan birga, sog‘lom o‘quvchilar orasida bag‘rikenglik, mehr-oqibat va o‘zaro hurmat kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.Shuningdek, maktab psixologining pedagoglar va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boradigan ishlari inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi. Psixologik maslahatlar, korreksion mashg‘ulotlar va profilaktik tadbirlar orqali o‘quvchilarning ruhiy holati barqarorlashadi hamda ta’limga bo‘lgan qiziqishi ortadi. Natijada maktabda sog‘lom psixologik muhit shakllanadi.Demak, inklyuziv ta’lim tizimida maktab psixologining faoliyati har bir bolaning sifatli ta’lim olishi, o‘z qobiliyatlarini namoyon qilishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli psixologik xizmatni yanada rivojlantirish va mutaxassislarning kasbiy malakasini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Inklyuziv ta’lim jamiyatda tenglik va insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Bunday ta’lim muhitida maktab psixologi o‘quvchilarning psixologik holatini nazorat qilish, ularni ijtimoiy muhitga moslashtirish hamda sog‘lom psixologik muhit yaratishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, alohida ta’lim ehtiyojiga ega bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va jamoadagi o‘rnini mustahkamlash psixolog faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.Shuningdek, psixologning o‘qituvchilar va ota-onalar bilan samarali hamkorligi inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiradi. Psixologik xizmatning to‘g‘ri tashkil etilishi natijasida o‘quvchilarda o‘ziga ishonch, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollik rivojlanadi. Demak, inklyuziv ta’lim tizimida maktab psixologining faoliyati har bir bolaning sifatli ta’lim olishi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvida muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2021.
3. Shavkat Mirziyoyev. *Yangi O‘zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.
4. G‘oziyev E.G‘. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2002. – 512 b.
5. Karimova V.M.. *Pedagogik psixologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2008. – 320 b.
6. Yusupov M.. *Maktab psixologi faoliyati asoslari*. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2015. – 180 b.
7. UNICEF. *Inclusive Education: Policy and Practice Guidelines*. – New York: UNICEF, 2019. – 120 p.
8. UNESCO. *Inclusive Education: Supporting Diversity in the Classroom*. – Paris: UNESCO Publishing, 2020. – 150 p.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanmalar*. – Toshkent, 2021. – 95 b.

YOSHLARDA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISH XUSUSIYATI JAMIYAT FAROVONLIGINING ASOSI SIFATIDA

Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti,
“Amaliy psixologiya” kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari doktori (DSc)
e-mail: azimbek_qurbonboyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur tezisda yoshlarda o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatining mazmun-mohiyati, uning shaxs rivojlanishi hamda jamiyat farovonligidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, psixologiyada o‘zini o‘zi faollashtirish tushunchasi ilmiy jihatdan ta’riflanib, yoshlarning ichki imkoniyatlarini namoyon etishi, mustaqil fikrlashi, maqsad sari intilishi va ijtimoiy faolligini oshirishda muhim omil ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zini o‘zi faollashtirish, yoshlar, shaxs rivojlanishi, motivatsiya, ijtimoiy faollik, o‘zini anglash, jamiyat farovonligi, psixologik rivojlanish, ma’naviy taraqqiyot, ta’lim-tarbiya.

Аннотация. В данной статье анализируются сущность и содержание свойства самоактуализации у молодежи, а также его роль в развитии личности и обеспечении благополучия общества. Кроме того, понятие самоактуализации в психологии рассматривается с научной точки зрения, раскрывается его значение как важного фактора проявления внутреннего потенциала молодежи, формирования самостоятельного мышления, стремления к достижению целей и повышения социальной активности.

Ключевые слова: самоактуализация, молодежь, развитие личности, мотивация, социальная активность, самопознание, благополучие общества, психологическое развитие, духовное развитие, образование и воспитание.

Annotation. This thesis analyzes the essence and significance of the self-activation characteristic in youth, as well as its role in personal development and social well-being. In addition, the concept of self-activation is scientifically interpreted in psychology, and its importance as a key factor in revealing young people’s inner potential, developing independent thinking, striving toward goals, and increasing social activity is highlighted.

Keywords: self-activation, youth, personality development, motivation, social activity, self-awareness, social well-being, psychological development, spiritual development, education and upbringing.

Bugungi globallashuv va tezkor axborot almashinuvi sharoitida yoshlarning o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatini rivojlantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki o‘zini o‘zi faollashtira oladigan yoshlar mustaqil fikrlash, to‘g‘ri qaror qabul qilish, maqsad sari intilish hamda o‘z imkoniyatlarini samarali namoyon etish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu esa nafaqat shaxsning individual rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy farovonligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda yoshlar orasida motivatsiyaning pasayishi, ijtimoiy passivlik, turli salbiy axborotlarning ta’siriga berilish kabi holatlar uchrab turishi mazkur muammoning psixologik jihatdan chuqur o‘rganilishini talab etmoqda. Shu sababli yoshlarda o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatlarini shakllantirish, ularning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish va ijtimoiy faolligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan bir qatorda, o‘zini o‘z faollashtirish orqali inson o‘zidagi yashirin imkoniyat va qobiliyatlaridan foydalana oladi, bu esa uning o‘z faoliyatida ulkan muvaffaqiyatlarga erishishiga zamin yaratadi. Shuningdek, o‘zini o‘zi faollashtirish orqali yangi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish bilan bir qatorda, kelajakda katta marralarga erishishadi, jamiyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shishadi.

Psixologiyada o‘zini o‘zi faollashtirish nazariyasi inson mavjudligining doimiy mavzusi, ya’ni amalga oshirishning moddiy, emotsional va ruhiy tomonlarini izlash hamda inson potensialini ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan kuchli xohish masalasiga to‘xtalib o‘tadi. Ushbu nazariya inson psixologiyasida keng qo‘llaniladi, u shaxsiy rivojlanish va o‘zining potensialini ro‘yobga chiqaradigan insonga aylanishingizga yordam beradigan loyihadir.

Kashfiyotchi Tomas Edison shunday ta’kidlagan edi: “Agar biz qo‘limizdan keladigan hamma narsalarni qilganimizda, o‘zimizni tom ma’noda hayratda qoldirgan bo‘lardik”. Bu o‘zini o‘zi faollashtirish nazariyasining mohiyati hisoblanadi.

O‘zini o‘zi faollashtirish tushunchasining mohiyatini ochib berishda ko‘pgina ta’riflarga duch kelish mumkin, lekin ularning umumiy mazmuni bir xildir [3].

“Merriam-Webster”da ta’kidlanishicha, o‘zini o‘zi faollashtirish – bu “to‘liq rivojlanish va insonning o‘z qobiliyatlaridan foydalanish jarayoni”dir. Oksfordning yangi amerikacha lug’ati (The New Oxford American Dictionary)da o‘zini o‘zi faollashtirish “insonning o‘z qobiliyat va yashirin imkoniyatlarini anglashi yoki amalga oshirishi” deya izohlanadi. Dictionary.com sayti o‘zini o‘zi faollashtirishni “insondagi to‘liq potensialning ijodkorlik, mustaqillik, g’ayriixtiyoriylik va real olamni anglash orqali erishilgan muvaffaqiyati” deb ta’riflaydi.

O‘zini o‘zi faollashtirish borasida bir qancha xorij olimlari tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Jumladan, A.Maslou o‘zini o‘zi faollashtiruvchilik xususiyatiga ega deb o‘ylagan shaxslarning asarlarini, odatlarini, kundalik mashg’ulotlarini, munosabatlarini va fikrlarini kuzatganidan keyin o‘zini o‘zi faollashtirish tushunchasi haqida fikr yuritgan [2]. Uning ayrim subyektlari Albert Eynshteyn, Abraham Linkoln va Tomas Jeffersonlarni o‘z ichiga qamrab oladi.

A.Maslou o‘z kuzatishlari natijasida quyidagicha xulosalarga keladi [2]:

O‘zini o‘zi faollashtiradigan shaxslar notanish narsalardan qo‘rqishmaydi. Noaniqlik ularni hayajonlantirmaydi. Haqiqatan ham, bunday odamlar noma’lum narsalardan olinadigan zavq evaziga avvaldan ma’lum bo‘lgan narsalarning qulayliklarini bajonidil qurbon qilishadi. Ular o‘zlarining kuch va zaifliklarini yaxshi biladigan o‘z-o‘zini anglovchi insonlar hisoblanadi. Eng muhimi shundaki, ular o‘zlarining zaifliklarini tan ola bilishadi va o‘z kuchini rivojlantirishga ahamiyat qaratishadi.

O‘zini o‘zi faollashtiradigan odamlar va hali quyi pog’onalarni egallab turgan insonlar o‘rtasida bitta ajoyib tafovut mavjud. O‘zini o‘zi faollashtiradigan odamlar mazmunli hayot kechirishadi. Hayotda ular aniq maqsadga ega bo‘lishadi va ularning burchi odatda ulkan yaxshiliklarga aloqador bo‘ladi. Rahmdillik, fidoyilik va insonparvarlik ularning xarakter xususiyatlari hisoblanadi. Chunki ular o‘z oldiga aniq bir maqsad qo‘yishadi, shu bilan bir qatorda, o‘zini o‘zi faollashtiradigan odamlar arzimas narsalardan tashvishlanishmaydi. Agar siz o‘zini o‘zi faollashtiradigan shaxsni uchratib qolsangiz, arzimagan asabiylashishlardan shikoyat qilmaydigan bunday ochiqko‘ngil odamlar atrofida bo‘lish chinakam xursandchilik ekanligiga amin bo‘lasiz [2].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi globallashuv davrida shaxsning o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyati muhim ahamiyat kasb etadigan xususiyat hisoblanadi. O‘zini o‘zi faollashtiruvchi yoshlar hayotda o‘z maqsadini aniq belgilab, shu maqsadga erishish uchun o‘zlarining ichki imkoniyatlaridan keng foydalana olishadi. Bu esa bunday shaxslarga hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishishlariga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Маклаков А.Г. Общая психология: Учебник для вузов. – СПБ.: Питер, 2008. – 583 с.: ил. (серия «Учебник для вузов»);

2. Маслоу А. Мотивация и личност. - М., 1954. – электронный ресурс сайта http://www.koob.ru/age_psychology/

3. Психологический словарь / Под ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. — СПб.: Питер, 2005. — 496 с.

4. Лурия А.Р. Лекции по общая психологии. – СПБ, 2009. – 320 с.: ил. – (серия «Мастера психологии»).

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ДЕОНТОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ

Кабулов Азамат Ибадуллаевич

Элликкалинский техникум общественного здравоохранения имени Абу Али ибн Сино

Аннотация. В статье рассматриваются организационно-педагогические механизмы развития профессионально-деонтологической компетентности студентов в условиях современного профессионального образования.

Ключевые слова: профессионально-деонтологическая компетентность, студент, деонтология, профессиональная этика, компетентностный подход, профессиональная подготовка, педагогические механизмы, образовательная среда, профессиональная ответственность.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy kasbiy ta’lim sharoitida talabalarning kasbiy-deontologik kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: kasbiy-deontologik kompetentlik, talaba, deontologiya, kasbiy etika, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik mexanizmlar, ta’lim muhiti, kasbiy mas’uliyat.

Abstract. The article examines organizational and pedagogical mechanisms for developing students' professional and deontological competence in modern vocational education.

Keywords: professional and deontological competence, student, deontology, professional ethics, competence-based approach, professional training, pedagogical mechanisms, educational environment, professional responsibility.

Современный этап развития системы образования характеризуется повышением требований к качеству подготовки будущих специалистов. В условиях модернизации профессионального образования особое значение приобретает формирование личности, способной эффективно осуществлять профессиональную деятельность, соблюдать нормы профессиональной этики и нести ответственность за результаты своей работы. В связи с этим актуализируется проблема развития профессионально-деонтологической компетентности студентов как важнейшего компонента профессиональной подготовки. Профессионально-деонтологическая компетентность представляет собой совокупность знаний, умений, ценностных установок и личностных качеств, обеспечивающих соблюдение специалистом морально-этических норм профессиональной деятельности. Она способствует формированию ответственного отношения к профессиональным обязанностям, развитию культуры общения, готовности к принятию обоснованных решений и соблюдению профессионального долга. [2.: 8]

В современных научных исследованиях компетентностный подход рассматривается как один из приоритетных ориентиров совершенствования образовательного процесса. По мнению И.А. Зимней, компетентность выступает интегративной характеристикой личности, отражающей способность эффективно применять полученные знания и навыки в различных профессиональных ситуациях. [1.: 9] В этой связи профессионально-деонтологическая компетентность является неотъемлемой составляющей общей профессиональной компетентности будущего специалиста.

Особую значимость данная проблема приобретает в системе подготовки специалистов медицинского профиля. Медицинский работник ежедневно взаимодействует с людьми, оказывает влияние на состояние их здоровья и благополучия, что требует не только высокого уровня профессиональных знаний, но и сформированности нравственно-этических качеств. Именно поэтому развитие профессионально-деонтологической компетентности должно рассматриваться как важнейшая задача образовательного процесса.

Согласно исследованиям В.А. Сластенина, профессиональное становление личности невозможно без формирования гуманистической направленности, нравственной культуры и социальной ответственности будущего специалиста. [3.: 112] Эти качества составляют основу профессиональной этики и определяют характер взаимодействия специалиста с обществом, коллегами и клиентами.

Одним из ведущих организационно-педагогических механизмов развития профессионально-деонтологической компетентности является создание профессионально ориентированной образовательной среды. Такая среда обеспечивает интеграцию образовательного, воспитательного и практического компонентов подготовки студентов. Она способствует формированию устойчивой мотивации к профессиональному развитию, развитию профессионального самосознания и усвоению норм профессионального поведения.

Эффективность формирования профессионально-деонтологической компетентности во многом определяется содержанием образовательных программ. Включение в учебные планы дисциплин, связанных с профессиональной этикой, деонтологией, психологией общения и культурой профессионального взаимодействия,

создает условия для формирования системы нравственных ценностей будущих специалистов. Особое значение имеет изучение профессиональных ситуаций, требующих принятия этически обоснованных решений.

Важным педагогическим механизмом выступает использование интерактивных технологий обучения. Деловые игры, ситуационный анализ, кейс-методы, тренинги, групповые дискуссии и проблемное обучение позволяют студентам не только усваивать теоретические знания, но и применять их на практике. Использование подобных методов способствует развитию критического мышления, коммуникативных навыков и способности к профессиональной рефлексии.

Akademik yozuvni o‘qitish jarayonida IMRAD modelidan shablon sifatida foydalanish, har bir qism bo‘yicha alohida mashqlar ishlab chiqish va bosqichma-bosqich yozuv strategiyalarini qo‘llash samarali deb topildi. Masalan, alohida mashg‘ulotlarda faqat “Kirish” bo‘limi uchun muammo dolzarbligini asoslash va maqsadni ifodalash, keyingi darslarda esa metodologiyani qisqa, aniq va tekshiriladigan tarzda yozish bo‘yicha mashqlar o‘tkazilgan. Shu kabi bosqichli yondashuv natijasida talabalar butun maqolani birdaniga emas, balki lozim bo‘lgan qismlarni alohida o‘zlashtirish orqali umumiy strukturaning mantiqini yaxshiroq tushunishga erishgan.

Olingan natijalar oliy ta’limda akademik yozuvni shakllantirish masalasi faqat til bo‘yicha savodxonlik bilan cheklanmasdan, kengroq ilmiy va metodik yondashuvni talab qilayotganini ko‘rsatadi. Grammatik va leksik me’yorlarga rioya qilish zarur, biroq yetarli shart emas; talaba ilmiy matn orqali yangi bilimni qanday ifodalayotgani, qaysi manbalarga tayanganligi, dalillarni qanday tartibga solgani va o‘z pozitsiyasini qay darajada asoslagani ham birdek ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, akademik yozuvni faqat “til fani” ichida ko‘rib chiqish emas, balki tadqiqot metodologiyasi, fan falsafasi, axborot texnologiyalari va ta’lim psixologiyasi bilan uzviy bog‘langan fanlararo maydon sifatida talqin etish maqsadga muvofiqdir.

Akademik yozuv talabalarning ilmiy faoliyatga tayyorgarligini, ilmiy axborotni tanqidiy tahlil qilish, qayta ishlash va yangi kontekstda qo‘llash qobiliyatini namoyon etadi, shu bois uni mustaqil fan sifatida yoki alohida modul ko‘rinishida tizimli o‘qitish zarurati vujudga kelmoqda. Ayrim oliy ta’lim muassasalarida “Akademik yozuv” fanini joriy etish bo‘yicha tajribalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur kursni 1–2-kursdayoq o‘qitish keyingi bosqichlardagi kurs ishlari va bitiruv ishlari sifatini yuksaltirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bunda akademik yozuv modulini ilmiy-tadqiqot metodologiyasi, axborot madaniyati va raqamli savodxonlik kurslari bilan integratsiyalash yanada samarali natijalar berishi mumkin.

An’anaviy ma’ruza va reproduktiv yozuv mashqlari o‘rniga loyihaga asoslangan ta’limni joriy etish talabalarning faolligini oshirishi, ularni real ilmiy vaziyatlarga yaqinlashtirishi hamda yozma ishlarni bir butun tadqiqot jarayonining yakuniy mahsuli sifatida idrok etishga yordam beradi. Loyihaga asoslangan yondashuvda talabalar mavzuni mustaqil tanlaydi, ma’lumot izlaydi, gipoteza ilgari suradi, ma’lumotlarni tahlil qiladi va natijalarni yozma hamda og‘zaki shaklda taqdim etadi. Bu jarayon akademik yozuvni “majburiy topshiriq” emas, balki ilmiy izlanish mantiqiy natijasi sifatida ko‘rishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday yondashuv o‘qituvchidan ham an’anaviy “ma’ruza o‘qiydigan” rol emas, balki konsultant, fasilitator va ilmiy rahbar sifatidagi ko‘nikmalarni talab qiladi.

Interaktiv metodlar, xususan, o‘zaro baholash (peer review), reflektiv yozuv, tanqidiy esse va kollaborativ yozuv mashqlari akademik yozuvni ijtimoiy-aloqaviy jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi. Talabalar bir-birining ishini o‘qib, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, konstruktiv tavsiyalar berish orqali nafaqat o‘z matnini, balki umuman ilmiy matn sifati mezonlarini chuqurroq anglay boshlaydi. Bu jarayon metakognitiv ko‘nikmalarni – o‘z yozuv jarayonini kuzatish, baholash va qayta tashkil etish qobiliyatini – rivojlantiradi. Bundan tashqari, guruhiy yozuv va kollaborativ hujjat bilan ishlash talabalarda mas’uliyatni bo‘lishish, vaqtni boshqarish va akademik muloqot etikasiga rioya qilish madaniyatini shakllantiradi.

Raqamli ta’lim platformalari va onlayn vositalardan foydalanish akademik yozuv mashqlarini individuallashtirish, tezkor fikr-mulohaza berish va plagiatni aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, LMS tizimlari orqali topshiriqlarni bosqichma-bosqich topshirish, avtomatik tekshiruv natijalariga tayanib grammatik xatolarni kamaytirish, plagiat ko‘rsatkichini nazorat qilish mumkin. Shu bilan birga, raqamli vositalarga haddan tashqari tayanish, matnni to‘liq sun’iy intellekt yordamida yaratish, tayyor shablonlardan mexanik foydalanish kabi xavflar akademik halollik masalalarini keskinlashtirmoqda. Bu holat o‘qituvchilardan talabalarda mas’uliyatli foydalanish madaniyatini, intellektual halollik tamoyillarini va mustaqil fikrlash zarurligini muntazam targ‘ib qilishni talab qiladi.

IMRAD modeli bo‘yicha ilmiy maqola yozish strategiyasining o‘quv jarayoniga integratsiyasi talabalarning yozma ishlarini xalqaro nashrlar talablari bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Biroq, ko‘plab talabalar uchun IMRAD tuzilmasi faqat rasmiy bo‘limlar ketma-ketligi sifatida qabul qilinib, mazmuniy mantiq va tahliliy chuqurlik yetarli darajada shakllanmay qolishi mumkin. Shuning uchun IMRAD bo‘yicha o‘qitishda nafaqat bo‘limlar nomini, balki har bir bo‘lim javob berishi lozim bo‘lgan savollar tizimini (masalan, “Kirish”da – “Nega bu muammo dolzarb?”, “Maqsad nima?”, “Yangilik nimada?”; “Metodlar”da – “Qayerda?”, “Kim bilan?”, “Qanday usullar bilan?” va hokazo), matnning ichki mantiqini va iqtiboslash strategiyalarini aniq ko‘rsatib berish muhimdir.

Shu bilan birga, IMRAD modeli ham barcha fanlar va tadqiqot turlariga bir xil darajada tatbiq etilmasligi mumkinligi, gumanitar yo‘nalishlarda ba’zan muqobil strukturalar (masalan, tematik bo‘limlarga bo‘lingan maqolalar) ham qo‘llanilishini inobatga olish zarur. Shuning uchun akademik yozuvni o‘qitishda strukturaviy moslashuvchanlik va tanqidiy yondashuvni saqlagan holda, IMRADni universal “tayoqcha” emas, balki ko‘p hollarda samarali bo‘lgan, biroq muayyan sharoitga mos holda qo‘llanadigan model sifatida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Oliy ta’lim tizimida akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish talabalarning kelajakdagi ilmiy va kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishining asosiy shartlaridan biri

bo‘lib, u ilmiy matn yaratish, tanqidiy fikrlash va dalillarga tayangan xulosa chiqarish qobiliyatlarini integratsiyalashgan holda rivojlantiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, loyihaga asoslangan ta’lim, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarni uyg‘unlashtirgan yondashuv akademik yozuvni samarali shakllantirishga xizmat qiladi, talabalar yozma ishlarining grammatik, leksik va strukturaviy sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. IMRAD modeli bo‘yicha ilmiy maqola yozish strategiyasini tizimli o‘rgatish esa talabalarga ilmiy tadqiqot natijalarini xalqaro talablarga mos formatda taqdim etish, maqola va tezis o‘rtasidagi farqlarni anglash va ilmiy adabiyotlar bilan samarali muloqotga kirishish imkonini yaratadi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun akademik yozuvni o‘qitishning fanlararo modellarini ishlab chiqish, aniq yo‘nalishlar (gumanitar, texnik, tibbiyot) kesimida differensial yondashuvlarni sinovdan o‘tkazish hamda mahalliy oliy ta’lim muassasalarida IMRAD asosidagi yozuv kurslarining samaradorligini empirik tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimxodjaev N. N. Oliy ta’limda ingliz tilini o‘qitishda akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari // Oliy ta’limda til va adabiyot masalalari. – Toshkent, 2025. – № 2. – B. 45–52.
2. Qodirov A. A. Akademik yozuv fanini oliy ta’lim tizimida o‘qitishning samarali yo‘llari // Filologiya masalalari. – Samarqand, 2024. – T. 3. – № 1. – B. 60–68.
3. Yusupova M. M. Raqamli texnologiyalar asrida akademik yozuv: an’anaviy va innovatsion metodlarning uyg‘unlashuvi // Zamonaviy ta’lim. – Toshkent, 2023. – № 4. – B. 90–98.
4. Abdullaeva D. D. Akademik yozuv fani va uning zamonaviy ta’lim tizimidagi o‘rni // Pedagogika va psixologiya jurnallari. – Toshkent, 2024. – № 1. – B. 35–42.
5. Ergasheva N. N. Talabalarda akademik yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda interaktiv metodlarning o‘rni // “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” ilmiy jurnali. – Namangan, 2024. – № 3. – B. 120–127.
6. Toshpulatov B. B. Loyihaga asoslangan ta’limni gumanitar fanlarni o‘qitishda qo‘llash imkoniyatlari // Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent, 2025. – B. 210–215.
7. Karimova Sh. Sh. Akademik yozuv mashg‘ulotlarida yumshoq ko‘nikmalarni shakllantirish // “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. – Buxoro, 2025. – № 2. – B. 55–62.
8. Nurmatova Z. Z. Akademik yozuv samaradorligi: tajriba va tahlil // Science Education (O‘zbekiston). – Toshkent, 2025. – № 4. – B. 30–39.

TALABALARDA IJTIMOIY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINING KOGNITIV DETERMINANTLARI

Raximbayeva Gulyora Ulugbekovna
Urganch davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: gulyorahabib@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada globallashuv sharoitida talabalar ijtimoiy identifikatsiyasining shakllanishiga ta’sir etuvchi kognitiv determinantlar tahlil qilingan. Ijtimoiy identifikatsiya shaxsning muayyan ijtimoiy guruhga mansubligini anglash va o‘zini shu guruh bilan bog‘lash jarayoni sifatida talqin etiladi. Tadqiqotda refleksiya, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy idrok, metakognitiv qobiliyatlar va global fikrlashning talabalarda ijtimoiy identifikatsiya shakllanishidagi o‘rni yoritilgan. Ushbu kognitiv omillarning rivojlanishi talabalarning ijtimoiy faolligi, ijtimoiy moslashuvi va fuqarolik pozitsiyasining shakllanishiga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy identifikatsiya, kognitiv determinantlar, refleksiya, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy idrok, metakognitsiya, global fikrlash, talaba yoshlar.

Аннотация: В статье рассматриваются когнитивные детерминанты формирования социальной идентичности студентов в условиях глобализации. Социальная идентичность интерпретируется как процесс осознания личностью своей принадлежности к

определённой социальной группе и отождествления себя с ней. Особое внимание уделяется роли рефлексии, критического мышления, социального восприятия, метакогнитивных способностей и глобального мышления в формировании социальной идентичности студентов. Обосновано, что развитие данных когнитивных факторов способствует повышению социальной активности, социальной адаптации и гражданской позиции студенческой молодёжи.

Ключевые слова: социальная идентичность, когнитивные детерминанты, рефлексия, критическое мышление, социальное восприятие, метакогниция, глобальное мышление, студенты.

Abstract: This article examines the cognitive determinants influencing the formation of social identity among students in the context of globalization. Social identity is interpreted as the process through which individuals recognize their belonging to a particular social group and identify themselves with it. The study highlights the role of reflection, critical thinking, social perception, metacognitive abilities, and global thinking in the development of students' social identity. It is argued that the advancement of these cognitive factors contributes to students' social activity, social adaptation, and the formation of an active civic position.

Keywords: social identity, cognitive determinants, reflection, critical thinking, social perception, metacognition, global thinking, students.

Kirish. XXI asrda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, shaxsning ijtimoiylashuvi va o‘zligini anglash jarayonlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi, xalqaro integratsiyaning kuchayishi, madaniyatlararo aloqalarning kengayishi hamda virtual kommunikativ makonning shakllanishi insonning o‘z ijtimoiy mansubligini anglashiga yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda murakkab vazifalarni ham yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda yoshlarning, ayniqsa, talabalarning ijtimoiy identifikatsiyasi masalasi zamonaviy ijtimoiy va pedagogik psixologiyaning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanib, mazkur davrda kasbiy, fuqarolik, madaniy va ijtimoiy o‘zlikning shakllanishi jadallashadi. Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan yoshlar turli ijtimoiy guruhlar, madaniy qadriyatlar, mafkuraviy qarashlar va kommunikativ muhitlar bilan faol o‘zaro ta’sirga kirishadilar. Natijada ularda muayyan guruhga mansublik hissi, ijtimoiy rollarni anglash va o‘zini jamiyatning muhim subyekti sifatida his etish jarayonlari rivojlanadi. Mazkur jarayonlar ijtimoiy identifikatsiyaning tarkibiy elementlari sifatida shaxsning ijtimoiy faolligi va hayotiy pozitsiyasini belgilab beradi.

Ijtimoiy identifikatsiya tushunchasi ijtimoiy psixologiyada T. Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan nazariyalar asosida keng tadqiq etilgan bo‘lib, u shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruh a’zosi sifatida anglash jarayoni hamda ushbu guruhga nisbatan hissiy va qadriy munosabatlar tizimini ifodalaydi. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rnini aniqlash, ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda identifikatsiya mexanizmlariga tayanadi. Shu bois ijtimoiy identifikatsiya shaxsning ijtimoiylashuvi, o‘zini anglash va ijtimoiy moslashuvining muhim psixologik omili hisoblanadi

Ijtimoiy identifikatsiya va uning kognitiv asoslari, Ijtimoiy identifikatsiya zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, shaxsning o‘zini muayyan ijtimoiy guruhning a’zosi sifatida anglashi va mazkur guruh bilan psixologik jihatdan bog‘lanishini ifodalaydi. Ushbu tushuncha ilk bor T. Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan Ijtimoiy identifikatsiya nazariyasida ilmiy asoslangan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, inson o‘zining ijtimoiy muhitdagi o‘rnini belgilash, o‘zini boshqa insonlar bilan qiyoslash va muayyan ijtimoiy guruhlarga mansublik hissini shakllantirish orqali ijtimoiy identifikatsiyaga ega bo‘ladi. Shaxsning o‘zini ma’lum bir guruh vakili sifatida qabul qilishi uning qadriyatlari, xulq-atvori, motivlari va ijtimoiy munosabatlar tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalik davri identifikatsiya jarayonlarining eng faol kechadigan bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda yoshlar kasbiy, milliy, fuqarolik va madaniy identifikatsiya elementlarini shakllantiradilar. Oliy ta’lim muassasasida ta’lim olish jarayoni talabalarni yangi

ijtimoiy guruhlar va ijtimoiy rollar bilan tanishtiradi. Natijada ular o‘zlarining ijtimoiy mavqei, hayotiy maqsadlari va kelajakdagi kasbiy o‘rnini qayta ko‘rib chiqishga intiladilar. Shu sababli talabalarda ijtimoiy identifikatsiyaning shakllanish mexanizmlarini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Refleksiya ijtimoiy identifikatsiyaning muhim determinanti sifatida. Refleksiya shaxsning o‘z ichki dunyosi, fikrlari, his-tuyg‘ulari va xulq-atvorini tahlil qilish hamda baholash qobiliyatidir. Psixologik adabiyotlarda refleksiya o‘zlikni anglashning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin etiladi. Talabalik davrida refleksiya shaxsning o‘z imkoniyatlari, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini anglashiga xizmat qiladi.

Refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganligi talabaga o‘zining turli ijtimoiy guruhlardagi rolini tushunish, guruhlararo munosabatlarni baholash va ijtimoiy tajribalarni tahlil qilish imkonini beradi. Refleksiya jarayonida talaba o‘zining milliy, madaniy va kasbiy identifikatsiyasini shakllantirib boradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya darajasi yuqori bo‘lgan shaxslarda ijtimoiy identifikatsiya barqarorroq va mazmunan boyroq shakllanadi.

Tanqidiy tafakkurning roli. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimining keskin ortishi talabalardan tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarini talab etmoqda. Tanqidiy tafakkur axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini anglatadi.

Tanqidiy tafakkur rivojlangan talaba turli ijtimoiy stereotiplar, manipulyativ axborotlar va destruktiv g‘oyalarga nisbatan nisbatan barqaror pozitsiyani egallaydi. Bu esa uning ijtimoiy identifikatsiyasining ongli ravishda shakllanishiga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash orqali shaxs o‘zining ijtimoiy qarashlarini qayta ko‘rib chiqadi, ularni asoslaydi va zarur hollarda yangilaydi. Shu jihatdan tanqidiy tafakkur ijtimoiy identifikatsiyaning kognitiv asoslarini mustahkamlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy idrok va metakognitiv qobiliyatlarning ahamiyati. Ijtimoiy idrok shaxsning boshqa insonlarni, ularning xulq-atvori, motivlari va ijtimoiy pozitsiyalarini tushunish jarayonini ifodalaydi. Talabalarning ijtimoiy idroki rivojlangan bo‘lsa, ular guruh ichidagi munosabatlarni samarali tashkil etish, hamkorlik qilish va ijtimoiy moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Ijtimoiy identifikatsiya jarayonida ijtimoiy idrok muhim vazifani bajaradi. Talaba o‘zini boshqalar bilan qiyoslash, o‘z guruhining afzalliklari va o‘ziga xos xususiyatlarini anglash orqali o‘z identifikatsiyasini shakllantiradi. Shu sababli ijtimoiy idrokning rivojlanganligi identifikatsiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi.

Metakognitiv qobiliyatlar esa shaxsning o‘z fikrlash faoliyatini nazorat qilishi, baholashi va boshqarishiga xizmat qiladi. Metakognitsiya orqali talaba o‘z qarashlari va e’tiqodlarining shakllanish sabablarini tushunishga harakat qiladi. Bu esa uning ijtimoiy identifikatsiyasini ongli ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Metakognitiv kompetensiyalar shaxsning yangi ijtimoiy tajribalarni qabul qilishiga va murakkab ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchan harakat qilishiga yordam beradi.

Xulosa

Talabalarda ijtimoiy identifikatsiya shakllanishi murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi kognitiv determinantlarning rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot natijalarini nazariy tahlil qilish refleksiya, tanqidiy tafakkur, ijtimoiy idrok, metakognitiv qobiliyatlar hamda global fikrlash ijtimoiy identifikatsiyaning asosiy kognitiv determinantlari ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur omillar talabalarning o‘zligini anglashiga, ijtimoiy guruhlarga mansublik hissini shakllantirishiga hamda ijtimoiy voqelikni ongli ravishda baholashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning refleksiv va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, metakognitiv kompetensiyalarini qo‘llab-quvvatlash hamda global dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni joriy etish ijtimoiy identifikatsiya jarayonining samaradorligini oshirishga imkon beradi. Bu esa kelajakda ijtimoiy faol, fuqarolik pozitsiyasiga ega va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tajfel H. Social Identity and Intergroup Relations. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
2. Turner J.C., Hogg M.A., Oakes P.J., Reicher S.D., Wetherell M.S. Rediscovering the Social Group: A Self-Categorization Theory. – Oxford: Blackwell, 2012.
3. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – New Jersey: Prentice Hall, 1986.
4. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. – Stanford: Stanford University Press, 1991.
5. Schwartz S.H. Basic Human Values: Theory, Methods and Applications. – Jerusalem: Hebrew University Press, 2019.
6. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2022.
7. Мудрик А.В. Социализация человека. – Москва: Академия, 2021.
8. Асмолов А.Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2019.
9. Қодиров Б.Р. Шахс ва ижтимоий муносабатлар психологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2020.

Ғозиев Э.Ғ. Умумий психология. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2018.

KASBIY MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISH ORQALI PEDAGOG-PSIXOLOGLARDA DESTRUKTIV AGRESSIYANI KONSTRUKTIV YO‘NALTIRISH IMKONIYATLARI

Rajabboyev Asror Alisherovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi
katta o`qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola pedagog-psixologlar faoliyatida yuzaga keluvchi destruktiv agressiyani kasbiy motivatsiyani rivojlantirish orqali konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda motivatsion tuzilma, professional yonish, stressga moslashuv va sublimatsiya mexanizmlari tahlil qilinadi. O‘zbek, rus va xalqaro psixologik adabiyotlar asosida motivatsiyani kuchaytirishning agressiv impulslarni ijtimoiy foydali va kasbiy samarali xatti-harakatlarga aylantirishdagi rolini ko‘rsatuvchi empirik va nazariy dalillari keltirilgan. Natijalar pedagog-psixologlar uchun kasbiy rivojlanish, superviziya va refleksiv amaliyotni integratsiya qilish orqali destruktiv agressiyani boshqarishga yo‘naltirilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Kalit so'zlar: kasbiy motivatsiya, destruktiv agressiya, konstruktiv yo‘naltirish, pedagog-psixolog, professional yonish, sublimatsiya, kasbiy rivojlanish, refleksiv amaliyot.

***Abstract*:** This article examines the possibilities of redirecting destructive aggression in educational psychologists into constructive channels through the development of professional motivation. The study analyzes motivational structure, professional burnout, stress adaptation, and sublimation mechanisms. Based on Uzbek, Russian, and international psychological literature, empirical and theoretical evidence is presented demonstrating how enhancing motivation transforms aggressive impulses into socially beneficial and professionally effective behaviors. The findings provide a basis for practical recommendations aimed at managing destructive aggression among educational psychologists through integrated professional development, supervision, and reflective practice.

Keywords: professional motivation, destructive aggression, constructive redirection, educational psychologist, burnout, sublimation, professional development, reflective practice.

***Аннотация*:** В данной статье исследуются возможности направления деструктивной агрессии у педагогов-психологов в конструктивное русло посредством развития профессиональной мотивации. В работе анализируются мотивационная структура, профессиональное выгорание, механизмы адаптации к стрессу и сублимации.

На основе узбекской, российской и международной психологической литературы приводятся эмпирические и теоретические данные, демонстрирующие, как усиление мотивации трансформирует агрессивные импульсы в социально полезное и профессионально эффективное поведение. Результаты служат основой для практических рекомендаций по управлению деструктивной агрессией у педагогов-психологов через интеграцию профессионального развития, супервизии и рефлексивной практики.

Ключевые слова: профессиональная мотивация, деструктивная агрессия, конструктивное направление, педагог-психолог, профессиональное выгорание, сублимация, профессиональное развитие, рефлексивная практика.

Kirish. Ta’lim tizimida pedagog-psixologlar o‘quvchilarning ruhiy salomatligi, ijtimoiy moslashuvi va akademik muvaffaqiyatini ta’minlovchi asosiy mutaxassislar sifatida faoliyat yuritadi. Biroq, ularning kasbiy faoliyati yuqori hissiy yuklama, ko‘p tomonlama talablar, resurs yetishmovchiligi va tashkiliy stress bilan bog‘liq bo‘lib, bu omillar destruktiv agressiya xavfini oshiradi [1]. Destruktiv agressiya pedagog-psixologlarning professional identifikatsiyasiga, mijozlar bilan ishlash sifatiga va shaxsiy farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, psixologik nazariya va amaliyot agressiv energiyani konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazish mumkinligini tasdiqlaydi [2]. Ushbu jarayonda kasbiy motivatsiya asosiy regulyator omil sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolaning maqsadi pedagog-psixologlarda destruktiv agressiyani konstruktiv shaklga o‘tkazishda kasbiy motivatsiyani rivojlantirishning nazariy asoslari, mexanizmlari va amaliy imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat.

1. Kasbiy motivatsiya tushunchasi va pedagog-psixologlar faoliyatidagi ahamiyati.

Kasbiy motivatsiya – mutaxassisning o‘z faoliyatiga bo‘lgan ichki intilish, kasbiy qadriyatlarni anglash va natijaga erishish uchun barqaror psixologik holatdir [3]. E. G‘oziyevning ta’kidlashicha, pedagog-psixologlarning kasbiy motivatsiyasi ikki asosiy qutbda shakllanadi: ichki motivatsiya (kasbga bo‘lgan qiziqish, yordam berish ehtiyoji, o‘z-o‘zini realizatsiya qilish) va tashqi motivatsiya (moddiy rag‘bat, martaba, ijtimoiy e’tirof) [4]. Z. Nishanova o‘z tadqiqotlarida ko‘rsatishicha, ichki motivatsiyaning ustuvorligi kasbiy chidamlilikni oshiradi va stressli vaziyatlarda maladaptiv xulq-atvor shakllanishining oldini oladi [5].

Platon Ivanovning motivatsion-regulyator nazariyasiga ko‘ra, professional faoliyatdagi ma’lumot qayta ishlash, maqsad qo‘yish va o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayonlari motivatsion holatga bog‘liq [6]. Kasbiy motivatsiyaning past darajasi pedagog-psixologlarda hissiy yonish, bezovtalik, rollararo ziddiyat va natijada destruktiv agressiya (og‘zaki, passiv yoki passiv-agressiv shakllarda) paydo bo‘lishiga olib keladi. Aksincha, yuqori darajadagi kasbiy motivatsiya ma’noni anglash (meaning-making), kasbiy identifikatsiya va o‘z-o‘zini tartibga solish (self-regulation) resurslarini faollashtiradi [7].

2. Destruktiv agressiya: tabiati, sabablari va pedagog-psixologlarda namoyon bo‘lishi.

Destruktiv agressiya – atrof-muhitga, hamkasblarga yoki o‘z-o‘ziga zarar yetkazishga qaratilgan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yoki maladaptiv shaklda namoyon bo‘luvchi psixologik-hissiy reaksiyadir [8]. Davletshin agressiyani funksional jihatdan ikkiga ajratadi: destruktiv (buzuvchi, nazoratsiz, natijaga qarama-qarshi) va konstruktiv (muammoni hal qilishga qaratilgan, ijtimoiy me’yorlarga mos, himoya yoki o‘zgarish katalizatori sifatida) [9].

Pedagog-psixologlarda destruktiv agressiyaning asosiy omillari:

- Hissiy yuklamaning ortib ketishi va tiklanish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- Tashkiliy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi (superviziya, mentorlik, psixologik xonalar);
- Kasbiy avtonomiyaning cheklanishi va ma’muriy bosim;
- Motivatsion qashshoqlanish (amotivatsiya) va kasbiy identifikatsiyaning zaiflashuvi [10].

Xalqaro tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, yordam beruvchi kasblarda (helping professions) destruktiv agressiya ko‘pincha “professional kinizm”, “emotsional charchash” bilan bog‘liq bo‘lib, u passiv-agressiv xatti-harakatlar, mijozlarga nisbatan masofani saqlash yoki kasbiy

standartlardan chetlashish orqali namoyon bo‘ladi [11]. Biroq, psixodinamik va kognitiv-xulqiy yondashuvlar agressiv energiyani sublimatsiya qilish, muammoni hal qilish strategiyalariga yo‘naltirish va assertiv kommunikatsiya orqali konstruktiv shaklga o‘tkazish imkonini beradi [12].

3. Kasbiy motivatsiyani rivojlantirish orqali agressiyani konstruktiv yo‘naltirish mexanizmlari.

Kasbiy motivatsiya destruktiv agressiyani konstruktiv kanallarga yo‘naltirishda uchta asosiy mexanizm orqali ta’sir ko‘rsatadi:

a) Ma’no berish va kasbiy identifikatsiyani mustahkamlash. Ichki motivatsiya faollashganda, pedagog-psixolog o‘z faoliyatini „vazifa” emas, balki “chaqiriq” (calling) sifatida qabul qiladi. Bu holat frustratsiyani qayta baholash (reappraisal) va agressiv impulslarni kasbiy maqsadlarga integratsiya qilish imkonini beradi [13]. Z. Nishanova ta’kidlashicha, o‘zbek ta’lim tizimida kasbiy qadriyatlarni uyg‘otish pedagog-psixologlarning hissiy barqarorligini 30–40% ga oshiradi [14].

b) O‘z-o‘zini tartibga solish va refleksiv amaliyot. Motivatsion yuqori daraja kognitiv monitoring, hissiy regulyatorlik va metakognitiv refleksiyani faollashtiradi. Platon Ivanovning regulyator nazariyasiga ko‘ra, maqsadli motivatsiya „reaktiv agressiya”dan “proaktiv yondashuv”ga o‘tishni ta’minlaydi [15]. Kundalik refleksiv jurnal, keys tahlili va hamkasblar bilan strukturalashgan muhokamalar agressiv energiyani analitik va diagnostik faoliyatga yo‘naltiradi.

c) Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va superviziya tizimi. Davletshin ta’kidlaganidek, agressiyaning konstruktiv shakllanishi tashkiliy muhitda “xavfsiz psixologik fazo” mavjudligiga bog‘liq [16]. Xalqaro tajribaning ko‘rsatishicha, muntazam kasbiy superviziya, peer-support guruhlar va stressga chidamlilikni oshiruvchi treninglar (mindfulness, CBT-based coping, emotional regulation skills) pedagog-psixologlarda destruktiv impulslarni 50–65% ga kamaytiradi [17].

4. Amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlar.

Pedagog-psixologlarda destruktiv agressiyani konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazish uchun quyidagi tizimli choralar tavsiya etiladi:

1. Motivatsion profilash va diagnostika. Kasbiy motivatsiya darajasini aniqlash uchun standartlashtirilgan so‘rovnomalar (masalan, Professional Motivation Scale, Burnout Inventory modifikatsiyasi) qo‘llanilishi lozim. Natijalar asosida individual rivojlanish yo‘nalishlari belgilanadi.

2. Integratsiyalashgan superviziya modeli. Oylik strukturalashgan superviziya seanslarida case-muhokama, hissiy de-briefing va alternativ strategiyalarni ishlab chiqish amalga oshiriladi. Bu jarayon agressiv energiyani kasbiy muhokama va yechim izlashga yo‘naltiradi.

3. Kasbiy qadriyatlar va ma’no markazlashtirilgan treninglar. E. G‘oziyev taklif qilgan “kasbiy ma’no qidirish” (professional meaning-making) dasturlari pedagog-psixologlarning ichki motivatsiyasini mustahkamlaydi [18].

4. Tashkiliy muhitni optimallashtirish. Ma’muriy yuklamani tartibga solish, kasbiy avtonomiyani kengaytirish, moddiy va ma’naviy rag‘bat tizimini motivatsion ehtiyojlarga moslashtirish destruktiv agressiyaning oldini olishda kalit omil hisoblanadi [19].

5. Xalqaro standartlarga moslashtirilgan monitoring. Yillik psixologik holat monitoringi, kasbiy faoliyat sifati ko‘rsatkichlari va mijozlar (o‘quvchilar, ota-onalar) fikrlari asosida motivatsion-agressiv dinamika kuzatiladi.

Xulosa. Pedagog-psixologlarda destruktiv agressiyaning shakllanishi kasbiy stress, motivatsion qashshoqlanish va tashkiliy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog‘liq kompleks jarayondir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kasbiy motivatsiyani rivojlantirish orqali agressiv impulslarni konstruktiv yo‘nalishga o‘tkazish nafaqat nazariy jihatdan asoslangan, balki amaliy jihatdan ham samarali amalga oshirilishi mumkin. Ichki motivatsiyaning kuchayishi, refleksiv amaliyotning integratsiyasi, superviziya tizimining joriy etilishi va tashkiliy muhitning optimallashuvi pedagog-psixologlarning kasbiy barqarorligini oshiradi, destruktiv agressiyani kamaytiradi va ta’lim jarayonining sifatini yaxshilaydi. Kelgusi tadqiqotlarda motivatsion intervensiyalarning uzoq muddatli samaradorligini longitudinal usullar orqali o‘rganish,

shuningdek, raqamli psixologik yordam platformalarining agressiyani konstruktiv yo‘naltirishdagi rolini tahlil qilish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maslach C., Leiter M.P. Understanding the Burnout Experience: Recent Research and Its Implications for Psychiatry. – New York: Wiley, 2023. – B. 112.
2. Freud A. The Ego and the Mechanisms of Defense. – London: Routledge, 2020. – B. 87.
3. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – B. 15.
4. G'oziyev E. Pedagogik psixologiya asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2018. – B. 142.
5. Nishanova Z. Kasbiy rivojlanish va motivatsion barqarorlik. – T.: "Yangi asr avlodi", 2020. – B. 89.
6. Ivanov P. Regulyatorno-motivatsionnaya psikhologiya. – M.: Nauka, 2017. – S. 104.
7. Ryan R.M., Deci E.L. Intrinsic and Extrinsic Motivation from a Self-Determination Theory Perspective: Definitions, Theory, Practices, and Future Directions // Contemporary Educational Psychology. – 2020. – №101. – B. 58.

TALABALARDA SHAXSIY FAROVONLIKNING NAMOYON BO‘LISHI

Raximova Durdona Ravshanbekovna
Urganch RANCH texnologiya universiteti
mustaqil izlanuvchisi tel raqami:+998915701551

Annotatsiya. Ushbu maqolada shaxsiy farovonlik tushunchasi, unga ta’sir etuvchi omillar va uni rivojlantirish strategiyalari, shaxsiy farovonlikning hususiyatlari, talabalik davri , psixologik farovonlik,shaxsiy farovonlik, emotsional intellekt ,shaxslararo munosabatlar haqida ma’lumotlar keltirilgan

Kalit so‘zlar: shaxsiy farovonlik, psixologik salomatlik, ijtimoiy omillar, evdemaniya, gedoniya, Ryff modeli.

Аннотация. В данной статье представлена информация о понятии личностного благополучия, факторах, влияющих на него, и стратегиях его развития, особенностях личностного благополучия, студенческого периода, психологического благополучия, личностного благополучия, эмоционального интеллекта, межличностных отношений.

Ключевые слова: личное благополучие, психологическое здоровье, социальные факторы, эвдемания, гедония, модель Риффа.

Annotation. This article provides information about the concept of personal well-being, factors affecting it and strategies for its development, features of personal well-being, student period, psychological well-being, personal well-being, emotional intelligence, interpersonal relationships.

Key words: personal well-being, psychological health, social factors, eudemania, hedonia, Ryff model.

Kirish

Jamiyatning rivojlanib, taraqqiy etib borishida unda yashayotgan insonlarning xatti-harakati va faoliyati muhim ahamiyatga egadir. Jamiyatning har bir a’zosi uning taraqqiyotiga va farovonligiga o‘zining hissasini qo‘shishni xohlaydi.

Farovonlik – bu insonning butun umri davomida u bilan sodir bo‘ladigan va boshdan kechiradigan holatlari, yo‘qotish yoki erishadigan yutuqlari jarayonidir. Uzoq vaqt davomida tadqiqotchilar «yaxshi hayot» parametrlarini ajratib olishga, uni moddiy ko‘rsatkichlar, o‘rtacha umr ko‘rish, tug‘ilish, o‘lim va boshqalar bilan bog‘lashga harakat qilishdi. Biroq bu belgilarning barchasi qandaydir tarzda hayotning «sifatiga» emas, balki «miqdori» ga to‘g‘ri keladi.

Hayot sifati shaxsiy xususiyatlar va hayotiy voqealarning doimiy lavhalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning mahsuli sifatida belgilanishi kerak. Hayotning obyektiv ko‘rsatkichlarini yaxshilash faqat vositadir, maqsad emas. Hayot sifatini yaxshilashning yakuniy maqsadi inson farovonligi ko‘lami, chuqurligi va intensivligini saqlab qolish va kengaytirishdir. Farovonlik tushunchasi ko‘pgina xorijiy adabiyotlarda baxt so‘zining sinonimi sifatida qaraladi. So‘nggi

yillarda farovonlik tushunchasini o‘rganish psixologiya doirasida faol rivojlanmoqda. U qoniqish, ijobiy tajribalar, qadriyatlar, fazilatlar, iste’dodlar va ular farovon hayotga qanday hissa qo‘shishi kabi toifalarga qaratilgandir.]\

Asosiy qism

So‘nggi yillarda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy yutuqlari fuqarolarining farovonligini ta’minlash uchun obyektiv shart-sharoitlar yaratilganidan dalolat beradi. Biroq, sotsiologik va psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, respondentlarning fikriga ko‘ra, subyektiv farovonlik darajasi moddiy va ijtimoiy imtiyozlardagi o‘zgarishlar kabi sezilarli darajada oshmadi va ba’zi so‘rovnoma va tadqiqot ko‘rsatkichlariga ko‘ra (masalan, “baxt hissi” ko‘rsatkichi), Yevropa va Amerikadagi rivojlangan mamlakatlar aholisi ba’zi rivojlanmagan Afrika mamlakatlari aholisidan orqada qolmoqda. Bu faktlar farovonlikni ta’minlaydigan obyektiv omillarni, shuningdek, shaxsiy baxt, hayotdan qoniqish, shaxsiy farovonlik va boshqalar kabi muayyan o‘ziga xos hodisalarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurligini ko‘rsatadi. Baxt, pozitivlik, farovonlik va boshqalar hodisalarini o‘rganish o‘tgan asrning ikkinchi yarmida **N. Bredbern** va **K. Rayffning psixologik farovonlik kontseptsiyasi va E. Dienerning** subyektiv farovonligi doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlarda boshlangan va so‘nggi o‘n yillikda pozitiv psixologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq holda ayniqsa faollashdi.

Ushbu tadqiqot yo‘nalishlari bilan bir vaqtda psixologiyada amaliy va nazariy tadqiqotlar muntazam ravishda olib borildi, ularning natijalari ko‘pincha farovonlik, hayotdan qoniqish, bardoshlilik, baxt va boshqalar kabi yashirin tushunchalarni tasvirlab berdi. Bu atamalar ko‘pincha sinonim sifatida ishlatilgan. Bunday ko‘p ma’noli natijalarni umumlashtirishga to‘sqinlik qiladi. Shuning uchun, ushbu atamalarga singdirilgan psixologik tarkibni tahlil qilish, yangi konstruksiyalarni ishlab chiqish va ushbu konstruksiyalarni belgilash uchun atamalarni kiritish talab etiladi.

Tahlil qilish uchun mavjud bo‘lgan adabiyotlarda quyidagi murakkab atamalar eng keng tarqalgan: “subyektiv farovonlik”, “psixologik farovonlik”, “ijtimoiy farovonlik”, “moddiy va jismoniy farovonlik”, “iqtisodiy farovonlik”, “kasbiy farovonlik” va shunchaki “inson farovonligi”.

Ushbu atamalarning aksariyati odatda “haqiqiy” toifasiga kiradigan ta’riflar bilan berilganligi sababli, ularning tuzilishidan, masalan, ta’rif muallifi qaysi toifani umumiyroq deb bilishini va farovonlik qaysi toifalarga ma’lum bir element sifatida kiritilganligini aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Shunday qilib, *inson farovonligini olimlar tahlili quyidagicha:* “faollik bilan birlashtirilgan ijobiy affektivlik” (Seligman, 2006); “shaxsning o‘zini o‘zi boshqarish omili” (Puchkova, 2003); “ruhiy holatlarni o‘zini o‘zi boshqarish bo‘yicha faoliyat natijasi” (Boyarkin va boshqalar, 2007); “Hayotni idrok etish” (Bessonova, 2013) va boshqalar tomonidan ta’riflanadi. Bundan tashqari, psixologik farovonlik “shaxsning ijobiy faoliyati (Ryff, 1998); “yaxshi faoliyat” (Deci, 1980); “insonning tizimli sifati, psixosomatik, ruhiy va psixologik salomatlikka asoslangan” (Fesenko, 2005); “o‘z hayotidan qoniqish tajribasi” (Mynyurova va boshqalar, 2012); “ruhiy va ijtimoiy salomatlikni o‘z ichiga olgan ajralmas xususiyat” (Ovcharova, 2013) va boshqalar.

Subyektiv farovonlikka nisbatan esa quyidagi ta’riflar qo‘llaniladi: “salbiy va ijobiy ta’sirlar muvozanati” (Bradburn va boshqalar, 1969); “insonning hayotga va o‘ziga bo‘lgan bahosi va munosabatini o‘z ichiga olgan ajralmas ijtimoiy-psixologik shakllanish” (Yashchenko, 2013); “shaxsning subyektiv munosabati” (Shamionov, 2008); “umumlashtirilgan va nisbatan barqaror tajriba” (Kulikov, 2000); “hayotdan qoniqish va baxt hissini birlashtirgan sintetik ko‘rsatkich” (Monusova, 2012); “shaxsiy harakatlar va faol pozitsiya” (Lebedeva, 2012) va boshqalar.

subyektiv farovonlik va shaxs farovonligining ko‘plab hodisalarini tadqiq qilishda ishlatiladigan atamalardan tashqari, kamroq o‘rganiladigan va shuning uchun boshqa maxsus atamalar bilan belgilanadigan hodisalarning terminologik klasteri mavjud. Shunga qaramay, bu atamalar inson farovonligining butun spektrini stereometrik tushunishni rivojlantirish uchun muhimdir. Bu

atamalar (va ularning ta’riflari), masalan, “moddiy va moliyaviy farovonlik”, “shaxslararo va ijtimoiy farovonlik”, “hayotdan qoniqish”, “baxt” va “shaxsiy farovonlik” ni o‘z ichiga oladi.

Xususan, *moddiy va moliyaviy farovonlik* farovonlikning ikki jihatini o‘z ichiga oladi deb hisoblanadi: obyektiv va subyektiv. Obyektiv moddiy va iqtisodiy farovonlik daromadning haqiqiy miqdorini (ish haqi, dividendlar, pensiya, uy-joy va boshqalar) anglatadi. Shu bilan birga, bu atamalar ushbu imtiyozlarning subyektiv bahosini ham ifodalash uchun ishlatiladi, bu obyektiv imtiyozlarni shaxsning ularning qiymati qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi tasavvuri bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi (Baturin, 1997, 2011). *Shaxslararo va ijtimoiy farovonlik atamasi* shaxsning shaxslararo munosabatlarining sifatidan qoniqish darajasini, shuningdek, ijtimoiy mavqei va rollaridan qoniqish darajasini anglatadi.

Ko‘rib chiqilayotgan muammoning yana bir murakkab jihati - bu murakkab psixologik hodisa sifatida farovonlikning mohiyatini tashkil etuvchi komponentlarni shaxsiy farovonlikni qo‘llab-quvvatlaydigan va saqlab turadigan turli xil farovonlik bashorat qiluvchilaridan ajratish zarurati. Bularga neyrodinamik, psixologik, moddiy, ijtimoiy va sotsiodemografik omillar kiradi.

Bunday atamalarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, ularning doirasi ancha cheklangan va bundan tashqari, ularning ba’zilari sinonim sifatida ishlatiladi.

Shuning uchun, subyektiv va psixologik farovonlikdan ko‘ra umumiyroq hodisani tavsiflash uchun tegishli atamani kiritish zarur ko‘rinadi. Bizning fikrimizcha, bunday hodisa *“shaxsiy farovonlik”* bo‘lishi mumkin. Bu atama ba’zi nashrlarda uchraydi, lekin faqat nominal qo‘llanilishda sinonim sifatida. Shu bilan birga, atamani yangicha tushunish farovonlikni o‘rganishda tadqiqotchilar tomonidan ilgari ko‘rib chiqilmagan yangi haqiqatni mustahkamlashi mumkin (ushbu atamaning ushbu yangi tushunchaga muvofiq ta’rifi maqolaning yakuniy qismida keltirilgan).

imtiyozlarning mavjudligi va ularni *olishning* turli usullari haqidagi ma’lumotlar, shuningdek, turli mualliflar tomonidan tasniflangan sinonim va hosilaviy atamalarning xilma-xilligi murakkab hodisani qamrab olishga mo‘ljallangan yangi *“shaxsiy farovonlik” atamasini kiritish zaruratini keltirib chiqaradi*.

Talabalarning farovonligiga turli omillar ta’sir qiladi, ularni shaxsiy, universitet bilan bog‘liq va tashqi omillarga bo‘lish mumkin. **O‘quv muhiti bilan bog‘liq omillar:**

• **Ijobiy ta’lim muhiti:** Talabalar o‘zlarini xavfsiz va qo‘llab-quvvatlangan his qilganda, ular o‘qishda yaxshiroq natijalarga erishadilar.

• **O‘qituvchi-talaba aloqasi:** Talabalar o‘zlarini ko‘rilgan va eshitilgandek his qilganda, ular o‘z muassasalari bilan yanada ko‘proq aloqani his qilishadi. O‘qituvchilar bu aloqani talabalarning ismlari va shaxsiy hikoyalarini eslab qolish va qiynalayotgan talabalarni ko‘rganda yordam berish orqali o‘rnatishlari mumkin.

• **Ta’lim muassasasining yordami** Universitetda qo‘llab-quvvatlash xizmatlarining mavjudligi muhim omil hisoblanadi. Maktablar va universitetlar ruhiy salomatlik xizmatlari va resurslarini eng muhtojlarga taqdim etishlari mumkin.

Tashqi va shaxsiy omillar:

• **O‘qish va hayot muvozanati** Muhim mavzu akademik harakatlaringiz va ta’limdan tashqari hayotingiz o‘rtasida muvozanatni saqlashdir.

• **Ijtimoiy va oilaviy munosabatlar** Oilaviy barqarorlik, muammolarni baham ko‘rish va qo‘llab-quvvatlash olish qobiliyati hamda ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etish farovonlik uchun muhim omillar hisoblanadi.

• **Salbiy omillar** Ijtimoiy izolyatsiya (masalan, COVID-19 pandemiyasi davrida), ijtimoiy tarmoqlardan haddan tashqari foydalanish va bolalikdagi salbiy tajribalar yoshlarning ruhiy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin.

Ruhiy salomatlik bo‘yicha ta’lim muassasalari o‘quvchilarga yordam berishning bir usuli hisoblanadi. Ta’lim maskani o‘quvchilarning ruhiy salomatligi va farovonligini qo‘llab-quvvatlashda muhim rol o‘ynaydi. Profilaktika va sog‘liqni saqlash bo‘yicha ta’lim imkon qadar erta boshlanishi kerak va ta’lim muassasalari buning uchun ideal muhitdir. Talabalarning

farovonligini oshirish o‘lchanadigan salbiy sog‘liq oqibatlarining tarqalishini kamaytirishi va ularning o‘quv yutuqlarini yaxshilashi mumkin.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti yurak kasalliklari, insult, 2-toifa diabet va barcha saraton kasalliklarining kamida 80% holatlarini sog‘liqni saqlash bo‘yicha ta’lim orqali oldini olish mumkinligini ta’kidlaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, talabalarda shaxsiy farovonlikning namoyon bo‘lishi ularning psixologik salomatligi, akademik muvaffaqiyati va ijtimoiy moslashuvining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shaxsiy farovonlik nafaqat moddiy ta’minlanganlik yoki tashqi sharoitlar bilan, balki shaxsning o‘z hayotidan qoniqishi, maqsad va qadriyatlarini anglay olishi, emotsional barqarorligi hamda ijtimoiy munosabatlar sifati bilan ham belgilanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning farovonlik darajasiga ta’lim muhiti, o‘qituvchi-talaba munosabatlari, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘qish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanat kabi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy zo‘riqish, akademik bosim va salbiy hayotiy tajribalar farovonlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy farovonlikni rivojlantirish uchun oliy ta’lim muassasalarida sog‘lom psixologik muhit yaratish, talabalar uchun psixologik maslahat va qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini kengaytirish, emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish hamda talabalarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday chora-tadbirlar talabalarning nafaqat ruhiy salomatligini mustahkamlaydi, balki ularning shaxsiy va kasbiy kamolotiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Demak, shaxsiy farovonlik talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi va kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompleks psixologik hodisa bo‘lib, uni ilmiy o‘rganish va amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Батурин, Н.А. Оценочная функция психики / Н.А. Батурин. – М.: Изд-во Ин-та психологии РАН, 1997. – 306 с.
2. Батурин, Н.А. Психология оценивания и оценки: теоретические и прикладные аспекты / Н.А. Батурин, И.В. Выбойщик – Челябинск: Изд. центр ЮУрГУ, 2011. – 243 с.
3. Бессонова, Ю.В. О структуре психологического благополучия / Ю.В. Бессонова // Психологическое благополучие личности в современном образовательном пространстве: сб. статей / Составитель: Ю.В. Братчикова. – Екатеринбург: Изд-во Урал. гос. пед. ун-т, 2013. – С. 30–35.
4. Куликов, Л.В. Детерминанты удовлетворенности жизнью // Общество и политика / ред. В.Ю. Большаков. – СПб.: Изд-во СПб ГУ, 2000. – С. 476–510.
5. Лебедева, А.А. Субъективное благополучие лиц с ограниченными возможностями здоровья: автореф. дис. … канд. психол. наук / А.А. Лебедева. – М.: Изд-во Моск. гор. псих.- пед. ун-та, 2012. – 26 с.

PSIXOLOGIYA FANINING JAMIYATDAGI RO‘LI VA AMALIY AXAMIYATI

Razakova Rayxan Saulaybekovna. Ma’mun universiteti “Psixologiya” kafedrasi prof.v.b

-Omonboyeva Madina Tillaboy qizi

“Psixologiya” yo‘nalishi 24-3 guruh talabasi

Annatotsiya: Psixologiya fanining jamiyatdagi ro‘li va amaliy ahamiyati insonlarning ruhiy salomatligi, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini o‘rganish orqali namoyon bo‘ladi. U shaxsning ruhiy farovonligini ta’minlash, ta’lim va tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish , oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda mehnat faoliyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Psixologik bilimlar jamiyatda sog‘lom muhit yaratishga, nizolarni bartaraf

etishga, ijtimoiy ong va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois psixologiya fanining jamiyatdagi ahamiyati shaxs va jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: Psixologiya, jamiyat, maktab, shaxs, samara, ta'lim, tarbiya.

Аннотация: Роль и практическое значение психологической науки в обществе проявляются через изучение психического здоровья, поведения и социальных отношений людей. Она имеет важное значение в обеспечении психического благополучия личности, эффективной организации образовательных и воспитательных процессов, укреплении семейных отношений и повышении трудовой активности. Психологические знания служат созданию здоровой среды в обществе, устранению конфликтов, развитию общественного сознания и культуры. Поэтому значение психологической науки в обществе признается неотъемлемой частью развития личности и общества.

Ключевые слова: Психология, общество, школа, личность, эффект, образование, воспитание.

Abstract: The role and practical significance of psychology in society are manifested through the study of people's mental health, behavior, and social relationships. It is of great importance in ensuring the mental well-being of the individual, the effective organization of educational and upbringing processes, the strengthening of family relations, and the enhancement of labor activity. Psychological knowledge serves to create a healthy environment in society, resolve conflicts, and develop social consciousness and culture. Therefore, the significance of psychology in society is recognized as an integral part of the development of the individual and society.

Keywords: Psychology, society, school, individual, effectiveness, education, upbringing.

Kirish: Psixologiyaning amaliy vazifalari psixologik bilimlarni keng jamoatchilik ommasiga yetkazib berishdan iboratdir. Hozirgi sharoitda ota-onalar, tarbiyachilar bola tarbiyasida psixolog-pedagoglarning psixologik bilimlariga muhtojdirlar. Turli yoshdagi bolalarning yoshlik va individual farqlarini ajratish, ularga individual munosabatda bo'lish, iqtidorli bolalar bilan ishlash, yakka bola tarbiyasi, tarbiyasi qiyin bolalarga o'zaro munosabat, turli yot oqimlarga kirib ketuvchilar bilan ishlash, sust o'zlashtiruvchi bolalar bilan ishlash, psixik rivojlanishida orqada qolgan, psixik taraqqiyoti tutilib qolgan yoki rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar bilan ishlash kabi masalalarda ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan keng jamoatchilikni, ota-onalar, mahalla faollarini bahramand qilishdan iboratdir.

Psixologiya fanining asosiy vazifalariga magistrlarni ijtimoiy faoliyatning pedagogik faoliyat, ta'lim va tarbiya, mehnat, pedagogik baholash psixologiyasi, pedagogik faoliyatni boshqarish kabi yo'nalishlarda o'qituvchi mehnatini tashkil etish, pedagogik jamoalarda ishni tashkil etish omillari, mexanizmlari va shart-sharoitlari bilan tanishtirish, ta 'lim faoliyati motivlarini mukammal o'zlashtirish, talabalarning ta'limdagi qobiliyat va iqtidorini o'stirish yo'llari, hamda ularni rivojlantirish masalalariga o'rgatish, bu borada ijtimoiy-psixologik hodisalar tabiati va mohiyatini tushunishga ko'maklashishdan iboratdir.

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining namoyon bo‘lishi va bu jarayondagi gender farqlari tahlil qilinadi. Unda yigit va qiz talabalarning zo‘ravonlikning jismoniy, psixologik, verbal, iqtisodiy, ijtimoiy hamda raqamli shakllarini qanday anglashlari, baholashlari va ularga munosabat bildirishlari yoritiladi. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qiz talabalar ko‘pincha zo‘ravonlikni jiddiy ijtimoiy-psixologik muammo sifatida qabul qilishga moyil bo‘lsa, ayrim yigit talabalarda agressiv xatti-harakatlarning ba’zi shakllarini odatiy holat yoki konfliktning tabiiy ko‘rinishi sifatida baholash holatlari uchrashi mumkin. Shu bilan birga, gender farqlari mutlaq emas, balki tarbiya, oilaviy muhit, huquqiy savodxonlik, shaxsiy tajriba, madaniy qadriyatlar va ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Maqolada

oliy ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikning oldini olish, talabalarda sog‘lom muloqot madaniyati, shaxsiy chegaralarni hurmat qilish, gender tenglik va psixologik xavfsizlikni shakllantirish zarurligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, talabalar, gender farqlari, agressiya, psixologik zo‘ravonlik, gender stereotiplari, shaxsiy chegaralar, profilaktika, oliy ta’lim, psixologik xavfsizlik.

Аннотация. В статье рассматриваются гендерные различия в представлениях студентов о насилии. Особое внимание уделяется тому, как юноши и девушки распознают физическое, психологическое, вербальное, экономическое, социальное и цифровое насилие, а также какие социально-психологические факторы влияют на их отношение к насильственным действиям. Анализ литературы показывает, что студентки чаще воспринимают насилие как более серьёзную социальную и психологическую проблему, тогда как у части студентов мужского пола может наблюдаться склонность к нормализации отдельных форм агрессии, особенно если они связаны с традиционными гендерными стереотипами.

Ключевые слова: насилие, студенты, гендерные различия, агрессия, психологическое насилие, гендерные стереотипы, профилактика, высшее образование.

Abstract. This article examines gender differences in students’ perceptions of violence. It focuses on how male and female students recognize physical, psychological, verbal, economic, social and digital forms of violence, as well as the socio-psychological factors that shape their attitudes toward violent behavior. The literature review suggests that female students tend to perceive violence as a more serious social and psychological problem, while some male students may be more likely to normalize certain forms of aggression, especially when these are connected with traditional gender stereotypes.

Keywords: violence, students, gender differences, aggression, psychological violence, gender stereotypes, prevention, higher education.

Kirish. Zo‘ravonlik muammosi zamonaviy jamiyatda nafaqat huquqiy, balki psixologik, pedagogik va ijtimoiy muammo sifatida ham dolzarb hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar orasida zo‘ravonlik haqidagi tasavvurlarni o‘rganish muhimdir, chunki talabalik davri shaxsning ijtimoiy munosabatlar, gender rollari, muloqot madaniyati va shaxsiy chegaralar haqidagi qarashlari shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida ayollarning qariyb uchdan biri hayoti davomida jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka duch kelgan; bu holat genderga asoslangan zo‘ravonlikning global muammo ekanini ko‘rsatadi. Ta’lim muhitida ham zo‘ravonlik va kamsitish muammolari mavjud bo‘lib, UNESCO hisobotida maktab zo‘ravonligi va bullingining tarqalishi, omillari hamda oqibatlari keng yoritilgan.

O‘zbekiston qonunchiligida ham zo‘ravonlikka qarshi kurashish va gender tenglikni ta’minlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Shuningdek, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun gender tenglikni ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, davlat organlariga gender tenglik bo‘yicha siyosatni amalga oshirish, gender ko‘rsatkichlarini tahlil qilish va kamsitish holatlarini bartaraf etish vazifalarini yuklaydi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, talabalar zo‘ravonlikni turlicha tushunadilar: ba’zilar faqat jismoniy tajovuzni zo‘ravonlik deb bilsa, boshqalar psixologik bosim, haqorat, nazorat, tahdid, kamsitish, majburlash yoki raqamli makondagi tajovuzni ham zo‘ravonlik sifatida baholaydi. Shu sababli talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining gender jihatdan qanday namoyon bo‘lishini o‘rganish profilaktika ishlarini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili. Zo‘ravonlik tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, u jismoniy, psixologik, verbal, iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin. Psixologik tadqiqotlarda zo‘ravonlik ko‘pincha agressiya, kuch ishlatish, majburlash, qo‘rqitish, nazorat qilish va shaxsiy chegaralarni buzish bilan bog‘liq holda izohlanadi.

Buss va Perry tomonidan ishlab chiqilgan agressiya so‘rovnomasi jismoniy agressiya, verbal agressiya, g‘azab va dushmanlik kabi ko‘rsatkichlarni ajratib o‘rganadi; ushbu yondashuv talabalar orasida zo‘ravonlikka moyillik yoki agressiv munosabatlarni tahlil qilishda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, agressiv xatti-harakatlar faqat tug‘ma xususiyat emas, balki kuzatish, taqlid qilish va ijtimoiy mustahkamlash orqali ham shakllanishi mumkin; bu talabalarning oilaviy muhit, tengdoshlar guruhi va media ta’siri orqali zo‘ravonlik haqidagi tasavvurlarni o‘zlashtirishi mumkinligini anglatadi.

Gender farqlarini o‘rganishda ikki yondashuv muhim. Birinchi yondashuvga ko‘ra, erkaklar va ayollar o‘rtasida ayrim agressiv xatti-harakatlar shakllarida farqlar kuzatilishi mumkin. Masalan, ayrim tadqiqotlarda yigitlarda bevosita yoki jismoniy agressiya ko‘proq qayd etilishi, qizlarda esa bilvosita yoki munosabatlarga ta’sir qiluvchi agressiya shakllari ko‘proq uchrashi mumkinligi ta’kidlangan. Hess va Hagen yoshlar o‘rtasida bilvosita agressiya bo‘yicha gender farqlarini tahlil qilgan va bu borada ijtimoiy normalar hamda ma’qullash omillarining ahamiyatini ko‘rsatgan.

Ikkinchi yondashuv esa gender farqlarini mutlaq deb emas, balki kontekstga bog‘liq deb tushuntiradi. Hyde tomonidan ilgari surilgan “gender o‘xshashliklari gipotezasi” erkaklar va ayollar ko‘plab psixologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha farqlardan ko‘ra ko‘proq o‘xshashliklarga ega ekanini ta’kidlaydi. Bu yondashuv talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarini tahlil qilishda juda muhim: yigitlar yoki qizlarni bir xil qolipda baholash noto‘g‘ri, chunki individual tarbiya, madaniy muhit, huquqiy savodxonlik va shaxsiy tajriba ham muhim rol o‘ynaydi.

So‘nggi tadqiqotlarda universitet talabalari psixologik zo‘ravonlikni jismoniy zo‘ravonlikka nisbatan kechroq yoki kamroq aniqlashi mumkinligi qayd etilgan. Masalan, 2024-yilda e’lon qilingan tadqiqotda universitet talabalari jismoniy tajovuzni genderga asoslangan zo‘ravonlik sifatida osonroq tan olgani, biroq psixologik tajovuzni aniqlashda ikkilanish ko‘proq bo‘lgani ko‘rsatilgan. Boshqa bir tadqiqotda erkak talabalarda genderga asoslangan zo‘ravonlikni oqlovchi ayrim seksistik munosabatlar yuqoriroq bo‘lishi mumkinligi va o‘quv dasturlarida bu mavzuni kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan.

Shuningdek, 27 ta tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharh va meta-tahlil natijalariga ko‘ra, erkaklar genderga asoslangan zo‘ravonlikni ayollarga nisbatan kamroq og‘ir hodisa sifatida baholagan holatlar aniqlangan; zo‘ravonlik og‘irligini past baholash esa uni oqlovchi munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu natijalar talabalar orasida gender stereotiplari, jabrlanuvchini ayblash, zo‘ravonlikni “oddiy holat” sifatida ko‘rish kabi qarashlarni kamaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tahlil va natijalar. Ushbu bo‘limda talabalarda zo‘ravonlik haqidagi tasavvurlarning gender jihatdan namoyon bo‘lishi tahlil qilinadi. Diagrammalarda keltirilgan ko‘rsatkichlar real dala tadqiqoti emas, balki adabiyotlar tahlili va 100 nafar talaba ishtirokidagi shartli anketa modeli asosida tuzilgan namunaviy foizlardir. Real tadqiqot o‘tkazilganda ushbu jadval va diagrammalardagi qiymatlar aniq anketa natijalari bilan almashtiriladi.

Shartli modelda respondentlar ikki guruhga ajratildi: 50 nafar qiz talaba va 50 nafar yigit talaba. Baholash 0 dan 100 foizgacha bo‘lgan ko‘rsatkichlar orqali ifodalandi. Yuqori foiz zo‘ravonlik shaklini aniqroq tan olish, unga nisbatan salbiy munosabat yoki himoya omillarining kuchliroq shakllanganini anglatadi.

Ko‘rsatkich	Qiz talabalar (%)	Yigit talabalar (%)	Farq	Qisqa izoh
Jismoniy zo‘ravonlikni tan olish	88	85	+3	Har ikki guruhda yuqori daraja
Psixologik zo‘ravonlikni tan olish	82	66	+16	Qizlarda sezgirlik yuqoriroq

Verbal zo‘ravonlikni tan olish	78	69	+9	Haqorat va kamsitishni baholashda tafovut bor
Ijtimoiy/iqtisodiy zo‘ravonlikni tan olish	68	55	+13	Yashirin shakllarni anglash pastroq
Raqamli zo‘ravonlikni tan olish	71	58	+13	Onlayn bosim hali yetarlicha tan olinmaydi

1-jadval. Zo‘ravonlik shakllarini tan olish bo‘yicha shartli taqqoslash

Jadvaldan ko‘rinadiki, jismoniy zo‘ravonlikni tan olish bo‘yicha qiz va yigit talabalar o‘rtasidagi farq nisbatan kichik. Buning sababi jismoniy tajovuz ochiq, ko‘zga tashlanadigan va ko‘pincha huquqiy jihatdan ham aniq baholanadigan holat sifatida qabul qilinishidir.

Psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va raqamli zo‘ravonlikni tan olishda farq kattaroq ko‘rinadi. Bu holat yashirin zo‘ravonlik shakllari bo‘yicha tushuntirish ishlari va profilaktik treninglarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.



1-diagrammada jismoniy zo‘ravonlik bo‘yicha ko‘rsatkichlar ikki guruhda ham yuqori ekani ko‘rinadi. Biroq psixologik, ijtimoiy-iqtisodiy va raqamli zo‘ravonlik shakllarida qiz talabalarning tan olish darajasi yuqoriroq. Bu natija qiz talabalar shaxsiy xavfsizlik, emotsional bosim va munosabatlardagi nazorat holatlarini jiddiyroq baholashga moyil bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Zo‘ravonlik tasavvurlari shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar modeli



Xulosa va takliflar. Talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlari gender jihatdan turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Qiz talabalar ko‘pincha zo‘ravonlikning psixologik, emotsional va ijtimoiy oqibatlarini kuchliroq anglaydi, yigit talabalar orasida esa ayrim holatlarda zo‘ravonlikni jismoniy kuch ishlatish bilangina bog‘lash yoki ayrim agressiv xatti-harakatlarni oqlash ehtimoli uchraydi. Shu bilan birga, gender farqlarini qat’iy va o‘zgarmas deb baholash noto‘g‘ri; talabalar qarashlari ijtimoiy muhit, tarbiya, madaniy qadriyatlar, huquqiy savodxonlik va ta’lim jarayoni ta’sirida shakllanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikning oldini olish uchun quyidagi takliflar muhim hisoblanadi:

Talabalar uchun zo‘ravonlikning jismoniy, psixologik, verbal, iqtisodiy, ijtimoiy va raqamli shakllari haqida muntazam profilaktik seminarlar tashkil etish.

ender tenglik, shaxsiy chegaralar, sog‘lom muloqot, konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal etish va o‘zaro hurmat madaniyati bo‘yicha treninglar o‘tkazish.

Universitetlarda psixologik maslahat xizmatlari, ishonchli murojaat mexanizmlari va maxfiy yordam tizimlarini kuchaytirish.

Talabalar orasida zo‘ravonlikni oqlovchi stereotiplarni kamaytirish uchun interaktiv mashg‘ulotlar, debatlar, keys-tahlillar va anonim so‘rovnomalardan foydalanish.

Yigit talabalarni ham profilaktika jarayoniga faol jalb etish, ularda mas’uliyatli, hurmatga asoslangan va zo‘ravonliksiz munosabat madaniyatini shakllantirish.

Raqamli zo‘ravonlik va ijtimoiy tarmoqlardagi bosim shakllari haqida alohida tushuntirish ishlari olib borish.

Har bir oliy ta’lim muassasasida gender sezgir yondashuvga asoslangan ichki nizom, axloq kodeksi va murojaat qilish tartiblarini talabalarga sodda va tushunarli shaklda yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda zo‘ravonlik haqidagi to‘g‘ri tasavvurlarni shakllantirish faqat huquqiy targ‘ibot bilan cheklanmasligi kerak. Bu jarayon psixologik tarbiya, gender madaniyati, kommunikativ ko‘nikmalar va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirish bilan uyg‘un olib borilgandagina samarali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (1973). *Aggression: A Social Learning Analysis*. Englewood Cliffs: Prentice-Hall. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi agressiv xatti-harakatlarning kuzatish va taqlid orqali shakllanishini tushuntiradi.

2. Buss, A. H., & Perry, M. (1992). The Aggression Questionnaire. *Journal of Personality and Social Psychology, 63*, 452–459. Agressiyani jismoniy agressiya, verbal agressiya, g‘azab va dushmanlik mezonlari orqali o‘lchashga bag‘ishlangan klassik tadqiqot.

3. García-Rojas, A. D., Hernando Gómez, A., Montero-Fernández, D., & Rodríguez-Vargas, S. (2024). Perception of University Students Regarding Gender-Based Violence: Identification, Analysis and Detection. *Sexes, 5*(4), 758–768. doi:10.3390/sexes5040048.

4. Hess, N. H., & Hagen, E. H. (2006). Sex differences in indirect aggression: Psychological evidence from young adults. *Evolution and Human Behavior, 27*(3), 231–245. doi:10.1016/j.evolhumbehav.2005.11.001.

5. Hyde, J. S. (2005). The Gender Similarities Hypothesis. *American Psychologist, 60*(6), 581–592. Gender farqlarini kontekstga bog‘liq va ko‘p holatlarda nisbiy deb tushuntiruvchi muhim nazariy manba.

6. Freijomil-Vázquez, C., Movilla-Fernández, M. J., Coronado, C., Seoane-Pillado, T., & Muñiz, J. (2022). Gender-based violence attitudes and dating violence experiences of students in nursing and other health sciences: A multicentre cross-sectional study. *Nurse Education Today, 111*, 105514. doi:10.1016/j.nedt.2022.105514.

7. Badenes-Sastre, M., Spencer, C., Alonso-Ferres, M., Lorente, M., & Expósito, F. (2024). How severity of intimate partner violence is perceived and related to attitudinal variables? A systematic review and meta-analysis. *Aggression and Violent Behavior, 76*, 101925. doi:10.1016/j.avb.2024.101925.

8. UNESCO. (2019). *Behind the Numbers: Ending School Violence and Bullying*.

TURLI SPORT YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN TALABALARDA MOTIVATSION OMILLARNING QIYOSIY PSIXOLOGIK TAHLILI

Saidmuratova Maloxat Baxtiyarovna Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti Ps.f.b.f.d (PhD)

Abdullayev Faxriddin Kamoladdin o‘g‘li Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur tezisda T.Elersning “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi” metodikasi asosida turli sport yo‘nalishlari vakillarining motivatsion xususiyatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar sportchilarning psixologik tayyorgarligini takomillashtirish va motivatsion omillarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar. Sport psixologiyasi, motivatsiya, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi.

Аннотация. В данном тезисе на основе методики Т.Элерса "Мотивация достижения успеха и избегания неудачи" проанализированы мотивационные особенности представителей различных спортивных направлений. Полученные результаты имеют важное значение для совершенствования психологической подготовки спортсменов и развития мотивационных факторов.

Ключевые слова: Спортивная психология, мотивация, мотивация достижения успеха, мотивация избегания неудачи.

Abstract. This thesis analyzes the motivational characteristics of representatives of various sports disciplines based on T. Ehlers' methodology "Motivation for Achieving Success and Avoiding Failure." The results obtained play an important role in improving the psychological preparation of athletes and developing motivational factors.

Keywords: Sports psychology, motivation, achievement motivation, failure avoidance motivation.

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talaba-sportchilar shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, ularning jismoniy, psixologik va ijtimoiy salohiyatini

yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda sport faoliyati nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshirishga, balki shaxsning motivatsion sohasi, irodaviy sifatlari, maqsadga intiluvchanligi hamda o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini shakllantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, sport bilan muntazam shug‘ullanish bo‘lajak mutaxassislarda muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji, sog‘lom raqobatbardoshlik, kasbiy mas’uliyat hissi va o‘zini namoyon qilish motivlarining barqarorlashuviga xizmat qiladi.

Psixologiya fanida motivatsiya shaxs faoliyatining ichki va tashqi harakatlantiruvchi kuchlari tizimi sifatida talqin etiladi. Motivatsion omillar insonning maqsadga yo‘naltirilgan xulq-atvori, faoliyat samaradorligi va yutuqlar darajasini belgilovchi yetakchi determinantlardan (belgilovchi omillardan) hisoblanadi. Motivatsiya muammosi psixologiyada fundamental yo‘nalishlardan biri bo‘lib, uning nazariy-metodologik asoslari A. Maslou, D. Makklelland, F. Gersberg, E. Desi va R. Rayan, K. Levin, shuningdek, L. Bojovich kabi olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilgan. Mazkur ilmiy manbalarda motivatsiyaning ichki va tashqi manbalari, ehtiyojlar iyerarxiyasi hamda ularning faoliyat natijadorligiga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Sport psixologiyasi sohasida olib borilgan zamonaviy izlanishlar sportchilarning motivatsion xususiyatlari tanlangan sport turi, mashg‘ulotlar mazmuni va musobaqa faoliyatining o‘ziga xos talablariga qarab differensiyalanishini (farqlanishini) ko‘rsatmoqda. Jumladan, individual (yakkalik) sport turlarida shaxsiy yutuqqa erishish, o‘zini namoyon qilish va shaxsiy imkoniyatlar chegarasini sinovdan o‘tkazish motivlari ustunlik qilsa, jamoaviy sport turlarida o‘zaro hamkorlik, guruh identifikatsiyasi (manfaatlariga sodiqlik) va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash motivlari nisbatan yuqori iyerarxik o‘ringa ega bo‘ladi. Shu sababli, turli sport yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning motivatsion xususiyatlarini qiyosiy o‘rganish sport faoliyatining psixologik mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Oliy ta’lim muassasalarida sport yo‘nalishlari bo‘yicha tahsil olayotgan talabalarning motivatsion omillarini tadqiq etish nafaqat nazariy, balki yuksak amaliy ahamiyatga ham egadir. Chunki motivatsiyaning o‘ziga xos jihatlarini qiyosiy aniqlash bo‘lajak sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning yutuqlar koeffitsiyentini oshirish, psixologik korreksiya va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish hamda sport faoliyatiga bo‘lgan barqaror qiziqishni optimallashtirish uchun fundamental poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Asosiy qism

2.13-jadval

T.Elers “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi” metodikasi bo‘yicha sport yo‘nalishlari kesimidagi farqlar (n=120)

	Yo‘nalishi	n	O‘rtacha qiymat	F	p
Mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi	Og‘ir atletika	21	15.0	3.262	.024*
	Yengil atletika	40	13.5		
	Futbol	35	15.2		
	Kurash	24	16.5		
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	Og‘ir atletika	21	20.0	0.153	.928
	Yengil atletika	40	20.4		
	Futbol	35	20.5		
	Kurash	24	20.1		

Izoh: p<0.05;

T.Elersning “Muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi” metodikasi asosida sport yo‘nalishlari kesimida motivatsion ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda jami 120 nafar respondent ishtirok etib, ular og‘ir atletika (n=21), yengil atletika (n=40), futbol (n=35) hamda kurash (n=24) sport turlari bo‘yicha guruhlarga ajratildi. Olingan natijalar dispers tahlil (ANOVA) yordamida statistik qayta ishlangan.

Tahlil natijalariga ko‘ra, “muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi” ko‘rsatkichi sport yo‘nalishlari orasida statistik jihatdan ahamiyatli farq qilishi aniqlandi (F=3.262; p=0.024; p<0.05). Mazkur natija turli sport turlarida sportchilarning muvaffaqiyatsizlikka bo‘lgan

munosabati va psixologik himoya mexanizmlari bir xil emasligini ko‘rsatadi. Xususan, kurashchilar orasida muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil etdi (16.5 ball). Bu holat kurash sportida individual mas’uliyat, raqobatning yuqoriligi hamda natija uchun shaxsiy javobgarlik kuchli ekanligi bilan izohlanadi.

Futbolchilarda ushbu ko‘rsatkich 15.2 ballni, og‘ir atletikachilarda 15.0 ballni tashkil etdi. Yengil atletika sportchilari esa nisbatan past ko‘rsatkichni qayd etdilar (13.5 ball). Mazkur holat yengil atletika vakillarida psixologik barqarorlik va muvaffaqiyatsizlikka nisbatan nisbatan past xavotir mavjudligini ko‘rsatishi mumkin.

“Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi” natijalari tahlil qilinganda esa sport turlari o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq aniqlanmadi ($F=0.153$; $p=0.928$; $p>0.05$). Barcha sport yo‘nalishlarida ko‘rsatkichlar deyarli bir xil bo‘lib, og‘ir atletikada 20.0 ball, yengil atletikada 20.4 ball, futbolda 20.5 ball hamda kurashda 20.1 ballni tashkil etdi. Bu esa sportchilarda muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi umumiy tarzda yuqori va barqaror shakllanganligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sport faoliyatida motivatsion omillarning sport turi xususiyatiga bog‘liq holda namoyon bo‘lishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi individual va yuqori raqobat talab qiluvchi sport turlarida kuchliroq namoyon bo‘lishi aniqlandi. Mazkur natijalar sportchilar bilan psixologik ishlash jarayonida ularning sport turi va individual motivatsion xususiyatlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari sportchilarda muvaffaqiyatga erishish va mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi sport yo‘nalishiga qarab turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Jumladan, mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi bo‘yicha sport yo‘nalishlari orasida statistik jihatdan ishonchli farq aniqlandi. Ushbu ko‘rsatkich kurashchilarda yuqori, yengil atletikachilarda esa nisbatan past ekanligi kuzatildi. Bu holat sport faoliyatining mazmuni, raqobat darajasi hamda individual mas’uliyat omillari bilan izohlanadi.

Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi bo‘yicha esa sport yo‘nalishlari o‘rtasida sezilarli farq aniqlanmadi. Mazkur natija barcha sport turlarida sportchilarning muvaffaqiyatga intilishi va yuqori natijaga erishishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi deyarli bir xil darajada shakllanganligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari sportchilar bilan olib boriladigan psixologik tayyorgarlik jarayonida ularning individual motivatsion xususiyatlarini hisobga olish zarurligini tasdiqlaydi. Sportchilarda motivatsiyani rivojlantirish, psixologik barqarorlikni mustahkamlash hamda musobaqa faoliyatiga mos psixologik muhit yaratish sport natijadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sportni rivojlantirish va sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2020–2025.
2. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 371 p.
3. Duda J.L., Ntoumanis N. Motivation in Sport: A Self-Determination Theory Perspective // Applied Psychology. – 2005. – Vol. 54(3). – P. 315–344.
4. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1970. – 369 p.
5. McClelland D.C. Human Motivation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 663 p.
6. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – 7th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 624 p.
7. Божович Л.И. Личность и ее формирование в детском возрасте. – Санкт-Петербург: Питер, 2008. – 400 с.
8. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – Санкт-Петербург: Питер, 2011. – 512 с.
9. Ильин Е.П. Психология спорта. – Санкт-Петербург: Питер, 2016. – 352 с.

10. Nishonova Z.T., Alimuhamedov S.A. Sport psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 256 b.

11. Sport faoliyatida motivatsiya va muvaffaqiyat omillarining psixologik jihatlari // Zamonaviy ta’lim. – 2023. – №4. – B. 45–52.

12. Talaba-yoshlarda sport motivatsiyasini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari // Xalq ta’limi. – 2024. – №2. – B. 88–95.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARIDA SAMARALI BOSHQARUV TIZIMI: SIFATLI TA’LIM VA BARKAMOL AVLOD POYDEVORI

Samigova Komila Abduraufovna *ADK”*
nomli Nodavlat Maktabgacha
Ta’lim Tashkiloti defektolog-logopedi:

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimining mazmun-mohiyati, asosiy tamoyillari va zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Shuningdek, boshqaruv jarayonida rahbarning o‘rni, pedagogik jamoa faoliyatini muvofiqlashtirish, ota-onalar bilan hamkorlik hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, samarali boshqaruv tizimi ta’lim sifati va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, boshqaruv tizimi, ta’lim sifati, pedagogik jarayon, rahbar, innovatsiya, samarali boshqaruv, ota-onalar hamkorligi, bolalar rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье освещаются суть, основные принципы и современные подходы эффективной системы управления в дошкольных образовательных учреждениях. Также проанализированы вопросы роли руководителя в процессе управления, координации деятельности педагогического коллектива, сотрудничества с родителями и внедрения инновационных технологий. Результаты исследования показывают, что эффективная система управления является важным фактором качества образования и воспитания гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: дошкольное образование, система управления, качество образования, педагогический процесс, руководитель, инновации, эффективное управление, сотрудничество родителей, развитие детей.

Abstract: This article highlights the essence, core principles, and modern approaches to an effective management system in preschool educational institutions. It also analyzes the role of the leader in the management process, the coordination of the pedagogical team's activities, cooperation with parents, and the implementation of innovative technologies. Research findings indicate that an effective management system is a crucial factor in the quality of education and the upbringing of a harmoniously developed generation.

Keywords: preschool education, management system, quality of education, pedagogical process, leader, innovation, effective management, parental cooperation, child development.

Kirish

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining birlamchi va eng muhim bo‘g‘ini bo‘lib, bolalarning intellektual, jismoniy, axloqiy hamda ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Aynan shu bosqichda bolaning shaxs sifatida shakllanishi, dunyoqarashi, mustaqil fikrlashi va jamiyatga moslashuvi uchun dastlabki poydevor yaratiladi. Shu sababli maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimini tashkil etish ta’lim sifati va tarbiya samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Zamonaviy boshqaruv tizimi nafaqat pedagogik jarayonni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, balki muassasaning barcha faoliyatini strategik rejalashtirish, nazorat qilish va rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Asosiy qism

Boshqaruv tizimi — bu muassasa faoliyatini aniq maqsad asosida tashkil etish, rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va tahlil etish jarayonidir. Maktabgacha ta’lim muassasasida boshqaruvning asosiy maqsadi bolalarga sifatli ta’lim-tarbiya berish, xavfsiz va qulay muhit yaratish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdan iborat.

Mazkur tizim quyidagi yo‘nalishlarni qamrab oladi:

- ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;
- pedagog kadrlar faoliyatini boshqarish;
- bolalar salomatligi va xavfsizligini ta’minlash;
- ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;
- moddiy-texnik bazani rivojlantirish;
- ichki nazorat va monitoringni amalga oshirish.

Maktabgacha ta’lim muassasasida samarali boshqaruv bir qator muhim tamoyillarga asoslanadi:

Maqsadlilik – barcha faoliyatning bola manfaatiga yo‘naltirilganligi;

Tizimlilik – boshqaruv jarayonining reja asosida uzluksiz olib borilishi;

Demokratiklik – jamoa fikri va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;

Nazorat va tahlil – faoliyat samaradorligini muntazam baholab borish;

Innovatsion yondashuv – zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish.

Ushbu tamoyillar asosida boshqaruv jarayoni muassasa rivojiga xizmat qiladi va ta’lim sifatini oshiradi.

Rahbarning boshqaruvdagi o‘rni

Maktabgacha ta’lim muassasasi rahbari boshqaruv tizimining asosiy subyekti hisoblanadi. Rahbarning kasbiy kompetensiyasi, liderlik qobiliyati, tashkiliy mahorati va pedagogik salohiyati muassasa muvaffaqiyatini belgilaydi. Rahbar quyidagi vazifalarni bajaradi:

−muassasa faoliyatini strategik rejalashtirish;

−pedagog va xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

−ta’lim sifatini nazorat qilish;

−sanitariya-gigiyena talablariga rioya etilishini ta’minlash;

−ota-onalar va jamoatchilik bilan samarali hamkorlik o‘rnatish.

Rahbar boshqaruv jarayonida nafaqat nazoratchi, balki jamoani ilhomlantiruvchi yetakchi bo‘lishi lozim.

Zamonaviy boshqaruv tizimida innovatsion yondashuvlar

Bugungi globallashuv va raqamlashtirish davrida maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Jumladan:

−elektron hujjat aylanishi;

−raqamli monitoring tizimi;

−pedagoglar uchun malaka oshirish platformalari;

−ota-onalar bilan onlayn aloqa;

−sifat nazorati bo‘yicha diagnostik tahlillar.

Bunday yondashuvlar boshqaruv samaradorligini oshirib, vaqt tejalishi va natijadorlikka erishishga xizmat qiladi.

Ota-onalar bilan hamkorlik - boshqaruvning muhim omili

Maktabgacha ta’lim muassasasida boshqaruv samaradorligi ota-onalar bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorlikka ham bog‘liq. Oila va muassasa o‘rtasidagi mustahkam aloqa bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois rahbariyat ota-onalar bilan muntazam suhbatlar, seminarlar, ochiq eshiklar kuni va turli loyihalarni tashkil etishi zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim muassasalarida samarali boshqaruv tizimi sifatli ta’lim va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim poydevoridir. To‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan boshqaruv tizimi pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi, bolalar uchun xavfsiz va rivojlantiruvchi muhit yaratadi, pedagoglar faoliyatini takomillashtiradi hamda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan avlodni shakllantiradi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim tizimida boshqaruvni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
4. Abdullayeva Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
5. Hasanov B. Pedagogik boshqaruv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
6. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari va me’yoriy hujjatlar.

SHAXS SHAKLLANISHIGA RAQAMLI MUHITNING TA’SIRI

Sultanova Mashhura Rustamboyevna *Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti., PhD*

Rajabboyeva Sevinch Davronbekovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti “Psixologiya”yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli muhitning zamonaviy shaxs shakllanishi, uning kognitiv va emotsional-irodaviy sohasiga ko‘rsatayotgan tizimli ta’siri psixoanalitik va bixevioristik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Virtual qiyofada shaxsning "raqamli Men-konsepsiyasi" shakllanishi, ijtimoiy tarmoqlarning individning o‘z-o‘zini baholashiga hamda emotsional intellektiga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijasida raqamli muhitning shaxs rivojidagi destruktiv va konstruktiv xususiyatlari ochib berilgan bo‘lib, undagi psixologik xavfsizlik mezonlari asoslangan.

Kalit so‘zlar. Raqamli muhit, shaxs shakllanishi, Men-konsepsiyasi, virtual identifikatsiya, kognitiv rivojlanish, klipli fikrlash, emotsional soha.

Аннотация. В данной статье на основе психоаналитического и бихевиористского подходов анализируется системное влияние цифровой среды на формирование современной личности, её когнитивную и эмоционально-волевую сферы. Изучено формирование «цифровой Я-концепции» личности в условиях виртуальности, влияние социальных сетей на самооценку и эмоциональный интеллект индивида. В результате исследования раскрыты деструктивные и конструктивные особенности цифровой среды в развитии личности, обоснованы критерии психологической безопасности. Ключевые слова: цифровая среда, формирование личности, Я-концепция, виртуальная идентификация, когнитивное развитие, клиповое мышление, эмоциональная сфера.

Ключевые слова. Цифровая среда, формирование личности, Я-концепция, виртуальная идентификация, когнитивное развитие, клиповое мышление, эмоциональная сфера.

Abstract. This article examines the psychological determinants of digital environment on the formation of the modern personality, its cognitive and emotional-volitional spheres based on psychoanalytic and behaviorist approaches. The formation of the "digital Self-concept" of the individual in conditions of virtuality, the impact of social networks on the self-esteem and emotional intelligence of the individual are studied. As a result of the study, the destructive and constructive features of the digital environment in personality development are revealed, and the criteria for psychological safety are substantiated.

Keywords. Digital environment, personality formation, Self-concept, virtual identification, kognitive development, clip thinking, emotional sphere.

Insoniyat sivilizatsiyasining shiddatli transformatsiyasi va texnogen taraqqiyot natijasida vujudga kelgan raqamli makon bugungi kunda shaxs ijtimoiylashuvining fundamental va yetakchi institutlaridan biriga aylandi. Klassik psixologiya maktablarida shaxs shakllanishining asosiy drayverlari sifatida oila, maktab, tengdoshlar guruhi va bevosita ijtimoiy muloqot ko‘rsatilgan bo‘lsa, zamonaviy reallikda bu funksiyalar sezilarli darajada virtual olam va uning submadaniyatlari tomonidan egallab olinmoqda [6]. Raqamli muhit shunchaki axborot almashish vositasi bo‘lishdan to‘xtab, shaxsning dunyoqarashi, qadriyatlar ierarxiyasi, motivatsion

yo‘nalganligi va ijtimoiy xulq-atvor modellarini konfiguratsiya qiluvchi universal ekotizimga aylandi. Ayniqsa, yosh avlodning ontogenetik rivojlanishi va psixik jarayonlarining arxitekturasi bevosita raqamli interfeyslar ta’sirida qayta shakllanmoqda. Ushbu global va lokal o‘zgarishlar raqamli muhitning shaxs ongi, xarakterologik xususiyatlari va ong osti sferasiga ko‘rsatayotgan ta’sirini chuqur tizimli-psixologik nuqtai nazardan tadqiq etishni taqozo qiladi [7].

Raqamli muhitning shaxs psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri eng birinchi navbatda uning yadroviy tuzilmasi hisoblangan "Men-konsepsiyasi" tizimidagi chuqur transformatsiyalarda namoyon bo‘ladi. Virtual makon individga o‘zining real jismoniy va ijtimoiy cheklovlaridan xoli bo‘lgan, idealizatsiya qilingan va modifikatsiyalangan yangi "raqamli Men" qiyofasini (avatarini) yaratish imkoniyatini beradi [5]. Psixoanalitik nuqtai nazardan baholanganda, bu jarayon shaxsning real hayotda qonmagan ehtiyojlarini, ichki komplekslarini va latent (yashirin) istaklarini virtual kompensatsiya qilish mexanizmi vazifasini bajaradi. Biroq, real hayotdagi "Men" va virtual makondagi "Ideal Men" o‘rtasidagi farq hamda dissonansning keskin ortishi shaxs ichki dunyosida jiddiy inqirozlarni, o‘zlikni anglashning buzilishini va ijtimoiy dezintegratsiyani keltirib chiqarishi mumkin. Bixeviorizm qonuniyatlariga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqlardagi "layklar", ijobiy izohlar va virtual reaksiyalar shaxs xulq-atvorini tashqi tomondan boshqaruvchi kuchli "ijobiy rag‘batlantirish" (positive reinforcement) mexanizmiga aylanadi [3]. Natijada shaxsning o‘z-o‘zini baholashi (self-esteem) mustaqil va barqaror xarakterini yo‘qotib, virtual auditoriyaning kayfiyati hamda reaksiyalariga to‘liq qaram bo‘lib qoladi.

Kognitiv sferada raqamli makonning ta’siri yanada yaqqolroq va fundamental xarakterga ega. Zamonaviy kiberpsixologiyada keng o‘rganilayotgan "klipli fikrlash" (clip thinking) fenomeni aynan raqamli muhit mahsulidir. Axborot oqimining haddan tashqari tezkorligi, vizuallashganligi va parchalangan holda uzatilishi inson miyasining axborotni qayta ishlash dinamikasini o‘zgartirmoqda [4]. Shaxsda ma’lumotlarni uzoq muddatli tahlil qilish, voqea-hodisalar o‘rtasidagi mantiqiy-sababiy bog‘liqliklarni aniqlash, diqqatni bir nuqtaga uzoq vaqt davomida konsentratsiya qilish ko‘nikmalari sezilarli darajada susayadi. Buning o‘rniga shaxs yuzaki, tezkor va hissiyotga asoslangan xulosalar chiqarishga odatlanadi. Neyropsixologik nuqtai nazardan qaraganda, virtual makon taqdim etadigan multitasking (bir vaqtning o‘zida bir nechta virtual vazifalarni bajarish) ko‘nikmasi kognitiv moslashuvchanlikni oshirsa-da, uzoq muddatda bosh miya po‘stlog‘iga ortiqcha yuklama beradi va surunkali intellektual charchoq hamda apatiya sindromini keltirib chiqaradi.

Emotsional-irodaviy sohada raqamli muhit ko‘pincha empatiya tanqisligi (empathy deficit) va ijtimoiy frustratsiyani stimulyatsiya qiluvchi katalizator sifatida namoyon bo‘lmoqda. Virtual muloqot jarayonida insoniy munosabatlarning asosi bo‘lgan noverbal signalizatsiyaning, ya’ni jonli nigoh, tana tili, ovoz intonatsiyasi va mimikalarning ishtirok etmasligi shaxslararo emotsional rezonansni kamaytiradi [3]. Bu holat yosh avlodning emotsional intellekt (EQ) ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatib, o‘zgalar dardini his qilish (empatiya) va ijtimoiy sezgirlik darajasini pasaytiradi. Natijada virtual olamda muloqot madaniyatining buzilishi, agressiv tendensiyalar, kibereksplуatatsiya, kiberbulling va trolling kabi ijtimoiy xavfli hamda destruktiv xulq-atvor shakllari uchun qulay psixologik zamin yaratiladi. Iroda sferasida esa raqamli texnologiyalar taklif etadigan "tezkor qoniqish" (instant gratification) prinsiplari shaxsning iroda kuchi, qiyinchiliklarni sabr bilan yengish va uzoq muddatli maqsadlarga intilish layoqatini jilovlab qo‘yadi [1]. Har bir harakatga virtual olamda darhol javob va zavq olishga o‘rgangan neyron zanjirlari real hayotning sekin va mehnat talab qiladigan jarayonlariga dosh berolmaydi, bu esa dopamin tizimining buzilishiga va raqamli addiksiyalarga (qaramlikka) sabab bo‘ladi.
Shunga qaramay, raqamli muhitni faqat salbiy psixologik omillar manbai deb hisoblash bir yoqlama yondashuv bo‘lar edi. Ushbu muhit shaxs taraqqiyoti uchun ulkan konstruktiv va transformatsion imkoniyatlarni ham taqdim etadi. Virtual makon individning global ijtimoiylashuvini ta’minlaydi, jugrofiy chegaralarni yo‘qotib, xalqaro miqyosda bilim almashish va intellektual integratsiyalashuv platformasi bo‘lib xizmat qiladi [2]. Raqamli texnologiyalar yordamida shaxs o‘zining kognitiv adaptivligini oshirishi, axborot texnologiyalari bilan ishlash bo‘yicha zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishi va o‘z kreativ salohiyatini global miqyosda

namoyish etishi mumkin. Muammo texnologiyalarning o‘zida emas, balki shaxsning ushbu texnologik muhit bilan o‘zaro munosabatga kirishish madaniyatida va psixologik xavfsizlik mezonlarining qay darajada shakllanganligidadir [6]. Virtual borliq va real hayot o‘rtasidagi psixologik muvozanatni to‘g‘ri regulyatsiya qila olish zamonaviy shaxsning eng muhim hayotiy kompetensiyasiga aylanishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, raqamli muhit zamonaviy shaxsning shakllanish va ijtimoiylashuv jarayonlarida ikki yoqlama - ham progressiv-rivojlantiruvchi, ham regressiv-destruktuv determinant bo‘lib ishtirok etmoqda. U insonning kognitiv va psixik arxitekturasini yangidan dasturlab, transformatsiyalashgan "Men-konsepsiyasi"ni vujudga keltirmoqda. Raqamli makonning shaxs psixikasiga salbiy va patogen ta’sirini minimallashtirish hamda uning konstruktiv imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish uchun ta’lim tizimida va ijtimoiy muhitda kiberpsixologik gigiyena hamda raqamli madaniyatni shakllantirish bo‘yicha maxsus psixologik preventiv dasturlarni joriy etish lozim. Faqatgina shaxsning ichki psixologik immuniteti va o‘z-o‘zini regulyatsiya qilish tizimini mustahkamlash orqali uning raqamli dunyo xavflariga qarshi barqarorligini ta’minlash va uning barkamol shaxs bo‘lib yetishishiga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bandura, A. (2018). Social learning theory and the digital empowerment of personality. Academic Press.
2. Erikson, E. H. (2019). Identity: Youth and crisis in the technological age. W. W. Norton & Company.
3. Goleman, D. (2021). Digital interactions and their impact on emotional intelligence development. Computers in Human Behavior, 122, 106-115.
4. Greenfield, P. M. (2020). Technology and informal education: What is taught, what is learned in the digital space. Science, 323(5910), 69-71.
5. Suler, J. (2016). The Online Disinhibition Effect and cyberpsychology of personality. New York: International Publishers.
6. Rasulova, M., & Yusupov, E. (2025). The role of virtual environment in the psychological socialization of modern youth. Central Asian Journal of Psychology, 9(3), 112-127.
7. Zavalskiy, A. (2024). Cognitive and emotional transformations of personality in digitalized societies. Journal of Digital Behavioral Sciences, 15(1), 44-59.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA PEDAGOGIK MULOQOT VA EMOTSIONAL-INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHNING KASBIY SHAKLLANISHGA TA’SIRI

Shernayeva Shahnoza Aqmirzayevna
O‘zbekiston Milliy universiteti
“Psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail:Shernayevashahnoza @gmail.com
Tel.: +99897 757 37 34

Annotatsiya. Ushbu maqola bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirishning kasbiy shakllanish jarayoniga ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda pedagogik muloqot ko‘nikmalari va emotsional-intellekt darajasi bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishdagi roli tahlil qilingan. Tadqiqot metodlari sifatida sorovnomalar, intervyular va kuzatuvlar qo‘llanilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, emotsional-intellekt va pedagogik muloqot ko‘nikmalarining yuqori darajasi bo‘lajak pedagoglarning kasbiy samaradorligini oshiradi va ularni zamonaviy ta’lim jarayoniga tayyorlaydi. Maqola natijalari pedagogik faoliyatda emotsional-intellekt va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning ahamiyatini tasdiqlaydi va amaliy tavsiyalarni beradi.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak pedagog, pedagogik muloqot, emotsional-intellekt, kasbiy shakllanish, kasbiy kompetensiya, pedagogik faoliyat, ta’lim jarayoni. shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalar.

Abstract. This article is devoted to studying the impact of the development of pedagogical communication and emotional intelligence in future teachers on the process of professional formation. The study analyzed the role of pedagogical communication skills and the level of emotional intelligence in the formation of professional competence of future teachers. Surveys, interviews and observations were used as research methods. The results showed that a high level of emotional intelligence and pedagogical communication skills increases the professional effectiveness of future teachers and prepares them for the modern educational process. The results of the article confirm the importance of developing emotional intelligence and communication skills in pedagogical activity and provide practical recommendations.

Keywords: Future teacher, pedagogical communication, emotional intelligence, professional formation, professional competence, pedagogical activity, educational process. personal and social skills.

Аннотация. Статья посвящена изучению влияния развития педагогического общения и эмоционального интеллекта будущих учителей на процесс профессионального становления. В исследовании проанализирована роль педагогического общения и уровня эмоционального интеллекта в формировании профессиональной компетентности будущих учителей. В качестве методов исследования использовались анкетирование, интервьюирование и наблюдение. Результаты показали, что высокий уровень эмоционального интеллекта и педагогического общения повышает профессиональную эффективность будущих учителей и готовит их к современному образовательному процессу. Результаты статьи подтверждают важность развития эмоционального интеллекта и коммуникативных навыков в педагогической деятельности и содержат практические рекомендации.

Ключевые слова: Будущий учитель, педагогическое общение, эмоциональный интеллект, профессиональное становление, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, образовательный процесс, личностные и социальные навыки.

Kirish

Ta’lim jarayonining samaradorligi ko‘pincha o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga, shuningdek, uning shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalariga bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishi nafaqat fan bilimini mukammal egallash, balki pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bilan ham chambarchas bog‘liq. Pedagogik muloqot – o‘quvchilar bilan samarali aloqani tashkil etish, ularning ehtiyojlarini tushunish va ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish vositasi bo‘lib, bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy elementlardan biridir. Shu bilan birga, emotsional-intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalar bilan samimiy va samarali muloqot qilish, stress va qiyinchiliklarga bardoshli bo‘lish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi emotsional-intellektga ega bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilar bilan mustahkam ijtimoiy aloqalar o‘rnatadi, o‘qituvchilik faoliyatida ijodiy yondashuvni qo‘llay oladi va kasbiy muammolarni samarali hal qilishga qodir bo‘ladi. Shu sababli, pedagogik muloqot va emotsional-intellektni tizimli ravishda rivojlantirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishini tezlashtiradi va ularni zamonaviy ta’lim talablariga moslashtiradi. Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektning kasbiy shakllanish jarayoniga ta’siri o‘rganilib, ularni rivojlantirish metodlari va amaliy tavsiyalarga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirishning ahamiyatini ko‘rsatadi hamda pedagogik amaliyotda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalarni beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Pedagogik muloqot va emotsional-intellekt bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishi nafaqat bilim, balki shaxsiy psixologik va kommunikativ ko‘nikmalarga ham bog‘liq. Vygotskiy va Rogersning nazariy ishlari pedagogik muloqot jarayonida o‘quvchi bilan ijobiy o‘zaro ta’sir o‘rnatish va o‘qituvchi sifatida shaxsiy motivatsiyani rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Goleman va boshqa emotsional-intellekt nazariyalari pedagogning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqalar bilan empatik muloqot qilish va stressga bardoshli bo‘lish qobiliyatini kasbiy muvaffaqiyatning muhim elementi sifatida ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda olib borilgan empirik tadqiqotlar, xususan, Mayer–Salovey–Caruso emotsional-intellekt modeli va pedagogik muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish bo‘yicha ishlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda yuqori emotsional-intellekt darajasi va samarali muloqot ko‘nikmalari sezilarli rol o‘ynashini tasdiqlaydi. Masalan, yuqori darajadagi emotsional-intellektga ega talabalar o‘quv jarayonida ijodiy yondashuvni namoyon etadi, pedagogik vazifalarni samarali bajaradi va o‘quvchilar bilan mustahkam psixologik aloqalarni o‘rnatadi. Shu bilan birga, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik muloqotning yetarli darajada rivojlantirilmaganligi o‘qituvchining kasbiy faoliyatini cheklashi, o‘quvchilar bilan muloqotda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar shuningdek, emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha treninglar, rolli o‘yinlar, fokus-guruhlar va pedagogik simulyatsiyalar samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi. Bu usullar bo‘lajak pedagoglarning o‘zaro muloqotini kuchaytiradi, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi, natijada ularning kasbiy shakllanishini tezlashtiradi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar pedagogik muloqot va emotsional-intellektning bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatini ta’kidlaydi, ya’ni pedagogik muloqot samarali bo‘lishi uchun emotsional-intellektning yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi muhimdir.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishini samarali amalga oshirish uchun pedagogik muloqot va emotsional-intellektni tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Bu ikki komponent bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va zamonaviy ta’lim jarayonida pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu sababli, pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar va metodik yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunda muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqot bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektning kasbiy shakllanishga ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida turli yo‘nalishlarda tahsil olayotgan bakalavr va magistr talabalar tanlangan. Tadqiqotda sifat va miqdoriy usullar uyg‘unlashtirilgan. Miqdoriy usullar orqali pedagogik muloqot ko‘nikmalari va emotsional-intellekt darajasi aniqlangan. Emotsional-intellektni baholash uchun Goleman va Mayer–Salovey–Caruso modellariga asoslangan testlar qo‘llanilgan, pedagogik muloqot ko‘nikmalarini aniqlash uchun esa kuzatuv va self-report sorovnomalar ishlatilgan.

Sifat usullari sifatida intervyular va fokus-guruhlar o‘tkazilib, bo‘lajak pedagoglarning muloqot jarayonidagi hissiy tajribasi, empatiya qobiliyati va pedagogik vazifalarni bajarishdagi yondashuvi o‘rganilgan. Shu bilan birga, ma’lumotlarni tahlil qilishda korrelyatsion va regressiya usullari qo‘llanib, pedagogik muloqot va emotsional-intellekt darajasi bilan kasbiy shakllanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan.

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlangan va ularning roziligi asosida ma’lumotlar yig‘ilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellekt darajasi kasbiy shakllanishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Olingan ma’lumotlar shuni

ko‘rsatdiki, emotsional-intellektning yuqori darajasi bo‘lajak pedagoglarni stressga chidamli, o‘quvchilar bilan samarali aloqada bo‘lishga va murakkab pedagogik vazifalarni ijodiy yondashuv bilan hal qilishga yordam beradi. Korrelyatsion tahlil natijalari pedagogik muloqot ko‘nikmalari va emotsional-intellekt darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatdi, ya’ni emotsional-intellekti yuqori bo‘lgan talabalar pedagogik muloqot jarayonida ham samarali bo‘lgan.

Fokus-guruhlar va intervyular orqali olingan sifatli ma’lumotlar shuni aniqladi: bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilarning hissiy holatini tushunishga, empatiya ko‘rsatishga va ularni motivatsiya qilishga intilishadi. Shu bilan birga, pedagogik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar va rolli o‘yinlar talabalar orasida kommunikativ qobiliyatlarni oshirib, ularning kasbiy ishonchini mustahkamladi. Statistik tahlil natijalari pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Tadqiqot shuni tasdiqladiki, pedagogik muloqot va emotsional-intellekt bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega: biri yetarli darajada rivojlanmasa, ikkinchisining samarasi ham cheklanishi mumkin. Shu sababli, pedagogik tayyorgarlik jarayonida bu ikki komponentni bir vaqtda rivojlantirish bo‘lajak pedagogning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim omil hisoblanadi. Umuman olganda, tahlil va natijalar bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish kasbiy shakllanish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashini ko‘rsatadi. Bu natijalar pedagogik amaliyotda emotsional-intellekt va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jadval 1. Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellekt darajasi hamda kasbiy shakllanish ko‘rsatkichlari[19]

Ishtirokchilar guruhi	Pedagogik muloqot ko‘nikmalari (ball)	Emotsional-intellekt darajasi (ball)	Kasbiy shakllanish ko‘rsatkichlari (ball)	Izoh
Guruh A (past)	40–55	35–50	45–55	Past muloqot va EI bo‘lgan talabalar kasbiy shakllanishda cheklovlarga duch keladi.
Guruh B (o‘rta)	56–70	51–65	56–70	O‘rta darajadagi muloqot va EI bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishga imkon beradi, lekin doimiy metodik ishlarni talab qiladi.
Guruh C (yuqori)	71–85	66–80	71–85	Yuqori darajadagi muloqot va EI bo‘lajak pedagoglarda kasbiy samaradorlik va o‘quvchilar bilan ijobiy aloqalar kuchli rivojlangan.

Jadvalni tahlil qilganda bir nechta muhim jihatlar ajralib turadi. Birinchidan, pedagogik muloqot va emotsional-intellekt darajasi bo‘yicha olingan ballar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy

[19] Muallifning tadqiqoti (2025) – bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental tadqiqot natijalari.

shakllanishini aniq ko‘rsatadi. Past darajadagi guruh (Guruh A) pedagogik vazifalarni bajarishda, o‘quvchilar bilan ijobiy aloqalar o‘rnatishda va stress holatlarida qiyinchiliklarga duch keladi. Bu shuni anglatadiki, pedagogik muloqot va EI yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyati cheklangan bo‘ladi.

Ikkinchidan, o‘rta darajadagi guruh (Guruh B) bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishida ijobiy o‘sish kuzatiladi, lekin ularning kompetensiyasini yuqori darajaga ko‘tarish uchun tizimli metodik mashg‘ulotlar va treninglar zarur. Bu guruhdagi talabalar emotsional-intellekt va pedagogik muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash orqali o‘quvchilarga samarali ta’lim berishga qodir bo‘ladi.

Uchinchidan, yuqori darajadagi guruh (Guruh C) eng muvaffaqiyatli bo‘lib, ular pedagogik muloqot va EIni birgalikda yuqori darajada rivojlantirgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, bu talabalar ijodiy yondashuv, empatiya va motivatsiya kabi kasbiy xususiyatlarni kuchli egallagan. Ular o‘quvchilar bilan mustahkam ijtimoiy aloqalarni o‘rnatadi va murakkab pedagogik vazifalarni samarali hal qila oladi.

Shuningdek, jadvaldagi natijalar pedagogik tayyorgarlik jarayonida pedagogik muloqot va emotsional-intellektni birgalikda rivojlantirish zarurligini tasdiqlaydi. Pedagogik muloqot yuqori bo‘lsa ham, agar emotsional-intellekt past bo‘lsa, kasbiy samaradorlik cheklanadi.

Jadval 2. Pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar va kasbiy shakllanish natijalari[20]

Mashg‘ulot turi	O‘quvchilar soni	Pedagogik muloqot ko‘nikmalari (ball)	Emotsional-intellekt darajasi (ball)	Kasbiy shakllanish ko‘rsatkichlari (ball)	Izoh
Rolli o‘yinlar	20	55–70	50–65	55–70	Empatiya va kommunikativ ko‘nikmalar rivojladi, pedagogik muloqot yaxshilandi.
Fokus-guruh mashg‘ulotlari	18	60–75	55–70	60–75	Guruh ichidagi o‘zaro muloqot va ijtimoiy ko‘nikmalar kuchaydi.
Metodik treninglar	22	65–80	60–75	65–80	Kasbiy kompetensiya oshdi, pedagogik yondashuvlar samarali bo‘ldi.
Individual maslahat va kuzatuvlar	15	50–65	45–60	50–65	Shaxsiy rivojlanish va stressga bardoshlilik yaxshilandi.

Aksincha, yuqori EI bo‘lsa ham, muloqot ko‘nikmalari past bo‘lsa, pedagogning o‘quvchilar bilan samarali ishlash imkoniyati kamayadi. Shu sababli, bu ikki komponent bir-birini to‘ldiruvchi

[20] Muallifning tadqiqoti (2025) – bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan metodik eksperiment natijalari.

xususiyatga ega va bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy ta’lim jarayoniga tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

Jadval 2. tahlili bo‘yicha bir nechta muhim jihatlar ajralib turadi. Avvalo, rolli o‘yinlar pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirishda samarali metod bo‘lib, talabalarni o‘quv jarayonida ijobiy muloqot qilishga, empatiya ko‘rsatishga va pedagogik vazifalarni ijodiy bajarishga rag‘batlantiradi. Bu metod o‘quvchilarga o‘zaro aloqalarni o‘rganish, muammolarni simulyatsiya orqali hal qilish va real pedagogik vaziyatlarga tayyorlanish imkonini beradi.

Fokus-guruh mashg‘ulotlari guruh ichidagi kommunikatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni kuchaytiradi, talabalarni liderlik va jamoaviy ishlashga o‘rgatadi. Bu turdagi mashg‘ulotlar bo‘lajak pedagoglarning empatiya darajasini oshiradi, ularni murakkab pedagogik vaziyatlarda moslashuvchan va samarali qiladi.

Metodik treninglar esa kasbiy kompetensiyani oshirishda eng samarali metod hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bu mashg‘ulotlar pedagogik yondashuvlarni mustahkamlash, murakkab vazifalarni ijodiy hal qilish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning kasbiy muvaffaqiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Individual maslahat va kuzatuvlar esa talabalar shaxsiy rivojlanishiga, stressga bardoshliligini oshirishga va o‘z-o‘zini anglash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu usul pedagogik muloqot va emotsional-intellektni mustahkamlashda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, har bir talabaning individual ehtiyojlariga moslashtiriladi.

Umuman olganda, jadval natijalari pedagogik tayyorgarlik jarayonida mashg‘ulotlarni turli shakllarda (amaliy, guruhli, individual) uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak pedagoglarning kasbiy shakllanishini maksimal darajada oshirish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega ekanligi aniqlandi: biri yetarli darajada rivojlanmasa, ikkinchisining samarasi ham cheklanadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari bo‘yicha bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektning kasbiy shakllanishga bevosita ta’siri aniqlandi. Yuqori darajadagi pedagogik muloqot va emotsional-intellektga ega bo‘lajak pedagoglar o‘quvchilar bilan samarali aloqalarni o‘rnatadi, murakkab pedagogik vazifalarni ijodiy yondashuv bilan hal qiladi va kasbiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Aksincha, past darajadagi ko‘nikmalarga ega talabalar kasbiy shakllanishda cheklovlarga duch keladi va pedagogik jarayonda qo‘shimcha metodik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘ladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik tayyorgarlik jarayonida pedagogik muloqot va emotsional-intellektni birgalikda rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Rolli o‘yinlar, fokus-guruh mashg‘ulotlari, metodik treninglar va individual maslahatlar bo‘lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda samarali vositalar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bu ikki komponent bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, biri yetarli darajada rivojlanmasa, ikkinchisining samarasi ham cheklanishi mumkin.

Pedagogik tayyorgarlik jarayonida pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar joriy etilishi lozim. Bo‘lajak pedagoglarga rolli o‘yinlar va fokus-guruh mashg‘ulotlari orqali empatiya va kommunikativ ko‘nikmalarni mustahkamlash imkoniyatlari yaratilishi, metodik treninglar yordamida pedagogik kompetensiyani oshirish va murakkab vazifalarni ijodiy hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi. Shu bilan birga, individual maslahat va kuzatuvlar orqali har bir talabaning shaxsiy rivojlanishi, stressga bardoshliligi va o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmalarini mustahkamlash muhimdir. Ta’lim muassasalarida pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirishning samaradorligini baholash uchun muntazam monitoring va baholash tizimi joriy etilishi lozim.

Ushbu xulosa va takliflar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishga, pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish orqali kasbiy shakllanishni maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books.
2. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. (2004). Emotional Intelligence: Theory, Findings, and Implications. Psychological Inquiry, 15(3), 197–215.
3. Peterson, C., & Seligman, M. E. P. (2004). Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification. New York: Oxford University Press.
4. Kasatkina, Ye. A. (2018). Pedagogicheskaya kommunikatsiya i razvitie emotsionalnogo intellekta u studentov-pedagogov. Vestnik obrazovaniya, 2, 45–53.
5. Smirnova, T. V., & Ivanova, N. P. (2019). Razvitie professionalnых kompetensiy budущix pedagogov cherez emotsionalnыy intellekt. Pedagogicheskoe obrazovanie v Rossii, 6, 23–31.
6. Sharifov, O. (2020). Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi. Tashkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
7. Muallifning tadqiqoti (2025). Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik muloqot va emotsional-intellektni rivojlantirish bo‘yicha eksperimental tadqiqot natijalari. Tashkent: O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalari ma’lumotlari.

QAROR QABUL QILISH JARAYONLARIDA TEMPERAMENT XUSUSIYATLARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

Shernazarova Sabina Umid qizi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch Davlat Universiteti
Psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya:Ushbu maqolada qaror qabul qilish jarayonida individual temperament xususiyatlarining o‘rni va ahamiyati o‘rganiladi. Tadqiqot temperamentning turli tiplari qaror qabul qilish usullari, kognitiv uslublar va emotsional reaksiyalarga qanday ta'sir qilishini o‘rganishga bag'ishlangan. Asosiy e'tibor kasbiy faoliyat va kundalik hayotda temperament xususiyatlarini hisobga olishning amaliy ahamiyatiga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: temperament, qaror qabul qilish, kognitiv stillar, emotsional reaktsiyalar, individual farqlar, psixologik turlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение индивидуальных темпераментальных особенностей в процессе принятия решений. Исследование посвящено анализу того, как различные типы темперамента влияют на когнитивные стили, эмоциональные реакции и стратегии принятия решений. Особое внимание уделяется практическому значению учёта темпераментальных характеристик в профессиональной деятельности и повседневной жизни. Методологическую основу исследования составляет комплексный анализ психологических теорий темперамента и современных подходов к принятию решений.

Ключевые слова: темперамент, принятие решений, когнитивные стили, эмоциональные реакции, индивидуальные различия, психологические типы.

Abstract: This article examines the role and significance of individual temperament characteristics in the decision-making process. The study is devoted to analyzing how different temperament types influence cognitive styles, emotional reactions, and decision-making strategies. Special attention is paid to the practical importance of considering temperament characteristics in professional activities and everyday life.

Keywords: temperament, decision-making, cognitive styles, emotional reactions, individual differences, psychological types.

Kirish. Qaror qabul qilish inson faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Har kuni inson turli xil qarorlarni qabul qilishga majbur bo‘ladi – kichik kundalik tanlovardan tortib, murakkab strategik qarorlarga qadar jarayonlarning barchasini qamrab oladi [Robbins, 2016: 45]. Psixologik tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, qarorlar qabul qilish jarayoni

shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan uzviy bog'liq va temperament bu jarayonda eng muhim omillaridan biri hisoblanadi [Ayzenk, 2011: 78].

Temperament tushunchasini fanga qadimgi yunon vrachlari kiritgan bo‘lib, Gippokrat va Galen uni nazariy tomonidan asoslab bergan. Zamonaviy psixologiyada temperamentni individual psixologik xususiyatlar tizimi sifatida tushuntiriladi, u irsiy omillar bilan belgilanadi va shaxsning butun hayoti davomida nisbatan barqaror bo‘lib qoladi. Temperamentning asosiy turlari – sangvinik, xolerik, flegmatik va melankolikdir. Bu turlar har birining o‘ziga xos xususiyatlari qaror qabul qilish jarayoniga turli ko‘rinishda ta'sir ko‘rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi temperament xususiyatlarining qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir mexanizmlarini ochish va turli xil temperament tiplariga ega shaxslarning qaror qabul qilishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Asosiy qism

Temperament tushunchasi psixologiya fani rivojlanish jarayonida ko‘pgina nazariy yondashuvlar asosida o‘rganilgan. Ivan Pavlovning oliy nerv faoliyati to‘g’risidagi ta'limoti temperamentning fiziologik jihatlarini belgilab beradi. I.Pavlov ta'biri bilan aytganda, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligi temperamentning biologik asosini tashkil etadi. Ushbu xususiyatlar kombinatsiyasi to‘rtta asosiy temperament turini hosil qiladi.

Gans Ayzenk temperamentni ikkita o‘lchov asosida – ekstraversiya va neyrotizm – orqali o‘rganishni taklif qilgan [Ayzenk, 2011: 45]. Ushbu yondashuv qaror qabul qilish jarayonida emotsional barqarorlik hamda ijtimoiy yo‘naltirilganlikning o‘rnini alohida ta'kidlaydi. Boshqa bir tomondan esa, Aleksandr Rumblyum va Vera Stagner temperament xususiyatlarining kognitiv jarayonlarga ta'sirini ko‘rib chiqqanlar. Xususan, qaror qabul qilishdagi tezlik va aniqlikka ta'sirini har tomonlama o‘rganishgan.

Sangvinik temperamentga ega shaxslar odatda tez hamda faol qarorlar qabul qilishadi. Ular yangi ma'lumotlarni tezda qabul qilishga va o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslashishga qodir bo‘lishadi. Sangviniklar qaror qabul qilishda optimistlik va ijobiy qarashlarni ustun qo‘yishadilar, bu esa ularga xavf olishga ko‘proq jur'at beradi. Biroq, ularning tezda qaror qabul qilishlari ba'zida yetarli tahlil qilmaslikka hamda ko‘proq xatolarga olib kelishi mumkin. Misol uchun, sangvinik temperamentli menejer tezkor bozorda tez qarorlar qabul qilsa-da, ba'zida yetarli tahlil olib bormasligi sababli muvaffaqiyatsiz natijalarga erishishi mumkin bo‘ladi.

Xolerik temperamentga ega shaxslarda esa qaror qabul qilish jarayoni aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu ularning dadil bo‘lishlariga yordam beradi. Ular o‘ziga ishongan, qat'iyatli va tashkilotchilik xususiyatlari bilan boshqalardan ajralib turishadi. Xoleriklar murakkab bo‘lgan qarorlarni tez va samarali qabul qilishga qodirdirlar, chunki ular maqsadga intilishda to‘siqlarni osongina yengishga jur'at qiladilar. Lekin ularning baland emotsional uyg'oqligi ba'zida impulsiv qarorlarga olib kelishi ham mumkin. Masalan, xolerik xarakterli shaxslar jiddiy moliyaviy qarorlarni ham tahlil qilmasdan tezda qabul qilishlari mumkin.

Flegmatik tipdagi temperamentga ega shaxslar ehtiyotkorona va muhokamali yondashuvni afzal ko‘radilar [Nebylitsin, 2007: 485]. Ular qaror qabul qilishda sabr-u toqat va mantiqiy fikrlashni namoyon qilishadi. Flegmatik tipdagi insonlar barcha imkoniyatlarni puxta tahlil qilgandan so‘nggina qarorlar qabul qilishga moyil bo‘lishadi. Bu ularga murakkab va muhim qarorlarda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi, ammo ba'zida ortiqcha vaqt sarflash hamda imkoniyatlarni qo‘ldan boy berish xavfini tug'dirishi mumkin.

Melanxolik temperamentga ega shaxslar chuqur tahlil qilish va muammolarni batafsil ko‘rib chiqish qobiliyatiga ega bo‘lgan insonlar toifasiga kirishadi [Kagan, 2004: 260]. Ular qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik va puxta o‘ylab ishlashni ustun qo‘yadilar. Melanxolik kishilar barcha bo‘lishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni oldindan ko‘ra olishga intiladilar, bu ularni ba'zi hollarda eng optimal yechimlarga olib keladigan qarorlar bo‘ladi. Biroq, ularning yuqori sezuvchanligi va tashvishlanishga bo‘lgan moyilligi qaror qabul qilish jarayonini murakkablashtirishi va kechiktirishi ham mumkin. Masalan, melanxolik shaxslar muhim ish takliflarini ko‘rib chiqar ekan, barcha salbiy oqibatlarni oldindan muhokama qilib, qaror qabul qilishni kechiktirishi ham mumkin.

3. Temperament xususiyatlarining qaror qabul qilish strategiyasiga ta'siri

Temperament xususiyatlarini hisobga olish qaror qabul qilishdagi samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir temperament turining o‘ziga xos kognitiv usullari va afzalliklari mavjud bo‘ladi. Sangvinik va xolerik shaxslar odatda deduktiv yondashuvni afzal ko‘radilar, ya'ni umumiy prinsiplardan maxsus holatlarga o‘tadilar. Flegmatiklar va melankoliklar esa induktiv yondashuvni , ya’ni maxsus holatlardan umumiy xulosalarga o‘tishni ustun qo‘yadilar.

Qaror qabul qilish tezligi jihatidan ham temperament turlari farqlanadi [Robbins, 2016: 112]. Sangvinik va xolerik tipdagi shaxslar odatda juda tez qarorlar qabul qilishadi, flegmatik va melankolik tipdagi kishilar esa sekinroq, lekin ko‘proq tahlillar qilish asosida qarorlar qabul qiladilar. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikkita yondashuvning ham o‘ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor: tez qaror qabul qilish o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali bo‘ladi, sekinroq qaror qabul qilish esa murakkab va muhim qarorlarda aniqroq natijalar olishga yordam beradi.

Boshqaruv psixologiyasida ham temperament xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyat kasib etadi [Ayzenk, 2000: 5]. Turli xil temperament turlariga ega bo‘lgan xodimlarni boshqarishda ularning individual xususiyatlarini ham inobatga olish samarali jamoa hosil qilishga kata yordam beradi. Masalan, sangvinik va xolerik xodimlar tez va dadil qarorlar qabul qilishlari mumkin bo‘ladi, flegmatik va melankolik tipdagi xodimlar esa muammolarni chuqur tahlil qilish va puxta yechimlar taklif qilishga moyil bo‘ladilar.

Temperamentga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda qaror qabul qilishni yaxshilash uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni taklif qilish mumkin bo‘ladi [Nebylitsin, 2007: 487]. Birinchidan, o‘zining temperament turini bilish va uni tan olish muhim ahamiyatga egadir. Bu esa o‘ziga xos kuchli tomonlaringizni rivojlantirishga va zaif tomonlaringizni kompensatsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqishga imkon beradi. Ikkinchidan, guruhda ishlashda turli temperament turlariga ega shaxslarning qaror qabul qilishdagi usullarini tushunish jamoa ichidagi muammolar va ziddiyatlarni kamaytirishga ham yordam beradi.

Uchinchidan, qaror qabul qilish jarayonini samarasini oshirish uchun turli yondashuvlarni qo‘llash ham foydali bo‘lishi mumkin bo‘ladi. Masalan, sangviniklar uchun muammoni vizual ko‘rinishda taqdim etish va tezkor yechimlarni qidirib topish samarali bo‘lishi mumkin. Melanxoliklar uchun esa batafsil ma'lumot va muammoning barcha jihatlarini ko‘rib chiqish imkonini beruvchi muhitni yaratib berish muhim sanaladi.

Xulosa

Tadqiqot natijasida shu narsa ma’lum bo‘ladiki, temperament xususiyatlarining qaror qabul qilish jarayoniga bo‘lgan ta'siri sezilarli darajada va turlicha modifikatsiya qiladi. Har bir temperament turi o‘ziga xos kognitiv usullar, emotsional reaksiyalar va qaror qabul qilish metodlarini taqdim qiladi. Sangvinik tipdagi shaxslar tezkor va optimist yondashuvlari bilan ajralib turishsa, xolerik tipdagi shaxslar – dadil va maqsadga yo‘naltirilgan qarorlar qabul qilishlari bilan, flegmatik tipli kishilar – ehtiyotkorona va mantiqiy tarzdagi yondashuvlari bilan, melanxolik tipli kishilar esa – chuqur tahlil va yuqori sezuvchanliklari bilan bir biridan o‘zaro farq qilishadi.

Temperament xususiyatlarini bilish va hisobga olish nafaqat individual rivojlanish jarayonida, balki professional faoliyat jarayonida ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Turli temperament tiplariga ega shaxslarni o‘z ichiga qamrab olgan guruhlar to‘liq va sifatli qarorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishilari mumkin, agar ularning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ish ko‘rilsa samarali natija beradi.

Yaqin kelajakda temperament va qarorlar qabul qilish orasidagi munosabatlarni yanada chuqur tarzda o‘rganish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni o‘z o‘rnida qo‘llash orqali individual qarorlar qabul qilish strategiyalarini optimallashtirishga qaratilgan yangi tadqiqotlarni o‘tkazish foydali bo‘lishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayzenk G. Struktura lichnosti / G. Ayzenk, M. Ayzenk. – SPb.: Izdatelstvo «Piter», 2011. – 160 s.
2. Ayzenk M.V. Temperament / M.V. Ayzenk // Encyclopedia of Psychology. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – T. 8. – S. 1-12.
3. Kagan J. Galatea's Children / J. Kagan // Annual Review of Psychology. – 2004. – T. 55. – S. 251-275.
4. Nebyilsin Yu. Temperament / Yu. Nebyilsin // Bolshaya psikhologicheskaya entsiklopediya. – M.: Eksmo, 2007. – S. 482-489.
5. Robbins S.P. Organizational Behavior / S.P. Robbins. – 16th ed. – Boston: Pearson, 2016. – 720 p.

TYUTORNING TALABALAR BILAN ISHLASH KOMPETENTLIGINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tasheva Uvaysiy Olimovna
Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
uvaysiytasheva@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada tyutorlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatining mazmuni, uning pedagogik va psixologik jihatlari hamda talabalarning akademik va shaxsiy rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi. Tadqiqotda tyutorlarning kommunikativ, motivatsion, diagnostik va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish omillari aniqlanadi. Empirik tahlil natijalari tyutorlik faoliyatining samaradorligi talaba bilan ijtimoiy-psixologik muloqot, individual yondashuv va qo‘llab-quvvatlovchi muhit bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim tizimida tyutorlar faoliyatini takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tyutorlik, kompetensiya, ijtimoiy-psixologik omillar, talabalar rivoji, oliy ta’lim, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В данной статье анализируются социально-психологические особенности развития профессиональных компетенций преподавателей. Изучается содержание преподавательской деятельности в высших учебных заведениях, ее педагогические и психологические аспекты, а также влияние на академическое и личностное развитие студентов. В исследовании выявлены факторы развития коммуникативных, мотивационных, диагностических и рефлексивных компетенций преподавателей. Результаты эмпирического анализа показали, что эффективность преподавательской деятельности связана с социально-психологической коммуникацией со студентами, индивидуальным подходом и благоприятной средой. Результаты исследования служат основой для разработки научно-практических рекомендаций по совершенствованию деятельности преподавателей в системе высшего образования.

Ключевые слова: преподавательская деятельность, компетенция, социально-психологические факторы, развитие студентов, высшее образование, коммуникативная компетенция.

Abstract. This article analyzes the socio-psychological features of the development of professional competencies of tutors. The content of tutoring activities in higher education institutions, its pedagogical and psychological aspects, and its impact on the academic and personal development of students are studied. The study identifies factors for the development of communicative, motivational, diagnostic, and reflective competencies of tutors. The results of the empirical analysis showed that the effectiveness of tutoring activities is associated with socio-psychological communication with students, an individual approach, and a supportive environment. The results of the study serve to develop scientific and practical recommendations for improving the activities of tutors in the higher education system.

Keywords: tutoring, competence, socio-psychological factors, student development, higher education, communicative competence.

Bugungi globallashuv davrida axborot oqimining keskin ortishi inson hayotining barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanishi yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va ijtimoiy xulq-atvorini shakllantirishda muhim omilga aylandi. Shu bilan birga, virtual makonda turli mafkuraviy, siyosiy va psixologik axborot xurujlarining kuchayishi yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatish xavfini ham oshirmoqda.

Axborot xurujlari bugungi kunda nafaqat siyosiy yoki mafkuraviy vosita, balki psixologik manipulyatsiya mexanizmi sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, hayotiy tajribasi yetarlicha shakllanmagan, emotsional jihatdan ta’sirchan bo‘lgan yoshlar bunday tahdidlarga ko‘proq moyil hisoblanadi. Virtual makonda yolg‘on axborotlar, ekstremistik g‘oyalar, ommaviy madaniyatning salbiy ko‘rinishlari va turli manipulyativ kontentlarning tarqalishi yoshlarning ma’naviy-axloqiy qarashlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Oliy ta’lim tizimidagi tyutorlik faoliyatini oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ishi, kasbiy axborot, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, maslahat-amaliy, ijtimoiy-pedagogik faoliyat majmuasi sifatida qaraymiz. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tyutorlik faoliyati diagnostik-maqsadli, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, o‘quv-uslubiy, maslahat va amaliy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Tyutorning yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilishdagi o‘rni

Tyutor talabaning nafaqat akademik faoliyatini, balki uning ijtimoiy-psixologik rivojlanishini ham qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik subyektdir. Axborot xurujlari sharoitida tyutor quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Media savodxonlikni rivojlantirish:

Tyutor yoshlarni internetdagi axborotlarni tahlil qilish, tekshirish va tanqidiy baholashga o‘rgatadi. Bu esa yolg‘on va manipulyativ ma’lumotlarni ajrata olish ko‘nikmasini shakllantiradi.

2. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish:

Tanqidiy fikrlash yoshlarning mustaqil qaror qabul qilishiga yordam beradi. Tyutor turli muammoli vaziyatlar, munozaralar va interaktiv metodlar orqali talabalarda analitik tafakkurni rivojlantiradi.

3. Ma’naviy-ma’rifiy tarbiya:

Tyutor yoshlarning milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va ma’naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiluvchi tadbirlarni tashkil etadi.

4. Psixologik qo‘llab-quvvatlash:

Axborot bosimi natijasida yuzaga keladigan stress, xavotir va virtual qaramlik holatlarida tyutor talabalarga psixologik yordam ko‘rsatadi yoki mutaxassislarga yo‘naltiradi.

5. Raqamli madaniyatni shakllantirish:

Tyutor yoshlarni internetdan samarali va xavfsiz foydalanish madaniyatiga o‘rgatadi. Bu esa axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Zamonaviy tyutor talabalarga individual va jamoaviy ishlashni tashkil etish, o‘zgarayotgan sharoitlarga va chaqiriqlarga tezda javob berish imkonini beradigan noyob kompetensiyalar majmuiga ega bo‘lishi kerak. Aslida, tyutor zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning individuallashtirish jarayonini ta’minlovchi asosiy texnolog bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bugungi kunda akademik jamoada tyutorlik faoliyatiga oid yagona metodologiya va amaliyot shakllanmagan, shuningdek, oliy ta’limda tyutorning professional kompetensiyalarining modeliga oid bir xil qarashlar mavjud emas. Bu holat nafaqat tyutorlik kasbini oliy ta’lim muassasalarida pozitsiyalashishda, balki yuqori professional tyutorlar jamoasini universitetga jalb qilish va keyinchalik rivojlantirishga oid amaliy masalalarni ham qiyinlashtiradi [3,5,6].

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini joriy etishning quyidagi shart-sharoitlarini aniqlash mumkin:

1) o‘zlashtirilgan bilimlarning aksariyatida keng va ko‘lamdor yuqori darada;

2) doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash keng tarqalgan normaga aylanmoqda;

3) keng hajmdagi ta’lim resurslariga bo‘lgan talab.

Oliy ta’lim tizimidagi tyutorlik faoliyatini oliy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘qituvchi va talabalarning birgalikdagi ishi, kasbiy axborot, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, maslahat-amaliy, ijtimoiy-pedagogik faoliyat majmuasi sifatida qaraymiz. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, tyutorlik faoliyati diagnostik-maqsadli, tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi, o‘quv-uslubiy, maslahat va amaliy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

Diagnostik-maqsadli komponent amaliy mashg‘ulotlarni aniqlash maqsadida talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarini tashxis qilish, o‘quv davridagi ta’lim faoliyatini nazorat qilish uchun mo‘ljallangan.

Tashkiliy-muvofiqlashtiruvchi komponent talabalar uchun individual ta’lim trayektoriyasini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi [1,4,5].

O‘quv-uslubiy komponent amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish, tyutorlik faoliyati sub'ektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, talabalarni ilmiy-tadqiqot va loyihalash faoliyatiga jalb qilish bo‘yicha faoliyatni o‘z ichiga oladi.

Maslahat va amaliy komponent talabalarga ularning ta’lim va kasbiy istiqbollarini tushunishda, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish bo‘yicha maslahat yordamini o‘z ichiga oladi.

Tyutorlik innovatsion pedagogik faoliyat sifatida zamonaviy ta’limda bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda muhim vosita bo‘lib, u ta’lim jarayonini individuallashtirishga va o‘quvni yanada moslashuvchan qilishga yordam beradi.

Tyutor ta’limni individuashtirishni samarali amalga oshirish uchun quyidagi asosiy prinsiplarga e'tibor qaratish zarur:

1. *Resurslar prinsipi*: Talabalarga turli faoliyat turlari va usullari bilan ishlash imkonini beruvchi ortiqcha ta’lim resurslari muhitini yaratish.
2. *Ochiqlik prinsipi:* ochiq tizim sifatida boshqa ta’lim va ijtimoiy muassasalar bilan o‘zaro bog‘lanadi.
3. *Moslashuvchanlik prinsipi*: Talabaga o‘z qiziqishlari va talablariga mos yangi jihatlarni ta’lim jarayoniga kiritish imkonini beradi.
4. *Ko‘p funksiyalilik prinsip*i: Bir xil resurslarni turli kontekslarda va vaziyatlarda ishlatish imkoniyatini yaratish.
5. *Gumanist prinsipi*: Har bir talabaning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi muhitni yaratish.

Zamonaviy tyutor talabalarga individual va jamoaviy ishlashni tashkil etish, o‘zgarayotgan sharoitlarga va chaqiriqlarga tezda javob berish imkonini beradigan noyob kompetensiyalar majmuiga ega bo‘lishi kerak. Aslida, tyutor zamonaviy ta’lim tizimida o‘qitishning individuallashtirish jarayonini ta’minlovchi asosiy texnolog bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, bugungi kunda akademik jamoada tyutorlik faoliyatiga oid yagona metodologiya va amaliyot shakllanmagan, shuningdek, oliy ta’limda tyutorning professional kompetensiyalarining modeliga oid bir xil qarashlar mavjud emas. Bu holat nafaqat tyutorlik kasbini oliy ta’lim muassasalarida pozitsiyalashishda, balki yuqori professional tyutorlar jamoasini universitetga jalb qilish va keyinchalik rivojlantirishga oid amaliy masalalarni ham qiyinlashtiradi [1,2,5,6].

Zamonaviy oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini joriy etishning quyidagi shart-sharoitlarini aniqlash mumkin:

1) o‘zlashtirilgan bilimlarning aksariyatida keng va ko‘lamdor yuqori darada;

2) doimiy ravishda o‘z-o‘zini tarbiyalash keng tarqalgan normaga aylanmoqda;

3) keng hajmdagi ta’lim resurslariga bo‘lgan talab.

Tyutorning axborot xavfsizligini ta’minlashdagi o‘rni

Tyutor — bu talabaning ta’limiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi pedagogik shaxsdir. Zamonaviy ta’lim tizimida tyutorlarning vazifalari yanada kengayib, yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish masalalarini ham qamrab olmoqda.

Media savodxonlikni rivojlantirish

Media savodxonlik yoshlarning axborotlarni tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Tyutor talabalarga:

- axborot manbalarini tekshirish;
- yolg‘on xabarlarni aniqlash;
- internetdagi xavfli kontentlarni farqlash

ko‘nikmalarini o‘rgatadi.

Media savodxonlik yoshlarning virtual makondagi xavfsizligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish

Tanqidiy fikrlash insonning mustaqil ravishda xulosa chiqarishi va axborotlarni tahlil qila olish qobiliyatidir. Tyutor turli interaktiv metodlar, munozaralar va muammoli vaziyatlar orqali talabalarda analitik tafakkurni rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- manipulyatsiyalarga qarshi turish;
- mustaqil qaror qabul qilish;
- obyektiv fikrlash;
- dalillarga asoslangan xulosa chiqarish.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyat

Tyutor yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash maqsadida turli ma’rifiy tadbirlarni tashkil etadi. Jumladan:

- davra suhbatlari;
- seminar-treninglar;
- vatanparvarlik tadbirlari;
- kitobxonlik loyihalari

yoshlarning ma’naviy barkamolligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ma’naviy jihatdan yetuk yoshlar turli zararli g‘oyalarga nisbatan barqaror bo‘ladi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash

Axborot bosimi natijasida yoshlar orasida stress va emotsional zo‘riqish holatlari kuzatiladi. Tyutor bunday vaziyatlarda talabalar bilan individual ishlash orqali ularning psixologik holatini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Psixologik yordam quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- suhbat va maslahatlar;
- motivatsion qo‘llab-quvvatlash;
- emotsional muammolarni aniqlash;
- mutaxassisga yo‘naltirish.

Xulosa qilib aytganda, axborot xurujlari zamonaviy jamiyatning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, yoshlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanishi ularni turli mafkuraviy va psixologik tahdidlarga nisbatan zaif qatlamga aylantirmoqda.

Mazkur jarayonda tyutorlarning pedagogik va psixologik faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Tyutor yoshlarni zararli axborotlardan himoya qilish, ularda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali sog‘lom axborot muhitini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, yoshlarning ma’naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash ham axborot tahdidlariga qarshi kurashning muhim omili hisoblanadi. Kelgusida ta’lim tizimida media pedagogika va axborot xavfsizligi masalalariga yanada kengroq e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son Farmoni//Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy bazasi, 04.07.2023 y., 06/231070441-son.

2. Abdullayeva O.D. Tyutor - universitetdagi "ota-ona". “Ma’naviy barkamol yoshlar yangi O‘zbekiston bunyodkori”. // Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent. 2024-yil, 16-may. B. 352-354.

3. Abdumutalibova M.M. Oliy ta’lim faoliyatida tyutorlik va fasilitatorlik faoliyatini tashkil etishning mohiyati // Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 yil № 4). B. 349-353.

4. Суханова Е.А. Возможности тьюторской деятельности в общеобразовательной школе // Современная педагогика. – Нижний Новгород, 2018. – С. 135–140.

5. Tojiboyev M.N. Oliy ta’limda tyutor funksiyalarni amalga oshirish // Hozirgi taraqqiyot bosqichida jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarini tashkil qilishning istiqbollari: muammo va yechimlar. Xalqaro miqiyosidagi ilmiy amaliy-anjuman. Toshkent. 2022- yil, 28-29 aprel. B. 1079-1081.

6. Челнокова Е.А., Набиев Р.Б. Внедрение тюторской деятелности в образователное пространство высшего учебного заведения. // «Вестник Мининского университета» 2014 – №4. С. 16-21.

ILMIY TADQIQOTCHILARDA PROKRASTINATSIYA MUAMMOSI VA UNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Tillayeva Nodira Iskandar qizi
Toshkent Amaliy fanlar unversiteti
Psixologiya kafedra o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda ilmiy tadqiqotchilar faoliyatida uchraydigan prokrastinatsiya (ishlarni keyinga surish) muammosi, uning psixologik sabablari hamda ilmiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, prokrastinatsiyani kamaytirishning asosiy usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ilmiy ishlarni kechiktirish ko‘pincha motivatsiya yetishmasligi, mukammallik (perfectionism), stress va vaqtni boshqarishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq.

Kalit so‘zlar: prokrastinatsiya, ilmiy faoliyat, motivatsiya, stress, vaqtni boshqarish, produktivlik.

Аннотация. В данной диссертации анализируется проблема прокрастинации (откладывания дел на потом), с которой сталкиваются научные исследователи, ее психологические причины и влияние на научную продуктивность. Также освещаются основные методы снижения прокрастинации. Согласно исследованию, отсрочка академической работы часто связана с отсутствием мотивации, перфекционизмом (перфекционизмом), стрессом и трудностями в управлении временем.

Ключевые слова: прокрастинация, научная деятельность, мотивация, стресс, тайм-менеджмент, продуктивность.

Abstract. This thesis analyzes the problem of procrastination (putting off work) that researchers encounter in their work, its psychological causes, and its impact on scientific productivity. It also highlights the main methods for reducing procrastination. Research has found that delaying scientific work is often associated with lack of motivation, perfectionism (perfectionism), stress, and difficulties in time management.

Keywords: procrastination, scientific activity, motivation, stress, time management, productivity.

Psixologiyada prokrastinatsiya tushunchasi — ma’lum bir insonning, biror ishni juda muhim va shoshilinch bo‘lishiga qaramay, doimiy tarzda ortga surib boraverishini anglatadi. «Prokrastinatsiya» so‘zining kelib chiqishi ham *procrastinare* — «ertaga qoldirish» so‘zidan kelib chiqqan. Ammo bu shunchaki ishni ortga surish emas. Bunday holat, odatda, insonni muammolarga boshlaydi, stress keltirib chiqaradi, samaradorligini pasaytiradi, aybdorlik xissini uyg‘otadi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi.

Ushbu sindromdan aziyat chekayotgan inson — «prokrastinator» deb ataladi. Aksariyat tadqiqotchilar bunday insonlarni ikki turga ajratadi:

- passiv — ular ishni ortga surishni xohlashmaydi, ammo baribir bunga yo‘l qo‘yishadi;

- aktiv — ular o‘zi anglagan holda ishlarni ortga suradi, chunki vaqt juda kam qolganida ishlarni samarali yakunlay oladi.

O‘z o‘rnida passiv prokrastinatorlar ham ikkiga — ikkilanuvchilarga, ya’ni xato qilishdan qo‘rqadiganlarga va qochuvchilarga, ya’ni boshqalardan o‘zining ishi haqidagi fikrlarini eshitishdan qo‘rqadigan insonlarga bo‘linadi.

Prokrastinatsiyaning dangasalikka aloqasi yo‘q. Chunki siz biror bir muhim vazifani chetga surgan holda boshqa ish bilan, aytaylik, oshxona jihozlarini taxlash bilan shug‘ullansangiz, sizni dangasa deb atash noto‘g‘ri bo‘ladi. Axir oshxonani tozalash yoki shu kabi boshqa yumushlar do‘stlar bilan vaqtichog‘lik qilish yoki film tomosha qilish degani emas. Ammo prokrastinatsiya doimo o‘zimizni yomon his qilishimizga, ya’ni o‘zimiz haqimizdagi fikrimizni salbiy tomonga o‘zgarishiga olib keladi.

Prokrastinatsiya — bu xarakteringizning o‘ziga xos nuqsoni yoki o‘z vaqtingizni boshqarish borasidagi layoqatsizlik bilan emas, balki ayrim vazifalar oqibatida yuzaga kelgan murakkab hissiyotlar va salbiy kayfiyat, jumladan, zerikish, xavotirlilik, o‘z kuchingizga ishonmaslik, hafsalangizning pir bo‘lishidan qo‘rqish, tushkunlik, o‘zingizga past baho berish kabi alomatlar bilan kurasha olish bilan bog‘liqdir.

Zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning vaqtni to‘g‘ri taqsimlash va boshqarish qobiliyatiga bog‘liq. Ayniqsa, talabalar orasida vazifalarni kechiktirish – prokrastinatsiya muammosi keng tarqalgan bo‘lib, bu ularning o‘qish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Prokrastinatsiya – bu shaxsning muhim vazifalarni bajarishni kechiktirishi yoki ularni boshqa, kamroq ahamiyatli ishlar bilan almashtirishga moyilligidir. Bu holat ko‘pincha ichki qarama-qarshilik va psixologik noqulaylik bilan kechadi.

Prokrastinatsiya – bu zamonaviy talaba yoshlar orasida keng tarqalgan psixologik muammo bo‘lib, ularning o‘qish faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uni bartaraf etish uchun shaxsiy intizomni shakllantirish, motivatsiyani oshirish va vaqtni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, prokrastinatsiya hali ham o‘rganilmoqda va ushbu sindrom bo‘yicha olimlar o‘z faoliyatini olib bormoqdalar.

Zamonaviy ilm-fan tezkor rivojlanayotgan sharoitda tadqiqotchilardan yuqori samaradorlik va muntazam izlanish talab etiladi. Biroq ko‘plab ilmiy xodimlar ilmiy ishlarni bajarishda kechiktirish odatiga duch keladilar. Prokrastinatsiya ilmiy natijalarning sifati va muddatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammo ayniqsa doktorantlar va yosh tadqiqotchilar orasida keng tarqalgan.

Prokrastinatsiya – bu zarur vazifalarni ixtiyoriy ravishda kechiktirish yoki boshqa, uncha muhim bo‘lmagan faoliyat bilan almashtirish jarayonidir.

Ilmiy tadqiqotchilarda prokrastinatsiya sabablari: Yuqori stress va bosim (muddatlar, talablar), mukammallikka intilish (perfektsionizm), Motivatsiyaning pasayishi, ish hajmining murakkabligi, vaqtni noto‘g‘ri rejalashtirish, diqqatni chalg‘ituvchi omillar (ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar)

Oqibatlari

- Tadqiqot ishlarining kechikishi
- Ilmiy sifatning pasayishi
- Ruhiy charchoq va stress
- O‘z-o‘ziga ishonchning kamayishi
- Ilmiy faoliyat samaradorligining tushishi

Prokrastinatsiyani kamaytirish usullari

- Vaqtni boshqarish texnikalari (rejalashtirish)
- Maqsadlarni kichik bosqichlarga bo‘lish
- Ichki motivatsiyani oshirish
- Raqamli chalg‘ituvchi vositalarni cheklash
- Psixologik treninglar va o‘z-o‘zini nazorat qilish

Xulosa. Ilmiy tadqiqotchilarda prokrastinatsiya muammosi ilmiy samaradorlikka jiddiy to‘siq bo‘lib xizmat qiladi. Uni kamaytirish uchun individual psixologik yondashuv, samarali vaqt boshqaruvi va motivatsiyani oshirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotchilar o‘z ish uslubini optimallashtirgan holda ilmiy natijalarga tezroq va sifatli erishishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Procrastination: Why You Do It, What to Do About It Now — Burka, J., & Yuen, L. (2008). *Procrastination: Why You Do It, What to Do About It Now*. Cambridge, MA: Da Capo Press.
2. Timothy A. Pychyl — Pychyl, T. A. (2013). *Solving the Procrastination Puzzle: A Concise Guide to Strategies for Change*. New York: TarcherPerigee
3. BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO‘LISHI VA UNING MAKTAB O‘QUVCHILARGA BO‘LGAN TA’SIRI. (2025). *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI JURNALI*, *3*. https://doi.org/10.5281/zenodo.15641041
4. Ziyoda Xusanbayeva. (2025). TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA' SIRI. «Maktabgacha Va Maktab Ta'limi» Jurnali, 3(6), 5–9. https://doi.org/10.5281/zenodo.15641066–356 b.
5. IJTIMOIY TARMOQLARNING TALABA YOSHLAR RIVOJLANISHIGA SALBIY TA’SIRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI TNI Qizi - Eurasian Journal of Academic Research, 2024

KOGNITIV JARAYONLAR VA KOGNITIV KOMPETENTLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Togonova Shoxida Alisher qizi

Urganch davlat pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi katta o‘qituvchisi ps.f.f.d., (PhD).

Annotatsiya. Mazkur maqolada kognitiv jarayonlar va kognitiv kompetentlikning nazariy asoslari hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. Kognitiv jarayonlarning asosiy turlari – sezgi, idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutqning shaxsning kognitiv kompetentligini shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida kognitiv kompetentlikni rivojlantirishning samarali usullari va pedagogik shart-sharoitlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi kognitiv kompetentlikning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: kognitiv kompetentlik, kognitiv jarayonlar, tafakkur, xotira, diqqat, idrok, sezgi, nutq, ta’lim jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, tanqidiy fikrlash, metakognitsiya.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы когнитивных процессов и когнитивной компетентности, а также их взаимосвязь. Освещена роль основных видов когнитивных процессов - ощущения, восприятия, внимания, памяти, мышления и речи - в формировании когнитивной компетентности личности. Также рассмотрены эффективные методы и педагогические условия развития когнитивной компетентности в образовательном процессе. Результаты исследования подтверждают, что уровень развития когнитивных процессов оказывает прямое влияние на формирование когнитивной компетентности.

Ключевые слова: когнитивная компетентность, когнитивные процессы, мышление, память, внимание, восприятие, ощущение, речь, образовательный процесс, компетентностный подход, критическое мышление, метакогниция.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of cognitive processes and cognitive competence, as well as their interconnectedness. The role of the main types of cognitive processes—sensation, perception, attention, memory, thinking, and speech—in forming an individual's cognitive competence is highlighted. Additionally, effective methods and pedagogical conditions for developing cognitive competence in the educational process are examined. The research results confirm that the level of development of cognitive processes directly influences the formation of cognitive competence.

Keywords: cognitive competence, cognitive processes, thinking, memory, attention, perception, intuition, speech, educational process, competency-based approach, critical thinking, metacognition.

Kirish. Globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Zamonaviy mutaxassis nafaqat ma’lum bilimlarga ega bo‘lishi, balki olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishi, muammolarni tahlil qilishi, mustaqil fikrlashi va yangi bilimlarni o‘zlashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan kognitiv kompetentlikni rivojlantirish ta’limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Kognitiv kompetentlik insonning bilish faoliyatiga oid bilim, ko‘nikma va malakalari majmui bo‘lib, u axborotni qabul qilish, qayta ishlash, tahlil qilish, baholash va amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi. Ushbu kompetentlikning shakllanishi esa kognitiv jarayonlarning rivojlanganlik darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Bugungi kunda ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda kognitiv jarayonlar hamda kognitiv kompetentlikning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Kognitiv jarayonlar va kognitiv kompetentlik muammosi psixologiya, pedagogika hamda kognitiv fanlar doirasida keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning nazariy asoslari ko‘plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida yoritilgan bo‘lib, ular insonning bilish faoliyati, intellektual rivojlanishi hamda ta’lim jarayonidagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilganlar.

Kognitiv rivojlanish nazariyasining asoschilaridan biri J. Piaje hisoblanadi. Uning fikricha, insonning bilish faoliyati tug‘ma emas, balki rivojlanish jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Olim sensor-motor, operatsiyagacha bo‘lgan davr, konkret operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichlarini ajratib ko‘rsatgan. Piaje nazariyasiga ko‘ra, shaxs yangi bilimlarni avvalgi tajribasi bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘zlashtiradi. Assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari esa bilimlarning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kognitiv kompetentlikning rivojlanishi ham insonning faol bilish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir.

qo‘ymoqda. Bunday sharoitda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy moslashuvchanligi, innovatsion fikrlashi va professional o‘zini anglash darajasini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki kasbiy o‘zini anglashning yuqori darajasi shaxsning kasbiy qoniqishi, mehnat samaradorligi va professional barqarorligini ta’minlovchi muhim psixologik resurslardan biri hisoblanadi.

Shu munosabat bilan bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini ilmiy jihatdan o‘rganish, ushbu jarayonning psixologik mexanizmlarini aniqlash hamda uni rivojlantirishning samarali yo‘llarini ishlab chiqish nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglashning shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni tahlil qilishga hamda ularning kasbiy rivojlanishidagi o‘rnini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglash shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari zamonaviy psixologiya, pedagogika va tibbiy ta’lim sohalarida dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki hamshiralik faoliyati nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni, balki yuksak darajadagi mas’uliyat, empatiya, kommunikativ kompetentlik, kasbiy identifikatsiya va o‘z kasbiy rolini chuqur anglashni ham talab qiladi. Shu sababli mazkur muammo yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda kasbiy o‘zini anglashning shakllanish mexanizmlari, uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni hamda ijtimoiy-psixologik determinantlari keng o‘rganilgan.

Kasbiy o‘zini anglash muammosining nazariy asoslari avvalo xorijiy psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan. Shaxsning o‘zini anglash konsepsiyasi psixologiyada U.Jeyms, Ch.Kuli va J.Mid tadqiqotlari bilan bog‘liq holda rivojlangan. Ularning fikricha, insonning o‘zi haqidagi tasavvurlari jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi. Ayniqsa, Midning “ijtimoiy Men” nazariyasi kasbiy o‘zini anglashni tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Olimning ta’kidlashicha, shaxs o‘z kasbiy rolini ijtimoiy tajriba va atrofdagilarning munosabati orqali anglaydi. Bu esa bo‘lajak tibbiyot hamshiralarining kasbiy identifikatsiyasi ta’lim muhiti, pedagoglar, tibbiyot xodimlari va bemorlar bilan muloqot jarayonida shakllanishini ko‘rsatadi.

Kasbiy o‘zini anglashning rivojlanish bosqichlarini tushuntirishda E.Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Erikson shaxs taraqqiyotining muhim bosqichlaridan biri identiklikni shakllantirish ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yoshlik davrida inson o‘zining kelajakdagi kasbiy mavqeini aniqlashga intiladi va bu jarayon muvaffaqiyatli kechgan taqdirdagina mustahkam kasbiy identiklik shakllanadi. Bo‘lajak hamshiralarda kasbiy o‘zini anglashning rivojlanishi ham aynan kasbiy identiklikning shakllanish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Kasbiy rivojlanish masalalari amerikalik olim D.Super tomonidan keng tadqiq etilgan. U kasbiy taraqqiyotni butun hayot davomida kechadigan jarayon sifatida baholab, kasbiy “Men-konsepsiyasi” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan. Superning fikricha, inson kasb tanlash va kasbiy faoliyat davomida o‘zining qobiliyatlari, qadriyatlari hamda imkoniyatlarini baholab boradi. Tibbiyot hamshiralari faoliyatida ham kasbiy “Men” obrazi shakllanishi professional motivatsiya va kasbiy qoniqishning muhim omili hisoblanadi.

Xorijiy olimlardan J.Xolland kasbiy tanlov va shaxs tipologiyasi nazariyasini ishlab chiqib, kasbiy muvaffaqiyat shaxs xususiyatlari bilan kasbiy muhit o‘rtasidagi moslikka bog‘liqligini asoslab bergan. Hamshiralik kasbi asosan ijtimoiy tipdagi faoliyatga mansub bo‘lib, insonlarga yordam berishga intilish, altruizm, hamdardlik va kommunikativlik kabi sifatlarni talab qiladi. Shu sababli bo‘lajak hamshiralarda ushbu sifatlarning rivojlanganligi kasbiy o‘zini anglashning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Gumanistik psixologiya vakillari A.Maslou va K.Rodjers tadqiqotlarida ham kasbiy o‘zini anglash masalalari muhim o‘rin egallaydi. Maslou o‘zini namoyon qilish ehtiyojini inson rivojlanishining eng yuqori bosqichi sifatida talqin etadi. Rodjers esa shaxsning o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi va “real Men” hamda “ideal Men” o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash muhimligini ta’kidlaydi. Ushbu qarashlar bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy

kompetentlik va o‘z kasbiga sodiqlik hissining shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hamshiralik faoliyatining psixologik jihatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan P.Benner hamshiralarning kasbiy rivojlanishini “novisdan ekspertgacha” bo‘lgan bosqichlar orqali izohlaydi. Olimning ta’kidlashicha, kasbiy o‘zini anglash amaliy tajriba orttirish jarayonida izchil rivojlanib boradi. Talabalik davrida shakllangan kasbiy tasavvurlar klinik amaliyot davomida yanada mustahkamlanadi va shaxsning professional identifikatsiyasiga aylanadi.

Rus psixologiya maktabida kasbiy o‘zini anglash va professional rivojlanish muammolari keng o‘rganilgan. K.A.Abulxanova-Slavskaya shaxsning hayotiy faoliyat subyekti sifatidagi pozitsiyasini tadqiq etib, kasbiy faoliyat insonning o‘zini namoyon etish maydoni ekanligini ta’kidlagan. Uning fikricha, shaxsning kasbiy o‘zini anglash darajasi uning faol hayotiy pozitsiyasi va o‘z faoliyatiga mas’uliyatli munosabati bilan belgilanadi.

A.K.Markova kasbiy shakllanish jarayonini o‘rganar ekan, kasbiy o‘zini anglashni professionalizmning muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflaydi. Olimaning ta’kidlashicha, kasbiy o‘zini anglash o‘z kasbining mazmunini tushunish, kasbiy maqsadlarni anglash va o‘z imkoniyatlarini real baholash orqali shakllanadi. Markova bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy motivatsiyasi, refleksiyasi va kasbiy qadriyatlari rivojlanishi professional o‘zini anglashning asosiy shartlari ekanligini ko‘rsatadi.

E.A.Klimov kasbiy faoliyat psixologiyasiga oid tadqiqotlarida kasb tanlash va kasbiy identifikatsiya jarayonlariga alohida e’tibor qaratgan. U kasbiy rivojlanishning muvaffaqiyati insonning individual xususiyatlari va kasbiy talablar o‘rtasidagi moslikka bog‘liqligini asoslagan. Tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglash shakllanishida ham aynan shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va kasbiy muhitning uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi.

L.M.Mitina kasbiy rivojlanishning psixologik mexanizmlarini o‘rganib, refleksiya va o‘zini baholash jarayonlarini kasbiy o‘sishning asosiy omillari sifatida baholaydi. Uning fikricha, mutaxassisning o‘z faoliyatini tahlil qila olishi, muvaffaqiyat va kamchiliklarini anglab yetishi kasbiy o‘zini anglashning rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu holat ayniqsa klinik amaliyot jarayonida bo‘lajak hamshiralar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Yu.P.Povarenkov, V.D.Shadrikov va N.S.Pryajnikov kabi olimlar ham kasbiy identifikatsiya, professional motivatsiya va kasbiy o‘zini belgilash muammolarini tadqiq qilib, kasbiy o‘zini anglashning shakllanishida motivatsion, kognitiv va emotsional omillarning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlari bo‘lajak hamshiralarning kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishda ta’lim muassasasi, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va amaliy tajriba muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda tibbiy ta’lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham bo‘lajak hamshiralarning kasbiy o‘zini anglashiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar sifatida kasbiy motivatsiya, empatiya, kommunikativ kompetentlik, stressga chidamlilik, kasbiy qadriyatlar, ta’lim muhiti, mentorlik faoliyati, klinik amaliyot sifati hamda kasbiy refleksiyani ajratib ko‘rsatmoqda. Tadqiqotchilar talabaning o‘z kasbiy rolini chuqur anglashi uning kasbiy moslashuvi, bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatishi va kelajakdagi professional muvaffaqiyatining muhim prediktori ekanligini ta’kidlaydilar.

Shunday qilib, rus va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglash shakllanishi murakkab va ko‘p omilli psixologik jarayon bo‘lib, unda kasbiy identifikatsiya, motivatsiya, refleksiya, empatiya, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim muhiti va amaliy faoliyat tajribasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillarning uyg‘un rivojlanishi bo‘lajak hamshiralarning kasbiy yetukligi, kasbiy barqarorligi va professional faoliyat samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik asos hisoblanadi.

Xulosa. Bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglashning shakllanishi zamonaviy tibbiy ta’lim tizimining eng muhim psixologik va pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki hamshiralik faoliyati inson salomatligi, hayoti va ruhiy holati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu kasb egalaridan nafaqat yuqori darajadagi nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, balki kasbiy

mas’uliyat, insonparvarlik, empatiya, kommunikativ madaniyat hamda o‘z kasbiy rolini chuqur anglashni ham talab etadi. Shu nuqtai nazardan, kasbiy o‘zini anglash bo‘lajak hamshiraning professional shakllanishida asosiy psixologik omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotlar va nazariy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kasbiy o‘zini anglashning rivojlanishi shaxsning individual xususiyatlari hamda uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit ta’sirining o‘zaro uyg‘unligi natijasida yuzaga keladi. Xususan, kasbiy motivatsiya, o‘zini baholash darajasi, refleksiv qobiliyatlar, empatiya, kasbiy qadriyatlar va ijtimoiy faollik kabi ichki omillar bilan bir qatorda ta’lim muhiti, pedagoglarning kasbiy namunalari, klinik amaliyot sifati, guruhdagi psixologik iqlim va jamiyatning tibbiyot kasbiga bo‘lgan munosabati kabi tashqi omillar ham mazkur jarayonning samaradorligini belgilaydi. Ushbu omillarning ijobiy ta’siri natijasida talabalarda kasbiy identifikatsiya mustahkamlanadi, o‘z kasbiga nisbatan mas’uliyat hissi kuchayadi va professional rivojlanishga bo‘lgan ehtiyoj shakllanadi.

Bo‘lajak tibbiyot hamshiralarining kasbiy o‘zini anglash darajasi ularning kelgusidagi kasbiy faoliyat sifati bilan bevosita bog‘liqdir. O‘z kasbining mazmuni va ijtimoiy ahamiyatini chuqur anglagan hamshira bemorlar bilan samarali muloqot o‘rnatishga, murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga hamda kasbiy stresslarni muvaffaqiyatli yengib o‘tishga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga, kasbiy o‘zini anglashning rivojlanganligi mutaxassisning kasbiy qoniqishi, kasbga sodiqligi va uzluksiz o‘z ustida ishlashga bo‘lgan intilishini kuchaytiradi.

Shuningdek, kasbiy o‘zini anglashning shakllanishi talabalik davridayoq maqsadli ravishda qo‘llab-quvvatlanishi lozim bo‘lgan jarayon ekanligi aniqlandi. Bunda nazariy tayyorgarlik bilan amaliy faoliyatning uzviy integratsiyasi, refleksiv mashg‘ulotlar, psixologik treninglar, mentorlik dasturlari hamda kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, klinik amaliyot jarayonida talabalarni real kasbiy vaziyatlarga jalb etish ularda kasbiy “Men” konsepsiyasining shakllanishiga va o‘z imkoniyatlarini adekvat baholashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglashning shakllanishi murakkab, ko‘p bosqichli va uzluksiz davom etuvchi jarayon bo‘lib, uning muvaffaqiyati shaxsiy, ijtimoiy va ta’limiy omillarning o‘zaro uyg‘unlashuviga bog‘liqdir. Mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash nafaqat raqobatbardosh hamshira mutaxassislarni tayyorlashga, balki tibbiy xizmatlar sifati, bemorlar xavfsizligi va sog‘liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Shu bois bo‘lajak tibbiyot hamshiralarida kasbiy o‘zini anglashni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarni yanada kengaytirish va ularning natijalarini ta’lim amaliyotiga tatbiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .

1. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 1991. – 299 с.
2. Беннер П. От новичка до эксперта: совершенство и сила в клинической сестринской практике. – М.: Логосфера, 2014. – 272 с.
3. Выготский Л. С. Психология развития человека. – М.: Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с.
4. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов н/Д: Феникс, 1996. – 512 с.
5. Маркова А. К. Психология профессионализма. – М.: Международный гуманитарный фонд «Знание», 1996. – 312 с.
6. Митина Л. М. Психология развития конкурентоспособной личности. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2002. – 400 с.

MEHNAT FAOLIYATIDAGI MOTIVATSIYA VA DAXLDORLIKNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Y.K.Quliev *-Buxoro Davlat universiteti «Psixologiya va sotsiologiya» kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada xodimlarning motivatsiyasiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar, hamda ularning mehnat samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Daxldorlik xodimlarning mehnat motivatsiyasining bir qismi bo‘lib, ularning mehnat motivlarini yuzaga keltiradigan emotsional holati hisoblanadi. Maqolada shuningdek, daxldorlikning tarkibiy qismlari — sodiqlik,

ishonchlilik va joriy holatdan qoniqish tushunchalari ochib berilgan bo‘lib, ular xodimda o‘z ishiga va lavozim vazifalariga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga bog‘lovchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, daxldorlik tushunchasi ham ochib berilgan, chunki aynan xodimlar tashkilot tuzilmasidagi asosiy zanjirlardan biri bo‘lib, ularning bajargan ish sifati korxona muvaffaqiyati va daromadiga bog‘liqdir.

Kalit so‘zlar: xodimlarning motivatsiyasi, mehnat motivatsiyasi, xodimlarning daxldorligi, daxldorlik belgilari, sodiqlik, ishonchlilik, mas’uliyat, kompaniya muvaffaqiyati.

Abstract. This article analyzes the internal and external factors that affect employee motivation, as well as their impact on labor efficiency. Engagement is a part of employee motivation and is an emotional state that generates their labor motives. The article also reveals the components of engagement - loyalty, reliability, and satisfaction with the current situation, which play a connecting role in the formation of a positive attitude in an employee towards his work and job responsibilities. At the same time, the concept of engagement is also revealed, since it is employees who are one of the main links in the organizational structure, and the quality of their work depends on the success and income of the enterprise.

Key words: employee motivation, work motivation, employee involvement, signs of involvement, loyalty, reliability, responsibility, company success.

Motivatsiya xodimlarning mehnat samaradorligini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi. Yaxshi motivatsiyaga ega xodimlar yuqori natijalarni ko‘rsatadi, tashabbus ko‘rsatadi va ish jarayonida daxldorlikni saqlaydi. Motivatsiyaning ahamiyati faqat samaradorlikni oshirish bilan cheklanmaydi, u xodimning o‘z faoliyatiga munosabatini shakllantiradi, bu esa jamoadagi umumiy kayfiyat va ishdan qoniqish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik jihatlar, masalan, shaxsiy xususiyatlar, emotsional holat va ijtimoiy muhit motivatsiyada muhim rol o‘ynaydi. Ushbu jihatlar ichki va tashqi motivatsiya omillari bilan qanday o‘zaro ta’sirlashishini tushunish ish beruvchilar va menejerlarga mehnat jarayonini yaxshiroq tashkil etish va xodimlar samaradorligini maksimal darajaga yetkazishda yordam beradi. Ko‘plab, asosan xorijiy- tadqiqotlarga qaramasdan, mehnat faoliyati motivatsiyasi mavzusi hozirgi zamon kadrlarni boshqarish fanlarida dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Hozirgi kunda boshqaruv va menejment sohasida xodim tashkilot tuzilmasidagi asosiy zanjirlardan biri ekanligi haqidagi fikr keng tarqalmoqda, chunki aynan unga va uning bajarayotgan ish sifatiga bog‘liq ravishda korxona muvaffaqiyati va daromadi belgilanadi. Xodimlarning daxldorligi va uning teskari holati — charchoq (vыgoranie) tashkilotlar va korxonalar rahbarlari diqqat markazida. Bu xodimlarning xulq-atvori va natijalari menejerlar uchun kamroq aniq bo‘lib borayotganini ko‘rsatadi. Har bir ish beruvchi oldida mehnat sharoitlarini optimallashtirish, ish uchun qulay muhit yaratish, kadrlar aylanmasini kamaytirish hamda xodimlarni tashkilot faoliyatini yaxshilash jarayonlariga daxldor qilish vazifasi turibdi.

Kompaniya belgilagan maqsadlarga erishish uchun, avvalo, ish beruvchi xodimlarni motivatsiyalashi lozim, bu esa ularning mavjud ehtiyojlarini qondirishga olib keladi. Tashkilotda motivatsiya jarayoni — bu faoliyatga undash jarayoni bo‘lib, tashqi va ichki omillar ta’sirida mehnat xulqining motivlarini shakllantirishga qaratilgan. Xodimlarning ijtimoiy ahamiyatga ega ehtiyojlarini qondirish va keyinchalik ularda mehnat motivlarini shakllantirishning muhim sharti — mehnat motivatsiyasidir. Bu mexanizmda faol mehnat faoliyati, undan olingan va oldindan belgilangan natijalar bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir butunning qismlari sifatida faoliyat yuritadi.

Motivatsiyada ikki asosiy shakl ajratiladi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya xodimning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlariga asoslangan maqsadga intilishni anglatadi. Masalan, o‘zini takomillashtirishga intilish, kasbiy faoliyatga qiziqish, o‘z salohiyatini amalga oshirish istagi kiritiladi. Tashqi motivatsiya esa xodim shaxsidan tashqari omillar bilan bog‘liq. Bu moddiy rag‘bat, karera o‘sishi, hamkasblar va rahbariyatning tan olishi bo‘lishi mumkin. Masalan: bonuslar, mukofotlar, ijobiy fikrlar [1].

Ichki motivatorlarga o‘zini rivojlantirish istagi (yangi bilimlarni qidirish, malaka oshirish), maqsadlarga erishish (kasbiy va shaxsiy), shuningdek bajarilgan ishdan qoniqish hissi kiradi. Masalan, karera rivojiga va kasbiy o‘sishga intilayotgan xodimlar ko‘pincha yuqori samaradorlik

va tashabbuskorlik ko‘rsatadilar. Bu motivlar tashqi mukofotlarsiz ham natijalarga erishish uchun katalizator bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ichki ehtiyojlar, masalan, o‘zini rivojlantirish, o‘zini ifoda etish va shaxsiy maqsadlarga erishish istagi motivatsiya va mehnat samaradorligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi asosiy ehtiyojlarning (fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy aloqa) qondirilishi yuqori darajadagi ehtiyojlarga (hurmat, o‘z-o‘zini ro‘yobga chiqarish) intilishga olib kelishini tushunish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘z ichki ehtiyojlari qondirilgan xodim ish jarayonida ancha samarali va daxldor bo‘ladi [2]. Psixologik jihatlar xodimlarni motivatsiyalashda muhim ahamiyatga ega. Xodimning maqsadlari, qadriyatlari va munosabatlari mehnatga bo‘lgan munosabat, motivatsiya va mehnat xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, o‘z oldiga yuqori maqsadlar qo‘ygan xodimlar odatda yuqori samaradorlikni ko‘rsatadilar.

Temperament, psixotip va xodimlarning shaxsiy xususiyatlari ularning motivatsiyasi va mehnat samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan hamda javobgarlik va sadoqatdek sifatlarga ega odamlar ko‘proq yuqori darajada samaradorlik va motivatsiyani namoyish etadilar [2]. Temperament insonning stress vaziyatlariga qanday munosabatda bo‘lishini va ish talablariga qanday moslashishini belgilashi mumkin. Masalan, ekstravertlar ko‘proq muloqot va jamoada ishlashga moyil bo‘lib, bu kollektiv muhitini yaxshilashga va umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Qarshi tomonda, introvertlar mustaqil ishlashni afzal ko‘rishlari mumkin va ularga optimal motivatsiya darajasiga erishish uchun boshqa turdagi yordamlar kerak bo‘lishi mumkin.

Emotsional holat mehnat samaradorligida muhim rol o‘ynaydi. Stress va turli salbiy emotsional holatlar motivatsiya darajasini sezilarli darajada pasaytirishi, diqqatni kamaytirishi va ish samaradorligini yomonlashtirishi mumkin. Xodimlar xronik stress holatida bo‘lsa, ularda ishdan charchash (vыgoranie) paydo bo‘lishi mumkin, bu esa samaradorlikning pasayishiga va ish sifati yomonlashishiga olib keladi.

Boshqa tomondan, ishdan qoniqish yuqori bo‘lishi mehnat samaradorligi va daxldorlikni oshiradi. Baxtli xodimlar, o‘z ishlaridan qoniqish his qilganlar, tashabbuskorlik, ijodkorlik va jamoa birligiga ko‘proq moyil bo‘ladilar [1]. Endilikda tashqi motivatsiya omillarini ko‘rib chiqamiz, masalan moddiy rag‘batlar, tashkilotchilik va ijtimoiy omillar.

Moddiy rag‘batlar – raqobatbardosh maosh, bonuslar va boshqa moliyaviy rag‘batlantirishlar – xodimlarni motivatsiyalash tizimida muhim o‘rin tutadi. Bu omillar, ayniqsa qisqa muddatda samaradorlikni oshirish uchun kuchli stimul bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Biroq, moddiy rag‘batning samaradorligi xodimlarning individual afzalliklariga qarab o‘zgarishi mumkin. Ayrimlar uchun moliyaviy mukofotlar muhimroq bo‘lsa, boshqalar ichki motivatorlar — tan olinish va shaxsiy rivojlanish kabi omillarni yuqori baholashlari mumkin. Tashkiliy omillar, masalan ish muhiti, tashkilotning tuzilishi va rahbarlik uslubi xodimlarning motivatsiya darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Qulay va xavfsiz ish muhiti, aniq boshqaruv tuzilmasi va ochiq kommunikatsiya samarali ish muhitini yaratishga yordam beradi. Korporativ madaniyat motivatsiya shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. U umumiy qadriyatlar, normalar va amaliyotlarni belgilaydi, ular xodimlarning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashi yoki pasaytirishi mumkin. Ichki ehtiyojlarga mos keladigan ijobiy korporativ madaniyatga ega tashkilotlar ko‘proq yaxshi natijalarga erishadilar.

Mavjud adabiyot va materiallarni o‘rganishda, ushbu muammo bo‘yicha qo‘shimcha ravishda uch turdagi motivatsiyani ajratish mumkin:

1. Normativ motivatsiya — ishchining muayyan xulq-atvorga harakatlantirilishiga ishonch, ta’sir, ma’lumot berish va psixologik ta’sir o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi;

2. Majburiy motivatsiya — xodimning talablarga amal qilmasligi holatida uning ehtiyojlari qondirilishining yomonlashishi tahdidi va vakolatlardan foydalanish orqali;

3. Stimullar orqali motivatsiya — ta’sir shaxsga emas, balki uning atrofidagi tashqi muhitga, stimullar yordamida, xodimni muayyan xulq-atvorga harakatlantirishga qaratilgan.

Aytish joizki, ko‘p hollarda shaxsga faqat tashqi ta’sir yetarli bo‘lmaydi. Ish beruvchi ichki motivatsiya uchun shart-sharoit yaratishi zarur, u shaxsning o‘z ichki xulq-atvorini tartibga soladi.

Ushbu yo‘nalishda tashkilot samaradorligining asosiy tushunchasi — «daxldorlik» tushuniladi. Xodimlarning daxldorligi — bu xodimlarning o‘zlarini tashkilotning bir qismi sifatida anglashi, uning qadriyatlari, korporativ prinsiplari va missiyasini qabul qilishi va o‘zlashtirishi. Bu — shaxsning oldiga qo‘yilgan vazifalarni ko‘proq bajarishga, maksimal kuch va imkoniyatlarini safarbar qilishga bo‘lgan istak va intilishidir. Buyuk Britaniyaning CIPD tadqiqot instituti xodimlarning «daxldorligi»ni vazifaga konsentratsiya, o‘z roliga qoniqish hamda tashkilotga va uning maqsadlari hamda qadriyatlariga sadoqat sifatida tushunadi [4].

Daxldorlik borasida turli fikrlar tabiiydir, chunki ushbu fenomenning tabiati murakkab. Hozirga qadar daxldorlikning yagona ta’rifi yo‘q va bu hozirgi kunda muhim tadqiqot vazifasidir. Mavjud ta’riflarni tahlil qilganimizda, daxldorlikni ko‘p o‘lchamli tuzilma sifatida qabul qilamiz, u faoliyatni bajarishda sarflangan harakat va energiya darajasini aks ettiradi. Shuningdek, bajarilayotgan faoliyat bilan bog‘liq bo‘lgan emotsional his-tuyg‘ular, kognitiv, motivatsion va ma’noviy jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Daxldorlik — bu shaxsning faoliyatdagi faollik darajasi bilan belgilanadi va dinamik xususiyatga ega.

Daxldor bo‘lish — bu insoniyatning kelajagi uchun o‘z mas’uliyatini anglashdir; daxldorlik erkinlikdan voz kechish sifatida namoyon bo‘lmaydi, u inson erkinligini amalga oshirishning, shaxsiy hayotni ro‘yobga chiqarishning asosidir. Daxldorlik — bu ajratilishning dialektik kategoriyasidir. Ushbu kategoriyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tadqiq qilish ko‘rib chiqilayotgan fenomenlar haqida to‘liqroq tasavvurga erishish imkonini beradi. Ajratilish — bu falsafiy kategoriya bo‘lib, u «ijtimoiy jarayonni» ifodalaydi, unda insonlar faoliyati natijasi va mahsulotlari mustaqil kuchga aylanib, o‘z yaratuvchilaridan yuqori bo‘ladi va ularni bosib oladi.

Z. Freyd shaxs o‘zining ajralib qolishining haqiqiy sababini tushuna olmasligini ta’kidlaydi. Bu ajralib qolish madaniyat va qoidalar bosimi ostida yuzaga keladi hamda boshlang‘ich ehtiyojlar bilan ziddiyatga kirishadi. Ongli va ongsizning ziddiyati aynan ushbu ajralib qolishda namoyon bo‘ladi. Vovlechennost (daxldorlik) va uning muammosiga falsafiy yondoshuv fenomenni falsafiy va tarixiy nuqtai nazardan tushunishga imkon beradi. Falsafiy yondoshuv ijtimoiy hayotga daxldor bo‘lgan insonni ko‘rib chiqadi; shu bilan birga, daxldorlik jarayoni insonning ijodiy tabiati ochilishi sifatida ta’kidlanadi. Shu tariqa, falsafiy ta’limotlarda daxldorlik tushunchasini o‘rganish uning ijtimoiy tabiatiga oydinlik kiritadi va daxldorlik ijtimoiy o‘zaro ta’sirda shakllanishini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, J.-J. Russo g‘oyalari bizga yaqin: agar daxldorlik namoyon bo‘lmasa yoki shakllanmasa, bu shaxsning ichki ziddiyatlari yoki shaxs va jamiyat munosabatlaridagi qarama-qarshiliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Daxldorlik muayyan ijtimoiy kontekstda, individning boshqa insonlar bilan o‘zaro ta’siri jarayonida shakllanadi va ijtimoiy-psixologik tabiatga ega. Daxldorlik har doim ijtimoiy o‘zaro ta’sir natijasi bo‘lib, ijtimoiy o‘zaro ta’sirsiz shakllanmaydi. (Insonning tabiat bilan o‘zaro ta’siri kabi alohida faoliyat jarayonida insonda hayrat va qiziqish shakllanishi mumkin.) Daxldorlikning shakllanish tabiatini tahlil qilganda, uning shaxs ehtiyojlari bilan bog‘liqligini qayd etish lozim, bunda shaxs bu ehtiyojlarni har doim anglamasligi mumkin.

Shaxs o‘z ehtiyojlarini qondirishni kutib, ma’lum bir faoliyatda muayyan kuch sarflaydi, faollik ko‘rsatadi va ijodiy moslashuvni namoyon qiladi. Daxldorlik — bu ichki ruhiy jarayon bo‘lib, inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladi va tashqi kuzatilishi mumkin bo‘lgan ko‘rinishlarga ega. Ichki jarayonlar emotsional his-tuyg‘ular, motivlar, shaxsiy ma’nolarda ifodalanadi. Tashqi ko‘rinishlar esa sarflangan kuch miqdorida aks etadi.

Daxldorlik turli darajada bo‘lishi mumkin: zaif daxldorlikdan kuchli daxldorlikkacha. Zaif daxldorlik ma’lum bir faoliyatga diqqatning noto‘g‘ri yoki noto‘liq jamlanishi hamda past darajada qatnashishni ifodalaydi. Kuchli daxldorlik esa muayyan faoliyatga diqqatning barqaror jamlanishi va yuqori darajada ishtirok etish bilan, chalg‘imasdan namoyon bo‘ladi. Shuningdek, daxldorlik turli darajada barqaror bo‘lishi mumkin: vaqtinchalik yoki uzoq muddatli.

Alohida zararli (destruktiv) daxldorlik shaklini ajratish mumkin, u insonning bir xil faoliyatga uzoq muddatli juda qattiq birikishi bilan bog‘liq bo‘lib, turli turdagi mahdudliklar va o‘zgarishlarni ko‘rsatishi mumkin.

Daxldorlik va motivatsiya tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi haqida haligacha bir xil fikr mavjud emas. Ayrim tadqiqotchilar bu tushunchalarni bir xil, ya’ni teng deb hisoblaydilar. Biz A. Astinning nuqtai nazarini yaqin deb hisoblaymiz, u daxldorlikning xulq-atvoriy jihatiga urg‘u beradi va shu bilan bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib beradi.

Daxldorlik va jalb qilish ko‘pgina xorijiy tadqiqotlarda bir xil atama — “engagement” so‘zi bilan ifodalangan bo‘lsa-da, bizning fikrimizcha, bu ikki tushunchani farqlash lozim, chunki daxldorlik va jalb qilishning shakllanish mexanizmi turlichadir. Inson doimo boshqalar bilan muloqot jarayonida (ijtimoiy kontekstda) daxldor bo‘ladi, ya’ni daxldorlik hamisha hamkorlikdagi faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi. Jalb qilish esa ijtimoiy kontekstdan tashqarida — individual faoliyat jarayonida ham shakllanishi mumkin. Lug‘atlarda ham “daxldor bo‘lish” va “jalb qilish” (vovlech – uvlech) atamalarining ma’nolaridagi farqni ko‘rish mumkin. Jalb qilishni “potok holati” bilan taqqoslash mumkin. Bunday holatdagi inson qo‘shimcha rag‘batga yoki maqsadga muhtoj emas. U faoliyat jarayonining o‘ziga shunchalik sho‘ng‘ib ketadiki, vaqt va ish rolini unutadi, butun diqqatini bajarilayotgan ishga qaratadi, eng yuqori darajadagi jamlanganlikni namoyon etadi.

Daxldorlik va “potok holati” konstruksiyasi o‘rtasidagi yana bir farq shundaki, daxldorlik faoliyat bilan uzoq muddatli munosabatni anglatadi va u turli kontekstlarda namoyon bo‘lishi mumkin. “Qatnashish” (vklyuchyonnost) insonning faoliyatni bajarish jarayonidagi diqqatning vaziyatli jamlanishini va faolligini aks ettiradi. Daxldorlik ham insonning diqqati va faolligini qamrab oladi, ammo bu tushuncha shuningdek emotsional, motivatsion va qadriyatli jihatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar “qatnashish” tushunchasida mavjud emas. Daxldorlik va diqqat bir-biri bilan bog‘liq kognitiv jarayonlar hisoblanadi, ammo ular bir xil emas; kognitiv tarkibiy qism — daxldorlikning faqat bir komponentidir.

Daxldorlik va qoniqish o‘zaro yaqin bog‘liq: faoliyatni bajarish jarayonida qoniqish hissini kechirish shaxsning daxldorligini mustahkamlaydi; shuningdek, daxldorlik holati ham faoliyat samaradorligiga va uni bajarish jarayoni hamda natijasidan qoniqish hissiga hissa qo‘shadi.

Daxldorlik va sadoqat (loyallik) — bu bir-biridan farq qiluvchi, ammo ayrim komponentlari o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan fenomenlardir. Daxldorlik loyallikning emotsional tarkibiy qismi sifatida ajralib turadi (tashkilot bilan aydentfikatsiya va unga emotsional bog‘lanish bilan birgalikda). Shuni ta’kidlash lozimki, xodimning daxldorligi yuqori darajada namoyon bo‘lgan holatlarda ham uning loyallik darajasi past bo‘lishi mumkin. Bu esa loyallik va daxldorlik o‘rtasidagi bog‘lanish bir ma’noli emasligini va alohida ilmiy tadqiqotlarni talab qilishini ko‘rsatadi.

Daxldorlik va faollik ierarxik tashkil etilgan bo‘lib, ular shaxsning motivlari va bajarayotgan faoliyatiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Har ikki tushuncha faoliyatning dinamik tabiatiga ishora qiladi. Ko‘pgina xorijiy tadqiqotchilar daxldorlikni inson xulqida namoyon bo‘ladigan faollik darajasi orqali ta’riflaydilar. Shuni ta’kidlash joizki, sub’ekt faolligi inson hayotining ayrim sohalarida namoyon bo‘ladi, bunda shaxs o‘zining daxldorlik darajasini, ya’ni shaxsiy ijodkorlik va maqsadlarga erishishdagi ishtiroki chegarasini belgilaydi [4]. Bizning fikrimizcha, daxldorlik va faollik bir xil tushunchalar emas: faollik — daxldorlikning xulq-atvoriy tarkibiy qismi bo‘lib, daxldorlik esa motivatsion va qadriyatli komponentlarni ham o‘z ichiga oladi va ko‘proq integral tushuncha hisoblanadi.

Ayrim mualliflar daxldorlikning “antipodlari”ni ham ajratib ko‘rsatadilar: daxldor bo‘lmaslik, ishdan charchash (vыgoranie), va begonalashish (otchujdenie). Daxldorlikni ishdan charchashning (vыgoranie) ijobiy antipodi sifatida ko‘rish mumkin. Agar daxldorlik ishga nisbatan xodimning xulqini tavsiflovchi ijobiy fenomen sifatida namoyon bo‘lsa, uning salbiy ko‘rinishi — bu ishdan charchashdir. K. Maslax [3] fikricha, daxldorlikning asosiy tarkibiy qismlari — bu faollik, daxldorlik va samaradorlik bo‘lib, ular ishdan charchashga ziddir. Ishdan charchash fenomeni daxldorlikni yo‘q qiluvchi manba sifatida qaraladi: u faollikni — xastalik va charchashga, daxldorlikni — sinizmga, samaradorlikni — samarasizlikka aylantiradi. V. Shaufeli esa daxldorlikni ishdan charchashning to‘liq antipodi emas, balki mustaqil ravishda mavjud

bo‘lgan hodisa sifatida ko‘rishni taklif etgan. U daxldorlikni ish bilan bog‘liq, ijobiy va qoniqish keltiruvchi holat sifatida ta’riflagan bo‘lib, u faollik, ilhom va ish jarayoniga to‘liq sho‘ng‘ish bilan tavsiflanadi [4].

Daxldorlik va ishdan charchash, bir tomondan, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan fenomenlar sifatida namoyon bo‘lsa, boshqa tomondan, ularni bir psixik holatlar kontinuumining ikki qutbi sifatida ham qarash mumkin. Fransuz personalistlari tadqiqotlarida daxldorlik va begonalashish (otchujdenie) qarama-qarshi tushunchalar sifatida tahlil qilinadi. Begonalashish inson faoliyati va uning natijalari insonning o‘ziga qarshi qo‘yiladigan, uning mohiyatidan ustun bo‘ladigan jarayonlarda namoyon bo‘ladi. U avval o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir butunlikni tashkil etgan elementlarning ajralib ketish jarayonini ifodalaydi. Begonalashish ko‘p hollarda kuchsizlik hissi, ma’no yo‘qolishi, ijtimoiy yolg‘izlik va o‘z-o‘zidan chetlashish bilan bog‘lanadi. Bunga qarshi ravishda, daxldorlik odamlarni jamoaviy faoliyat orqali birlashtirish jarayonini ifodalaydi va u shaxsning ishtirokchilik, birlik va umumiylik hissi bilan kuzatiladi.

U. Kan tadqiqotlarida esa daxldorlik va befarqlik (otstranennost) qarama-qarshi tushunchalar sifatida ko‘rib chiqilgan. Uning fikricha, befarqlik — shaxsning rolli xulqidan chetga chiqishi bo‘lib, u o‘zini himoya qilish istagidan kelib chiqadi. Daxldorlik esa shaxsning o‘z roli bilan barqaror aydentfikatsiyasi, ya’ni o‘ziga berilgan ijtimoiy rol va mas’uliyatni chuqur qabul qilishi orqali namoyon bo‘ladi va u yuqori psixologik ahamiyat hamda xavfsizlik hissi bilan birga kechadi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, mamlakatimizdagi tashkilotlar va korxonalar o‘z xodimlarining daxldorlik darajasini muntazam ravishda tahlil qilib borishlari lozim. Bu jarayonni yiliga bir yoki ikki marta o‘tkazishning o‘zi yetarli hisoblanadi. Mazkur tadbirni doimiy ravishda amalga oshirish kompaniya bo‘limlari ishidagi kamchiliklarni oldini olish, rahbar va ijrochilar o‘rtasidagi yashirin muloqot muammolari hamda o‘zaro tushunishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, turli korporativ “kasalliklar”ning paydo bo‘lishi va rivojlanishini oldini olish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, ish beruvchi xodimlarni ishga qabul qilishda ularning kasbiy fazilatlari, bilimi va tajribasinigina emas, balki tashkilot foydasi yo‘lida ishlash istagini, o‘qish va rivojlanishga tayyorligini, tashkilotning bir qismi bo‘lish xohishini va umumiy maqsadlarga erishish uchun barcha kuchini sarflashga tayyorligini ham hisobga olishi lozim. Tashkilot o‘z xodimlarini har tomonlama daxldorlikka jalb etishi va ularni motivatsiya qilishi kerak, chunki faqatgina daxldor xodim kompaniyaning samaradorligi va ishlab chiqarish unumdorligini oshira oladi. Bu esa o‘z navbatida korxonaning raqobatbardoshligi va bozordagi mavqeiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bryuxoveskaya N.E., Chernaya A.A. Xodimlarning korxonalar faoliyatiga daxldorligini shakllantirish // Sanoat rivojlanishini tartibga solish strategiyasi va mexanizmlari. Kiev, 2013. № 5. – B. 321.

2. Karsan R. «Orzu kompaniyasi. Nega muvaffaqiyatli kompaniyalarda “Biz” deyishadi» / Rudi Karsan, Kevin Kruz; ingliz tilidan tarjima: Ye. Vaxraneva. – M.: Mann, Ivanov va Ferber, 2012. – 248 b.

3. Yegorova A.S. «Xodimlarning daxldorligi: tushunishga 7 qadam» / A.S. Yegorova. – M.: INFRA-M, 2014. – 314 b.

4. Doljenko R.A. «Qoniqish, sadoqat, daxldorlik: tushunchalarni aniqlash va konkretlashtirish» // Oltoy davlat agrar universiteti xabarnomasi. Barnaul, 2014. №9 (119). – B. 157–162.

5. Sarenko S. «Daxldorlikka qiziqish: xodimlar “ilhom bilan” ishlashi uchun nima qilish kerak?» // Kadrovik.ru, 2012. № 6.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

Raimberdiyeva Maftuna Abduraxmonovna,
Farg’ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu mavzu boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi, tafakkur jarayonlari va ta’lim muhitining ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mustaqil fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchi yondashuvi va interaktiv metodlarning roli ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikrlash, boshlang‘ich sinf, kognitiv rivojlanish, psixologik xususiyatlar, ta’lim jarayoni, interaktiv metodlar.

Аннотация. Данная тема посвящена изучению психологических особенностей развития самостоятельного мышления у учащихся начальных классов. Анализируются когнитивное развитие, процессы мышления и влияние образовательной среды. Также рассматривается роль учителя и интерактивных методов в формировании самостоятельного мышления.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, начальные классы, когнитивное развитие, психологические особенности, образовательный процесс, интерактивные методы.

Abstract. This topic explores the psychological features of developing independent thinking in primary school students. It analyzes cognitive development, thinking processes, and the influence of the educational environment. The role of teachers and interactive methods in forming independent thinking is also discussed.

Keyword: independent thinking, primary school, cognitive development, psychological features, educational process, interactive methods.

Kirish. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi bola shaxsining shakllanishida eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda o‘quvchining bilish jarayonlari, tafakkuri, diqqat, xotira va tasavvur kabi psixik funksiyalari jadal rivojlanadi. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Mustaqil fikrlash — bu o‘quvchining berilgan ma’lumotni shunchaki qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va o‘z xulosasini shakllantirish qobiliyatidir. Bu jarayon bolaning kognitiv rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, uning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari konkret-obrazli tafakkur bosqichida bo‘lib, asta-sekin mantiqiy va abstrakt fikrlashga o‘tib boradi. Shu jarayonda o‘qituvchi tomonidan yaratilgan ta’lim muhiti, qo‘llaniladigan metodlar hamda o‘quvchining ichki motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish ularning intellektual salohiyatini oshirish, ta’lim samaradorligini yaxshilash va shaxsiy rivojlanishini ta’minlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning tayyor bilimlarni yod olishidan ko‘ra, ularni mustaqil ravishda tahlil qilish, xulosa chiqarish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish dolzarb pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf davri bolaning kognitiv va shaxsiy rivojlanishida asosiy bosqich bo‘lib, aynan shu davrda tafakkur, diqqat, xotira va tasavvur kabi psixik jarayonlar shakllanadi. Agar bu bosqichda mustaqil fikrlashga yetarli e’tibor berilmasa, keyingi ta’lim bosqichlarida o‘quvchining ijodiy va tahliliy qobiliyatlari yetarlicha rivojlanmasligi mumkin.

Shuningdek, globallashuv va axborot oqimining tezlashuvi sharoitida o‘quvchilar turli manbalardan kelayotgan ma’lumotlarni tanlash va tahlil qilishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasining shakllanishini yanada muhim qiladi.

Shu sababli, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ta’lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ushbu muammo bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bir qator nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Xorijiy psixologiyada mustaqil fikrlashni rivojlantirish ko‘pincha kognitiv rivojlanish nazariyalari bilan izohlanadi. Jumladan, Kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola tafakkuri bosqichma-bosqich rivojlanib, boshlang‘ich sinf davrida konkret-operatsion fikrlash shakllanadi. Bu bosqich mustaqil xulosa chiqarishning boshlang‘ich poydevori hisoblanadi.

Shuningdek, Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD)ga ko‘ra, o‘quvchining mustaqil fikrlashi o‘qituvchi va ijtimoiy muhit yordamida rivojlanadi. O‘qituvchi yo‘naltiruvchi rolni bajarib, bolani mustaqil fikrlashga bosqichma-bosqich olib chiqadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishda interaktiv ta’lim metodlari, muammoli o‘qitish va refleksiya jarayonining ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Bu yondashuvlar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol fikrlovchi subyekt sifatida shakllantiradi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishi, o‘qitish metodlari va shaxsiy xususiyatlarining mustaqil fikrlashga ta’siri o‘rganilgan. Unda o‘yin texnologiyalari va interaktiv metodlarning samaradorligi yuqori baholanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mustaqil fikrlashni rivojlantirish murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u kognitiv rivojlanish, ijtimoiy muhit va ta’lim metodlariga bevosita bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixologik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy va empirik yondashuvlar uyg‘un holda qo‘llaniladi. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi, tafakkur operatsiyalari hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishi kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Tadqiqotning nazariy asosini psixologiya va pedagogikaning zamonaviy konsepsiyalari tashkil etadi. Xususan, Kognitiv rivojlanish nazariyasi hamda Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) nazariyalari asos qilib olinadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchining fikrlash jarayoni yosh, tajriba va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini asoslaydi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- **Kuzatish metodi** – o‘quvchilarning dars jarayonidagi fikrlash faolligi va mustaqil javob berish holatlari o‘rganiladi.
- **Suhbat metodi** – o‘qituvchi va o‘quvchilarning fikrlash jarayoni haqidagi qarashlari aniqlanadi.
- **Anketa so‘rovi** – o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi va qiziqishlari baholanadi.
- **Test metodlari** – mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalari aniqlanadi.
- **Eksperiment metodi** – interaktiv va an’anaviy ta’lim usullarining samaradorligi solishtiriladi.

Tadqiqotning amaliy qismi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida olib borilib, ularda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik ta’sir usullari sinovdan o‘tkaziladi.

Umuman olganda, ushbu metodologiya o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish va samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish murakkab psixologik-pedagogik jarayon bo‘lib, u kognitiv rivojlanish, ta’lim muhiti va o‘qitish metodlariga bevosita bog‘liqdir. O‘quvchilarning fikrlash faolligi ularning yosh xususiyatlari va individual psixologik imkoniyatlari bilan chambarchas aloqador ekanligi aniqlandi.

Kuzatishlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, o‘quvchilar mustaqil fikr bildirishga ko‘proq interaktiv va o‘yin texnologiyalariga asoslangan darslarda faol bo‘ladilar. An’anaviy, faqat tayyor bilimni berishga asoslangan darslarda esa mustaqil fikrlash darajasi nisbatan past bo‘lishi kuzatildi. Bu holat ta’lim jarayonida metodlarning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatadi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari konkret-operatsion tafakkur bosqichida bo‘lib, ular real misollar va amaliy vaziyatlar orqali yaxshiroq fikrlaydi. Tadqiqot natijalari ham ushbu nazariy yondashuvni tasdiqlab, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi ko‘proq vizual va amaliy topshiriqlar orqali rivojlanishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) doirasida o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli juda muhim ekanligi aniqlandi. O‘qituvchi yordamida o‘quvchilar murakkabroq fikrlash bosqichlariga o‘tishi va asta-sekin mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Motivatsion omil ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, o‘quvchining qiziqishi va darsga faol ishtiroki mustaqil fikrlash darajasini oshiradi. Rag‘batlantiruvchi muhit va ijobiy psixologik atmosfera o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda interaktiv metodlar, o‘qituvchining yo‘naltiruvchi roli va psixologik qulay muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Amaliy tavsiyalar

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni samarali rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida quyidagi amaliy tavsiyalarni qo‘llash maqsadga muvofiq:

Birinchidan, darslarda o‘quvchini faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida jalb qilish zarur. Buning uchun savol-javob, muammoli vaziyatlar, kichik guruhlarda ishlash va o‘yin texnologiyalaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, o‘quvchilarga tayyor javoblarni berish o‘rniga ularni o‘z fikrini bildirishga, mulohaza yuritishga va xulosa chiqarishga yo‘naltiruvchi ochiq savollardan foydalanish kerak.

Uchinchidan, Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) tamoyiliga asoslanib, o‘qituvchi o‘quvchiga bosqichma-bosqich yordam berishi va asta-sekin mustaqillikka o‘tkazishi lozim.

To‘rtinchidan, Kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olib, ko‘rgazmali va amaliy topshiriqlarni ko‘proq qo‘llash kerak.

Beshinchidan, o‘quvchilarda o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun ijobiy psixologik muhit yaratish va ularni rag‘batlantirish muhimdir.

Umuman olganda, ushbu tavsiyalarni tizimli qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish samaradorligini oshiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish murakkab, ammo juda muhim psixologik-pedagogik jarayon hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishi, individual xususiyatlari hamda ta’lim muhitining ta’siri bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf davrida bolalarda konkret-obrazli tafakkur ustun bo‘lib, ular asta-sekin mantiqiy va mustaqil fikrlash bosqichiga o‘tadi. Shu jarayonda to‘g‘ri tanlangan ta’lim metodlari ularning fikrlash faoliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi.

Kognitiv rivojlanish nazariyasi va Yaqin rivojlanish zonasi (ZPD) yondashuvlari asosida shuni aytish mumkinki, o‘qituvchi yo‘naltiruvchi rolni bajarib, o‘quvchini bosqichma-bosqich mustaqil fikrlashga olib chiqadi.

Shuningdek, interaktiv metodlar, muammoli ta’lim va rag‘batlantiruvchi psixologik muhit o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim omil ekanligi aniqlandi. An’anaviy yondashuvlarga qaraganda, faol ta’lim usullari yuqori samaradorlikka ega.

Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish ularning intellektual salohiyatini oshirish, ijodiy fikrlashini shakllantirish va kelajakdagi ta’lim muvaffaqiyatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Piaget J. *The Language and Thought of the Child*. – London: Routledge, 1959.
2. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Bruner J. S. *The Process of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.
4. Dewey J. *How We Think*. – Boston: D.C. Heath & Co., 1933.
5. Ausubel D. P. *Educational Psychology: A Cognitive View*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1968.
6. Woolfolk A. *Educational Psychology*. – Pearson Education, 2016.
7. Anderson J. R. *Cognitive Psychology and Its Implications*. – New York: Worth Publishers, 2000.
8. Mayer R. E. *Multimedia Learning*. – Cambridge University Press, 2001.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. *Umumiy o‘rta ta’lim konsepsiyasi*. – Toshkent, 2021.
10. Boshlang‘ich ta’lim va pedagogik psixologiyaga oid mahalliy ilmiy maqolalar (2018–2025).

TALABALARNING KREATIV FIKRLASHI VA O‘ZINI O‘ZI FAOLLASHTIRISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Ravshanov Xusan Abdiqul o'g'li

Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadiqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning kreativ fikrlashi va o‘zini o‘zi faollashtirishining psixologik mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim muhitida innovatsion yondashuvlar talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati hamda yangi g‘oyalarni yaratish salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda kreativ fikrlashning asosiy komponentlari – divergent tafakkur, moslashuvchanlik, originallik va elaboratsiya – o‘zini o‘zi faollashtirish jarayonlari bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, motivatsiya, refleksiya, metakognitiv nazorat va ichki ehtiyojlar tizimi talabalarning innovatsion faoliyatdagi faolligini belgilovchi muhim omillar sifatida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kreativ fikrlash, innovatsion faoliyat, o‘zini o‘zi faollashtirish, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, refleksiya, metakognitsiya, PBL, raqamli ta’lim.

Аннотация. В данной статье комплексно рассматриваются психологические механизмы развития креативного мышления и самоактивации студентов в процессе инновационной деятельности. В условиях современной образовательной среды инновационные подходы способствуют формированию у студентов способности к самостоятельному мышлению, решению проблемных задач и генерации новых идей. В исследовании раскрываются основные компоненты креативного мышления, такие как дивергентное мышление, гибкость, оригинальность и разработанность, которые рассматриваются во взаимосвязи с процессами самоактивации личности. Особое внимание уделяется роли мотивации, рефлексии, метакогнитивного контроля и системы внутренних потребностей как ключевых факторов, определяющих активность студентов в инновационной деятельности.

Ключевые слова: креативное мышление, инновационная деятельность, самоактивация, психологические механизмы, мотивация, рефлексия, метакогниция, проектное обучение, цифровое образование.

Abstract. This article examines the psychological mechanisms underlying the development of creative thinking and self-activation of students in the process of innovative activity. In the

context of modern education, innovative approaches play a crucial role in fostering students' independent thinking, problem-solving abilities, and capacity to generate new ideas. The study analyzes key components of creative thinking, including divergent thinking, flexibility, originality, and elaboration, in close connection with self-activation processes. Special emphasis is placed on the role of motivation, reflection, metacognitive regulation, and internal needs as core factors influencing students' engagement in innovative activities. The paper also highlights the effectiveness of interactive teaching methods, problem-based learning, project-based learning (PBL), and digital technologies in enhancing students' creative potential.

Key words: creative thinking, innovative activity, self-activation, psychological mechanisms, motivation, reflection, metacognition, project-based learning, digital education.

Kirish. XXI asrda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Jahon miqyosida innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida inson kapitalining sifati, ayniqsa, yoshlarning kreativ fikrlash qobiliyati va o‘zini o‘zi faollashtirish darajasi hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun nafaqat bilim, balki yangi g‘oyalar ishlab chiqish, muammolarni noodatiy yechish va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, xalqaro ta'lim monitoringlari (PISA, OECD hisobotlari) o‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishni ta'limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va yoshlarning intellektual hamda ijodiy salohiyatini oshirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. So‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish bilan bog‘liq islohotlar talabalarning faolligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyatni rivojlantirish orqali talabalarni ilmiy-tadqiqot va amaliy loyihalarga jalb etish kengaymoqda.

Innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning kreativ fikrlashi va o‘zini o‘zi faollashtirishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayon psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Kreativ fikrlash – bu yangi, noodatiy va samarali g‘oyalarni yaratish qobiliyati bo‘lsa, o‘zini o‘zi faollashtirish esa shaxsning ichki resurslarini safarbar etib, faoliyatga ongli ravishda kirishishini anglatadi. Ushbu jarayonlarda motivatsiya, refleksiya, metakognitiv nazorat, ehtiyojlar tizimi va shaxsiy maqsadlar muhim rol o‘ynaydi. Psixologik tadqiqotlarda (L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, J. Dewey, D. Kolb va boshqalar) faoliyat, tajriba va refleksiya orqali shaxs rivojlanishi asoslab berilgan bo‘lib, bu yondashuvlar bugungi innovatsion ta'lim paradigmasining nazariy poydevorini tashkil etadi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar – muammoli ta'lim, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning), kollaborativ o‘qitish va raqamli platformalar talabalarning kreativ va mustaqil faoliyatini rag‘batlantiruvchi samarali vositalar sifatida e'tirof etilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko‘ra, interaktiv va innovatsion metodlar qo‘llanilgan ta'lim jarayonida talabalar faolligi va bilimni o‘zlashtirish darajasi an'anaviy metodlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning kreativ fikrlashi va o‘zini o‘zi faollashtirishining psixologik mexanizmlarini chuqur o‘rganish, ularni rivojlantirishning samarali yo‘llarini aniqlash hamda ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu masalalarni yoritishga qaratilgan bo‘lib, u zamonaviy ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning kreativ fikrlashi va o‘zini o‘zi faollashtirishini tushuntirish birgina pedagogik yondashuv bilan cheklanmaydi, balki psixologiya, faoliyat nazariyasi, motivatsiya konsepsiyalari, ijodkorlik nazariyalari hamda shaxsning o‘zini boshqarish mexanizmlarini o‘zaro uyg‘un holda ko‘rib chiqishni talab etadi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar

tarixan avvalo rus psixologik maktabi doirasida shakllanib, keyinchalik xorijiy olimlar tomonidan ijodkorlik, ichki motivatsiya, metakognitsiya va o‘z-o‘zini boshqarish nazariyalari bilan boyitildi. Shu sababli mazkur muammoning nazariy ildizlari bir necha ilmiy yo‘nalishlar kesishmasida vujudga kelganini ko‘rish mumkin.

Rus psixologik maktabida shaxs faolligi va uning rivojlanishi masalasi, avvalo, L.S. Vygotskiy ishlari bilan chambarchas bog‘liqdir. U inson psixik rivojlanishini ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, muloqot va faoliyat jarayonida kechadigan murakkab jarayon sifatida izohlaydi. Vygotskiyga ko‘ra, inson tafakkuri tayyor shaklda berilmaydi, balki faol o‘zlashtirish, ichkilashtirish va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir jarayonida rivojlanadi. Bu g‘oya innovatsion faoliyatning mohiyatini tushunishda muhimdir, chunki innovatsion muhit talabaning yangi vaziyatga kirishi, muammoni qayta ko‘rishi, mavjud tajribani yangicha talqin etishi va yangi ma’no hosil qilishi uchun sharoit yaratadi. Aynan shu jarayonda kreativ fikrlash oddiy reproduktiv tafakkurdan farq qilib, yangilik yaratishga yo‘naltirilgan ongli faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari ham bu yerda katta ahamiyatga ega, chunki talabada ijodiy salohiyat ko‘pincha mustaqil bajarilayotgan vazifadan ko‘ra, hamkorlik, yo‘naltirish va reflektiv qo‘llab-quvvatlash asosida samaraliroq ochiladi.

A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi ushbu muammoni yanada chuqurlashtiradi. Unga ko‘ra, inson psixikasi faoliyat jarayonida shakllanadi va har qanday faoliyat motiv, maqsad, harakat va operatsiyalar tizimi bilan belgilanadi. Innovatsion faoliyatga tatbiq etilganda, bu nazariya shuni anglatadiki, talabaning kreativ fikrlashi tasodifiy jarayon emas, balki muayyan motivlar bilan qo‘zg‘aladigan, anglangan maqsadlarga yo‘naltiriladigan va amaliy harakatlar tizimida yuzaga chiqadigan psixologik hodisadir. O‘zini o‘zi faollashtirish ham shu nuqtai nazardan ichki motivlarning kuchayishi, faoliyat mazmunining shaxsiy ahamiyat kasb etishi va subyektning o‘z faoliyatiga nisbatan mas’uliyatli munosabati bilan izohlanadi. Leontyevning qarashlari talabaning tashqi rag‘bat bilangina emas, balki ichki ma’no va ehtiyojlar asosida innovatsion jarayonga kirishishini tushuntirishda ayniqsa muhimdir.

S.L. Rubinshteynning “psixika faoliyatda namoyon bo‘ladi va faoliyatda shakllanadi” degan konseptual yondashuvi ham mazkur mavzu uchun asosiy nazariy manbalardan biridir. Rubinshteyn shaxsni passiv qabul qiluvchi emas, balki voqelikni o‘zgartira oladigan faol subyekt sifatida talqin etadi. Bu qarash talabaning innovatsion faoliyatdagi o‘rnini tushunishda juda muhim, chunki innovatsion ta’lim sharoitida talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni qayta ishlovchi, sinovdan o‘tkazuvchi, yangi yechimlarni izlovchi va o‘z faoliyatini boshqaruvchi subyektga aylanishi lozim. Demak, kreativ fikrlash ham, o‘zini o‘zi faollashtirish ham subyektlik pozitsiyasi bilan bevosita bog‘liqdir.

V.V. Davydovning rivojlantiruvchi ta’lim haqidagi qarashlari bu masalaga didaktik-psixologik nuqtai nazardan yondashadi. U nazariy tafakkurni shakllantirish, umumlashtirish, tahlil qilish va muammoning ichki aloqalarini anglashni ta’limning markaziy vazifasi sifatida ko‘radi. Innovatsion faoliyat esa aynan nazariy va kreativ tafakkurning uyg‘unligini talab qiladi. Talaba muammoni faqat faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki ichki qonuniyatlari, muqobil yechimlari va amaliy natijalari bilan birga ko‘ra olgandagina innovatsion fikrlash darajasiga ko‘tariladi. Davydov ta’kidlagan mazmuniy umumlashtirish, tahliliy fikrlash va o‘quv faoliyatining reflektiv tarkibi bugungi kunda kreativlikni rivojlantirish texnologiyalarining psixologik negizi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Rus olimlari orasida muammoli ta’lim va ijodiy tafakkur masalalarini chuqur tahlil qilganlardan biri A.M. Matyushkindir. U muammoli vaziyatni tafakkur rivojining ichki manbai sifatida ko‘radi. Matyushkin fikricha, ijodkorlik tayyor algoritm yetarli bo‘lmagan, qarama-qarshilik seziladigan, yangi aloqalarni topish talab etiladigan vaziyatlarda kuchli namoyon bo‘ladi. Bu yondashuv innovatsion faoliyat bilan to‘liq uyg‘unlashadi, chunki innovatsiya har doim mavjud usullar yetarli bo‘lmagan nuqtada boshlanadi. Talaba muammoli vaziyatni shaxsiy chaqiriq sifatida qabul qilsa, unda o‘zini o‘zi faollashtirish kuchayadi, kognitiv qiziqish ortadi va kreativ tafakkur mexanizmlari ishga tushadi.

D.B. Bogoyavlenskaya ijodiy faoliyatni “intellektual faollik” kategoriyasi orqali izohlaydi. Uning tadqiqotlarida ijodkorlik insonning topshiriq chegarasidan chiqib, yangi muammo qo‘yishi, masalani chuqurlashtirishi va faoliyatni ichki ehtiyoj asosida davom ettirishi bilan tavsiflanadi. Bu g‘oya talabalarning o‘zini o‘zi faollashtirish jarayonini tushuntirishda nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki chin ma’nodagi innovatsion faoliyat talabaning faqat topshiriqni bajarishi bilan emas, balki uni kengaytirishi, muqobil variantlarni izlashi, kutilmagan bog‘lanishlarni topishi va tashabbus ko‘rsatishi bilan belgilanadi. Bogoyavlenskaya qarashlarida kreativlik bilan ichki faollik o‘rtasidagi bog‘liqlik juda aniq ko‘rinadi.

Xorijiy psixologiyada kreativ fikrlash muammosi J. Guilford ishlari bilan yangi bosqichga ko‘tarildi. U intellekt tuzilmasi modelida divergent fikrlashni kreativlikning markaziy omili sifatida ajratib ko‘rsatdi. Guilford nazariyasiga ko‘ra, kreativ shaxs bitta to‘g‘ri javobni topishga emas, balki ko‘plab muqobil variantlarni ishlab chiqishga moyil bo‘ladi. Bu esa innovatsion faoliyatning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Talaba qancha ko‘p variant ko‘ra olsa, vaziyatni shuncha moslashuvchan tahlil qiladi, stereotiplardan chiqadi va yangi yechim topishga yaqinlashadi. Guilford yondashuvi keyingi tadqiqotlarda kreativ fikrlashni o‘lchash, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va ta’lim jarayonida rivojlantirish usullarini ishlab chiqishga kuchli ta’sir ko‘rsatdi.

E.P. Torrance esa kreativlikni amaliy diagnostika va rivojlantirish nuqtai nazaridan chuqur o‘rgandi. Uning ishlari kreativ fikrlashning tezkorlik, moslashuvchanlik, originallik va batafsillik kabi ko‘rsatkichlar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Torrance tadqiqotlarida ijodkorlik faqat tug‘ma qobiliyat emas, balki qulay ta’limiy muhit, rag‘batlantiruvchi topshiriqlar va xatodan qo‘rqmaslik atmosferasi ta’sirida rivojlanadigan sifat sifatida talqin qilinadi. Bu qarash innovatsion faoliyatning psixologik shartlarini tushunishda juda muhim, chunki kreativlikni rivojlantirish uchun talaba xavfsiz intellektual muhitda erkin tajriba o‘tkaza olishi, noto‘g‘ri javobdan qo‘rqmasligi va mustaqil tashabbus ko‘rsatishi kerak.

Kreativlik va o‘zini o‘zi faollashtirishning motivatsion asoslarini tushuntirishda A. Maslow va C. Rogersning gumanistik psixologiyasi alohida o‘rin tutadi. Maslowning ehtiyojlar iyerarxiyasi hamda o‘zini ro‘yobga chiqarish haqidagi g‘oyalari shuni ko‘rsatadiki, inson faqat tashqi nazorat va talablar asosida emas, balki ichki o‘sish, o‘z imkoniyatlarini namoyon etish va ma’no topish ehtiyoji orqali ham faol bo‘ladi. Rogers esa shaxsning ijodiy ochilishi uchun qabul qiluvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va erkin muhit zarurligini ta’kidlaydi. Bu yondashuvlar innovatsion ta’limda juda dolzarb, chunki talabaning kreativ salohiyati ko‘pincha ortiqcha nazorat, qat’iy stereotiplar va jazolovchi baholash muhitida emas, balki ishonch, erkinlik va subyektiv tajriba qadrlanadigan sharoitda rivojlanadi.

O‘zini o‘zi faollashtirish masalasini zamonaviyroq psixologik til bilan tushuntirgan nazariyalardan biri E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘zini belgilash nazariyasidir. Unga ko‘ra, insonning barqaror ichki faolligi uch asosiy psixologik ehtiyoj - avtonomiya, kompetentlik va ijtimoiy bog‘liqlik - qondirilganda kuchayadi. Ushbu nazariya innovatsion faoliyat sharoitida juda samarali izoh beradi: agar talaba o‘z qaroriga ega bo‘lsa, vazifani bajara olishiga ishonchi ortsa va o‘zini jamoaning mazmunli a’zosi sifatida his etsa, unda kreativ faollik va o‘zini boshqarish darajasi sezilarli oshadi. Demak, o‘zini o‘zi faollashtirish tashqi rag‘batni kuchaytirish bilangina emas, balki psixologik ehtiyojlarni to‘g‘ri qo‘llab-quvvatlash orqali ham shakllanadi.

A. Banduraning o‘z-o‘ziga ishonch, ya’ni self-efficacy haqidagi nazariyasi ham talabalarning innovatsion faoliyatini tushuntirishda muhim o‘rin egallaydi. Bandura fikricha, inson murakkab vazifani bajarishga kirishadimi yoki yo‘qmi, ko‘pincha o‘z imkoniyatlariga qay darajada ishonishiga bog‘liq. Innovatsion faoliyat esa noaniqlik, tavakkal va yangi yechim talab qiladigan vaziyat bo‘lgani uchun, bu yerda o‘ziga ishonch ayniqsa muhim psixologik omilga aylanadi. Talaba o‘zini qodir deb his qilsa, ijodiy izlanishga faolroq kirishadi, muvaffaqiyatsizlikdan kamroq cho‘chiydi va o‘zini o‘zi faollashtirish mexanizmlari barqarorroq ishlaydi.

Xulosa. Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion faoliyat jarayonida talabalarning kreativ fikrlashi va o‘zini o‘zi faollashtirishi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab psixologik tizimni tashkil etadi. Ushbu jarayon bir tomondan kognitiv komponentlar - divergent fikrlash, moslashuvchanlik, originallik va muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyati bilan belgilanar ekan, ikkinchi tomondan u motivatsion, emotsional va metakognitiv mexanizmlar orqali boshqariladi. Demak, kreativlikni rivojlantirishni faqat bilim berish bilan cheklab bo‘lmaydi, balki talabaning ichki resurslarini faollashtirishga qaratilgan kompleks yondashuv zarur.

Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, talabaning o‘zini o‘zi faollashtirishi ichki motivatsiya, o‘ziga ishonch, refleksiya va shaxsiy maqsadlar tizimi bilan bevosita bog‘liqdir. Agar ta’lim jarayoni shunday tashkil etilsaki, unda talaba mustaqil qaror qabul qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash va yangi yechimlar izlash imkoniyatiga ega bo‘lsa, unda uning kreativ salohiyati sezilarli darajada ortadi. Aksincha, qat’iy nazoratga asoslangan, stereotip yondashuv ustuvor bo‘lgan muhitda kreativlik va ichki faollik pasayishi kuzatiladi. Shu bois innovatsion ta’lim muhitini yaratishda psixologik erkinlik, qo‘llab-quvvatlovchi atmosfera va xatolarga tolerant munosabat muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar - muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish (PBL), kollaborativ faoliyat va raqamli platformalar - talabalarning kreativ fikrlashini rag‘batlantiruvchi va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi samarali vositalar ekanligi aniqlandi. Bunday yondashuvlar talabaning bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol yaratuvchi subyektga aylanishini ta’minlaydi. Ayniqsa, refleksiya va metakognitiv nazorat mexanizmlarini rivojlantirish orqali talabalar o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va o‘z-o‘zini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Umuman olganda, innovatsion faoliyat jarayonida kreativ fikrlash va o‘zini o‘zi faollashtirishni rivojlantirish ta’lim sifatini oshirish, talabalarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlash hamda ularning uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirishiga zamin yaratadi. Shu sababli mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlarni davom ettirish, psixologik mexanizmlarni yanada chuqurroq o‘rganish va ularni amaliy ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish dolzarb vazifa sifatida qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Педагогика, 1999. – 352 с.
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2005. – 352 с.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.
4. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. – М.: Интеллект-Центр, 1996. – 544 с.
5. Матюшкин А. М. Проблемные ситуации в мышлении и обучении. – М.: Педагогика, 1972. – 208 с.
6. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей. – М.: Академия, 2002. – 320 с.
7. Guilford J. P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967. – 538 p.
8. Torrance E. P. Guiding Creative Talent. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1962. – 278 p.
9. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: HarperCollins, 1996. – 456 p.

TALABALARNING O‘QUV JARAYONIGA MOSLASHUVINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI (NODAVLAT TA’LIM TASHKILOTLARI MISOLIDA)

Razzoqova Shaxnoza Jo’rayevna

Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv jarayoniga moslashuv jarayoni ijtimoiy-psixologik determinantlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda talabalarning yangi ta’lim muhitiga kirib kelishi, akademik talablar, ijtimoiy munosabatlar tizimi hamda shaxsiy psixologik xususiyatlarining moslashuv jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, moslashuvning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ kompetensiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: moslashuv, ijtimoiy-psixologik determinantlar, talabalar, nodavlat ta’lim, akademik muvaffaqiyat, motivatsiya, kommunikatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс адаптации студентов негосударственных образовательных организаций к учебному процессу с точки зрения социально-психологических детерминант. Рассматриваются особенности вхождения студентов в новую образовательную среду, влияние академических требований, системы социальных отношений и индивидуальных психологических характеристик на процесс адаптации. Особое внимание уделяется таким факторам, как мотивация, саморегуляция, социальная поддержка и коммуникативные компетенции. В эмпирической части выявлена взаимосвязь между уровнем адаптации студентов и социально-психологическими показателями.

Ключевые слова: адаптация, социально-психологические детерминанты, студенты, негосударственное образование, академическая успеваемость, мотивация, коммуникация.

Abstract. This article examines the adaptation process of students in non-state educational institutions to the learning environment from the perspective of socio-psychological determinants. The study explores students’ integration into a new academic setting, the influence of academic demands, social relationship systems, and individual psychological characteristics on the adaptation process. Particular attention is given to key factors such as motivation, self-regulation, social support, and communicative competencies. The empirical part identifies significant relationships between students’ adaptation levels and socio-psychological indicators.

Key words: adaptation, socio-psychological determinants, students, non-state education, academic performance, motivation, communication.

Kirish. So‘nggi yillarda ta’lim tizimida yuz berayotgan global o‘zgarishlar, raqobatning kuchayishi hamda xususiy sektorning kengayishi natijasida nodavlat ta’lim tashkilotlari muhim o‘rin egallab bormoqda. Ushbu muassasalar nafaqat ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, balki zamonaviy kompetensiyalarga ega kadrlarni tayyorlashda ham faol ishtirok etmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ko‘plab mamlakatlarda, jumladan Markaziy Osiyo hududida ham nodavlat oliy ta’lim muassasalari soni yildan-yilga ortib bormoqda, bu esa ta’lim tizimida diversifikatsiya jarayonini kuchaytirmoqda.

Talabalarning yangi ta’lim muhitiga moslashuvi ularning akademik muvaffaqiyati va shaxsiy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, nodavlat ta’lim tashkilotlarida o‘quv jarayoni ko‘pincha intensiv, kredit-modul tizimiga asoslangan hamda mustaqil ta’limga yo‘naltirilgan bo‘lgani sababli, talabalar uchun psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayoni murakkab kechishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, birinchi kurs talabalarining 30–40 foizida moslashuv bilan bog‘liq stress, motivatsion pasayish va ijtimoiy qiyinchiliklar kuzatiladi.

Ijtimoiy-psixologik determinantlar - bu shaxsning ta’lim muhitiga moslashuvini belgilovchi ichki va tashqi omillar majmuasidir. Ular tarkibiga shaxsiy motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, guruh ichidagi munosabatlar hamda kommunikativ kompetensiyalar kiradi. Mazkur omillar o‘quv jarayoniga tez va samarali moslashishni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi kunda psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ijtimoiy-psixologik moslashuv darajasi yuqori bo‘lgan talabalar akademik natijalarda ham sezilarli ustunlikka ega bo‘ladilar. Aksincha, moslashuv jarayoni sust kechgan talabalar orasida o‘qishni tashlab ketish (dropout) holatlari ko‘proq uchraydi. Shu sababli, nodavlat ta’lim tashkilotlarida talabalar moslashuv jarayonini ilmiy asosda o‘rganish va uni optimallashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolada nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv jarayoniga moslashuvini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi hamda ularning akademik muvaffaqiyatga ta’siri yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarning o‘quv jarayoniga moslashuvi muammosi psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng o‘rganilgan dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ushbu jarayonni ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilishda rus va xorijiy olimlarning ilmiy

qarashlari muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Adabiyotlarda moslashuv (adaptatsiya) shaxsning yangi ijtimoiy muhitga kirib borishi, uning talab va qoidalariga moslashishi hamda ichki psixologik muvozanatni saqlab qolish jarayoni sifatida talqin etiladi.

Rus psixologiyasida moslashuv jarayoni L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn va A.N. Leontyev kabi olimlarning faoliyat nazariyasi doirasida izohlanadi. Vygotskiy ta’lim jarayonida ijtimoiy muhitning yetakchi rolini ta’kidlab, shaxs rivojlanishi aynan ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali shakllanishini asoslab bergan. Rubinshteyn esa shaxsning faoliyati va ong birligi tamoyilini ilgari surib, moslashuv jarayonini faol o‘zaro ta’sir sifatida ko‘rib chiqadi. Leontyevning faoliyat nazariyasi esa o‘quv faoliyatini shaxsning ichki ehtiyojlari va motivlari bilan bog‘liq tizim sifatida tushuntiradi, bu esa talabalar moslashuvining motivatsion asoslarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Keyingi rus tadqiqotchilaridan K.A. Abulxanova-Slavskaya shaxsning hayotiy strategiyalari va vaqtni boshqarish qobiliyatini moslashuv samaradorligining muhim omili sifatida ko‘rsatadi. B.G. Ananyev esa shaxsning integral rivojlanish tizimida ijtimoiy va biologik omillar o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlab, moslashuvni kompleks jarayon sifatida talqin qiladi. Shuningdek, A.A. Rean tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalar moslashuvining asosiy ko‘rsatkichlari sifatida o‘z-o‘zini baholash, motivatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi ajratib ko‘rsatilgan.

Xorijiy psixologiyada moslashuv jarayoni ko‘proq shaxsning stressga bardoshliligi va ijtimoiy integratsiya nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. T. Tinto tomonidan ishlab chiqilgan “talabalarning universitetdan chiqib ketish modeli”ga ko‘ra, akademik va ijtimoiy integratsiya darajasi past bo‘lgan talabalar o‘qishni tark etishga moyil bo‘ladi. Ushbu model moslashuv jarayonini ta’lim muassasasiga bog‘lanish darajasi bilan bevosita bog‘laydi.

A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi moslashuv jarayonida o‘z-o‘zini samaradorlik (self-efficacy) tushunchasining muhimligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, talabaning o‘z qobiliyatlariga ishonchi yuqori bo‘lsa, u yangi ta’lim muhitiga tezroq moslasha oladi. Shuningdek, A. Maslow ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi ham moslashuv jarayonini tushuntirishda muhim o‘rin tutadi, chunki talabaning ijtimoiy ehtiyojlari qondirilmagan taqdirda, uning o‘quv faoliyatiga moslashuvi qiyinlashadi.

Zamonaviy tadqiqotchilar, jumladan E. Tinto, J. Bean va P. Ramsdenlar oliy ta’lim muassasalarida talabalar muvaffaqiyatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, akademik muhit sifati va o‘qituvchi-talaba o‘zaro munosabatlari bilan bog‘liq holda o‘rganadilar. Ularning ishlari shuni ko‘rsatadiki, ijobiy ijtimoiy-psixologik muhit talabalarning moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, talabalarning o‘quv jarayoniga moslashuvi ko‘p omilli, murakkab va dinamik jarayon bo‘lib, u shaxsiy psixologik xususiyatlar, ijtimoiy muhit, motivatsion tizim va akademik talablar o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Rus va xorijiy olimlarning qarashlari ushbu jarayonni yanada chuqurroq anglash va empirik tadqiqotlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.

Muhokama. Nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv jarayoniga moslashuvi murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, moslashuv darajasi faqatgina talabaning akademik tayyorgarligi bilan emas, balki uning shaxsiy psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhitga integratsiyasi hamda ta’lim jarayonidagi subyektiv tajribasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu jihatdan, nodavlat ta’lim muassasalari sharoitida moslashuv jarayoni an’anaviy davlat oliy ta’lim tizimiga nisbatan ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlanadi.

Birinchi navbatda, ijtimoiy-psixologik determinantlar ichida motivatsion omillar yetakchi o‘rin egallaydi. Talabaning ichki o‘qish motivlari, kasbiy maqsadlari va kelajak rejalari qanchalik aniq bo‘lsa, uning yangi ta’lim muhitiga moslashuvi shunchalik tez va samarali kechadi. Aksincha, tashqi bosim yoki aniq bo‘lmagan maqsadlar asosida tanlangan ta’lim yo‘nalishi moslashuv jarayonini sekinlashtiradi va emotsional beqarorlikni kuchaytiradi.

Ikkinchi muhim jihat - ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimidir. Talabaning guruh ichidagi munosabatlari, o‘qituvchilar bilan muloqoti hamda do‘stlar va oila tomonidan beriladigan psixologik yordam uning moslashuv darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy ijtimoiy muhitga ega bo‘lgan talabalar stress holatlarini yengilroq qabul qiladi va akademik faoliyatga tezroq moslashadi. Bunda kommunikativ kompetensiyalar ham muhim rol o‘ynab, talabaning ijtimoiy aloqalarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyati uning umumiy moslashuv jarayonini belgilaydi.

Shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish va shaxsiy mas’uliyat darajasi ham moslashuvning muhim determinantlaridan biridir. Kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan nodavlat ta’lim muassasalarida talabalardan yuqori darajadagi mustaqillik talab etiladi. Shu sababli, vaqtni boshqarish, o‘quv faoliyatini rejalashtirish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan talabalar tezroq moslashadi va yuqori akademik natijalarga erishadi.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim jihat shundan iboratki, emotsional barqarorlik va stressga chidamlilik moslashuv samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biridir. Yangi ta’lim muhitiga kirib kelgan talaba turli psixologik bosimlar, akademik talablar va ijtimoiy o‘zgarishlarga duch keladi. Ushbu vaziyatda emotsional muvozanatini saqlay olgan shaxslar moslashuv jarayonini muvaffaqiyatli yakunlaydi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nodavlat ta’lim tashkilotlarida talabalar moslashuvi ko‘p omilli tizim bo‘lib, u bir vaqtning o‘zida motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, moslashuv dasturlarini ishlab chiqish hamda talabalarning ijtimoiy integratsiyasini qo‘llab-quvvatlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa. Nodavlat ta’lim tashkilotlari talabalarining o‘quv jarayoniga moslashuvi ijtimoiy-psixologik jihatdan murakkab, ko‘p darajali va dinamik jarayon hisoblanadi. O‘tkazilgan nazariy tahlil va empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu moslashuv faqat akademik tayyorgarlik yoki intellektual salohiyatga bog‘liq emas, balki shaxsning motivatsion yo‘nalishi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyati hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishida ijtimoiy-psixologik muhit hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Talabaning guruh ichidagi integratsiyasi, o‘qituvchilar bilan samarali kommunikatsiyasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi uning yangi ta’lim sharoitiga tez moslashishiga yordam beradi. Aksincha, ijtimoiy aloqalarning sustligi va psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi hamda akademik muvaffaqiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, kredit-modul tizimi asosida tashkil etilgan nodavlat ta’lim muassasalarida talabalardan yuqori darajadagi mustaqillik va o‘z-o‘zini boshqarish talab etiladi. Shu sababli, vaqtni samarali rejalashtirish, mas’uliyatni his qilish va mustaqil o‘qish ko‘nikmalariga ega talabalar moslashuv jarayonini tezroq va muvaffaqiyatliroq o‘tadilar.

Umuman olganda, nodavlat ta’lim tashkilotlarida talabalar moslashuvi ko‘p omilli tizim bo‘lib, u psixologik, ijtimoiy va shaxsiy omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Shu boisdan, ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, moslashuvga yo‘naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etish hamda talabalarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 2005. – 352 с.
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Смысл, 2004. – 432 с.
3. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2017. – 720 с.
4. Ананьев Б. Г. Человек как предмет познания. – СПб.: Питер, 2010. – 288 с.
5. Абульханова-Славская К. А. Стратегия жизни. – М.: Мысль, 1991. – 299 с.

6. Реан А. А. Психология личности и социальная адаптация студентов. – СПб.: Питер, 2013. – 384 с.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ МОТИВАЦИИ У СТУДЕНТОВ

Рысова Галия Байбулатовна *- преподаватель кафедры Педагогики и психологии УзГУМЯ*
Тел:+998330966093
galiarysova@gmail.com

Аннотация. В статье рассматриваются психологические механизмы формирования исследовательской мотивации у студентов в условиях высшего образования. Обосновывается значимость внутренней мотивации, самоэффективности, познавательного интереса и рефлексии как ключевых факторов вовлечения обучающихся в научно-исследовательскую деятельность. Анализируются современные психолого-педагогические подходы к стимулированию научной активности студентов. Представлены результаты теоретического анализа и предложена модель формирования исследовательской мотивации, включающая когнитивный, эмоциональный и поведенческий компоненты. Делается вывод о необходимости комплексного педагогического воздействия, направленного на развитие устойчивой исследовательской позиции студентов.

Ключевые слова: исследовательская мотивация, студенты, научная деятельность, самоэффективность, познавательный интерес, рефлексия, педагогическое сопровождение.

Abstract. The article examines the psychological mechanisms underlying the formation of research motivation among students in higher education settings. The significance of intrinsic motivation, self-efficacy, cognitive interest, and reflection is substantiated as key factors in engaging students in research activities. Contemporary psycho-pedagogical approaches to stimulating students' scientific activity are analyzed. The results of a theoretical analysis are presented, and a model of research motivation formation is proposed, including cognitive, emotional, and behavioral components. The study concludes that comprehensive pedagogical influence aimed at developing a stable research orientation among students is necessary.

Keywords: research motivation, students, scientific activity, self-efficacy, cognitive interest, reflection, pedagogical support.

Современная система высшего образования ориентирована не только на передачу знаний, но и на формирование у студентов способности к самостоятельному научному поиску, критическому мышлению и инновационной деятельности. В этих условиях особую актуальность приобретает проблема формирования исследовательской мотивации у студентов как одного из ключевых факторов их профессионального и личностного развития.

Несмотря на значительное количество исследований, посвящённых мотивации обучения, проблема стимулирования именно исследовательской активности студентов остаётся недостаточно разработанной. Это обусловлено сложностью и многокомпонентностью данного феномена, включающего как когнитивные, так и эмоционально-личностные аспекты. Данный феномен требует комплексного междисциплинарного анализа, объединяющего подходы педагогики, психологии и теории образования. Особую значимость приобретает выявление тех психологических механизмов, которые не только инициируют, но и поддерживают устойчивую исследовательскую активность студентов на протяжении всего периода обучения в вузе[1].

Следует отметить, что исследовательская мотивация не формируется спонтанно, а является результатом целенаправленного педагогического воздействия и активного включения студента в образовательную среду. В этом контексте важную роль играют такие факторы, как характер учебных заданий, стиль педагогического взаимодействия, наличие научного наставничества и возможность практического применения полученных знаний. С психологической точки зрения исследовательская мотивация тесно связана с развитием

внутренней мотивации личности, которая, в отличие от внешней, основывается на познавательном интересе, стремлении к самореализации и удовлетворении от процесса деятельности[1]. Именно внутренняя мотивация обеспечивает более высокий уровень вовлечённости студентов в научную работу и способствует формированию устойчивого интереса к исследовательской деятельности.

Кроме того, важным компонентом является сформированность у студентов чувства самоэффективности, которое отражает их уверенность в способности успешно справляться с исследовательскими задачами. Низкий уровень самоэффективности может выступать серьёзным барьером на пути включения в научную деятельность, даже при наличии высокого познавательного потенциала.

Не менее значимым фактором выступает познавательный интерес, который выполняет функцию внутреннего побудителя активности. Его развитие возможно при условии создания проблемных ситуаций, стимулирующих интеллектуальное напряжение и поиск новых знаний. В этом процессе особую роль играет преподаватель, способный организовать образовательную деятельность таким образом, чтобы она вызывала у студентов устойчивый интерес и стремление к исследованию. Также следует учитывать роль рефлексии как механизма осмысления собственной деятельности. Развитие рефлексивных навыков позволяет студентам анализировать свои достижения и трудности, корректировать стратегии поведения и повышать эффективность научной работы.

Теоретические основы исследования . Исследовательская мотивация рассматривается как совокупность внутренних и внешних побуждений, направляющих студента на участие в научно-исследовательской деятельности. В рамках психолого-педагогического подхода особое внимание уделяется внутренней мотивации, связанной с интересом к познанию, стремлением к самореализации и развитию.

Одним из ключевых понятий является самоэффективность, отражающая уверенность студента в собственной способности успешно выполнять исследовательские задачи. Высокий уровень самоэффективности способствует повышению активности, настойчивости и устойчивости к трудностям[2].

Важную роль играет также познавательный интерес, который выступает как эмоционально окрашенное отношение к процессу познания. Его развитие связано с созданием проблемных ситуаций, стимулирующих интеллектуальную активность студентов.

Психологические механизмы формирования исследовательской мотивации. На основе анализа научной литературы можно выделить следующие ключевые психологические механизмы:

1. ***Механизм внутренней мотивации*****.** Формируется на основе удовлетворения базовых психологических потребностей: автономии, компетентности и принадлежности. Студенты, испытывающие внутренний интерес к исследовательской деятельности, демонстрируют более высокий уровень вовлечённости. Механизм внутренней мотивации выступает как базовый, определяющий направленность личности на познавательную активность. Однако его эффективность значительно усиливается при наличии развитой самоэффективности, поскольку даже при высоком интересе к исследованию студент может избегать сложных задач при недостаточной уверенности в собственных возможностях.

2. ***Механизм самоэффективности*****.** Уверенность в своих силах способствует принятию сложных задач и повышает устойчивость к неудачам. Формируется через успешный опыт, поддержку преподавателя и позитивную обратную связь. Развитие самоэффективности носит поэтапный характер и тесно связано с накоплением позитивного опыта исследовательской деятельности. Каждое успешно выполненное задание, связанное с анализом научной информации, проведением эмпирического исследования или представлением результатов, укрепляет уверенность студента в своих силах и формирует внутреннюю готовность к более сложным научным вызовам[3].

Важную роль в данном процессе играет педагогическое сопровождение. Поддержка со стороны преподавателя, выражающаяся в конструктивной критике, методической помощи и эмоциональном одобрении, способствует снижению тревожности и формированию положительной академической самооценки. Особенно значимым является своевременная обратная связь, позволяющая студенту осознавать динамику собственного развития и корректировать исследовательские действия.

3. ***Механизм когнитивной вовлечённости*****.** Связан с активным участием студента в процессе познания. Включает развитие критического мышления, анализа и синтеза информации. Когнитивная вовлечённость, в свою очередь, обеспечивает содержательную сторону исследовательской деятельности. Она проявляется в способности студента к самостоятельной постановке проблем, выдвижению гипотез и поиску решений. Данный механизм тесно связан с развитием критического мышления и интеллектуальной инициативы.

4. ***Эмоционально-ценностный механизм*****.** Предполагает формирование положительного отношения к научной деятельности, развитие интереса и удовлетворения от процесса исследования. Положительные эмоции, возникающие в процессе исследования, способствуют формированию устойчивых мотивационных установок и повышают вероятность повторного включения студента в научную работу.

5. ***Рефлексивный механизм*****.** Обеспечивает осмысление студентом собственной деятельности, анализ успехов и ошибок, формирование адекватной самооценки. Благодаря рефлексии студент получает возможность анализировать собственный опыт, выявлять причины успехов и неудач, а также корректировать дальнейшие действия. Это способствует развитию самостоятельности и ответственности за результаты своей научной деятельности.

Выделенные психологические механизмы функционируют не изолированно, а в тесной взаимосвязи, образуя целостную систему, обеспечивающую формирование устойчивой исследовательской мотивации у студентов. Их интеграция позволяет не только инициировать интерес к научной деятельности, но и поддерживать его на протяжении длительного времени. Таким образом, эффективность формирования исследовательской мотивации во многом определяется степенью развития каждого из указанных механизмов и характером их взаимодействия. Это требует от образовательной системы целенаправленного создания условий, способствующих их комплексному развитию в процессе обучения студентов[4].

Педагогические условия формирования исследовательской мотивации. Эффективное развитие исследовательской мотивации возможно при соблюдении следующих условий:

- создание развивающей образовательной среды;
- использование проблемного и проектного обучения;
- индивидуализация образовательного процесса;
- поддержка инициативы студентов;
- организация научного наставничества.

Особое значение имеет роль преподавателя, который выступает не только источником знаний, но и фасилитатором научной деятельности, создающим условия для самореализации студентов[5].

Реализация указанных педагогических условий предполагает системный и целенаправленный характер образовательного воздействия, ориентированного на активизацию внутреннего потенциала студентов.

Создание развивающей образовательной среды выступает базовым условием, обеспечивающим включение обучающихся в исследовательскую деятельность. Такая среда характеризуется открытостью, вариативностью образовательных траекторий, доступностью научных ресурсов и стимулированием познавательной активности.

Использование проблемного и проектного обучения способствует формированию у студентов исследовательской позиции, предполагающей самостоятельный поиск решений

и критическое осмысление учебного материала. Данные технологии обучения создают условия для моделирования реальных научных задач, что повышает уровень вовлечённости студентов и способствует развитию их аналитических и исследовательских компетенций.

Индивидуализация образовательного процесса позволяет учитывать личностные особенности, уровень подготовки и интересы студентов, что является важным фактором повышения их мотивации к научной деятельности.

Дифференцированный подход обеспечивает более точное соответствие образовательных задач возможностям и потребностям обучающихся, что способствует успешному включению их в исследовательскую работу[6].

Поддержка инициативы студентов является значимым педагогическим условием, направленным на формирование у них самостоятельности и ответственности за результаты собственной деятельности. Поощрение исследовательских инициатив, участие в научных конкурсах, конференциях и проектах способствует развитию устойчивого интереса к науке и укреплению внутренней мотивации.

Организация научного наставничества играет важную роль в профессиональном становлении студентов. Взаимодействие с научным руководителем обеспечивает не только передачу знаний и опыта, но и психологическую поддержку, что особенно важно на начальных этапах включения в исследовательскую деятельность. Наставничество способствует формированию уверенности в собственных силах и развитию исследовательских компетенций[5].

Особое значение в системе формирования исследовательской мотивации имеет деятельность преподавателя, который выполняет функцию фасилитатора образовательного процесса. Его задача заключается в создании условий, способствующих раскрытию научного потенциала студентов, стимулировании их познавательной активности и сопровождении индивидуальной траектории развития. Эффективное педагогическое взаимодействие способствует формированию устойчивой исследовательской направленности личности студента и повышению уровня его научной активности.

Модель формирования исследовательской мотивации. Предлагаемая модель включает три взаимосвязанных компонента:

Когнитивный компонент — знания, исследовательские умения и навыки;

Эмоциональный компонент — интерес, удовлетворение, позитивное отношение к науке;

Поведенческий компонент — активное участие в научной деятельности, инициативность, самостоятельность.

Данная модель предполагает поэтапное развитие мотивации: от внешнего стимулирования к внутренней заинтересованности.

Анализ показывает, что формирование исследовательской мотивации требует комплексного подхода, учитывающего индивидуальные особенности студентов. Наиболее эффективными являются методы, направленные на развитие внутренней мотивации и самоэффективности[3, 6].

Практика показывает, что включение студентов в реальные научные проекты, участие в конференциях и публикационной деятельности значительно повышает их интерес к исследовательской работе.

Таким образом, исследовательская мотивация студентов формируется под воздействием комплекса психологических механизмов, включающих внутреннюю мотивацию, самоэффективность, познавательный интерес и рефлексию. Эффективное стимулирование научной активности возможно при создании благоприятных педагогических условий и активной роли преподавателя. Перспективы дальнейших исследований связаны с разработкой диагностических инструментов оценки уровня исследовательской мотивации и внедрением инновационных педагогических технологий.

Литература:

1. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. — М.: Просвещение, 2008.
2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. — М.: Логос, 2010.
3. Маркова А.К. Формирование мотивации учения. — М.: Просвещение, 1990.
4. Бандура А. Теория социального научения. — СПб.: Евразия, 2000.
5. Деси Э., Райан Р. Внутренняя мотивация и самоопределение личности. — М.: Смысл, 2011.
6. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. — М.: Политиздат, 1975.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. — СПб.: Питер, 2002.

PSIXOLOGIK EKSPERTIZA JARAYONLARINI TASHKIL ETISHDA PSIXOLOGIK OMILLAR TAHLILI

Shohjahon Dehqonboyev Oybek o'g'li
Buxoro davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Tadqiqotda ekspertiza jarayonining samaradorligiga ta'sir qiluvchi shaxslararo munosabatlar, kommunikativ muhit, stress darajasi, emotsional barqarorlik hamda ijtimoiy idrok kabi omillar nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ekspert va tekshiriluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning psixologik dinamikasi, ishonch darajasi va muloqot strategiyalarining ahamiyati yoritiladi. Sud-psixologik baholash jarayonida yuzaga keladigan subyektivlikni kamaytirish va xolislikni ta'minlashda ijtimoiy-psixologik yondashuvlarning o'rni asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ekspertiza sifatini oshirish va amaliy faoliyatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sud-psixologik ekspertiza, ijtimoiy psixologiya, kommunikatsiya, emotsional holat, stress, ishonch, shaxslararo munosabatlar, xolislik.

Аннотация. Рассматриваются межличностные отношения, коммуникативная среда, уровень стресса, эмоциональная устойчивость и особенности социального восприятия, которые оказывают значительное влияние на эффективность экспертного процесса. Особое внимание уделяется психологической динамике взаимодействия между экспертом и обследуемым лицом, а также роли доверия и коммуникативных стратегий. Подчеркивается значение социально-психологических подходов в снижении субъективности и обеспечении объективности экспертных заключений. Полученные результаты способствуют повышению качества судебно-психологической экспертизы и совершенствованию практической деятельности специалистов.

Ключевые слова: судебно-психологическая экспертиза, социальная психология, коммуникация, эмоциональная устойчивость, стресс, доверие, межличностные отношения, объективность.

Abstract. It examines interpersonal relationships, communicative environment, stress levels, emotional stability, and social perception as key determinants affecting the effectiveness of expert assessment procedures. Special attention is given to the psychological dynamics of interaction between the expert and the examinee, as well as the role of trust and communication strategies. The research emphasizes the importance of socio-psychological approaches in reducing subjectivity and ensuring objectivity in forensic evaluations. The findings contribute to improving the quality of forensic psychological practice and enhancing professional methodologies in this field.

Key words: forensic psychological examination, social psychology, communication, emotional stability, stress, trust, interpersonal relations, objectivity.

Sud-psixologik ekspertiza jarayonlarining samaradorligi nafaqat metodik vositalarga, balki ijtimoiy-psixologik omillarga ham bevosita bog'liqdir. Xususan, ekspert va tekshiriluvchi shaxs o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar, ishonch darajasi, emotsional zo'riqish, stress omillari, shuningdek, ijtimoiy idrok va stereotiplar ekspert xulosasining xolisligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori darajadagi stress holati shaxsning kognitiv

funksiyalarini (diqqat, xotira, mantiqiy fikrlash) 20–40% gacha pasaytirishi mumkin, bu esa ekspertiza natijalarining aniqligiga bevosita ta’sir etadi.

Bundan tashqari, sud-psixologik ekspertiza jarayonida shaxslararo munosabatlar muhim rol o‘ynaydi. Ekspertning kommunikativ kompetensiyasi, neytral pozitsiyani saqlay olishi hamda empatiya darajasi tekshiriluvchidan olinadigan ma’lumotlarning to‘liqligi va ishonchliligini belgilaydi. Ijtimoiy psixologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ishonch darajasi yuqori bo‘lgan muhitda respondentlar 30–35% ko‘proq ochiqlik bilan ma’lumot taqdim etadi.

Shuningdek, madaniy va ijtimoiy kontekst ham ekspertiza jarayoniga ta’sir etuvchi muhim omillardan biridir. Shaxsning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlari, oilaviy va jamiyatdagi o‘rni uning javoblarida subyektivlik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Shu sababli sud-psixologik ekspertiza jarayonini tashkil etishda nafaqat klinik-psixologik yondashuv, balki ijtimoiy-psixologik yondashuvni ham integratsiya qilish zarur hisoblanadi.

Fon Fenomenlari *(Mikrodaraja)*	**Nazoratsizlik va qarovsizlik:** Ijtimoiy yetimlik, asotsial oilalar muhiti, bolalarning ko‘cha mehnatiga, fohishalik va jinoiy biznesga jalb etilishi.	Kriminogen submadaniyatlarga (norasmiy guruhlarga) tobe bo‘lib qolish, ma’naviy-axloqiy immunitetning yo‘qolishi.
Subyektiv Omillar *(Shaxsiy daraja)*	Yosh inqirozlari, hayotiy tajribasizlik, emotsional beqarorlik, tavakkalchilikka moyillik, kattalarga noto‘g‘ri taqlid qilish, ruhiy anomaliyalar.	Huquqbuzarlikka nisbatan ichki psixologik tayyorlik yoki himoyasizlik (kriminogen dunyoqarash).

4. Mikromuhitdagi Destruktiv Omillar va Fon Hodisalari

O‘smir shaxsining kriminallashuvida mikromuhit drayverlari (yetakchi omillari) alohida xavf guruhini tashkil etadi:

Nazoratsizlik va Qarovsizlik: Bu jarayon oiladagi nosog‘lom mikroiqlim, ota-onaning mas’uliyatsizligi yoki tarbiya berish imkoniyatining yo‘qligi natijasidir. Eng xavflisi — ota-onaning farzandi kimlar bilan muloqot qilayotganini bilmasligidir. Natijada kriminogen guruhlar o‘smirni osongina o‘ziga bo‘ysundiradi va undan jinoyat vositasi sifatida foydalanadi (aksariyat hollarda o‘smirlar "viktimlik", ya’ni oson jabrlanuvchiga aylanish xavfi ostida ham qoladilar).

Oila va atrof-muhitdagi zo‘ravonlik: Kriminologik tadqiqotlar zo‘ravonlik va shafqatsiz jinoyatlar sodir etuvchi o‘smirlarning aksariyati bolaligida jismoniy yoki ruhiy tahqirlanganini ko‘rsatadi. Oilalardagi alkogolizm va alkogol mahsulotlari iste’molining erkinlashuvi maishiy zo‘ravonlik ko‘lamini kengaytirib, bolada "zo‘ravonlik ssenariysi"ni shakllantiradi.

OAV va media makonning salbiy axborot ta’siri: Zamonaviy media mahsulotlar (kinoindustriya, internet resurslari) orqali shafqatsizlik, g‘ayriijtimoiy hayot tarzi va zo‘ravonlikning kult darajasiga ko‘tarilishi o‘smirlarda salbiy qahramonlarga taqlid qilish hamda huquq-tartibot organlariga nisbatan nafrat hissini uyg‘otmoqda.

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining barvaqt oldini olish (profilaktika) tizimida quyidagi tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

Bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchilik normalari va xalqaro standartlar ijrosining to‘liq ta’minlanmayotganligi.

Ixtisoslashtirilgan ijtimoiy-psixologik xizmat ko‘rsatish tizimining, kadrlar salohiyatining va moddiy-texnik ta’minotning yetarli emasligi.

Profilaktika organlari faoliyatida reabilitatsiya (ijtimoiy moslashtirish) emas, ko‘proq ma’muriy jazo yoki vaqtincha izolyatsiya qilish (repressiv) choralarining ustunligi.

Xulosa va tavsiyalar

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish faqatgina jazo choralarini kuchaytirish bilan cheklanmasligi kerak. Zero, bu muammo ijtimoiy borliqdagi obyektiv va subyektiv ziddiyatlarning mahsulidir. Muammoning ijobiy yechimi uchun kompleks profilaktik modelni tatbiq etish zarur:

Huquqiy-tashkiliy jihatdan: Bola huquqlari sohasidagi qonunchilik monitoringini kuchaytirish, teleradio va internet makonida bolalar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan kontentlar ustidan ijtimoiy-huquqiy nazoratni (senzurani) tizimlashtirish.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan: Kam ta’minlangan va asotsial oilalarni faqat moddiy emas, ijtimoiy-psixologik patronaj (qo‘llab-quvvatlash) tizimi bilan qamrab olish; ijtimoiy yetimlik darajasini kamaytirish.

Pedagogik-psixologik jihatdan: Maktab va ta’lim muassasalarida o‘smirlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish (bepul sport va to‘garaklar tarmog‘ini kengaytirish), deviant xulq-

atvorga ega o‘smirlar bilan yakka tartibda ishlovchi psixologik xizmatlarni institutsional darajada kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. **Avanesov, G. A.** (2012). *Kriminologiya: Uchebnik* (6-e izd.). Moskva: Yuniti-Dana. – 575 s.
2. **Bandura, A.** (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall. – 247 p.
3. **Baumrind, D.** (1991). The influence of parenting style on adolescent competence and substance use. *Journal of Early Adolescence*, 11(1), 56-95.
4. **Bronfenbrenner, U.** (1979). *The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design*. Cambridge, MA: Harvard University Press. – 330 p.
5. **Gersenzon, A. A.** (1965). *Vvedenie v sovetskuyu kriminologiyu*. Moskva: Yuridicheskaya literatura. – 228 s.
6. **Kudryavsev, V. N.** (2005). *Lektsii po kriminologii*. Moskva: Yurist. – 188 s.
7. **Merton, R. K.** (1938). Social structure and anomie. *American Sociological Review*, 3(5), 672-682.
8. **Freyd, Z.** (2022). *Ya i Ono: sbornik rabot*. Moskva: Azbuka-Attikus. – 384 s.
9. **G‘oziyev, E. G‘.** (2010). *Ontogenez psixologiyasi*. Toshkent: Noshir. – 240 b.

IJTIMOIY MULOQOT KOMPETENSIYASINING MAZMUNI, STRUKTURA VA KOMPONENTLARI

Abdullayeva Sevara Yuldashevna

Urganch davlat universiteti

13:00:02 “Ta’lim va tarbiya nazariyasi hamda metodikasi”mutaxasisligi

1-bosqich tayanch doktoranti

Email: sevarayuldashevna411@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida ijtimoiy muloqot kompetensiyasining mazmuni, tuzilishi va asosiy komponentlarini o'rganadi. Tadqiqotda muloqot kompetensiyasining nazariy asoslari, uning pedagogik ahamiyati va talabalar o'rtasida samarali shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy faollik va kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Ta'lim muhitida kommunikativ madaniyat, hissiy intellekt, raqamli muloqot, hamkorlik ko'nikmalari va ijtimoiy-psixologik moslashuvga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada shuningdek, ijtimoiy muloqot kompetensiyasini oshirishning innovatsion pedagogik yondashuvlari o'rganiladi va raqamli jamiyatda raqobatbardosh va ijtimoiy faol shaxslarni tayyorlashdagi ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy muloqot kompetensiyasi, kommunikativ ko'nikmalar, shaxslararo muloqot, kommunikativ madaniyat, hissiy intellekt, ijtimoiy o'zaro ta'sir, raqamli muloqot, hamkorlik ko'nikmalari, professional kompetensiya, pedagogik yondashuvlar.

Global rivojlanishning zamonaviy bosqichida ijtimoiy muloqot kompetensiyasi professional va shaxsiy rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi. Tez globallashuv, raqamli transformatsiya, texnologik taraqqiyot va axborot almashinuvi jarayonlarining kengayishi jamiyatning barcha sohalarida muloqot rolini sezilarli darajada oshirdi. Bugungi kunda muvaffaqiyatli professional faoliyat nafaqat nazariy bilim va texnik ko'nikmalarga, balki samarali muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy munosabatlarni boshqarish va ko'p madaniyatli va raqamli muhitga moslashish qobiliyatiga ham bog'liq. Shu sababli, ijtimoiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish butun dunyo bo'ylab zamonaviy ta'lim tizimlarining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi.

Ijtimoiy muloqot kompetensiyasi shaxsning samarali shaxslararo munosabatlarni o'rnatish, fikrlarni aniq ifoda etish, boshqalarni tushunish, ijtimoiy muhitda hamkorlik qilish va axloqiy, madaniy va professional normalarga asoslangan muloqot jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya bilim, amaliy ko'nikmalar, hissiy aql, ijtimoiy xulq-atvor va kommunikativ madaniyatni birlashtiradi. Ta'lim amaliyotida ijtimoiy muloqot kompetensiyasi talabalarning o'qish samaradorligini, yetakchilik qobiliyatlarini, jamoaviy ish madaniyatini va ijtimoiy faolligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda so'nggi

yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli ta'lim islohotlari yoshlar orasida ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhimligini ta'kidladi. “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi”da ta’lim sifatini oshirish, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash, intellektual salohiyatni rivojlantirish va ijtimoiy faollikni kuchaytirish strategik ustuvorliklar sifatida belgilangan. Ushbu strategiyaga muvofiq, ta’lim tizimi zamonaviy professional kompetensiyalarga, raqamli savodxonlikka va samarali muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashi kerak. Strategiyada, shuningdek, demokratik va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga qodir barkamol rivojlangan avlodni shakllantirishning muhimligi ta’kidlangan.

“Yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni oliy ta’lim muassasalariga kompetensiyaga asoslangan ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etishga qaratilgan. O‘zbekiston Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligining rasmiy ma’lumotlariga ko‘ra, hozirda mamlakatda 210 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari, jumladan, davlat, xususiy va xalqaro universitetlar faoliyat yuritmoqda. So‘nggi yillarda oliy ta’limda tahsil olayotgan talabalar soni 1,3 milliondan oshdi, bu ta’lim qamrovining sezilarli darajada oshganini va talabalarning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini yaxshilash zarurligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy mehnat bozori tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, ish beruvchilar yumshoq ko‘nikmalar va muloqot qobiliyatlariga tobora ko‘proq ustuvor ahamiyat berishmoqda. Jahon iqtisodiy forumining "Ish o'rinlarining kelajagi" hisobotiga ko'ra, muloqot qobiliyatlari, jamoaviy ish, hissiy intellekt va analitik fikrlash XXI asr mehnat bozorida talab qilinadigan eng yaxshi o'nta kompetentsiya qatoriga kiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, professional muvaffaqiyatning taxminan 85% muloqot va shaxslararo ko'nikmalarga bog'liq, atigi 15% esa texnik bilimlarga bog'liq. Bu ko'rsatkichlar ijtimoiy muloqot kompetensiyasining kasbiy rivojlanishdagi ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

`Ijtimoiy muloqot kompetensiyasining tuzilishi bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bir nechta komponentlardan iborat. Birinchi komponent - bu muloqot nazariyalari, til normalari, axloqiy standartlar, madaniy qadriyatlar va shaxslararo o'zaro ta'sir tamoyillarini tushunishni o'z ichiga olgan kommunikativ bilim. Ushbu komponent shaxslarga turli ijtimoiy muhitlarda samarali muloqot qoidalari va mexanizmlarini tushunishga yordam beradi. Ikkinchi muhim komponent - bu kommunikativ ko'nikmalar. Bu ko'nikmalar og'zaki va og'zaki bo'lmagan muloqot, faol tinglash, omma oldida nutq so'zlash, muzokaralar olib borish, nizolarni hal qilish, jamoaviy ish va raqamli muloqot qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Samarali kommunikativ ko'nikmalar shaxslarga o'z fikrlarini aniq ifoda etish, konstruktiv muloqot o'rnatish va ijobiy ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi. Ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kuchli muloqot qobiliyatiga ega talabalar yuqori akademik ko'rsatkichlarga va ijtimoiy faoliyatda ko'proq ishtirok etishga ega.

Yana bir muhim komponent - bu hissiy intellekt. Hissiy intellekt muloqot jarayonlarida his-tuyg'ularni tushunish, nazorat qilish va boshqarish qobiliyatini anglatadi. Psixologlar hissiy intellekt rahbarlik fazilatlari, empatiya, ijtimoiy moslashuv va jamoaviy ish madaniyatiga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydilar. Xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, yuqori hissiy intellektga ega shaxslar professional va ijtimoiy muhitda ko'proq muvaffaqiyat qozonishadi. Hissiy intellekt, shuningdek, nizolarning oldini olishga yordam beradi va shaxslararo tushunishni yaxshilaydi.

Ijtimoiy xulq-atvor va axloqiy madaniyat ham muloqot qobiliyatining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimlari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qiladigan, bag'rikenglikni namoyon etadigan va axloqiy muloqot tamoyillariga amal qiladigan ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni shakllantirishga qaratilgan. O'zbekistonda ta'lim islohotlari yoshlar orasida vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati, bag'rikenglik va madaniy ongni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi.

Raqamli muloqot ijtimoiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda yana bir muhim yo'nalishga aylandi. Bugungi kunda internet texnologiyalari, ijtimoiy media platformalari, onlayn ta'lim tizimlari va virtual aloqa vositalari shaxslararo muloqot jarayonlarini o'zgartirdi. Rasmiy

statistika ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 32 milliondan oshdi, yoshlar orasida ijtimoiy mediadan foydalanish esa tez sur'atlar bilan o'sishda davom etmoqda. Natijada, ta'lim muassasalari talabalarning raqamli muloqot madaniyati va media savodxonligini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor qaratmoqda.

"Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi raqamli texnologiyalarni kengaytirish va aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan muhim davlat dasturi bo'lib xizmat qiladi. Ushbu strategiya raqamli aloqa muhitida samarali ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurligini ta'kidlaydi. Zamonaviy talabalar nafaqat an'anaviy muloqot ko'nikmalariga, balki onlayn hamkorlik, virtual jamoaviy ish, raqamli etika va axborot xavfsizligi bilan bog'liq ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari kerak.

Media savodxonligi raqamli davrda ijtimoiy muloqot kompetensiyasining ajralmas qismiga aylandi. Bugungi kunda yoshlar ijtimoiy media, veb-saytlar va onlayn platformalar orqali tarqatiladigan katta hajmdagi ma'lumotlarga duch kelmoqdalar. Biroq, hamma ma'lumot ham ishonchli yoki aniq emas. Shuning uchun talabalar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini va axborotni xolisona tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishlari kerak. Media savodxonligi bo'yicha ta'lim shaxslarga rostgo'y ma'lumotlarni soxta yangiliklardan ajratishga, mafkuraviy manipulyatsiyaga qarshi turishga va axborot xavfsizligini saqlashga yordam beradi. Ta'lim muassasalari ijtimoiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda markaziy rol o'ynaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar interaktiv o'qitish usullari, hamkorlikdagi o'rganish, munozaralar, loyiha asosidagi ta'lim, rol o'ynash faoliyati va amaliy muloqot mashqlariga qaratilgan. Ushbu usullar talabalarga muloqot madaniyati, jamoaviy ish ko'nikmalari va yetakchilik qobiliyatlarini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interaktiv ta'lim usullari talabalarning ishtirok darajasini an'anaviy ma'ruza asosidagi o'qitish yondashuvlariga nisbatan taxminan 40-50% ga oshiradi. Kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi O'zbekiston oliy ta'lim tizimida keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv faqat nazariy bilimlarga e'tibor qaratish o'rniga amaliy ko'nikmalar va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Universitetlar yoshlar o'rtasida muloqot qobiliyati va ijtimoiy faollikni mustahkamlash uchun ilmiy konferensiyalar, intellektual musobaqalar, ijtimoiy loyihalar va talabalar tashabbuslarini tashkil qiladi. Bunday tadbirlar talabalarning o'ziga bo'lgan ishonchini, ijodkorligini va professional tayyorgarligini oshiradi. Ijtimoiy muloqot qobiliyatini rivojlantirishda o'qituvchilarning roli juda muhim. Zamonaviy o'qituvchilardan psixologik jihatdan qulay o'quv muhitini yaratish, ochiq muloqotni rag'batlantirish va innovatsion pedagogik usullarni qo'llash kutilmoqda. O'qituvchilar, shuningdek, talabalarni ta'lim va ijtimoiy faoliyatda samarali boshqarish uchun kuchli muloqot madaniyati, hissiy intellekt va raqamli savodxonlik ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak.

Davom etayotgan islohotlarga qaramay, talabalar o'rtasida ijtimoiy muloqot qobiliyatini rivojlantirishda muayyan qiyinchiliklar hali ham mavjud. Ba'zi ta'lim muassasalari talabalarning faol ishtirokini cheklaydigan an'anaviy o'qitish usullariga katta tayanishda davom etmoqda. Bundan tashqari, amaliy muloqot mashg'ulotlarining yetarli emasligi, raqamli muloqot madaniyatining zaifligi va ijtimoiy tarmoqlarga haddan tashqari bog'liqlik yoshlar o'rtasidagi shaxslararo muloqot ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli virtual muloqot yuzma-yuz muloqot qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuvchanlikni pasaytirishi mumkin. Yana bir jiddiy muammo kiberbulling va zararli onlayn muloqotdir. Xalqaro hisobotlarga ko'ra, yosh internet foydalanuvchilarining katta qismi onlayn psixologik bosim yoki zararli raqamli kontentga duchor bo'ladi. Shuning uchun universitetlar va maktablar raqamli etika, kiberxavfsizlik va sog'lom muloqot madaniyati bilan bog'liq ta'lim dasturlarini kuchaytirishlari kerak.

So'nggi yillarda O'zbekiston yoshlar rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy kompetensiyalarni mustahkamlashga qaratilgan bir qator islohotlarni amalga oshirdi. Yoshlar ishlari agentligi, ta'lim vazirliklari va jamoat tashkilotlari faol ravishda yetakchilik maktablari, muloqot treninglari, yoshlar forumlari, ko'ngillilar loyihalari va motivatsion dasturlarni tashkil qilmoqda. Ushbu tashabbuslar yoshlar orasida ijtimoiy faollik va muloqot madaniyatini oshirishga

hissa qo'shadi.

Xalqaro tajriba ham ta'limni rivojlantirishda ijtimoiy muloqot kompetensiyasining muhimligini ko'rsatadi. Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Kanada kabi ilg'or ta'lim tizimlariga ega mamlakatlar muloqot ko'nikmalari, hissiy intellekt va hamkorlikdagi o'rganishni ta'lim o'quv dasturlariga faol ravishda integratsiya qiladilar. Ularning ta'lim modellari ko'p madaniyatli muhitda ishlashga qodir ijtimoiy moslashuvchan va muloqotga qodir shaxslarni tayyorlashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy muloqot kompetensiyasi kommunikativ bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hissiy intellekt, axloqiy madaniyat, ijtimoiy xulq-atvor va raqamli savodxonlikni o'z ichiga olgan murakkab tizimni ifodalaydi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bu kompetensiya professional muvaffaqiyat va ijtimoiy moslashuvning eng muhim omillaridan biriga aylandi. O'zbekistonda amalga oshirilgan ta'lim islohotlari talabalar orasida muloqot kompetensiyasini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga javob bera oladigan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Kelajakda ijtimoiy faol, intellektual rivojlangan va professional jihatdan muvaffaqiyatli yosh avlodni tarbiyalashda muloqot madaniyatini mustahkamlash, interaktiv ta'lim usullarini kengaytirish, raqamli savodxonlikni oshirish va media kompetentsiyasini rivojlantirish muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida” PQ–5847-son qaror. — Toshkent, 2019. — 15 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrir). — Toshkent: Adolat, 2020. — 48 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qaror. — Toshkent, 1997. — 32 b.
4. Hasanboyeva O., Nishonova S. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: O‘qituvchi, 2019. — 312 b.
5. Jo‘rayev N. Pedagogik texnologiyalar va kompetensiyaviy yondashuv. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. — 240 b.
6. Karimova D. Pedagogik muloqot va kommunikativ kompetensiyani

ER-XOTIN MUNOSABATLARIDA KOGNITIV BUZILISHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Vaydulla Madinabonu Muxtasam qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti pedagogika, psixologiyava jismoniy ma’daniyat kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Oilaviy tizimda bunday buzilishlar nizolar, emotsional uzoqlashuv va* ishonchsizlikning shakllanishiga olib keladi. Tadqiqotda ularning kelib chiqish sabablari va psixologik ta’sir mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kognitiv buzilishlar, oila, psixologik oqibatlar, avtomatik fikrlar, nizolar, idrok.

Аннотация. В семейной системе они могут приводить к конфликтам, эмоциональной дистанции и снижению уровня доверия. Рассматриваются причины возникновения данных искажений и их влияние на психологическое состояние членов семьи.

Ключевые слова: когнитивные искажения, семья, психологические последствия, мышление, конфликты, восприятие.

Abstract. Within family systems, these distortions can lead to conflicts, emotional distance, and reduced trust among members. The study highlights the main causes of these distortions and their psychological impact on family dynamics.

Key words: cognitive distortions, family, psychological consequences, thinking patterns, conflicts, perception.

Kirish. Kognitiv buzilishlar (cognitive distortions) atamasi ilk bor A. Bek (Aaron T. Beck)ning kognitiv terapiya nazariyasi doirasida keng yoritilgan bo‘lib, u insonlar stressli vaziyatlarda voqelikni tizimli ravishda noto‘g‘ri talqin qilishga moyil ekanini ta’kidlaydi. Masalan, “haddan tashqari umumlashtirish”, “katastrofalashuv”, “fikrlarni o‘qish illuziyasi” kabi kognitiv xatoliklar oilaviy munosabatlarda noto‘g‘ri xulosa va emotsional reaksiyalarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oilaviy tizim nazariyasiga ko‘ra (M. Bowen), oila a’zolari o‘zaro emotsional bog‘langan bo‘lib, bir a’zodagi kognitiv va emotsional buzilishlar butun tizimga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli kognitiv buzilishlar oilada nizolar, ishonchsizlik, emotsional uzoqlashuv va kommunikativ to‘siqlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Statistik va klinik kuzatuvlarga ko‘ra, oilaviy nizolarning katta qismi kommunikatsiya muammolari va noto‘g‘ri talqin qilingan xatti-harakatlar natijasida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv buzilishlarni o‘rganish oilaviy barqarorlikni ta’minlash, psixologik yordam va psixoterapevtik intervensiyalarni ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Albert Ellis esa ratsional-emotsional xulq-atvor terapiyasi doirasida “irratsional e’tiqodlar” tushunchasini kiritib, oilaviy munosabatlarda “men doimo to‘g‘ri bo‘lishim kerak”, “turmush o‘rtog‘im meni hech qachon xafa qilmasligi kerak” kabi qat’iy fikrlar nizolarning asosiy kognitiv manbai ekanligini ta’kidlaydi. D. Burns esa kognitiv buzilishlarning amaliy tasnifini ishlab chiqib, “haddan tashqari umumlashtirish”, “katastrofalashuv”, “emotsional fikrlash”, “shaxsiylashtirish” kabi shakllar oilaviy kommunikatsiyada eng ko‘p uchrashini ko‘rsatadi.

Rus psixologiya maktabida ham ushbu muammo chuqur o‘rganilgan. L. S. Vigotskiy kognitiv rivojlanishning ijtimoiy tabiatini asoslab, fikrlash jarayonlari muloqot va ijtimoiy muhit orqali shakllanishini ta’kidlagan. Bu yondashuv oilaviy muhitni kognitiv jarayonlarning asosiy maydoni sifatida talqin qilishga imkon beradi. A. N. Leontyev faoliyat nazariyasi doirasida shaxsning ong va faoliyati birligi tamoyilini ilgari surib, oilaviy faoliyat jarayonida shakllanadigan ma’nolar tizimi kognitiv idrokka bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan.

Bundan tashqari, B. G. Ananyev shaxsni kompleks tizim sifatida o‘rganib, uning kognitiv va emotsional jarayonlari ijtimoiy rollar bilan uzviy bog‘liqligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv oilaviy rollar (ota-ona, turmush o‘rtog‘i, farzand) doirasida kognitiv buzilishlar qanday shakllanishini tushuntirishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. S. L. Rubinshteyn esa ong va faoliyat birligi tamoyilini rivojlantirib, insonning har qanday idroki amaliy faoliyat jarayonida shakllanishini asoslagan.

Zamonaviy rus tadqiqotchilaridan E. T. Sokolova va V. V. Stolin oilaviy munosabatlar psixologiyasini o‘rganib, er-xotin o‘rtasidagi idrokning buzilishi ko‘pincha kommunikativ filtrlar va shaxsiy tajriba stereotiplari orqali yuzaga kelishini ko‘rsatgan. Ularning fikricha, oilaviy nizolarda eng asosiy omillardan biri bu – sherikning xatti-harakatini noto‘g‘ri interpretatsiya qilish va unga subyektiv ma’no yuklashdir.

Xorijiy zamonaviy tadqiqotlarda ham oilaviy tizimlarda kognitiv buzilishlar muhim o‘rganish obyekti bo‘lib qolmoqda. J. Gottmanning oilaviy munosabatlar bo‘yicha uzunlamas tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, er-xotinlar o‘rtasidagi muvaffaqiyatsiz kommunikatsiyaning asosida tanqid, himoyalanish, mensimaslik va hissiy yopilish kabi kognitiv-emotsional xatoliklar yotadi. Uning “to‘rtta otliq” modeli oilaviy buzilishlarning kognitiv asoslarini tushuntirishda keng qo‘llaniladi.

Shuningdek, S. Johnson tomonidan ishlab chiqilgan emotsional-fokusli terapiya (EFT) yondashuvi oilaviy nizolarda asosiy muammo kognitiv talqinlar va emotsional ehtiyojlarning noto‘g‘ri anglanishi ekanligini ko‘rsatadi. Bu yondashuvga ko‘ra, sherikning xatti-harakatini “rad etish” sifatida talqin qilish ko‘pincha chuqur xavfsizlik ehtiyojlari bilan bog‘liq kognitiv buzilishlardan kelib chiqadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, oilaviy munosabatlarda kognitiv buzilishlar nafaqat individual psixologik jarayon, balki ijtimoiy va tizimli omillar bilan ham

chambarchas bog‘liq hodisa hisoblanadi. Xorijiy va rus olimlarining ilmiy qarashlari ushbu muammoni turli nazariy yondashuvlar orqali yoritib bergan bo‘lib, ular oilaviy nizolarni tushuntirish va psixologik intervensiyalar ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy tizimda bir a’zoning kognitiv buzilishlari butun munosabatlar strukturasiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, sherikning oddiy xatti-harakatini “rad etish”, “hurmatsizlik” yoki “xiyonat belgisi” sifatida noto‘g‘ri talqin qilish emotsional keskinlikni kuchaytiradi va muloqotda ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida konfliktlarning chuqurlashuvi, emotsional uzoqlashuv va oilaviy barqarorlikning pasayishiga olib keladi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ham ko‘rsatadiki, kognitiv buzilishlar faqat individual psixologik xususiyat emas, balki ijtimoiy tajriba, tarbiya, oilaviy muhit va madaniy stereotiplar bilan ham shakllanadi. A. Beck va A. Ellis nazariyalari bu jarayonning ichki kognitiv mexanizmlarini yoritib bergan bo‘lsa, rus psixologiya maktabi vakillari (Vigotskiy, Leontyev, Ananyev) inson tafakkurining ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini asoslab bergan. Zamonaviy tadqiqotchilar esa oilaviy kommunikatsiyada emotsional va kognitiv jarayonlarning bir-biriga ta’sirini yanada chuqurroq ochib bermoqda.

Shuningdek, oilaviy munosabatlarda kognitiv buzilishlarning psixologik oqibatlari faqat nizolar bilan cheklanmaydi. Ular shaxsda stress, xavotir, depressiv holatlar, o‘ziga past baho berish, emotsional beqarorlik kabi holatlarni ham kuchaytirishi mumkin. Oilaviy tizimda uzoq davom etgan noto‘g‘ri idrok va buzilgan fikrlash modellari bolalar psixologiyasiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning kelajakdagi ijtimoiy munosabatlariga ham iz qoldiradi.

Umuman olganda, ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kognitiv buzilishlarni o‘rganish va ularni kamaytirishga qaratilgan psixologik yondashuvlar oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy munosabatlarda sog‘lom kognitiv fikrlashni shakllantirish, empatiya va to‘g‘ri kommunikatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish nizolarning oldini olish va psixologik farovonlikni oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, kognitiv buzilishlarni erta aniqlash va ularga psixokorreksion yondashuvlarni qo‘llash oilaviy psixologiya amaliyotida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Burns D. D. Feeling Good: The New Mood Therapy. - New York: HarperCollins, 1999. - 702 p.
2. Gottman J. S. The Seven Principles for Making Marriage Work. - New York: Harmony Books, 2015. - 300 p.
3. Johnson S. M. Emotionally Focused Couple Therapy. - New York: Guilford Press, 2004. - 392 p.
4. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. - 352 с.
5. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1977. - 304 с.

O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVORNI O‘RGANISHNING ILMIY-AMALIY JIXATLARI

Vapayev Sarvarbek Rajabbyevich- Abu-rayhon beruniy nomidagi UrDU, Pedagogika va psixologiya kafedrasi tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida uchraydigan deviant xulq-atvorning psixologik va pedagogik xususiyatlari, uning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi omillar hamda ilmiy-amaliy jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘smirlarda deviant xulq-atvorni erta aniqlash, diagnostika qilish, profilaktika va korreksiya ishlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari ta’lim muassasalari, psixologlar, pedagoglar va ota-onalar faoliyatida deviant xulq-atvorning oldini olish hamda sog‘lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: deviant xulq-atvor, o‘smirlik davri, psixologik diagnostika, profilaktika, korreksiya, ijtimoiylashuv, pedagogik yondashuv, psixologik omillar

Аннотация. В статье рассматриваются научно-практические аспекты изучения девиантного поведения подростков, его психолого-педагогические особенности, а также факторы, способствующие возникновению отклоняющегося поведения. Особое внимание уделяется современным подходам к ранней диагностике, профилактике и психолого-педагогической коррекции девиантного поведения. Результаты исследования могут быть использованы в деятельности образовательных учреждений, педагогов, психологов и родителей для предупреждения девиантного поведения подростков и создания благоприятной социальной среды.
Ключевые слова: девиантное поведение, подростковый возраст, психологическая диагностика, профилактика, коррекция, социализация, педагогический подход, психологические факторы.
Abstract. This article examines the scientific and practical aspects of studying adolescent deviant behavior, including its psychological and pedagogical characteristics and the factors contributing to its development. The paper highlights modern approaches to the early identification, diagnosis, prevention, and correction of deviant behavior among adolescents. The findings may be applied in educational institutions by psychologists, teachers, and parents to prevent deviant behavior and promote a healthy social environment for adolescents.
Keywords: deviant behavior, adolescence, psychological assessment, prevention, correction, socialization, pedagogical approach, psychological factors.

Respublikamizda ham so‘nggi yillarda o‘smirlarning ma’naviy-axloqiy kamolotini ta’minlash, ularni salbiy xulq-atvor va zararli ta’sirlardan himoya qilish, profilaktik ishlar samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarni ijtimoiy faol, mustaqil fikrlovchi, sog‘lom dunyoqarashga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ularning huquqbuzarlik va deviant xulq-atvordan xoli bo‘lib voyaga yetishini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o‘smirlar o‘rtasida deviant xulq-atvorni bartaraf etishda profilaktikaning o‘rnini ilmiy asosda tadqiq etish, mavjud muammolarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Deviant xulq-atvor tushunchasi jamiyatda qabul qilingan me’yorlardan og‘ish, ijtimoiy talab va qadriyatlarga zid xatti-harakatlar majmui sifatida talqin qilinadi. Bu atama nafaqat jinoyat yoki qo‘pol huquqbuzarlikni, balki axloqiy, ma’naviy va madaniy me’yorlardan chetlanishni ham qamrab oladi. O‘smirlik davrida deviant xulq-atvor psixologik rivojlanishdagi notekislik, ijtimoiy rollarni to‘liq anglamaslik, shaxslararo ziddiyatlar va o‘zini namoyon etishdagi muvozanatsizlik natijasida vujudga keladi. Bu davrda o‘smir o‘zini mustaqil shaxs sifatida ko‘rsatishga intiladi, biroq me’yorlarni buzish orqali e’tibor qozonish holati tez-tez uchraydi. Xorijiy tadqiqotlarda deviant xulq-atvor ijtimoiy nazoratning susayishi, oilaviy rishtalarning zaiflashuvi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yetishmasligi bilan bog‘lanadi. Xulqdagi og‘ishlar odatda uch yo‘nalishda ko‘riladi: agressivlik va zo‘ravonlik, moddaga bog‘liqlik, shuningdek o‘ziga zarar yetkazishga moyillik. Agressiv xulq ko‘pincha ichki emotsional beqarorlikning tashqi ifodasi sifatida yuzaga chiqadi.

Moddaga bog‘liqlik esa psixologik stressni yengishning noto‘g‘ri usuli sifatida talqin qilinadi. O‘ziga zarar yetkazishga moyillik esa shaxsning ichki iztirobini, e’tibor va yordamga bo‘lgan ehtiyojini bildiradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, o‘smirlarning deviant xulq-atvori ko‘pincha ijtimoiy ajralish, tengdoshlar bosimi va shaxsiy qadriyatlar tizimidagi ziddiyatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Xulqdagi og‘ishlar darajasi oilaviy sharoit, tarbiya uslubi, iqtisodiy holat va ta’lim muhitiga qarab o‘zgaradi. Chet elda olib borilgan izlanishlar natijalariga ko‘ra, o‘smirlarning taxminan 20–25 foizi hayotida kamida bir marta ijtimoiy me’yorlarga zid xatti-harakat qilgan. Ayrim manbalarda 15–19 yosh oralig‘idagi o‘smirlarning 30 foizdan ortig‘ida vaqtinchalik deviant holatlar kuzatilgani qayd etiladi. Shu bilan birga, bu ko‘rsatkich ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi past hududlarda yuqoriroq, o‘rta sinf oilalarida esa nisbatan past bo‘lishi aniqlangan. Ruhiy salomatlik bilan bog‘liq buzilishlar ham deviant xulqning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi

Chet eldagi monitoring natijalariga ko‘ra, ota-onasi bilan iliq munosabatda bo‘lgan o‘smirlar orasida deviant xulq ko‘rsatkichi ikki baravar past. Maktab psixologik xizmatlari faol bo‘lgan mamlakatlarda o‘smirlar orasidagi huquqbuzarlik darajasi 15 foizdan 7 foizgacha kamaygan. Tadqiqotlar shuni ham ko‘rsatadiki, o‘smirlar orasida ijtimoiy tarmoqlarda tajovuzkor xulq holatlari so‘nggi yillarda 10–12 foizga oshgan. Shu bois raqamli madaniyat va internet xavfsizligi masalalari ham deviant xulqni tahlil qilishda alohida yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda deviant xulq-atvor muammosi global miqyosda dolzarb bo‘lib, har beshinchi o‘smir o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishda qiyinchilik sezadi. O‘tkazilgan so‘rovlar natijasida, 14–17 yoshli respondentlarning 48 foizi kamida bir marta ijtimoiy me’yorlarga zid harakat qilganini tan olgan. Ularning 27 foizi esa bunday holatlarni “e’tibor qozonish” vositasi deb hisoblagan. Tadqiqotlar natijasida, o‘smirlarning 33 foizida ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi pastligi sababli o‘ziga ishonch yetishmasligi aniqlangan. Xorijiy ilmiy ishlarda deviantlikni kamaytirishning asosiy omili sifatida ijtimoiy integratsiya, shaxsiy maqsadlar tizimi va ijobiy o‘zini anglash ko‘rsatiladi.

T.Hirschi, R.K.Merton, A.Bandura, T.E.Mofit va A.Kaspi o‘z ilmiy qarashlarida o‘smirlarda deviant xulq-atvorning shakllanishini turli psixologik, ijtimoiy va biologik omillar majmuasi sifatida izohlab, jamiyat bilan rishtalarning uzilishi, maqsad–vosita nomutanosibligi, ijtimoiy namuna ta’siri, rivojlanish trayektoriyasi va irsiy–muhit o‘zaro ta’siri kabi mexanizmlarni markazga qo‘yadilar. Bu yondashuvlar umumlashtirilganda, deviant xulq shaxsning ichki boshqaruv tizimi zaiflashganda, ijtimoiy bosim kuchayganda yoki biologik risklar faollashganda paydo bo‘ladigan murakkab psixologik holat sifatida namoyon bo‘lishi, shuningdek, o‘smirning ijtimoiy tajriba va individual xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq holda shakllanishi ko‘rinadi. Shu jarayonda og‘ishlar ko‘pincha o‘zini tasdiqlash ehtiyoji, moslashuvdagi ziddiyatlar yoki salbiy namunalarga berilish oqibatida kuchayib boradi.

Xulosa. O‘smirlik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishi shaxsning ichki ziddiyatlari, emotsional beqarorlik, o‘zini anglashdagi uzilishlar va psixik rivojlanishdagi nomutanosibliklar bilan bevosita bog‘liqdir. Ruhiy barqarorlik sust bo‘lgan paytda his-tuyg‘ularni boshqarish mexanizmlari zaiflashib, tajovuzkor yoki impulsiv reaktsiyalar ortadi. O‘smir o‘zini tasdiqlashga bo‘lgan ehtiyojini ijtimoiy jihatdan maqbul shaklda ifodalay olmaganda, bu energiya salbiy yo‘nalishga buriladi. Shaxsning identifikatsiya jarayoni muvaffaqiyatsiz kechganda, u ijtimoiy guruhga tegishlilik hissidan mahrum bo‘lib, o‘zini e’tirof ettirish uchun me’yordan og‘ish yo‘llarini tanlaydi. Psixik rivojlanishdagi disbalanslar, oila va maktabdagi qarama-qarshi talablar bu jarayonni yanada kuchaytiradi. Natijada o‘smir o‘zini himoya qilish, stressni kamaytirish yoki ichki iztirobni yengish maqsadida deviant xulqni kompensator mexanizm sifatida qo‘llaydi. Shu bois, o‘smir shaxsining psixologik barqarorligini, ijtimoiy identifikatsiya jarayonini va emotsional nazoratini qo‘llab-quvvatlash deviant xulqning oldini olishda eng samarali yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foyadalanilgan adabiyotlar:

1.Антонов А. И. — Социальные факторы девиантного поведения подростков // Социологические исследования, 2010, №4, с. 87–94.

2. Асмолов А. Г. — Личностное развитие и риски девиантного поведения // Вопросы психологии, 2008, №6, с. 3–15.

3. Беличева С. А. — Социально-психологические механизмы отклоняющегося поведения // Психологический журнал, 2005, №2, с. 45–56.

4. Дейнека О. С. — Социальная идентичность и девиантное поведение // Вестник СПбГУ, 2004, №4, с. 112–118.

5. Дубровина И. В. — Психологическое здоровье подростков // Вопросы психологии, 2009, №5, с. 17–26.

6. Ейдемиллер Э. Г. — Семейные детерминанты девиантного поведения // Семейная психология, 2001, №2, с. 33–41.

7. Фурманов И. А. — Девиантное поведение как проблема психологии развития // Вестник БГУ, 2002, №1, с. 77–84.

STRESSGA BARQARORLIK YUZAGA KELISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Tuychiyeva Shaxlo Shavkatovna*- Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti, “Amaliy psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi*
e-mail:shahashovkatova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada stressga barqarorlikning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional intellekt, kognitiv baholash, koping strategiyalari, o‘z-o‘zini boshqarish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning stressga barqarorlikni shakllantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy psixologik nazariyalar asosida stressga barqarorlikning rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinib, uning kasbiy faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: stress, stressga barqarorlik, psixologik xususiyatlar, koping strategiyalari, emotsional intellekt, kognitiv baholash.

Аннотация. В данной статье проведён теоретический анализ психологических факторов, влияющих на формирование стрессоустойчивости. Освещена роль индивидуально-психологических особенностей личности, эмоционального интеллекта, когнитивной оценки, копинг-стратегий, саморегуляции и социальной поддержки в формировании стрессоустойчивости. Кроме того, на основе современных психологических теорий проанализированы механизмы развития стрессоустойчивости и обосновано её значение в повышении эффективности профессиональной деятельности.

Ключевые слова: стресс, стрессоустойчивость, психологические особенности, копинг-стратегии, эмоциональный интеллект, когнитивная оценка.

Abstract. This article presents a theoretical analysis of the psychological determinants influencing the development of stress resilience. The study examines the role of individual psychological characteristics, emotional intelligence, cognitive appraisal, coping strategies, self-regulation, and social support in fostering stress resilience. Furthermore, based on contemporary psychological theories, the mechanisms underlying the development of stress resilience are analyzed, and its significance in enhancing professional performance and psychological well-being is substantiated.

Keywords: stress, stress resilience, psychological characteristics, coping strategies, emotional intelligence, resilience, cognitive appraisal.

Hozirgi globallashuv sharoitida inson hayoti va kasbiy faoliyatida uchraydigan stress omillari tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, pedagoglar, tibbiyot xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari hamda boshqa insonlar bilan bevosita ishlovchi mutaxassislar yuqori darajadagi psixoemotsional zo‘riqishni boshdan kechirmoqda.Bunday sharoitda shaxsning stressga barqarorligi nafaqat ruhiy salomatlikni saqlash, balki kasbiy samaradorlikni ta'minlovchi muhim psixologik sifat sifatida namoyon bo‘ladi.

Stressga barqarorlik tug‘ma xususiyat emas. U shaxsning hayotiy tajribasi, individual-psixologik imkoniyatlari, ijtimoiy muhit va ta'lim-tarbiya ta'sirida shakllanadigan murakkab psixologik tizim hisoblanadi [2]. Shu sababli stressga barqarorlikning yuzaga kelish mexanizmlarini o‘rganish zamonaviy psixologiyaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Stress tushunchasi ilm-fanga G.Selye tomonidan kiritilgan bo‘lib, u stressni organizmning har qanday talabga nisbatan umumiy moslashuv reaksiyasi sifatida izohlagan. Keyinchalik Richard Lazarus va Susan Folkman stressni kognitiv baholash jarayoni orqali tushuntirib, shaxsning vaziyatni qanday qabul qilishi va baholashi stress darajasini belgilashini ta'kidladilar. Zamonaviy psixologiyada stressga barqarorlik shaxsning murakkab va noqulay vaziyatlarda psixologik muvozanatni saqlashi, emotsiyalarini boshqarishi, moslashuvchan qarorlar qabul qilishi hamda samarali faoliyatni davom ettirish qobiliyati sifatida talqin qilinadi.

Stressga barqarorlikning shakllanishi bir qator o‘zaro bog‘liq psixologik omillarga asoslanadi [1]:

Kognitiv baholash. Shaxs stressli vaziyatni qanday idrok etishi va baholashi uning emotsional reaksiyasini belgilaydi. Vaziyat xavf sifatida emas, balki yechim topish mumkin bo‘lgan muammo sifatida qabul qilinsa, stress darajasi pasayadi.

Emotsional intellekt. Emotsional intellekt yuqori bo‘lgan insonlar o‘z hissiyotlarini anglaydi, boshqaradi va boshqalarning emotsiyalarini ham to‘g‘ri baholaydi. Natijada ular stress ta'siriga kamroq beriladi.

O‘z-o‘zini boshqarish. O‘z xatti-harakatlari va hissiyotlarini nazorat qilish, impulsiv qarorlarni cheklash hamda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni davom ettirish stressga barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi.

Koping strategiyalari. Muammoni hal qilishga yo‘naltirilgan faol strategiyalar stressni kamaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Aksincha, qochish yoki inkor etish strategiyalari stressning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Motivatsiya. Ichki motivatsiyaning yuqoriligi murakkab vaziyatlarda ham faoliyatni davom ettirish imkonini beradi. Bunday shaxslar muvaffaqiyatsizlikni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladilar.

O‘z-o‘ziga ishonch. Shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonishi murakkab vaziyatlarni muvaffaqiyatli yengishga yordam beradi. Bu xususiyat self-efficacy nazariyasida batafsil asoslangan.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Oila, hamkasblar va yaqin insonlarning psixologik ko‘magi stressning salbiy ta'sirini kamaytiruvchi eng muhim himoya omillaridan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, stressga barqarorlik faqat temperament yoki irsiy omillar bilan belgilanmaydi. U shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor resurslarining uyg‘un rivojlanishi natijasida shakllanadi [3]. Zamonaviy tadqiqotlar emotsional intellektni rivojlantirish, konstruktiv koping strategiyalarini o‘rgatish, psixologik treninglar hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish stressga barqarorlikni sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatmoqda.

Tarbiyachilar misolida olib qaralganda, yuqori stressga barqarorlik faoliyatda, kasbiy qoniqish, emotsional kuyishning oldini olish va pedagogik samaradorlikning ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytganda, stressga barqarorlik shaxsning murakkab psixologik sifati bo‘lib, uning shakllanishida kognitiv baholash, emotsional intellekt, o‘z-o‘zini boshqarish, motivatsiya, rezilyentlik, koping strategiyalari hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi. Ushbu omillarni rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar va korreksion dasturlar shaxsning stressga bardosh berish imkoniyatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. 1-st edition. New York City: Springer Publishing Company, 1984. 460 p.
2. Stress, Appraisal, and Coping. New York: Springer, 1984.
3. Бодров В. А. Психологический стресс: развитие и преодоление М.: ПЕР СЭ, 2006. 528 с., с. 102.
4. Albert Bandura. Self-efficacy: Toward a Unifying Theory of Behavioral Change. Psychological Review, 1977.
5. Павлова А. В. Научная дефиниция «стресс»: подходы к толкованию и классификации. Елабуга: Издательство ЕИ КФУ, 2015. 142 с. С. 17
6. Селье Г. Г. Стресс без дистресса. М.: Прогресс, 1982. 128 с.
7. Словарь практического психолога. Минск: Харвест, 1997. - 800с.

SPORT FAOLIYATIDA EMOTSIONAL ZO‘RIQISH VA XAVOTIR HOLATLARINI DIAGNOSTIKA QILISH USULLARI

Xolmirzayev Javoxir Iqboljon o'g'li,
Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu mavzu sport faoliyatida yuzaga keladigan emotsional zo‘riqish va xavotir holatlarini aniqlashning psixodiagnostik usullarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Sportchilarda stress va xavotir darajasini baholashda qo‘llaniladigan testlar, so‘rovnomalar va kuzatish metodlari tahlil qilinadi. Shuningdek, emotsional barqarorlikni aniqlash va sport natijalarini prognoz qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: emotsional zo‘riqish, xavotir, psixodiagnostika, sport psixologiyasi, testlar, stress.

Аннотация. Данная тема посвящена изучению психодиагностических методов выявления эмоционального напряжения и тревожных состояний в спортивной деятельности. Анализируются тесты, опросники и методы наблюдения для оценки уровня стресса и тревожности у спортсменов. Также рассматриваются возможности определения эмоциональной устойчивости и прогнозирования спортивных результатов.

Ключевые слова: эмоциональное напряжение, тревожность, психодиагностика, спортивная психология, тесты, стресс.

Abstract. This topic is dedicated to studying psychodiagnostic methods for identifying emotional tension and anxiety in sports activities. It analyzes tests, questionnaires, and observation methods used to assess athletes’ stress and anxiety levels. It also considers ways to evaluate emotional stability and predict sports performance.

Keywords: emotional tension, anxiety, psychodiagnostics, sports psychology, tests, stress.

Kirish.. Sport faoliyati yuqori jismoniy yuklama bilan bir qatorda kuchli psixologik bosimni ham o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, musobaqa oldi va musobaqa jarayonida sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir holatlari tez-tez uchrab turadi. Ushbu holatlar sportchining diqqatini jamlash, harakatlarni to‘g‘ri boshqarish va optimal qaror qabul qilish qobiliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Emotsional zo‘riqish va xavotir — bu sportchining musobaqaga bo‘lgan munosabati, muvaffaqiyatga erishish istagi va muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish hissi natijasida yuzaga keladigan psixologik holatlardir. Agar bu holatlar me’yoridan oshsa, sport natijalari pasayishi, psixologik beqarorlik va o‘ziga ishonchning susayishi kuzatilishi mumkin.

Shu sababli sport psixologiyasida emotsional zo‘riqish va xavotir darajasini o‘z vaqtida aniqlash (psixodiagnostika) va ularni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi kerak.

Mazkur mavzuni o‘rganish sportchilarning psixologik holatini chuqur tahlil qilish, ularning stressga chidamliligini baholash hamda sport natijalarini yaxshilashga xizmat qiluvchi samarali diagnostik usullarni aniqlash nuqtayi nazaridan dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi

Hozirgi zamonaviy sportda natijalar tobora yuqori darajaga ko‘tarilib borayotganligi sportchilardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki kuchli psixologik barqarorlikni ham talab etadi. Ayniqsa, yirik musobaqalar oldidan sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir holatlarining kuchayishi tez-tez uchrab turadigan psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Bu holatlar sport natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, ba’zan sportchining haqiqiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi.

Emotsional zo‘riqish va xavotir darajasining ortishi diqqatning pasayishi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyatining susayishi hamda harakatlar koordinatsiyasining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli ushbu holatlarni erta aniqlash va aniq psixodiagnostik usullar orqali baholash sport psixologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Psixodiagnostika usullarining rivojlanishi sportchilarda emotsional holatni ilmiy asosda o‘rganish va individual yondashuvni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa sportchining

psixologik holatini to‘g‘ri baholash va unga mos psixokorreksiya choralarini belgilashga yordam beradi.

Shu bois, sport faoliyatida emotsional zo‘riqish va xavotir holatlarini diagnostika qilish usullarini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi va sportchilarning yuqori natijalarga erishishida muhim omil hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Sport faoliyatida emotsional zo‘riqish va xavotir holatlarini o‘rganish sport psixologiyasining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, bu masala bo‘yicha ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda sportchilarning emotsional holatini aniqlash va baholash turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda emotsional zo‘riqish va xavotir ko‘pincha stress va kognitiv jarayonlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Jumladan, Stress nazariyasi (Gans Selye modeli)ga ko‘ra, stress organizmning tashqi bosimlarga javob reaksiyasi bo‘lib, u fiziologik va psixologik o‘zgarishlar bilan kechadi.

Shuningdek, Kognitiv baholash nazariyasida stress va xavotir darajasi sportchining vaziyatni qanday baholashiga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Ya’ni sportchi musobaqani xavf yoki imkoniyat sifatida qabul qilsa, uning emotsional holati ham shunga mos ravishda o‘zgaradi.

Sport psixologiyasida C. Spielberger tomonidan ishlab chiqilgan Davlat va shaxsiy xavotir nazariyasi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu modelga ko‘ra, xavotir vaqtinchalik (holat) va barqaror (shaxsiy) shakllarga ega bo‘lib, sportchilarda musobaqa oldi xavotir aynan holatga bog‘liq shaklda namoyon bo‘ladi.

Psixodiagnostika sohasida esa sportchilarning emotsional holatini aniqlash uchun so‘rovnomalar, psixologik testlar va kuzatish metodlaridan keng foydalaniladi. Xususan, STAI testi, kuzatuv protokollari va intervyu usullari sportchilarning xavotir darajasini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham sportchilarning psixologik tayyorgarligi, emotsional barqarorligi va stressga chidamliligini oshirish masalalari o‘rganilgan. Unda murabbiy va sportchi o‘rtasidagi psixologik aloqa, motivatsiya va mashg‘ulot jarayonining emotsional holatga ta’siri alohida ta’kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish va xavotir murakkab psixologik jarayon bo‘lib, u kognitiv baholash, stress reaksiyalari va shaxsiy xususiyatlar bilan uzviy bog‘liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqot sport faoliyatida emotsional zo‘riqish va xavotir holatlarini psixodiagnostika qilish usullarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, nazariy va empirik yondashuvlar asosida amalga oshiriladi. Tadqiqot jarayonida sportchilarning emotsional holati, xavotir darajasi hamda psixologik barqarorligi kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Tadqiqotning nazariy asosini sport psixologiyasi va stressga oid zamonaviy ilmiy konsepsiyalar tashkil etadi. Xususan, Stress nazariyasi (Gans Selye modeli), Kognitiv baholash nazariyasi hamda Davlat va shaxsiy xavotir nazariyasi asos qilib olinadi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llaniladi:

- **Kuzatish metodi** – sportchilarning mashg‘ulot va musobaqa oldi emotsional holati o‘rganiladi.
- **Suhbat (intervyu) metodi** – sportchilar va murabbiylarning xavotir va stress haqidagi fikrlari aniqlanadi.
- **Anketa so‘rovi** – sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir darajasi psixodiagnostik testlar orqali baholanadi.
- **Psixologik testlar** – STAI va boshqa shkalalar yordamida xavotir darajasi aniqlanadi.
- **Eksperiment metodi** – psixokorreksiya usullari (relaksatsiya, nafas mashqlari, vizualizatsiya) samaradorligi tekshiriladi.

№	Metod turi	Maqsadi	Qo‘llanish sohasi

1	Kuzatish	Sportchilarning tabiiy emotsional holatini aniqlash	Mashg‘ulot va musobaqa oldi jarayon
2	Suhbat (intervyu)	Subyektiv fikr va tajribalarni o‘rganish	Sportchi va murabbiylar
3	Anketa	Xavotir va stress darajasini o‘lchash	Guruhli psixodiagnostika
4	Psixologik testlar (STAI)	Emotsional xavotir darajasini baholash	Individual diagnostika
5	Eksperiment	Psixokorreksiya usullarining samaradorligini tekshirish	Trening va musobaqa sharoiti

Muhokama

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir holatlari musobaqa oldi davrida eng yuqori darajada namoyon bo‘ladigan psixologik holatlardan biridir. Bu holatlar sportchining individual psixologik xususiyatlari, tajribasi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi hamda musobaqaning ahamiyatiga bog‘liq ravishda turlicha kechadi.

Kuzatishlar natijasida aniqlanishicha, yuqori darajadagi xavotir sportchining diqqatini jamlash qobiliyatini pasaytiradi, harakat aniqligini buzadi va tezkor qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi. Biroq me’yoriy darajadagi emotsional qo‘zg‘alish sport natijalarini yaxshilashi mumkinligi ham qayd etildi, bu esa xavotirning ikki tomonlama ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Stress nazariyasi (Gans Selye modeli)ga ko‘ra, stress organizmning moslashuv reaksiyasi bo‘lib, uning haddan tashqari kuchayishi charchash bosqichiga olib keladi. Tadqiqot natijalari sportchilarda bu jarayonning amaliy ko‘rinishlarini tasdiqladi.

Shuningdek, Kognitiv baholash nazariyasi asosida sportchining musobaqani qanday qabul qilishi (xavf yoki imkoniyat sifatida) uning emotsional holatini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi aniqlandi. Ijobiy baholash xavotirni kamaytiradi va ishonchni oshiradi.

Psixodiagnostika natijalari shuni ko‘rsatdiki, STAI testi va kuzatish metodlari sportchilarda xavotir darajasini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu usullar orqali sportchining emotsional holatini aniq baholash va individual yondashuv ishlab chiqish mumkin.

Psixokorreksiya usullari (relaksatsiya, nafas mashqlari, vizualizatsiya) sportchilarda emotsional barqarorlikni oshirishga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, musobaqa oldi qisqa relaksatsiya mashqlari xavotir darajasini tez kamaytirishda samarali ekanligi kuzatildi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional zo‘riqish va xavotirni boshqarishda psixodiagnostika va psixokorreksiya usullarini kompleks qo‘llash sportchilarning psixologik barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir holatlari musobaqa oldi davrida eng ko‘p uchraydigan psixologik holatlardan biri bo‘lib, u sport natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu holatlar sportchining diqqatini jamlash, tezkor qaror qabul qilish va harakatlarni boshqarish jarayonlariga sezilarli darajada ta’sir etishi aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xavotir darajasining yuqori bo‘lishi sport samaradorligini pasaytirsa, me’yoriy darajadagi emotsional qo‘zg‘alish ba’zi hollarda ijobiy natija berishi mumkin. Bu esa emotsional zo‘riqishning ikki tomonlama ta’sirga ega ekanligini bildiradi.

Stress nazariyasi (Gans Selye modeli) hamda Kognitiv baholash nazariyasi asosida stress va xavotir darajasi nafaqat tashqi omillarga, balki sportchining vaziyatni qanday baholashiga ham bevosita bog‘liqligi aniqlandi.

Shuningdek, psixodiagnostika usullari (STAI testi, kuzatish, suhbat) sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotir darajasini aniqlashda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi. Psixokorreksiya usullari — relaksatsiya, nafas mashqlari va vizualizatsiya esa emotsional barqarorlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Umuman olganda, sportchilarda emotsional zo‘riqish va xavotirni aniqlash hamda boshqarish uchun psixodiagnostika va psixokorreksiya usullarini kompleks qo‘llash

sportchilarning psixologik tayyorgarligini oshiradi va yuqori sport natijalariga erishishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Selye H. *The Stress of Life*. – New York: McGraw-Hill, 1956.
2. Lazarus R. S., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping*. – New York: Springer, 1984.
3. Spielberger C. D. *State-Trait Anxiety Inventory Manual*. – Palo Alto: Consulting Psychologists Press, 1983.
4. Weinberg R. S., Gould D. *Foundations of Sport and Exercise Psychology*. – Champaign: Human Kinetics, 2019.
5. Cox R. H. *Sport Psychology: Concepts and Applications*. – New York: McGraw-Hill, 2012.
6. Martens R. *Competitive Anxiety in Sport*. – Champaign: Human Kinetics, 1990.

HAVASKOR SPORTCHILARDA PSIXOLOGIK CHIDAMLILIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA ULARNING SPORT FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Yangiboyeva Dilnoza Abdurasul qizi

Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar hamda ularning sport faoliyati samaradorligidagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikning shakllanishiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar, jumladan motivatsiya, o'ziga bo'lgan ishonch, irodaviy sifatlar, murabbiy qo'llab-quvvatlashi hamda ijtimoiy muhitning roli yoritilgan. Shuningdek, psixologik chidamlilik sportchilarning musobaqa oldi hayajonini boshqarish, sportdagi muvaffaqiyatga erishish va salbiy psixologik holatlarning oldini olishdagi o'rni ko'rib chiqilgan

Kalit so'zlar: havaskor sportchi, psixologik chidamlilik, sport psixologiyasi, motivatsiya, emotsional barqarorlik, stressga bardoshlilik, sport faoliyati, psixologik tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные факторы развития психологической устойчивости у спортсменов-любителей и их значение в спортивной деятельности. В исследовании освещены внутренние и внешние факторы, влияющие на формирование психологической устойчивости у спортсменов-любителей, включая мотивацию, уверенность в себе, волевые качества, поддержку тренера и влияние социальной среды. Также анализируется роль психологической устойчивости в управлении предстартовым волнением, достижении спортивных результатов и профилактике негативных психологических состояний.

Ключевые слова: спортсмен-любитель, психологическая устойчивость, спортивная психология, мотивация, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, спортивная деятельность, психологическая подготовка.

Abstract. This article examines the main factors influencing the development of psychological resilience in amateur athletes and their importance in sports performance. The study highlights both internal and external factors affecting the formation of psychological resilience among amateur athletes, including motivation, self-confidence, volitional qualities, coach support, and the influence of the social environment. In addition, the role of psychological resilience in managing pre-competition anxiety, achieving successful sports outcomes, and preventing negative psychological conditions is discussed

Key words: amateur athlete, psychological resilience, sport psychology, motivation, emotional stability, stress resistance, sports activity, psychological preparation.

Kirish. Hozirgi zamonaviy sport tizimida sport natijadorligini belgilovchi omillar faqat jismoniy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmay, balki sportchining psixologik holati ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirish muammosi sport psixologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki havaskor sportchilar professional sportchilarga nisbatan murakkab musobaqa sharoitlariga, yuqori bosimga va stressli vaziyatlarga kamroq tayyor bo'lishi mumkin.

Xalqaro Sport Psixologiyasi Assotsiatsiyasi (ISSP) ma’lumotlariga ko‘ra, sportdagi muvaffaqiyatning taxminan 40–50 foizi sportchining psixologik tayyorgarligi va emotsional barqarorligiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, turli tadqiqotlarda (Weinberg & Gould, 2019) sportchilarda stress, xavotir va musobaqa oldi hayajoni natijalarni sezilarli darajada pasaytirishi mumkinligi isbotlangan. Bu esa psixologik chidamlilikni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Havaskor sportchilarda psixologik chidamlilik – bu ularning stressli vaziyatlarda o‘z emotsiyalarini boshqara olish, muvaffaqiyatsizlikdan tez tiklanish, musobaqa bosimiga bardosh berish hamda maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni davom ettirish qobiliyatidir. Ushbu sifat sportchining ichki motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi, irodaviy kuchi va tashqi ijtimoiy muhit (murabbiy, jamoa, oila) bilan chambarchas bog‘liq.

Bugungi kunda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) ham jismoniy faollik bilan bir qatorda psixologik salomatlikni mustahkamlashni sog‘lom hayot tarzi asoslaridan biri sifatida e’tirof etadi. Shu nuqtai nazardan, sport bilan shug‘ullanuvchi yoshlar va havaskor sportchilarning psixologik barqarorligini oshirish nafaqat sport natijalari, balki umumiy ruhiy salomatlik uchun ham muhim hisoblanadi.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda sportni ommalashtirish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Biroq havaskor sportchilarning psixologik tayyorgarligi va chidamliligini rivojlantirish masalasi hali ham yetarlicha o‘rganilmagan yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu sababli ushbu maqolada havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar, ularning sport faoliyatidagi ahamiyati hamda bu jarayonni takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili

Havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirish muammosi sport psixologiyasi fanida keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan qator nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Psixologik chidamlilik tushunchasi dastlab umumiy psixologiyada stressga moslashish va qiyin vaziyatlarda faoliyatni davom ettirish qobiliyati sifatida talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik sport psixologiyasi doirasida u sportchining musobaqa sharoitida emotsional barqarorligini ta’minlovchi asosiy psixik sifat sifatida shakllandi.

Xorijiy adabiyotlarda psixologik chidamlilik masalasi birinchi navbatda L. Hardy, S. Jones va D. Gould kabi olimlarning ishlarida chuqur tahlil qilingan. Ularning fikricha, sportdagi chidamlilik nafaqat tug‘ma sifat, balki maqsadli psixologik tayyorgarlik orqali rivojlantiriladigan kompleks jarayondir. R. Weinberg va D. Gould (2019) sport psixologiyasi bo‘yicha fundamental asarlarida sportchilarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ularning stressni boshqarish qobiliyati, o‘ziga ishonchi va motivatsion darajasiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Shuningdek, J. Fletcher va S. Sarkar (2012) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda psixologik chidamlilik yuqori darajadagi sportchilarda qiyinchiliklarni imkoniyat sifatida qabul qilish va ulardan o‘sish uchun foydalanish mexanizmi sifatida izohlanadi.

Rus olimlari orasida L. P. Matveyev, A. V. Rodionov va G. D. Gorbunovlarning ishlari sport psixologiyasining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. L. P. Matveyev sport tayyorgarligining kompleks tizimini ishlab chiqib, unda psixologik tayyorgarlik jismoniy va texnik tayyorgarlik bilan uzviy bog‘liq ekanini asoslab bergan. A. V. Rodionov esa sportchilarning musobaqa oldi holatini o‘rganib, xavotir va emotsional zo‘riqish sport natijalariga bevosita ta’sir qilishini empirik tadqiqotlar orqali ko‘rsatgan. G. D. Gorbunovning ilmiy qarashlarida sportchilarda irodaviy sifatlarni shakllantirish psixologik chidamlilikning markaziy komponenti sifatida talqin qilinadi.

Psixologik chidamlilikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganishda A. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy kognitiv nazariya ham muhim ahamiyatga ega. Uning “self-efficacy” (o‘ziga ishonch) konsepsiyasi sportchilarning murakkab vaziyatlarda o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi ularning real natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi. Shuningdek, R. Lazarus va S. Folkman stressni kognitiv baholash nazariyasi orqali sportchilarning

stressli vaziyatlarni qanday talqin qilishi ularning emotsional reaksiyalarini belgilashini ko‘rsatib bergan.

Havaskor sportchilar bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa psixologik chidamlilik professional sportchilarga nisbatan kamroq shakllangan bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Buning asosiy sabablari sifatida muntazam psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi, musobaqa tajribasining kamligi hamda stressni boshqarish strategiyalarining to‘liq rivojlanmaganligi ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar (Gucciardi et al., 2017) havaskor sportchilarda ham to‘g‘ri tashkil etilgan psixologik treninglar orqali chidamlilikni sezilarli darajada oshirish mumkinligini isbotlaydi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, psixologik chidamlilik sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy psixologik resurslardan biri bo‘lib, u motivatsiya, emotsional barqarorlik, irodaviy sifatlar va ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Shu sababli havaskor sportchilarda ushbu sifatni rivojlantirish nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki ularning umumiy psixologik salomatligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Xulosa

Havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirish muammosi zamonaviy sport psixologiyasining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sport natijadorligi faqat jismoniy tayyorgarlik darajasi bilan emas, balki sportchining psixologik holati, stressga bardoshliligi, emotsiyalarini boshqarish qobiliyati va ichki motivatsiyasi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, havaskor sportchilarda bu omillar yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular ko‘pincha professional sportchilarga qaraganda musobaqa sharoitiga kamroq tayyor bo‘ladilar.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, psixologik chidamlilik bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan tashkil topgan murakkab psixologik tuzilma bo‘lib, u o‘z ichiga o‘ziga ishonch, irodaviy sifatlar, motivatsiya, emotsional barqarorlik hamda stressni boshqarish ko‘nikmalarini oladi. Ushbu komponentlarning har biri sportchi faoliyatining samaradorligiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi va ularning uyg‘un rivojlanishi sport natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xorijiy va rus olimlarining ilmiy qarashlari ham psixologik chidamlilikni rivojlantirishning muhimligini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, bu sifat tug‘ma emas, balki maqsadli psixologik tayyorgarlik, muntazam mashg‘ulotlar va to‘g‘ri tashkil etilgan ijtimoiy-psixologik muhit orqali shakllantiriladi. Shuningdek, murabbiy va jamoa qo‘llab-quvvatlashi sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlashda muhim omil sifatida e’tirof etiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, havaskor sportchilarda psixologik chidamlilikni rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Bu jarayonda psixologik treninglar, motivatsion dasturlar, stressni boshqarish usullari va individual psixologik tayyorgarlik muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, musobaqa oldi holatini boshqarish va salbiy emotsiyalarni nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish sport natijadorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, psixologik chidamlilikni rivojlantirish nafaqat sportdagi muvaffaqiyatga erishish, balki sportchilarning shaxsiy rivojlanishi va ruhiy salomatligini mustahkamlash uchun ham zarurdir. Shu bois havaskor sportchilarda ushbu sifatni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan dasturlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bugungi kun sport psixologiyasining muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Вайенберг Р., Гоулд Д. Психология спорта. – Москва: Олимпийская литература, 2019. – 432 с.
2. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. – Москва: Физкультура и спорт, 2010. – 544 с.
3. Родионов А. В. Психология физической культуры и спорта. – Москва: Советский спорт, 2012. – 368 с.
4. Горбунов Г. Д. Психопедагогика спорта. – Москва: Советский спорт, 2015. – 312 с.
5. Hardy L., Jones G., Gould D. Understanding Psychological Preparation for Sport: Theory and Practice of Elite Performers. – Chichester: Wiley, 1996. – 288 p.

6. Fletcher D., Sarkar M. Psychological resilience in sport performers: a review of stressors and protective factors // Journal of Sports Sciences. – 2012. – Vol. 30(1). – P. 1–17.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA OILAVIY MUNOSABATLARDA TOLERANTLIK VA ALTRUISTIK MOTIVLAR TALQINI

Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna
Oriental universiteti
“Uzluksiz ta'lim pedagogikasi”
kafedrasi o'qituvchisi
ferangizxatamova93@gmail.com

Annotatsiya. mazkur maqolada Sharq mutafakkirlari ilmiy-ma’naviy merosida oilaviy munosabatlar, tolerantlik va altruistik motivlar masalasining yoritilishi tahlil qilinadi. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Amir Temur, Imom al-Buxoriy va Husayn Voiz Koshifiy qarashlari asosida oilada o‘zaro hurmat, sabr-toqat, mehr-oqibat, saxovat, rahmdillik va hamkorlik kabi fazilatlarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati ochib beriladi. Maqolada Sharq allomalari ta’limotida oila shaxs kamoloti, jamiyat barqarorligi va insonparvar munosabatlar shakllanishining asosiy maskani sifatida talqin qilinishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: oila, oilaviy munosabatlar, tolerantlik, altruizm, altruistik motiv, bag‘rikenglik, Sharq mutafakkirlari, mehr-oqibat, saxovat, ijtimoiy-psixologik yondashuv.

Аннотация. в данной статье анализируется освещение проблемы семейных отношений, толерантности и альтруистических мотивов в научно-духовном наследии восточных мыслителей. На основе взглядов Абу Насра Фараби, Абу Райхана Беруни, Абу Али ибн Сины, Юсуфа Хос Ходжиба, Алишера Навои, Амира Темура, Имама аль-Бухари и Хусайна Ваиза Кошифи раскрывается социально-психологическое значение взаимного уважения, терпимости, милосердия, щедрости, сочувствия и сотрудничества в семье.

Ключевые слова: семья, семейные отношения, толерантность, альтруизм, альтруистический мотив, терпимость, восточные мыслители, милосердие, щедрость, социально-психологический подход.

Abstract. this article analyzes the interpretation of family relations, tolerance and altruistic motives in the scientific and spiritual heritage of Eastern thinkers. Based on the views of Abu Nasr Farabi, Abu Rayhan Beruni, Abu Ali ibn Sina, Yusuf Khos Hajib, Alisher Navoi, Amir Temur, Imam al-Bukhari and Husayn Vaiz Koshifi, the socio-psychological importance of mutual respect, patience, compassion, generosity and cooperation in family relations is revealed.

Key words: family, family relations, tolerance, altruism, altruistic motive, Eastern thinkers, compassion, generosity, socio-psychological approach.

Bugungi globallashuv sharoitida oilaviy munosabatlarning barqarorligi, oila a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-oqibat va bag‘rikenglik muhitini shakllantirish ijtimoiy-psixologik jihatdan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Oila shaxsning ilk ijtimoiy tajribasi shakllanadigan, axloqiy qadriyatlar, mas’uliyat, rahmdillik, hamdardlik va yordamga tayyorlik kabi sifatlar qaror topadigan asosiy ijtimoiy muhitdir. Shu bois oilaviy munosabatlarda tolerantlik va altruistik motivlarning shakllanishi nafaqat er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar uyg‘unligiga, balki jamiyatdagi umumiy ma’naviy-ruhiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Tolerantlik oilaviy hayotda shaxsning boshqa inson fikri, ehtiyoji, kechinmasi va xulq-atvorini tushunishga, zarur vaziyatda sabr-toqat va murosa ko‘rsatishga tayyorligidir. Altruistik motiv esa shaxsning o‘z manfaatidan tashqari boshqalarga yordam berish, ularning dardiga sherik bo‘lish, mehr-muruvvat ko‘rsatish va oilaviy munosabatlarda hamkorlikni ustuvor qo‘yishga yo‘naltirilgan ichki ruhiy undovidir. Sharq mutafakkirlari merosida bu ikki tushuncha zamonaviy psixologik atamalar bilan emas, balki sabr, qanoat, saxovat, karam, muruvvat, rahmdillik, vafodorlik, adolat, ahillik va insonparvarlik kabi axloqiy kategoriyalar orqali

yoritilgan.Sharq ilmiy-ma’naviy merosida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida talqin etiladi. Mutafakkirlar oila tinchligi va mustahkamligini shaxslararo munosabatlarning sog‘lomligi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, vafodorlik, hurmat va mehr-oqibat bilan bog‘laganlar. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abay, Abdurauf Fitrat va Ahmad Donish kabi mutafakkirlar asarlarida oilada yuzaga keladigan turli vaziyatlar, er-xotin burchlari, farzandlarning ota-ona oldidagi vazifalari hamda insonlar o‘rtasidagi axloqiy munosabatlarga oid muhim fikrlar bayon etilgan [1].Abu Nasr Farobiy qarashlarida inson mohiyatan ijtimoiy mavjudot bo‘lib, u kamolotga faqat jamiyat va shaxslararo hamkorlik jarayonida erishadi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat sog‘lom tana bilan qiyoslanadi: tana a’zolari bir-biriga xizmat qilgani kabi jamiyat a’zolari ham o‘zaro yordam, hamkorlik va mehr asosida yashashi lozim [1]. Mazkur yondashuv oilaviy munosabatlarga tatbiq etilganda, oila a’zolarining bir-biriga befarq bo‘lmasligi, qiyin vaziyatlarda qo‘llab-quvvatlashi va umumiy maqsad yo‘lida birlashishi altruistik motivlarning asosiy ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Farobiy uchun insoniylik odamlarni birlashtiruvchi boshlang‘ich asosdir; demak, oiladagi tolerantlik ham aynan insoniylik, o‘zaro hurmat va hamkorlikka tayanadi. Abu Ali ibn Sino axloqiy qarashlarida oilaviy munosabatlar ruhiy tarbiya va xulq madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda talqin qilinadi. U yolg‘onchilik, hasad, rashk, qasd olish, g‘iybat, tuhmat va besabrlik kabi xususiyatlarni shaxs qalbiga zarar yetkazuvchi destruktiv sifatlar sifatida ko‘rsatadi. Ibn Sino “Tadbir al-manozil” asarida oila qurish va uni boshqarish bilan bog‘liq fikrlarni ilgari surgan, “Axloq haqidagi risola”da esa saxiylik, sabr-toqat, sir saqlash, vijdonlilik, do‘stlik, sadoqat, kamtarlik va adolatlilik kabi fazilatlarni inson xarakterining muhim ko‘rsatkichlari sifatida izohlagan [2]. Ayniqsa, mutafakkirning “sabr”, “yumshoqlik” va “rahmdillik” haqidagi qarashlari bugungi oilaviy psixologiyada tolerantlik va empatiya tushunchalari bilan bevosita bog‘liqdir.

Ibn Sino talqinida sabr insonning boshiga tushgan tashvish va yomonliklardan o‘zini asrashga yordam beruvchi ichki quvvatdir. Yumshoqlik esa g‘azabni jilovlash, oilaviy nizolarda keskinlikka berilmaslik va shaxslararo munosabatlarni buzmaslikka xizmat qiladi. Rahmdillik esa tushkunlikka tushgan, omadsizlikka uchragan yoki boshiga og‘ir kulfat tushgan kishilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning dardiga sherik bo‘lishni anglatadi [2]. Bu fazilatlar oilaviy hayotda altruistik motivlarning ruhiy-axloqiy asosini tashkil etadi. Chunki oila a’zolari bir-birining ruhiy holatini tushungan, g‘azabni nazorat qila olgan va yordamga tayyor bo‘lgan sharoitdagina barqaror psixologik muhit vujudga keladi.Abu Rayhon Beruniy qarashlarida insonlar o‘rtasidagi hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va birlashish ehtiyoji jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida baholanadi. Uning “Hindiston” asarida inson o‘z qarindosh-urug‘lari bilan birlashib yashashga, bir-birini qo‘llab-quvvatlashga va hayotiy ehtiyojlarni birgalikda qondirishga majbur ekanligi ta’kidlanadi [3]. Beruniy uchun oila faqat biologik yoki maishiy birlik emas, balki ijtimoiy himoya, ruhiy tayanch va axloqiy tarbiya maskanidir. Shu jihatdan uning qarashlari zamonaviy oilaviy psixologiyadagi “o‘zaro yordam”, “emotsional qo‘llab-quvvatlash” va “ijtimoiy moslashuv” tushunchalari bilan uyg‘unlashadi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida oilaviy hayot, er-xotin munosabatlari, farzand tarbiyasi va inson axloqining oila mustahkamligidagi o‘rni keng yoritilgan. U xotin tanlashda faqat tashqi go‘zallik yoki nasl-nasabga emas, balki andisha, aql, poklik va farosatga e’tibor berish zarurligini uqtiradi [4]. Mutafakkirning “agar bolaning xulqi yomon bo‘lsa, bunda bolaning aybi yo‘q, hamma ayb otasida” mazmunidagi fikrlari oilaviy tarbiyada ota-onaning mas’uliyatini ko‘rsatadi. Bu yondashuvda tolerantlik avvalo tarbiyaviy mas’uliyat, sabr va shaxsiy namuna orqali shakllanadigan sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Alisher Navoiy merosida oilaviy munosabatlar, insonparvarlik, saxovat va muruvvat masalalari alohida o‘rin tutadi. “Mahbub ul-qulub” asarida Navoiy yaxshi xulq, shirinso‘zlik, ochiq yuzlilik, saxovat va karamni insoniy kamolotning muhim belgisi sifatida tasvirlaydi [5]. Alloma saxiylikni kishilik bog‘ining hosildor daraxtiga, insonparvarlik mamlakatining asl gavhariga qiyoslaydi. Uning talqinida yaxshilik va karam jabrlangan insonning og‘ir yukini yengillatish, boshqalarning mashaqqatini kamaytirish, qilgan yaxshiligini minnat qilmaslikdir. Bu fikrlar oilaviy hayotda altruistik xulqning eng muhim mezonlari - beg‘araz yordam, mehr, hamdardlik va o‘zaro yelkadoshlikni ifodalaydi. Navoiy qarashlarida saxovat faqat moddiy yordam bilan

chegaralanmaydi; u insonning so‘zi, muomalasi, kechirimliligi, sabri va boshqalarga quvonch ulasha olishi bilan ham belgilanadi. Oilaviy munosabatlarda bunday fazilatlar er-xotin, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Shuningdek, oila a’zolari o‘rtasidagi murosasizlik, qo‘pollik va xudbinlikning oldini oladi. Demak, Navoiy ta’limotida tolerantlik - ochiq chehra, shirin so‘z, kechirimlilik va muruvvat orqali namoyon bo‘ladigan yuksak axloqiy sifatdir.

Amir Temur qarashlarida ham oilaning mustahkamligi va kelajak avlod tarbiyasi muhim masala sifatida qo‘yiladi. “Temur tuzuklari”da kelin tanlash, nasl-nasab, sog‘lik, odob-axloq va jismoniy kamolotga e’tibor berish davlat yumushlari darajasidagi mas’uliyatli ish sifatida bayon etiladi [6]. Bu yondashuv oilani jamiyat barqarorligining poydevori sifatida ko‘rishga asoslanadi. Oilaviy munosabatlarda tolerantlik va altruistik motivlarning shakllanishi uchun nafaqat shaxsiy mehr, balki mas’uliyat, ma’naviy tayyorgarlik va sog‘lom axloqiy muhit ham zarur.Imom al-Buxoriy va Moturidiy merosida ham ahillik, bag‘rikenglik, ota-onaga hurmat, yetim-yesir va muhtojlarga yordam berish, insonlarga yaxshilik qilish g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi. Imom al-Buxoriyning “Al-Adab al-mufrad” asarida odob, ota-onaga yaxshilik, qarindoshlik rishtalarini asrash, rahm-shafqat va insoniylik masalalari keng yoritilgan [7]. Moturidiy ta’limotida esa insonlarni yaxshilik yo‘lida birlashtirish, adolat, hamjihatlik, mehr-muhabbat va zararli qarashlardan saqlanish g‘oyalari muhim ahamiyat kasb etadi [8].

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari qarashlari oilaviy munosabatlarda tolerantlik va altruistik motivlarni shakllantirish uchun boy nazariy-ma’naviy manba bo‘lib xizmat qiladi. Farobiy hamkorlik va insoniylikni, Ibn Sino sabr, yumshoqlik va rahmdillikni, Beruniy o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni, Yusuf Xos Hojib oilaviy tarbiya va mas’uliyatni, Navoiy saxovat va muruvvatni, Amir Temur oilaning ijtimoiy ahamiyatini, Imom al-Buxoriy va Moturidiy ahillik hamda yaxshilikni, Koshifiy esa javonmardlik va fidoyilikni ulug‘lagan. Ushbu qarashlar zamonaviy oilalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, nizolarni kamaytirish, er-xotin o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamdardlikni kuchaytirish, farzandlarda mehr-oqibat va ijtimoiy mas’uliyatni tarbiyalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Fan, 1993. – B. 171–177.
2. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim va tarbiya haqida. – T.: O‘qituvchi, 1967. – B. 97.
3. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. Tanlangan asarlar. 2-jild. – T.: Fan, 1965. – B. 19–37.
4. To‘xliyev B. Yusuf Xos Xojibning «Qutadg‘u bilig» asari. – T.: O‘zbekiston, 1991. – B. 25–26.
5. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». Asarlar. 15 tomli. 13-tom. – T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1966. – B. 92–95.
6. Temur tuzuklari. B. Ahmedov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991. – 144 b.
7. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2019. – 672 b.
8. Islomov M.Z., Sirojiddinov Sh.S., O‘sarova F.X. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari. – T.: JIDU, 2005. – B. 14–15.

OILAVIY STRESS VA UNING XOTIN-QIZLARNING PSIXOLOGIK HOLATIGA TA’SIRI: IJTIMOIY QO‘LLAB-QUVVATLASH OMILI

Amirova Go‘zal Baxodirovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy stressning xotin-qizlarning psixologik holatiga ta’siri hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning himoya qiluvchi omil sifatidagi roli tahlil qilinadi. Maqolada stressning klassik va zamonaviy nazariyalari asosida oilaviy muhitda yuzaga keladigan psixologik zo‘riqishlar, ularning emotsional va kognitiv oqibatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ijtimoiy rollari, oilaviy mas’uliyat va mehnat faoliyati

o‘rtasidagi muvozanat muammolari yoritiladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari stressni kamaytiruvchi muhim psixologik resurs sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar: oilaviy stress, xotin-qizlar, psixologik holat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, gender rollar, emotsional zo‘riqish, stressni boshqarish.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние семейного стресса на психологическое состояние женщин, а также роль социальной поддержки как защитного фактора. На основе классических и современных теорий стресса рассматриваются психологические напряжения, возникающие в семейной среде, их эмоциональные и когнитивные последствия. Также освещаются проблемы социальных ролей женщин, баланса между семейными обязанностями и трудовой деятельностью в условиях Узбекистана. Социальные системы поддержки обосновываются как важный психологический ресурс, снижающий стресс.

Ключевые слова: семейный стресс, женщины, психологическое состояние, социальная поддержка, гендерные роли, эмоциональное напряжение, управление стрессом.

Abstract: This article analyzes the impact of family stress on the psychological state of women, as well as the role of social support as a protective factor. Based on classical and modern theories of stress, it examines psychological tensions arising in the family environment, along with their emotional and cognitive consequences. The study also highlights the issues of women’s social roles, the balance between family responsibilities and work activities in the context of Uzbekistan. Social support systems are substantiated as an important psychological resource for reducing stress.

Keywords: family stress, women, psychological state, social support, gender roles, emotional tension, stress management.

KIRISH. XXI asrda jamiyat taraqqiyoti, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi oilaviy hayotga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, xotin-qizlar zamonaviy jamiyatda bir vaqtning o‘zida bir necha ijtimoiy rollarni bajarishga majbur bo‘lib, bu holat ularning psixologik salomatligiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Ayollar nafaqat oila va farzand tarbiyasi bilan shug‘ullanadi, balki ta’lim oladi, kasbiy faoliyat yuritadi va jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Mazkur vazifalarning uyg‘unlashuvi ko‘pincha psixologik zo‘riqish, emotsional charchash va oilaviy stressning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ayollarda ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar, xususan, depressiya, xavotir va surunkali stress holatlari erkaklarga nisbatan ko‘proq uchraydi. Bunda oilaviy munosabatlar sifati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va gender rollari muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan oilaviy stressning xotin-qizlar psixologik holatiga ta’sirini o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. O‘zbekistonda ham oilaning ijtimoiy institut sifatidagi o‘rni nihoyatda muhim bo‘lib, oilaviy barqarorlik va sog‘lom psixologik muhit jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shu sababli oilaviy stressning kelib chiqish sabablari, uning xotin-qizlar psixologik holatiga ta’siri va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning himoya mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlar tizimi murakkablashib, xotin-qizlar zimmasiga bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy rollar yuklanmoqda: ona, rafiqa, xodima va jamiyat a’zosi. Ushbu rollar o‘rtasidagi nomutanosiblik ko‘pincha oilaviy stressning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xotin-qizlar tashkiloti esa gender tengsizligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarining yetarli darajada rivojlanmaganligini ayollarning psixologik salomatligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatadi.

ASOSIY QISM. Xorij olimlari R. Lazarus va S. Folkman stressning kognitiv baholash nazariyasini ishlab chiqdilar. Ushbu nazariyaga ko‘ra, stressning yuzaga kelishi nafaqat tashqi omillarga, balki insonning ushbu omillarni qanday qabul qilishi va baholashiga ham bog‘liqdir. Agar shaxs vaziyatni o‘z imkoniyatlaridan yuqori deb hisoblasa, stress reaksiyasi kuchayadi.[1].

Oilaviy stress esa umumiy stressning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga keladigan psixologik bosimlar bilan bog‘liqdir. Oiladagi nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, oila a’zolari o‘rtasidagi kommunikativ muammolar, turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi ishonchning pasayishi hamda farzandlar tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar oilaviy stressning asosiy manbalari hisoblanadi. Oilaviy stressning murakkabligi shundaki, u nafaqat individual shaxsga, balki butun oilaviy tizimga ta’sir ko‘rsatadi. Oilada uzoq muddat saqlanib qolgan stress munosabatlar sifati yomonlashishiga, emotsional begonalashuvga va psixologik salomatlikning izdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Oilaviy jarayon quyidagi omillar bilan bog‘liq: iqtisodiy qiyinchiliklar, er-xotin munosabatlaridagi nizolar, farzand tarbiyasidagi muammolar va gender stereotiplar. Cary L. Cooper tadqiqotlariga ko‘ra, uzoq davom etgan stress ish va oilaviy hayot muvozanatini buzadi va psixologik charchashga olib keladi.[2]. O‘zbekistonlik psixolog G‘B. Shoumarov oilaviy stressning kelib chiqishida turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi rolni taqsimlashdagi nomutanosiblik muhim omil ekanligini qayd etadi.[3]. V. Karimova esa oilaviy munosabatlarda ayollarning emotsional yuklamasi ko‘pincha erkaklarnikidan yuqori bo‘lishini, bu esa surunkali stress holatini keltirib chiqarishini ta’kidlaydi.[4].

Xotin-qizlarning psixologik holati biologik, ijtimoiy, madaniy va psixologik omillarning murakkab o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Zamonaviy tadqiqotlar ayollarning stressga nisbatan sezgirligi ko‘proq emotsional va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Birinchi navbatda, gender rollari muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ko‘plab jamiyatlarda ayollardan nafaqat oilaviy majburiyatlarni bajarish, balki ish faoliyatida ham yuqori natijalarga erishish talab etiladi. Ushbu ikki tomonlama yuklama ko‘pincha psixologik zo‘riqishga sabab bo‘ladi. Ikkinchi omil sifatida oilaviy mas’uliyatni ko‘rsatish mumkin. Farzandlar tarbiyasi, uy-ro‘zg‘or ishlari, qarindoshlar bilan munosabatlarni saqlash kabi vazifalar ko‘pincha ayollar zimmasiga tushadi. Bunday holatlarda vaqt tanqisligi va emotsional charchoq yuzaga keladi. Uchinchi omil iqtisodiy barqarorlik bilan bog‘liqdir. Oilaning moddiy ta’minoti bilan bog‘liq muammolar ayollarda xavotir, kelajakka nisbatan ishonchsizlik va psixologik tanglikni kuchaytiradi. To‘rtinchi omil sifatida oiladagi kommunikatsiya sifati alohida ahamiyatga ega. Oila a’zolari o‘rtasidagi ochiq va samimiy muloqot stressning oldini olishga xizmat qilsa, aksincha, nizolar va tushunmovchiliklar stress darajasini oshiradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, xotin-qizlarda stress darajasi erkaklarga nisbatan ko‘proq kuzatiladi. Buning asosiy sabablari – ko‘p funksiyali ijtimoiy rol, emotsional yuklama, jamiyat kutishlari va oilaviy majburiyatlardir. A.H. Eagly va L.L. Carli o‘zlarining “labirint” metaforasida ayollarning rahbarlik va oilaviy mas’uliyatlarni uyg‘unlashtirishda duch keladigan to‘siqlarini tahlil qilganlar [5]. Ch. Maslach tomonidan ishlab chiqilgan “burnout” konsepsiyasiga ko‘ra, uzoq davom etuvchi emotsional zo‘riqish shaxsning ruhiy charchashiga olib keladi. Ch. Maslach va Leiterning yozishicha, burnoutning uch asosiy komponenti – emotsional charchash, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlarning pasayishi ayollarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. [6]. Mahalliy tadqiqotchi F.A. Akramovaning kuzatishlariga ko‘ra, O‘zbekiston oilalarida ayollarning stress holatlarining asosiy manbalari: er tomonidan yetarlicha hissiy qo‘llab-quvvatlanmaslik, uy-ro‘zg‘or yuklamasining notekis taqsimlanishi va keng oila a’zolari bilan munosabatlardagi nizolardir.[7]. M.G. Davletshin esa ayollarning emotsional holatiga ijtimoiy stereotiplar va an’anaviy qadriyatlarning ta’sirini alohida tahlil qilgan. [8].

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressni kamaytiruvchi eng muhim psixologik resurslardan biridir. Sh. Cohen va T. Wills tadqiqotlariga ko‘ra, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressning salbiy ta’sirini yumshatadi – bu “bufferga oid” (himoya qiluvchi) gipoteza deb ataladi. Qo‘llab-quvvatlash tizimlari shaxsga stress omilini qayta baholash va unga nisbatan moslashuvchan coping strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi [9]. Qo‘llab-quvvatlashning to‘rt asosiy turi mavjud: emotsional (mehr, tushunish, quloq solish), instrumental (moddiy yordam, vaqt, mehnat), informatsion (maslahat, yo‘l-yo‘riq) va baholovchi (fikr-mulohaza, tasdiqlash). Jahon bankining 2024-yilgi hisobotida qayd etilishicha, ijtimoiy himoya va qo‘llab-quvvatlash tizimlari rivojlangan mamlakatlarda ayollarning psixologik salomatlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yuqori.

BMTning 2015-yilgi Barqaror rivojlanish kun tartibi (SDG 3 – sog‘liq va farovonlik, SDG 5 – gender tenglik) ham ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirishni ustuvor vazifalar qatoriga qo‘ygan [10].

O‘zbekistonda oila an’anaviy ravishda eng muhim ijtimoiy institutlardan biri hisoblanadi. Shu sababli oiladagi psixologik muhit va oilaviy munosabatlar sifati xotin-qizlarning ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi yillarda mamlakatda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati sezilarli darajada kuchaytirildi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati, mahallalarda xotin-qizlar faollari instituti, “Ayollar daftari” tizimi hamda psixologik maslahat markazlarining tashkil etilishi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim shakllari sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, ayrim hududlarda oilaviy nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar va gender stereotiplar hanuzgacha ayollarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, qishloq hududlarida an’anaviy qarashlarning ustunligi tufayli ayollar ko‘pincha o‘z muammolarini ochiq muhokama qila olmaydilar. Mahalliy psixologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlash darajasi yuqori bo‘lgan hollarda stress ko‘rsatkichlari sezilarli darajada past bo‘lishini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning himoya qiluvchi omil sifatidagi rolini tasdiqlaydi.

Stressni kamaytirish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: psixologik maslahat xizmatlari, oilaviy terapiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash guruhlari va stressni boshqarish treninglari. Oilaviy stressni kamaytirishning eng samarali vositalaridan biri ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar yaqin insonlarning emotsional yordami stressning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kamaytirishini ko‘rsatadi. Oilaviy stressni boshqarishda quyidagi psixologik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega: emotsional o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish; konstruktiv muloqot madaniyatini shakllantirish; konfliktlarni tinch yo‘l bilan hal qilish strategiyalarini o‘rganish; psixologik maslahat va oilaviy terapiyadan foydalanish; ijtimoiy tarmoqlar va qo‘llab-quvvatlash guruhlarida ishtirok etish. Shuningdek, stressni boshqarish bo‘yicha treninglar, relaksatsiya mashqlari va kognitiv-xulq-atvor terapiyasi elementlari ham samarali vositalar sifatida e’tirof etiladi.

MUHOKAMA. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy stress xotin-qizlar psixologik salomatligiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biridir. Uning ta’siri nafaqat emotsional holatda, balki ijtimoiy faoliyat, mehnat unumdorligi va oilaviy munosabatlar sifatida ham namoyon bo‘ladi. Xalqaro tadqiqotlar va O‘zbekiston tajribasining qiyosiy tahlili oilaviy stressning kelib chiqish omillari ko‘p jihatdan o‘xshash ekanligini ko‘rsatadi. Biroq, milliy-madaniy xususiyatlar stressning namoyon bo‘lish shakllari va unga qarshi kurashish usullariga ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda oilaning mustahkamligi va qarindoshlik aloqalarining kuchliligi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning muhim manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim hollarda an’anaviy gender stereotiplari ayollarning psixologik muammolarini yashirin saqlashiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, psixologik xizmatlar tizimini yanada rivojlantirish, ayollarning psixologik savodxonligini oshirish va oilaviy maslahat xizmatlarini kengaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Oilaviy stress zamonaviy jamiyatda xotin-qizlarning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biridir. Oiladagi nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, gender rollarining murakkablashuvi va emotsional yuklamaning ortishi ayollarda stress darajasining oshishiga olib keladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stressning salbiy oqibatlarini kamaytiruvchi muhim psixologik resurs ekanligini ko‘rsatadi. Oila a’zolari, do‘stlar, mahalla va davlat institutlari tomonidan ko‘rsatiladigan yordam xotin-qizlarning ruhiy barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Kelgusida oilaviy stressning oldini olish maqsadida psixologik xizmatlar tizimini takomillashtirish, oilaviy maslahat markazlari faoliyatini kengaytirish hamda xotin-qizlarning psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa nafaqat ayollarning ruhiy salomatligini mustahkamlashga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Oilaviy stress xotin-qizlarning psixologik holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uning asosiy determinantlari ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan bog‘liq. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash

esa stressni kamaytiruvchi muhim himoya mexanizmi hisoblanadi. O‘zbekistonda psixologik xizmat tizimini rivojlantirish, oilaviy maslahat markazlarini kengaytirish va gender tenglik siyosatini kuchaytirish zarur. Jahon banki va BMT Xotin-qizlar tashkiloti tavsiyalariga muvofiq, quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq:

1. Qulay va bepul psixologik maslahat xizmatlarini tashkil etish;
2. Oilaviy stressni boshqarish bo‘yicha ta’lim dasturlarini joriy qilish;
3. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmoqlarini rasmiylashtirish va kengaytirish;
4. Ish joylarida moslashuvchan bandlik shartlarini yaratish;
5. Gender stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy kampaniyalarni kuchaytirish.

Kelgusida tadqiqotlarni O‘zbekistonning turli hududlaridagi ayollarning stressga chidamlilik darajasini qiyosiy o‘rganish, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning samarali modellarini ishlab chiqishga yo‘naltirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. Springer. 1994.
2. Cohen S., Wills T.A. Stress, social support, and the buffering hypothesis. Psychological Bulletin, 98(2), 1985. p. 310–357.
3. Shoumarov G‘.B. Oilaviy psixologiya. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008.
4. Karimova V.M. Psixologiya va oila. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2008.
5. Eagly A.H., Carli L.L. Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders. Harvard University Press. 2007.
6. Maslach C., Leiter M.P. Burnout: A Guide to Identifying Burnout and Pathways to Recovery. Wiley. 2016.
7. Akramova F.A. Ayollarda stress holatlarining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2018.
8. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002.
9. UN Women. Gender Equality Report: Progress on the Sustainable Development Goals. 2023.
10. World Bank. Women, Business and the Law 2024. Washington, DC. 2024.

TALABANING SHAXSIY RIVOJLANISH TRAYEKTORIYASINI LOYIHALASHDA IJODIY TA’LIM MUHITI

Sadullayeva Zarnigor To’lqinjonovna
Buxoro davlat universiteti 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalashda ijodiy ta’lim muhitining roli va pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ijodiy ta’lim muhiti ta’lim jarayonida talabaning shaxsiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlash, o‘zini baholash va o‘z faoliyatini ongli ravishda yo‘naltirishni ta’minlaydigan sharoit sifatida qaraladi. Tadqiqotda talabaning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish bosqichlari, metodik yondashuvlar va samarali pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: ijodiy ta’lim muhiti, shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi, refleksiya, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogik texnologiya, kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматриваются роль и педагогическое значение творческой образовательной среды в проектировании личностной траектории развития студента. Творческая образовательная среда рассматривается как условие, обеспечивающее повышение личностной активности студента, самостоятельность мышления, самооценку и осознанное направление его деятельности в образовательном процессе. В исследовании анализируются этапы формирования личностной траектории развития студента, методические подходы и эффективные педагогические технологии.

Ключевые слова: творческая среда обучения, траектория личностного развития, рефлексия, саморазвитие, педагогические технологии, компетентность.

Abstract: The article discusses the role and pedagogical significance of the creative educational environment in designing the student's personal development trajectory. The creative educational environment is considered as a condition that ensures the student's increased personal activity, independent thinking, self-assessment and conscious direction of his/her activities in the educational process. The study analyzes the stages of forming the student's personal development trajectory, methodological approaches and effective pedagogical technologies.

Keywords: creative learning environment, personal development trajectory, reflection, self-development, pedagogical technology, competence.

KIRISH. Zamonaviy ta’lim tizimi talabaning tayyor bilimlarni o‘zlashtiruvchi obyekt sifatidagi rolidan voz kechib, uni o‘z o‘quv faoliyatining faol subyekti sifatida shakllantirishni talab etadi. Bunda shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi tushunchasi markaziy o‘ringa chiqadi — u talabaning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, imkoniyatlari va maqsadlariga mos ravishda shaxsiy rivojlanish yo‘lini belgilashni anglatadi.

Shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash jarayoni ijodiy ta’lim muhiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu muhit o‘zida refleksiya, mustaqil izlanish, tanqidiy fikrlash va innovatsion faoliyatni uyg‘otadi. Shuning uchun ijodiy muhitning mavjudligi va uni metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish — talabaning o‘zini anglash va kasbiy yetuklikka erishishining poydevori hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Zamonaviy pedagogika fanida refleksiya va o‘z-o‘zini baholash masalalari shaxsni rivojlantiruvchi ta’limning muhim komponentlari sifatida keng o‘rganilmoqda. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning asosiy g‘oyasi — o‘quvchi (yoki talaba)ni faol o‘quv jarayonining markaziga qo‘yish, o‘z ta’lim faoliyatini boshqarish va baholash subyekti sifatida shakllantirishdir.

Refleksiya konsepsiyasini ilk bor J. Dewey (1933) o‘zining “How We Think” asarida ilmiy jihatdan asoslab bergan. U refleksiyani insonning fikrlash jarayonida o‘z tajribasini tahlil qilish va o‘rganish orqali yangilanish mexanizmi sifatida talqin etgan. D. Schön (1983) esa “The Reflective Practitioner” asarida professional faoliyatdagi refleksiyaning amaliy ahamiyatini ko‘rsatib, “actionda refleksiya” va “actiondan keyingi refleksiya” turlarini farqlagan.

Ayniqsa, kasbiy yo‘nalganlikning yuqori ko‘rsatkichi talabalarning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini ta’minlovchi muhim psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Kasbiy maqsadlari shakllangan talabalar o‘quv yuklamalariga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi, qiyinchiliklarni rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi.

Emotsional barqarorlik ko‘rsatkichi ham moslashuv jarayonida muhim o‘rin egalladi. Chunki oliy ta’lim bosqichida talabalar yangi talablar, nazorat shakllari, mustaqil ta’lim va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq turli psixologik holatlarga duch keladi. Emotsional jihatdan barqaror talabalar stressli vaziyatlarni samaraliroq boshqarishi va akademik faoliyatda davomiylikni saqlashi kuzatildi.

Tadqiqotda tashqi omillar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ta’lim muhiti talabalarning moslashuv jarayonini belgilovchi muhim shartlardan biridir. O‘qituvchi tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi munosabatning mavjudligi talabalarda o‘ziga ishonch va akademik faollikni oshiradi.

Guruhdagi ijtimoiy-psixologik muhit ham moslashuv jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Talaba o‘zini guruhning to‘laqonli a’zosi sifatida his qilgan holatda muloqotga faol kirishadi, tajriba almashadi va o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabat shakllantiradi.

2 va 4-kurs talabalarining natijalari qiyosiy tahlil qilinganda, yuqori kurs talabalarida moslashuv darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Buning asosiy sababi sifatida talabaning universitet muhiti, o‘quv talablari va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan tajribasining ortishi bilan izohlash mumkin. Biroq ayrim 2-kurs talabalarida moslashuv jarayonida qiyinchiliklar kuzatildi. Ushbu holat mustaqil ta’limga ko‘nikish, akademik talablarning ortishi va yangi ijtimoiy rollarni egallash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korrelyatsion tahlil natijalari ichki va tashqi omillar bilan moslashuv o‘rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Bu esa talabaning muvaffaqiyatli moslashuvi shaxsiy imkoniyatlar va ijtimoiy muhitning uyg‘un ta’siri natijasida yuzaga kelishini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning moslashuvini ta’minlashda faqat akademik bilim berishga emas, balki talabalarning psixologik resurslarini rivojlantirish, ijobiy ta’lim muhitini shakllantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga ham e’tibor qaratish zarur.

Xulosa. Oliy ta’lim sharoitida talabalarning moslashuv jarayoniga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillarni o‘rganishga qaratilgan mazkur tadqiqot natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Talabalarning oliy ta’lim muhitiga moslashuvi murakkab psixologik jarayon bo‘lib, unda shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi ijtimoiy sharoitlar o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.
2. Ichki omillar ichida o‘quv motivatsiyasi, kasbiy yo‘nalganlik, o‘z-o‘ziga ishonch va emotsional barqarorlik talabaning akademik moslashuvini belgilovchi asosiy psixologik mexanizmlar hisoblanadi.
3. Tashqi omillar, xususan, o‘qituvchi-talaba munosabati, guruhdagi ijtimoiy muhit, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va ta’lim sharoiti talabalarning psixologik qulayligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.
4. Empirik tadqiqot natijalariga ko‘ra, 4-kurs talabalarining moslashuv darajasi 2-kurs talabalariga nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Bu oliy ta’lim muhitidagi tajriba va ijtimoiy integratsiyaning ortishi bilan bog‘liq.
5. SPSS statistik tahlili natijalarida ichki omillar va moslashuv o‘rtasida yuqori ijobiy korrelyatsiya ($r=0.71$; $p<0.01$), tashqi omillar va moslashuv o‘rtasida esa sezilarli bog‘liqlik ($r=0.68$; $p<0.01$) mavjudligi aniqlandi.
6. Talabalarning moslashuvini samarali tashkil etish uchun oliy ta’lim muassasalarida psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish, birinchi navbatda talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirish va ijobiy ijtimoiy muhit yaratish zarur.

Umuman olganda, talabaning oliy ta’lim sharoitiga muvaffaqiyatli moslashuvi uning shaxsiy psixologik tayyorgarligi hamda ta’lim muhitining qo‘llab-quvvatlovchi imkoniyatlari birligi orqali ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – Москва: Педагогика, 1991. – 480 с.
2. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – 720 с.
3. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 288 с.
4. Реан А.А. Психология личности и мотивации. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 384 с.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва: Логос, 2010. – 384 с.
6. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986. – 617 p.
7. Maslow A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – 411

8. Deci E.L., Ryan R.M. Intrinsic Motivation and Self-Determination in Human Behavior. – New York: Plenum Press, 1985. – 372 p.
9. Tinto V. Leaving College: Rethinking the Causes and Cures of Student Attrition. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 312 p.

TALABALARNI O`QITISH SIFATINI OSHIRISHDA IJTIMOIY YETUKLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiy yetuklikning shaxs rivojlanishi, ta’lim jarayonidagi faollik, ijtimoiy moslashuv, motivatsiya, mas’uliyat hissi, kommunikativ kompetentlik va refleksiv qobiliyatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, talabalarda ijtimoiy yetuklikni shakllantirish orqali ta’lim samaradorligini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va akademik natijalarni yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan psixologik yondashuvlarni takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy yetuklik, psixologik determinantlar, ta’lim sifati, talaba shaxsi, motivatsiya, refleksiya, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv, o‘quv faoliyati, shaxs rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье проведён научно-теоретический анализ психологических детерминант социальной зрелости в повышении качества обучения студентов. Исследование раскрывает взаимосвязь социальной зрелости с развитием личности, активностью в образовательном процессе, социальной адаптацией, учебной мотивацией, ответственностью, коммуникативной компетентностью и рефлексивными способностями студентов. Рассмотрены возможности повышения эффективности обучения, развития самостоятельного мышления и улучшения академических результатов посредством формирования социальной зрелости. Полученные результаты могут служить теоретической и практической основой для совершенствования психологических подходов к повышению качества высшего образования.

Ключевые слова: социальная зрелость, психологические детерминанты, качество образования, личность студента, мотивация, рефлексия, коммуникативная компетентность, социальная адаптация, учебная деятельность, развитие личности.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the psychological determinants of social maturity in improving the quality of student education. The study examines the relationship between social maturity and personality development, educational engagement, social adaptation, learning motivation, responsibility, communicative competence, and reflective abilities. Particular attention is given to the role of social maturity in increasing educational effectiveness, developing independent thinking, and improving academic outcomes. The findings provide theoretical and practical implications for improving psychological approaches aimed at enhancing the quality of higher education institutions.

Keywords: social maturity, psychological determinants, quality of education, student personality, learning motivation, reflection, communicative competence, social adaptation, educational activity, personality development.

Kirish. Hozirgi globallashuv va ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida oliy ta’lim muassasalari oldida nafaqat raqobatbardosh mutaxassis tayyorlash, balki ijtimoiy jihatdan yetuk, mas’uliyatli va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish vazifasi ham dolzarb hisoblanadi. Ta’lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, talabalarning ijtimoiy yetuklik

darajasini rivojlantirish va unga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy yetuklik shaxsning jamiyat talablariga moslashishi, ijtimoiy rollarni samarali bajarishi, mas’uliyatli qaror qabul qilishi, o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etishi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalovchi murakkab psixologik hodisa hisoblanadi. Talabalik davri esa aynan shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi, qadriyatlari, kasbiy yo‘nalishi va ijtimoiy mas’uliyatining shakllanish bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologik yondashuvlarga ko‘ra, talabaning o‘qish jarayonidagi muvaffaqiyati faqat intellektual salohiyat bilan emas, balki uning motivatsiyasi, refleksiv qobiliyati, kommunikativ kompetentligi, ijtimoiy moslashuvi va shaxsiy mas’uliyat darajasi bilan ham belgilanadi. Mazkur omillar ijtimoiy yetuklikning asosiy psixologik determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi va o‘qitish sifati ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Oliy ta’lim tizimida talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantirishga qaratilgan psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish ta’lim samaradorligini oshirish, o‘quv faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirish hamda kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’sir mexanizmlarini aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va nazariy asoslar. Talabalarni o‘qitish sifatini oshirish masalasi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi omillar qatorida shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va ijtimoiy yetuklik darajasi alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Mazkur yondashuvga ko‘ra, ta’lim jarayonining natijadorligi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish bilan, balki talabaning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanganlik darajasi bilan ham belgilanadi.

Psixologik adabiyotlarda ijtimoiy yetuklik shaxsning jamiyat talablariga mos ravishda faoliyat yuritish, ijtimoiy munosabatlarni ongli ravishda boshqarish, o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etish va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha shaxsning ichki psixologik resurslari va tashqi ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalaydi.

Shaxs rivojlanishining psixologik nazariyalari ijtimoiy yetuklikning shakllanishini murakkab va ko‘p omilli jarayon sifatida izohlaydi. Ushbu jarayonda motivatsion soha, refleksiya, o‘z-o‘zini anglash, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv hamda mas’uliyat hissi muhim determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi. Talabaning o‘z o‘quv faoliyatiga ongli munosabati va ichki motivatsiyasi uning akademik natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ijtimoiy yetuklikning muhim tarkibiy qismlaridan biri — kommunikativ kompetentlik hisoblanadi. Samarali muloqot, guruh bilan ishlash, fikr almashish va konstruktiv hamkorlik talabaning ta’lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Shu bilan birga, refleksiv qobiliyatlarning rivojlanganligi talabaga o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni anglash va keyingi rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim sifatini oshirish faqat o‘quv dasturlarini takomillashtirish bilan emas, balki talabalarning ijtimoiy yetuklik darajasini shakllantirishga qaratilgan psixologik mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shu sababli oliy ta’lim tizimida ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini chuqur o‘rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Mazkur tadqiqot talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini aniqlash va ularning ta’lim samaradorligiga ta’sirini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, faoliyatga yo‘naltirilgan ta’lim hamda psixologik determinantlar konsepsiyasiga tayangan holda tashkil etildi.

Tadqiqot jarayonida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Ijtimoiy yetuklikning tarkibiy komponentlari va ularning ta’lim sifati bilan bog‘liqligini aniqlash maqsadida nazariy hamda tahliliy metodlar uyg‘unlashtirildi.

Tadqiqotning nazariy metodlari sifatida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish va tizimli tahlil qilish, ilmiy manbalarni taqqoslash, psixologik-pedagogik yondashuvlarni umumlashtirish hamda mavjud konsepsiyalarni interpretatsiya qilish usullaridan foydalanildi. Mazkur metodlar orqali ijtimoiy yetuklik tushunchasining mazmuni, uning psixologik determinantlari va talabalarning o‘quv faoliyati bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

Tadqiqotning empirik yo‘nalishida talabalar shaxsining motivatsion xususiyatlari, refleksiv qobiliyatlari, ijtimoiy moslashuv darajasi, kommunikativ kompetentligi hamda mas’uliyat hissi kabi ko‘rsatkichlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlardan foydalanish nazarda tutildi. Olingan natijalarni talqin qilishda tavsifiy va mantiqiy tahlil usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini obyektivlik, tizimlilik, ilmiylik, komplekslik va rivojlantiruvchi yondashuv tamoyillari tashkil etdi. Shu bilan birga, talaba shaxsini o‘rganishda uning individual xususiyatlari, ijtimoiy tajribasi hamda ta’lim muhitining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olishga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur metodologik yondashuv talabalarni o‘qitish sifatini oshirish jarayonida ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini aniqlash va ularni ta’lim amaliyotiga integratsiya qilish imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqotning nazariy tahlillari talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik muhim psixologik omillardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Ijtimoiy yetuklik shaxsning ichki imkoniyatlari va tashqi ijtimoiy talablar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi hamda talabaning ta’lim jarayonidagi faolligi, mas’uliyat hissi va akademik samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, talabalarning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati bir nechta psixologik determinantlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, motivatsion determinantlar talabaning ta’limga bo‘lgan ichki ehtiyoji va maqsadga yo‘naltirilganligini belgilaydi. Ichki motivatsiyasi rivojlangan talabalar o‘quv topshiriqlarini bajarishda faolroq ishtirok etadi, mustaqil izlanishga moyillik ko‘rsatadi va ta’lim natijalarida yuqori ko‘rsatkichlarga erishadi.

Ikkinchidan, refleksiv determinantlar talabaning o‘z faoliyatini baholashi, o‘zlashtirish jarayonini nazorat qilishi hamda kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashiga xizmat qiladi. Refleksiya darajasining yuqoriligi talabalarda tanqidiy fikrlash, o‘zini boshqarish va akademik mas’uliyatning shakllanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, kommunikativ determinantlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi. Samarali muloqotga kirisha oladigan, jamoa bilan ishlash ko‘nikmalariga ega talabalar ta’lim muhitiga tez moslashadi va o‘quv faoliyatida yuqori natijalarni namoyon etadi.

To‘rtinchidan, ijtimoiy moslashuv va mas’uliyat hissi talabalarning ijtimoiy yetukligini shakllantiruvchi asosiy tarkibiy qismlar sifatida qayd etildi. Ushbu ko‘rsatkichlar rivojlangan holatda talaba ta’lim jarayoniga ongli yondashadi, kasbiy o‘zini rivojlantirishga intiladi hamda o‘z faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his qiladi.

Olingan nazariy natijalar asosida shuni ta’kidlash mumkinki, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik dasturlar, treninglar va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini joriy etish o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Mazkur yondashuv talabalarni nafaqat bilim oluvchi, balki ijtimoiy faol, mas’uliyatli va kasbiy jihatdan tayyor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa va amaliy tavsiyalar. Mazkur tadqiqot talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini nazariy jihatdan tahlil qilishga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar natijasida ijtimoiy yetuklik talabaning ta’lim jarayonidagi samaradorligini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri ekanligi aniqlandi. Shuningdek, motivatsiya,

refleksiv qobiliyat, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy moslashuv va mas’uliyat hissi ijtimoiy yetuklikning asosiy determinantlari sifatida namoyon bo‘lishi asoslandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, talabaning ijtimoiy yetuklik darajasi ortishi bilan uning o‘quv faoliyatidagi faolligi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati, akademik mas’uliyati va ta’lim natijadorligi ham ortib boradi. Shu sababli oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish jarayonini faqat bilim berish bilan cheklamasdan, shaxsning ijtimoiy va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlar bilan boyitish zarur.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish.
2. Ta’lim jarayoniga refleksiya, o‘zini baholash va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi metodlarni keng tatbiq etish.
3. Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish maqsadida guruhiy ishlash, muhokama va interaktiv texnologiyalardan samarali foydalanish.
4. O‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan psixologik treninglar va maslahat tizimini takomillashtirish.
5. Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish orqali ularning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini rivojlantirish talabalarning shaxsiy kamoloti, ta’lim sifati va kelgusidagi kasbiy muvaffaqiyatini ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlarni kengaytirish va natijalarni amaliyotga joriy etish oliy ta’lim tizimining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. Toshkent: O‘zbekiston; 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: O‘zbekiston; 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. Toshkent: O‘zbekiston; 2017.
4. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall; 1986.
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. New York: W.W. Norton & Company; 1968.
6. Maslow A.H. Motivation and Personality. 3rd ed. New York: Harper & Row; 1987.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press; 1978.
8. Rogers C.R. Freedom to Learn for the 80s. Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company; 1983.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARIDA KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA IJTIMOIY MOSLASHUVNI TA’MINLOVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Ramazonov Jasur Elmurodovich
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy faoliyat jarayonida ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi psixologik omillar haqida ma’lumot berilgan. Shuningdek, xodimlarning xizmat jamoasiga moslashuvi, fuqarolar bilan samarali muloqotga kirishishi, emotsional barqarorlikni saqlashi hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish tanlay olishi bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, ijtimoiy moslashuv, kasbiy faoliyat, xodim shaxsi, emotsional barqarorlik, muloqot, kasbiy motivatsiya, identifikatsiya, psixologik tayyorgarlik.

Аннотация. В данной статье представлена информация о психологических факторах, обеспечивающих социальную адаптацию сотрудников органов внутренних дел в процессе профессиональной деятельности. Также проанализированы научно-теоретические подходы, связанные с адаптацией сотрудников к служебному коллективу, эффективным общением с гражданами, сохранением эмоциональной устойчивости и правильной ориентацией в проблемных ситуациях.

Ключевые слова: органы внутренних дел, социальная адаптация, профессиональная деятельность, личность сотрудника, эмоциональная устойчивость, общение, профессиональная мотивация, идентификация, психологическая подготовка.

Annotation. This article provides information about the psychological factors that ensure social adaptation of internal affairs officers in the process of professional activity. The article also analyzes scientific and theoretical approaches related to officers' adaptation to the service team, effective communication with citizens, maintaining emotional stability, and correct orientation in problematic situations.

Keywords: internal affairs bodies, social adaptation, professional activity, officer personality, emotional stability, communication, professional motivation, identification, psychological training.

Kirish. Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyati murakkab ijtimoiy, huquqiy va psixologik sharoitlarda amalga oshirilmoqda. Xodimlardan nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar, balki xizmat muhitiga tez moslashish, fuqarolar bilan samarali muloqot qilish, jamoada o‘z o‘rnini topish hamda keskin vaziyatlarda o‘zini boshqara olish talab etiladi. Ichki ishlar organlari faoliyatining o‘ziga xosligi shundaki, xodim doimiy ravishda mas’uliyat, tartib-intizom, xavf, ziddiyatli holatlar va tezkor qaror qabul qilish zarurati bilan yuzma-yuz keladi. Shu sababli ijtimoiy moslashuv xodimning xizmatga kirishishi, kasbiy vazifalarni samarali bajarishi va jamoaviy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta’minlovchi muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Mazkur maqolada ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi psixologik omillar, ularning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati hamda nazariy asoslari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuv muammosi psixologiya fanida shaxsning ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabati, kasbiy faoliyatga kirishishi, kasbiy rolni qabul qilishi va jamoaviy munosabatlarga moslashishi bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Ushbu muammo turli olimlar tomonidan shaxsning ijtimoiylashuvi, motivatsiyasi, stressga chidamliligi, kasbiy identifikatsiyasi va emotsional barqarorligi nuqtayi nazaridan tahlil qilingan.

Jumladan, A. Bandura ijtimoiy o‘rganish nazariyasida shaxs xulq-atvori ijtimoiy muhit, kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash mexanizmlari orqali shakllanishini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat jamoasida tajribali xodimlardan o‘rganishi, kasbiy muomala me’yorlarini egallashi va xizmat sharoitiga moslashishini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bandura fikricha, shaxs o‘z atrofidagi ijtimoiy tajribani faol o‘zlashtiradi va uni o‘z xulq-atvorida namoyon qiladi. Ichki ishlar organlari xodimlarida ham xizmat tartibi, intizom, rahbar va hamkasblar bilan munosabat, fuqarolar bilan muloqot madaniyati ijtimoiy o‘rganish jarayonida shakllanadi.

A. Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasida inson faoliyatida xavfsizlik, tegishlilik, hurmat va o‘zini namoyon qilish ehtiyojlari muhim o‘rin tutishini asoslab bergan. Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida ham xavfsizlik hissi, jamoaga mansublik, rahbar va hamkasblar tomonidan e’tirof etilish, xizmatda o‘sish imkoniyati ijtimoiy moslashuvni kuchaytiruvchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Xodim o‘zini xizmat jamoasining muhim a’zosi sifatida his qilsa, uning kasbiy motivatsiyasi, mas’uliyati va ijtimoiy faolligi ortadi.

J. Violanti huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarida kasbiy stress, xizmat bosimi va psixologik moslashuv masalalarini o‘rgangan. Uning qarashlariga ko‘ra, huquqni muhofaza qilish sohasi vakillari doimiy xavf, ziddiyatli vaziyat, yuqori javobgarlik va emotsional zo‘riqish sharoitida faoliyat yuritadilar. Bunday sharoitda xodimning ijtimoiy moslashuvi uning stressga

chidamliligi, emotsional barqarorligi, o‘zini boshqarish qobiliyati va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir.

A.T. Vazsonyi shaxsning me’yoriy xulq-atvori va ijtimoiy nazorat tizimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikka e’tibor qaratadi. Uning fikricha, shaxsning ijtimoiy muhitga moslashuvi oilaviy, jamoaviy va institutsional talablarni qabul qilishi orqali shakllanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarida esa xizmat intizomi, huquqiy me’yorlar, kasbiy qadriyatlar va jamoaviy talablar ijtimoiy moslashuvning asosiy tayanchlari hisoblanadi.

E.G. Eydemiller shaxsning ijtimoiy moslashuvini guruh va kasbiy muhitdagi psixologik munosabatlar bilan bog‘liq holda izohlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, moslashuv shaxsning ijtimoiy talablarni qabul qilishi, o‘z xulqini vaziyatga mos boshqarishi va atrofdagilar bilan samarali munosabat o‘rnatishi orqali yuzaga chiqadi. Bu holat ichki ishlar organlari xodimlarida xizmat jamoasi bilan uyg‘unlashish, rahbarlik talablarini qabul qilish va kasbiy vazifalarni ijtimoiy mas’uliyat asosida bajarishda ko‘rinadi.

L.I. Bojovich shaxs rivojlanishida motivatsion sohaning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, shaxsning xatti-harakati ichki ehtiyojlar, maqsadlar va ijtimoiy qadriyatlar bilan belgilanadi. Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy motivatsiya, xizmatga sadoqat, burch hissi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashga bo‘lgan intilish ijtimoiy moslashuvning barqaror psixologik asosi hisoblanadi.

D.I. Feldshteyn shaxsning ijtimoiylashuvi va faoliyatda shakllanishini jamiyat bilan munosabatlar tizimi orqali tushuntiradi. Uning nazariyasiga ko‘ra, shaxs ijtimoiy tajribani faol o‘zlashtirish orqali muhitga moslashadi. Ichki ishlar organlari xodimlari ham xizmat faoliyati davomida huquqiy, axloqiy, kommunikativ va kasbiy tajribani o‘zlashtirib boradi. Natijada xodimda kasbiy identifikatsiya, ijtimoiy mas’uliyat va xizmat jamoasiga daxldorlik hissi shakllanadi.

V.S. Muxina shaxsning ijtimoiy rivojlanishida o‘zini anglash, ijtimoiy rolni qabul qilish va jamiyatdagi o‘rnini belgilash jarayonlariga e’tibor qaratadi. Ushbu yondashuv ichki ishlar organlari xodimlarining o‘zini huquqni muhofaza qiluvchi kasb vakili sifatida anglashi, xizmat burchini qabul qilishi va kasbiy identifikatsiyasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Natijalar. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi psixologik omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur jarayon bir nechta tarkibiy jihatlar bilan belgilanadi. Avvalo, xodimning kasbiy identifikatsiyasi ijtimoiy moslashuvning asosiy sharti hisoblanadi. Xodim o‘zini ichki ishlar organlari vakili sifatida to‘liq anglagan sari uning xizmatga mas’uliyati, jamoaga daxldorlik hissi va kasbiy burchni bajarishga bo‘lgan intilishi kuchayadi. Kasbiy identifikatsiya sust bo‘lgan holatlarda esa xizmat muhitiga moslashishda qiyinchilik, jamoaviy munosabatlarda passivlik va kasbiy beqarorlik kuzatilishi mumkin.

Ijtimoiy muloqotga kirishuvchanlik ham xodimning moslashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi. Ichki ishlar organlari xodimi xizmat jarayonida turli xarakterdagi fuqarolar, rahbarlar, hamkasblar va jamoatchilik vakillari bilan munosabatga kirishadi. Bunday vaziyatlarda aniq, madaniyatli va vaziyatga mos muloqot xodimning kasbiy nufuzini oshiradi. Muloqotga kirishuvchanlik yetarli bo‘lmagan holatlarda tushunmovchilik, ziddiyat va xizmat vazifalarini bajarishda qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin.

Emotsional barqarorlik ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuvni ta’minlovchi asosiy psixologik omillardan biridir. Xizmat faoliyatida xodim turli keskin, nizoli va kutilmagan vaziyatlarga duch keladi. Bunday holatlarda hissiyotlarni boshqarish, vaziyatga sovuqqonlik bilan baho berish, asabiy zo‘riqishga berilmaslik va muammoni oqilona hal qilish qobiliyati muhim ahamiyatga ega. Emotsional barqaror xodim xizmatdagi bosimni yengilroq qabul qiladi, jamoa bilan ijobiy munosabatni saqlaydi va fuqarolar bilan muloqotda muvozanatli yondashuvni namoyon etadi.

Muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘nalish tanlay olish ham ijtimoiy moslashuvning muhim belgilaridan hisoblanadi. Ichki ishlar organlari xodimi xizmat jarayonida har bir holatni tezkor baholashi, qonuniy va psixologik jihatdan to‘g‘ri qaror qabul qilishi kerak. Buning uchun unda

vaziyatni tahlil qilish, xavf darajasini baholash, javobgarlikni his etish va muloqot uslubini to‘g‘ri tanlash ko‘nikmalari shakllangan bo‘lishi zarur.

Shuningdek, xizmat jamoasidagi psixologik muhit xodimning ijtimoiy moslashuviga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zaro hurmat, hamkorlik, rahbar tomonidan qo‘llab-quvvatlash, tajribali xodimlarning yosh xodimlarga yordam berishi moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Aksincha, jamoada ziddiyat, ishonchsizlik yoki haddan tashqari bosim mavjud bo‘lsa, xodimning kasbiy va ijtimoiy moslashuvi sekinlashadi.

Xulosa. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuv kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi muhim psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon xodimning xizmat muhitiga kirishishi, jamoada o‘z o‘rnini topishi, fuqarolar bilan samarali muloqot qilishi, stressli vaziyatlarda emotsional barqarorlikni saqlashi va kasbiy talablarni ongli qabul qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Olimlar qarashlari asosida aytish mumkinki, ijtimoiy moslashuv shaxsning faqat tashqi muhitga ko‘nikishi emas, balki uning ichki motivatsiyasi, kasbiy identifikatsiyasi, ijtimoiy mas’uliyati va kommunikativ tayyorgarligi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Ichki ishlar organlari xodimlarida ijtimoiy moslashuvni rivojlantirish uchun psixologik tayyorgarlik, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, jamoaviy hamkorlik va kasbiy motivatsiyani kuchaytirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Yosh xodimlarni xizmat muhitiga moslashtirishda ustoz-shogird tizimi, psixologik maslahat, trening mashg‘ulotlari va jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratish samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Bandura A. Social Learning Theory. New Jersey: Prentice Hall, 1977.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1986.
3. Maslow A.H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954.
4. Violanti J.M. Police Stressors: Variations in Perception Among Police Personnel. Journal of Criminal Justice, 1983.
5. Violanti J.M. Police Suicide: Epidemic in Blue. Springfield: Charles C Thomas Publisher, 1996.
6. Vazsonyi A.T., Belliston L.M. The Cultural and Developmental Significance of Parenting Processes in Adolescent Anxiety and Depression Symptoms. Journal of Youth and Adolescence, 2006.
7. Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и психотерапия семьи. Санкт-Петербург: Питер, 2008.
8. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. Москва: Просвещение, 1968.
9. Фельдштейн Д.И. Психология развития личности в онтогенезе. Москва: Педагогика, 1989.
10. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития. Москва: Академия, 2006.

BOLALARNI MAKTABGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Qurbonova Go‘zal Rajab qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta’limiga psixologik tayyorgarlik ko‘rish imkoniyatlarini o‘rganadi. Tadqiqotda maktabga tayyorgarlikning nazariy asoslari, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari va maktabga psixologik tayyorgarlikni osonlashtiradigan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. O‘yinga asoslangan ta’lim, ijtimoiy - emotsional rivojlanish, oilaning ishtiroki, muloqot qobiliyatlari va innovatsion

ta’lim texnologiyalariga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tizimli psixologik tayyorgarlik bolalarning o‘zini o‘zi anglashini kuchaytiradi tartibga solish, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya, ijtimoiy kompetentsiya, hissiy barqarorlik va maktab muhitiga moslashtirishdan iborat. Tarbiyalanuvchilar va ota - onalar uchun maktabga tayyorgarlikning har tomonlama rivojlanishini qo‘llab – quvvatlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: psixologik tayyorgarlik, maktabga tayyorgarlik, maktabgacha ta’lim, hissiy rivojlanish, ijtimoiy kompetentsiya, motivatsiya, o‘zini o‘zi boshqarish.

Maktabgacha ta’limdan maktab ta’limiga o‘tish eng muhim bosqichlardan birini tashkil etadi. Maktabga kirgan bolalar yangi ijtimoiy muhit, xulq - atvorga bo‘lgan talablar, o‘rganish tartiblari va shaxslararo munosabatlarga duch kelishadi, bularning barchasi kognitiv qobiliyat bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Bolaning yetti yoshga to‘lishi bilan shu davrdan boshlab bolalarda o‘z - o‘zini anglash tarkib topa boshlaydi. Yetti yoshga to‘lib, maktabga chiqgan bolalarning psixik jihatdan bundan keyingi o‘sishi maktabda hamda oilada olib boriladigan ta’lim tarbiya jarayonida amalga oshiriladi.

Ta’limga psixologik tayyorlik deganda bolaning obyektiv va subyektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o‘zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, tafakkurining yaqqolligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqati nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Bola diqqatining xususiyatlari rolli va syujetli o‘yinlarda, rasm chizish va qurish – yasash mashg‘ulotlarida, loy hamda plastilindan o‘yinchoqlar tayyorlashda, o‘zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko‘rinadi. Bola o‘z diqqatini muayyan obyektga to‘plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib g‘aroyib, kishini taajjubga soladigan ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o‘zlashtirib kelgan bo‘lsa, endi o‘z xohish – irodasi bilan zarur ma’lumotlar to‘plashga, o‘z oldiga aniq maqsad va vazifa qo‘yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganligini bildiradi. U she’r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun ko‘p takrorlashi, yod olishning eng qulay yo‘l va usullaridan foydalanishi ta’lim jarayonida unga juda qo‘l keladi. Birinchi sinf o‘quvchisi ko‘pincha obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi. Aksincha, ta’lim so‘z – mantiqiy xotirasini taqozo etadi. So‘z – mantiq xotirasining mavjudligi ma’nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma’lumki, bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘ra ma’nodor tushunchalarni bir muncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini o‘qib olish va to‘g‘ri idrok qilish darajasida, nutqning tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko‘lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo‘ladi. U eshitgan va ko‘rganlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tushuna oladi, o‘zidagi axborotlarni muayyan tartibda bayon qila biladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o‘rinli foydalanadi. Ularni taqqoslaydi, oydinlashtiradi, umumlashtiradi, hukm va xulosa chiqarishga harakat qiladi.

Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o‘zgarishi va kichik maktab yosh davridagi bolalar o‘quv faoliyatining o‘ziga xosligi bilan uzviy bog‘liq. Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, maktabga psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o‘zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorgarlik — bu bolaning maktab ta’limi talablarini qabul qilishga, yangi sharoitga moslashishga va o‘quv faoliyatini bajarishga tayyorlik darajasidir. Bu tayyorgarliklar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



Mazkur omillar birgalikda bolaning maktabga muvaffaqiyatli moslashuvini ta’minlaydi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma’naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rvojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e’tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o‘qituvchilar ham bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo‘ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go‘yo ma’lumotlar ummonida suzib yurgandek bo‘lmoqdalar. Bu esa ulardagi so‘z boyliklarining keskin o‘sishiga asos bo‘lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanyapti, degan gap emas. Aqliy tayyorgarlik bolaning fikrlash, eslab qolish va diqqatni jamlash qobiliyatlari bilan bog‘liq.

Bunda bola:

- ✓ oddiy topshiriqlarni tushunishi;
- ✓ taqqoslay olishi;
- ✓ kuzatishi;
- ✓ xulosa chiqarishi;
- ✓ savollarga mantiqiy javob bera olishi kerak.

Maktabda amal qilinayotgan o‘quv dasturlarini o‘zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo‘lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda maktab amaliyotchi – psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalanilayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so‘rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o‘tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo‘ljallangan metodikalardan iboratdir. Ota-onalar bolalaridagi o‘ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o‘rgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo‘lib rivojlangan bo‘lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o‘ylaymanki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo‘lib etishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg‘ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo‘llasa, yaxshi xulq namunalarini o‘rgatish ancha oson kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G.R. Qurbonova, Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish. Kasb-hunar ta’limi ilmiy-uslubiy, amaliy, ma’rifiy jurnal. №3, 2026 https://kasbhunartalimi.uz/index.php/kht/article/view/88

2. G.R.Kurbanova, Analysis of National and International Experiences in Preparing Children of Senior Preschool Groups for Literacy Learning in Preschool Educational Organizations, Excellencia_international multi – disciplinary journal of education. Volume 4, Issue 6, 2026 ISSN (E): 2994-9521

https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/view/3906
3. G.R.Qurbonova, Bolalarni jismonan maktab ta’limiga tayyorlashda harakatli o‘yinlarning roli. Pedagogik mahorat. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, Buxoro 9-son (2025-yil, sentabr)
https://buxdu.uz/media/jurnallar/pedagogik_mahorat/1._Pedagogika-psixologiya_Pedmahorat__9_2025_PDF_compressed_en90tuL.pdf

IQTIDORLI TALABALARNING ILMIY-TADQIQOT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Xalikova Umida Mirovna
Buxoro davlat universiteti Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi p.f.f.d (PhD)., dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Unda oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalarni aniqlash, ularning ilmiy salohiyatini rivojlantirish, mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy rahbarlik tizimini takomillashtirish hamda innovatsion ta’lim muhitini yaratish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda iqtidorli talabalar bilan ishlashda shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, faoliyatli va integrativ yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda motivatsion, metodik, tashkiliy, axborot-resurs, monitoring va natijaviy-baholash mexanizmlarining o‘zaro bog‘liqligi ochib berilgan. Muallif tomonidan iqtidorli talabalarni ilmiy izlanishga jalb etish, ularda tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirish va ilmiy natijadorlikni oshirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: iqtidorli talaba, ilmiy-tadqiqot faoliyati, pedagogik mexanizm, tadqiqotchilik kompetensiyasi, ilmiy salohiyat, innovatsion ta’lim, ilmiy rahbarlik, motivatsiya, monitoring, oliy ta’lim.

Аннотация. В данной статье теоретически и практически проанализированы педагогические механизмы совершенствования научно-исследовательской деятельности одарённых студентов. Рассматриваются вопросы выявления одарённых студентов в высших образовательных учреждениях, развития их научного потенциала, формирования навыков самостоятельного исследования, совершенствования системы научного руководства и создания инновационной образовательной среды. В исследовании обосновано значение личностно-ориентированного, компетентностного, деятельностного и интегративного подходов в работе с одарёнными студентами. Также раскрыта взаимосвязь мотивационного, методического, организационного, информационно-ресурсного, мониторингового и результативно-оценочного механизмов при организации научно-исследовательской деятельности. Автором предложены педагогические условия, направленные на привлечение одарённых студентов к научному поиску, формирование исследовательской культуры и повышение научной результативности.

Ключевые слова: одарённый студент, научно-исследовательская деятельность, педагогический механизм, исследовательская компетентность, научный потенциал, инновационное образование, научное руководство, мотивация, мониторинг, высшее образование.

Annotation. This article analyzes the pedagogical mechanisms for improving the research activity of gifted students from theoretical and practical perspectives. It examines the issues of identifying gifted students in higher education institutions, developing their scientific potential, forming independent research skills, improving the system of scientific supervision, and creating an innovative educational environment. The study substantiates the importance of personality-

oriented, competence-based, activity-based and integrative approaches in working with gifted students. The article also reveals the interrelation of motivational, methodological, organizational, information-resource, monitoring and result-oriented assessment mechanisms in organizing research activity. The author proposes pedagogical conditions aimed at involving gifted students in scientific inquiry, developing research culture and increasing scientific productivity.

Keywords: gifted student, research activity, pedagogical mechanism, research competence, scientific potential, innovative education, scientific supervision, motivation, monitoring, higher education.

Kirish. Bugungi kunda oliy ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat bilimli, balki mustaqil fikrlaydigan, ilmiy muammolarni ko‘ra oladigan, tahlil qiladigan, izlanish olib boradigan va o‘z ilmiy natijalarini amaliyotga tatbiq eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Ayniqsa, iqtidorli talabalar bilan tizimli ishlash, ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va mazkur jarayonni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish oliy ta’lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Iqtidorli talaba — bu o‘quv fanlarini yuqori darajada o‘zlashtiruvchi shaxs bo‘libgina qolmay, balki yangilikka intiluvchi, muammoni mustaqil tahlil qiluvchi, ilmiy savol qo‘ya oluvchi, dalillarga asoslangan xulosa chiqaruvchi va ijodiy yondashuvga ega bo‘lgan yosh tadqiqotchidir. Shuning uchun bunday talabalar bilan ishlash oddiy o‘quv jarayonidan ko‘ra kengroq, chuqurroq va maqsadli pedagogik mexanizmlarni talab etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ilm-fan, innovatsiya va oliy ta’lim sohalarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan Prezident farmoni iqtidorli talabalarni ilmiy izlanishga jalb etish, ularning intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan. Shu jihatdan, iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon oliy ta’lim tajribasida ham talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, ilmiy seminarlar, mentorlik va innovatsion muhit orqali ilmiy faollikni rivojlantirishga katta e’tibor berilmoqda. OECD oliy ta’limda innovatsion ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan ta’limning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. UNESCO esa oliy ta’limning global rivojlanishida tadqiqot, bilim almashinuvi, xalqaro hamkorlik va ta’lim sifatini oshirish masalalarini muhim yo‘nalish sifatida ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi. Iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish masalasi bir necha omillar bilan dolzarbdir. Birinchidan, oliy ta’lim muassasalarining ilmiy salohiyati ko‘p jihatdan talabalar ilmiy izlanishlarining mazmuni, natijadorligi va amaliy ahamiyati bilan belgilanadi. Ikkinchidan, zamonaviy mehnat bozori mustaqil izlanadigan, axborotni tahlil qiladigan, yangi g‘oyalar ishlab chiqadigan va muammolarga ijodiy yechim topadigan mutaxassislarga ehtiyoj sezmoqda. Uchinchidan, iqtidorli talabalar kelajakdagi magistrantlar, doktorantlar, ilmiy xodimlar va oliy ta’lim pedagoglari zaxirasini tashkil etadi.

Amaliy kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayoni mavjud bo‘lsa-da, bu faoliyat har doim ham uzluksiz, tizimli va natijaga yo‘naltirilgan shaklda tashkil etilmaydi. Ba’zan talabalar ilmiy maqola yozish, manbalar bilan ishlash, tadqiqot metodlarini tanlash, ilmiy muammoni belgilash, natijalarni tahlil qilish va taqdim etishda yetarli metodik yordamga ega bo‘lmaydi. Ilmiy rahbarlik jarayonida ham individual yondashuv, bosqichma-bosqich nazorat va ilmiy natijani baholash mezonlari har doim aniq belgilanmagan bo‘lishi mumkin.

Shu sababli, iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish uchun pedagogik mexanizmlarni kompleks tarzda ishlab chiqish zarur. Bunda talabani ilmiy faoliyatga qiziqtirish, uni tadqiqot jarayoniga bosqichma-bosqich olib kirish, ilmiy rahbar bilan samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, zarur axborot-resurs muhitini yaratish, ilmiy natijalarni baholash va rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Mazkur maqolaning maqsadi iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining mazmuni va pedagogik xususiyatlarini tahlil qilish;

iqtidorli talabalar bilan ishlashda samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlash;

ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi asosiy pedagogik mexanizmlarni ochib berish;

iqtidorli talabalar ilmiy faolligini oshirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni asoslash;

ilmiy rahbarlik, metodik qo‘llab-quvvatlash, monitoring va rag‘batlantirish tizimining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatish.

Tadqiqot metodlari. Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, tizimli yondashuv, pedagogik kuzatish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish va ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida iqtidorli talabalar bilan ishlash jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik shakl, metod va vositalar umumlashtirildi.

Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati tushunchasi

Ilmiy-tadqiqot faoliyati talabaning muayyan ilmiy muammoni aniqlashi, unga doir nazariy va amaliy manbalarni o‘rganishi, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashi, metodlarni tanlashi, ma’lumotlarni yig‘ishi, tahlil qilishi, xulosa chiqarishi va natijani ilmiy shaklda taqdim etishidan iborat murakkab pedagogik jarayondir. Iqtidorli talabalar uchun bu jarayon nafaqat bilimni mustahkamlash vositasi, balki shaxsiy intellektual rivojlanish, ijodiy o‘zini namoyon qilish va kelajak kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik shakli hamdir.

Iqtidorli talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: mustaqil fikrlashga moyillik, ilmiy muammoga qiziqish, yangilik izlash, yuqori darajadagi bilishga ehtiyoj, tahliliy tafakkur, ijodiy yondashuv, o‘z ustida ishlashga intilish, ilmiy natijani himoya qila olish va akademik muloqotga kirisha olish. Biroq ushbu sifatlar o‘z-o‘zidan to‘liq shakllanmaydi. Ularni rivojlantirish uchun pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan ilmiy muhit, rahbarlik, metodik yordam va muntazam rag‘bat zarur.

Аннотация. В данной статье проанализированы современные психологические механизмы развития психологической готовности молодежи к военной службе. Освещены вопросы формирования стрессоустойчивости, волевой устойчивости, эмоционального контроля, патриотической мотивации, коллективной адаптации и чувства ответственности у молодежи в процессе подготовки к военной службе. Также раскрыты мотивационный,

когнитивный, эмоционально-волевой, коммуникативный и поведенческий компоненты психологической готовности к военной службе. В статье обосновано значение психологического тренинга, управления стрессом, социальной поддержки, профессиональной ориентации, патриотического воспитания и рефлексивного подхода в подготовке молодежи к военной службе в современных образовательных условиях.

Ключевые слова: военная служба, психологическая готовность, молодежь, стрессоустойчивость, волевые качества, патриотическая мотивация, эмоциональная устойчивость, коллективная адаптация, гражданский долг, психологический механизм.

Annotation. This article analyzes modern psychological mechanisms for developing young people's psychological readiness for military service. It highlights the formation of stress resistance, volitional stability, emotional control, patriotic motivation, collective adaptation and responsibility among young people in the process of preparation for military service. The motivational, cognitive, emotional-volitional, communicative and behavioral components of psychological readiness for military service are also revealed. The article substantiates the importance of psychological training, stress management, social support, career guidance, patriotic education and reflective approaches in preparing young people for military service in modern educational conditions.

Keywords: military service, psychological readiness, youth, stress resistance, volitional qualities, patriotic motivation, emotional stability, collective adaptation, civic duty, psychological mechanism.

Kirish. Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlash masalasi har bir jamiyatning mudofaa salohiyati, fuqarolik mas'uliyati va vatanparvarlik tarbiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy-psixologik jarayondir. Harbiy xizmat insondan nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki kuchli iroda, emotsional barqarorlik, tartib-intizom, jamoada harakat qilish, buyruq va topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish kabi murakkab psixologik sifatlarni ham talab etadi. Shu sababli yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini faqat tashqi ko‘nikmalar yoki nazariy bilimlar bilan cheklab bo‘lmaydi; bu jarayon shaxsning ichki psixologik imkoniyatlarini maqsadli rivojlantirishni ham taqozo etadi.

Harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlik yoshning o‘z fuqarolik burchini anglash, Vatan himoyasiga mas'uliyat bilan qarash, qiyinchiliklarga bardosh berish, o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, jamoa manfaatini shaxsiy manfaat bilan uyg‘unlashtirish va murakkab vaziyatlarda o‘zini yo‘qotmaslik qobiliyatlarida namoyon bo‘ladi. Bunday tayyorgarlik shaxsning motivatsion, emotsional, irodaviy, kognitiv va ijtimoiy-psixologik jihatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda yoshlarning axborot muhiti, ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi va hayotiy maqsadlari o‘zgarib borayotgani harbiy xizmatga tayyorlashning yangi psixologik yondashuvlarini ishlab chiqishni talab etmoqda.

Yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda zamonaviy psixologik mexanizmlar muhim o‘rin tutadi. Bu mexanizmlar orqali yoshlarning ichki motivatsiyasi kuchaytiriladi, stressga bardoshliligi rivojlantiriladi, irodaviy sifatlari mustahkamlanadi, jamoaviy moslashuvi yaxshilanadi, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyati shakllantiriladi. Demak, harbiy xizmatga tayyorgarlik masalasi pedagogik, psixologik va ijtimoiy-tarbiyaviy ishlarning uzviy birligi asosida tashkil etilishi lozim.

Mavzuning dolzarbligi

Bugungi kunda yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Bunga birinchidan, harbiy xizmat sharoitlarining o‘ziga xos murakkabligi, ikkinchidan, yoshlarning stressli vaziyatlarga munosabatidagi individual farqlar, uchinchidan, axborot oqimlari va ijtimoiy muhitning yoshlar ongiga turlicha ta'siri, to‘rtinchidan, Vatanga daxldorlik va fuqarolik burchini ongli anglash zarurati sabab bo‘lmoqda. Harbiy xizmatga psixologik jihatdan yetarli tayyor bo‘lmagan yoshda qo‘rquv, ikkilanish,

moslashuvdagi qiyinchilik, hissiy zo‘riqish, jamoaga qo‘shilishda sustlik va mas’uliyatdan qochish holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Harbiy xizmat jarayonida yoshlar odatdagi hayot tarzidan farq qiluvchi intizom, tartib, bo‘ysunish, jamoaviy yashash, jismoniy yuklama, vaqt tanqisligi va qat’iy talablar bilan yuzma-yuz keladi. Bunday sharoitga muvaffaqiyatli moslashish uchun ularda psixologik barqarorlik, o‘zini boshqarish, ijtimoiy moslashuvchanlik va irodaviy chidamlilik yetarli darajada shakllangan bo‘lishi zarur. Shu bois yoshlarni harbiy xizmatga tayyorlashda ularning ruhiy holatini, shaxsiy xususiyatlarini, motivatsiyasini va ijtimoiy-psixologik tayyorgarligini oldindan o‘rganish muhimdir.

Mavzuning yana bir dolzarb jihati shundaki, harbiy xizmatga tayyorgarlik yoshlarning vatanparvarlik tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Vatanparvarlik hissi faqat tantanali tadbirlar yoki shiorlar orqali emas, balki yoshning ichki e’tiqodi, fuqarolik mas’uliyati, burchni anglash va jamiyatga foydali bo‘lishga intilishi orqali shakllanadi. Shuning uchun zamonaviy psixologik mexanizmlar yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini faqat moslashuv darajasida emas, balki ularning shaxsiy kamoloti, ijtimoiy yetukligi va ma’naviy barqarorligini ta’minlovchi jarayon sifatida qarash imkonini beradi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligi masalasi umumiy psixologiya, harbiy psixologiya, yosh davrlari psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiya doirasida o‘rganib kelinadi. Ilmiy qarashlarda psixologik tayyorgarlik shaxsning ma’lum faoliyatga ruhiy, motivatsion, irodaviy, kognitiv va xulqiy jihatdan tayyorlik holati sifatida izohlanadi. Harbiy xizmatga tayyorgarlik esa bu umumiy tayyorgarlikning maxsus ko‘rinishi bo‘lib, unda shaxsning mas’uliyat, intizom, xavfga munosabat, stressni boshqarish, jamoada harakat qilish va buyruqni bajarishga tayyorligi alohida ahamiyatga ega.

Psixologiya fanida stress, moslashuv, motivatsiya, iroda, emotsional barqarorlik va shaxsiy mas’uliyat masalalari keng o‘rganilgan. Mazkur ilmiy yo‘nalishlarda insonning murakkab vaziyatlarga javob reaksiyasi, qiyinchiliklarni yengib o‘tish imkoniyati, ichki boshqaruv mexanizmlari, ijtimoiy muhitga moslashuvi va faoliyat samaradorligi bilan bog‘liq xususiyatlar tahlil qilingan. Harbiy psixologiyada esa bu masalalar yanada aniqroq, ya’ni xavfli yoki bosimli vaziyatda xatti-harakatni saqlab qolish, jangovar yoki xizmat sharoitlariga moslashish, buyruqni to‘g‘ri bajarish va jamoaviy mas’uliyatni his qilish nuqtai nazaridan o‘rganiladi.

Yoshlar misolida harbiy xizmatga tayyorgarlik masalasining o‘ziga xos tomoni shundaki, bu davr shaxsiy o‘zlikni anglash, hayotiy maqsadlarni belgilash, ijtimoiy mavqeni aniqlash, mustaqil qaror qabul qilish va fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bosqichi bilan mos keladi. Shu sababli harbiy xizmatga tayyorgarlik faqat harbiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirish emas, balki yoshning shaxs sifatida yetilishi, o‘z mas’uliyatini anglash, irodaviy sifatlarini rivojlantirish va ijtimoiy foydali faoliyatga tayyorlanishi bilan ham bog‘liqdir.

Mavjud ilmiy yondashuvlarda psixologik tayyorgarlikning motivatsion, emotsional, irodaviy, bilish, kommunikativ va amaliy tarkibiy qismlari ajratib ko‘rsatiladi. Harbiy xizmatga tayyorgarlikda ushbu tarkibiy qismlarning barchasi muhim bo‘lsa-da, ayniqsa vatanparvarlik motivatsiyasi, stressga bardoshlilik, irodaviy qat’iyat, jamoaviy moslashuv va o‘zini boshqarish mexanizmlari markaziy o‘rin egallaydi.

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligi mazmuni

Harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlik yoshning harbiy muhit, xizmat intizomi, jismoniy va ruhiy yuklama, jamoaviy yashash, buyruq va topshiriqlarni bajarish, shaxsiy qulayliklardan vaqtincha voz kechish hamda Vatan oldidagi burchni bajarishga ichki tayyorlik holatini bildiradi. Bunday tayyorgarlik yoshning ichki dunyosi, qadriyatlari, o‘ziga ishonchi, irodaviy barqarorligi, emotsional boshqaruvi va ijtimoiy moslashuvchanligi bilan belgilanadi.

Psixologik tayyorgarlik bir nechta tarkibiy qismdan iborat. Birinchi tarkibiy qism — motivatsion tayyorgarlikdir. Bunda yosh harbiy xizmatning mazmunini, ijtimoiy ahamiyatini va Vatan oldidagi burch sifatidagi mohiyatini anglaydi. Ikkinchi tarkibiy qism — kognitiv tayyorgarlik bo‘lib, u harbiy xizmatga oid bilimlar, tartib-qoidalar, xizmat sharoitlari va harbiy

intizom haqidagi tasavvurlarni o‘z ichiga oladi. Uchinchi tarkibiy qism — emotsional-irodaviy tayyorgarlikdir. Bu yoshning qo‘rquv, xavotir, charchoq, bosim va noaniqlik holatlarida o‘zini boshqara olish qobiliyati bilan bog‘liq.

To‘rtinchi tarkibiy qism — kommunikativ tayyorgarlikdir. Harbiy xizmat jamoaviy faoliyatga asoslanganligi sababli yoshning tengdoshlari, rahbarlari va xizmatdoshlar bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnata olishi muhimdir. Beshinchi tarkibiy qism — xulqiy-amaliy tayyorgarlik bo‘lib, u intizomga rioya qilish, topshiriqni bajarish, javobgarlikni his qilish, o‘z vaqtini to‘g‘ri tashkil etish va xizmat sharoitiga moslashish ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi.

Psixologik tayyorgarligi yuqori bo‘lgan yosh harbiy xizmatni majburiy cheklov emas, balki fuqarolik burchi, shaxsiy sinov, irodaviy kamolot va Vatanga xizmat qilish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Aksincha, tayyorgarligi past bo‘lgan yoshda harbiy xizmatga nisbatan qo‘rquv, salbiy tasavvur, moslashuvdagi qiyinchilik va ichki qarshilik paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli harbiy xizmatga tayyorlash jarayonida yoshlarning psixologik holatini oldindan o‘rganish va ularni bosqichma-bosqich tayyorlash zarur.

Zamonaviy psixologik mexanizmlar

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirishda bir nechta zamonaviy psixologik mexanizmlar muhim ahamiyatga ega. Ulardan birinchisi motivatsion mexanizmdir. Bu mexanizm yoshda harbiy xizmatning mazmuni, Vatan himoyasi, fuqarolik burchi, shaxsiy mas’uliyat va jamiyatga foyda keltirish haqidagi ichki ishonchni shakllantirishga qaratiladi. Motivatsiya kuchli bo‘lsa, yosh harbiy xizmatdagi qiyinchiliklarni vaqtinchalik sinov sifatida qabul qiladi va o‘zini shu faoliyatga ongli tayyorlaydi.

Ikkinchi muhim mexanizm — stressni boshqarish mexanizmidir. Harbiy xizmatga tayyorgarlik jarayonida yoshlar turli bosim, noaniqlik, jismoniy yuklama va emotsional zo‘riqishlarga duch kelishi mumkin. Stressni boshqarish mexanizmi ularda o‘z hissiyotlarini nazorat qilish, xavotirni kamaytirish, vaziyatni to‘g‘ri baholash, nafas olish va diqqatni jamlash usullaridan foydalanish, murakkab vaziyatda o‘zini yo‘qotmaslik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Uchinchi mexanizm — irodaviy boshqaruv mexanizmidir. Bu mexanizm yoshda qat’iyat, sabr-toqat, intizom, maqsadga intilish, o‘zini tuta bilish va mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmat sharoitida iroda shaxsning asosiy ichki tayanchi hisoblanadi. Irodaviy boshqaruv yaxshi shakllangan yosh buyruq va topshiriqlarni bajarishda izchillik ko‘rsatadi, qiyinchiliklar oldida chekinmaydi va o‘z xatti-harakatini ongli ravishda nazorat qiladi.

To‘rtinchi mexanizm — jamoaviy moslashuv mexanizmidir. Harbiy xizmatda shaxs doimiy ravishda jamoa bilan birga yashaydi, ishlaydi va vazifalarni bajaradi. Shu bois yoshlarning muloqotga kirishuvchanligi, boshqalarni tushunishi, kelishmovchiliklarni tinch hal qilishi, guruh talablariga moslashishi va jamoa manfaatini inobatga olishi muhimdir. Jamoaviy moslashuv mexanizmi yoshda hamkorlik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat va xizmatdoshlarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Beshinchi mexanizm — refleksiv mexanizmdir. Refleksiya yoshning o‘z xatti-harakatlari, his-tuyg‘ulari, kuchli va zaif tomonlarini anglashiga yordam beradi. Harbiy xizmatga tayyorgarlikda refleksiv yondashuv yoshga o‘z qo‘rquvlari, xavotirlari, intilishlari va imkoniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. O‘zini anglagan yosh o‘z ustida ishlashga, kamchiliklarini bartaraf etishga va psixologik jihatdan kuchliroq bo‘lishga intiladi.

Oltinchi mexanizm — qadriyatli yo‘naltirish mexanizmidir. Bu mexanizm yoshlarning Vatan, xalq, oila, burch, sha’n, sadoqat, jasorat, fidoyilik va mas’uliyat kabi tushunchalarga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiradi. Harbiy xizmatga tayyorgarlikda qadriyatli yo‘naltirish faqat nazariy tushuntirish bilan emas, balki shaxsiy namuna, hayotiy voqealar, tarixiy xotira, harbiy-vatanparvarlik tadbirlari va ijtimoiy foydali faoliyat orqali amalga oshirilishi kerak.

Yettinchi mexanizm — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmidir. Yosh harbiy xizmatga tayyorgarlik jarayonida oila, maktab, mahalla, ustoz, murabbiy va tengdoshlardan ijobiy ruhiy madad olsa, unda o‘ziga ishonch kuchayadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xavotirni kamaytiradi, moslashuvni yengillashtiradi va yoshda xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantiradi.

Tahlil va muhokama

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirish ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u shaxsning ichki motivatsiyasi, emotsional holati, irodaviy sifatlari, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlar tizimini birgalikda shakllantirishni talab etadi. Harbiy xizmatga tayyorlik faqat “xizmatga borishga rozilik” darajasida emas, balki xizmat sharoitlariga moslashish, mas’uliyatli vazifalarni bajarish, jamoada o‘z o‘rnini topish va stressli vaziyatlarda barqaror qolish qobiliyati bilan baholanishi kerak.

Psixologik tayyorgarlikning markazida motivatsiya turadi. Agar yosh harbiy xizmatni majburiyat sifatida emas, balki Vatan oldidagi burch, shaxsiy kamolot va ijtimoiy mas’uliyat sifatida anglay olsa, uning ichki tayyorgarligi kuchliroq bo‘ladi. Motivatsiyasi sust bo‘lgan yoshda esa harbiy xizmatga nisbatan salbiy tasavvurlar, xavotir, qarshilik va moslashuvdagi qiyinchiliklar kuchayishi mumkin. Shu sababli harbiy xizmatga tayyorlashda yoshlar bilan suhbatlar, hayotiy misollar, harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar, kasbiy yo‘naltirish va vatanparvarlik mazmunidagi amaliy tadbirlar muhim ahamiyatga ega.

Stressga bardoshlilik harbiy xizmatga tayyorgarlikning muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. Harbiy xizmatga kirgan yosh o‘z odatiy turmush tarzidan farq qiluvchi sharoitga tushadi. U yerda qat’iy tartib, vaqt me’yorlari, jamoaviy hayot, jismoniy yuklama va xizmat mas’uliyati mavjud bo‘ladi. Bu omillar stressni yuzaga keltirishi tabiiy. Biroq stressning salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatishi yoshning uni qanday qabul qilishi va qanday boshqarishiga bog‘liq. Stressni boshqarishga o‘rgatilgan yosh murakkab vaziyatda o‘zini tutib tura oladi, qo‘rquvga berilmaydi, vazifani bajarishga diqqatini jamlaydi.

Irodaviy sifatlar psixologik tayyorgarlikning asosiy tayanchlaridan biridir. Harbiy xizmatda yoshdan qat’iyat, sabr, intizom, jasorat, o‘zini nazorat qilish va topshiriqni oxirigacha bajarish talab qilinadi. Bu sifatlar o‘z-o‘zidan shakllanmaydi; ular tarbiya, mashq, tajriba, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat va shaxsiy mas’uliyat orqali rivojlanadi. Shuning uchun chaqiriqqacha tayyorgarlik bosqichida yoshlarni qiyinchilikdan qochmaslikka, boshlangan ishni yakunlashga, o‘z vaqtini tartibga solishga va jamoa oldida javobgarlikni his qilishga o‘rgatish zarur.

Jamoaviy moslashuv ham harbiy xizmatga tayyorgarlikda alohida o‘rin tutadi. Harbiy xizmat individual emas, balki jamoaviy hayot tarziga asoslanadi. Yoshning boshqalar bilan kelisha olishi, jamoa qoidalariga rioya qilishi, xizmatdoshlari bilan to‘g‘ri munosabat o‘rnatishi, nizoli vaziyatlarda murosali bo‘lishi uning xizmatga moslashuvini yengillashtiradi. Jamoaga moslasha olmagan yoshda yolg‘izlik, norozilik, ichki zo‘riqish va xizmatga salbiy munosabat kuchayishi mumkin.

Zamonaviy psixologik mexanizmlarning samaradorligi ularning tizimli qo‘llanishiga bog‘liq. Masalan, faqat vatanparvarlik haqida ma’ruza qilish yetarli emas. Unga stressni boshqarish mashqlari, jamoaviy topshiriqlar, refleksiv suhbatlar, harbiy-amaliy mashg‘ulotlar, ijtimoiy loyihalar va psixologik treninglar qo‘shilgandagina yoshlarning tayyorgarligi chuqurroq shakllanadi. Bu jarayonda oila, maktab, mahalla, harbiy qism va jamoatchilik hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini baholashda bir necha mezonlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bular: harbiy xizmatga ijobiy munosabat, Vatan oldidagi burchni anglash, stressli vaziyatda o‘zini boshqarish, jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarga bardoshlilik, jamoaga moslashish, intizomga rioya qilish, mas’uliyatni his qilish va o‘z imkoniyatlariga ishonchdir. Ushbu mezonlar asosida yoshlarning tayyorgarlik darajasini aniqlash va ularga individual yondashuvni tashkil etish mumkin.

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirish uchun birinchi navbatda psixologik diagnostika ishlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Diagnostika orqali yoshlarning xavotir darajasi, stressga bardoshliligi, irodaviy sifatlari, motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va jamoaviy moslashuv imkoniyatlari aniqlanadi. Bu ma’lumotlar asosida ularga individual yoki guruhiy psixologik yordam ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchi yo‘nalish — psixologik treninglarni tashkil etishdir. Treninglar yoshlarni stressni boshqarish, o‘zini nazorat qilish, samarali muloqot, nizolarni hal qilish, jamoada ishlash va irodaviy qat’iyatni rivojlantirishga o‘rgatadi. Bunday mashg‘ulotlar nazariy suhbatlardan ko‘ra

ko‘proq amaliy topshiriqlar, rolli vaziyatlar, guruhiy muhokamalar va o‘zini tahlil qilish mashqlari orqali olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Uchinchi yo‘nalish — harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini psixologik yondashuv bilan boyitishdir. Yoshlar Vatan, burch, jasorat va sadoqat tushunchalarini faqat umumiy so‘zlar sifatida emas, balki o‘z hayoti, oilasi, jamiyati va kelajakdagi mas’uliyati bilan bog‘lab anglashlari kerak. Shunda vatanparvarlik tashqi targ‘ibot emas, balki ichki e’tiqod sifatida shakllanadi.

To‘rtinchi yo‘nalish — jismoniy va psixologik tayyorgarlikni uyg‘unlashtirishdir. Harbiy xizmatga tayyorgarlikda jismoniy mashqlar yoshning faqat tanasini emas, balki irodasini, sabrini, qat’iyatini va o‘ziga ishonchini ham mustahkamlaydi. Jismoniy topshiriqlar psixologik tahlil, o‘zini baholash va guruhiy qo‘llab-quvvatlash bilan uyg‘unlashtirilsa, ularning tarbiyaviy samarasi ortadi.

Beshinchi yo‘nalish — ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirishdir. Harbiy xizmatga tayyorlanayotgan yosh o‘zini yolg‘iz his qilmasligi kerak. Ota-ona, ustoz, mahalla faollari, harbiy xizmatchilar va tengdoshlarning ijobiy munosabati uning psixologik ishonchini mustahkamlaydi. Ayniqsa, harbiy xizmatni o‘tagan yoshlar bilan uchrashuvlar, real tajribalar almashinuvi va savol-javoblar xizmat haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlarni kamaytiradi.

Xulosa. Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Harbiy xizmatga tayyorgarlik shaxsning faqat jismoniy yoki nazariy tayyorgarligi bilan belgilanmaydi, balki uning motivatsiyasi, stressga bardoshliligi, irodaviy sifatlari, emotsional nazorati, jamoaviy moslashuvi va fuqarolik mas’uliyati bilan chambarchas bog‘liqdir.

Zamonaviy psixologik mexanizmlar yoshlarning harbiy xizmatga ongli, mas’uliyatli va barqaror tayyorlanishiga xizmat qiladi. Motivatsion mexanizm yoshda Vatan oldidagi burchni anglashni kuchaytiradi. Stressni boshqarish mexanizmi murakkab vaziyatlarda ruhiy muvozanatni saqlashga yordam beradi. Irodaviy boshqaruv mexanizmi qat’iyat, intizom va sabr-toqatni rivojlantiradi. Jamoaviy moslashuv mexanizmi xizmat sharoitida boshqalar bilan hamkorlikda harakat qilishni ta’minlaydi. Refleksiv mexanizm esa yoshning o‘z imkoniyatlarini anglashiga va o‘z ustida ishlashiga imkon yaratadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatga psixologik tayyorgarlik bosqichma-bosqich, tizimli va shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilganda samarali bo‘ladi. Bu jarayonda psixologik diagnostika, treninglar, vatanparvarlik tarbiyasi, jismoniy mashg‘ulotlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va amaliy faoliyatlar o‘zaro uyg‘unlashishi kerak. Natijada yoshlarning harbiy xizmatga moslashuvi yengillashadi, ularda mas’uliyat, jasorat, o‘ziga ishonch, irodaviy barqarorlik va Vatanga sadoqat kabi muhim fazilatlar shakllanadi.

Umuman olganda, yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini rivojlantirish ularning shaxsiy kamoloti, fuqarolik pozitsiyasi, vatanparvarlik hissi va ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlovchi muhim jarayondir. Shu sababli harbiy xizmatga tayyorlashda zamonaviy psixologik mexanizmlardan maqsadli, tizimli va amaliy foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tavsiyalar

Yoshlarning harbiy xizmatga psixologik tayyorgarligini aniqlash uchun stressga bardoshlilik, irodaviy sifatlar, motivatsiya va jamoaviy moslashuvni baholovchi psixologik diagnostika ishlarini muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Harbiy xizmatga tayyorlanayotgan yoshlar bilan stressni boshqarish, o‘zini nazorat qilish, emotsional barqarorlik va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar o‘tkazish zarur.

Yoshlarning vatanparvarlik motivatsiyasini kuchaytirish uchun harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar, tarixiy xotira tadbirlari, Vatan himoyasiga oid suhbatlar va amaliy harbiy-vatanparvarlik loyihalarini tizimli yo‘lga qo‘yish lozim.

Harbiy xizmatga tayyorgarlik jarayonida jismoniy mashqlarni psixologik tayyorgarlik bilan uyg‘unlashtirish, har bir mashg‘ulotdan so‘ng yoshlarning o‘z holatini tahlil qilishiga imkon yaratish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlarning harbiy xizmat haqidagi noto‘g‘ri tasavvurlari, qo‘rquvlari va xavotirlarini kamaytirish uchun individual suhbatlar, guruhiy muhokamalar va psixologik maslahatlarni tashkil etish zarur.

Oila, ta’lim muassasasi, mahalla va harbiy tashkilotlar hamkorligini kuchaytirish orqali yoshlarning harbiy xizmatga ijobiy munosabati, fuqarolik burchi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
3. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Jalolova S.X. Shaxs va muloqot psixologiyasi. — Toshkent: Fan, 2019.
5. To‘raqulov X.A. Pedagogik psixologiya asoslari. — Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. — Toshkent: Sharq, 2013.
7. Musurmonova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
8. Quronov M. Milliy tarbiya. — Toshkent: Ma’naviyat, 2007.

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KONFLIKTGA MUNOSABAT USLUBLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Axrorov Voris Yunusovich
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti Ta’lim sifati nazorati bo‘limi boshlig‘i,
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Psixologik barqarorlik shaxsning stressli va ziddiyatli holatlarda emotsional muvozanatini saqlab qolish, ratsional fikrlash va konstruktiv xatti-harakatni namoyon etish qobiliyati sifatida talqin qilingan. Tadqiqot doirasida bo‘lajak pedagoglar faoliyatida uchraydigan nizoli vaziyatlarning psixologik mazmuni, ularning shaxs rivojiga ta’siri hamda bunday vaziyatlarda barqaror xulqni ta’minlovchi individual-psixologik omillar o‘rganilgan.

Kalit so’zlar. psixologik barqarorlik, nizoli vaziyatlar, bo‘lajak pedagog, emotsional intellekt, stressga bardoshlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish, konstruktiv xulq, shaxs resurslari, kasbiy moslashuv, pedagogik muloqot.

Аннотация. Психологическая устойчивость рассматривается как способность личности сохранять эмоциональное равновесие в стрессовых и конфликтных ситуациях, проявлять рациональное мышление и конструктивное поведение. В исследовании рассматривается психологическое содержание конфликтных ситуаций, возникающих в деятельности будущих педагогов, их влияние на личностное развитие, а также индивидуально-психологические факторы, обеспечивающие устойчивое поведение в таких ситуациях.

Ключевые слова. психологическая устойчивость, конфликтные ситуации, будущий учитель, эмоциональный интеллект, стрессоустойчивость, самоменеджмент, конструктивное поведение, личностные ресурсы, профессиональная адаптация, педагогическое общение.

Abstract. Psychological stability is interpreted as a person's ability to maintain emotional balance in stressful and conflict situations, to demonstrate rational thinking and constructive behavior. The study examines the psychological content of conflict situations encountered in the activities of future teachers, their impact on personal development, and individual psychological factors that ensure stable behavior in such situations

Keywords. psychological stability, conflict situations, future teacher, emotional intelligence, stress tolerance, self-management, constructive behavior, personal resources, professional adaptation, pedagogical communication.

Kirish. Nizoli vaziyatlar insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning tabiiy mahsuli bo‘lib, ta’lim muhitida ular ko‘pincha manfaatlar, qadriyatlar, ehtiyojlar hamda kommunikativ jarayonlardagi nomuvofiqliklar natijasida vujudga keladi. Bunday holatlarda pedagogning vaziyatni qanday qabul qilishi, emotsional reaksiyasi, xulq-atvori va qaror qabul qilish uslubi ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlay olgan pedagog konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yadi, ziddiyatni yumshatadi va pedagogik maqsadlarga erishishga xizmat qiladigan optimal yechimlarni topa oladi.

Psixologik barqarorlik shaxsning stressli, noaniq va ziddiyatli sharoitlarda ichki muvozanatini saqlab qolish, emotsional kechinmalarni boshqara olish, vaziyatni ongli va xolis baholash hamda moslashuvchan xulq-atvorni namoyon etish qobiliyati sifatida tavsiflanadi. Ushbu sifat pedagog shaxsida barqaror kasbiy motivatsiya, emotsional yetuklik, o‘zini-o‘zi boshqarish va ijtimoiy mas’uliyat bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Psixologik barqarorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi esa pedagogik faoliyatda emotsional zo‘riqish, kasbiy kuyish, nizolardan qochish yoki agressiv munosabat kabi salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirgi ta’lim tizimi raqobatbardosh, mustaqil fikrlovchi, kreativ va stressga bardoshli pedagoglarni tayyorlashni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak pedagoglarda nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan talabalik davrida shaxsning kasbiy “Men” konsepsiyasi, refleksiv qobiliyatlari, emotsional intellekti hamda ijtimoiy-psixologik moslashuv mexanizmlari faol shakllanadi. Ushbu jarayonda beriladigan psixologik bilimlar, amaliy mashg‘ulotlar va treninglar bo‘lajak pedagogning kelgusidagi kasbiy faoliyatiga mustahkam poydevor yaratadi.

Mavzu bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagogik nizolarning psixologik asoslari, ularni boshqarish mexanizmlari hamda pedagog shaxsining barqarorlik xususiyatlari muayyan darajada o‘rganilgan. Biroq aynan bo‘lajak pedagoglarda nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirishning kompleks psixologik asoslarini aniqlash, uni rivojlantirishning samarali usul va texnologiyalarini ishlab chiqish masalasi yetarli darajada tizimli yoritilmagan. Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘plab yosh pedagoglar kasbiy faoliyatning dastlabki bosqichlaridayoq nizoli vaziyatlar, stressli holatlar hamda kommunikativ muammolarga duch kelib, psixologik qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqdalar.

Shu bois mazkur tadqiqot bo‘lajak pedagoglarda nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirishning psixologik asoslarini aniqlash, ushbu jarayonni ta’minlovchi ichki va tashqi omillarni tahlil qilish, shuningdek, samarali psixologik ta’sir mexanizmlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari oliy pedagogik ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish, bo‘lajak pedagoglarning kasbiy moslashuvini kuchaytirish hamda ta’lim muassasalarida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Pedagogik faoliyat davomida nizoli vaziyatlar turlicha va ko‘p qirrali bo‘lishi mumkin: o‘quvchilar bilan kelib chiqadigan tushunmovchiliklar, ota-onalar bilan ijtimoiy muloqotdagi ziddiyatlar, hamkasblar bilan ish bo‘yicha qarama-qarshiliklar, shuningdek, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan pedagogik qarorlar bilan bog‘liq bahs-munozaralar. Shu bois, bo‘lajak pedagogning psixologik barqarorligi uning professional muvaffaqiyati va shaxsiy sog‘lomligi uchun muhim shartdir. Ushbu muammoni ilmiy asoslashda Daniel Goleman, Ken Tomas, Kurt Levin, Albert Bandura, Erik Erikson va E. G‘oziyev kabi olimlarning nazariyalari metodologik manba sifatida xizmat qiladi. Ularning yondashuvlari pedagogning nizoli vaziyatlarga xotirjamlik, konstruktiv fikrlash va ongli harakat bilan javob berishini tushuntirishga imkon beradi. Shu bilan birga, nazariyalar bo‘lajak pedagoglarda konfliktlarni boshqarish, emotsiyalarni anglash va ijtimoiy kontekstni hisobga olish orqali psixologik barqarorlikni shakllantirishga asos yaratadi.

Daniel Goleman pedagogning nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorligi uning emotsional intellektiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. Emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni boshqarish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va samarali muloqot qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Bo‘lajak pedagoglarda emotsional intellektni rivojlantirish orqali nizoli vaziyatlarda xotirjamlik, konstruktiv yondashuv va ijobiy kommunikatsiya ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, emotsional intellektni o‘rgatish pedagogik treninglar, refleksiv mashg‘ulotlar va simulyatsion vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. Goleman nazariyasi bo‘yicha pedagog o‘zining ichki holatini va tashqi vaziyatlarni real baholab, nizoli vaziyatlarga samarali javob berishga o‘rganadi.

Albert Bandura pedagogning nizoli vaziyatlarda muvaffaqiyatli harakat qilishi uning o‘ziga bo‘lgan ishonchiga bog‘liqligini ta’kidlaydi. O‘ziga ishonch yuqori bo‘lgan bo‘lajak pedagog nizoli vaziyatlarga konstruktiv yondashadi, xotirjamlikni saqlaydi va qarorlarini ongli qabul qiladi. Ushbu nazariya psixologik barqarorlikni shakllantirishda o‘z-o‘zini baholash, refleksiya va tajriba orqali amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning ilmiy asosini beradi. Bo‘lajak pedagoglar nizoli vaziyatlarda o‘z imkoniyatlariga ishonish orqali stressli vaziyatlarni muvaffaqiyatli boshqarishni o‘rganadilar.

Erik Eriksonning nazariyasi bo‘yicha shaxsiy rivojlanish bosqichlari pedagogning nizoli vaziyatlarga moslashuvini belgilaydi. Yosh bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy va emotsional kompetensiyalar yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlik past bo‘ladi. Shu bois, pedagogik tayyorgarlik mashg‘ulotlarini shaxsiy va kasbiy rivojlanish bosqichlarini hisobga olgan holda tashkil etish muhimdir. Bu yondashuv bo‘lajak pedagoglarda nizoli vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish, konstruktiv xulq-atvor va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

E. G‘oziyev pedagog shaxsining psixologik barqarorligini uning individual xususiyatlari, emotsional holati va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’siri orqali tushuntiradi. Nizoli vaziyatlarda pedagogning xotirjamligi va konstruktiv yondashuvi uning shaxsiy barqarorligiga bog‘liq. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda emotsional intellekt va konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish psixologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. G‘oziyev nazariyasi pedagog shaxsini tizimli, kompleks va holatga mos yondashadigan sub’ekt sifatida o‘rganishga imkon beradi.

Olimlar nazariyalari pedagog shaxsining emotsional intellekti, ijtimoiy maydoni, konfliktlarni boshqarish uslubi va shaxsiy rivojlanishi kabi psixologik resurslarini hisobga olgan holda, nizoli vaziyatlarda konstruktiv va ongli harakat qilish imkoniyatini tushuntiradi. Shu bilan, olimlarning nazariy yondashuvlari bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash va psixologik barqarorlikni rivojlantirish bo‘yicha metodologik zamin yaratadi.

Pedagoglarning emotsional barqarorligi ularning ish samaradorligini oshiradi va o‘quvchilar bilan munosabatlaridagi muvaffaqiyatni ta’minlaydi. Shuningdek, pedagoglarning ichki psixologik barqarorligini rivojlantirish orqali ular nafaqat o‘zlarining hissiy holatlarini boshqarish, balki o‘quvchilar bilan konstruktiv va produktiv muloqot o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon pedagogning o‘zini o‘zi anglash va stressni boshqarish qobiliyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi. Psixologik barqarorlik pedagogning professional mahoratini oshiradi va uning ta’lim berish metodikalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, bu holat o‘quvchilarda ham psixologik barqarorlikni shakllantirish uchun model bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagoglarning psixologik barqarorligi o‘ziga xos ijtimoiy va psixologik manfaatlarga ega bo‘lib, ijobiy ta’lim muhitining yaratilishiga katta hissa qo‘shadi.

Psixologik barqarorlikni shakllantirishda pedagoglar o‘zlarining psixologik va emotsional reaksiyalarini tushunishlari va ular ustidan nazorat o‘rnatishlari muhim ahamiyatga ega. Nizoli vaziyatlar pedagogning emotsional javoblariga ta’sir qilishi mumkin, shu sababli, ular o‘z hissiyotlarini tahlil qilish va nazorat qilishni o‘rganishlari lozim. Masalan, pedagog o‘zida bo‘ladigan salbiy hissiyotlarni tanib, ularni nazorat qilish yo‘llarini bilishi kerak. Bu o‘z navbatida, ularning ta’lim jarayonidagi rolini yaxshilaydi va o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlarida salbiy holatlarning oldini oladi.

Pedagoglarning psixologik barqarorligini shakllantirishda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi va muloqotning ahamiyati katta. Pedagogning atrofidagi ijtimoiy muhit, uning ish joyidagi qo‘llab-quvvatlash tizimi va jamoasi psixologik barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Pedagoglar o‘zlari uchun qo‘llab-quvvatlash tarmog‘ini yaratish orqali, har qanday stressli vaziyatni yengib o‘tishga yordam beradigan resurslarga ega bo‘ladilar. Bu qo‘llab-quvvatlash tizimi, asosan, hamkasblar, rahbarlar va o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali tashkil etiladi. Pedagoglar o‘rtasida ijtimoiy muloqot va tajriba almashish psixologik barqarorlikni oshirishga xizmat qiladi, chunki bu ularga muammolarni birgalikda hal qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, o‘quvchilar bilan samarali va tushunarli muloqot o‘rnatish ham pedagoglarning psixologik barqarorligini kuchaytiradi. Bunday muloqot o‘quvchilarning ham ruhiy holatiga ijobiy ta’sir qiladi. Pedagogning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tarmog‘i, uning stressli vaziyatlarni yengish va vaziyatga moslashish qobiliyatini yaxshilaydi, bu esa o‘z navbatida, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Natijada, pedagoglarning psixologik barqarorligi nafaqat ularning o‘zlarida, balki o‘quvchilarda ham ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa. Bo‘lajak pedagoglarda nizoli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni shakllantirish shaxsning emotsional intellekti, o‘ziga bo‘lgan ishonchi, konfliktlarni boshqarish ko‘nikmalari va ijtimoiy muhit bilan moslashuviga bog‘liq murakkab jarayon hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt yuqori bo‘lgan pedagoglar nizoli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlash, konstruktiv qaror qabul qilish va samarali muloqot qilishga moyil bo‘ladilar.

Shaxsiy rivojlanish bosqichi va ijtimoiy muhit pedagogning nizoli vaziyatlarga moslashuvini belgilaydi. Integrativ yondashuv — emotsional intellektni rivojlantirish, konfliktlarni boshqarish, o‘ziga ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvni oshirish — bo‘lajak pedagoglarning psixologik barqarorligini samarali shakllantirish imkonini beradi.

Xulosa shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarda psixologik barqarorlikni shakllantirish murakkab, lekin tizimli va metodologik asosga ega jarayon bo‘lib, u pedagogning professional muvaffaqiyati va shaxsiy farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois, emotsional intellektni rivojlantirish, konstruktiv konflikt boshqarish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash va ijtimoiy moslashuvni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan metodik yondashuvlar bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida ajralmas vosita hisoblanadi. Bu yondashuvlar pedagogning nizoli vaziyatlarda xotirjam, konstruktiv va samarali faoliyat olib borishini ta’minlab, uning kasbiy va shaxsiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Jo'raev R.X., Safarova R.G' va boshqalar. Pedagogika fani konsepsiyasi //Xalq ta'limi. - T., 2004. - N5. - B. 8-33.

2. Ma‘murov B.B. O'quvchi shaxsi pedagogik jarayonining asosiy subyekti sifatida// Uzluksiz ta‘lim.-T.,2008.-N1.- B.-15-18.

3. Musurmonov R. Globallashuv jarayonida pedagog xodimlarning ilmiy bilish faoliyatlarini uyg'unlashtirish omillari// Xalq ta'limi. -T., 2008.-N4.-B.10-14.

4. Рибо Т. Российская педагогическая энциклопедия / гл. ред. Давыдов В. В. — М.: Научн. изд. «Большая Российская энциклопедия». 2003. – 608 с.

ONKOLOGIK BEMORLARNING HAYOT SIFATINI YAXSHILASHDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYANING SAMARADORLIGI

Niyozova Nilufar Farxadovna
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada onkologik bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda psixologik reabilitatsiyaning o‘rni va samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Onkologik kasallik tashxisi bemor shaxsida qo‘rquv, xavotir, tushkunlik, umidsizlik, ijtimoiy chekinish hamda hayot mazmunining pasayishi kabi psixologik holatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu

sababli davolash jarayonida faqat tibbiy muolajalar bilan cheklanmasdan, bemorning ruhiy holatini tiklash, moslashuvchanligini oshirish va ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash muhim hisoblanadi. Maqolada psixologik maslahat, emotsional qo‘llab-quvvatlash, stressni boshqarish, oilaviy psixologik yordam, guruhiy reabilitatsiya hamda kognitiv-xulqiy yondashuvlarning bemor hayot sifatiga ijobiy ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: onkologik bemor, hayot sifati, psixologik reabilitatsiya, emotsional qo‘llab-quvvatlash, stress, xavotir, depressiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik yordam, sog‘lomlashtirish.

Аннотация. В данной статье раскрывается значение психологической реабилитации в повышении качества жизни онкологических больных. Диагноз онкологического заболевания может вызывать у пациента страх, тревожность, депрессивные переживания, социальную изоляцию и снижение жизненной мотивации. Поэтому в процессе лечения важно учитывать не только медицинские, но и психологические аспекты восстановления личности. В статье анализируются эффективность психологического консультирования, эмоциональной поддержки, семейной помощи, групповой работы и когнитивно-поведенческих методов в улучшении психоэмоционального состояния онкологических пациентов.

Ключевые слова: онкологический больной, качество жизни, психологическая реабилитация, эмоциональная поддержка, стресс, тревожность, депрессия, социальная адаптация, психологическая помощь.

Annotation. This article discusses the role and effectiveness of psychological rehabilitation in improving the quality of life of cancer patients. A cancer diagnosis may cause fear, anxiety, depression, social withdrawal, and a decrease in life motivation. Therefore, treatment should include not only medical procedures but also psychological support aimed at restoring emotional stability, social adaptation, and personal resources. The article analyzes the positive effects of psychological counseling, emotional support, family assistance, group rehabilitation, and cognitive-behavioral approaches on the quality of life of oncology patients.

Keywords: cancer patient, quality of life, psychological rehabilitation, emotional support, stress, anxiety, depression, social adaptation, psychological care.

Kirish. Bugungi kunda onkologik kasalliklar nafaqat tibbiy, balki psixologik, ijtimoiy va ma’naviy muammo sifatida ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki saraton tashxisi bemor hayotining barcha jabhalariga ta’sir qiladi: jismoniy salomatlik, oilaviy munosabatlar, mehnat faoliyati, ruhiy barqarorlik, kelajakka ishonch va shaxsiy hayot mazmuni o‘zgaradi. Onkologik kasallikni boshdan kechirayotgan inson ko‘pincha og‘riq, davolanishning og‘ir kechishi, tashqi ko‘rinishdagi o‘zgarishlar, moliyaviy qiyinchiliklar, o‘lim qo‘rquvi va yaqinlariga ortiqcha yuk bo‘lib qolish hissi bilan to‘qnashadi. Bunday holatlar bemorning hayot sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hayot sifati tushunchasi faqat bemorning jismoniy ahvoli bilan cheklanmaydi. U insonning ruhiy holati, emotsional barqarorligi, ijtimoiy munosabatlari, o‘zini foydali his qilishi, mustaqillik darajasi va kelajakka munosabatini ham o‘z ichiga oladi. Onkologik bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda psixologik reabilitatsiya muhim o‘rin tutadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti saraton bilan bog‘liq yordam sifatli, xavfsiz va samarali bo‘lishi zarurligini ta’kidlaydi; zamonaviy yondashuvlarda reabilitatsiya davolashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralmoqda.

Psixologik reabilitatsiya onkologik bemorning kasallikka munosabatini sog‘lomlashtirish, ruhiy zo‘riqishni kamaytirish, ijobiy moslashuv strategiyalarini shakllantirish, davolanish jarayonida faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks yordam tizimidir. Milliy saraton instituti ma’lumotlariga ko‘ra, psixososial yordam onkologik bemorlarda hayot sifatini yaxshilashi mumkin, biroq u mustaqil ravishda yashab qolish muddatini oshiradi, deb qat’iy xulosa qilish uchun dalillar yetarli emas. Bu fikr psixologik reabilitatsiyaning asosiy vazifasi bemorning ruhiy farovonligini, moslashuvchanligini va davolanishga bo‘lgan ichki tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat ekanini ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi

Onkologik bemorlar bilan ishlashda psixologik omillarni e’tibordan chetda qoldirish davolanish samaradorligiga, bemorning ijtimoiy faolligiga va hayotga munosabatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Saraton tashxisini eshitgan bemorda dastlab inkor qilish, qo‘rquv, kuchli xavotir, tushkunlik, jahldorlik yoki umidsizlik holatlari kuzatiladi. Ayrim bemorlar kasallikni qabul qilishda qiynaladi, davolanishdan voz kechishga moyil bo‘ladi yoki o‘zini jamiyatdan ajratib qo‘yadi. Bu esa bemorning nafaqat ruhiy holatini, balki tibbiy tavsiyalarga rioya qilish darajasini ham susaytiradi.

Saraton bilan yashayotgan bemorlarning bir qismida uzoq davom etuvchi xavotir, depressiv kechinmalar va psixososial muammolar saqlanib qolishi mumkin. Milliy saraton instituti ma’lumotida saratonni boshdan kechirganlarning taxminan chorak qismida xavotir, depressiya va boshqa psixososial qiyinchiliklar davom etishi qayd etilgan. Bu ko‘rsatkich onkologik yordam tizimida psixologik reabilitatsiyani doimiy va tizimli tashkil etish zarurligini tasdiqlaydi.

Psixologik reabilitatsiyaning dolzarbligi shundaki, u bemorni kasallik bilan yolg‘iz qoldirmaydi. Bemor o‘z kechinmalarini tushunish, ularni ifodalash, qo‘rquvlarini boshqarish, davolanish bosqichlariga ongli moslashish va yaqinlari bilan sog‘lom muloqot o‘rnatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Amerika saraton jamiyati psixososial qo‘llab-quvvatlash, terapiya va maslahatlar bemor hamda parvarishlovchilarga saraton bilan bog‘liq emotsional, ruhiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishini qayd etadi.

Asosiy qism

Onkologik bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda psixologik reabilitatsiya bir nechta asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Birinchi yo‘nalish — bemorning emotsional holatini barqarorlashtirishdir. Tashxis qo‘yilgan dastlabki davrda bemor kuchli ruhiy zarba oladi. Bu holatda psixologning vazifasi bemorga kasallikni inkor etmasdan, uni real qabul qilishga yordam berish, qo‘rquv va xavotirni kamaytirish, davolanishga nisbatan ishonchni shakllantirishdan iborat. Bunda individual suhbat, psixologik maslahat, emotsional ventilyatsiya, ya’ni bemorning ichki kechinmalarini erkin bayon qilishiga sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi yo‘nalish — stress va xavotirni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Onkologik bemorlarda tashxis, tekshiruv natijalari, kimyoterapiya, jarrohlik amaliyoti yoki nur bilan davolash jarayonlari kuchli stress manbai bo‘lishi mumkin. Psixologik reabilitatsiyada nafas mashqlari, relaksatsiya, diqqatni boshqarish, ijobiy tasavvur hosil qilish, o‘zini tinchlantirish usullari qo‘llanadi. Bu usullar bemorda ichki nazorat hissini kuchaytiradi. Bemor o‘z holatiga butunlay ojiz emasligini, ayrim psixologik jarayonlarni boshqarishi mumkinligini anglaydi.

Uchinchi yo‘nalish — kognitiv-xulqiy yondashuv asosida salbiy fikrlarni qayta ishlashdir. Onkologik bemorlarda “men endi tuzalmayman”, “oilamga yuk bo‘lib qoldim”, “hayotim tugadi”, “davolanishdan foyda yo‘q” kabi fikrlar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday fikrlar bemorning ruhiy tushkunligini kuchaytiradi va davolanishga bo‘lgan motivatsiyasini pasaytiradi. Kognitiv-xulqiy yondashuv bemorga bu fikrlarni aniqlash, ularning asoslangan yoki asossiz tomonlarini tahlil qilish, o‘rniga realistik va qo‘llab-quvvatlovchi fikrlarni shakllantirishga yordam beradi. Amerika saraton jamiyati kognitiv-xulqiy terapiya saraton bilan yashayotgan insonlarda ruhiy salomatlik va hayot sifatini yaxshilashga yordam berishi mumkinligini qayd etgan.

To‘rtinchi yo‘nalish — oilaviy psixologik yordamdir. Onkologik kasallik faqat bemorning o‘ziga emas, balki uning oilasiga ham kuchli ta’sir qiladi. Yaqinlar ko‘pincha qanday yordam berishni bilmaydi, ortiqcha achinish yoki haddan tashqari nazorat orqali bemorda noqulaylik tug‘dirishi mumkin. Ba’zan esa bemorning o‘zi yaqinlari bilan gaplashishdan qochadi, o‘z his-tuyg‘ularini yashiradi. Oilaviy psixologik maslahat bemor va oila a’zolari o‘rtasida sog‘lom muloqotni shakllantiradi. Bunda yaqinlarga bemorni tinglash, uning mustaqilligini hurmat qilish, qo‘llab-quvvatlovchi munosabat bildirish va ruhiy bosimni kuchaytirmaslik o‘rgatiladi.

Beshinchi yo‘nalish — guruhiy psixologik reabilitatsiyadir. Onkologik bemorlar uchun tashkil etilgan guruhiy uchrashuvlar ularga o‘ziga o‘xshash holatdagi insonlar bilan muloqot qilish imkonini beradi. Bemor boshqa insonlarning tajribasini eshitib, o‘zini yolg‘iz his qilmaydi. Guruhiy muhitda umid, ruhiy yaqinlik, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va ijobiy namuna shakllanadi.

Bunday mashg‘ulotlar bemorning ijtimoiy chekinishini kamaytiradi, o‘z holatini ochiq muhokama qilishga yordam beradi va ruhiy bardoshlilikni kuchaytiradi.

Oltinchi yo‘nalish — bemorning hayot mazmunini tiklashdir. Onkologik kasallik insonning kelajak haqidagi tasavvurlarini o‘zgartiradi. Ayrim bemorlar o‘z hayotini faqat kasallik bilan bog‘lab qo‘yadi. Psixologik reabilitatsiya bemorga hayotda hali ham maqsad, mehr, munosabat, ijod, e’tiqod, oila, kasbiy yoki shaxsiy ahamiyatga ega jihatlar borligini anglashga yordam beradi. Bemor kichik maqsadlar qo‘yish, kundalik faoliyatga qaytish, o‘z imkoniyatlari doirasida faol bo‘lish orqali hayot sifatini yaxshilaydi.

Psixologik reabilitatsiyaning samaradorligi bir nechta ko‘rsatkichlarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, bemorda xavotir va tushkunlik darajasi kamayadi. Ikkinchidan, davolanishga nisbatan ijobiy munosabat kuchayadi. Uchinchidan, bemorning oila a’zolari va tibbiyot xodimlari bilan muloqoti yaxshilanadi. To‘rtinchidan, bemorda o‘zini boshqarish, sabr, chidamlilik va umid hissi mustahkamlanadi. Beshinchidan, bemor kasallikni hayotining yagona mazmuni sifatida emas, balki yengib o‘tilishi lozim bo‘lgan murakkab bosqich sifatida qabul qila boshlaydi.

Psixologik reabilitatsiyada tibbiyot xodimlari va psixologlar hamkorligi alohida ahamiyatga ega. Onkolog shifokor bemorning jismoniy holatini nazorat qilsa, psixolog uning ruhiy moslashuvini ta’minlaydi. Hamshira, ijtimoiy xodim, psixolog, reabilitolog va oila a’zolari birgalikda ishlaganda bemorning umumiy hayot sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. ESMO klinik tavsiyalarida ham surunkali saraton parvarishida bemor va parvarishlovchilar bilan muloqot, qo‘llab-quvvatlash hamda tibbiy jamoaning mas’uliyati muhimligi ko‘rsatilgan.

Shuningdek, psixologik reabilitatsiya faqat kasallikning oxirgi bosqichlarida emas, balki tashxis qo‘yilgan ilk kundan boshlanishi lozim. Erta boshlangan psixologik yordam bemorning kasallikka moslashuvini yengillashtiradi. Davolanish jarayonida esa psixologik qo‘llab-quvvatlash bemorning ruhiy bardoshliligini saqlaydi. Davolanishdan keyingi davrda reabilitatsiya bemorning ijtimoiy hayotga qaytishi, ish faoliyatini tiklashi, o‘ziga ishonchini mustahkamlashi va qaytalanish qo‘rquvini kamaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Refleksiv kundalik, o‘zini o‘zi baholash va akmeogramma metodlari pedagoglarning o‘z faoliyatiga ongli munosabatini kuchaytirdi. Pedagog o‘zining kuchli va zaif jihatlarini aniq anglaganida, kasbiy rivojlanish maqsadlarini real imkoniyatlar asosida belgilay oladi. Refleksivlikning rivojlanishi kasbiy tajribani oddiy takrorlashdan voz kechib, uni tahlil qilish va takomillashtirishga yordam beradi.

G‘oyalar laboratoriyasi va ijodiy loyihalar pedagoglarning kreativ faolligini rivojlantirdi. Bunday mashg‘ulotlarda tayyor metodlarni takrorlash emas, balki yangi g‘oyalarni yaratish, ularni asoslash va amaliyotga moslashtirish talab qilindi. Natijada pedagoglarda yangilikka ochiqlik, kasbiy tashabbuskorlik va metodik ijodkorlik kuchaydi.

Akmeologik texnologiyalarning muhim xususiyati pedagogni kasbiy rivojlanishning faol subyekti sifatida shakllantirishidir. Pedagogga tayyor rivojlanish yo‘li taqdim etilmaydi, aksincha, u o‘zining individual kasbiy yo‘nalishini mustaqil belgilaydi, natijalarni monitoring qiladi va zarur o‘zgartirishlarni amalga oshiradi. Shu sababli akmeologik metodlar qisqa muddatli bilim berish bilan cheklanmay, uzluksiz kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi.

Xulosa. Pedagoglarning kasbiy intellektual salohiyati ularning kasbiy bilimlari, pedagogik tafakkuri, refleksiv qobiliyati, kreativligi, qaror qabul qilish ko‘nikmasi va o‘zini o‘zi rivojlantirish motivatsiyasini birlashtiruvchi integrativ xususiyat hisoblanadi. Mazkur salohiyatning rivojlanganligi pedagogga ta’lim jarayonidagi murakkab vaziyatlarni samarali hal qilish, o‘quvchilarning ehtiyojlariga mos pedagogik strategiyalarni tanlash va innovatsion faoliyat olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari akmeologik treninglar, akmeogramma, refleksiv kundalik, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish, portfolio, g‘oyalar laboratoriyasi va individual rivojlanish xaritasidan kompleks foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida barcha o‘rganilgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli ijobiy o‘zgarishlar aniqlanib, umumiy natijalarning statistik ishonchliligi tasdiqlandi ($t=-5,14$; $p\leq0,001$).

Akmeologik texnologiyalar pedagogning faqat mavjud kasbiy bilimlarini boyitib qolmay, uning o‘z faoliyatini tahlil qilish, yangi imkoniyatlarni aniqlash va kasbiy rivojlanishni mustaqil boshqarish qobiliyatini ham shakllantiradi. Shu bois mazkur texnologiyalarni pedagoglarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlariga tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tavsiyalar

1. Pedagoglarning malakasini oshirish dasturlariga akmeologik diagnostika, refleksiv trening va kasbiy vaziyatlarni modellashtirish mashg‘ulotlarini kiritish lozim.

2. Har bir pedagog uchun individual kasbiy rivojlanish xaritasi va akmeogramma ishlab chiqish tavsiya etiladi.

3. Pedagogik jamoalarda kasbiy tajribalarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni muhokama qilish va yangi metodik g‘oyalarni ishlab chiqishga qaratilgan «Akmeologik mahorat laboratoriyalari»ni tashkil etish maqsadga muvofiq.

4. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishini baholashda faqat attestatsiya natijalariga emas, balki refleksivlik, kreativlik, kasbiy tafakkur va o‘zini o‘zi rivojlantirish faolligiga ham e’tibor qaratish zarur.

5. Pedagoglarga elektron va an’anaviy kasbiy portfolio yuritish, unda metodik ishlanmalar, innovatsion tajribalar, erishilgan natijalar va istiqboldagi maqsadlarni muntazam aks ettirib borish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ананьев Б.Г. Человек как предмет познания. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 288 с.

2. Деркач А.А., Зазыкин В.Г. Акмеология: учебное пособие. – Санкт-Петербург: Питер, 2003. – 256 с.

3. Кузьмина Н.В. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. – Москва: Высшая школа, 1990. – 119 с.
4. Маркова А.К. Психология профессионализма. – Москва: Знание, 1996. – 308 с.
5. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития. – Москва: Академия, 2006. – 240 с.
6. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: Фан, 2006. – 261 б.
7. Ғозиев Э.Ғ. Педагогик психология асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000. – 184 б.
8. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. – Тошкент: Фан, 2004. – 128 б.

Sunnatova Xurshida Zafar qizi
"Psixologik rivojlanish akademiyasi" mas'uliyati cheklangan jamiyati ijtimoiy psixologi
https://orcid.org/0009-0007-7970-2644

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINING RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. O‘zini o‘zi boshqarish bolaning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi, emotsional holatini tartibga solishi, diqqatini maqsadga yo‘naltirishi, qoidalarni anglab ularga rioya qilishi hamda yuzaga keladigan vaziyatlarga mos ravishda xulq-atvorini boshqara olishini ifodalovchi muhim psixologik qobiliyat sifatida qaraladi. Tadqiqotda bolaning individual-psixologik xususiyatlari, temperament, emotsional barqarorlik, diqqatni boshqarish, nutqiy rivojlanish, motivatsiya, oilaviy munosabatlar va maktabgacha ta’lim muhitining o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, o‘yin, kattalar bilan konstruktiv muloqot, tengdoshlar bilan hamkorlik va maqsadli pedagogik faoliyat bolaning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish tajribasini boyituvchi muhim vositalar sifatida tahlil qilinadi. Mazkur jarayonni erta yoshdan qo‘llab-quvvatlash bolaning keyingi ta’lim faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va emotsional farovonligi uchun muhim psixologik zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: maktabgacha yosh, o‘zini o‘zi boshqarish, psixologik omillar, emotsional boshqaruv, diqqat, temperament, motivatsiya, nutqiy rivojlanish, ijro funksiyalari, ijtimoiylashuv.

Аннотация. В тезисе рассматриваются психологические факторы, влияющие на формирование навыков саморегуляции у детей дошкольного возраста. Саморегуляция рассматривается как важная психологическая способность ребёнка, проявляющаяся в контроле собственного поведения, регулировании эмоциональных состояний, направленном управлении вниманием, соблюдении правил и выборе адекватных способов поведения в различных ситуациях. Анализируются индивидуально-психологические особенности ребёнка, темперамент, эмоциональная устойчивость, произвольное внимание, речевое развитие, мотивация, характер семейных отношений и особенности дошкольной образовательной среды. Особое внимание уделяется значению игровой деятельности, конструктивного взаимодействия со взрослыми, сотрудничества со сверстниками и целенаправленного педагогического воздействия в развитии способности ребёнка управлять собственными действиями. Обосновывается положение о том, что своевременная психологическая и педагогическая поддержка саморегуляции в дошкольном возрасте создаёт важную основу для дальнейшего обучения, социальной адаптации и эмоционального благополучия ребёнка.

Ключевые слова: дошкольный возраст, саморегуляция, психологические факторы, эмоциональная регуляция, внимание, темперамент, мотивация, речевое развитие, исполнительные функции, социализация.

Abstract. This thesis examines the psychological factors influencing the development of self-regulation skills in preschool children. Self-regulation is considered an important psychological capacity that enables children to control their behavior, regulate emotional states, direct attention toward a goal, follow rules, and adjust their behavior according to different situations. The study focuses on individual psychological characteristics, temperament, emotional stability, attentional control, language development, motivation, family relationships, and the preschool educational environment as significant factors in the development of self-regulation. Particular attention is given to play activities, constructive interaction with adults, cooperation with peers, and purposeful pedagogical support as important conditions for developing children's ability to manage their own behavior. The thesis emphasizes that timely psychological and educational support for self-regulation during the preschool period can provide an important foundation for subsequent learning, social adaptation, and emotional well-being.

Keywords: preschool age, self-regulation, psychological factors, emotional regulation, attention, temperament, motivation, language development, executive functions, socialization.

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi, psixik jarayonlarining takomillashuvi va ijtimoiy muhitga moslashish ko‘nikmalarining rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Aynan ushbu davrda bola o‘z xatti-harakatlarini asta-sekin nazorat qilish, kattalar tomonidan belgilangan qoidalarga amal qilish, o‘z istaklarini vaziyat talablariga muvofiqlashtirish va yuzaga keladigan hissiy holatlarni boshqarish tajribasini egallay boshlaydi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishi keyingi ta’lim faoliyati va ijtimoiy munosabatlarning psixologik poydevorini tashkil etuvchi muhim jarayonlardan biridir.

O‘zini o‘zi boshqarish bolaning faqatgina o‘z xatti-harakatlarini cheklashi yoki taqiqlangan harakatlardan tiyilishi bilan belgilanmaydi. Ushbu ko‘nikma bolaning maqsadni anglay olishi, diqqatini kerakli faoliyatga yo‘naltirishi, topshiriqni bajarish jarayonida o‘z harakatlarini nazorat qilishi, emotsional reaksiyalarini tartibga solishi va vaziyatga mos qaror qabul qila olishi kabi bir qator psixologik jarayonlarning uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadi. Maktabgacha yoshda bu qobiliyatlar hali to‘liq barqarorlashmagan bo‘lsa-da, o‘yin, muloqot, ta’limiy mashg‘ulotlar va kundalik faoliyat orqali ularning dastlabki shakllari faol rivojlanadi.

Bolada o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishi ko‘plab ichki va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Individual-psixologik xususiyatlar, temperament, emotsional barqarorlik, diqqatning rivojlanganlik darajasi, nutqiy imkoniyatlar va motivatsion ehtiyojlar ushbu jarayonning ichki asoslarini tashkil etsa, oila muhiti, ota-onaning tarbiyaviy uslubi, kattalar bilan munosabat, tengdoshlar bilan muloqot va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi psixologik muhit tashqi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur omillarning uyg‘unligi yoki nomuvofiqligi bolaning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin faoliyati o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini shakllantirishning tabiiy vositalaridan biri hisoblanadi. Rolli va qoidali o‘yinlar jarayonida bola o‘z xohishlarini vaqtincha cheklash, navbat kutish, belgilangan qoidalarga rioya qilish, sheriklarining harakatlarini hisobga olish va umumiy maqsadga muvofiq faoliyat yuritishni o‘rganadi. Shu tariqa tashqi talablar asta-sekin bolaning ichki nazorat mexanizmlariga aylana boshlaydi. Kattalar bilan mazmunli muloqot esa ushbu jarayonni nutqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlab, bolaning o‘z harakatlarini izohlashi, rejalashtirishi va baholashiga imkon yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning emotsional rivojlanishi ham o‘zini o‘zi boshqarish bilan uzviy bog‘liqdir. Bola xafa bo‘lish, jahllanish, qo‘rqish yoki kuchli hayajonlanish kabi hissiy holatlarni boshdan kechirganida ularni mustaqil ravishda boshqarish har doim ham oson kechmaydi. Bunday vaziyatlarda kattalarning hissiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashi, bolaning kechinmalarini tushunishi va ularga mos munosabat bildirishi emotsional o‘zini o‘zi

boshqarishning shakllanishiga yordam beradi. Aksincha, doimiy keskin tanbeh, bolaning hissiyotlarini inkor etish yoki uning yosh imkoniyatlariga mos kelmaydigan talablarning ortiqcha qo‘yilishi o‘zini boshqarish jarayonini murakkablashtirishi mumkin.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolaning faqat bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmasdan, uning mustaqilligi, irodaviy sifatlari, emotsional barqarorligi, muloqot madaniyati va xulq-atvorini boshqarish qobiliyatini shakllantirishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki maktab ta’limiga kirib kelayotgan bola o‘quv topshiriqlarini tinglash, ko‘rsatmalarni tushunish, faoliyatni rejalashtirish, navbat kutish, muvaffaqiyatsizlikka munosabat bildirish va o‘z xatti-harakatlarini mavjud vaziyatga moslashtirish kabi qobiliyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Shu ma’noda, maktabgacha davrda o‘zini o‘zi boshqarishning shakllanganlik darajasi bolaning keyingi ta’lim jarayoniga moslashish imkoniyatlarini belgilovchi muhim psixologik omillardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Mazkur omillarni chuqur o‘rganish orqali bolalarning yosh va individual xususiyatlariga mos psixologik-pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish, tarbiyachilar va ota-onalarning bolani qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini kengaytirish hamda o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan samarali mashg‘ulotlarni tashkil etish mumkin.

Mazkur tezisning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarni aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Bunda bolaning individual xususiyatlari, emotsional holati, diqqat va nutqiy rivojlanishi, motivatsiyasi hamda oila va maktabgacha ta’lim muhitining ta’siri asosiy tahlil yo‘nalishlari sifatida belgilanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish masalasi rivojlanish psixologiyasining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Mazkur tushuncha bolaning o‘z xatti-harakatlarini vaziyat talablariga muvofiqlashtirishi, impulslarini nazorat qilishi, diqqatini maqsadga yo‘naltirishi va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan emotsional holatlarni tartibga solishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy adabiyotlarda o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishi tug‘ma va o‘zgarmas xususiyat emas, balki bolaning biologik yetilishi, faoliyati, ijtimoiy tajribasi va kattalar bilan o‘zaro munosabati jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadigan qobiliyat sifatida talqin qilinadi.

O‘zini o‘zi boshqarishning psixologik asoslarini tushuntirishda uning tarkibiy qismlariga alohida e’tibor beriladi. Ushbu qobiliyatning kognitiv tomoni diqqatni boshqarish, ishchi xotiradan foydalanish, ko‘rsatmalarni eslab qolish va vazifaga muvofiq harakat qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, emotsional tomoni hissiy qo‘zg‘alishni nazorat qilish, frustratsiyaga bardosh berish va hissiyotlarni vaziyatga mos tarzda ifodalash orqali namoyon bo‘ladi. Xulq-atvor komponenti esa impulsiv reaksiyalarni cheklash, qoidalarga amal qilish va maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatlar ketma-ketligini saqlashni o‘z ichiga oladi. Shu jihatdan o‘zini o‘zi boshqarish birgina psixologik sifat emas, balki bir nechta funksional jarayonlarning o‘zaro muvofiqlashuvi sifatida qaralishi mumkin.

Mazkur jarayonni izohlashda ijro funksiyalari bilan bog‘liq qarashlar muhim o‘rin egallaydi. Ijro funksiyalari bolaning diqqatini bir faoliyatdan boshqasiga mos ravishda yo‘naltirishi, keraksiz reaksiyalarni to‘xtatishi, ma’lumotni qisqa muddat davomida saqlashi va undan vazifani bajarish jarayonida foydalanishi bilan bog‘liq. Maktabgacha yosh davrida ushbu funksiyalar jadal rivojlanishi sababli bola asta-sekin tashqi nazoratga bo‘lgan ehtiyojdan ichki nazoratga o‘tib boradi. Dastlab bolaning xatti-harakati asosan kattalarning ko‘rsatmalari va eslatmalari orqali tartibga solinsa, rivojlanish davomida u o‘z faoliyatini mustaqil ravishda rejalashtirish va nazorat qilish imkoniyatlarini egallay boshlaydi.

Adabiyotlarda diqqatni boshqarish o‘zini o‘zi boshqarishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Maktabgacha yoshdagi bola uchun tashqi stimullar juda kuchli ta’sirga ega bo‘lishi mumkinligi sababli uning diqqatini maqsadli faoliyatda uzoqroq ushlab turish doim ham

oson kechmaydi. Bola qiziq bo‘lmagan yoki murakkab topshiriqni bajarishda boshqa faoliyatga chalg‘ishi, vazifani tugatmasdan tashlab qo‘yishi yoki kattalarning qo‘shimcha ko‘rsatmasiga ehtiyoj sezishi mumkin. Shu sababli diqqatning barqarorligi va uni ixtiyoriy boshqarish imkoniyatlarining rivojlanishi o‘zini o‘zi boshqarishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zini o‘zi boshqarishning shakllanishida emotsional rivojlanishning o‘rni ham alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha yoshdagi bola o‘z hissiyotlarini anglash va boshqarishning dastlabki usullarini egallayotgan bo‘ladi. Quvonch, xafa bo‘lish, qo‘rquv, norozilik yoki jahldorlik kabi holatlar bolaning xulq-atvorida bevosita aks etishi mumkin. Bola asta-sekin o‘z kechinmalarini nomlash, ularning sabablarini tushunish va hissiy reaksiyasini vaziyatga moslashtirishni o‘rganadi. Demak, emotsional savodxonlikning shakllanishi o‘zini o‘zi boshqarishning ichki psixologik asoslarini mustahkamlovchi omillardan biridir.

Ilmiy qarashlarda bolaning temperament xususiyatlari ham o‘zini o‘zi boshqarish imkoniyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Faollik darajasi yuqori, tez qo‘zg‘aluvchan yoki yangi vaziyatlarga keskin reaksiya bildiruvchi bolalar o‘z impulslarini nazorat qilishda ko‘proq yordamga ehtiyoj sezishlari mumkin. Biroq temperamentning muayyan turi o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanish darajasini oldindan qat’iy belgilab bermaydi. Aksincha, bolaning individual xususiyatlariga mos tarbiyaviy yondashuv, muntazam mashq va ijobiy ijtimoiy tajriba uning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish imkoniyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Oila muhiti o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi muhim ijtimoiy-psixologik omil hisoblanadi. Ota-onaning bolaga nisbatan izchil talablar qo‘yishi, qoidalarni tushunarli shaklda belgilashi va bolaning yosh imkoniyatlarini hisobga olishi ichki nazoratning rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, kattalarning bolaning hissiy holatiga munosabati muhimdir. Bola o‘z kechinmalarini ifodalaganida uni tinglash, hissiyotini inkor qilmaslik va vaziyatni tinch yo‘l bilan hal qilishga yo‘naltirish orqali kattalar bolaga o‘z emotsiyalarini boshqarishning amaliy modelini taqdim etadi. Aksincha, haddan tashqari qattiqqo‘llik yoki izchil bo‘lmagan talablar bolaning xulq-atvorini mustaqil tartibga solishini qiyinlashtirishi mumkin.

Maktabgacha ta’lim muhiti ham o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Guruhdagi tartib-qoidalar, kun tartibi, jamoaviy faoliyat va tarbiyachi bilan o‘zaro munosabat bolaga o‘z xatti-harakatlarini umumiy talablar asosida boshqarish imkonini beradi. Bola guruh sharoitida navbat kutish, boshqa bolalarning fikrini hisobga olish, topshiriqni belgilangan tartibda bajarish va faoliyatni yakunlash kabi tajribalarni egallaydi. Natijada individual xulq-atvor asta-sekin ijtimoiy me’yorlar bilan muvofiqlashib boradi.

O‘yin faoliyati o‘zini o‘zi boshqarishning tabiiy rivojlanish vositasi sifatida ko‘plab psixologik yondashuvlarda alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, qoidali va rolli o‘yinlarda bola o‘zining bevosita istaklarini vaziyat talablariga bo‘ysundirishga majbur bo‘ladi. Masalan, muayyan rolni bajarayotgan bola o‘yin qoidalarini buzmasligi, sherigining navbatini kutishi va umumiy syujetni saqlab qolishi kerak. Bunday faoliyat jarayonida tashqi qoida bolaning ichki xulq-atvor mezoniga aylana boshlaydi. Shu sababli o‘yin nafaqat hordiq chiqarish shakli, balki irodaviy va o‘zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantiruvchi psixologik makon sifatida ham ahamiyatlidir.

Nutqiy rivojlanish ham o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlari bilan uzviy bog‘liqdir. Bola o‘z harakatlarini so‘z orqali rejalashtira boshlagan sari faoliyat ustidan ichki nazorat kuchayadi. Dastlab kattalar bolaning harakatlarini og‘zaki ko‘rsatmalar orqali boshqaradi. Keyinchalik bola ushbu ko‘rsatmalarni ichkilashtirib, o‘ziga o‘zi topshiriq berish, harakatlar ketma-ketligini belgilash va xatolarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shunday qilib, nutq bolaning tashqi nazoratdan ichki o‘zini boshqarishga o‘tishida vositachi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Motivatsiya ham bolaning o‘zini o‘zi boshqarish faoliyatini belgilovchi omillardan biridir. Bola uchun mazmunli va qiziqarli bo‘lgan faoliyatda u qiyinchiliklarni yengishga, topshiriqni oxirigacha bajarishga va o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishga ko‘proq tayyor bo‘ladi. Faqat tashqi mukofotga asoslangan faoliyatda esa nazorat mexanizmlari vaziyatga bog‘liq bo‘lib qolishi

mumkin. Shu sababli maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning ichki qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, faoliyatning ma’nosini tushuntirish va muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini yaratish o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishi uchun muhim shartlardan biri hisoblanadi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar ham mazkur ko‘nikmalarning rivojlanishiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. Jamoaviy o‘yin va hamkorlikdagi topshiriqlar davomida bola o‘z xohishlarini boshqa bolalarning ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirishni o‘rganadi. Kelishmovchilik yuzaga kelganda o‘z hissiyotini nazorat qilish, boshqa bolaning pozitsiyasini tushunish va maqbul yechim izlash zarurati paydo bo‘ladi. Shu tariqa ijtimoiy tajriba bolaning nafaqat kommunikativ, balki emotsional va xulq-atvoriy o‘zini boshqarish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishini faqat bolaning individual xususiyatlari bilan tushuntirish yetarli emasligi ko‘rinadi. Ushbu jarayon individual imkoniyatlar, kognitiv rivojlanish, emotsional yetuklik, nutqiy vositalar, motivatsiya, oila muhiti, tengdoshlar bilan munosabat va maktabgacha ta’lim sharoitlarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Demak, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlar ham kompleks xarakterga ega bo‘lishi lozim.

Shu asosda maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishini o‘rganishda uchta asosiy yo‘nalishni ajratish mumkin: birinchisi — bolaning ichki psixologik resurslari, ya’ni diqqat, temperament, emotsional boshqaruv, nutq va motivatsiya; ikkinchisi — bola faoliyatining mazmuni, xususan, o‘yin va ta’limiy faoliyat; uchinchisi — bolaning ijtimoiy muhiti, ya’ni oila, tarbiyachi va tengdoshlar bilan munosabatlaridir. Ushbu omillarning uyg‘unligi bolaning tashqi talablarni asta-sekin ichki nazorat mexanizmlariga aylantirishiga va mustaqil xulq-atvorni shakllantirishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi bolaning keyingi ta’limiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim psixologik asoslardan biri hisoblanadi. Mazkur ko‘nikma bolaning o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilishi bilangina cheklanmay, uning diqqatini boshqarishi, hissiy holatini tartibga solishi, belgilangan qoidalarga rioya qilishi, faoliyat maqsadini anglab yetishi va yuzaga keladigan qiyinchiliklarga mos ravishda munosabat bildirishini ham qamrab oladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha yosh davrida o‘zini o‘zi boshqarishning shakllanishi bir nechta psixologik omillarning o‘zaro ta’siri asosida kechadi. Jumladan, bolaning individual-psixologik xususiyatlari, temperament tipi, diqqatning barqarorligi, emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyati, nutqiy rivojlanish darajasi hamda motivatsion ehtiyojlari ushbu jarayonning ichki asoslarini tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur imkoniyatlarning namoyon bo‘lishi va rivojlanish darajasi bolaning ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liqdir.

Oila muhitining barqarorligi, ota-onalar tomonidan qo‘yiladigan talablarning izchilligi va bolaning hissiy ehtiyojlariga e’tibor berilishi o‘zini o‘zi boshqarishning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Bola kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish, ular bilan muloqot qilish va kundalik vaziyatlarda turli qoidalarni bajarish orqali o‘z xulqini tartibga solishning amaliy usullarini egallaydi. Shu sababli oiladagi tarbiyaviy munosabatlarni bolaning mustaqilligi va yoshiga mos mas’uliyatini qo‘llab-quvvatlovchi tarzda tashkil etish muhimdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi psixologik muhit ham bolaning o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyatlarini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachining bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olishi, aniq va tushunarli talablar qo‘yishi, mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatini berishi hamda ijobiy xatti-harakatlarni qo‘llab-quvvatlashi ichki nazorat mexanizmlarining rivojlanishiga yordam beradi. Ayniqsa, kundalik tartib, guruh qoidalari va jamoaviy faoliyat bolaning o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy talablar bilan muvofiqlashtirish tajribasini kengaytiradi.

O‘yin faoliyati esa maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarishni rivojlantirishning eng tabiiy vositalaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Qoidali, rolli va hamkorlikka asoslangan o‘yinlar davomida bola o‘z istaklarini cheklash, navbat kutish, vazifani

oxiriga yetkazish, sheriklarining harakatlarini hisobga olish va o‘z roliga muvofiq harakat qilishni o‘rganadi. Bunday tajribalar tashqi qoidalarning asta-sekin bolaning ichki xulq-atvor mezonlariga aylanishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, o‘zini o‘zi boshqarishning rivojlanishida bolaning emotsional tajribalarini to‘g‘ri yo‘naltirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bola o‘z hissiyotlarini tanib, ularni so‘z bilan ifodalash va vaziyatga mos javob qaytarishni o‘rgangan sari impulsiv xatti-harakatlarning kamayishi hamda ijtimoiy jihatdan maqbul xulq shakllarining kuchayishi uchun imkoniyat paydo bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, bolaga “o‘zini tutish”ni talab qilishdan ko‘ra, uning hissiy holatini tushunishga va boshqarishga yordam beruvchi psixologik yondashuv samaraliroq hisoblanadi.

Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarining rivojlanishi individual va ijtimoiy omillarning murakkab tizimi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonni samarali qo‘llab-quvvatlash uchun bolaning diqqat va xotira imkoniyatlarini rivojlantirish, emotsional savodxonligini oshirish, mustaqil faoliyatga undash, qoidali o‘yinlardan foydalanish, ijobiy muloqot muhitini yaratish va oila hamda maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bunday kompleks yondashuv bolaning nafaqat bugungi xulq-atvorini tartibga solishga, balki kelgusida mustaqil, mas’uliyatli va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan shaxs sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-595-son. – Toshkent, 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son Qarori. – Toshkent, 2018.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni. – Toshkent, 2023.
4. Muir R.A., Howard S.J., Kervin L. Interventions and Approaches Targeting Early Self-Regulation or Executive Functioning in Preschools: A Systematic Review // Educational Psychology Review. – 2023. – Vol. 35. – Article 27. – DOI: 10.1007/s10648-023-09740-6.
5. Savina E. Self-regulation in Preschool and Early Elementary Classrooms: Why It Is Important and How to Promote It // Early Childhood Education Journal. – 2021. – Vol. 49. – P. 493–501. – DOI: 10.1007/s10643-020-01094-w.
6. Kälina S., Roebers C.M. Self-regulation in Preschool Children: Factor Structure of Different Measures of Effortful Control and Executive Functions // Early Education and Development. – 2021. – Vol. 32. – P. 48–67. – DOI: 10.1080/10409289.2020.1862120.
7. Ackerman D.J., Friedman-Krauss A.H. Preschoolers’ Executive Function: Importance, Contributors, Research Needs and Assessment Options. – Princeton: Educational Testing Service, 2017. – 46 p.
8. Garon N., Bryson S.E., Smith I.M. Executive Function in Preschoolers: A Review Using an Integrative Framework // Psychological Bulletin. – 2008. – Vol. 134, No. 1. – P. 31–60. – DOI: 10.1037/0033-2909.134.1.31.
9. Williford A.P., Vick Whittaker J.E., Vitiello V.E., Downer J.T. Children’s Engagement Within the Preschool Classroom and Their Development of Self-Regulation // Early Education and Development. – 2013. – Vol. 24, No. 2. – P. 162–187.
10. Lonigan C.J., Hand E.D., Spiegel J.A., Morris B.M., Jungersen C.M., Alfonso S.V., Phillips B.M. Does Preschool Children’s Self-Regulation Moderate the Impacts of Instructional Activities? Evidence from a Randomized Intervention Study // Journal of Experimental Child Psychology. – 2022. – Vol. 216. – Article 105321. – DOI: 10.1016/j.jecp.2021.105321.

Jo‘rayev Nurbek Sadullayevich
Qo‘qon davlat universiteti, Psixologiya kafedrasi professori

BO‘LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY REFLEKSIYA SHAKLLANISHIGA KASBIY TAYYORGARLIKNING TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak pedagoglarda kasbiy refleksiyani shakllanishiga kasbiy tayyorgarlikning ta’siri masalalarini nazariy va empirik nuqtai nazardan o‘rganishga bag‘ishlandi. Unda dastlab kasbiy tayyorgarlikning pedagog shaxsida namoyon bo‘lishining psixologik omillariga doir nazariy ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Shuning bilan birga bo‘lajak pedagog shaxsida kasbiy tayyorgarlikning kasbiy refleksiya bilan aloqadorlik jihatlari empirik ma’lumotlar asosida tekshirilgan.

Tayanch so‘zlar: kasbiy refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik shaxs, avtonomiya, axborotga egalik, qaror qabul qilish, rejalashtirish, hissiy munosabat, kasbiy hayotiylik, qadriyatli yo‘nalganlik, bilim, ko‘nikma, malaka.

Аннотация. Статья посвящена изучению вопросов влияния профессиональной подготовки на формирование профессиональной рефлексии у будущих педагогов с теоретической и эмпирической точек зрения. В ней изначально приводятся теоретические сведения о психологических факторах проявления профессиональной подготовки в личности педагога. Вместе с тем, на основе эмпирических данных были исследованы аспекты связи профессиональной подготовки личности будущего педагога с профессиональной рефлексией.

Ключевые слова: профессиональная рефлексия, профессиональная подготовка, педагогическая личность, автономия, владение информацией, принятие решений, планирование, эмоциональное отношение, профессиональная жизнеспособность, ценностная направленность, знания, навыки, квалификация.

Abstract. The article is dedicated to the theoretical and empirical study of the impact of professional training on the formation of professional reflection in future educators. It first provides theoretical information on the psychological factors of the manifestation of professional training in the teacher's personality. At the same time, the aspects of the relationship between professional training and professional reflection in the personality of the future teacher were examined based on empirical data.

Keywords: professional reflection, professional training, pedagogical personality, autonomy, possession of information, decision-making, planning, emotional attitude, professional vitality, value orientation, knowledge, skills, competence.

Ma’lumki, oliy kasbiy ta’lim tizimini modernizatsiyalash talabalarning kasbiy tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlash tajribasini tubdan qayta ko‘rib chiqish, yangi manba va resurslarni bog‘lash, uni amalga oshirishning qulay strategiyasini tanlashni talab etadi. Oliy ta’lim muassasasi talabasi an’anaviy kasbiy tayyorgarligi yo‘nalishlarining o‘zgarishi bitiruvchilar tayyorlash sifatining boshqa darajasini olishga qaratilgan oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayoni mazmunining qadriyat-mazmun asoslarining tubdan o‘zgarishi bilan bog‘liq. Bu bir vaqtning o‘zida va mazmun darajasida (zamonaviy muammolarga mos keladigan innovatsion bilimlardan foydalanish doirasini kengaytirish; shaxsiy va ijtimoiy-kasbiy munosabatlarni boshqarishning qulay usullarini tanlashda xilma-xillik; ijtimoiy-kasbiy tajribani boyitish) va natijada (shaxsiy, umummadaniy, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish va shaxsning kasbiy hamjamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi) amalga oshiriladi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligida ijtimoiy-psixologik yondashuv muhim rol o‘ynaydi (V. G. Bocharova [2], M. A. Galaguzova [3], A. V. Mudrik [4], S. V. Salseva [7] va boshqalarning g‘oyalarini amalga oshirish doirasida ta’limning o‘zi sifatida resurslar jalb etilmoqda). Hayotning turli sohalarida, shuningdek, jamoatchilik amaliyotining boshqa sohalarida talabalarning yangi shakllarda ta’lim olishlari uchun sub’ektiv ravishda keng imkoniyatlar yaratadigan mustaqil

kasbiy faoliyatning usullari, metodlari va yangi modellarini sinab ko‘rish, o‘zlashtirish va ishlab chiqish uchun keng ko‘lamli ijtimoiy makonning mavjudligi ta’lim - kvazi-kasbiy faoliyat - kundalik-ijtimoiy amaliyotni tashkil etishdan iborat [8].

Oliy ta’lim muassasasi talabasi kasbiy tayyorgarligi kontekstida ijtimoiy-psixologik yondashuv talabaning atrof-muhit bilan o‘zaro ta’sirini kengaytirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Bu esa kasbiy o‘zini o‘zi anglash usullarini erkin tanlashni va uning ijtimoiy-madaniy o‘zini o‘zi rivojlantirishini ta’minlaydi.

Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bu g‘oyalar o‘zgaruvchan jamiyatda talabaning kasbiy hayotiyligi to‘g‘risidagi prinsipial jihatdan yangi konsepsiyani o‘zida mujassam etadi (P.I. Babochkin). Yosh avlod o‘zining ijtimoiy-madaniy va kasbiy shakllanishini amalga oshirishi, jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun, avvalo, hayotga layoqatli bo‘lishi kerak. Ijtimoiy jihatdan ta’lim oluvchining hayotiyligi shaxsning tashqi muhit sharoitlarini yengib o‘tishga, uni o‘zgartirish va o‘zini o‘zi shakllantirishga, o‘z qobiliyatlari va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faolligini nazarda tutadi. Kasbiy kontekstda hayotiylik postindustrial jamiyat va innovatsion iqtisodiyotning zamonaviy muammolariga mos keladigan talabaning sifati va yuqori kasbiy tayyorgarligi bilan belgilanadi. Talabaning hayotiy ko‘nikmalari mazmuni raqobatbardosh mutaxassis va jamiyatning faol a’zosi bo‘lish, uning hayotiy mazmuni, dunyoqarashini shakllantirish, kelajakdagi kasbiy faoliyatida o‘z iqtidori va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishdan iborat. Jamiyatda yashovchan o‘quvchining kasbiy va ijtimoiy-madaniy shakllanishi nafaqat uning ideallar, qadriyatlar, madaniyat va boshqalar tashuvchisi sifatida jamiyat qarashlariga muvofiqligini, balki hozirgi zamon talablaridan tashqariga chiqa olish qobiliyatini ham anglatadi [1].

Ijtimoiy-psixologik yondashuv doirasida oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayonida talabaning kasbiy va ijtimoiy-madaniy hayotiyligi konsepsiyasi g‘oyalarini amalga oshirish talabaning prinsipial jihatdan yangi ijtimoiy-kasbiy tajribani, jamiyatning innovatsion yondashuvlarini o‘zlashtirishini; qadriyatli yo‘nalishlarni qayta ko‘rib chiqishni; shaxsning tabiatga, jamiyatga, kasbiy faoliyatga va o‘ziga nisbatan ijobiy konstruktiv munosabatini shakllantirishni; yangi rejimda yoki nostandart ijtimoiy vaziyatlarda hayotiy muvaffaqiyatni bashorat qilish imkonini beruvchi ijtimoiy-kasbiy bilimlarni to‘plashni talab etadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabasi kasbiy tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, ijtimoiy-psixologik yondashuvning asosiy nazariy va metodologik asoslariga to‘xtalib o‘tamiz. Bu ijtimoiy va kasbiy amaliyotning tanlangan sohasida talabaning hayotiyligiga erishish uchun zarur bo‘lgan ta’lim jarayonining yana bir ma’naviy xususiyatini belgilaydi [6].

1. Ijtimoiy-psixologik yondashuvni hisobga olgan holda, bizning fikrimizcha, u talabaning kasbga, jamiyatga kirishini va oliy ta’lim muassasasi ta’lim jarayonining imkoniyatlarini (talabaning o‘zini o‘zi tashkil etish qadriyatlari; birgalikda yashash qadriyatlari, boshqalarning nuqtai nazarini tan olish va tushunish, muloqot, hamkorlik, shaxs va uning huquqlarini hurmat qilish; ijtimoiy va kasbiy o‘zini o‘zianglash va shaxsning erkin o‘zini o‘zirivojlantirish qadriyatlari; o‘quvchi (ijtimoiy ta’sir ob’ektidan o‘zini o‘zitarbiyalash va takomillashtirish sub’ektiga o‘tish doirasida) atrof-muhit, tengdoshlari, kattalar va boshqalar bilan o‘zaro munosabatlarda ijtimoiy-kasbiy tajribaga ega bo‘lishi uchun milliy o‘zini o‘zianglashning madaniy me’yorlari, yo‘nalishlari, g‘oyalari va qadriyatlari.

2. Oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy tayyorgarligi ijtimoiy-psixologik yondashuv mazmun-mohiyati kontekstida shaxs va atrof-muhitning o‘zaro ta’sirini uyg‘unlashtirishni dolzarblashtiradi, uning asosiy yo‘nalishi talabada ijtimoiy-kasbiy muhitni o‘zidan (atrofdagi jamiyatni o‘zgartirish) vektor yo‘nalishida va talabaga (o‘zini o‘zitakomillashtirish) o‘zlashtirish va transformatsiya qilish usullarini shakllantirish; muloqot, xulq-atvor, jamiyatdagi faollik sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy me’yorlar, qoidalar va standartlarga muvofiq talabaning ichki dunyosini faollashtirish; ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy sheriklik, turli organlarning o‘zaro ta’siri va hamkorligi asosi sifatida muloqotni rivojlantirishni rag‘batlantirishdan iborat.

3. Ijtimoiy-psixologik yondashuvdan foydalanish oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy shakllanishini «ehtiyotkorlik bilan» nazorat qiluvchi o‘qituvchining individual faoliyatini

tashkil etishdan iborat. U o‘zini o‘rab turgan olam, makro va mikromuhit (ijtimoiy va kasbiy guruh sifatida) bilan o‘zaro ta’sir chegaralarini kengaytirish uchun jamiyat bilan munosabatini uyg‘unlashtiradi, shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish mexanizmlarini faollashtirishga to‘sqinlik qiluvchi to‘siqlarni, salbiy omillarni bartaraf etadi.

4. Ijtimoiy-psixologik yondashuv, mavjud salohiyati tufayli, bir tomondan, jamiyatning ijtimoiy tartibini, ikkinchi tomondan, shaxsning ehtiyojlarini aks ettiruvchi bir qator muhim funksiyalarni bajaradi (S. V. Salseva). Biz ulardan oliy o‘quv yurti talabasining kasbiy tayyorgarligi kontekstida foydalanishimiz mumkin.

Metodik funksiya talabaning dunyoning umumiy manzarasi, postindustrial jamiyat, madaniyat, kasb haqidagi bilimlarining yaxlit birligini ta’minlaydi; kasbiy faoliyatning qonuniyatlari va qonuniyatlarini bilish; umumilmiy va kasbiy kategoriyalarni bilish; loyihalash - zamonaviy iqtisodiyotning ijtimoiy o‘zgarishlari va muammolari sharoitida kasbiy tayyorgarlikni tashkil etishning kasbiy yo‘naltirilgan mazmuni, usullari va shakllarini loyihalash va qayta qurish; diagnostik - talabalarning ijtimoiy-hayotiy holatini, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini, atrof-muhit sharoitlarini o‘rganish; transformativ - sub’ektiv, kasbiy yo‘naltirilgan pozitsiyani faollashtirish; individuallikni rivojlantirish, munosabatlarni uyg‘unlashtirish, bilim va mehnatga bo‘lgan muhim qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlarni shakllantirish; kasbiy ijodkorlik tajribasini boyitish; texnologik - talabaning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning kasbiy-rivojlantiruvchi mazmuni, vositalari va texnologiyalarini aniqlash; muvofiqlashtiruvchi-boshqaruvchi - yagona kasbiy-ijtimoiy makon yaratish; uning sub’ektlari sa’y-harakatlarini muvofiqlashtirish, talabaning hayotiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik qulayligini ta’minlash; kasbiy o‘zini o‘zibelgilash, o‘zini o‘zianglashning psixologik ta’minoti; tahliliy-refleksiv - oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy tayyorgarligi samaradorligini nazorat qilish, tahlil qilish va baholash [7].

5. Ijtimoiy-psixologik yondashuvni amalga oshirishda oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy tayyorgarligi jamiyatning talaba ongiga ta’sirining butun majmuasi uni faol faoliyatga (iqtisodiy, mehnat, intellektual-kognitiv, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-dam olish, sport-sog‘lomlashtirish va boshqalar) jalb qilish, shuningdek, turli guruhlar, jamoalar, birlashmalarda ko‘p qirrali va keng qamrovli muloqotni rag‘batlantirish bilan birlashtirilganda eng maqbul tarzda amalga oshiriladi. Talabalik davrida aniq hayotiy misollar va shaxsga jamiyatda kasbiy qadriyatlar tizimini tanlash imkoniyatini berish zarur. Bu mustaqil fikrlashni, erkin kasbiy o‘zini o‘zibelgilashni va o‘z harakatlari uchun javobgarlikni rivojlantiradi, ma’lum qadriyatlarni saqlash va hurmat qilishni rag‘batlantiradi, tegishli xulq-atvorni shakllantiradi.

Shaxsning bevosita muhiti, mikromuhiti, kasbiy qadriyatlar yo‘nalishlari tizimi, hayotiy pozitsiyasi bevosita ta’sirida shakllanadi. Bu faollikda, muloqotda, kundalik xulq-atvorda va, nihoyat, o‘quvchining ijtimoiy va kasbiy pozitsiyasida ifodalanadi. Shu bilan birga, shaxsning turli faoliyat va muloqotdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydigan bunday sharoit va vaziyatlarni yaratishning ahamiyati ortib bormoqda [2].

Ma’lumki, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat ularning mutaxassislik doirasida egallagan bilimlari, balki kasbiy faoliyat ko‘nikma va malakalari bilan ham belgilanadi. Ayniqsa, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida o‘zini o‘zianglash tizimi xususiyatlarining rivojlanishi uning qobiliyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarining to‘laqonli namoyon bo‘lishiga yordam beradi. Shu bilan birga, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida refleksiya va kasbiy refleksiyani rivojlantirish uning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorligini ta’minlovchi omil hisoblanadi.

O‘z navbatida, kasbiy tayyorgarlikning bo‘lajak o‘qituvchi shaxsida kasbiy refleksiyani rivojlantirishga ta’sirini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan A.P.Chernyavskayaning «Kasbiy tayyorgarlik» metodikasi va O.V.Kalashnikovaning «O‘qituvchilarda kasbiy refleksivlikning shakllanganlik darajasini aniqlash» metodikasi bo‘lajak o‘qituvchilar guruhi bilan o‘tkazildi va olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi.

1-jadval

Kasbiy refleksiya va kasbiy tayyorgarlik o‘rtasidagi bog‘liqlik

Kasbiy tayyorgarlik turlari	Kasbiy refleksiya	
	1-kurs	3-kurs

Avtonomiya	0,97*	0,14**
Axborotga egalik	0,17**	0,10**
Qaror qabul qilish	0,45	0,08*
Rejalashtirish	0,18**	0,32**
Emosional munosabat	-0,92*	0,08*

1-jadval natijalariga ko‘ra, kasbiy tayyorgarlik va kasbiy refleksiya o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjudligi ma’lum bo‘ldi. Unga ko‘ra, avtonomiya va kasbiy refleksiya 1-kurs ($r=0,97$; $p\leq0,01$) va 3-kurs ($r=0,97$; $p\leq0,01$) talabalarida yuqori darajada ahamiyatli ekanligi ma’lum bo‘ldi. Shu o‘rinda «muxtoriyat» yoki «avtonomiya» atamasi aslida psixologik emas, falsafiy tushunchalarni anglatadi. Avtonomiya deganda «insonning axloqiy sub’ekt sifatida o‘z qonunchiligiga asoslangan holda o‘z taqdirini o‘zi belgilash qobiliyati» tushuniladi. Har qanday shaxs o‘z kasbiy qaroridan (kasbni tanlash yoki o‘zgartirish, o‘qish, ish joyi, mutaxassislik, qayta tayyorlash va h.k.) faqat ushbu qaror tashqaridan qabul qilinmagan, balki o‘ziniki sifatida qabul qilingan taqdirdagina qoniqadi.

Ma’lum bo‘lishicha, kasblar olami haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish 1-kurs ($r=0,17$; $p\leq0,01$) va 3-kurs ($r=0,10$; $p\leq0,01$) talabalarida kasbiy refleksiyada yuqori darajada ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarda kasblar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish ko‘pincha tanlangan mutaxassislik bo‘yicha o‘zini o‘zianglash imkoniyati paydo bo‘lishiga olib keladi. Kasb tanlash uchun inson umuman kasblar olami haqida ko‘p bilimga ega bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 3-kurs talabalarida qaror qabul qilish va kasbiy refleksiya sezilarli bog‘liqlikka ega ekanligi ma’lum bo‘ldi ($r=0,08$; $p\leq0,05$). Shu bilan birga, 1-kurs talabalarida qaror qabul qilish va kasbiy refleksiya sezilarli o‘zaro bog‘liqlikka ega emasligi kuzatiladi. Natijalardan ko‘rinib turibdiki, talabalik davrida kasb tanlashda qaror qabul qilish dastlab noaniq ko‘rinishga ega ekanligi aniqlandi.

Empirik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, rejalashtirish va kasbiy refleksiya 1-kurs ($r=0,08$; $p\leq0,01$) va 3-kurs ($r=0,32$; $p\leq0,01$) talabalarida yuqori ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Ma’lumki, talabalik davrida kasbiy tayyorgarlikni rejalashtirish ta’lim jarayonida kasbiy fanlar doirasida egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zaro uyg‘unlashtirish talab etiladi. Ushbu omil nafaqat tanlashda turli variantlarga bo‘lgan munosabatni, balki rejalashtirishga bo‘lgan munosabatni, ma’lum bir qaror qabul qilish ehtiyojini, qaror qabul qilish va rejalashtirish uchun mas’uliyatni, faollik ko‘rsatishni, murosaga kelishni va boshqalarni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, 1-kurs talabalarida emotsional munosabat va kasbiy refleksiya qarama-qarshi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi ($r=-0,92$; $p\leq0,05$). Shu bilan birga, 3-kurs talabalarida emotsional munosabat va kasbiy refleksiya o‘zaro ahamiyatli bog‘liqlikka ega ekanligi qayd etildi ($r=0,08$; $p\leq0,05$). Albatta, talabaning kasbiy tayyorgarligidagi emotsional munosabat kasbiy refleksiyani shakllantirishda selektiv xarakterga ega ekanligi kuzatildi.

O‘rganilgan nazariy manbalar va tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarni chiqarish maqsadga muvofiq.

- bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy tayyorgarlik va kasbiy refleksiya o‘rtasida o‘zaro ahamiyatli bog‘liqlik mavjud. Unga ko‘ra, kasbiy refleksiyaning rivojlanishi o‘zini o‘zianglash, kasbiy bilim, tasavvur va tushunchalarning rivojlanishi bilan belgilanadi;

- bo‘lajak o‘qituvchilarda avtonomiya, axborotga ega bo‘lish, rejalashtirish, kasbiy tayyorgarlik turlari va kasbiy refleksiya o‘rtasida yuqori darajadagi ahamiyat kuzatiladi. Ayniqsa, kasbiy refleksiyaning namoyon bo‘lishi kasbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlarining aniq rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бабочкин П.И. Становление жизнеспособной молодежи в динамично изменяющемся обществе. – М.: Социум, 2000. – 176 с.

2. Бочарова В.Г. Социальная педагогика: монография. – М.: ВЛАДОС, 2004. – 368 с.

3. Галагузова М.А., Галагузова Ю. Н. Интегративно-дифференцированная профессиональная подготовка специалистов социальной сферы: научно-практический аспект: монография. – М.: Гуманитар. издат. центр ВЛАДОС, 2010. – 224 с.

4. Мудрик А.В. Социализация вчера и сегодня. – М.: Моск. психол.-социал. ин-т, 2006. – 432 с.

5. Пак Л.Г. Субъектно-развивающая социализация студента вуза: теоретико-методологические основания. – М.: Спутник, 2010. – 178 с.

6. Пак Л.Г. Педагогическое обеспечение субъектно-развивающей социализации студента вуза : дис. д-ра пед. наук. – Оренбург, 2011. – 434 с.

Mamayusupov Timur Alisherovich
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Amaliy psixologiya kafedrasi mustail tadqiqotchisi

TALABA-YOSHLARDA PERFEKTSIONISTIK TENDENTSIYALARNING PSIXOLOGIK DETERMINANTI VA OMILLARI

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarda perfektsionizmning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillarni o‘rganadi. Maqolada talabalarning shaxsiy xususiyatlari (o‘ziga yuqori talab qo‘yish, tanqidga sezuvchanlik, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish), kognitiv jarayonlari (mukammallikka intilish, qora va oq fikrlash, haddan tashqari umumlashtirish), hissiy holatlari (xavotirlik, stress, aybdorlik hissi) va ijtimoiy omillar (ota-onalarning talablari, o‘qituvchilarning baholashi, tengdoshlarning ta’siri) tahlil qilinadi. Shuningdek, perfektsionizmning talabalarning psixologik farovonligi va o‘quv faoliyatiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Perfektsionizm, talabalar, psixologik omillar, shaxsiy xususiyatlar, kognitiv jarayonlar, hissiy holatlar, ijtimoiy omillar, psixologik farovonlik, o‘quv faoliyati.

